OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ORIENTAL UNIVERSITETI

RECEP TAYYİP ERDOĞAN ÜNİVERSİTESİ

SELÇUK ÜNİVERSİTESİ

2007 KARABÜK ÜNİVERSİTESİ



INNOVATSION TADQIQOTLARDA O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

ELEKTRON TO‘PLAMI

TOSHKENT, 30-APREL 2025-YIL

Mas'ul muharrir:
N.A.Mamataxunov – tarix fanlari bo‘yicha PhD

Tahrir hay’ati a’zolari
Sh.Kamoliddin - Tarix fanlari doktori, professor
I.Bobojonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
I.Xo‘jaxonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Y.Cankaloğlu – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar
H.Hamidov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrasi professori, Tarix fanlari bo‘yicha doktori
J.Kamolov – O‘zMPU “Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur ilmiy to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Oriental universiteti “Tarix” kafedrasi tomonidan 2025-yil 30-aprel kuni tashkil etilgan “**Innovatsion tadqiqotlarda O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o‘rin olgan.

Unda ko‘zga ko‘ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarning Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy faoliyati tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o‘rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, pedagoglar, oliy o‘quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To‘plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas’uldir!

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 27-mart kuni bo‘lib o‘tgan 6-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2025



Аҳмадали АСҚАРОВ –
Ўзбекистон Фанлар Академиясининг энг кекса академиги, т.ф.д., профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, мустақил Ўзбекистонимизнинг қатор давлат орден ва медаллари совриндори, халқаро Турк Академиясининг Олтин медал соҳиби

БУРҒУЛУҚ ВА ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТЛАРИГА ХОС АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАР

Аннотация: *Мақола Тошкент воҳасидаги Бурғулуқ ва Қовунчи маданиятларинингасосий хусусиятларига бағишланган. Бурғулуқ маданияти (мил. аввал IX-IV асрлар) бронза ва илк темир даврига хос ўтроқ деҳқончилик маданияти сифатидатавсифланади. Унда қўлда ясалган сопол идишлар, хом ғиштдан қурилган уй-жой ва мудофаа иншоотлари кузатилади. Қовунчи маданияти (мил. аввал II –милодий VIII аср бошлари) эса уч босқичга бўлинади: Қовунчи-1, Қовунчи-2 ва Қовунчи-3. Бу маданиятда монументал меъморчилик, мудофаа тизимлари,кулолчиликдаги инновациялар ва металлургия ривожи кўзга ташланади. Шоштепа ёдгорлиги мисолида маданиятларнинг хронологик ва стратиграфиктаҳлили келтирилган. Шунингдек, маҳаллий аҳоли ва кўчманчи қабилаларнинг қаришиб, Қанғ давлати таркиб топиши ва ўзбек халқига хос антропологиктипнинг шаклланиши таъкидланади.*

Калит сўзлар: *Бурғулуқ маданияти, Қовунчи маданияти, Тошкентвоҳаси, бронза даври, илк темир даври, кулолчилик, хом ғишт, монументал меъморчилик, Шоштепа, Жетиасар маданияти, Сарматлар, Қанғ давлати,антропологик тип, металлургия, стратиграфия.***.**

Annotation: *The article is devoted to the main characteristics of the Burgulik and Qovunchi cultures in the Tashkent oasis. The Burgulik culture (9th–4th centuries BCE) is characterized as a sedentary agricultural culture of the Bronze and Early Iron Ages. It features hand-made clay vessels, dwellings, and defensive structures made of mudbrick. The Qovunchi culture (2nd century BCE – early 8th century CE) is divided into three stages: Qovunchi-1, Qovunchi-2, and Qovunchi-3. This culture is distinguished by monumental architecture, defensive systems, innovations in pottery, and advancements in metallurgy. The Shoshtepa site serves as an example for the chronological and stratigraphic analysis of these cultures. The article also highlights the interaction between local populations and nomadic tribes, the formation of the Kang state, and the development of the anthropological type characteristic of the Uzbek people.*

Keywords: *Burgulik culture, Qovunchi culture, Tashkent oasis, Bronze Age, Early Iron Age, pottery, mudbrick, monumental architecture, Shoshtepa, Jetiasar culture, Sarmatians, Kang state, anthropological type, metallurgy, stratigraphy.*

Аннотация: *Статя посвящена основным особенностям культур Бургулик ва Қовунчи в Ташкентском оазисе. Культура Бургулик (IX-IV века до н.э.) характеризуется как оседлая земледельческая культура эпохи бронзы и раннего железного века. В ней наблюдаются глиняные сосуды, изготовленные вручную, жилища и оборонительные сооружения из сырцового кирпича. Культура Қовунчи (II век до н.э. – начало VIII века н.э.) разделена на три этапа: Қовунчи-1, Қовунчи-2 и Қовунчи-3. В этой культуре отмечаются монументальная архитектура, оборонительные системы, инновации в гончарстве и развитие металлургии. На примере памятника Шоштепа приводится хронологический и стратиграфический анализ культур. Также подчеркивается взаимодействие местного населения и кочевых племен, формирование государства Канг и становление антропологического типа, характерного для узбекского народа.*

Ключевые слова: *Культура Бургулик, культура Қовунчи, Ташкентский оазис, эпоха бронзы, ранний железный век, гончарство, сырцовый кирпич, монументальная архитектура, Шоштепа, культура Жетиасар, Сарматы, государство Канг, антропологический тип, металлургия, стратиграфия.*

Тошкент воҳаси этномаданий тарихида Бурғулуқ маданияти минтақанинг энг сўнги бронза ва илк темир даври қадимги деҳқончилик маданияти сифатида маълум.

Бурғулуқ маданиятининг хронологик даврий санаси мил. авв. IX-IV асрларни ўз ичига олади. У икки босқичга бўлинади. Бурғулуқ-1 мил. авв. IX-VII асрлар, Бурғулуқ-2 эса мил. авв. VI-IV асрларга тегишли. Бу давр аҳолиси моддий маданиятида меъморчиликнинг бирор белгиси кўзга ташланмайди, аҳоли ер тўла шаклидаги кулбаларда яшайди. Кулолчилик маҳсулотлари қўлда, чархсиз ясалган дағал сопол идишлардан иборат. Уларнинг тури жуда чекланган: ости овал коса ва нимкосалар, қулоқсиз хумча ва кўзалар, қўшқулоқли кўза ва хурмачалар, новсимон жумракли қорни кенг хумчалардан иборат. Улар икки ярусли хумдонларда эмас, балки бир ярусли махсус қўраларда пиширилган. Идишларнинг сирти нимранг қизғич ангобли, мўрт. Маданият соҳибларининг асосини ўтроқлашган маҳаллий саклар ташкил этади. Бурғулуқлиларнинг сополлари шакли жиҳатидан қадимги Фарғонанинг Чуст ва Элатан маданиятлари кулолчилик маҳсулотларига ўхшаб кетади. Чуст маданиятининг сўнги босқичи ва элатан маданияти ёдгорликларида хомғиштдан уй-жой ва мудофаа иншоати қуриш пайдо бўлади. Чуст маданиятига тегишли хом ғиштларининг размери 55х30х10-12; 40-42х20х?см [1-Б. 228]. Шунингдек, Бурғулуқ маданиятининг Туябўғиз манзилгоҳларида ҳам хомғиштдан қурилган девор излари учратилган. Ғиштларнинг размери 40-43х24х12 см [2-Б. 449].

Бурғулуқ маданиятининг Бурғулуқ-2 босқичи қадимги Тошкент воҳасининг Шоштепа ёдгорлиги мисолида яхши ўрганилган. Ёдгорлик стратиграфияси Шош-1(мил. авв. VI-IV асрлар), Шош-2 (мил. авв. III аср), Шош-3 (мил. авв. II-I асрлар), Шош-4 (милодий I-III аср бошлари), Шош-5 (III аср бошлари-6 аср), Шош-6 (VII-VIII асрлар) босқичларга бўлинган. Агар Шоштепа даврий

босқичларини Қовунчи маданияти босқичлари билан қиёслаганда куйидаги манзарани кўриш мумкин: Шош-1=Бурғулуқ маданиятининг 2-этапига замондош, Шош-2 ўтиш даври, Шош-3=Қовунчи-1га, Шош-4=Қовунчи-2А га, Шош-5=Қовунчи-2Б га, Шош-6 эса Қовунчи-3 га хронологик жиҳатдан тўғри келади.

Аммо, ёдгорликнинг Шош-1 ва Шош-2 босқичларида қурилиш материаллари учрамайди. Улар фақат Шош-3 босқичида учрайди. Кулолчилик маҳсулотлари ва турар-жойлар характерига кўра, Шош-1 босқичи мутлақо Бурғулуқ маданиятига тегишли, Шош-2 босқичида, барча соҳаларда Бурғулуқ анъанаси давом этган ҳолда, керамика комплексида ўзга этник гуруҳларнинг таъсири кўзга ташланади [3-Б. 133]. Масалан, куйи Сирдарёнинг жетиасар маданиятининг таъсири. Булар паст бўйли қўшқулоқли кулранг-қора сопол қозонлар, ёлпоқ тубли бўйдор қулоқли кулранг-қора кўзалар ва бошқалар бўлиб, улар сармат қабилалари моддий маданиятига хос сополлар эди. Сарматларнинг жетиасар маданияти сиймосида Тошкент воҳасига кириб келиши Шоштепа стратиграфиясида мил. авв. III аср бошларига тўғри келади. Улар аста-секин маҳаллий Бурғулуқ аҳолиси билан қаришиб, Каунчи маданиятини таркиб топишига олиб келган. Демак, Шош-2 босқичи (мил. авв. III аср) Бурғулуқ маданиятидан Қовунчи маданиятига ўтиш даврини характерлайди. Айнан шу ўтиш даврида Қовунчи маданиятига хос элементлар (Туябўғиз манзилгоҳларида учратилган хомғишт девор излари ҳамда антропологик материаллар сериясида Жетиасар одамлари типи) пайдо бўла бошлайди. Шош-3 босқичи эса тўлиқ Қовунчи маданиятининг шаклланган давридир. Шош-3 комплекси, Шош-1 ва Шош-2 босқичларидан фарқли ўлароқ, ўзига хос компонентлар билан характерланади: 1). Моддий маданиятда меъморий-қурилиш массиви пайдо бўлади. 2). Моддий маданиятда оддий қишлоқдан тубдан фарқ қилувчи монументал мудофаа комплекси шаклланади. 3). Моддий маданиятда туб сифат ўзгаришлари юз беради. 4). Аҳоли таркибида кўп компонентли этник гуруҳлар қаришмаси асосида янги антропологик тип, яъни ўзбек халқига хос “Ўрта Осиё икки дарё оралиги типи”га асос солинади. 5). Шаклланган янги этнос етакчилигида ярим ўтроқ ва ярим кўчманчи қабилаларнинг ҳарбий-сиёсий давлат конфедерацияси, яъни Қанғ давлати таркиб топади.

Сирдарёнинг ўрта ҳавзаларида таркиб топган Қовунчи маданияти ўз навбатида учта хронологик босқичларга бўлинади:

1). Қовунчи-1, унга хос характерли хусусиятлар: инновация сифатида моддий маданиятда меъморий-қурилиш мажмуаси, монументал мудофаа иншоатлари пайдо бўлади, археологик комплекс таркибида туб сифат ўзгаришлари юз беради, маҳаллий аҳоли орасига чорвадор туркий тилли этник гуруҳларнинг кириб келиши жадаллашади.

Кулолчиликда тубдан ўзгаришлар юз беради: [4-Б. 72-74] керамика мутлақо қўлда ясалган, Бурғулуқ маданияти кулолчилик маҳсулотларидан фарқли ўлароқ, сопол идишларнинг ости текис, ялпоқ. Идишлар турининг кўпчиллиги тиниқ қизғич-оқиш ангобли, унинг устига тарам-тарам жигарранг ёки қора ранг оқизилган. Улар бўйдор хум ва хумчалар бўлиб, уларнинг бўйин қисми

торроқ, ёқасимон лаби бироз ташқарига қайрилган, баъзида елкасига хочсимон ёки қўшқават учбурчак шаклида тамға босилган.

Кўзалари бўйдор, бир дастали, баъзида дастаси ҳайвон қиёфасида ишланган. Даста қарама-қарши томонида кўзага жумрак ёпиштирилган. Бундай кўзалар сиртига қора рангда безак берилган, баъзида рангли нақш тўлқинсимон шаклда тасвирланган. Учунчи хил идишлар оғзи кенг ва ости текис хурмачалар бўлиб, уларнинг елкасига кичкина қўшалоқ даста ишланган. Устки қисмига худди кўзалардек рангли нақш берилган.

Керамика комплексида сопол қозонлар жуда кўп. Улар қўшқулоқли, қорни чиққан, сферик шаклда, қўпол, сирти қоп-қора, куйган. Уларнинг аланга теккан қисмлари жигарранг оч-қизғич кўринишда. Дастаси арқонсимон ёки қўчқор шохли ҳайвон қиёфада расмийлаштирилган. Бу типдаги сопол қозонлар сармат қабилаларининг прохоров маданиятининг бир қулоқли сопол қозонларига ўхшаб кетади.

Қовунчи -1 сополлари орасида зооморф дастали кружкалар кўплаб учрайди. Уларнинг қорн қисми шарсимон, елкадан юқориси бироз ташқарига қайрилган ёки тик кўтарилган. Кружкалар орасида цилиндрик шаклдаги нусхалари ҳам учрайди. Кружкалар дастасининг юқори қисми ҳайвон фигураси билан якунланган. Кенг тарқалган сопол идишлардан яна бири елкадан пасти конус шаклидаги косалар бўлиб, уларнинг оғзи кенг, ялпоқ туби торроқ, елкаси конуссимон танасидан ажраб туради. Баъзида улар орасида қўшқулоқли нусхалари ҳам учрайди.

Қовунчи-1 даврининг характерли сопол буюмларидан мустахара типидаги флягалар, сопол товалар, исириқдонлар ва пилта чироқдон, сопол қопкоклар, қозон туширғич-ших осғич товалар (шашличницы)ни кўрсатиб ўтиш мумкин. Ших осғич товаларнинг томонлари шохдор қўчқор бошисифат кўринишда тасвирланган. Уларда ҳайвонларнинг реал тасвири ифодаланган.

Қовунчи-1комплекси меҳнат ва ҳарбий қуролларининг асосини тош ёрғучоқлар, тошкели соплари, тўқимачилик дастгоҳининг осма тошлари, қайроқтошлар, полохмон тошлари, руда қазиш ва янчиш тош гурзилалари, кундалик турмуш буюмлари, таркиби ва материаллари турфа хил бўлган қимматбаҳо тошлардан ясалган тақинчоқлар ташкил этади. Бу даврда темирдан ишланган меҳнат ва ҳарбий қуроллар кенг ёйилган. Улар бир тиғли ёйсимон темир пичоқлар, ханжар, катта ва кичик хажмдаги уч парракли темир пайканлар, игна ва биғиз ҳамда тери ошлаш тошлари бўлиб, пайканларнинг асоси учи учли биғизсимон шаклда ясалган. Бундай темир пайканлар Ўрта Осиёнинг антик давр чорвадор қабилалари ҳамда сармат қабилаларининг жетиасар ва прохоров маданияти ёдгорликларида кенг тарқалган. Булардан ташқари, комплексда темир омоч тиши, қармоқ, занжир, от эгар-жабдугининг деталлари ва бел камарининг тўқалари кенг кўламда учрайди.

2). Қовунчи-2 комплексида монументал меъморчилик ва мудофаа тизими ривожланишда давом этади. Бу давр меъморчилиги комплексида Цитадел (Арки-Аъло) пайдо бўлади. Масалан, Шоштепада Шош-3 (Қовунчи-1) босқичи айлана девори устида янги (Шош-4=Қовунчи-2А) даврининг пахсадан қурилган тўғрибурчак шаклидаги Арки-Аълоси қад кўтаради.[3-Б. 59-60] Цитадел

деворлари қўшимча ички қурилмалар билан 4 метргача кучайтирилади, коридорлар хоналарга айлантирилади. Аммо, Қовунчи-2Б (Шош-5) даврида хоналар хом лойга тўлдирилиб, Цитадел ташқи девори ичида пахса платформаси ҳосил қилинади. Унинг устида Қовунчи-2Б даврининг қурилмалари, яъни пахса-ғиштдан тикланган янги монументал комплекс қурилади. Бу комплекс аввалги Цитадел ташки деворини қамраб олиб, тўғрибурчак шаклида маҳобатли янги Цитадели қад кўтаради. Натижада Цитаделнинг ташки девори 6 м.га қалинлашади, ташки девор устида кенг майдон ҳосил бўлиб, у жой, душмонга қарши полохмонтош отиш қурилмаси-механизми учун майдон вазифасини ўтаган.

Цитаделнинг турли горизонтларидан топилган сополлар: кўза ва хурмача, хум ва хумча, коса ва қопқоқ, това ва зооморф дастали кружка, новвосбошли қозон таг курсиларидан иборат бўлиб, [3-Б. 60-61] улар Тошкент воҳаси, Жанубий Қозоғистон ва Шимолий Фарғона водийсининг Қовунчи-2 босқичи ёдгорликларида кенг учрайди. Бу даврда айниқса сопол қопқоқлар тайёрлаш кенг кўламда ривожланади. Идишлар нақшида буртма-қабарик, бармоқ изли босма гуллар солиш авж олади. Улар идиш сиртига лой лента ёпиштириш асосида солинган нақшлар бўлиб, хатто арконсимон ёпишма гуллар кўза ва хурмача, кружка ва ших осғич товаларга ҳам ёйилган. Қовунчи-2 босқичи учун энг муҳим инновацион ўзгаришлардан бири кулолчиликка секин айланувчи қўл чархини кириб келиши бўлди. Натижада, аввалги кўпол ишланган идишлар ўрнини, эндиликда нисбатан хушбичим, юпқа идишлар ишлаб чиқариш эгаллади. Сопол идишлар комплексида аввал маълум бўлмаган, жетиасар маданиятининг милодий II-III асрлар комплексига хос кенг бўғизли, бўғзи тарам-тарам новли, бир қулоқли кўзалар пайдо бўлади [4-Б. 75-76]. Арқонсимон нақшли идишлар, айниқса кухна идишларда кўпаяди, улар орасида қора ва қизил ангоб билан пардозланган идиш хиллари кўпчилликни ташкил этади. Унинг устини қўйиқ ранг ёрдамида тарам-тарам гул билан қоплаш анъанага айланади. Кулолчиликда жетиасар таъсири кўзалар бўғзида тарам-тарам нақшларнинг пайдо бўлиши ва кўнгира (фестон) гулли жумракли идишларнинг кенг ёйилиши билан боғлиқ эди. Бундай идишлар IV-V асрларда кенг тарқайди [5-Б. 89].

Бу босқичнинг яна бир муҳим белгиси бўйдор хурмача ва кружкалар дастасини реал ҳайвонсифат шаклда расмийлаштириш кенг кўламда ривож топади. Сирти тўлқинсимон чизма нақшли бир дастали кўзалар пайдо бўлади. Илк бор лагансимон идиш ёки босма бармоқ изли гуллар солинган сопол дастурхонлар пайдо бўлади [3-Б. 61]. Бундай гулли стол-дастурхонлар Сўғд, қадимги Фарғона, умуман Мовароуннахрнинг VII-VIII асрлар керамикаси учун характерлидир.

Қовунчи-2 даврида металлургия ва металлни ишлаб чиқариш ривожланади. Масалан, Кулота Цитадели ва Шаҳристонида, Қовунчи-1нинг охири ва Қовунчи-2 даврида руда эритиш қўралари, руда бўлаклари ва тошқоллар учраган. Улар Кулотада полиметал (мис ва кумуш рудаси) эритиш билан боғлиқ устахоналар фаолият кўрсатганидан далолат беради. Кадовадтепа ёдгорлигининг металлургия устахоналарида цилиндр шаклида қурилган темир

руда эритиш қўралари бўлганлиги ҳақида материаллар бор. Бу устахоналарда темир қиличлар, бир тиғли пичоқлар, уч ва тўрт парракли темир пайканлар, от асбоб-анжомлари, қайиш камар тўқалари, бронза ойналари, турли хил тақинчоклар, олтин сирғалар, мўнчоқ ва туморлар, кумуш ва бронза узуклар, цилиндрик шаклдаги муҳрлар ишлаб чиқарилган. Мухрларнинг юзасида ҳайвон суратлари ва турли ўсимликлар тасвири солинган. Тошдан ёрғучоқлар, қўл тегирмон тошлари, тўқимачилик дастгоҳининг осма тошлари, урчуктошлар, қайроқтошлар, қимматбаҳо тошлардан ясалган мўнчоқлар қилиш кенг тус олган.

3). Қовунчи-3 комплексида монументал меъморчилик ва мудофаа тизими янада ривожланишда давом этади. Оташпарастлик ибодатхоналар комплексини қуриш ва улар қошида вағнзе мулкини ташкил этиш таркиб топади. Шаҳристон атрофи мудофаа деворлари билан ўраб олинади. Воҳанинг йирик шаҳарларида урбанистик жараёнларнинг жадаллашгани боис, шаҳарда иккинчи шаҳристон ҳам таркиб топа бошлайди. Масалан Қанкада.

Воҳада мил. авв. III асрдан эътиборан, деҳқончилик маданиятининг ривожланиши билан узвий боғлиқ ҳолда бошланган илк шаҳар ҳаёти хунармандчиликнинг турли соҳаларини юксалишига, табиий ер ости хомашё бойликларининг ўзлаштирилишга, биринчи навбатда, тоғ саноатини ривожланишига олиб келади. Қовунчи-2 давридан бошлаб (милодий I-минг йилликнинг бошларидан) мис ва кумуш, темир ва олтинга бой полиметалл руда конларини ўзлаштириш бошланади. Дастлаб уларни кончилар оддий усулда, ер юзасига чиқиб қолган пунктларда ўзлаштирадилар. Рудаларни эритиш дастлаб руда конлари яқинида олиб борилади. Секин-аста уларни ўзлаштириш учун махсус ихтисослашган пунктлар пайдо бўлади. Масалан, Шовгаз, Қадовадтепа, Тошбулақ, Кулота ва бошқалар.

Қовунчи-3 давридан бошлаб тоғ саноати иқтисодиятнинг асосий йўналишига айланади. Руда қазиш, янчиш, рудани махсус (диаметри 1-1,20 см) қўраларда эритиб, соф металл хомашёси олиш, ундан меҳнат ва ҳарбий қуроллар ясаш, шунингдек, тоғ саноатида меҳнат тақсимоти бошланади, яъни металлургия ишлаб чиқаришда ихтисослашиш жараёни жадал кечади. Оҳангарон водийсида металл ишлаб чиқаришга ихтисослашган шаҳарлар пайдо бўлади. Масалан, Тункет шаҳри. Воҳанинг ҳар бир катта ва кичик шаҳарларида, қишлоқларида металлургия билан боғлиқ ҳаёт қайнайди. Металлургия билан боғлиқ савдо-сотиқ ривожланади, танга пуллар зарб этиш йўлга қўйилади.

Кулолчилик соҳасида сиртига бироз пардоз берилиб, усти қисман дудланган қизил рангга бўялган кулранг сополлар кенг ёйилади. Олдинги босқичларга хос идиш турлари деярли сақланган ҳолда, керамика комплексида арқонсимон бўртма нақшли ва чекма гулли сополлар кўпаяди. Дастаси турлича сопол қопқоқлар, паст бўйли хурмачалар ясаш авж олади. Салмоқдор яхлит оёқли пилта чироқдон ва исириқдонлар пайдо бўлади. Ошхона билан боғлиқ асбоб-анжомлари таркибида шохдор қўчқор бошли қозонтширғичлар ўрнини новвос тумшуқ қозон таг курсилари эгаллайди.

Антик даврига хос (Қовунчи-1 ва Қовунчи-2 босқичларига хос) майда зооморф ва антромоорф сюжетли терракота ҳайкалчалар таркибида ҳам ўзгаришлар юз беради, яъни Қовунчи-3 даври қатламларида катта хажмли

ҳайкалсозлик, шунингдек, ибодатхона ва аслзодалар қасрлари мажмуаси безагида зооморф ва антромоорф сюжетли бўртма-қабарик скулптура фризлари (пирамон) пайдо бўлади. Масалан, Қанкадан топилган даҳшатли йиртқич тўнғиз қиёфада тасвирланган ҳайкал ёки Қанканинг илк ўрта асрларга тегишли шимолий тепалигидан топилиб, ғишт-тахтача юзасига ишланган бўртма терракота ҳайкалчани олайлик. Терракотада 34х16 см хажмда тик турган аёл тасвири ишланган. Унинг бошида тож, эгнида қалқон. Аслида бу ҳайкалча эллинлар таъсирида ишланиб, унда қанотларини ёйиб турган афсонавий Ўғизхон маликаси тасвирланган (Ю.Ф.Буряков унда юнон худоси Артамида тимсолини кўради.). Скульптурада аёлнинг овалсимон чўзинчоқ юзига монан бодом қавоқ кўзлари ва бироз оғзини очиб, табассум билан боқиб туришини кўриш мумкин. Ҳайкалча сал қирғийбурун, тангаларидаги Чоч малики тасвирига ўхшаб кетади. Унинг кичкина қулоқларида ҳалқасимон узук, енгил кафтан устидан қалин оғир матодан накидка ёпинган. Кийимининг этагига чопиб бораётган эчки тасвири ишланган, оёқларида қўнжи қайрилган махси, қўлларида уд (лютня) типидаги музика асбоби. Бу ноёб топилма Чоч маликлари саройи пештокига ишланган терракот скультуралар фризининг бир бўлаги бўлиши мумкин. Бу ноёб санъат асарини топилган жойига кўра, унинг даврий санасини милодий I-минг йилликнинг ўрталари билан белгилаш мумкин [6].

Қанкада овал шаклида терракот плакетка (тахтача) топилган, унинг юзасида арка остида ўлтириб, қўлида уд типидаги музика асбобини тутган аёл киши тасвири ўз аксини топган. Бу ҳам айнан шу даврга тегишли.

Қанкадан яна бир терракот плакетка топилган бўлиб, плакеткада найзасимон арка остида қўлида ўқ-ёй тутган суворий тасвирланган. Скульптур-мусаввир суворийнинг олдинга қаратиб тасвирлаган. Унинг фигураси отдан каттароқ, суворий от устида тик ўлтирибди, сал узунчоқ юзи, ичига кириб кетган, чўққи соқолли. Бошида дурлар билан безатилган диадема-уч шоҳли жиғали тож, сал букилган ўнг қўлида найза, чап қўлида эса тизгинни тутган. Эгнида чакмон ёки совут, суворийнинг танаси орқага, оёқлари эса олдинга қаратилган. Кичик бошли дашт отининг тўртала оёқлари аниқ кўрсатиб тасвирланган. Бундай терракот плакеткалар V-VI асрга тегишли ёдгорликларда учрайди [7-Б. 59-60].

Қовунчи-3 даври комплексларида цилиндрик шаклдаги терракотик муҳрлар ҳам учрайди. Уларнинг ичига ўйилган юзасида ўсимликлар ва эчки фигураси, шоҳлари орқага қайрилган ҳолатда тасвирланган.

Мархумларни кўмиш қурилмалари қаторида ер ости тош камералари ҳамда пахса ва хомғиштлардан ер юзасига қурилган соғаналар (склеплар) пайдо бўлади. Сағаналарда мурдалар учун махсус супалар қилиниб, улар устига ўликлар ётқизилган, камера полларига эса қабр инвентарлари қўйилган. Айнан шу даврда Оҳангарон водийсида мархумларнинг суякларини этидан тозалаб, остадонларга солиб кўмиш удуми илк бор пайдо бўлади.

Қовунчи маданияти ва унинг босқичларини даврий саналари масаласида мутахасислар орасида мунозарали бахслар мавжуд. Масалан, Г.В.Григорьев Қовунчи маданиятини икки босқичга бўлади. У Қовунчитепани куйи қатламларидан темир предметлари учрамагани боис, Қовунчи-1 босқичини

бронза даврининг якунловчи даври билан, яъни мил. авв. II- минг йилликнинг охири ва I-минг йилликнинг бошлари билан белгилайди. Қовунчи-2 археологик комплексининг архаик характерига кўра, мил. авв. I-минг йилликнинг ўрталари билан белгилайди ва унинг асосида сак қабилалари маданияти ётишини таъкидлайди [8-Б. 39].

А.И.Тереножкин Қовунчи комплексини усун маданияти билан замондош эканлигини таъкидлаб, дастлаб уни мил. авв. I-минг йилликнинг биринчи ярмига тегишли деб топди [9-Б. 86-87], кейинроқ эса Қовунчи-1 босқичини мил. авв. II-I асрлар билан белгилади [10-Б. 84-86]. Жун комплексини эса милодий II-IV асрларга тегишли деган хулосага келади [10-Б. 159-160]. С.П.Толстов Қовунчи-I босқичини милодий I-II асрлар, Қовунчи-2 ни эса II-IV, эхтимол V-VI асрларга тегишли эканини таъкидлайди [11-Б. 175-176]. Б.А.Литвинский эса Қовунчи маданияти ёдгорликлари орасидан жун комплексини ажратиб олиб, уни мустақил Жун маданияти сифатида тавсифлайди [12-Б. 29-37] ва уни даврий санасини милодий III-IV асрлар билан белгилайди [13-Б. 101-102].

Т.Г.Оболдуева Қовунчи маданиятини милодий эра бошларига тегишли ҳисоблаб, унга Сирдарё ҳавзасидаги Суғд маданиятининг маҳаллий варианти деб қарайди. Л.М.Левина эса жун ёдгорликларини Қовунчи маданиятининг варианти сифатида қараб, жун комплексини Қовунчи-2 комплексига қўшиб юборади ва Қовунчи маданиятини уч босқичга бўлади. У таклиф этган даврий санада Қовунчи-1=мил. авв. I-милодий III, Қовунчи-2=милодий IV-V, Қовунчи-3=милодий VI-начало VIII асрларга тегишли эканини асослайди.

Ю.Ф.Буряков Қовунчи маданиятини уч босқичга бўлинишини тан олган ҳолда, Қовунчи-1 босқичини мил. авв.II-милодий II асрлар, Қовунчи-2 босқичини милодий II-IV, Қовунчи-III босқичини эса милодий IV-VI асрнинг биринчи ярми билан белгилайди [4-Б. 79]. Бу масалада М.И.Филанович томонидан Шоштепа олиб борилган стратиграфик кузатувлар бизнингча тарихий ҳақиқатга яқиндир. Масалан, Шоштепа стратиграфиясида Шош-1(мил. авв. VI-IV асрлар), Шош-2 (мил. авв. III аср), Шош-3 (мил. авв. II-I асрлар), Шош-4 (милодий I-III аср бошлари), Шош-5 (III аср бошлари-6 аср), Шош-6 (VII-VIII асрлар) босқичларга бўлинган. Агар Шоштепа даврий босқичларини Қовунчи маданияти босқичлари билан қиёслаганда куйидаги манзарани кўриш мумкин: Шош-1=Бурғулуқ маданиятининг 2-этапига замондош, Шош-2 ўтиш даври, Шош-3=Қовунчи-1га, Шош-4=Қовунчи-2Ага, Шош-5=Қовунчи-2Бга, Шош-6 эса Қовунчи-3га хронологик жиҳатдан тўғри келади. Мана шу стратиграфик схемадан келиб чиқиб Қовунчи маданияти босқичларини абсолют даврий саналарини куйидагича тасаввур этиш мумкин: Қовунчи-1босқичи даврий санасини мил. авв. II-милодий II аср бошлари, Қовунчи-2 милодий II – IV асрлар, Қовунчи-3 милодий V-VIII аср бошлари билан белгилаш мумкин.

2012 йилда Оҳангарон водийсининг Суйирлитепа ибодатхонасининг юқори қатламларини стратиграфик кузатув вақтида маълум бўлдики, ибодатхона арабларнинг (лашкарбоши Кутайба бинни Муслимнинг) Ўрта Осиёга ҳарбий юришлари даврида вайронага учраган, яъни босқинчилар бу оташпарастлик ибодатхонасига ўт қўйиб ёқиб юборган. Шундан сўнг ибодатхонанинг фаолияти тўхтаган. Чунки 1 м. дан ортиқ ёнғин қатлами устига икки-уч қатор

хомғиштлар терилиб, улар устига ғишт парчалари аралаш қалин тупроқ ташланиб шиббаланган. Шиббаланган тупроқ орасида илк ўрта асрлар даврига (VII-VIII асрлар) тегишли сопол синиқлари ва бирнеча бўлак сирли сопол парчалари учратилди. Бу шиббаланган қатлам устига бир қатор Сомонийлар даврининг квадрат пишиқ ғиштлари терилган эди. Ибодатхона вайроналари устида кузатилган бу манзара Қовунчи-3 босқичининг юқори чегарасини VIII аср бошлари билан белгилашни тақазо этади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана. СА, 1972, №3, с.320.
2. Дуке Х. Исследование в зоне Туябугузского водохранилища. АО 1980 года. 1981, с.550.
3. Филанович М.И. Ташкент: зарождение и развитиегорода и городской культуры. Ташкент, 1983, с.300.
4. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развитиягородской культурыТашкентского оазиса. Ташкент, 1982, с.425.
5. Левина Л.М. Керамика и вопросы хронологии памятников джетыасарской культуры. В сб. Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. М. 1966, с. 223.
6. Абдуллаев К. Уникальная находка терракотового фриза. ОНУ, № 2, 1974.
7. Мешкерис В.А. Коропластика Согда. Душанбе, 1977, с. 255.
8. Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Узбекской ССР в1934 г. Ташкент, 1935, с. 175.
9. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. «Изв. УзФан СССР» Ташкент, 1940, с. 325.
10. Тереножкин А.И. Согд и Чач. КСИИМК, вкп. XXXIII, М., 1950, с. 560.
11. Толстов С.П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепа. ВДИ, №1, 1946, с. 600.
12. Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы. СА, № 2, 1967, с.190.
13. Оболдуева Т.Г. Курганы каунчинской и джунской культуры. КСИИМК Вып. 23 М-Л, 1948, с. 450.



Dr. Nozim MAMATAXUNOV
Oriental universiteti rektori
(O‘zbekiston)

IYODIY OLIMLAR ILMIY MEROSINING TASNIFI

Samarqandda va Movarounnahrning boshqa ilmiy markazlarida ham – kalom ilmi bilan bog‘liq harakatlar dars halqalari, shogirdlar va ustozlar orasidagi mustahkam ilmiy rishtalar orqali uzoq yillar davomida uzluksiz bardavom bo‘lib kelgan. Ya’ni, bu harakat Abu Bakr Ahmad ibn Is’hoq Juzjoniy va uning shogirdlari Abu Nasr Iyodiy, Muhammad ibn Yamon Samarqandiy (vaf. 881 y.) va boshqa shu kabi buyuk ulamolarning mehnatlari sabab kuchli ilmiy maktabga aylangan. Movarounnahrda hanafiy aqidasining tarqalishida o‘ziga xos o‘rin tutgan olim – Abu Nasr Iyodiy iyodiylar oilasining eng katta vakili hisoblangan. Manbalarda Abu Nasr Iyodiy haqida turli ma’lumotlar kelgan. Ba’zi tadqiqotchilar uni o‘sha davrdagi “Daru-l-juzjoniya” maktabi vakili sifatida keltirishgan. Turk tadqiqotchilari esa, Abu Nasr Iyodiyni “Daru-l-iyodiya” vakili ekanini ta’kidlaganlar. Bizning fikrimizcha, Abu Nasrning “Daru-l-iyodiya” aqidaviy maktabining vakili sifatida bilish biroz mulohazali holatdir.

Ma’lumki, Abu Hanifaning fiqhiy qarashlari asosan uning shogirdi bo‘lgan Muhammad ibn Hasan Shayboniy tarbiyalagan shogirdlar tomonidan Xuroson va Movarounnahrga olib kelingan. Bunda ikki yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, Shayboniyning shogirdi bo‘lgan Abu Hafs Kabir Buxoriy tomonidan Buxoro shahrida ilmiy markaz tashkil etilib, Shu yerda hanafiy fiqhi ta’lim berilgan va shogirdlar tayyorlangan. Keyinchalik bu Buxoro fiqh maktabi sifatida tan olina boshlagan. Ikkinchisi, Shayboniyning shogirdi Abu Sulaymon Juzjoniy Xurosonga kelib, hanafiy mazhabini tarqatadi. Uning qo‘lida tarbiyalangan Abu Bakr Juzjoniy keyinchalik Samarqandga kelib, Darul Juzjoniyada ushbu mazhab ta’limotlaridan dars bera boshlaydi. Keyinchalik bu Samarqand fiqh maktabi sifatida e’tirof etila boshlaydi.

Shunday qilib, Movarounnahrda hanafiy mazhabi bo‘yicha ikki fiqhiy maktab yuzaga keladi. Buxoro maktabida tarbiyalangan olimlar asosiy e’tiborni har doim

fiqhga qaratishganligi bilan ajralib tursa, Samarqand maktabida tarbiyalangan olimlar fiqh bilan bir qatorda aqoid ilmiga ham chuqur kirganliklari bilan ajralib turar edi.

Shu sababli Iyodiylar oilasi vakillari hamda Abu Mansur Moturidiyning ham fiqh, ham aqoid ilmlari bilan shug‘ullanganliklarini va ikki sohaga oid qarash va risolalar yozganliklarini ko‘rish mumkin.

Ammo bunda shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, U.Rudolf Samarqand maktabiga aqoid ilmining aralashishida Abu Bakr Juzjoniyning o‘rni bor degan fikrga qo‘shilmaydi. Aksincha, u Abu Bakr Juzjoniy faqat fiqh ilmini o‘rgatgan va Abu Nasr Iyodiy, Abu Mansur Moturidiy va Abu Nasr Haddodiylarni faqih sifatida tarbiyalagan degan fikrni bildiradi. Tadqiqotchi A.Mo‘minovning ta’kidlashicha, Samarqandda aqoid ilmining keng tarqalashiga asosiy turtki bo‘lgan shaxslar bu Abu Muqotil Samarqandiy va Abu Bakr Samarqandiylar bo‘lishgan.

IX-X asrlar hanafiy mazhabining Movarounnahrda shakllanish davri bo‘lgan. Shu sababli bu davrda hanafiy mazhabi vakillari mazhab asoschilarining qarashlarini o‘zlashtirish hamda asosiy tushunchalarni ishlab chiqishga e’tibor qaratishgan.

Manbalarda Iyodiylar oilasi vakillaridan, asosan Abu Ahmad Iyodiyning qarashlari zikr qilinadi. Ammo iyodiylarning fiqhiy qarashlari XII asrda yozilgan asarlardagina uchratilgan. X-XI asrlarda yozilgan asarlarda iyodiylarning fiqhiy qarashlariga tadqiqot davomida duch kelinmadi.

Iyodiylarning fiqhiy qarashlarini naql qilgan kishilar asosan Alouddin Kosoniy, Qoziyxon va boshqalar bo‘lishgan.

Iyodiylarning fiqhiy qarashlarini quyida birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Abu Nasr Iyodiy asosan fiqh ilmi bilan shug‘ullangan bo‘lsa ham uning bu boradagi qarashlari deyarli fiqhiy kitoblarda alohida ko‘rsatilmagan. Shunday bo‘lsa ham uning faqat masjidlarda tilanchilik qilishni xush ko‘rmaganligi va “Masjidda tilanchilik qilgan kishini chiqarib yuborgan kishini Alloh gunohini kechirar”, degan gapi fiqh kitoblarida zikr qilingan.

Abu Nasr Iyodiyning katta o‘g‘li Abu Ahmad Nasr ibn Ahmad Iyodiy ham fiqh ilmida o‘ziga xos mavqe’da bo‘lgan. Manbalarda Ustrushona olimlarining Abu Ahmad Iyodiyni Samarqandning eng ko‘zga ko‘ringan faqihi deb bilishganligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari manbalarda har doim Abu Ahmad Iyodiy “Faqih” laqabi bilan zikr etib kelingan.

Manbalarda Abu Ahmad Iyodiyning Muhammad ibn Hasan Shayboniyning asarlarini rivoyat qilganligi va Samarqandda dars berganligi naql qilingan. Jumladan, uning Abu Salama Muhammad ibn Muhammad Samarqandiyga Shayboniyning kitoblarini o‘rgatganligini va Samarqandiyning Abu Ahmad Iyodiydan rivoyat qilganligi ma’lum. Uning manbalarda saqlanib qolgan hanafiy fiqhining rivojidagi qarashlari quyidagilardir:

Birinchidan, Abu Ahmad Iyodiy birinchilardan bo‘lib, namozlarni qasr (qisqartirib) o‘qish masalasini oydinlashtirish uchun turar joy masalasini ko‘rib chiqishni o‘rtaga tashlaydi. U turar joyni vatani qaror, ya’ni yashab turgan joy va vatani musta’or, ya’ni boshqa shaharga borib muayyan muddat yashab turadigan joy shaklida ikkiga ajratadi. Bu namozni qasr o‘qish masalasini tushuntirishni yengillatar edi. Zero, vatani qarordan vatani mustaorga qarab yo‘lga chiqilganda namoz qasr o‘qiladi deb, aniq ifodalash mumkin bo‘ladi.

Keyinchalik faqihlar Abu Ahmad Iyodiyning ushbu fikrini rivojlantirib, turar joyni 3 guruhga bo‘lishgan. Jumladan, Alouddin Kosoniy turar joy masalasini bayon etar ekan, uni 3 guruhga bo‘ladi: vatan asliy – bu kishi yashab turgan joy; vatan iqoma – bu 15 kundan ortiq yashab turish mo‘ljallangan joy; vatan sukno – bu 15 kundan kam muddat yashab turish mo‘ljallangan joy.

Ikkinchidan, namozning o‘qilish vaqti masalasida hanafiy mazhabi asoschilari umumiy vaqt va afzal vaqt sifatida belgilab berishgan bo‘lib, afzal vaqt har namozda turlicha bo‘lgan. Masalan, bomdodni tong yorishganda, peshinni yoz paytida kechiktirib, qish paytida vaqt kirgan paytda, asrni quyosh yorug‘ligi o‘zgarmaguncha kechiktirish, shomni tezlatish, xuftonni qish paytida kechiktirish, yozda tezlatish afzal deb bilingan. Abu Hanifaning shogirdlaridan Hasan ibn Ziyod Lu’lu’iy Abu Hanifadan barcha namozlarni kechiktirib o‘qish afzal degan qarashni naql qilgan. Abu Ahmad Iyodiy ham ushbu fikrga qo‘shilib, namozni kechiktirib o‘qish afzal deb bilgan. U o‘zining bu fikrini shunday asoslagan: «Kechiktirib o‘qilsa qazo bo‘ldimi yoki ado bo‘ldimi degan masalada ikkilanish yuzaga kelishi mumkin. Tezlatib o‘qilsa namoz o‘z vaqtida o‘qilib joiz bo‘ldimi yoki vaqtidan ilgari o‘qilib fosid bo‘ldimi degan masalada ikkilanish yuzaga keladi. Shunga ko‘ra kechiktirib o‘qish avloroqdir».

Uchinchidan, namozda ka’baga yuzlanish shart hisoblanadi. Ma’lumki, ka’baning yonida Maqomi Ibrohim nomli joy ham bor. Umumiy qoidaga binoan namoz ka’baga yuzlangan holda o‘qilishi lozim. Shofeiy mazhabiga ko‘ra hatto to‘liq ka’baga yuzlanmasa namoz to‘g‘ri o‘qilmagan hisoblanadi. Hanafiy mazhabi ulamolari Makkadan uzoqda bo‘lgan kishilarning ka’ba tomon yuzlanishini ushbu shartni amalga oshirgan deb hisoblashga asos bo‘ladi deb bilishgan. Samarqand ulamolari o‘rtasida bir kishi ka’baga emas, Maqomi Ibrohimga yuzlanib o‘qisa namozi to‘g‘ri bo‘ladimi, degan masala tug‘iladi. Buni Abu Ahmad Iyodiy shunday izohlab beradi: “Agar kishi ka’bani ziyorat qilmagan bo‘lsa joiz bo‘ladi. Zero uning nazdida Maqomi Ibrohim ka’baning bir qismi sifatida bilinadi. Agar ziyorat qilgan bo‘lsa joiz emas. Zero u ka’baning Maqomi Ibrohimdan boshqa ekanligini biladi.” Bu qarash keyinchalik fiqhiy asarlarga masalaga oydinlik kirituvchi javob sifatida kiritilgan.

Abu Nasr Iyodiyning kichik o‘g‘li Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Iyodiy (vaf. 971 y.) ham buyuk faqih bo‘lgan. Shu sababli u Samarqandda barcha fiqhiy masalalar bo‘yicha oxirgi xulosalarni bera oladigan *rais*lardan hisoblangan. [1-Б. 111]

Abu Nasr Iyodiy Abu Mansur Moturidiyning asosiy ustozlaridan hisoblangan. [2- S. 269] Abu Nasr Iyodiyning to‘liq ismi Ahmad ibn Abbos ibn Husayn ibn Jabala ibn G‘olib ibn Jobir ibn Navfal ibn Iyod ibn Yahyo ibn Qays ibn Sa’d ibn Uboda Ansoriy *(Sa’d ibn Uboda Ansoriy sahobalardan, Madinadagi hazraj qabilasining reshvosi sanalgan)* [3- Б. 356] Faqih Samarqandiy bo‘lib, fiqh ilmini Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniydan o‘rgangan. Abu Nasrning ikki o‘g‘li – Abu Bakr Iyodiy bilan Abu Ahmad Iyodiy fiqh ilmini otasidan o‘rgangan. Abu Nasr Iyodiy “Daru-l-juzjoniya”da Abu Bakr Juzjoniy bilan birga bosh mudarris bo‘lib faoliyat olib borgan.

Tarixchi olim Idrisiy “Tarixi Samarqand” asarida Abu Nasr Iyodiy haqida so‘z yuritib, u ilm ahlidan bo‘lib, jiddu jahdi zo‘r olim edi, deb ta’kidlagan. U Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Asad ibn Somon davrida Turk diyorida dushmanlar tomonidan shafqatsizlarcha qatl etilgan. [4- Б. 101]

Moturidiya ta’limotining mashhur vakili – Abul Mu’in Nasafiy ushbu olim haqida shunday ta’riflagan: “Movarounnahr diyorida Abu Nasrga o‘xshaydigan va unga ilmda, taqvoda, kitobatda, jasorat va bardoshda teng keladigan biror kishi bo‘lmagan. Abu Nasr Iyodiy islom uchun bo‘lgan kurashda bardavom edi. U o‘z zamonasining eng shijoatli, bosiq kishilaridan edi. Abu Nasr ilmda misli tubi ko‘rinmas dengiz bo‘lib, usulda va furu’da barchaga imom edi. Uning “sifat” masalasiga oid bir kitobi bo‘lgan. Ushbu kitobdan o‘rin olgan mo‘taziliya va najjoriya fikrlariga qarshi raddiyalari hamda ahli sunna val jamoa fikrlari sahihligi borasida keltirgan dalillari uning naqadar buyuk olim bo‘lganidan dalolat beradi”. [5-]

Abul Qosim Hakim Samarqandiy Abu Nasr haqida shunday degan: “Faqih Abu Nasr Iyodiydan boshqa Qur’on oyatlarini dalil qilib munozara va jadalda bid’at ahllarini mag‘lub qilgan faqihni ko‘rmaganman. Uning ilmi orqali olim bo‘lganlar soni qirqdan oshiq bo‘lib, ularning eng etakchisi Abu Mansur Moturidiy edi”. [6- Б. 356]

Abu Nasr Iyodiy (vaf. 889 y.) Abu Bakr Juzjoniy vafotidan keyin “Daru-l-juzjoniya”ning eng kuchli vakili sifatida e’tirof etilgan. Juda zehnli va sabrli bo‘lganidan yigirma yoshidanoq ta’lim ishlarida ulamolar rahbari lavozimida faoliyat olib borgan. Usul va furu’ ilmida “o‘z davrining imomi” deb e’tirof etilgan. [7- B. 160б] Samarqandda bir qancha fikriy muxolifat vakillari bilan bahs-munozaralar olib borgan va hanafiy aqidasini muvaffaqiyatli himoya qila olgan. [8- Б. 356-357]

Shunisi ahamiyatliki, “Daru-l-juzjoniya”da faoliyat olib borgan jamiki ulamolar rasmiy lavozimlardan yiroq yurganlar va Samarqand chekkasida oddiy xalq orasida yashab ijod qilganlar. Abu Nasr esa ustozlaridan farqli o‘laroq, somoniylar amiri Nasr ibn Ahmad bilan juda yaqin aloqada bo‘lgan. Shu tufayli u yigirma yoshida ta’lim ishlari boshlig‘i va Samarqandga qozi etib tayinlangan. [9- S. 106] Abu Nasrning mansabga intilishi, uning somoniylar siyosatidan ta’sirlanganidan dalolat beradi. Chunki somoniylar 876-yilda Tohariylar davlati tobeligidan ozod bo‘ladi. Somoniylar bevosita abbosiylarga tobe hisoblangan bo‘lsa-da, ammo o‘zlarining ichki ishlarida mustaqil bir davlat holiga kelgan edilar. Davlatning ilk amiri Nasr ibn Ahmad zohidona hayot kechirgan va hokimiyatni mustahkamlash uchun ta’lim ishlariga va ilmiy safarlarga katta ahamiyat bergan. Ushbu ishlarni bajarishda Abu Nasrning shijoatidan unumli foydalangan. [10- B. 160б]

Abu Nasr Iyodiy bevosita Imom Moturidiyning eng asosiy ustozlaridan biri hisoblangan. Abul Mu’inning “Tabsiratul adilla” asarida Moturidiy haqida keltirilgan yana bir rivoyat uning islom olamida ilmiy mavqei juda katta bo‘lganidan dalolat beradi. Asarda ta’kidlanishicha, agar Abu Mansur Moturidiy ustozi Abu Nasr Iyodiyning darsida ayrim sabablarga ko‘ra ishtirok etmay qolsa yoki kechiksa, hatto, ustozi o‘z shogirdiga nisbatan cheksiz hurmati va muhabbatining izhori sifatida o‘sha darsda Moturidiy hozir bo‘lmaguncha biror so‘z ham aytmas ekan. Agar u Moturidiyni uzoqdan bo‘lsa-da, darsga kelayotganini ko‘rib qolsa, hursandligidan taajjub bilan unga tikilib qolar va Qur’ondan “Qasos” surasi, 68-oyati: “*Rabbingiz*

*O‘zi xohlagan narsani yaratur va (xohlagan ishni) ixtiyor qilur”*ni o‘qir edi”. [11- Б. 84]

Manbalarda ta’kidlanishicha, Somoniy amirlarning chiqargan qonunlarini tatbiq qilish uchun Qozi Abu Nasr Iyodiy juma kuni yangi kiyim kiyib, otga mingan holda ushbu qonunlarni o‘zi xalqqa jar solib etkazgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abu Nasr somoniylar amiri bilan yaqin munosabatda bo‘lgan.

Hakim Samarqandiy Abu Ahmad Iyodiyning otasi Abu Nasr Iyodiyni qattiq hurmat qilgan va uni ko‘kka ko‘tarib maqtagan. Bunga misol tariqasida Abul Mu’in Nasafiyning “Tabsiratu-l-adilla” asarida Hakim Samarqandiy Abu Nasr Iyodiyni quyidagicha maqtov bilan tilga olganini misol keltirish mumkin: “Shayx Abul Qosim Hakim Samarqandiyning rivoyat qilishicha, Abu Nasr Iyodiyning oldiga turli adashgan firqalarning vakillari o‘zlarining noto‘g‘ri aqidalarini isbotlash uchun kelganlarida, albatta ular Iyodiyning kuchli dalil va isbotlaridan mag‘lub bo‘lib qaytar edilar. [12- Б. 356]

Ibn Zakariyo ham, Hakim Samarqandiydan farqli o‘laroq, Abu Ahmad Iyodiy haqida iliq fikrlarni bildirgan va uni ibodat masalasida mujtahid olim sifatida e’tirof etgan. [13- В. 160^{б}-161^{б}]

Turk tadqiqotchisi Axmet Ak shunday xulosaga keladiki, “Daru-l-iyodiya”ning vakillari somoniylar amiri bilan juda yaxshi munosabat o‘rnatganlar. Ushbu maktab vakillarining eng reshqadamlari sifatida Abu Ahmad Iyodiy va Hakim Samarqandiyni misol keltirish mumkin. Axmet Akning ta’kidlashicha, Hakim Samarqandiy somoniy amirining talabi bilan “Savodu-l-a’zam” degan asar yozgan va unda movarounnahrlik olimlar haqida ma’lumotlar keltirsa-da, Moturidiy nomini tushirib qoldirgan. Axmet Ak ushbu ma’lumotga tayanib, Hakim Samarqandiy Moturidiyni tan olmagan, degan xulosaga keladi. [14- Б. 110]

Bizning fikrimizcha, Hakim Samarqandiyning Abu Mansur Moturidiy faoliyatiga befarq bo‘lgani asossizdir. Chunki Abul Mu’in Nasafiy Hakim Samarqandiy Moturidiy vafotidan so‘ng uning qabri ustiga quyidagi maqtov so‘zlarini yozdirishga buyruq berganini rivoyat qilgan: “Ushbu qabr ilmlarni o‘z nafaslarigacha qamrab olgan, uni tarqatishda ko‘r zahmatlar chekkan, u qoldirgan meros ko‘r madh qilingan va o‘zining umr daraxtidan ko‘rlab mevalar tera olgan ulug‘ zotning qabridir”. [15- Б. 358]

Bizningcha, bu erda ilmiy hurfikrlilik mavjud bo‘lgan va barcha hanafiy ulamolar o‘rtasida katta g‘oyaviy raqobat ko‘zga tashlanmagan. Ularning asosiy raqiblari esa mo‘taziliya, najjoriya, murjiya kabi oqimlar bo‘lgan.

Boshqa bir olim Muhammad ibn Ibrohim Hosiriyning “Haviy fi al-fatavo”

Umuman olganda, iyodiylar oilasi vakillariga oid manba va ularning ilmiy merosini to‘rt guruhra ajratish mumkin. Birinchi guruhga kalom ilmiga oid bevosita X asrda Samarqandda yozilgan 4 asar kiradi. Ular:

1. Ularning birinchisi yagona nusxasi mavjud bo‘lgan «Sharh Jumal Usulu-d-din li Abi Salama Samarqandiy» asardir. Bu nusxa hozirgi kunda Istanbulda Sulaymoniya kutubxonasida Shahid Ali Rosha bo‘limida № 1648/II raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozma tarkibiga kiritilgan (18^{a}-168^{b}). A.S.Kilavuz ushbu asarni muallifi noma’lum deb hisoblagan. [16- Б. 5] Faqat asarning qo‘lyozma nusxasida muallifning otasi Ibn Zakariya Yahyo ibn Is’hoq shaklida ko‘rsatilib, uning Abu Nasr

Ahmad ibn Abbos Iyodiyda 15 yil davomida ta’lim olganligi ko‘rsatilgan. [17- B. 161б -163а] Bunga ko‘ra, asarning muallifini hozircha Ibn Yahyo deb atab, uning sharhini X asrda Samarqandda yozilgan asarlar tarkibiga kiritish mumkin. Bu asarda, asosan, Moturidiy, Rustug‘faniy, Abu Bakr Iyodiy, Hakim Samarqandiy va Abu Bakr Varroqlarning qarashlari bayon etilgan.

2. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Iyodiyning “*Bayan asl mazhab ahl sunna va-l jamoa* (ikkinchi nomi “*Ashar masail min asl din*”)” asari Muhammad ibn Ibrohim ibn Anush Hasiriyning (vaf. 1107 y.) “*Haviy fi-l-fatovo*” asari ichida bizgacha etib kelgan. Hasiriy asli buxorolik bo‘lib, ustozi Shams aimma Muhammad ibn Abi Sahl Saraxsiy (vaf. 1088 y.) surgun qilinishi munosabati bilan Samarqandda biroz muddat yashagan. Ushbu matn Abu Salama Samarqandiy rivoyati bilan Muhammad ibn Valid Zohid Samarqandiy (IX asr)ning “*Jome’ as-asg‘ar*” asari bilan birga Hasiriyga etib kelgan. [18-B. 251 a-б]

3. Anonim muallifning “*Sifatu-s-sunna va-l-jamoa*” asari ham avvalgi asar bilan birgalikda bizgacha etib kelgan. [19- B. 252а] Ushbu asarning avvalgi asarga o‘xshashligi va bir roviy orqali naql qilinganligini inobatga olib, uni Iyodiyalarga oid bir asar degan taxminni ilgari surish mumkin.

4. Abu Hasan Ali ibn Sa’id Rustug‘faniyning (vaf. 961 y.) “*Favoid Rustug‘faniy*” asari. Uning bir qismi Ahmad ibn Muso Koshoniyning (vaf. 1155 y.) “*Majmu’-l-havodi-s va-n-navozil*” asarining ichiga kiritilgan. [20-B. 285б -317б]

Ikkinchi guruhga Samarqand ulamolarining qabristoni bo‘lgan Chokardizadan torilgan qabr toshlaridagi yozuvlar kiradi. Ularning barchasining soni 100 rarchadan ko‘rroqdir. Ularning bir qismi L.Dodxudoeva tomonidan nashr etilgan. [21-Ж.1.] Qiymatli va muhim ma’lumotlarga ega 37 rarchadan iborat ikkinchi qismi 2000 yil arxeologik qazishmalar chog‘ida torilgan.

Uchinchi guruhga ikki tarixiy bibliografik asar kiradi. Abu Hafs Umar Nasafiyning (vaf. 1142 y.) “*Qand fi zikr ulamo Samarqand*” kitobining bizgacha etib kelgan qismida samarqandlik 1010 olimning tarjimai holi ko‘rsatilgan. Mazkur asarning har ikki nashari ham noqis holda nashr etilgan. Saudiyadagi nasharida juda ko‘r xatolar va haqiqatdan yiroq ma’lumotlar bor. [22] Eronda qilingan nasharida esa noshir Yusuf Hodiy Turkiya (Sulaymoniya, Turxonvolida, №70, 1^b – 198^b) nusxasi va Rarij (Arabe № 6284, 1^a – 75^b) nusxalarini kodikologiyaga zid ravishda birlashtirgan. [23]

To‘rtinchi guruhga Buxoro atrofida X asrda yozilgan ikki qo‘lyozma kiradi. Bular Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad Subazmuniyning (vaf. 952 y.) “*Kashf al-asror fi manoqib Abi Hanifa*[24- B. 3105]” nomli asari va Zohid olimlar orasidan chiqqan Yahyo ibn Ali Zandavisatiy (vaf. 992 y.)ning “*Ravzat al-ulamo*” asarida Samarqand zohidlariga oid juda ko‘r ma’lumotlar to‘rlangan. [25-B. 2972]

Abu Nasr Iyodiy Movarounnahrda hanafiy aqidasining shakllanishi va moturidiya ta’limotining yuzaga kelishida katta xizmat qilgan. Manbalarda moturidiya kalom maktabi tarixi haqida so‘z ketganda, iyodiylar sulolasi alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Муминов А. Роль и место ханафитских ‘уламā’ в жизни городов центарльного Мавараннахра (II-VII/VIII-XIII вв.): Дис. ... док. ист. наук. – Т.: ТИУ, 2003. – Б. 111.
2. Kutlu Sönmes. Turklerin Islamlaşma Suresinde Murçie ve tesirleri. – Ankara: 2000. – S. 269.
3. Абул Муъин Насафий. Табсират ал-адилла фи усул ад-дин. II жилдли. К. Салома нашрга тайёрлаган. – Дамашқ: 1990-1993. – Ж. 1. – Б. 356.
4. Аҳмад ибн Авазуллоҳ Ҳарбий. Ал-Мотуридия: диросатан ва тақвиман. – Ар-Риёд: Дар ас-самий, 2000. – Б. 101.
5. Абул Муъин Насафий. Табсират ал-адилла фи усул ад-дин. II жилдли. К. Салома нашрга тайёрлаган. – Дамашқ: 1990-1993. – Ж. 1. – Б. 356-357.
6. O‘sha asar. – Б. 356.
7. Ибн Закариё. Шарҳ жумал усул ад-дин ли Аби Салама ас-Самарқандий. Қўлёзма. Туркия. Сулаймония кутубхонаси. Шеҳид Али Паша бўлими. Инв. 1648/3. – В. 160б.
8. Абул Муъин Насафий. Табсират ал-адилла фи усул ад-дин. II жилдли. К. Салома нашрга тайёрлаган. – Дамашқ: 1990-1993. – Ж. 1. – Б. 356-357.
9. Ahmet Ak. Büyük Türk Âlimi Mâturîdî ve Mâturîdîlik / Monografiya. – İstanbul: İnönü Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2008. – S. 106.
10. Ибн Закариё. Шарҳ жумал усул ад-дин ли Аби Салама ас-Самарқандий. Қўлёзма. Туркия. Сулаймония кутубхонаси. Шеҳид Али Паша бўлими. Инв. 1648/3. – В. 160б.
11. Оқилов С. Абул-л-Муъин ан-Насафий илмий мероси ва мотуридия талимоти. – Т.: Муҳаррир, 2008. – Б. 84.
12. O‘sha asar. – Б. 356.
13. Ибн Закариё. Шарҳ жумал усул ад-дин ли Аби Салама ас-Самарқандий. Қўлёзма. Туркия. Сулаймония кутубхонаси. Шеҳид Али Паша бўлими. Инв. 1648/3. – В. 160б-161б.
14. Ahmet Ak. Büyük Türk Âlimi Mâturîdî ve Mâturîdîlik / Monografiya. – İstanbul: İnönü Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2008. – S.. – Б. 110.
15. Абул Муъин Насафий. Табсират ал-адилла фи усул ад-дин. II жилдли. К. Салома нашрга тайёрлаган. – Дамашқ: 1990-1993. – Ж. 1. – Б. 358.
16. Абу Салама ас-Самарқандий ва Ақоид рисоласи. / Аҳмад Соим Килавуз таҳрири остида. -Истанбул: Яйин, 1989. – Б. 5.
17. Ибн Закариё. Шарҳ жумал усул ад-дин ли Аби Салама ас-Самарқандий. Қўлёзма. Туркия. Сулаймония кутубхонаси. Шеҳид Али Паша бўлими. Инв. 1648/3. – В. 161б -163а.
18. Муҳаммад ибн Иброҳим Ҳасирий. Ал-Ҳавий фи ал-фатово. Туркия. Сулаймония, Ҳекимоглу Али Паша. № 402. – В. 251 а-б.
19. Ўша манба. – В. 252а.
20. Аҳмад ибн Мусо Кошоний. Мажмуъ ал-ҳаводис ван-навозил. Туркия. Сулаймония, Йени Жамий. № 547. – В. 285б -317б.
21. Додхудоева Л.Н.Эпиграфичесеик памятники Самарканда ХИ-ХИВ вв. – Душанбе: Изадательство Дониш, 1992. Ж.1.

22. Абу Ҳафс Умар Насафий. Ал-Қанд фи зикр уламо ас-Самарқанд. /Танқидий матн Назар Муҳаммад Форёбий томонидан тайёрланган. – Ар-Риёд: Мактабат ал-Кавсар, 1991.
23. Абу Ҳафс Умар Насафий. Ал-Қанд фи зикр уламо асамарқанд. /Танқидий матн Юсуф Ҳодий томонидан тайёрланган. – Теҳрон: Ойинаи Мерос, 1999.
24. Абдуллоҳ ибн Муҳаммад Субазмуний. Кашф ал-асрор фи маноқиб Аби Ҳанифа. ЎзР ФА Абу Райҳон номли Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди. – В. 3105.
25. Яҳё Зандависатий. Равдат ал-уламо. ЎзР ФА Абу Райҳон номли Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди. – В. 2972.



Шамсиддин КАМОЛИДДИН
Ориентал университети Тарих кафедраси профессори
К. Ҳ. Орипов
Шарқшунос тарихчи

БУЮК БРИТАНИЯ ГЛОБУСЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН (XVIII – XIX АСРЛАР)

Аннотация: *Ушбу мақолада XVIII–XIX асрларда Буюк Британияда яратилган глобусларда Ўзбекистон ва Ўрта Осиё тасвири таҳлил қилинган. Жон Сенекснинг 1738 йилги глобусида Амударё ҳавзаси "Ўзбекистон", Сидарё оқими "Туркистон" деб кўрсатилганлиги ушбу атамаларнинг Европада XVIII асрдаёқ географик ном сифатида кенг қўлланилганлигидан далолат беради. Василиос Вататзиснинг харитаси асосида чизилган бу глобуслар тарихий география учун муҳим манба ҳисобланади.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, Туркистон, глобус, Жон Сенекс, Василиос Вататзис, Буюк Британия, "Қироллик Географик Жамияти"*

Annotation: *This article analyzes the depiction of Uzbekistan and Central Asia on globes produced in Great Britain during the 18th and 19th centuries. The 1738 globe by John Senex refers to the Amu Darya basin as "Uzbekistan" and the Syr Darya flow as "Turkestan", which indicates that these terms were already widely used as geographical names in Europe as early as the 18th century. These globes, based on the map by Vasilios Vatatzis, are considered important sources for historical geography.*

Keywords: *Uzbekistan, Turkestan, globe, John Senex, Vasilios Vatatzis, Great Britain, Royal Geographical Society*

Аннотация: *В данной статье проводится анализ изображений Узбекистана и Средней Азии на глобусах, созданных в Великобритании в XVIII–XIX веках. На глобусе Джона Сенекса 1738 года бассейн Амударьи обозначен как «Узбекистан», а течение Сырдарьи — как «Туркестан», что свидетельствует о широком использовании этих терминов в Европе уже в XVIII веке в качестве географических названий. Эти глобусы, основанные на карте Василиоса Вататзиса, являются важным источником по исторической географии.*
Ключевые слова: *Узбекистан, Туркестан, глобус, Джон Сенекс, Василиос Вататзис, Великобритания, «Королевское географическое общество».*

Буюк Британияда XVIII – XIX асрларда ясалган глобусларда Ўрта Осиё ҳудудида Амударё ҳавзаси бошланиш ериидан Орол денгизига қуйилиши еригача USBEGISTAN (Ўзбекистон), Сидарёнинг ўрта ва қуйи оқими ҳавзаси эса Turkistan (Туркистон) деб кўрсатилган (1-сурат).[1]

[1] Internet resource: https://images.app.goo.gl/2A1HnUfvfscqytty6

Орол денгизининг шарқий соҳилида CAZACI (қозоқлар), жануби-шарқий соҳилида эса ARALI (оролликлар), Ўрта Осиёнинг шимолида CARA-CALPACI CONDOSIDES (қорақалпоқ жунғорлар), шимоли-шарқида TARTARIA INDEPENDENS (мустақил татарлар) қабилалари яшаганлиги кўрсатилган. Орол денгизига шимоли-ғарбдан NTAG номли ўралган ҳудуд тасвирланган (2-сурат).



1-сурат

Мазкур глобуслардаги Ўрта Осий минтақасининг бундай тасвири илк бор Буюк Британиялик таниқли географ олим ва хариташунос Жон Сенекс (John Senex) 1738 йилда ясаган глобуси (Terrestrial table globe) да берилган. Бу глобуснинг бир нусхаси Лондондаги Миллий денгиз музейи (National Maritime Museum, Greenwich, London, Caird Collection) да (3-сурат), шунингдек, унинг яна бир нусхаси Илм-фан тарихи музейи (Science Museum Group Collection, Fleet Street, London, UK) да сақланади.[2] Бундан ташқари Жон Сенекснинг "Осмон глобуси" (Celestrial Globe) ҳам бўлиб, XVIII асрда бу иккала глобус Буюк Британияда география ва астрономия соҳасидаги тадқиқотларда, ва шу фанларни ўқитишда асосий манба бўлиб хизмат қилган. Жон Сенекс (1678 – 1740) XVIII асрнинг биринчи ярмида Лондонда яшаган машҳур ношир, харита ишлаб чиқарувчи ва глобус яратувчиси эди. Ўз ишларининг юксак сифатлилиги учун у одамлар ва айниқса олимлар орасида катта ҳурматга сазовор бўлган, у Буюк Британиядаги таниқли табиат файласуфлари билан яқин алоқада бўлган, ва 1728 йилда Қироллик Географик Жамияти (The Royal Geographic Society) нинг аъзоси этиб сайланган.






2-сурат

[2] https://collections.rmg.co.uk/media/3/486/146/large_s5654_008.jpg

Жон Сенекснинг Қироллик География Жамиятида харитачи бўлиб хизмат қилган, ва унинг асосий вазифаси жамиятга турли йўллар билан келиб тушган қўлёзма хариталарни ўрганиш, уларни нашрга тайёрлаш ва нашр қилиш бўлган. Тўпланган картографик маълумотлар асосида у глобуслар ҳам ясаган. Унинг мазкур глобуси ҳам қўл остида мавжуд бўлган бой хариталар тўплами асосида қилинган. Хусусан, глобуснинг Ўрта Осиё қисмини чизишда у 1732 йилда ўзи нашр этган юнон саёҳатчиси Василиос Вататзиснинг "Каспий денгизи ва Орол денгизи харитаси" (Charta, in qua cruditis spectanda exhibeteur pas Asiae […] Tabula Maris Caspii et Maris Aral) номли харитасидан фойдаланган [Battatzis 1732]. Юнон ва лотин тилларидаги ёзувларга жуда ҳам бой бўлган бу ноёб икки тилли хаританинг 1730 йилда чизилган асл қўлёзма нусхаси Буюк Британиядаги "Қироллик География Жамияти" (The Royal Geographic Society) нинг хариталар хазинасида (RGS, mrAsia Div. 464), унинг нашр этилган нусхалари эса Британия кутубхонаси (The British Library) нинг хариталар бўлимида (BL, Maps, King's Topographical Collection, 114, 53), шунингдек, Европанинг бошқа кутубхоналарида сақланади [Камолиддин 2005: 36 – 41].

Василиос Вататзис (Basilios Battatzis) асли Усмон империясининг Трапея шаҳрилик савдогар бўлиб, унинг отаси Константинопол (Истанбул) да насроний черковининг бошлиғи бўлган. У ёшлигидан халқаро савдо ишлари билан шуғулланиб, кўп йиллар давомида Европа ва Осиё мамлакатлари бўйлаб саёҳат қилган ва ўзининг қилган саёҳатлари ҳақида юнон тилида хотиралар ёзиб қолдирган. Бу хотиралар 1886 йилда Парижда Е.Легранд томонидан нашр этилган [Legrand 1886]. Хотираларда ёзилишича, В.Вататзис Эронда Нодиршоҳ саройида маълум вақт яшаб, унга хизмат қилган ва унинг сирати, яъни таржимаи ҳолини ҳам ёзганлиги маълум. 1727 – 1730 йилларда у Нодиршоҳ топшириғига биноан Каспий денгизи атрофида жойлашган мамлакатлар бўйлаб саёҳат қилган. Тахминан 1730 йилда у Каспий денгизидан шарқда жойлашган минтақа, яъни Ўрта Осиё харитасини тузиб, 1732 йил 7 декабр куни Лондонга келган ва уни Қироллиқ География Жамиятига совға қилган. Ўша йилнинг ўзида В.Вататзис харитаси ўрганиш учун лондонлик хариташунос олим Доктор Халлига берилади, кейин эса Қироллик География Жамиятининг картографи Жон Сенекс унга ишлов бериб нашр этади. Харитадаги ёзувга кўра, бу харита Буюк Британияда нашр этилган Ўрта Осиёнинг биринчи харитаси бўлган экан (4-сурат).



4-сурат

Вататзис харитасида юнон ва лотин тилларида ёзилган ёзувлар жуда кўп. Бу ёзувларда у турли шаҳарлар, халқлар, қабилалар, шунингдек, дарёлар, кўллар, тоғлар ва чўллар ҳақидаги ўзининг изоҳларни берган. Бу маълумотлар унинг юнон тилида ёзилган сафарномасида ҳам кенгроқ ва батафсилроқ берилган. Хуллас, Вататзиснинг чизган харитаси ва ёзиб қолдирган сафарномаси Ўрта Осиёнинг XVIII асрдаги тарихий географияси бўйича муҳим бирламчи манба ҳисобланади [Камолиддин 2020: 54 – 61]. Демак, ушбу харита асосида 1738 йилда моҳир харитачи Жон Сенекс томонидан ясалган глобусдаги Ўрта Осиё тасвири ишончли ва аниқ маълумотларга асосланиб чизилган деб айтишимиз мумкин. Бундан кейинги даврларда ясалган ва XIX асрнинг охиригача кенг тарқалган барча глобусларда Ўрта Осиёнинг айнан шу тасвири ҳеч қандай ўзгаришсиз ишлатилган. Демак, Европада тарихий география ва хариташунослик соҳаларида энг илғор бўлган Буюк Британияда XVIII – XIX асрларда “Ўзбекистон” атамаси кенг ишлатилган, ва бу ном географияга оид барча адабиётларда ва ўқув глобусларида ифода этилган. Бу эса яқин вақтларгача кенг тарқалган “Ўзбекистон” атамаси 1924 йилда руслар томонидан ўйлаб топилган” деган уйдирма гапни буткул инкор этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Камолиддин Ш.С. Василиос Вататзиснинг Ўрта Осиё харитаси ҳақида // Moziydan sado, 2005, 3 (27). Б. 36 – 41.

2. Камолиддин Ш.С. Ўзбекистоннинг тарихий хариталари // INFOLIB ахборот-кутубхона журнали, 2020, № 3. Б. 54 – 61.

3. Batatzis B. Charta, inqu’a cruditis spectanda exhibeteur pas Asiae. Tabula Maris Caspii et Maris Aral, Karta, di es tois filomathesi parekhetai eidein meros ti tes

Asias . Nin proton tipois ekdotheisa par’ ema, Basileia Batatzi Scale [1: 7 500 000]; 38 x 32,5 cm. / Ed. J. Senex. London, 1732.

4. Kamoliddin Shamsiddin. The Map of Central Asia by Basilio Batatzi (1730) // Central Eurasian Studies: Past, Present and Future. Editors H. Komatsu, S. Karasar, T. Dadabaev, G. Kurmangalieva Ercilasun. T.C. Maltepe Üniversitesi Yayinlari No. 46 (2011/5). Istanbul, Maltepe University, 2011, p. 315 – 339.

5. Legrand, Emile (ed.), Voyages de Basile Vatace en Europe et en Asie, Paris: E.Leroux, 1886, p. 183 – 295 (Nouveaux Melanges Orientaux, Memoires texts et traductions, publie par les professeurs de l’Ecole Speciale des langues orientales vivantes).

O‘ZBEKISTONDA XITOY IEROGLIFLARI VA ULARNI O‘ZARO ALOQALARDA AKS ETISHI

Sherali QO‘LDASHEV
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori
sherali.kuldashev@mail.ru

Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar uzoq davrlarga borib taqaladi. Ushbu aloqalarni tadqiq qilishda diplomatik yozishmalar, shartnomalar, qo‘lyozma asarlar, safarnomalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu manbalar fors, o‘zbek, rus, ingliz, manjur va xitoy tillarida mavjuddir. Ular orasida xitoy ierogliflari asosida yozilgan manbalar tadqiq qilinmoqda. To‘g‘ri hozirgi Xitoy hududida bu manbalar chuqur o‘rganilgan, biroq, O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan xitoy ierogliflari hali chuqur taxlil qilinmagan hisoblanadi. Shu maqsadda, O‘zbekistonda topilgan xitoy ierogliflari izlash, to‘plash, o‘qish, mazmun-mohiyatini aniqlash, ikki hudud tarixiga oid ahamiyatini tahlil qilish va ilmiy xulosalar va tavsiyalar berish lozim.

O‘zbekistondagi xitoy ierogliflari hali keng qamrovli tarzida chuqur o‘rganilmagan. Biroq, O‘zbekistondagi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan xitoy tilidagi asarlar A. Xodjaev[8,9,11], N. Karimova[3], H. Azimov[2]lar tomonidan o‘rganilgan. Kutubxonada saqlanayotgan “Ershisi shi” (“24 tarix”) nomli rasmiy tarixlar majmuasidagi Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston tarixiga oid masalalar o‘rganilgan. Biroq, institut qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan fors va turkiy tillarda yozilgan qo‘lyozmalardagi xitoy ierogliflari tadqiq qilinmagan.

O‘zbekiston hududida xitoy ierogliflarini izlash ancha vaqtni talab qildi. Chunki, bu ierogliflarni o‘qiydigan mutaxassislarga yetib bormasligi birinchi sabab bo‘lsa, ikkinchi sabab xitoy ierogliflari tushirilgan materiallarni soni kamlik qiladi. 2012 va 2022-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududidagi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi, “Buxoro” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Xivadagi Ichan-qal'a muzey-qo‘riqxonasi, Toshkentdagi O‘zbekiston tarixi muzeyi, Namangan viloyati

To‘raqo‘rg‘ondagi Axsi tarixiga oid osori-atiqalar muzeyidagi kitob, turli buyumlardagi xitoy ierogliflari aniqlandi. Ushbu xitoy ierogliflari tushirilgan buyum, narsa va topilmalarni quyidagi guruhlarga ajratib olindi:

1. Xitoy tilidagi manba va kitoblar
2. Xitoy yombusi va tangalaridagi ierogliflar
3. Xitoy ieroglifi aks etgan xatlar va choy qog‘ozlari
4. Chinni idishlardagi xitoycha bitiklar
5. Xitoy harbiy qurollaridagi ierogliflar
6. Matolarda xitoycha bitiklar.

Xitoy tilidagi manba va kitoblar O‘zbekiston Respublikasi kutubxonalarida, asosan Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasi, “Nodir asarlar” fondi, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasi,Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kutubxonasi va O‘zbekistondagi Konfutsiya instituti kutubxonalari mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni tahminan 5 mingdan ziyod.

Hozirgi davrimizgacha saqlanib kelgan Markaziy Osiyoning, shuningdek O‘zbekistonning uzoq o‘tmishiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xitoy manbalari talaygina, lekin ular qadimgi zamon xitoy tili va yozuvida bayon etilgan. Ularni oliy ma’lumotli xitoylarning o‘zlari ham maxsus tayyorgarliksiz o‘qiy olmaydi. Qolaversa, bu manbalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun nihoyatda ko‘p lug‘atlar, qadimiy xitoy tili va yozuviga, ierogliflarning 1.5-2 ming yil ilgarigi o‘qilishlari va o‘sha zamondagi ma'nolarini tushuntirib beradigan ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish kerak bo‘ladi.

Albatta, xitoy manbalaridan o‘rin olgan ma’lumotlar Markaziy Osiyoning qadimgi tarixidagi barcha masalalarni yoritib bera oladi, deb bo‘lmaydi. Ammo bu ma’lumotlar qadimgi va ilk o‘rta asr davrlariga tariximizda mavjud muammoli yoki noma'lum qolgan masalalarga muayyan darajada aniqlik kiritishi shubhasizdir. Xitoy manbalariga murojaat qilmasdan turib, Markaziy Osiyoning, jumladan O‘zbekistonning qadimgi va ilk o‘rta asrlar davriga oid tarixini mukammallashtirish qiyin. Bu haqda bizdan oldin o‘tgan ustozlar o‘z asarlarida va turli ilmiy anjumanlarda ta'kidlab o‘tishgan. Boz ustiga, ushbu ma’lumotlarning rus va yevropa tillaridagi tarjimalari yetarli emas. Shuning uchun Mustaqillik davrida O‘zbekiston FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan «Ershisi shi» («24 tarix») deb nomlangan sulolalar tarixi majmuidan joy olgan sulolalar tarixidagi Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston tarixiga oid ma’lumotlarni o‘rganish ishlari boshlangan.

Buyuk ipak yo‘li orqali ko‘plab xitoy mollari Turkistonga olib kelingan va o‘z navbatida bu o‘lkadagi tovarlar hozirgi Xitoy hududlariga olib kelingan. Tabiiyki, Turkistonga olib kelingan xitoy mollarining ayrimlariga xitoy ierogliflari tasviri tushirilgan. Bu ierogliflar birinchi navbatda, savdodagi asosiy muomala vositasi bo‘lgan valyuta – Xitoyda zarb qilingan tanga va kumush yombular hisoblanadi. 1872-1875-yillarda qurilgan Xudoyorxon o‘rdasida joylashgan Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyida saqlanayotgan kumush yombuda ham xitoy ieroglifi tushirilgan. . “Yombu” atamasi xitoy tilidagi 銀錠 “yuanbao” ieroglifini bildirib, uyg‘urlar uni “yombu” deb aytishadi[5: 41-42-s]. Yombuga 道驗 – ya'ni Dao Yan - Dao qonunlari asosida soliqlarni yig‘ish va shu ma'noni aks etgan kumush va jez

buyumlarida muhr bo‘lib, Ching imperiyasi hukumati tarafidan monopollashtirilgan. Chjou davrida joriy qilingan. Shu ieroglif asosida o‘sha hudud aholisidan soliq yig‘ib olingan. Yombularning hajmi va shakliy jihatdan har xil hisoblanadi. Yombuning eng kattasi ot taqasiga o‘xshaganligi uchun mahalliy xalq uni Ot tuyog‘i deb nom berishgan. Shuningdek, yombularning hajmi va og‘irliga qarab “qo‘y tuyog‘i”, “echki tuyog‘i”, “chuchvara quloq” kabi turlari mavjud. Ching imperiyasida muomalada bo‘lgan ot tuyog‘i deb nom olgan yombu ellik lyanga to‘g‘ri kelgan. Bir lyan kumush puli ellik mis tangaga to‘g‘ri kelgan. Qo‘y tuyog‘i deb atalgan yombu esa yigirma lyan deb baholangan. Echki tuyog‘i deb nom olgan yombu o‘n lyan deb hisoblangan. Lyan mahalliy aholi tilida “sar” deb atalgan. Yombular taqa yoki qayiqqa o‘xshatib quyilgan bo‘lib, markaziy qismiga xitoy ieroglifidagi Ching imperiyasi davlat belgilari tamg‘asi chekilgan[1: 19-s]. Yombuning og‘irligi 1, 87 kg, uzunligi 11 sm, eniga 5,5 sm, bo‘yiga 6 sm bo‘lgan. Yombuning tarkibiy qismi 96, 87, foiz kumush, 2, 9 foiz mis, 0, 23 foiz oltin hisoblanadi.

Xitoyning milliy valyutasi hisoblangan yombudan O‘rta Osiyo xonliklarida kumush tangalar zarb qilingan. Yombular esa bu tangalarning xom ashyosi sifatida ishlatilgan. Ushbu yombular xonliklar zarbxonasiga maxsus sotib olingan. Ular asosan Ching imperiyasi bilan savdo ishlarini amalga oshiruvchi savdogarlar tomonidan sotib olinib davlat hazinasiga topshirilgan. Bu yombuni zarbxonada mirza qabul qilib, ro‘yxatga olgan. Xonliklar zarbxonalarida ellik-oltmish nafar ishchi ishlagan. Ishchilar yombuni urib turli shaklga solib, keyin tayoqcha ko‘rinishiga tushirgan. Kumush tayoqchani urub, kesib tanga xolatiga keltirib toroziga solganlar. Oshiqchasini olib yetmaganini qo‘shib tanga holatiga keltirib muhr urganlar. Bitta yombudan 640 dan 700 kumush tangagacha, hatto 1000 tangagacha zarb qilganlar[1: 187-s]. Bir botmon mis va qo‘rg‘oshin rudasidan o‘ttiz olti ming chaqa tanga zarb qilingan. Zarb etilgan tangalar xonga ko‘rsatilgan. Xar yuz misqol tilladan bir tilla tanga, kumush yombudan esa ikki tilla tanga, bir botmon mis yoki qo‘rg‘oshindan o‘n uch tilla tanga foyda ajratib ko‘rsatilgan[1: 25-s]. Barcha xonliklardagi zarbxonalarda mohir va o‘z ishining ustalari xizmat qilishgan. Bu ishchilar byuir kunda bir tanga maosh olganlar. Shuningdek, Qo‘qon xonlari Ching imperiyasi bilan savdo aloqalarini olib borishda siyosiy masalalar ortidan ham kumush yombularni qo‘lgan kiritilgan[4: 196-s]. Buxoro yoki Qo‘qon xonligi bozorlarida bu kumush yombular 432 misqol standart qilib belgilangan. Kumush yombuning narhi sifatlisi 314 tilla deb baholangan bo‘lsa, sifatsizi 20 tilla bo‘lgan.

Xitoy tangalari O‘zbekiston hududida ko‘plab topilgan. Ulardan biri Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani hududida topilgan tanga bo‘lib, hozirda bu tanga Axsi tarixiga oid osori-atiqalar muzeyida saqlanmoqda. Tanganing o‘ng tomonidagi 2 ieroglif: Kashi / Kashi 喀什 - Qashqar. Chap tomonidagi 2 ieroglif: san / san 参 - 3 va jin / jin 金 – oltin, deb yozilgan. Tanganing tyepa qismidagi 1 ieroglif: guang / guang 光- yorug‘lik ma'nosini beradi. Past qismidagi 1 ieroglif: yuan / yuan 圓 yumoloq, ya'ni doira degan ma'nosni bildiradi. Tanganing o‘rtasidagi teshilgan joyidagi ieroglifni o‘qish qiyin. Biroq, u shyuy 緒 ieroglifini bildiryapti. Chunki Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomiga o‘xshayapti. U 1875 -1908-yillarda Xitoyni boshqargan.

Buxoro viloyat kutubxonasi. “Sharq” bo‘limida № 254 raqam ostida saqlangan. Keyinchalik bu maktub Buxoro davlat muzeyiga olib kelingan maktub Yorkenddan Buxoroga yuborilgan. Undagi ierogliflar quyidagicha o‘qiladi: “Rossiyaga itoat etgan asli vatani Buxoro bo‘lgan Mulla Hosimi (Qosim) valadi Mulla Nosir hamda singlisi Masturabibi va Oyshabibi uch kishi Yorkendda kelishib qaror qilindi. Mulla Qosimga tegishli bo‘lgan oilaviy meros boyliklarini uch odamga taqsimlash Mulla Izak boyliklarni boshqaradi. Guansu boshqaruvi davrining 31-yili 3 oyi”. Guansu boshqaruvi davrining 31-yili 3 oyi Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomi bilan hukmronlik qilgan manchjur imperatori o‘tgan. Taxtda 1875 -1908-yillarda o‘tirgan. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Yu-long choyi qog‘ozida ham ikkita ieroglif qizil rang bilan tushirilgan.

Xivadagi Ichanqal'a muzey-qo‘riqxonasi va boshqa muzeylardagi xitoy chinni idishlarning ostki qismida “同治宣制” ierogliflari tushirilgan. Unda Tungji (同治 1856-1875) Xitoydagi manjurlarning 10 imperatori. "Tungji buyrug‘i bilan ishlab chikarilgan " deb yozilgan.

“Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasiga qarashli Xudoyorxon o‘rdasida Xitoyda ishlab chiqarilgan to‘p saqlanadi. Uning yuza qismida beshta xitoy ieroglifi tushirilgan: “長勝神砲”. Uning ma'nosi “Uzoq davom etgan xudolar urushi ovozi”. To‘p Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomi bilan 1875 -1908 yillarda hukmronlik qilgan manjur imperatori tomonidan yasatilgan.

O‘zbekistonda topilgan xitoy ierogliflarini chuqur tahlil qilish va undagi ma’lumotlarni Markaziy osiyo tarixiga oid masalalarni tadqiq qilishda foydalanish lozim. Shuningdek, bu ma’lumotlarni Xitoydagi tadqiqotlar bilan qiyosiy taxlil qilish lozim. Shuningdek, quyidagi tavsiya va takliflarni ilgari surish mumkin:

- O‘zbekiston – Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik aloqalariga oid xitoy ierogliflarini topib, fotonusxasi olinib, namunalari jamlash;
- O‘zbekistondagi xitoy ierogliflarini fotoalbomi yaratiladi, ular o‘zbek, xitoy, rus, ingliz tiliga tarjima qilinib, mazmuni, davri, hajmi, o‘zaro munosabatlarga o‘rni, ahamiyati kabi masalalar tadqiq qilish;
- “O‘zbekistonda xitoy ierogliflari va ularning o‘zaro aloqalarda aks etishi” nomli kitob yoziladi va nashr etish;
- O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida “O‘zbekistonda xitoycha bitiklar va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarida aks etishi” nomli badiiy va foto ko‘rgazma tashkil qilish;
- Respublikadagi xitoy ierogliflarining fotosi, matni, tarjimasi va ahamiyati aks etgan veb-sayti yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адинарова А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством (1865–1875).: Дисс. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1946. – 175 л.
2. Азимов Х. Қадимги Хитой ва Марказий Осиё муносабатлари (хитой манбалари асосида). – Тошкент: “Fan ziyosi” нашриёти, 2024. – 204 б

3. Каримова Н.Э. Китайские письменнқе источники по истории взаимоотношений государств Центральной Азии и минского Китая. – Ташкент: ТАшГИВ, 2016. – 235с.

4. Обозрение Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // Записки Императорского Русского Географического общества. – СПб., 1849. Кн. III. – С. 176-216.

5. Тухтиев И. Нумизматические материалы как источник по истории Восточного Туркестана (XVIII – начала XIX вв.).: Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1989. – 165 л.

6. Ханзи гуйинг шоуцэ (Хитой иероглифларининг қадимий талаффузи қўлланмаси). Пекин, 1986. – 210б.

7. Ханюй гувэнзи зишинг бяо (Хитой иероглифларининг қадимги ёзилиш шакллари). Сичуан, 1981. – 366б.

8. Ходжаев А. История формирования западных Китая (история и современность). Тошкент, 2023. – 230с.

9. Ходжаев А. Древнейшая китайская иероглифи-ческая транскрипция этнонима тюрк // Shygys Kazakhstan. № 1, 2008. – С. 7-26.

10. Хорошхин А.П. Сборник статей, касаюшихся до Туркестанского края. – СПб.: Б. и., 1876. – С. 187.

11. Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2007. – 456 б.

MIGRATION PROCESSES AND CONSTRUCTION OF IDENTITIES OF THE POPULATION OF SAMARKAND IN THE 6TH - BEGINNING OF THE 13TH CENTURIES

Azim MALIKOV
Assistant Professor, department of Asian studies,
Palacky University Olomouc, Czech Republic

Annotation: *This article aims to analyze the role of migration and other factors in constructing the identity of the population of Samarkand in the 6th - early 13th centuries based on the constructivist approaches. The identity of the Samarkand population was likely shaped by cultural factors with a complex and multilayered structure, rather than being defined by a singular ethnic origin, and was further intertwined with a regional urban identity.* ***Keywords:*** *Migration, Central Asia, multiple identities, urban identity, Islam.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada VI-XIII asr boshlarida Samarqand shahri aholisi o‘zligining shakllanishida migratsiya va shu kabi omillarning roli konstruktivistik yondashuv asosida tahlil qilingan. O‘rganilayotgan davrda Samarqand shahri aholisining o‘zligi o‘ziga xos bo‘lib, etnik o‘zlikdan ko‘ra ancha murakkab tuzilishga ega madaniy va mintaqaviy xususiyatlarni o‘zida mujassam etganligi ko‘rsatib o‘tilgan.* ***Kalit so’zlar:*** *migratsiya, Markaziy Osiyo, multi identiklik, shahar identikligi, Islom.*

Аннотация: *В настоящей статье ставится целью анализ роли миграции и других факторов в конструировании идентичности населения Самарканда в VI - начале XIII века на основе конструктивистских подходов. Идентичность самаркандцев вероятно была культурной с довольно сложной конструкцией, а не этнической и сочеталась с региональной*

городской идентичностью. ***Ключевые слова****: миграция, Центральная Азия, мультиидентичность, городская идентичность, ислам.*

Over an extended historical period, Samarkand functioned as a focal point of complex migratory movements and cultural exchanges, which had a profound and lasting impact on the historical development of the populations inhabiting the region. The coexistence and interaction of sedentary and nomadic cultures played a significant role.

Some aspects of the issue of identity of the medieval population of Samarkand have been touched upon by researchers (V. Livshits, D. Scaff, P. Lourie, Étienne de la Vaissière, F. Kidd, Yu. Karev, M. Shenkar, A. Malikov, M.Huber, etc.), but the issue of the influence of migration on the formation and transformation of identity has been little studied. The present study aims to analyze the role of migration and other factors in constructing the identity of the population of Samarkand based on constructivist approaches to identity. Data from written sources and archaeological materials were used. Although identity is defined differently by various disciplines, it is the interdisciplinary approach that allows us to consider identity as a multifaceted phenomenon.

In order to understand the complex of identities, which include both ethnic and other types: regional, religious, cultural and others, the concept of multiple identity is of particular importance [1, - P.195]. An individual may belong to several social or regional communities, which exist at different levels and with which he or she may identify in various social situations. Among the many types of identity, identifying the most stable identity is not an easy task. In the early Middle Ages, Samarkand was the capital of Sogdiana with a multiethnic population, but the dominant people were known as Sogdians. There are several concepts on the issue of Sogdian identity. One group of scholars posits the existence of a homogeneous population identified collectively as the Sogdians, while others contend that the region was inhabited by diverse groups who maintained distinct self-identifications. For example, Livshits believed that in Sogdian sources of the 4th-8th centuries, only Samarkand and Penjikent people were called Sogdians, and not Bukharans and Kesh people. [2, - PP. 191-192].

According to S. Klyashtorny, the authors of early medieval Turkic inscriptions distinguished the Sogdians (*soġdaq*) from the Bukharans (*buqaraq*). [3. - P. 199]. Huber believes that Sogdiana consisted of a collection of independent oasis cities with different cultural identities, united under the rule of Samarkand. [4, - P. 6]. Terracotta collections from different centers of Sogdiana demonstrate clear differences in style and type series. [5, - P. 19]. Apparently, the fragmented nature of the Sogdian political administration in the Zarafshan Valley could be reflected in the diversity of costumes of the Sogdians living both in the Zarafshan Valley and beyond. [5, - P. 282]. The study of the migration of Sogdians to other regions and their communities outside Sogdiana allows us to shed light on the peculiarities of their identity. Several large waves of emigration and immigration were recorded in Sogdiana. Trade emigration in the 2nd-7th centuries then developed into a more massive departure of Sogdians due to long wars with the Arab Caliphate.

Historical sources testify to the active migration of Sogdians to the east along the Silk Road and their settlement in the territory of East Turkestan and within the Tang Empire. Chinese sources distinguished migrants from Samarkand or Kang from Bukharans, Maymurgians (modern Urgut district of Uzbekistan), Keshians, Kushanians (modern Kattakurgan district of Uzbekistan), etc. [6, - P. 479]. Religious affiliation constituted another salient dimension of identity among the inhabitants of Samarkand. Samarkand has always been characterized by religious tolerance; various religions and cults coexisted peacefully here. In the early Middle Ages, adherents of Zoroastrianism, Buddhism, Christianity, and Manichaeism lived in the city. Judging by the terracotta, there were also traces of Jewish material culture in Sogdiana [7, - P. 22], which indicates their settlement in this region.

The influx of new population, which included semi-nomadic tribes, is reflected in the sources and material culture of Samarkand. During the era of the Turkic Khaganate (552-745), individual representatives of the Turkic military aristocracy settled in Samarkand [8, - P. 119]. Marriages between Turks and Sogdians were common. The city had various social groups, including nobility, artisans, and Zoroastrian priests. After the conquest of Samarkand by the troops of the Arab commander Qutayba ibn Muslim in 712, Arab and Persian families from Khorasan began to settle in the city inhabited by Sogdians. This process continued for a long period. The introduction of Islam into the region precipitated significant transformations in the cultural framework of local societies. One can agree with Shenkar's conclusions that one of the main reasons for the disappearance of Sogdian culture was the long war, the destruction of Sogdian self-governing civil communities, and large-scale migrations of the Sogdian population. These processes were accompanied by Arab colonization and the progressive Islamization of the remaining population. As a result, Sogdiana was absorbed, culturally and linguistically, by neighboring Khorasan. [9, - PP. 112-114].

It is also essential to consider the role and status of sacred languages within the Islamic tradition as a contributing factor to cultural and identity formation. According to A. Muminov, among some of the *ulama* of Central Asia there was an opinion that Persian could be the second sacred language of Islam. [10, - P. 204]. The Sogdian language did not have such a status and was marginalized. Arab geographers of the 10th century noted the decline of the cultural and linguistic identity of the Sogdians [11, - P.2]. Nevertheless, the terms "Sogdian", "Sogdians", "Samarkand Sogd" in relation to some residents of the Middle Zerafshan Valley and the region continued to be used in the sources of the 12th century [12, - B. 242]. However, it is likely that these terms meant more the geographical (regional) affiliation of the Islamized Sogdian population.

It cannot be argued that the name Sogdians was immediately replaced by other names. Regional identity, particularly expressed through the urban identity of Samarkand’s inhabitants, gained prominence over other forms of affiliation. This is evident in the polyethnic character of the city’s quarters during the 10th–11th centuries, as reflected in their names and social composition. During the Samanid era, there was a significant demographic growth of the population of Samarkand, which expanded and covered a vast territory. Samarkand was considered one of the largest

cities in the Muslim world. The population of Samarkand in the 10th century numbered from 75 to 110 thousand people. [13, - P.266]. Apparently, the city's population grew due to migration of residents from other regions, for example, in the 11th-12th centuries, immigrants from other regions and cities of the Muslim world appeared in Samarkand, including Baghdad, Samarra, Nishapur, Merv, Nasaf, Balkh, Khujand, Kesh, Kokand, Khwarezm, Shash, Zamin, Kasan, Farab, etc. [14, - P. 75,102,114,128,131,145,151]. Samarkand did not feature quarters designated by ethnic affiliation; instead, residential areas were primarily organized around occupational specialization, with distinct quarters inhabited by artisans such as potters, blacksmiths, and other craftsmen. An analysis of the microtoponymy of Samarkand shows that the Persian component has been strengthening since the 10th-11th centuries [15].

According to archaeological materials, the composition of the population of one of the quarters of Samarkand on the territory of the Afrasiab settlement changed every 30-40 years. In the northwestern quarter of Afrasiab from the middle of the 8th to the beginning of the 11th century, the composition of the inhabitants changed at least seven times. Large quarters of ceramicists were less subject to displacement [16, - P. 155, 156].

In 999, the Zarafshan Valley became part of the Karakhanid Khaganate (840-1209) [17], founded by the Turkic tribes of the Chigils, Yagma and Karluks. According to sources, in the 11th century, groups of people from the Turkic tribe of the Djikils lived in Samarkand, and the Karluk Turks lived in the surrounding area. [18, - PP. 224, 243]. In the late Karakhanids era, a place with the Turkic name Kuk-sarai was mentioned in the suburbs of Samarkand. The Karakhanids of Samarkand combined Islamic identity with Turkic. At the same time, they used the Persian language [19] and also created a myth about their origin from the legendary hero of the Avesta, Afrasiab. The city also had different levels of social identity of the population, for example, sayyids - descendants of the prophet Muhammad, ulema, artisans, etc. Apparently, the peculiarities of the political system of the state of the western Karakhanids, in which the capital Samarkand played a special role, contributed to the formation of a strong urban identity, reflected in the self-identification of the townspeople (Samarkandians, Ahl-e Samarkand). [19, - P. 140]. During the 10th–11th centuries, a degree of religious tolerance persisted in Samarkand, as evidenced by the coexistence of the Muslim majority alongside smaller communities of Christians, Manicheans, Jews and Zoroastrians.

Thus, the Sogdian identity of the inhabitants of Samarkand was likely cultural in nature, exhibiting a complex and multilayered structure rather than a strictly ethnic one, and was closely intertwined with a distinct regional urban identity. Simultaneously, Turkic nomadic elements also played a formative role in shaping the local sociocultural landscape. The Sogdian society of Samarkand during this period was marked by pronounced polyethnicity and religious pluralism. The introduction of Islam, accompanied by fundamentally different religious doctrines and sacred languages, precipitated profound ideological and cultural transformations within Samarkand society, leading to significant shifts in both cultural identity and social structure. The mass emigration of Sogdians and the immigration of various ethnic

groups from other areas of the Islamic world intensified this process and found completion in the formation of new types of religious, cultural and linguistic identity. The arrival of the Karakhanid Turks from East Turkestan, along with the migration of various Turkic tribes, further complicated the construction of multiple layers of identity among Samarkand's ruling and cultural elites. These elites embodied a synthesis of Islamic, urban, and social affiliations, while simultaneously navigating both Persian and Turkic linguistic and cultural identities.

LIST OF REFERENCES:

1. Burke P. 'Relationships among multiple identities', *Advances in identity theory and research,* editors: Burke**,** P.J., Owens, T.J., Serpe, R., Thoits**,** P.A. Kluwer. - Academic/Plenum Publishers, 2003.

2. Лившиц В. А. История изучения Согда // Рахмат-наме: Сборник статей к 70-летию Р. Р. Рахимова. - СПб.: МАЭ РАН, 2008, с. 191—192.

3. Кляшторный С. Г. Сирийское имя согдийского вельможи в древнетюркском тексте из Тувы // Тюркологический сборник 2009—2010: Тюркские народы Евразии в древности и средневековье. - Москва: Восточная литература, 2011.

4. Huber M. Lives of Sogdians in medieval China. - BoD–Books on Demand, 2020.

5. Kidd F. J. Samarkand region of Sogdiana: figurines, costume and identity, 2nd-1st century BCE-8th century CE. Ph.D thesis. - Sydney, 2004.

6. Skaff J. K. 'The Sogdian trade diaspora in East Turkestan during the seventh and eighth centuries'. Journal of the Economic and Social History of the Orient 46.4 (2003): 475-524.

7. Дресвянская Г.Я. К истории иудаизма в Средней Азии. К интерпретации ряда археологических памятников // Евреи в Средней Азии: вопросы истории и культуры. - Ташкент: Фан, 2004.

8. Маликов А.М. История Самарканда (с древних времен до середины XIV века). - Ташкент: Paradigma, 2017.

9. Shenkar M. 'The Arab conquest and the collapse of the Sogdian civilization', The History and Culture of Iran and Central Asia: From the Pre-Islamic to the Islamic Period. Notre Dame: Notre Dame University Press, 2022: 95-125.

10. Muminov A. 'Dihqāns and sacred families in Central Asia', Sayyids and Sharifs in Muslim Societies: The Living Links to the Prophet. - New York: Routledge, 2012.

11. De la Vaissière É. Sogdian traders: A history. Vol. 10. - Brill, 2005.

12. Нажмуддин Умар ибн Мухаммад ибн Ахмад ан-Насафий. Ал-канд фий зикри уламои Самарқанд (Самарқанд уламолари хотирасига доир канд(дек ширин китоб)). Арабчадан Усмонхон Темурхон уғли ва Бахтиёр Набихон уғли таржимаси. - Тошкент, 2001.

13. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г., Средневековый город Средней Азии. - Ленинград: Наука, 1973.

14. Додхудоева Л.Н., Эпиграфические памятники Самарканда XI-XIVвв. Т.1. - Душанбе: Дониш, 1992.

15. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Автореф. дисс... канд.филол.наук. - СПб.: 2004.

16. Шишкина Г.В. Городской квартал VIII-XI вв. на северо-западе Афрасиаба // Афрасиаб. Вып.2. - Ташкент: Фан,1973. С.117-156.

17. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209 гг.). - Москва: Издательский дом «София» 2006.

18. Ибн ал-Асир, Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. - Ташкент: «Узбекистан», 2006.

19. Karev Y. ‘From Tents to City: The Royal Court of the Western Qarakhanids between Bukhara and Samarqand’, Turko-Mongol Rulers, Cities and City Life. - Brill, 2013, pp. 99-147.

I. O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА АКС ЭТГАН БУЮК МАДАНИЙ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОС

Ҳакимали АЗИМОВ
Тошкент давлат юридик университети профессори

Аннотация: *Ушбу мақолада Сохибқирон Амир Темур ҳукмронлиги даврида амалга оширилган ислоҳотлар, илм-фан равнақи учун яратилган шароитлар ҳақида сўз йуритилиб йуртга келган елчиларнинг малумотлари асосида манавий-маданий мерос масалалари йоритиб берилган.* ***Калит сўзлар.*** *Амир Темур, "Темурбеклар мактаби", Клавихо, Анлия, Франция, Испания, "Темур Тузуклари".*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются реформы, проведённые в период правления Сахибкирона Амира Темура, условия, созданные для развития науки, а также вопросы духовного и культурного наследия на основе сведений, оставленных послами, прибывшими в страну.*

Ключевые слова: *Амир Темур, "Школа Темуридов", Клавихо, Англия, Франция, Испания, "Законы Темура".*

Annotation: *This article discusses the reforms carried out during the reign of Sahibqiron Amir Temur, the conditions created for the development of science, and the issues of spiritual and cultural heritage based on the information provided by envoys who visited the country.* ***Keywords:*** *Amir Temur, "School of Temurids", Clavijo, England, France, Spain, "Temur's Code".*

Буюк салтанат соҳиби Амир Темур барпо этган қудратли давлат ҳар томонлама тараққий этди. Мўғуллар истибдоди даврида топталган юрт қайтадан ўзлигини намоён этди. Дунёнинг, хусусан Европа давлатлари билан турли соҳаларда алоқалар ривож топди. Амур Темур ва у барпо этган қудратли давлатга қизиқиш тобора ортиб борди. Бу эса тарихий манбаларда ўз аксини топганлиги билан аҳамиятлидир.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2017 йил 30 июнда "Камолот" Ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойида "Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир" номли маърузаларида шундай деган эдилар: "Маълумки, тарихда халқимиз орасидан кўплаб буюк саркардалар етишиб чиққан. Ана шундай мард ва фидойи аждодларимизнинг ҳарбий соҳадаги бой мероси, мардлик ва жасурлик фазилатлари ёшларимиз учун ибрат мактаби бўлиб ҳизмат қилади.

Айниқса, Соҳибқирон Амир Темур бобомиздек – у зот бирорта жангда мағлуб бўлмаган – енгилмас саркарда ва давлат арбоби жаҳон тарихида камдан-кам топилади. Ўз яқинлари, замондошлари бу улуғ сиймони Темурбек деб атаган эканлар. Мен шу ҳақда ўйлаганимда, бир фикр хаёлимдан ҳеч кетмайди. Юртимизда ёшларга ҳарбий таълим-тарбия берадиган курсантлар мактабларига "Темурбеклар мактаби" деб ном берсак, нима дейсизлар?", деган сўзлари қалбларимизга ғурур ва ифтихор бағишлайди. Албатта бундай хайрли ишлар соҳибқирон Амир Темур бобомизнинг

руҳларини шод этиб, эзгу ишларимизга куч-кувват манбаи бўлиб, хизмат қилиши шак-шубҳасиздир.

Машҳур сайёҳ ва элчи Руи Гонсалес де Клавихонинг “Кундалик”лари, Темур ва темурийлар даври тарихидан баҳо юргизувчи муҳим асарлардан бири ҳисобланади. Китоб 1404 йили Самарқандда Амир Темур саройида турган Кастилия (Испания) қироли Генрих III (1390-1406)нинг элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг йўл хотираларидан иборат, яъни унинг 1403-1404 йиллари Туркия, Эрон ва Мовароуннаҳрода, хусусан, Амир Темур саройида кўрган-билганларини ўз ичига олган муҳим бир асардир. “Кундалик” муаллифи Руи Гонсалес де Клавихо бадавлат ва нуфузли оқсуяк оиладан чиққан. Отаси ҳам, ўзи ҳам қирол саройида йирик мансабда туришган. У қирол Генрих III нинг вафотидан (1406) кейин она шаҳри Мадридга кетиб қолади ва умрининг охиригача ўша ерда истиқомат қилади. Руи Гонсалес де Клавихо 1412 йилда вафот этади ва авлиё Франциско черковидаги ота-боболарининг хилхонасига дафн этилади.

Клавихонинг Амир Темур юртига қилган элчилик саёҳати 1403 йилнинг 22 майида бошланиб, ўн беш ой деганда у Самарқандга етиб келди. Бу саёҳатда Клавихо илоҳиёт илмининг номзоди (магистри) Альфонсо Паэс де Санта Мария, қиролнинг махсус соқчиси Гомес де Салазар ҳамроҳ бўлдилар. Клавихонинг сафари Амир Темурнинг 1402 йилда испанияга хожа Муҳаммад қози бошчилигида йўллаган элчилигига жавобан қилинган эди. Тарихий манбаларда келтирилган маълумотларга қараганда, XIV асрнинг 80-90-йилларда Соҳибқирон Амир Темур давлатининг шон-шуҳрати Оврўпо мамлакатларигача бориб етди. Англия, Франция, Испания, Генуя ва Византия сингари давлатнинг ҳукмдорлари Амир Темур билан сиёсий ва иқтисодий (савдо) муносабатлар ўрнатишга интилиб, улуғ жаҳонгир ҳузурига мунтазам равишда ўз элчиларини юбориб турдилар. Масалан, юқорида тилга олинган Кастилия қироли Генрих III нинг элчиси дон Пелагия де Сатоматир ва дон Фердинанд де Паласуелос 1402 йили Амир Темур Қорабоғда турганда унинг ҳузурига келишган. Хуллас, ўша йиллари Амир Темур билан Оврўпо давлатлари ўртасидаги савдо ва сиёсий муносабатлар қандай бўлганлигини жуда кўп расмий ҳужжатлардан ҳам билиб олиш мумкин. Булар Соҳибқирон Амир Темур ва унинг учинчи ўғли Ғарбий Эрон, Ироқ ва Озарбайжон ҳокими мирзо Мироншоҳ (1393-1408) билан Франция, Англия ва бошқа мамлакатлар подшоҳлари ўртасидаги мактублардир. Клавихонинг Амир Темур ҳузурига қилган элчилик саёҳати жуда узоқ, хавф-хатар ва машаққатлар билан тўла сафар бўлди. Клавихо ва унинг ҳамроҳлари Испаниянинг жануби-шарқий тарафида жойлашган Кадис шаҳридан елканли кемада Ўрта ер денгизи бўйлаб суздилар, сўнгра Истанбул, Трабзон, Арзирум, Табриз, Теҳрон, Машҳад, Марв ва Балх орқали қуруқликда йўл босдилар. Улар Термиз қаршисида Амударёдан ўтиб, Кеш орқали 1404 йилнинг 31 августида Самарқанд қишлоқларидан бири бўлган Мисрга келдилар ва соҳибқироннинг шу атрофдаги чорбоғига келиб тушдилар. Шуни ҳам айтиш керакки, ўшанда Клавихо билан бирга Миср ва Туркия султонининг элчилари ҳам Самарқандга келдилар.

“Кундалик”да ўша вақтларда Амир Темур қўл остидаги мамлакатлар ва шаҳарларнинг умумий аҳволи, халқининг кун кечириши, Амир Темур ва унинг яқинлари ташаббуси билан барпо этилган бинолар: қасрлар, масжидлар, мадрасалар, хонақоҳлар, савдо расталари, дўконлар, устахоналар; Темурийлар давлатининг Хитой, Ҳиндистон, Олтин Ўрда (Клавихо уни Татаристон деб атайди), Мўғулистон ва бошқа мамлакатлар билан бўлган сиёсий ва савдо алоқалари, Соҳибқирон саройида амалда бўлган тартиб-қоидалар ҳақида эътиборга молик маълумотлар келтирилган. Бу маълумотлар, шубҳасиз, Туркистон заминининг ўша вақтлардаги ижтимоий-сиёсий тарихини, ота-боболаримизнинг турмуш тарзини ўрганишга муҳим тарихий манбалардан бири ролини ўташи турган гап.

Самарқанд ва унда Амир Темур тарафидан қурдирилган бинолардан баъзилари ҳақида Клавихо, жумладан, мана буларни ёзади: Самарқанднинг бойлиги ҳақида. “бу юрт дон-дун, май, мева-чева, парранда гўшти, (бошқа) ҳар хил гўшт, қўйингки ҳамма нарсага бойдир... бир жуфт семиз қўйнинг нархи 1 дукат” (Дукат – Испанияда ўша вақтда амалда бўлган олтин пул).

Катта хиёбон ва савдо расталари ҳақида. “Самарқанд шаҳрида ҳар йили Хитой, Ҳиндистон, Татаристон ва бошқа мамлакатлардан, шунингдек, бениҳоят бой Самарқанд салтанатининг ўзидан келтирилган моллар сотилади. Шаҳарга келтирилган молларни бир сафда тартиб билан жойлаштириб сотадиган кенг жой (шу пайтгача) йўқ эди. Подшоҳ икки тарафида қатор дўконлар жойлаштирилган савдо растасидан иборат кўча ўтказишни буюрди. Мазкур кўча шаҳарнинг бир чеккасидан чиқиши лозим эди. Подшоҳ бу ишни икки мирзосига топшириб, улар кечаю кундуз (тинмай) меҳнат қилдилар. Кўчанинг икки тарафига дўконлар қўрилди, ҳар бир дўкон олдида мармар билан қопланган юксак курсилар ўрнатилган. Ҳар бир дўкон иккита хонадан иборат эди. Кўчанинг тепаси гумбаз шаклида ёпилган бўлиб, ёруғлик тушиб турадиган туйнукчалар қўйилган”. “Шу йили (1404 йили) июнь ойида Хонбалиқ (Хитойнинг ўша замондаги пойтахти; ҳозирги Пекин шаҳри атрофида бўлган) шаҳридан қарийб 800 туядан ташкил топган савдо карвони Самарқандга келди”.

“Тузукот”да ҳам Амир Темур ва темурийлар даврини ўрганиш учун зарур маълумот ва хабарлар мавжуд. Унда Чиғатой улуси (Олтой, Еттисув, Шарқий Туркистон, Мовароуннаҳр ва Шимолий Афғонистон ерлари)нинг 1342-1405 йиллардаги тарихи, давлат ва қўшиннинг тузилиши, Амир Темур давлатининг қўшни мамлакатлар билан олиб борган сиёсий муносабатлари тарихи ўз ифодасини топган. “Тузукоти Темурий” икки қисмдан таркиб топган. Биринчи қисмда Амир Темурнинг давлатни барпо этиш ва мустаҳкамлаш, қўшинларни ташкил этиш юзасидан тузуклари, режаларидан иборат бўлиб, ҳатто қўшиннинг жанговар тартиби жадваллар воситасида ифодаланган. Иккинчи қисмда 13 Кенгаш ва унинг бўлимларида Амир Темурнинг ҳокимият тепасига келиши ва ҳарбий юришлари тафсилотлари берилади.

Амир Темур, зукко сиёсатдон ва йирик давлат арбоби сифатида ўз давлатининг тузилишини, унинг қай тарзда бўлиши кераклигини баён этади, мансабдорларнинг ҳуқуқ ва бурчларини белгилаб беради. “Тузукот”да, ҳар бир тождор ўз давлатининг таянчи бўлган ижтимоий-сиёсий гуруҳларга

суянган ҳолда иш олиб бориши лозим ҳисобланган. Фақат уларнинг ёрдамида раият, қўшинлар ва давлатини идора қилиши зарур. Бундай гуруҳларга қуйидагилар кирган: 1) Муҳаммад алайҳиссалом авлоди бўлмиш саййидлар, уламолар, шайхлар; 2) тажриба орттирган билимдонлар; 3) дуогўй тақводорлар; 4) амирлар, сарҳанглар, сипоҳсолар; 5) сипоҳ ва раият; 6) салтанат ишларини, унинг сиру асрорини билган, кенгаш қилишга муносиб оқил, ишончли кишилар; 7) вазирлар, саркотиб, девон муншийлари; 8) ҳакимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандислар; 9) муҳаддислар, ровийлар; 10) машойих, сўфий, орифлар; 11) ҳунар ва санъат аҳли; 12) ҳар мамлакат ва диёрдан келган саёҳатчи ва мусофирлар, савдогарлар. Улар турли мамлакатлардан хабар келтириб турганлар.

Амир Темур давлатни бошқаришда вазирлар, амирлар ва вилоят валийларига алоҳида аҳамият берган. Вазирлар, “Тузукот”да қайд этилишича, қуйидаги тўрт сифатга эга бўлишлари шарт: 1) асиллик ва тоза насллик, буюклик; 2) ақлу фаросат; 3) сипоҳу раият аҳволидан хабардорлик ва уларга хушмуомалада бўлиш; 4) сабру бардошдошлилик ва мулойимлик.

“Тузукот”да Амир Темур давлатини етти вазир бошқаргани ҳақида гап боради: 1. Мамлакат ва раият вазири. Бу вазир мамлакатнинг муҳим ишларини, кундалик муаммоларини, раият аҳволини, вилоятлардан олинган ҳосил, солиқ-ўлпонлар, уларни тақсимлаш, кирим-чиқимларни, мамлакатнинг ободонлиги ва аҳолининг фаровонлигини маълум қилиб турган; 2. Сипоҳ бўйича вазир. Сипоҳийларнинг маошлари ва танҳоларини бошқарган, парокандаликка тушиб қолмаслиги учун доимо сипоҳ аҳволидан подшоҳга хабар бериб турган; 3. Эгасиз қолган, ўлиб кетган ва қочиб кетганларга тегишли мол-мулкни бошқарган; закот ва божларни тўплаган; 4. Саркори хоса, салтанат ишларини юритувчи вазир. У бутун салтанат идораларининг кирим-чиқимлари, хазинадан сарф қилинадиган харажатлар, шунингдек, отхона харажатларидан огоҳ бўлган; 5, 6, 7. Марҳадлар ва тобе мамлакатларга тегишли ишларни бошқарувчи уч вазирдан иборат ҳайъат.

“Тузукот”нинг айниқса амир ва ҳоким мансабига тайинлаш ҳақидаги маълумотлари ўта муҳимдир. Амир Темур ўз навкарларидан 313 нафарини амирлик мансабига тайинлаган. Улар Амир Темурдан бир қадам ҳам ажралишмаган. Масалан, улардан 100 нафари ўнбоши, яна 100 нафари юзбоши, қолган 100 нафари мингбоши мансабига тайинланган. Қолган 13 нафари беклербеги, амир ул-умаро мансабини олган.

“Темур Тузуклари”дан маълум бўлишича, бу борада бекларнинг тажрибаси, фаросати, баҳодирлиги ва шижоати каби шахсий хислатлари ҳисобга олинган. “Тажрибамдан синаб билдимки, - дейди Амир Темур, - жангнинг сир-асрорини, ғаним аскарларини синдириш йўлини билган, уруш қизиганда ўзини йқотмасдан, қўл-оёғи бўшашмасдан лашкар фавжларини жангга бошлай оладиган, агар қўшин сафига раҳна тушса, уни тезда тузата оладиган кишигина амирлик ва ҳукмронликка лойиқ ҳисобланади”. Нуфузли амирлар барлос, арғин, жалоир, тулкичи, дулдой, мўғул, сулдус, туғдой, қипчоқ, орлот, тотор қабилаларидан ва тархонлар орасидан сайланган. “Буларнинг барчаси тамғам сурати акс эттирилган муҳрим босилган (ҳужжат)га эга бўлиб, менга хос навкар

бўлиб хизмат қилганлар”, - дейди Амир Темур. “Тузукот”да яна бир муҳим нарса – ижтимоий-иқтисодий муносабатларга доир маълумотлардир. Асарда айтилишича, Амир Темур қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштирганларни рағбатлантирган. Бундай ишга қўл урганларга Амир Темур ҳукумати катта имтиёзлар берган. Бу ҳақда “Тузукот”да қуйидагиларни ўқиймиз: “Биринчи йили ундан ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили эса қонун-қоидага мувофиқ хирож йиғилсин”. “Ўлик” ерларни ҳосилдор ерларга айлантириш шарт-шароитлари ҳақидаги кўрсатмалар ҳам диққатга сазовордир: “Хароб бўлиб ётган ерлар эгасиз бўлса, холиса (давлат ерларини бошқарувчи маҳкама) тарафидан обод қилинсин. Агар эгаси бўлса-ю обод қилишга қурби етмаса, унга турли асбоблар ва керакли нарсалар берсинлар, токи ўз ерини обод қилиб олсин. Яна амр қилдимки, хароб бўлиб ётган ерларда коризлар қурсинлар, бузилган кўприкларни тузатсинлар, ариқлар ва дарёлар устига кўприклар солсинлар, йўл устида, ҳар бир манзилгоҳга работлар қурсинлар”.

Амир Темур замонида олиқ-солиқлар муайян тартибда белгиланган эди. Энг муҳими, ердан олинадиган хирож миқдори ҳам, чорвадан олинадиган солиқ миқдори ҳам белгиланган эди. Муҳосиллар (солиқ йиғувчилар)нинг фаолияти устидан назорат ўрнатилган. “Амр қилдимки, - дейилади “Тузукот”да, - раиятдан мол-хирож йиғишда оғир аҳволга тушириб қўйишдан ёки мамлакатни қашшоқ қилиб қўйишдан эҳтиёт бўлиш зарур, чунки раиятни хонавайрон қилиш давлат хазинасининг камбағаллашувига олиб келади. Хазинанинг ғариб бўлиб қолиши эса, сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг заифлашувига олиб боради”.

Амир Темур армияси ташкилий ва ҳарбий тузилишида, шунингдек, жанг олиб бориш учуллари борасида ўз даврида энг катта ва қудратли армия эди. Қўшин ўнг минглик (туман) тартибида тузилиб, ўнлик, юзлик, мингликларга бўлинган. Қўшинлар кўнгиллилар тарзида тузилган бўлиб, отлиқлар ва пиёдалардан иборат эди. Қуроллар ўқ-ёй, найза, қилич, гурзи, табар, манжаниқ ва ҳоказолардан иборат бўлган. Жанговар тартиб, машҳур “лой жанги” (1365) даврида ғул (марказ), баронғор (ўнг қўл), жавонғор (сўл қўл), қанбул (қанот ҳимояси), манглай (илғор қисм), ҳировул (орт томон)дан иборат қилиб тузилган. Бундай саф тузишда марказ қанотларга қараганда кучсиз бўлган. Унда қоровул, заҳира қисм бўлмаган. Кейинчалик 35 йил давомида Амир Темур ўз армиясини такомиллаштирди ва ҳар қандай шароитда жанг қила оладиган армияга айлантирди. Масалан, ўша даврнинг энг йирик жанги, яъни Амир Темур билан Тўхтамиш ўртасида 1391 йилда бўлган Қундузча мавзесидаги урушни олайлик. Шарафиддин Али Яздийнинг таъкидлашича, Амир Темур ўз қўшинларини 7 фавжга бўлинган янги ҳарбий тартибда жойлаштирган. Уларга Амир Сулаймоншоҳ, шаҳзодалар Муҳаммад Султон, Мироншоҳ ва Умаршайх, Амир Бердибек кабилар қўмондонлик қилишган. Бунда қўшин икки сафда жойлашиб, резервга ҳам эга бўлган. Биринчи сафда чап қанот (шиғовул), асосий корпус (авонғор) ва ўнг қанот (човул) авонғирлари; иккинчи сафда чап қанот (жавонғор), асосий корпус (авонғор) ва ўнг қанот (баронғор); учинчи сафда – аръергард (асосий кучлардан орқадаги қисм) ёки резерв (тарҳ) жойлашган.

Амир Темурнинг ўзи бошчилик қилган, энг сараланган ва жасур жангчилардан ташкил топган резерв (тарҳ) юқоридаги икки сафга ёрдам бериш учун тузилган. Амир Темур навкарларга, умуман жангчиларга катта эътибор билан қараган.

“Тузукот”да навкарлар ҳақида шундай дейилган: “Қайси навкар бегига ихлос қўймай, кўнглида гина-кудурат сақласа, ихлоссиз ва адовати туфайли бахтсизликка дучор бўлади. Лекин ўз бегига ихлос қўйган навкарнинг бойлигу давлати ва ноз-неъматлари кундан кунга ортиб боради”. Қўшинни тўплаш ва уларни қисмларга тақсимлаш билан тавончилар шуғулланишган. Юриш вақтида ҳар бир аскар ўзи билан камон ва 30 та ўқ, чапар ва тура, қилич ва бир ойга етарли озуқа олиши лозим бўлган. Ҳар аскар икки от, ҳар ўн киши ўзи билан бирга бир ҳайма (чодир), икки соябон, бир бел, ўроқ, табар, арра, жуволдўз, юз дона игна, арқон, чарм меш, қозон олган.

Амир Темурда муҳим ажойиб хислат – қўл остидагиларнинг гуноҳини кечира олиш қобилиятига ҳам бўлган. Амир Темур эслайди: “Менга ёмонликлар қилиб, бошим узра шамшир кўтариб, ишимга кўп зиён етказганларни ҳам илтижо билан тавба-тазарру қилиб келгач, ҳурматлаб, ёмон қилмишларини хотирамдан ўчирдим”. Аммо у ҳам кўплар қатори уч маротабагача кечира олган. Жониқурбоний қавмидан машҳур Арғуншоҳнинг авлодидан Алибек Амир Темур хотини Ўлжой Туркон оға билан саргардонликда юрганларида бошларига кўп кулфат солган эди. Амир Темур салтанат тахтини эгаллагандан кейин ўша Алибек икки бор унинг қўлига тушди ва икки дафъа ҳам кечирилган ҳамда наслдор от ва зар қадалган камар, қимматбаҳо қурол ҳамда шоҳона сарупо билан тақдирланиб, хизматга қабул қилинган. Аммо у қасамни бузиб, вақтни ғанимат билиб, олий даргоҳни тарк этди ва саҳро сари қочиб кетди. Алибек учинчи бор қўлга тушгач, уни Амир Темур ўлимга буюрди. Амир Темур очкўз, зиқна, ёвуз ва нафс бандларини ёқтирмас эди, айниқса ўзининг кечаги валинеъматини унутганларга нисбатан шафқатсиз эди. “Қайси бир сипоҳий туз ҳаққи ва вафодорликни унутиб, хизмат вақтида ўз соҳибидан юз ўгириб, менинг олдимга келган бўлса, ундай одамни ўзимга энг ёмон душман деб билдим. Чунончи, Тўхтамишхон билан бўлган урушда унинг амирлари менга хабарлар ва шикоят-аризалар ёзиб, ўз ҳукмдори, яъни менинг душманим бўлмиш Тўхтамишхон берган туз ҳақини унутдилар, вафодорлик ва ҳақиқатни бир чеккага йиғиштириб қўйиб, менинг ҳузуримга паноҳ истаб келганлари учун уларни лаънатладим, ўзимга “булар ўз соҳибига вафо қилмагач, менга қилармиди?” – деб ўйладим”.

Шуни таъкидлаш керакки, Соҳибқирон тузган энг қудратли ва интизомли армия, қолаверса, Ватанга, халққа садоқат ҳар қандай тўсиқларни мардонавор енгиб ўтишда муҳим омил бўлган. Шу боис ҳам, унинг ҳарбий санъати ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ. Ана шундай ҳарбий маҳорат билан ёвуз кучлар устидан ғалаба қозонди.

Дарҳақиқат, Амир Темур барпо этган буюк салтанат дунё халқлари тақдирида, уларнинг ўзаро ҳамжиҳатлик асосида юксалишида муҳим омил бўлиб хизмат қилди. Шуни айтиш керакки, Соҳибқирон жамиятдаги барча табақаларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ва манфаатларини эътиборга олган мардлар ва номардларга нисбатан алоҳида тартиб асосида иш юритган. Уларнинг ҳақ-

ҳуқуқлари, бурч ва мажбуриятлари ўзига хос бўлган қонунлар билан амалга оширилган. Бу эса ўз навбатида мустаҳкам, ягона тартиб мавжудлигидан далолат беради. Унинг халқ фаровонлиги, юрт ободончилиги, илм-фан ривожи, давлат бошқаруви ва ҳарбий стратегия соҳасидаги барча- барча ишлари дунё халқлари томонидан шунингдек, тарихий манбаларда эътироф этилганлиги диққатга сазовордир. Зеро, Амир Темурнинг буюк хизматлари Учинчи Ренессанс даври учун мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилиши шак-шубҳасиздир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013. Б. 1265.
2. Ибн Арабшоҳ. Соҳибқирон Амир Темур тарихи. – Тошкент: Info Capital BOOKS, 2024. Б. 496.
3. Усмонов Б.А. Ўзбекистон тарихи. Амир Темур ва темурийлар сиёсий тарихи; Ўқув қўлланма. – Фарғона, 2024. Б. 300.
4. Клавихо Р. Г. Де, Дневник путешествия в Самарқанд ко двору Тимура (1403-1406), М., 1990.

O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Azizbek MUMINOV
Nizomiy nomidagi TDPU
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti (PhD)
m.azizbek14051983@gmail.com
Ozoda XUDOYBERGANOVA
Toshkent Davlat Pedagogika
Universiteti 4-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada O’zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda kadrlar tayyorlashning ahamiyati, zamonaviy talablar va xalqaro standartlar asosida ta’lim jarayonlarini isloh qilish zaruriyati keng yoritilgan. Shu bilan birga, innovasion yondashuvlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishda turizm industriyasi bilan hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Xalqaro tajriba misolida mutaxassis tayyorlashning samarali modellari muhokama qilingan va milliy tizimga tatbiq etish bo’yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *O‘zbekistonda turizm, kadrlar tayyorlash, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion o‘qitish metodlari, turizm sohasida malaka oshirish, ta’lim va turizm integratsiyasi*

Аннотация: В данной стате подробно освещаеця значение подготовки кадров для развития туристической отрасли в Узбекистане, необходимост реформирования образовательного просесса на основе современных требований и международных стандартов. Также проанализированы вопросы внедрения инновасионных подходов, исползования сифровых технологий, формирования практических навыков в сотрудничестве с индустрией туризма. На примере международного опыта обсуждены еффективные модели подготовки спесиалистов и даны рекомендасии по их применению в насионалной системе. Ключевые слова: туризм в Узбекистане, подготовка кадров, современные подходы, инновасионные методы обучения, повышение квалификасии в сфере туризма, интеграсия образования и туризма.

Annotation: This article highlights the importance of personnel training for the development of the tourism sector in Uzbekistan, as well as the necessity of reforming the educational process based on modern requirements and international standards. It also analyzes issues related to the implementation of innovative approaches, the use of digital technologies, and the development of practical skills through cooperation with the tourism industry. Based on international experience, effective models of specialist training are discussed, and recommendations are provided for their implementation in the national system. Keywords: tourism in Uzbekistan, personnel training, modern approaches, innovative teaching methods, professional development in tourism, integration of education and tourism.

Dunyoda turizm global iqtisodiyotning eng serdaromad va strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. Xususan, postpandemiya davrida turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-farovonlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekistonda so’nggi yillarda mazkur sohani davlat siyosati darajasida rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va chet ellik sayyohlar oqimini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonlarda turizm xizmatlarini sifatli tashkil etish, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash birinchi darajali masala sifatida qaralmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kadrlar tayyorlash masalasiga alohida to’xtalib, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, ekanligini ta’kidlab o’tdi [1].

Turizm sohasi xizmatlar sohasining o’ziga xos yo’nalishi bo’lib, u yuqori darajada muloqot, tashkiliy qobiliyat, madaniy va til bilimi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’nikmasi talab qilinadi. Mustaqillik dastlabki yillarida O’zbekistondan turizm sohasida kadrlar tayyorlash bo’yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Turizm iqtisodiyoti” yo’nalishida mutaxassislar tayyorlangan. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vaziriligining 1993 yildagi xisobotidagi ma’lumotiga ko’ra, 1993/1994 o’quv yilidan boshlab Buxoro davlat universitetida ham turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash yo’lga qo’yilgan [2]. Turizm industriyasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash bilan bir qatorda yangi ish o’rinlari tashkil etish va mutaxassis xodimlar tomonidan bajarilishidan kelib chiqib, ta’lim sohasi mamlakat ijtimoiy sohasining tarkibiga kiritilib, bu sohaga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashga ta’lim sohasini jadallashtirish bilan erishiladi. Bu haqda Birinchi Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek: “Oldimizda turgan eng ezgu

maqsadlarimiz mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham bularning barchasi, avvalambor yangi avlod, unib o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir" [3].

Turizm sohasida 2000-2005 yillar mobaynida, zarur pedagogik kadrlar tayyorlanishini hisobga olgan holda, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Termiz va Shahrisabz shaharlarida turizmga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarini tashkil etish rejasini 1999 yilning 1 sentyabriga qadar tuzilib va uni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qarorda ko'rsatilgan [4]. Kadrlar tayyorlash bevosita turizm sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga bog'liq. Chunki, sohada kadrlarni tayyorlash turizm sohasida aniq chora-tadbirlar orqali ta'minlanadi.

Jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholining ko'pgina qismini ish bilan bandligini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi va shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga ega. Ta'limni rivojlantirishda Yevropa Ittifoqi Komissiyasining "TEMPUS-TASIS" granti O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga 1998 dastlab qo'llangan bo'lib, o'quv jarayonini takomillashtirish kadrlarni jahon andozalari darajasida tayyorlash va qayta tayyorlash ko'zda tutilgan [5].

Oxirgi 5 yilda turizm kadrlarini tayyorlash sohasida bir qator tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Turizm va madaniy meros universiteti tashkil etildi (Toshkent shahrida), Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon kabi tarixiy shaharlarda filiallar ochildi,,turizm yo'nalishida kollej va texnikumlarda maxsus mutaxassisliklar joriy etildi. O'zbekiston turizm va servis xizmati ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga asosan Samarqand iqtisodiyot va servis institutida turizmning ustuvor yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash belgilandi. Samarqand iqtisodiyot va servis institut "Xalqaro turizm va turizm servisi" kafedrasi bir qancha chet el oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Jumladan, Moskva Davlat Servis Universiteti, Moskva hukumati qoshidagi "Turizm va mehmonxona-restoran biznesi Moskva akademiyasi", Misr Arab Respublikasi Xeluan Universiteti, Malayziyaning "Taylor" universiteti, Xo'ja Axmad Yassaviy nomli xalqaro universitet (Qozog'iston), Qozog'iston Iqtisodiyot Universiteti va Qozog'iston Davlat Universitetlari hamda Toshkent shaxridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bilan ilmiy ish va ilmiy-amaliy konferensiyalarda bevosita ishtirok etib kelmoqdalar. Bunday halqaro hamkorlik Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, Xalqaro turizm fakulteti turizm sohasida AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Fransiya, Gresiya, Italiya, Malayziyaning oliy o'quv yurtlari bilan yo'lga qo'yilgan. Mazkur fakultet Jahon sayyohlik tashkilotiga a'zo ham hisoblanadi. Ushbu ta'lim dargohida tashkil etilgan "Ochiq osmon ostidagi muzey" nomli tarixiy-madaniy majmuada O'zbekistonning noyob me'moriy obidalar, xushmanzara tabiat manzaralari hududlari haqida talabalar ma'lumot olish imkoni mavjud.

O’zbekistonda aholini ish bilan ta’minlash borasidagi dasturiy maqsadlarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim muassasalari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlashning hududlarda yo’lga qo’yish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Samarqand viloyati hokimligining taklifiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Samarqand shahrida “Ipak yo’li” turizm xalqaro universiteti tashkil etildi [6].

Turizm sohasida yuqori malakali va jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga obyektiv zarurat yuzaga kelmoqda. Xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy ishlarni olib borish bo’yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro’yobga chiqarish, Butunjahon Turizm Tashkiloti, Xalqaro ekoturizm tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida O’zbekistonda Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Toshkent shahridagi Inxa Universiteti, Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti, Farg’ona shahrida Koreya xalqaro universitetilarida turizm sohasida jahon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yilgan.

O’zbekiston Respublikasida turizm sohasida kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyot o’rtasida integrasion aloqalarni yo’lga qo’yilishida oliy ta’lim muassasalari o’zaro hamkorligi muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, turizm sohasida innovasion loyihalarni amalga oshirish, turizm sohasi bo’yicha fan va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ta’lim muassasalarini xalqaro grantlarda, ilmiy stajirovkalarda ishtirok etishi muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda turizm sohasi bo’yicha kadr tayyorlash 25 ta oliy ta’lim muassasasida 187 nafar professor-o’qituvchi faoliyat olib bormoqda [7].

O’zbekiston Respublikasida turizm sohasida uzluksiz ta’lim va malaka oshirish tizimini shakllantirishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hozirgi kunda hal qilinishi kerak bo’lgan masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun o’quv jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanishda ilg’or xorijiy tajribalarini qo’llash orqali turizm sohasida o’zaro mustahkam hamkorlikni o’rnatish, soha tarmoqlaridan kelib chiqib xalqaro standartlarga mos maqsadli ta’lim dasturlarini tashkil etish uchun sharoit yaratishda dunyoning nufuzli va zamonaviy ta’lim muassasalari faoliyati muhim hisoblanadi.

Turizm sohasida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash O’zbekistonda mazkur tarmoqni barqaror rivojlantirishning muhim omilidir. Zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, ta’lim jarayoniga innovasiyalarni jalb qilish, amaliyot va nazariya uyg’unligini ta’minlash – bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu bois, sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga davlat, ta’lim muassasalari va xususiy sektorning hamkorlikda yondashuvi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so’zi, 2017 yil 20 sentyabr.№189 (6883).

2. O’zMA, M-141-fond, 1-ro’yxat, 38-yig’ma jild, 142-varaq.

3. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo’lishiga erishish bizning bosh maqsadimizdir. O’quv qo’llanma. – Toshkent: O’qituvchi, 2013.–B. 56.

4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. – Toshkent, 1999 yil 2 iyul, 324-son.. https://lex.uz.

5. Bugungi kun nafasi. // Toshkent oqshomi, 1998 yil 2 mart, №24 (9.062).

6. ““Ipak yo’li” turizm xalqaro universitetini tashkil etish to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. – Toshkent; 2018 yil 28 iyun. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi., 29.06.2018.

7. Otajonova B. Turizm sohasida innovasion loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga doir aloqalar. // “Yangi O’zbekiston” gazetasi. 2021 yil 24 fevral.№190.

8. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(3), 123-126.

8. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1730-1739.

AQIDAVIY MASALALARDA HADISLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Muxammadjon ABDUXAMIDOV
FarDU dotsenti, Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada moturidiylik ta’limoti asosida aqidaga oid qabr azobi, munkar-nakir savoli kabi masalalarda hadislardan foydalanish shartlari, ularni qo‘llash usullari, bu borada salaf ulamolarning qo‘ygan talablari, hadis bilan sobit bo‘lgan masalaga ishonmaganlarning darajalari hamda aqidaga oid masalada ohod hadislardan foydalanib bo‘lmasligini iddao qiluvchi toifalarni fikrlari va ularga raddiyalar tahlili amalga oshirilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *islom, aqida, qur’on, hadis, ohod hadis, mutavotir, qabr azobi, fosiq, bid’at, g‘ayb.*

Аннотация. *В данной статье на основе учения мутуридизма рассмотрены условия использования хадисов, особенно хадисов, в таких вопросах, как наказание могилы и вопрос мункар-накира, способы их применения, требования, предъявляемые учёных-предшественников в этом отношении, уровень тех, кто не верит в вопрос, установленный хадисами, и использование хадисов в вопросах, связанных с акидой. Анализ мнений и возражений против категорий, утверждающих, что они не существуют, имел было проведено.* ***Ключевые слова:*** *Ислам, Акида, Коран, Хадис, Ахад Хадис, Мутаватир, могильное наказание, преступник, ересь, невидимое.*

Annotation. *This article, based on the teachings of Muturidism, examines the conditions for the use of hadiths, especially hadiths, in issues such as the punishment of the grave and the issue of munkar-nakir, methods of their application, the requirements of predecessor scholars in this regard, the level of those who do not believe in the issue , established by hadith, and the use of hadith in matters related to aqidah. An analysis of opinions and objections to categories claiming*

that they do not exist has been carried out. ***Key words:*** *Islam, Aqida, Koran, Hadith, Ahad Hadith, Mutawatir, grave punishment, criminal, heresy, invisible.*

Har bir ilmning o‘z istilohlari bo‘lgani kabi, aqida ilmining ham o‘z istilohlari bor.

Unda mutavotir xabar bilan sobit bo‘lgan masalani ilmi yaqin bilan sobit bo‘ldi, - deyiladi. Mutavotir xabar bilan sobit bo‘lmagan masalani “zonn” bilan sobit bo‘ldi, - deyiladi. Bu yerdagi “zonn” bizdagi gumon ma’nosini anglatmaydi. Balki ilmi yaqin darajasida bo‘lmagan ilm ma’nosini anglatadi.

Eng muhimi, “zonn” bilan “zonn”ning farqi bor. Ohod xabar aqidada hujjat bo‘lmaydi, deganlarning “zonn” bilan imom Buxoriy, imom Muslim kabi jumhur ulamolar tan olgan imomlar rivoyat qilgan sahih hadisda naql qilgan “zonn”ning, albatta, farqi bo‘ladi. Bu haqda Ibn Saloh “Muqaddima” nomli kitobida quyidagilarni yozadi:

“Albatta, dastlab ixtiyor qilgan mazhabimiz to‘g‘ri ekani menga ayon bo‘ldi. Chunki, xatodan ma’sum bo‘lgan kimsaning “zonn”i xato bo‘lmaydi. Ummat esa, o‘z ijmo’ida xatodan ma’sumdir” [4-B. 114].

Bu haqda Abdurahmon Hasan Habannakal Maydoniy “Al-Aqida al-islamiya va ususuha” nomli kitobida quyidagilarni yozadi:

“Ba’zi ohod hadislar aqoiddan bir qismini o‘z ichiga olgan. Ularni islom ummati o‘zining avvalgi asarlarida hech qanday inkorsiz qabul qilib olgan. Shu sababdan o‘sha hadislar mutavotir martabasiga ko‘tarilgan. Musulmonlar ularning ma’nosini hech bir inkorsiz qabul qilgani uchun ularni “ma’naviy mutavotir” deyiladi. U esa, lafzi mutavotir bo‘lgan xabar ifoda etgan narsaning xuddi o‘zini ifoda etadi”.

Aqoid ilmi olimlari, “Ohod hadislarni aqidada hujjat qilib bo‘lmaydi” deganlarni qattiq qoralashganini ham aytib o‘tish lozim. Bunga misol tariqasida “Talxisi sharhi aqoidi Tohoviya” kitobidan iqtibos keltiriladi: “Muhammad (s.a.v) dan sahih yo‘l bilan sobit bo‘lgan shar’iy xabar va bayonlar hammasi haq” [1-B. 41].

Islomda eng nozik masala e’tiqod masalasi ekani hammaga ma’lum. Ayni ana shu e’tibordan Alloh aqidaning javhariy – asl masalalarini, boshqacha qilib aytganda, ruknlarini Qur’on orqali sobit qilgan. Chunki, bu sohada bir so‘z bilan kishining imoni kufrga, jannati do‘zaxga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham, aqoid ilmi ulamolari Qur’ondan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan dalil – hadislarni aqida bobida qanday dalillar sifatida qabul qilish kerakligi haqida bahs qilishgan.

Demak, aqida sobit bo‘lishi uchun faqat mutavotir, ya’ni, yolg‘onga kelishib olishlari mumkin bo‘lmagan ko‘p sondagi roviylar rivoyat qilgan hadis olinadi.

Lekin aqida bo‘yicha keltirlgan dalillarga qaralsa, ko‘p xabarlar ohod hadislar bilan sobit bo‘lganini ham ko‘rish mumkin. Ba’zi ulamolar, ohod hadis bilan aqida sobit bo‘lmaydi, – deyishadi. Ammo qabr azobi, Munkar-Nakir savoli, Sirot, tarozi, shafoat kabi aqida masalalari aynan ohod hadislar bilan sobit bo‘lgan.

Islom aqidasining asosi hisoblangan, imon rukni bo‘lgan, Allohga, Muhammad (s.a.v)ga, Qur’onga, Qiyomat kuniga, farishtalarga, qazoi qadar va boshqa shunga o‘xshash “Dindan deb bilishlik zarur hisoblangan” masalalarga imon keltirmagan odam butunlay dindan chiqib kofir bo‘ladigan xabarlarning sobit bo‘lishi uchun ilmi

yaqiniy lozim. U esa, Qur’on kuchidagi dalilni taqozo qiladi. Darhaqiqat, mazkur xabarlar Qur’on bilan sobit bo‘lgan. Bunga hech kim ixtilof qilmaydi.

Lekin, ohod hadis ilmi yaqiniyni ifoda qiladimi, degan tortishuv natijasi keyinchalik ba’zi ixtiloflarga sabab bo‘ldi. O‘sha masalada, ahl as-sunna va-l-jamoa ulamolari ohod hadis bilan kelgan xabarni inkor qilgan kishini imondan ajratadigan aqida sobit bo‘lmaydi, – deyishgan [1-B. 58].

Shu bilan birga ulamolar ohod hadisda kelgan hukmga amal qilish uchun ba’zi shartlar ham qo‘yishgan. Jumladan, hanafiy mazhabi ulamolari ohod hadisga amal qilish uchun uchta shart qo‘yishgan [9-B. 81].

1. Ohod hadisni rivoyat qilgan shaxs unga xilof ish qilmasligi kerak. Agar roviy bir hadisni rivoyat qilsa-yu, unga amal qilmasa, uning rivoyatiga emas, amaliga ergashiladi. Zero roviy o‘z rivoyatiga uning mansux bo‘lganini (amaldan qolganini) bilgani uchun amal qilmasligi mumkin. Shuning uchun hanafiylar Abu Hurayra rivoyat qilgan «It yalagan idishni yetti marta yuvish» haqidagi hadisga amal qilishmagan, chunki Abu Hurayra bunday idishni uch marta yuvgan. Ulamolar shunga amal qilishni tanlashgan.

2. Ohod hadisda kelgan xabar ko‘p takrorlanmaydigan, ko‘pchilik ko‘z o‘ngida sodir bo‘lmaydigan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham hanafiylar namozda Ruku’ga ketishdan oldin ikki qo‘lni ko‘tarish haqidagi hadisga amal qilishmagan. Bu ish aslida ko‘p takrorlanadigan, ko‘pchilikdan yashirin qolishi mumkin bo‘lmagan amal. Chunki namoz ko‘p o‘qilgan, namozning hamma amallari mutavotir hadislar bilan sobit bo‘lgan. Ruku’ga ketishdan oldin ikki qo‘lni ko‘tarish haqidagi hadis ohod bo‘lib qolishining o‘zi shubha tug‘diradi. Agar bu amal boshqa amallar darajasida bo‘lganida, mutavotir hadis bilan sobit bo‘lar edi.

3) Ohod hadisda kelgan xabar shariatning asosiga xilof bo‘lmasligi kerak. Bunga Abu Hurayra rivoyat qilgan, birovning sersut qo‘yini sog‘ib ichib turgan odam sut evaziga bir so’ miqdorda xurmo beradi, degan hadis misol bo‘ladi. Vaholanki, shariat qoidasi bo‘yicha, bir narsaning evaziga uning o‘ziga o‘xshash narsa qaytariladi.

Qolaversa, Abu Hurayra rivoyat qilgan bu hadis nasx qilingan bo‘lishi ham mumkin.

Hadis orqali sobit bo‘lgan hukmlar to‘rt qismga bo‘linadi:

1. Qur’on bilan sobit bo‘lgan hukmlarni ta’kidlovchi hukmlar. Bunga namoz o‘qish, zakot berish, ro‘za tutish, haj qilishga undovchi hamda Allohga shirk keltirish, yolg‘on guvohlik berish, ota-onaga oq bo‘lish, birovni nohaqdan o‘ldirish kabi ishlardan qaytaruvchi hadislar kiradi. Masalan, «Musulmon kishining moli boshqaga halol emas, faqat o‘zi rozi bo‘lib, bersa halol», mazmunidagi hadis “Niso” surasining:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آَمَنُوا لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَكُمْ بَيْنَكُمْ بِالْبَاطِلِ

«Ey imon keltirganlar, mol-mulklaringizni o‘rtada nohaq (yo‘llar) bilan yemang» [10:83] 29-oyatini ta’kidlash uchun kelgan. Shuningdek, «Xotinlarga yaxshi muomalada bo‘ling» hadisi ham “Niso” surasining 19-oyatini:

وَعَاشِرُوهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ

«Ular bilan totuv turmush kechiring» [10-B. 80] oyatini ta’kidlab kelgan.

2. Qur’onda umumiy yoki mutlaq bo‘lgan hukmlarni xos va qaydli qiluvchi hukmlar. Umumiy hukmni xos qilishiga misol: Alloh nikohi harom bo‘lgan ayollarni

“Niso” surasining 23-24-oyatlarida sanab bo‘lganidan keyin: «Va sizga bulardan boshqalar halol qilindi» [10-B. 81-82], – degan.

Bu umumiy hukm. «Bir ayolni uning ammasi, xolasi, aka-ukasining qizi, opa-singlisining qizi ustiga nikohlab bo‘lmaydi», – degan hadis mazkur umumiy hukmni xossatan ushbu to‘rt toifa ayolni mazkur qarindoshlari ustiga kundosh qilib olib bo‘lmasligini bildiradi [2-B. 170].

Endi Qur’onda kelgan mutlaq hukmning hadis bilan qayd qilinishini, ya’ni chegarasining bayon etilishini ko‘rib chiqiladi. “Moida” surasining 38-oyatida:

وَالسَّارِقُ وَالسَّارِقَةُ فَاقْطَعُوا أَيْدِيَهُمَا جَزَاءً بِمَا كَسَبَا نَكَالًا مِنَ اللَّهِ وَاللَّهُ عَزِيز حَكِيمٌ

«O‘g‘ri erkak va o‘g‘ri ayolning – qilmishlariga yarasha jazo va Allohdan (berilgan) azob sifatida – qo‘llarini kesing» [10-B. 114], – deyiladi.

Arab tilida qo‘l deb, panjaning uchidan yelkagacha bo‘lgan joyga aytiladi. Demak, Qur’on mutlaq shaklda bayon qildi. Bu mutlaq hukmni Muhammad (s.a.v.) o‘g‘rining qo‘lini kaft bilan bilak qo‘shilgan joyidan kesish bilan belgilab berdilar.

3. Qur’onda kelgan umumiy hukmlarni bayon qiluvchi hukmlar. Qur’onda namoz o‘qish, ro‘za tutish, haj qilish, zakot berish kabi umumiy hukmlar kelgan. Sunnatda esa namozni qanday o‘qish, ro‘zani qanday tutish, hajni qay tariqa ado etish, zakotni qanday berish va boshqa shunga o‘xshash hukmlar batafsil bayon qilib berilgan.

4. Qur’onda zikr qilinmagan hukmlarning sunnatda zikr qilinishi. Masalan, oila ko‘rgan zinokorni toshbo‘ron qilish Qur’onda yo‘q, lekin sunnat bilan sobit bo‘lgan. Shuningdek, bir guvoh va qasam bilan hukm chiqarish, erkaklarga tilla va ipakli kiyim kiyishning haromligi, sadaqai fitr kabi hukmlar sunnat bilan sobit bo‘lgan [5-B. 17].

Hadislar bilan sobit bo‘lgan aqidalar. Qabr azobi haqligi. Imom Buxoriy va Imom Muslim Oisha binti Abu Bakrdan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi:

بعد .فسألت قالت عائشة ان يهودية دخلت عليها فذآرت عذاب القبر فقالت لها أعاذك الله من عذا ب القبر
صلي .القبر فقال “ نعم ،عذاب القبر حق” قالت عائشة فما رأيت رسول الله ص رسول الله ص عن عذا ب
”صلوة الا تعوذ باالله من عذاب القبر

Bir yahudiy xotin Oisha binti Abu Bakr huzuriga kirdi. Qabr azobi to‘g‘risida gapirib, Alloh seni qabr azobidan asrasin, dedi. Oisha Muhammad (s.a.v.)ga yahudiy xotindan qabr azobi to‘g‘risida eshitganlarini aytib, uning gapi to‘g‘rimi, – deb so‘radi. Muhammad (s.a.v.): “Ha, qabr azobi haq”, – dedilar. Oisha: “Shundan keyin Muhammad (s.a.v.) qachon namoz o‘qiganlarini ko‘rsam, “qabr azobidan asra” – deb, Allohdan panoh tilar edilar”– dedi [6].

Ahmad ibn Hanbal Ubay ibn Abdullohdan qabr azobi to‘g‘risida so‘radi. U qabr azobi to‘g‘risida Muhammad (s.a.v.)dan ko‘p sahih hadislar rivoyat qilgan. Ularga ishonib, qabr azobi deb e’tiqod qilinadi. Zero, “Hashr” surasining 7-oyatida:

وَمَا آتَاكُمُ الرَّسُولُ فَخُذُوهُ وَمَا نَهَاكُمْ عَنْهُ فَانتَهُوا

“Payg‘ambar sizga keltirgan narsani oling, sizlarni qaytargan narsadan qayting” [10:546], – degan, deb javob berdi. Shundan so‘ng Imom Ahmaddan qabr azobi to‘g‘risida so‘rashganda, “Qabr azobi haq, uni inkor qilganlar adashgan gumroh bo‘lib, boshqalarni ham adashtiradi”, – dedi.

Imom Termiziy Abu Saiddan rivoyat qilgan hadisda Muhammad (s.a.v.):

انما القبر روضة من رياض الجنة أو حفرة من حفر النار

“Albatta qabr kimgadir jannat bog‘laridan bir bog‘, kimgadir do‘zax chohlaridan bir choh”, – degan. “Toho” surasining 124-oyatida:

وَمَنْ أَعْرَضَ عَن ذِكْرِي فَإِنَّ لَهُ مَعِيشَةً ضَنكًا وَنَحْشُرُهُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ أَعْمَى

“Kim mening eslatmamdan yuz o‘girsa (kofir bo‘lsa), bas, uning uchun tang (baxtsiz) turmush (qabr azobi) bo‘lishi muqarrar va Biz uni qiyomat kunida ko‘r holda tiriltirurmiz» [10-B. 230], – deyiladi. Muhammad (s.a.v.): “Qur’onda o‘ttiz oyatdan iborat bir sura bor, uni najot beruvchi sura deyiladi. U Mulk surasi bo‘lib, ummatlarimdan qaysi biri uni har kecha xufton namozidan keyin o‘qisa, qabr azobidan saqlanadi”, – deganlar. Bu oyat va hadislardan qabr azobi haq ekani ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun ahl as-sunna va-l-jamoa ulamolari qabr azobi haq ekaniga ittifoq qilishgan.

Qadariy va mu’taziliylar me’roj voqeasini ohod xabar bilan sobit bo‘lgan, degan sabab bilan rad etishganida ularga quyidagicha raddiya beriladi: “Ohod hadislar uch martabada bo‘ladi: Birinchisi – faqihlar ohod hadislardan ba’zilariga ishonib, bilittifoq uni qabul qilgan, mazkur holatdagi ohod hadis turli majlislarda roviylarining ko‘pligi bois mutavotir hadisga yaqin bo‘lgan mashhurlik darajasini [9-B. 502] egallagan. Taniqli mutaqaddim sahobalardan birortasi, uni inkor qilmagan. Natijada mazkur holatda ohod hadis ijmo o‘rniga o‘tib, ilm (e’tiqod qilish) va amalni vojib qiladi. Kim uni inkor qilsa, fosiq va bid’atchi bo‘ladi hamda unga ta’zir va zajr berishni vojib etadi. Ba’zi faqihlar mazkur holatdagi ohod hadisni inkor qilgan kishi kofir bo‘ladi, deydi.

Ikkinchisi – ba’zi ohod hadislarni inkor qiluvchi fosiq bo‘ladi, lekin bid’atchi emas.

Uchinchisi – ohod hadislardan ba’zisini inkor qiluvchi kishi fosiq ham, bid’atchi ham bo‘lmaydi. Bunda me’roj xususidagi ohod xabar mashhurlik darajasida bo‘lgan. Buni inkor qilgan kishi kofir bo‘lmasa ham, bid’atchi fosiqqa aylanadi. Me’rojning Bayt al-Maqdisgacha bo‘lgan qismini inkor qilgan kishi kofir bo‘lishiga ijmo qilingan”[3-B. 152].

Bundan ma’lum bo‘ladiki, mo‘taziliy, qadariy yoki hozirgi davrdagi hizbut tahrir kabi firqalar ohod hadislar sobit bo‘lgan barcha e’tiqodiy masalalarni inkor qilishi to‘g‘ri emas, balki ularning har birining daraja va martabasiga qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурашид қори Баҳромов. Ақидада адашмайлик. – Тошкент. Мовароуннаҳр, 2005 й.

2. Абулқосим Ҳиббатуллоҳ Лалкоий. Шарҳ усули эътиқод аҳл ас-сунна вал-жамоа. 1-жилд. – Искандария (Миср): Дор ал-Басират, 2001. – Б. 170-171

3. Абу Шакур Солимий Кеший. Тамҳид. – Б. 256.

4. Зуҳриддин Ҳусниддинов. Ислом йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Тошкент. Мовароуннаҳр, 2000 й.

5. Мунқиз ибн Маҳмуд Сақор. ат-Такфир ва завобитуҳу. – Жидда: Робитату-л-олами-л-исломий, 2009. – 17 б.

6. Муҳаммад Зоҳид Қўтқу. Аҳли суннат вал-жамоат ақоиди. www.ziyouz.com кутубхонаси.

7. Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Табризий. Мишкот ал-масобиҳ. – Байрут: Дор ал-фикрат, 1991.
8. Усмонхон Алимов. IX-XI асрларда Самарқандда калом илмининг ривожланиши. – Тошкент. Мовароуннаҳр, 2008 й
9. Шайх Аҳмад Мулла Жийван Ҳиндий. Нур ал-анвор. – Карачи: Мактаба ал-бушро. Ж. I. 2008. – Б. 502.
10. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент. Тошкент ислом университети, 2018. – Б. 527.

МЕТОДЫ ОЦИФРОВКИ ПРЕДМЕТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА: ПРОЕКТ 3D DIGITAL SILK ROAD В САМАРКАНДЕ

Зарина НУРИДИНОВА
Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода
zaranoor@mail.ru

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbekiston muzeylarini rivojlantirish doirasida madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish usullari, Samarqand shahridagi «3D digital silk road» loyihasi ham batafsil ko'rib chiqilgan. Samarqand shahridagi «3D Digital Silk Road» loyihasi bo'yicha 7-ilmiy ekspeditsiyani tashkil etishning maqsadi muzeylar sohasiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish texnologiyalar muzeylar sohasida keng rivojlanib kelayotganini kuzatish mumkin. Kelgusida madaniy merosni raqamlashtirishning ishlab chiqilgan tizimini joriy etish muzeyga tashrif buyuruvchilarni qiziqtirishga imkon beradi.* ***Kalit so'zlar:*** *raqamlashtirish, ekspeditsiya, raqamli texnologiyalar, mutaxassislar, madaniy meros, muzey, ko'rgazma, 3D, tarix, axborot, virtual tashrif buyuruvchilar.*

Annotation: *This article discusses the methods of digitisation of cultural heritage objects in the context of the development of museums in Uzbekistan, as well as a detailed review of the «3D digital silk road» project in Samarkand. The purpose of organising the 7th scientific expedition of the «3D Digital Silk Road» project in Samarkand was to introduce modern digital technologies into the sphere of museums. At present it is possible to observe how digitalisation technologies are developing and becoming more accessible for widespread use. In the long term, the introduction of the developed system of digitisation of cultural heritage makes it possible to interest potential museum visitors.* ***Keywords:*** *digitisation, expedition, digital technologies, specialists, cultural heritage, museum, exhibit, 3D, history, information, virtual visitors.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы оцифровки предметов культурного наследия в контексте развития музеев Узбекистана, также подробно рассмотрен проект «3D digital silk road» в Самарканде. Цель организации 7-й научной экспедиции по проекту «3D Digital Silk Road» в Самарканде было внедрение современных цифровых технологий в сферу музеев. В настоящее время можно наблюдать как технологии цифровизации развиваются и становятся доступнее для повсеместного использования. В перспективе внедрение разработанной системы оцифровки культурного наследия позволяет заинтересовать потенциальных посетителей музея.* ***Ключевые слова:*** *оцифровка,*

экспедиция, цифровые технологии, специалисты, культурное наследие, музей, экспонат, 3D, история, информация, виртуальные посетители.

За последние годы в стране уделяется особое внимание по сохранению культурного наследия, который является частью мировой культуры [1, – С. 4–6.]. В нашей стране вопросы по сохранению и изучению, а также консервации и реставрации благоустройства и развития туризма являются одними из актуальных на сегодняшнего день вопросов. В Узбекистане, в частности в регионах можно увидеть своими глазами музеи под открытым небом, которые несмотря на неустойчивые климатические условия и механические воздействия людей не потеряли свой первоначальный облик, но которые нуждаются в дополнительных работах реставрации. Во многих регионах страны проводятся реставрационные работы специалистами (реставраторами); приглашаются археологи и учёные; которые непосредственно занимаются работами по сохранению культурного наследия; закупается специальная аппаратура для работы со сканированием и оцифровки культурного наследия, а также привлекаются специалисты по компьютерной графике [2, – С. 3–5.].

Администрация ансамбля Регистан совместно со специалистами Люблинского Технологического университета начали работы по 3D оцифровке медресе, а также музейных экспонатов. Заключение договора «О сотрудничестве» между дирекцией ансамбля Регистан и Люблинским Технологическим университетом было составлено еще в 2018 году. В связи с этим польские специалисты в рамках 7-й научной экспедиции по проекту «3D Digital Silk Road» с 5 по 18 мая 2022 года посетили Узбекистан, в частности культурные достопримечательности. В состав данной экспедиции входили: доктор Эльжбета Милош (руководитель проекта «3D Digital Silk Road»), профессор Ежи Монтусевич, профессор Марек Милош, доктор Томаш Шимчик, доктор Сильвестр Корга и Анна Саламаха [3, – ссылка.].

За двенадцать дней пребывания в Узбекистане польские специалисты работали:

- в ансамбле Регистан;
- в комплексе Шахи-Зинда;
- в мечети Биби-Ханум;
- в Государственном музее истории культуры;
- в музее-обсерватории Мирзо Улугбека;
- во дворце Ак-сарай в Шахрисабзе и другие [4, – ссылка.].

Была проведена колоссальная работа по оцифровке архитектурных объектов специалистами Люблинского Технологического университета. За прошедший период было отсканировано медресе и мечети Тилля-Кари, медресе Шердор, медресе Улугбека, сталактиты всех объектов и другие.

Польские специалисты проводили работу по 3D оцифровке внутренней и внешней стены всех минаретов, а также музейных предметов из выставки-музеев. Проводилась тщательная диагностика и сортировка музейных предметов по периодизации.

Была организована специальная поездка в город Шахрисабз для 3D оцифровки входного портала дворца Ак-сарай XV века. Польских учёных и участников научной экспедиции сопровождали также ведущие специалисты, которые работали в сфере музееведения и археологии.

В данной научной экспедиции главной целью было то, что 3D оцифровка архитектурных памятников и музейных предметов позволит получить точную информацию о состоянии экспонатов. Также, с помощью 3D оцифровки музейных предметов удастся сохранить цифровую информацию на долгие годы, что является актуальным на сегодняшний день. Оцифровка культурного наследия создаст условия для молодых учёных работать исходными материалами для научных исследований, в свою очередь это уникальная возможность дополнить свою научную работу точными фактами. В частности, по всему миру 3D оцифровка имеет большое значение, так как объекты, которые были оцифрованы можно будет опубликовать в интернете в официальных сайтах страны и это хорошая возможность показать 3D объекты виртуальным посетителям в трехмерном измерении.

Как утверждали сами участники экспедиции Купола мечети Тилля-Кари было сканировано в третий раз, данная работа была необходима для изучения и исследования динамики всех изменений. В ходе работы над данной экспедицией, было использовано высокотехнологическое оборудование, которое отвечает международным стандартам. По итогам научной экспедиции результаты работы были опубликованы в виде научной статьи и научной рекомендации.

Для сведения необходимо отметить, что для каждого типа коллекций музейных экспонатов или объекта культурного наследия применяются свои технологии оцифровки. Например, для картин используются широкоформатные комплексы бесконтактного сканирования, книжные фонды цифруются на планетарных сканерах, а габаритные, объемные предметы и экспонаты фотографируются, в том числе при помощи специальных фотомашин, для создания анимированных 3D-роликов экспонатов. Оцифровка музейных фондов является важным процессом, в последние годы и проекты связанные с оцифровкой культурного наследия получают стабильную государственную поддержку. Музеи создают электронные коллекции, открывая ценные фонды для общего доступа и формируют государственные каталоги.

Методы оцифровки подбираются с учетом характеристик и особенностей предметов культурного наследия [5, – С. 661.]. В частности, применяется также фотограмметрия для создания высокоточных трехмерных моделей из серии изображений, полученных под разными углами зрения, и мультиспектральную визуализацию для оцифровки поврежденных, хрупких или разрушающихся предметов, чтобы обнаружить скрытые детали, невидимые человеческому глазу [6, – С. 142–144.]. Для графической оптимизации и восстановления используются различные инструменты, в том числе индивидуальная коррекция, улучшение визуального качества и восстановление цветов.

Участники экспедиции считают, что данная работа является началом совместных проектов по оцифровки архитектурных памятников не только в

Самарканде, после которых ученые добились серьёзных научных результатов, но ещё в будущем планируются подобные экспедиции, которые будут проводиться и в других городах страны.

Проект «3D Digital Silk Road» был завершен в сентябре 2022 года. Проект финансировался Национальным Агентством Академии сотрудничества Польши (NAWA), где участвует Люблинский Технологический университет из Польши и четыре ВУЗа из Узбекистана, среди которых Национальный университет Узбекистана, Самаркандский государственный университет, Ургенчский государственный университет и Чирчикский государственный Педагогический институт.

Сканирование и изучение объектов культурного наследия даст возможность проанализировать состояние объектов и подготовить научные рекомендации по устранению различных недостатков, реставрации и консервации сооружений, которые были оцифрованы во время научной экспедиции. 3D сканирование архитектурных объектов Самарканда проводится впервые, и было начато именно в ансамбле Регистан. Опыт сотрудничества с польскими специалистами показывает перспективность данных исследований. За прошедшее время польскими учёными были опубликованы две статьи «Об оцифровке входного портала медресе Шердор» и «Об оцифровке купола мечети Тилля-Кари» в престижных научных журналах мира, где описывается подробно об экспедиции. Кроме того, этот вопрос был презентован в нескольких научных конференциях, что в свою очередь привлекло внимание большинства учёных и специалистов со всего мира.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от от 28.11.2018 г. № ПП-4038 «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан».
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 26 августа 2018 г. ПП-3920 «О мерах по инновационному развитию сферы культуры и искусства в Республике Узбекистан» / / Lex.uz.
3. https://registon.uz/ru/.
4. https://www.samcity.uz/gorod/3033-7-ya-nauchnaya-ekspeditsiya-proekta-3d-digital-silk-road-v-samarkande.
5. Зиндер Е.З. Информационные пространства: генезис требований к фундаментальным свойствам // Современные информационные технологии и ИТ-образование. 2014; № 10: стр. 661.
6. Пронина Л. А. Информационные технологии в сохранении культурного наследия // Культурология. М. : Институт научной информации по общественным наукам РАН. 2009. № 3 (50). стр.142–144.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY SOHADAGI O‘ZGARISHLAR TARIXINING O‘RGANILISHI

Shahodat QODIROVA
Oriental Universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: **Sanjar AXMEDOV**
Oriental universiteti dotsenti v.b., t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar, ularning tarixiy ildizlari hamda bugungi kun ijtimoiy hayotidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada qadimiy davrlardagi “Avesto”dan tortib, islom sivilizatsiyasining buyuk mutafakkirlari, jadidlar harakati va mustaqillik yillaridagi davlat siyosatining ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlari yoritilgan. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoshlar ma’naviyatining shakllanishi, til, tafakkur va madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritib berilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Ma’naviyat, ma’rifat, milliy qadriyatlar, mustaqillik, tarixiy xotira, jadidchilik harakati, davlat siyosati, ma’naviy islohotlar, yoshlar tarbiyasi, ilmiy meros, til siyosati, milliy o‘zlik.*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически проанализированы коренные изменения, произошедшие в духовно-просветительской сфере Узбекистана после обретения независимости, их исторические корни и современное значение в общественной жизни. Рассмотрены этапы развития национальных ценностей от древних времен (в частности, «Авесты») до вклада великих мыслителей исламской цивилизации, движения джадидов и направлений государственной политики в годы независимости. Также освещены актуальные научные исследования последних лет, связанные с формированием духовной культуры молодежи, а также роль языка, мышления и культуры в развитии общества.* ***Ключевые слова:*** *духовность, просвещение, национальные ценности, независимость, историческая память, движение джадидов, государственная политика, духовные реформы, воспитание молодежи, научное наследие, языковая политика, национальная идентичность.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the fundamental changes that have occurred in the spiritual and educational sphere of Uzbekistan after gaining independence, their historical roots, and their relevance in today's social life. The development of national values is examined from ancient times (particularly the “Avesta”) through the contributions of great thinkers of Islamic civilization, the Jadid movement, and the directions of state policy during the years of independence. The article also highlights recent scholarly research on the formation of youth’s spiritual culture, and the role of language, thinking, and culture in the development of society.* ***Keywords:*** *spirituality, enlightenment, national values, independence, historical memory, Jadid movement, state policy, spiritual reforms, youth education, scientific heritage, language policy, national identity.*

O‘zbekiston tarixida ma’naviyat va ma’rifat har doim ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida qarab kelingan. Bu qadimiy yurt o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, chuqur ilmiy-an’analari va yuksak axloqiy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bu ma’naviy-ma’rifiy boylik xalqning ijtimoiy ongida, dunyoqarashida, madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ma’naviyat va ma’rifat masalalari jamiyatni yangilash, milliy tiklanishni amalga oshirishning eng muhim tayanchlaridan biriga aylandi.

Ma’naviyat va ma’rifatning tiklanishi, ularni rivojlantirish borasida olib borilgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy chora-tadbirlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Ayniqsa, xalqning tarixiy xotirasini tiklash, o‘zligini anglash, milliy g‘urur va faxr tuyg‘usini mustahkamlash jarayonlari aynan ushbu sohalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar masalasi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy davr kontekstida ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda.

XX asrning og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitida ma’naviyat va ma’rifat sohalari cheklovlarga uchragan, milliy til, madaniyat, tarix va qadriyatlar ikkinchi darajali masalaga aylantirilgan edi. Biroq shu bilan birga ushbu sohalar qayta tiklanib, ularni o‘rganish, targ‘ib qilish va amaliyotga tatbiq etish yo‘lida keng imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida, fuqarolik jamiyati shakllanishida va milliy ideologiya negizini mustahkamlashda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Bugungi globallashuv sharoitida esa jamiyatning mafkuraviy barqarorligi, axloqiy immuniteti va intellektual salohiyatini mustahkamlash uchun milliy g‘oyaga tayanilgan ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati yanada ortmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlarni tarixiy va konseptual jihatdan o‘rganish, ularni chuqur tahlil qilish, bu sohadagi yutuq va tajribalarni ilmiy jihatdan umumlashtirish bugungi kun talabi sifatida maydonga chiqmoqda.

Ma’naviy qadriyatlar haqidagi dastlabki fundamental qarashlar miloddan avvalgi davrlarga, xususan, “Avesto” – zardushtiylik dinining asosiy manbasida ifoda etilgan. Keyinchalik ushbu qadriyatlar Sharq islom tafakkuri negizida shakllanib, buyuk allomalar - Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlarida chuqur tahlil etildi. Bu siymolar o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari, ma’naviy-axloqiy qarashlarini bayon etgan holda, jahon madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar.

O‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy merosini yaratishda alohida o‘rin tutgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayx Abu Mansur al-Moturidiy kabi ulug‘ zotlar milliy tafakkur, ilohiy madaniyat va ma’rifatning buyuk rahnamolari sifatida e’tirof etiladi. Ular yaratgan falsafiy, diniy, axloqiy ta’limotlar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam ma’naviy poydevor vazifasini o‘tamoqda.

Mustaqillik yillarida ushbu tarixiy merosga qaytish, ularni chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buyuk ajdodlarimizning tavallud sanalari mamlakat miqyosida keng nishonlandi, ular xotirasiga hurmat-ehtirom ko‘rsatildi, asarlari qayta nashr etildi va ilmiy muomalaga kiritildi. Bugungi kunda ushbu bebaho meros yangi jamiyatni barpo etish, fuqarolarda milliy g‘urur va tarixiy o‘zlikni shakllantirishda ma’naviy kuch-qudrat bag‘ishlayotganligi bilan alohida ahamiyatga ega.O‘zbekiston boy tarixiy meros va yuksak madaniy qadriyatlarga ega mamlakat sifatida insoniyat tamadduniga salmoqli hissa qo‘shgan. Biroq XX asrning birinchi yarmi va undan keyingi

davrlarda, ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi mafkurasi ta’sirida mamlakat tarixiga biryoqlama va siyosiy nuqtai nazardan yondashish holatlari kuzatildi. Xususan, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur faoliyati “bosqinchi” sifatida noto‘g‘ri talqin etildi. Vaholanki, uning tarixiy xizmatlari va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi G‘arb sivilizatsiyasining yorqin namoyandalari – Jordano Bruno, Nikola Kopernik yoki Galileo Galileynikidan kam emas edi.

Mazkur davrda o‘zbek xalqining dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi siymolar faoliyatiga e’tibor yetarli darajada qaratilmadi. Ta’lim jarayonida, aksincha, asosan Yevropa olimlarining ilmiy yutuqlari o‘rgatildi, bu esa milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ong va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning zaiflashuviga olib keldi.

Sovet mafkurasi asoratida nafaqat ma’naviyat, balki ma’rifat ham jiddiy cheklovlarga duchor bo‘ldi. Xalq yozuvi, tili va diniy e’tiqodi qat’iy nazoratga olingan, bu esa milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonini to‘xtatib qo‘ygan edi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida qadimdan o‘troq hayot kechirgan ajdodlarimiz ma’naviyat va ma’rifat sohalarida muhim yutuqlarga erishganlar. Ular tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi, xususan maqollar, matallar va hikmatli so‘zlar xalqning axloqiy-me’yoriy dunyoqarashini ifodalovchi bebaho meros sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o‘zining mafkuraviy qarashlarini asoslashda xalq og‘zaki ijodiga, xususan, maqol va hikmatli so‘zlarga murojaat etishni an’anaga aylantirgan edi. Bu jihat uning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” nomli asarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, u quyidagi mulohazalarni ilgari suradi: “Xalq — bamisoli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urunuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar har doim bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch — ma’naviyat bor!” [1-B.19]

Mazkur fikrlar milliy ma’naviyatning tarixiy ildizlari va uning bugungi taraqqiyotdagi o‘rnini chuqur anglashga xizmat qiladi. Zero, mavjud tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston hududi qadimdan madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat markazlaridan biri bo‘lganini isbotlaydi.

Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Turkistonda shakllangan ma’rifatparvarlik harakati, uning asoschilari va targ‘ibotchilari bu borada alohida o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Abduqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Is’hoqxon Ibrat hamda Ahmad Donish kabi ma’rifatparvar ziyolilar mustamlaka siyosatiga qarshi ma’naviy-ma’rifiy asosda kurash olib borganlar.

Ushbu jadid mutafakkirlar Turkiston xalqlarining ozodligi va taraqqiyotining yagona yo‘li – ma’rifat ekani, ayniqsa, xalqni jahl, johillik va istibdod kishanlaridan qutqarishda ilm va tafakkur hal qiluvchi omil bo‘lishi lozimligini ilgari surdilar. Ular dunyo kezib, boshqa xalqlarning taraqqiyot yo‘li va madaniy yutuqlarini o‘rgangan holda, ilm nuri orqaligina xalqni qoloqlikdan olib chiqish mumkinligini angladilar.

Shu boisdan ham ular maktab va maorif tizimini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan faol ishtirok etib, bu borada jasorat va matonat namunalarini ko‘rsatdilar.

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onishi, ma’naviy-ma’rifiy tiklanishi yo‘lida muhim bosqich sanaladi. Biroq bu harakat vakillarining taqdiri chor hukumati, muvaqqat hukumat va ayniqsa, sobiq sovetlar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo‘lgan. Jadidlarning aksariyati o‘zlarining milliy uyg‘onish, erkinlik, davlatchilik va ma’rifat g‘oyalari uchun “millatchi”, “panturkist” kabi siyosiy tamg‘alar bilan ayblanib, ommaviy repressiyaga uchraganlar. Ularning ezgu niyatlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va harakati mafkuraviy jihatdan rad etilgan, faoliyatlari ustiga “qora chiziq” tortilgan.

Jadidchilik harakatining tarixiy asoslari va shakllanish jarayonini o‘rganishga intilgan tadqiqotchilar ham ta’qib va nazorat ostida bo‘lgan. Natijada, mazkur harakatga oid ilmiy izlanishlar uzoq yillar davomida cheklangan holda olib borilgan yoki mutlaqo man etilgan.

Ammo O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy haqiqatni tiklashga, xalqimizning ma’naviy o‘zligini anglashga qaratilgan keng ko‘lamli izlanishlar boshlanib, jadidchilik harakati ham qayta baholandi. Mustaqillik tufayli Turkiston xalqlarining erki, milliy mustaqillik va davlatchilik g‘oyasi uchun kurashgan jadidlar – xalqimizning vatanparvar farzandlari sifatida e’tirof etila boshlandi. Ularning muborak nomlari tiklandi, meroslari chop etildi va ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida qayta o‘rganila boshlandi. Jadidlarning ilg‘or g‘oyalari o‘z mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy va o‘lmas g‘oyalar bo‘lgani sababli mustaqillik bilan birga xalqimiz ongiga yana qaytdi.

Bugungi kunda jadidchilik harakatining tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganayotgan olimlar safi kengaymoqda. Jumladan, B.Qosimov, U.Turayeva, O.Turaqulova, N.Jabborov, R.Jumayev, Z.Namozova, Sh.Shermamatova, Sh.Xojiyeva, F.Qosimov hamda N.Sultonova kabi olimlar tomonidan ushbu harakatning ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik qirralari chuqur tahlil qilingan[2-B.201].

Bundan tashqari, N.Avazov, G.Ravshanova, Sh.Qahhorova, O.Boltaboyeva va S.Boltaboyeva singari o‘nlab ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ham jadidchilik harakatining ma’naviy-ma’rifiy merosi izchil o‘rganilib, ularning xalqimiz tarixidagi tutgan o‘rni va bugungi kunga daxldorligi ilmiy asosda yoritilmoqda.

Millatni millat sifatida dunyoga tanituvchi asosiy belgilar qatorida til eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, ma’naviyati va ruhiyatining in’ikosidir. Dunyo tillari orasida o‘zbek tili o‘zining boy leksik-morfologik tizimi, uslubiy xilma-xilligi, ohangdorligi va badiiy imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu til ming yillar davomida xalqimizning ruhiy va ijtimoiy hayotini aks ettirib kelgan.

Ammo “mevali daraxtga tosh otishadi”, degan naql bejiz aytilmagan. Tarixiy jarayonlarda o‘zbek tiliga nisbatan qator bosim va tahdidlar mavjud bo‘lgan. Jumladan, XV asrgacha turkiy tillarga ikkinchi darajali til sifatida qaralib, “avom tili”, ya’ni omma tili deb baholangan va u orqali yuksak badiiy asar yaratib bo‘lmasligi haqidagi noto‘g‘ri da’volar ilgari surilgan. Biroq bu qarashlarni rad etgan ulug‘ mutafakkir — Alisher Navoiy o‘zining turkiy tilida yozgan besh dostondan

iborat “Xamsa”si, shuningdek, boshqa ko‘plab yirik ilmiy-badiiy asarlari bilan turkiy tilning ifoda vositasi sifatidagi kuch-qudratini isbotlab berdi. Navoiy asarlari tilshunoslik, poetika va badiiy tafakkur rivojida tub burilish yasagan ilmiy-badiiy hodisa sifatida baholanadi[3-B.47].

Shunga qaramay, XIX asr o‘rtalaridan boshlangan chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati va XX asr boshidagi sovet mafkurasi tilga nisbatan keskin repressiv munosabatni shakllantirdi. Chorizm davrida, so‘ngra ateistik kommunistik mafkura hukmronligi ostida o‘zbek tili cheklovlarga duchor bo‘lib, rasmiy maqomdan mahrum qilindi. Rus tili davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ustuvor til sifatida e’lon qilindi. Hatto rus tilida so‘zlashish “madaniy taraqqiyot” mezoni sifatida targ‘ib qilindi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek xalqining ona tilidagi tafakkur, ijod va muloqot imkoniyatlarini cheklab, milliy o‘zlikni anglashga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Biroq 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda barcha sohalarda, jumladan, til siyosatida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xalq ongida milliy o‘zlik, ona tiliga bo‘lgan muhabbat va g‘urur kuchayib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish talabi ommaviy tus oldi. Jamiyatda ona tilining qadri va huquqiy maqomini mustahkamlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj siyosiy bosimga aylanishi natijasida, sovet mafkurasi bu boradagi qarshilikni saqlab qololmay, chekinishga majbur bo‘ldi.

Davlat mustaqilligiga erishilgan ilk kunlardan boshlab, boy tarixiy-ma’naviy merosni tiklash, uni zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish va jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tizimli islohotlar milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va kelajak avlodni ma’naviy jihatdan yetuk insonlar etib tarbiyalashda muhim rol o‘ynadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning davlat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida shunday degan edi: “Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma’naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda”[4].

Prezidentning ushbu fikrlari mustaqillik sharoitida ma’naviyatni yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlodni ma’rifatli qilib tarbiyalash masalasiga davlat darajasida yondashilganining yorqin ifodasidir.

Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublika hukumati va rahbariyati tomonidan ma’naviy-ma’rifiy sohalarda keng qamrovli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ularning asosini xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga asoslangan ma’naviyat tizimini barpo etish g‘oyasi tashkil etdi. Shu doirada ko‘plab me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi, ijtimoiy ong va tafakkurda tub burilishlar yuz berdi.

Natijada, xalq, ayniqsa, yosh avlod orasida o‘z kuchi, salohiyati va milliy qadriyatlariga bo‘lgan ishonch kuchaydi. Bu ishonch esa mustaqil O‘zbekistonning

mustahkam ideologik poydevorini yaratdi va bugungi taraqqiyot jarayonlarining asosiy omiliga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ma’naviyat va ma’rifat sohasini tiklash, boy tarixiy-madaniy merosni ilmiy asosda o‘rganish va targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi. Shu asosda, 1994-yil 23-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ‘Ma’naviyat va ma’rifat’’ jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni[5], shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 288-sonli qarori[6] ga muvofiq Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazi tashkil etildi. Mazkur markaz jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, fuqarolar ongida yuksak axloqiy-ruhiy qarashlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi tashkilot sifatida faoliyat yurita boshladi.

Davlat siyosatida ma’naviy-ma’rifiy masalalarga yondashuv izchil davom etdi va 1999-yil 3-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmon imzolandi[7] Ushbu hujjat ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, kengashning asosiy maqsad va vazifalari aniq va tizimli tarzda belgilab berilgan.

Farmonda aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda erkin va ongli shaxsni shakllantirish, fuqarolarda demokratik qadriyatlar va fuqarolik jamiyati tamoyillarini mustahkamlash maqsad qilingan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda, shaxsiy va umummilliy manfaatlarni uyg‘unlashtira oladigan avlodni tarbiyalash zarurligi ta’kidlangan. Shu asosda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarini tashkil etish vazifasi ilgari surildi. Bu esa respublika miqyosida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni markazlashtirilgan, tizimli boshqaruv ostida olib borishga xizmat qildi.

Bugungi globallashuv va informatsion jamiyat sharoitida dunyo taraqqiyoti harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, ilmiy texnologik yutuqlar, aql-idrok va tafakkur ustuvorligiga asoslanmoqda. Endilikda jamiyatlar, davlatlar va butun insoniyat oldida mafkuraviy xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda “fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya” prinsipini ilgari surgan O‘zbekiston o‘zining mafkuraviy barqarorligi, milliy g‘oya va yuksak ma’naviyatiga tayangan holda taraqqiyot yo‘lidan dadil bormoqda.

Zamonaviy mafkuraviy kurashlar nafaqat xalqaro, balki ichki ijtimoiy-siyosiy maydonlarda ham kechmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, milliy g‘oya asosida yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalash davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish yo‘lida keng qamrovli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, umumta’lim maktablarida “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” yangi fan sifatida o‘quv jarayonlariga joriy etildi, oliy ta’lim muassasalarida esa ushbu yo‘nalishda bakalavrlar tayyorlovchi maxsus mutaxassisliklar ochildi. Shu bilan birga, fanning nazariy va amaliy asoslarini yorituvchi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik

materiallar va monografiyalar yaratildi, sohaga doir ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqilligi arafasida va uning ilk yillarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, qadimiy qadriyatlarni chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy sharoitda qayta joriy etishga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi hamda uning hududiy bo‘limlari muhim ijtimoiy-madaniy funksiyani bajardi. Ular orqali aholining ma’naviy dunyoqarashi, ong va tafakkuri bilan ishlash bo‘yicha ko‘plab amaliy loyihalar amalga oshirildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy hayotga oid munosabatlar doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bevosita jamiyatning yangilanishi, milliy g‘oya va qadriyatlarning mustahkamlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda ijtimoiy ong va ma’naviyatning zamonaviy jarayonlardagi tutgan o‘rni, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar keng tahlil etilgan. Jumladan, yetuk olimlar E.Yusupov, J.Tulenov, T.Maxmudov, S.Otamurodov, I.Xujamurodov, M.Nurmatovalarning asarlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishidagi asosiy tamoyillar, ma’naviyatning ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi, uni shakllantirishning zamonaviy usullari tahlil etilgan[8-B.6]

Yoshlar ma’naviy madaniyatini nazariy-metodologik asosda chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar ham jiddiy e’tiborga loyiqdir. Bu borada S.Agzamxo‘jayeva, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboyev, E.Yusupov, S.Shermuxammedov, X.Shayxova, M.Sattor, A.Jalolov, A.Sharipov, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, A.Erkayev, O.G‘aybullaevlarning ilmiy tadqiqotlarida yosh avlodning ma’naviy kamolotini ta’minlashdagi dolzarb masalalar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan[9-B.7]

Bundan tashqari, yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy va tarixiy muammolarni B.Aliyev, G.Navruzova, K.Nazarov, A.Sharipov, X.Salomova, Z.Qodirova, A.Xuseynova, M.Voxidova, L.Gadoyeva, Z.Ahmedova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahliliy yondashuv asosida o‘rganilganini ta’kidlash lozim[10-B.7]. Ularning tadqiqotlarida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlovchi omillar, ijtimoiy muhit va tarbiya mexanizmlari, shuningdek, madaniy merosga tayanilgan holda yangi jamiyatga xos turmush tarzining shakllanishi chuqur o‘rganilgan.

Mazkur asarlarda ma’naviyat va ma’rifat tushunchalarining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni, ularning eskirmasligi va doimiy dolzarbligi alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotlarda, shuningdek, yoshlarning ruhiy-ma’naviy dunyosini boyitish, ularda estetik tafakkur, axloqiy mezonlar va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, hozirgi jamiyatda yangilanayotgan turmush tarzini milliy madaniy meros bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasi ko‘plab ilmiy ishlarda markaziy mavzuga aylangan.

Maqsad qanchalik ulug‘ bo‘lsa, unga yetish yo‘lidagi mashaqqat va mehnat ham shunchalik katta bo‘ladi. Biroq bunday yuksak maqsadlarga intilish, izlanishlar, fidoyiliklar va harakatlar natijasida erishilgan yutuqlar ortidan keladigan ichki ruhiy halovat, milliy iftixor, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi mustahkam irodani

shakllantiradi. Zero, har qanday zahmat, chin maqsadga xizmat qilgan taqdirdagina qadrlidir.

Bugungi o‘zbek xalqi — o‘zining boy tarixiy merosi, qadimiy madaniyati va chuqur ilmiy-an’analariga tayanadigan buyuk millatdir. Bobolarimiz asrlar davomida yuksak ilmiy darajaga, taraqqiy etgan siyosiy tuzilmalarga ega qudratli davlatlar barpo etgan. Bu haqiqatni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qayd etganidek, “Biz — buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”, degan so‘zlar bilan ifoda etish mumkin.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ma’naviy-ma’rifiy sohalarda olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatni yangilash, xalq ongida tarixiy xotirani tiklash va milliy o‘zlikni mustahkamlashning muhim omiliga aylandi. Bu jarayonda davlat siyosati, ijtimoiy institutlar, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki asosida shakllangan ma’naviy muhit xalqning intellektual salohiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, har qanday jamiyatda barqaror taraqqiyotga faqat moddiy boylik bilan emas, balki kuchli ma’naviy poydevor orqali erishiladi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy yangilanishi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar xalq tafakkuri, axloqiy mezonlari, milliy g‘ururi va jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlovchi kuchli ichki asosga aylanmoqda.

Shuningdek, mustamlakachilik va totalitar mafkura davrida bosim ostida bo‘lgan xalq ma’naviyatining mustaqillikdan keyingi davrda tiklanishi, jadidchilik merosiga qaytish, milliy til va madaniyatga bo‘lgan munosabatda yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy tiklanish jarayonining ajralmas qismi sifatida tarixiy ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda yoshlar ongida sog‘lom ma’naviyat, milliy g‘oya va tarixiy ongni shakllantirish jarayonida bu merosning roli tobora kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar tarixini chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishni anglash, balki zamonaviy jamiyatni barpo etishda ma’naviy tayanch yaratish, kelajak avlodni sog‘lom g‘oya va qadriyatlar asosida tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.- Toshkent: Ma’naviyat’’, 2008.
2. Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o’rganish muammosi // Xalqaro ilmiy konfrensiyasi materiallari. 2023.
3. Bafoyev B. Toptim ul kalom ichra kamol. http:www.e.adabiyot.uz
4. Karimov I.A . O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li// O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,mafkura. 1-jild. Toshkent.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.04.1994 yildagi PF-88842-son qarori
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.06.1994 yildagi 288-son qarori
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.09.1999 yildagi PF-2386-son qarori

8. N. Aminova. Mustaqil O’zbekiston ijtimoiy taraqqiyotidq ma’naviyatning o’rni. T.2019
9. J. Boysunov. O’zbekistonda yoshlar ma’naviy madaniyatini yuksaltirishning-falsafiy muammolari. 2022.
10. J. Boysunov. O’zbekistonda yoshlar ma’naviy madaniyatini yuksaltirishning-falsafiy muammolari. 2022.
11. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. –T.: “Sharq” 1998
12. Atamuratov M.U, Primova F.A. Oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish tamoyillari. (Monografiya) –T; “Fan va texnologiya”, 2018
13. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi. https\\arxiv.uz\documents\referatlar\tarix\manaviy-qadriyatlarning-tiklanishi. 25.02.2024
14. U. Turayeva “O’zbek jadid adabiyotini o’rganish masalalari”. “Nasaf” To’plam. 2023 y. 192 – bet
10. N. Jabborov “Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi”. “Nasaf” To’plam. 2023 y. 5 – bet
11. N. Sultonova “Jadid romanlarida badiiy modifikatsiya”. “Nasaf” To’plam. 2023

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA MUSTAQIL RESPUBLIKA KONSTITUTSIYASINI YARATILISHINING TARIXIY TAHLILI

Nodira SHOMURODOVA
Oriental universiteti tarix fakulteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *O’zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiyaga muvofiq tan olinadi va kafolatlanadi. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiyat-davlat manfaatlari aks etadi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlar tartibga solinadi, mamlakatning keyingi taraqqiyot istiqbollari belgilab beriladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, inson-jamiyat-davlat manfaatlari, mamlakat, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy, taraqqiyot istiqbollari.*

Аннотация: *Права и свободы человека в Республике Узбекистан закреплены в Конституции. признается и гарантируется соответствующим образом. Человек-общество-государство в конституционных реформах отражаются интересы, регулируются политические, экономические, правовые,социальные, идеологические отношения и определяются дальнейшие перспективы развития страны.* ***Ключевые слова:*** *Конституция, права человека, свободы, человек-общество-государство интересы, страна, политические, экономические, правовые, социальные, идеологические, перспективы развития.*

Annotation: *In the Republic of Uzbekistan, human rights and freedoms are recognized and guaranteed in accordance with the Constitution. Constitutional reforms reflect the interests of man, society and the state, regulate political, economic, legal, social and ideological relations, and determine the prospects for the country's further development.* ***Keywords:*** *Constitution, human rights, freedoms, human-society-state interests, country, political, economic, legal, social, ideological, development prospects.*

“Konstitutsiya” atamasi Qaddimgi Rimdayoq ma'lum bulgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizasiyasiga xos aloxida shakldagi konstitusiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo’lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o’tkazgan.(1,-B.18.)

O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilish natijasida shakllanganidan keyin (1927 yilda) uch yil o‘tib qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda mustaqilligimizning mustahkamlab qo‘yilishi ota-bobolarimizning uzoq yillar mobaynida olib borgan kurashlari natijasidir.

Ma‘lumki, Rossiya imperiyasida 1917 yil oktyabr oyida davlat to‘ntarishi bo‘lib o‘tdi, o‘zlarini xalqparvar deb e'lon qilgan, kommunistlar hokimiyatni qo‘lga oldilar. Turkiston ASSRning 1918 va 1920 yillaridagi Konstitutsiyalari, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining 1920-1921-1923 yillardagi konstitusiyalari, O‘zbekiston SSRning 1927, 1937, 1978 yillardagi Konstitusiyalarni qabul qilgan edi.

Sovetlar davrida O‘zbekiston hududida 1918 yil 30 apreldagi Beshinchi Turkiston s'ezdida va Turkiston Avtonom Sovet Sosialistik Respublikasi RSFSRning tarkibiga kiritilib, Turkiston ASSR ning muvaqqat (vaqtinchalik) konstitusiyaviy “Nizomi” qabul qilingan edi.(2,-B.54). Nizomga ko‘ra:

1. Turkiston O‘lkasining hududi, Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirib, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi deb e'lon qilinadi.
2. Turkiston O‘lkasining tarkibiga, Buxoro va Xivadan tashqari, uning geografik chegaralarining hammasi kiradi.
3. Turkiston Sovet Respublikasi Avtonom boshqaruvda bo‘lib, davlatdagi hamma sohalarini boshqarishda Rossiya Sovet Federatsiyasini tan oladi.
4. Turkiston Respublikasining Oliy qonunchilik organi, ishchi, soldat, krestyan va musulmon deputat dehqonlarining 1 dekabrida chaqiriladigan qurultoy hisoblanadi.
5. Doimiy qonunchilik organi qurultoy tomonidan saylangan 36 kishilik Turkiston o‘lkasining Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hisoblanadi.
6. Ijro etuvchi hokimiyat vazifasi qurultoy tomonidan saylangan 16 kishilik Xalq Komissarlari Sovetlariga yuklanadi va ularga O‘lkani boshqarish topshiriladi.
7. Joylardagi butun hokimiyat, Sovetlar va ularning Ijroiya Qo‘mitalari hisoblanadi.

Turkiston Sovet Avtonomiyasi e‘lon qilinishi, kommunistlarning eng birinchi g‘alabasi bo‘lib, sharqdagi “lenincha” siyosatni mustamlaka davlat tuzilishida amaliy ro‘yobga chiqishi edi. Turkiston ASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 15 oktyabr kuni Sovetlar o‘lkasining VI qurultoyida 1918 yil 10 iyulidagi RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan edi. Turkiston ASSR Konstitutsiyasi olti bo‘limdan iborat bo‘lgan.

Turkiston ASSR Konstitutsiyasining tuzilishi va mazmunini quyidagi prinsiplarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Konstitutsiyada Turkiston Avtonom Sovet sosialistik respublikasi ekanligi, o‘z tarkibiga boshqa davlat tuzilmalarini qabul qilishi va ularni o‘z tarkibidan chiqarishi, qonunlar qabul qilish huquqlari va boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalar o‘rnatish, moliyaviy ishlarni o‘zi hal etish kabi huquqlari faqatgina qog‘ozlarda ko‘rsatilgan edi. Shuningdek, Turkiston ASSRning

boshqa sohalardagi vakolatlari ham, shunday juda keng berilgan bo‘lib, bu avtonom respublikaning tushunchasiga umuman to‘g‘ri kelmas edi, chunki bu davrga kelib Rossiyadagi fuqarolar urushi tufayli Turkiston bilan vaqtincha aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilmay qolgan edi.[3.-B.54-55]

Turkiston ASSRning ikkinchi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentyabrda Turkiston Sovetlarining IX-s‘ezdida Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan sanksiyalangan: “Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi sifatida avtonomdir” degan qarori ostida qabul qilinib, Turkiston ASSRning “qanday yashash huquqi” aniq qilib qo‘yilgan edi.

Turkiston ASSRning bu Konstitutsiyasi: 6 bo‘lim 20 bobdan iborat bo‘lib, 109-moddani o‘z ichiga olgan. Turkiston ASSRning 1920 yildagi Konstitutsiyasi o‘sha paytdagi Rossiyadagi milliy qonuniyatlari asosida o‘zlarining yashash tarziga asoslanib qabul qilingan. Turkiston ASSR bilan birga hozirgi O‘zbekiston hududida Xorazm va Buxoro xalq Sovet Respublikalarida ham 1920-1923 yillardagi Konstitusiyalar qabul qilingan.

O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilishi natijasida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalarining o‘rnida O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg‘iziston va Qoraqalpog‘iston Avtonom viloyatlari tashkil etilgan.[4,-B.198]. Hozirgi O‘rta Osiyo respublikalarining konstitusiyaviy-tarixiy davlat qurilishi sovet hukmronligiga o‘tgan davrdan boshlab, 1917 yilgi kommunistlarning (davlat to‘ntarishi) inqilobi yuz bergan vaqtdan to 1922 yilga qadar jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

1922 yil 30 dekabrda “Sovet Sosialistik Respublikalar Ittifoqining tuzish haqidagi deklaratsiya” va “SSR ittifoqining tuzish haqidagi shartnoma” SSSR Konstitutsiyasini yaratilishiga asos solgan edi. “SSSR ittifoqini tuzish haqida deklaratsiya”da teng huquqli ittifoqdosh respublikalarning ixtiyoriy ravishda birlashuvini e'lon qilib, uning tarkibiga boshqa davlatlarning kirishi ochiq deb ko‘rsatildi. Shuningdek undan chiqish erkinligi huquqi ham belgilangan edi.

1922 yil 30 dekabrda tashkil etilgan SSSR tarkibiga Ukraina SSR, Belorussiya SSR va Kavkazorti respublikalari kiritilgan. Sobiq ittifoq tarkibida bo‘lgan respublikalar konstitusiyaviy tarixiy bosqichlarini ikki davrga bo‘lib, tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganish mumkin. Birinchi davr 1917-1922-yillarni o‘z ichiga olsa, 1924-1991 yillar so‘nggi davri bo‘lib hisoblanadi. 1925-yil 17-fevralda O‘zbekiston SSRning I s'ezdi bo‘lib, 1924-yil 31-yanvardagi SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq, "O‘zbekiston SSRni tashkil etish to‘g‘risida"gi Deklaratsiya qabul qilingan. O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiya loyihasi Sovetlarining II-s‘ezdida 1927 yil 27-31 mart kunlari tasdiqlangan. Bu Konstitusiyada ham boshqa Ittifoq respublikalari Konstitusiyalaridagidek, davlat hokimiyati vakolatlarini "ishchi dehqon va qizil askar Sovetlarining deputatlari amalga oshiradilar", deb belgilangan.1937 yil 14 fevralda Butun O‘zbekiston Sovetlarining Favqulotda VI-s'ezdi O‘zSSRning ikkinchi Konstitutsiyasini SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasiga mos ravishda qabul qilgan. Bu Konstitutsiya 13 bobdan iborat bo‘lgan.Ushbu qabul qilingan O‘zbekiston SSRning ikkinchi Konstitutsiyasi SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasini so‘zma-so‘z takrorlaydi.

Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolarning teng huquqliligi,matbuot erkinligi, ommaviy yig‘ilishlar o‘tkazish, ko‘chalarda namoyish o‘tkazish huquqlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu huquqlar faqat qog‘ozlarda SSSRdagi siyosatning boshqa davlatlarga namoyish etilishi uchun yozib qo‘yilgan.

1937 yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari joylardagi Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitusiyaga nisbatan qisman o‘zgartirilgan (saylash huquqi 20 yoshdan qilib, vakolat muddati qishloq, posyolka Sovetlariga 2 yarim yil muddat qilib, viloyat, tuman Sovetlariga 5 yil muddat qilib belgilangan). Shuningdek, respublika Oliy Soveti va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ma'muriy-hududiy tuzilishi, prokuratura, sud organlari tuzilishi, Konstitusiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartiblari belgilangan.[5,-B.92]

1978 yil 19 mart kuni O‘zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi mutbuotda e'lon qilingan. O‘zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O‘zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktyabrida amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib ayrim moddalariga o‘zgartirishlar kiritilgan va 19 aprel kuni qabul qilingan. Konstitusiyaning tuzilishi kirish qismidan, XI bo‘lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo‘lib, ushbu Konstitutsiyada ham Sovet hokimiyatini amalga oshish qoidalari va ishchi dehqon sinfining kommunistik jamiyat qurishdan iborat oliy maqsadi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko‘ra bilganligi va unga to‘g‘ri baho bera olganligi, shunda ko‘rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo‘lib u 1990 yil 20 iyunda "O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi. O‘sha davrda Ittifoqni tishtirnog‘i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg‘ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O‘zbekistonni Mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo‘llab-quvvatlanganligi O‘zbekistonning tinch yo‘l bilan o‘z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin, Sovetlar imperiyasini o‘rnatgan bol'sheviklar Turkistonda 1918 yildan boshlab o‘z mustamlakachilik siyosatini, yangi-yangi hujjatlar qabul qilish usullari bilan amalga oshira boshlaganlar. O‘rta Osiyo xalqlaridagi milliy g‘urur va mustaqil davlatchilikka intilish ruhini yo‘q qilish maqsadida, yerlik xalqlar tarixi soxta ma'lumotlar bilan yaratilgan. Mustaqillik, ozodlik uchun kurashgan otabobolarimiz millatchilik, panislomizm, panturkizm harakati deb qoralangan. Shuningdek, kommunistik partiya olib borgan siyosat tufayli millionlab begunoh kishilarning qatag‘on (41000 nafar) qilinishiga, qonunsiz, sudsiz yo‘q qilib yuborilishiga shart-sharoitlar yaratilgan.Shunga qaramasdan, O‘zbekiston xalqining mustaqillik va ozodlik uchun olib borgan kurashini to‘xtata olmaganlar.[6,-B.20-27]

O‘zbekiston o‘zining maqsad va taraqqiyot yo‘lini belgilab, 1991 yil 31 avgustdagi Oliy Kengash yig‘ilishida qabul qilingan "Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi konstitusiyaviy qonunni butun dunyoga e'lon qildi. 1991 yil 21

dekabrda Sobiq Ittifoq respublikalari rahbarlari o‘zaro hamkorlikni tenglik asosida, xalqaro huquq normalariga tayangan holda tashkil etishni yo‘lga qo‘yish maqsadida va sobiq Ittifoq taqdirini uzil kesil hal etish uchun Olmaotada uchrashdilar. Sakkiz respublikaga Armaniston, Moldaviya va Ozarbayjon Respublikalari ham qo‘shildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi deklaratsiyasiga 11 respublika rahbarlari qo‘l qo‘ydilar: Shunday qilib, 1922 yilda ta'sis etilgan SSSR Ittifoqi barham topdi va Olmaotada 11 ta Mustaqil Davlatlarning Hamdo‘stligi vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko‘ra bilganligi va unga to‘g‘ri baho bera olganligi, shunda ko‘rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo‘lib u 1990 yil 20 iyunda "Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi. O‘sha davrda Ittifoqni tish-tirnog‘i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg‘ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O‘zbekistonni Mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo‘llab-quvvatlanganligi O‘zbekistonning tinch yo‘l bilan o‘z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Уразаев Ш. З. Мустақил Ўзбекистан Конституцияси. – Тошкент, 1993.

2. Қаюмов Р.Қ. Ўзбекистон Республикаси конститусиявий ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: ИИВ Академияси, 1997. 54-б.

3. Таджиханов У. Қонун, инсон ва давлат. – Тошкент, 1997. 92-б.

4.Таджиханов У. Конституция Республики Узбекистан и прблемы правовой идеологии // Материалы научно-практической конференции, посвященной второй годовщине Конституции Республики Узбекистан. – Ташкент, 1994. – С. 20-27.

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Gulnora MIRTURSUNOVA
Oriental universititeti
3-bosqich talabasi
mirtursunovagulnora@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda zamonaviy usullar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, hamda tarixiy ong va milliy g'ururni shakllantirishda zamonaviy metodlarning roli, o'zbek olimlarining ilmiy ishlari haqida so'z boradi.*
Kalit so'zlar: *O'zbekiston tarixi, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, globallashgn sharoit, tadqiqot va loyihalar, tarixiy joylar*
Ingliz va rus tillarida

Annotation: *This article discusses modern methods in teaching the history of Uzbekistan,including interactive approaches, the use of information and communicationtechnologies, and the role of modern techniques in fostering historical consciousness and national pride, based on the works of Uzbek scholars.* ***Keywords:*** *History of Uzbekistan, interactive methods, information and communication technologies, globalization, research and projects, historical sites.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные методы преподаванияистории Узбекистана, включая интерактивные подходы, использование информационно-коммуникационных технологий, а также роль современных методов в формировании исторического сознания и национальной гордости на основе научных трудов узбекских ученьых.* ***Ключевые слова:*** *История Узбекистана, интерактивные методы, информационно-коммуникационны технологии, глобализация, исследования проекты, исторические памятники.*

Ayni paytda hozirgi yashab turgan zaminimizda, ya’ni globallashgan sharoitda ta'lim sohasida juda ko‘p o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda an'anaviy usullarni zamonaviy usullar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda. O'zbekiston tarixi fanini zamonaviy metodlar bilan o'qitilishi natijasida o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va mustaqil fikrlash, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadi. O'z navbatida bu yurtimiz rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarni tarixiy bilimlarini mustaqil o'zlashtirishga, tahlil qilishga va ularni amaliy faoliyatda qo'llashga undaydi. Rolli o'yinlar, munozaralar va tarixiy senariy asosidagi mashg'ulotlar bunday metodlarning samarali ko'rinishlaridan hisoblanadi. [1. -B 48]

Bunga misol qilib kuni kecha universitetimizda "Obraz" talabalar teatr studiyasi tomonidan sahnalashtirilgan "Qatag'on" spektaklini ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur drama o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub bo'lib, unda tarixning og'ir damlari, taqdir sinovlari va inson ruhining matonati aks etgan va shu jarayonlarni universitetning iste'dodli talabalari juda katta mahorat bilan ijro etganlar.

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darsni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Interaktiv doskalar, onlayn xaritaalar va virtual ekskursiyalar tarixiy materiallarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. [2. -B. 102]

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda fikrlasak, bunday materiallarni juda ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, "Мега флаго мания" o'yinini olaylik. Bu orqali o'quvchi nafaqat O'zbekiston tarixi haqida, balki, jahon tarixi, dunyo davlatlari haqida ham ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlangan paytda internet tarmoqlaridan turli xil ko'rinishda 3d formatda videoroliklarni ham topishimiz mumkin va albatta bulardan to'g'ri foydalanish tarix fanini rivoji hamda to'g'ri o'zlashtirilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqil o'rganish va tarixiy tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, qadimgi O'zbekiston shaharlari tarixi bo'yicha kichik loyiha ishlari orqali o'quvchilar tarixiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradilar. [3. - B. 215]

Shuningdek, loyiha metodiga asoslangan ta’lim zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy, tarixiy, axborotli, o‘yin va rolli o‘yinlar, tabiiy-ilmiy, amaliy yo‘nalgan, ekologik, geografik loyihalar orqali bilim olishlarini ta’minlaydi.

Tadqiqotga asoslangan ta’lim — bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan uslubdir. Bunda o‘quvchilar:

Muammo qo‘yadi (savol shakllantiradi),
Axborot izlaydi (manbalarni o‘rganadi),
Tahlil qiladi (ma’lumotni solishtiradi, baholaydi),
O‘z xulosalarini shakllantiradi,
Natijalarni taqdim etadi (loyiha, maqola yoki taqdimot ko‘rinishida).

Bu uslub o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash, ijodiy yondashuv kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Tarix fanida tadqiqot va loyiha metodini quyidagi shakllarda qo‘llash mumkin:

Tarixiy manbalar bilan ishlash (xatlar, xronikalar, xaritalar);

Mahalliy tarix bo‘yicha izlanishlar (masalan, mahallangizdagi qadimiy bino yoki obida haqida);

Shaxsiy tadqiqotlar (masalan, “Bobur hayoti va asarlari” loyihasi);

Virtual muzeylar yaratish (rasmlar, audio, video orqali tarixiy davrni jonlantirish);

Rol o‘yinlari (muayyan tarixiy voqeani sahnalashtirish).

- O‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi;
- Mustaqil ishlashga o‘rgatadi;
- O‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi;
- Jamoaviy ishlash, mas’uliyat hisini kuchaytiradi;
- Amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi (taqdimot, izlanish, yozish).

“Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti” loyihasi; “Qadimgi Buxoro shahrining arxitekturasi”, “Mahallamizdagi tarixiy yodgorliklar”, “O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni”. Tarixiy joylarga ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlar.

Muzeylar va tarixiy obidalarga ekskursiyalar o'quvchilarda tarixiy voqealarni jonli tasawur qilishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlar milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi. [4. - B. 94]

Bugungi globallashgan sharoitda bunday imkoniyatlarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, o'rta maktablarda har dam olish kunlari turli xil tarixiy joylarga ekskursiyalar tashkil etiladi. Bunda o'quvchi ham madaniy hordiq oladi hamda amaliy mashg'ulotlar tufayli ko'plab bilimga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, O'zbekiston tarixi fanini zamonaviy metodlar bilan o'qitish, o'quvchilarning tarixiy tafakkuri va milliy o'zligini anglash jarayonida muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida esa yoshlar tarixiy voqealarni chuqurroq anglaydi hamda o'z fikrlarini mustaqil tarzda ifodalay oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To‘raxo‘jayev A “O'zbekiston tarixi darslarini o‘qitish metodikasi”, 2017.
2. Azizxo’jayev A. A. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", 2020.
3. Mahmudov E, Jo'rayev O. “O'zbekiston tarixi” 2019.
4. To‘raxo‘jayev A. “O‘zbekiston tarixi darslarini o'qitish metodikasi”, 2017.

II. O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI MASALALARI

TURKISTON O‘LKASIGA ZAMONAVIY MEDITSINANING TARQALISHIDA TUB JOYLI BO‘LMAGAN AHOLINING ISHTIROKI (XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Baxromjon XAYNAZAROV
O‘zMU Tarix kafedrasi prof.v.b. t.f.d.
bahrom_bek@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida Turkiston general-gubernatorligi hokimiyati tashkil qilinganidan keyin tibbiyot sohasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarda tub joyli bo‘lmagan aholining roli tahlil qilingan. Xususan, Turkistonga tibbiyot xodimlarining jo‘natilishi, o‘lkada tibbiyot muassaslarining tashkil qilinishi, vrachlar tomomnidan tibbiy xizmatni tashkil qilinishi, o‘lka ma’muriyati tomonidan tibbiyot sohasiga munosabati ko‘rib chiqilgan. Bu borada rus vrachlarining mavjud ahvolni o‘nglashga intilishlari, tibbiy xizmatni tub aholi orasida yoyish borasidagi sa’y-harakatlari hamda ushbu tashabbuslarga o‘lka ma’muriyati tomonidan bildirilgan munosabati ham tahlilga tortilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Turkiston, Turkiston general-gubernatorligi, tibbiyot, vrach, yuuqli kassaliklar, kasalxona, ambulatoriya, vabo.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль некоренного населения в изменениях, произошедших в области медицины после установления власти генерал-губернатора Туркестана в Туркестанской области. В частности, были рассмотрены отправка медицинского персонала в Туркестан, организация медицинских учреждений в стране, организация медицинского обслуживания от врачей томом, отношение областной администрации к сфере медицины. В связи с этим анализу также подверглись усилия российских врачей по исправлению сложившейся ситуации, их усилия по распространению медицинской помощи среди коренного населения, а также отношение, выраженное администрацией страны к этим инициативам.* ***Ключевые слова:*** *Туркестан, Туркестанское генерал-губернаторство, медицина, врач, болезни, больница, амбулатория, холера.*

Annotation: *This article analyzes the role of the non-indigenous population in the changes that occurred in the field of medicine after the establishment of the power of the Governor-General of Turkestan in the Turkestan region. In particular, the dispatch of medical personnel to Turkestan, the organization of medical institutions in the country, the organization of medical care from doctors by volume, the attitude of the regional administration to the field of medicine were considered. In this regard, the efforts of Russian doctors to correct the current situation, their efforts to distribute medical care among the indigenous population, as well as the attitude expressed by the country's administration to these initiatives were also analyzed.* ***Keywords****: Turkestan, Turkestan General-Governorate, medicine, doctor, infectious diseases, hospital, outpatient clinic, plague.*

Turkiston o‘lkasiga “rus meditsinasi”ning tarqalishi o‘lkada rus aholisining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Toshkent va Turkistonning boshqa shaharlarini bosib olgandan keyin rus harbiy amaldorlari, ziyolilar va ko‘chirib keltirilganlar qishloq joylarda yoki Turkiston general-gubernatorligi shaharlarining "rus qismlarida" yangi tashkil etilgan ko‘chirish punktlarida alohida anklavlarga ko‘chib o‘tdilar. Ushbu “yangi” shahar qismlarida rus aholisi uchun barcha sharoitlar – maktab, dorixona ambulatoriya, kasalxona, teatr, park, magazinlar, muzey, kutubxona, tarnsport va kommunikatsiya, vodoprovodlari bilan yevropa tipidagi uylar, yoritilgan katta ko‘chalar qilingan edi. Bu o‘lkaga yevropa sivilizatsiyasining kirib kelishi ko‘rasatar edi. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki bu qulayliklar faqatgina rus aholisi

uchungina mo‘ljallangan edi. Tub joyli aholi uchun esa umuman mumkin emas edi[3, s. 5]. Rus tadqiqotchilari esa ruslarning yangi tashkil yetilgan aholi punktlarida uyushgan holda joylashishlari “xavfsizlik, iqtisodiy va ma’muriy ehtiyojlar, yangi ko‘chib kelganlar urf-odatlari va an’analari hamda Islomga sodiqligi bilan ajralib turadigan mahalliy aholi yashaydigan mintaqada talab qilinganligi” bilan izohlashadi[8, s. 70].

Shaharlardagi "rus qismi"ga Turkiston boshqaruvchilari, ziyolilar, shifokorlar, iste’fodagi harbiylar va ularning oilalari, hunarmandlar bilan birga shifokorlar ham kirib kelgan. Mintaqa bosib olinganidan keyin Turkistonda birinchi bo‘lib harbiy shifokorlar paydo bo‘lib, harbiy harakatlar paytida yaralangan askarlarga, shuningdek, Turkistonga yangi kelgan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatdilar. Turkistonda birinchi tibbiy tibbiyot muassasasi 1868 yilda, o‘rta Osiyo xonliklarini qo‘shib olish bo‘yicha harbiy harakatlar boshlanganidan bir necha yil o‘tgach va Turkiston General-gubernatori tashkil yetilganidan bir yil o‘tgach ochilgan. Bu 1870 yilda 415 o‘rinli ikkinchi darajali Toshkent harbiy kasalxonasiga aylantirilgan Toshkent harbiy kasalxonasi edi. "Rossiya Toshkent" ning butun aholisi harbiy gospitalda xizmat qilgan. XIX asrda harbiy kasalxona(gospital) joylashgan ko‘cha “Gospitalnoy”, deb nomlangan[8, s. 70].

Dastlab harbiy-tibbiy inspektor lavozimi, keyinchalik esa harbiy tibbiy boshqarma ta’sis qilingan. Turkistonga kelgan tibbiyot xizmatchilariga katta imtiyozlar taqdim qilingan. O‘lkadagi birinchi tibbiy muassasalar mutlaq rus aholisi uchun tashkil qilingan. Lekin vaqtlar o‘tishi yuqumli kasalliklarning avj olishi, ayniqsa 1898 yili Samarqand viloyati Anzob qishlog‘ida o‘lat, 1892 yili Toshkentda vabo tarqalishi ma’muriyat o‘lkada faoliyat ollib borayotgan tibbiyot xodimlarining talabiga ko‘ra tub joyli aholi uchun ham davolash ishlarini tashkil qilishga kirishishga majbur bo‘ladi[3, s. 5].

O‘lkada tibbiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yilishida Turkistonga Rossiya imperiyasining turli hududlaridan aholining ko‘chib kelishlari yanada qiyinlashishga sabab bo‘ladi. XIX rning ikkinchi yarmidan boshlab Sibir hududlari, Dasht o‘lkasi va Uzoq sharq hududlariga yo‘naltirilgan 100 mingdan ortiqni tashkil etgan aholi u yerdagi iqlim sharoitiga ko‘nika olmasdan, Turkistonga ko‘chib kela boshladi. Turkistonga ko‘chib kelgan rus aholisini xoh uning ko‘chish guvohnomasi bo‘lsin, hox u o‘zboshimchalik bilan ruxsatsiz kelgan bo‘lsin, o‘lkadagi vaziyat ularni qoniqtirmadi. Chunki bu yerda: birinchidan, tub joyli aholi tomonidan asosiy yerlar o‘zlashtirilgan bo‘lgan; ikkinchidan, Turkiston o‘lkasidagi yerlarni o‘zlashtirib, ishlov berish uchun ko‘chib keluvchilarda sun’iy sug‘orish malakasi bo‘lmagan; uchinchidan, mustamlaka hukumati tomonidan aholini ko‘chirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tartiblar amaldagi sharoitga to‘g‘ri kelmagan, mahalliy ma’muriyat esa mavjud vaziyatga qarab o‘z bilganicha ish tutgan. Natijada o‘z yeriga ega bo‘lmagan aholi og‘ir vaziyatga tushib, orqaga qaytib ketishga majbur ham bo‘ldi. Ko‘chib keluvchilarning iqtisodiy muammolariga ijtimoiy-tibbiy qiyinchilik ham qo‘shildi. Masalan, Andijon hamda O‘sh uyezdlarida ishsiz muxtojlar soni ko‘paydi, shuningdek, ular orasida turli tif(ich terlama) kabi kasalliklar tarqalgan[5, -B.18]. Shuning uchun imperiya ma’muriyatiga Turkistonga ko‘chirish oqimini to‘xtatib turish haqida nomalar junatilgan.

1883 yildan boshlab Toshkentda "mahalliy ayollar va bolalar uchun ambulatoriya" ish boshladi, uning g‘oyasi ayol shifokorlar N. N. Gundius, A. V. Poslavskaya va YE. N. Mandelshtamga tegishli bo‘lib, ular mintaqaning avtoxton aholisi ayollarining dini va urf-odatlari ularga erkak shifokorlardan yordam so‘rashga imkon bermaganligini payqashdi. Ayol shifokorlar dastlabki bosqichda o‘zlarining tibbiy xizmatlarini bepul taklif qilishdi. Tatar Bibi Gafifa Nurgaliyeva kasalxonada tarjimon bo‘lib ishlagan. 1905 yildan beri ambulatoriyada 4 ta yotoq bor edi. Ularda viloyatning tub joyli aholisining ayollari tuqruq uchun qabul qilingan[8, -B.331 – 332]. Ammo bu juda kam uchraydigan holatlar bo‘lib, ayollar tug‘ruq paytida yordam so‘rab rus shifokorlariga murojaat qilishgan[8, -B.70-71].

Ambulatoriya boshlig‘i tuman harbiy tibbiy inspektori tomonidan tanlangan ayol shifokor sifatida ishlashi mumkin yedi. Bundan tashqari, lavozimga tayinlash Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan. Shtat jadvaliga ko‘ra, ambulatoriyada 2 shifokor, 1 ayol feldsher, 1 tarjimon va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan 1 kishi ishlagan[7, -B.119].

Shifokorlar davolanish uchun qishloqqa borgan holatlar juda kam bo‘lgan, garchi shahar shifokorlari vaqti-vaqti bilan chechakka qarshi yemlash va boshqalar uchun okruglarga borishga majbur bo‘lishgan.

Turkiston o‘lkasida 1880-1889 yillar, ya’ni o‘n yil davomida rossiyalik shifokorlardan tibbiy yordamga murojaat qilganlar soni quyidagicha bo‘lgan: 1889 yil – 94497, 1888 yil – 72558, 1887 yilda – 63205, 1886 yilda – 73492, 1885 yilda – 55254, 1884 yilda – 42344, 1883 yilda – 37211, 1882 yilda – 27211, 1881 yilda – 22219, 1880 yilda – 20757. mahalliy aholining rossiyalik shifokorlarga murojaatlari ortib borganligi, lekin aholi soniga nisbatan ancha kamchilikni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 1889 yilda viloyat bo‘yicha jami 34437 nafar aholi tibbiy yordam uchun tashrif buyurishgan. Bu davrda viloyat umumiy aholisi soni 700 mingdan ortiq edi[2, -B.311].

Farg‘ona viloyati qo‘shinlarida kasallar orasida o‘lganlar soniga kelsak juda o‘rtacha foiz olinadi va bu Rossiyaga qaraganda ancha kam.Bu yerda 1000 ta holatda 10,3, 1880 yilda - 9,0, 1884 yilda o‘lganlar soni, Farg‘onada yesa 6 yil davomida 1000 ta holatda o‘rtacha yillik o‘lim soni atigi 3,94 tani tashkil yetgan. Biz qo‘shinlar va mintaqa aholisi orasida kasallik va o‘lim o‘rtasida parallellik o‘rnatolmayapmiz, chunki mahalliy aholi o‘limi va hatto aholi soni bo‘yicha statistik nashrlar juda noto‘g‘ri; Rossiyaning sobiq aholisi soni juda oz[4, -B. 14].

1885 yilda butun aholining o‘limi haqidagi rasmiy ma’lumotlardan 1000 kishiga 21,30 kishi vafot yetganini ko‘rish mumkin. Oldingi yillarda hech narsa ma’lum emas. Rossiya Rossiya aholisi, bu ma’lumotlar aniqroq; shunday qilib, 1882 yilda qo‘shinlar bundan mustasno, 31,82 ta 1000 rus aholisi vafot etdi; 1883 yilda 53,79; 1884 yilda 46,34; 1885 yilda 75,99. Agar mahalliy aholi orasida o‘lim darajasi ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ri bo‘lsa, unda biz rus aholisining o‘limi haqida qayg‘uli xulosaga kelishimiz kerak, ular orasida mahalliy aholiga qaraganda ancha ko‘p o‘lishadi. Albatta, o‘limning eng kichik foizi kichik bolalarga nisbatan to‘g‘ri keladi, ularning ko‘pchiligi har yozda mahalliy diareyadan vafot etadi. Tub joyli aholining bolalari esa mahalliy noqulay iqlim sharoitlariga yaxshiroq toqat qiladilar.. Ammo

umuman olganda, hozirgi vaqtda aniq statistik ma’lumotlar bo‘lmasa, har qanday ijobiy xulosalar erta bo‘ladi[4, -B. 15].

Farg‘onadagi shifokorlarimiz shu paytgacha yuqorida qayd yetilgan mikroorganizmlarni mikroskopik tekshirish, ularning rivojlanishi va tarqalishini kuzatish imkoniga yega yemas yedilar. Ammo har birimiz mo‘l-ko‘l sug‘orish va iliq iqlim ta’sirida boy o‘simliklar paydo bo‘lgan joylarda ishonch hosil qilishimiz kerak yedi. Bu organik moddalarning bitmas-tuganmas materialini beradi, ular chirigan paytda bezgak kasalliklarining yeng kuchli va xilma-xil shakllarini keltirib chiqaradi[4, s. 35].

XIX asrning 80-yillaridan oblastda mahalliy aholi mentalitetidan kelib chiqqan holda, ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan shifoxonalar ochila boshlagan. Birinchi ayollar va bolalar shifoxonasi 1887 yil Qo‘qon shahrida ochilgan bo‘lsa, 1888 yil Andijonda, 1889 yil Namanganda, 1891 yil Marg‘ilonda bunday shifoxonalar faoliyat yurita boshladi 24 . Bu shifoxonalarda M.I. Shishova, O.I. Solnishkina, M. S. Goloshevskaya, M.K. Filippova, M.A. Geyshtor kabi rusiyzabon shifokor-ayollar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatganlar[1, -B.15].

Samarqand viloyatida faqat mahalliy bemor ayollarni va ularning yosh bolalarini qabul qilish uchun maxsus ajratilgan ambulatoriyalar ham mavjud bo‘lgan. Mazkur shifoxonalar 1886 yildan viloyatning Samarqand va Xo‘jand shaharlarida faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular feldsherlar yordam beradigan ayol-shifokorlar tomonidan boshqarilgan.[11] Samarqand va Xo‘jand shaharlarida ayol-shifokorlari bo‘lgan maxsus ayollar va bolalar shifoxonalarining tashkil etilishi musulmon ayollarga nisbatan ratsional tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini yaratgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlod ongida yoshlikdan rus tibbiyoti ustun va afzal degan g‘oyani singdirib borish hamda rus madaniyatini yoyish, aholi ishonchiga kirish orqali o‘z hukmronligini yanada mustahkamlash bo‘lgan[2, -B.311].

Sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq masalalar Uxtomskiy tomonidan nashr yetilgan "Sankt-Peterburg Vedomosti" (1896) gazetasining maqolalarida ham yoritilgan. Shunday qilib, Turkistonning Farg‘ona viloyatini tasvirlab, maqolalardan birining muallifi rus shifokorlarining yetishmasligini ta’kidlaydi: "Dastlabki davrda har bir okrugda kichik shoshilinch yordam xonasi bilan kamida bitta yoki ikkita tuman shifokori qo‘shilishi maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ri, bu darhol tibbiyot xodimlarini saqlash uchun munosib xarajatlarni talab qiladi, lekin nima qilish kerak: hayot oldinga siljiydi, butun aholi farovonligi haqida qayg‘uradi. Rus Vatanining sodiq o‘g‘illari buyuk Rossiyaning rus aholisi bilan bir xil bo‘lishi kerak". Maqola muallifining xulosasi qiziq: "bizning Osiyodagi kelajakdagi ustunligimiz tinch taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirilishi kerak va ishning bunday bayonoti bilan pul mablag‘lari masalasi ikkinchi o‘ringa chiqishi kerak. Shunday qilib, XIX asr oxirida milliy chekkalarda sog‘liqni saqlashni yaxshilash masalasi hal qilinmaganligicha qolgan. Publitsistlarning fikriga ko‘ra, tibbiy yordam ko‘rsatishning yaxshilanishi, hatto an’anaviy bo‘lsa ham, Sharqiy chekka aholisining Rossiyaning o‘ziga bo‘lgan munosabati o‘zgarishiga olib kelishi kerak yedi. Shu bilan birga, ilmiy tibbiyotga alohida ahamiyat berildi. Shu bilan birga, ilmiy tibbiyotga alohida ahamiyat berildi. E. E. Uxtomskiy ye’tibor qaratgan Buddizm va Tibet tibbiyotining tarqalishida bo‘lgani kabi, ilmiy tibbiyotning tarqalishi va imperiya chekkasida sog‘liqni saqlash tizimini

tashkil yetish natijasida ularning aholisi Sharqda mustamlakachilik tartiblarini o‘rnatgan G‘arb mamlakatlaridan farqli ravishda Rossiya timsolida o‘z valine’matini ko‘rishlari kerak edi[6, s. 286].

XIX asr oxirida Farg‘ona oblasti uyezdlaridagi ko‘z kasalliklariga chalingan bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida “Ko‘zi ojizlar haftaligi” xayriya tadbirlari ham o‘tkazib kelingan. Ushbu haftaliklar davomida shifokor A.N.Danilov bemorlarni ko‘rikdan o‘tkazish bilan birgalikda, ko‘plab jarrohlik amaliyotlarini ham amalga oshirgan. 1897 yil may oyida o‘tkazilgan “Ko‘zi ojizlar haftaligi”da shifokor tomonidan 50 dan ortiq mahalliy aholi vakili ko‘rikdan o‘tkazilgan bo‘lsa, ulardan to‘rt nafarida jarrohlik amaliyoti (katarakta olish va sun’iy qorachiq o‘rnatish) ham o‘tkazilgan[6, -B.647].

XX asr boshlarida Turkiston ma’muriyati feldsherlar tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatish orqali nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarda ham viloyat aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini kengaytirishga harakat qildi. Bu davrda Toshkentda shifokorlar tarkibi ozmi-ko‘pmi to‘ldirildi, tibbiyot asta-sekin tijoratlashtirildi, ayniqsa dorixona ishi katta foyda keltirdi. Shifokorlar qishloq joylarda ishlashga va qishloqlar sharoitida qishloq poliklinikasini yaratishga unchalik tayyor emas edilar. Shahar va qishloqlarning tubjoy aholisi ko‘p hollarda ehtiyotkor yoki xavfsirab munosabatda bo‘lar, ba’zan esa shifokorlarga dushman bo‘lgan, mentalitet va turmush tarzidagi farqlar aniq ko‘zga tashlanar edi. Qishloq joylarda ishlash uchun mahalliy aholining tillarini o‘zlashtirish kerak edi. XX asr boshlarida Sirdaryo viloyatining Toshkent tumani qishloqlarida kasalxonalar yo‘q yedi, ba’zi joylarda maxsus o‘qitilgan feldsherlar aholiga yordam berishdi.

Tahlil qilingan davrda Turkistonda xususiy tibbiyot rivojlana boshladi. 1908 yilda Toshkentda shifokor A.N.Predtechenskaya tomonidan 5 o‘rinli, agar kerak bo‘lsa, u 12 tagacha kengaytirilishi mumkin bo‘lgan birinchi xususiy ayollar shifoxonasi ochildi,. Yil davomida unda 220 ayol davolandi, ularning yarmiga yaqini tug‘ruqdagi ayollar bo‘lib, ulardan kasalxonada 8 kun qolish uchun 25 dan 40 rublgacha to‘lov olindi. Statsionar bemorlar kuniga 3 rubl to‘lashdi. XX asr boshlarida Toshkentda doya Kovaleva va shifokor M.I. Gorenshteyn 4 o‘rinli xususiy ginekologik shifoxona va 6 o‘rinli tug‘ruqxona ochdi. Ulardan ba’zilari haftaning ma’lum kunlarida kambag‘allarga bepul xizmatlar ko‘rsatdilar. "Turkiston Vedomosti" gazetasida seshanba va juma kunlari A.Z.Xavinaning stomatologiya kabinetida tishlarni bepul davolash mumkinligi haqidagi YE’lonni o‘qishingiz mumkin. 1911 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkentda 48 nafar shifokor bo‘lib, ulardan 30 nafari xususiy tibbiy xizmat ko‘rsatgan [7, -B.120].

1913 yilning 1 aprelida Qo‘qonda Ch.Y.Norvillo va N.S.Kachxoyev tomonidan 10 ta doimiy joyga ega bo‘lgan birinchi xususiy shifoxona ochilgan. Shifoxona Ustaviga ko‘ra kasalxona jarrohlik, ichki kasalliklar, ayollar kasalliklari va asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarga zamonaviy ilmiy talablarga javob beradigan davolash va parvarish qilish imkoniyatini yaratish maqsadida tashkil etilgan . O‘sha davr matbuotida xususiy shifoxonalarning faoliyati yoritib borilgan. Chunonchi, “Sadoi Farg‘ona” gazetasida Qo‘qondagi Ch.YU Norvillo va N.S. Kachxoyevlarning xususiy shifoxonasidan tashqari ayol shifokor YE.S. Masterkova, shifokorlar Chernoborodov va Broynshteynlarning xususiy shifoxonalari bemorlarni ikki mahal:

ertalabki soat 9 dan soat 12 gacha, kechqurun soat 17 dan soat 19 gacha qabul qilishlari haqida xabarlar ham berilgan[6, -B. 286].

Ambulatoriya poliklinikalari asosan Turkiston viloyati shaharlarida ochilgan, qishloq aholisi tibbiy yordamisiz qolgan. Masalan, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Samarqand viloyatida atigi 11 ta, Sirdaryo viloyatida 15 ta ambulatoriya mavjud yedi. Aksariyat shifokorlar tomonidan mahalliy tillarni bilmaslik va tarjimonlarning yetishmasligi aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni murakkablashtirdi. Buni 3 yil 1914 sentabrda "Sadoi Farg‘ona" gazetasida chop yetilgan maqola tasdiqlaydi, unda mahalliy aholi shifokorlari bilan bog‘lanmaslikning sabablaridan biri til muammosi yekanligi aytilgan. Bemorlar o‘z holatlarini imo-ishoralar bilan tushuntirishdi, lekin shifokorlarning so‘zlarini tushunishmadi va tasodifiy dori-darmonlarni qabul qilishdi. Ushbu maqolaning noma’lum muallifi Turkiston aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun hatto yuzlab musulmon shifokorlar ham yetarli yemasligini yozgan. [1, -B.17]

Sirdaryo Ko‘chirish Boshqarmasi hududida 1915 yilga kelib 15 ta vrachlik va feldsherlik xizmat ko‘rsatish markazlari ko‘chib kelgan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan. Bu xizmatlardan mahalliy aholi ham foydalanganligi ta’kidlanadi. Ushbu markazlar asosan Turkistonga ko‘chib kelganlarning vaqtincha yashash joyi hisoblangan baraklar yaqinida joylashgan edi. 1915 yilda jami 52513 nafar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatilgan 46 . Toshkent shahrida tibbiy markazlar sifatli bo‘lgan. Ko‘chib kelganlar bu yerda tibbiy nazoratdan o‘tib, asosan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari uyezdlariga jo‘natilgan[5, -B. 20].

Xulosa

Turkiston viloyati shifokorlari va tibbiyot xodimlari ko‘p ishlarni amalga oshirdilar, ko‘pincha eng zarur yordamni ko‘rsatdilar. Bunda ayrim rus vrachlarinnig fidokorona mehnatlari, o‘z xizmat vazifalriga chuqur mas’uliyat bilan yondashishlarini ham e’tirof etib o‘tish joiz. Biroq, Rossiya imperiyasi hukumati tibbiy xizmatni keng aholi orasida rivojlantirish uchun yetarli mablag‘ ajratmadi va natijada tahlil qilingan davrda tibbiy yordamning butun tizimi ommaviy xarakterga ega bo‘lmadi. Tibbiyot muassasalarining tashqi ko‘rinishi, ularning barcha afzalliklariga va Rossiya tibbiyot muassasalari vakillarining fidokorona mehnatiga qaramay, dastlabki davrlarda tub joyli aholi tomonidan asosan diniy nuqtai nazaridan qabul qilingan. Bu, birinchi navbatda, din, madaniyat, mentalitetdagi yondashuvlardagi farqlar, musulmon aholisi uchun rus tibbiyoti vakillari tomonidan qo‘llaniladigan texnikani qabul qilmaslik, tashqaridan kelgan begona narsani rad etish tufayli sodir bo‘ldi. Shu bilan birga, keyingi vaqtlarda ishonchsizlik muammosi asta-sekin bartaraf etila boshlangan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda an’anaviy tibbiyotni G‘arb tibbiyot tizimiga qo‘shishga urinishlar qilinmadi, ular mustaqil ravishda mavjud edi. Natijada o‘lkadagi yangidan yo‘lga qo‘yilgan tibbiy xizmat tubjoy aholi va tub joyli bo‘lmagan toifasining ham ehtiyojlarini to‘la qondira olmadi. Oktabr to‘ntarilishidan keyin tibbiyot muassasalarining Turkiston general-gubernatoriligi tomonidan moliyalashtirilishiga qaramligi, kam sonli xususiy tibbiyot muassasalarining burjuaziya qoldiqlari sifatida qabul qilinishi o‘lkadagi tibbiy xizmatga berilgan katta zarba bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бадалов А.А. Фарғона областида соғлиқни сақлаш тизими ва ундаги ўзгаришлар: тарихий таҳлил (XIX аср охири – XX аср бошлари) мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022. – Б.15.
2. Бўтаев Ж.Ш.XIX асрнинг иккинчи ярмида Самарқанд вилоятида тиббий аҳвол (ёзма ҳужжатлари асосида) // Academic research in educational sciences volume 2 | issue 2 | 2021 issn: 2181-1385. – P.311.
3. Зияева Д.Х. Медицина и здравоохранение в Средней Азии: традиции, модерназации и трансформация (конец 19 – начало XX вв.) Социальная жизнь ва Центральной Азии в начале XX века. Материалы международной конференции. Самарканд. 2010. –С.5.
4. Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т.III. Новый Маргелан, 1891. – С.14,
5. Равшанов Ш.Т. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири – 1917 йил) мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.20.
6. Суворов В.В. Медицинская помощь как фактор культурного и политического влияния в оценках отечественной публицистики рубежа XIX – начала XX века // Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2017. Volume 7. Issue 3. – С.647.
7. Шадманова Санобар Базарбаевна Медицина и население Туркестана: традиции и новации (конец xix - начало XX вв.) // Историческая этнология. 2017. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/meditsina-i-naselenie-turkestana-traditsii-i-novatsii-konets-xix-nachalo-xx-vv (дата обращения: 20.05.2023).
8. Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2017, № 1. – С.70,

SAYFIDDIN QUTUZNING MAMLUKLAR SULTONLIGIDA HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
Tarix fanlari bo‘yicha PhD
Oriental universiteti,
“Tarix” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘rta asr davrida so‘nggi Xorazmshoh nomi bilan tarixda qolgan, Jaloliddin Manguberdining jiyani Sayfiddin Qutuz haqida bayon qilinadi. Unda Sayfiddin Qutuzning mo‘g‘ullar hujumi natijasida asir tushishi, qullik hayoti, Misrdagi mamluklar maktabidagi faoliyati va nihoyat, Misr taxtini egallashi haqida

so‘z yuritiladi. Shuningdek, uning mo‘g‘ullar ustidan erishgan yirik tarixiy g‘alabasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mamluk, Anushteginiylar, Qutuz, Ayyubiylar

Abstract

This article discusses Sayfiddin Qutuz, the nephew of Jalaliddin Manguberd, who is remembered in history as the last Khwarezmshah of the medieval period. It describes his capture as a result of the Mongol invasion, his life in slavery, his activities in the Mamluk school in Egypt, and finally, his ascension to the Egyptian throne. Furthermore, it analyzes his great historical victory over the Mongols.

Key words: Mamluk, Anushtegins, Qutuz, Ayyubids

O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi aloqalar tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Xususan, o‘rta asrlar davrida ham garchi hudud jihatdan bir-birga nisbatan uzoq bo‘lsa-da, biroq din jihatdan umumiylik sababli bu ikki xalq o‘rtasida aloqalar faol tarzda olib borilganligini kuzatish mumkin. Ushbu aloqlarda so‘nggi Xorazmshoh – Sayfiddin Qutuz alohida ahamiyatga ega. Sayfiddin Qutuz buyuk xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining opasi Xon Sultonni o‘g‘li hisoblanadi. U Xorazm yerlarida, Anushteginlar saroyida dunyoga keldi. Mo‘g‘ullar bosqini davrida oiladagi ko‘pchilik qatori asir tushib hayoti sarson-sargardonlikda kechdi.

Sayfiddin Qutuzning Misr yerlariga borib qolishi va u yerda Mamluk sultonlarini nazariga tushishi unga yangi imkoniyatlarni tuhfa etdi. Uning hokimiyatga chiqish arafasi Islom dunyosiga mo‘g‘ullar bosqini kuchaygan davr edi. Sayfiddin Qutuz harbiy mahorati, aql-zakovati va irodasi ortidan mo‘g‘ullarga qarshi kurashdi va tarixdagi eng yirik va islom dini uchun hal qiluvchi g‘alabani qo‘lga kiritdi.

“So‘nggi xorazmshoh – Sayfiddin Qutuzning Mamluklar sultonligida hokimiyat tepasiga kelish arafasidagi siyosiy shart-sharoitlar” mavzusi hamma davrda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning o‘rganilishi Sayfiddin Qutuzning hokimiyatga kelish jarayoni, u tomonidan Misrda hokimiyatni qo‘lga kiritilish voqealari, mo‘g‘ullarga qarshi kurashini tahlil qilishda eng muhim va dozarb tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tadqiqot xolislik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil, xronologik uslublardan foydalangan holda olib borildi.

Chingizxon tomonidan tuzilgan Mo‘g‘ullar imperiyasining 1219-yil sentabrida O‘trorga birinchi zarbani berishi bilan Xorazmshohlar saltanatiga hujum boshlandi va 1221-yilga qadar harbiy harakatlar olib borildi [Ziyo Buniyotov, 2023 y. B. 238]. 1221-yilda saltanat poytaxti Urganch bosib olingach, Chingizxon saroydagi sulton xonadoniga mansub bo‘lgan ayol-erkak, yosh-u qari barchasini asir qilib oladi. Asir olinganlar orasida Alovuddin Muhammadning katta qizi Xon Sulton ham bor edi. Xon Sultonni Dushixon (Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jixon) o‘ziga xotinlikka mo‘ljallaydi [Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018 y. B.120]. Xon Sulton o‘zi aslida Samarqand hukmdori sulton Usmonga hijriy 547-yilning bahorida (1201-yilning aprelida) turmushga chiqadi. Uning vafotidan keyin, Juvayniyning aytishicha, Xon Sulton Ili daryosi havzasi yaqinidagi o‘rta asr shahri bo‘lgan Emilda yashovchi

bo‘yoqchiga erga beriladi. Bo‘yoqchi umrining oxiriga qadar u bilan yashagan deyiladi. Ibn Xoldun ham shunga o‘xshash ma’lumot beradi. Biroq bu ma’lumot noto‘g‘ri. Chunki Xon Sulton Jo‘jiga tegadi. Ulardan Oltin O‘rdaning ilk musulmon xoni Berka Sulton dunyoga keladi [I.Bobojonov. on P.34]. Muslima ona tarbiyasida ulg‘aygan Berka Sulton keyinchalik arab xalifaligi poytaxti ustiga yurish qilgan qarindoshi Xuloguxonga qarshi chiqib musulmonlarni himoya qilishga urinadi. Xon Sulton bilan birga uning o‘g‘li Mahmud ibn Mamdud ham asir qilib olingach, mo‘g‘ullar uni biroz muddat o‘z qo‘lida saqlab, qullar bilan urushtirib tomoshalar tashkil qiladi. Keyinchalik esa Shom diyoridagi qul bozoriga olib borib sotib yuboradi. Ismi Mahmud ibn Mamdud bo‘lsa ham, u Sayfiddin Qutuz nomi bilan mashhur bo‘ldi. Qutuz nomi haqida olimlar tomonidan turlicha fikrlar ilgari suriladi. Xususan, “Qutuz” – so‘zining kelib chiqishi turkiycha bo‘lib, “Qutuz” so‘zining o‘zagi bo‘lgan “qut” so‘zidan olingan va bu odatda, “baraka” so‘zi bilan qo‘shma so‘z sifatida ishlatiladi. Ayrim tarixchilar tomonidan “Qutuz” – “quturgan it” degan ma’noni anglatishi aytiladi [B.Abduraimov, G‘.Atajonov. 2023-y. B. 96].

Sayfiddin Qutuz Shom diyorida biroz vaqt qul bo‘lib xizmat qilgach, uni Misrdagi qul bozoriga olib kelib sotishadi. Shu vaqtda Misrdagi Ayyubiylar davlatining so‘nggi hukmdorlaridan bo‘lgan Solih Najmiddin Ayub mamluklardan iborat yangi qo‘shin tuzish ishlarini boshlagan edi. “Mamluk” pulga sotib olingan qul degan ma’noni anglatadi [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2017-y. B.240]. Najmiddin Ayyub Misrda mamluklar harbiy maktabini tashkil etgan bo‘lib, ushbu harbiy maktabda Turkiston, Kavkaz, Kichik Osiyo diyorlaridan yosh, baquvvat yigitlarni sotib olib kelib, ulardan harbiy qo‘shin tuzilardi. Ayyubiylar mamluklardan faqatgina harbiy maqsadda foydalanar, shuning uchun ularni “oq qullar” deb ham atashgan.

Ma’lumki, 1260-1517-yillar davomida Misr, Shom va Hijozda Mamluklar sultonligi (qullar davlati) hukmronlik qiladi. Ushbu davlat Ayyubiylar davlati tarix sahnasidan ketgach, uning o‘rnida tashkil topadi.

Solih Najmiddin Ayub salibchilar bilan jang qilayotgan vaqtda vafot etdi. Bundan foydalangan uning ayoli mamluka – Shajaratud-Dur taxtga muhabbati sabab Najmiddin Ayubning vafot qilganini odamlardan berkitib, o‘lgan erining nomidan o‘zi sultonlikni idora qila boshladi. Natijada Shajaratud-Dur Islom tarixidagi birinchi podshoh ayol bo‘ldi. Biroq bu usulda taxtda uzoq qola olmasligini bilgan mamluka 1250-yilda Solih Najmiddin Ayubning birinchi xotinidan o‘g‘li Turonshohga otasi vafot etganligi xabarini berib uni poytaxtga chaqirdi. Turonshoh yetib kelib taxtga o‘tirdi va salibchilar bilan jang qilib ularni mag‘lubiyatga uchratdi. Salibchilar ustidan g‘alaba qozongach Turonshoh g‘alabaga asosiy hissa qo‘shgan mamluk yetakchilarini oyoq-osti qila boshladi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Shajaratud-Dur mamlakat taxtini egallash dardida Forisiddin O‘qtoy, Rukniddin Beybars va Solihiy Bahriy kabi mamluk yetakchilari bilan Turonshohni o‘ldirishga ittifoq qilib uni qatl qildirdi va yolg‘iz o‘zi taxtni egallab oldi.

1250-yilning may oyida Malika Shajaratud-Durning mamlakat taxtini rasman egallab olganini eshitgan abbosiy xalifalari ayollarning 1-raqamli rahbar bo‘lishiga e’tiroz bildiradi. Xalq ham bu qarorni qabul qilmaydi. 80 kunlik hokimligidan so‘ng Shajaratud-Dur mamluk harbiy maktabining vakillaridan siyosatga qiziqmaydigan

Izzuddin Oybekka turmushga chiqib oladi.. Maqsad uni taxtga o‘tqizib, amalda mamlakatni o‘zi boshqarmoqchi edi. Biroq Izzuddin Oybek u kutgandek sodda bo‘lib chiqmadi. Shajaratud-Dur va uning sheriklari Forisiddin O‘qtoy, Rukniddin Beybarslarning hiylasini yaxshi tushungan Izzuddin Oybek o‘z atrofiga mamluklarning mutlaqo yengilmas jangchisi Sayfiddin Qutuzni (Jaloliddin Manguberdining jiyani) chaqirib oldi va fitna uyushtirish gumoni bilan Forisiddin O‘qtoyni qatlga hukm qildi. Aynan ushbu voqea bilan Sayfiddin Qutuz Mamluklar saroyiga kirib keldi va qo‘shinning bosh qo‘mondoni bo‘ldi. Izzuddin Oybek Sayfiddin Qutuzga katta imkoniyat va vakolatlar bergan edi. Bu esa uning raqiblariga, xususan Rukniddin Beybarsga yoqmas edi. Shuning uchun Beybars ma’lum muddat saroydan uzoqlashdi, keyinchalik Misrni tark etdi.

Shu yo‘l bilan Izzuddin Oybek 1257-yilga qadar mamlakatni boshqardi. Hokimiyatni qo‘lida saqlab qololmagan Shajaratud-Dur esa yangi rejalar tuza boshladi. Endigi reja Izzuddin Oybekdan qutulish edi. 1257-yil aprel oyida Shajaratud-Dur Izzuddin Oybekni o‘ldirtirib yubordi. Izzuddin Oybekni o‘ng qo‘li, armiya qo‘mondoni Sayfiddin Qutuz va Izzuddin Oybekning birinchi xotinidan bo‘lgan 15 yoshli o‘g‘li Nuriddin Ali zudlik bilan Shajaratud-Durni qo‘lga oldilar [Dr. J. Turboniy, 2021 y. B145].

Nuriddin Alining onasi, ya’ni Izzuddin Oybekning birinchi xotinidan qotilning ustidan hukm chiqarishi talab qilindi. Nuriddin Alining onasi nihoyat darajada qattiq va jirkanch hukm chiqardi, bu qasos joriyalar tomonidan Shajaratud-Durni yog‘ochdan bo‘lgan kalishlar bilan urib o‘ldirish hukm edi. Va u shu tariqa o‘ldirildi.

Mamlakatda o‘zi shundoq ham siyosiy vaziyat izdan chiqish arafasida edi. Shu vaqtda Xuloguxon boshliq mo‘g‘ullar imperiyasi tomonidan Islom dunyosiga hujumlar tashkil qilinib shaharlar vayron qilinayotgan edi. Bag‘dod vayron qilingan va keyingi nishon Misr bo‘lishi aniqlashib qolgan edi.

Rashididdin o‘zining “Jome’ at-tavorix” asarida keltirishicha, hijriy 658-yilning jumadul soniy (milodiy 1260-yil iyuni) oyida Xuloguxon Suriyadaligida mo‘g‘ul choparini 40 nafar xizmatkor bilan Misrga yuborib, undan Chingizxonga bo‘ysunishni, xiroj yuborishni va sultonning o‘zi Xuloguxonni huzuriga kelib, shihnalikni so‘rashni talab qiladi va aks holda, urushga tayyorlanishni buyuradi. Shu solnomada xorazmshoh Jaloliddinning ba’zi amirlari ko‘p sarguzashtlardan so‘ng Misrga borib qolganliklari aytiladi. Ularni mamluk sultoni al-Malik al-Muzaffar Sayfiddin Qutuz (1259-1260) qabul qilib, mehribonlik ko‘rsatadi, ahvollaridan xabar oladi va ko‘p mollar in’om qiladi. Xulaguxonning choparlari kelganda Qutuz amirlarini maslahat uchun to‘plab, ulardan qanday ish tutish haqida so‘raydi. Xorazmiylarning amiri Nasiriddin Muhammad Kaymuriy bunday dedi: “Agar biz Xulaguning himoyasiga borsak, sharmandagarchilik bo‘lmaydi, ammo piyolada zahar borligini bilaturib, undan ichish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘limga borish, bu aqldan uzoqdir. Xulaguning majburiyatlari va va’dalari bajarilmaydi, chunki u bitim va va’dalardan so‘ng ismoiliylarning boshlig‘i Hurshohni, xalifa al-Mustasimni va boshkalarni o‘ldirdi. Agar uning huzuriga boradigan bo‘lsak, u biz bilan xam xuddi shunday qiladi”. Qutuz dedi: “Agar biz mo‘ug‘ullardan oldin harakat qilmasak, u holda boshqa mamlakatlar bilan bo‘lganidek, Misr ham tezda vayron qilinadi. Bizning mamlakatimizga qasd qilayotgan bu odamlarga nisbatan uch choradan birini

qo‘llash kerak: yo yarashmoq, yo jang qilmoq, yoki vatanni tark etmoq”. Shunda Nasriddin Kaymuriy dedi: “Yarashishning foydasi yo‘q, chunki ularning va’dasiga ishonib bo‘lmaydi!”. Sulton Qutuz mo‘g‘ullar bilan jang qilishga qaror qildi [Ziyo Buniyotov, 2023 y. B. 239].

Misrlik mamluk qo‘shinlarining mo‘g‘ullar bilan jangi hijriy 658-yil ramazon oyining 25-kunida (milodiy 1260-yil 4-aprel) Falastinda, Ayni Jalut degan joyda bo‘ldi. Ma’lumki, bu jang mo‘g‘ullarning qaqshatqich mag‘lubiyati va qochishi bilan tugadi.

Sulton Qutuzning o‘ziga kelsak, al-Makriziy bunday yozadi: “Aytishlaricha, uning ismi Maxmud ibn Maxmud edi, uning otasi sulton Jaloliddinning amakisining o‘g‘li edi. Qutuzni totorlar asir olganlar va uni Damashqqa sotganlar, u yerdan u Qohiraga olib ketilgan”.

Xorazmliklar Misrda, Suriya shimolida, Iroqda va Onadulining janubi-g‘arbida o‘troq bo‘lib qoldilar. Ularning avlodlari hozirgi kunda ham Iroqning shimolida Mosul va Qirko‘k atrofidagi qishloqlarda yashaydilar, ular o‘zlarini turkman deydilar. Onadulida ular xurzumlu deb ataladilar va hozirgi kunda Xurzum deb ataladigan qishloqlarda yashaydilar. Shunday qishloqlardan sakkiztasi Egey dengizi sohilida Manisa (Turkiya) viloyatida joylashgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mo‘g‘ullarning shiddatli hujumlari ma’lum muddat musulmonlar yashaydigan yerlarni inqiroz holatga keltirib qo‘ydi. Bu vaqtda esa musulmon qo‘mondonlar orasidan qahramonlar yetishib chiqdi. So‘nggi Xorazmshoh – Sayfiddin Qutuz mamluklar harbiy maktabida kuchli jangchi bo‘lib voyaga yetdi. U islom diniga muhabbatli, uni qadrlovchi va himoya qiluvchi musulmon edi. Uning sulton xonadonidan ekanligi o‘ziga ishonchini oshishiga, keyinchalik taxtni egallashiga va boshqarish ishlarini osonlik bilan amalga oshirishiga xizmat qildi. Sayfiddin Qutuzning mamluklar sultonligidagi hukmronligi qisqa vaqt davom etgan bo‘lsa ham u Islom olami uchun ulkan ishni amalga oshirdi.

Demak, So‘nggi Xorazmshoh – Sayfiddin Qutuz Xorazm diyorida Anushteginiylar oilasida dunyoga keldi, Shom diyorlarida qul sifatida yashadi. Keyinchalik esa Misrda Mamluklar sultonligi taxtini egallab hukmronlik qildi va Misrda vafot etdi. O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi aloqalarning o‘rta asrlar bosqichida so‘nggi Xorazmshoh – Sayfiddin Qutuz muhim shaxs sifatida tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.Abduraimov, G‘.Atajonov. “Sayfiddin Qutuz – so‘nggi zarba”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023-y. B. 96
2. Dr. J. Turboniy, “Tarix yo‘nalishini o‘zgartira olgan Islom ummatining 100 nafar buyuk shaxsi”. – Toshkent: 2021 y. B144
3. I.Bobojonov. The last Khorezmshah - the history of Saifiddin Qutuz's struggle against the mongol invaders . INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT ISSN: 2053-3578 I.F. 9.1 P. 34
4. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy, “Sulton Jaloliddin Manguberdi”. – Toshkent: “Fan”, 2018 y. B.120

5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Islom tarixi” 2-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2017-y. B.240
6. Ziyo Buniyotov, “Anushteginiy – Xorazmshohlar davlati (1097-1231)”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023 y. B. 238
7. Ziyo Buniyotov, “Anushteginiy – Xorazmshohlar davlati (1097-1231)”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023 y. B. 239

O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI MASALALARIGA OID AYRIM MA’LUMOTLAR

Ozoda XUDOYBERGANOVA
Sharofat MIRZAYEVA
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbek davlatchiligi tarixining shakllanish bosqichlari, asosiy davr va omillari, siyosiy-huquqiy tizimlar evolyutsiyasi hamda tarixiy davlatchilik merosining bugungi O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbek davlatchiligi, tarixiy meros, davlat tizimi, siyosiy evolyutsiya, tarixiy shaxslar.*

Аннотация: *В данной статье последовательно анализируются этапы формирования государственности Узбекистана — от древних государств до современного независимого Узбекистана. Рассматривается эволюция политико-правовых систем, историческое наследие и концепции государственности, а также их роль в развитии страны сегодня.* ***Ключевые слова:*** *Узбекская государственность, историческое наследие, политическая система, независимость, правовое государство.*

Annotation: This article analyzes the stages of the formation of Uzbek statehood from ancient states to the modern independent Republic of Uzbekistan. It explores the evolution of political and legal systems, historical heritage, and concepts of statehood, as well as their relevance to contemporary development. ***Keywords:*** *Uzbek statehood, historical heritage, political system, independence, rule of law.*

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu jarayon Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan buyon shakllanib kelgan siyosiy-iqtisodiy tuzilmalar, etnik tarkiblar, diniy-ma’naviy tizimlar va tashqi ta’sirlar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston davlatchiligining shakllanishi — faqat bir xalq yoki hudud doirasida bo‘lmagan, balki mintaqaviy va global omillar bilan ham bog‘liq bo‘lgan murakkab tarixiy jarayondir. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek davlatchiligining turli bosqichlarini o‘rganish — nafaqat tarixiy haqiqatni anglash, balki zamonaviy davlat qurilishi uchun muhim saboqlardir. Bu maqolada ushbu masalalarning har bir bosqichi tarixiy manbalar asosida ilmiy tahlil qilinadi [1].

1.Qadimgi va Antik Davlatchilik An'analari: Miloddan avvalgi davrlarda O‘zbekiston hududida shakllangan Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi davlatlar Markaziy Osiyodagi ilk siyosiy tuzilmalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, Qang‘ davlati o‘zining harbiy-siyosiy kuchi, turg‘un ijtimoiy tizimi bilan ajralib turgan. Qadimgi Xorazmda

irrigatsiya tizimining rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlagan [2]. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i — qadim zamonlardan buyon turli sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib kelgan. Bu hududda shakllangan dastlabki davlat tuzilmalarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot darajasi o‘z davri uchun yuqori bo‘lgan.

Miloddan avvalgi III–I asrlarda mavjud bo‘lgan Qang‘ (Kangju) davlati Zarafshon vodiysi va Sirdaryo havzasida joylashgan bo‘lib, kuchli harbiy-siyosiy tuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ega edi. Xitoy manbalarida bu davlat markazlashgan boshqaruvga, kuchli harbiy kuchga va rivojlangan savdo yo‘llariga ega bo‘lgan davlat sifatida tasvirlanadi.

Baqtriya (miloddan avvalgi VI–III asrlar) janubiy O‘zbekiston va shimoliy Afg‘onistonni o‘z ichiga olgan bo‘lib, zaminining unumdorligi, madaniy-ma’naviy taraqqiyoti bilan ajralib turgan. Ayniqsa, Baqtriya davlatidagi shaharlar, yozuv, san’at va davlat boshqaruvi tizimi fors–yunon an’analari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

So‘g‘d sivilizatsiyasi esa miloddan avvalgi va milodiy I–VII asrlarda Zarafshon vodiysi markazida rivojlangan. So‘g‘diylar o‘zining shahar madaniyati, yozuv tizimi (so‘g‘d yozuvi), hunarmandchiligi, va ayniqsa diplomatik san’atda mashhur bo‘lgan. Ular Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoy, Hindiston, Vizantiya bilan faol aloqalar olib borganlar.

Miloddan avvalgi I mingyillikda shakllangan Xorazm davlati Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo‘lib, bu yerda mustaqil yozuv tizimi, murakkab irrigatsiya inshootlari va yuksak ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma mavjud bo‘lgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan qal’a, devor va qishloq inshootlari bu hududda rivojlangan boshqaruv tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xorazm davlati uzoq vaqt davomida eroniy tilli xalqlar tomonidan boshqarilgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu hududda turkiy unsurlar kuchayib bordi. Xorazmda davlat boshqaruvi “shohlar” tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, harbiy va diniy elita muhim rol o‘ynagan. Qadimgi va antik davlatchilik an’analarining umumiy xususiyati — bu hududlarda markazlashgan yoki yarim markazlashgan davlat tuzilmalarining mavjudligi, davlat boshqaruvida qonuniylik va soliq tizimining bo‘lishi, tashqi aloqalarning faol yuritilganidir. Bu jihatlar keyingi davrlar — ilk o‘rta asrlardagi turkiy va musulmon davlatchilik tizimlarining shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

2. Turk Xoqonliklari va Islomdan Keyingi Davr: VI–VIII asrlarda turkiy xalqlar tomonidan tashkil etilgan Turk xoqonliklari ilk markazlashgan davlat tizimlarining asosini qo‘ydi. Bu davlatlarda harbiy boshqaruv, urug‘-qabila tuzilmalari asosida siyosiy tizim shakllangan. Islom dini kirib kelganidan so‘ng, Somoniylar, Qarxoniylar va Xorazmshohlar davlati yangi siyosiy-huquqiy asoslarni yaratdi [3].

Milodiy VI–VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududida Turk xoqonliklari vujudga kelib, bu davrda ilk marta keng hududlarni qamrab olgan markazlashgan turkiy imperiyalar shakllandi. Bu xoqonliklar harbiy tashkilotchilik, ichki boshqaruv va elchilik aloqalari bilan ajralib turgan. Ayni vaqtda, Orxon-Yenisey bitiklari ushbu davr siyosiy tafakkurining yuksak darajada bo‘lganidan dalolat beradi.

Arab istilolari (VII–VIII asrlar) natijasida islom dini Markaziy Osiyoga kirib keldi va bu o‘z navbatida yangi siyosiy va madaniy davlatchilik tizimining

shakllanishiga zamin yaratdi. IX–X asrlarda Somoniylar davlati islomiy g‘oyalar asosida markazlashgan siyosiy tuzumni shakllantirib, fan, madaniyat va davlat boshqaruvida yuksak natijalarga erishdi.

Shuningdek, Qaraxoniylar (X–XI asrlar), G‘aznaviylar, Saljuqiylar va ayniqsa Xorazmshohlar davlati (XI–XIII asrlar) turkiy-islomiy davlatchilik modelining mukammallashuviga xizmat qildi. Bu davlatlar asosan turkiy etnosga tayanib, arab-fors siyosiy va huquqiy tajribasini o‘zlashtirdilar. Ayniqsa, Xorazmshohlar davlati o‘z zamonida yirik siyosiy kuchga aylangan bo‘lib, o‘zining markazlashgan tuzilmasi, harbiy salohiyati va diplomatik aloqalari bilan ajralib turgan.

3. Temuriylar Davlati va Yangi Davlatchilik Paradigmasi: Amir Temur asos solgan davlat markazlashgan, qonun asosidagi va harbiy-boshqaruviy tizimga ega bo‘lgan. U Samarqandni poytaxt sifatida tanlab, uni ilm-fan va siyosiy markazga aylantirgan. Temuriylar davrida siyosiy barqarorlik, adolatli soliq tizimi, xalqaro diplomatiya taraqqiy etdi [4].

4. Shayboniylar va Uch Xonlik Davri: XVI–XIX asrlarda Shayboniylar imperiyasi, so‘ng esa Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklari mavjud bo’lgan. Bu davrda davlatchilik etnik jihatdan turkiy o‘zbek zaminida rivojlangan bo‘lsa-da, ichki nizolar va tashqi tahdidlar tufayli barqarorlik zaif edi [5].

5. Sovet Davrida O‘zbek Davlatchiligi: XX asr boshlarida O‘zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lsa-da, ilk bor siyosiy-hududiy chegaralarga ega bo‘lgan davlat sifatida shakllandi. 1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topdi. Davlat institutlari rivojlansa-da, siyosiy mustaqillik mavjud emas edi [6].

6. Mustaqillik va Zamonaviy O‘zbekiston Davlatchiligi: 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Mustaqillikdan keyin Konstitutsiyaning qabul qilinishi, Prezidentlik institutining joriy etilishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va xalqaro hamkorlik zamonaviy davlatchilikni belgilovchi asosiy omillardan bo‘ldi [7].

O‘zbek davlatchiligi qadimdan shakllanib kelgan chuqur tarixiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Har bir davr — qadimgi davlatlar, o‘rta asrlar imperiyalari, mustamlaka davri, sovet tizimi va mustaqillik yillarida o‘ziga xos davlatchilik tajribasini shakllantirdi. Aynan shu tarixiy tajriba zamonaviy O‘zbekiston Respublikasining mustahkam siyosiy-huquqiy tizimini yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. O‘zbek davlatchiligini o‘rganish nafaqat tarixni anglash, balki milliy o‘zlikni saqlash va davlat barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Berdimuhamedov G. Turk dunyosida davlat boshqaruvi. - Toshkent: 2020.
2. Asqarov A. Qadimgi O‘zbekiston tarixi. - Toshkent: 2019.
3. Karimov M. Islom va davlat boshqaruvi tarixida O‘zbekiston. - Toshkent: 2018.
4. Bartold V.V. Amir Temur davrida O‘rta Osiyo. -Moskva: 1968.
5. Abdurahmonov A. O‘zbekiston xonliklar davri tarixi. - Toshkent: 2005.
6. Tursunov B. Sovetlar davrida O‘zbekiston: siyosiy tahlil. - Toshkent: 2014.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: 2008.

XITOY IMPERATORI U-DINING QADIMGI MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN SAVDO ALOQALARINI O‘RNATISH TARIXI

Ismoil TO‘YCHIYEV
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
ismoiltoychiyev08@gmail.com
Ilmiy rahbar: Bobir ODILOV
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD

Annontatsiya: *Tungjiang jishi benmuo (Muhim tarixiy voqealar bayoni) asarining 1-jild, 2-bobida va boshqa kitoblarda keltirilgan malumotlar asosida G‘arbiy Xan imperiyasining g‘arbiy mamlakatlar (Shiyuy) bilan aloqa o‘rnatishi, ular bilan o‘zaro olib borilgan elchilik aloqalari, savdo-sotiq masalalari, g‘arbdagi yerlarni egallash uchun qilingan harakatlari qisqacha tahlil qilingan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Xan sulolasi, U-di, Chjang Chyan, Buyuk Farg‘ona (Day-yuan), yueji (g‘uzer / ruzie), Baqtriya (Dashya), Asuen (Usun), Xo‘tan (G‘ivadyan / Yuytian), Changcheng.*

Аннотация: *На основе данных, приведённых в 1-м томе, 2-й главе произведения* Тунцзян цзишу бэньмо *(«Изложение важных исторических событий») и других источниках, кратко проанализированы установление контактов Западной Ханьской империи с западными странами (Шиюй), дипломатические отношения, торговые вопросы, а также попытки завоевания западных территорий.* ***Ключевые слова:*** *династия Хань, У-ди, Чжан Цянь, Великая Фергана (Дайюань), юэчжи (гузеры / жужие), Бактрия (Дасья), Асунь (Усунь), Хотан (Гиводянь / Юйтянь), Чанчэ́н.*

Annotation: *Based on the information provided in Volume 1, Chapter 2 of* Tungjiang Jishi Benmuo *(“Chronological Account of Important Historical Events”) and other sources, this work briefly analyzes the Western Han Empire's establishment of contact with the Western Regions (Shiyu), diplomatic missions, trade relations, and its efforts to conquer western territories.* ***Keywords:*** *Han dynasty, Emperor Wu (Wudi), Zhang Qian, Great Ferghana (Dayuan), Yuezhi (Guzer / Ruzie), Bactria (Daxia), Asuen (Usun), Khotan (Givadyan / Yutian), Changcheng.*

Xan sulolasi xoqoni U-di hukmronligining mil. avv. 126 yilida asirga olingan xunnlarning aytishicha, qadimda yueji (g‘uzer / ruzie) lar Dunxuang bilan Chilyan o‘rtalarida davlat tashkil etib, o‘sha yerda yashaganlar[1,- B. 99]. Lekin ular Xunlar hukmdori Maodun tomonidan mag‘lubiyatga uchragan. Ushbu hukmdor yuechjilar (ruzieliklar) ning yoshi ulg‘ayib qolgan xoqonini o‘ldirib, uning bosh suyagidan ichimlik ichadigan idish qilib olgan. Shundan keyin aholi xunlar ularni tinch qo‘ymasligidan qo‘rqib, uzoq yurtlarga ko‘chib ketishgan. Buni eshitgan Xitoy xoqoni Ulug‘ G‘uzer (yuejilar) hukmdoriga Chjang Chyanni o‘zaro aloqalarni o‘rnatish maqsadida elchi qilib yuborishga qaror qiladi. Shu munosabat bilan xoqon Chjang Chyanga *Long* unvonini berib, Lungshi shahridan yo‘lga chiqishni buyurgan[1, - B.100].

Chjang Chyan Xunlar zaminidan o‘tayotganida, ularning qo‘liga tushgan va u yerda 10 yildan ortiq ushlanib qolgan**.** Bir kuni qulay fursatdan foydalangan holda, g‘arbga yuejilar (ruzieliklar) yashayotgan yurt sari qochgan. Bir necha o‘n kun yo‘l

yurgandan so‘ng, Buyuk Farg‘ona (Day-yuan)ga yetib kelgan. Ayni o‘sha paytda Xan mamlakatining boy ekanligidan xabardor bo‘lgan farg‘onaliklar ular bilan qanday aloqa bog‘lashni bilmay turgan ekanlar. Ular Chjang Chyanni ko‘rib, g‘oyat xursand bo‘lganlar va uni Qang‘ (Kangkya) davlatiga, undan so‘ng ulug‘ yuejilar (day-ruzielar) yashayotgan joyga kuzatib qo‘yganlar.

Shu paytda Ulug‘ Ruzie (yuejilar) shahzodasi boshchiligida Baktriya (Dashiya) ni egallab, ushbu mamlakat zaminida yashayotgan ekanlar[2, - B.340]. Ular istiqomat qilayotgan yerlar serhosil va o‘g‘ri qaroqchilardan xoli edi. Chjang Chyan ular bilan ittifoq tuzib xunlarga qarshi kurashishga undaydi, lekin ularning xunlardan qasos olish niyati yo‘q ekanligini bildiradi. Shu bois Chjang Chyan yuejilar (ruzieliklar) yurtida bir yildan ortiq turib, ular hukmdorining farmonini ololmay, vataniga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

Qaytishda Chjang Chyan Pomir va Kunlun tog‘lari orqali kiang (chiyang) lar yurtidan ketmoqchi bo‘lgan edi[1, - B.101]. Lekin u qaytishda yana xunlar qo‘liga tushib qoladi. Oradan bir yil o‘tganidan so‘ng, xunnlarda to‘polon boshlangannidan, foydalangan Chjang Chyan Tangyi avlodiga mansub bo‘lgan Ganfu ismli qul bilan birga qochib ketishga muyassar bo‘ldi. Xan imperatori Chjang Chyanga hurmat bildirib, unga tayjung-dafu (*maslahatchilar boshlig‘i*) unvonini taqdim etgan. Ganfu esa shijyun (*xoqon elchisi manosida*) unvoniga sazovor bo‘ldi.

Chjang Chyan o‘n uch yil davomida Xunlar, Farg‘ona, Qang‘, Baqtriya va Yuejilar yurtida bo‘lib, bu yerdagi savdo-sotiqga, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga oid malumotlar to‘playdi. Bunga qo‘shimcha tarzda yuqoridagi davlatlarni atrofidagi qo‘shni davlatlar bilan aloqalarini o‘rganib keladi.

Mil. avv. 122-yilda Chjang Chyan qaytib kelganidan so‘ng, g‘arbiy mamlakatlardagi voqea-hodisalar haqida U-di (Tyanzi) ga batafsil so‘zlab beradi.

Buyuk Farg‘ona (Dai-yuan) Xan mamlakatining g‘arb tomonida taxminan 5760 km (10 ming li) dagi masofada joylashgan. U yerda yashaydiganlar ekin ekish bilan shug‘ullanishadi, tulpor otlari benihoya ko‘p. Bu otlardan qonsimon ter oqadi, shaharlar devorlar bilan o‘ralgan, uylar Xitoydagi uylarga o‘xshaydi. Farg‘onaning shimolida Kangyuy (Qang‘), g‘arbida Buyuk G‘uziya (Day-ruzie), janubiy-g‘arbida Baqtriya (Dashya/ Dayg‘ia) shimoliy-sharqida Asuen (Usun), sharqida Xo‘tan (G‘ivadyan / Yuytian) joylashgan. Xo‘tanning g‘arb tomonidagi daryolar g‘arbga qarab oqib, G‘arbiy dengiz (Shixay – Orol dengizi)ga quyiladi, uning sharqiy tomonidagi daryolar esa sharqqa qarab oqib, Sho‘rsuv ko‘l Lobnorga quyiladi. Sho‘rsuv ko‘lining suvi esa yerga singib turadi, Xo‘taning janubdagi daryolar ham shu ko‘lga boradi.

Sho‘rsuv ko‘li Xitoyning poytaxti Chanandan 2880 km (5 ming li) narida bo‘lib, xunlarning o‘ng (janubiy, janubiy-g‘arbiy) tomon hududi hisoblanadi. Ushbu hududning sharqiy tomoni Gansuning g‘arb tomonidagi Buyuk devorigacha (Changcheng), janubda esa kiang (chyang)lar yurtigacha yetib borardi. Shu sababdan xunlar Xanning g‘arb tomonga o‘tadigan yo‘lini to‘sib turardi[3, - B.25].

Baqtriya (Dashiya) Farg‘onaning janubida joylashgan bo‘lib, bu yerdagilar farg‘onaliklar bilan bir xil urf-odatlarga rioya qilishadi. Chjan Chyan Baqtriyada bo‘lganida, Sichuan qamishidan (xitoy qamishi) qilingan hassa tayoq va ipakdan to‘qilgan matolarni ko‘rdi. “Bularni qayerdan olib keldinglar?”, deb yerlik aholidan

so‘raydi. Baqtriyaliklar: “Bizning savdogarlarimiz Hindiston (Shengdu)dan olib kelishgan”, deb javob berishadi. Hindiston Baqtriyaning janubiy-sharqida bir necha ming li narida joylashgan. U yerdagilar baqtriyaliklarga o‘xshab, ekin ekish bilan shug‘ullanishar edi.

Baqtriya Xan davlatidan 6912 km (12 ming li) narida joylashgan, u Xanning janubi-g‘arbiga to‘g‘ri keladi. Hindiston esa Baqtriyadan taxminan 576 km janubi-sharqda joylashgan bo‘lib. U yerda ipakdan qilingan matolar bor edi, ularni olib kelish uchun yo‘l uzoqlik qilmasdi.

Baqtriyaga boradigan elchilar kiang (chyang) yerlari orqali Tibet tog‘lari bo‘ylab o‘tib borishi mumkin, ammo kiang (chyang)lar ularni o‘tkazmasdi. Biroz shimol tomonga qarab yurilsa, xunlar qo‘liga tushib qolardi. Shu sababli Xan elchilarini g‘arbdagi davlatlarga borishi qiyin edi.

Yuqoridagi malumotlardan U-di Farg‘ona, Kangyuy, Baqtriya yani Yuejilar va Parfiya katta davlatlar ekanligini, ularda ajoyib mahalliy mollar ko‘pligini, Xitoydagidek hunarmandchilik borligini, ammo ularning qo‘shinlari kuchsizligini, u mamlakatlarda xitoy mollarini yaxshi ko‘rishlarini, ularning shimolidagi yerlar Kangkiyaga qarashli ekanligini bilib oladi.

U-di yuqoridagi davlatlar bilan ittifoq tuzib xunlarga qarshi kurashishni, imperiya hududini g‘arbga kengaytirishni, yana muhim jihati savdo-sotiq munosabatlarini yo‘lga qo‘yishni va yo‘llarni nazorat qilishni maqsad qiladi.

Mil. avv. 115 yilda Qunsharxon (Xunya-wang) U-diga taslim bo‘ladi. Xan qo‘shinlari xunlarni xieshi yo‘lagidagi qumliklarning shimoliga surib chiqariladi. Lobnor ko‘lining sharqiy tomoni xunlardan bo‘shatilib, g‘arbiy mamlakatlarga yo‘l ochildi[1, -B.103].

Shundan keyin Chjang Chyan U-diga taklif bilan murojaat qiladi: “Asuen (Usun) ning hukmdori Kunmak (Kunmuo) aslida xunlarga itoat etar edi. Biroz kuchaygandan so‘ng u xunlar xoqoniga bo‘ysinishdan bosh tortgan. Shundan keyin xunlar unga hujum qilishdi, lekin birorta ijobiy natijaga erisha olmaydilar. Hozir xanlar xunlar xoqonini qiyin vaziyatga tushirib...”. Xunlarning qadimgi G‘uennga (Xunya) viloyati bo‘shab, odamsiz qoldi. Aseunlar (Usunlar) qadimgi vatanlarini qo‘msaydilar va xanliklarning mollarini yaxshi ko‘radilar. Hozirgi vaziyatda asuenlarga katta sovg‘alar yuborib, ularni sharqqa ko‘chish va Xunya viloyatini egallash, Kunmakning ukasiga xanlar bilan qarindosh bo‘lishni taklif etsak va ular bu takliflarni qabul qilsa, hunlarning o‘ng qo‘lini chopib tashlagan bo‘lar edik. Shu bilan birga asuenlarning g‘arb tomonidagi Baqtriyani va uning ta’siri ostidagilarni itoat qildirish imkoniyatiga ham ega bo‘lamiz” deb yuqoridagi fikrlarni aytadi.

U-di mazkur taklifga binoan ish ko‘rishni ma’qul topib, Chjang Chyanga saroy soqchilari boshlig‘i chjung-lang jiang unvonini in’om etadi [2, -B.344.]. So‘ngra unga 300 kishi, har bir kishi boshiga ikkitadan ot, son-sanoqsiz qora mol va qo‘y, bir necha ming tillo pul va ipak matolar berdi. Unga hamrohlik qiladigan yordamchilarni tayinlab, safarga jo‘natdi va qulay yo‘lni tanlab yurishni buyurdi.

Chjang Chyan Asuen (Usun)ga kelganida, mahalliy hukmdor Kunmak (Kunmuo) u bilan uchrashib, o‘zining uchrashuvdan g‘oyat xursand ekanligini aytdi. Shunda Chjang Chyan unga farmonni ko‘rsatib, “asuen (usun)lar o‘zlarining sharqdagi qadimgi joylariga ko‘chib borishlari mumkin. Agar asuenlar u yerga ko‘chib borsalar,

Xan malikasi sizga xotinlikka beriladi, biz aka-ukalar bo‘lib qolamiz, birgalikda xunlarga qarshi kurashamiz, shunda xunlar tor-mor bo‘lishi muqarrar», deb aytdi. O‘z yurti Xandan uzoqligi, Xanning qanday davlat ekanligidan bexabarligi, o‘zining ko‘pdan beri xunlar itoatida bo‘lib kelayotganligi, hunlarning yaqinligi va Asuen (Usun) amaldorlarining hunlardan qo‘rqishi kabi bir qator omillar, tasirida asuenlar sharqqa ko‘chib borish taklifini ma’qul topmadi.

Shundan keyin Chjang Chyan Asuen (Usun) hukmdoridan farmon kutib, mazkur mamlakatda uzoq turib qolishga majbur bo‘ldi. O‘zining yordamchilarini u Farg‘ona, Kangkiya(Qang‘), Ulug‘ G‘uzer (Day-ruzie/day-yueji), Baqtriya, Parfiya (Anshi), Hindiston, Xo‘tan va ular atrofidagi davlatlarga yubordi. Chjang Chyanning o‘zini esa Asuen (Usun)lar o‘z vataniga kuzatib qo‘yishdi. Kunmak (Kunmuo) minnatdorchilik izhor etish va Xan davlatining katta-kichikligini bilish uchun bir necha kishini yetarli otlar bilan ta’minlab, uning bilan birga safarga jo‘natdi. Mil. avv. 115 yili Chjang Chyan o‘z yurtiga qaytib bordi. U katta hurmat va izzat bilan kutib olindi.

Oradan bir yildan ko‘proq vaqt o‘tganidan keyin Chjang Chyanning Baqtriya (Dashya)ga va uning atrofidagi yurtlarga yuborgan odamlar ham ularning elchilari hamrohligida qaytib kelishdi. Natijada Xan bilan g‘arbiy mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Shundan ma’lum bo‘ldiki, G‘arbiy mamlakatlar (Shiyuy)da jami 36 davlat mavjud bo‘lgan. Ular zaminida janubdan shimolga qarab cho‘zilgan buyuk bir tog‘ bor, uning qoq o‘rtasidan bir daryo oqib o‘tadi. Ushbu mamlakatlar hududi sharqdan g‘arbga qadar 3456 km (6 ming li), janubdan shimolgacha 576 km (1 ming li) dan ortiq keladi. Ushbu zaminning sharqiy chegarasi Xan mamlakatining Yuymen va Yangguan kabi joylari bilan tutash bo‘lsa, g‘arbiy chegarasi Pomir tog‘lari bilan o‘ralgan[1, -B.105]. U yerdagi daryoning ikki tarmog‘idan biri Pomir tog‘lari orasidan, ikkinchisi Xo‘tandan boshlanadi. Daryo sharqqa qarab oqib, Yuymen va Yangguandan 172.8 km (300 li) masofada joylashgan Sho‘rko‘l (Lobnor ko‘li)ga quyiladi [2, -B.346].

Yuymen va Yangguandan G‘arbiy mamlakatlarga boradigan ikki yo‘l bor. Ularning biri Pishamshan (Shanshan)dan Janubiy tog‘ (Nan-shan) va Keriya (Chemuoxe) daryosining shimoliy qirg‘oqlari bo‘ylab g‘arbga, ya’ni Yorkent (Shache)ga qarab ketadi. Bu yo‘nalish Janubiy yo‘l deb nomlanib, u Pomirdan o‘tib, Ulug‘ G‘uzer(Day-yueji) va Parfiya kabi mamlakatlarga boradi.

Ikkinchi yo‘l Qadimiy Turfon (Chyan Cheshi)ning hukmdor o‘rdasi orqali Shimoliy tog‘ (Beyshan) bo‘ylab daryo oqimiga qarshi yuradigan va Qashqarga boradigan ikkinchi yo‘l Shimoliy yo‘l deb ataladi. U Farg‘ona, Kangkiya, Yamtsat (Yantsay) kabi mamlakatlarga olib boradi [2, -B.346].

Xan imperatori tomonidan G‘arbiy mamlakatlar ustidan nazorat qilish uchun bir nafar harbiy amaldor (duvey) tayinlangan bo‘lib, u asosan Qarashar (Yansi), Veyshu, Yuyli kabi joylarda turib, barcha davlatlardan soliq yig‘ish va boylik orttirish bilan shug‘ullanar edi.

Asuen (Usun) hukmdori sharqqa ko‘chib borishni ma’qul topmaganidan so‘ng, Xan sulolasi Xunya viloyati hokimi turgan joyda Juychyuan nohiyasini tashkil qilib, u yerga asta-sekin yersizlarni joylashtirdi. Keyinchalik xunlar bilan Chiyang (tibetliklar) o‘rtasidagi aloqani uzib tashlash maqsadida mazkur noxiyaning bir qismi

asosida Uvey nomli ikkinchi bir nohiyani tashkil etdi. Bundan maqsad g‘arbga boradigan yo‘lni nazorat qilishdan iborat bo‘lgan.

Shundan keyin g‘arbiy mamlakatlarga elchilar yuborish ko‘paydi. Har yili ko‘pi bilan o‘n, kamida 5-6 marta turli xonliklarga elchilar jo‘natilardi. Uzoq yurtlarga yuborilganlar 8-9 yilda, yaqin mamlakatlarga jo‘natilganlar bir necha yilda qaytib kelishdi. Mil. avv. 111 yilida Chjang Chyan va g‘arbiy mamlakatga borib kelgan boshqa elchilar, zodagonlar, harbiylar Xan imperatoriga yozma axborot berib, xorijiy mamlakatlar kuch-quvvatlari va ulardagi noyob narsalar haqida ma’lumot olib kelish uchun yana elchilar yuborishni so‘radilar. Bu orqali g‘arbda joylashgan mamlakatlar bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo munosabatlarini kuchaytirishga harakat qildilar [1, -B.107].

Tungjiang jishi benmuo (Muhim tarixiy voqealar bayoni). 1-jild. 2-bob. Asaridagi G‘arbiy Xan imperiyasining g‘arbiy mamlakatlar (Shiyuy) bilan aloqa o‘rnatishiga oid malumotlarni tahlil qilib ikki xil xulosaga kelish mumkin.

Birinchidan G‘arbiy xan sulolasi va U-di hukmronlik qilgan davrda xunlarga qarshi kurashish uchun siyosiy va harbiy ittifoq tuzish maqsadida ko‘plab qo‘shni davlatlar, xususan g‘arbiy qismida joylashgan mamlakatlar bilan yaqin munosabat olib borishga harakat qilgan. Xan davlati bir so‘z bilan aytgan g‘arbdan uzilib qolgandi, yani Xunlar va ularga tobe bo‘lgan kianglar (chiyang) bu huhdlarni egallab, Xan elchilarini, savdogarlarini o‘tishiga to‘sqinlik qilayotgan edi. Bunday sharoitda Xan imperiyasi Farg‘ona (Day-yuan), Kangyuy (Qang‘), Baqtriya (Daysha) va Ulug‘ G‘uzer (Yuejilar) lar bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilgan. Bu orqali xunlarga qarshi kurashishni va mag‘lubiyatga uchratishni maqsad qilgan.

Ikkinchidan harbiy ittifoq tuzilib xunlar mag‘lub qilinganidan so‘ng, g‘arbdagi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishni, ularga olib boruvchi yo‘llarni nazorat qilish harakatida bo‘lagan. Xususan bu o‘rinda Farg‘ona (Day-yuan) alohida o‘rin tutgan. Sababi vodiyning otlariga Xan davlati, ayniqsa U-di juda ishqiboz bo‘lgan. Bundan tashqari o‘zida ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va ulardagilarni olib kelishda ham, aloqa o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lgan.

Bir so‘z bilan aytgan U-di hukmronligida g‘arbdagi mamlakatlar bilan munosabatlarini o‘rnatishga qilagan ishlari, kelgusida Ipak yo‘lining rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид малумотлар. Фарғона: “Фарғона нашриёти”, 2013.
2. Хўжаев А. Туркистон хитой ёзма манбаларида. - Тошкент: “Фан” нашриёти, 2024.
3. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
4. **https://dzen.ru/a/YwxJAdxfBUoKVrmH**
5. **https://www.abirus.ru/content/564/623/626/12557/21635.html**

SHAYBONIYLAR VA BOBURIYLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Rustam KABULOV
Oriental unversiteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
A. RABBIMOV
Oriental universiteti
Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Shayboniy hukmdor Ubaydullaxon va Bobur, uning o'g'li Humoyun o'rtasidagi munosabatlar, Boburni Safaviylar yordamida Samarqandni egallashi, Bobur o'z vatanidan ayrildi va janubga — Hindistonga yo'l olishga majbur bo'ldi. Bu hodisa Boburiylar sulolasining Hindistonda davlat qurishga olib keldi. Movarounnahr va Hindiston o'rtasida savdo karvonlari muntazam qatnab turgan.* ***Kalit so'zlar:*** *Muhammad Shayboniyxon, Bobur, Samarqand, Shayboniyxon, Hirot, Farg'ona, Eron shohi Ismoil Safaviy.*

Annotation: *The relationship between the Shaybani ruler Ubaydullah Khan and Babur's son Humayun, Babur's capture of Samarkand with the help of the Safavids, Babur was forced to leave his homeland and head south to India. This event led to the establishment of a state in India by the Babur dynasty. Trade caravans regularly traveled between Transoxiana and India.* ***Keywords:*** *Muhammad Shaybani Khan, Babur, Samarkand, Shaybani Khan, Herat, Fergana, Shah Ismail I of Iran (Ismail Safavid).*

Аннотация: *Взаимоотношения правителя Шейбани Убайдулла-хана и сына Бабура Хумаюна, захват Бабуром Самарканда с помощью Сефевидов, Бабур потерял родину и был вынужден отправиться на юг, в Индию. Это событие привело к основанию династии Бабура в Индии. Торговые караваны регулярно курсировали между Трансоксанией и Индией.* ***Ключевые слова:*** *Мухаммад Шайбани-хан, Бабур, Самарканд, Шайбани-хан, Герат, Фергана, Иранский шах Исмаил Сефевид.*

Markaziy Osiyo tarixida Shayboniylar va Boburiylar sulolalari o'zaro munosabatlar murakkab va ziddiyatlarga to'la bo'lgan [2-B, 89-90]. Shayboniylar va Boburiylar o'rtasida dastlab Movorounnahr va Xuroson uchun shiddatli siyosiy kurash bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ular hukmronlik qilgan ikki imperiya o'rtasida iqtisodiy va madaniy sohalarda keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Shayboniylar va Boburiylar o'rtasidagi munosabatlarning bir necha muhim tomonlari bor; Avvalo, Muhammad Shayboniy dashtiy o'zbeklarni birlashtirish orqali kuchli davlat tuzilishiga intilgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur esa Temuriylar imperiyasining voris sifatida o'z merosini qayta tiklash uchun kurashgan.

1500-1510-yillarda Muhammad Shayboniyning Movorounnahr va Xurosonni egallashi Zahiriddin Muhammadning bu hududni tark etishga majbur etdi. Bu voqealar tufayli Bobur o'z vatanidan ayrildi va janubga — Hindistonga yo'l olishga majbur bo'ldi. Bu hodisa Boburiylar sulolasining Hindistonda davlat qurishga olib keldi.

Shayboniyxon Hirotni egallashidan so'ng, 1507 yilda u yerda Temuriylar davri madaniyatini davom ettirish va rivojlanishga harakat qilgan. Bu Shayboniylarning faqat harbiy kuch emas, balki madaniyatni qadrlagan hukmdor ekanligini ko'rsatdi.

1510-yilda Shayboniyxonning Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlaridan mag'lubiyati va halokati Markaziy Osiyoda kuchlar muvozanatini o'zgartirdi. Bu

voqeadan so’ng Bobur Samarqandni qayta egallashga muvaffaqiyat bo’ldi, ammo bu g’alaba uzoqqa cho’zilmadi.

XVI-XVII asrlarda Shayboniylar Movarounnahr va Xurosonni boshqargan bo’lsa, Boburiylar esa Hindistonda kuchli imperiya barpo bo’lishiga muvaffaq bo’ldilar. Ikki sulola o’rtasida siyoziy kurash bo’lishi bilan bir qatorda, madaniy va iqtisodiy a’loqalar davom etgan. Zahiriddin Muhammadning ajdodlari yurtini egallashga qilgan harakatini vorislaridan Humoyun Mirzo, Akbarshox va Shoxjahonlar ham davom ettirganini ko’rish mumkin. Shuningdek, bu sulolalar davrida Markaziy Osiyo va Hindiston o’rtasida savdo yo’llari rivojlandi, bu esa har tomonlama iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko’rsatadi.

Shayboniylar va Boburiylar o’zaro munosabatlari Markaziy Osiyo tarixida muhim o’rin tutadi. Bu ikki sulola o’ziga tegishli va to’qnashuvlar ichki siyosatni shakllantirdi va madaniy aloqalar rivojiga ham ta’sir ko’rsatadi.

Shayboniylar va Boburiylar sulolalari o’ziga xos munosabatlar ko’p qirrali bo’lib, tarixiy manbalarda kam yoritilgan qiziqarli tomoni ham mavjud. Ikki sulolaga tegishli aloqalarni yaqindan o’rganganda ikki sulola o’rtasida yangi xususiyatlar aniqlandi. 1530-yillarda Shayboniy hukmdor Ubaydullaxon va Bobur o’g’li Humoyun o’rtasida elchilar almashinuvi bo’lgan, bir qator demokratik qarorlar amalga oshirilgan[3-B, 70-72]. Bu iqtisodiy, savdo va chegara masalalari edi.

Diniy sohadagi munosabatlar ham diqqatga sazovor. Bobur va uning vorislari Hindistonda Naqshbandiya tariqatini o’zlarining asosiy mafkurasi sifatida o’z saroylarida qabul qilganlar. Bu tariqat Shayboniylar davlatida asosiy mafkura bo’lgan. Shu tariqa, ikki sulola o’ziga xos qarama-qarshiliklarga qaramay, diniy, madaniy sohalarda ma’lum darajada muloqot davom etgan[4-B, 210-215].

Adabiy va madaniy sohalardagi o’zaro ta’sir ham e’tiborga molik. Shayboniylarga tegishli bo’lgan ko’pgina qo’lyozmalar va kitoblar imkoniyatlari Boburiylar kutubxonalariga o’tib qolgan.

Boburiylar jang usullarida Shayboniylar qo’llagan ko’chmanchi jangovar taktikalardan foydalangan. Boburning, uning vorislarining asosiy tayanchi bo’lgan afg’on qo’shinlari ko’chmanchi o’zbeklar singari otda jang qilishni o’rgangani hind zaminida ularning ustunligini taminladi.

Savdo aloqalari asosida esa ikki sulola o’rtasida yordam bilan bir qatorda hamkorlik ham mavjud bo’lgan. 1550-yillardan o‘rin olgan Shayboniylar va Boburiylar o‘rtasida savdo shartnomasini imzolagan bo‘lib, bu shartnoma asosida Movarounnahr va Hindiston o‘rtasida savdo karvonlari muntazam qatnab turgan. Markaziy Osiyodan Hindistonga ipak va qurol-yarog’, Hindistondan esa ziravorlar, qimmat toshlar va matolar olib ketilgan.

Memorchilikning o’zaro ta’sir ko’rsatishi ham qiziq mavzu. Boburiylar me’morchiligida Shayboniylar davri me’morchiligiga xos bo’lgan ba’zi material qolgan. Masalan, Humoyun maqbarasidagi me’moriy yechimlarni Buxorodagi Shayboniylar davri bilan o’ziga xos tarzda qurgan ekan.

Muhim ma’lumot, Shayboniyning hukmdorlaridan Abdullaxon II davrida (1583-1598) Boburiylar bilan barqaror darajada yaxshilangan. Bu davrda ikki sulola o’rtasida elchilar almashilgan va savdo aloqalari kengaygan. Abdullaxon II va

Akbarshoh o’rtasida Eron Safaviylari davlatiga qarshi hamkorlik qilish bo’yicha muzokaralar olib borilgan[5-B, 75-80].

Shayboniylar saroyida yashagan ba’zi bir olimlar va madaniyat arboblarini baholash Boburiylar saroyiga o’tib ketgan. Bu shaxslar orqali Shayboniylar davri madaniyati va ilm-fani Hindistonda iqtisodiy hissa qo’shilgan.

Umuman olganda, Shayboniylar va Boburiylar munosabatlarini faqat dushmanlik prizmasidan ko’rish to’g’ri emas. Ularning o’zaro ta’siri va aloqalari murakkab, ko’p qirrali bo’lib, madaniy, diniy va iqtisodiy sohalarda ham namoyon bo’lgan.

Shayboniylar va Boburiylar o’rtasidagi munosabatlar tahlili shuni ko’rsatadiki, bu ikki sulola o’zaro aloqalar yordam dushmanlik va harbiy to’qnashuvlar bilangina emas, balki murakkab munosabatlar, madaniy va iqtisodiy munosabatlar bilan ham harakterlanadi.

XVI-XVII asrlarda bu ikki sulola o’zaro bog’liq bir necha bosqichlardan o’tgan. Oldin, Muhammad Shayboniyxon va Zahiriddin Muhammad Bobur o’ziga tegishli ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurash ustunlik qilgan bo’lsa, Shayboniylar va Boburiylar sulolalari o’rtasida ma’lum darajada muvozanat o’rnatiladi. Bunga xalqaro savdolar, elchilar almashish savdolari guvohlik beradi.Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar va Boburiylar o’zaro munosabatlar ko’p qirrali bo’lib, dushmanlik va odamlar bilan bir qatorda, muayyan davrlarda hamkorlik, madaniy aloqalar va o’zaro ta’sir ham muhim o’rin tutgan. Bu esa O’rta Osiyo va Hindiston o’ziga xos tarixiy aloqalar rivojiga katta hissa qo’shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Saidov J. Boburiylar sulolasining Markaziy Osiyo siyosati. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
2. Ahmedov B. O’rta Osiyo sulolalari tarixidan. Toshkent: O’zbekiston, 2015.
3. Ro‘ziyev N. Bobur va Shayboniyxon: tarixiy tahlili. Toshkent: Tarix saboqlari, 2016.
4. Mahmudov O. Movarounnahr va Hindiston a’loqalari tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Salohiddin Toshkandiy. Shayboniylar va Boburiylar munosabatlari tahlili. Toshkent: O’zbekiston, 2017.

KIDARIYLARNING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI VA O‘RNASHISHI

Sarboz SAPAROV
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti tayanch-doktoranti
saparovsarboz437@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Kidariylar davlatchiligining Markaziy Osiyo hududida shakllanishi, ularning qanday tarixiy asosda siyosiy hukmronlik o‘rnatgani haqida tarixiy manbalar asosida chuqur ilmiy tahlil beradi. Maqolada yozma manbalar, Baqtriya hujjatlari, Xitoy yilnomalari, numizmatik ma’lumotlar va boshqa tadqiqotlari asosida ularning mintaqaga kirib*

kelish yo‘llari va bu yerda qanday siyosiy o‘rnashgani yoritiladi. ***Kalit so‘zlar:*** *Kidariylar, Toxariston, So‘g‘diyona, Kushon-Sosoniylar, Eftaliylar, Baqtriya hujjatlari, numizmatika, tarixiy manbalar, Markaziy Osiyo.*

Аннотация: *Данная статья представляет собой глубокий научный анализ формирования государства Кидаритов на территории Средней Азии, а также процессов установления их политического господства на основе исторических источников. В статье рассматриваются пути проникновения Кидаритов в регион и характер их политической интеграции на основе письменных источников, Бактрийских документов, китайских летописей, нумизматических данных и других исследований.* ***Ключевые слова:*** *Кидариты, Тохаристан, Согдиана, Кушано-Сасаниды, Эфталиты, Бактрийские документы, нумизматика, исторические источники, Средняя Азия.*

Annotation: *This article provides a deep scholarly analysis of the formation of the Kidarite statehood in Central Asia and the establishment of their political authority based on historical sources. The paper discusses the routes of the Kidarites' penetration into the region and the nature of their political integration, drawing upon written sources, Bactrian documents, Chinese chronicles, numismatic evidence, and other modern studies.* ***Keywords:*** *Kidarites, Tokharistan, Sogdiana, Kushano-Sasanians, Hephthalites, Bactrian documents, numismatics, historical sources, Central Asia.*

Markaziy Osiyo tarixida IV–V asrlar mintaqadagi siyosiy tuzilmalar keskin o‘zgarishlarga uchragan davr bo‘lib, aynan shu paytda Kidariylar tarixiy maydonga chiqadi. Kushon-Sosoniylarning tanazzuli, shuningdek, Baqtriya va So‘g‘diyona hududlaridagi siyosiy bo‘shliq yangi kuchlarning shakllanishiga imkon yaratdi. Ushbu maqola aynan Kidariylarning Markaziy Osiyoga qanday kirib kelgani, qayerlarda mustahkam o‘rnashgani va ularning tarixiy manbalardagi izlari asosida siyosiy faoliyatini yoritadi.

Kidariylarning kelib chiqishi borasidagi eng asosli dalillar tangachilik (numizmatika), yozma manbalar, Baqtriya hujjatlari va xitoy yilnomalaridan olinadi. Ularning qayerdan chiqqani haqida bir nechta ilmiy yondashuv mavjud. Xitoy yilnomalarida (xususan, Vey-shu) Kidara (Si-to-lo) nomi bilan tilga olingan hukmdor boshchiligidagi guruh “Katta Yuechji” konfederatsiyasining bir qismi sifatida qaraladi. Bu ularning kushonlar bilan ideologik va siyosiy meros jihatdan bog‘liqligini bildiradi [4, – B.188.].

Étien de La Vassièr va Joe Kribning fikriga ko‘ra, kidariylar Toxariston hududiga Balxdan (ya’ni Paropamisadlar yoki shimoliy Afg‘oniston orqali) kirib kelgan. Ular dastlab bu yerda siyosiy bo‘shliqdan foydalangan holda mahalliy elitalar bilan muvozanatga kirishgan. Joe Kribning numizmatik tahlillarida kidariylarning ilk tangalari kushon-sosoniy uslubida zarb qilingan bo‘lib, ular o‘zlarini Kushon davlati merosining qonuniy vorisi sifatida ko‘rsatgan [1, – B.81.].

Shuningdek, Grousset ularni xunlashgan eroniy siyosiy guruh deb baholaydi [8, – B.91.]. Baqtriya hujjatlarida esa ular ilk bor IV asr oxiri — V asr boshlarida “Rob shohi” sifatida hujjatlarda tilga olingan. Bu ularning bir vaqtning o‘zida tangalar chiqarib, yozma hujjatlarda rasmiy siyosiy shaxs sifatida tan olinganini bildiradi [2, – B.112.].

Toxariston IV–V asrlarda Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri edi. Kushon-Sosoniylar hukmronligining zaiflashuvi natijasida bu

hududda siyosiy bo‘shliq vujudga kelgan, natijada yangi siyosiy kuch sifatida Kidariylar sahnaga chiqqan.

Kidariylar Toxaristonda o‘zlarining siyosiy hukmronligini o‘rnatganlar va mustahkamlash uchun maxsus siyosiy titul va iqtisodiy boshqaruv tizimini shakllantirganlar. Baqtriya hujjatlarida ular “*Rob shohi*” (lord king – mulk egasi-hukmdor) unvoni bilan qayd etilgan. Bu atama siyosiy va iqtisodiy yurisdiktsiyaga ega bo‘lgan hukmdorlar yoki yirik mulk egalari uchun qo‘llanilgan bo‘lib, ular Toxariston iqtisodiyotini, soliq yig‘imini va yerni boshqarishda markaziy rol o‘ynaganlar[2, – B.112.].

Nicholas Sims-Williams tahlillariga ko‘ra, bu hujjatlarda “Rob shohi” unvonining muntazam qo‘llanilishi Kidariylar hukmronligi ostida Toxaristonda markazlashgan siyosiy tizim mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi[2, – B.112.]. Ular mulk egasi sifatida yirik yer egalik tizimini va mustaqil soliq tizimini shakllantirganlar, bu esa ularning faqat nominal emas, balki real siyosiy kuchga ega bo‘lganini isbotlaydi.

Numizmatik materiallar ham buni tasdiqlaydi. Joe Krib, Sims-Williams va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan Kidariylar tangalarida “*Kidara Kushanshah*” (Kushonlar shohi Kidara) degan yozuvlar mavjud bo‘lib, bu ularning siyosiy hokimiyatini o‘z tangalarida ochiq namoyon qilganini ko‘rsatadi[1, – B.81.]. Tangadagi ikonografiya va uslubda ham ularning Kushon-Sosoniy an’analarini davom ettirishga intilgani yaqqol ko‘rinadi.

Ablat Xo‘jayev ham o‘z tadqiqotida Toxariston hududidagi siyosiy-iqtisodiy tizimni tahlil qilib, Kidariylarning mulkiy boshqaruvi va moliyaviy siyosati ularning Toxaristonda kuchli hukmronlik qilganidan dalolat berishini ta’kidlaydi[10, – B.94.]. Shu bilan birga, Kidariylarning Toxaristonda o‘z tangalarini erkin zarb qilish huquqiga ega bo‘lgani — bu ularning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham mustaqil harakat qilganliklaridan dalolat beradi. Tangachilik esa ularning legitim hukmdor sifatida tan olinganini ko‘rsatadi.

Demak, Toxariston Kidariylarning siyosiy markaziga aylanib, ular bu hududda kuchli siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy boshqaruvni joriy etganlar. Ularning tangalari, hujjatlari va siyosiy faoliyati Markaziy Osiyoda qisqa muddat davomida mustaqil siyosiy kuch sifatida faoliyat yuritgan Kidariylarning tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Kidariylar dastlab Toxariston hududida mustahkam siyosiy hukmronlikni o‘rnatgan bo‘lsalar-da, ular siyosiy va iqtisodiy ta’sirini Toxaristondan tashqariga ham kengaytirishga intildilar. Kidariylar faoliyati faqat Toxariston bilan cheklanib qolmadi, balki ular So‘g‘diyona, Xorazm va ba’zan Amudaryo-Sirdaryo oralig‘idagi hududlarga ham ta’sir ko‘rsatganlar. Arxeologik topilmalar, xususan So‘g‘diyona hududida aniqlangan kidariy tangalari bu kengayishning iqtisodiy va siyosiy asosga ega bo‘lganini ko‘rsatadi[7, – B.203.]. Samarqand va uning atrofida topilgan tangalarida “kydr” yozuvi uchraydi, bu esa ularning So‘g‘diyona bilan nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy aloqada ham bo‘lganidan dalolat beradi[7, – B.203.]. Numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra, Kidariylarning So‘g‘diyonaga kirib kelishi vaqtida ular o‘z tangalarini muomalaga kiritganlar, bu esa mahalliy iqtisodiyotda ularning bevosita ta’sir o‘tkazganini tasdiqlaydi. Joe Krib o‘z tadqiqotida Samarqand va So‘g‘diyona hududida uchraydigan kidariylar tangalarining Kushonlar davriga xos

tangachilik an’analarini davom ettirish bilan birga, yangi siyosiy belgilarni ham aks ettirganini qayd etadi[1, – B.81-85.].

Baqtriya hujjatlarida Kidariylar davrida yer egaligi va soliqqa tortish tizimi joriy qilingani haqida ma’lumotlar uchraydi[2, – B.112-115.]. Soliq yig‘ish va yer egalik munosabatlarining rivojlanishi So‘g‘diyona va Toxariston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga olib kelgan.

Xitoyshunos olim A. Xo‘jayev ham o‘z tadqiqotlarida Kidariylarning So‘g‘diyona va unga tutash hududlarda qisqa muddatli siyosiy ta’sir o‘rnatganini, lekin bu ta’sirning asosan iqtisodiy xarakter kasb etganini ta’kidlaydi[10, – B.96.]. Unga ko‘ra, So‘g‘diyona orqali o‘tuvchi savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish Kidariylar uchun katta strategik ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bundan tashqari, Kidariylarning qisqa muddatli siyosiy ta’siri Xorazm hududida ham sezilgan. Tangalar va yozma manbalarda ularning Xorazm bilan ham aloqalari bo‘lganiga ishoralar uchraydi[3, – B.188.]. Shunday qilib, Kidariylar faqat Toxariston bilan cheklanmay, iqtisodiy va siyosiy ta’sir doirasini So‘g‘diyona va boshqa Markaziy Osiyo hududlariga ham kengaytirishga muvaffaq bo‘lganlar. Ularning tangachilik faoliyati va iqtisodiy tizimi bu hududlarda ularning kuchli siyosiy ta’sir ko‘rsatganini aniq tasdiqlaydi.

V asrning o‘rtalariga kelib, Markaziy Osiyo hududida Eftaliylarning siyosiy maydonga chiqishi Kidariylar uchun halokatli bo‘ldi. Sosoniylar imperatori Pero‘z va Eftaliylar o‘rtasidagi siyosiy kelishuv natijasida Kidariylar Toxariston hududidan siqib chiqariladi. Baqtriya hujjatlaridagi muhrlar va shartnomalarda bu davrda Eftaliylar foydasiga o‘zgarish bo‘lganini ko‘rish mumkin [2, – B.118.].

Kidariylar Markaziy Osiyoning IV–V asrlar tarixida qisqa, ammo ta’sirchan siyosiy kuch sifatida maydonga chiqqan. Ular Kushon-Sosoniylar hukmronligining zaiflashuvi va mintaqadagi siyosiy bo‘shliqdan foydalanib, Tokhariston, So‘g‘diyona va Xorazm kabi hududlarda o‘z siyosiy va iqtisodiy tizimlarini shakllantirganlar. Baqtriya hujjatlarida Kidariylarning “Rob shohi” sifatida tilga olinishi ularning nafaqat siyosiy hokimiyatga, balki iqtisodiy boshqaruv tizimiga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Numizmatik manbalar, xususan, “Kidara Kushanshoh” tangalari esa ularning o‘zini Kushon merosining qonuniy davomchisi sifatida ko‘rsatishga intilganini tasdiqlaydi. Kidariylar faqat Tokhariston bilan cheklanmay, So‘g‘diyona, Xorazm va Amudaryo–Sirdaryo oralig‘i hududlariga ham o‘z siyosiy ta’sirini kengaytirganlar. Ularning savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilgan siyosiy harakatlari So‘g‘diyona va Toxariston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

V asrning o‘rtalariga kelib, Eftaliylarning siyosiy maydonga chiqishi va kuchayishi Kidariylar hukmronligiga barham bergan bo‘lsa-da, ular qisqa muddatda Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlikni tiklashga qaratilgan harakatlari bilan tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘ldilar. Kidariylarning siyosiy va iqtisodiy tizimi, tangachiligi va diplomatik faoliyati ularning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Ular orqali biz IV–V asrlar Markaziy Osiyosining siyosiy dinamikasi, hududlararo savdo-sotiq va siyosiy integratsiya jarayonlarini yanada chuqurroq anglaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cribb, J. The Kidarites: The Numismatic Evidence // *Studia Iranica*. – Vol. 23. – 1993.

2. Sims-Williams, N. *Bactrian Documents from Northern Afghanistan*. – Oxford: Oxford University Press, 2000.

3. *Histoire et cultures de l'Asie centrale préislamique*. – Paris: CNRS Editions, 2021.

4. *History of Civilizations of Central Asia*. – Vols. 1–3. – UNESCO Publishing, 1992–1996.

5. Tabari. *Tarix ar-Rusul wa-l-Muluk*. Cilt I–VI. – Qohira: Dar al-Fikr, 1985.

6. The Kidarite Kingdom in Central Asia // *The Silk Road*. – Vol. III. – Kyoto: Ritsumeikan University, 2012.

7. *La Bactriane et la Sogdiane de part et d'autre de la conquête*. – Paris: De Boccard, 2019.

8. Grousset, R. *L'Empire des Steppes*. – Paris: Payot, 1939.

9. Xo'jayev, A. *Buyuk Ipak yo'li va qadimgi O'zbekiston shaharlari*. – Toshkent: Fan, 2006.

10. Ходжаев, А. Из истории древних тюрков. – Алматы: "Tafakkur", 2011.

EFTALIYLAR DAVLATI SIYOSIY FAOLIYATIDA ELCHILIK ALOQALARINING O'RNI

Jahongir KAMOLOV
TDPU "Jahon tarixi" kafedrasi dotsenti, PhD.
Sarvinoz RAXMATULLAYEVA
TDPU Tarix fakulteti II bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda ilk o`rta asrlarda o'z davrining yirik saltanatlaridan biri o'laroq tashkil topgan Eftaliylar davlatining faol tashqi siyosat olib borganligi va bu haqida ko'plab yozma manbalarda saqlanib qolgan ma`lumotlar tahlil qilingan. Eftaliylar yirik imperiyalar bo'lmish Xitoy, Sosoniylar Eroni, Hindistondagi mahalliy sulolalarga nisbatan yuritgan tashqi siyosati va siyosiy-harbiy yurishlari turli tillardagi yozma manbalarda u yoki bu darajada o'rin olgan.* ***Kalit so`zlar.*** *Avar, Pannoniya, Tangritog`, Gandxara, Yeda, Chog`oniyon, Tuxalo, Xua, Lyan, Pahlaviy, Badg`is.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы сведения, сохранившиеся в многочисленных письменных источниках, о том, что государство Эфталитов, одно из крупнейших государств своего времени, сформировавшееся в раннем средневековье в Центральной Азии, вело активную внешнюю политику. В письменных источниках на разных языках в той или иной степени отражена внешняя политика Эфталитов по отношению к таким крупным империям, как Китай, Сасанидский Иран, а также к местным династиям в Индии, и их политико-военные походы.* ***Ключевые слова:*** *Авар, Паннония, Тянь-Шань (Тангритог), Гандхара, Еда, Чаганян, Тухало, Хуа, Лян, Пехлеви, Бадгис.*

Annotation. *This article analyzes information preserved in numerous written sources about the active foreign policy conducted by the Hephthalite state, one of the major empires of its time, which emerged in early medieval Central Asia. The Hephthalites' foreign relations and political-military campaigns toward major empires such as China, Sasanian Iran, and local dynasties in India are reflected to varying degrees in written sources in different languages.* ***Keywords:*** *Avar, Pannonia, Tangritagh, Gandhara, Yeda, Chaghaniyan, Tukhala, Hua, Lian, Pahlavi, Badghis.*

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning kunchiqar tomonlarida, asosan, Tangritog‘ning shimoli-sharqiy qismi, Oltoy tog‘larining sharqiy etaklari, Janubiy Sibir va Mo‘g‘ulistonni o‘z ichiga olgan kengliklarda Juan-juan yoki Avar xoqonligi (402-552) deb ataladigan yirik imperiya ko‘plab el-uluslarni o‘z bayrog‘i ostida birlashtirgan edi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, “Avar xoqonligi” ostida aksariyat hollarda VI–IX asrlarda Sharqiy Yevropa asosan, Qora dengizning shimoli, Pannoniya /Avstriya, Tuna daryosi bo‘ylarida hukm surgan turkiy saltanat tushuniladi. Shu bilan birgalikda, bir qator tadqiqotchilar Juan-juan xoqonligi va Eftaliylar davlatini ham aslida bitta davlat bo‘lib, ularning asl nomi Avar xoqonligi bo‘lgan, deb hisoblamoqdalar.[1.- S. 61–65, 88.]

O‘sha kezlarda mintaqada yana bir yirik siyosiy kuch – Eftaliylar davlati (420–565) o‘rtaga chiqib, Amudaryo-Sirdaryo oralig‘i, Shimoliy Hindiston (Gandxara / Pokiston, Afg‘oniston) va qisman Xurosonni o‘z qo‘l ostida tutdi. Xitoy yilnomalarida eslatilishicha, *Yeda* (Eftaliy) davlati kuch-qudratga erishgan paytda (450 yillarda) unga G‘arbiy o‘lkalardagi *Kangyuy* (Choch yoki Sug‘d), *Xo‘tan*, *Shale/Sule* (Koshg‘ar), Kucha, Yansi (Qorashar), kabi 30 ga yaqin kichik hukmdorliklar bo‘ysunishgan. [2.– C. 269] Har ikkala saltanat o‘zaro qo‘shni bo‘lib, mintaqada Sharqiy Turkiston va Yettisuv ularning chegara hududlarini tashkil qilardi.

Bu davrda Markaziy Osiyoga sharqdan qo‘shni hudud – Xitoyda Shimoliy Vey (Toba; 385-556) sulolasi etakchilik qilardi. Mintaqaga janubi-g‘arbdan qo‘shni hudud Eronda esa yirik siyosiy kuch – Sosoniylar imperiyasi boshqaruv tizginini qo‘lda tutib, Xurosonni egallash uchun Eftaliylarga qarshi kurash olib borardi. 560 yillarda Sosoniylar ham xuddi Xitoyga o‘xshab mintaqada yangi siyosiy kuch-Turk xoqonligining o‘rtaga chiqishini xayrixohlik bilan kutib oladi va oradan ko‘p o‘tmay xoqonlik bilan aloqa o‘rnatib, uning Eftaliylarga qarshi siyosatini qo‘llab-quvvatlay boshlaydi.

Xitoy manbalaridan ma’lum bo‘lishicha, Eftaliylar davlati va Xitoy sulolalari orasida bir necha yillarda, bir qator yo‘nalishlarda diplomatik aloqalar o‘rnatilgan edi. Eftaliylar davlatining markaziy boshqaruv hududi Toxariston bo‘lib, bu erda davlatning bir necha boshqaruv markazlari bo‘lgan shaharlar o‘rin olgandi. Chog‘aniyon, Termiz, Balx, Qunduz kabi shaharlar Kushon va Xioniylar davrida boshqaruv markazi vazifasini o‘taganidek Eftaliylar davrida ham bu holat saqlanib qoladi. Shuning uchun yozma manbalarda Eftaliylar davlati Toxariston o‘lkasi o‘laroq tilga olinadi. «Vey-shu» yilnomasida 464 yilda *Tuxolo* (Toxariston)dan Shimoliy Vey sulolasiga elchi kelgani tilga olingan bo‘lib, ular Eftaliylarga tegishli bo‘lsa kerak. Boshqa tomondan esa *Idan* (Eftaliy) va Tuxolo davlati bir-biriga qo‘shni davlatlar sifatida ko‘rsatiladi. “Suy-shu” va “Tan-shu” yilnomalarida esa 615 yilda Toxaristondan Xitoyga elchi jo‘natilgani, ular xitoyliklarga Idan (Eftaliy)lar bilan yonma-yon yashashlari to‘g‘risida so‘zlab berishganiga urg‘u beriladi.

L.A.Borovkovaning yozishicha, *Yada/Idan* (Eftaliy) davlati VII asrga kelib ancha kichrayib qolgan bo‘lsa-da, Amudaryoning janubida yashashda davom etadi. Ushbu davlatning VIII asr o‘rtalarida ham saqlanib qolganini “Sin Tan-shu” yilnomasida Tyan-bao erasining 7 yilida Eftaliylardan elchi kelgani tilga olinishi, shuningdek “*Yada – hukmdor laqabi, qaysiki uning izdoshlari bu nomni davlat nomiga*

aylantirdilar” degan ma’lumot uchrashi bu qarashni qo‘llab-quvvatlaydi.[3. -c. 261.] Boshqa tillardagi manbalardan ham Eftaliylar biror siyosiy uyushma o‘laroq VII-VIII asrlarda ham yashashda davom etgani payqaladi, biroq bu paytda ular Turk xoqonligi qo‘l ostidagi Toxaristonning kichik bir bo‘lagida o‘z boshqaruviga ega bo‘lganini esdan chiqarmaslik kerak.

Eftaliylar davlatining yana bir nomi o‘laroq xitoy yilnomalarida “Xua” atamasi uchraydi. Yilnomalarda bu atamaga quyidagicha tushuntirish beriladi:

“Xua elati – bu Cheshi (o‘lkasining) alohida elatidir”.

Shuningdek, yilnomalarda Xua davlati borasida so‘z borib, 516, 520, 526 yillarda ulardan Xitoyga elchiliklar kelgani aytib o‘tiladi. [4.-c. 264-265.]

“Tyan-szyanning 15 yilida (516 y.) (Xua hukmdorligi) boshqaruvchisi Yaday Ilito ilk bor Lyan sulolasiga elchi yuborib, o‘z o‘lkasining mahsulotlaridan tortiq qildi”;

“Yuan-Vey saltanati chog‘ida Xua elati Sansyan (o‘lkasi)da yashar edilar. Xua o‘sha chog‘larda kichik hukmdorlik bo‘lib, Jujanlar qo‘l ostida edi. Keyinchalik ular ko‘payib, yanada kuchliroq bo‘lishdi va qo‘shni o‘lkalarga qarshi urushlar olib borib, Bosi (Fors), Panpan, Szibin (Kobul/Kashmir), Yansi (Qorashar), Guysi (Kucha), Shule (Koshg‘ar), Gumo, Yuytyan (Xutan) va boshqa hukmdorlikliklarni bo‘ysundirib, o‘z chegaralarini kengaytirdi”;

“Xua (Avar) o‘lkasi ... Yozuvi yo‘q, bitimlar tuzish uchun yog‘och taxtachalarni ishlatishadi. Qo‘shni o‘lkalar bilan bordi-keldi qilgandagina “Xu”larni yuborib, Xu yozuvida maktub yo‘llaydilar”. [5. - c. 257]

“Xua” atamasini ko‘pchilik izlanuvchilar Eftaliylar davlatining yana bir nomi bo‘lmish “Avar” bilan tenglashtiradilar. Birinchi ma’lumot, “Cheshi o‘lkasi” Sharqiy Turkistondagi Turfon (Urumchi) tegrasiga tegishli bo‘lib, geografik o‘rni Tangritog‘ (Tyanshan)ning kunchiqar etaklariga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi ma’lumot esa Toxaristondagi Eftaliylar davlatiga tegishlidir. L.A.Borovkovaga ko‘ra, birinchi ma’lumotdagi “*Xua elati – bu Cheshi (o‘lkasining) alohida elatidir*” deganda Gaochelar to‘g‘risida so‘z borib, ayni o‘sha chog‘larda Turfon va tevaraklari ular tomonidan egallangan, *Yada* (Eftaliylar) esa kunbotardagi o‘lkalarga ko‘chib ketgan edi. [6. -c. 265.]

Sosoniylar va Eftaliylar o‘rtasidagi dastlabki aloqalar V asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Eftaliylar kuchidan Eron sosoniylari Vizantiyaga qarshi kurashda foydalanib kelgan. V asrning o‘rtalarida Sosoniylar hukmdori Bahrom Go‘r (420-438) 427 yilda o‘z o‘lkasini Eftaliylar bosqinidan saqlab qolishi uchunmi yoki mintaqaga uyushtirilgan Juan-juanlar bosqini natijasidanmi yetarlicha aniqlanmagan sabablarga ko‘ra davlat chegarasidagi xun va eroniy ko‘chmanchilar Eftaliy sulolasining qo‘l ostiga o‘tadi. [7. – P. 81, S. 64.]

Pahlaviy yozuvida bittilgan «Bahman-yasht»dagi Sosoniylarning eftaliylar va boshqalar bilan munosabatiga doir quyidagi tarixiy tasdiqlar e’tiborni tortadi: *“(Erondagi) podshohlik va oliy hokimiyat eroniy bo‘lmagan qulvachchalarga, ya’ni xion, turk, haftal (eftal), tibetliklar ... qo‘liga o‘tdi*”. [8. - c. 201, 206, 207.] Bundan ko‘rinadiki, Sosoniylar va Eftaliylar orasida turli voqeliklar yuz bergan bo‘lib, bu holat sosoniy yozma adabiyotida aks etmasdan qolmagan. Eftaliylar tarixi bo‘yicha Sosoniylar davriga tegishli “Xvatav-namak” (Hukmdorlar kitobi), “Ayatkari Zariron”

(Zarir to‘g‘risidagi esdalik kitobi), “Kornamak-i Artaxsher-i Papakon” (Papak o‘g‘li Artasherning qilmishlari kitobi), “Shahristonho-i Eron” (Eron shaharlari) asarlarida birmuncha ma’lumotlar o‘rin olgan. Ahamiyatlisi shuki, ushbu manbalar keyinroq yozilgan arab va fors tillaridagi tarixiy adabiyotlar uchun manba vazifasini ham o‘tagan. Jumladan, arab-fors tilli asarlardagi ma’lumotlarning bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri eftaliy – arab to‘qnashuvlarini ko‘rgan yoki to‘qnashuv qatnashchilaridan eshitgan mualliflar tomonidan yozilgan bo‘lsa, bir qismi esa pahlaviy tilli asarlardan olingandir. Ular orasida ayniqsa o‘rta fors (pahlaviy) tilida yozilgan “Xvatav-namak” (Hukmdorlar tarixi) asaridan yoki uning ko‘plab arabcha o‘girmalari negizida yozilgan. Arab-fors asarlaridagi ma’lumotlar ko‘proq Sosoniylar Eroni, Eftaliylar davlati va Turk xoqonligi orasida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuvlar yoritilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularga tayanib Eftaliylarning davlat tuzumi, etnomadaniyati va turmush tarzi to‘g‘risida birmuncha tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Pahlaviy tilli manabalarda uchraydigan “xyaon” atamasining Eftaliylar bilan bog‘liq tomonlari tadqiq qilgan A.A.Ambarsumyan ushbu manbalariga ancha keng to‘xtalgan. [5. – C. 35-71.]

Sosoniylar Eroni qo‘l ostida bo‘lgan, keyinchalik Eftaliy davlatiga qo‘shib olinib, har ikkala davlat orasida chegara bo‘lgan Xuroson ancha muddat Eftaliylarning tayanch hududlaridan biri bo‘lgani sababli bu yer ularning o‘lkasi sifatida bilina boshlagan bo‘lsa kerak. Turk xoqonligi davrida ham Xurosondagi Badg‘is hukmdorligini kelib chiqishi Eftaliylarga taqaluvchi sulola boshqargan. Bu sulola vakillaridan biri Nizak Tarxon xoqonlik noibi sifatida arablarga qarshi kurashgan.[6.– C. 127, 129, 256-258.]

Eftaliylar va Sosoniylar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni xitoy yilnomalaridagi quyidagi ma’lumot ham tasdiqlaydi. “Vey-shu” yilnomasida eslatilishicha, Yada (Eftaliy) davlatiga “*G‘arbiy o‘lkalarda Kangyuy, Yuytyan (Xo‘tan), Shale (Koshg‘ar), Ansi va o‘ttizdan ortiq kichik hukmdorliklar unga bo‘ysundi hamda (bu davlat) buyuk podsholik deb yuritila boshlaydi*”. [7. - c. 225.]

Sosoniylar-Eftaliylar aloqasi tarixi masalasida bir qator chalkashliklar bor. Milodiy IV asrda eski Kushon saltanati hududlari Xioniylar tomonidan egallangan. Xun saltanati tarmoqlaridan biri sifatida Amudaryoning yuqori oqimida o‘z davlatini qurgan bu elatni “Xioniylar” emas, “Janubiy Xunlar” deyish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning sababi milodiy III asrda o‘zaro ichki urushlar va Xitoy bosqini natijasida Xunlarning ko‘pchiligi Sharqiy Yevropaga ko‘chgan bo‘lsa, sezilarli bir bo‘lagi esa Amudaryo-Sirdaryo oralig‘iga siljib, Samarqandni egallagan, oradan ko‘p o‘tmay esa Amudaryoning yuqori oqimidagi o‘lkalarni qo‘lga kiritib, Xioniylar davlatni qurgan edilar. Biroq V asr boshlariga kelib Xioniy – Janubiy Xunlar davlati o‘rnida Eftaliylar davlati o‘rtaga chiqadi.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Eftaliylar sulolasining davlat boshqaruvini dastlab Markaziy Osiyo ko‘chmanchilariga xos an’analar negizida boshlab, keyinchalik mintaqaga xos o‘troq voha hukmdorliklariga xos an’analarni ham o‘zlashtirgan. Markaz – tayanch hududda Eftaliylar sulolasi vakillari o‘tirib, Toxariston va atroflari ular uchun markaziy hudud vazifasini bajargan. Eftaliylarga vassal 30 dan ortiq hukmdorliklarning ko‘pchiligida esa o‘zlarining mahalliy sulolalari boshqaruvni davom ettirib, markazga o‘lpon to‘lab turishgan. Eftaliylarning

bosh hukmdori “yabg‘u”, xonadon vakillari esa “tegin” unvoni bilan boshqaruvni olib borishgan. Shuningdek, Eftaliylar boshqaruvida o‘nlab turkiy va baqtriy (sharqiy eroniy) unvonlar mavjud bo‘lgan. Bunday unvonlar ko‘proq joylardagi vakillar yoki yirik amaldorlarga berilgan.

Eftaliylar davlatining tayanch o‘lkasi Toxaristonda Chag‘oniyon, Termiz, Balx, Qunduz kabi shaharlar Kushon va Xioniylar davrida muayyan bir boshqaruv markazi vazifasini o‘taganidek, Eftaliylar davrida ham bu holat saqlanib qolgan. *Badiyan* (Valvalij / Qunduz) shahri Eftaliylarning poytaxti, Balx, Boykent, Kobul, Sakal (Gandxara/Panjob vodiysi) muayyan qarorgohlar va tarmoq sulolalarning boshqaruv markazlari bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara: Karam, 2002.

2. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... II. – С. 269.

3. Боровкова Л. А. Народы Средней Азии III-VI веков (по древним китайским и западным источникам).

4. Golden P.B. An İntroduction to the History of the Turkis Peoples. Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992. – P. 81; Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara: KaraM, 2002. S. 64.

5. Гафуров Б. Таджики …, с. 201, 206, 207.

6. Амбарцумянц А. А. Этноним «хуаопа» в Авесте // Записки Восточного отделения Российского Археологического общества (ЗВОРАО): НС. – Санкт-Петербург, 2002. – Том И (XXVI). – С. 35-71.

7. История ат-Табари. Избранные отрывки (Пер. с араб. В.И. Беляева. Допол. к пер. О.Г. Большакова и А.Б. Халидова) – Ташкент, 1987. – С. 127, 129, 256-258.

MARKAZIY OSIYOGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UNING TOSHKENT VOHASIGA YOYILISHI

Jalol HASANOV
Oriental universiteti Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: **Bahrom HAYNAZAROV**
Oriental universiteti, t.f.d., professor v.b.

Annotatsiya: *Markaziy Osiyoga Islom dinining kirib kelishi va uning Toshkent vohasiga yoyilishi mintaqadagi diniy va madaniy o‘zgarishlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. VII – VIII asrlarda Islomning ushbu hududga kirib kelishi Toshkentni markaziy rolda turgan diniy va ilmiy markazga aylantirdi. Ushbu tadqiqot Islomning mintaqadagi tarqalishi, Toshkentning diniy va madaniy hayotidagi o‘rni va uning markaz sifatidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Ayniqsa, Islomning dastlabki tarqalishi va uning Toshkent vohasidagi arxitektura, ilm-fan va diniy hayotga ta’siri ko‘rib chiqiladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Islom, Markaziy Osiyo, Toshkent, diniy meros, VII – VIII asr, ilmiy markaz, tarqalish.*

Аннотация: *Введение ислама в Центральную Азию и его распространение в Ташкенте сыграли ключевую роль в изменении религиозной и культурной жизни региона. В VII – VIII веках распространение ислама сделало Ташкент важным религиозным и научным центром. Данное исследование анализирует процесс распространения ислама в регионе, роль Ташкента в религиозной и культурной жизни, а также его значение как центра. Особое внимание уделяется начальной фазе распространения ислама и его влиянию на архитектуру, науку и религиозную практику в Ташкенте.* ***Ключевые слова:*** *ислам, Центральная Азия, Ташкент, религиозное наследие, 7-8 век, научный центр, распространение.*

Annotation: *The introduction of Islam to Central Asia and its spread to the Tashkent region played a crucial role in shaping the region's religious and cultural transformations. In the 7th-8th centuries, the arrival of Islam established Tashkent as a central religious and intellectual hub. This study analyzes the spread of Islam in the region, Tashkent's role in religious and cultural life, and its significance as a center. Special attention is given to the initial spread of Islam and its impact on architecture, science, and religious practices in the Tashkent region.* ***Keywords:*** *Islam, Central Asia, Tashkent, religious heritage, 7th-8th century, intellectual center, spread.*

Tarixiy manbalarda hozirgi O‘zbekiston hududlari VII asrdan boshlab Movarounnahr nomi bilan tilga olinadi. Bu atamaning kelib chiqishi bevosita islom dinining bu o‘lkaga kirib kelishi bilan bog‘liq. Movarounnahr atamasi “Daryoning narigi tomoni” ma’nosini anglatadi. Daryodan murod o‘sha davrdagi Jayhun, ya’ni hozirgi Amudaryo nazarda tutiladi. Movarounnahr atamasiga bo‘lgan ishora ilk bor Umar (r.a.)ning Ahnafga yo‘llagan maktubida uchraydi. 22-hijriy (milodiy 642) yilda Ahnaf ibn Qays Marv va Balxni egallagach, xalifa Umar ibn Xattob (r.a.) unga shunday maktub yo‘llagan: “Ammo ba’d! Daryodan o‘tmanglar. Daryoning bu tarafi bilan cheklaninglar. Xurosonga nima maqsadda kirganingizni yaxshi bilasizlar. Xurosonga nima maqsadda kirgan bo‘lsangiz, shu niyatda bardavom bo‘linglar. Shunda g‘alabangiz ham bardavom bo‘ladi. Daryoning u tarafiga o‘tishdan saqlaninglar”[1, – Б. 695.]. Umar (r.a.) mazkur maktubida daryo ortidagi yurtlarga ishora qilib, maktubda “النهر “(an-nahr – daryo) so‘zi va “النهر دون” (dun an-nahr – daryoning oldi tarafi) iborasini ishlatadi. Bu so‘z va ibora o‘sha vaqtda “Movarounnahr”, ya’ni “daryoning orqa tarafi” atamasi mavjud bo‘lgan, degan asosli ehtimolga dalolat bo‘la oladi.

Arab musulmonlarning bevosita Movarounnahr aholisi bilan aloqaga kirishishi xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) davridan boshlanadi. Abu Bakr Balozuriyning Muhammad ibn Siyrindan rivoyat qilib aytishicha, Usmon ibn Affon (r.a.) movarounnahliklar bilan shartnoma tuzgan [2, – Б. 399.].

Shuningdek, Muhammad ibn Jarir at-Tabiriyning guvohlik berishicha, Usmon (r.a.) qo‘shin bilan Termizga kirib kelgan: “85-hijriy (milodiy 704) yilda Mufazzal ibn Muhallab Xuroson voliysi bo‘lgach, Balx hokimi Mudrika bilan birga Muso ibn Abdullohni ta’qib qilib, Jayhunni kechib, Termizdagi bir orolda qo‘nib topfdi. Bu orol hozirda “Usmon oroli” deb ataladi. Chunki bu orolga Usmon (r.a.) o‘n besh ming qo‘shin bilan kelgan edi. Lekin boshqa tarixiy manbalarda Usmon (r.a.)ning Xuroson va Movarounnahrga safar qilgani haqida ma’lumotlar uchramaydi. Ehtimol, Usmon (r.a.) shaxsan o‘zi emas, balki biror vakilini Movarounnahrga yuborgan bo‘lishi mumkin. Chunki tarixchi Balozuriyning so‘zlariga ko‘ra, arab-musulmon qo‘mondoni ilk marta Movarounnahrga 29-hijriy (milodiy 649) yilda kelgan: “Abu Ubaydaning aytishicha, Xuroson voliysi Abdulloh ibn Omir Xurosonni egallab,

Jayhun daryosigacha yetib keladi. Daryoning u yog‘idagi aholi Abdulloh ibn Omirdan sulh so‘raydi va tomonlar o‘zaro sulhga kelishib oladilar. Aytishlaricha, Abdulloh ibn Omir Jayhunni kechib, Movarounnahr hududiga kirib kelgan. Lekin bu haqda hech kimga og‘iz ochmagan”. Demak, Movarounnahr aholisi bilan arab musulmonlar orasidagi ilk munosabatlarni Usmon ibn Affon (r.a.) yo‘lga qo‘ygan [4,– Б. 131.].

Movarounnahrga musulmonlarning kirib kelishi xalifa Usmon (r.a.) davrida jadallasha boshlaydi (24-35-hijriy / milodiy 644-655-yillar). Xalifa Usmon (r.a.)ning amakivachasi Abdulloh ibn Omir o‘ziga xos uslub bilan Xuroson o‘lkalarini birma-bir fath etadi. Uning lashkarboshlari Ahnaf ibn Qays va Abdulloh ibn Xozimning sa’yi harakatlari juda muhim rol o‘ynagan. Jumladan, Ahnafning turkiy xalqlar bilan qilgan janglari xususida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Abdulloh ibn Omir muvaffaqiyatli yurishlarini ummaviylar asrining ilk davrida, ya’ni Muoviya ibn Abu Sufyon hukmronligi (41-hijriy/milodiy 661-yil)da ham davom ettiradi.Shu davrdan boshlab arablar turkiy qabilalar bilan to‘qnash kela boshlaydilar. Bunga yuqorida zikr qilingan haytallar bilan bo‘lib o‘tgan voqeani keltirish mumkin.

Ubaydulloh ibn Ziyod Kufa va Basra voliysi bo‘lgach (hijriy 35-59/milodiy 673-679-yillar), 54-hijriy (milodiy 674) yilda Amudaryoni kechib, Movarounnahrga qadam qo‘yadi va Baykand, Buxoro hamda So‘g‘dni mag‘lub etib, 55-hijriy (milodiy 675) yilda Xurosonga Sa’id ibn Usmon ibn Affonni voliy sifatida qoldirib, o‘zi Basraga qaytib ketadi. Sa’id ibn Usmon So‘g‘dga qilgan yurishlarida katta muvaffaqiyatlar qozonadi. Sa’id ibn Usmonning amalga oshirgan eng katta ishi shu bo‘ldiki, u Xurosondan Movarounnahrga o‘tadigan asosiy yo‘lni, ya’ni Termiz shahrini o‘z tasarrufiga oldi. Yazid ibn Muoviya hokimiyatni qo‘lga olgach, 61-hijriy (milodiy 671) yilda Solim ibn Ziyodni Xuroson voliysi etib tayinlaydi. Solim qattiq qarshilikka duch kelishiga qaramasdan Buxoro va Samarqandni fath etadi [4, – Б.131.].

Yazid ibn Muoviyaning vafotidan so‘ng Abdulloh ibn Zubayr va ummaviylar orasida kelishmoqchilik yuzaga keladi. Natijada arab musulmonlarning sharqqa yurishlari bir muddat to‘xtab qoladi. Bu esa Movarounnahrdagi Buxoro va Samarqand kabi musulmonlar qo‘liga o‘tgan ayrim shaharlar sulhni buzib, mustaqil bo‘lib olishlariga zamin yaratib beradi.

Musulmon arablarning sharqqa qilgan yurishlarining muvoffaqiyatli yakun topishi Abdumalik ibn Marvon va uning o‘g‘li Valid davriga to‘g‘ri keladi. Bu yurishlarga Hajjoj ibn Yusuf qo‘mondonlik qilgan. Hajjoj sharqiy o‘lkalarni fath etishni uchta mashhur qo‘mondonlarga ishonib topshiradi. Ular Muhallab ibn Abu Sufra, Muhammad ibn Qosim Saqafiy va Qutayba ibn Abu Muslimlar edi. Muhallab asosan Xuroson o‘lkasini fath etishda jonbozlik ko‘rsatgan. Shuningdek, u Movarounnahrning Kesh shahriga ham zarba berishga muvoffaq bo‘lgan. Muhallabning o‘g‘li Yazid ham Xuttal shahri hokimini jizya berishga majbur qilgan va Xorazmga ham yurish qiladi. Lekin ular asosiy e’tiborni Xurosonga qaratganlari bois Movarounnahrga yurishga jiddiy kirishmaganlar. Muhammad ibn Qosim esa, Sind – Hindiston fathi bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Movarounnahrga islom dinining kirib kelishida Qutayba ibn Muslimning xizmatlari katta bo‘lgan. Chunki Qutayba Hajjoj tomonidan mazkur o‘lkani fath etish

uchun vazifalantirgan edi. Qutayba Movarounnahr voliysi sifatida hijriy 86-97 (milodiy 705-715) yillar davomida katta yutuqlarga erishdi. Qutayba Muhallab singari hujumkor rejalar asosida yurishlarini olib boradi. Lekin Qutaybaning Muhallabdan farqi shunda ediki, u aniq va istiqbolli rejalarni ishlab chiqar va qat'iyatlik, taqvo hamda mustahkam imon kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan qiyinchiliklarni sabru matonat bilan yengib o'tish iqtidoriga molik edi. Qutaybaning faoliyatini to'rt bosqichga bo'lish mumkin. U har bir bosqichda uzil-kesil natijalarga erishdi, uning harakati bilan Movarounnahrda islom va arablar mustahkam o'rnashib qoldi.

Birinchi bosqich. 86-hijriy (milodiy 706) yilda Qutayba Toxariston, Marv va Sag'oniyonni bo'ysundirib, u yerga islom dinini olib kirdi.

Ikkinchi bosqich. 87-90-hijriy (milodiy 706-708) yillarda Buxoroga bir necha bor yurish qildi. 87-hijriy (milodiy 706) yilda Baykentni egalladi, so'ng Ramitan va Tumishkatni fath etdi. 90-hijriy (milodiy 708) yilda Buxoroni to'liq egalladi.

Uchinchi bosqich. Bu bosqich Qutaybaning 91-93-hijriy (milodiy 709-711) yillarda amalga oshirgan ishlarida o'z aksini topgan. Bu yillarda Qutayba Movarounnahr o'lkasida islom qonun-qoidalarini qaror toptirish bilan mashg'ul bo'ldi va shu bilan birga, 92-hijriy (milodiy 710) yilda Sijistonni va 93-hijriy (milodiy 711) yilda Xorazmni fath etdi. Shuningdek, Samarqandni ham to'liq egalladi. Qutayba Samarqandga bir guruh olimlarni ham olib keladi. Ular orasida tafsir asarlari muallifi Zahhok ibn Muzohim ham bor edi [2, – Б. 411.].

Qutayba Sug'd shohi G'urak ibn Ixshid bilan ahdnoma imzolaydi. Ibn al-A'sam al-Kufiy bu ahdnomani to'liq keltirgan. Mazkur ahdnomaning matni quyidagicha: "Mehribon va Rahimli Alloh nomi bilan boshlayman. Bu Qutayba ibn Muslim ibn Amr al-Bohiliy bilan So'g'd afshin[3]i G'urak ibn Ixshid orasida tuzilgan sulhdir.

Qutayba G'urak bilan sulh tuzib, bu orqali unga Allohning ahdi, miysoqini va zimmasini hamda Rasulullo (s.a.v.)ning zimmalari, mo'minlar amiri Valid ibn Abdulmalik ibn Marvonning zimmasi, amir Hajjoj ibn Yusuf ibn al-Hakamning zimmasi, mo'minlarning zimmasi va Qutayba ibn Muslimning zimmasini shart qildi. Qutayba G'urak bilan Samarqand va uning Kesh va Nasaf shaharlari yerlaridan va barcha hududidan ikki million dirhamni oldindan to'lish va har yili ikki yuz ming dirham to'lash hamda go'dak va qariya bo'lmagan uch ming qulni topshirish evaziga hamda bu hudud aholisi Allohning bandasi bo'lmish Valid ibn Abdulmalik ibn Marvonga, amir Hajjoj ibn Yusufga va amir Qutayba ibn Muslimga itoat etishlari sharti bilan sulh tuzdi. Sulhga ko'ra, So'g'd afshini G'urak ibn Ixshid Qutayba ibn Muslim bilan kelishilgan qul va moldan iborat sulhni ado qilishi shart.

Har bir kishi boshi uchun ikki yuz dirham, katta hajmdagi har bir libos uchun yuz dirham, kichiklari uchun oltmish dirham, har bir ipak bo'lagi uchun yigirma sakkiz dirham, bir misqol qizil oltin uchun yigirma dirham, bir misqol oq kumush uchun bir misqol kumush jizya sifatida olinadi. Qutayba ibn Muslimga ahdnomaga vafo qilish shart bo'lib, u So'g'd afshini G'urak ibn Ixshidning zarariga hech bir ish qilmaydi, unga xiyonat qilmaydi va kelishilgan sulhdan ortig'ini olmaydi. Agar G'urak ibn Ixshidga biror dushman hujum qilsa, Qutayba ibn Muslim unga yordam beradi va

[3] VII asrda O'rta Osiyo mahalliy hokimlari afshin deb atalgan.

dushmanga qarshi kurashishda uning yonida turadi. Qutayba ibn Muslim aytadi: “Ey G‘urak ibn Ixshid, men Samarqand va uning yerlari-yu hududlarini, Kesh va Nasafni hamda ularning shaharlari-yu qal’alarini senga mulk qilib berdim, ularning ishini senga topshirdim va bunga bosilgan muxringni oldim. Senga hech kim e’tiroz bildirmaydi.

To‘rtinchi bosqich. 94-96-hijriy (milodiy 712-715) yillarni o‘z ichiga olgan bu bosqichda Qutayba Farg‘onani egallash orqali Movarounnahr va Xorazm o‘lkalarini butunlay o‘z izmiga bo‘ysundirdi. Hatto Xitoyning Qashg‘ar shahrini ham fath etib, u yerga islom dinini olib kiradi. Qutayba islom olamining sharqqa cho‘zilgan chegarachsini nihoyalab berdi.

Shuningdek, Qutayba Movarounnahr shaharlarida, hatto Shosh va Farg‘ona hududlarida ham arablashtirish siyosatini olib borgan. Qutayba 96-hijriy (milodiy 715) yilda Farg‘ona vodiysida, hozirgi Andijon villoyati Jalaquduq tumanida Vaki’ ibn Hasson at-Tamimiy tomonidan o‘ldiriladi [5, – Б. 150.].

97-hijriy (milodiy 715) yilda Qutaybaning o‘limidan so‘ng Yazid ibn Muhallab Xuroson va Movarounnahr voliysi etib tayinlanadi. Yazid davrida Movarounnahrda avvalgi holat saqlanib qoladi. Chunki Yazid asosiy e’tiborni Jurjon va Tabariston fathiga qaratadi. Umar ibn Abdulaziz davriga qadar aralarning Movarounnahrda olib borgan siyosatlari deyarli o‘zgarmaydi.

Turon o‘lkasida qadimdan saxiylik, jasurlik, mehmondo‘stlik, yurtni himoya qilish, o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zish kabi yuksak madaniy va ma’naviy qadriyatlar asrlar osha takomillashib, boyib borgan. Islom dini kirib kelgach, bu qadriyatlar yanada rivojlanib, xalq ongida o‘smas iz qoldirgan. Shubhasiz, Movarounnahr aholisining islom dini kirib kelishdan oldingi ma’naviy qarashlari islom dini ta’limotlariga aslo zid emas, balki islomiy axloqlarning ayni o‘zi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois mazkur hududda yashagan aholi islom dinini nisbatan oson va tez qabul qilgan.

Har bir oila imkoniyati darajasida o‘zi va mehmon uchun sharoit hozirlab qo‘yadi. Bu haqda Istaxriy shunday degan: “Men So‘g‘dda eshigi mixlab qo‘yilgan bir uyni ko‘rdim. Eshitishimcha, bu eshik yuz yildan ko‘p vaqt yopilmagan ekan. Ya’ni, uy doim mehmon uchun ochiq turgan”. Ba’zan yarim tunda dab-durustdan yuz yoki ikki yuzta odam ulovlari bilan mehmonga keladi. Shunda ham uy sohibi mehmonlar va ularning ulovlariga joy berib, ularni ozuqa bilan ta’minlaydi. Mezbon bundan sira ham og‘rinmaydi, chunki bu ularda odatiy holga aylanib qolgan. Movarounnahrliklar asosiy boyligini karvonsaroylar qurish, yo‘llarni ta’mirlash, harbiy sohalar va boshqa xayrli ishlarga sarflaydilar. Movarounnahrning har bir shahar va qishlog‘ida karvonsaroy mavjud. O‘lkada o‘n besh mingdan ortiq karvonsaroy bor, deyishadi. Xorazmshoh Muhammad ibn Takash ibn Alp Arslon ibn Otsiz davriga qadar (hijriy 600/milodiy 1203) Movarounnahr shunday holatda bo‘lgan. Xorazmshoh o‘lkani egallab, xarobaga aylantiradi, boshqaruvni qo‘ldan chiqaradi. Keyinchalik hijriy 617 (milodiy 1220) yilda Movarounnahr mo‘g‘ullar qo‘liga o‘tadi”[6, – Б. 413].

Qutayba va undan oldingi arab-musulmon sarkardalar davrida Movarounnahr o‘lkasida ilk islomiy ta’limotlar yoyila boshladi. Chunki arab askarlarining aksariyati sahobiy va tobe’iy hamda taba’a tobe’iylardan iborat bo‘lgan. Jumladan, Usmon ibn Affon, Hakam ibn Amr, Abdulloh ibn Omir va Qusam ibn Abbos ulug‘

sahobiylardan bo‘lsa, qolgan deyarli barcha sarkardalar tobe’iy va taba’a tobe’iylardan bo‘lganlar. Shubhasiz, mazkur shaxslar islomiy ta’limotlarni mahalliy aholiga o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishgan. Albatta, Movarounnahr aholisining islom dinini qabul qilishi oson kechmadi. Zero, xalqqa yangi g‘oyani singdirish hamisha qiyin bo‘lib, uzoq vaqt talab etadi.

Dastlab o‘lkada islom ta’limotlari bilan bir qatorda arab tili ham tarqala boshlaydi va unga davlat tili maqomi beriladi. Shubhasiz, arab tilining rasmiy til sifatida tan olinishi islom ta’limotlarining yoyilishini yanada tezlashtirib yubordi. Savdogarlarning islom dinini qabul qilishi nisbatan tezroq kechdi. Chunki arab-musulmonlar savo-sotiqni rivojlantirishga katta e’tibor qaratar edilar. Arablar davlat ishlari va ijtimoiy munosabatlarni shariat qonunlari asosida olib borganlar.

Arab musulmonlar Movarounnahr o‘lkasida sekin-asta obro‘-e’tibor qozona boshladilar. Jumladan, uzoq vaqt Termizda istiqomat qilgan Muso ibn Abdulloh haqida mahalliy aholi shunday deyishar edi: “Biz unga o‘xshashini ko‘rmadik. U tez orada Xuroson shaharlaridan birining hokimini yengib, shaharga egalik qildi. U o‘z atrofida arab va ajam qo‘shinlarni jamlab, o‘n besh yil o‘z qal’asida istiqomat qildi”.

Xuroson voliysi Muhallabning akasi Sobitni mahalliy aholi qattiq hurmat qilar va unga ishonar edi. Hatto birortasi va’da bersa, va’dasiga vafo qilishini isbotlash uchun: “Sobitning hayoti bilan qasam ichaman”, deyish odat tusiga kirgan edi.

Qutayba Movarounnahrda islomiy ta’limotlarni yoyishda katta jonbozlik ko‘rsatgan. Uning o‘lkadagi katta va mashhur shaharlarda arablarni joylashtirish siyosati mahalliy aholining islom dinini qabul qilishini tezlashtirib yubordi. Qutaybaning mahalliy aholi orasida obro‘si juda baland bo‘lgan [7, – Б. 189].

Shuningdek, Qutayba atrofida doim olim va zohidlar bo‘lgan. Shulardan biri faqih va taqvodor olim Abu Bakr Muhammad ibn Vosi’ ibn Jobir Azdiy (v. 123/741)dir. U basralik mashhur zohidlardan bo‘lib, siqa (ishnchli) hadis roviylardan sanaladi. Qutayba Xuroson va Movarounnahrda shunday intizom o‘rnatgan ediki, Marvdan yo‘lga chiqqan ayollar taxtiravoni hech bir qo‘riqchisiz Samarqandga yetib kelar edi.

Bu davrga kelib movarounnahrlik tub aholi arab musulmonlar qo‘shini tarkibida xizmat qilishar, hatto o‘zaro nikohlanish hollari ham kuzatilib tarar edi. Hamza ibn Bayzning rivoyat qilishicha, Samarqandda askarlar Eron shohi Yazdajirdning bir joriyasini tutib, Qutaybaga olib kelishdi. Qutayba uni Hajjojga, Hajjoj esa Validga yuboradi. Valid va mazkur joriyadan Yazid ibn Valid dunyoga keladi.

Movarounnahrda islomiy ta’limotlar Qur’on, hadis, fiqh, kalom va boshqa turli islomiy bilimlar orqali tarqala boshladi. Mintaqaga hadis ilmini, shubhasiz, sahobiy va tobe’iylar olib kirgan. Ular Movarounnahrga ilk tashriflarida mahalliy aholiga islom dini ta’limotlarini hadislar orqali tushuntirganlar. Keyinchalik taba’a tobe’iylar sa’y-harakatlari bilan hadis majlislari tao‘kil qilingan. Jumladan, Qutaybaga hamrohlik qilgan Zahhok ibn Muzohim ulug‘ taba’a tobe’iylardan bo‘lib, Buxoro va Samarqand shaharlarida yosh bolalarga Qur’on va tafsirdan ta’lim bergan. Ma’lumki, hadis tafsirning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Ummaviylar davrida amalga oshirilgan rejalar abbosiylar davrida ham davom etadi. Abbosiy xalifa Ma’mun davrida (198-218/813-833) islomni qabul qilgan mahalliy hokimlarni rag‘batlantirish siyosati jadallashtiriladi. Keyinchalik xalifa

Mu’tasim billah davrida (218-227/833-841) bu siyosat o‘z samarasini beradi. Ya’ni, So‘g‘d, Farg‘ona Usturshana, Shosh va boshqa shu kabi Movarounnahr shaharlaridan ko‘plab askarlar abbosiylar qo‘shini tarkibida xizmat qila boshlaydi, mahalliy hokimlar Mu’tasim billahga ishonch bildirib, abbosiylar bilan yaqin munosabatda bo‘ladilar. Natijada Movarounnahr o‘lkasida islom dini ta’limotlari keng yoyilib, bu o‘lkadan yetuk islomiy olimlar yetishib chiqishiga zamin yaratiladi [8, – Б. 45-47.].

Mu’tasim billah baytul moldan ikki million dirham ajratib, Shosh vohasida ko‘milib ketgan daryolarni qayta qazdiradi va shoshliklarning bir muammosini hal qilish bilan birga ularning muhabbat va e’tiborini ham qozonadi.

Ma’mun xalifa bo‘lishidan oldin Xurosonda, xususan, Marv shahrida istiqomat qilgan. Shu bois Xuroson va Movarounnahr aholisi urf-odat va an’nalaridan yaxshi xabardor bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. U 195-hijriy (milodiy 811) yilda Samarqandni qamal qilib, hokim Rofi’ ibn Laysni qo‘lga olgani manbalarda qayd etiladi.

Demak, hijriy III asrga kelib, Movarounnahr o‘lkasida islomiy ta’limotlar o‘z samarasini bera boshlagan. Islom dinining ilk ta’limotlari Movraounnahr o‘lkasida shu tarzda qaror topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ибн Жарир ат-Табарий. Тарих ат-Табарий. – Ар-Риёд: Байт ал-афкар ад-давлия, 2005.
2. Абул Ҳасан Балозурий. Футуҳ ал-Булдон. – Байрут: Дар ал-кутуб ал-илмия, 1991.
3. Аҳмад Роиф. Атлас тарих ал-ислам. – Қоҳира: Дар аз-заҳро ли ал-иълам ал-арабий, 1987.
4. Шамсуддин аз-Заҳабий. Сияр аълам ан-нубала. Ж.10. – Байрут: Дар ал-фикр, 1991.
5. Хайруддин Зириклий. Аълам. Ж.5. – Байрут: Дар ал-илм ли ал-малайин, 1998.
6. Доктор Шавқий Абу Халил. Фатҳ Самарқанд. – Байрут: Дар ал-фикр ал-муъасир, 2004.
7. Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-Булдон. Ж.5. – Байрут: Дар Байрут, 1984.

МАҲАЛЛИЙ ҲУКМДОРЛАР ФАОЛИЯТИДА ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎРНИ

Бобуржон ТОЛИБОВ
Ориентал университети 1-босқич магистранти
Илмий раҳбар: **Дилдора НИШАНОВА**
Ориентал университети доценти в.б., PhD

Аннотация: *Ушбу мақола VIII асрнинг иккинчи ярмида Марказий Осиёда мавжуд бўлган сиёсий ва ижтимоий ҳолатни, хусусан, Ғарбий турк ҳоқонлиги ва ислом динининг ҳудудга кириб келиши давридаги маҳаллий давлат тузилмалари ва уларнинг бошқарув тизимларини таҳлил қилади. Мақолада Турк ҳоқонларининг Ўрта Осиёни маҳаллий ҳукмдорлар орқали*

бошқарганлиги, ички сиёсатда маҳаллий давлатларнинг мустақиллиги сақланиб қолганлиги таъкидланади. Шунингдек, VIII аср бошларида Мовароуннаҳрга ислом динининг кириб келиши ва арабларнинг таъсири ортганлиги, бироқ уларнинг ҳам маҳаллий ҳукмдорлар ёрдамидан фойдаланганлиги кўрсатилади. Мақолада ал-Балазурийнинг "Футуҳ ал-булдон" асари ва илк ўрта аср ёзма манбалари асосида Мовароуннаҳрнинг айрим маҳаллий ҳукмдорлари ва уларнинг ўз халқи манфаатини ҳимоя қилиш, ҳудудий бирликни сақлаш йўлидаги фаолияти ўрганилади. ***Калит сўзлар:*** *Марказий Осиё, VIII аср, Ғарбий турк ҳоқонлиги, Мовароуннаҳр, Ислом дини, Маҳаллий ҳукмдорлар, Ал-Балазурий, Футуҳ ал-булдон*

Аннотация: *В статье анализируется политическая и социальная ситуация в Средней Азии во второй половине VIII в., в частности, местные государственные структуры и системы их управления в период существования Западно-Тюркского каганата и внедрения ислама в регион. В статье подчеркивается, что тюркские ханы управляли Средней Азией через местных правителей, а во внутренней политике сохранялась самостоятельность местных государств. Также показано, что в начале VIII века в Трансоксанию проник ислам и усилилось арабское влияние, однако они также извлекли выгоду из помощи местных правителей. В статье на основе труда аль-Балазури «Футух аль-булдан» и письменных источников раннего средневековья рассматриваются некоторые местные правители Мовароуннахра и их деятельность по защите интересов своего народа и поддержанию территориального единства.* ***Ключевые слова:*** *Центральная Азия, VIII век, Западно-Тюркский каганат, Мавераннахр, Ислам, Местные правители, Аль-Балазури, Футух аль-Булдан.*

Annotation: *This article analyzes the political and social situation in Central Asia in the second half of the 8th century, in particular, the local state structures and their governance systems during the period of the Western Turkic Khaganate and the introduction of Islam into the region. The article emphasizes that the Turkic Khaganates ruled Central Asia through local rulers, and that the independence of local states in internal politics was preserved. It also shows that at the beginning of the 8th century, Islam came to Transoxiana and the influence of the Arabs increased, but they also used the help of local rulers. The article studies some local rulers of Transoxiana and their activities to protect the interests of their people and maintain territorial unity, based on al-Balazuri's work "Futuh al-buldan" and early medieval written sources.* ***Keywords:*** *Central Asia, 8th century, Western Turkic Khaganate, Transoxiana, Islam, Local rulers, Al-Balazuri, Futuh al-Buldān.*

VIII аср иккинчи ярмида Марказий Осиё шаҳарлари Ғарбий турк ҳоқонлиги таркибига кирган. Турк хоқонлари Ўрта Осиёда ҳукмронлик қилса-да, ўзлари бу ҳудудга кўчиб келмаганлар.Улар Еттисув ва бошқа ҳудудлардаги бош қароргоҳларида истиқомат қилган ва ҳоқонлик таркибига кирувчи ўлкаларни маҳаллий ҳукмдорлар орқали бошқариб, улардан олинадиган солиқ-ўлпонлар ва тўловлар билан кифояланганлар. Бундан кўринадики, Ғарбий турк хоқонлиги даврида Марказий Осиёдаги маҳаллий давлат тузилмалари, уларнинг бошқарув тизимлари сақланиб, ички сиёсатда мустақил бўлганлар [1:582]. VIII аср бошларида Мовароуннаҳр ўлкасига ислом дини кириб келиб, бошқарувда арабларнинг таъсири ортган бўлса-да, улар ҳам маҳаллий ҳукмдорлар ёрдамидан фойдаланган. Ислом дини кириб келган дастлабки даврларда айрим маҳаллий ҳукмдорлар халқини ҳимоя қилиш учун араб лашкарбошилари билан дўстона муносабат ўрнатган. Баъзилари ҳудудий бирликни сақлаш учун қуролли ҳаракат олиб борган. Улар ўзлари яшаган давр аҳолисининг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда оқилона иш юритган. Ушбу бандда ал-

Балазурийнинг Футуҳ ал-булдон асари ва илк ўрта аср ёзма манбалари асосида Мовароуннаҳр маҳаллий ҳукмдорлари ҳамда уларнинг фаолиятига оид маълумотлар ўрганилади. Қуйида уларнинг айримлари хусусида тўхталиб ўтилади [1:577].

Футуҳ ал-булдонда ҳиж. 53/мил. 673 йилда Убайдуллоҳ ибн Зиёд бошчилигида арабларнинг Бухорога ҳарбий юриши вақтида шаҳарни аёл киши бошқаргани ва Хотун деб номлангани айтилади. Хотун сўзи қадимги турк тилида хоним, аслзода хоним, ҳукмдорнинг аёли ёки малика маъносини билдирган. Ушбу унвон фақат подшоҳ оиласига мансуб бўлган олий табақали хонзода аёлларга берилган. Одатда бу ном подшоҳнинг онаси ёки унинг биринчи ва иккинчи рафиқалари исмига қўшиб айтилган. Подшоҳнинг онаси деганда, дунёга келтирган она эмас, балки катта она, яъни отасининг биринчи рафиқаси тушунилган. Бу хотин саройдаги аёллар ичида энг мартабали ҳисобланиб, Биринчи Хотун деб аталган. Подшоҳнинг вафотидан кейин саройда муносиб меросхўр эркак бўлмаса, тахтни Биринчи Хотун бошқаришга ҳақли бўлган [2:8].

Муаррих Абу Бакр Наршахийнинг маълумот беришича, Бухоро маликаси Хотун бошқарувни эри Бидун Бухорхудот вафотидан сўнг қўлга олган. Бухорхудотнинг ўғли Туғшода ёш бўлгани сабабли шаҳарни Бухорхудотнинг рафиқаси Хотун бошқарган. Арабларнинг Бухорога келиши мана шу даврдан бошланган. Хотун улар билан доимо сулҳ асосида ўлпон тўлаб, яшашга мажбур бўлган. У донолик билан ҳукмронлик қилган, шунинг учун халқ ҳам унга итоатда бўлган. Хотун бошқаруви даврида олтин камар ва қилич тақиб олган 200 нафар қуролли чокарлар унинг хизматида бўлган [3:8]. Хитой манбаларида чокарлар мард ва жасур кишилар дея таърифланган. 695 йилда Бухоро маликаси Хотун вафот этганидан сўнг тахтга унинг ўғли Туғшода ўтирди. У расман ҳукмдор бўлса-да, амалда бошқарув вазир Вардонхудот қўлида бўлган. Вазирнинг бошқаруви 708 йилгача давом этди. Шу йилда Қутайба ибн Муслим Вардонхудот қўшинларини енгиб, Бухорони эгаллади ва Туғшодани шаҳар ҳукмдори сифатида қолдирди. У Бухорони 32йил давомида бошқарган. Туғшода исломни қабул қилган ва ўғлига Қутайба деб исм қўйган. Бундан ташқари Хуросон ноибларидан Наср ибн Сайёрга қизини узатиб, қариндошлик алоқаларини ўрнатган [8:19]. Футуҳ ал-булдон асарида зикр қилинган маҳаллий ҳукмдорлардан яна бири Бандун ас-Суғдий 680 йилда Хуросон ноиби Салм ибн Зиёдга қарши жангда ҳалок бўлган. А.Ўринбоев 1966 йилда нашр этилган. Тарихи Бухоро асарининг изоҳида Бухоро ҳукмдори Бидун Бухорхудот ва ал-Балазурий асаридаги Бандун ас-Суғдийни бир одам, деган хулосага келган. Бу фикр илмий асосга эга эмас. Чунки 673 йилда Убайдуллоҳ ибн Зиёднинг, 676 йилда Саид ибн Усмоннинг Бухорога қилган юриши вақтида Бухоро ҳукмдори Бухорхудотнинг хотини бўлгани ва у эрининг вафотидан сўнг бошқарув ишларини қўлга олгани айтилган. Шунингдек, Бандун ас-Суғдийнинг Суғдий нисбаси унинг Бухородан эмас Суғддан бўлганини билдиради. Ш.Камолиддин Бандун исмига қуйидагича таъриф берган: Бу исм билан исломдан олдинги Кеш ҳукмдорларининг унвони *найдун* ёки *нидун* ва Чоч ҳукмдорларининг унвони *тудун* кабиларни солиштириш мумкин. Мўғиллар даврида туркча *бидун* сўзи

вазир масъулияти ва назорати остидаги махсус олтин захирасини билдирган. Илк ўрта асрларда Марказий Осиёда фаолият юритган маҳаллий ҳукмдорларнинг махсус унвони бўлган ва у ҳукмдорнинг исми билан қўшиб айтилган. Манбаларда баъзи шаҳар ҳукмдорларининг исми ўрнига унвонлари зикр қилинган [1:582]. Хусусан, Футуҳ ал-булдонда 690 йилда Хуросон ҳукмдори Абдуллоҳ ибн Ҳозимнинг ўғли Мусо ибн Абдуллоҳ Самарқандга келгани, шаҳар ҳокими Тархун (طرسْن) Мусони ҳурмат билан кутиб олгани ва маҳаллий аскарлар билан Мусонинг одамлари орасида келишмовчилик юзага келгандан сўнг Мусо ибн Абдуллоҳ Термизга кетгани айтилган. 710 йилда Қутайба ибн Муслим Самарқандга келганида ҳам шаҳар ҳукмдори Тархун эди. Лекин Хитой манбаларида Қутайба давридаги Самарқанд ҳукмдори 700- 710 йилларда шаҳарни идора қилгани тўғрисида маълумот берилган [5:582]. Демак, бундан 690 йилда Тархун исми билан зикр қилинган шахс ва Қутайба ибн Муслим Самарқандга келган вақтдаги шаҳар ҳукмдори бир киши эмаслиги маълум бўлади. Улар ўзларига берилган тархун нисбаси билан машҳур бўлгани сабабли исмлари зикр қилинмаган. Ёзма манбаларда тархун унвони тархон шаклида келган ҳолатлар ҳам кўзга ташланади. Хусусан, Бодғис шаҳрининг Низак исмли ҳукмдори тархон унвони билан зикр қилинган. У VII асрнинг иккинчи ярими – VIII аср бошларида Хуросон ва Тухористонда юз берган сиёсий воқеаларда муҳим ўрин тутган. Манбаларда Низак тархон ҳақида маълумотлар 652 йилдан 709 йилгача бўлган давр орасидаги воқеаларда қайд этилган. Низак тархон сиёсий майдонга 652 йилда кириб келган бўлиб, ўша йилда у Марв вилояти ҳокими Моҳавайҳга Сосонийлар сулоласининг охирги ҳукмдори Яздагард III га қарши курашда ёрдам берган. Ал-Балазурийнинг келтиришича, Эрон шоҳи араблардан қочиб, Марвга келганида Низак тархон у билан яхши муносабатда бўлган. Бироқ, Низак Яздагард III нинг қизига совчи қўйганидан сўнг орадаги муносабат ёмонлашган. Чунки Эрон шоҳи мулкидан маҳрум бўлишига қарамай ўзини мағрур тутар эди. Бу эса, Марв ҳокими Моҳавайҳ ва Бодғис ҳукмдори Низакнинг унга қарши курашда бирлашишига сабаб бўлган. 652 йилда Эрон шоҳи қўшинлари ва бирлашган кучлар ўртасидаги жангда Яздагирд III енгилди ва қатл этилди. 703 йилда Низак тархон ўзининг Бодғисдаги қалъасидан чиқиб, юришга кетганда, Хуросон волийси Язид ибн ал-Муҳаллаб унинг қалъасига келиб, қалъани қўлга олмоқчи бўлган. Низак бу ҳақида хабар топиб, орқасига қайтган ва Язид билан сулҳ тузиб, унга ўзининг ҳамма бойликларини берган ва оиласи билан қалъани тарк этган. 706 йилда Низак тархон яна Бодғис ҳукмдори сифатида Қутайба ибн Муслим билан сулҳ тузди. Унинг Моваройуннаҳрга қилган юришларида у билан бирга иштирок этди. Низак тархон Пойканд ва Бухородаги юришлар давомида арабларнинг қилган ишларидан даҳшатга тушди [5:586]. Сўнг ватанига кетишга рухсат сўраб, Тохаристонга кетди. Низак тархон 709 йилда Қутайбага қарши исён кўтарди. У Тохаристоннинг бошқа ҳукмдорларига ҳам мактублар ёзиб, уларни арабларга қарши бош кўтаришга чақирди. Низак Қобул ҳукмдори Қобулшоҳга мактуб ёзиб, ундан ёрдам сўради ва ўзининг барча мол-мулки ва ғазнасини унга юборди. Қобулшоҳ уни қабул қилиб, ўз ҳимояси остига олишга розилик берди. Қутайба укаси Абдураҳмонни

12 минг аскар билан Балх яқинидаги Баруқон шаҳрига юборди. 710 йилда қиш ўтиши билан Қутайба ибн Муслим Тохаристонга юриш бошлади. Низакнинг одамлари Тохаристонда Хулм тоғларидаги тор даранинг ичига, ўзи эса Бағлон шаҳридаги қалъага беркинди. Қутайба уни 2 ой қамал қилди. Охири унинг олдига Сулайм ан-Носиҳни юборди, у эса Низакнинг дўсти бўлиб, уни таслим бўлишга кўндирди. Низак таслим бўлгандан кейин Қутайба Вахш Хашон номли булоқ ёнида уни қатл этди. Шундан сўнг араблар дарада қолганларни ҳам ушлаб, жазоладилар. Демак, Низак тархон VII аср иккинчи ярми ва VIII аср бошларида Тохаристонда Бодғис номли шаҳарни бошқарган. У маҳаллий аҳоли ва шаҳар тинчлиги учун Қутайба ибн Муслим билан сулҳ тузган. Бироқ араб аскарларининг Мовароуннаҳрда қилган ишлари уни Қутайба билан ҳарбий юришларни давом эттиришдан бош тортиб, исён кўтаришига сабаб бўлган. VIII аср бошларида Самарқандни туркийлардан ихшид Тархун идора қилган. Бу ҳақида аввал ҳам айтилган эди. 711 йилда Самарқандда ҳокимият ўзгариши бўлди. Самарқанд аслзодалари ихшид Тархунни араблар билан сулҳ тузгани учун тахтдан ағдариб, унинг ўрнига укаси Ғурак (غرن) ни ҳукмдор деб эълон қилдилар. Футуҳ ал-булдонда унинг исми Ғузак (غزن) шаклида келган. Ғурак араблар билан тузилган сулҳни бекор қилди. Шунинг учун Қутайба 712 йилда Самарқандга юриш бошлади ва бир неча бор уринишдан сўнг шаҳарни эгаллади. Ғурак билан ҳар йилда икки миллион икки юз минг дирҳам тўлаш ҳамда ўттиз минг аскар бериш шарти билан сулҳ тузилди. Бунинг эвазига Ғурак Самарқанднинг ҳокими бўлиб қолар эди [5:582].

Ғурак бир неча йил Самарқандни идора қилди. 728 йилда Хуросон волийси Ашрас ибн Абдуллоҳ ас-Суламий (727-729) Самарқанд аҳлига мактуб ёзиб, ислом динини қабул қилишга даъват этди ва ислом дини қабул қилганларни жизя тўловидан озод қилишга ваъда берди. Шундан кейин Самарқанд аҳли ислом динини қабул қилдилар. Ғурак Хуросон волийси Ашрасга мактуб ёзиб, Самарқанд аҳли ислом динини қабул қилгандан кейин хирож тўловларидан тушум тўхтаб қолгани ҳақида хабар берди. Хуросон волийси Ашрас уларга яна жизя тўловини мажбурий деб эълон қилди. Ушбу ҳолатга фақат маҳаллий ҳукмдорлар эмас, балки Рабиъ ибн Имрон ат- Тамимий, ал-Қоим аш-Шайбоний каби араб саркардалари ҳам эътироз билдирдилар. Хуросон волийсининг сиёсатидан норози бўлган суғдлар ва турклар турк хоқони бошчилигида арабларга қарши қўзғолон қўтардилар. Қўзғолон бошланган вақтда Ғурак арабларнинг қўшини билан маҳаллий аҳолига қарши кураш олиб борган эди. Бироқ, Бухоро яқинида бўлган жанглардан бирида Ғурак турклар томонга ўтиб кетди. Турк хоқонининг қўшинида арабларга қарши Ғуракнинг ал-Мухтор исмли ўғли ҳам жанг олиб борди. Тадқиқот давомида Ғуракнинг қачон ва қаерда вафот этгани ҳақида маълумот топилмади. Лекин унинг авлодларидан бири ал-Марзубон ибн Туркаш 840 йилда Бағдодда Уструшона ҳукмдори устидан ўтказилган суд жараёнида иштирок этгани ва X асрда Самарқандда унинг авлодларидан ҳадис ривоят қилингани Ғурак авлодларининг Мовароуннаҳрда яшаб қолганини билдиради.

Футуҳ ал-булдонда илк ислом даврида яшаган маҳаллий ҳукмдорлар билан бирга исломни қабул қилган туркий ҳукмдорлар ҳақида ҳам маълумот берилган.

Хусусан, Сомонхудот авлодларидан Нуҳ ибн Асад фаолиятига тўхталиб ўтилган. У 819-841 йилларда Самарқандда ҳукм юритган. Ўрта Осиёда Рофе ибн ал-Лайс бошчилигида арабларга қарши кўтарилган қўзғолон (806-810)ни бостиришда фаол иштирок этган. Ал-Балазурий Нуҳ ибн Асадни халифа ал-Мунтасир даврида (861-862) Фарғона водийсининг Косон ва Урашт шаҳарларида кўтарилган қўзғолонни бостирганини айтган. Бу юриш халифа ал-Мунтасир даврида амалга оширилган бўлиши мумкин эмас, чунки Нуҳ ибн Асад ҳижрий 227/милодий 841 йилда вафот этган. Нуҳ ибн Асад Косонга ҳарбий юришни халифа Муътасим (833-842) даврида амалга оширган бўлиши керак, чунки асар матнининг бошқа ерида у халифа Муътасим ҳукмронлиги даври билан боғлиқ равишда тилга олинган.

Нуҳ ибн Асаднинг укалари Мовароуннаҳрнинг бошқа вилоятларини идора қилган. Хусусан, Аҳмад ибн Асад Фарғона, Яҳё ибн Асад Шош ва Уструшона, Илёс эса Ҳирот вилоятининг ҳокими этиб тайинланган. Ака- укаларнинг ҳар бири расман бир-биридан мустақил ҳукмдор бўлган, лекин амалда улар Нуҳ ибн Асадга бўйсунганлар. 840 йилда Нуҳ ибн Асад Исфижоб шаҳрини эгаллаган ва унинг атрофидаги узумзорлар ва экинзорларни ўз ичига олган мудофаа девори қурдирган. Ҳукмронлиги даврида Самарқанд, Шош ва Фарғона шаҳарларида зарб этилган тангалардаги ёзувларда халифа исмидан кейин фақат унинг исми келтирилган. Бу эса Нуҳ ибн Асаднинг Хуросон ҳукмдорлари Тоҳирийлардан мустақил бўлганлиги ва фақат халифага бўйсинганини англатади.

Футуҳ ал-булдонда Уструшона ҳукмдорларидан Ковус ибн Саҳр ва унинг ўғли Ҳайдар ибн Ковус ҳақида сўз юритилади. Мовароуннаҳрнинг бошқа шаҳарларидан фарқли равишда Уструшона IX аср 20 йилларигача мустақил бўлган. Шаҳар ҳукмдорлари арабларга қаршилик кўрсатиб, узоқ вақтгача мустақилликни сақлаб келганлар. Халифа Маъмун даврида (813- 833) Уструшона подшоҳи Ковус халифалик вазири ва котиби Фазл ибн Саҳлга мактуб ёзиб, сулҳ тузишни сўраган. Унга кўра, Ковус Фазлга белгиланган пулни бериши ва бунинг эвазига мусулмонлар унинг шаҳрига юриш қилмаслиги шарт қилинган эди. Фазл бунга рози бўлган. Маъмун Мадинат ас-Салом (Бағдод)га келганда, Ковус тузилган сулҳга вафо қилишдан бош тортган. 822 йилда халифа Маъмун Аҳмад ибн Абу Холид бошчилигида Хуросонга катта қўшин жўнатган. У Балх дарёсидан кечиб ўтиб, Уструшонага юриш қилган ва уни эгаллаган. Шаҳар ҳукмдори Ковус ибн Саҳр ва унинг ўғли Фазл ибн Ковус ҳибсга олиниб Бағдодга, халифа Маъмун ҳузурига юборилган. Ковус ислом динини қабул қилган ва Уструшона ҳукмдори бўлиб қолган. Унинг Ҳайдар ибн Ковус (ваф. 841) исмли ўғли халифа Муътасим даврида (833-842) муҳим ҳарбий лавозимда фаолият юритган [6:180].

Демак, хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Футуҳ ал-булдон асари VII-IX асрларда Марказий Осиёда мавжуд бўлган шаҳарлар ва уларнинг туркий ҳукмдорлари ҳақида маълумот берувчи манбалардан бири саналади. Ал-Балазурий асарда айрим маҳаллий ҳукмдорларнинг исмини зикр қилган. Хусусан, Самарқанд, Буҳоро, Уструшона, Бодғис шаҳарлари ҳукмдорлари ва уларнинг фаолияти ёритилган. Сағониён, Термиз, Хоразм, Шош каби шаҳарлар

тўғрисидаги маълумотларда эса Термиз подшоҳи ёки Хоразм подшоҳи шаклидаги жумлалар келтирилиб, ўша шаҳар ҳукмдорининг исми зикр қилинмаган. Илк ўрта аср араб манбалари билан қиёсланганда асарда Қутайба ибн Муслим даврида Хоразм подшоҳи деб айтилган ҳукмдорнинг исми Чағон бўлганлиги аниқланди. Мовароуннаҳр маҳаллий ҳукмдорларининг сиёсий бошқарувда тутган позицияси алоҳида аҳамият касб этади. Улар Хуросон ва Мовароуннаҳрдаги сиёсий ҳолатга кўра иш юритган. Бухоро маликаси Хотун, Самарқанд ҳукмдори Тархун, Хоразм подшоҳи Чағон ва бошқалар ўз ҳалқи ва юртининг тинчлиги учун араблар билан сулҳ тузиб, келишувчилик сиёсатини юритган. Тархундан кейинги Самарқанд ихшиди Ғурак, Бодғис ҳокими Низак тархон каби ҳукмдорлар эса мустақиллигини сақлаб қолиш учун уларга қаршилик кўрсатган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ал-Балазурий. Футуҳ ал-булдон. – Байрут: Муассаса ал-маориф, 1987.
2. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А. Расулев таржимаси, Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. – Тошкент: Фан нашриѐти, 1966.
3. А.Отахўжаев. Илк ўрта асрлар Марказий Осиѐ цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010.
4. Ат-Табарий. Тарих ар-русул вал-мулук / VI жуз. – Қоҳира: Дар ал-маориф, 1971.
5. Яъқубий. Тарихи Яъқубий / III жуз. – Нажаф: Матбаа ал-ғури, 1938.
6. Умматалиев С. Ислом тарихидан олтин саҳифалар – Умавийлар даври. – Тошкент: Ўқитувчи матбаа уйи, 2021.

DABUSIYA QAL’ASI TARIXIY MANBALARDA

Jahongir QAYUMOV
Oriental universiteti Tarix fakulteti dekani o‘rinbosari, o‘qituvchi.
jahongir5341223@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Buyuk ipak yo‘lida joylashgan muhim qal’alardan biri Dabusiya haqida so‘z yuritiladi. Dabusiya (yoki Dabusiya qal’asi) Markaziy Osiyoning tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, hozirgi Samarqand viloyati, Paxtachi tumani hududida joylashgan. IX-X asrlarda yashagan arab tarixchilari va sayyohlari Dabusiya shahrini Buxoro va Samarqand oralig‘ida joylashgan strategik qal’a sifatida eslatgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy o‘zining mashhur “Buxoro tarixi” asarida Dabusiya shahrini bir necha bor eslatib o‘tadi. Bu asar IX-X asrlardagi Buxoro va uning atrofidagi shaharlarning tarixi haqida muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Narshaxiy Dabusiyani Buxoro bilan Samarqand o‘rtasida joylashgan muhim harbiy qal’a sifatida tavsiflaydi. Bu shahar Sug‘d hududiga tegishli bo‘lib, strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Dabusiya, Ipak yo’li, Narshaxiy, At-Tabariy, Ilekxon, Samarqand, Buxoro, tarixiy manbalar.*

Аннотация: *В статье рассматривается Дабусия — одна из важных крепостей, расположенных на Великом Шелковом пути. Дабусия (или крепость Дабусия) — один из исторических городов Средней Азии, расположенный на территории современного Пахтачинского района Самаркандской области. Арабские историки и путешественники IX*

и X веков упоминали город Дабусия как стратегическую крепость, расположенную между Бухарой и Самаркандом. Абу Бакр Мухаммад ибн Джафар Наршахи несколько раз упоминает город Дабусия в своем знаменитом труде «История Бухары». В этом труде содержатся важные сведения об истории Бухары и окрестных городов IX-X вв. Наршахи описывает Дабусию как важную военную крепость, расположенную между Бухарой и Самаркандом. Этот город относился к Согдийской области и имел важное стратегическое значение. ***Ключевые слова:*** *Дабусия, Шелковый путь, Наршахи, Ат-Табари, Илекхан, Самарканд, Бухара, исторические источники.*

Annotation: *The article discusses Dabusiya, one of the important fortresses located on the Great Silk Road. Dabusiya (or Dabusiya Fortress) is one of the historical cities of Central Asia, located in the territory of the current Samarkand region, Pakhtachi district. Arab historians and travelers who lived in the 9th-10th centuries mentioned the city of Dabusiya as a strategic fortress located between Bukhara and Samarkand. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahi mentions the city of Dabusiya several times in his famous work "History of Bukhara". This work contains important information about the history of Bukhara and its surrounding cities in the 9th-10th centuries. Narshahi describes Dabusiya as an important military fortress located between Bukhara and Samarkand. This city belonged to the Sughd region and was of great strategic importance.* ***Keywords:*** *Dabusiya, Silk Road, Narshahi, At-Tabari, Ilekkhan, Samarkand, Bukhara, historical sources.*

Dabusiya yoki Dabusqal’a Samarqand viloyati, Paxtachi tumanining eng ko‘hna va qadimiy tarixdan so‘zlovchi o‘lkasi. Samarqand bilan Buxoro shaharlarini o‘zaro bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan qadimgi shaharlar ichida eng yirigi va ahamiyatlisi bu Dabusiya shaharchasidir. Bu qadimiy shahar O‘rta Osiyo svilizatsiya markazlaridan bo‘lgan desak ham adashmagan bo‘lamiz. Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan bu shahar barcha Sharq shaharlari kabi uch qismdan: ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Shahar arkida hukmdor, ya’ni davlatni boshqargan rahbar va saroy a’yonlari yashashgan. Shahristonda shaharliklar hamda aslzodalar hayot kechirgan. Shaharning rabod qismida esa hunarmandlar, savdogarlar va qo‘shin askarlari istiqomad qilgan. Shahar atrofi dushman hujumidan saqlanish uchun chuqur xandak va mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan bo‘lgan.

Tarixda Dabusiya shahri arablarning Movaraunnahrga yurishlarini ham o‘z boshidan o‘tkazgan qal’alardan hisoblanadi. XI asrning o‘rtalariga kelib shahar yana ikki sulola o‘rtasidagi nizolarga guvoh bo‘ladi. Mahmud G‘aznaviyning o‘g‘li Mas’ud Xorazm hukmdori Oltintoshga, qoraxoniylar qaramog‘ida bo‘lgan Buxoro va Samarqand ustiga yurish qilishni buyuradi. Qoraxoniylar lashkari Ali Tegin boshchiligida Oltintoshga qarshi chiqadi va bu jangda u mag‘lub bo‘lib Dabusiyaga chekinadi. Oltintosh Dabusiyani qamal qiladi, ammo shaharning mustahkam istehkomlari Xorazmliklarni shaharga kirishlariga imkon bermaydi. Uzoq muddatli qamaldan so‘ng har ikki tomon o‘zaro kelishadi. Shu tariqa Xorazm hukmdori Oltintosh Mas’ud G‘aznaviyning buyrug‘ini bajara olmaydi. Buning ustiga Oltintosh jang paytida qattiq yarador bo‘ladi va buning oqibatida halok bo‘ladi. Ammo vazirning ustamonligi tufayli Xorazmliklar sharmandali mag‘lubiyatdan qutilib qoladilar. XIII asrning boshida yurtimizda yuz bergan mo‘g‘ullar bosqini Dabusiyaning taqdirida ham juda ayanchli bo‘ldi. Mo‘g‘ul bosqinchilari Buxoro shahri tomonga o‘tishda bu shaharni juda qattiq vayron qildilar. Chunki Dabusiyaliklar juda kam sonli bo‘lsalar-da, yovning katta qo‘shiniga qarshi chiqishga

jur’at qiladilar. Shundan so‘ng shaharning katta qismi qayta tiklanmadi. Aynan shu davrdan boshlab Dabusiya shahri “Dabus qal’a” nomini oladi. Lekin, Dabusiya qal’a maqomiga tushib qolgan bo‘lsa-da, baribir u Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi muhim strategik ahamiyatga ega, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqeini saqlab qolgan.

IX-X asrlarda yashagan arab tarixchilari va sayyohlari (Mas’udiy, Istahriy, Muqaddasiy, Ibn Xordadbeh va boshqalar) Dabusiya shahrini Buxoro va Samarqand oralig‘ida joylashgan strategik qal’a sifatida eslatgan. Tabariy “Tarixi” – mashhur tarixchi at-Tabariy (IX asr) o‘z asarida arablar tomonidan Markaziy Osiyoga uyushtirilgan harbiy yurishlar kontekstida Dabusiya shahrini tilga oladi. Mahalliy yozma manbalarda – ba’zi mahalliy tarixiy asarlar, jumladan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ham Dabusiya eslatib o‘tiladi. Narshaxiy Dabusiyani Buxoro bilan Samarqand o‘rtasida joylashgan muhim harbiy qal’a sifatida tavsiflaydi. Bu shahar Sug‘d hududiga tegishli bo‘lib, strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob’ektivlik, tizimli tahlil kabi usullar yordamida O‘zbekiston hududida qadimiy shahar Dabusiyaning mamlakatimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyati yozma manbalar ma’lumotlariga asosan, tarixiy tahlilga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

Dabusiya tarixiy va geografik asarlarda ko‘p marta eslatib o‘tilgan, ammo ularning deyarli barchasi juda qisqa. Al-Yoqubiy (milodiy 905-yilda vafot etgan) ma’lumotlariga ko‘ra, So‘g‘d “Samarqand, Dabusiya, Kushoniy, Kesh va Nesef”dan iborat bo‘lgan (G‘oibov., 1989:35). Shaharning ahamiyatini shundan kelib chiqib baholash mumkinki, bu So‘g‘d shaharlari ro‘yxatida Samarqanddan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning (899-959) “(Buxoro podshosi) o‘zi istiqomat qilgan katta qishloq Paykend, shahar esa “Qal’a-i Dabusi” deb atalgan” (Narshaxiy., 1985:158) degan gapi ham qiziqroqdir.

Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlarda Dabusiyani birinchidan, shahar markazi, ikkinchidan, So‘g‘dning eng qadimgi shaharlaridan biri sifatida tasniflashning barqaror an’anasi mavjud bo‘lgan yoki hech bo‘lmaganda saqlanib qolgan, ammo yozma an’analarda u haqida birinchi eslatmalar faqat arab yurishlari davriga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turibdiki, Buxorodan Samarqandgacha bo‘lgan yo‘lda strategik muhim o‘rinni egallagan Dabusiya erta bosib olinib, mustahkamlanib, arablar tomonidan post sifatida foydalanilgan.

At-Tabariy “ad-Dabusiy” nisbasiga ega bo‘lgan bir qator harbiy boshliqlarni, masalan, Qasr al-Bahilida, al-Musayyab qo‘shinining o‘ng qanotiga qo‘mondonlik qilgan Qusayyir bin ad-Dabusiyni (at-Tabari., 1987:179) keltiradi.

At-Tabariyning yozishicha, 723-yilda Xuroson hokimi Said al-Xorashiy Dabusiya yaqinidagi Qasr ar-Rix qasrida daryodan (Amudaryo) o‘tib o‘tib, jazolovchi qo‘zg‘olonchilarga qarshi arablar va ittifoqchilar qo‘shinlarini yig‘ish punktini belgilab beradi. Xurosonning yangi hokimi Ashras ibn Abdulloh as-Sulamiy (727-729) xazinani to‘ldirish uchun nomusulmonlardan ham, yangi qabul qilingan musulmonlardan ham jizya (so‘rov solig‘i)ni teng yig‘ishni buyurib, qattiq soliq bosimi siyosatini olib bora boshladi va bu aholining ommaviy noroziliklariga sabab bo‘ldi.

Ashrasning So‘g‘dga yurishi munosabati bilan Dabusiy haqidagi xabar 728-yilga to‘g‘ri keladi. Shundan so‘ng So‘g‘d aholisi yana Ashras yuritgan siyosatga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, arablar qo‘lida faqat Samarqand va Dabusiya qolgan [1-B. 93]

729-yilda turklar xoqoni So‘g‘d, Farg‘ona va Shosh qo‘shinlari bilan birgalikda Nurota tizmasi tizmalari orqali So‘g‘dga shimoldan kirib keldi, ammo Kemerji qal’asini qamal qilishda uzoq vaqt qolib ketdi. Xavfsizlik kafolatlangandan so‘ng arablar qal’ani taslim qilib, Dabusiyaga yo‘l oldilar, u yerda at-Tabariyning ma’lumotlariga ko‘ra, 10 000 jangchi kuchli garnizon bor edi.

Bu vaqtda Dabusiyani Aqil bin Varrad as-Sug‘diy boshqargan. [2-B. 216-217].

Keyingi arab mualliflari doimo Dabusiyani Samarqand So‘g‘d shaharlari qatoriga kiritadilar. Shunday qilib, as-Samoniy Dabusiya Buxoroga yo‘l bo‘ylab So‘g‘ddagi kichik shaharcha ekanligini yozadi. Umaviylar davrida arab garnizoni bo‘lgan [3-B. 87]. Hud ud al-Olamda shahar nomi Dabusi deb berilgan. Istaxri uni daryodan janubga (Zarafshon degani) Xurosonga yo‘lda joylashtiradi [4-B. 88].

Normativ manbalarda ham ayrim nomuvofiqliklar mavjud. Shunday qilib, Ibn Havqal Dabusiyaning So‘g‘d daryosining (Zarafshon) janubida joylashgani, Arbinjondan kichikroq, unda yirik rustaklar va qishloqlar yo‘qligi haqida xabar beradi [5-B. 27]. Boshqa mualliflar as-Samaniy va Yoqut al-Hamaviy Dabusiya tumaniga tegishli bo‘lgan ba’zi soliq to‘lovchi aholi punktlariga ishora qiladilar. Masalan, as-Samaniy va Yoqut al-Hamaviylar Dabusiyadan yarim farsax uzoqlikda joylashgan Kandukin qishlog‘ini tilga oladilar (Yoqutcha Kandakin o‘qishini ham beradi). As-Samaniyning yozishicha, Ragin (yokutcha nomi Ragan deb berilgan) shahar qishlog‘i ham Dabusiya tumaniga tegishli [3-B. 88].

Albatta, bu vaqtda Dabusiya nafaqat ma’muriy va qishloq xo‘jaligi markazi, balki hunarmandchilik markazi ham edi. Joydan topilgan shlaklar bu yerda metallga ishlov berish ishlari olib borilganligini ko‘rsatadi. Yarim tayyor mahsulotlar (g‘ishtlar) yaqin atrofdagi Qarnabdan kelgan bo‘lsa-da, yozma manbalarda, birinchi navbatda, Dabusiya ham huddi Buxoro kabi paxtadan “vedar” matolar ishlab chiqarish bilan mashhur bo‘lganligini ta’kidlaydi, Sarg‘ish rangga ega bo‘lib, oqartirishga to‘g‘ri kelmasdi va Xurosonda uni amirlar va vazirlardan tortib, jangchilar va “oddiy odamlar” kiyishgan, bu esa davlat xizmatida bo‘lmagan, lekin hatto o‘z kiyimlarini sotib olishga qodir bo‘lgan “oddiy odamlar”ni anglatadi [6- B. 273].

Ko‘rinib turibdiki, shuning uchun yozma manbalar, yo‘l quruvchilar mualliflari, uning Dabusiya shahrida ishlab chiqarilishiga urg‘u berishadi.

XI asr boshlariga kelib, shahar Somoniylar sulolasining so‘nggi vakili al-Muntasirning hokimiyatni saqlab qolishga urinishlari munosabati bilan tilga olindi. Buxorolik Shixna o‘z qo‘shinini garnizon bilan to‘ldirish uchun Dabusiyaga yetib keldi. Lekin Ismoil Muntasir Nur qal’asidan ularga hujum qilib, tarkibini yo‘q qilib, hammasini tarqatib yubordi. Bu xabardan ko‘rinib turibdiki, birinchidan, shahar nafaqat o‘zining iqtisodiy ta’sirini saqlab qolgan, balki yana kuchli garnizonga ega muhim strategik qal’a sifatida tilga olinadi. Ikkinchidan, aftidan, jangdan so‘ng Dabusiya shahri Ismoil Muntasir tomonidan bosib olingan, chunki. Xabarda keyinroq Samarqand yaqinidagi Burnamad qishlog‘ida al-Muntasir bilan qoraxoniy ilxonlari o‘rtasidagi jang haqida so‘z boradi [7-B. 43].

Ibn al-Asir o‘zining “al-Komilfi-tta’rix” asarida bu xabarni qisman takrorlaydi. Unga ko‘ra, 999/1000 yillarda Buxoroda al-Muntasir bilan Ilekxon hokimi o‘rtasida jang bo‘ladi. Al-Muntasir Dabusiyyaga chekinib, u yerda qo‘shin to‘playdi, keyin yana jang qilib, Buxoro hokimini mag‘lub etadi [8-B. 176]. Uni Samarqand aholisi qurol-yarog‘, pul, oziq-ovqat va ko‘ngillilar bilan qo‘llab-quvvatladi. Al-Muntasir qo‘shinlari Samarqand yaqinida g‘alaba qozonadi, ammo Ilekxon bilan bo‘lgan navbatdagi jangda Ismoil Muntasir yengilib, Juzjonga qochib ketadi. Aftidan, Dabusiya yana qoraxoniy Ilekxonga bo‘ysundi. Qoraxoniylar davrida shahar Samarqand So‘g‘dining anchagina yirik hunarmandchilik va savdo markazi sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Hatto shu davrga oid mis va kumush tangalar ham borki, ularda chiqarilgan joy Dabusiya deb ko‘rsatilgan.

Dabusi haqidagi yana bir xabar XI asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, u erda yana kuchli qal’a sifatida tilga olinadi. G‘aznaviy Mahmudning o‘g‘li Sulton Mas’ud Xorazm hukmdori Oltuntoshga o‘sha davrda yozma manbalarda Ali-Tegin nomi bilan mashhur bo‘lgan qoraxoniylar hukmdori Ali bin Hasanga tobe bo‘lgan Buxoro va Samarqandga hujum qilishni buyuradi. Qoraxoniylar qo‘shinlari xorazmliklar qarshisiga chiqdilar, ammo mag‘lubiyatga uchradilar. Ali-Tegin orqaga chekindi va Dabusiya qal’asiga qamaldi. Oltuntosh qal’ani qamal qilib, deyarli egallab oldi. Ali-Tegin u bilan xat yoza boshlaydi va oxir-oqibat sulh tuzadi [8-B. 209].

Biroq, bu voqealarning rivojlanishining Dabusiya bilan bog‘liq yana bir versiyasi mavjud. 1032-yilda G‘aznaviy Mahmudning o‘g‘li Mas’ud qoraxoniylar hukmdori Ali bin Hasan (Ali-Tegin) Movarounnahrga qarshi urush olib borishni Xorazmshoh Oltuntoshga topshirib, unga 15 ming kishilik yordamchi otryad ajratadi. 1033-yilda Dabusiya yaqinida bo‘lib o‘tgan o‘jar va qonli jangda hech bir tomon hal qiluvchi g‘alabaga erisha olmadi. Garchi har bir tomon keyinchalik o‘z g‘alabasini da‘vo qilgan bo‘lsa ham. Ammo Bayhakiy “Tarixi Mas’ud”da aks etgan rasmiy g‘aznaviy talqinini tilga olar ekan, Oltuntosh qo‘shini qattiq zarbaga uchraganini ta’kidlaydi [9-B. 440].

Nima bo‘lganda ham Xorazmshoh ko‘zlagan maqsadi amalga oshmadi – Mavorounnahr Ali-Tegin bilan qolgan, Ali esa ularni chekinishga majbur qilgan. Qolaversa, jangda keksa Xorazmshoh Oltuntosh o‘lik yarador bo‘lib, faqat o‘zining tajribasi, o‘zini tuta bilishi va xorazmshohning yaradorligi va undan keyin vafot etgani haqidagi xabarni yashirgan vazirning taktikasi tufayli qo‘shinlar uyushqoqlik bilan orqaga chekinib, mag‘lubiyatdan qutulib qolgan (1035-yil). Dabusiya shu vaqtgacha mustahkam qarorgoh rolini o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Bu voqealarning muhim natijasi shundan iboratki, unda 423-428 hijriy yillarda zarb qilingan tangalarda Dabusiya Qutlug‘ Ordu ad-Dabusiya deb atalgan, ya’ni unga “Omadli o’rda” unvoni berilgan (10-B. 208-209).

Bu davrning numizmatik materiali boshqa muhim ma’lumotlarni ham beradi. Shunday qilib, hijriy 424-yilda Qutlug‘ Ordu ad-Dabusiyada zarb qilingan dirhamning orqa tomonida Ismoil ibn Mahmud, old tomonida esa Ali ibn Hasan syuzerin sifatida tilga olingan. Bu tangaga qaraganda, Ali-Tegin Zarafshon vodiysining bir qismini Dabusiya hududidagi Ismoil ibn Mahmudga katta huquq va imtiyozlar, jumladan, o‘z nomini tangalarga yozish va xalifadan keyin darhol sharafli joyga qo‘yish kabi nufuzli huquqlarga ega bo‘lgan. B.D. Kochnev tangada tilga

olingan eng ehtimoliy da’vogar Xorazmshoh Oltuntoshning o‘g‘li Ismoil bo‘lishi mumkinligini, uning musulmon nomi Mahmud, keyinchalik Ismoil Xandon nomi bilan mashhur bo‘lishi mumkinligini inkor etmadi. Uning fikriga ko‘ra, otasi vafotidan keyingi yili (ya’ni 1034 yilda) Ali-Tegin va Ismoil o’rtasida ittifoq tuziladi. Va tez orada o‘sha 1034-yilda Ismoil Xandon o‘zining akasi Horunni Xorazm taxtiga o‘tirdi. Tinchlik munosabatlari Dabusiya tumanining Ismoil Xandonga berilishi bilan mustahkamlandi. Ammo bu uning Dabusiyada o‘tirishi shart degani emas edi. Xorazmda qolib, grant ob’ektidan daromad olishi mumkin edi.

Mo‘g‘ullar istilosidan keyin Dabusiya mahalliy hukmdorning qal’asi va qarorgohi sifatida tilga olinadi. Dabusiyaning strategik ahamiyati keyinroq ta’kidlanadi. Shunday qilib, Hofiz-i Abruning xabarida shunday deyilgan:

“Dabusiya - Buxoro va Samarqand o‘rtasidagi kichik shaharcha; hozir Samarqandning chekkasi hisoblangan; rivoyatlarga ko‘ra Sulton Jaloliddin tomonidan qurilgan qal’aga ega. “Dabusiyadan Kushonagacha 5 farsax bor” [1-B. 112].

Keyinchalik Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida Dabusiyya haqida bir necha bor tilga olinadi. To‘g‘ri, ular qisqaligi bilan ajralib turadi. Dabusiya Bobur uchun, eng avvalo, strategik nuqta – Buxorodan Samarqandgacha bo‘lgan yo‘lni nazorat qilib turgan qal’a sifatida qiziq. U Shayboniyxon 1493-yilda uning atrofida o‘sha paytda Buxoroni boshqargan Sulton Ahmad Mirzoning ukasi Boqitarxon qo‘shinini mag‘lub etganini ikki marta qayd etadi. Lekin, shekilli, Shayboniyxon o‘sha paytda Dabusiyani egallay olmadi yoki Shayboniyxonning raqiblari tezda uni qaytarib olishga muvaffaq bo‘lishdi.

To‘g‘ri, “Tavarix-i g‘uzide, nusrat-noma”ning anonim muallifi Boki Tarxonning Dabusiya qal’asida Shayboniyxon tomonidan tor-mor etilishini 1500-yilning 29-mayiga to‘g‘rilaydi.

Bu, ehtimol, yanada real sana. 1501-yilga kelib, Bobur uchun umumiy vaziyat ancha muvaffaqiyatli rivojlanib borayotgan bir paytda, Shayboniyxonning to‘satdan bosqin uyushtirib, Dabusiyani qamal qilgani, bu yerda qal’a qo‘mondoni Ibrohim Tarxonning ukasi Ahmad Tarxon bo‘lganligi, 1501-yilga kelib, Boburning umumiy ahvoli ancha muvaffaqiyatli rivojlanayotganida, uni (Bobur) xafa qilgan epizod bilan izohlashi bilvosita tasdiq bo‘lishi mumkin. Bobur esa “qamalda qolganlarga yordam berish uchun qo‘shin to‘plashga muvaffaq bo‘lgunga qadar, qal’a bo‘ron bosib olindi, uning aholisi umumiy qirg‘inga uchradi” (11-B. 103). Bu, ehtimol, shahar markaziga dahshatli zarba bo‘lgan, shundan keyin shahar tiklana olmadi va keyinchalik faqat qishloq sifatida tilga olinadi.

Shunday qilib, yozma manbalardan olingan ma’lumotlar Dabusiya shahrining butun o‘rta asrlar davrida savdo va hunarmandchilik markazi, madaniy markaz sifatidagi va Samarqanddan Buxoroga va undan keyin Xurosonga boradigan savdo yo‘lining bir qismini nazorat qiluvchi muhim strategik nuqta sifatida ancha muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. 2023-yilda Dabusiya qal’asi YUNESKO Umumjahon merosi ro’yxatiga “Ipak yo’li: Zarafshon-Qoraqum karridori” nomi bilan bir qancha madaniy meros obyektlari qatorida kiritilgan. Bu uning mamlakatimiz turizm salohiyatiga sezilarli hissa qo’shadigan omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Utbi. Tarix-i Yamini. - Materiali po istorii Sredney i Sentralnoy Azii X-XIX vv. Tashkent, 1988.
2. At-Tabari Muxammad b. Djarira. Istoriya prorokov i sarey. - Istoriya at-Tabari. Perevod V.I. Belyayeva. Tashkent, 1987.
3. Babur. Baburname. Tashkent, 1993.
4. Bayxaki Abu-l-Fazl. Istoriya Masuda. Per. s persidskogo, vvedeniye, kommentarii prilojeniya A.K. Arendsa. M., 1969.
5. Bartold V.V. Xafiz-i Abru i yego sochineniya. / / Sochineniya. Tom VIII, M., 1973.
6. Belazuri. Zavoyevaniye Xorasana (Izvlecheniye iz sochineniya «Futux al-buldin»). Perevod s arabskogo i kommentarii Gaibova G. Dushanbe, 1987.
7. Belenitskiy A.M., Bentovich O.I., Bolshakov O.G. Srednevekoviy gorod Sredney Azii. L., 1972.
8. Betger YE.K. Izvlecheniya iz knigi «Puti i strani» Abul-l-Kasima ibn Xaukalya. // Trudi SAGU. Arxeologiya Sredney Azii. Tashkent, 1957.
9. Goibov G. Ranniye poxodi arabov V Srednyuyu Aziyu (644-704 gg.). Dushanbe, 1989.
10. Ibn al-Asir. «Al-Kamil fi-t ta'rix» Polniy svod istorii. Perevod s arabskogo P.S. Bulgakova, dopolneniya i kommentarii Sh.S. Kamoliddina. Tashkent, izd-vo Uzbekistan, 2006.
11. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-Ansab» Abu Sa'da Abdalkarima ibn Muxammada as-Sam'ani kak istochnik po istorii i istorii kulturi Sredney Azii. Tashkent, izdvo FAN, 1993.
12. Kermenegi Muxammad Vafa-iy. Tuxfa-iy xani. Toshkent, 1988.
13. Kochnev B.D. Zametki po srednevekovoy numizmatike Sredney Azii. Chast 10’ (Karaxanidi). / / IMKU, vil 24. Tashkent, 1990.
14. Kochnev B.D. Numizmaticheskaya istoriya karaxanidskogo kaganata (991-1209 gg.] Ch. 1. Istochnikovedcheskoye issledovaniye. M., 2006.

SALJUQIYLARNING O’ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Marxabo SAPAYEVA
Oriental universiteti Tarix
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Maqolada, Saljuqiylarning Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashi, O‘g’uzlar, Samoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar bilan munosabatlari, Dandanakon va Mansikert jangi, Dukak, Arslon-Isroil, Mikoil,Yusuf, Musa, To‘g‘rulbey va Chag‘ribeylarning siyosat maydoniga kirib kelishi, Saljuqiylarning davlat sifatida shakllanishida Alp Arslon va Sulton Sanjarning buyuk mavqei hamda saljuqiylarning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘guz, Gaznaviylar, Qoraxoniylar davlatlari, Dukak, Arslon-Isroil,*

Mikoil,Yusuf, Musa, To‘g‘rulbey, Chag‘ribey, Alp Arslon, Sulton Sanjar, Nizomulmuluk, Dandanakon jangi, Mansikert jangi, Maxmud G‘aznaviy, Mas’ud G‘aznaviy.

Аннотация. *В статье рассматривается борьба Сельджуков за власть в Мавераннахре, их взаимоотношения с Огузами, Саманидами, Караханидами и Газневидами, битва при Данданаконе и Мансикерте, выход на политическую арену Дукак, Арслан-Исраэля, Микаила, Юсуфа, Мусы, Тогрулбея и Чагрибея, большая роль Алп Арслана и султана Санджара в становлении Сельджукидов как государства, место Сельджуков в истории узбекской государственности.* ***Ключевые слова:*** *Огузы, Газневиды, Караханидские государства, Дукак, Арслан-Исраэль, Микаил, Юсуф, Муса, Тогрулбей, Чагрибей, Алп Арслан, Султан Санджар, Низамулмулюк, Битва при Данданаконе, Битва при Мансикерте, Махмуд Газневи, Масуд Газневи.*

Abstract. *The article discusses the struggle of the Seljuks for power in Transoxiana, their relations with the Oghuz, Samanids, Karakhanids, and Ghaznavids, the Battle of Dandanakon and Mansikert, the entry of Dukak, Arslan-Israel, Mikayil, Yusuf, Musa, Togrulbey, and Chagribey into the political arena, the great position of Alp Arslan and Sultan Sanjar in the formation of the Seljuks as a state, and the role of the Seljuks in the history of Uzbek statehood.* ***Keywords:*** *Oghuz, Ghaznavids, Karakhanid states, Dukak, Arslan-Israel, Mikayil, Yusuf, Musa, Togrulbey, Chagribey, Alp Arslan, Sultan Sanjar, Nizamulmuluk, Battle of Dandanakon, Battle of Mansikert, Mahmud of Ghaznavid, Masud of Ghaznavid.*

X asrga kelib Jayxun daryosining Orol dengiziga quyilish qismidagi Yangikent shahri poytaxti bo‘lgan O‘g‘uz Yabg‘u davlati Saljuqiylar tarixi boshlanishi uchun muhim bir davlat sifatida o‘rin tutadi. Saljuqiylar davlatining asoschilaridan biri sifatida ko‘riladigan tarixiy shaxs Saljuq ibn Dukakdir. Dukak o‘g‘uzlarning Uchak bo‘limining Kinik qabilasidandir. Dukakning Arslon-Isroil, Mikoil, Yusuf va Muso ismli o‘g‘illari bor. Ayrim manbalarga ko‘ra Dukak hazar qabilalari singari yahudiy ekanligi aytib o‘tiladi. Lekin bu ma’lumotlar haqiqatga mos kelmaydi. [2, - B. 16]

Saljuqiylarning davlati nomini kelib chiqishi to‘g‘risida bahsli munozaralar mavjud. Dukakgacha bo‘lgan oila a’zolari haqidagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi ham bahsli. Dukak haqida berilgan turli ma'lumotlar bir-birini inkor qiladi. Hatto ba’zi manbalarda Saljukning otasini ismi Lokman deb yozilgan. Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan Saljuk ismining ma’nosiga tegishli turli xil fikrlar ilgari suriladi. Mavjud muhokamalardan so‘ng Saljuk ismining ma’nosi haqida eng to‘g‘ri tushuntirish shundan iboratki, bu “muz, muzlik”dir. Biroq, yana bir ilgari surilgan fikrga ko‘ra, u qirg‘izlar Muz (Buz)-Tog‘ deb ataydigan Seldag‘ (tog‘) yaqinida tug‘ilgani uchun Saljuqiy deb atalgan. Salchuk (g‘) sifatida ham qayd etilgan. Bu nom “kurashchi” degan ma‘noni anglatadi deb degan fikrlar ham mavjud. [2, - B. 18]

To‘g‘rulbek Saljuqiylar davlatining asoschilaridan biri sifatida ko‘riladi. Saljuqiylar o‘z davlatini tuzishida O‘g‘uzlar, Samoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Xorazm Oltintoshiylar bilan turli xil siyosiy vaziyatlarni boshidan kechirdilar. Saljuqiylar dastlab O‘g‘uz davlati bilan yaylovlar masalasida nizolar yuzaga keladi. Xattoki O‘g‘uz yabg‘usining ayoli Saljuqdan xavfsirab uni mamlakatdan chiqarib yuborish payiga tushadi. Bu esa Saljuqiylarning davlat bo‘lib shakllanishida dastlabki harakatlardan biri bo‘ladi. Saljuqiylar 925-yilda Jandga kelib keng yaylovlarga o‘rnashib oladilar. Lekin bu hudud ham Saljuqiylar davlati uchun muqim poydevor bo‘lib xizmat qilmadi. Saljuq ibn Dukak 102 yoshida Jandda vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Mikoil ham o‘zaro bo‘lib o‘tgan kurashlarda vafot etadi. Uning

farzandlari To‘g‘rul va Chag‘ri (Dovud) beylar Buxorodan 12 farsax uzoqlikdagi hududlarga borib o‘rnashadilar. Dukakning o‘g‘li Arslon(Isroil) Qoraxoniylar xizmatiga kirib yuqori obro‘ga erishadi. Qoraxoniylarga Movarounnahrni qo‘lga kiritishida yetakchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida Mahmud G‘aznaviyni saljuqiylar kuch qudratini vaqtida anglab yetishiga zamin yaratadi. Natijada Mahmud G‘aznaviy qoraxoniylarga qarshi hujumi natijasida Arslon ibn Saljuqni asirga oladi va 7-yillik tutqindan so‘ng 1032-yilda Arslon ibn Saljuq vafot etadi. Saljuqiylar sulolasiga endilikda To‘g‘rul va Chag‘ri beylar boshchilik qilishadi.

Mahmud G‘aznaviy 1025-yilda 4000 oiladan iborat saljuqiylarga Amudaryodan kechib o‘tib, Saraxs, Farova va Obivardga joylahib yashashlariga ruhsat berishadi. Saljuqiylarning bir qismi Isfaxon va Kirmonga ko‘chib o‘tishlari Mahmud G‘aznaviyga birmuncha ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. [4, - B. 387]

Bu vaqtda Xorazm hokimi Oltintosh sulolasidan bo‘gan Xorun qoraxoniylar bilan til biriktirib Mahmud G‘aznaviyga qarshi chiqadi. Yana kata muammolardan biri bu saljuqiylar gaznaviylarning soliq siyosatiga qarshi chiqib noroziliklar keltirib chiqarishlari edi. Bu norozilik qo‘zg‘olonlari Mas’ud Gaznaviy davrida ham davom etadi. To‘g‘rulbek va Chag‘ribek Hurosonning turli hududlarida qisqa vaqt davomida har tamonlama salohiyatini oshirib boradilar. Natijada Saljuqiylar va Gaznaviylar davlatlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘lishi aniq bo‘lib qoldi. Shunday janglardan biri Dandanakon nomi bilan tarix sahifalariga muhrlandi.

1040-yil bahorida Saraxs va Marv oralig‘idagi sahroda joylashgan Dandanakon nomli kichik qal’a yonidagi jang G ‘aznaviylar sultoni Mas’ud G‘aznaviyning (1030-1041) mag‘lubiyati bilan tugaydi. [4, - B. 388]

Sulton Mas’ud qo‘shini Dandanakonda mag‘lub bo‘lganidan so‘ng, Saljuqiy qabila sardorlari bosib olingan hududlarni o‘zaro taqsimlay boshlashdi. Aslida bu bo‘linish emas, balki keyingi fathlar hududini delimitatsiya(belgilash) qilish to‘g‘risidagi bitim edi. Shimoliy Xuroson 1037-yildayoq Marv viloyatining hukmdori deb e’lon qilingan Chag‘ri beyga berildi. Keyinchalik ham Chag‘ri beyning avlodlari bo‘ysundirilgan Xorazm bilan birgalikda Xurosonni boshqarish huquqiga ega bo‘ldilar. [3, - B. 9]

Mas’ud G‘aznaviy qolgan-qutgan qo'shinini olib tezlik bilan orqaga chekinishga majbur bo‘ladi. Jang maydonining o‘ziga taxt olib chiqilib, To‘g‘rulbek yangi yuzaga kelgan saljuqiylar davlatining birinchi hukmdori deb e’lon qilinadi . Saljuqiylar rahnamosi To‘g ‘rulbek (1040-1063) boshchiligidagi qo‘shin tez orada Xurosonning katta qismi, Xorazm, Dehiston, Gurgonni qo‘lga kiritadi. 1042-yili To‘g‘rulbek otliqlari shimoliy Erondagi Ray viloyatini qo‘lga kiritishadi. Saljuqiy otliqlar Ozarbayjon, Fors, Iroq yerlariga tez-tez hujum uvushtirib turdilar. To‘g‘rulbek qo‘shini 1055-yili Bag‘dodga kirib keladi. Bag‘doddagi abbosiylar xalifasi al-Qayum (1031-1075) To‘g‘rulbek hukmini tan olgan holda, uni «sulton» deb e’lon qiladi. To‘g‘rulbek qo‘shinlari Kirmon va Forsni egallab, Kavkazda Vizantiya imperiyasiga qaqshatqich zarba beradi. Tez orada Xorazm, Xuroson, Eron, Iroq va Kavkazning bir qismini o‘z ichiga olgan Saljuqiylar davlati yuzaga keladi. To‘g‘rulbekning kuchli markazlashgan davlatni yuzaga keltirish, mamlakatda o‘zaro parokandalikni tugatish, turli ayirmachi diniy guruhlarga qarshi kurashini aholining katta qismi, xususan xalifasining o‘zi ham qollab-quvvatlar edi. [4, - B. 387-388]

Yuqoridagi tarixiy jarayonlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, saljuqiylar kuchsiz va birlashmagan qabila bo‘lishmagan. Saljuqiylar mahoratli hukmdorga va kuchli qo‘shinga ega, markazlashgan davlatlardan biri bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz. Qisqa vaqt davomida katta hududlarni bosib olib, hattoki arab xalifasi tomonidan ham qo‘llab quvvatlangan edi. Saljuqiylar sulolasi qisqa davr mobaynida birlashib, qo‘shni hududlar hisobiga ulkan markazlashgan davlatga asos soldilar.

1063-yilda To‘g‘rulbek vafotidan keyin, jiyani Chag‘ribekni o‘g‘li Muhammad Alp Arslon (1063-1072) hokimiyat tepasiga keladi. Alp Arslon hokimiyatining dastlabki kunlaridanoq bo‘ysunmagan saljuqiy qarindoshlariga qarshi jang olib boradi. Janglarda zafar qozonib, Hirot, Chag‘aniyon va Jand ham Alp Arslon hokimiyatini tan oladi. Alp Arslon bosib olingan hududlar sulton hokimiyatini tan olib, yillik boj solig‘i to‘lashardi. Bu hudular sulton qarindosh urug‘lariga va taniqli harbiy sarkardalarga bo‘lib beriladi.

Alp Arslon keyingi harbiy harakatlarini davom ettirib, 1071-yili Kichik Osiyodagi Mansikert qal’asi yonida Vizantiya imperatori Roman IV Diogenga (1067-1071) hal qiluvchi zarba beradi. Imperator butun qo‘shini bilan Alp-Arslonga asir tushadi. Mansikert yonidagi jang Dandanakon (1040) jangidan so‘ng saljuqiylar tomondan amalga oshirilgan ikkinchi yirik harbiy operatsiya bo‘ladi. Bu jang hosilasi o ‘laroq saljuqiylarning Old Osiyoga kirib kelishlariga keng yo‘l ochiladi. Alp Arslon Movarounnahrga harbiy yurish vaqtida 1072- yili mahalliy qal’a boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan og‘ir yaralanadi. Asirlikdagi Yusufning qahramonona xatti-harakatiga darhol chek qo‘yilib, o‘zi o‘sha zahotiyoq saljuqiy askarlar tomonidan oidiriladi. Og‘ir yaralangan sulton Alp Arslon ham tezda vafot etadi. Sulton Marvga dafn etiladi. [4, - B. 389-390]

Alp Arslon vafotidan so‘ng o‘g‘li Jaloliddin Malikshoh (1072-1092) nomi bilan taxtga o‘tirdi. Uning davrida saljuqiylar davlati gullab yashnadi. Harbiy yurishlarida zafar qozondi. Har qanday siyosiy vaziyatlardan ustalik bilan foydalandi. Mvarounnahr yurish qilib Samarqand va Buxoroni egallaydi. Qoshg‘arga yurish qilib Farg‘ona O‘zgangacha yetib keladi. Qoshg‘ar hokimi uning hukmdorligini tan olib chopar jo‘natadi. Jaloliddin Malikshoh davrida davlat chegaralari Sharqiy Turkistondan O‘rta Yer dengizigacha cho‘zilib ketadi. Bu davrda davlat ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksak darajaga erishadi. Davlatni boshqarishda vazirlarning o‘rni ham nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday vazirlardan biri asli Tusdan bo‘lgan Abu Ali ibn Ali ibn Is’hoq bo‘lib, u deyarli 30 yil davomida (1063-1092) Alp Asrlon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida bo‘lgan . Uning yuksak salohiyati, aql-u zakovatiga yuqori baho berib, sulton Malikshoh vaziriga «Nizomulmulk» («Davlat nizomi, qonun-qoidasi») faxriy taxallusini beradi.

Jaloliddin Malikshoh vafotidan so‘ng hokimiyat uchun kurashlar boshlanib ketadi. Bu kurashlarda Berkiyoruq(1092-1105) g‘olib chiqadi. Shunga qaramasdan Jaloliddin Malikshohning yana bir o‘g‘li Sanjar hokimiyat uchun kurashni davom ettiradi. Saljuqiylar davlati ikki qismga bo‘linib ketadi. Hokimiyat uchun uzoq davom etgan kurashlarda G‘iyosiddin Muhammad I (Muhammad Topar) vafotidan so‘ng Malikshohning kenja o‘g‘li Sanjar, Muiziddin Sanjar nomi bilan 1118-1157-yillarda davlatni boshqaradi. Uning hukmronligi davrida Sharqiy va G‘arbiy hududlar birlashtiriladi.

Muiziddin Sanjar o‘z g‘alabasidan manfaatdor tarzda Mozandaron, Damovand, Qumis, Damg‘on, Ray yerlarini ham egallaydi. Uning hukmdorlik rutbasini Seyiston, Xorazm, G ‘azna, Movarounnahr yerlari ham tan oladi. Sanjarning sultonlik hokimiyatini olishda xorazmshoh Qutbiddin Muhammad (1097-1127) katta ko‘mak ko‘rsatadi. Garchi Sulton Sanjar barcha saljuqiylarning oliy hukmdori sanalib, uning nomi ramziy tarzda xutbada, tangalarda qayd etilsada, lekin Iroq, Kichik Osiyo, Janubiy Kavkazdagina uni rasman tan olishar edi. Sulton Sanjar qo‘lida uzoq vaqt Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G‘azna, Movarounnahr qaram bo‘lib keladi. Sanjarni uzoq hukmronligi davrida o‘z davri kishilik jamiyati, muarrixlar «malik al-mashriq», «buyuk sulton», «sultonlar sultoni», «ulug‘ shahanshoh» nisbatlari bilan ulug‘lashgan. Sulton Sanjar o‘z poytaxti sifatida Marv shahrini tanlagan. [4, - B. 392]

Sulton Sanjar davrida saljuqiylar davlati gullab yashnadi. Uning bosqinchilik yurishi natijasida misli ko‘rilmagan boyliklar o‘zlashtirildi. G‘azna mahf qilinganda gaznaviylar davlatining katta boyliklari qo‘lga kiritildi. Sulton Sanjarning bir qancha muvaffaqiyatli harakatlari saljuqiylar davlatinini qudratini oshirdi. Ammo 1141-yilda Sulton Sanjar ittifoqchisi qoraxoniy Maxmudxonning birlashgan qo‘shini bilan qoraxitoylarga Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lida qarshi chiqib bu jangda mag‘lubiyatga uchraydi. Bu voqeadan so‘ng Sulton Sanjarning siyosiy obro‘yiga putur yetadi. Bundan xorazmshox Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanadi. Bir qancha urinishlardan so‘ng 1153-yilda Sulton Sanjar asir olinadi. 1156-yilda Sulton Sanjar asirlikdan qutiladi. Lekin saljuqiylar davlatini qayta tiklay olmaydi. Sulton Sanjar 1157-yilda vafot etadi, uning vafotidan keyin saljuqiylarning O‘rta Osiyodagi hukmronligi o‘z payoniga yetadi.

Saljuqiylar hukmronligi u yoki bu darajada 1157-yildan - 1194-yiIgacha faqat G ‘arbiy Eron va Iroqda saqlanib qoldi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki, Saljuqiylar davlati qabila tizimidagi ittifoqlardan davlat darajasiga erishdi. Shu davrdagi har qanday siyosiy jarayonlardan mohirona foydalandilar. Dastlabki davrlarda Samoniylar davlatiga ittifoqchi bo‘lib qoraxoniylarga qarshi kurashlar olib borgan bo‘lsalar, keyinchalik qoraxoniylar bilan harbiy ittifoqchilik harakatlarini olib boardilar. Saljuqiylar o‘zlarining eng g‘olibona, muvaffaqiyatli kurashlarini g‘aznaviylarga qarshi olib borib, ilk iqtisodiy –siyosiy birlashgan davlatga asos soladilar. Saljuqiylar Sharqiy Turkistondan O‘rta Yer dengizigacha bo‘lgan hududlarni birlashtirib ulkan davlatga asos soldilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nizomulmulk. “Siyosatnoma” (Siyar ul-muluk). - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008.
2. Cihan Piyadeo‘g‘li. Buyuk Seljuklular. - Istanbul: 2020.
3. Agadjanov S.G. Seldjukidi i turkmeniya v XI-XII vv. - Ashxabod: 1973.
4. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi. 1-kitob. Toshkent: “Donishmand Ziyo”, 2021.
5. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent. “Sharq” 2001.
6. Q.Rajabov, F.Hasanov. O‘zbekiston tarixi solnomasi. - Toshkent: 2007.

SALJUQIYLAR YAQIN SHARQNING SIYOSIY VA DINIY MAQOMINI O‘ZGARTIRGAN IMPERIYA

Ulug‘bek ABDULLAYEV
TDSHU, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Shaxzoda JALOLOVA
TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada 1000-1200 yillar oralig‘ida ya’ni saljuqiylarning islom dunyosiga kirib kelishi va buning natijasida islom jamiyatlarida kuzatilgan tizimli o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu doirada “Sunniy uyg‘onish” tushunchasining o‘zi, Saljuqiylar sulolasining roli hamda ular va boshqa kuchlar tomonidan qo‘llangan siyosiy va diniy strategiyalarni tahlil qilingan. Saljuqiylar o‘zlarining diniy sadoqati va siyosiy boshqaruv tizimi bilan shunday hukmronlik me’yorlarini shakllantirdiki, bu me’yorlar keyingi davrlar mobaynida islom va islomiy boshqaruv tizimiga ta’sir ko‘rsatdi.* ***Tayanch so‘zlar:*** *Buvayhiylar, Movarounnahr, Xorazm, Vizantiya, Bag'dod, Anadolu, Mosul, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, O‘g‘uzlar.*

Аннотация: *Статья охватывает 1000 по 1200 годы и анализирует, как вхождение сельджуков в исламский мир повлияло на структурные изменения в исламских обществах. В данном исследовании рассматриваются концепция «суннитского возрождения», роль династии сельджуков, а также политические и религиозные стратегии, применяемые как сельджуками, так и другими влиятельными силами. Сельджуки, благодаря своей религиозной преданности и системе управления, установили стандарты правления, которые оказывали значительное влияние на ислам и исламское управление на протяжении последующих веков.* ***Ключевые слова:*** *Буиды, Трансоксиана, Хорезм, Византия, Багдад, Анатолия, Мосул, Газневиды, Сельджуки, Огузские тюрки.*

Annotation: *Article on period between 1000 and 1200 CE, analyzing the Seljuqs' entry into the Islamic world and the structural changes that occurred in Islamic societies as a result. In this study, I examine the concept of the "Sunni Revival," the role of the Seljuq dynasty, and the political and religious strategies employed by both the Seljuqs and other influential forces. Seljuqs established governance norms through their religious commitment and political administration, shaping standards of rule that significantly influenced Islam and Islamic governance in the centuries that followed.* ***Keywords:*** *The Buyids, Transoxiana, Khwarezm, Byzantium, Baghdad, Anatolia, Mosul, the Ghaznavids, the Seljuks, the Oghuz Turks.*

Islom tarixida har bir davr o‘ziga xos burilish nuqtasiga ega bo‘lgan. Biroq, Saljuqiylar sahnaga chiqqan XI asr — bu oddiy bir siyosiy o‘zgarish emas, balki islom sivilizatsiyasining taqdiri hal bo‘lgan davr edi. Xalifalik kuchsizlangan, Bag‘dodda shia Buvayhiylar sulolasi hukmronlik qilayotgan, sharqda esa turli mahalliy sulolalar musulmon dunyosini bo‘laklarga bo‘lib tashlagan edi. Aynan shunday bir muhitda Saljuqiylar paydo bo‘ldi va ular nafaqat geosiyosiy xaritani, balki butun musulmon dunyosining mafkuraviy asoslarini qayta shakllantirdi.

Buyuk Saljuqiylar islom tarixining markaziga kirib bordilar. Dastlab Saljuqiylar Xorazm va Movarounnahr sarhadlarida yashagan katta O‘g‘uz qabilasining bir bo‘lagi bo‘lgan. X asrning oxirlariga kelib, o‘z fathlari davomida Xuroson va Movarounnahrni egalladilar, so‘ngra G‘aznaviylarlarni mag‘lubiyatga uchratdilar. 1055-yilda Saljuqiylar Bag‘dodga yurish qilib, Abbosiy xalifasining iltimosiga binoan shia Buvayhiylarini hokimiyatdan chetlatish orqali "sunniy uyg‘onishi" davri tarixini boshladilar [1]. Saljuqiylar sunniylik diniy institutlarni va ayniqsa, ulamolarni

qo‘llab-quvvatladilar, buning natijasida sunniylik misli ko‘rilmagan darajada yuksaklikka erishdi. Shu bilan birga, tasavvuf nomi bilan tanilgan zohidlik harakati ham yanada keng tarqalib, jamiyat tomonidan sekin-asta qabul qilina boshladi. Siyosiy yutuqlar nuqtayi nazaridan Saljuqiylar Anadolining katta qismini muvaffaqiyatli zabt etgan ilk musulmon sulolasi bo‘ldi. Aynan shu hodisa keyingi asrlarda Sharqiy Rim imperiyasini (Vizantiyani) tor-mor qilish uchun yangi yo‘l ochdi. Saljuqiylarning musulmon dunyosiga kirib kelishi natijasida yuz bergan siyosiy va diniy transformatsiya haqiqatan ham bir inqilob edi. Biroq Saljuqiylar joriy qilgan yangi siyosiy tizimlar, masalan, otaliqlik (atabeg) instituti hamda davlat hokimiyatining butun sulola a’zolari o‘rtasida taqsimlanishi uzoq muddatli istiqbolda Saljuqiylar davlatining mustahkamligi va birligini zaiflashishiga olib keldi [2]. Turli tarixchilar asarlariga nazar tashlaganda, bu diniy va siyosiy o‘zgarishlar munozarali masala ekani ayon bo‘ladi.

Saljuqiylarning Bag‘dodga kirishi faqat siyosiy o‘zgarish emas edi, balki islomning o‘zagi bo‘lmish xalifalikni qayta tiklash urinishining bir qismi edi [3]. Sunniy islomning kuchayishi bejiz emas edi. Saljuqiylarning diniy siyosati tasodifiy bir hodisa emas, balki islomning omon qolishi uchun zarurat edi. Buvayhiylar boshchiligidagi shia mafkurasi Bag‘dodda an’anaviy sunniy ilmlarini siqib chiqarar, xalifalik quruq bir nominal institutga aylanib borardi. Saljuqiylar esa Buvayhiylarni taxtdan ag‘darib, Abbosiy xalifaligini ramziy bo‘lsa ham qayta jonlantirdi. Lekin bu faqat tashqi bir g‘alaba emas, balki islom tafakkuridagi fundamental o‘zgarishning boshlanishi edi.

XI asrning o‘rtalarida Saljuqiylarning Islom hududida paydo bo‘lishi ko‘pincha “sunniylikning qayta tiklanishi” davri sifatida tilga olinadi. Chunki ular X asrdan buyon Bag‘dodda hukmronlik qilgan shia Buvayhiylar sulolasini ag‘darishga muvaffaq bo‘ldilar. Biroq, ba’zi tarixchilar sunniylikning jonlanishi faqat Saljuqiylarning kelishi bilan bog‘liq emasligini ta’kidlaydilar. Aksincha, bu jarayon Buvayhiylar davridayoq, ya’ni X asr oxirida boshlanib ketgan edi. Bu davrda xalifalar diniy va siyosiy sohada o‘z mavqeyini mustahkamlashga harakat qilib, Hanbaliy mazhabi bilan yaqin hamkorlik qilish orqali o‘z hokimiyatini tiklashga intilgan edilar. Masalan, xalifa Al-Qodir (991–1031) va uning vorisi Al-Qoim allaqachon "Qodiriy-Qoim aqidasi" deb nomlangan hujjatni e’lon qilib, xalifaning sunniylikni himoya qilishdagi markaziy rolini belgilab bergan edilar [4]. Shunga qaramay, xalifalar mustaqil harbiy kuch va yetarli moliyaviy resurslarga ega emas edilar. Shu sababli, Buvayhiylar sulolasini butunlay yo‘q qilish va sunniylikni to‘liq qayta tiklash jarayoni o‘nlab yillar, hatto bir necha asr talab qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham kuchli harbiy salohiyatga ega tashqi kuch – Saljuqiylarning aralashuvi shia hukmronligini tugatish va uning o‘rniga sunniylikni tiklashda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Biroq, bu g‘alaba butun Islom olamida sunniylikni tiklashga yetarli emas edi. Saljuqiylarning ta’siri asosan Islom dunyosining sharqiy qismida sezilarli bo‘ldi.

Saljuqiylar g‘arbiy hududlarda, ayniqsa, Misrda ismoiliy Fotimiylar sulolasi hukmronligi ostida bo‘lgan yana bir shia mazhabini yo‘q qilishda anchagina qiyinchilikka duch kelishdi. Agar ismoiliy shia sulolasining ushbu tayanchi saqlanib qolganida, sunniylikni tiklash jarayoni to‘liq yakuniga yetmagan bo‘lar edi.

Saljuqiylar aslida Fotimiylar sulolasini butkul yo‘q qilishga muvaffaq bo‘la olmadilar va ularning yana yuz yil davomida hokimiyatda qolishiga imkon berdilar. Shu bilan birga, Saljuqiylar davridagi sunniy uyg‘onishi radikal ismoiliylar — Hashshoshiylar (Assassins)ni keskin choralar ko‘rishga majbur qildi. 1090-yilda ushbu guruhning forsiy yetakchisi Hasan as-Sabboh Shimoliy Erondagi Alamut qal’asini egallab, uni o‘zining terroristik lageriga aylantirdi [5]. Ushbu lagerning asosiy maqsadi asosiy dushmanlarini yo‘q qilish edi va ular tomonidan amalga oshirilgan dastlabki suiqasdlardan biri Saljuqiy sultonlariga uzoq yillar maslahatchilik qilgan Nizom al-Mulkning o‘ldirilishi bo‘ldi. 1092-yilda Nizom al-Mulk suiqasd natijasida halok bo‘lishi, keyingi Saljuqiy sultonlarining qattiqqo‘l siyosatlarini biroz yumshatishiga olib keldi, hatto XII asrda ba’zi shialarning yuqori davlat lavozimlarida ishlashiga ruxsat berdilar. Bu holat Saljuqiylarning Misrdagi shia sulolasiga qarshi kurashi, ayniqsa harbiy jihatdan, muvaffaqiyatsiz bo‘lganini ko‘rsatadi. Diniy nuqtayi nazardan esa Saljuqiylar bir qancha muhim yutuqlarga erishdilar.

Saljuqiylar ham sunniy islomning himoyachilari sifatida tan olingan, chunki ular sunniy diniy muassasalar va olimlarga homiylik qilish siyosatini olib borgan [6]. Saljuqiylar davrida madrasalarning tashkil etilishi sunniylikni targ‘ib qilish va shia ta’limotining ta’siriga qarshi kurashish uchun strategik qadam bo‘lgan. Ushbu muassasalar diniy va ilmiy ta’lim markazlariga aylangan bo‘lib, Saljuqiylar tomonidan sunniylikni qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu homiylik madrasalar tashkil etishda yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lib, Nizom al-Mulk tomonidan asos solingan eng mashhur madrasa Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi va Eronning, ayniqsa, Nishopur shahridagi boshqa madrasalar bunga misol bo‘la oladi [7]. Safining fikricha, ushbu madrasaning bunyod etilishidan ko‘zlangan maqsad Qohirada 970-yilda Ismoiliylarga tegishli Al-Azhar ta’lim muassasalariga qarshi turish bo‘lgan [8]. Saljuqiylar davrida Nizomiya madrasasi mamlakat miqyosidagi davlat ta’lim tizimiga aylangan. Bu muassasaning yana bir maqsadi Saljuqiylar hukmronligining dastlabki yillarida yuzaga kelgan sunniy huquqiy maktablar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish bo‘lgan. O‘sha davrda sulton To‘g‘rul va uning vaziri Nizom al-Mulk faqat hanafiy mazhabini qo‘llab-quvvatlab, ko‘plab shofi’iy-ash’ariy olimlarni surgun qilishgan edi. XII asrga kelib esa to‘rtta sunniy mazhab birlashtirilib, yakdillikka erishilgan [9]. Bu davrda ulamolar ham muhim rol o‘ynagan. Aynan ulamolar Saljuqiylarning harbiy elitasini mahalliy aholi bilan bog‘lab turuvchi yagona fuqaro elitasi edi. Shunday qilib, ta’lim muassasalari va ulamolar Saljuqiylar hukmronligini qonuniylashtirish, mahalliy aholining sadoqatini mustahkamlash, sunniy huquqiy maktablar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish va Misrdagi Ismoiliy ta’limotiga qarshi turishda asosiy vositalarga aylangan.

Madrasalar bilan bir qatorda xonaqohlar ham Saljuqiylar davlatida tasavvufni qo‘llab-quvvatlashning muhim institutiga aylangan [10]. Saljuqiylardan avval tasavvuf musulmon jamiyatining chekka qatlamlarida mavjud bo‘lib, u kichik doiralarda amaliyot qilingan, ustoz va shogirdlar masjidlarda yoki shaxsiy uylarida uchrashib, ilm o‘rganishgan. Biroq, xonaqohlarning keng tarqalishi va tasavvufning madrasalar tizimiga kiritilishi tasavvufning rasmiy e’tirof etilganligini va islomiy muhitda to‘liq qabul qilinganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, sufiylar hukmdorlar va nufuzli shaxslarning himoyasiga osonlik bilan erisha olganlar. Ularning eng yirik

homiysi Nizom al-Mulk bo‘lib, u davrning ulug‘ olimlaridan biri Imom al-G‘azzoliyni Bag‘dod va Nishopurdagi Nizomiya madrasalariga katta mudarris sifatida tayinlagan [11]. 1071-yilda Saljuqiylar Vizantiya qo‘shinini mag‘lub etgach, ular Anadoluga sufiy olimlarni olib kelib, ularga maktablar, shifoxonalar va vaqflar ajratganlar. Keyingi asrlarda tasavvuf Usmoniylar jamiyatining ajralmas qismiga aylanganini ko‘rish mumkin. Shu bois, Saljuqiylar sufiy islomini qo‘llab-quvvatlagan, ularni madrasalar va xonaqohlar orqali islomiy tizimga integratsiya qilgan va bu orqali diniy hamda siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilganlar [12].

Saljuqiylarning siyosiy muvaffaqiyatlari orasida ularning Anatoliya hududini keng miqyosda zabt etishi va turklarning bu mintaqaga doimiy ravishda joylashuviga zamin yaratgani muhim tarixiy voqealardan biri sifatida baholanadi. Bu jarayon ayniqsa 1071-yilda Mansikert jangida Alp Arslon (1063–1072) boshchiligidagi Saljuqiy qo‘shinining Vizantiya imperiyasini halokatli mag‘lubiyatga uchratishi bilan jadallashdi. Ushbu janggacha arab qo‘shinlari Umaviylar davridan boshlab Anatoliyaga bostirib kirishga uringan bo‘lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmagan va Vizantiya tomonidan mag‘lub qilingan edi. Shunday ekan, Mansikertdagi g‘alaba nafaqat Vizantiya harbiy strategiyasining jiddiy zaiflashuvini, balki Islom dunyosining siyosiy va geografik kengayishida burilish nuqtasini anglatdi. Bu bilan Saljuqiylar Sharqiy Rim imperiyasining ichki hududlariga turk-musulmon hukmronligining kirib borishi uchun mustahkam asos yaratdi. Ba’zi tarixchilar Mansikert jangini 1453-yilda Vizantiya imperiyasining Usmoniylar tomonidan butunlay yo‘q qilinishiga olib kelgan jarayonning muhim boshlang‘ich bosqichi sifatida ko‘radilar. Biroq, Mansikert bilan Konstantinopolning qulashi o‘rtasida deyarli to‘rt asrlik farq mavjudligi bu nuqtayi nazarga nisbatan shubha uyg‘otadi. Mansikert g‘alabasi Vizantiya imperiyasining bevosita qulashiga olib kelmagan bo‘lsa-da, u Saljuqiylarning hududiy ekspansiyasi va davlat tuzilmasining mustahkamlanishida fundamental ahamiyat kasb etdi. Shu sababli, bu jangni Sharqiy O‘rta yer dengizi mintaqasida kuchlar muvozanatining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan, uzoq muddatli strategik ta’sirga ega bo‘lgan harbiy-siyosiy voqea sifatida baholash mumkin.

Saljuqiylar musulmon dunyosiga joriy qilgan yangi siyosiy tizimlar, jumladan, hokimiyatning sulola a’zolari o‘rtasida taqsimlanishi va otaliqlik instituti, uzoq muddatli istiqbolda davlat barqarorligiga jiddiy zarar yetkazdi. Ushbu tizim dastlab Buyuk Saljuqiylarning ilk uch qudratli hukmdori davrida siyosiy birlashuvni ta’minladi. Biroq, sulton Malikshoh va uning ta’sirchan vaziri Nizom al-Mulk vafotidan so‘ng, ushbu siyosiy konsolidatsiya aks ta’sir ko‘rsatib, parchalanish jarayonini boshlab berdi. 1092-yilda Malikshohning vafoti taxt vorisligi borasida keskin nizolarga sabab bo‘ldi. Saljuqiy oilasi ichidagi da’vogarlar o‘rtasidagi kurash otaliqlarning mavqeini mustahkamlab, ularning mustaqil sulolalar barpo etishiga imkon yaratdi. Ayniqsa, Mosulda Zangiylar, Eronda Salg‘uriylar va Damashqda Buriylar kabi mahalliy hukmdorliklarning shakllanishi Saljuqiylar siyosiy birlikning izdan chiqayotganidan dalolat edi. Demak, Saljuqiylarning parchalanishi aynan ushbu yangi siyosiy tizimning ichki zaifliklaridan kelib chiqqan edi. Biroq, Saljuqiylarning qudrat yo‘qotishiga faqat bu omil sabab bo‘lmadi. Ularning keyingi yillarda ichki nizolarni hal qila oladigan markaziy boshqaruv vositasidan mahrum bo‘lgani ham

jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Nizom al-Mulk kabi har tomonlama ta’sirchan va siyosiy mahoratga ega vazirning yo‘qligi davlatni boshqarish tizimida bo‘shliq yaratdi. U faqat sulton siyosatiga yo‘l ko‘rsatuvchi maslahatchi emas, balki turli siyosiy kuchlarni birlashtira oladigan arbob sifatida ham muhim rol o‘ynagan edi. Uning o‘rnini bosa oladigan shaxs yo‘qligi esa Saljuqiylarning markazlashuvni saqlab qola olmasligiga sabab bo‘ldi va oxir-oqibat, davlat parchalanishining oldini olish imkonsiz bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, XI asrning o‘rtalaridan boshlab, IX asrdan beri Buvayhiylar sulolasining shia hukmronligi ostida bo‘lgan Iroq va Sharqiy Islom dunyosida sunniylik yana siyosiy va diniy jihatdan birlashdi. 1071-yilda Vizantiya qo‘shinlarining mag‘lubiyati natijasida Anatoliya turk jamoalarining asosiy joylashuv hududiga aylandi va Islom bu yerda ancha kengaydi. Shu bilan birga, Iroq va Eronning turli shaharlarida tashkil etilgan madrasalar va xonaqohlar orqali sunniy ulamolar, huquq maktablari va tasavvuf oqimlari mustahkamlandi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Shubhasiz, bu siyosiy va diniy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi XI asrda Islom dunyosiga kirib kelgan Saljuqiylar edi. Biroq, ushbu o‘zgarishlarning ba’zilari qisqa muddatli bo‘lib, doimiy natija bermadi. Masalan, Misrda shia yo‘nalishidagi Fotimiylar sulolasi XI–XII asrlarda Saljuqiylarning asosiy raqibi sifatida qolishda davom etdi. Bundan tashqari, 1092-yilda sulton Malikshoh va uning vaziri Nizom al-Mulk vafotidan so‘ng, Saljuqiylar davlatida ichki siyosiy barqarorlik yo‘qola boshladi. Islom dunyosida nisbatan qisqa, ya’ni atigi bir asrcha hukmronlik qilgan bu sulola tez orada bo‘linib ketgan mahalliy hokimiyatlar muammosi bilan yuzlashdi. Natijada, Saljuqiylar tashqi bosqinlar va yangi tahdidlarga qarshi samarali qarshilik ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Saljuqiylarning birlashgan hukmronligi musulmon diyorida oz vaqt hukm qilgan bo‘lsa-da, islom olamining abadiyati uchun ulkan burilish yasadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Peacock.A.C.S.The Great Seljuk Empire.- Edinburgh University Press,2015.-378p.
2. Ibn al-Athir. Al-Kamil fi al-Tarikh.-Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya,1995.Transl.D.S.Richards.vol.9.-200 p.
3. Mr.A-nuwa Waesamoh.The main religious and political changes brought about by the arrival of the Seljuks into the Muslim world.- Edinburgh University Press,2015.-7 p.
4. The original 'Assassins': Medieval warriors of Alamut https://www.nationalgeographic.com/history/history-magazine/article/nizari-ismaili-muslim-warriors-medieval-times
5. Niẓām al-Mulk Seljuq vizier. https://www.britannica.com/biography/Nizam-al-Mulk-Seljuq-vizier
6. Feyzullah Dündar.The influence of sectarian tendencies of the seljuk sultans on the relationship between maturidism and ash'arism: a philosophical and historical analysis.- Student, Uşak University, Faculty of Theology, 2024.-20 p.
7. Hüccetü’l-İslâm Ebû Hâmid Muhammed b. Muhammed b. Muhammed b. Ahmed el-Gazzâlî et-Tûsî https://islamansiklopedisi.org.tr/gazzali

8. Hillenbrand, Carole. The Crusades: Islamic Perspectives. Edinburgh: - Edinburgh University Press, 1999.-704 p.
9. The Seljuk Empire. https://www.cappadociahistory.com/post/the-seljuk-empire
10. Omid Safi.The Politics of Knowledge in Premodern Islam: Negotiating Ideology and Religious Inquiry.-University of North Carolina Press, 2006.-358 p.
11. Peacock. A.C.S. and Sara Nur Yıldız. The Seljuks of Anatolia: Court and Society in the Medieval Middle East.- I.B. Tauris, 2013.-320 p.

AMIR TEMURNING LOY JANGI BAYONI VA NATIJALARI

Muhammadqodir MURODOV
Oriental unversiteti Tarix fakulteti 201-guruh talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada butun musulmon va turkiy olamida eng katta imperiyalardan birini barpo etgan butun tarqoq chig‘atoy xonlarini mag‘lub qilgan va XIV asr tarixida Movarounnahrda buyuk Temuriylar Imperiyasiga asos solgan Sohibqiron Amir Temurning mag‘lubiyatli jangi ya’ni tarixda “Loy jangi” deb nom olgan shavqatsiz jangi haqida so‘z yuritiladi.**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Amir Husayin, Ilyosxo’ja, Shamsiddin, Mo‘g‘uliston, Yada Toshi, Chirchiq daryosi, Loy jangi, mag‘lubiyat, G‘ulyaa Joku, Sayfuddin, Murod, Abbos Bahodir.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается жестокая битва Сахибкирана Амира Темура, известная в истории как «Битва в грязи», в ходе которой он разгромил всех разрозненных Чигатайских ханов и основал в Трансоксании великую Империю Тимуридов в XIV веке, создав одну из крупнейших империй во всем мусульманском и тюркском мире.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур, Амир Хусейн, Ильяс Ходжа, Шамсиддин, Монголия, Камень Яда, река Чирчик, битва при Лое, поражение, Гуляа Джоку, Сайфуддин, Мурад, Аббас Бахадир.*

Annotation: *This article discusses the defeat of Amir Temur, who defeated all the scattered Chigatai khans and founded the great Timurid Empire in Transoxiana in the 14th century, the brutal battle known in history as the “Battle of Mud”.* ***Keywords:*** *Amir Temur, Amir Husayn, Ilyas Khoja, Shamsiddin, Mongolia, Yada Tashi, Chirchik River, Battle of Mud, defeat, Gulyaa Joku, Sayfuddin, Murad, Abbas Bahadir.*

Tarix sahifalarida o‘zining dono siyosati, buyuk harbiy yurishlari va adolatli boshqaruvi bilan nom qoldirgan Amir Temur nafaqat sarkarda, balki kuchli iroda va qat’iyat egasi bo‘lgan inson edi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hayoti va faoliyati davomida ko‘plab tarixiy voqealarga va muhim janglarga duch kelgan. Uning faoliyat davrining dastlabki bosqichi turli qiziqarli voqealarga boy bo‘lgan. Shunday tarixiy voqealardan bir bu Amir Temurning loy jangi voqeasidir. Loy jangi orqali Temurning kelajakdagi buyuk sarkarda sifatida shakllanishi va uning tengdoshlari orasida qanday ajralib chiqqani haqida chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo‘lamiz.

Barchamizga ma’lumki XIV asrning ikkinchi yarmi Movarounnahrda siyosiy beqarorlik davri edi. Mo‘g‘ul hukmdorlarining zaiflashuvi natijasida vujudga kelgan bo‘shliqdan foydalanishga intilgan ko‘plab amirlar o‘zaro kurash olib borayotgan edi. Mo‘g‘ullar hukmdori Tug‘luq Temur katta siyosiy maydonga endigina kirib kelayotgan yosh Amir Temurni Kesh viloyatining dorug‘asi (hokimi) etib belgilaydi. Amir Temur aholi tinchligini va kuchlar notengligini hisobga olib Tug‘luq Temur

xizmatiga o‘tgandi, biroq biroz o‘tib u va Tug‘luq Temurning o‘g‘li Ilyosxo‘ja o‘rtasida kelishmovchiliklar boshlanadi. Amir Temur dastlab Amir Husayn bilan ittifoq tuzgan bo‘lsa-da, ularning o‘rtasida hokimiyat uchun kurash boshlangan edi. Amir Temur va Amir Husaynning Jeta (Mog‘ulariga) qarshi kurashi 1361-yildan boshlanib 3-yil davom etgan janglardan so‘ng, nihoyat 1364-yil oxirida ularni Movarounnahr hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. Loy jangi – bu kurashning hal qiluvchi bosqichiga aylangan. 1365-yilning bahorida chig‘atoy bosh hoqoni dabdabali va hashamatli saf tortib, turli uluslar anjumaniga yo‘l oldi va Ilyosxo‘ja behisob makr-hiylaga boy lashkar bilan Chig‘atoy el-ulusi tomon yurish qiladi. Bu habar oliy martabali Sohibqiron qulog‘iga yetib kelgach u Amir Husaynni ogohlantirdi. Bu ikki amir sovut, nayza va kamon o‘qi bilan taminlangan sipoh yig‘ib yurgan edi. Endi esa zafaryor bayrog‘ini yov tomon burdi va Sirdaryodan o‘tib mustahkam joyga kapa va chodir tikdi. [1-B. 50].

U tomondan esa Ilyosxo‘ja yetib kelib, Bodom suvi qirg‘og‘ini lashkargoh qildi. Amir Husayn esa Amir Temur bilan birgalikda oldinga yurib yovga yaqinlashgach, shavkatli qo’shin joniga oro berish bilan shug‘ullandi. Qo‘shin tarkibini saralab eng yaxshi jangchilarini to‘playdi. Amir Joku, Amir Sayfuddin, Amir Murod, va Abbos Bahodir va o‘zi ishongan bir necha jangchilarini markaziy qismga joylashtirib Amir Husayn esa jang paytida lashkari bilan Isfandiyordan oldin barong‘orda turadigan bo‘ldi. Amir Temur esa jangovar siphoning kata qismi bilan Javong‘orda iqtidorli bayrog‘ni baland ko‘tardi. Amir Husayn Maymana va Maysaraning har tarafiga eng yaqin amirlar va bahodirlardan guruh tuzib avvalgi qatorga tayin etib belgiladi. U tomondan esa Ilyosxo‘ja ham Jeta (Mog‘ul) lashkarini tayyorlab, urush maydoniga shoshildi. Ikki qo‘shin hozirgi Toshkent va Chinoz orasidagi Chirchiq daryosi bo‘yida to‘qnash keladi. 1365-yilning 22-may kuni jang boshlanadi. Amir Temur va Amir Husayn birlashgan kuchlari son jihatdan Ilyosxo‘ja qo‘shinidan kop edi.

Ushbu jangda Amir Temurga sarkardalar O‘ljaytu, Qutlush Salonchi orlot, Po‘lat-Bug‘u va Malik bahodirlar yordam beradi. 22-may kuni ertalab ikkala qo‘shin bir-biriga qarshi saf tortadi. Amir Temur Qutlush Salonchi orlotga dushman chap qanotiga zarba berishni buyuradi. Ammo Salonchi orlot amir Shamsiddin boshliq mo‘g‘ul kuchlaridan yengilib ortga chekinadi. [1-B. 51]. Amir Shamsiddin hujumni davom ettirib Amir Husayn qanotiga zarba beradi, Amir Husayn lashkari qarshilik ko‘rsatolmasdan chekina boshlaydi. Voqealar rivojini kuzatib turgan Amir Temur o‘zi amir Shamsiddinga qarshi yuradi va uni chekinishga majbur qiladi. Tobon Bahodir, Malik va Hamdariyni bir-birining orqasidan yuborib, yanada jiddiy jasorat ko‘rsatish zarur, yovning toqatini toq qilib, uni chorasiz qoldirish uchun o‘zaro maslahat va kelishgan holda maydonga kirgan ma’qul, Alloh inoyati bilan zafar va g‘alaba bayrog‘ini baland ko‘taramiz degan habarni beradi. [1-B. 52]

Amir Husayn esa o‘sha asnoda yaxshi ammalarni qora fel-atvorga almashtirgan edi. Jahongir Sohibqiron yuborgan kishilarni butunlay qo‘pollik bilan orqaga qaytarib yuboradi. Binobarin Amir Temur hafa bo‘lib jang maydonida parvosizlik xatosiga yo‘l qoyadi. Agarda Amir Husayn Amir Temur taklif etgan fikrga qo‘shilganda balkim jang taqdiri oldinroq hal etilgan bolishi mumkin edi. Tarixchilarning fikricha, kalandimoq Amir Husayn Amir Temur unga buyruq berib, o‘zining ustunligini o‘rnatmoqchi deb o‘ylab, yordamni paysalga solgan ekan. Qolaversa amir dushman

hujumidan qo‘rqib ham qolgandi. Amir Husayn qo‘shini hujumga o‘tmayotganini ko‘rgan Amir Temur noiloj chekinishga majbur bo‘ladi. Ilyosxo‘ja askarlari ham chekinib, qayta tartibga keltiriladi. Kechga kelib Amir Husayn qo‘shini Amir Temur qo‘shiniga kelib qo‘shildi. Biroq qulay vaziyat boy berilgandi. Ertasi kuni esa hal qiluvchi jang boshlanadi. Ertalab yana har ikki guruh safga tizilib o‘q kamon, qilich va nayzani qo‘lga olishdi. Bu kuni birinchi bo‘lib hujumdan mag‘lub bo‘lgan sipoh, ya’ni Shamsiddin o’z lashkari bilan jang maydoniga yetib keldi. [2-B. 38]

Tarixchi Xondamirning “Habib-us-siyar” asarida keltirilishicha Jeta (Mog‘ul) sardorlari bu kuchli qoshinga kuchi yetmasligini bilib makr-hiyla ishlatib Shomoniylarning yada toshi amalini qo‘ladilar. Birpasda jang maydoni osmonida bulut ko‘zidan shunday yosh quyilib pastga ravona bo‘ldiki, go‘yo havo javhari suvga aylanib birdan yomg‘ir yog‘a boshladi. Natijada jang maydoni loylanib, Amir Temur va Amir Husayn qo‘shini mushkul ahvolda qoladi, kiyim-kechak, qurol-yarog‘lar shu darajada namiqib ketadiki, otliqning ham, piyodaning ham qimirlashga kuchi yetmaydi (shu bois ham bu jang tarixda loy jangi nomi bilan mashhur).

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida “Bisyor kishi balchiqda qoldi va zabun bo‘lg‘on dushmanlar kuchlanib, murodlari bilan qilich urib, o‘n ming kishi anda talaf bo‘ldi va bu voqea Ramazonning avvalida, torix yetti yuz oltmish oltida, yilon yilda voqi bo‘ldi” deya ushbu jang voqealarini tasvirlagan.

Amir Temur va Amir Husayn kuchlari bilan jang maydoniga orqa ogirib ularning otlari loy va balchiqqa tiqilib qoldi. Ilyosxo‘ja lashkari esa kigiz yopinib, o‘zlarini yomg‘irdan pana qiladilar. Yomg‘ir selidan dushmanning maqsadi amalga oshgach, boshlaridan kigizlarini olib tashlab, qilichlarini qinidan chiqarib dushman ustiga tashlandilar. [1-B. 52] Shunday qattiq yomg‘irga qaramasdan Amir Temur Ilyosxo‘ja qo‘shiniga zarba berib, ularni chekinishga majbur qiladi. Chekinayotgan dushmanni taqib qilayotib ular mo‘g‘ullar qo‘mondoni amir Shamsiddin pistirmasiga tushib qoladi. Amir Temur unga qarshi mingta otliqni jo‘natadi, ammo son jihatdan ustun bo‘lgan amir Shamsiddin kuchlari ularni mag‘lub etdi. [3-B. 31] Bu orada chekinayotgan Ilyosxo‘ja ham qo‘shinlarini tartibga keltirib, qarshi hujumga qarab otlandi. Shiddatli jang kechgacha davom etib Amir Temur va Amir Husaynning mag‘lubiyati bilan tugaydi. Amirlar Samarqand va Shahrisabz tevaragiga shoshildilar. Amir Husayn to‘xtamasdan Balx tomonga o‘tib ketdi va o‘sha yerni manzilgoh etib belgiladi. Amir Sohibqiron esa ba’zi ishlarni amalga oshirish umidida bur necha kun suvdan o‘tmadi. [4-B. 12]

O‘n ikki qo‘shin tuzib, Temur Xoja O‘g‘lon, Javurchi va Abbosni yetti qo‘shin bilan manglay qilib tayinladi va Samarqand tarafga borishni buyurdi. Shubhasiz saodatmand Sohibqironning ko‘ngliga bir necha kun har-hil kelishish fikrlari keldi. So‘ng suvdan o‘tib Balx xududida istiqomat bayrog‘ini tikdi. [5-B. 15] Temur Xojani esa lashkarga manglay qilib tayinlagan vaqtida sodir qilgan aybi uchun jazoga tortdi. Ilyosxo‘ja esa deyarli qarshiliksiz Xo‘jand va Jizzaxni egallab, Samarqandga qarab yuradi. Biroq bu yerda mo‘g‘ullarni Samarqand sarbadorlari to‘xtatib qoladi. Mo‘g‘ul lashkari otlari orasida o‘lat tarqalib Ilyosxo‘ja Mog‘uliston hududiga qaytib ketishga majbur bo‘ladi. [6-B. 25]

Loy jangi shubhasiz, Amir Husaynning taktik xatosi tufayli boy berilgandi. Birinchi kunning o‘zidayoq Amir Temur bilan birgalikda hujumga o‘tib mo‘g‘ul

lashkarini butunlay tor-mor etish mumkin edi. Undan tashqari mog‘ularning yada toshi amalini qo‘lashi ham ularning ustunligini ta’minladi. Amir Temur qo‘shini bunday usulga qarshi tura olmay chekinishga majbur bo‘ladi. Yuqoridagi sabablar bilan bir qatorda mo‘g‘ullarning tajribali qo‘mondoni amir Shamsiddin harakatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Amir Temurga qaraganda ancha ko‘p janglarni ko‘rgan bu sarkarda jangning yakuniy qismida burilish yasay oldi. Garchi Ilyosxo‘ja boshliq jete (mo‘g‘ul) qo‘shini Movarounnahrdan quvib chiqarilgan bo‘lsada Amir Temur va qaynag‘asi Amir Husayn o’rtasidagi munosabatlar to‘liq uzilib, ular endi dushmanga aylangan edi. Loy jangidan so‘ng Amir Temur 1370-yilda Samarqandda hokimiyatni rasman o‘z qo‘liga oladi. Movarounnahrda to’la Temuriylar davlatiga asos solinadi. Loy jangi Amir Temur harbiy faoliyatining ilk yillarida bolib o‘tgan muhim janglardan biri bo‘ldi. Garchi unda mag‘lub bo‘lgan bo‘lsada, bu voqea uni siyosiy va harbiy jihatdan kuchli amir bo‘lib yetishishiga zamin yaratdi. Ushbu voqea natijasida nafaqat Temurning hokimiyati mustahkamlandi, balki tarixda yangi davr – Temuriylar davri boshlandi. Loy jangi o‘rta asr markaziy osiyo tarixida burilish nuqtasi bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘iyosiddin Ibn Xumomiddin Hondamir. Habib us-siyar fi-axboriy afrodi Bashar. – Toshkent: 2013.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.- Toshkent: 1997.
3. G‘ulomov Y. Amir Temur davlatchilik faoliyati. - Toshkent: 1996.
4. Ko‘zimov O. Amir Temur va Temuriylar. - Toshkent: 2000.
5. Amir Temur davrida Movarounnahr. - Toshkent: 2017.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - O‘zbekiston: 1996.

Oriental universiteti
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Amir Temurning kelini, o’g’li Jahongirning rafiqasi, Jahongir vafotidan so’ng boshqa shahzoda Mironshohning turmush o’rtog’i Xonzoda begim haqida bo’lib, uning hayoti, davlat oldidagi xizmatlari, Amir Temur saroyidagi boshqa malikalardan ajralib turadigan mavqeyi o’z davrining eng muhim ishonchli manbalari asosida yoritilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Xonzoda, so’fi, Habib us-siyar, yeti yillik urush, Mironshoh.*

Аннотация: *Эта статья посвящена Ханзаде бегим, невестке Амира Темура, жене его сына Джахангира и жене другого принца Мироншаха после смерти Джахангира, освещая ее жизнь, государственные заслуги и положение, которое отличало ее от других принцесс при дворе Амира Темура, на основе важнейших достоверных источников своего времени.* ***Ключевые слова:*** *Хонзода, суфи, Хабиб ус-сияр, семилетняя война, Мироншах.*

Annotation: *This article is about Khanzada Begum, daughter-in-law of Amir Timur, wife of his son Jahangir, and wife of another prince Mironshah after Jahangir's death, and her life, services to the state, and position distinguished from other queens in Amir Timur's court are illuminated based on the most important reliable sources of her time.* ***Key words:*** *Khanzada, Sufi, Habib us-siyar, Seven Years’ War, Mironshah.*

Mironshoh Mirzo barcha vaqtini ayshu ishrat, xursandchilik may ichish, ko‘ngil ochish va har xil o‘yinlar bilan o‘tkazar, mamlakat ishlarini tartibga solishdan g‘aflatda edi. Shu asnoda o‘zining muhtaram shar’iy ayoli Xonzodaga tuhmatga xos gaplar aytdi va bu dilbar ayol eridan ranjib, Tabrizdan Samarqandga keldi. Amir Amir Temur Guragon Hindiston yurishidan qaytib Chinor bog‘ida istiqomat qilayotgan paytida saodatli muloqotga muyassar bo‘ldi. Mironshoh Mirzo ruhidagi zaifliklar holatini bayon etib dedi: «Agar shu kunlarda g‘alaba yor sipoh Ozarbayjon mamlakatiga kirib bormasa, shahzoda muxoliflarni taklif etib, ularga himmat ko‘rsatishi ehtimoldan uzoq emas». Shuning uchun fazilatlar sohibi Sohibqiron lashkarlarni to‘plashga farmon berdi va yetti yillik yurishga hukm qildi”.[1, - B.193]

“Ammo shahzodaning dimog’ida halal paydo bo’lg’on uchun doim jogir ichar erdi va nard o’ynar erdi. Bir kun xotuninikim, Xonzoda erdi, yamon so’kub urushti. Xonzoda qahr qilib Samarqand bordi. Sohibqiron Hindustondin qaytib Samarqandda kelib tushdi: arziga etkurdilarkim, Tabriz viloyatida fitnalar paydo bo’lub turur. Bu mahalda Xonzoda Tabrizdin kelib hazratni ko’rdi va shahzodaning ahvolini tamom arz qildi va dedikim: “Agar Sohibqiron aning fikrini qilmasa, ul yaag’iliq qilur. Molikim, hazratqa taalluq erdi, tasarruf qilib, barchani beklariga ulashturdi.

Sohibqiron bu xabarni bilib. Eron sori yana mutavajjih bo’lib yarogig’a mashg’ul bo’ldi”.[2, - B.222]

Sevin beg Xonzoda (1360 — 1411) - Xonzoda nomi bilan ham tanilgan, so‘fiylar sulolasining malikasi, Xorazmning hukmron turk-mo‘g‘ul sulolasi va nikohi orqali Amir Amir Temurning kelini. O‘g‘illari Jahongir va Mironshoh orqali ikki marta Amir Temurga kelin bo‘lgan. Ona tomondan bobosi Jonibek orqali u Chingizxonning bevosita avlodi hisoblanadi.

Xonzoda qo‘ng‘irot qabilasidan bo‘lgan so‘fiylar sulolasi vakili edi. Uning ota-onasi zodagon Oq So‘fi va uning rafiqasi mo‘g‘ul malikasi Shakar begim edi. Xonzoda [3, - B.94] dastlab Sevin beg deb atalgan bo‘lsa-da, o‘zining yanada mashhur laqabini (so‘zma-so‘z "xondan tug‘ilgan" degan ma’noni anglatadi) ona tomondan bobosi Oltin O‘rda xoni, Chingizxon avlodidan bo‘lgan Jonibekka nisbatan olgan.

Butun Chig‘atoy ulusiga da’vo qilgan Amir Amir Temur 1372-yilda so‘fiylar mulkiga bostirib kirdi. Husayn bu hujum tufayli Urganchga chekinishga majbur bo‘ldi, o’sha yerda bir necha kundan keyin vafot etdi. Uning akasi va vorisi Yusuf So‘fi Amir Amir Temurdan sulh so‘rab, Amir Amir Temur Xonzodani o‘g‘li Jahongirga nikohlab berish shartini qo‘ydi. Yusuf rozi bo‘lib, qachon buyruq berilsa, Xonzodani jo‘natishga va’da berdi va shu payt Amir Temur ortga qaytdi.

Ammo otasi Amir Temur tomonidan qatl etilgan Sulton Mahmud Xattaloniy Yusuf So‘fiy huzuriga qochib, uni sulhdan voz kechishga ko‘ndiradi. So‘fiy Kat shahriga hujum qilib, Amir Temuriylar yurtiga hujum boshladi. Amir Temur o‘z poytaxtida qishlagach, bunga javoban katta qo‘shin yig‘ib, Xorazm tomon yo‘l oladi. Qo‘shin yaqinlashgach, Yusuf Amir Temurni tinchlantirishga urinib, sohibqironga elchilar va sovg‘alar yuboradi. Ikkinchisi bosqinni to‘xtatishga rozi bo‘ldi, lekin Xonzodani imkon qadar tezroq nikohga jo‘natishni talab qildi.

1374-yilning bahorida Xonzoda qimmatbaho toshlar, qimmatbaho metallar, ipak kabi sovg‘alarni ko‘tarib, katta yurish bilan Amir Temur poytaxti Samarqandga

yuborildi. Uni choʻrilar va otliq askarlar kuzatib borishdi, oʻzi esa oq tuyaga oʻralib ketayotgan edi[4]. Uni imperator tomonidan yuborilgan, jumladan zodagonlar, sarkardalar, qozilar, sayyidlar va ulamolar hamrohlari kutib oldi. Shahar bayram munosabati bilan bezatilgan, koʻcha-koʻyda yurganidan soʻng, u Jahongirga turmushga chiqdi.

Xonzoda va Jahongir nikoh davrida ikki farzand koʻrgan; Muhammad Sulton Mirzo va Yodigar Sulton Begim. Biroq Jahongir toʻylari oʻtgandan ikki yil oʻtib kasallikdan vafot etdi. Shundan soʻng Amir Temur Xonzodani Jahongirning ukasi Mironshohga 1383-yilda yana turmushga berdi.

Mironshoh Amir Temurning eng qudratli qoʻl ostidagi odamlardan biri boʻlib, otasi Amir Temur tomonidan Ozarbayjon yerlari va butun Shimoliy Fors, jumladan Bagʻdod, Tabriz va Sultaniya shaharlarini boshqarish topshirilgan. Biroq, 1397-yilda ov paytida otdan yiqilib, Mironshoh ruhiy beqarorlikka yoʻliqadi. Shahzodaning xatti-harakati borgan sari oʻzboshimchalik va oʻzini anglay olmaslik boʻlib, tartibsiz xarajatlar, tarixiy obidalarni vayron qilish va Gruziyaga qarshi notoʻgʻri boshqarilmagan harbiy hujumni uyushtirish kabi voqealarni oʻz ichiga oladi.

1399-yilga kelib, Mironshohning xatti-harakati oxir-oqibat Xonzodani uni tashlab, Samarqanddagi Amir Temur saroyiga qochishga majbur qildi. U qaynotasi Mironshohning qilmishlari hamda otasini taxtdan agʻdarish niyati haqida xabar berib, „Agar otasiga sodiq qoʻshinlar tezda Ozarbayjonga tashlamasa, shahzoda isyon koʻtarishi ehtimoldan xoli emas“ deydi. Shuningdek, u Amir Amir Temurga erining qoʻlidan oʻzi koʻrgan yomon munosabatni oshkor qildi. Tarixchi Davlatshohning ta’kidlashicha, Amir Temur Xonzoda oʻzining qonga boʻyalgan kiyimlarini koʻrsatganida koʻz yoshga toʻlgan, ammo bu voqea zamonaviy manbalarda tasdiqlanmagan. Rasmiy tarixda faqat Mironshoh unga qarshi qoʻpol ayblovlar qoʻygani aytiladi, keyinchalik bu ayblovlar ham rad etilgan. Shunga qaramay, Mironshoh qamoqqa olindi va gʻazablangan Xonzoda hech qachon erining oldiga qaytmadi, aksincha Samarqandda saroyda qoldi.

Xonzoda Amir Temuriylar saroyida yuksak mavqeni saqlab qolgan. U Saroy Mulkxonim bilan birga Amir Temurning katta ziyofatlariga taklif etilgan ayollar qatorida tasvirlangan. U shuningdek, oʻzining ziyofatlarini, jumladan, 1405-yilda Kastiliya elchisi Gonsales de Klavixo sharafiga oʻtkazgan. Klavixo oʻsha paytda uni mensimay ta’riflagan boʻlsa-da, u xizmatkorlar Xonzodaga xuddi Amir Temurning qilinadigan muomala qilishlari va uning bayrami qaynotasi oʻtkazgan bayramlarga juda oʻxshashligini ta’kidladi.

1403-yil mart oyida Xonzoda toʻngʻich oʻgʻli Muhammad Sultonning vafoti haqida xabar oladi. Oʻtgan yozda Anqara jangida shahzoda jarohat olgan va undan toʻliq tuzalmagan edi. Xabarlarga koʻra, Xonzoda bu xabarni eshitib, yiqilib qolgan va sochlarini yulib, kiyimlarini va yuzlarini yulib qattiq qaygʻuga tushib qolgan. Sultoniyadagi dafn marosimida qatnashgandan soʻng, u oʻgʻlining jasadini Samarqandda qayta dafn qilish uchun hamrohlik qildi.

Sevin begim Xonzoda 1411-yil noyabr oyida Mashhadda vafot etdi va Imom Rizo ziyoratgohi yoniga dafn etildi.[4, - B.117]

Xonzoda begim Amir Temur saroyida katta malikalar sharafiga muyassar bo'lgan kamdan kam malikalar sarasiga kiradi. Amir Temurning ikki o'g'lining rafiqasi bo'lgan malika hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xondamir. - Habib us-siyar –Toshkent: "O'zbekiston", 2013.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. – Zafarnoma – Toshkent: "Sharq", 1997.
3. Nizomiddin Shomiy. – Zafarnoma – Toshkent: "O'zbekiston", 1996.
4. Jalali Ghulam Reza. مشاهیر مدفون در حرم رضوی (Persian). Mashhad, Iran: Islamic Research Foundation, Astan Quds Razavi, 2008

AMIR TEMURNING VAFOTIDAN SO'NG XALIL SULTONNI TAXTNI EGALLASHI

Gulnoza JALILOVA
Oriental Universiteti Tarix fakulteti
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Murodjon KORABOYEV**
Oriental universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning vafoti, amirlar va haram ahlining shahzodalarga munosabati, shahzoda Xalil Sultonning ota-onasi, Xalil Sulton va Sulton Husaynlarning o`zboshimchaligi, Toshkent amirlarini Xalil Sultonga xiyonati, amirlar Shayx Nuriddin va Shohmalikning siyosati, Xalil Sulton Muhammad Jahongirni taxtga chiqarishi manbalar asosida yoritildi.* ***Kalit so'z:*** *Xonzoda, yeti yillik urush, barong'or, Majolis un-Nafois, Xoja Ismatulloh Buxoriy.*

Аннотация: *В этой статье на основе источников освещаются смерть Амира Темура, отношение эмиров и гарема к принцам, родители принца Халила Султана, произвол Халила Султана и Султана Хусейна, предательство эмиров Ташкента Халилу Султану, политика эмиров Шейха Нуриддина и Шахмалика, восшествие Халила Султана Мухаммада Джахангира на престол.* ***Ключевое слово****: Ханзода, Семилетняя война, Баронгор, Маджалис ун-Нафоис, Ходжа Исматулла Бухари.*

Annotation: *In this article, based on sources, the death of Amir Timur, the attitude of the emirs and the people of the harem towards the princes, the arbitrariness of the parents of Prince Khalil Sultan, Khalil Sultan and Sultan Husayn, the treachery of the emirs of Tashkent to Khalil Sultan, the policy of the emirs Sheikh Nuriddin and Shahmalik, and the ascension of Khalil Sultan Muhammad Jahangir to the throne are highlighted.* ***Keywords:*** *Khanzada, Seven Years' War, Barong'or, Majolis un-Nafois, Khoja Ismatulloh Bukhari.*

Amir Temur 1405-yilda vafot etgach, taxt uchun kurash boshlandi. Bu Temuriylar saltanatining siyisiy hayotiga va taraqqiyotiga katta xavf tug'dirdi. Amir Temur davlatni boshqarishda o'g'illari, nabiralari va yirik amirlarga suyandi. Ular esa Amir Temurning vafotidan so'ng hokimyatdan ko'proq ulush olish maqsadida bir-birlariga raqib bo'lib chiqdilar. Taxt uchun boshlangan bu kurashlarda shahzodalarnig ro'li Temur davridagi mavqeyiga ancha bog'liq bo'lgan. So'zimiz isboti taxtni egallashga muvaffaq bo'lgan shahzoda Xalil Sulton ana shundaylardan biri edi, ya'ni Amir Temurning so'nggi yurishi Xitoyga qaratilgan bo'lib, undagi

qo‘shinning asosiy o‘ng qanoti Xalil sultonning izmida bo‘lib, bu unga taxtni egallashiga katta yordam bergan. Shundan anglashimiz mumkin Xalil Sultonning harbiy sohada mohir bo‘lganligi bilan bobosining hurmatiga erisha olgan edi, buni sabablarini keltirishdan avval bu shahzodaning shaxsiyatiga to‘xtalamiz.

Xalil Sulton kim va u nima sabadan Amir Temur vafotidan so‘ng taxtga davogarlik qildi va uni egallashga muvaffaq bo‘ldi? Xalil Sulton Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzoning o‘g‘illaridan biri. Xalil Sultonning onasi Chingiziy avlodlaridan bo‘lib, taxtni egallashi uchun unda yetarlicha nasabning ulug‘ligi va harbiy mahorati borligiga izoh beramiz. Onasi Xorazmlik Oq so‘fining qizi Suyun Beka bo‘lib, saroyda Xonzodabegim deb ulug‘langan [1, – B.82]. Amir Temur uni katta o‘g‘li Jahongir Mirzo bilan turmush quradi va ulardan Muhammad Sulton tug‘iladi. Jahongir Mirzo kasallik tufayli 20 yoshida (1356-1376) vafot etgach Suyun Bekani Amir Temur uchinchi o‘gli Mironshohga 1383-yilda nikohlab beradi. Va ulardan uch o‘g‘il tug‘iladi. Ulardan biri Xalil Sulton edi. Demak, Xalil Sulton sharafli nasldan bo‘lib oliy taxt uchun munosib edi. Xalil Sulton ibn Mironshoh 1384-yil 13-sentabrda Movorounnahrda tavallud topadi. Yoshligi va tarbiyalanishi Movorounnahrdagi saroyda Bibixonim qo‘lida tarbiya topadi. Saroyda davlat boshqaruvidan tashqari, harbiy sarkardalik ilmini ham yaxshi o‘zlashtirgan, shuningdek, deyarli barcha temuriy shahzodalar singari Xalil Sulton ham she’riyatga ixlosmandlardan bo‘lib, turkiy tilda she’rlar yozgan va devon ham tuzgan. Bu so‘zimizning isboti sifatida Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-Nafois» asarida «Xalil Sulton- xazrat sulton us-salotining voqeasidan so‘ngra Samarqand taxtida saltanat qildi. Zurafo va shuaro majlisida jam bo‘lurlar erdi. Mashhurdurkim, o‘zi she’r aytur erdi. Andoqkim, devoni tarifida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi, ushbu mat’laidan o‘zgakim:

«Ey turki pari paykarimiz, tarki jafo qil Komi dilimiz, la’li ravonbaxsh ravo qil»,

Xalil Sultonnig sheriyatdagi ustozi Xoja Ismatulloh Buxoriy bo‘lib, bu haqidagi ma’lumotni Davlatshoh Samarqandiy o‘zining «Tazkirat ush-shuaro» asarida ma’lumot beradi. Shuningdek ustozining shogirdlaridan biri shoir Mavlono Bisotiy Samarqandiyga ham homiylik ko‘rsatgan. Bisotiyning she’rlari qo‘shiq qilib kuylangani, u Xalil Sultonga g‘oyat maqbul bo‘lgani va unga ming tillo hadya qilgani haqida Davlatshoh Samarqandiyning ushbu asari orqali bilishimiz mumkin.

Xalil Sulton qanday qilib bobosining hurmatiga erishdi? Amir Temurning XIV asr oxiri XV asr boshlaridagi bir qancha yurishlarida qo‘shinning asosiy qismlariga sarkardalik qilishi bu uning harbiy mahoratini aks ettiradi. Bular orasida Amir Temurning Hindistonga yurishi (1399), keyinchalik “Yetti yillik urush” (1399-1404), Usmoniylar hukumdori Boyazid Yildirimga qarshi Anqara jangdida (1402) Sulton Husayn Mirzo, Shohruh Mirzo va Xalil Sultonlar qo‘shinning chap qanotini boshqargan, Xitoyga yurishda esa qo‘shinning o‘ng qanoti topshirilgan edi.

Amir Temurning Hidistonga yurishi qo‘shin orasida sarosimalikni keltirib chiqaradi sababi hindlar janglarida fillardan foydalanishar edi, Amir Temur qo‘shinlari esa hali biror marta fillar bilan jang qilmagan edi. Bu qo‘shinda har kimning turar joyi aniq belgilangan edi. Amir Temurning o‘n ming qilichbozlari, yigirma ming yaxshi qurollangan piyoda askarlari (“Matlai sadayin”da), ba’zi

manbalarda esa qirq ming (“Zafarnomada”) qo‘shini bo‘lgani, Sulton Mahmud va Malluxonning qo‘shinlari esa o‘n ming otliq, yigirma ming piyoda va bir yuz yigirmata fillar bo‘lib, fillarning ustiga bir mergan va ra’dandoz (o‘q otuvchi) o‘tirardi. Temur bu jangga kirishishdan avval katta oyoqqa sanchiladigan temir tikanaklar yasattiradi. Har bir jang oldidan qo‘shinning qismlariga kimlar qayerda turib jang qilishlari belgilab olinadi, bu jangda Pirmuhammad o‘ng qanotdan turib dushmanning chap qanotiga hujum qilishi, chap qanotda esa Xalil Sulton, Sulton Husayn, amir Jahonshoh, G‘iyosiddin Tarxonlar esa dushmanning o‘ng qanotiga hujum qilishi belgilab qo‘yiladi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va Xondamirning ta’kidlashicha askarlarni g‘alaba qilishga ilhomlantirgan o‘n besh yosh bo‘lishiga qaramay Xalil Sulton xaybatli bir filni yiqitgani va uni Amir Temurning oldiga keltirgani bobosini yanada xursand qiladi.

Amir Temurning 1402-yil Anqara jangida ham Xalil Sulton va boshqa amirlar mardonavor qatnashadi. Qo‘shinning barong‘or (o‘ng qanot) qismida Shohruh Mirzo va Xalil Sultonlar boshqarishi, shuningdek boshqa amir va sarkardalardan Amir Sulaymonshoh, Amir Yodgor Anduhdiy, Rustam Tog‘aybug‘o, Sulton Husayn Mirzo bular bilan qanot yanada ko‘payadi. [1, – B.237].

Anqara yurishi tugagach Amir Temur Xitoyga yurish tayyorgarligini Xalil Sultonga topshiradi va o‘zi Turkistonga yetib borib, Oqsulotga joylashadi. [3, – B.395]. Lekin bu jangga juda tez tayyorlanmaganini ko‘rishimiz mumkin, chunki Xalil Sultonni Movorounnarning shimoli-sharqiy hududlaridagi Xitoyga olib boradigan yo‘llar xavfsizligini ta’minlash hamda qo‘shin safarni boshlaganda muammoga duch kelmasligi uchun bu topshiriqni unga yuklaydi. 1404-yilda Amir Temur Samarqandga boradi va u yerda nabiralariga to‘y qiladi va undan so‘ng qurultoy chaqirib unda Xitoyga yurish haqida tashkiliy ishlar bo‘lib ikki yuz ming qo‘shin jalb qilinishiga kelishiladi asosiy o‘ng qanotga Xalil Sulton va chap qanotga esa Husayn Sultonlardan katta umid bog‘layotgandi. Bu esa Xalil Sultonning Amir Temur saroyidagi mavqeyi yuksalib borayotganidan dalolat beradi. Lekin Xalil Sultonning shaxsiy hayotidagi muammolar uning obro‘yiga katta ta’sir qiladi. 1405-yilning fevral oyida Amir Temur O‘trorga kelgach bir hafta hastalikdan so‘ng, sog‘lig‘i yomonlashib vasiyatini e’lon qiladi. “Endi Pir Muhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o‘rnumga qoyimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo‘lgay. Va istiqlol va tamkin bila o‘lturub, mamolik tadbirin va cherik va ra’iyat holidin xabardor bo‘lgay. Sizlar, kerakkim, anga mute‘ bo‘lub, ittifoq bila aning ishiga mashg‘ul bo‘lg‘aysiz, to olam buzulmag‘ay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo‘lmag‘ay. Va necha yillik sa‘yi qilg‘onim zoye‘ bo‘lmag‘ay. Va andoq kerakkim, sizning ittifoqingiz bilib, el yiroqdin hisob olg‘aylar va hech kishiga ul quvvat bo‘lg‘aykim, muxolifat qila olg‘ayl”.[2, – B.296]

Amir Temur vafot etgach, Amir Shohmalik va Shayx Nuriddin hamda haram ahli voqeani Xalil Sulton va Husayn sultonlardan sir tutib, Sohibqironni kasal ekanligi, ular Chukalak mavzesiga yetib kelishlari, Shahzodalar orasida Xalil Sultonning yoshi katta bo‘lgani uchun uni podshoh etib tayinlagan holda Xitoyga yurishni davom ettirishini aytib, zudlik bilan yetib kelishi kerakligi haqida ularga maktub yo‘llaydi. Sarkardalar Xalil Sulton va Husayn Sulton kelmagani sababi taxt davogari bo‘lgan shahzodalarni bir joyga to‘plab nazoratga olishlarini bilar edi. Chunki asosiy o‘ng va

so‘l qanot qo‘shinlari Xalil Sulton va Husayn Sultonda edi, qo‘shinning g‘ulu qismigina Amir Shohmalik va Shayx Nuriddinlarda edi. Xitoy yurishidan so‘ng vasiyat bo‘yicha ish qilishni maslahat qiladi. Shu bilan birgalikda Amir Shohmalik va Shayx Nuriddin hamda haram ahli ularni Xitoy yurishiga safarbar etgani bahonasida Mirzo Shohruhni Samarqandga yetib kelishi va taxtni egallab olishi uchun sharoit yaratishga intilgan. Amir Temur davrida taxt davogari uchun uchta munosib da’vogarlar bo‘lgan: ularning birinchisi harbiy jihatda kuchli lekin shaxsiy hayotidagi muammolar bilan hurmatini yo‘qotgan Xalil Sulton; ikkinchisi Amir Temurning qonuniy valiahdi Pirmuhammad - harbiy mohir sarkarda edi, lekin saroy ahli bilan unchalik yaxshi munosabtda bo‘lmagani, shunday bo‘lsada odatga ko‘ra to‘ng‘ich farzandning o‘g‘li ekanligi; uchinchisi Shohruh Mirzo bo‘lib, uning saroyda ham mavqeyi baland, o‘ylab, kengash bilan maslahatlashib ish ko‘radigan, o‘g‘ir vazmin, mohir sarkarda edi, lekin nasabi jihatidan taxt uchun to‘g‘ri kelmasdi. Lekin shunday bo‘lsada, haram ahli va Amir Temurning eng yaqin amirlari uning vasiyatini bajarishga qasam ichsada taxtni Pirmuhammadga emas Shohruhga topishirishni afzal ko‘rishadi. Amir Temurning jasadini Samarqandga olib borishga yo‘lga chiqadi va qo‘shinning markaziy qismi bo‘lgan Mirzo Ibrohim bayrog‘i ostida olib ketishadi. Sulton Husayn va Xalil Sultonga yana bir bor maktub yozadi. Chukalak mavzesiga yetib kelishlari haqida. Birinchi bo‘lib taxt uchun keskin harakatni Sulton Husayn boshlaydi, u qo‘shinni tarqatib yuborib, ikki ming qo‘shin bilan Samarqand tomon yo‘lga tushadi, bundan xabar topgan Shayx Nuriddin va Shohmalik Xalil Sultonga yana maktub yozib u bilan Aqar yaylovida ko‘rishib, birga maslahat qilib ish qilishi haqida yozadi, lekin o‘zlari ham Samarqandga yo‘l olgan haram ahlini ogoglatirib, o‘zlari ham Samarqand tomon yo‘lga otlanadi. Bu paytda hali ham Toshkentda yurgan Xalil Sultonga o‘ng qanot beklari qasamyod qilishadi. Sababi Sulton Husaynni taxt uchun boshlagan ilk harakati ularni shoshiltirib qo‘ydi. Ular toju-taxt uchun bo‘lgan kurashda tomoshabin bo‘lib qolishdan va bundan ularga manfaat tegmasligni bilib, Xalil Sultonni taxtga munosib deb, o‘zlari hokimyatdan yuqori o‘rinlarni egallashni maqsad qilishadi. Sulton Husayn Amir Temurning qizi O‘gi begimnong o‘g‘li bo‘lishi va taxtni egallashi hamda haram ahli unga bo‘ysunishiga unchalik ishonishmaydi. Shohmalik va Shayx Nuriddinlarning qo‘llagan shahzodaning taxtni egallashi tabiiy deb bilgan va bundan ularda hech qanday o‘zgarish bo‘lmasligini tahmin qilgan. Shuningdek 1402-yildan beri Toshkentda turgan amirlarning ko‘pi Xalil Sulton bilan birga edi, ular orasida Xudoydod Husayniy, Amir Saodat Temurtosh kabi beklar bor edi. Bundan xabar topgan Shayx Nuriddin va Shohmalik Toshkent beklariga alohida maktub yozib, taxt vorisi Pirmuhammad ekanligi va vasiyat bo‘yicha ish qilishlarini aytadi.

Bu maktubdan so‘ng Xalil Sulton va beklar Pirmuhammadga yangi ahdnoma yozib uni Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ta’sirida bo‘lgan amir Burunduqdan emas, balki Xalil Sultonning yonidagi Atalmish olib borishini aytgan, bu ish bajariladi maktub avval Shayx Nuriddin va Shohmalikka ko‘rsatilib, keyin Pirmuhammadga yetkaziladi, bundan Xalil Sulton amirlarga ishonmasligidan emas balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri Pirmuhammad bilan aloqa bog‘lab uning saroyidagi vaziyatdan to‘liq xabardor bo‘lishga intilgan edi. Shunday qilib Xalil Sulton taxt uchun jiddiy kurashni boshlaydi. U dastlab Toshkent va Sayramda turgan zahiradagi barcha ot, xachir va

tuyalarni, shuningdek, mablag‘ va qurol-yarog‘larni o‘zi bilan hamfikr bo‘lgan bek va navkarlarga tarqatadi. Lekin amirlar orasida unga qarshi til biriktirib, Amir Burunduqni Shohmalik va Shayx Nuriddinlar oldiga borib qo‘shilishi, Xudoydod Husayni va Shamsuddin Abbos esa o‘z askarlari bilan ochiq Farkat mavzesida turib vaziyatga qarab ish tutishni kelishadi. Amir Burunduq, Rustam Tag‘ay Bug‘a, Abdulkarim Hoji Sayfuddin o‘z askarlari bilan Sirdaryodan o‘tib, Xalil Sultonning o‘tishiga qarshilik ko‘rsatib ko‘prikni buzib tashlaydi lekin bunga erisha olmaydi. Bu paytda Xalil Sultonning asosiy qo‘shini qaro totorlar va Old Osiyodan keltirilgan harbiy qismalar tashkil etardi, chunki hali movorounnahrlik biror yirik amirlar bilan yaqin aloqa o‘rnatishga ulgurmagan edi. Ularga esa yirik o‘ljalar va’da qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha Xalil Sulton Pirmuhammad nomiga yangi ahdnoma yozgan bir vaqtning o‘zida Samarqand hokimi Arg‘unshoh bilan ham yashirincha o‘zaro bitimga erishganligini aytadi. Shuning uchun yangi ahdnomani tasdiqlagan bo‘lsada, taxtni egallash uchun ochiq harakatni boshlab, Samarqand tomon yurishga jur’at eta olgan. 1405-yil 2-mart kuni haram ahli Samarqandga yetib keladi Samarqand hokimi Arg‘unshoh va Xoja Yusuflar darvoza faqat Pirmuhammad kelishi bilan ochilishini aytadi, shunga qaramay ertasi kuni Shayx Nuriddin ichkariga kirishga harakat qilib uddalay olmaydi va Xalil Sultonning kelayotganini eshitgach haram ahli, shahzodalar Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Ibrohimlar bilan Buxoro tomon yo’lga tushadi. G‘ul amirlari bu vaqtda Pirmuhammadga qo‘shilish o‘rniga Buxoroga yo‘l oladi, buning sababi ikkita edi. Birinchidan Buxoro Samarqandan keying yirik shahar edi, ikkinchidan ular Shohruh Mirzoni qanday yo‘l tutishini kutadi.

Shahzoda Xalil Sulton Samarqandga 18-mart kuni kirib keladi. Xalil Sulton taxtni rasman egallashga jur’at etmagan. Shuning uchun ham vaziyatdan chiqish uchun ham marhum valiahd Muhammad Sultonning o‘g‘li to‘qqiz yoshli Muhammad Jahongirni taxtga o‘tqazadi. Sababi u rasman valiahd bo‘lmagani uchun botina olmagan, ikkinchidan u Amir Temurning xon tayinlash usulini davom ettirib, amalda o‘zi boshqaradi. Uchinchidan, Amir Temur Chig‘atoy ulusining merosxo‘ri sifatida taxtga uning naslidan bo‘lgan Suyurg‘atmishxon va Sulton Mahmudni chiqargan edi. 1402-yil Sulton Mahmudxon vafot etgach xonlik taxtiga hech kim chiqarilmagan. Xalil Sulton Chingizxon avlodlaridan xon chiqarish odatini bekor qilib, taxtga temuriylar sulolasi vakillarini tayinlashni joriy qildi. Uchinchidan, Muhammad Jahongirni taxtga chiqarish orqali valiahd Mirzo Pirmuhammadning va Shohruh Mirzoning taxt uchun kurashini pasaytirishga harakat qilgan. Beshinchidan, 1398-1399-yillarda Mo‘g‘uliston chegaralarida, 1399-1401-yillarda Movorounnahrda valiahd Muhammad Sultonning xizmatida bo‘lgan ko‘pgina amirlar bu vaqtda Movorounnahrda edi, Xalil Sulton taxtga uning o‘g‘li Muhammad Jahongirni chiqarish orqali ularni tinchlantirish va o‘zi tomonga og‘dirib olishni ham o‘ylagan edi. O‘tror hokimi amir Berdibek, Farg‘onada hokimyatni egallab olgan amir Xudoydo Husayniy ham shunday amirlar qatorida bo‘lgan. Hatto 1409-1411-yillarda amir Xudoydod Husayniy va amir shayx Nuriddin boshchiligidagi Movorounnahrda bo‘lib o‘tgan hokimyat uchun kurashda Mirzo Shohruhdan hokimyatni Muhammad Johongirga topshirishni talab qilgani ham bejiz emas. [4, – B.182].

Xalil Sulton ham bobosi kabi davlat boshqaruvida strategiya qila olgan lekin ayol kishining gapi bilan davlatni notog‘ri boshqarish bilan davlat xazinasini keraksiz

insonlarga va narsalarga sarflab, amirlar va shahzodalarning qarshiligiga uchrab oqibat hokimyatdan ketishi afzal bo‘ladi. Shuning uchun Amir Temur oldindan bilganki kelinlarini tanlashda ularning nasabiga alohida e’tibor qaratgan. Temuriylarni buyuk qilgan ham, ularni tanazullga uchrashiga sabab bo‘lgan ayollarni to‘g‘ri tanlash lozim edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xondamir. Habib us-siyar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2013.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. . – Toshkent: “Sharq”, 1997.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1996.
4. Usmonov B. Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi – O‘quv qo‘llanma – Farg‘ona, 2024.

AMIR TEMUR HOKIMIYATGA KELISHIGACHA BO‘LGAN DAVRDA SIYOSIY FAOLIYATNING O‘RGANILISHI

Temurmalik RAXMATOV
Oriental universiteti 1-kurs
Tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur hokimiyatga kelgunga qadar Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat va uning atrofida bo‘lgan shaxslarning qanday yo‘llar bilan hokimiyat uchun kurashlari va mamlakatdagi 1344-1370-yillardagi siyosiy vaziyatdagi qiyinchiliklar, Ozodlik uchun kurashlar va Sohibqironning mamlakat taxti uchun kurashlari o‘zining rolini qanday mustahkamlagani va buning uchun dushmanlar bilan qanday munosabatlar qilgani manbalar orqali qiyoslab o‘rganilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *davlat, xalq, hokimiyat, ulus, xon, amir, dorug‘a, sarbador, mug‘ul, jang, ozodlik, aholi*

Аннотация: *В данной статье исследуется политическая ситуация в Мавераннахре до прихода к власти Амира Темура, борьба различных личностей за власть и трудности политической обстановки в стране в период 1344–1370 годов, а также борьба за свободу и роль Сахибкирана в укреплении своей власти. Также рассмотрены его отношения с врагами на основе сравнительного анализа источников.* ***Ключевые слова:*** *государство, народ, власть, улус, хан, амир, даруга, сарбадар, монгол, битва, свобода, население.*

Annotation: *This article examines the political situation in Mawarannahr before Amir Temur came to power, the ways various figures fought for control, the political challenges between 1344 and 1370, the struggles for freedom, and how Sahibqiran strengthened his role in the struggle for the throne. The study also compares sources to analyze his relations with enemies during this period.* ***Keywords:*** *state, people, power, ulus, khan, amir, darugha, sarbadar, Mongol, battle, freedom, population.*

Amir Temur hokimiyatga kelgunga qadar davlat boshqaruvi haqida so‘z borar ekan, ko‘pincha davlat va xalq o‘rtasida kelishmovchiliklarga katta e’tibor qaratish lozimligini aytib o‘tish lozim. Chunki tadqiqotlarning aksariyati Sohibqironning siyosiy hokimiyatga kelishi muammolari XIV asrning 60-70 yilllarida Movarounnahrdagi siyosiy ahvol, Amir Temurning amir Husayn bilan ittifoqi, sarbadorlar harakatiga Amir Temurning munosabati, Sohibqironning hokimiyatga kelgunga qadar bek va amirlar bilan o‘rtasidagi masalalari haqida o‘rganish bilan bog‘liq. Temuriylar tarixiga oid manbalar asosan Sohibqironning hokimiyatga kelgan

va uning hayoti bilan bog‘liq, lekin uning yoshligi va 1344-1360 yillar ya’ni Amir Qazog‘on qo‘l ostidagi faoliyati haqida ko‘plab hali yechilmagan va tadqiqot olib borilmagan masalalar mavjud.

Qozonxon davrida Movarounnahrda itoatsizlik boshlangan bo‘lib, xon har kuni yuzlab odamlarni oliy jazoga hukm qilgan. A. Ziyo bu ahvolni sharhlar ekan, Chig‘atoy ulusi xonlarining Movarounnahrdagi mavqeyi zaiflashib, mahalliy amirlar ularga o‘z hukmlarini o‘tkazishga va xonlik bilan raqobatlashish qudratiga ega bo‘lgani bois, amir Qazog‘on ulus hukmdori Qozon Sultonxonni jangda yengib qatl etdi, degan fikrni bildirdi. [1, - B. 83] Amir Qazog‘on bilan Qozon Sultonxon o‘rtasida 1345-1346-yili Darayi Zangiyda, 1346-1347-yili Qarshi yonida bo‘lib o‘tgan janglar xususida O.Bo‘riyev, B. Ahmedov tadqiqotlarida ham qayd etilgan. [2,- B. 23] Jangda Amir Qazag‘on g‘alabaga erishadi va Movarounnahrda o’z hokimiyatini o’rnatadi. Bu davrda Chingiziylardan bo’lgan nomigagina xonlik taxtiga o’tkazish tayinlash urf odat bo’lganligi bois, chingiziy O‘qtoyxon naslidan bo’lgan Donishmandchani taxtga o’tkazgan. [3, - B. 43] Amir Qazog‘on vafotidan so’ng mamlakatda boshboshdoqliklar avj ola boshladi, natijada mamlakatni Mug’uliston xoni Tug’luq Temurxon o’z qo’liga olish uchun harbiy harakat boshladi. Bu davrdagi muhim siyosiy voqealardan yana biri Amir Temurning Tug‘luq Temurxon xizmatiga o’tishi bo’lib, uni tarixchilar turlicha baholaganlar. Aksariyat tadqiqotchilar Amir Temurning bu faoliyatini siyosiy tadbir, deb izohlaydilar. Jumladan, B.Ahmedov “Amir Temur mazkur vaziyatda Lo’lining otini sug’oru, aqchasini ol”, [4, - B. 16] degan xalq maqoli qabilida ish tutdi… va dushmanni tashqaridan kuzatgandan ko‘ra, uning ichida bo‘lishni afzal bildi” [5, - B. 20-21] , deb yozadi. A. Muhammadjonov tadqiqotlarida ushbu voqea “aniq reja” deb izohlangan: “Temur amakisining viloyatini qo‘ldan bermaslik maqsadida Tug‘luq Temur ishonchini qozonib, uning xizmatiga o‘tadi va Kesh viloyatiga hokim bo‘lib tayinlanishga muvaffaq bo‘ladi… va bu aholini mug‘ullar tomonidan talon-taroj etishdan himoya qilishning bir yo‘li, ya’ni puxta o‘ylangan reja edi”.
[1, - B. 8]. Ashraf Ahmedov, “Tug‘luq Temurxon Chig‘atoy ulusini qaytadan birlashtirishga qaror qildi va 1360 yil yanvarida Movarounnahrga bostirib kirdi. Xonning qattiqqo‘lligidan qo’‘rqib ketgan Movarounnahr amirlari turli taraflarga qochdilar. Shu vaqtda 24 yoshli Temur birinchi bor o‘zining siyosiy jihatdan yetukligini namoyish qildi: u xalqni va ulusni himoya qilishga otlandi. Uning bu harakati Tug‘luq Temurga yoqib tushdi. U Amir Temurni Qashqadaryo vodiysining dorug‘asi etib tayinladi”, degan fikrni bildirdi. [7, - B. 15-18]

Amir Temur siyosiy sahnada paydo bo‘lishi va uning davlat tuzish uchun harakatga boshlashi uchun hamma narsa tayyor edi. Chunki, mug‘ullar imperiyasi va qo‘shni davlatlar ham endilikdan kuchli emas edi, hamda boshqa davlatdagi ichki kurashlar sabab endilikda ham Islom dunyosi, ham xalqning kelajagi uchun yangi davlatga asos solishga harakat qiladi.

AQShlik tarixchi R. Nelson Amir Temurning Tug‘luq Temurxonning xizmatiga kirishishini “diplomatik siyosat” sifatida baholagan va bu holatga, “Temur katta strategy sezgisiga ega bo‘lgan. U foydali hamkorlik qilishning ahamiyatini yaxshi tushungan va faoliyatining boshlanishida ilg‘or harbiy kuchlar ustidan qo‘mondonlik qilib turgan Tug‘luq Temurxon bilan o‘ta nozik ittifoq tuzadi”.

[8, - B. 32] A.Ziyoning fikricha, “Tug‘luq Temurxon Amir Temurni o‘ziga bunday yaqin olishining sababi, Kesh viloyatining bir tuman, ya’ni o‘n ming lashkarga ega bo‘lganligidadir. Zero, Movarounnahrda o‘z siyosatini mustahkamlashda Tug‘luq Temur uchun bu kuch asqotishi turgan gap edi” [1, - B. 84-86]. Amir Temur siyosat olamida doimo sirli shaxs sifatida gavdalanadi. Sohibqiron dastlab Amir Qazag‘on bilan keyinchalik esa Tug‘luq Temurxon va so‘ngida Amir Xusayn bilan bir safda turdi, lekin ularning hech biriga to‘liq itoat yoki do‘stlik yo‘lini tutmadi va doimo o‘z xalqi va ozodlik g‘oyalari yo‘lidan bordi. Amir Temur hokimiyat uchun kurashlarda Amir Xusayn bilan birlashib u bilan birgalikda kurashlarda ishtirok etdi, lekin Amir Xusayn unga nisbatan xasad va ko‘rolmaslik xislarini tuydi, natijada ular o‘rtasida bo‘linish yuz berdi. Ular orasidagi dushmanlik davri 1365-yil “Loy jangi” dan, amir Xusayn shaxsidagi salbiy jihatlarning jang chog‘ida yanada kuchaygani va mug‘ul qo‘shinlari o‘lkani tark etgach, ochiq namoyon bo‘lgani ta’kidlangan.
[9, - B. 54]

Amir Temurning dastlabki yillardagi siyosiy faoliyati bilan bog‘liq voqealardan yana biri bu Samarqanddagi sarbadorlar harakati masalasidir. Ma’lumki, sovet tarixshunosligida “sarbadorlar” “xalq qahramonlari”, ozodlik harakati vakillari degan xulosa ustuvorlik qilar edi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa bu harakatga bo‘lgan munosabat bir muncha bahslidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida “Sarbadorlar” harakati badiiy adabiyotda adib Muhammad Alining romanida tarixiy faktlarga mos holda yoritilgan. [10, - B. 240] Amir Temur hayoti va faoliyati yaxshi o‘rganilmagan bir sharoitda yozilsa-da, haqqoniy yoritilgan. Romanda bu davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini muallif “taxtsiz mamlakat” deb tasvirlaydi, sarbadorlarni esa zamonning eng ilg‘or kishilari deb hisoblab, ularning maqsadi Al-Farobiy orzu qilgan “fozil jamoa tuzish” edi va shu maqsadda ular boshlarini dorga tikkanlar degan umumiy xulosaga keladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilgan adabiyotlarda bildirilgan quyidagi fikr bahslidir: “Amirlar o‘z boyligini o‘ylab, tahlikali vaziyatda xalqni o‘z ahvoliga tashlab qochib qolgach, Samarqand “knyazlarsiz” mudofaa qilinib, g‘alabaga erishilgach, bir yil davomida boshqaruv quyi va o‘rta tabaqalar respublikasi xarakteridagi adolat podsholigi o‘rnatildi”. [11, - B. 157] Shuningdek, tadqiqotlarda sarbadorlar mahalliy yer va mulk egalariga qarshi ham kurasholib borganlari haqida taxminiy xulosa ham bor [12, - B. 25], ammo jizyani bekor qilingani to‘g‘risida ma’lumotlar berilmaydi. “Amir Temur jahon tarixida” kitobida “Sarbadorlarning peshvolari o‘zlarining shaharni boshqara olmasliklarini ko‘rsatdilar. Aslida tartibsizlikka ularning o‘zi yo‘l qo‘ygan edi” [13, - B. 62] deb, ularning davlatni boshqarishdagi layoqatsizligi alohida ta’kidlangan. Sarbadorlar harakati faqat mug‘ul bosqinchilariga emas, balki mahalliy amaldorlarga ham qarshi qaratilganligi fanda qayd etilgan. Ammo ular amalga oshirgan demokratik tadbirlar xususida aniq fikrga kelinmagan. Tarixchilar Xuroson va Samarqand sarbadorlar harakatining o‘xshash tomonlarini yoritganlar, ammo bular orasidagi farqlarni to‘la qiyosiy tahlil qilmaganlar. Fikrimizcha, farq bu harakatga berilgan bahoda bo‘lsa kerak. Tadqiqotlarda Xuroson sarbadorlari faoliyati xalq harakati sifatida ijobiy baholangan.[14, - B. 363]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1340-1360 yillardagi Movarounnahr siyosiy hayoti, 1360-1370 yillarda Amir Temurning siyosiy faoliyati ham fanda kam o‘rganilgan, voqeliklar ko‘proq axborot shaklida bayon etilgan va tadqiqotlarning aksariyatida mualliflar asosan 1370-yildan keyingi siyosiy voqealiklarga e’tibor berganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ziyo A. Amir Temur va Tug‘luq Temur // Sharqshunoslik. – Toshkent,1996. - № 6.
2. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – B. 72.
3. Ahmedov B., Mukminova R., Pugachenkova G. – Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – Toshkent: O‘zbekiston,1997.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari 1360-1370 / Tarjimon O. Bo‘riyev. Mas’ul moharrir, so‘z boshi muallifi va nashrga tayyorlovchi A. O‘rinboyev – Toshkent: Kamalak, 1994.
5. Ahmedov B. XIV asrda Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat // Amir Temur: shaxsining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining mustaqil O‘zbekiston uchun xizmati. Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium materiallari - Samarqand, 1996.
6. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati . – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.
7. Ahmedov A. Amir Temur shaxsining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatning mustaqil O‘zbekiston uchun ahamiyati. Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium materiallari…
8. Nelson R. Temur harbiy strateg va ulkan siyosatdan sifatida hozirgi davr talqini // Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni . Xalqaro konferensiya tezislari.
9. Muhammad Ali. Sarbadorlar. Tarixiy roman. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyoti – matbaa birlashmasi, 1992.
10. Xidoyatov G. A. Mening jonajon tarixim. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
11. Amir Temur jahon tarixida. – Parij-Toshkent: Sharq, 1996 - B. 45.
12. Karimov Sh, Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

AMIR TEMURNING XORAZMGA YURISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sherzod JURAYEV
Oriental universiteti “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Durdona JAHONGIRQIZI
Oriental universiteti “Tarix” kafedrasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sohibqiron Amir Temur taxtga o‘tirganidan so‘ng Xoramzga qilgan yurishi voqealari, sabablari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Jahongir Mirzo va Xonzodabegim munosabatlari va bu masalada Amir Temurning tutgan yo‘li, Xorazmni o‘z mulki tarkibiga qo‘shib olinishi bayoni manbalar asosida yoritib berishga harakat qilindi. **Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Husayn So‘fi, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, Yusuf So‘fi, Jahongir Mirzo, Xonzodabegim.

Аннотация: В статье рассматриваются события и причины похода Сахибкирана Амира Темура в Хорезм после его восшествия на трон. Также освещаются отношения между Джахонгир Мирзо и Хонзодабегим, а также позиция Амира Темура по этому вопросу. Цель статьи — на основе исторических источников пролить свет на присоединение Хорезма к владениям Амира Темура. **Ключевые слова**: Амир Темур, Хусейн Суфи, Хондамир, Абдураззак Самарканди, Юсуф Суфи, Джахонгир Мирзо, Хонзодабегим.

Abstract: The article discusses the events and reasons behind Sahibqiron Amir Temur’s campaign to Khwarazm after ascending the throne. It also explores the relationship between Jahongir Mirzo and Khonzadabegim, as well as Amir Temur’s stance on this matter. The article aims to shed light on the incorporation of Khwarazm into Amir Temur’s domain based on historical sources. **Keywords**: Amir Temur, Husayn Sufi, Khondamir, Abdurazzaq Samarqandi, Yusuf Sufi, Jahongir Mirzo, Khonzadabegim.

Amir Temur taxtga o‘tirgan vaqtida Xorazm qo‘ng‘irotlardan bo‘lgan Husayn So‘fi tasarrufida edi. Xorazm o‘lkasi 1221-yilda Chingizxon tomonidan zabt etilgach ikki qismga bo’linadi hamda bu o’lkaning bir qismini ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga va yana bir qismi Jo‘jiga beriladi. Shuni alohida ta’kidlashni hohlaymizki bu davrda Xorazm dunyoning eng katta davlatining poytaxti bo’lib O’rta Osiyoda eng yirik shaharlardan biri hisoblangan. Mug‘ullarning 150 yillik hukmronligi davrida xalqning ongida ikki Xorazm ya’ni Chig‘atoy ulusiga kiruvchi va Oltin O’rda tarkibiga kiruvchi Xorazm hududi shakllandi. Husayn so‘fi Xondamir ma’lumoticha 1365-66-yillarda Xorazmni to‘liq egallab oladi. Manbada Amir Temurning hokimiyatga o‘tirishidan 5-6 yil oldin Xorazm viloyatini o‘z tasarrufiga kiritganligi aytiladi. [1-B.79.] Chig‘atoy ulusini tarixan hududlarini tiklashga bo‘lgan da’vo, Xorazmning muhim strategik yo‘lda joylashganligi, Oltin o‘rda shaharlari bilan bog‘lovchi asosiy yo’lda ekanligi, ilm marifat shahri bo‘lganligi Amir Temur kabi davlart qurmoqchi bo’lgan har qanday rahbarni bu viloyatni qaytarib olishga undardi. Amir Temur Samarqandni poytaxt deb e’lon qilib, mamlakatda tinchlik o’rnatgach, asosiy maqsad Chig‘atoy ulusiga tegishli bo’lgan Xorazm viloyatini qaytarib olishga harakat boshlaydi. 1372- 1388-yillar davomida 5 marta Xorazmni qaytarish uchun harbiy yurish qilinadi. Biz ana shu yurishning birinchisi va ikkinchisi bo‘lgan harbiy yurishning ayrim tafsilotlariga e’tibor qaratmoqchimiz. Dastlab Amir Temur Kat va Xivaq shahrini chig‘atoy ulusiga tegishli ekanligini aytib qaytarib berishni suraydi. Bu holat manbada qo’yidagicha keltiriladi: “Tavochi xizmatchisini Husayn So‘fi oldiga yuborib, Kat va Xivaq chig‘atoy ulusiga tegishlidir. Ularni Suyurg‘atmishxon devoniga qaytarib berishing kerak, chunki ikki o‘rtada o‘zaro yakdillik , kelishuv bo‘lishi zarur deb takidlaydi. Husayn So‘fi bu so‘zlarga ahamiyat bermadi va dedi; “Men bu mamlakatni qilich kuchi bilan qo‘lga kiritganman, quruq salom va payg‘om-xabar evaziga hech kimga bermayman”. [1.-b.80] Manbaga e’tibor bersak Amir Temur masalani tinch yo‘l bilan hal qilishga, tarixiy viloyatlarini qaytarib olib, do‘stlik aloqalarini saqlab qolishga intilgan, ammo Husayn So‘fi men bu shaharlarni

qilich kuchi bilan olganman oddiy so‘z evaziga qaytarib bermayman deb javob beradi. Amir Temur bu xabarni eshitib darhol Xorazmga yurish boshlashga qaror qiladi. Ammo ilmli kishilardan mavlono Jamoliddin Keshiy bir odamning kaltabinligi tufayli bir davlatning aholisini parokanda qilib bo‘lmaydi. Unga pand- nasihat zarur deb ruxsat so‘rab Xorazmga jo‘nab ketadi. Husayn So‘fi mavlono Jamoliddin Keshiyning pand nasihatni eshitmaydi va tushinishni hohlamaydi, balki mavlono Jamoliddin Keshiyni zanjirband etadi. Demak Amir Temur Xorazmga dastlab hujum boshlamagan, balki dastlab elchi jo‘natib pand nasihat yo‘li bilan o‘z tarixiy mulkini qaytarishni so‘ragan. Mashhur Temurshunos olim Baxriddin Usmonovning fikricha Xorazmning Amir Temur davlati tarkibiga kirishi Oq O‘rda davlati manfaatlariga zid edi. Amir Temur Oq O‘rda davlati bilan muxolifatda bo‘lib O‘trorda turgan paytda Yusuf So‘fining Buxoroga hujumu tasodif bo‘lmay, garchi manbalarda bu haqida ma’lumot bo‘lmasada Oq O‘rda va Xorazm hukumdorlarining o‘zaro kelishuvi natijasi bo‘lsa kerak. Chunki bundan ikkisi ham manfaatdor edi. Amir Temur yordami bilan dastlab Oq O‘rda keyinchalik butun Jo‘ji ulusi hukmdoriga aylangan To‘xtamish ham shu siyosatni davom ettirgani ham shunga dalildir [3.-b.78]. Husayn So‘fining qo‘pol harakatlari uni harbiy yurishga majbur qilgan. Sovet tarixshunosligida Amir Temurni kallakesar qilib ko‘rsatishga harakat qilib aynan shu yurishga salbiy yondashilgan. Elchisining zanjirband qilinishi va qo‘pol javob Amir Temur oldida harbiy yurishdan boshqa chora qoldirmadi. Xorazmga dastlabki yurish Zafarnoma muallifi ma’lumotiga ko‘ra 773-yil hijriyda ya’ni 1372 yilda boshlangan, Abdurazzoq Samarqandiyning fikriga ko‘ra 774-hijriy yildda ya’ni 1372-1373-yilda boshlanadi.

Xorazmga Temurning askarlari yetib kelgan birinchi kuni Kat shahriga tushadi. Ikkinchi kuni esa Xorazmga qarab yuradilar. Xorazmga yetib borganda Husayin So‘fi bildiki, Amir Temur askarlariga qarshilik qilish uning qo‘lidan kelmaydi. Shuning uchun bir choparini sovg‘a salom bilan Amir Temur huzuriga jo‘natadi va sulh tuzish istagini bildiradi. Bu orada esa Kayxusrav xuttaloniy Amir Temurning kuchayib ketishini hohlamagani uchun riyokorlik munofiqlik bilan Amir Temurga xiyonat qilib, Husayn So‘figa maktub yozib, Samarqandlik qo‘shini Xiva atroflarini talash bilan band, ikkalamiz birlashsak Temur qo‘shinini yutamiz deb xabar beradi. Husayn So‘fi ham darhol qo‘shinini tartibga solib shahardan tashqariga chiqadi. Amir Temur qo‘shini rostan ham Xorazm atrofiga tarqalib ketgan edi. Sohibqiron Xorazimliklarning jasoratini ko‘rib qolgan dovyurak bahodirlari bilan ikki tomon o‘rtasidagi Qovun suvi bo‘yiga shoshildi va suvning o‘tish joyini egallab, xorazmliklarning suvdan o‘tish yulini to‘sib quyadi [2.-b. 423]. Qirg‘in urush olovi alanga oldi va Husayn So‘fi qo‘shini yengildi. G‘am -alam va mag‘lubiyatning zo‘rligidan Husayn So‘fi kasal bo‘lib qoldi, shu ikki-uch kun ichida vafot etadi. Husayn So‘fi o‘limidan keyin ukasi Yusuf So‘fi o‘rinbosar bo‘lib, akasi uchun Sohibqirondan tavba tazaru qilib sulh tuzishini iltimos qilib suraydi. Hazrat Sohibqiron Yusuf So‘fining iltimosini uning ukasi Oq So‘fining tojdor xon qizidan tug‘ilganligi uchun Xonzoda nomi bilan mashhur bo‘lgan Suyun Beka ismli qizini amirzoda Jahongirga berish sharti bilan inobatga olishini bildirdi.Yusuf So‘fi bajarilishi shart bo‘lgan sharafli farmon kuchga kirishi bilan Xonzodani Samarqandga yuborishni minnatdorchilik bilan qabul qiladi. Sohibqiron Samarqand viloyatiga yetib

to‘xtash joyida Kayxusrav Xutaloniyni jazoga hozirladilar. Uning gunohlari isbotlanib o‘ldirildi.Uning o‘g‘li Sulton Maxmud esa Abu Isxoq ibn Xizr Yasuriy roziligi bilan Xorazmga shoshildi va Yusuf So‘fini shunchalik vasvasaga solib yo‘ldan ozdirdiki natijada u hazrat sohibqiron ahdu paymon sahifasiga chiziq chizib, Kat viloyatiga bosqin qildi. Amir Temur Yusuf So‘fi bilan urishishga jazm qilib ko‘p sipoh bilan Xorazm qum biyoboni orqali yo‘lga tushdi.Viloyatga kirib borganda ul viloyat xokimi o‘z qilmishidan pushaymon bulib, elchilar jo‘natib, turli vositalarni ishga solib yana bir marta oliy sohibqironni qasos olish niyatidan qaytardi va tez orada Xonzodani Samarqandga jo‘natishni qabul qildi. Amir Temur guragon poytaxtga qaytib bezatilgan taxtiravon keltirib ularni unashtirdi. Amir Yodgor Mirzo, Amir Dovud va Uzun Uljaytunni Xonzodani olib kelish uchun Xorazmga jo‘natdi. [1.-b.82-83 Ibn Arabshoh Amir Temur ikki yurishda ham Xorazmni ololmagan, birinchi yurishda egallay olmay orqaga qaytadi, lekin ikkinchi yurishda Husan So‘rij ismli savdogarning o‘rtaga tushishi tufayli 200 xachir kumush berish talabi bilan sulh tuzishga Amir Temur rozi bo‘ladi deb ma’lumot beradi. Lekin savdogarning qattiq iltimoslari 50 xachir yuk bo‘ladigan kumushga rozi bo‘lgan. Savdogar Hasan o‘z molidan to‘lovni to‘lagach Amir Temur o‘z qo‘shiniga Xorazmliklarga aziyat yetkazishni man etib, orqaga qaytadi [2.-b. 82-83].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Amir Temurning Xorazmga birinchi yurishi tarixiy chig‘atoy ulusiga tegishli bo‘lgan Xivaq va Katning qaytarib olinishi, Husayn So‘fining jangda yengilib vafot etishi va Yusuf So‘fining taxtga kelishi, Mavlono Keshiyning ozod etilishi, ikki o‘rtada quda-andachilik o‘rnatilshi bilan tugallanadi. Aynan Chingiziylarga taqaluvchi Xonzoda begimni Jahongir Mirzoga so‘ralishi katta tarixiy voqea edi. Amir Temur bobomizning Xonzodaga bunchalik qiziqishi shundan iboratki u bu tadbir orqali uzoq strategik yo‘lni ko‘zlagan edi. Keyinchalik taxt vorisini tanlashda aynan shu malikaning o‘g‘illaridan biri Muhammad Sulton tanlanishi ham Xorazmga dastlab yaxshi munosabatda bo‘lingani ham siyosiy maqsadlar zamirida bo‘lganga o‘xshaydi. Ikkinchi yurishga isyonchi Kayxusravning o‘g‘li Sulton Mahmudning qutqusi bilan Yusuf So‘fining sulhni buzishi, Kat atrofini talashi, Xonzodabegimni Samarqandga yuborishdan bosh tortishi sabab bo‘lgan. Temur bilan jangga jur’at etolmay kechirim so‘rab elchi jo‘natib, Xonzodani kelinlikka berib yuborishga rozi bo‘ladi, hamda 50 xachirga yuk bo‘ladigan kumush to‘lashga majbur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2013. b-1265.

2. Ibn Arabshoh. Sohibqiron Amir Temur tarixi: -Toshkent. Info Capital BOOKS, 2024.

3. Usmonov B.A. O‘zbekiston tarixi. Amir Temur va temuriylar siyosiy tarixi; O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona. 2024, b 300.

TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM

Shohsanam SAFAROVA
Oriental universiteti Tarix mutaxassisligi
2-kurs magistranti
safarovashohsanam133@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Temuriylar davrida ilm-fan, ta’lim tizimi, madrasalar faoliyati, kutubxonalar, ilmiy markazlar va Temuriy malikalarning ilm-fan, ta’lim rivojlanishiga qo‘shgan hissa haqida fikr yuritiladi. Temuriylar davridagi ta’lim tizimi zamonaviy ta’lim tizimi bilan bog‘lab tahlil qilinadi.* ***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, madrasa, ilm, Samarqand, fanlar, Temuriylar, kutubxona, Mirzo Ulug‘bek, kitoblar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются развитие науки, образовательной системы, деятельность медресе, библиотеки, научные центры и вклад темуридских женщин в развитие науки и образования в период Темуридов. Образовательная система в период Темуридов анализируется в связи с современной системой образования.* ***Ключевые слова:*** *образование, медресе, наука, Самарканд, науки, Темуриды, библиотека, Мирзо Улугбек, книги.*

Abstract: *The article discusses the development of science, the education system, the activities of madrasas, libraries, scientific centers, and the contribution of Timurids women to the development of science and education during the Timurid period. The education system of the Timurid period is analyzed in comparison with the modern education system.* ***Keywords:*** *education, madrasa, science, Samarkand, sciences, Timurids, library, Mirzo Ulugbek, books.*

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) O‘rta Osiyo ilm-fan va madaniyatining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan davri bo‘lib, ta’lim va ilmiy taraqqiyotning keng qamrovli rivojlanishiga zamin yaratdi. Amir Temur ilm-fanni davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rgan va olimlar, shoirlar, tarixchilar hamda san’at ahli uchun qulay sharoit yaratgan. Uning vorislari – xususan, Shohrux, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro – bu an’anani davom ettirib, Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarni ilmiy markazlarga aylantirdilar. Temuriylar davrida birgina Samarqand shahrining o‘zida 30 dan ziyod madrasa foliyat ko‘rsatgani fikrimizga isbot bo‘la oladi. Madrasalar boshlang‘ich va oliy darajada tashkil etilgan. “Madrasalarda dastlabki bosqichda diniy fanlar, keyinchalik mantiq, matematika, falakiyot o‘qitilgan. O‘quv muddati ba’zida 15 yilgacha cho‘zilgan”. [1, - B.50] Boshlang‘ich ta’limda bolalar, asosan, arab alifbosi, xattotlik, Qur’oni karim va islomiy ilmlarni o‘rganganlar. Madrasalarda chuqur bilim berilib, u yerda fiqh, tafsir, falsafa, adabiyot, tarix, astronomiya va tibbiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Ulug‘bek tomonidan tashkil etilgan Samarqand madrasasi ilm-fanning eng ilg‘or markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda o‘z davrining mashhur olimlari, jumladan, Ali Qushchi faoliyat yuritgan. “Ulug‘bek madrasasi nafaqat diniy, balki matematik, astronomik fanlar ham o‘qitilgan yirik ilmiy markaz edi”. [2, - B.132] Madrasada faqat mahalliy aholi ta’lim olmasdan, boshqa davlatlardan – Eron, Yaqin Sharq hamda Hindistondan ham kelib ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi xususan, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholangan bo‘lib, u o‘z davrida eng aniq astronomik jadvallardan biri hisoblangan. Mazkur “Zij” – astronomik jadvallaridan Sorbonna universitetida XVII asrgacha foydalanilgan.

G‘arbda bu asar “Ulugbeg’s tables” nomi bilan mashbur bo‘lib, Sorbonna universiteti kutubxonasida qimmatli nusxa sifatida hozirgacha saqlanadi. [3] Ushbu ilmiy meros keyingi asrlarda Yevropa va Sharq ilm-fanining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida esa Hirot madaniy va ilmiy markaz sifatida ajralib turdi. Husayn Boyqaro ilm-fanga alohida e’tibor qaratib, madrasa va kutubxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan. Alisher Navoiy o‘zining “Xamsa” asari orqali nafaqat adabiyotni, balki tilshunoslik va tarixshunoslikni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shdi. Abdurahmon Jomiy esa tasavvuf, falsafa va adabiyot bo‘yicha chuqur ilmiy asarlar yaratib, Sharq mutafakkirlari orasida katta obro‘ qozondi. Temuriylar davridagi ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlaridan biri – davlat tomonidan ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash edi. Kutubxonalar tashkil etilib, qo‘lyozmalar nusxalanib, olimlar va shoirlarga moddiy yordam ko‘rsatilgan. “Temuriylar kutubxonalaridagi kitoblarning 60% ilmiy fanlarga, qolgan qismi esa tarix, adabiyot, fiqh kabi sohalarga oid bo‘lgan”. [4, - B. 44] Shuningdek kutubxonalardan 40 ga yaqin kotiblar, muhaqqaqlar olib borib kutubxonadagi mavjud manbalar ustida ish olib borishgan. Samarqand va Hirotdagi kutubxonalar Sharq dunyosidagi eng boy ilmiy markazlar bo‘lib, bu yerda minglab qo‘lyozma asarlar jamlangan edi. Birgina misol qilib, Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand kutubxonasida 15 mingdan ziyod kitoblar jamlangan edi. [5, - B. 89] Mazkur manbalarning ko‘pchiligi qimmatli va asl manbalar bo‘lgan. Bunday ilmiy muhit yosh olimlarning yetishib chiqishiga imkon yaratgan. Temuriylar davrida ayollar ham ilm – fan, ma’rifatda yetakchi bo‘lishgan. Xususan, Istanbul universiteti professori Emek Ushenmez o‘rta asrlarda madrasa ta’limini ko‘rgan, savodli ayol-qizlar odatda turmush qurguncha Qur’oni Karimni o‘z qo‘llari bilan ko‘chirishgani hamda ish yakunlangandan so‘ng sahhoflar tomonidan yakka kitob holatiga keltirilib, sarpolariga qo‘shib berilganini aytib o‘tadi. Bunga o‘sha davrlarda kitob bosish dastgohlarining mavjud bo‘lmagani ham sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qo‘lda ko‘chirilgan Qur’on nusxalaridan biri Temuriy malikalardan Shodmalik Xotun tarafidan ko‘chirilgan nusxa bo‘lib, nasx xatida yozilgan. Nusxaning kolofon (qaydnoma) qismida malikaning otasi– Sulton Muhammad Mirzo, bobosi– Jahongir Mirzo, katta bobosi- Amir Temur Ko‘ragon nomlari qayd etilganligi nusxaning avtograf ekanligini anglatadi. [6] Saroymulkxonim ham shahzodalar – Shoxruh, Halil Sulton, Mirzo Ulug‘bek, Ibrohim Sultonlarning ta’limiga, tarbiyasiga mas’ul bo‘lib, bo‘lajak hukmdorlarning harbiy mashg‘ulot va ta’lim olishlariga bosh bo‘lishgan. Shuningdek malikalar ilm-fan rivojlanishida ko‘plab madrasalar qurdirish orqali ham o‘zlarining hissalarini qo‘shganlar. Shoxruh Sultonning rafiqasi Malika Og‘o, Sulton Husaynning rafiqasi Zubayda Og‘o xonaqoh, Tuman Og‘o, Malika Og‘o, Xonim Sultonbegim madrasalar qurilishiga mablag‘ ajratishgan. Vaqf sifatida ularga qishloq yerlari, ariq va tegirmonlarni ajratib berganlar. [7, - B.6] Temuriylar malikalar tarafidan madrasalar qurilishida homiylik qilinishi ham Temuriylar boshqaruvi davrida Movarounnahrda ilmga e’tibor yuksak bo‘lganligini ko‘rsatib beradi.

Bugungi kunda ilm-fan va ta’limning rivojlanish tamoyillari Temuriylar davridagi ilg‘or an’analar bilan bog‘liq. Hozirgi ta’lim tizimida ham aniq va gumanitar fanlar integratsiyalashgan holda o‘qitilib, ilmiy izlanishlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Temuriylar davridagi ta’lim tizimining asosiy

tamoyillarini chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy sharoitga moslashtirish ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Temuriylar davrida ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biri shaxsiy yondashuv edi. Har bir shogird o‘z ustozidan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham olgan. Ta’lim jarayoni ustoz-shogird an’anasiga asoslangan bo‘lib, bu tizimning samaradorligi juda yuqori edi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar ham ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan. Bugungi kunda Temuriylar davridagi ta’lim tizimi tamoyillarining ba’zilari zamonaviy ta’lim modelida o‘z aksini topmoqda. Masalan, o‘sha davrda amaliyotga asoslangan ta’lim tizimi bugungi STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, madrasalarda o‘qitilgan fanlar bugungi fanlararo integratsiya tamoyillariga mos keladi. Ilmiy markazlar va kutubxonalarning o‘sha davrdagi roli bugungi kunda universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlari orqali davom etmoqda. Xulosa qilib, Temuriylar tajribasidan kelib chiqqan holda zamonaviy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda tarixiy an’analarni innovatsiyalar bilan boyitish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ikromova D. O‘rta asr madrasalarida ta’lim tizimi” // Milliy meros. 2016. №3.
2. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху Амира Темура. - Москва: Наука, 2002.
3. Ragep F. J. Science in Islamic Societies // Encyclopedia of the History of Science, Cambridge University Press. 2001.
4. Bekchanov A. Temuriylar kutubxonalaridagi kitoblar tarkibi // Ilmiy izlanishlar jurnali. 2014. №1.
5. Komilov N. Temuriylar davri madaniy merosi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
6. Ushenmez E. Sharq renessanslari fenomeni: saltanatlar, dinlar, shaxslar va tamaddunlar. - Toshkent: 2024.
7. Sultonova F. Oqila, iste’dodli va jasur / Xalq so‘zi gazetasi. 2025. №71.

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jasur RUSTAMOV

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Amir Temur va temuriylar davri diplomatiyasini o‘rganish milliy davlatchiligimiz tarixi va mohiyatini yanada kengroq tushunishimizda katta ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu olimlar tomonidan o‘rganilayotganiga qaramay, hali uning barcha muammolari to‘laligicha ochib berilmagan. Jumladan, uning o‘ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvini kuchaytirishga ko‘rsatgan ta’siri, nazariy asoslari to‘laligicha tahlil etilmagan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, Amir Temur diplomatiyasi, Fatxi al-Guveyli, B.S.Mannonov, Yusuf So‘fiy, Barquq, To‘xtamish, Boyazid Yildirim, Richard Nelson, A.X.Saidov, De Klavixo, elchilar.*

Annotation: *The study of the diplomacy of Amir Temur and the Timurid period is of great importance for our broader understanding of the history and essence of our national statehood. Despite the fact that this topic is being studied by scholars, not all its problems have yet been fully revealed. In particular, its specific features, its impact on strengthening state governance, and its theoretical foundations have not been fully analyzed.* ***Key words:*** *Amir Temur, Amir Temur’s*

diplomacy, Fathi al-Guveyli, B.S. Mannonov, Yusuf Sufi, Barquq, Tokhtamysh, Bayazid Yildirim, Richard Nelson, A.Kh. Saidov, De Clavijo, ambassadors.

Аннотация: *Изучение дипломатии эпохи Амира Темура и Тимуридов имеет большое значение для более широкого понимания истории и сути нашей национальной государственности. Хотя эта тема изучается учеными, не все ее проблемы еще полностью раскрыты. В частности, его специфические особенности, его влияние на укрепление государственного управления и его теоретические основы не были полностью проанализированы.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур, дипломатия Амира Темура, Фатхи аль-Гувейли, Б.С.Маннонов, Юсуф Суфи, Баркук, Тохтамыш, Баязид Йылдырым, Ричард Нельсон, А.Х. Саидов, Де Клавихо, послы.*

Bizning turkiy davlatchiligimizga muvofiq ajdodlarimiz azaldan xalqaro munosabatlar va diplomatiya qonun-qoidalariga amal qilib, bu sohani rivojlantirib kelganlar. Mehmondo‘st xalqimiz azaldan o‘zga xalqlarni hurmat qilish, ular bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga intilib kelgan. [1,-Б.3.].

Manbalar va tarixiy dalillar Amir Temur diplomatiyasida tinchlik, o‘zaro hurmat, raqibga shafqat, rioya qilish kabi tamoyillar ustuvor bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tarixiy manbalar Amir Temurning barcha chigal jumboqlarini undan to‘g‘ri farmoni tufayli qo‘lga kiritganligini ta’kidlaydi. Ushbu yutuqlar uning diplomatik qobiliyatini qo‘lga kiritganligini ko‘rsatib beradi.

“Amir Temur davri diplomatiyasining g‘oyalari, maqsadlari, xususiyatlari o‘sha davrda bo‘lib o‘tgan davlatlar olib borgan diplomatiyasining g‘oya va xususiyatlaridan nimasi bilan farq qiladi? Boshqa davlatlarning salohiyati va kuchli rahbarlari bilan olib borgan murakkab munosabatlarda ham nima uchun uning qo‘li baland kelgan? U chigal vaziyatlarda qanday tadbir va usullar qo‘llagan? Amir Temur diplomatiyasini kuchaytirishga xizmat qilgan omillar nimalar edi? Uning diplomatiyasi boshqa davlatlar rahbarlarining diplomatik salohiyatidan nimasi bilan ustunlik qilgan?» – kabi savollarni o‘rganish bizningcha, masalaning to‘g‘rikor hal bo‘lishiga yordam beradi.

Misrlik tadqiqotchi olim Fatxi al-Guveyli ham haqli ravishda «Amir Temur tomonidan boshqa davlatlar arboblari bilan bo‘lgan munosabatlarda qo‘llangan diplomatik usullar va ularning ayrim nozik jihatlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishga arziydi», – deb ta’kidlagan. [2,-Б.108.]

Fatxi al-Guveyli «Amir Temurga tegishli aql-farosat va ziyraklik xos bo‘lib, bu sifatlar diplomat shaxsning eng muhim jihati va asosi hisoblanadi», – e’tibor beradi. Amir Temur o‘zi yoki bu mamlakatdagi boshqa davlatlar hokimlari, boshliqlari bilan munosabatlarda asosan o‘zining aql-farosati, ziyrakligi va siyosiy tajribasiga tayangan. Uning diplomatik taktikasi va omil Amir Temurning nozik diplomatik taktikisi va uning insoniyparvarligi sohibqiron Amir Temur har qanday sharoitda ham diplomatiya mezonlariga qat’iy amal qildi va bu qoidalarga xilof ish qilmadi.

B.S.Mannonov ham “Temur diplomatiyasining o‘ziga xos tomonlaridan biri, u o‘zining barcha murojaatlarida, qat’iy talab shaklida yozilgan nomalarda ham, Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qiladi. Uzoq yurtlar hukmdorlarining ko‘plab shaklida, ayrim hollarda nihoyatda jahd va tahqir bilan yozilgan nomalarga ham Sohibqiron javobni ham vaqt, o‘z fikrlarini aniq bayon qilgan holda sokin va odob bilan javob qilardi. Amir Temurning shaxsan o‘zi “elchilarga o‘lim yo‘q” degan

qadim-qadimdan qolgan diplomatik qoidalar doimo amal qilgan va o‘z qo‘l ostidagilardan bu qoidani hech qachon, aslo buzmasliklarini talab qilgan” [3,- Б.105.], — deb yozgan.

Uning bu fazilati Xorazm hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalarida ham yaqqol ko‘rinadi. Amir Temur Xorazm bilan o‘rtada bo‘lgan nizoni bartaraf qilish uchun u yerga o‘z elchilarini jo‘natgan edi. Nizomiddin Shomiy bu haqda “... o‘rtada elchilar borish-kelish qilishib turdilar va bir-birlari bilan bog‘lanib, qarindosh bo‘lishib, oradagi dahshatni unsu-ulfat bilan almashtirdilar. Voqea bunday bo‘lgan edi, amir Nangkudayning o‘g‘li Oq Sufiy (Oltin O‘rda xoni)ning qizini nikohiga olgan, Xonzoda (Xonzodaning asl ismi Sevinbeka, Oq So‘fiyning qizi) podshoh O‘zbekning nabirasi edi. Amir Sohibqiron uni ulug‘ amirzoda Jahongir uchun so‘rattirdi. Jang va xusumat xeshlik va do‘stlikka almashindi” [4,-Б.95.], – deb yozadi.

Biroq Yusuf So‘fiy o‘z va’dasiga xilof ravishda ish tutib Amir Temurga bir necha marta muxoliflik yo‘lini tutdi. Bu haqda Nizomiddin Shomiy shunday hikoya keltirgan: “Yusuf So‘fiy munofiqlarcha fursatdan foydalanib, kaltabinlik bilan ishning oqibatini o‘ylamadi va Buxoro tomonga lashkar yubordi. Ular bosqin yasab, ba’zi viloyatlarni talon-taroj qildilar. Amir Sohibqiron Jaloliddin bahodirni elchi qilib yuborib, Yusuf So‘fiyga dedi: “Oramizdagi ittifoqlik va qarindoshlikdan keyingi bu muxolifatga sabab nima?” Yusuf So‘fiy elchiga javob bermay, uni ushlab bandga soldi.

Amir Sohibqiron xayrixohlik yuzasidan yana bir maktub yo‘lladi, unda: “Elchiga o‘lim va bo‘limilik yo‘qdir, elchining gardanidagi vazifa buyruqni aniq yetkazishdan boshqa narsa emasdir. Mening elchimni qaytarib yubor” deb yozdi hamda bu muhim ish bilan yana bir choparini yo‘lladi. Yusuf So‘fiy bu choparni ham tutib bandi qildi va Tuy Bug‘oni lashkar bilan Buxoro atrofini bosqin qilish uchun yubordi”. Yusuf Sufiy bilan nizolar keskinlashayotganda “Termiz tarafdan Amir Sohibqiron huzuriga yangi pishgan qovun keltirdilar. U “Yusuf So‘fiy garchi o‘rinsiz men bilan muxolifat qilgan bo‘lsa hamki, ammo oramizda qarindoshlik bor bo‘lgani uchun birinchi qovunni u siz yeyishga loyiq emasdur” deb qovunni bir oltin taboqqa qo‘yib, Yusuf So‘fiyga yubordi. Yusuf So‘fiy buning evaziga ta’zim va hurmat maqomida turib uzr so‘rashi va necha hissa qilib tuhfa va sovg‘alar yuborishi lozim edi. U esa o‘sha qovunlarni suvga tashlashni buyurdi va oltin taboqni darvozabonlarga baxshiyda qildi” [5,-Б.110.].

Manbalardagi ma’lumotlardan Amir Temurning murakkab sharoitlarda ham sabr-toqat bilan masalaning to‘g‘ri yechimini topishga harakat qilgani takabbur, o‘ziga qattiq ishongan va bino qo‘ygan dushmanlari bilan yuzaga kelgan nizo-kelishmovchiliklarni to‘g‘ri hal etish uchun yo‘l izlaganining guvohi bo‘lish mumkin. To‘xtamish ham Amir Temur yordamida Oltin O‘rda xoni bo‘lib olsa-da, yaxshilikni unutib unga muxoliflik qilgani ko‘pchilikka ma’lum. Biroq Sohibqiron bu raqibini ham kechirdi va Xitoy yurishi oldidan uning elchilariga yurishdan qaytgach, yordam qilajagini aytdi[6,-Б.8.].

Amir Temurning Misr hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari ham ibratlidir. Misr Hukmdori Barquq, uning vafotida keyin taxtga o‘tirgan Faraj Amir Temurning yaqin kishisi bo‘lgan Otlamishni asirda ushlab, qaytarish talabiga javob

bermay vaqtni cho‘zar edi. Biroq Amir Temurning Shom va Halabdagi g‘alabalaridan keyin undan cho‘chigan Faraj qilmishidan pushaymon bo‘lib, Otlamishni ozod qiladi hamda uni vasila qilib behisob sovg‘a-salomlar bilan Amir Temur huzuriga jo‘natadi.

Shundan keyin ham Amir Temur uning otasiz o‘sganligini inobatga olib, uni o‘z o‘g‘li sifatida qabul qiladi va “uning qo‘liga quvvat beraman” [7,-Б.354.], — deydi.

Uning Boyazid Yildirimga bo‘lgan munosabatini olaylik. Manmanlik va kibr bilan o‘ziga haddan tashqari ishongan Boyazid Amir Temurning dushmanlarini qo‘llab-quvvatlaydi, iltimos va talablariga haqorat va qo‘rslik bilan javob qiladi. Oxir-oqibat jang bilan yakun topgan ziddiyatli munosabatlardan keyin yengilgan Boyazidni Amir Temur huzuriga olib keladilar. “Changga belangan va holdan toygan omadsiz sultonni Muzaffarning chodiriga keltirganlarida tun cho‘kkan edi. Amir Temur o‘ynayotgan shatranjini to‘xtatib, odat yuzasidan unga bir necha savol berdi. U Sulton va uning o‘g‘illari hayotiga zarar yetkazmaslikka so‘z berdi.

– Agar ishimiz chappasidan ketib, bugun Xudo sening tarafingni olganda, deya ta’kidladi ulug‘ amir, – sen menga va lashkarimga qanday munosabatda bo‘lishingni hamma bilardi.

– Ulug‘ amir umri bo‘yi erishgan zafarlaridan so‘ng hotamtoyligini ko‘rsatdi” [8,-Б.132-133.], – deb yozadi Lyusen Keren.

Sohibqiron Amir Temur diplomatik munosabatlarda tashabbus ko‘rsatib, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga intilgan. Tenglik, raqibiga yon bosish, jo‘mardlik kabi fazilatlar uning diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U “har bir banda irqi, millati, diniy e’tiqodlaridan qat’i nazar Alloh oldida teng” degan tushunchaga tayanib, tashqi siyosatda ham unga amal qilib kelgan. Demak, inson omili, farovonligi va obodligi uning qarashlarida va diplomatiyasida avvalgi o‘rinda turadi.

Richard Nelson haqqoniy ravishda Amir Temur saltanatga faqat bir madaniyatni majburan kiritmasdan, aksincha, turli madaniyatlarning kuchli bo‘lgancha yashab kelayotgan Ovrosiyo hosili dastlab ishlab chiqqan shaxs ekanligini, madaniyatlar ora yaxshigina ko‘prik o‘rnatalganligini, (ko‘chmanchilar va o‘troq xalqlar, mo‘g‘ullar, turklar, forsilar) g‘arb va sharq o‘rtasida ham taxsinga sazovor munosabatlar o‘rnatganini aytib o‘tgan edi[9,-Б.33-34.].

Sohibqiron Amir Temur bugungi kunda globallashuvda muhim hisoblangan integratsiyaning dastlabki darakchilari va nazariychilaridan bo‘lgan. U To‘xtamish, Barquq, Boyazid va boshqa yirik diplomatlar bilan farqli o‘laroq bir dinni boshqa dinga, mafkuraviy o‘zga mafkuraga qarshi qo‘yish emas, balki ularni bir-biriga yaqinlashtirishga intilib kelgan.

Hozirgi davrdagi Yevroosiyo, yagona Turkiston va boshqa integratsiyani kuchaytirish, farovonlikka kafolat bo‘luvchi g‘oyalar ham tarixiy g‘oyalarni tiklash va undan amaliy foydalanishga intilish natijasida paydo bo‘lgan.

Qozog‘istonlik olim K.L.Burhonov va hamyurtimiz I.Iskandarovlar ham tadqiqotlarida “Yagona Turkiston” konsepsiyasi Amir Temurning yagona makon g‘oyalariga hamohangligini ta’kidlab o‘tadi[10,-Б.41-43.].

Pokistonlik olim F.A. Durroniy ham “Amir Temur O‘rta Osiyodan chiqqan buyuk sarkardalardan bo‘lgan. Uning qat’iyatliligi, bir maqsadga intiluvchanligi hamda tirishqoqligi kuchli raqiblari ustidan g‘alaba qozonishga yordam bergan. U turli vaziyatlarda raqiblaridan ustun kelishining bironta ham imkoniyatini qo‘ldan

bermagan, kerak bo‘lganda hech ikkilanmay muzokara olib borgan, o‘zi kuchli diplomat bo‘lgan, uning strategiyasi zudlik bilan harakat qilish, raqibiga zarba berish”, deb uning diplomatiyasidagi xos xususiyatlarga katta baho bergan.

Tarixiy dalillardan Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasida baynalmilallik, tolerantlik g‘oyalari mavjud bo‘lganligini anglash mumkin. Jumladan, Gruziya hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalar tarixi fikrimizga dalildir. Nizomiddin Shomiyning yozishicha, gurjilar yerlari, shaharlari va ahlu avlodlarini Amir Sohibqironning g‘azab o‘tidan saqlash uchun zaruratdan qayta-qayta elchi yubordilar, nodir tuhfalar, otlar va har xil jonivorlardan iborat tortiqlar tortib, iltimos qildilar: “Hazrati Amir Sohibqiron rahmli tangri va hazrati rabbilolaminning soyasidirlar. Tangrining rahmati mo‘minlarga qaratilgan bo‘lganidek, uning karami kofirlar va mushriklar uchun ham nasiba yetkazuvchi va nigohbondir, barcha uning rahmati dasturxonidan nasibador, karam va ehsonidan hissadordir.

Bizning iltimosimiz shuldurki, jurmimiz ustiga afv etagini yopib, gunohimizdan o‘tsalar va bu navbat yana bizga navbat bersalar, toki bundan keyin ilgarigi podshohlar va otalarimiz bu mamlakatlar sultonlari bilan qanday yashagan bo‘lsalar, biz ham shu tariqa hayot kechiraylik, boju xiroj mollarini xizonai ma’muraga yetkazaylik, harbiy yurishlarda muqarrar qilingan miqdorda askarlar jo‘nataylik. Agar jizya to‘lab tursak va amonda ekanligimizni bilsak, sizning diningiz o‘zingiz uchun, mening dinim o‘zim uchun...”– qabilida iltimos qiladilar va o‘z dinlarini saqlagan holda Amir Temurga bo‘ysunish istagini bildiradilar.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Amir Temur diplomatiyasi umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat ruhida shakllangan, tashqi aloqalar orqali turli xalqlar o‘rtasida madaniyatlararo ko‘prik o‘rnatgan. Amir Temur diplomatiyasida o‘z davrida ustuvor bo‘lgan xalqaro diplomatiya qonun-qoidalariga qat’iy amal qilingan. O‘zining raqiblaridan farqli ravishda Amir Temur “elchiga o‘lim yo‘q” shioriga amal qilib, har qanday qaltis vaziyatlarda ham elchinining hurmat-izzatini o‘z joyiga qo‘yishga harakat qilgan.

Shuningdek, Amir Temurning mardlik, jasurlik, talabchanlik kabi xislatlari uning diplomatik muvaffaqiyatlariga katta zamin bo‘lib xizmat qilgan. U o‘z raqiblariga katta hurmat ko‘rsatib, qilayotgan ishlari yuzasidan tegishli xulosalar chiqarishga imkon yaratgan. Uning qat’iyatli, tirishqoqligi, maqsadga intilishuvchanligi va imkoniyatdan maksimal foydalanganligi, tezkorligi, diplomatik ko‘ngilochar omillari asosida Amir Temur nizolarni iloji boricha muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga intilgan, murozakor vaziyatlarni ijobiy hal bo‘lishi uchun ko‘proq vaqtni sarf qilgan bo‘lar. Uning kechirimliligi ham do‘stlari va dushmanlari hurmatiga sazovor etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп қўлланма / Ш. Ўлжаева. – Т.: “IJOD-PRESS” нашриёти, 2018 йил.

2. Фатхи ал-Гувейли. Амир Темур дипломатияси // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни: халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

3. Маннонов Б. С. Амир Темур дипломатияси // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни: халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома // Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Асомиддин Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
5. Низомиддин Шомий. Зафарнома // Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Асомиддин Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
6. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп қўлланма / Ш. Ўлжаева. – Т.: “IJOD-PRESS” нашриёти, 2018 йил.
7. Низомиддин Шомий. Зафарнома // Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Асомиддин Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
8. Керен Л. Амир Темур салтанати / Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б.Эрматов. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.132.
9. Нельсон Р. Амир Темур улкан стратег ва сиёсатдон сифатида // Амир Темур ва унинг жахон тарихидаги ўрни: халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
10. И. Амир Темур ва даврлар ҳамоҳанглиги // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни: халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

O‘ZBEK DAVLATCHLIGIDA ALISHER NAVOIY SIYMOSIGA BIR NAZAR

Mirzohid RAHIMJONOV
Oriental universiteti o‘qituvchisi
rahimjonovmirzohid741@gmail.com
Sabina ISHONQULOVA
Oriental universiteti talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada nafaqat buyuk shoir va mutaffakir, balki o‘z davrining yetuk davlat arbobi Alisher Navoiyning davlat boshqaruvidagi adolati, insonparvarlik va xalq manfaatlariga xizmat qilish tamoyillari, shu bilan birga uning o‘zbek davlatchiligida qoldirgan o‘chmas izi haqida ma'lumot beriladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Alisher Navoiy, Hirot, Husayn Boyqaro, sarafroz, muhrdor, vazir, jahonpanoh, Abullays, Darvesh Ali, Astrabod.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются не только великий поэт и мыслитель, но и выдающийся государственный деятель своего времени, Алишер Навоий. Обсуждаются его принципы справедливости, гуманизма и служения интересам народа в государственном управлении, а также его неизгладимый след в узбекском государственности.* ***Ключевые слова:*** *Алишер Навоий, Герат, Хусейн Байкара, Сарафруз, Мухрдор, визирь, Джахонпанох, Абуллайс, Дарвеш Али, Астрабад.*

Annotation: *This article discusses not only the great poet and thinker but also a prominent statesman of his time, Alisher Navoi. It highlights his principles of justice, humanism, and serving the interests of the people in state governance, as well as his indelible legacy in Uzbek statehood.*

Keywords: *Alisher Navoi, Herat, Husayn Bayqara, Sarafruz, Muhrdor, Vizier, Jahonpanoh, Abullays, Darvesh Ali, Astrabad.*

Ulug‘ shoir va mutaffakir Alisher Navoiy haqida so‘z yuritilar ekan, ko‘pchlikning yodiga uning adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasi, ona tilida tutgan mavqei va ijodiy hayoti to‘g‘risida bir qancha ma’lumotlar keladi. Ammo, Alisher Navoiy faqatgina shoir bo’lib qolmay, u o‘z davrining buyuk mulozimi, atoqli davlat arbobi ham bo‘lgan. Bugun aynan shular xususida so‘z yuritiladi.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Shohruh Mirzo hukmdorligi davrida Hirotda tavallud topgan. Zamondoshlari u haqida “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. Otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan bo‘lgan. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lib, ismi ma’lum emas. Ukasi Darvesh Ali kitodor ham Husayn Boyqaro davrida Balx hokimi bo‘lib, uning ishonchli odamlaridan bo‘lgan.

Alisher Navoiy 1469-yigacha temuriylar o‘rtasidagi ichki nizolar sabab Hirotdan uzoqda bo‘lgan. Ayni shu yillarda Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirganidan so‘ng Alisher Navoiy hayotida yangi bosqich boshlanadi. Saltanat poytaxti Hirot mansur xoqonning qutlug‘ qadami sharofatidan falak ustaxonasi rashkini keltiruvchi joyga aylangan o‘sha paytlarda sohibi xashamat, soibi tadbir amir, yorug‘ qalbli ulug‘ fozillarning murojaat etadigan g‘amxo‘r kishisi Nizom ud-davlata vad-din Amir Alisher Sulton Ahmad Mirzo o‘rdusidan ajralib, a’lohazrat huzuriga keldi va turli-tuman lutfu mehribonlik bilan sarafroz bo‘lib, jahonpanoh dargoh ichkilari qatoridan joy oldi [1-B.710]. Bu so‘zlardan ko‘rinib turibdiki Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga o‘tirganidan so‘ng, Hirotga qaytib kelib, uning xizmatiga kiradi. Alisher Navoiyning ota-bobolari ham Umarshayx Mirzo Bahodir bin Amir Temur Guragon xonadonining ichkilari tizimidan joy olgan va ularning xizmatida bo‘lgan. Alisher Navoiy bolalik davrlari mansur xoqon bilan o‘tadi. Abusaid Mirzo davlati zamonida uning xizmatiga kiradi. Ammo, u xizmatlariga yarasha qadrlanmaganidan so‘ng, Samarqandga ketib, Xo‘ja Jaloliddin Fayzulloh Abullaysiy xonaqohida ilm bilan mashg‘ul bo‘ladi [2-B.153]. U vaqtini kitob o‘qishga sarflab, bir qancha ilmlarni o‘rganadi. Sulton Ahmad Mirzo mansur xoqonning Xuroson tomon yo‘nalganligini sababli Amuya daryosidan kechib o‘tgan ayyomda Amir Alisher ham o‘rduga qo‘shilib o‘sha yoqqa ketdi [1-B.710]. Shu vaqealardan so‘ng Alisher Navoiy mansur xoqon xizmatiga kirib keladi. Dastlab muhrdor lavozimida faoliyat yuritadi. 1470-yilda Hirotda mansur xoqon adolat soyaboni ostida Baxtiyoriy Semnoniy bilan og‘zi birlikda devon ishlarini bajarib o‘tirarkan, aholiga turli solig‘lar solib, zulm o‘tkaza boshlaydi. Buni eshitgan mansur xoqon Amir Nizomiddin Alisherni adolat va insof ishini yo‘lga qo‘yish maqsadida saltanat poytaxti Hirotga yuboradi. Alisher Navoiy shaharga yetib borgach, aziyat chekkan xalqqa qo‘lidan kelgancha yordam ko‘rsatib, zulm va zo‘ravonlik niholini qo‘parib tashlashga harakat qildi. Mansur xoqonning farmoni har juma kunida minbarga chiqib xalqqa eshittiriladigan bo‘ldi. Nihoyat xalqning ko‘ngli tinchib, adolatli kun kelganiga ishona boshladi. Xoqonning davlati bardavom bo‘lishi va uning yaqin kishisi Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning mansabu martabasi ortishi uchun qo‘lni duoga ochdilar. Bundan ko‘rinib turibdikk Navoiy xalq xizmatida

adolatli va mustahkam faoliyat olib borgan. Navoiyning to‘g‘ri maslahatgo‘y ekanligi sababli mansur xoqon yurush qilishidan oldin ko‘p narsalarni u bilan maslahatlashgan.

Mansur xoqon[4] Mirzo Yodgor Muhammad ustiga yurish qilishidan oldin ham bu haqida amirlari ichidan faqat Amir Alisherga bu haqida aytadi. Mirzo Yodgor Muhammad qochib ketganidan xabari bo‘lmagan mansur xoqon chodir ichiga kirib, ichkarida kim bo‘lsa huzuriga olib chiqishni buyuradi. Amir Alisher jasurlik qadamini ilgari bosdi va o‘sha vaqtlarda o‘zining navkari bo‘lgan Amir Bobo Alini chodir ichiga yubordi [1-B.733]. U chodirda hech kim yo‘qligini aytganidan so‘ng mansur xoqon mulozimlarga ko‘shkni o‘rab olib yuqorigacha ko‘tarilishni buyurdi. Ammo hech kimdan sado chiqmadi. Nihoyat, Amir Alisher bu topshiriqni bajarish uchun mansur xoqondan ruxsat oladi va o‘z otini Amir Bobo Aliga topshirib, qilichini qinidan sug‘urdi va uni xuddi hassaga o‘xshatib ushlab, xech kim bilmaydigan bir yo‘l orqali tepaga chiqa boshladi [1-B.733]. Alisher Navoiyning bu ishi uning qay darajada jasurligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchidan dalolat beradi. Amir Alisher bir necha vaqt muhrdorlik vazifasini bajargach, bu mansabdan is’tefoga chiqish maqsadida, Mansur xoqondan o‘z o‘rniga Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhaylini muhrdor qilishini iltmos qildi va mansur xoqon bu iltmosni qabul qiladi. Shundan keyin 1472-yilda amirni oliy devon ishlari boshlig‘i etib tayinlashini aytadi. Amir Alisher Navoiy bu ishni qabul qilishdan tortinib, qabul qilmaydi. Lekin Mansur xoqonning farmonidan so‘ng bosh vazir lavozimini egallaydi. Ilm-u, fazilatlar egasi janob mavlono Burhoniddin Atoulloh ar-Roziy Nizomiddin Alisherning amirligi tarixini shunday aytgandi:

Falak qadr Alisher saharf bobida,
Kamolin bilishdan aql ojiz qoldi.
Shoh Goziy lutfidan Haq qismati-la,
Sha’bonning so‘ngida devonga keldi.
Davlat devonida muhr bosgan sana,
O‘sha: “Mir Alisher muhr bosdi” bo‘ldi.

Amir Nizomiddin Alisher amirligi sharofatidan saltanat va podshohlik ishlari yangidan ravnaq topdi hamda xalq va qo‘shin ishlari qaytadan tartibga solindi.

Amir Alisher Xirotda g‘alla yig‘dirib yurgan vaqtda temuriy shahzodalar qatorida turgan Abulxayr Mirzo Hirotdan qochadi. Amir Alisher uni quvlab, qo‘lga tushuradi va Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘yadi. 1486-1487-yillarda Astrabod egallangan so‘ng uning boshqaruvi Nizomiddin Alisherga topshiriladi. U bir yil Jurjon o‘lkasida bo‘lib, xoqon huzuriga borishni xohladi. O‘rniga Amir Badriddinni Astrabodda o‘rinbosoar qilib qo‘yib, o‘zi Hirotga qarab yo‘l oldi. Mansur xoqon bilan ko‘rishgach Astrabod viloyati boshqaruviga boshqani tayinlashni iltmos qildi. Lekin mansur xoqon buni qabul qilmadi va Amir Alisher yana Astrabodga qarab yo‘l oldi. Astrabodda bir necha oy bo‘lgach, Kokuliy bakovul tomonidan Alisher Navoiyni zaxarlangan oqat yeyishga majburlashgan. Buni eshitgan mansur xoqon Amir Alisherni chaqirib olish to‘g‘risida hujjat yuboradi. Bu hujjatni olgan Alisher hayratga tushadi. Chunki bu voqealardan uning xabari bo‘lmaydi. O‘n ikki kunda Astraboddan Hirotga yetib keladi.

[4] Manbalarda Xusayn Bayqaroning ismi Mansur xoqon nomi bilan ham keladi.

Alisher Navoiy Balxda ham o‘z faoliyati ko‘rsatadi, keyinchalik Muhammad Mo‘min Mirzo o‘lganini eshitgach, 3 kundan so‘ng Mashhad shahridan Hirotga yetib keladi. U shu vaqt ichida mansur xoqonga xizmat qilib, unga o‘z sadoqatini yuksak darajada ko‘rsata oldi. U Haj safariga borishni juda ham xohlaganligi sababli bir necha marotaba mansur xoqondan ruxsat so‘ragan, lekin mansur xoqon Amir Alisherni har doim o‘z yonida ko‘rishni xohlab, unga ruxsat bermagan. 1501-yilning 3-yanvarida mansur xoqonning eng yaqin kishisi, xaqlning sevimli amiri Nizomiddin Alisher yurak hurujidan bu dunyonini tark etdi [3-B. 5]. Uning jasadi o‘zi tomonidan barpo qilingan Masjidi jome gumbazi ostiga qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytish mumkin, Alisher Navoiy yashagan umri davomida temuriylar saltanatiga xizmat qilib, xalqning sevimli amirlaridan biriga aylandi. Uni bugungacha ulug‘ shoir sifatida ko‘rgan bo‘lsak, yangi o‘rganishlar va izlanishlar natijasida uning nafaqat shoir, balki, buyuk davlat arbobi hamda qo‘rqmas jangchi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. U davlat boshqaruvidagi sa’y harakatlari natijasida, mamlakatda o‘rnatgan adolati tahsinga loyiq albatta. Alisher Navoiyning davlat ishlaridagi faoliyati O‘zbekiston tarixida yorqin sahifa bo‘lib qoladi va kelajak avlodlar uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xondamir. Xabib us-siyar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
3. Zamonov A., Mamajonova Z. Alisher Navoiyning o‘limiga kim va nima sabab bo‘lgan yoxud jur’atsiz lofchining qilmishi / https://xs.uz/uz/post/alisher-navoijning-olimiga-kim-va-nima
4. Oybek. Navoiyning tarjimai holi. - Toshkent: 1967.

XOJA AHROR VALIY YASHAGAN DAVRDA IJTIMOIY-SIYOSIY HOLATI

Akmal MAJIDOV
Oriental universiteti 1-bosqich magistranti
Dildora NISHONOVA
Ilmiy rahbar: Oriental universiteti tarix kafedrasi dotsent v.b., (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XV asr Movarounnahridagi ijtimoiy-siyosiy holat, ayniqsa Xoja Ahror Valiy yashagan davrdagi siyosiy beqarorlik, ichki nizolar va ijtimoiy tengsizlik haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan. Xoja Ahror Valiyning siyosiy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’siri, uning Temuriylar sulolasi hukmdorlari bilan aloqalari, ijtimoiy adolat va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish borasidagi tashabbuslari yoritilgan. Shuningdek, maqolada Xoja Ahrorning xalqparvarlik siyosati, diplomatik faoliyati va islom tafakkuriga qo‘shgan hissasi haqida ham so‘z boradi. Maqola Movarounnahr tarixining murakkab davrida Xoja Ahror kabi buyuk so‘fiylarning jamiyatga tutgan o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Xoja Ahror Valiy, Temuriylar, Movarounnahr, ijtimoiy-siyosiy holat, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy adolat, tasavvuf, adolat, ta’lim, Naqshbandiya.*

Аннотация: *В статье представлена аналитическая информация о социально-политической ситуации в Трансоксании в XV веке, особенно о политической*

нестабильности, внутренних конфликтах и социальном неравенстве во времена Ходжи Ахрара Вали. Освещены влияние Ходжи Ахрара Вали на политические процессы, его отношения с правителями династии Тимуридов, его инициативы по содействию социальной справедливости и образованию. В статье также обсуждается популистская политика Ходжи Ахрара, его дипломатическая деятельность и вклад в исламскую мысль. В статье раскрывается роль и значение великих суфиев, таких как Ходжа Ахрар, для общества в сложный период истории Трансоксании. ***Ключевые слова:*** *Ходжа Ахрар Вали, Тимуриды, Мавераннахр, социально-политическая ситуация, политическая нестабильность, социальная справедливость, суфизм, правосудие, образование, Накшбандийа.*

Abstract: *This article provides analytical information on the socio-political situation in the 15th century in Maveronnahr, especially the political instability, internal conflicts and social inequality during the life of Khoja Ahrar Vali. The influence of Khoja Ahrar Vali on political processes, his relations with the rulers of the Timurid dynasty, his initiatives in the development of social justice and education are highlighted. The article also discusses Khoja Ahrar's popular policy, diplomatic activities and contribution to Islamic thought. The article reveals the role and importance of great Sufis such as Khoja Ahrar in society during the difficult period of the history of Maveronnahr.* ***Keywords:*** *Khoja Ahrar Vali, Timurids, Maveronnahr, socio-political situation, political instability, social justice, Sufism, justice, education, Naqshbandiyya.*

Movarounnahr tarixining XV asriga kelib, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar murakkablik kasb etgan edi. Bu davrda Temuriylar sulolasining vakillari hukmronlik qilgan, lekin ularning o‘rtasidagi ichki nizolar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, mahalliy zodagonlar ta’sirining kuchayishi ijtimoiy hayotga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Aynan shu davrda yashagan va faoliyat olib borgan mashhur so‘fiylardan biri — Xoja Ahror Valiy bo‘lib, u faqatgina diniy-ma’rifiy sohada emas, balki siyosiy hayotda ham muhim rol o‘ynagan.

Xoja Ahror Valiy (1404–1490) Temuriylar davrida yashagan. Bu davr Movarounnahrda Temuriylar o‘rtasidagi taxt uchun kurashlar bilan tavsiflanadi. Temuriy hukmdorlari Ulug‘bek, Abu Sa’id, va boshqa shahzodalar o‘rtasidagi raqobat natijasida mamlakat siyosiy jihatdan zaiflashgan edi. Shu sababli, xalq orasida beqarorlik, soliq yukining oshishi, markaziy hokimiyatga bo‘lgan ishonchsizlik ortib borgan [1:29].

Shunday vaziyatda Xoja Ahror Valiy o‘zining siyosiy nufuzi va ijtimoiy mavqei bilan bu jarayonlarga ta’sir o‘tkaza oldi. U ko‘plab temuriy hukmdorlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ular ustidan ma’naviy nazoratni ushlab turgan. Ayniqsa, Abu Sa’id Mirzo (1451–1469) davrida Xoja Ahrorning siyosiy ta’siri kuchli bo‘lgan [1:58].

Xoja Ahror adolatli hokimiyatni tarafkashliksiz qo‘llab-quvvatlagan. U o‘zining so‘fiylik mavqei orqali hokimiyatni xalq bilan bog‘lovchi ko‘prik sifatida xizmat qilgan. Siyosiy beqarorlik davrida Xoja Ahror musulmon olimlari, faqihlar va zodagonlarni birlashtirish orqali mamlakatda nisbiy barqarorlikni saqlashga intilgan[2:19].

XV asr Movarounnahr jamiyatida sinfiy tafovutlar kuchaygan, aholining asosiy qismini dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar tashkil qilgan. Xoja Ahror bu qatlamlar orasida ayniqsa dehqonlar va kambag‘allarga mehr bilan yondashgan, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan.

Xoja Ahror katta yer-mulk egasi bo‘lgan bo‘lsa-da, bu boylikni xalq manfaati yo‘lida ishlatgan. U ko‘plab madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va ijtimoiy inshootlar

barpo ettirgan. Bu inshootlar nafaqat diniy-ta’limiy markaz bo‘lib xizmat qilgan, balki kambag‘al va muhtojlarga yordam ko‘rsatish markazi ham bo‘lgan.

Xoja Ahrorning iqtisodiy faoliyati Movarounnahrda savdo va hunarmandchilik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning tashabbuslari natijasida Samarqand, Toshkent, Shosh va boshqa shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kuchaygan[3:17].

Xoja Ahror Valiy Movarounnahrda nafaqat siyosiy barqarorlikni tiklashda, balki ma’naviy va diniy hayotni yuksaltirishda ham katta rol o‘ynagan. U Naqshbandiya tariqatining mashhur vakili sifatida insoniy kamolot, sabr, halollik, adolat va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalarini jamiyatga singdirgan. Ayniqsa, u ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor bergan.

Samarqand, Toshkent, Termiz va boshqa shahar va qishloqlarda Xoja Ahror tomonidan madrasalar va xonaqohlar qurilgan. Bu ta’lim muassasalari orqali yoshlar islom ilmlari - tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf - bo‘yicha chuqur bilim olganlar. Shuningdek, u ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan ulamolarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlab kelgan.

Xoja Ahror insonning ruhiy tarbiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, adolat, halollik g‘oyalarini ilgari surgan. U Naqshbandiylik tariqatining "dil ba yoru, dast ba kor" (ya’ni, qalb Allohda, qo‘l mehnatda) shiorini amaliyotga tadbiq qilgan. Buning natijasida u diniy faoliyatni ijtimoiy mehnat, savdo, dehqonchilik bilan birlashtirib, xalq orasida chin so‘fiylik namunasi bo‘lgan [5:33].

Xoja Ahrorning yuritgan siyosati orqali ko‘plab soliqlar bekor qilinib, xalq yengil nafas olgan. U qishloq xo‘jaligi yerlarini dehqonlarga taqsimlagan, kambag‘allarga yordam ko‘rsatgan. Bu orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik va mehr-oqibat muhitini yaratishga intilgan.

Xoja Ahror Valiyning siyosiy nufuzi faqat Temuriylar sarhadida emas, balki undan tashqarida ham sezilgan. U Eron, Xuroson va Hindistondagi hukmdorlar bilan diplomatik aloqalar olib borgan, ularning ayrimlari Xoja Ahrorning maslahatlariga amal qilgan. Bu esa u kishining diniy yetuklik bilan bir qatorda, mohir siyosatchi va diplomatik arbob bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xususan, Xoja Ahrorning temuriy hukmdor Abu Sa’id Mirzoga qilgan maslahatlari natijasida ayrim qonli to‘qnashuvlarning oldi olingan, viloyatlarda barqarorlik tiklangan. Xalq Xoja Ahrorni "xalqning otasi", "murshidi kamil" deb e’zozlagan[5:28].

Xoja Ahror Valiy Naqshbandiya tariqatining eng nufuzli vakillaridan biri edi. Ushbu tariqat, avvalo, riyozat, sabr, ixlos, poklik va jamoatchilik uchun xizmat qilish g‘oyalariga asoslangan edi. Naqshbandiylikda zohiriy va botiniy poklik muhim sanalgan. Xoja Ahror aynan ushbu tariqat orqali xalq ongini uyg‘otish, adolatli jamiyat tamoyillarini shakllantirishga harakat qilgan.

Naqshbandiylik tariqatining o‘ziga xosligi – u hokimiyatdan voz kechishni emas, aksincha uni isloh qilishga da’vat etgan. Xoja Ahror tariqat orqali siyosiy rahbarlarga ma’naviy rahbarlik qilgan. Bu esa Naqshbandiylikni faqatgina ruhiy tarbiyaning emas, balki siyosiy voqelikni tartibga soluvchi kuchga aylantirgan.

Xoja Ahror Valiydan keyingi avlodlar ham uning yo‘lini davom ettirdilar. U ko‘plab shogirdlar tayyorlagan bo‘lib, ular orasida Shayx Kalon, Darvesh

Muhammad, Hofiziy Kabir kabi allomalar bor edi. Ularning faoliyati orqali Xoja Ahror g‘oyalari butun Movarounnahr, Xuroson va Hindistongacha yoyilgan.

Xoja Ahrorning ilmiy-ma’naviy maktabi keyinchalik Boburiylar imperiyasi, Shayboniylar va Buxoro amirligida ham davom etdi. Ayniqsa, Buxoro xonligi davrida Naqshbandiylik tariqati davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, bu bevosita Xoja Ahror Valiy asos solgan tamoyillarning samarasidir [4:9].

Xoja Ahror Valiy yashagan davrda Movarounnahr murakkab siyosiy va ijtimoiy holatda edi. Temuriylar o‘rtasidagi nizolar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, xalqning og‘ir ijtimoiy ahvoli bu davrning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Biroq Xoja Ahror o‘zining iymon-e’tiqodi, siyosiy donoligi va xalqparvarligi bilan bu murakkab davrda xalq uchun umid ramziga aylana oldi [6:9]. Uning faoliyati natijasida ijtimoiy adolat, ilm-ma’rifat va iqtisodiy barqarorlik tiklana boshladi.

Xoja Ahror Valiy yashagan XV asr ijtimoiy va siyosiy beqarorliklar bilan yodda qolgan. Lekin aynan shu murakkab davrda Xoja Ahror o‘zining mustahkam iymoni, siyosiy donoligi va xalqparvarlik faoliyati bilan jamiyatni barqarorlikka yetaklay oldi. U diniy-ma’naviy qadriyatlarni siyosiy boshqaruv, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtira oldi. Xoja Ahrorning merosi bugungi kunda ham yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axmedov B. A. Temuriylar davri tarixidan. - Toshkent: Fan, 1995.
2. Abdulayev A. O‘rta asrlar Sharq tasavvufi va Xoja Ahror. - Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
3. Rashiduddin Fazlulloh. Jome’ ut-tavorix (tarjimasidan parchalar). - Toshkent: Gafur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999.
4. Azamatov A. A. *Xoja Ahror va uning davrida ijtimoiy-siyosiy hayot*. // “Sharq yulduzi” jurnali. - 1998. №3.
5. Shamsiddinov H. *O‘zbekiston tarixi*. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Qayumov A. *Xoja Ahror va Naqshbandiya tariqati*. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.
7. Vohidov Sh. *Movarounnahr siyosiy hayoti Temuriylar davrida*. - Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2010.

OST-INDIYA KOMPANIYASI TOMONIDAN UILYAM MURKFORT MISSIYASINING BUXORO AMIRLIGIGA JO‘NATILISHI

Bobur Tojiyev
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti
tojiyevbobur1@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ost-Indiya kompaniyasining vakili U.Murkfortning 1825-yilda ot savdogari qiyofasida Buxoro amirligiga kelishi, uning amir Haydar bilan uchrashishi,*

Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma'lumotlari, uning josuslik faoliyati haqida bayon etilgan. Uning faoliyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. ***Kalit so'zlar:*** *Aleksandr Byorns, rishta kasalligi, turkman otlari, Oks, Hindiston, ark, xitoy-qipchoq, Andxo'y, Buyuk Britaniya.*

Аннотация: *В статье описывается прибытие в 1825 году в Бухарский эмират представителя Ост-Индской компании В. Муркфорта в качестве торговца лошадьми, его встреча с эмиром Хайдаром, сведения об общественно-политической жизни Бухары, его шпионская деятельность. Его работа освещается на основе научных источников.* ***Ключевые слова:*** *Александр Бёрнс, дракункулёз, туркменские лошади, Окс, Индия, арк, китай-кипчак, Андхой, Великобритания.*

Annotation: *This article describes the arrival of W. Murkfort, a representative of the East India Company, in 1825, as a horse trader, to the Emirate of Bukhara, his meeting with Emir Haidar, information about the socio-political life of Bukhara, and his espionage activities. His activities are covered based on scientific sources.* ***Key words:*** *Alexander Burns, Rishta disease, Turkmen horses, Oxus, India, Ark, Chinese-Kipchak, Andkhoy, Great Britain.*

U. Murkfort Buxoroi Sharifga borishni maqsad qilib yurganida, Charlz Metkalf unga aqilli, topqir musulmon kishisini u yerga sinov tariqasida junatib ko'rishni maslahat beradi. Charlz Metkalf o'zining fors tarjimoni va kotibi Mir Izzatullohni U.Murkfortga tavsiya qiladi. U.Murkfort Mir Izzatullohni Buxoro amiriga atalgan xat bilan Buxoroga junatadi. Bu xatda u amirni "Mo'minlarning qo'mondoni, musulmonlarning imomi, xalq homiysi, Xudoning yerdagi soyasi va noibi, uning marhamati abadiy bo'lsin" [1, - B.124.] kabi so'zlar bilan ulug'laydi. Mir Izzatullohning sayohati 20 oy davom etadi. U Afg'oniston orqali Hindistonga qaytib keladi. U.Murkfort ruslardan oldin Buxoroga borish, u yerlarning bozorlarini egallash va bu hududlarni Buyuk Britaniya siyosiy ta'sir doirasiga kiritish kerakligi haqida o'z rahbarlarini ko'p marotaba ogohlantiradi. Uning asosiy maqsadi ruslardan oldin harakat qilish va ularni dog'da qoldirish edi. Xullas strategik maqsadlardan kelib chiqib, Kalkuttadagi rahbarlar tomonidan U.Murkfortga Buxoroi Sharifga sayohat qilishga ruxsat beriladi. Ammo rahbarlar, ruslarning noroziligini keltirib chiqarmaslik uchun, bu sayohatga rasmiy maqom berishmaydi. Mabado shunday bo'lsa undan voz kechilar edi. Nihoyat 1819-yilda "U.Murkfort hamrohlari Jorj Trebk va Jorj Gutri, otlarga ma'sul shaxslar hamda kichik gurkha askarlari bilan Oks (Amudaryo) bo'ylari va Buxoroi Sharifga kichik karvon bilan yo'lga chiqadi. Bu karavonda chinni idishlardan tortib to'pponchagacha, pichoqdan tortib paxtagacha bo'lgan mollar bor edi" [2, - B.92.]. Bu mollar rus mollarini raqobatda ortda qoldirish uchun ataylab tanlab olinadi.

1825-yil fevral oyida U.Murkfort va uning jamoasi Oks daryosidan (Amudaryo) kechib o'tib Qarshi shahriga yetib keladi. Ular Qarshi shahrida 4 kun bo'lishadi. Shu vaqt davomida u bozordagi narx-navolarni kundaligiga qayd qilib boradi. Bundan tashqari u, qovun va saryog'ni qanday saqlash, nam charm etik va qizil junli to'nlarni qanday tozalash hamda simob yordamida boshdagi bitlarni qanday yo'q qilish sirlarini qayd qilib qo'yadi. Shaharga kelgan kunining uchunchi kuni, ular Amir Sayyid Haydarning ikkinchi o'g'li To'ra Bahodirxonning (Amir Nasrulloh) rasmiy qabulida bo'ladilar. To'ra Bahodirxon ularni juda samimiy kutib oladi. Ular 1825-yil 21-fevralda Qarshi shahridan Buxoroi Sharifga qarab yo'l oladilar.

1826-1825-yil 25-fevralda ular Buxoroi Sharifga yetib keladilar. Ular Buxoroda joylashgach, o'zlarining kelganliklarini Qo'shbegiga ma'lum qiladi. U.Murkfort

Registon maydonidan o’tib hukumdor saroyiga boradi. U Ladahdaligida Buxoro amiridan olgan do’stona maktubini ham o’zi bilan olib keladi. Usha paytda amir Haydar shahar tashqarisda bo’lganligi uchun uni Qo’shbegi kutib oladi. “Qo’shbegi U.Murkfortga do’stona munosabatda bo’ladi. Qo’shbegi U.Murkfortdan sotish uchun olib kelgan mollaridan 10% boj to’lashi kerakligini ma’lum qiladi” [3, - B.347.]. Keyinchalik bu soliq adolatli tarzda undiriladi. Oradan ikki kun o’tgach amir Haydar Arkka qaytadi va U.Murkfort Arkga yana bir chaqiritiriladi. U.Murkfort va Jorj Trebek ayvonlar, yo’laklar orqali katta qabul zaliga olib boriladi. U.Murkfort amir Haydarni qo’yidagicha ta’riflaydi. “U mayus, shubha bilan qaraydigan, rejasiz, kayfiyati tez o’zgaradigan hukumdor edi. U.Murkfort hatto amirning aqliy jihatdan barqaror emasligiga ham shubhaga boradi”[4, - B.347.]. U.Murkfort va Jorj Trebek Qo’shbegining ko’rsatmasiga binoan, hukumdorning oldiga kirganlarida shilyapalarini yechib, boshlarini egib ta’zim qiladi. Bu uchrashuvni U.Murkfort qo’yidagicha ta’riflaydi. “Amir kichik bir xonada tahminan 4, 5 metr balanda o’tirar edi. U rangsiz keng to’n kiygan, boshiga chetlari oltin bilan bezatilgan oq muslin5 salla kiygan edi. U oldidagi katta kitobni tez-tez varaqlar edi. Hukumdor tahminan 48 yoshda edi. Uning rangi biroz zaytun tusida va qoraroq edi. Uning yuz tuzilishi biriz o’zbeklarga xos bo’lib, yuzidagi ajinlari va tez o’zgarib turadigan yuz ifodalari uning faol aql-idrokka ega eganligini ko’rsatardi. Aytishlaricha undagi mehribonlik va yaxshi fe’l-atvor, ishonchsizlik va mag’rurlik bilan aralashib ketgan edi. U bizdan sog’ligimiz, ismimiz, yurtimiz va kasbimiz haqida so’radi. Ikkalamizga amirdan 18 metr o’zoqlikda turish so’ralgandi. Oradan biroz vaqt o’tib amir bizlardan yaqinroq kelishini so’radi, keyinchalik bizlarga bu muloqat maxsus iltifot, ishonch va sharaf belgisi sifatida tushuntirildi. Suhbat davomida amir bizlarga mol-mulkimizni istagan odamga istagan tarzda sotish va shaharda har qanday mahsulotni sotib olish erkinligini berdi” [5, - B.347.] U.Murkfortning kundaligida yozilishicha “U Buxoro amiriga taqdim qilgan sovg’alar ro’yxatini yozib qo’yadi va kundaligining oxiridagi izohga ko’ra “amir uning sovg’alariga javoban, uning savdo mollariga solinadigan bojxona to’lovlaridan ozod qiladi. Bu imtiyoz sovg’alar qiymatidan biroz ko’proq bo’lgan” [6, - B.195-196.].

Buxorolik ot savdogarlari amirning ro’xsatisiz U. Murkfortga ot sotmaganligi sababli, u yana amirga murojat qilishga tug’ri keladi. Amir shikoyatlarni ko’rib chiqadigan kuni, U.Murkfortni qabul qiladi. U buni qo’yidagicha ta’svirlaydi. “Amir mening maktubimni o’qib chiqdi va meni o’tirishimni buyurdi. Bu yerdan men shikoyatlarning qanday hal qilinishiga guvoh bo’ldim. Shikoyatchilarning da’volari o’rinli bo’lsa, amir ularning xo’jjatlariga barmoq muhrini bosardi. Bu muhrga kotib tez-tez xitoydan keltirilgan maxsus siyoh surtib turardi. Amir rad etilgan shikoyatlarning sabablariga izoh berar va rat e’tilgan shikoyat yirtib tashlanar edi. Har bir ijobiy yoki salbiy qarordan so‘ng, marosim tashkilotchisi tomonidan hukumdorning adolatli boshqaruvi abadiy bo‘lsin deb turk tilida qisqa duo o‘qiladi, qolganlar uning ortidan saqollarini silab qo‘yishadi. Butun jarayon rasmiy tarzda davom etdi. Hukumdor menga ot sotib olish uchun muxrlangan ruxsatnoma berdi. Bundan tashqari hukumdor marosim boshlig’iga bundan keyin bizlarning hukumdor

5 Oddiy to’qima paxta matosi

qabuliga kirishimizda shlayapamizni yechishimizning shart emasligini, o'ng qo'limizni kukragimizga qo'yib yengil ta'zim qilishimizning o'zi yetarli ekanligi haqida buyruq berdi. Biz joylashgan karvonsaray egasi Dalli Bay narsalarimizga javobgar etib belgilandi. Agar narsalarimizdan biron narsa yo'qolsa uning ko'zlari o'yib olinishi haqida ogohlantirildi" [7, - B.347.]. Bundan tashqari Buxoroda U.Murkfort bilan yaqin aloqada bo'lgan savdogarlarning guvohlik berishicha, "amir uning iste'dodini yuqori baholagan va tez-tez suhbatiga chaqirib turgan. Unga oldin hech bir nasroniyga berilmagan imtiyoz — shaharda otda yurish va arkgacha otdan tushmay borish huquqi berilgan" [8, - B.196.].

Buxoro ot bozorlarining bo'm-bo'shligidan U.Murkfort tushkunlikka tushadi, uning fikricha tinimsiz urushlar bu bozorlarni tanazzulga uchratgan. Shunday bo'lishiga qaramay U.Murkfort yaxshi naslli potlarni topishdan umidini uzmagan edi. Amirning xitoy-qipchoq isyonini bostirish uchun qilgan yurish paradini ko'zatgan U.Murkfort eng yaxshi otlarning ko'pchiligi amir qo'shining tarkibida ekanligiga guvoh bo'ladi. U.Murkfort faqat siyosiy masalalarga emas, o'zini qiziqtirgan ijtimoiy jarayonlarga ham e'tibor qaratadi. U Buxorodagi yer haydash, ekin o'rim-yig'imi, sug'orish va o'g'itlash, vinochilik va uzum yetishtirish, eshak va parranda boqish, sutchilik va ipakchilik, kannabis va meva yetishtirish haqida Londondagi qishloq xo'jaligi kengashi uchun kichik bir kitob yozadi. Buxoroning mashhur oq nonlarining tayyorlanishi, nonvoylarning tandirning issig'iga chidamliligi uni xayratda qoldradi. Buxoro shahrida odamlar va hayvonlar orasida keng tarqalgan qurt kasalligi (rishta kasalligi) U.Murkfortning alohida e'tibrini tortadi. U.Murkfort bu kasallik bo'yicha oshkora tadqiqot olib borolmaydi. Ammo suv hovuzlari, idishlari va ariqlar kasallikning sababchisi ekanligiga U. Murkfortning ishonchi komil edi. Shaharning toza ko'chalari va otxonalari bilan badbo'y hidli va sanitariya talablariga javob bermaydigan suv ta'minoti o'rtasidagi keskin farq uni hayratda qoldiradi. Qo'shbegi U. Murkfortning gigiyenik maslahatlariga e'tibor bermaydi. U Buxoroda "qurt o'ldiruvchi" nomi bilan tanilgan Mirzo Shams ismli sartarosh-jarrohning yonida ko'p vaqtini o'tkazadi. U. Murkfort bemorlarning tanasidan qurtlarning chiqarilish jarayonini kuzatadi va bu usullarni yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalarini beradi. Hatto bemorlarning tanasidan 1 metrgacha bo'lgan qurtlar chiqadi. U.Murkfort Buxoroda 3 ta rus qulini bitta yaxshi ot bahosidan ham arzonga sotib oladi. Uning maqsadi ularni Hindistonga olib borib ozod qilish edi. Ammo amir bu qullarni U.Murkfortdan qul bozorida qayta sotishini talab qiladi. U.Murkfort sotib olmoqchi bo'lgan yaxshi otlarning ko'pchiligi, amir qo'shini bilan ketgan edi. U.Murkfort ularni iyul oyi boshigacha kutadi. Chunki Hindistonga qaytish choralari ko'rilmasa, qish paytida Hindiko'sh tog'larida qolib ketish ehtimoli bor edi. U.Murkfort Qo'shbegidan ketishga ruxsat so'raganidan bir necha kun o'tib, amir uni harbiy lageriga chaqirtirganligi haqida xabar keladi. Amir U.Murkfortni yashil ipak chodirida qabul qiladi. Amir U.Murkfort olib kelgan sovg'alardan mamnun bo'ladi va Hindistonga qaytish yo'lida joylashgan ba'zi qabila boshliqlariga maktub yozishga vada beradi. Bular U.Murkfortni ruhlantiradi va otlar masalasida yana bir bor amirga murojat qiladi. U shunday dedi. "Men amirga Buxoroda nasldor otlar borligini eshitganimni, lekin shu paytgacha oz sonli otlarga ega bo'lganligimni bildirdim. Agar amir ro'xsat bersa qo'shin lagerida zotli otlardan sotib olishga tayyor ekanligimni

ma’lum qildim. Amir “sotib ol”, “sotib ol” deb qisqa javob qildi. Men yurtimda hukumdorning mehmondo’stligi va ehtiromini ulug’lash burchim ekanligini amirga bildirdim” [9, - B.352.].

Bu uchrashuvdan keyin u yaralangan askarlarni davolash uchun chaqiriladi. Bir kuni uning oldida hayratlanarli darajada chiroyli turkman oti namoyish etiladi. Ushbu ot sotilishi yoki sovg’a qilinishi haqida unga ishora beriladi. Amir undan dushmanni qamalga olishni boshqarishini so’raganida, U.Murkfort bizlar karvon qaroqchilariga qarshi kurasha olamiz, qamal urushi yoki muntazam janglarga qatnasha olmaymiz deb javob beradi. U.Murkfort shunday yozadi “suhbat boshida amirning chehrasi kulib turar edi. Ammo so’zlarimni eshitganidan so’ng yuzlarida g‘amginlik paydo bo‘ldi. Men ta’sirimni yo’qotganimni sezdim. Biroz sukutdan so‘ng amirning ishorasi bilan bizni chiqarib yuborishdi” [10, - B.353.]. U. Murkfort ertasi kuni bemorlar kurigidan keyin ot izlashni boshlab yuboradi. Ammo U. Murkfort chodiriga qaytganida amirdan “yangi xaridlarni tuxtat va Buxoroga qayt” degan shoshilinch xabar keladi. U amirning chodiriga qarab yo’l oladi ammo amir uni qabul qilmaydi. Ertasi kuni tongda u amir bilan uchrashishga muvaffaq bo’ladi. U amirdan “qo’shindagi barcha otlar xitoy-qipchoq isyonini bostirish uchun kerak” degan javob oladi. Unga vada qilingan ot o’rniga oddiy bir libos tortiq qilinadi. U.Murkfort uchun Hindistonga qaytishdan boshqa chora qolmaydi. U.Murkfortning yagona umidi otlarni Amudaryoning janubidan izlash edi. U.Murkfortdan qolgan ba’zi bir xo’jjatlar “u Buxoroni tark etishida, savdo mollarining katta qismini sotganligini ko’rsatadi” [11, - B.195.]. Bu esa uning yuklari haqidagi haddan tashqari mubolag’ali gap-so’zlarga chek qo’yadi. Tong otishi bilan Jorj Trebek barcha otlar bilan yo’lga chiqadi. U.Murkfort esa yuklar va tuyalar bilan keyinroq yo’lga chiqadi. Shom paytida ular shahardan tashqariga yetib kelishadi. Kechki ovqat osh (palov) tayyorlash uchun U.Murkfort shaharga odam junatadi. Palov juda mazali chiqqanidan, u bu taomni pishirish usulini kundaligiga alohida yozib qo’yadi.

Karvon tarkibida 60 ta ot, 60 ta odam va kamayib qolgan yuklarni ortish uchun ijaraga olingan tuyalar bor edi. U Hindistonga qaytish oldidan sog’ligida muammolar paydo bo’la boshlaydi. Ular 4 kun yo’l yurib Qarshi shahriga yetib kelishadi. To’ra Bahodir (Amir Nasrulloh) ularni yaxshi kutib olmaydi. Qarshida U.Murkfortning bir nechta qimmatbaho shoyi matolari va eng yaxshi otlaridan biri olib qo’yiladi [12, - B.355.]. U 1825-yilning 27-avgust kuni kasallikdan “Andxo’y” shahrida (hozirgi Afg’onistonning shimolidagi tuman) vafot etadi. U.Murkfortning 6 yillik sayohati shu yerda tugaydi.

U.Murkfort Buxoroni tark etishidan oldin josuslik tarmog’ini yo’lga qo’yadi. U maxfiy josuslarini Buxoroga joylashtiradi. U Hindistonning shimolidan Buxoro amirligigacha bo’lgan hududlarda inglizlarninng savdo-sotig’ siyosatini joriy qilish va bu yo’l orqali mahalliy hukumdorlarni o’zlarining siyosiy ta’siriga olish haqida o’z rahbarlariga bir necha marotaba xabar beradi. Uning fikricha bu yo’l ruslarning Hindistonga bo’lgan tajovuzini qaytarishda samarali yo’l edi. Buxoro bilan Amudaryoda kemalar qatnovi orqali savdo-sotiq qilishning strategik ahamiyatini aniqlaydi. U.Murkfort Buxoroi Sharifdagi yarim yillik faoliyati davomida, bu davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar qoldiradi. U.Murkfortning vafotidan keyin, uning hujjatlari va kitoblari Qunduzda

qolib ketadi. 1831-1840-yillarda Aleksandr Byorns va uning hamrohlari Afg'onisto, Qunduz, Qobulga sayohat qilganlarida, uning hujjat va kitoblarining deyarli barchasini qo'lga kiritadi. Bu haqda Aleksandr Byorns o'zining "Travels into Bokhara" va "Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in the years 1836, 7, and 8." batafsil to'xtalib o'tadi. Unda U.Murkfortning Buxoroga olib kelgan savdo mollari, sotib olgan nasldor otlari, uning o'limi haqida sirli bo'lib kelgan voqea hodisalarga ancha oydinlik kiritiladi. Uilyam Murkfortning 6 yillik sayohatiga bag'ishlangan "Tarvels in the Himalayan Provences of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshavar, Kabul, Kunduz and Bokhara" nomli qimmatli asar 1841-yilda H.H.Vilson tomonidan nashr ettiladi. XX asrda U.Murkfortning Hindistondan Buxorogacha bo'lgan sayohatini Garry Alder o'zining 1985-yilda nashr etilgan "Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825" nomli asrida chuqur tahlil qilib beradi. Bu manbalar Vatanimiz tarixini o'zganishda qimmatli manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012.
2. Peter Hopkirk. The Great Game. - London: 1990.
3. Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in the years 1836, 7, and 8, by the late Lieut.-Col. Sir Alexander Burnes, C.B., &c., of the India Company's Service. Second edition. London, 1843.

BUXORONING DARVESH AMIRI

Yunusjon ASATOV
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti talabasi
asatovyunus681@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoroning adolatli amiri amir Shohmurod faoliyati, uni hokimiyat tepasiga kelishi jarayoni haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, o'sha davr Buxoro amirlaridan farqli jihatlari hamda uning naqadar taqvodor hukmdorligi manbalar asosida ochib berishga harakat qilingan.* ***Kalit so'zlar:*** *Ashtarxoniylar, Abulfayzxon, Muhammad Rahimbiy, Mang'itlar, amir Shohmurod, "Amiri ma'sum".*

Аннотация*: В данной статье представлена информация о деятельности справедливого амир Бухары, амире Шохмуроде, а также о процессе его восхождения к власти. Рассматриваются отличия его правления от других амиров Бухары того времени, а также подчеркивается его благочестивое правление на основе исторических источников.* ***Ключевые слова****: Аштарханиды, Абулфейзхан, Мухаммад Рахимбий, Мангиты, амир Шохмурод, "Амир ма'сум".*

Annotation*: This article provides information about the activities of the just Amir of Bukhara, Amir Shohmurod, and the process of his rise to power. It also aims to highlight the differences between him and other Bukhara rulers of that period, as well as to demonstrate the piety of his rule based on historical sources.* ***Keywords****: Ashtarkhanids, Abulfayz Khan, Muhammad Rahimbiy, Manghits, Amir Shohmurod, "The Innocent Amir".*

Tarixdan saboq olinmasa, o‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarilmasa tarix takrorlanishda davom etaveradi. Tariximizda o‘tgan hukmdorlar orasida shaxsiy hayoti, davlat boshqaruvidagi islohotlari bilan keyingi davr hukmdorlari va bugungi kun boshqaruvchilari uchun ham o‘rnak bo‘la oladigan shaxslar yetarlicha topiladi, ulardan biri yaqin tariximizda Buxoro amirligi hukmdori bo‘lgan amir Shohmuroddir (1785-1800).

Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi hukmdori Abulfayzxon davriga Buxoro xonligi inqirozga yuz tutgan edi, Muhammad Rahimbiy rasmiy ravishda 1756-yil taxtga chiqadi va mang‘itlar sulolasiga asos soladi. U saltanatni birlashtirishga markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qiladi. Muhammad Rahimbiy 1758-yil 24-martda vafot etadi [8-B. 43]. Undan keyin hokimiyatga kelgan Doniyolbiy otaliq davrida ishlar tersiga ketadi: saltanatda tartibsizlik avj oladi, bekliklarning mustaqillikka intilishi avj oladi, hatto hukmronligining oxirgi yillarida Doniyolbiy davlat ishlaridan uzoqlashib qoladi, bundan foydalangan ayrim yirik amaldorlar o‘z mansabini suiste’mol qilib, zulmni oshirib yuborishadi. shunday vaziyatda 1785-yilda Doniyolbiy vafot etadi va taxtga uning vasiyatiga binoan xudojo‘yligi va so‘fiyligi bilan mashhur o‘g‘li Shohmurod o‘tiradi. XIX asrning mashhur tarixchi olimi, mang‘it hukmdorlariga nisbatan tanqidiy yondashgan Ahmad Donish amir Shohmurod haqida “Zero, uni , “ikkinchi Umar” deb ham atasalar arziydi” deb yozgan edi [1-B. 17]. Rus sharqshunosi N. Ostroumov esa unga quyidagicha ta’rif beradi: “U (Shohmurod) xazinadan o‘z xizmati uchun shariatga ko‘ra qancha haq berilsa shuncha olgan, bu o‘sha davr Rus pulida bir kunga 40 tiyinni tashkil qilgan. O‘zini va oilasining kamtarona xarajatlarini esa shaxsiy mehnati bilan qoplangan. Bir kuni u moliyaviy qiyinchilikka uchraganda, bitta-yu bitta po‘stinini sottiradi, u kiyilaverib shunchalik titilib ketgan ediki, unga atiga 35 tiyin beriladi. Bunday misollar mahalliy xalq orasida juda kam bo‘lsada uchraydi” [7-B. 61]. 1794-yil Buxoroga kelgan Rossiya elchisi T. Burnashev esa “Uning (Shohmurod) saroyida zarracha dabdaba yo‘q edi. Faqat ikkita xotini bo‘lib, kun kechirishlari uchun nihoyatda kam pul xarj qilinardi. Shu sababli ular tinimsiz turli qo‘l mehnati bilan mashg‘ul bo‘lardi va tirikchiligi shundan edi. U hech kimnikidan farq qilmaydigan oddiy kiyim kiyardi. Uning odatiy ovqati non va suv edi. Xalq unga alohida ehtirom bilan munosabatda bo‘lardi. Uni Muhammad (s. a. v) shariatiga haqiqiy amal qiluvchi va hatto avliyo darajasida bilishardi” [8-B. 53-54]. Shohmurod soliqlardan ezilgan xalqning harakati kuchaygan paytda taxtga chiqqani bois birinchi islohotini soliqlarni tartibga solishdan boshladi, u Buxoro shahri aholisiga tarxon yorlig‘ini berib, o‘zidan avvalgi hukmdorlar joriy qilgan, shariatga to‘g‘ri kelmaydigan boj, yorg‘u, tarx, tushmol, yasoq kabi soliqlarni bekor qiladi [14-B. 2]. 1785-yil amirlikda pul islohotini o‘tkazib, sof oltin va kumush tangalarni zarb ettiradi [6-B. 37]. Otasi Doniyolbiydan qolgan merosdan voz kechib, “ommaga xayr tarqatuvchilarga beringlar, meros moli bilan qo‘limni kir qilishni xohlamayman, bu mollar kimlardan yig‘ilgan bo‘lsa shularga qaytarilsin, iloji boricha mukofot tarzida berilsin” deydi va otasi davridagi adolatsizliklar uchun xalqdan uzr so‘raydi [9-B. 369]. So‘ng otasi Doniyolbiy davrida xon bo‘lib turgan soxta xon – G‘ozixonni hokimiyatdan chetlashtirib, o‘zini amir deb e‘lon qiladi [6-B. 36]. Bu bilan u o‘zini islom hukmdori ekanligini, davlatni turk-mo‘g‘ul qoidalari bilan emas, shariat asosida boshqarishini

bildiradi, shu bilan birgalikda mang‘it hukmdorlarining hokimiyatini rasmiylashtiradi. Shohmurodning xudojo‘yligi va so‘fiy tabiat ekanligi qattiqqo‘llik va qat‘iy hukmdor sifatida siyosat yuritishiga monelik qilmaydi. U otasi davrida xalqqa zulm o‘tkazgan va soliqlarni haddan oshirgan, poraxo‘rligi bilan xalqning nafratiga uchragan Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl ettiradi. Nodirshoh bosqinidan so‘ng qo‘ldan chiqqan Xuroson va Amudaryoning chap sohilidagi viloyatlarni qaytarish maqsadida 1788-yil Andxo‘y, Shibirg‘on, Saripul, Oqcha viloyatlariga, 1789-90-yillarda Marv ustiga yurishlar uyushtiradi va Buxoro amirligi tarkibiga kiritadi [2-B. 289; 8-B. 48]. A. Vamberining yozishicha “Eronning shimoli-sharqiy tarafi Shayboniyxon va Abdulmo‘minxon vaqtidan buyon hech bir davr ushbu tilanchi xon davridagi kabi Turon lashkarining bunchalik qattiq hujumiga uchramagan edi. Mirzo Sodiqning bayoniga ko‘ra, bu yag‘mogarlik hujumiga qatnashuvchi o‘zbek va turkmanlarning soni hech vaqt 20 mingdan kam bo‘lmagan” [9-B. 374]. Shohmurod qozilik ishlarini ham tartibga soladi. Shohmurod davrida agar qonunga xilof ish qilingan bo‘lsa, xo‘jayin ustidan qoziga arz qilish, hatto qul ham murojaat qilishi mumkin bo‘lgan. Ko‘p hollarda qozilik jarayonida amirning o‘zi ham ishtirok etib borgan. Amir Shohmurodning qozilik tizimi islohoti, Z. Muqimovga ko‘ra, Turkiston davlatlarida qozilik ishlarini ijobiylashtirish yo‘lidagi katta qadam edi [14-B. 207]. Shohmurod qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali iqtisodni jonlantirishga intilgan, xususan u Zarafshon, Oqdayo, Qoradaryo daryolaridan kanal, ariqlar qazdirgan [15-B. 209]. U kamtarona hayot kechirgan; o‘zi uchun kundalik xarajati bir tangadan oshmagan, yeb-ichishi va kiyinishi oddiy bo‘lgan, biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormagan, hech kimdan sovg‘a olmagan, o‘z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo‘l qo‘ymagan. Amir Shohmurod darveshona hayot kechirgan. Uning va ahli ayollarining taomlari xazinadan bo‘lmasdan yahudiylardan olinadigan jizya hisobidan bo‘lib, uning kundalik yemishi arpa unidan non, moshova, o‘moch va arpa unidan atala, har haftada chorak go‘sht edi [2-B. 291]. Shohmurod amir bo‘lishiga qaramasdan yurish-turishi, kiyinishi juda oddiy bo‘lib, yiliga bitta olacha chopon, bo‘z ko‘ylak kiyib, oddiy bo‘z salla o‘ragan. Shohmurod pichoqqa qin yasab tirikchilik qilardi [3-B. 173]. Shohmurod o‘g‘rilik, qaroqchilik, bosqinchilikka qarshi qat‘iy chora-tadbirlarni ko‘rdi. Suv inshootlarini ta‘mirlashga alohida e‘tibor qaratdi. Uning hukmronligi davrida harbiy sohada ham ma‘lum o‘zgarishlar qilindi. Amir Shohmurodning adolatli boshqaruvi keyinchalik ham xalq xotirasida saqlanib qoldi, xususan 1863-yilda Movarounnahrga sayohat qilgan venger sharqshunosi Vamberining qayd etishicha “Uning idora davrini buxoroliklar yaqin bir davrdagi asri saodat deb biladilar. Uning hukmronlik davri hozirgi naslning xotirasidan hamon o‘chmagan. Shu bois o‘zbek va tojiklar uning haqida gapira boshlasalar, bu musulmon namunali hukmdorning adolati, go‘zal boshqaruvi jihatlarini madh etib, sira gapirib tugata olmaydilar. Tabiiy, uning har narsadan ortiq boshqaruv usuli g‘oyat diyonatkorona bo‘lganini maqtaydilar” [9-B. 380]. Ahmad Donish “Risola yoxud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarida Shohmurodning shaxsiy hayoti va fe‘l-atvori haqida ba‘zi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi, xususan unda keltirilishicha, Shohmurod ramazon kunlaridan birida xarajatga mutasaddi vakiliga “bugun ramazon oqshomida ko‘nglim palov istayapti. Xazinadan mening xarjimga beriladigan qismidan ol. Yetmasa qarz olib, iftorga bir tovoq osh

tayyorla” deya buyruq berdi. Oshni shomga tayyor qilishdi. Amir atrofdagilari bilan qizg‘in suhbat qurar ekan, birdan “borib, madrasadan to‘rt nafar qashshoq talabani keltiringlar” deb buyurdi. Mutasaddilar buyruqni bajarib, talabalarni keltirdilar. Shohmurod talabalarga qarata: “bu osh tamom bo‘lguncha yeysizlar, qolmasin shunda yana xazinadan bir dinordan beraman. Agar oshni orttirib qoldirsanglar tillo ham yo‘q” dedi. Talabalar oshni ishtaha bilan tanovul qilishdi. Amir hazratlari bu vaqt mobaynida o‘tirib tasbeh o‘girish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Keyin buyurdiki: “ular(talabalar)ga bir dinordan beringlar, ramazon oyida iftorlikka sarflasinlar” dedi. Ro‘zador amir esa qoq non va sovuq suv bilan iftorlik qildi va oshga qo‘lini ham urmadi... Shohmurod 1800-yil 30-noyabrda vafot etadi.

Amir Shohmurod o‘zining 15 yillik hukmdorlik davrida (1785-1800) muvaffaqiyatli ichki va tashqi siyosat olib bordi, Nodirshoh bosqinidan so‘ng yo‘qotilgan Amudayoning chap sohilidagi yerlar qaytarildi, Turkistonga xavf solib turgan Eron ustiga yurishlar uyushtirdi. Ichki siyosatda moliya, sud, harbiy, ma‘muriy islohotlar o‘tkazdi, iqtisodiyotni jonlantirdi, markaziy hokimiyatni nisbatan mustahkamladi. Shohmurodning faoliyatiga Ahmad Donish haqqoniy baho bergan edi, u: “faqr libosida amirlikda tartib o‘rnatib, zulm va dushmanlar ildizini jahonning bog‘ida yanchib tashladi, hamda adolat va ehson niholini parvarish etdi” [1-B. 117] deya yozgan edi. “Amiri ma’sum” o‘z holiga tashlab qo‘yilgan vaqflarni qayta tikladi, masjid-madrasalarni ta‘mirlatirib, o‘zi ham Buxoroning Gulobod ko‘chasida, “madrasai amir” nomli kichikroq madrasa qurdiradi [13-B. 131 ; 3-B. 173]. Abdulazim Somiyning yozishicha, Shohmurod saltanatning mosuvo bo‘layozgan shon-shukuhini qayta tiklab, davlatga fayzu chiroy ato etgan [13-B. 131]. Biz amir Shohmurodning faoliyati orqali adolat so‘zdan amalga ko‘chsagina haqiqiy rivojlanish, xalq hayotining yaxshilanishiga sabab bo‘lishini, bo‘lmasa adolat va razolat bir bo‘lib qolaverishini ko‘ramiz. Tarixni tanqidiy ko‘z bilan o‘rganishimiz kerak, shu bilan birga ajdodlarimiz xatolaridan xulosa chiqarib, yaxshi ishlaridan o‘rnak olishimiz darkor.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmad Donish. Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi / Tarjima, izohlar muallifi Q. Yo‘ldoshev. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.

2. Mirzo Salimbek. Kashko ‘li Salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin / Tarjima, kirish so‘z, izohlar muallifi N. Yo‘ldoshev. Buxoro: Buxoro, 2003.

3. Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston / Arab yozuvidan tabdil: Sh. Vohidov, R. Xoliqova; so‘zboshi va izohlar muallifi Sh. Vohidov. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

4. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi / Tarjimon va izohlar muallifi H. To‘rayev. Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2004.

5. Abdurauf Fitrat. Amir Olimxonning hukmronlik davri / Tarjimon va izohlar muallifi H. Qudratillayev. Toshkent: Minhoj, 1991.

6. Q. Rajabov. Amir Shohmurod yoxud “amiri ma‘sum” // Buxoro mavjlari. Buxoro, 2006, 36 – 38 betlar.

7. Z. Muqimov. Qilich va qalam sohiblari. Samarqand: SamDU, 2008. 86 b.

8. A. Zamonov, A. Egamberdiyev. Buxoro amirligi tarixi. Toshkent: Tamaddun, 2022.
9. A. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent: Info Capital Books, 2024. 464 b.
10. A. Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixidan. Toshkent: Sharq, 2001. 368 b.
11. B. Eshov, A. Odilov. O‘zbekiston tarixi, 2-jild. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. 408 b.
12. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev. Vatan tarixi, 2-jild. Toshkent: Sharq, 2010. 368 b.
13. Mirza Abdulazim Somiy. Mang‘it sultonlari tarixi yoxud Buxoro xonligining inqirozi / Tarjimon Ilhom Sultonov // Sharq yulduzi, 1993, 3-4 son, 129 – 150 betlar.
14. Z. Muqimov. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Toshkent: Adolat, 2003. 280 b.
15. H. Boboyev, Z. Xidirov, J. Shodiyev, M. Ahmedova. O‘zbek davlatchiligi tarixi, 2-jild. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 472 b.

JADIDLARNING YANGI USUL MAKTABLARI VA ULARNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Zuhriddin SOBIROV
Oriental universiteti o‘qituvchisi
sobirovzuhridddin@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakatining eng muhim jihatlaridan biri - yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni yoritilgan. Jadidlar tomonidan ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, bu maktablarning an’anaviy maktablardan farqi, ularning tarbiya, milliy ong va ijtimoiy uyg‘onishdagi roli tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.* ***Kalit so‘zlar:*** *jadidchilik, yangi usul maktablari, islohot, ta’lim, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, ayollar ta’limi.*

Аннотация: *В статье рассматривается одно из важнейших направлений движения джадидов в Средней Азии — создание школ нового метода и их роль в общественной жизни. Анализируются образовательные реформы джадидов, отличия новых школ от традиционных, а также их вклад в воспитание, формирование национального сознания и социальное пробуждение.* ***Ключевые слова:*** *джадидизм, новые методические школы, реформа, образование, национальное пробуждение, просвещение, женское образование.*

Annotation: *This article explores one of the key aspects of the Jadid movement in Central Asia - the establishment of new-method schools and their role in social life. It analyzes the educational reforms introduced by the Jadids, how these schools differed from traditional ones, and their impact on upbringing, national consciousness, and social awakening.* ***Keywords:*** *Jadidism, new-method schools, reform, education, national awakening, enlightenment, female education.*

Chorizmning Turkistonni xom ashyo manbaiga aylantirganligi, xalqni qashshoqlik va jaholatga solganligi, umuman uning mustamlakachilik siyosati xalqni istibdod zulmiga qarshi milliy ozodlik kurashini boshlashga majbur qildi. Mana shunday tarixiy sharoitda o‘lkada millat ravnaqini, ozodligi, erkinligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritishni o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar - jadidlar paydo bo‘ldi. Ular bir tomondan chorizmning qudratli harbiy-siyosiy kuch ekanligini yaxshi

bilganliklari, ikkinchi tomondan, xalqning milliy ongini oshirmay, o‘zligini anglatmay turib, asosiy maqsadga mustaqillikka erishib bo‘lmasligini yaxshi tushunganliklari tufayli ozodlik harakatining birinchi bosqichi xalqni ma’rifatli qilishdan iborat bo‘lishi lozim, deb hisobladilar va shundan kelib chiqib o‘z faoliyatlarini maktab, matbuot, san’at orqali xalqni ma’rifatli qilishdan boshladilar.

Turkistondagi jadidchilik, ozodlik harakati Sharq xalqlarining, Rossiya imperiyasidagi musulmon xalqlarining ozodlik harakati bilan uzviy bog‘liq edi. Mustaqillik uchun kurashning birinchi bosqichini ma’rifatparvarlik yo‘li bilan amalga oshirish g‘oyasini Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo‘lib qrim tatar xalqining farzandi Ismoil Gasprinskiy ilgari surgan edi. Bu harakatga Turkistonda jadidlarning ko‘zga ko‘ringan vakillari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Abdulqodir Shakuriy kabilar yetakchilik qildilar [1-B. 36].

Tabiiyki, Turkistonda mustamlakachilik ma’muriyati Jadidchilik g‘oyalarining tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslikka jon-jahdi bilan harakat qildi. Biroq, bu g‘oya tarixiy taraqqiyot natijasi o‘laroq yuzaga kelganligi, musulmon dunyosi ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli mahalliy rus amaldorlarining qarshiliklariga qaramay xalq o‘rtasida keng tarqaldi va qo‘llab-quvvatlandi. Tarixiy taraqqiyot, G‘arb ta’siri maktablarda dastlab diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni yoshlarga o‘rgatishni va jamiyat taraqqiyotini yangi, yuqoriroq bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda edi. I. Gasprinskiy g‘oyalarining Rossiya imperiyasi musulmonlari, shu jumladan, Turkiston jadidlari orasida tez shuhrat topganligi shu bilan izohlanadi.

Jadidlar nafaqat bu islohotni o‘tkazish zarurligini nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki yangi usul maktablari, kutubxonalar, o‘quv xonalari, dastlabki teatrni ochib, darslik va gazetalar chop ettirib, maorifni hayotga tatbiq etishga katta harakat qildilar. Dastlabki jadid maktabi 1898 yili Qo‘qon shahrida Salohiddin domla tomonidan ochildi, 1899 yili esa bu ishni Toshkentda Mannon qori, Andijonda Shamsiddin domla davom ettirdi. 1911 yilga kelib Turkistonda yangi usul maktablarining umumiy soni 63 tani tashkil etdi, ularda 4106 nafar o‘quvchi tahsil olardi; 30 ta maktab Farg‘ona viloyatida, 12 tasi Yettisuvda, 5 tasi Samarqandda faoliyat yuritgan. Toshkent, albatta, maktablar ko‘pligi (ularning soni 24 ta bo‘lgan) va ta’lim sifati bilan ajralib turgan [1-B. 11].

Ushbu o‘uv muassasalarini, albatta, yevropacha namunadagi maktab so‘zi bilan atab bo‘lmaydi, ammo ular mazkur namunaga nafaqat o‘quv mashg‘ulotlari va tuzilishi, balki, asosiysi, o‘qitish metodikasi bo‘yicha yaqinlashgan. Eski maktablardan farqli o‘laroq, bu yerda bolalar 40 kunda savod chiqarishgan. Shu bois nisbatan qisqa muddatda bu maktablar aholi orasida mashhurlikka erishdi. Boz ustiaga, o‘qituvchilar yoshi 25 dan oshmaydigan yosh yigitlar bo‘lishgan va bu yerda tahsilning “tayoq metodi” haqida gap ham bo‘lishi mumkin emasdi. Dastlab ular orasida tatar millatiga mansub o‘qituvchilar ko‘p bo‘lgan. Keyinchalik imperiya ma’muriyati “panturkizm” va “panislomizm” g‘oyalarining tarqalishidan xavfsirab ularga o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishni taqiqlab qo‘ydi. Yangi usul maktablardan, masalan, Munavvar qorining maktabini eng yaxshisi deb qayd etishgan. O‘z davrida uni M. Uyg‘ur, Hamza, K. Ramazon va Oybek bitirib chiqishgan.

Ta’kidlash kerakki, ushbu maktablar arabcha-forscha ta’lim yo‘nalishidan chekingan, ularda tahsil asosan o‘zbek va tojik tillarida amalga oshirilgan. Ayrim maktablarda rus tili o‘qitilgan. Bu ishni A. Shakuriy va Munavvar qori boshlab berishgan. Ayrim maktablarda, ayniqsa, Toshkent maktablarida o‘g‘il bola va qizlarning birgalikda o‘qitilishini ham ulkan yangilik hisoblash mumkin. Agar aholini dinga moyilligini hisobga olinsa, bu haqiqatan ham inqilobiy qadam bo‘lgan.

Dastlab maktablarda ta’lim Rossiya, xususan, tatar darsliklari asosida olib borilgan. Biroq tez orada ona tilida o‘qitishning zarurligini his qilgan. O‘qituvchilarning o‘zi darsliklar yaratishdi. M. Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov 15 dan ortiq darslik va qo‘llanmalar yozishgan.

Turkistonda imperiya ma’muriyati yangi maktablar eski maktablarga nisbatan ma’lum darajada umumta’lim bilimlarini berishini anglab, dastlab ularga ijobiy munosabatda bo‘ldi. Ammo vaqt o‘tib bu maktablarni tashkil etish va keng yoyishni rag‘batlantirmaslik, hatto ayrimlarini yopish holatlari tendensiyasi yuzaga keldi. Hokimiyat vakillari ularda musulmon bolalariga barcha mayllarni qabul qilish kobiliyatini singdirish manbaini ko‘rdilar, bunda hokimiyatga qarshi kayfiyat nazarda tutilgan. Ushbu siyosatning belgilanishida Turkiston general-gubernatorligi xalq bilim yurtlari bosh noziri N.P. Ostroumov hal qiluvchi rol o‘ynadi [2-B. 43].

Qolaversa, qadimchilar va jadidlar karama-karshilig, o‘lkaning imperiya ma’muriyati uchun ayni muddao edi, shunga qaramay, jadidlar yopilgan maktablar o‘rniga yangilarini ochishdan charchashmagan. Natijada 1917 yili Turkistonda 100 ga yaqin maktab faoliyat yuritgan.

Ta’lim tizimidagi yangilanish jarayonlari Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham keng yoyildi. Tojik tilli birinchi yangi usul maktabi Abdulvohid Munzim tomonidan 1908 yili Buhoroda ochildi. Biroq bu yerda konservativ kayfiyatdagi ruhoniylar qarshiligi ancha kuchli va katta ta’sirga ega edi, bu tez-tez mullalar tomonidan oyoqqa turg‘izilgan olomonning maktablarni vayron qilishiga olib keldi. A. Munzimning maktabi ham shunday zarar ko‘rdi. Uning o‘zi esa joniga qasd qilishlaridan xavfsirab Qarshiga ketishga majbur bo‘ldi. Jadidchilik maktablarining jo‘shqin tashabbuschisi S. Ayniy esa uch hafta davomida do‘stlarinikida yashirinishga majbur bo‘ldi. Oqibatda 1909 yili A. Munzim maktabi yopildi, buxoroliklarga esa bolalarini hatto tatarlarning yangi usul maktablariga o‘qishga berish ham taqiqlandi. Ammo yangi maktab “ovoza ko‘tarib” bo‘lgandi va aholi bu yerga bolalarini olib kelishda davom etdi. Talabgorlar soni 50 kishiga yetganida ularni, S. Ayniy ma’lumotiga ko‘ra, Gavkushon madrasasi yonidagi tatar maktabiga joylashadi.

Xiva xonligida ta’lim tizimini isloh qilish masalasi ancha oson o‘z yechimini topdi. Buning sababi Xiva xoni Muhammad Rahim II (Feruz) texnologik yangiliklarni ma’qullovchi madaniyat homiysi bo‘lganidadir. 1874 yili uning tashabbusi bilan Xivaga Rossiyadan toshbosma dastgohi keltiriladi. Xonlikda yangi usul maktablarining ochilishi Buxorodagidek hokimiyat vakillarining qarshiligiga duch kelmadi. Feruzning o‘zi maktablar tashkil etilishini qo‘llab-quvvatladi va ko‘plab yuqori martabali amaldorlar undan o‘rnak olishdi. 1906 yili xon ruxsati bilan Urganchda qizlar uchun maktab ochildi, xonning o‘zi maktabga tashrif buyurdi va uning faoliyati bilan tanishdi. Qolaversa, xonlikning bosh vaziri, o‘zining ilg‘or

qarashlari bilan tanilgan Islom Xo‘ja ta’lim islohoti bo‘yicha faol ish olib bordi, u Xivadagi jadidchili faoliyatini ko‘llab-kuvvatlagan.

Ta’lim va maorifning yangi tizimini yaratishga intilgan milliy taraqqiyparvarlar O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy merosiga tayanishdi. Ular o‘z asarlarida Ibn Sino, Forobiy, Ulug‘bekni O‘rta Osiyodagi ijtimoiy va ilmiy islohotlar asoschilari sifatida namuna qilib ko‘rsatgan holda o‘quvchilarga bu merosni ko‘p eslatishadi. Jadidlar fikricha, ularning asarlarini o‘rganish o‘lkaning taraqqiyotini jadallatishi, xalqning milliy o‘zligini anglashini yuksaltirishi mumkin. Jadid maktablarida dunyoviy fanlarni ham o‘qitishga katta o‘rin ajratilgan. To‘rt yillik yangi usul maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odobnoma, arab, fors tillari o‘qitilgan [3-B. 74].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yangi usul maktablari o‘zbek ziyolilarining vatanparvarligi, xalqiga, yurtiga sodiqligi, fidokorligi natijasida ochilgan. Ularning ko‘pchiligi o‘rta hol kishilar, moddiy imkoniyatlari cheklangan bo‘lishiga qaramay, vatani va xalqi uchun qayg‘urib maktablar ochgan, yoshlarga dunyoviy bilimlarni o‘rgatib, ularni ma’rifatli qilishga intilgan.

Jadidchilikning dunyoqarashini belgilab bergan eng muhim masala «G‘arb – Sharq» mavzusi edi. Jadidlar O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa bilan tarixiy aloqalaridan xulosa chiqarishga moyillik bildirganlar. Ma’rifatni targ‘ib qilib, ular Yevropadagi ilg‘or davlatlar taraqqiyotining sababi ta’lim tizimi va yangi texnologiyalarining rivojlanishi ekanini tushungan holda ko‘p bor o‘rta asrlar renessansini esga olishgan. Ular Turkistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan hamma narsani ta’lim islohotlari sohasiga joriy etishga intilganlar.

Turkistonda taraqqiyotga erishishda jadidlar asosiy o‘rinni iqtisodiyotning rivojlanishiga berishmagan, biroq milliy matbuot va xalq ta’limining rivojini undan ustun qo‘yishgan. Taraqqiyparvarlardan biri e’tirof etganidek: «milliy matbuotsiz millatning o‘zi yo‘q» [4-B. 4].

Jadidlarning yangi usul maktablari nafaqat O‘rta Osiyodagi ta’lim tizimini isloh qilishda, balki jamiyatni uyg‘otishda, xalqning milliy ongini shakllantirishda, dunyoqarashini kengaytirishda muhim o‘rin tutdi. Ular mustamlakachilik zulmi sharoitida xalqni ozodlikka yetaklovchi yo‘l sifatida ma’rifatni tanladilar va bu yo‘lda jonbozlik bilan harakat qildilar. Jadid maktablari orqali yoshlarga zamonaviy bilimlar berildi, bu esa keyinchalik siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda o‘zgarishlarga zamin yaratdi.

Yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ularning ommalashuvi jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyatining amaliy ifodasi bo‘lib, ular har qanday to‘siqlarga qaramay, taraqqiyot sari dadil intildilar. Bu maktablar jamiyat hayotida yangi avlodni shakllantirdi — savodli, ongli, vatanparvar yoshlarni tarbiyaladi. Jadidlar o‘z faoliyati orqali xalqni jaholatdan qutqarish, ilm va tafakkur bilan qurollantirish, milliy o‘zlikni anglash va mustaqillikka yo‘l ochishdek buyuk maqsadni ro‘yobga chiqarishga intildilar. Shunday qilib, jadidlarning yangi usul maktablari — bu O‘rta Osiyoning madaniy va ilmiy uyg‘onishida muhim burilish bo‘lgan, xalqning qalbida milliy o‘zlikni uyg‘otgan, istiqlolga eltuvchi ma’rifat ko‘prigidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D. Alimova. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
2. G‘ulomov Mirzohid. **O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish**. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
3. Alimova I. N. Chor Rossiyasining Turkistonda milliy madaniyat sohasida olib brogan siyosati (1867 – 1917 yillar): Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2004.
4. Ризобадли Т. Идорага мактублар // Садои Туркистон. 1915.

CHO‘LPON – JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDASI

Nurilla CHORIYEV
Oriental universiteti magistranti
nurulloh.choriev@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1920-yillar o‘rtalaridan boshlab Turkistondagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatning keskin o‘zgarishi, jadidlar harakatining rivojlanishi hamda ma’rifatparvarlar, jumladan, Cho‘lponning faoliyati xususida so‘z boradi. Cho‘lponning mustamlakachilikka qarshi munosabati, Oktabr inqilobidan so‘nggi faoliyati va uning she’riy hamda dramatik asarlari orqali xalqni zulmga qarshi kurashga da’vat etishi haqida ma’lumot berilgan. Maqolada Cho‘lponning shaxsiy hayotidagi fojeali voqealar, uning mustaqillik g‘oyalariga sadoqati va bunday g‘oyalarni adabiy-ijtimoiy faoliyati orqali xalq orasida targ‘ib etishga bo‘lgan urinishlari yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, Jadidchilik, Turkiston tarixi, Sovet mustamlakachiligi, Ma’rifatparvarlik, Milliy ozodlik harakati, Turkiston madaniyati.*

Annotatsiya: *В данной статье рассматриваются радикальные изменения политической и социальной ситуации в Туркестане, произошедшие с середины 1920-х годов, а также деятельность джадидов и их вклад в просветительское движение. Особое внимание Чулпана — выдающегося представителя джадидизма, который, будучи свидетелем трагических событий в регионе, глубоко осознал сущность колониальной политики советской власти. Автор анализирует его отношение к Октябрьской революции, его литературную и театральную деятельность, направленную на пробуждение национального самосознания и борьбу против большевистского гнёта. Статья подчеркивает значимость произведений Чулпана как выразителей идеи национальной независимости и свободы.*
Ключевые слова: *Чулпан, джадидизм, история Туркестана, советский колониализм, Просвещение, национально-освободительное движение, туркестанская культура.*

Annotatsion: *This article explores the drastic political and social changes in Turkestan from the mid-1920s, focusing on the role of the Jadids and their contributions to the enlightenment movement. Special emphasis is placed on Cholpon, a prominent Jadid intellectual and cultural figure, who witnessed firsthand the tragedies that befell the region under colonial Soviet rule. Cholpon’s rejection of the October Revolution, his literary and theatrical works, and his efforts to raise public consciousness and encourage resistance against Bolshevik oppression. The study highlights Cholpon’s works as powerful expressions of the ideals of national independence and freedom.* ***Keywords:*** *Chulpan, Jadidism, History of Turkestan, Soviet colonialism, Enlightenment, National liberation movement, Turkestan culture.*

“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: “O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy

fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda” - deb alohida ta’kidlangandi [1, – B.1.].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jadidlarning ilg‘or g‘oyalarini tadqiq etish, milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy qarashlarni qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga jasorat bilan maydonga chiqdi. Jadidlar faoliyatini tadqiq etish bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishmaganimizni ko‘rsatadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan ijtimoiy fikr o‘z davrining eng taraqqiyparvar kishilarini jadidchilik harakati maydoniga olib chiqdi. Bu ilg‘or fikr va ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy maydonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Isxoqxon Ibrat va boshqa bir qancha faol ma’rifatparvarlar old safida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ham bor edi [2, – B.4.].

Cho‘lpon mansub bo‘lgan jadidlar harakati nomoyandalari o‘z oldilariga xalqning ko‘zlarini ochish, uning boshini biriktirish, birlashtirish, milliy ongini uyg‘otish va milliy taraqqiyot yo‘lidan yetaklash maqsadini qo‘ygandi. Ma’rifatparvarlar, avvalo, ta’lim tizimini isloh qilib, yangi usul maktablariga asos soldi. Ayni shu yillarda bo‘y ko‘rsatgan jadid matbuoti, adabiyoti va teatri xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga, uning ongiga milliy istiqlol va milliy taraqqiyot g‘oyalarini quyishga alohida e’tibor berdi. Cho‘lpon jadid matbuoti, adabiyoti va teatri oldidagi shu ulug‘ vazifani bajarishda, ayniqsa, faollik ko‘rsatdi.

U 1920-yil Ozorboyjonning Bokuga shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. Qurultoy o‘tayotgan kunlari Hazar bo‘ylarida kezinar ekan, bunday fikrlar xayolidan o‘tdi:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘zla
Otalarning tarixdagi xatosin;
Shul xatodan osug‘lanib, yovlarning
El ko‘ksida surgan ishrat, safosin... [3, – B.58.]

Cho‘lpon afsus va nadomat tuyg‘ulari ifodalanib turgan mazkur satrlarda Amir Temurdan meros bo‘lib qolgan yurt rus bosqinchilari qo‘lida ekanidan nolib, ular xatosini tuzatish lozimligini uqtiradi. Shoirning bu fikr har bir asariga singib bordi. Shu bois uning ijodida milliy istiqlol g‘oyalari, Hazar dengizi to‘lqinlaridek, sekin-asta mavjlanib, so‘ng “Buzilgan o‘lkaga” singari asarlarida yanada kengroq bo‘y ko‘rsatdi.

Bokuda shoir Anvar Posha bilan uchrashgan va uning O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik yo‘lidagi intilishlariga xayrixoh ekanligini ko‘rib, g‘oyat mamnun bo‘lgandi. Yigirmanchi yillarda Anvar Poshoning Turkistonga kelishi va siyosiy faoliyatining tarixiy ahamiyati kengroq ochiladi. Cho‘lponni 1922 yil 4 avgust Qurbon hayitining ikkinchi kuni Baljivonda shahid bo‘lgan Anvar Poshoning o‘limi turkistonlik

qo‘rboshilardan ko‘ra chuqur qayg‘uga soldi. Cho‘lpon «Qonlar yig‘latdi bizni bu xabar»[4, – B.137.] deb shunday she’r bitgandi:

Tarixning rangini ko‘p qonlar bilan
Qaraytgan, to‘ldirgan biroq Baljivon
Eng so‘nggi umidni qonga bo‘yagan,
Oh, qanday xayrsiz zamonlar kelgan!

Umuman, olganda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotida Cho‘lponni chetlab o‘tmadi. 1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab Turkistonda vaziyat keskin o‘zgaradi o‘lkada sovet mamlakati barpo etilib, istiqlol uchun kurash yo‘llari batomom kesildi. Bu paytda jadidlarning ma’rifatchilik faoliyati o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi, ularning katta qismi mamlakatda qolib, madaniyat muassasalari, maktablar, oliy o‘quv yurtlari va teatrlarda ishlashda davom etdi.

Cho‘lpon dastlab chor, keyin sovet hokimiyatlarining Turkiston xalqlari boshiga tushirgan kulfatlarni ayrim maslakdosh do‘stlariga nisbatan yaxshi bilgan va chuqur his qilgan. U 1924-1927 hamda 1931-1934-yillarda Moskvada yashaganida, Qo‘qonda Turkiston, Orenburgda Boshqirdiston hamda qozoq tuprog‘ida Alash-O‘rda Muxtoriyat hukumatlarining qonga botirilganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, nafaqat Shimoldan kelgan kishilarga xos rus shovinizmining, balki mustamlakachi davlat rasmiy siyosatining ham O‘rta Osiyodagi milliy davlatlarga qarshi qaratilganiga ishonch hosil qildi. 1918-yil boshlarida otasiga qarashli mol-mulkning musodara etilishi, shundan ko‘p o‘tmay, bu mol-mulklar egasining tazyiq ostiga olinishi bilan “Oktabr inqilobi” uning uyi va hayotiga bo‘ron o‘laroq kirib kelgan edi. Shunday g‘ayriinsoniy voqealarning guvohi bo‘lgan Cho‘lponning Leninni, Oktabrni qabul qilishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham u o‘z xalqini ma’rifatli qilish, ijtimoiy va huquqiy ongini oshirish yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan Cho‘lpon Oktabr voqealaridan keyin xalqni bolsheviklar zulmiga qarshi kurashishga chaqiruvchi she’rlar, maqolalar, sahna asarlarini yozdi. Bu asarlar, albatta, istiqlol g‘oyasi va orzusi bilan adabiy-ijtimoiy maydonga kelgan.

Cho‘lpon adabiyotning barcha ko‘p tur va bir necha janrida samarali ijod qilgan bo‘lsa-da, u baribir shoir sifatida ko‘proq shuhrat topdi. U XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakilidir.

U she’riyatga juda erta kirib keldi. Ilk she’rlaridanoq milliy shoir sifatida tanildi. Masalan, “Xalq”, “Bo‘zulgan o‘lkaga”, “Mahmudxo‘ja (Behbudiy) xotirasiga”, Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga bag‘ishlab yozgan marsiyasida buyuk islohotchining “uyg‘otguvchi ustod”ligiga diqqatni qaratdi.

1917-yil 28-noyabrdagi “Turkiston muxtoriyati”ni olqishlab chiqdi, uni “ozod turk bayrami” sifatida qabul qildi. Unga mehr-u muhabbatini izhor etdi. Uni qo‘lga kiritgan Vatan va xalqni sharafladi:

Muxtoriyat olindi,
Ishlar yo‘lga solindi.
Milliy marshlar cholindi,
Dushman o‘rtansun endi!
Hurriyat — bayrog‘imiz,
Adolat — o‘rtog‘imiz,

Xursand bo‘lgan chog‘imiz,
Mevalansun bog‘imiz!
Turkistonli — shonimiz, turonli — unvonimiz,
Vatan — bizni jonimiz, fido o‘lsun qonimiz!

Xalqimizning bugungi madaniy-ma’naviy yuksaklikka erishuvi va istiqlol mevalaridan bahramand bo‘lishida mutafakkur va muboriz shoir Cho‘lponning xizmatlari g‘oyat katta. U XX asrning birinchi choragida o‘z asarlari bilan mudroq xalqni uyg‘otish ishiga qanday muhim hissa qo‘shgan bo‘lsa, keyin ham xalq va Vatan ozodligi yo‘lida, milliy taraqqiyot yo‘lida fidoyilarcha ijod qilib, chin ma’noda mustaqillik uchun olib borilgan kurashning bayroqdorlaridan biri bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev. Sh. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga”. № 258 (1047), “Yangi O‘zbekiston” 2023-yil 12-dekabr, seshanba
2. Alimova. D. Abdulhamid Cho‘lpon va zamon. № 197 (197), 2020-yil 15-oktyabr, payshanba
3. Cho‘lpon. Asarlar. To‘rt jillik. 1-jild. She’rlar. - Toshkent: “Akademnashir”, 2016.
4. Karimov. N. Tanlangan asarlar. - Toshkent: “Adabiyot”, 2024.

ROSSIYA FABRIKA QOG‘OZLARI VA ULARNING O‘RTA OSIYOGA KIRIB KELISHI

Oybek KLICHEV
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi
dotsenti, t.f.d. (DSc)
klichev_oybek@mail.ru

Annotatsiya. *Diplomatik muloqot vositasi hisoblangan yozishmalar tarixiy manba vazifsini bajaradi. Oliy darajadagi maktublar yohud idaralararo xat almashinuvi tarixini o‘rganish jarayonida bu turdagi manbaning tashqi tavsifiy jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Tadqiqotchilarda diplomatik maktubning qanday turdagi qog‘ozda yozilishini farqlash ko‘nikmasining shakllanishi, davlatlararo munosabat, yohud devonxona tizimi hususida dastlabki tassavurlarni shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu izlanishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasi xususan amirlik devonxonasida asosiy yozuv ashyosi vazifasini bajargan Rossiya fabrika qog‘ozi va uning kirib kelishi masalasiga to‘xtalib o‘tiladi.* ***Kalit so‘z va iboralar.*** *Buxoro, qog‘oz, manufaktura, Paxre daryosi, Pyotr I, qog‘oz tegirmonlari, "karton", yozishmalar, Turkiston general-gubernatorligi, diplomatik amaldor, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi.*

Аннотация. *Переписка, считающаяся инструментом дипломатического общения, служит историческим источником. При изучении переписки высокопоставленных лиц и межведомственного обмена письмами необходимо обращать внимание на внешние описательные аспекты данного вида источника. Формирование у исследователей умения различать виды бумаги, на которой написано дипломатическое письмо, служит формированию первоначальных представлений сторон относительно межгосударственных*

отношений и системы канцелярии. В настоящем исследовании основное внимание уделяется внедрению русской фабричной бумаги, которая служила основным писчим материалом в Среднеазиатском регионе, особенно в канцеляриях эмирата, в конце XIX — начале XX вв. ***Ключевые слова и фразы.*** *Бухара, бумажное производство, река Пахре, Петр I, бумажные фабрики, «картон», переписка, Туркестанский генерал-губернатор, дипломатический чиновник, Политическое агентство российского императора в Бухаре.*

Annotation. *Correspondence, considered an instrument of diplomatic communication, serves as a historical source. When studying the correspondence of high-ranking officials and the interdepartmental exchange of letters, it is necessary to pay attention to the external descriptive aspects of this type of source. The formation of researchers' ability to distinguish between the types of paper on which a diplomatic letter is written serves to form the initial ideas of the parties regarding interstate relations and the concession system. The present study focuses on the introduction of Russian factory paper, which served as the main writing material in the Central Asian region, especially in the offices of the emirate, in the late 19th and early 20th centuries.* ***Keywords and phrases.*** *Bukhara, paper production, Pakhre river, Peter I, paper mills, cardboard, correspondence, Turkestan governor-general, diplomatic official, Political Agency of the Russian Emperor in Bukhara.*

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yaratilgan ma’naviy merosimizning asosiy qismi yozuv qog‘ozida yozilgan va bizgacha yetib kelgan. Sharq olamida mashhur qog‘ozlarning bir qismi Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlaridagi suv tegirmonlarida tayyorlangan. Ushbu qog‘ozlar o‘z davrida sifati, arab imlosidagi harflarning yozilishidagi qulayligi jihatidan xattot, munshiy, kotib va mirzolar e’tirofiga sazovor bo‘lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sodir bo‘lgan tarixiy voqea va hodisalar esa ushbu davrda keng iste’molda bo‘lgan Rossiya fabrika qog‘ozlarida yozilgan.

XVII–XIX asrlar davomida Rossiyada qog‘oz manufaktura va fabrikalarining tashkil etilishi natijasida bir necha tur va xildagi qog‘oz mahsulotlari tayyorlandi. Ushbu mahsulotlarning asosiy qismi O‘rta Osiyo bozorlarida xaridorgir tovarga aylandi. Zotan, ushbu davrda O‘rta Osiyodagi ijtimoiy va siyosiy vaziyat Samarqand va Buxoro kabi qog‘oz ishlab chiqarish markazlarida qog‘oz tayyorlash ishlarining to‘xtab qolishiga olib kelgan edi. Qo‘qon va keyinchalik Toshkent shaharlaridagi qog‘oz ustaxonalari esa hududning qog‘ozga bo‘lgan barcha ehtiyojlarini qondira olmas, qolaversa, Rossiya fabrikalarida tayyorlangan mahsulot ham soni, ham sifati jihatidan ustun edi.

O‘rta Osiyo bozorlariga kirib kelgan rus manufaktura va fabrika qog‘ozlarining qisqacha tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, Rossiyadagi qog‘oz ishlab chiqarish ishi dastlab, 1655-yilda yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlashimiz mumkin. Bunga patriarx Nikon boshchilik qilgan bo‘lib, Rossiyadagi birinchi qog‘oz tegirmoni Moskva yaqinidagi Paxre daryosi bo’yida qurilgan edi. Ammo daryo toshqinlari natijasida qurilgan bu ustaxona bir necha marotaba buziladi. Shundan so‘ng hukumat bu ustaxonani 6 yillik muddatdagi ijara asosida 1659-yilda Moskva pochtasi vakili Iogan van-Svedenga topshiradi. Rossiyadagi ikkinchi qog‘oz tegirmoni XVII asrning 70-yillarida Moskva yaqinidagi Yauz daryosi bo’yida tashkil etilgan. Bu tegirmon ham Ereme Levkebga ijaraga berilgan. Ammo bu ikki ustaxona butun davlat tomonidan ishlatiladigan qog‘oz ehtiyojini qoplay olmagan. Shuning uchun Rossiya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlarning qog‘ozlaridan foydalangan edi[1].

XVIII asrga kelib imperator Pyotr I tashabbusi bilan Rossiyada qog‘oz tayyorlash ishi sezilarli darajada rivojlanadi. Natijada, dastlab, ushbu asr boshida Moskva, Peterburg va Koluga guberniyalarida qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, 1799-yilga kelib bunday guberniyalar soni 24 taga, 1895-yilda esa 36 taga yetgan. Har bir gurberniyada 1-7 tagacha qog‘oz ishlab chiqarish manufakturalari faoliyat olib borgan[2].

Statistik ma’lumotlarga binoan, Rossiyada 1725-yilda 5 ta, 1761- yilda 26 ta, 1800-yilda esa 57 ta qog‘oz manufakturalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, XIX asr boshlariga kelib esa qog‘oz ishlab chiqaruvchi fabrikalar soni 64 ta, 1835-yilda 134 ta, 1862-yilda 162 ta, 1885-yilda 180 ta, 1895-yilda 206 tani XX asr boshlarida esa 250 tani tashkil etgan[3]. Bu Rossiyada XVII-XX asrlar davomida qog‘oz tayyorlash texnologiyasining oddiy qog‘oz tegirmonlaridan qog‘oz fabrikalariga qadar takomillashib borganligini ko‘rsatadi.

Rossiya manufaktura va fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar bir necha turga bo‘lingan. Jumladan, qog‘oz fabrikantlari o‘zlari tayyorlagan qog‘ozlarni besh asosiy guruhga ajratganlar:

1 guruh *: Писчая, печатная, гравировальтная, копировальная, попиросная;*

2 guruh : *Документальная, рисовальная, пергаментная;*

3 guruh: *Пропусная и филтрующая*

4 guruh: *Оберточная*

5 guruh: *Картон.*

Ushbu guruhga mansub qog‘ozlar bir-biridan farq qilgan. Ya’ni bir yozuv qog‘ozining o‘zi 9-10 ga yaqin turlarga bo‘lingan. Ushbu qog‘ozlar ishlatilish sohasi va sifatiga qarab ham ajratilgan. Bu qog‘ozlar asosan idora va tashkilotlarda rasmiy ish yuritish uchun foydalanilgan.

"Pochta qog‘ozi " o‘zining qalinligi va formati jihatidan farqlansa, nashr *("печатная")* qog‘ozi – yozuv qog‘ozidan o‘zining tovush chiqarmasligi bilan ajralib turgan. Ushbu guruhga oid qog‘ozlar orasida, gravyura (*гравированная бумага*) qog‘ozi - pechat qog‘ozining o‘ziga xos turi bo‘lib, u gravyura va kartalar chizish maqsadida, nusxa *(копировальная)* olish qog‘ozi esa tiniq, qalin va suv o‘tkazmaydigan hamda nusxa olish uchun mo‘ljallangan edi. Hujjat *(документальная)* qog‘ozi esa ko‘p hollarda qo‘lda tayyorlangan, qalin va ingichka, qayrilganda sinmaydigan turi hisoblangan.

Rasm *(рисовальная),* pergament *(пергаментная),* o‘tkazuvchan *(пропусная),* filtrlovchi *"фильтрующая",* papiros *"папиросная",* o‘ram *"оберточная",* karton *"картон"* kabi qog‘oz turlari katta bichimda, yupqa yoki maxsus qalinlikda tayyorlangan bo‘lib, suyuqlikni filtrlash, xom-ashyo va mahsulotlarni o‘rash maqsadida labarotoriyalar, aptekalarda hamda sanoat va kundalik turmushda foydalanish maqsadida ishlab chiqarilgan[4].

XIX – XX asrlarda Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va, xususan, Buxoro amirligining deyarli barcha soha va idoralarida Rossiya fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlardan foydalanilgan. Bu holni quyidagicha baholash mumkin:

1. Bu davrda mahalliy Samarqand va Buxoro kabi qog‘oz ustaxonalarida yozuv qog‘ozini tayyorlash ishi deyarli to‘xtab qolgan edi;

2. XIX asrda tashkil etilgan Qo‘qon va Toshkentdagi qog‘oz ishlab chiqarish muassasalari esa qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmagan. Bu qog‘ozlar shahar bozorlariga kirib kelgan, fabrikada tayyorlangan qog‘ozlar bilan sifat jihatdan raqobatlashsa-da, ammo son va narx jihatdan raqobatlasha olmagan;

3. XIX asr ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoda qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojning ortishini Turkiston general-gubernatorligi tizimidagi rasmiy muassasalar, turli firma va shirkatlar faoliyatida, hamda ularning o‘zaro munosabatlari doirasida olib borilgan idoraviy yozishmalarning ko‘payishi bilan ham baholash mumkin.

4. Ushbu davrda Rossiya fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar Xiva xonligi va Buxoro amirligi devonxonalarida mahalliy, shu bilan birga, hukumatlararo yozishmalarni olib borish uchun asosiy yozuv quroliga aylangan. Bu ham o‘z navbatida, ushbu davlatlarda fabrika qog‘ozlariga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelgan.

XIX – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, qolaversa, unga chegaradosh davlatlar tarixiga oid muhim ma’lumotlar, asosan, Rossiya fabrika qog‘ozlarida yozilganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanib kelinayotgan, asosan, Buxorodagi imperator siyosiy agentligi va Buxoro qo‘shbegisi devonxona hujjatlari, Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hamda Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi diplomatik amaldor fondlarida mavjud yozma manbalar tahlili XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi hamda Rossiya imperiyasi o‘rtasida olib borilgan diplomatik muloqot-yozishmalar asosan fabrika qog‘ozlarida olib borilganligini ko‘rsatdi[5].

Bu davrda amirlik va imperiya ma’murlari o‘zaro munosabatlarni asosan maktub almashuvi yo‘li orqali amalga oshirilganligi aniqlandi. Bu o‘z navbatida ushbu maktublar qanday qog‘ozlarda bitilganligini tadqiq etish zaruratini olib keldi.

Demak, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligining turli masalalar yuzasidan Rossiya imperiyasining boshqaruv muassasalari, Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibiga kiruvchi hudud ma’murlari va bevosita Buxoro amirligi hukumati vakillari o‘rtasida olib borilgan yozishmalar quyidagi qog‘ozlardan foydalangan holda amalga oshirilganligi ma’lum bo‘ldi[6].

- Rossiy fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar
- Boshqa davlatlardagi fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar

Tadqiqot jarayonida XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasida mahalliy hamda Rossiya va dunyoning boshqa mintaqalarida tayyorlangan qog‘ozlardan foydalanilganligi aniqlandi. Ushbu qog‘ozlarda bitilgan tarixiy ma’lumotlarni tadqiq etish bilan birga, qog‘ozning tarixini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, mamlakatimiz tarixi xususida muhim ma’lumotlarni o‘zida jamlagan qog‘ozlar yozma manbalarning tarixiy qimmatini aniqlashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Малкин И.Т.* История бумаги. М.: Издательство АН СССР, 1940.–С.72.

2. Бумажная промышленность СССР 1917-1957 / подобщем редакцией К.А.Вейнова. М.: ГОСЛЕСБУМИЗ ДАТ, 1958. -С.22.

3. *Бахтиаров А.* История бумажного листа (историко- технический очерк). СПб.:Народное образование, М.: 1905.-С.21. Бумажная промышленность СССР 1917-1957 / подобщем редакцией К.А.Вейнова. М.: ГОСЛЕСБУМИЗ ДАТ, 1958. -С.22.

4. *Бахтиаров А.* История бумажного листа (историко- технический очерк). СПб.:Народное образование, М.: 1905.

5. O‘zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o‘rinda* – O‘zbekiston MA), I-126-fond, 1-ro‘yxat, 1084-ish, 1-varaq.

6. O‘zbekiston MA, I-3-fond,1-ro‘yxat, 31-ish, 279-varaq

TURKISTONDA 1921-1922-YILLARDA KO‘P TARMOQLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHI

Furqat SODIQOV
Oriental Universiteti tarix kafedrasi
dotsenti v.b., t.f.f.d.
Jaloliddin JO‘RAYEV
Oriental Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada 1917-1924-yillar mobaynida Turkiston o‘lkasida Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan yer-suv islohoti ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida ko‘rib chiqiladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar – an’anaviy ishlab chiqarish shakllari va bozor munosabatlarining saqlanib qolgan sharoitida Sovet agrar siyosatining joriy etilishi, davlat tomonidan dehqonchilikka nisbatan yuritilgan siyosiy va iqtisodiy bosimlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘p ukladli iqtisodiyot, xususiy mulkchilik, dehqon xo‘jaliklari, natura majburiyati, suv inshootlari, posyolka, irrigatsiya, melioratsiya,*

Аннотация: *В статье рассматривается земельно-водная реформа, проведенная советской властью в Туркестанском крае в 1917-1924 годах в условиях многоукладной экономики. В частности, освещаются важные изменения в аграрном секторе – введение советской аграрной политики при сохранении традиционных форм производства и рыночных отношений, а также политическое и экономическое давление государства на сельское хозяйство.* ***Ключевые слова.*** *многоукладная экономика, частная собственность, крестьянские (фермерские) хозяйства, натуральное обязательство, водные сооружения, поселок, ирригация, мелиорация.*

Annotation: *The article examines the land and water reform carried out by the Soviet authorities in the Turkestan region in 1917–1924 in the context of a multi-tiered economy. In particular, the important changes that occurred in the agricultural sector - the introduction of the Soviet agrarian policy in the context of the preservation of traditional forms of production and market relations, the political and economic pressure exerted by the state on peasantry are highlighted.* ***Key words.*** *multi-level economy, private ownership, peasant farms, in-kind obligation, water structures, settlement, irrigation, land reclamation.*

Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin bolsheviklarning agrar siyosati yer-suv munosabatlarida xususiy mulkchilikni tugatish, mayda dehqon

xo‘jaliklari o‘rniga kollektiv xo‘jaliklar tashkil qilishga qaratilgan edi. 1917-yil 26-oktabrda e’lon qilingan “Yer to‘g‘risida”gi dekretda “Buyuk agrar o‘zgarishlarni amalga oshirishda, Ta’sis Majlisida uzil-kesil hal qilingunga qadar, quyidagi dehqonlar nakaz(buyruq)i hamma joyda qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi kerak”, deyilgan[1,–B.35.]. Dehqonlar nakazida: “Yerga xususiy mulkchilik huquqi abadiy bekor qilinadi, yerning sotilishi ham, sotib olinishi ham, ijaraga yoki garovga qo‘yilishi ham va boshqa biron yo‘l bilan olinishi ham mumkin emas”, deb ko‘rsatib o‘tilgan [2, –B.114.]. Bundan ko‘rish mumkinki, sovet hokimiyati boshqaruvni qo‘lga olishi bilan xususiy mulkchilik va yerga egalik qilishni ta’qiqlashi aniq bo‘lib qolgan edi.

O‘zbekistonda Oktabr to‘ntarishining dastlabki kunlaridan boshlab agrar o‘zgarishlar amalga oshirilgan. 1917-yil 8-noyabrda Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti organi «Наша газета»da Yer to‘g‘risidagi dekret e'lon qilindi. Turkiston o‘lkasi va Yer ishlari xalq komissarligining 1917-yil 9-dekabrda chiqargan yer oldi-sottisini ta’qiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi va amalda tatbiq etildi [3, – B.279.]. Shuningdek, bu qarorlar mahalliy shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda, o‘zbek dehqonchilik jamiyatida uzoq yillar davomida shakllangan an’anaviy yer munosabatlariga zid bo‘lsa-da, Sovet hokimiyatining sinfiy kurash va tenglik tamoyillariga asoslangan siyosatining bir ko‘rinishi edi.

1918-yil yanvardan e’tiboran viloyat, uyezd va volost yer-suv komitetlariga saylovlarda qishloq aholisiga ularni asosiy vazifasi yer to‘g‘risidagi qonunni hayotga tatbiq etish ekanligi tushuntirildi. Sovet rejimiga qarshi qurolli harakatga qaramay, 1918-yilning iyul oyiga qadar Samarqand viloyatida 43 ta yer-suv komiteti tashkil qilindi [4, – B.67.]

Turkiston ASSR hukumatining sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan mehnatsiz xo‘jaliklarni natsionalizatsiya(milliylashtirish) qilish to‘g‘risidagi 1918-yil 26-martdagi qarori bilan 32 nafar dehqon xo‘jaligi, 1918-yil 10-sentabrdagi qarori bilan 74 nafar dehqon xo‘jaligi yerlari musodara qilingan [5, – B.211, 79-80.].

1917-1920-yillarda amalga oshirilgan agrar o‘zgarishlar O‘zbekistondagi agrar islohotlarining birinchi bosqichi bo‘ldi. Bu islohotlarning ikkinchi bosqichi Rossiya imperiyasi hukumati yurgizib kelgan mustamlakachilik siyosatining yer munosabatlaridagi oqibatlarini tugatishga qaratilgan yer-suv islohotining (1920-1922-yillar) o‘tkazilishidan boshlandi [6, - B.82.].

Turkiston Sovetlarining IX syezdida, ya’ni 1920-yil sentabr oyida o‘lkada yer-suv islohoti masalasi ko‘rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. [7, - B.374.].

Turkiston ASSR Sovetlarining IX s’yezdi qabul qilgan rezolyutsiyada ko‘chirib kelingan rus aholisi yer va suvdan foydalanish huquqi jihatidan yerlik aholi bilan tenglashtiriladi, deb ko‘rsatilgan edi. Shu yo‘l bilan sovetlar kommunistlarning sinfsiz jamiyat qurish siyosatini amalga oshira borib, ruslarning o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklarini “quloq” xo‘jalik deb, ularning belgilangan normalardan ortiqcha yerlarini musodara qilgan. Syezd qarorida ko‘rsatilganki, ko‘chirib kelingan kishilar uchun mehnat normasi asosida qoldiriladigan yerdan boshqa ortiqcha yerlarning hammasi tortib olinadi va birinchi navbatda mahalliy aholini ta’minlash uchun yer tuzish komissiyasi ixtiyoriga o‘tkaziladi. Xullas, yer-suv islohotining o‘tkazilishi

kommunistlarning sinfiy siyosati, sinfsiz jamiyat qurish to‘g‘risidagi utopik g‘oyasi amalga oshirilishining natijasi edi. 1920-1922-yillardagi yer-suv islohoti vositasi yordami bilan kommunistlar boylar, mulkdorlar sinfini tugatish maqsadini amalga oshirish harakatida bo‘ldi. Mahalliy xalq sovetlarga qarshi qurolli kurash olib borayotgan sharoitda o‘zbek qishloqlarida tub yerli mulkdorlarni tugatish yo‘lini xalq qo‘llab-quvvatlamasligi aniq edi. Shu sababli yer-suv islohotining birinchi bosqichida rus posyolkalari va qishloqlardagi rus aholisi mulkdorlarining “mehnatsiz yashovchi xo‘jaliklar” deb nomlangan qismini to‘la tugatish, “quloq xo‘jaliklari” ning mehnat normasidan ortiqcha yerini musodara qilish ishlari amalga oshirildi. Rus aholisi yashaydigan posyolka va qishloqlardagi mulkdorlar tadbirkor va ishbilarmon xo‘jaliklar edi. Keng dehqon xo‘jaliklariga nisbatan yuritilgan siyosat va amaliy chora-tadbirlar o‘rtahol xo‘jaliklarni qo‘llab-quvvatlash, ularning sonini ko‘paytirib borishga qaratildi.

Qishloq xo‘jaligida ish hayvonlarining yetishmasligi jiddiy muammo tug‘dirdi. O‘lkada chetdan, ayniqsa, Xitoyning chegara oldi yerlaridan ho‘kiz va otlar sotib olishga mablag‘ (oltin, kumush pullar) ajratildi, sotib olingan qoramollarni chegaradan boj to‘lamay olib kirishga ruxsat berildi. 1924-yilda Farg‘ona vodiysiga 20 ming bosh qoramol keltirildi. [8, – B.85.]. 1917–1921-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan inqiloblar, fuqarolar urushi va ocharchilik mintaqadagi chorvachilikka jiddiy zarar yetkazgan edi. Ayniqsa, fuqarolar urushi va Sovetlarning majburiy rekvizitsiya siyosati natijasida qoramol soni keskin kamayib ketgan. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, uning yetakchi tarmog‘i paxtachilik sohasining tezkor rivojlanishidan manfaatdor bo‘lgan sovet hukumati avval boshdan respublikada irrigatsiya va melioratsiya tizimini yaxshilash va takomillashtirishga jiddiy e’tibor berib bordi. Lekin bu davrda irrigatsiyani qayta tiklash, sug‘orish tarmoqlarini ta'mirlash muammolari o‘ta qiyinchilik bilan hal qilinayotgan edi. 1921-yil 11-mayda Turkiston Avtonom Respublikasi XKK Moskvaning talabi bilan o‘lkadagi irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish to‘g‘risida dekret qabul qildi [9, – B.482-483.]. Shu maqsadda 1922-yildayoq respublikada irrigatsiya tizimini qayta tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, O‘zbekiston hukumati tarkibida suv va qishloq xo‘jaligi Xalq Komissarligi, uning huzurida esa suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi, joylarda viloyat, tuman, uchastka suv qo‘mitalari tashkil etildi. Ularga davlat yordami ko‘rsatib borildi. Jumladan, 1922-yilda irrigatsiya ishlariga 6 mln. oltin rubl hisobida mablag‘ ajratildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad sug‘oriladigan yerlarni 2 yil ichida 2 mln. desyatinaga yetkazish edi. Joylarda suv inshootlari qurilishi avj oldirib yuborildi [10, – B.298.].

Turkiston SSRda 1923-yilga qadar dehqonlar zimmasida mehnat va ot-ulov majburiyati saqlanib qoldi, keyin u “natura majburiyati” deb qayta nomlandi. Dehqonlar 1921-yilda bu majburiyat hisobiga irrigatsiya tizimlarida 2 million kishi-kunidan ortiq tiklash ishlarini bajardilar, bu pul bilan hisoblanganda 2.390 ming so‘m oltinni tashkil etardi. Yangi kanallar, ariqlar qurildi. Ko‘plab yangi yerlar o‘zlashtirildi. Natijada 1924-yilga kelib sug‘oriladigan yerlar miqdori 2,4 mln. desyatinaga, shu jumladan, paxta ekiladigan maydon esa 500 ming desyatinaga yetkazildi [11, – B.181.].

Bu ishlar O‘zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldi. Urushgacha bo‘lgan davrda respublikada Darg‘om, Norpoy, Sovoy, Dalvarzin, Log‘an kanallari kabi ko‘plab suv inshootlari qurildi. Dalvarzin, Sovoy, Uchqo‘rg‘on, Mirzacho‘l, Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi.

Xulosa qilib aytganda, 1917–1924 yillarda Turkiston o‘lkasida Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan yer-suv islohotlari ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan kechdi. “Yer to‘g‘risida dekret” asosida yirik yer egaligiga barham berilib, dehqonlarga yer ajratish maqsad qilindi, biroq bu jarayon mahalliy sharoit va an’anaviy mulkchilik munosabatlariga to‘liq mos kelmadi. Qishloq xo‘jaligi sohasida an’anaviy ishlab chiqarish tizimi Sovet siyosati ta’sirida o‘zgarishga yuz tutdi, irrigatsiya tizimiga oid islohotlar esa ko‘pincha rejalashtirilganidek natija bermadi.

Shuningdek, ushbu islohotlar jarayonida mahalliy aholining noroziligi, chorva mollarining kamayishi mintaqada iqtisodiy tanazzulni kuchaytirdi. Shunday bo‘lsa-da, bu davr o‘zining murakkabligi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi hamda Turkiston o‘lkasining keyingi agrar-siyosiy taraqqiyotida muhim iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917-1926 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Издательство Академии Наук УзССР, 1962.
2. Аграрная политика советской власти (1917-1918 гг.). Документы и материалы. – Москва: Изд. АН СССР, 1954.
3. Кудратов З., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. 1-том, Тошкент: 2019.
4. Ўзбекистон МА, 29-фонд, 3-рўйхат, 1068-иш, 67-варақ.
5. Ўзбекистон МА, 29-фонд, 3-рўйхат, 946-иш, 211-варақ; 1168-иш, 79-80 варақлар.
6. Ражабов Қаҳрамон, Рахматов Мурод. Туркистонда совет ҳокимиятининг иқтисодий сиёсати ва очарчилик даҳшатлари (1917–1924 йиллар). Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси. Тошкент: 2022.
7. Nazirov B.S., Yaqubova D.T. O‘zbekiston yer-suv munosabatlari tarixi. “Bekshox print servis” nashriyoti. – Termiz: 2023.
8. Alimova D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O., Rajabov Q.K., Alimov I.A., Mavrulov A.A. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: “Sharq”, 2004.
9. Съезды Советов в документах. Том. I. М., 1959.
10. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi, – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006.
11. Жўраев М, Нуруллин Р., Камолов С. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Тошкент: 2000,
12. https:// medium.com
13. https:// muhaz.org
14. https:// wikepediya.uz
15. studfile.uz

O‘ZBEKISTON SSRDA SAYLOV TIZIMINING JORIY ETILISHI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Yashnar GANIXODJAYEV
Oriental Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sovet hukumati tomonidan O‘zbekiston SSRda ushbu tizimni uzluksiz tarzda davom etilishi, dastlabki saylov jarayonlarini o‘tkazilishi va 1927-yilda SSSR namunasidagi Konstitutsiya bilan huquqiy asoslanishi haqida ma’lumot berilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, O‘zbekiston SSR, saylov, Markaziy saylov komissiyasi, davlat siyosiy boshqarmasi(GPU), syezd, okrug, volost, prezidium, delegat.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о введении избирательной системы советской власти в в Узбекской ССР, обосновании выборов в основных законодательных актах этих республик, последовательном развитии данной системы в Узбекской ССР, проведении первых избирательных процессов, а также о её правовом закреплении в Конституции 1927 года, принятой по образцу Конституции СССР.* ***Ключевые слова:*** *Конституция, Узбекская ССР, выборы, совет, Центральная избирательная комиссия, съезд.*

Annotation: *This article provides information on the introduction of the electoral system by Soviet government in the Turkestan ASSR, the Khorezm and Bukhara People's Soviet Republics, its legal basis in the constitutions of these republics, the continuous development of this system in the Uzbekistan SSR, the organization of the initial election processes, and its legal consolidation through the 1927 Constitution modeled after that of the USSR.* ***Keywords:*** *Constitution, Turkestan ASSR, KPSR (Khorezm People’s Soviet Republic), BPSR (Bukhara People’s Soviet Republic), Uzbekistan SSR, election, soviet, Central Election Commission, congress.*

RSFSR tarkibida bo‘lgan Turkistonda ham “Oktabr davlat to‘ntarishi”dan keyingi yillarda jahon tajribalariga muvofiq tarzda Konstitutsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, Turkiston ASSRning 1918, 1920-yillarda, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi(1920, 1921, 1923) va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining 1921, 1922, 1923-yillarda, shuningdek, O‘zbekiston SSRning 1927, 1937-yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari shakliga ko‘ra davlatning Asosiy qonunlari edi.

Turkiston ASSRning 1918-yil 15-oktabrda qabul qilingan konstitutsiyasiga RSFSR Konstitutsiyasi asos bo‘lib xizmat qilgan. Unda saylov huquqiga alohida 5-bo‘lim ajratilgan. Ushbu bo‘lim 3 ta bob (12-14-boblar) ni va 18 ta modda (33-50-moddalar)larni qamrab olgan. Ushbu dalilning o‘zi ham sovet hukumati yangi tuzumda saylov masalasiga qanchalar katta e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, saylov huquqi masalalari konstitutsiyaning boshqa boblarida ham tilga olinadi[1, - C. 25-27].

Ushbu konstitutsiyaning xalq hayotidan uzoqda ekanligini ko‘rsatib turuvchi jihati, mahalliy aholining katta qismi qonunlar majmuasi hisoblangan bu hujjat bilan hech bo‘lmaganda umumiy tarzda ham tanisha olmagan. Chunki, u mahalliy tillarda e’lon qilinmagan edi. Unda sovetlarga xos “o‘z taqdirini o‘zi belgilash” Turkistondagi mahalliy aholining mustamlaka holatini o‘zgartirmadi[2, - Б. 465].

Turkiston ASSRning ikkinchi konstitutsiyasi 1920-yil 24-sentabrda Turkiston ASSR Sovetlarining IX syezdi qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu Konstitutsiyada ham 5-bo‘lim (XVII – XIX boblarning 86-101-moddalari) faqat saylov huquqiga

bag‘ishlangan. Unda 1918-yilgi Konstitutsiyadagi qoidalar asosan, takrorlangan[1, – C. 36-37].

O‘zbekiston SSR tashkil etilgach, uning Konstitutsiyasi 1927 yil 30 mart kuni O‘zbekiston SSR Sovetlarining II syezdida qabul qilindi. Mazkur Konstitutsiya 8 bo‘lim, 17 bob va 114 moddadan iborat bo‘lib, unga ko‘ra respublikada hokimiyatning eng yuqori idorasi Sovetlaring Butuno‘zbek syezdi bo‘lib, ushbu syezd oralig‘ida esa O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi, uning sessiyalari orasida MIQ Prezidiumi ish olib boshqaruv. O‘zbekiston SSR MIQ ijro qiluvchi idora bo‘lmish Xalq Komissarlari Sovetini tuzgan[3, – C. 270]. Ushbu konstitutsiya loyihasi 1927-yilning 11 iyulda nashrdan chiqdi. Konstitutsiyaning 6-bo‘limi 13-14-15-boblari to‘laligicha sovetlarga saylovlar va ularni tashkil etishga bag‘ishlangan, hamda, saylovlarda saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lgan, undan mahrum bo‘lgan fuqarolar toifalarining batafsil ro‘yxati sanab o‘tilgan [4, – C. 12-13].

1927-yildagi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi saylash va saylanish huquqi bo‘yicha 1918-yilgi RSFSR hamda Turkiston ASSR Konstitutsiyalaridagi qoidalarni to‘liq saqlab qolgan.

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv okrug va rayon syezdlari hamda shahar va qishloq sovetlaridan iborat edi. Okrug va rayonlarda hokimiyat sovetlarning syezdlari qo‘lida edi. Syezdlar yilda bir mata chaqirilgan bo‘lib, okrug delegatlari 350 kishidan, rayonniki esa ko‘pi bilan 200 kishidan tuzilgan. Syezdlar o‘zining ijroiya qo‘mitasini saylagan va mazkur ijroiya qo‘mitalari syezdlar oralig‘ida ushbu hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qo‘mitalari doimiy ishlovchi prezidiumi(rayosat)ni saylagan. Prezidiumlar ijroiya qo‘mitalari majlislari oralig‘ida o‘ziga tegishli hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qo‘mitalari mahalliy boshqaruvning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zining bo‘limlarini tuzgan[3, – C. 273-274].

O‘zbekiston SSR MIQ respublika Konstitutsiyasi qabul qilgunga qadar, mahalliy boshqaruv idoralarining huquqiy maqomini belgilash maqsadida 1925-yil 16-dekabrda “Qishloq sovetlari to‘g‘risidagi nizom”ni va O‘zbekiston SSRda saylov tizimi mexanizmlarini aniqlab beradigan “Sovetlarga saylovlar bo‘yicha qo‘llanma”ni tasdiqladi[5, – C.69]. Mazkur qo‘llanmaga asosan O‘zbekiston SSR hududida yashovchi quyidagi fuqarolar saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lgan:

a) davlat, jamiyat, xususiy idora va muassasalar, sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilar;

b)Qizil armiya, flot, davlat siyosiy boshqarmasi(GPU), ishchi-dehqon militsiyasi harbiylari va xodimlari;

v) boshqalarning mehnatidan foydalanmaydigan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan dehqonlar;

g) hunarmand va kosiblar, o‘zi ham mehnat qiladigan, tegirmon, moyjuvoz, temirchilik sexlari egalari;

d) birinchi razryad patentiga ega bo‘lgan chakana savdogarlari.

Saylash va saylanish huquqidan quyidagi shaxslar mahrum qilingan: 1) boshqalarning mehnati natijasida foyda oladigan shaxslar, 2) mehnat qilmasdan topadigan daromadda yashaydigan shaxslar(sudxo‘rlar), 3) eski boshqaruv tizimi

amaldorlari, 4) ruhiy nosog‘lom shaxslar, 5) barcha din xizmatchilar(mulla, imom, rohib va boshq.)[6, – C.24.].

Yuqoridagi huquqlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, sovet hukumati savdo, sanoat, hunarmandchilik vakillariga saylov huqularini bergan bo‘lsa, hali ham boy, yirik yer egalari, sudxo‘rlar va din vakillari uchun ular cheklangan bo‘lgan.

1925-yilda umumiy saylov huquqiga ega bo‘lganlarning 1,7 foizi saylov huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa, 1926-yilda bu ko‘rsatkich 1,92 foizni tashkil etgan. RSFSRda esa bu ko‘rsatkich 1925/1926 yillarda 1 foizdan iborat bo‘lgan[7, – B. 134].

O‘zbekiston SSR MIQ qoshida tuzilgan Markaziy saylov komissiyasi sovetlarga saylovlar to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga asosan, mahalliy boshqaruv idoralari tarkibini quyidagicha belgilaydi: okrug ijroiya qo‘mitalari 25-35 nafargacha, uyezd ijroiya qo‘mitalari 15-25 nafargacha, volost ijroiya qo‘mitalari 7-15 nafargacha, qishloq soveti prezidiumi 3-5 nafardan tuzildi[7, -B. 134-137].

Saylovni o‘tkazish tartibi haquqiy jihatdan 1927-yilgi konstitutsiyasining 14-bobi, 95-96-97-moddalarida belgilangan tartibda o‘tkazilishi, saylov kunini belgilanishi va uni tashkil etilishi haqida asoslanganini ko‘rishimiz mumkin. Saylov huquqidan mahrum qilish uchun asos aynan 1927 yildagi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining VI bo‘lim 13-bobi 93-moddasidan aniq belgilab berildi. Unga muvofiq quyidagilar:

a) daromad olish uchun yollanma mehnatdan foydalanadigan shaxslar;

b) mehnatsiz orttirilgan daromadga: sarmoyadan foizlar, korxona daromadlari, mulkdan olingan tushum va boshqa daromadga yashovchi shaxslar;

c) xususiy savdogarlar, savdo va tijorat vositachilari;

d) rohib va ruhoniylar;

e) sobiq politsiya, jandarmlarning maxsus korpusi va qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatchilari va josuslari, sobiq mahalliy ma’muriyat xizmatchilari (volost boshliqlari, ovul oqsoqollari va h.), Rossiyada hukmronlik qilgan podshoh oilasi a’zolari, sobiq Buxoro amiri va Xiva xoni hamda ularning barcha yaqin qarindoshlari, shuningdek, sobiq Rossiya imperiyasi politsiyasi, jandarm va jazo idoralariga rahbarlik qilgan shaxslar va ularga mos keladigan, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi amaldorlar;

f) belgilangan tartibda ruhiy kasal va aqldan ozgan deb tan olingan shaxslar, shuningdek, vasiylikdagi shaxslar;

g) sud hukmi bilan yoki hukumat oliy idoralarining maxsus qarori bilan sud hukmi yoki mazkur qarorlarda belgilangan muddatga aktiv va passiv ovoz berish huquqidan mahrum etilgan shaxslar, shuningdek, ma’muriy tarzda surgun qilinganlar (ular surgun muddatiga) aktiv va passiv ovoz berish huquqidan mahrum etilgan” edi [3, – C. 276].

Shuningdek, saylash va saylanish huquqi esa, konstitutsiyaning 94-moddasida: “Saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar, shuningdek, ushbu huquqlardan mahrum bo‘lgan fuqarolar toifalarining batafsil ro‘yxati ushbu Konstitutsiya va SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi qarorlari asosida chiqarilgan ko‘rsatmalar bilan belgilanadi”[3, –C. 276-277] - deya aniq ko‘rsatib qo‘yilgan. Saylov o‘tkazilganidan keyin uning shaffof holda o‘tkazilgani, saylovni

noto‘g‘ri o‘tkazilgan bo‘lsa qayta o‘tkazilishi hamda saylovchilarni o‘zlari saylagan deputati oldidagi huquqlari haqida ham konstitutsiyaning 15-bobi, 98-99-100-moddalarida ko‘rsatilgan tartibda huquqiy jihatlarini asoslanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Yuqorida saylov tizimini haqidagi 1927-yilgi O‘zbekiston SSR konstitutsiyasidagi huquqiy tartib, 1924-yil 30-yanvarda qabul qilingan butun SSSR konstitutsiyasi II bo‘lim, X bobi moddalari[3, -C. 19-20] bilan ham asoslangan edi. Ushbu asos O‘zbekiston SSR konstitutsiyasida ham aks etdi.

1930 yilda Toshkent tumani Sovet apparatini tozalash uchun 11 ta okrug komissiyalari ish olib bordi. Bu komissiyalar tumanning barcha ma’muriy muassasalari va qishloqning xalq-xo‘jalik muassasalarini tekshirdilar. Komissiyalarning faoliyati davomida shu narsa ayon bo‘ladiki, ishlarni ommaviy ravishda ko‘rib chiqish natijasida shahar kengashlari hali sanoat korxonalari va kolxozlarga yetarli e’tibor bermayotgani aniqlandi. Bu kamchiliklar keyinchalik Sovetlarni qayta saylashga tayyorgarlik ishlari davomida bartaraf etildi[7, -B. 134-137].

Xullas, O‘zbekiston SSR tashkil topgach, ma’muriy bo‘linish va mahalliy boshqaruv idoralari tizimi qayta tuzildi. 1927 yil O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar SSSR Konstitutsiyasi asosida ish olib borildi. Bu davrda respublika hukumati asosiy e’tiborni mahalliy hokimiyatni sovetlar nazdida “yot unsurlar” deya ta’riflangan toifalardan tozalash, qurolli harakat olib borilayotgan hududlardagi sovetlar faoliyatini tiklash, yer-suv siyosatini amalga oshirishda quyi boshqaruv idoralarini keng jalb etishga qaratdi. O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilingach mahalliy boshqaruv idoralarining huquqiy asosi yaratildi. Respublika boshqaruv idoralariga saylovlar tashkil etildi va unda kambag‘al va batraklar bilan birga o‘rtahol qatlam vakillari keng ishtirok etdi. Bu esa kommunistik mafkuraning kambag‘al toifadan o‘rta qatlam ishchi va dehqonlar toifasiga o‘tish kerakligi shartlari asosida amalga oshirildi.

Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish siyosatiga mahalliy sovetlar keng jalb qilindi. Mahalliy sovetlarning yer-suv masalasiga oid vazifalari yangi tashkil etilgan kolxozlar vakolatiga o‘tkazildi. O‘zbekiston SSRda mahalla komitetlariga huquqiy maqom berildi. Bu esa shahar qismidagi mahalliy boshqaruv idoralari ish faoliyatining jonlanishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кузнецов Д.В. Советские конституции. Хрестоматия. Часть 1. Первые советские республики, 1918-1922 года. – Благовещенск, 2015.

2. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

3. Кузнецов Д.В. Советские Конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг. – Благовещенск: 2015.

4. Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. – Самарканд: Издание Юридического Издательства СНК УзССР, 1927 г.

5. История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг. Т 2. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1963.
6. Sodiqov F. O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi(1925-1926-yillar).//Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023. №7. – B.24.
7. Содиқов Ф. Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти. (1917-1938 йиллар)

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT NASHRIYOTINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI (1917–1941 YILLAR)

Muxlisa Turopova
Oriental universiteti magistri
muxlisaturopova0990@gmail.com

Ilmiy rahbar: prof. **Sanobar SHADMONOVA**

Annotatsiya: *Davlat nashriyoti - har qanday jamiyatda axborotni tarqatish, madaniyat va ma'rifatni ommalashtirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda davlat nashriyotining 1917–1941 yillardagi tashkil etilishi va uning faoliyati tarixi tadqiq etilgan. O‘zbekistonda 1917–1941 yillar oralig‘ida nashriyot faoliyatini shakllantirish, uni siyosiy, ma'rifiy va ilmiy jihatdan takomillashtirish jarayonlari sovet davridagi siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *nashriyot, matbuot, sovet siyosati, madaniyat, targ‘ibot, markazlashuv, bosmaxona.*

Аннотация: *Государственное издательское дело является одним из важнейших средств распространения информации, популяризации культуры и просвещения в любом обществе. В статье рассматривается история создания и деятельности государственного издательства в Узбекистане в период с 1917 по 1941 год. Процессы становления издательского дела в Узбекистане в 1917–1941 годах, его политическое, образовательное и научное совершенствование были тесно связаны с политическими изменениями советского периода.* ***Ключевые слова:*** *издательское дело, пресса, советская политика, культура, пропаганда, централизация, типография.*

Annotation: *State publishing is one of the important means of disseminating information, popularizing culture and enlightenment in any society. This article examines the history of the establishment and operation of state publishing in Uzbekistan in 1917–1941. The processes of forming publishing activities in Uzbekistan in 1917–1941, its political, educational and scientific improvement, were closely related to the political changes of the Soviet era.* ***Keywords:*** *publishing, press, Soviet policy, culture, propaganda, centralization, printing house.*

Nashriyot - bu bosma yoki elektron ko‘rinishda turli adabiyot, ilmiy, badiiy, o‘quv va boshqa materiallarni tayyorlab chop etish, tarqatish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot. Nashriyotlar madaniyat, ma’rifat, ta’lim va axborot tarqatishda muhim rol o‘ynaydi. Matbuot va nashriyotlar har qanday jamiyatda bilim tarqatish, g‘oya va mafkurani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistondagi birinchi bosmaxona 1868-yilda Toshkentda tashkil topgan. Jadidlar harakati davrida bosma matbuot rivojlandi: gazetalar, jurnallar, darsliklar chop etila boshlandi.

Keyinchalik, jadidlar harakati davrida (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) bosma matbuot tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Jadidlar yangi fikr, ta’lim-

tarbiya, dunyoqarash va ijtimoiy yangilanish tarafdorlari bo‘lib, matbuot orqali o‘z g‘oyalarini keng yoyishga harakat qilishdi. Shu sababli:

- Gazetalar va jurnallar chiqdi;
- O‘quv darsliklari va badiiy asarlar nashr etila boshlandi;
- Aholi orasida savodxonlik darajasi ortdi.

Bu bosqich O‘zbek matbuotining poydevorini tashkil etdi va keyinchalik davlat nashriyot tizimining shakllanishiga zamin yaratdi.

O‘zbek Davlat Nashriyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi:

- O‘quv darsliklarini tayyorlash va nashr qilish;
- Ilmiy-ma’rifiy adabiyotlar chop etish;
- Siyosiy-ideologik targ‘ibot materiallarini tarqatish;
- Adabiy va badiiy asarlarni nashr etish.

O‘zbekistonda davlat nashriyotining vujudga kelishi va rivojlanishi 1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so‘ng boshlangan bo‘lib, bu jarayon mamlakatdagi siyosiy o‘zgarishlar va sovet mafkurasining yuzaga kelishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Sovet hukumati hokimiyatni qo‘lga olgach, o‘z mafkurasini aholi orasida tarqatish, uning g‘oyaviy ustunligini ta'minlash uchun ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, nashriyotlar faoliyatiga katta ahamiyat berdi. O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi ana shu jarayonlar ichida muhim o‘rin egallaydi. [1, – B.43.]

1917–1920-yillar davrida Turkistonda matbuot bo‘limlari tashkil etilib, ular asosida 1920-yilda ilk davlat nashriyoti tashkil qilindi. Bu nashriyot avvalo Turkiston xalq komissarlari kengashi qoshidagi matbuot bo‘limi sifatida ish boshlagan. Uning asosiy vazifasi sovet hukumati siyosati va g‘oyalarini targ‘ib qilish, partiya va davlat organlarining ko‘rsatmalarini ommaga yetkazish edi. Nashriyot avvallari Turkiston xalq komissarlari kengashi qoshidagi Matbuot bo‘limi sifatida faoliyat yuritgan. 1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topgach, nashriyot ham mustaqil tarzda ish yuritadigan idoraga aylantirildi. [2, – B.10.]

Davlat nashriyoti turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritdi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilar edi:

- Sovet hukumati siyosatini targ‘ib qiluvchi partiyaviy adabiyotlarni nashr etish;
- Gazeta va jurnallar chiqarish (masalan, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh Leninchi”);
- O‘quvchi va talabalar uchun darsliklar tayyorlash;
- Ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni chop etish.

Davlat nashriyoti faoliyati avvalo partiyaviy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-ommabop va badiiy asarlarni bosib chiqarishga qaratilgan edi. 1930-yillarda nashriyot faoliyati tobora markazlashdi, senzura tizimi kuchaytirildi va har qanday material partiya mafkurasiga mos kelishi talab etildi.

O‘sha davrda "Qizil O‘zbekiston", "Yosh Leninchi", "Mehnat Tufayli" kabi gazetalar va ilmiy-ommabop jurnallar, shuningdek, o‘zbek va rus tillaridagi darsliklar davlat nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu nashrlar orqali sovet mafkurasi keng targ‘ib etildi.

Sovet hukumati nashriyotni faqat ma'lumot tarqatish vositasi sifatida emas, balki aholining ongi va dunyoqarashini shakllantirish vositasi sifatida ham ko‘rdi. Shunday qilib, nashriyot faoliyati qat'iy ideologik nazoratga olindi. Ayrim yozuvchilar va

olimlarning asarlari bosilmasligi yoki tahrir qilinishi, hatto ta'qib qilinishi kuzatilgan. [3, – B.25.]

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng, bosmaxonalar musodara qilinib, davlat ixtiyoriga o‘tkazildi. 1918-yil Turkiston MIK huzurida Milliy ishlar xalq komissariyatida va Matbuot byurosida nashriyot bo‘limlari tuzilib, mahalliy tilda siyosiy adabiyotlar nashr etila boshladi. Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining nashriyot bo‘limi darsliklar chiqarishga harakat qildi. Shu davrda boshqa turli idoralar ham oz miqdorda bosma mahsulotlar chiqarardi. Kitoblar Turkiston matbuot markaziy boshqarmasi („Turksentropechat“) tomonidan bepul tarqatilardi. 1920-yil martda Turkiston MIK Turkiston davlat nashriyoti (Turkdavnashr) ta’sis etilgan ilk kitob nashriyoti bo‘lib, unga o‘lkadagi barcha nashr ishlarini birlashtirish, qog‘oz taqsimoti va bosmaxona jihozlarini nazorat etib, rahbarlik qilish vazifalari yuklandi. Fuqarolar urushi tamom bo‘lib, harbiy intervensiya tugatilgandan keyin barcha nashr ishlari yangi iqtisodiy siyosatga muvofiq qayta qurildi. XKS ning 1921-yil 28-noyabrdagi qarori bilan nashrlar pulli bo‘lib, kitob savdosi joriy qilindi. Nashriyot va poligrafiya korxonalari xo‘jalik hisobiga o‘tdi. 1923-yilda Turkdavnashr O‘rta Osiyo nashriyoti deb atala boshladi. Bu nashriyot 1921-yildan 1924-yilgacha 1184 nomda 3 mln.dan ortiq nusxada kitob nashr etdi. Turkistonda nashriyot ishini yo‘lga qo‘yishda I. I. Geyer, G‘ulom Hasan Orifjonov, Is’hoqjon Ibrat, Abdurahmon Sayyoh Sodiqov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va b. salmoqli hissa qo‘shdilar.

O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishidan so‘ng (1925) O‘rta Osiyo davlat nashriyoti negizida O‘zbekiston davlat nashriyoti – O‘zdavnashr (hozirgi „O‘zbekiston“ nashriyoti) tashkil topdi. 1925-yil O‘zbekistonda 334 nomda 1,5 mln.dan ortiq tirajda kitob nashr etildi. [4, – B.18.]

30-yillar nashriyot ishida keskin burilish davri bo‘ldi. Nashriyotlar mahsulotlarining g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishda partiyaviylik hukmronligi mustahkamlandi. Marksizm-leninizm asarlarini o‘zbek tilida chiqarish maqsadida O‘zbekiston K.P MK huzurida Partiya nashriyoti (O‘zpartnashr) tashkil etildi. 30-yillarning 2-yarmida tegishli xalq komissarlari va tashkilotlarining ixtisoslashgan tarmoq nashriyotlari barpo etildi.

1917–1941-yillarda O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi va rivojlanishi sovet siyosiy va ideologik maqsadlariga xizmat qilgan. Nashriyot madaniyat va ta'lim sohalarida ma'lum ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, uning faoliyati asosan partiya mafkurasi va markaziy senzura talablariga mos ravishda yo‘naltirilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Rajabov Q. “Turkistonda sovet rejimiga qarshi harakatlar”. – Toshkent: Fan, 2022.

2.Ashurov Sh. “O‘zbekistonda matbuot tarixi”. – Samarqand: SamDU nashri, 2019.

3.Yunusova G. “O‘zbekistonda nashriyotchilik rivoji”. – T.: Muallif, 2015.

4.Qurbonov I. “Matbuot va mafkura: tarix va tahlil”. – Toshkent: Fan, 2020.

BUXORO SHAHRIDAGI SAVDO RASTALARI TA'MIROTI TARIXIDAN

Dilfuza ABDULLAYEVA
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi
katta o'qituvchisi, (PhD)
dilfuza_abdullayeva2023@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asrning 30-50-yillarida Buxoro me'moriy obidalari–toqlarning ta'miroti masalasi mutasaddi tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Savdo majmualari Timi Abdullaxon, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon hamda Toqi Telpakfurushon yodgorliklari bilan bog'liq ta'mirlash va qayta tiklash ishlari, bu boradagi nooqilona yondashuv va mas'uliyatsizlik holatlari dalillanadi. Shu bilan birga, yodgorliklarni muhofaza qilish, saqlash, qolaversa, ulardan foydalanish kabi jarayonlar misolida mavjud hokimiyatning munosabati ham tahlil qilinadi.* ***Kalit so'zlar:*** *ta'mirlash, obida, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, gumbaz, ravoq, tim, shahar xo'jalik qo'mitasi, shahar soveti.*

Аннотация. *В статье на основе документов о деятельности соответствующих организаций рассматривается вопрос реставрации архитектурных памятников Бухары — торговых комлексов-токов в 1930–1950-е годы. Ремонтно-восстановительные работы, связанные с торговыми комплексами Тими Абдуллахан, токи Заргаран, токи Саррофан и памятниками токи Телпакфрушон, свидетельствуют о нерациональном подходе и безответственности в этом отношении. При этом анализируется и отношение действующей власти на примере таких процессов, как охрана, сохранение памятников, а, следовательно, и их использование.* ***Ключевые слова:*** *реновация, памятник, Токи Заргарон, Токи Саррофон, Токи Тельпакфурушан, купол, крыльцо, коллектив, горэкономкомитет, городской совет.*

Annotation. *Based on documents on the activities of relevant organizations, the article examines the issue of restoration of architectural monuments of Bukhara — shopping complexes in the 1930s and 1950s. The repair and restoration works related to the shopping complexes of Te Abdullahan, toki Zargaron, toki Sarrofon and the monuments of Toki Telpakfrushon indicate an irrational approach and irresponsibility in this regard. At the same time, the attitude of the current government is analyzed using the example of such processes as the protection and preservation of monuments, and, consequently, their use.* ***Keywords:*** *renovation, monument, Toki Zargaron, Toki Sarrafon, Toki Telpak furushon, dome, porch, collective, city economic committee, city council.*

Boqiy Buxoroning noyob me'moriy obidalari – savdo toqlarining XX asr 30-yillariga doir ta'mirlanish masalasi tarixiga oid ma'lumotlardan, ularning shahar soveti tomonidan shahar xo'jalik qo'mitasi (Горкомхоз) tasarrufiga berilganligi ma'lum bo'ldi. Keyinchalik, 1934-yilda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qaroriga tayanib, savdo toqlari, tim va qadimiy hammom foydalanish uchun Buxoro shahar kommunal xo'jaligi bo'limi ixtiyoriga beriladi[1].

Keyinchalik, Buxoro shahrining qayta loyihalashtirilishi va transport yo'l qurilishi munosabati bilan shahar sovetiga Toqi Sarrofon yodgorligini (shu qatorda Sallohxona, Qarshi, Mozor, Samarqand, Imom va Shergiron darvozalari va ularga tutash devorlar ham – D.A.) buzishga ruxsat berilganligini me'moriy yodgorliklarga bo'lgan mas'uliyatsizlikning yorqin dalili sifatida, qayd etish o'rinli.

Mazkur masala O‘zbekiston SSR MIQning 1939-yil 19-martda bo‘lib o‘tgan Buxoro viloyatidagi tashkiliy qo‘mitasi yig‘ilishida muhokama qilinib, *“....Toqi Sarrofon me’moriy konstruktiv yechimining Buxoroda mavjud boshqa yodgorliklar[Toqi Zargaron va Toqi Telpakfurushon nazarda tutiladi–D.A.]da ham uchrashi hamda transport harakatlanishini yaxshi yo‘lga qo‘yishni ta’minlash maqsadida...”* davlat muhofazasidan chiqarish xususida qaror qilinadi[2]. Buxoro viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mita raisi Yusupov, kotib Melamedov, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarligi Soveti raisi Abdurahmonov va ish boshqaruvchi Danilov (ismi hujjatlarda ko‘rsatilmagan – *D.A.*) imzosi bilan rasmiylashtirilgan mazkur hujjat Buxkomstaris va ilmiy jamoatchilik doirasida bahsli muhokamalarga sabab bo‘ldi. Bu borada M.Y.Massonning sa’y-harakatlari e’tiborga molik.

Arxitektor Meyerson boshchiligida 1939-yil 14-aprelda taqdim etilgan Buxoro shahrining qayta loyihalash chizmasiga javoban M.Y.Masson “Buxorodagi me’moriy yodgorliklar muhofazasi xususida” deb nomlangan ilmiy ma’ruzasida o‘zining asoslangan mulohazalarini bildirib o‘tadi. Unda M.Y.Masson yodgorliklarga nisbatan uchta toqdan biri buzilsin, qabilidagi bunday “arifmetik” munosabat mutlaqo noo‘rin ekanligini ta’kidlab, buni me’moriy yodgorlik qimmati, ahamiyatini to‘g‘ri baholamaslik va uni asrash vazifasidan uzoqlashish, deb baholaydi. U o‘z fikrlarini davom ettirib, *“...Toqlar kam saqlanib qolingan noyob me’moriy inshoot turiga mansub bo‘lib, o‘rta asr shaharlaridagi bu kabi savdo rastalari na Turkmaniston SSR, na Tojikiston SSR hamda Qirg‘iziston SSRda saqlanmagan bo‘lib, faqatgina O‘zbekiston SSRda mavjud. Qolaversa, bu yodgorliklar hali to‘liq o‘rganilmagan. Mavjud beshta toqdan qolgan uchta savdo toqi bir-birining nusxalari hisoblanmaydi. Har biri alohida me’moriy yechimga ega...”*[3],– deb ta’kidlaydi.

Olim tomonidan transport qatnovini erkin yo‘lga qo‘yish maqsadida katta markaziy ko‘chani shaharning shimoli bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lash rejasi o‘rniga uni sharq yo‘nalishiga burish kabi muqobil taklifining ilgari surilishi noyob me’moriy merosimizni asrab qolinishiga sabab bo‘ldi.

Buxoro me’morchiligining durdonalaridan biri bo‘lgan yirik savdo majmuasi – Timi Abdullaxon yodgorligining ta’mirlanishi hamda qayta tiklash ishlari esa 1927-yilda Sredazkomstaris tasarrufiga olinishi bilan bog‘liq bo‘lganligi ko‘rinadi. Obidadagi keyingi ta’mirlash 1935-yilda Buxkomstaris raisi Sh.Kamolov mas’ulligida amalga oshirilgan. Jarayon bilan bog‘liq iqtisodiy hujjatlar mazkur yilda Masjidi Kalon ta’miri uchun ajratilgan mablag‘ ham (masjidning g‘alla omboriga aylantirilganligi sababli – D.A.) timdagi qayta qurish ishlariga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Buning natijasi o‘laroq, Abdullaxon timida keng ko‘lamli ta’mirlash – janubi-g‘arbiy devor, peshtoq, ravoqlar, tom va tarnov qismlarida amalga oshirildi. Bajarilgan ishlar uchun 10.194 rubl 84 tiyin sarflangan. 1936-yilda Timdagi ta’mirlash ishlari davom ettirilib, 14.528 rubl mablag‘ hisobidan tashqi devor, binoning ichki qismlarida g‘isht terish, tom va gumbaz, qubbalarida ganch bilan suvoqlash ishlari olib borilgan[4].

Buxkomstaris faoliyatiga doir hisobot hujjatlaridagi ma’lumotlar keyingi ta’mir yillarida Tim hamda toqlarda bir qadar qayta tiklash ishlari olib borilganidan guvohlik beradi. Jumladan, 1940-yilda Toqi Telpakfurushonda asosiy gumbaz, tom qismi hamda kichik qubbalar pishgan g‘isht va ganch qorishmalar vositasida

ta’mirlangan. Buning uchun davlat budjetidan 62.233 rubl, maxsus mablag‘lar hisobidan 10.000 rubl mablag‘ ajratilishiga erishilgan. Shuningdek, Toqi Zargaron devorlarining nuragan qismlari hamda gumbazlarida qayta tiklash ishlari bajariladi. Bunda ham maxsus mablag‘lar tushumidan 10.000 rubl, budjet hisobidan 12.431 rubl summa jalb etiladi. Timi Abdullaxon peshtoqining janubi-g‘arbiy burchak devori esa gumbaz qismidan poydevoriga qadar qayta tiklanishi mazkur obidalar uchun zaruriy ta’mir ishlari edi. 1941-ta’mir yilida maxsus mablag‘lar yuzasidan Telpakfurushon toqining ravoq va gumbazlari qayta terilib, tom qismi hamda devorlarida mustahkamlash ishlari olib boriladi.

Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan 1949-yilda Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon va Timi Abdullaxonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida mazkur obidalar alohida savdo majmuasi–kompleks sifatida ilmiy tavsiflanib, asoslandi. Buning natijasida, ushbu yodgorliklar chizmalari shahar bosh rejasiga kiritilishiga erishilgan[5]. Bu toqlarning muhofazasi va xavfsizligini ma’lum ma’noda ta’minlaydigan omil bo‘la oldi. Toqi Zargarondagi ta’mirlash ishlari shu yilning o‘zidayoq boshlanib, jami 6000 rubl miqdorida mablag‘ xarj qilingan.

Mavzuga daxldor iqtisodiy hujjatlardan, Arxitektura ishlari boshqarmasining 1951-ta’mir yili dasturiga muvofiq respublika bo‘yicha ta’mirlash uchun 588.000 rubl mablag‘ ajratilganligi ma’lum bo‘ldi. Shundan 147.000 rubl miqdori Buxoro me’moriy yodgorliklarining ta’miriga yo‘naltiriladi[6]. Yodgorliklar muhofazasi bo‘limining bosh muhandisi A.Xaustov, hududiy vakil S.Sharipov, yodgorliklar saqlovchisi I.Mansurovlar tomonidan 1951-yilda Buxoro me’moriy obidalari doirasida amalga oshirilishi zarur ishlar ko‘lami belgilab olinadi. Natijada, budjet hisobidan 40.000 rubl ajratilib, Toqi Zargaronning janubiy yo‘lagidagi ta’mir ishlarini yakunlash, barcha yo‘laklarning ravoqlarida mustahkamlash amalga oshiriladi. Shu bilan birga Toqi Sarrofondagi ushbu yildagi qayta tiklash ishlariga 10.000 rubl mablag‘ ajratilgan[7].

Ta’mirlashga mas’ul tashkilotlar faoliyatiga doir yana bir e’tiborli jihat, Telpakfurushon toqining muhofaza masalasi bilan bog‘liq bo‘lib, 1951-yil avgust oyiga qadar toq yaqinidan o‘tadigan mashinalar qatnovining to‘xtatilishidir. Sababi, shu yilning 21-fevral sanasida Davlat qurilish muhofaza inspeksiyasi boshlig‘i I.Y.Patik tomonidan Toqi Telpakfurushonning texnik holati tekshirilib, transport harakatlanishi natijasida devor suvoqlarida o‘pirilish sodir bo‘layotganligi rasmiylashtirilgan. Shundan so‘ng, 1951-yil 27-avgustda Buxoro shahar ijroiya qo‘mitasi rahbari Bakayev toqning ta’miri uchun zarur mablag‘ ajratilishini so‘rab, V.A.Jahongirovga murojaat qiladi[8]. Ammo mavjud ma’lumotlardan 1952-yilda Toqi Telpakfurushonda ta’mirlash ishlari emas, balki ushbu tadbir uchun zarur bo‘lgan ilmiy o‘rganish hamda o‘lchov ishlari olib borilganligi ma’lum bo‘ldi. 1953-yilda yodgorlikni to‘liq ilmiy tadqiq etish, toqdagi o‘tish yo‘laklarining ravoqlarini mustahkamlash, tom qismini ta’mirlash kabi ishlar bajarilgan. Buxoro MITICHU tomonidan amalga oshirilgan bu amaliyot uchun maxsus mablag‘lar tushumidan 60.000 rubl summa talab etilgan.

Mazkur davrga tegishli bo’lgan toqlardan foydalanish va ijaradorlik bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularning “Buxoro shahar savdo” idorasi ixtiyoriga

berilganligi aniqlandi. Ijara to‘lovi miqdori esa O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1947-yil 30-iyundagi 1012-son qaroriga asoslanib savdo rastalari uchun 1kv.m maydondan yiliga 140 rubl, omborxona maqsadidagi foydalanuv uchun esa 75 rublni tashkil etgan. Masala yuzasidan idoralararo yozishmalarni o‘rganish davomida quyidagi mulohazali holatga duch keldik.

O‘zbekiston SSR Savdo vaziri S.Ziyamov 1952-yil 13-iyunda Vazirlar Kengashi raisining o‘rinbosari V.A.Bilbas nomiga yo‘llagan xatida go‘yoki Toqlar tarixiy yodgorlik hisoblanmasa-da, ulardan tarixiy yodgorlik ijarasi uchun zarur summani to‘lash talab etilgani, qolaversa, savdo rastalari tarixiy ahamiyatga ega emasligidan kelib chiqib, ularni Savdo vazirligi hisobiga o‘tkazish kerakligini talab etadi. Vaholanki, birinchidan, ushbu obidalarning tarixiy qimmati, ahamiyati ilmiy asoslanib 1927-yildayoq davlat muhofazasidagi yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilgan edi. Ikkinchidan esa, mavjud smeta hujjatlari belgilangan ijara to‘lovining yetkazilayotgan zarardan bir necha barobar kamligini dalillaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, S.Ziyamovning savdo majmualari-toqlarga nisbatan “da’vo”lari mutlaqo o‘rinsiz bo‘lgan, deb hisoblaymiz.

Ijaradorlar tomonidan yetkazilgan zararga qaramay, toqlar binosi muntazam ijara uchun foydalanuvga berilgan. Faqatgina 1952-yil 10-sentabrda rejalashtirilgan ilmiy izlanishlar sabab, Arxitektura ishlari boshqarmasining Buxorodagi hududiy vakili S.Sharipov Toqi Telpakfurushondagi 1953-yilgi ijara shartnomasi imzolanmasligini ta’minlashga erishgan.

Arxitektura ishlari boshqarmasining Yodgorliklar muhofazasi bo‘limi taklifi bilan Buxorodagi sayyohlar uchun asosiy ko‘rsatmali yo‘nalish (marshrut) bo‘yicha joylashgan yodgorliklar 1954-yilda qayta ko‘rib chiqilib ularning soni o‘n beshtaga yetkaziladi. Mazkur ro‘yxatda Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon hamda Toqi Sarrofonning mavjudligi ulardagi ta’mirlash va qayta tiklash ishlarining sifatiga, salmog‘iga ta’sir ko‘rsatishini ta’minlagan.

Xulosa o’rnida ta’kidlash o’rinliki, tim va toqlarda amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari muayyan omillar asosida bajarilgan. Aholi serqatnov harakat yo‘nalishida joylashganligi, sayyohlar uchun asosiy ko‘rsatma yo‘nalish (marshrut) jadvaliga kiritilishi, davlat muhofazasidagi yodgorliklar sifatida ro‘yxatga olinishi sabab, tim va toqlarda ta’mirlash va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirilgani kuzatiladi. Shuningdek, belgilangan taftish-nazorat komissiyalarining hisobot hujjatlari hamda ta’mirlashga mas’ul tashkilotlarning o‘zaro yozishmalarini tadqiq etish orqali, mutasaddilarning beparvoligi va loqaydligi, moliyaviy ta’minotdagi uzilishlar kabi bir qator sabablardan tim va toqlarda bajarilgan ta’mir ishlari salmog‘i va sifatining bu kabi inshootlarning saqlovi uchun yetarli bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o’rinlarda* – O‘zbekiston MA), R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 121-yig‘majild, 4-8-varaqlar.
2. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 245-yig‘majild, 106-varaq.
3. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 245-yig‘majild, 92-varaq.
4. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 146-yig‘majild, 8-varaq.
5. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 359-yig‘majild, 76-varaq.
6. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 381-yig‘majild, 55-varaq.

7. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 381-yig‘majild, 47-varaq.
8. O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 382-yig‘majild, 187-varaq.

O’ZBEKISTONDA XX ASRNING 30-YILLARIDA ILM-FAN RIVOJLANISHINING AYRIM XUSUSIYATLARI

Yoqubjon TAYRONOV
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
yoqubjon.tayronov @bk.ru
D.TUXMAKOVA
TDPU 1-kurs magistranti

Annotasiya: *Ushbu maqolada XX asrning 30- yillarida O’zbekistonda ilm-fan sohasida sodir bo’lgan ayrim o’zgarishlarning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, unda mamlakatning barcha sohalari xususan, qishloq xo’jaligi, paxtachilik, pillachilik, tuproqshunoslik, chorvachilik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, chorva mollari kasalliklarining oldini olish va davolashning ilmiy asoslarining ishlab chiqilishi, kon sanoatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va geologiya-qidiruv ishlarining ilk bora yo’lga qo’yilishi hamda ularni sovet hukumati manfaatlarga bo’ysundrilib, undan katta foyda olishga intilish haqidagi qimmatli ma’lumotlar o’rin olgan.* ***Kalit so’zlar:*** *tadqiqot, ilm-fan, qishloq xo’jaligi, paxtachilik, ilmiy tekshirish instituti, tuproqshunoslik, pillachilik, kon sanoati, meloratsiya.*

Аннотация: *В статье раскрываются особенности некоторых изменений, произошедших в сфере науки в Узбекистане в 1930-е годы. В нем также содержатся ценные сведения о научных исследованиях, проводившихся во всех отраслях страны, в частности в сельском хозяйстве, хлопководстве, шелководстве, почвоведении и животноводстве, о разработке научных основ профилактики и лечения болезней скота, о первых научно-исследовательских и геологоразведочных работах, направленных на развитие горнодобывающей промышленности, о подчинении их интересам Советской власти и стремлении извлечь из них большую выгоду.* ***Ключевые слова:*** *исследования, наука, сельское хозяйство, хлопководство, научно-исследовательский институт, почвоведение, коконоводство, горнодобывающая промышленность, мелиорация.*

Annotation: *The article reveals the features of some changes that took place in the field of science in Uzbekistan in the 1930s. It also contains valuable information about scientific research conducted in all sectors of the country, in particular in agriculture, cotton growing, sericulture, soil science and animal husbandry, about the development of scientific foundations for the prevention and treatment of livestock diseases, about the first research and geological exploration work aimed at developing the mining industry, about their subordination to the interests of the Soviet government and the desire to extract greater benefits from them.* ***Key words****: research, science, agriculture, cotton growing, research institute, soil science, cocoon farming, mining industry, melioration.*

XX asrning 30-yillaridagi O‘zbekistonda qatag‘onlar va siyosiy terrorning kuchayishi ilm-fanining rivojiga salbiy ta’sir qildi. Bir tomondan, respublikada ilmiy salohiyatning muayyan darajada o‘sishi ko‘zga tashlanib, ilmiy xodimlarning soni va tadqiqotlar yo‘nalishlari ortgan bo‘lsa, ikkichi tomondan, boshqaruvning buyruqbozlik usullari va taniqli olimlarning ko‘plab qamoqqa olinishi ilmiy ijod erkinligini bo‘g‘ib qo‘ygan hamda uning umumjahon tamaddudi yo‘lidan borishiga imkon bermagan.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishini uyg‘unlashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida 1932-yil oktyabrida O‘zbekiston Sovetlari MIQ huzurida Respublika Fanlar qo‘mitasi tashkil etildi. Bu davrda respublikada 35 ta tarmoq institutlari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularda 1800 dan ortiq ilmiy xodim tadqiqot olib borayotgan edi[1,-54-varaq]. Qo‘mita huzurida Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent astronomiya rasadxonasi, geliotexnika laboratoriyasi mavjud edi. Keyinroq esa geologiya instituti va boshqa institutlar tashkil etilgan[2,-B.80-81.]. Taniqli olim Otajon Hoshimov Fanlar Qo‘mitasining raisi etib tayinlandi. Ayni vaqtda u Til va adabiyot institutiga rahbarlik ham qildi, falsafa, pedagogika, o‘zbek adabiyoti, folklor va ona tili bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Ayni vaqtida, tarix fani sohasida yetuk mutaxassis pedagog olimlarni yetishtirish ham fanni rivojlantirish yo‘nalishidagi vazifalardan biriga aylangan. Chunki, tarixni bilish, eng avvalo, hozirgacha yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va aksincha ulardan to‘g’ri xulosalar chiqarish zarur bo‘lgan.

Shu maqsadda hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilib, aynan shu ilmni rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 1934-yil 16-mayda SSSR XKS ning “SSSR maktablarida fuqarolar tarixini o‘qitish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Shuningdek, 1935-yil O‘rta Osiyo Davlat Universiteti tarkibida to‘la ma’noda haqiqiy oliy ma’lumotli yetuk tarixchi mutaxassislar tayyorlaydigan mustaqil tarix fakulteti tashkil etilib, dastlabki oyda 79 ta talaba qabul qilgan.

XX asrning 30-yillarda O‘zbekiston olimlari qishloq xo‘jalik ekinlari va tuproq fitogelmintlarini o‘rganishga kirishdilar. Ular paxta ekiladigan yerlarda ko‘payadigan nematod faunasining majmuini tadqiq etdilar. O‘sha davrda O‘zbekistonda tuproqshunoslik sohasida ikki yo‘nalish: tuproq-meliorativ va agrotuproq-agrokimyo yo‘nalishlari vujudga keldi. Birinchi, yo‘nalish bo‘yicha irrigatsiyaga ixtisoslashgan loyihalash institutlarida, ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha esa paxtachilik sohasidagi ilmiy tadqiqot institutlarida izlanishlar olib borilgan.

Mazkur vaqtda tuproqshunoslik va melioratsiya muammolarini Suv xo‘jaligi tajriba-tadqiqot instituti va SoyuzNIXI tashkilotida faoliyat olib borayotgan olimlar tadqiq etgan. Asosiy irrigatsiya tizimlarida suvdan qanday foydalanayotganligi yuzasidan ekspeditsiyalar tashkil etilib, sug‘orish tizimlarini qayta tuzish va ulardan foydalanish asoslarini yaratishga alohida e’tibor berilgan hamda yerning sho‘rlanishi, botqoqlashuviga qarshi kurashish uchun agrotexnika va melioratsiya usullari yaratilgan.

Universitetining tuproqshunos olimlari ham O‘rta Osiyo tuproqlarini o‘rganish, yem-xashakni ko‘paytirish va boshqa qishloq xo‘jaligi muammolari yuzasidan katta ilmiy izlanishlar olib borgan.

Hukumatning topshirig‘iga binoan O‘rta Osiyo Davlat universitetida Pomir tog‘ini har tomonlama o‘rganish boshlanib, 1933 -yildan e’tiboran u yerga muntazam ekspeditsiyalar uyushtirilib, tajriba va biologik stansiya doimiy faoliyat olib borgan. Universitetni tugatgan olimlardan T.Z.Zohidov Qizilqum cho‘li hayvonotini o‘rganishda faol ishtirok etgan bo‘lsa, N.L.Korjenevskiy esa O‘rta Osiyo muzliklari va suv resurlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullangan. Nafaqat ushbu oliygoh balki, respublikadagi boshqa oliy o‘quv yurtlarining katta olimlar guruhi ham samarali ilmiy ishlar olib borgan.

Botanika institutida pillachilikka oid tadqiqotlarda xorijiy tajribalardan foydalanishga katta e'tibor berilib, pillachilik ekologiyasi va ipak qurtining fiziologiyasini o'rganilgan hamda O'rta Osiyo ipak qurtining yangi avlodlari, gibridlarini, tut daraxtining yuqori sifatli barg beradigan navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Bu vaqtda barcha sohalar singari chorvachilikka ham alohida ahamiyat qaratilib, bu borada sovetlarning buyruqlari asosida samarali ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1930-yilda qorako'lchilik ilmiy tadqiqot instituti, 1932-yilda otchilik va tuyachilik bo'yicha O'rta Osiyo zonal tajriba stansiyasi, 1933-yilda chorvachilik tajriba stansiyasi asosida O'zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilib zootexnika sohasidagi ilmiy izlanishlar avj oldirib yuborilgan.

1934-yilda Turkiston veterinariya-bakteriologiya laboratoriyasi asosida tashkil etilgan O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti olimlari chorva mollari kasalliklarining oldini olish va davolashning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqqan. Bu esa chorvachilik xo'jaliklarida ommaviy yuqumli kasalliklarni bartaraf etish imkonini berib, sohaning mamlakat bo'ylab keng rivojlanishiga xizmat qilgan.

Qishloq xo'jalik fanlarida olimlar qishloq xo'jaligi ehtiyojlari va talablariga mos tadqiqotlar olib borib, tarmoqni mexanizatsiyalashning nazariy asoslari ishlab chiqqan va ayni vaqtda davlat texnikasining dastlabki tajriba namunasi – g'o'zapoya yig'ish mashinasi, ko'sak chivish mashinasi, seyalka, kultivator kabi mexanizmlar sinovdan o'tkazilgan.

Kon sanoatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va geologiya-qidiruv ishlari shubhasiz, ilm, fanda yangi yo'nalish bo'lgan. Ammo, ularni sovet hukumati o'z maqsadlariga muvofiq tashkil etishga intilib, undan katta foyda olishga intilgan. Masalan, 1932 -yildagi VKP (b) XVII konferensiyasi qarorida ochiq-oydin O'zbekistonda faol kon-qidiruv ishlarini tashkil etishning asosiy vazifasi "umum-ittifoqni sanoatlashtirish uchun zarur bo'lgan qimmatbaho rangli metallarni chetdan keltirishdan voz kechish imkoniyati"ni yaratishdan iboratdir, deb ko'rsatib o'tilgan[3,- B.78.].

Respublikada yirik rux, qo'rg'oshin, oltingugurt, mis, va boshqa foydali qazilmali konlarining aniqlanishi markaziy rahbariyatga "umumittifoq mehnat taqsimoti"da O'zbekistonning "sotsialistik ixtisoslashuvi"ni jiddiy ravishda kengaytirish imkonini bergan. Xususan, respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan baza deb belgilangan va natijada 1935 -yildan volfram, molibden va boshqa ma'danlarni qazib olish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonning "umumittifoq ixtisoslashuvi"dagi ahamiyati ortib borayotganini hisobga olib va imperiyacha tafakkur an'analaridan kelib chiqib, markaziy hukumat respublikaning butun majmuini nazorat qilishni amalda o'z qo'liga olgan. XX asrning 30-yillarning boshlaridayoq sanoat korxonalarining mansublik: ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar – 14,5 %ni, mahalliy korxonalar – 3,8% ni tashkil etgan[4,-B.242.].

Lekin shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan davrida ilm-fan rivojining turli sohalarida erishilayotgan yutuqlar bilan ayni vaqtida salbiy holatlar loqaydliklar va davlat mablag'larini bekorga sovurish holatlari ham kuzatilgan.

Respublikadagi qator ilmiy-tadqiqot institutlariga bir markazdan turib rahbarlik qilish maqsadida O'zbekiston Sovetlari MIQ qoshida fanlar qo'mitasi tuzilgan. Bu

qo‘mita 1934-yilning 1-iyunidan boshlab O‘zbekiston XKS ixtiyoriga berilgan. Fan qo‘mitasi ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirilgan asosda rivojlantirishni o‘z qo‘liga olib, respublika olimlari Qishloq xo‘jaligini ilmiy tarmoqlarini ilmiy asosda rivojlantirishni boshlab yuborgan. Noyob va rangli metallar, polimerlarni qidirib topish, ularni yo‘lga qo‘yishning asoslariga e’tibor kuchaytirilgan.

Shuni aytib o‘ish joizki, ushbu vaqtda barcha ilmiy tadqiqot maskanlari o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishmagan, ma’suliyatsizlik va e’tiborsizlik qilib, davlat tomonidan ajratilgan mablag’larni bekorga sovurgan. Masalan, 1930-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Sanoat-iqtisod ilmiy tadqiqot oliygohi ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganishi, mahalliy sanoatning dolzarb muammolarini ilmiy jihatdan ochib berishi kerak bo‘lgani holda bu ishlarni bajarmagan[5,-7-8-varaqlar]. Yoki O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot oliygohi 1933-36 -yillarida suv xo‘jaligini rivojlantirish borasida birorta ham ilmiy mahsulot bermagan holda oliygohning shu yillardagi ilmiy-sarf-xarajatlari 8 mln. so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 1934-yil 23-mayda VKP (b) MQ va SSSR XKSning “Fuqorolar tarixini o‘qitish” haqidagi qarori va “VKP (b) tarixi qisqacha kursi”ning chop etilishi natijasida oldingi davr adabiyotlarida uchraydigan munozaralar o‘rnini siyosiy muxolifatlarni va rasmiy qarashlarga ozgina bo‘lsada mos kelmaydigan fikrlarni qattiq qoralash, ularga turli xildagi yorliqlarni yopishtirish avj olib ketgan.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda 20-yillarning oxirigacha bo‘lgan davr eng sermahsul bo‘lib, undan keyingi -yillarda ayniqsa, 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tadqiqotlar soni keskin qisqarib ketgan. Qator ilmiy masalalarining o‘rganilishi 30-yillarga kelib to‘xtab qolgan. Buning sababi totalitar rejim va uning g‘oyalari davlat jamiyat fanni boshqarishda ma’muriy buyruqbozlikning shakllanib qaror topishida edi.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ishlab chiqarish makonini markazning o‘z ota meros mulkiga aylantirilishida byudjet siyosati ta’sirchan vosita bo‘ldi. Ittifoq rahbariyati moliyaviy mablag‘larning yakkayu-yagona tasarrufchisi bo‘lib, faqat kommunistik monopoliyaning ehtiyojlariga xizmat qiladigan tarmoqlargagina zarur hajmda mablag‘lar ajratgan. Masalan, 30-yillarda asosan, paxtachilik, neft, kimyo, qazilma sanoatiga, rangli metallurgiyaga katta sarmoya ajratilgan. Respublika uchun o‘ta muhim bo‘lgan mashinasozlik, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasini rivojlantirishga ajratilgan sarmoyalar umumsarmoyaning atigi 2,7% tashkil etgan[6,-B.17-19.]. Bu esa O‘zbekiston aholisining sotsial-demografik holati va madaniy ehtiyojlarini hisobga olmaslik oqibati edi.

O‘zbekistonning suv resurslarini o‘zlashtirish yuzasidan yirik gidrogeologik va muhandislik-geologik tadqiqotlari ham olib borildi. Gidrogeolog olimlar va irrigatorlar magistral kanal va suv omborlari barpo etishni asoslab berdilar. Natijada 1939-1940-yillarda 32 kilometrlik Lag‘on kanali, 250 kilometrlik Katta Farg‘ona kanali, 162 kilometrlik Shimoliy Farg‘ona kanali, 108 kilometrlik Janubiy Farg‘ona kanali qurib bitkazildi[7,-B.242.]. Shuningdek, 662 mln. kub metr suv sig‘imiga ega bo‘lgan Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishi boshlangan. Shuningdek, Qizilqum sahrosining cho‘l-yaylov hududlari gidrogeologik tasvirga tushirilib, uning ilmiy jihatdan o‘rganish boshlangan.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan neft va gaz geologiyasi sohasidagi tadqiqotlar tufayli 30-yillardayoq bir qator releflarning geologik xaritalari tuzilgan va neft-gaz konlari istiqbollari yuzasidan dastlabki mintaqaviy ma’lumotlar aniqlangan. 1934-yilda O‘zbekistonning janubiy mintaqalarida xususan, Surxondaryoda yangi neft-gaz konlari topilib, foydalanishga topshirilgan. Shundan so‘ng yana bir qator ilmiy izlanishlar olib borilib, 1935-1939-yillar davomida Uchqizil, Ko‘kaydi va Lalmikor konlari aniqlangan. Buxoro viloyatining bepoyon hududlarida amalga oshirilgan neft qidirish ishlari bu yerlarni istiqbolli neft-gaz konlari bo‘lishiga zamin yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30-yillarida O’zbekistonda ilm-fan sohasida murakkab jarayon yuzaga keldi. Bir tomondan, mamlakatda barcha sohalarda ilmiy tadqiqotlar davr talabiga aylanib boryotgan bo’lsa ikkinchi tomondan, sho’ro rejimining buyruqbozlikka asoslangan tizimi soha taraqqiyotiga xalaqit berayotgan edi. Lekin shunday bo’lishiga qaramay ilm-fan sohasida rivojlanish yaqqol ko’zga tashlandi va boshqa millat vakillari qatorida mahalliy olimlar guruhi ham yetishib chiqa boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Milliy arxivi, 88-jamg’arma, 9-ro’yxat, 352-ish, 54-varaq.
2. Ўзбекистон ССР ҳукуматининг V Бутунўзбек Советлар қурултойига ҳисоботи. (1931-1934 йиллар). –Т.: 1935.
3. Осуществление ленинских идей социалистического интернационализма в Узбекистане. – Т.: Фан, 1984.
4. Ходжаев Ф. Избранные труды. В 3-х томах. Т.2. – Т.: 1972.
5. O’zbekiston Milliy arxivi, 837-jamg’arma, 13-ro’yxat, 640-ish, 7-8-varaqlar.
6. Достижения Советской власти за 40 лет в цифрах. Стат. сб. – М.: 1957.
7. Ходжаев Ф. Избранные труды. В 3-х томах. Т.2. – Т.; 1972.

РАССМОТРЕНИЕ ТРУДОВЫХ СПОРОВ СУДАМИ УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Д. КОМОЛОВ

профессор, Университет экономики и педагогики, Карши

Аннотация: *Ушбу мақолада фашистик Германия Совет Иттифоқига ҳужум қилиш арафасида Ўзбекистон ССРда корхона ва муассасаларнинг милитаризация қилиниши жараёнлари, фуқароларнинг касб танлаш ва меҳнат қилиш бўйича конституциявий ҳуқуқларининг чекланиши, аҳолининг шафқатсиз эксплуатация қилиниши, шунингдек, тоталитар совет тузуми томонидан ўн минглаб маҳкумларни бепул ишчи куч сифатида фойдаланиш ҳолатлари ёритилган. Бундан ташқари, мақолада архив манбалари асосида судьяларга нисбатан репрессиялар ва суд тизими устидан партия ҳамда ҳукумат назоратининг кучайтирилиши масалалари ҳам таҳлил қилинган.* ***Калит сўзлар:*** *Адлия халқ комиссариати, Ўзбекистон ССР Олий суди, халқ суди, судья, тергов, ҳукм, ҳибс, тузатиш ишлари, жарима, иш ҳафтаси, меҳнат интизоми, маҳкум, ҳарбий корхоналар, фармон.*

Аннотация: *В данной статье на примере Узбекской ССР раскрываются процессы милитаризации предприятий и учреждений накануне нападения фашистской Германии на*

Советский Союз, ограничения конституционного права граждан на свободный выбор профессии и труд, жестокая эксплуатация населения, а также использование десятков тысяч заключённых в качестве бесплатной рабочей силы тоталитарным советским режимом. Кроме того, в статье, на основе архивных источников, освещаются репрессии в отношении судей и усиление партийного и правительственного контроля над судебной системой. ***Ключевые слова:*** *Народный комиссариат юстиции, Верховный суд Узбекской ССР, народный суд, судья, следствие, приговор, арест, исправительные работы, штраф, рабочая неделя, трудовая дисциплина, заключённый, военные предприятия, указ.*

Annotation: *This article, using the example of the Uzbek SSR, explores the processes of militarization of enterprises and institutions on the eve of Nazi Germany's attack on the Soviet Union, the restriction of citizens' constitutional rights to freely choose their profession and labor, the harsh exploitation of the population, as well as the use of tens of thousands of prisoners as free labor by the totalitarian Soviet regime. Furthermore, based on archival sources, the article highlights the repression of judges and the strengthening of party and government control over the judicial system.* ***Keywords:*** *People's Commissariat of Justice, Supreme Court of the Uzbek SSR, people's court, judge, investigation, verdict, arrest, corrective labor, fine, workweek, labor discipline, prisoner, military enterprises, decree.*

23 августа 1939 года в Москве был подписан пакт Молотова-Риббентропа между Советским Союзом и Германией. Спустя неделю Гитлер начал Вторую мировую войну. Секретный протокол к пакту, который определял сферы влияния двух государств в Восточной Европе, предоставил Гитлеру свободу действий для начала войны с Польшей. Благодаря этому соглашению Сталин, помимо расширения советского влияния в Восточной Европе, получил самое важное — возможность отсрочить войну против Германии. Хотя 28 сентября 1939 года между Германией и СССР был подписан договор о ненападении, обе стороны активно готовились к возможному столкновению.

В это время на каждом заседании Политбюро и правительства Советского Союза непрерывно обсуждались вопросы укрепления оборонной промышленности, строительства новых предприятий, закупки оборудования и вооружения за границей. Создание новых предприятий требовало большого количества рабочей силы. В качестве решения этой проблемы советское государство приняло решение о жестокой эксплуатации своего народа и массовом использовании миллионов заключенных в качестве бесплатной рабочей силы.

Для юридического обоснования этих мер 26 июня 1940 года Президиум Верховного Совета СССР принял указ «О запрещении самовольного ухода рабочих и служащих с предприятий и учреждений в связи с переходом к восьмичасовому рабочему дню и семидневной рабочей неделе» [1, С.141-142]. В частности, в указе были изложены следующие положения:

1.Продлить продолжительность рабочего дня для всех рабочих и служащих государственных, кооперативных и общественных предприятий и учреждений.

2.Перевести рабочую неделю с шести на семь дней на всех государственных, кооперативных и общественных предприятиях и учреждениях.

3.Запретить самовольный уход рабочих и служащих с предприятий и учреждений, а также переход с одного предприятия на другое.

Согласно указу, на предприятиях и в учреждениях работа организовывалась в три смены, обеспечивая круглосуточный производственный процесс. Рабочие и служащие могли покинуть предприятие или перейти на другое место работы только с разрешения директора предприятия или руководителя учреждения. Право на увольнение предусматривалось лишь в двух случаях:

1.Если работник или служащий, согласно заключению медицинской экспертной комиссии, не мог выполнять свою прежнюю работу по причине болезни или инвалидности, а администрация не могла предоставить ему другую подходящую должность в этом же учреждении.

2.Если работник или служащий поступал в высшее или среднее специальное учебное заведение и прекращал трудовую деятельность по этой причине.

Согласно указу, самовольное оставление предприятия или учреждения подлежало судебному разбирательству. Народные суды выносили приговоры, предусматривающие наказание в виде тюремного заключения сроком от 2 до 4 месяцев. Работники, которые без уважительных причин не выходили на работу или опаздывали более чем на 20 минут, подвергались исправительным работам сроком до 6 месяцев с удержанием до 25% заработной платы.

Народные суды должны были рассматривать такие дела в срок, не превышающий 5 дней, а вынесенные приговоры подлежали немедленному исполнению. Указ вступил в силу 27 июня 1940 года, вводя на территории Советского Союза усиленные и чрезвычайные трудовые порядки.

Граждане были вынуждены работать без выходных, фактически в рабских условиях, под угрозой уголовной ответственности. Государство закрепило рабочих и служащих за предприятиями, одновременно повышая производственные нормы, снижая цены и вводя уголовную ответственность за невыполнение минимального рабочего плана.

Согласно действующему процессуальному законодательству, любое уголовное дело должно было проходить предварительное следствие и передаваться в суд с обвинительным заключением. Однако указ предусматривал, что весь процесс рассмотрения дела, включая судебное разбирательство, должен завершаться в течение пяти дней.

Для дальнейшего упрощения репрессивных процедур Пленум Верховного суда СССР вынес постановление, согласно которому народные суды могли рассматривать такие правонарушения в упрощённом порядке. Например, 15 июля 1940 года Пленум Верховного суда СССР дал указание нижестоящим судам рассматривать дела о нарушении трудовой дисциплины без предварительного следствия, если судья считал собранные материалы достаточными для вынесения обвинительного приговора [2, С.131-133]. Это объяснялось как «одна из эффективных мер борьбы с систематическими нарушителями трудовой дисциплины».

Судьи в сомнительных случаях могли направить дело на дополнительное расследование, однако большинство из них прекрасно понимали, что это право носит формальный характер. В соответствии с указаниями партии и правительства, под предлогом борьбы с «нарушителями трудовой дисциплины»

были развернуты массовые репрессии против рабочих и служащих, фактически лишая их права на отдых.

На очередном Пленуме Верховного суда СССР 23 июля 1940 года было принято указание о том, что в случае повторного нарушения трудовой дисциплины, связанного с опозданиями на работу, наказание в виде исправительных работ заменяется тюремным заключением. В результате меры наказания за нарушение трудовой дисциплины стали еще более жесткими.

10 августа 1940 года, в целях обеспечения оперативности репрессий, был упразднен еще один процессуальный этап судебного разбирательства. В этот день Президиум Верховного Совета СССР издал указ, согласно которому дела о самовольном оставлении предприятия или учреждения должны рассматриваться народными судьями единолично, без участия народных заседателей [1, С.231].

Между тем, в соответствии с Конституцией СССР 1936 года и Конституцией Узбекской ССР 1937 года (статья 102), все судебные разбирательства должны были проходить коллегиально, а судьи на всех уровнях должны были осуществлять правосудие с участием народных заседателей [3, С.18].

Анализируя последовательность вышеуказанных решений, становится очевидно, что судьи обладали всеми необходимыми инструментами для проведения репрессий. Они имели право рассматривать подобные дела без предварительного следствия и без участия народных заседателей. Самое трагичное заключалось в том, что вынесенные судом приговоры подлежали немедленному исполнению — не позднее чем через один день после вынесения решения. Подсудимые не имели права на апелляцию или кассационную жалобу.

До 15 сентября 1940 года в СССР по указу от 26 июня 1940 года было возбуждено 1 082 216 уголовных дел, переданных в суд. Из них 906 824 человека были осуждены, в том числе 755 440 человек — за опоздания на работу, 131 718 человек — за самовольное оставление предприятия, 2 949 человек — за укрывательство обвиняемых.

В Узбекской ССР также была развернута кампания по массовому наказанию рабочих и служащих за нарушение трудовой дисциплины. По состоянию на 1 сентября 1940 года в народные суды Узбекистана поступило 13 877 дел, связанных с нарушениями трудовой дисциплины, из которых 10 861 дело было рассмотрено в судебном порядке [4].

В абсолютном выражении наибольшее количество правонарушителей приходилось на долю Ташкентской области. По состоянию на 1 сентября 1940 года в народные суды Ташкентской области поступило 6896 дел, из которых 5504 были рассмотрены. В Ферганской области из 2784 дел было рассмотрено 2548, в Бухарской области из 1345 дел — 1210, в Самаркандской области из 1782 дел — 1534, в Хорезмской области из 521 дела — 485, в Каракалпакской АССР из 549 дел — 465[5].

Согласно указу от 26 июня 1940 года, дела, связанные с нарушением трудовой дисциплины, должны были рассматриваться судьей в срок, не

превышающий пяти дней с момента их выявления. Однако в период с 15 августа по 1 сентября 1940 года в народных судах Ташкентской области 1140 дел были рассмотрены с нарушением этого срока. Такая же ситуация наблюдалась и в других областях: в Ферганской области 508 дел, в Бухарской области 164 дела, в Самаркандской области 143 дела, в Хорезмской области 59 дел были рассмотрены с опозданием.

Основной причиной задержки рассмотрения дел было чрезмерное увеличение объема работы. Например, в участке №32 народного суда города Ташкента, который обслуживал текстильный комбинат, к 15 сентября 1940 года поступило 1000 дел. Несмотря на то, что народный суд работал в три смены круглосуточно, в производстве оставалось около 200 нерешенных дел[6].

В народный суд города Чирчика поступило 900 дел о нарушении трудовой дисциплины со стороны рабочих, занятых на строительстве Чирчикского электрохимического завода. В результате в городе Чирчике был создан дополнительный участок народного суда за счет сокращения в Калининском районе Ташкентской области. Однако даже после этого народный суд не успевал рассматривать уголовные дела в установленный пятидневный срок.

По состоянию на 1 сентября 1940 года всеми народными судами Узбекской ССР к наказанию были приговорены 10 738 человек. В разрезе областей число осужденных было следующим: в Ташкентской области – 4786 человек, в Ферганской – 2353, в Бухарской – 1215, в Самаркандской – 1391, в Хорезмской – 467, в Каракалпакской АССР – 526 человек.

9509 человек были осуждены за опоздания на работу, 1206 человек – за самовольный уход с рабочего места. 4462 осужденным (46%) было назначено наказание в виде исправительных работ сроком до 3 месяцев, 5035 осужденным (53,9%) – исправительные работы сроком от 3 до 6 месяцев.

303 человека, покинувших место работы без разрешения, были приговорены к 2 месяцам лишения свободы, 922 человека – к лишению свободы на срок от 2 до 4 месяцев[7].

Наркомат юстиции СССР и Верховный суд регулярно заслушивали отчеты союзных республик о выполнении Указа от 26 июня 1940 года. Центральные органы давали указания применять более строгие меры наказания к виновным. Для контроля за выполнением этих требований проводились инспекции деятельности народных судов.

В отношении народных судей, которые назначали мягкие наказания или оправдывали невиновных на основании объективной оценки обстоятельств, усиливались меры воздействия. Например, народный судья 32-го участка города Ташкента Павлов был освобожден от должности за то, что вынес 20 оправдательных приговоров и прекратил производство по 4 делам за отсутствием состава преступления. Позднее он был обвинен в совершении политических преступлений и приговорен к лишению свободы.

Бывший народный судья Нурматов был привлечен к ответственности за оправдание 44 подсудимых, народный судья Чернышева – за прекращение дел в отношении 14 подсудимых, народный судья Тошматов в Учкургане – за

оправдание 3 подсудимых, а народный судья Исақулов в Средне-Чирчикском районе – за оправдание 4 трактористов, работавших в МТС[8].

В сентябре 1940 года за «халатное» отношение к своим служебным обязанностям 17 народных судей Узбекской ССР были отозваны с должностей местными советами, из них 10 человек привлечены к уголовной ответственности. В отношении ряда других народных судей были применены административные меры наказания. В общей сложности в республике были наказаны 58 судей различными мерами[9].

В архивных источниках встречается такая информация: «подобные случаи способствовали улучшению политической бдительности и дисциплины среди судей».

Конечно, народные суды советской власти, назначаемые местными советами депутатов и полностью зависимые от них, были лишены самостоятельности и вынуждены беспрекословно выполнять указания коммунистической партии. В результате народные суды стали механически выносить обвинительные приговоры, применяя к осужденным максимально возможные сроки исправительных работ и тюремного заключения.

Это подтверждается следующими статистическими данными: в период с 1 по 15 сентября 1940 года в Узбекской ССР было осуждено 4693 человека, из них к исправительным работам сроком до 3 месяцев были приговорены 897 человек (19%), к исправительным работам от 3 до 6 месяцев – 3779 человек (79,6%).

165 человек, самовольно покинувших рабочие места, были приговорены к тюремному заключению сроком до 3 месяцев, а 946 человек – к лишению свободы на срок от 2 до 4 месяцев[10].

Если сравнить приговоры, вынесенные народными судами в августе и сентябре 1940 года, становится очевидным, что меры наказания в отношении осужденных становились все более строгими. Так, в августе 1940 года соотношение осужденных к исправительным работам сроком на 3 и 6 месяцев было практически равным. Однако в первые 15 дней сентября 4/5 всех осужденных были приговорены к исправительным работам сроком до 6 месяцев, а лишь 1/5 — на срок до 3 месяцев. Также увеличилось число осужденных к лишению свободы на срок до 4 месяцев.

В период с 1 по 15 сентября 1940 года в Узбекской ССР народные суды рассмотрели 760 уголовных дел, связанных с нарушением трудовой дисциплины, с превышением 5-дневного срока рассмотрения. В том числе в Ташкентской области – 299 дел, в Ферганской области – 296 дел, в Самаркандской области – 102 дела.

Согласно нормативно-правовым документам, приговор в отношении нарушителей трудовой дисциплины должен был исполняться не позднее одного дня после вынесения. Однако в Ташкентской области приговоры были исполнены в установленный срок только в 33% случаев, в Бухарской области – в 40%, в Хорезмской области – в 60%, в Каракалпакской АССР – в 30% случаев. В результате ряд ответственных лиц был привлечен к ответственности за несвоевременное исполнение приговоров. В частности, народный судья

Кубишкина в Ташкенте была привлечена к ответственности за халатное отношение к исполнению наказаний.

По указанию Москвы Народный комиссариат юстиции Узбекской ССР и Верховный суд направили своих представителей для проверки работы судов в Бухарской, Ферганской, Самаркандской, Хорезмской областях и Каракалпакской АССР. В ходе проверки исполнения указа в Каракалпакской АССР было установлено, что судебные органы часто выносили приговоры заочно, без вызова подсудимых в судебное заседание[11].

В архивных документах отмечалось, что подобные нарушения происходили не только в судах Каракалпакской АССР, но и в других регионах Узбекской ССР.

Решения народных судов были пересмотрены проверяющими. В случаях, когда осужденным были назначены мягкие наказания, в Верховный суд Узбекской ССР подавались протесты. В результате до 1 октября 1940 года Верховный суд Узбекской ССР принял решения об отмене 500 приговоров народных судов, предусматривающих мягкие меры наказания[12].

Народные суды не были обеспечены достаточными условиями для работы. Народный комиссар юстиции Умаров в своем докладе правительству сообщил о плачевном состоянии народных судов. Большинство из них не имели собственных помещений для ведения деятельности. Даже в Ташкенте несколько участков народных судов были вынуждены работать в одном помещении из-за отсутствия собственных зданий, что приводило к грубым нарушениям процессуальных норм.

Например, народный суд 32-го участка, обслуживающий Ташкентский текстильный комбинат, работал на веранде предприятия из-за отсутствия собственного здания.

Народные суды не были обеспечены необходимыми канцелярскими товарами. Из-за нехватки бумаги учет осужденных и ведение судебных дел осуществлялось в беспорядке.

После обоснованных возражений народного комиссара юстиции Умарова и председателя Верховного суда Саидова в октябре 1940 года Совет Народных Комиссаров Узбекской ССР принял решение о выделении народным судам дополнительно 1,5 тонны бумаги из бюджета для ведения делопроизводства[13].

По состоянию на 1 января 1941 года в СССР 2476241 рабочий и служащий были обвинены в нарушении трудовой дисциплины и их дела были переданы в суд. Из них 1955790 человек были привлечены к ответственности.

После нападения фашистской Германии на СССР 26 декабря 1941 года Президиум Верховного Совета СССР принял новый указ «О запрещении самовольного ухода рабочих и служащих с предприятий военной промышленности» [1, С.247-248]. Согласно указу, самовольный уход рабочих и служащих с военных предприятий, в том числе эвакуированных заводов, приравнивался к бегству, а виновные наказывались лишением свободы на срок от 5 до 8 лет.

Несмотря на это, уголовное преследование граждан за нарушение трудовой дисциплины продолжалось и в военные годы. В 1943, 1944 и 1945 годах ежегодно более миллиона граждан привлекались к ответственности. В 1945 году 51,5% всех осужденных в Советском Союзе составляли лица, нарушившие требования указа от 26 июня 1940 года [14, С.312].

В послевоенные годы вышеуказанный указ продолжал действовать. Наказание за самовольный уход с предприятия или учреждения оставалось в силе до 1956 года, когда указ от 26 июня 1940 года был отменен. Согласно статистическим данным, за период действия данного указа было осуждено около 18 миллионов советских граждан.

В заключение следует отметить, что руководство бывшего Советского Союза во главе со Сталиным, вступив в преступный сговор с фашистской Германией, стало одним из главных виновников Второй мировой войны. Тоталитарный режим, принимая противоречащие Конституции директивы и подзаконные акты, ограничил право граждан на свободный выбор профессии, труд и отдых. Те, кто не подчинялся такому порядку, подвергались уголовному преследованию, а миллионы заключенных использовались в качестве бесплатной рабочей силы.

Для обеспечения оперативности репрессий судебные процессы были упрощены, а наказания становились все более жесткими. В соответствии с указом от 26 июня 1940 года к числу «правонарушителей» относились не только рабочие и служащие, но даже судьи, объективно оценивавшие судебные процессы, становились жертвами репрессий. Только после смерти Сталина некоторые законы, принятые в его время, были отменены, и начались процессы реабилитации несправедливо осужденных граждан.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Сборник законов СССР и указов Президиума Верховного совета СССР. 1938-1944 г.г. - М.: Ведомости Верховного совета СССР, 1945. 362 с.

2.Сборник постановлений Пленума и определений коллегий Верховного Суда Союза ССР, 1940 год / Под ред.: Голяков И.Т. - М.: Юрид. изд-во НКЮ СССР, 1941. - 352 с.

3.Конституция (Основной закон) УзССР. – Ташкент.: Партиздат КП (б) Уз, 1938. – 23 с.

4.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, лист 8.

5.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 9.

6.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 9.

7.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 10.

8.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 10.

9.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 30.

10.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 11.

11.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 12.

12.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 12.

13.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-904, опись 9, дело 1247, л. 21.

14.Соломон П. Советская юстиция при Сталине.- 2-е изд. –М.: Росспен, 2008. – 464 с.

XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA IKKINCHI SHARQIY TURKISTON RESPUBLIKASI VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Feruz AMIRQULOV
Oriental Universiteti Tarix yo‘nalishi II kurs talabasi
amirqulovferuz5@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmidan Sharqiy Turkistonda ro‘y bergan voqealar, xususan, Xitoyda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, respublikachilar va kommunist partiya o‘rtasida kurashning avj olishi, Ikkinchi jahon urushi davrida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziya kabilar batafsil yoritilgan.* Bu davrda *Sharqiy Turkiston*da ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari, *Sharqiy Turkistonda vujudga kelgan mustaqil davlat va uning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berilgan. Kalit so‘zlar. Sharqiy Turkiston islom jumhuriyati, milliy o‘zlikni anglash, Xitoy hukumati, Shinjon, Alixon To‘ra Sog‘uniy, Usmon Botur, mustamlakachilik siyosati.*

Annotation. *The events that took place in East Turkestan in the first half of the 20th century, the socio-political changes that took place in China, the outbreak of the struggle between the republicans and the communist party in China, the socio-economic situation of the region. The aim is to shed light on the issues of socio-economic life in East Turkestan during this period, as well as to show the independent state that emerged in East Turkestan and its historical significance, to describe the historical circumstances in which political events and the national liberation struggle in East Turkestan. Keywords. East Turkestan Islamic Republic, national identity, Chinese government, Alikhan Tora Soguni, Osman Batur, colonial policy.*

Аннотация. *Подробно освещаются события, происходившие в Восточном Туркестане в первой половине XX века, общественно-политические изменения, происходившие в Китае, начало борьбы между республиканцами и коммунистической партией в Китае. Цель работы - пролить свет на вопросы социально-экономической жизни Восточного Туркестана в этот период, а также показать возникшее в Восточном Туркестане независимое государство и его историческое значение.* ***Ключевые слова.*** *Восточно-Туркестанская Исламская Республика, национальная идентичность, китайское правительство, Алихан Тора Согуни, Осман Батур, колониальная политика.*

Sharqiy Turkiston o‘lkasi qadimdan savdo chorrahasida joylashgan o‘lka hisoblanib, sharq va g‘arbni bog‘lovchi markaz bo‘lib kelgan. Bu mintaqada yashovchi xalqlar asosan Islom e’tiqodida bo‘lib, aholi qadryatlar, an’analari islom diniga asoslangan. Bu yerda yashovchi mahalliy turkiy xalqlar dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik, chorvachilik hamda savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan. Sharqiy Turkiston mintaqasi ya’ni Shinjon hududi XVIII asrning oxirlarida Sin imperiyasi tomonidan egallanib, uning boshqaruvi Sin sulolasi vakillari boshqarib kelgan. Mahalliy aholi vakillari esa quyi lavozimlarda faoliyat yuritgan. XX asrning boshiga kelib, Xitoyda uzoq davom etgan Sin sulolasi boshqaruvi qulagandan so‘ng Sharqiy Turkiston hududida ham mustaqillik harakatlari boshlandi. Mahalliy aholi

o‘zlarining mustaqil musulmon davlatini bunyod etishga kirishdi. Bu davrda Xitoyda Sin sulolasi ag‘darilib, ijtimoiy-iqtisodiy hayot murakkab holga kelib qolgan edi. Xitoyda Gomindan partiyasi hamda Xitoy kommunistik partiyasi o‘rtasida hokimyat uchun kurash avj olib, fuqarolik urushi qamrab olgan edi. Ikkinchi jahon urushi Xitoyning ahvolini og‘irlashtirib yubordi. Buyuk davlatlar tomonidan bosim kuchaygandan kuchaygan edi.

Sharqiy Turkistonda 1933-yil 12-noyabrda Qashg‘ar shahrida “Sharqiy Turkiston istiqlol jamiyati”ni tuzilganligi e’lon qildi [1, – C.34.]. Tashkil etilgan hukumat bir qancha ijtimoi-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirdi. Ammo, SSSR davlati tomonidan Sheng Shitsayga harbiy yordami tufayli 1934-yilda bu hukumat tugatildi [2,– B.445.]. Uning a’zolari Sheng Shitsay boshliq hukumat tarkibiga kiritiladi. Sharqiy Turkistondagi birinchi respublika hukumati shu tariqa tarqatib yuborildi. Sheng Shitsay o‘lkada hukmron bo‘lib olib, o‘lkada bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar amalga oshirdi. Butun dunyoda boshlanib ketgan Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) natijasida Sovet davlati ham urushga tortiladi, Uzoq Sharqdan esa Yapon armiyasi Xitoy davlati hududlarini bosib olib, tobora yaqinlashib kelar. Shunda Sharqiy Turkiston o‘lkasidagi Sovet ta’siri kamayib boradi. Sababi, Sheng Shitsay Sovet Ittifoqining urushda mag‘lubiyatga uchrashiga ishonadi. Endi Xitoyda asosiy kuchlardan bo‘lgan Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindan partiyasiga yaqinlasha boshladi. 1942-yilning yoz faslida Gomindan partiyasi nomidan Chan Kayshining xotini Sung Min Lin honim kelib Sheng Shitsay bilan uchrashadi [3, – B.278.]. Sheng Shitsay Sovet Ittifoqi bilan aloqalarni uzadi. Shundan so‘ng Sovet Ittifoqi o‘lkadagi mahalliy millatparvarlarni qo‘llab-quvvatlab, ularga yordam bera boshlaydi. Sharqiy Turkistonning Ili, Tarbag‘atay va Oltoy hududlarida yashovchi qozoq hamda mo‘g‘ul qabilalari orasida ham Sheng Shitsay ma’muriyatiga qarshi norozilik kayfiyati kuchayib ketadi. XX asrning 40-yillarida Sharqiy Turkistonning Ili, Tarbag‘atay va Oltoy o‘lkalarida qo‘zg‘alonlar avj oladi.

O‘lkadagi milliy-ozodlik harakatining avj olib, uning kengayishida Alixon To‘ra Sog‘uniy hamda mahalliy musulmon xalqlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Alixon To‘ra Sog‘uniy tomonidan G‘ulja shahrida 1943-yilda “Ozodlik tashkiloti” tuzildi [3, – B.290.]. Qozoq milliy-ozodlik harakati rahbarlaridan biri Usmon botir qozoqlarning kerey qabilasiga mansub bo‘lib, Sharqiy Turkiston milliy-ozodlik harakati vakillaridan biri edi [4, – S.41-42.]. Tarbag‘atay va Oltoy hududlarida qozoq qo‘zg‘alonlari 1944-yilning sentyabr hamda oktyabr oylarida Ili vodiysiga tarqaladi [5 – S.180.]. Buning natijasida Nilg‘i shahrida qo‘zg‘alon boshlanib ketadi. Nilg‘i shahrida uyg‘ur va qozoq guruhlari Gomindan garnizoniga hujum qilishadi. Bu hujumga uyg‘ur G‘ani Batur, qozoq Ekber hamda qirg‘iz Fotih boshchilik qiladi [6 – P.314.]. 1944-yil 7-oktyabrga kelib, Nilg‘i shahridagi Gomindan garnizoni hamda o‘q-dorilari bilan qo‘zg‘alonchilar qo‘liga o‘tadi [5 – S.181.]. Oradan bir necha kun o‘tgandan so‘ng, 1000-2000 nafar qo‘zg‘olonchilar viloyatning ma’muriy markazi G‘ulja shahriga hujum qilish uchun harakat qildilar [5 – S.181.]. Sharqiy Turkistonda davom etgan milliy-ozodlik kurashlaridan so‘ng 1944-yilning 12-noyabrda “Sharqiy Turkiston Respublikasi” tashkil etilganligi e’lon qilindi. Ushbu Respublika uchta viloyat ya’ni okruglar Ili, Oltoy, Tarbag‘ataydan iborat bo‘lgan. Respublika Prezidenti etib millati o‘zbek marshal Alixon To‘ra Sog‘uniy e’lon qilindi [7, – C.6–

8.]. Uyg‘ur aslzodalaridan biri Xakimbek Xo‘ja uning birinchi o‘rinbosari, qozoqlardan bo‘lgan Abulxayr To‘ra ikkinchi o‘rinbosari lavozimlariga tayinlandilar. Abdurauf Mahsim bosh kotib va boshqa 16 kishi hukumat a’zoligiga saylanib, boshqa vazirliklarni ta’sis qilish harakati boshlandi. Maorif, chorva va o‘rmonchilik, diniy ishlar, ichki ishlar, boj va chorvachilik kabi bir qator vazirliklar tashkil qilinib, mas’ullar tayinlandilar. Shundan so‘ng Sharqiy Turkiston Jumhuriyati hukumatining rahbarligida Ili xalqi umumiy qo‘zg‘olon ko‘tarib, tezda Ili o‘lkasini ozod qildi.

Shu tariqa Sharqiy Turkiston hududida ikkinchi bor mustaqil davlat tashkil topdi. Qo‘zg‘olon boshlanishidan avval ham qo‘zg‘olonchilar bilan ishlash uchun NKVD maxsus topshiriqlar bo‘limi boshlig‘i general-mayor V. Yegnarov boshchiligida maxsus guruh tuzilganligini aytishimiz mumkin [8 – C.254.]. SSSR rahbariyati qo‘zg‘olonni tashkil etishda hal qiluvchi rol o‘ynagan edi, qo‘zg‘olonchilarga moddiy, harbiy-texnik yordam ko‘rsatdi.

1945-yil yanvar oyining boshida Ili o‘lkasi, unga qo‘shni tumanlarning muhim aholi hududlari egallandi. Muvaqqat milliy hukumatning IV majlisida uning asosiy vazifalari o‘rganildi. Shundan so‘ng to‘qqiz banddan iborat manifest imzolandi. 1945-yil 5-yanvarda qabul qilingan manifestda shunday deyilgan: 1.Sharqiy Turkiston hududida Xitoy zulmiga chek qo‘yish, 2.Sharqiy Turkistonda istiqomat qiluvchi xalqlarning teng huquqliligi asosida chinakam erkin, mustaqil respublika barpo etish, 3.Sharqiy Turkiston iqtisodiyotini rivojlanishiga yordam berish, shuningdek sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda savdoni jonlantirish. Aholi yashash sharoitini yaxshilash. 4.Sharqiy Turkiston aholisining ko‘pchiligi islom diniga e’tiqod qilgani uchun bu dinni qo‘llab-quvvatlash va shu bilan birga din erkinligini ta’minlash va boshqa dinlarni himoya qilish. 5.Madaniyat, ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish. 6.Qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalarni yaxshilash, Sharqiy Turkistonning yaqin chegaradoshi Sovet Ittifoqi bilan do‘stlikni saqlash qolish. Xitoy davlati bilan siyosiy hamda iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish. 7.Sharqiy Turkiston himoya qilish maqsadida, barcha millatlar vakillaridan iborat kuchli armiyani yaratish. 8.Hukumat banklari, pochta, telegraf, tashkil qilinishga yordam berish. 9.Byurokratiya, millatchilik va poraxo‘rlikni yo‘q qilish [9,–C.127.].

Muvaqqat milliy hukumat faoliyati uchun ana shu to‘qqiz band asos qilib olindi. Loyihaning to‘rtinchi bandida “Shinjon” so‘zini “Turkiston” so‘zi bilan almashtirish taklif etildi. Sharqiy Turkiston hukumati vakillari barchasi ziyoli va o‘qimishli insonlar edi. Amerikaning Urumchidagi konsuli Robert Uord ularni shunday ta’riflaydi: “Ularning barchasi oliy ma’lumotli insonlar masalan, ulardan biri Bayrutda, yana bir qanchasi Parijda ta’lim olgan, ularning aksariyati fransuzcha shuningdek, turkiy va xitoy tillarida so‘zlashadi” [1, – C.157.].

Hukumat qarori bilan uning sobiq muharriri Po‘latjon Turfoniy Shinjonda chiqadigan “Shinjon” gazetasi muharriri lavozimiga tayinlandi. Po‘latjon Turfoniy viloyat aholisini “turk” deb atash vazifasi topshirildi. Rasmiy davlat gazetasida ilk bor “Shinjon” nomi o‘rniga “Sharqiy Turkiston” iborasi, uyg‘ur, qozoq, o‘zbek va tatar so‘zlari o‘rniga “turk” so‘zi qo‘llanila boshlandi. Maktablarda turkiy xalqlar va din tarixi o‘qitila boshlandi. Hukumat yagona adabiy tilni shakllantirishga alohida e’tibor berila boshlandi, davlat idoralari turli shevalar qorishmasida yozilgan hujjatlarni qabul qilmaydigan bo‘ldi. Bosmaxonalar va matbuot organlarining

ochilishi rag‘batlantirildi. Qisqa vaqt ichida viloyatda “Yalqin” (olov), “Nurlu yo‘l” (yorqin yo‘l), “Tinchlik”, “Xon”, “Tanri” (xudo), “Yurt” (vatan), “Erk” (ozodlik), shuningdek, “Oltoy” jurnali va gazetalari nashr etila boshlandi [1, – C.161.]. Ularning bir qismi Turkiyada tahsil olganlar nashriyotchilari edi. Maorif bo‘limi qarori bilan Sharqiy Turkistondagi maktablarning deyarli barcha o‘qituvchilari Urumchiga kelib, ular uchun maxsus tashkil etilgan kurslarda qatnashdilar. Bu kurslarda Ma’sud Sabriy, Muhammad Amin Bug‘ro, Iso Yusuf Alptekin kabi qator yetakchi davlat arboblari turkiy xalqlar tarixi, tili va adabiyotidan ma’ruzalar o‘qidilar. Hukumat qaroriga ko‘ra Urumchida kutubxona ochilib, kutubxonaning katta qismi Turkiyadan olib kelingan edi” [10, – S.187.]. Alixon To‘ra Sog‘uniy tashabbusi bilan “Yoshlar tashkiloti” tuzulib, unga Abdukarim ta’yinlandan, bundan tashqari “Xotin-qizlar jamiyati” tashkil etilib, unga ziyoli ayol Turonxon rahbarlik qildi [3 – B.323.].

1944-yil noyabr-dekabr oylarida erishilgan dastlabki harbiy muvaffaqiyatlardan so‘ng Sharqiy Turkiston Respublikasining muvaqqat milliy hukumati muntazam qurolli kuchlar tuzishga qaror qildi. 1945-yil 19-iyunda “Harbiy xizmat to‘g‘risida”gi loyihani ishlab chiqdi. Muvaqqat hukumat 1945-yil 3-fevralda e’lon qilindi. Qonunga ko‘ra, 20 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan erkaklar kamida uch yil harbiy xizmatni o‘tashi kerakligi belgilandi. Agar urush holatda bo‘lsa, harbiy xizmat yoshi 45 yoshgacha oshirlar edi [11 – P.175.]. 1945-yil 8-aprelda Sharqiy Turkiston Milliy armiyasi tuzildi. U dastlab 30 ming kishida iborat edi. Armiya uchun harbiy ta’minot tashki etilildi, unga Faxriddinxo‘ja boshliq etib tayinlandi. Uning muovini esa Odilshoh Abdi qo‘yildi [3 – B.323.]. Armiya xizmatiga chaqirilishida huquqiy xususiyat beriladi va “Sharqiy Turkiston Respublikasi milliy armiyasini tuzish to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi bilan bir vaqtda hukumat “Harbiy xizmat to‘g‘risida” gi qonunni tasdiqladi [1, – C.157.]. Milliy armiya zobitlarining yelkalari ko‘k fonda qizil naqshli, turli xil oq belgilar bilan bezatilgan edi [1, – C.169.]. Sovet Ittifoqining general-mayori Ivan Polinov bosh qo‘mondon etib tayinlanadi. Ivan Polinov NKVD general-mayori Vladimir Yegnarov bilan aloqada bo‘lib, uning vazifalarini bajarardi. General Varsonofiy Mojarov Shtab qo‘mondoni etib tayinlandi. Asli uyg‘ur Zunnun Tolipov armiya qo‘mondoni o‘rinbosari lavozimiga saylandi. Armiya diviziyalarga qozoq Dalelxon Sugurbaev, rus Pyotr Aleksandrov hamda qirg‘iz Is’hoqbek Mononevlar rahbarlik qiladigan bo‘ldi. Usmon Islom o‘g‘li Oltoy okrugiga gubernator etib tayinlangan edi” [1, – C.170.]. Sharqiy Turkiston Respublikasi hukumati Alixon To‘ra Sog‘uniy boshchilikdagi hukumat o‘zining mustaqilligini e’lon qilgandan so‘ng mamlakatda qator ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Birinchi navbat hukumat tarkibida turli millat vakillarini mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari hukumat davlatni to‘g‘ri va oson boshqarish maqsadda vazirliklar tashkil etilib, ularga rahbar tayinlandi. Misol uchun Maorif, chorva va o‘rmonchilik, diniy ishlar, ichki ishlar, boj va chorvachilik kabi bir qator vazirliklar tashkil qilindi. Sharqiy Turkistonda tashkil toppgan ikkinchi muvaqqat hukumati birinchi navbatda ta’limga e’tibor qaratdi. Yangi hukumatning amalga oshirgan yana bir muhim ishlaridan bir bu milliylashtir bo‘ldi. 1945-yil 5-yanvardan “Banklar, pochta aloqasi, o‘rmonlar hamda barcha yer osti boyliklari davlat muki deb e’lon qilindi”.

Sharqiy Turkiston muvaqqat hukumati qishloq xo‘jalik sohasida ham bir qancha ishlarni amalga oshirishdi. Xususan, 1945-yil 19-avgustdagi 82-sonli qarori”da yer solig‘i umumiy hosilning 12 foizi qilib belgilandi [11, – P.271.]. Savdo sohasida esa 1946-yil 12-yanvardagi 197-son qarorida umumiy tijorat solig‘i har uch oylik davrda umumiy aylanma kapitalning 2 foizini tashkil etishi belgilandi, xalqaro savdo boji mahsulot tannarxining 7,5% ni, chorva mollarini sotish solig‘i esa tannarxning 6% ni, yer sotish solig‘i esa tannarxning 10% ni tashkil etdi [11, – P.271.]. To‘g‘ri soliqlar anchagina baland bo‘lsa, o‘sha davrda hukumatning moliyaviy ahvoli og‘ir edi. Hukumatning “1945-yil 15-oktyabrdagi 108 sonli qarorida mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish muhimliligi ta’kidlandi. Sababi ta’lim mamlakatning harbiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga turti beradigan kuch edi. Muvaqqat hukumat Sovet Ittifoqining o‘n yillik ta’lim tizimini qabul qildi. Qishloqlarda 4 yillik majburiy bepul ta’lim tizimi, shaharlarda esa 7 yillik majburiy bepul ta’lim tizimi joriy etilishi kerak edi. Shuningdek zamonaviy fanlar fizika, matematika, til va adabiyot fanlari o‘qitilishi o‘z ichiga olgan edi”[11, – P.272.]. Sharqiy Turkiston ishlab chiqilgan ushbu ta’lim tizimi Sovet ittifoqining maktab ta’lim tizimidan namuna olib, undan o‘ziga xos bo‘lgan ta’lim tizimini yaratish edi.

Bu davrda shariat sudlari ham saqlanib qolgan bo‘lib, yangi hukumat Sud huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan bir nechta chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shariat sudlarida zimmasi oilaviy masalalar meros, nikoh, yetim-bevalar masalalari, diniy va fuqorolik ishlari bilan bog‘liq masalalar qoldirildi. Sharqiy Turkiston muvaqqat hukumati sud-huquq tizimida hamda mahaliy boshqaruv bir qatar islohotlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, quyi boshqaruv tizimini ma’lum qismini saqlab qoldi. Hukumati kengashining an’anaviy qishloq rahbarlik lavozimlari mingboshi, yuzbosh va eski ijtimoiy tuzilmalar saqlab qolindi. Hukumatning eng muhim islohotlaridan biri o‘lkada turli millat vakillarini istiqomat qilishini hisobga olib, din erkinligini e’lon qilinishi bo‘ldi.

Afsuski, Sovet Ittifoqining Xitoy kommunistik partiyasiga yordam berishi natijasida kommunistlar o‘lkada hukmron bo‘lib oladi. 1949-yil oktabr oyida Xitoy ozodlik armiyasi general Pen Dexuay boshchiligida Van Chjen, Guo Pen hamda Van Enmao qo‘mondonlik qilgan qismlar Sharqiy Turkistonga hujum qiladi [1, – C.331.]. 1949-yil 20-dekabrda Xitoy ozodlik armiyasini bo‘linmalari Sharqiy Turkiston Respublikasining poytaxti G‘ulja shahrini egallashdi. Sharqiy Turkiston Respublikasi 1949-yil 22-dekabrda rasman tugatilganligi e’lon qilindi.

Shunday qilib, Ikkinchi Sharqiy Turkiston istiqlol jumhuriyati Sovet Ittifoqining harbiy yordami va Sharqiy Turkiston hukumatiga ta’siri natijasida Xitoy davlati tomonidan egallandi. O‘lka Xitoy hukumatining nazorati ostiga o‘tadi. Ikkinchi Sharqiy Turkiston istiqlol jumhuriyati tarixiy ahamiyati shundan iboratki, hukumat o‘lkada hozirgi zamonaviy davlatlarga hos demokratik islohotlarni amalga oshirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari o‘lkadagi turli turkiy xalqlarning mustaqillik hamda erkinlik uchun qilgan kurashini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Джамиль Гасанлы. Синьцзян в орбите советской политики Сталин и мусульманское движение в Восточном Туркестане 1931-1949. Издательство ФЛИНТА, – Москва, 2016.
2. Hayit Baymirza. Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida. – Toshkent, 2023.
3. Alixon To‘ra Sog‘uniy Turkiston qayg‘usi. –Toshkent: Sharq, 2024.
4. Mehmet Emin Buğra Doğu Türkistan’ın Hürriyet Davası ve Çin Siyaseti, Osmanbey Matbaası. – Istanbul, 1954.
5. Ömer Kul Osman Batur ve Doğu Türkistan milli mücadelesi 1941-1951. – Istanbul 2009.
6. Forbes W. Muslim Separatism in Nortwest China During the Republican Period, 1911-1949, – Leeds Universitesi, 1983.
7. Кутлуков М. Национально-освободительное движение 1944–1949 гг. в Синьцзяне как составная часть народно-демократической революции Китая. АН УзССР. –Ташкент, 1963.
8. Красильников В. Синьцзянское притяжение. – Москва: Дипакадемия, 2007.
9. Хакимбаев А.А. Национально-освободительное движение коренного населения Синьцзяна в 30-х и 40-х годах XX века // Институт востоковедения АН СССР. – Москва, 1971.
10. Alptekin Isa Yusuf. Doğu Türkistan Davası. ─ Istanbul, 1973.
11. Wang Ke. translated by Carissa Fletcher. The East Turkestan Independence Movement 1930s-1940’s. The Chinese University of Hong Kong, 2018.

XX ASR 70-80-YILLARIDA JIZZAX VILOYATIDA SANOAT TARMOQLARINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Marufjon ABDUSODIQOV
Oriental universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada XX asr 70-80-yillarida Jizzax viloyatida sanoat tarmoqlarining asosiy yo‘nalishlari, jumladan uning agrar, kimyo va agrar-industrial xarakteri, ishlab chiqarish va kadrlar masalasiga oid masalalar yoritilgan. Unda viloyatda sanoat tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalar va fan va texnika yutuqlarini joriy qilish, elektr energiyasi bilan ta’minlash, sement ishlab chiqarish, paxtachilik, chorvachilik hamda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi muammolar bayon qilingan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Jizzax viloyati, sanoat, ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat, paxtani qayta ishlash, zavod, elektr, paxtachilik, trikotaj, oziq-ovqat, xomashyo va mineral resurs.*

Аннотация: *в статье рассматриваются основные направления отраслей промышленности Джизакской области в 70-80-х годах XX века, в том числе аграрная, химическая и аграрно-промышленная направленность, вопросы, связанные с производством и кадрами. Описываются проблемы внедрения современных технологий и научно-технических достижений в отрасли промышленности региона, обеспечения электроэнергией, производства цемента, хлопководства, животноводства и производства продукции легкой промышленности.* ***Ключевые слова:*** *Джизакская область, промышленность, производство, химия, легкая промышленность, переработка хлопка,*

фабрика, электроэнергия, хлопководство, трикотаж, продукты питания, сырье и минеральные ресурсы.

Annotation: *The article considers the main directions of industries of Jizzakh region in 70-80s of XX century, including agricultural, chemical and agro-industrial orientation, issues related to production and personnel. The problems of introduction of modern technologies and scientific and technical achievements in industries of the region, provision of electric power, production of cement, cotton growing, livestock farming and production of light industry products are described.*
Keywords: *Jizzakh region, industry, production, chemistry, light industry, cotton processing, factory, electric power, cotton growing, knitwear, food products, raw materials and mineral resources.*

Sovet tuzumi yillarida viloyatdagi ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarini hududiy jihatdan Jizzax, G‘allaorol, Dashtobod, Do‘stlik, Mirzacho‘l shaharlaridagi sanoat tarmoqlariga ajratish mumkin. Bular foydali qazilmalarni qazib chiqarish, paxtachilik va irrigatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar, paxtani qayta ishlash, elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat (ip-yigiruv, paypoq to‘qish, ustki trikotaj fabrikalari), oziq-ovqat sanoati turlaridan iborat edi.

Viloyatda qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste’moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarning salmog‘i sezilarlidir. Shulardan Dashtobod qurilish materiallari, Zomin oniks, Baxmal marmar, g‘isht zavodlari, Dashtobod, Do‘stlik un kombinatlari, Jizzax mebel fabrikasi ishlab turibdi. Jizzax viloyatida konchilik tarmog‘i ham rivojlangan. Marjonbuloq oltin koni, Qo‘ytoshdagi ohak, vollastonit, volfram, Ko‘tarmada ohak, Uchqulochda qo‘rg‘oshin konlari faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan birga Jizzax un tayyorlash kombinati asosan un, aralash yem va makaron ishlab chiqarar edi. Korxona 1972-1983-yillarda Jizzax un kombinati, 1983-1892-yillarda Jizzax don mahsulotlari kombinati sifatida faoliyat yuritdi [1, - B.5.].

Uzoq yillar viloyat sanoati agrar-industrial xarakterga ega bo‘lib keldi. Ular asosan sanoqli hududlarda tashkil etilib, bu ko‘rsatkich respublika miqyosida past darajada edi. Masalan, akkumulyatorlar Jizzax akkumulyator zavodida, un mahsulotlari Jizzax va Do‘stlik shaharlarida joylashgan don mahsulotlari kombinatlarida, plyonka va trubalar Jizzax plastmassa zavodida ishlab chiqarilar edi. Paxtani qayta ishlash zavodlari paxta yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq tumanlari markazlarida joylashgan (Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l, Arnasoy) edi. Yuqorida qayd etilganidek, sanoatda akkumulyator, plastmassa mahsulotlari, trikotaj buyumlar, ohak, gips, paxta yog‘i, un kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu yerda elektr energetika bazasi nihoyatda sust rivojlangan bo‘lib, elektr energiyani Sirdaryo IESdan olar edi. Birgina Jizzax plastmassa zavodini olsak, ushbu korxona plastmassa mahsulotlari ishlab chiqargan respublikadagi yagona korxonadir.

Bu davrda respublika sanoatini rivojlantirish va Jizzax viloyatidagi cho‘l zonasini o‘zlashtirish maqsadida 1960-yilda Jizzax plastmassa quvurlari zavodi qurildi. Zavod o‘zining birinchi mahsuloti — polietilen plyonkalar va mashinasozlik uchun butlovchi buyumlarni 1972-yildan boshlab ishlab chiqara boshlagan. 1980-yilda zavod qayta rekonstruksiya qilindi va polietilen quvurlar ishlab chiqaradigan plastmassa zavodiga aylantirildi. Mazkur korxona bugungi kunda «O‘zkimyosanoat» uyushmasi tizimida faoliyat ko‘rsatadi. Yirik korxonalardan yana biri Jizzax non zavodi 1953-yilda Jizzax shahrida tashkil qilingan va Jizzax “Issiq non” aksiyadorlik

jamiyati “O‘zdonmahsulot” davlat-aktsiyadorlik korporatsiyasi tizimida faoliyat ko‘rsatadi [2, - B.122.].

Korxonada yiliga 50 ming dona temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega 3 ta asosiy ishlab chiqarish sexi va bo‘limlari ish yuritgan edi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Jizzax sement zavodi Forish, G‘allaorol va Zafarobod tumanlaridagi texnikumlar hamda Jizzax politexnika instituti bitiruvchilarining ish o‘rni bilan ta’minlanishi uchun muhim omil bo‘lganligi ma’lum. O‘sha kezlarda zavod “Olmaliq tog‘ kon metallurgiya kombinati” qoshidagi o‘quv markazida Jizzax sement zavodining ishchi va mutaxassislari o‘z malakalarini oshirganlar [3, - №13.].

Jizzax akkumulyator zavodi 1990-yillarning boshida sobiq sho‘ro hududida ro‘y bergan iqtisodiy tanazzul natijasida bizning yurtimizda, jumladan, Jizzaxda ham ayrim ishlab chiqarish korxonalari to‘xtab qolgan edi. Viloyat markazidagi ishqorli akkumulyatorlar ishlab chiqaradigan zavod bir necha yil davomida mahsulot bermadi. 1999-yilda shu zavod negizida Amerikaning “Eksayd” firmasi bilan hamkorlikda yiliga 1 million dona qo‘rg‘oshinli akkumulyator batareyalari ishlab chiqaradigan hamda 8 ming tonna ikkilamchi qo‘rg‘oshinni qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan “Uzeksayd” qo‘shma korxonasi tashkil etildi. Bunda 78 million AQSh dollari miqdoridagi xorijiy sarmoya jalb qilindi [4, - B.116-118.].

«Jizzax viloyat elektr tarmoqlari» korxonasi 1974-yil 7-yanvarda tashkil qilingan. Garchi korxona 1974-yilda tashkil qilingan bo‘lsa-da, shu davrgacha qisqacha o‘z tarixiga ega edi. 1960-yilgacha Jizzax shahrida bor yo‘g‘i 2 dona elektr energiyasi ishlab chiqarish manbayi bor edi. Birinchisi bu Sangzor daryosiga Jilligulli qishlog‘ida qurilgan quvvati 780 kVt bo‘lgan gidroelektrostantsiya va ikkinchisi temir yo‘l vokzalidagi o‘rnatilgan dizelning quvvati 500 kVtni tashkil qilardi. Tabiiyki bu quvvatlar tez rivojlanib borayotgan viloyatimiz uchun kamlik qilardi. Korxona tashkil topish arafasida Jizzax, Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Forish va Zarbdordan iborat 6 ta tuman elektr tarmoqlarini o‘ziga birlashtirgan edi. Korxona tashkil bo‘lganda 1 dona 220 kvli, 5 dona 110 kvli, 12 dona 35 kvli nimstantsiyalar va 967 dona 10/0,4 kvli transformator punktlarga hamda ularni ta’minlab turgan elektr uzatish tarmoqlariga xizmat ko‘rsatilar edi.

1977-yil Jizzax tuman elektr tarmoqlari 2 ga bo‘linib alohida Jizzax tuman va Jizzax shahar elektr tarmoqlari tashkil qilindi. 1980-yilga kelib yuqoridagi TETlar qatoriga Paxtakor, Do‘stlik va Mirzacho‘l tuman elektr tarmoqlari qo‘shildi. Bu paytga kelib korxona 2 dona 220 kvli, 12 dona 110 kvli, 29 dona 35 kvli nimstantsiyalar va 1500 dona 10/0,4 kvli transformator punktlariga xizmat ko‘rsatar edi.

1980-yil 220/110 kv Saribozor nimstantsiyasi qurilib, ishga tushiriladi. 1982-yilga kelib yana 2 ta Arnasoy va Zafarobod tuman elektr tarmoqlari tashkil topdi va endi korxona bu vaqtga kelib 2 dona 220 kvli, 16 dona 110 kvli, 38 dona 35 kvli nimstantsiyalar va 1719 dona 10/0,4 kvli TPlarga xizmat ko‘rsata boshladi [5, - B.121.]. Viloyatda sanoatni rivojlantirishda O‘zbekiston metropoliyaning sanoat jihatidan rivojlangan mintaqalarining paxtaga bo‘lgan ortib boruvchi ehtiyojini ta’minlashidek konsepsiyaga qat’iy amal qilindi. Biroq, viloyat sanoatiga bildirilayotgan yuksak talablar bu yerda yangi (ilg‘or) texnologiyalarni, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini joriy qilish bilan hamohang emasdi. Bu esa muqarrar

ravishda belgilangan rejaning bajarilmasligiga va boshqa nomutanosibliklarga olib kelardi, bular ayniqsa, sanoatning yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarida aniq ko‘zga tashlanar edi.

Viloyat sanoati yillik rejalarning bajarilishi bir tomonlama xususiyatga ega edi. Asosiy e’tibor yengil sanoat (Jizzax to‘qimachilik zavodi), paxtani qayta ishlash, meva-sabzavotni qayta ishlash, ayniqsa, ohak, gips, oltin, slanes qazib olishni ko‘paytirishga qaratilar edi. Viloyatda yagona energetika tizimi yaratilgan bo‘lib, u iqtisodiyotni, birinchi navbatda uning ustuvor tarmog‘i — paxtachilikni yuksaltirish uchun baza yaratishi kerak edi. Viloyat qishloq xo‘jaligi asosan paxtachilikdan iborat bo‘lib, bu hududning xomashyo bazasi paxta tozalash, yog‘ ishlab chiqarish, yengil va oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga imkon yaratdi. Ular orasida Jizzax, Paxtakordagi sanoat korxonalari ham bor edi. Bu yerda yana viloyatning eng katta paxta zavodi mavjud bo‘lib, uning yillik yalpi mahsuloti 301 million so‘mga borar edi [6, - B.29.].

Aksariyat tumanlar paxtachilik tumanlari bo‘lgani bois, aholining ko‘chishi ham o‘tgan asrning 60-70-yillarida Mirzacho‘l dashtini o‘zlashtirish munosabati bilan bu yerga respublikamizning boshqa viloyatlaridan, ayniqsa qo‘shni Samarqand viloyatining Jomboy, Payariq, Bulung‘ur, Pastdarg‘om, Navoiy viloyatining Nurota tumanlaridan ko‘plab aholi ko‘chib kelgan. So‘nggi yillarda esa migratsiya oqimi teskari yo‘nalishda kuchayib bormoqda. Xususan, yangi o‘zlashtirilgan hududlarda kelganlarga nisbatan ketganlar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Shu tariqa xalq xo‘jaligi, ayniqsa, sanoat taraqqiyotini belgilab beradigan, asosan paxtachilik ehtiyojlariga mo‘ljallangan tarmoqlar jadal rivojlantirildi. Uning umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘i deyarli 75% ga yetdi.

To‘g‘ri, 70-80-yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi yuqori bo‘lishiga qaramay, viloyatda paxta tolasi, asosan, xomashyo sifatida boshqa mamlakatlarga eksport qilinganiga e’tibor qaratgan. Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari esa boshqa mamlakatlardan import asosida sotib olingan. Bu, albatta, iqtisodiy jihatdan foydasiz edi. To‘qimachilik sanoati rivojlanmagan, texnika va texnologiya, zaif innovatsiyalar va investitsiya faoliyati, yuqori energiya iste’moli va mehnat intensivligi bo‘yicha rivojlanishning yo‘qligi paxtadan ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlar raqobatbardoshligining past bo‘lishiga asosiy sabab bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda o‘tgan asrning 70-80-yillaridan qolgan qoldiq prinsipiga ko‘ra faqatgina Jizzax shahri viloyat sanoati mahsulotining katta qismini va Do‘stlik tumani bir qismini ta’minlab keldi [7, - B.96.]. Zomin va Paxtakor tumanlarida ham ko‘zga ko‘rinarli darajaga ega korxonalar qurilmadi. Qolgan qishloq tumanlarida esa sanoat ishlab chiqarishi rivojlanmagan (ayniqsa, Mirzacho‘l va Yangiobod tumanlarida) edi. XX asr 80-yillari oxiri – 90-yillarining boshlarida xalq iste’mol mollarining 46,6 foizi birgina viloyat markazi – Jizzaxga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, qishloq tumanlari orasida Do‘stlik hamda Jizzax va G‘allaorol, Baxmal tumanlari ajralib turgan. Umuman olganda esa, viloyat sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi uncha rivojlanmagan. Binobarin, bu yerda mavjud xomashyo va mineral resurslardan, boy mehnat zaxiralaridan samarali foydalanish asosida sanoat ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishga katta e’tibor qaratilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jizzax shahar pasporti. – Jizzax, 2015. – B. 5. / Jizzax viloyati hokimligi joriy arxividan.
2. Boltaev A. Mirzacho‘l – Jizzax o‘tmishi va buguni (1900-2000). – Toshkent.: Fan, 2007. B.122
3. Abdusattorov A. Yangilanayotgan Jizzax sement zavodi // Jizzax haqiqati. – 2016. – 10 -fevral (№13).
4. Karimov I.A. Jizzax xalqining qalbida va dilida / Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8 tom. - Toshkent:O‘zbekiston, 2000. – B.116-118.
5. Boltaev A. Mirzacho‘l – Jizzax o‘tmishi va buguni (1900-2000). – Toshkent.: Fan, 2007. B.121
6. O‘zbekiston SSRning iqtisodiy rayonlari. – T.: O‘zdavnashr, 1957. – B. 29
7. Xaydarov X. Jizzax viloyati tarixi. – T.: Mehnat, 1996. B.96

QAYTA QURISH YILLARIDA O’ZBEKISTON AHOLISINING “ISTE’MOL SAVATCHASI”

Manzalatxon TURG’UNPULATOVA
Oriental universitetining 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *1985-1991-yillarda O’zbekistonda iste’mol savatchasi tarkibi va sifati iqtisodiy va demografik omillar ta’sirida o’zgargan. Shaharlar rivojlanib, yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta’minlangan bo’lsa, qishloqlarda oziq-ovqat va zarur ehtiyojlar yetishmagan. Markazlashtirilgan iqtisodiyotning samaradorligi past bo’lib, qora bozorlarga olib kelgan va bozor iqtisodiyotiga o’tish zarurligini ko’rsatgan.* ***Kalit so’zlar:*** *iste’mol savatchasi, demografik omil, quyi, o’rta, yuqori, elita qatlamlari, yetishtiruvchilar, iste’molchilar, qora bozor*

Аннотация: *В 1985-1991 годах состав и качество потребительской корзины в Узбекистане изменялись под воздействием экономических и демографических факторов. Города развивались и обеспечивались продукцией высокого качества, в то время как в сельской местности наблюдались нехватка продуктов питания и необходимых товаров. Эффективность централизованной экономики была низкой, что привело к возникновению черных рынков и показало необходимость перехода к рыночной экономике.* ***Ключевые слова:*** *потребительская корзина, демографический фактор, низший, средний, высший, элитные слои, производители, потребители, черный рынок.*

Annotation: *From 1985 to 1991, the composition and quality of the consumer basket in Uzbekistan changed under the influence of economic and demographic factors. While cities developed and were supplied with high-quality products, rural areas faced shortages of food and essential goods. The inefficiency of the centralized economy led to the emergence of black markets and highlighted the need for a transition to a market economy.* ***Key words:*** *consumer basket, demographic factor, lower, middle, upper, elite strata, producers, consumers, black market.*

“Iste’mol savatchasi” bu - aholi o’z ehtiyojlarini qondirish uchun iste’mol qiladigan barcha tovarlar va xizmatlarni o’z ichiga oladi. Bu savatchaning tarkibi aholi turmush tarziga, iqtisodiy imkoniyatlarga, yashash sharoitlariga va hududning rivojlanish darajasiga qarab farq qiladi. Shu bois, 1985-1991-yillar orasidagi shahar va qishloq hududlarida iste’mol savatchasi tarkibi va sifati bir-biridan sezilarli darajada farq qilgan.

“1986-yil non korxonalarining umumiy quvvati 1886,7 t/sutka non mahsulotlarini tashkil etdi (milliy nonlar hissasi 18% bo‘ldi). 1987-yil non korxonalari Respublika Oziq-ovqat sanoati vazirligidan Don mahsulotlari vazirligi tasarrufiga o’tkazilgach, firma do’konlariga ega bo’lgan kichik novvoyxonalar tizimini tashkil etishga ustuvor ahamiyat berildi. Non sanoati korxonalarida non, non-bulka, makaron va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarila boshladi. 1988-yilda mamlakatda 29 ta yirik non zavodlari ishladi”[1].

Qishloqlarda sanoat mahsulotlari juda cheklangan edi. Shaharlar bilan nisbatan taqqoslaganda, kiyim-kechak, poyabzal va texnika mahsulotlari qishloq aholisiga kamroq taqdim etilgan. Shuning uchun, qishloq aholisi ko’proq o’z resurslari va mehnatidan foydalangan, masalan, o’z qo’llari bilan ishlangan asbob-uskunalar, kiyimlar va boshqalar.

Qishloq hududlarida tibbiyot, ta’lim va kommunal xizmatlar ko’pincha yetarli darajada rivojlanmagan edi. Shuningdek, qishloqlarda transport tizimi shaharlarga nisbatan cheklangan edi, bu esa qishloq aholisi uchun zarur bo’lgan mahsulotlarni olishda ba’zi qiyinchiliklarga sabab bo’lgan. “Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog’liqni saqlash, xalq ta’limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og’ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o’zi kifoya. Juda o’tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro’yxatini yanada davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko’rsa bo’ladiki, insonning har tomonlama uyg’un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma’naviy rivojlanishi bir yoqda tursin, ko’pincha yashash uchun kerak bo’lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayapti” [1, 175-б.].

“Aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o’rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste’mol qilish jihatidan eng oxirgi o’rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo’yicha Ittifoqdagi o’rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish bo’yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo’jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o’rta hisobda go’sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste’moli bo’yicha 2 barobar orqada qolgan”[2, 56-b.]. “Shu bilan birga demografik ko’rsatgich O’zbekistonda aholining o’sish sur’atlari Ittifoq sur’atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo’lganini ko’rsatadi” [3, 648-b.].

1985-1991-yillardagi O’zbekistondagi demografik omillar va ularning “iste’mol savatchasi”ga ta’sirini tahlil qilamiz. “Iste’mol savatchasi” - bu aholi tomonidan iste’mol qilinadigan barcha tovarlar va xizmatlar majmuasini anglatadi. Demografik omillar esa aholi soni, uning tarkibi (yosh, jins, oilaviy holat, mehnat resurslari va boshqalar) hamda shahar va qishloq o’rtasidagi taqsimotni o’z ichiga oladi. Ushbu omillarning 1985-1991-yillardagi O’zbekistondagi iste’mol savatchasiga qanday ta’sir ko’rsatganini tahlil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratamiz: Birinchidan, Aholi sonining o’sishi. “1980-yil 15,8mln kishi 1990-yil 20,2 mln kishi “[2]. “1991-yilda O’zbekistonning doimiy aholisi soni 20,6 million kishini tashkil etgan. Bu haqda Davlat statistika qo’mitasi xabar berdi “[3]. 1985-1991-yillarda O’zbekistonda aholi soni yildan yilga o’sib borgan. Aholi sonining o’sishi, ayniqsa yoshlar sonining ko’payishi, iste’mol savatchasining o’zgarishiga olib keldi. Aholi sonining o’sishi

orqali iste’mol qilinadigan tovarlar va xizmatlar ko’paygan, bu esa bozorning kengayishiga sabab bo’ldi. Ikkinchidan, aholining yosh tarkibi. O’zbekistonda 1985-1991-yillarda aholi tuzilmasi yoshlar va bolalarga boy edi. Bu esa, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak, o’yinchoqlar va boshqa iste’mol tovarlariga bo’lgan talabni oshirdi. Yoshlarning ko’pligi shahar va qishloq hududlari o’rtasida farqlarga olib keldi, chunki shaharlar ko’proq sanoat mahsulotlari va xizmatlarga bo’lgan talabni oshirgan, qishloqlarda esa ko’proq oziq-ovqat va zarur ehtiyojlar talabi mavjud edi. Uchinchidan, Shahar va qishloq aholisi o’rtasidagi farq 1985-1991-yillarda shahar va qishloq o’rtasidagi demografik farqlar o’zgarishni davom ettirdi. Shaharlarda yashovchi aholining ko’payishi, sanoat, xizmatlar va tovarlarga bo’lgan talabni oshirdi. Shaharlar ko’proq sanoat mahsulotlari, yengil sanoat, texnika va elektronika kabi mahsulotlarni iste’mol qilishgan. Qishloqlarda esa asosan oziq-ovqat, dehqonchilik va o’z-o’zini ta’minlashga asoslangan iste’mol shakllangan. To’rtinchidan, Migratsiya va ko’chish 1985-1991-yillarda ichki migratsiya ko’paygan, ya’ni qishloqdan shaharga ko’chishlar sezilarli bo’lgan. Bu shaharlarning rivojlanishiga, aholining shahar markazlarida yashashga bo’lgan istagini oshirishga olib keldi. Ko’plab qishloq aholisi shaharlarga ko’chgan, bu esa shaharlarda yangi tovarlarga, xizmatlarga va turmush sharoitlariga bo’lgan talabni oshirishga olib keldi. Migratsiya O’zbekistondagi iqtisodiy va ijtimoiy muhitga katta ta’sir ko’rsatdi.

1985-1991-yillar O’zbekistonda bozor iqtisodiyoti hali rivojlanmagan va markazlashgan reja asosida iqtisodiy tizim faoliyat ko’rsatgan. Shu davrda O’zbekistonda ikki asosiy ijtimoiy qatlam mavjud edi. Ulardan biri yetishtiruvchilar ya’ni ishlab chiqaruvchilar hamda iste’molchilardir. Ushbu tahlilda, ularning o’zaro munosabatlarini, taqsimotni, shuningdek iqtisodiy sharoitlarni ko’rib chiqamiz. Yetishtiruvchilar asosan qishloq xo’jaligida faoliyat yuritgan. O’zbekistonda oziq-ovqat sanoati mavjud bo’lsa-da, bu tarmoq Sovet Ittifoqining iqtisodiy siyosati doirasida ishlagan. Mahsulotlar ko’proq ichki iste’molga yo’naltirilgan bo’lib, samaradorlikni oshirish uchun sanoat texnolo-giyasi yetarli bo’lmagan. O’zbekistonning sanoat ishlab chiqaruvchilari ko’plab tarmoqlarda (mato, kimyo, oziq-ovqat) faollik ko’rsatgan bo’lsa-da, bu sohalar markazlashgan boshqaruv va texnologiyalar yetishmasligi sababli samarali ishlamagan. Iste’molchilar - bu O’zbekiston aholisini tashkil etgan barcha ijtimoiy qatlamlardir. Shu davrda iste’molchilar turli ijtimoiy qatlamlarga bo’lingan edi va har bir qatlamning iste’mol savatchasi o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan. Quyi qatlam ko’pincha qishloqlarda yashagan va ularning asosiy ehtiyojlari oziq-ovqat va oddiy kiyim-kechakni qondirishga yo’naltirilgan edi. Ko’plab odamlar maishiy texnikalarga ega emas, oddiy hayot kechirgan. Quyi qatlamning asosiy muammosi bu taqsimotning notekisligi bo’lgan. Shu bois, ko’p hollarda oziq-ovqat va boshqa zarur narsalar yetishmasligi kuzatilgan. Shu bilan birga, ushbu qatlam o’ziga zarur bo’lgan mahsulotlarni olishda muammolarga duch kelgan. O’rtacha qatlamdagi iste’molchilar bir qator maishiy texnikalarga ega bo’lgan, shuningdek, oddiy to’qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilgan. Bu qatlamda o’rtacha daromadli oilalar yashagan, ular davlat sektori yoki yirik korxonalarda ishlagan. O’rtacha qatlam o’zining ehtiyojlarini qondirish uchun davlat tomonidan belgilangan taqsimot tizimidan foydalanib, ba’zan maxsus chegirmalar va bonuslar orqali zarur

mahsulotlarni olishgan. Yuqori qatlamdagi iste'molchilar yuqori sifatli va qimmatbaho mahsulotlar, masalan, import qilingan oziq-ovqat, maishiy texnikalar (muzlatgich, televizorlar), avtomobillar va boshqa yuqori sifatli mahsulotlarga talab ko'rsatgan. Yuqori qatlamning iqtisodiy imkoniyatlari keng bo'lib, ular turli xil xaridlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarga ega bo'lgan. Ular ko'pincha davlat boshqaruvidan mustaqil yashash imkoniyatlariga ega bo'lgan.
Iste'molchilarning ehtiyojlari bo'yicha taqsimot ko'plab muammo-larni keltirib chiqargan. Markazlashgan iqtisodiy tizimda mahsulotlar va xizmatlar taqsimoti ko'plab hollarda notekis bo'lgan, shu sababdan ba'zi tovarlar kam, ba'zi tovarlar esa ortiqcha bo'lgan. Narxlar ko'plab hollarda davlat tomonidan belgilangan bo'lib, bu iste'molchilarning haqiqiy ehtiyojlariga javob bermagan. Shu bilan birga, ayrim yuqori sifatli mahsulotlarni faqat yuqori daromadli qatlamlar olishi mumkin edi. 1985-1991-yillarda O'zbekistonda yetishtiruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar davlat boshqaruvi ostida bo'lgan va bu iqtisodiy tizimda resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanatni saqlashda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Yetishtiruvchilar ko'pincha qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida ishlagan, davlat tomonidan belgilangan rejalarga asoslanib mahsulotlar ishlab chiqarishgan. Biroq, bu ishlab chiqarish samaradorligi past bo'lgan va ularning ehtiyojlari to'liq qondirilmagan. Iste'molchilar esa turli ijtimoiy qatlamlarga bo'lingan bo'lib, ularga davlat tomonidan belgilangan mahsulotlar taqdim etilgan. Ammo, ko'plab hollarda, iste'molchilar zarur bo'lgan mahsulotlarni topa olishmagan yoki ular yuqori narxda sotilgan. Iqtisodiy tizimning markazlashtirilgan xususiyati va davlat boshqaruvining cheklovlari iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishda samarali bo'lmagan. 1985-1991-yillar orasidagi davrda O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari Sovet Ittifoqining umumiy iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlaridan ajralib turmadi. Gorbachevning siyosati va boshqa iqtisodiy islohotlar davrida O'zbekiston aholisi uchun oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlarining savdosi va mavjudligi yangi shakllar oldi. Ushbu davrda "iste'mol savatchasiga" modernizatsiya omili ta'siri bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ldi. Biroq, bu jarayonlarning ta'siri keng va doimiy emas edi. Gorbachevning iqtisodiy islohotlari, xususan, yangi texnologiyalar va samarali ishlab chiqarish usullarini joriy etishga urg'u berar ekan, bu jarayon O'zbekistonda ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarishni optimallashtirishga yordam berdi. Biroq, bu o'zgarishlar cheklangan edi, chunki Sovet tizimining rejalashtirish metodlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ammo sifatni yaxshilashga imkon bermadi. Oddiy tortish asboblarining holatidan ham tehnologik jarayonlar qay darajada ekanligini tasavvur qilishimiz mumkin. "1987-yil may oyida Farg'ona shahar Oxunboboyevskiy iste'mol jamiyati korxonalarida tortish asboblarining holati va ishlatilishini tekshirish to'g'risidagi Farg'ona viloyat davlat arxivi fond hujjatlari orqali ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin [4, 31-36-b.]". "Uning tarkibida 92 ta savdo korxonasi mavjud bo'lgan, shulardan 41 ta sanoat mollari do'konida 7 ta, maishiy do'konlarda 6 ta, boshqa ixtisoslashtirilgan savdo rastalarida 21 ta tortish asboblari bo'lgan, …borlarida ham 24,2 % nosoz tortish asboblaridan foylanish aniqlangan" [5, 32-b.]. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi texnikaviy o'zgarishlar O'zbekistonning qishloq joylarida sekin

kechdi, bu esa turli hududlarda ist’mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va miqdoriga turlicha ta’sir ko’rsatdi. Ushbu o’zgarishlar ko’proq shahar hududlarida sezildi, chunki qishloq joylarida infratuzilma va texnologik rivojlanishning sekin bo’lishi iste’mol savatchasidagi o’zgarishlarni chekladi. 1985-1991-yillarda O’zbekiston aholisining “iste’mol savatchasiga” modernizatsiya omili ta’siri ko’p jihatdan iqtisodiy, texnologik, madaniy va ijtimoiy o’zgarishlar orqali amalga oshdi. Biroq, bu ta’sirlar nisbatan shahar hududlarida va yuqori daromadli qatlamlar o’rtasida sezilarli bo’ldi. Qishloq joylarida esa modernizatsiya jarayonlari sekin kechdi va eski turmush tarzining izlari saqlanib qoldi. Tog’lik hududlarda aholi ko’proq o’z-o’zini ta’minlashga tayanib yashaydi. Ushbu hududlarda iqtisodiy faoliyat qishloq xo’jaligi va chorvachilikka asoslangan, sanoat va yuqori sifatli iste’mol mollari kamroq. Transport va kommunikatsiya tizimlari sustroq, bu esa iste’mol savatchasining cheklanishiga olib keladi. Tekislik hududlar esa tog’lik hududlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo’lib, aholiga keng iste’mol savatchasi taqdim etiladi. Bu hududlarda sanoat, savdo va xizmatlar yaxshi rivojlangan va aholi yuqori sifatli tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar bilan ta’minlangan. Biroq har doim ham ular uchun zarur bo’lgan maishiy texnikalar va boshqa yuqori sifatli tovarlar ko’pincha mavjud bo’lmagan. “1989-1991- yillarda: respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo’yicha oxirgi o’rinlardan birida turar edi” [6, 4-бет.].

Mahsulotlar taqsimoti tizimining samarasizligi natijasida, qora bozorlar paydo bo’ldi. Qora bozorlarda narxlar, rasmiy narxlardan yuqori bo’lib, iste’molchilar yuqori narxlarda mahsulotlarni olishga majbur bo’lishgan. Bu esa iste’mol savatchasining o’zgarishiga olib kelgan. Bu davrda markazlashtirilgan iqtisodiyotning samarali bo’lmaganligi, bozor iqtisodiyotiga o’tish zarurligini ko’rsatdi. Aholi uchun mahsulotlar va pulni boshqarish, iqtisodiy muammolarga sabab bo’ldi va turmush darajasiga katta ta’sir ko’rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 175-бет.

2.Abuyeyev H.O. “Sovet hokimiyatining qayta qurish siyosati va uning O’zbekistonga ta’siri (1985-1991 yillar)” tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) diss. - T, 2020. 56-bet.

3.O’zbekistonning yangi tarixi 2- kitob “O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida”. Toshkent.; 2000 yil 648- bet

4.Farg’ona viloyat davlat arxivi 952 fond 1ro’yxat, 90-ish, 31-36-betlar.

5.Farg’ona viloyat davlat arxivi 952 fond 1ro’yxat, 90-ish, 32-bet.

6.Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий- ижтимоий тараққиётнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган пргнозлари:- Т: “Ўзбекистон” НМИУ. 2011. 4-бет

7.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Non_sanoati

8.https://kun.uz/news/2023/01/06/ozbekistonning-100-yillik-demografik-korsatkichlari-malum-qilindi

9.https://daryo.uz/2021/08/17/ozbekistonning-doimiy-aholisi-soni-30-yil-ichida-qanchaga-osgani-malum-qilindi.

O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI BILAN MUNOSABATLARI TARIXI

E’tiborxon O’LMASOVA
FarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xalqaro institut va tuzilmalar davlatlar hamkorligining shakllaridan biri sifatida muhim rol o‘ynaydi. O’zbekiston ham xalqaro munosabatlar tizimida dunyo hamjamiyati va xalqaro tuzilmalar bilan ko‘p tarmoqli hamkorlik aloqalarini rivojlantirdi. Jumladan, Islom hamkorlik tashkiloti musulmon davlatlarini birlashtiruvchi umume’tirof etilgan xalqaro tashkilot hisoblanib, tashkilot hamda a’zo mamlakatlar islom olami uchun buyuk mutafakkirlar yetishtirib bergan, dunyo miqyosidagi mavqei, imkoniyatlari tobora ortib borayotgan O‘zbekiston bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘ydi.* ***Kalit so’zlar:*** *O’zbekiston, xalqaro, islom tashkiloti, xalqaro munosabat, musulmon davlat, xalqaro institut, Islom taraqqiyot banki, madaniy meros.*

Аннотация. *В современных международных отношениях важную роль играют международные институты и структуры как одна из форм сотрудничества государств. В системе международных отношений Узбекистан также развил многопрофильное сотрудничество с мировым сообществом и международными структурами. В частности, Организация исламского сотрудничества является общепризнанной международной организацией, объединяющей мусульманские страны, и эта организация и ее страны-члены установили связи с Узбекистаном, который дал миру великих мыслителей и чей глобальный статус и возможности растут.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан, международный, исламская организация, международные отношения, мусульманское государство, международный институт, Исламский банк развития, культурное наследие.*

Annotation. *In modern international relations, international institutions and structures play an important role as one of the forms of cooperation between states. Uzbekistan has also developed multidisciplinary cooperation relations with the world community and international structures in the system of international relations. In particular, the Organization of Islamic Cooperation is a universally recognized international organization uniting Muslim countries, and the organization and its member states have established relations with Uzbekistan, whose global position and opportunities are growing.* ***Key words:*** *Uzbekistan, international, Islamic organization, international relations, Muslim state, international institution, Islamic Development Bank, cultural heritage.*

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat sari kirib kelishi, Islom hamkorlik tashkilotining deyarli barcha a’zolari tomonidan tan olindi va diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Ilmiy izlanish va tahlillar natijasida O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari – ijtimoiy integratsiyalashuv jarayoni ikki bosqichda rivojlanganligini ko’rish mumkin:

Birinchi bosqich 1995 yildan 2015 yillarni o‘z ichiga olib, xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar sub’yekti sifatida Islom hamkorlik tashkiloti bilan do‘stona munosabatlar shakllangan;

Ikkinchi bosqich 2016 yildan keyingi davrni qamrab olib, ichki barqarorlik sharoitida O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida, Islom hamkorlik tashkiloti va a’zo davlatlar bilan ko‘p tomonlama do‘stona munosabatlarni yanada izchil rivojlantirdi.

Ushbu jarayonlar quyidagi voqeliklar bilan ham xarakterlanadi.

O‘zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti hamkorligining birinchi bosqichi 1995 yil oktabr oyida AQShning Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti a’zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlarining navbatdan tashqari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilinishi bilan boshlandi. Oradan bir yil o‘tib, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning maktubi asosida 1996 yil 2 oktyabrda Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlarining har yili o‘tkaziladigan navbatdagi muvofiqlashtirish sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi mazkur tashkilotning teng huquqli a’zosiga aylandi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan hisoblangan Islom taraqqiyot banki musulmon mamlakatlariga davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda, jahon miqyosida islom madaniy merosini himoya qilishda samarali faoliyat yurituvchi tashkilot hisoblanadi. «Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar 1992 yilda infratuzilmalar, fan va texnologiyalarni rivojlantirish uchun 1,4 mln. doll. 1998 yil 293 ming doll. 2000 yilda 255 ming doll. miqdorida grant asosidagi moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish orqali vujudga kelgan»[1. – B. 30]. 2003 yildan boshlab O‘zbekiston – Islom taraqqiyot bankining to‘la huquqli a’zosiga aylandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi rasmiy delegatsiya 2005 yil dekabr oyida Makka shahrida o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkilotining navbatdan tashqari 3 sammitida ishtirok etib, yuzaga kelayotgan global geosiyosiy vaziyat sharoitida islom mamlakatlarini hamjihatlikka chorlovchi tashkilotning yangi strategiyasini ishlab chiqish hamda tashkilotni zamonaviy xavf-hatar va tahdidlarga qarshi kurasha oladigan samarali institutga aylantirish zaruriyatini ilgari surgan edi. Tadbir davomida O‘zbekiston xalqaro tashkilot doirasida a’zo davlatlarning yagona pozitsiyasini ishlab chiqish taklifini kiritdi va ushbu taklif musulmon dunyosi davlatlarining aksariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, keyinchalik tashkilotning 10 yillik dasturi matnining tegishli qismiga alohida kengaytirilgan band sifatida kiritildi. Sammit yakunida Makka deklaratsiyasi va yakuniy Kommyunikelar qabul qilinib, unda musulmon davlatlarining birdamlikni mustahkamlashga, yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi umumiy pozitsiya ishlab chiqishga intilishlari, shuningdek bag‘rikeng va ma’rifiy Islom g‘oyalarini targ‘ib etish zarurati o‘z aksini topgan.

Qolaversa, Islom hamkorlik tashkilotining 2008 yil 13-14 mart Dakar shahridagi 11 sammitda O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari boshchiligidagi delegatsiya, 2013 yil 2-7 fevral Qohiradagi 12 sammitda O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti doimiy vakili boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi.

2014 yil 18-19 iyunda Jidda shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 41 sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari boshchiligidagi delegatsiya 2016 yil Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43 sessiyasini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyor ekanligini e’lon qildi.

2015 yil 27-28 mayda Al-Quvaytda bo‘lib o‘tgan TIVKning 42 sessiyasida mazkur organning navbatdagi sessiyasini 2016 yil O‘zbekistonda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi O‘zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. O‘zaro tashriflar va rasmiy aloqalar haqida shuni aytish mumkinki, Islom hamkorlik tashkiloti vakillari O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan Parlament hamda Prezident saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida faol qatnashishgan.

Tahlillar natijasida hamkorlikning birinchi bosqichi O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti forumlarida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasidagi tashabbuslarni ilgari surganligi hamda o‘zaro aloqalar amalga oshirilib, ma’lum darajada bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilinganligi kuzatiladi.

O‘zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti hamkorligining ikkinchi bosqichida o‘zaro aloqalar izchillashib, faol munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. 2016 yil 14-15 aprel Istanbbuldagi 13 sammitda O‘zbekiston Oliy Majlis Senati raisi boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi. TIVKning 43 sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov boshchiligidagi delegatsiya 2016 yil 23-28 iyul kunlari Jidda shahrida tashkilotga a’zo dalatlarning yuqori mansabdor shaxslari hamda Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Islom komissiyasi majlislarida ishtirok etdi. O‘zbekiston delegatsiyasi raislik qilgan mazkur tadbirlar chog‘ida Toshkentdagi TIVK sessiyasida tasdiqlash uchun kiritilgan Islom hamkorlik tashkilotining asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha rezolyusiya loyihalari ko‘rib chiqildi va ma’qullandi.

Hamkorlikning ikkinchi bosqichida Islom hamkorlik tashkilotining yangi Ustavi 2015 yil 14 dekabrda imzolanib 2016 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ratifikatsiya qilindi[2. – B. 50.].

Islom hamkorlik tashkiloti va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik rivojining ayrim omillarini alohida ta’kidlash mumkin, 2016 yil 18-19 oktyabrda «Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» shiori ostida Toshkent shahrida TIVKning 43 sessiyasining o‘tkazilishi munosabatlar tizimining yangi davrini boshlab berdi. Ushbu sessiyada Shavkat Mirziyoev rasman chiqish qilib tashkilotni xalqaro maydonda faol bo‘lishga, terrorizmga qarshi kurashishda yakdil bo‘lishga, xalqaro maydondagi masalalarni birgalikda hal qilish uchun yanada jipslashishga, Yaqin Sharqda yadro qurolidan xoli hududni barpo etish Islom Hamkorlik Tashkilotining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozimligiga, eng muhimi islom dinining ma’rifiy va insonparvarlik rolini keng targ‘ib qilishga chaqirdi[3.].

Xalqaro maydonda O‘zbekistonni Islom hamkorlik tashkiloti TIVKga raislik vazifasini rasman qabul qilishi uning tashqi siyosiy va diplomatik yutuqlaridan biri sifatida baholandi. Tadbirda tashkilotning 52 a’zo davlat delegatsiyasi (26 ta vazir darajasida), 4 ta kuzatuvchi mamlakati, 22 ta maxsus organlar, bo‘linmalar va qo‘shimcha tashkilotlari, 4 ta xalqaro va mintaqaviy tashkilot vakillari, xorijiy mamlakatlarning Islom hamkorlik tashkilotidagi maxsus elchilarining 5 nafari hamda taklif qilingan mehmonlar ishtirok etdi. Ushbu anjumanda sessiya kun tartibidan o‘rin olgan masalalar yuzasidan 118 ta rezolyusiya qabul qilindi.

Mazkur sessiya chog‘ida O‘zbekiston Prezidenti Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini hamda Toshkent islom universiteti (O‘zbekiston

xalqaro islom akademiyasi) tarkibida Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkilotining (ISESCO) maxsus kafedrasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Tashabbuslar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43 va 44 sessiyasida IHTga a’zo davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi hamda maxsus rezolyusiyalar qabul qilindi.

Alohida qayd qilish lozimki, Islom hamkorlik tashkiloti TIVK 43 sessiyasining muhim hujjati sanaluvchi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilinib, unda kun tartibidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalar bo‘yicha 2016-2017 yillar davomida O‘zbekiston raisligining ustuvor yo‘nalishlari o‘z aksini topgan edi. O‘zbekiston raisligi davrida tashkilotning 23 ta tadbiri o‘tkazildi va bu holat Tashkilot faoliyati rivojlanishiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga musulmon davlatlarini birlashtiruvchi umume’tirof etilgan forum sifatida qaraydi. Islom hamkorlik tashkiloti iqtisodiy, madaniy va boshqa masalalar bo‘yicha manfaatdor tomonlar hamkorlik o‘rnatishi mumkin bo‘lgan muloqat platformasi hisoblanib[4], hozirgi kunda muayyan siyosiy va huquqiy hodisa (fenomen) sifatida nafaqat islom olami balki butun dunyo rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom hamkorlik tashkiloti TIVK 2018 yil 10-11 iyulda Abidjan shahrida bo‘lib o‘tgan 44-sessiyasida O‘zbekiston raislikni rasman Kot-d’ Ivuarga topshirdi, unda O‘zbekistonning islomiy hamkorlikni rivojlantirishdagi faoliyatiga yuqori baho berilgan. Islom hamkorlik tashkiloti a’zo davlatlarining intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatini mustahkamlash va yanada rivojlantirish O‘zbekistonning mazkur tashkilot Tashqi ishlar vazirlari kengashiga raisligi davridagi (2016/2017 yy) ustuvorligidan biri bo‘ldi.

Musulmon olamida madaniy-gumanitar kooperatsiyaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash belgisi sifatida davlat rahbari Shavkat Mirziyoev 2017 yil 9-10 sentyabr Qozog‘istonda Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitida ishtirok etib, tashkilotga a’zo davlatlar tomonidan ilm-fanga etarlicha e’tibor berilmayotganligi yuzasidan fikr bildirib, bu boradagi faoliyatni yanada kengaytirish lozimligi keltirib o‘tilgan. Sammit yakunlari bo‘yicha Ostona deklaratsiyasi va 2026 yilgacha ilm-fan, texnologiya hamda innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha Dasturiy hujjat qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti bilan fan, texnologiya va ta’lim sohasidagi hamkorligi sifat jihatidan yangi darajaga chiqqanini alohida e’tirof etib, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkilotining (ISESCO) maxsus kafedrasi tashkil etilganligi, 2019 yil 7-8 oktyabrda Islom hamkorlik tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasining «Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo‘lida yoshlar huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishning ahamiyati» mavzusidagi Yillik 6-seminar yig‘ilishi o‘tkazilganligini ta’kidlashimiz lozim. O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarni Musulmon Ummati foydasi uchun fan va texnologiyalarni rivojlantirish ishiga o‘z hissasini qo‘shishga chaqiradi.

2019 yil 1 martda O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Abu-Dabi shahrida (Birlashgan Arab Amirliklari) bo‘lib o‘tgan Islom

hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 46-sessiyasida ishtirok etib tashkilot va uning tuzilmalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligini hamda tashkilotga musulmon davlatlarining teng huquqli muloqoti uchun maydon sifatida qarashini ta'kidlagan[5.]. Shuningdek, kun tartibiga kiritilgan masalalar, jumladan Afg'onistonda tinchlik jarayonini yo'lga qo'yishga ko'maklashish borasidagi O'zbekiston mavqeini bildirib o'tgan. Afg'oniston bo'yicha hamkorlikni yanada faollashtirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar ahamiyatga molikdir.

So'ngi yillarda O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti doirasida o'z faolligini namoyon etib, kelgusida quyidagi istiqbolli masalalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan:

- nafaqat islom madaniyati, balki umumbashariy sivilizatsiyaga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini o'rganish;
- tashkilot doirasida hamkor mamlakatlar bilan ilmiy-texnologik almashuvni faollashtirish, turli ilm-fan sohalarida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish;
- xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorlikni kengaytirish, a'zo davlatlar o'rtasida transport-kommunikatsiyasini yanada rivojlantirish, pirovard natijada, yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish;
- Musulmon hamjamiyati shu jumladan Markaziy Osiyo hududida xavfsizlik masalalariga katta e'tibor qaratish.

Tahlillar natijasida O'zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi aloqalar 2016 yildan boshlab dinamik o'sish darajasi yuqori bo'lganligini kuzatamiz. O'zbekistonning tashkilot sammit va forumlarida Afg'oniston masalasida, islomofobiyaga qarshi kurash, terrorizmga qarshi turish va ekstremizmdan ogohlantirish, ma'rifat va diniy bag'rikenglikka, shuningdek, yadro sinovlariga qarshi xalqaro kun va Orol dengizini tiklash kabi ko'plab tashabbuslarni ilgari surganligi bevosita Islom hamkorlik tashkiloti doirasida faol va samarali ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi va Islom hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik aloqalari – ijtimoiy integratsiyalashuv jarayoni ikki bosqichda rivojlangan: Birinchi bosqich 1995-2015 yillarni o'z ichiga olib, unda xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar sub'ekti sifatida Islom hamkorlik tashkiloti bilan do'stona munosabatlar shakllantirilgan; Ikkinchi bosqich 2016 yildan keyingi davrni qamrab olib, ichki barqarorlik sharoitida O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida, Islom hamkorlik tashkiloti hamda tashkilotga a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama do'stona munosabati yanada izchillashgan.

O'zbekistonning Afg'oniston muammosi bo'yicha tinchlikparvarlik pozitsiyasi, barcha kuchlarni muzokaralar olib borishga chaqirish bo'yicha yondashuvi, shuningdek Afg'on ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarini qayta tiklash va barpo etishga oid sa'y-harakatlari ijobiy xarakterga ega.

O'zbekiston bilan Islom hamkorlik tashkiloti munosabatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar:

Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari bilan madaniy munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va islom dini rivojiga hissa qo'shgan allomalarimiz yaratgan me'rosni keng targ'ib qilish;

A’zo mamlakatlar bilan nafaqat ikki tomonlama, balki ko‘ptomonlama munosabatlarni rivojlantirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishda diplomatiyaning ushbu turidan foydalanish;

Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish masalasiga tashkilotni to‘liq jalb qilish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishida tashkilot mablag‘laridan, siyosiy mavqeyidan foydalanish va tomonlarni muzokaralar stoliga o‘tirish yo‘llarini ishlab chiqish;

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha tashkilotning faoliyatida ustuvor vazifalarni shakllantirish va muammoning echimi yuzasidan «Yo‘l xaritalari» ishlab chiqish;

O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti uchun Islom hamkorlik tashkiloti a’zo davlatlar mablag‘larini imtiyozlar asosida jalb qilish borasida diplomatik munosabatlarni yanada rivojlantirish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Алимова Н.М. Ислам в современных государствах Ближнего и Среднего Востока в условиях геополитической трансформации региона. Илмий таҳлилий ахборот. –№3, 2014. – С. 30.

2. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития / Автореф. д-ра. эконом. наук. – М., 2009. – С.50.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи http://uza. uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-vazifasini-bazharuvchi-sha-18-10-2016

4. http://www.oic-oci.org/baku2006/english/documents. htm

5.https://azon.uz/content/views/abdulaziz-komilov-islom-hamkorlik-tashki?utm_source=uznet.press&utm_medium=topic&utm_campaign=self

O‘ZBEKISTON–SAUDIYA ARABISTONI: ISLOM QARDOSHLIGI VA DIPLOMATIK HAMKORLIK TARIXIDAN

Islomjon RUSTAMBOYEV
Oriental universiteti o‘qituvchsi
islomjonrustamboyev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, 1992-yildagi rasmiy tashrif va uning tarixiy-siyosiy ahamiyatini yoritadi. Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning tashrifi ikki davlat o‘rtasida diplomatik, diniy va madaniy hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Maqolada o‘zaro ishonch, islomiy qardoshlik va strategik sheriklik tamoyillari asosida shakllangan aloqalar tahlil qilinadi.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, Saudiya Arabistoni, diplomatik munosabatlar, islom qardoshligi, tashqi siyosat, Saud al Faysal, rasmiy tashrif, diniy hamkorlik, madaniy aloqalar.*

Аннотация: *Статья посвящена установлению дипломатических отношений между Узбекистаном и Саудовской Аравией, а также историческому визиту 1992 года, имевшему важное политическое значение. Визит делегации во главе с министром иностранных дел принцем Саудом аль-Фейсалом укрепил двусторонние связи, основанные на исламском братстве, духовной близости и взаимном доверии. Особое внимание уделяется дипломатическому и культурно-религиозному сближению.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан, Саудовская Аравия, дипломатические отношения, исламское братство, внешняя политика, Сауд аль-Фейсал, официальный визит, религиозное сотрудничество, культурные связи.*

Annotation: *This article explores the formation of diplomatic relations between Uzbekistan and Saudi Arabia, focusing on the politically significant 1992 visit. Led by Prince Saud Al-Faisal, the Saudi delegation helped strengthen bilateral ties based on Islamic brotherhood, mutual respect, and strategic partnership. The analysis highlights how religious, diplomatic, and cultural cooperation emerged as key foundations of this historic relationship.* ***Keywords:*** *Uzbekistan, Saudi Arabia, diplomatic relations, Islamic brotherhood, foreign policy, Saud Al-Faisal, official visit, religious cooperation, cultural ties.*

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, yangi siyosiy yo‘nalishda xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish, ayniqsa, musulmon dunyosi bilan munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ana shu jarayonda Saudiya Arabistoni bilan o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar va ikki tomonlama aloqalar milliy tariximizda muhim voqea bo‘lib qoldi.

Sobiq sovet imperiyasi parchalanganidan keyin, aksariyat arab mamlakatlari kabi, Saudiya Arabistoni ham O‘zbekistonning davlat mustaqilligini birinchilar qatorida 1991-yilning dekabrida rasman e’tirof etdi va o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatish istagini bildirdi[1. 115B]. Ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy aloqalar va mushtarak qadriyatlar birligi hamkorlikning boshlash uchun zamin yaratib berdi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizni: dunyoning o‘ttiz mamlakati O‘zbekiston Respublikasini tanidi, tan oldi. Turkiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar ana shular jumla sidandir. Bu ishonch ruhimizni ko‘tardi, kelajakka yo‘limizni ochib berdi [2. 289B]. O‘zbekiston respublikasi mustaqillikning ilk onlaridanoq dunyoning yetakchi davlatlari qatorida arab dunyosidagi yetakchi mamlakatlar ham yurtimiz bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatib yaxshi hamkorlik aloqalar yo‘lga qo‘yishga harakat boshlashgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomiga Saudiya Arabistoni qiroli Fahd ibn Abdul Aziz al Saud tomonidan yo‘llangan tabrik maktubi ikki davlat o‘rtasidagi ilk samimiy munosabatlarning yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Maktubda shunday so‘zlar bitilgan:

“Birodarim Islom Karimov janobi oliylariga!

O‘zbekiston Respublikasining muhtaram Prezidentiga!

Sizga eson-omonlik, Allohning marhamati va siylovi yor bo‘lg‘ay! Qardosh O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligi munosabati bilan shaxsan Sizga va O‘zbekiston xalqiga chin qalbdan tabrik yo‘llayotganimdan hamda musulmon millati muammolarini hal etishning mustahkam tayanchi va barqarorlikni ta’minlashning ajralmas qismi bo‘lmish Sizning mamlakatingizga samimiy tilaklarimni yo‘llayotganimdan g‘oyat mamnunman”[3]. Qirol, shu bilan birga, Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al Faysal al Saudning

O‘zbekistonga tashrifi doirasida ushbu maktubni shaxsan yetkazishini ham ma’lum qilgan.

1992-yilning fevralida Saudiya Arabistoni Tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al-Faysal ibn Abdulaziz Ol Saudning O‘zbekistonga tashrifi bo‘lib o‘tdi, Tashrif chog‘ida mamlakatlarimiz o‘rtasida elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risida protokol imzolandi [1. 115B]. Bu voqea ikki davlat o‘rtasida rasmiy aloqalarning yangi bosqichini boshlab berdi.

1992-yil 19-fevral kuni Prezident Islom Karimov Saudiya Arabistoni delegatsiyasini qabul qildi. Suhbat davomida Prezident respublikamizdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat, mustaqillikdan keyingi davlat siyosati va xalqaro aloqalar haqida batafsil ma’lumot berdi. Shu bilan birga, u achinch bilan quyidagini ta’kidladi: “hozircha Saudiya Arabistoni bilan aloqamizni ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Buning esa, ochiq aytish kerak, ma’lum sabablar bor: shu paytgacha sizlarni bizga nuqul yomonlab kelishardi, o‘z navbatnda sizlarda ham biz haqimizda yolg‘on-yashiq gaplar tarqatishgan. Bu – har ikkala davlat o‘rtasiga nizo solish uchun qilinardi, albatta.

Mana endi oramizga hech kim nifoq sololmaydi, endi O‘zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasida mustahkam birodarlik aloqalari o‘rnatiladi, deb ishonaman. Sizning tashrifingizni ana shu jabhadagi ilk qadam deb hisoblayman, Nasib etsa, biz ham yurtingizga borib, xalqingiz bilan, sizlarda amalga oshirilayotgan ezgu ishlar bilan yaqindan tanishishga muyassar bo‘lamiz” [4]. Bu so‘zlar ikki davlat o‘rtasidagi oldingi tarixiy noaniqliklar va yolg‘on axborotlarni bartaraf etish zaruratini aks ettiradi.

Shahzoda Saud al Faysalning tashrifi juda katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ikki tomonlama diplomatik munosabatlarning boshlanish nuqtasi bo‘ldi. 1992-yil 20-fevral kuni Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri U. Abdurazzoqov bilan uchrashdi. Uchrashuvda muhim kelishuvlarga erishildi. Shu kuni ikki davlat o‘rtasida o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatish, Ar-Riyod shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasini, Toshkentda Saudiya Arabistoni elchixonasini ochish haqidagi hujjatga qo‘l qo‘yildi.

Shuningdek, Saudiya Arabistoni rasmiy delegatsiyasi 20-fevral kuni O‘rta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasiga tashrif buyurdi. Boshqarma raisi, muftiy Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mehmonlarga quyidagicha so‘z qildi: “O‘zbekiston mustaqil respublika deb e’lon qilingandan keyin dinga katta e’tibor berilayotganligi, respublika musulmonlarining chet ellardagi birodarlari bilan aloqalari mustahkamlanib borayotganligi to‘g‘risida” axborot berdi [4]. Uchrashuv musulmon dunyosidagi o‘zaro qardoshlik, ma’naviy yaqinlik va diniy hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Shahzoda Saud al Faysal al Saud nafaqat Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri, balki jahondagi eng nufuzli diplomatlardan biri hisoblanar edi. U 1942-yilda tug‘ilgan, Prinston universitetining iqtisod fakultetini tamomlagan. Neft siyosati va xalqaro munosabatlarda katta tajribaga ega bo‘lgan. Saudiyadagi eng nufuzli siyosat arboblaridan biri Saudiya delegatsiyasiga faqat eng muhim xalqaro va arablararo anjumanlarda rahbarlik qiladi. Aynan uning yetakchiligidagi delegatsiya O‘zbekiston

bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ydi va strategik sheriklik asoslarini mustahkamladi.

1992-yildagi Saudiya Arabistoni rasmiy delegatsiyasining tashrifi va unda erishilgan kelishuvlar O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi davrini boshlab berdi. Bu tashrif nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning, balki islomiy qardoshlik, madaniy va ma’naviy yaqinlikning ham ramziy ifodasi bo‘ldi.

“Sizlarni xorijiy mamlakatning rasmiy delegatsiyasi a’zolari emas, balki o‘z qardoshlarimiz va do‘stlarimiz deb hisoblayman” [4] dedi suhbat so‘ngida O‘zbekiston respublika prezidenti Islom Karimov.

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, ayniqsa 1992-yildagi shahzoda Saud al Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi, ikki davlat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tashrif orqali ikki tomonlama munosabatlarning asosiy tamoyillari o‘zaro hurmat, ishonch, diniy va madaniy yaqinlik mustahkamlandi. Tashrif davomida erishilgan kelishuvlar nafaqat siyosiy aloqalarni rivojlantirishga, balki islomiy qardoshlik va strategik sheriklikning mustahkam asoslarini yaratishga xizmat qildi. O‘zbekistonning mustaqillik davridagi ilk tashqi siyosiy qadamlaridan biri sifatida bu voqea nafaqat tarixiy, balki hozirgi kundagi hamkorlikning ham poydevori bo‘lib qolmoqda. Shu bois, O‘zbekiston – Saudiya Arabistoni munosabatlari mintaqaviy barqarorlik va islom ummatidagi birlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Солиҳ Иноғомов. Саудия Арабистони Подшоғлиги. Тошкент. “Фан”. 1998 йил.
2. Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида —Т.: «Ўзбекистон», 2011.
3. Ҳалқ сўзи. 1992 йил 22 февраль. Шанба. 39-сон.
4. Ҳалқ сўзи. 1992 йил 21 февраль. жума. 38-сон.
5. A Brief History of Saudi Arabia, Second Edition Text copyright 2010, 2004 by James Wynbrandt; foreword by Fawaz A. Gerges

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” RAMZIY ROMANI ORQALI O’ZBEKISTON QISHLOQ AHOLISINI 1985-1991-YILLARDA KUNDALIK HAYOT TARIXINING QIYOSIY TAHLILI

Manzalatxon TURG’UNPULATOVA
Oriental universitetining 2-kurs magistri

Anotatsiya: *Ushbu maqolada “Otamdan qolgan dalalar” ramziy romanida 1985-1991-yillarda O’zbekiston aholisining oziq-ovqat hamda sanoat mahsulotlari bilan ta’minlanish masalalari, dehqonlar, bolalar, ayollar kundalik mehnat faoliyatlari bilan rasmiy ma’lumotlar o’rtasidagi tafovutlar tahlil qilingan, shuningdek haqiqatga mos kelmagan ma’lumotlarni*

jamiyatga taqdim etishda tizimning qanday ishlashi ko'rsatilgan. ***Kalit so'zlar:*** *1985-1991-yillar, O'zbekistonning kundalik hayoti, ayollarning mehnati, ayollarning o'zlarini yoqib yuborishi, pestitsidlar, ish vaqti, ijtimoiy tengsizlik, qishloq aholisining turmush sharoitlari, "paxta ishi"*

Аннотация: *В символическом романе "Поля, оставленные моим отцом" анализируются вопросы обеспечения населения Узбекистана продовольственными и промышленными товарами в период с 1985 по 1991 годы, а также различия между официальной информацией и повседневной трудовой деятельностью крестьян, детей и женщин. В статье также рассматривается, как система представляла общественности информацию, не соответствующую действительности.* ***Ключевые слова****: 1985-1991 годы, повседневная жизнь Узбекистана, труд женщин, самосожжение женщин, пестициды, рабочее время, социальное неравенство, условия жизни сельского населения, "хлопковое дело".*

Annotation: *The article analyzes the issues of food and industrial product supply to the population of Uzbekistan during 1985-1991 in the symbolic novel "The Fields Left by My Father". It examines the discrepancies between the daily labor activities of peasants, children, and women and the official data. Additionally, it shows how the system worked in presenting information that did not align with reality to society.* ***Key words:*** *1985-1991, daily life in Uzbekistan, women's labor, women's self-immolation, pesticides, working hours, social inequality, living conditions of the rural population, "cotton production".*

Asar 1985-1991-yillarni, ayniqsa qishloq aholisining turmush tarzini, mehnatini va siyosiy-iqtisodiy sharoitini yoritishda muhim ahamiyatga ega. 1985-1991-yillar orasida qishloqlarda ishlayotgan dehqonlar va oddiy aholi turmush tarzini to'liq tushunish juda murakkab edi, chunki ko'p hollarda haqiqatlar ochiq aytilmasdi. Bu, tizimning repressiv tabiati, davlatning ijtimoiy nazorati va axborotga cheklovlar qo'yishi bilan bog'liq edi. Natijada, odamlar o'z fikrlarini erkin bildira olishmasdi, hamda ko'plab haqiqatlar yashirilib qolardi. Asarda Dehqonqul va boshqa qahramonlarning yashirin hayotini tasvirlash orqali, muallif real holatlarni ochib beradi. Yashirin voqealar va ijtimoiy holatlar faqat qog'ozda yoritilmagan, balki bu haqda aholi bilan suhbatlarda ham aniq ma'lumot olish qiyin bo'lgan. Shu sababli, asarda yoritilgan voqealar va holatlar real hayotdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlar bilan mos keladi. Aholining miyyasi ruslashtirilgan va ko'plab odamlar o'zlarini erkin ifodalashdan qo'rqishardi, chunki bu sovet tizimida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan vazifalarni yechimini topish maqsadida quyidagi kompleks nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, muammoga oid hujjatlarning nazariy hamda qiyosiy pedagogik tahlili, shuningdek, fanlararo yondashuv, kundalik hayot tarixini tadqiq etish usullari, analiz, sintez, sotsiologik usullardan foydalanish (anketa, so'rovnomalar), og'zaki tarix metodlaridan (intervyu olish)dan keng foydalanilgan. Asar 1985-1991-yillar O'zbekiston aholisi turmush darajasining noaniq va murakkab holatini to'liq ochib beradi. Ushbu yillardagi O'zbekistonning real hayotini o'rganishga qaratilgan muhim manba hisoblanadi.

Romanda paxta terish mashinasi orqasidan chiqqan fan nomzodlarining yirik yutuqlari bo'lishiga qaramasdan, ularning ilmiy ishlari amalda samara bermasligini ko'rsatish, o'sha davrdagi ilmiy izlanishlarning ko'plab hollarda amaliyotga o'ta

olmaganini anglatadi. Demak, ilmiy bilimlar va amaliy texnologiyalar o'rtasidagi uzviy bog'lanishning yo'qligi ko'rsatiladi.

Ziyodning paxta dalasida uxlab qolishi, so'ng biroz vaqt o'tib vafot etishi [1, 97-b.], organizmda kimyoviy moddalar to'planib, salomatlikka doimiy zarar yetkazayotganini ko'rsatadi. Pestitsidlar, ayniqsa, toksik kimyoviy moddalar, reproduktiv tizimga ham zarar yetkazishi mumkin. Ularning uzoq muddat ta'siri, reproduktiv organlarga zarar yetkazishi mumkin. "O'zbekiston bolalar o'limi bo'yicha Ittifoqda birinchi o'rinda turgan. Bu yerda 1980-yillarda har ming boladan 31 tasi bir yoshga yetmasdan nobud bo'lgan, bu ko'rsatkich Ukrainada 17 tani, Belorussiyada 18 tani, Litvada 19 tani, Latviya va Estoniyada 17 tani tashkil etgan"[2]. Demografik holat qay darajada bo'lganini quyidagi jadvaldan ham bilishimiz mumkin.

Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy o'sishi[3.].

Yillar	Tug'ilganlar soni	O'lganlar soni	Tabiiy o'sish	Har 1000 aholi hisobiga		
				Tug'ilish	O'lim	Tabiiy o'sish
1980	540,0	118,9	421,1	33,9	7,5	26,4
1985	679,1	131,7	547,4	37,4	7,3	30,1
1986	708,7	132,2	576,5	37,9	7,1	30,8
1987	714,4	133,8	580,6	37,3	7,0	30,3
1988	694,1	134,4	559,4	35,3	6,8	28,5
1989	668,8	126,9	541,9	33,3	6,3	27,0
1990	691,6	124,5	567,1	33,7	6,1	27,6

Asarda Dehqonqul onasining "paxta og'iroyoqni bilmaydi" degan so'zlari orqali, aslida, O'zbekiston qishloq ayollarining mehnatdagi ruhiy va psixologik holatini ifodalash mumkin. Bu ibora, faqat mehnatning jismoniy og'irligi haqida emas, balki ayollarning mehnatni, hayotni qanday idrok etishi va ularning mehnat jarayonida qanday psixologik holatlarni boshdan kechirishi haqida chuqur ma'no beradi. Ayollar ko'pincha o'z jismoniy mehnatini ruhiy jihatdan ham yengillashtirishga harakat qiladilar. Ular paxta maydonida yoki boshqa ish joylarida, og'ir mehnatni amalga oshirayotganda, bu ishning ruhiy og'irligini bilmaslikka, ba'zan esa, shunchaki "odatga" aylantirishga harakat qiladilar. Ayollar o'zlariga g'amxo'rlik qilish va hayotni davom ettirish uchun ko'pincha o'z ruhiy holatini e'tiborga olmaydilar. Ayollarning mehnatdagi ruhiy holati, asarda "paxta og'iroyoqni bilmaydi" iborasi orqali ko'rsatilganidek, ba'zida faqat jismoniy og'irlikni qabul qilish, ruhiy zo'riqishdan bexabar bo'lishga olib keladi. Bu, o'z navbatida, ayollarni ichki stress, charchoq, va o'zligini yo'qotish kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Ayollar ko'pincha mehnatdagi qiyinchiliklarni va ruhiy zo'riqishni boshqa odamlarning oldida ko'rsatmaslikka, shuningdek, o'zlarini kuchli va sabrli ko'rsatishga harakat qiladilar. Ayollar, asarda tasvirlanganidek, ko'pincha oilaviy majburiyatlar va mehnatni o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Paxta terimi, qishloq ayollari uchun faqat iqtisodiy foyda keltiradigan emas, balki o'z oilalarini boqish va ularni tirikchilik qilish uchun zarur bo'lgan ish sifatida qaraladi. Shu bilan

birga, bu mehnatning og'irligi, ayollarda ichki konfliktlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular o'zlari va oilalari uchun muhim bo'lgan bu mehnatni bajarishdan boshqa yo'l topolmaydilar, ammo bu mehnatning ruhiy og'irligi va uzluksizligi, ichki stress, xavotir va charchoqqa olib keladi. "1986-1987-yillarda respublikada 270 nafar ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi"[4, 624-b.]. "O'zbekiston respublikamiz bo'yicha shu oxirgi ikki yilda yeti yuz ellik uch xotin-qiz o'ziga o'zi o't qo'yibdi!"[5, 233-b]. Asarda rasmiy statistik ma'lumotlar bilan kundalik hayotda sodir bo'layotgan voqealar bir-biriga mos emasligi, asl haqiqatni yashirish mohirona tarzda yoritib berilgan. Bu voqea faqat biror kishining o'z joniga qasd qilishidan ko'ra, O'zbekiston jamiyatidagi og'ir siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga qarshilikni ifodalaydi. Bu harakat, ayollarning faqat o'z shaxsiy inqirozlari emas, balki ular yashayotgan tuzumga nisbatan kengroq norozilik va qarshiliklarini aks ettiradi. Biroq, bu ayollar o'z jismoniy va ruhiy holatlarining chegara tugaganini his qilib, mavjud tizim va jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi chiqishga qaror qilganlar. O'zini o'zi yoqib yuborish, bu nafaqat shaxsiy norozilikni, balki jamiyatdagi adolatsizlik va repressiyaga qarshi ochiq qarshilikni anglatadi. Asarda ayollar o'zini o'zi yoqib yuborish orqali, o'zlarining umidsizlik va noxush hayotdan qutulish istagini ifodalashadi. Ularning o'z joniga qasd qilishlari, mavjud tuzumning ularni e'tiborsiz qoldirishi, ozodlik va hurriyatdan mahrum etilishi haqida ochiq qichqiriqdir. Bu voqea, tuzumning repressiv xususiyatiga qarshi ayollarning "yashirin" isyonini ochib beradi. Ularning o'zini o'zi yoqib yuborishlari, nafaqat o'z joniga qasd qilish, balki tuzumning zo'ravonligini, uning tengsizlikni yaratishini va jamiyatda o'zgarishlarga kuchli ehtiyoj borligini ochiq ravishda ko'rsatadi. Ayollar, o'zlarini o'zi yoqib yuborish orqali jamiyatning ko'rinmas, ammo real bo'lgan muammolarini, uning repressiv va tengsizlikka asoslangan tizimini ochib berishga harakat qiladilar. Ayolarning o'zini o'zi yoqib yuborishi, faqat shaxsiy inqiroz yoki hissiy holat emas, balki jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va psixologik muammolarga qarshi kuchli, ta'sirli va ochiq norozilikdir. Asarda Dehqonqul ayolining tunda non yopishi, hatto yuvinishga vaqti yo'qligi, farzandiga qarash bilan kechalari uyqudan xoli qolishi, jamiyatda ayollarning kundalik mehnatdagi og'irligini ochib beradi va nihoyat, o'zini o'zi yoqib yuborishi, aynan tuzumga qarshi bevosita norozilik namoyishidir. Ushbu tasvirlar orqali muallif ayollarning jamiyatdagi og'ir mehnatlari, ruhiy va jismoniy charchoqlari hamda ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashlarini ifodalashga intiladi. O'zini yoqib yuborishi, bu tugallangan ishlarning natijasi bo'lib, faqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham eng og'ir "o'zini yo'qotish"dir.

Paxta ishlab chiqarishning aynan 1985-1991-yillaridagi sharoitlari qishloq aholisi uchun jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'ldi. Ushbu yillar mobaynida paxtachilikka bo'lgan e'tiborning kuchayishi, dehqonlarning mehnat sharoitlarini juda og'irlashtirdi. Aholi, ayniqsa, qishloq hududlarida, arzon va kam sifatli oziq-ovqatlar bilan ta'minlangan, bu esa vitaminlar va zarur moddalar yetishmasligiga olib keldi. Vitaminlar va minerallar tanqisligi, immun tizimining zaiflashishiga va turli kasalliklarga sabab bo'lgan. Dehqonqul farzandlari orqali Tog'ay Murod buni o'sha davrdagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi va bu holatning insonlar, ayniqsa yosh avlodga ta'sirini badiiy tarzda aks ettiradi. Bu asar orqali, muallif bizga nafaqat tarixiy voqealarni, balki insonning hayoti va sog'lig'iga ijtimoiy sharoitlarning

qanday ta’sir qilishi haqida chuqur fikrlar beradi. Boshqaruv, o’z navbatida, dehqonlarga qarshi yuqori bosimlar, majburiy mehnat va to’lovlarsiz ishlashni talab qilardi. “1990- yilda respublika aholisi 70 foiziga yaqinining jami daromadi tirikchilik o’tkazish uchun zarur bo’lgan eng quyi darajadan ham past edi”[6.].

Asarda Dehqonqul xotinining holati, aslida, kuchli mehnat, umidsizlik va ichki kurashni ko’rsatadi. U jamiyatning pastki qatlamidagi hayotining og’irligi, oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy burchlarni bajarishdan boshqa hech narsaga vaqt ajratishga imkon topmagan. Klara Xo’jayevna tomonidan keltirilgan shizofrenichka [7, 237-b.]. esa bu holatni idealogik kuch bilan manipulyatsiya qilishga qaratilgan. Klara Xo’jayevna jamiyatdagi mavjud tizimni ochishdan qo’rqib, Dehqonqul xotinining sog’lomligini buzishga urindi, uning ichki kurashini noto’g’ri diagnostika qilishga harakat qildi. Bu, albatta, tuzumning haqiqiy basharasini ochib qo’yishning dalilidir. Klara Xo’jayevnaning bu kasallik haqidagi yasalgan tahmini, asar ichidagi tuzumning qanday qilib haqiqiy holatni yashirishga, o’z g’oyalarini qo’llab-quvvatlashga harakat qilayotganini ko’rsatadi. Dehqonqul xotinining aslida sog’lom va kuchli bo’lishiga qaramasdan, unga shizofrena tashxisi qo’yilgan va bu, jamiyatning ichki real kundalik hayotini to’g’ri tasvirlanmasligiga olib kelgan. Klara Xo’jayevnaning bu fikrlarini qo’llab-quvvatlash, tuzumni yashirish va o’zini himoya qilishga xizmat qilgan, natijada real statistik ma’lumotlar yo’qotishiga sabab bo’lgan. Bu, o’z navbatida, tuzumning o’zini yashirishga va idealistik fikrlarni qo’llashga intilishining yomon natijalaridan biri edi, xolos. 1985-1991-yillardagi O’zbekistonning real hayotini o’rganishga qaratilgan muhim manba hisoblanadi. Dehqonqulning soat 09:00 da dalaga chiqishini aytishi [8, 268-b.]. aslida haqiqatdan uzoq bo’lgan, lekin ijtimoiy tizim va bosimning ta’siri ostida aytilgan yolg’on gapdir. Paxtachilar, ayniqsa qishloq aholisining ish vaqti, ish jadvali va mehnat normativlari ko’pincha ma’lum bir rasmiy maqsadlar va rejalarga bog’liq edi. Aslida, ko’plab dehqonlar ertalabdan kechgacha, quyosh chiqqanidan to shomgacha dalada bo’lishgan, ko’plab ishchilar esa quyosh chiqmasdan salqinda ko’proq ishinmizni tugatib olamiz deyishgan, lekin bu mehnatni ko’rsatish yoki rasman tan olishda boshqacha yondoshuvlar mavjud edi. Dehqonqulning muhbirga soat 09:00 da dalaga chiqishini aytishi, uning o’z sharoitlaridan qochishga, tizimdan qo’rqishga va jamiyatning rasmiy fikriga mos kelishga bo’lgan intilishidir. Agar u rostini aytsa, ya’ni dalaga quyosh chiqqandan oldin chiqqanini va shomgacha ishlaganini aytsa, bu nafaqat o’zining shaxsiy hayotiga ta’sir qilgan bo’lar edi, balki jamiyat va davlat tizimiga qarshi norozilik sifatida qabul qilinishi mumkin edi. Shu sababdan, u o’zining ish faoliyatining asl haqiqatini yashirishga majbur bo’ladi. Agar Dehqonqul rostini aytsa, uning hayoti xavf ostida bo’lishi mumkin edi, chunki Sovet davrida haqiqatni ochiq aytish ko’pincha jazoga olib kelardi. Rasmiy statistikalar qanday-u, asl kundalik hayotda turmush sharoitlari qandayligini muallif mohirona tasvirlab beradi. Paxta mehnati va shuning atrofida yaratilgan rasmiy tizimning bosimi ostida odamlar hayotidagi haqiqiy holat yashiriladi. Asarda ko’rinib turibdiki, Dehqonqulning yolg’on gapirishining yana bir sababi - jamiyatdagi qattiq kuzatuv, rasmiy tartiblar va nazoratdir. Sovet davrida, jamiyatdagi har bir faoliyat - ish va mehnat, o’zaro muloqot, hatto kundalik hayot ham davlat tomonidan kuzatib borilgan. Yolg’on gapirish va haqiqatni yashirish nafaqat shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash, balki

jamiyatdagi mavjud tizimning ta’siridan saqlanishning yo’li edi. Bu yolg’on gapirish orqali Dehqonqul totalitar tuzumga bo’lgan moslashuvini, o’zining xavfsizligini va hayotini himoya qilishni maqsad qilgan. **“**Dehqonqulning uyining bir tomoniga Norboy chavandoz otini boylab qo’yishi, boshqa tomoniga esa Chori magazin mudiri Volga mashinasini qo’yib, so’ng bu otni ham Volga mashinasini ham Dehqonqulniki qilib ko’rsatilishi”, har bir xonadonda bunday mashina bor degan yolg’on intervyu olishining maqsadi - bu asarda Sovet davridagi jamiyatdagi ijtimoiy bosim, rejalar va rasmiy statistikaning qanday manipulyatsiya qilinayotganini ko’rsatish uchun ishlatilgan juda ta’sirli va simvollik tasvirdir. Aslida esa Dehqonqulning bittagina qo’yi bo’ladi, uni ham Markazdan kelgan mehmonlar uchun so’yadi.

Dehqonqulning xotiniga atlas ko’ylak olib bera olmasligi, uning iqtisodiy ahvolining qanchalik og’irligini chuqur ifodalaydi. Asarda Dehqonqulning mehnatkashligi, fidoiyligi va oddiy qishloq hayotidagi insoniy qiyinchiliklari ko’rsatilgan bo’lsa-da, uning Klara Xo’jayevnaga yoqmasligi asarda yana bir qiziqarli va o’ylantiruvchi masala sifatida ko’rinadi. Klara Xo’jayevnani tasvirlash orqali muallif jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning, sinflarning va odamlarning o’rtasidagi tafovutlarni ochib beradi. U ko’p vaqtini yerda ishlashga, dehqonchilik qilishga bag’ishlaydi. Dehqonqul qishloq hayotining eng mehnatkash va oddiy kishilaridan biridir. U ko’p vaqtini yerda ishlashga, dehqonchilik qilishga bag’ishlaydi. Klara Xo’jayevna Dehqonqulni,- “ilg’or paxtakoringiz betidan buzilgan pes-ku? Ko’nglimni aynitib yubordi-ya!”[9, 116-b]. deb haqoratlashi, ijtimoiy farqlarni, qishloq va shahar hayoti o’rtasidagi keskin tafovutlarni ochib beradi. Uning bu reaksiyasi, jamiyatdagi yuqori sinfning quyi sinfga nisbatan o’zini yuqori tutishiga misol bo’ladi. Bu tafovutni Tog’ay Murod o’z asarida kuchli badiiy vositalar orqali ko’rsatadi. Asarda Dehqonqul va Klara Xo’jayevna o’rtasidagi qarama-qarshilik, faqat tashqi ko’rinishdagi farqni emas, balki ularning dunyoqarashidagi farqlarni ham ko’rsatadi. Klara Xo’jayevnaning fikri, jamiyatdagi yuqori qatlamning past sinfga bo’lgan qarashlarini ko’rsatadi. “1983- yil sentyabrda SSSR Bosh prokurori A.Rekunkov topshirig’iga ko’ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo’yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligida mamlakatning turli mintaqalaridan to’plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib, O’zbekistonda faoliyat boshlaydi” [10, 216-b.].

Asarda Dehqonqulni zo’rlashga urinish va uning qilmagan aybni bo’yniga olishga majbur bo’lishi, sovet tizimidagi nohaqlikni ko’rsatadi.“O’zbekiston tergov usullari o’tkaziladigan maydon”ga aylanib qoladi [11.].

Dehqonqul xotinini baxtli qilish uchun ko’proq mehnat qilsa ham, ularning turmush sharoitlari o’zgarmaydi. Bu, qishloq dehqonlarining hayotidagi qat’iyatlilik va sabr-toqatni ko’rsatadi, lekin ayni paytda ular jamiyatning og’ir iqtisodiy sharoitlarida hech qanday haqiqiy o’zgarish yaratolmaydilar. O’z orzulari va umidlarini amalga oshirish uchun kurashayotgan Dehqonqulning tasviri, jamiyatning ko’plab oddiy odamlarining bir xil holatini aks ettiradi. Bu, o’sha davrda O’zbekistonning iqtisodiy tizimining zaifligini va aholi turmush darajasining pastligini ko’rsatadi. Dehqonqulning paxtaga sadoqati, aslida, tizimning dehqonlardan talab qiladigan, o’zlari uchun emas, balki tizimning ehtiyojlari uchun ishlashga majbur qilish siyosatini ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Otamdan qolgan dalalar: roman / Tog’ay Murod. – Toshkent: Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2022. 97-b

2.https://kompy.info/-qayta-qurish-davrida-aholi-turmush-tarzining-ogirlashuvi-reja.html?page=2

3. https://images.app.goo.gl/MnNGD4EfenbrpXFa6

4.O’zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida Ilmiy muharrir: M.Jo’rayev. - Toshkent: Sharq, 2000. 624-b

5.Otamdan qolgan dalalar: roman / Tog’ay Murod. – Toshkent: Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2022. 233-b

6.https://kompy.info/-qayta-qurish-davrida-aholi-turmush-tarzining-ogirlashuvi-reja.html?page=2

7.Otamdan qolgan dalalar: roman / Tog’ay Murod. – Toshkent: Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2022. 237-b

8. O’sha manba 268-b

9.Otamdan qolgan dalalar: roman / Tog’ay Murod. – Toshkent: Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2022. 116-b

10.Лиханов Д. Кома: “Оганѐк” журнали, 1989 йил. № 4, 21б.

11.“Тошкент ҳақиқати” газетаси, 1990-йил 3-февраль.

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTI BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANISHI

Elyorbek YO‘LDASHEV
Oriental Unversiteti magistranti
yuldashevelyorbek30@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorlik yo‘nalishlari, JSTga a’zolik jarayonining bosqichlari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy islohotlar, shuningdek, bu jarayonning milliy iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mamlakatning JSTga a’zo bo‘lish yo‘lida ko‘rayotgan yutuqlari, duch kelayotgan chaqiriqlari va ularni yengib o‘tish strategiyalari yoritiladi.* ***Kalit so‘zla:*** *Jahon savdo tashkiloti, xalqaro iqtisodiy integratsiya, O‘zbekiston tashqi siyosati, eksport salohiyati, savdo-iqtisodiy islohotlar, bojxona tizimi, iqtisodiy raqobatbardoshlik, xalqaro shartnomalar, intellektual mulk, iqtisodiy transformatsiya, strategik hamkorlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются направления сотрудничества Республики Узбекистан с Всемирной торговой организацией (ВТО), этапы процесса присоединения к ВТО, а также институциональные и экономические реформы, проводимые государством. Кроме того, рассматриваются достижения страны на пути к членству, существующие вызовы и стратегии их преодоления.* ***Ключевые слова:*** *Всемирная торговая организация, международная экономическая интеграция, внешняя политика Узбекистана, международные соглашения, интеллектуальная собственность, экономическая трансформация, стратегическое сотрудничество.*

Annotation:*This article analyzes the directions of the Republic of Uzbekistan’s cooperation with the World Trade Organization (WTO), the stages of the accession process, and the institutional and economic reforms implemented by the state. It also highlights the country’s*

achievements on the path to membership, current challenges, and strategies to overcome them.
Keywords:*World Trade Organization, international economic integration, Uzbekistan's foreign policy, international agreements, intellectual property, economic transformation, strategic cooperation.*

Bugungi kunda globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan bir sharoitda har bir davlat o‘zining iqtisodiy xavfsizligi, savdo salohiyati va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta’minlashga harakat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston ham iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida xalqaro iqtisodiy maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash, tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va eksport-import siyosatini liberallashtirish yo‘lida izchil harakat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan buyon olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat, ayniqsa, iqtisodiy diplomatiya yo‘nalishida sezilarli natijalar bermoqda. Mamlakatimiz qisqa vaqt ichida qator xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirdi, savdo-iqtisodiy bitimlar soni ortdi, o‘nlab davlatlar bilan erkin savdo rejimlari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston MDH, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirdi.[1,B-456]

Shuningdek, 2022-yil oxiriga kelib, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 50 milliard AQSh dollaridan oshib, tarixiy rekordga erishdi. Eksport geografiyasi 100 dan ortiq mamlakatni qamrab oldi, eksport tarkibi esa qayta ishlangan mahsulotlar, tekstil, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika va kimyo sanoati mahsulotlari bilan boyidi. Mamlakatda "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyiliga asoslangan eksportga yo‘naltirilgan klasterlar rivojlantirilmoqda. [2,B-38]

Shu bilan birga, savdo aloqalarining xalqaro yuridik asoslarini mustahkamlash, savdo tartibotlarini soddalashtirish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashish maqsadida O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorligini kuchaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. JST — xalqaro savdo tartib-qoidalarini belgilovchi eng yirik tashkilot bo‘lib, unga a’zo bo‘lish mamlakat iqtisodiy manfaatlarini global miqyosda himoya qilish imkonini yaratadi.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorligi global iqtisodiy tizimga integratsiyalashish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biridir. Mamlakat JSTga ilk bor 1994-yilda a’zolik uchun ariza bergan, 1995-yilda kuzatuvchi maqomini olgan, biroq bir necha yillar davomida bu jarayon sust kechgan. Biroq 2017-yildan keyin, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan yangi islohotlar davrida bu boradagi harakatlar jadallashdi.

1. JST bilan faol muzokaralar jarayoni

2020-yildan buyon O‘zbekiston JSTga a’zolik masalasida faol muzokaralar olib bormoqda. Hozirga qadar JST Kotibiyati bilan bir necha bosqichli uchrashuvlar va ekspert muhokamalari o‘tkazildi. Xususan:

2020-yil 7-iyulda JSTda O‘zbekiston bo‘yicha ishchi guruhning 4-yig‘ilishi o‘tkazildi.

2022-yilga kelib, O‘zbekiston o‘zining tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi yangilangan Memorandumni JSTga taqdim etdi. [3,B-4]

O‘zbekiston qonunchiligi JST talablariga moslashtirilmoqda. Jumladan, intellektual mulk huquqlari, sanitariya va fitosanitariya choralari, bojxona tartibotlari, texnik reglamentlar kabi sohalarda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ishlari davom etmoqda.

2. Nufuzli xalqaro shartnomalar va ikki tomonlama hamkorlik

JST bilan parallel ravishda O‘zbekiston dunyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama formatdagi shartnomalarni imzolash orqali global iqtisodiy makonda o‘z mavqeini mustahkamlab bormoqda.

Evropa Ittifoqi (YeI) bilan 2021-yilda "Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim" loyihasi bo‘yicha muzokaralar yakuniga yetkazildi. Ushbu bitim O‘zbekiston tovarlari YeI bozoriga erkin kirishini va investitsiyalar hajmining oshishini ta’minlaydi.

AQSh bilan "Savdo va investitsiyalar bo‘yicha asosiy kelishuv" (TIFA) doirasida yillik maslahatlashuvlar o‘tkazilmoqda.

Janubiy Koreya va Yaponiya bilan texnologik hamkorlik va savdo bo‘yicha yangi strategik yo‘nalishlar belgilab olingan.

Xitoy bilan "Bir makon – bir yo‘l" tashabbusi doirasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan shartnomalar imzolandi. Xususan, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li loyihasi global savdo yo‘lagini ochishga xizmat qiladi.[4,B-3]

Turkiya bilan ikki tomonlama savdo hajmi 2023-yilda 3 milliard dollardan oshdi, "preferensial savdo bitimi" imzolandi va bu O‘zbekiston mahsulotlarini Turkiya bozoriga qulay sharoitda olib chiqish imkonini bermoqda.

MDH davlatlari bilan erkin savdo hududi bitimi asosida bojxona imtiyozlari va soddalashtirilgan savdo mexanizmlari joriy etilgan.

3. Eksport imkoniyatlari va iqtisodiy transformatsiya

JSTga a’zolikning asosiy maqsadi – O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy asos yaratish, hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlashdir. JST talablariga rioya qilish mamlakatda:

mahsulot sertifikatsiyasi va sifat nazoratini takomillashtirishni,

bojxona rasmiylashtiruvi tizimini raqamlashtirishni,

eksportchilarga imtiyozli kreditlar ajratilishini,

transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishni talab etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadida "Milliy eksport strategiyasi – 2021–2025" qabul qilingan bo‘lib, u JST a’zoligiga tayyorgarlikning muhim elementi hisoblanadi. Ushbu strategiya asosida meva-sabzavot, to‘qimachilik, avtomobilsozlik va elektrotexnika sohalari asosiy eksport yo‘nalishlariga aylantirilmoqda. .[5,B-7]

4. Tizimli islohotlar va qonunchilikka moslashtirish

JSTga a’zolik yo‘lida eng muhim bosqichlardan biri – mamlakat qonunchiligining JST talablariga moslashtirilishidir. Xususan:

Intellektual mulk huquqlari (TRIPS bitimi asosida) bo‘yicha yangi qonunlar ishlab chiqildi.

Sanitariya va fitosanitariya choralari (SPS) bo‘yicha xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda texnik standartlar ishlab chiqilmoqda.

Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha ISO, Codex Alimentarius kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatildi.

Ushbu islohotlar O‘zbekistonni nafaqat JST a’zoligiga tayyorlaydi, balki mamlakat ichki iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytiradi va xorijiy sarmoya jalb qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi tobora murakkablashib borayotgan bir davrda, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlikni chuqurlashtirishi – mamlakatning uzoq muddatli strategik manfaatlariga to‘la mos keladi. JSTga a’zo bo‘lish jarayoni O‘zbekiston iqtisodiy tizimining ochiqligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat tashqi savdo munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi, balki ichki islohotlarni jadallashtirish, huquqiy-me’yoriy bazani modernizatsiyalash, biznes muhitini soddalashtirish kabi keng qamrovli vazifalarni ham ilgari suradi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, O‘zbekiston so‘nggi yillarda JST bilan muzokaralarni faollashtirib, texnik va institutsional jihatdan a’zolik uchun zarur bo‘lgan ko‘plab talablarni bajarishga kirishdi. Bu jarayonda qabul qilingan “Milliy eksport strategiyasi”, savdo siyosatini liberallashtirish, bojxona tizimini raqamlashtirish, intellektual mulkni muhofaza qilish, texnik reglamentlar va xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha qator muhim qadamlar tashlandi. Ushbu islohotlar, bir tomondan, JST talablariga javob bersa, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonni jahon bozorida ishonchli hamkor sifatida tanitishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning JST bilan hamkorligi umumiy tashqi savdo strategiyasining bir bo‘lagi sifatida turli davlatlar bilan tuzilayotgan nufuzli shartnomalar, savdo bitimlari va iqtisodiy sherikliklar bilan uyg‘un ravishda olib borilmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya kabi yetakchi davlatlar bilan erishilgan kelishuvlar O‘zbekistonning global iqtisodiy maydondagi pozitsiyasini mustahkamlab, JSTga muvaffaqiyatli integratsiyalashish uchun zarur infratuzilma va siyosiy-iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, O‘zbekiston JSTga a’zolik yo‘lida qat’iy siyosiy iroda, puxta strategik yondashuv va tizimli islohotlar asosida harakat qilmoqda. A’zolik nafaqat xalqaro maydondagi iqtisodiy imijni oshiradi, balki ichki iqtisodiy boshqaruv tizimini modernizatsiyalash, raqobat muhitini kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashda asosiy vositaga aylanadi. Oldinda turgan ustuvor vazifalar – savdo siyosatini chuqurlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni global raqobatga tayyorlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 456 b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. JSTga a’zolik jarayonining holati bo‘yicha rasmiy hisobot. – Toshkent, 2023. – 38 b.

3. Jahon savdo tashkiloti rasmiy veb-sayti. – https://www.wto.org (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-aprel).

4.O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. "Bir makon – bir yo‘l" tashabbusi doirasida Xitoy bilan hamkorlik bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2023. – 29 b.

5.O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Milliy eksport strategiyasi – 2021–2025. – https://gov.uz (murojaat qilingan sana: 2025-yil 14-aprel).

Toshqulov A.X., Ortiqov D.A. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: integratsiya va hamkorlik. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 314 b.

Karimov B.O., Ashurov F.T. Jahon iqtisodiyoti va tashqi savdo siyosati: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodchi, 2022. – 276 b.

1991–2000 YILLARDA O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA ALOQALARI

Dilmurod ESHNAZAROV
Oriental universiteti 1-bosqich magistranti
eshnazarovtarixchi@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Janubiy Koreya bilan o‘rnatilgan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar tahlil qilinadi. 1991–2000 yillar oralig‘ida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik bosqichma-bosqich mustahkamlangan, ko‘plab yirik loyihalar amalga oshirilgan. Ayniqsa, avtomobilsozlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash va madaniy sohalarda sezilarli natijalarga erishilgan. Shuningdek, maqolada Koreya diasporasining o‘zaro aloqalardagi o‘rni ham yoritilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, Janubiy Koreya, diplomatik munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik, UzDaewoo, Koreya diasporasi, madaniy almashinuv.*

Annotation: *This article analyzes the diplomatic, economic, and cultural relations established between Uzbekistan and South Korea following Uzbekistan’s independence. From 1991 to 2000, cooperation between the two countries gradually strengthened, resulting in the implementation of numerous large-scale projects. Notable achievements were made particularly in the fields of automobile manufacturing, education, healthcare, and culture. The article also highlights the role of the Korean diaspora in fostering bilateral relations.* ***Keywords:*** *Uzbekistan, South Korea, diplomatic relations, economic cooperation, UzDaewoo, Korean diaspora, cultural exchange.*

Аннотация: *В данной статье анализируются дипломатические, экономические и культурные отношения между Узбекистаном и Южной Кореей, установленные после обретения Узбекистаном независимости. В период с 1991 по 2000 годы сотрудничество между двумя странами постепенно укреплялось, было реализовано множество крупных проектов. Особенно значительных результатов достигнуто в сферах автомобилестроения, образования, здравоохранения и культуры. Также в статье освещается роль корейской диаспоры в развитии двусторонних связей.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан, Южная Корея, дипломатические отношения, экономическое сотрудничество, UzDaewoo, корейская диаспора, культурный обмен.*

1991-yil - O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yili - mamlakatning tashqi siyosatida yangi bosqich boshlandi. O‘zbekiston tarixidagi muhim burilish

nuqtasi bo‘lib, mustaqillikdan so‘ng mamlakat o‘z tashqi siyosatini shakllantirish va yangi ittifoqdoshlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish davriga kirdi. Janubiy Koreya bilan aloqalar O‘zbekistonning Osiyo mintaqasidagi strategik sheriklik siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. O‘zbekiston suveren davlat sifatida dunyo hamjamiyati bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘ya boshladi. Shu jihatdan, Janubiy Koreya bilan munosabatlar mustaqillik yillaridagi eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Koreya Respublikasi 1991-yil 30-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi va ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar rasmiylashdi. O‘zbekiston bilan KR o‘rtasida 1992-yil yanvarda diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning 1992, 1995, 1999-yillarda Koreya Respublikasiga va Koreya Respublikasi prezidentining 1994-yilda O‘zbekistonga rasmiy tashriflari chog‘ida imzolangan hujjatlar o‘zaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratdi. 1999-yilda o‘zaro tovar aylanmasi hajmi salkam 526,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Koreya Respublikasi O‘zbekistondan paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip, elektr asbob-uskuna, xom teri, ipak, kimyoviy o‘g‘it olib, O‘zbekistonga transport vositalari, elektr va mexaniq jihozlar, qora metall, kauchuk va rezina mahsulotlari, bo‘yoqlar, turli xil jihoz va apparatlar, to‘qimachilik mahsulotlari yuboradi.

O‘zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatlardan biri — Janubiy Koreya bo‘ldi. 1992-yil 29-yanvarda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Shu yili elchixonalar ochildi va siyosiy muloqotlar faollashdi. 1994-yilda Prezident Islom Karimovning Janubiy Koreyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda muhim bosqich bo‘ldi. O‘zbekistonda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 80 ga yaqin korxona bo‘lib, ular transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to‘qimachilik kabi sohalarga mansub. ‘O‘zDEU avto“, ‘O‘zDEUelektroniks“, ‘Kabul-O‘zbek kompani LTD“, ‘O‘zSamso‘ngelektroniks“ kabi qo‘shma korxonalar shu jumlaga kiradi. Ular avtomobil, xalq iste’mol mollari, radio elektron maqsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Nurafshondada va Toshkentning ‘Ko‘kcha“ dahasida qurilgan to‘qimachilik korxonalari mahsulotlari chetga eksport qilinmoqda. Farg‘ona va Namangan shaharlarida ham shunday korxonalar barpo etiladi. Shuningdek, Koreya Respublikasining 19 ta kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi da o‘z vakolatxonasini ochgan. 1994-yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq masalalari bo‘yicha O‘zbekiston-Koreya va Koreya-O‘zbekiston qo‘shma qo‘mitasi ishlab kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Koreya Respublikasining 10 ta banki bilan vakillik munosabatlari o‘rnatgan. Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bir necha yillar davomida respublika vazirliklari va idoralari bilan faol aloqa qilmoqda. Shu tashkilot yo‘li bilan o‘zbek yigit-qizlari muntazam ravishda Koreya Respublikasida malaka oshirishmoqda. Toshkent iqtisodiyot universitetida va Moliya instituti huzuridagi litseyda kompyuter sinflari tashkil etilgan. O‘zbekistondagi boshqa litsey va kollejlarni o‘quv asbob-uskunalari bilan jihozlash loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta’lim markazida oliy o‘quv yurtlari muallimlari va talabalari uchun tanlov asosida malaka

oshirish yo‘lga qo‘yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O‘zbekiston jahon tillari universitetida “Koreys tili markazi”, Samarqand chet tillar institutida Koreys tili va madaniyati markazi” ishlaydi. Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan.

1990-yillar davomida O‘zbekiston Janubiy Koreyani ishonchli texnologik hamkor sifatida qabul qildi. 1996-yilda Andijon viloyatining Asaka shahrida “UzDaewooAuto” zavodi ochildi. Bu O‘zbekiston iqtisodiy tarixidagi eng muhim xorijiy sarmoya loyihalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari, to‘qimachilik, qurilish va sog‘liqni saqlash sohalarida koreyalik investorlar faol ishtirok etdi. O‘zbekistonda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 80 ga yaqin korxona bo‘lib, ular transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to‘qimachilik kabi sohalarga mansub. O‘zDEUelektroniks“, ‘Kabul-O‘zbek kompani LTD“, ‘O‘zSamso‘ngelektroniks“ kabi qo‘shma korxonalar shu jumlaga kiradi. Ular avtomobil, xalq iste’mol mollari, radio elektron maqsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Nurafshondada va Toshkentning ‘Ko‘kcha“ dahasida qurilgan to‘qimachilik korxonalari mahsulotlari chetga eksport qilinmoqda. Farg‘ona va Namangan shaharlarida ham shunday korxonalar barpo etiladi. Shuningdek, Koreya Respublikasining 19 ta kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi da o‘z vakolatxonasini ochgan. 1994-yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq masalalari bo‘yicha O‘zbekiston-Koreya va Koreya-O‘zbekiston qo‘shma qo‘mitasi ishlab kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Koreya Respublikasining 10 ta banki bilan vakillik munosabatlari o‘rnatgan. Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bir necha yillar davomida respublika vazirliklari va idoralari bilan faol aloqa qilmoqda. Shu tashkilot yo‘li bilan o‘zbek yigit-qizlari muntazam ravishda Koreya Respublikasida malaka oshirishmoqda. Toshkent iqtisodiyot universitetida va Moliya instituti huzuridagi litseyda kompyuter sinflari tashkil etilgan. O‘zbekistondagi boshqa litsey va kollejlarni o‘quv asbob-uskunalari bilan jihozlash loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta’lim markazida oliy o‘quv yurtlari muallimlari va talabalari uchun tanlov asosida malaka oshirish yo‘lga qo‘yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O‘zbekiston jahon tillari universitetida ‘Koreys tili markazi“, Samarqand chet tillar institutida ‘Koreys tili va madaniyati markazi“ ishlaydi. Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan.

2019-yilning 18-aprel kuni Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning O’zbekistonga davlat tashrifi bo’lib o’tdi. Ushbu tashrif davomida O’zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o’rtasida alohida strategik sheriklik to‘g’risidagi Qo’shma deklaratsiya imzolandi, muhim kelishuvlarga erishildi va umumiy qiymati 12 milliard dollardan ortiq bo’lgan kelishuvlar imzolandi. Ular energetika, neft-gaz, kimyo, tog’-kon sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika, to’qimachilik va yengil sanoat, transport va logistika, infratuzilma, AKT, raqamli tibbiyot kabi sohalarni qamrab oladi. Bulardan, xususan, “Angren” iqtisodiy zonasini

“Inchon” erkin iqtisodiy zonasi boshqaruviga o’tkazish, ommabop dori vositalari ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish to’g’risidagi kelishuv e‟tiborga molik.

O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi koreys diasporasi madaniy va ijtimoiy ko‘prik sifatida aloqalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. 1990-yillarda Seul va Toshkent o‘rtasida madaniy forumlar, san’at ko‘rgazmalari va talaba almashinuvi loyihalari amalga oshirildi. O‘zbekistonda koreys tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortdi, bir nechta universitetlarda koreys tili bo‘limlari ochildi.

1991–2000 yillar O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar uchun asosiy poydevor bo‘ldi. Bu davrda nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va diplomatik jihatdan ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu hamkorlik keyingi yillarda yanada kengayib, strategik sheriklik darajasiga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xurshidbek Samiyev. O’zbekiston va Koreya o’rtasidagi hamkorlik natijalari. https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorliknatijalari.

2. Obid Hakimov “The Korea Post” jurnali. O‟zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. https://review.uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogosotrudnichestva

3. Мусаев Б. Меҳнат ҳуқуқи: уни ҳимоя қилиш борасида. Ўзбекистон ва Корея Республикаси ҳамкорлиги.-Тошкент: 2017. –Б. 76.

4. Kamoliddin, M. (2020). Conceptual approach to democratization of public administration. Russia and the moslem world, (2 (308)), 66-76.

5. Mansurjonovich, M. K. (2022). Methods for Assessing the Efficiency of Management at the Current Stage of State Development. Middle European Scientific Bulletin, 20, 61-67.

6. Миграция соҳасидаги истиқболли режалар самараси // Koryo sinmun.. 7-сон (309). 2018, 31 август.

1985-1991-YILLARDA O’ZBEKISTON AHOLISINING SANOAT MAHSULOTLARI BILAN TA’MINLANISHI TAHLILI

Manzalatxon TURG’UNPULATOVA
Oriental universitetining 2-kurs magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’zbekiston iqtisodiyotining sovet davridagi markazlashtirilgan boshqaruv tizimi va uning sanoat tarmoqlari, aholi ehtiyojlari va ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Iqtisodiy beqarorlik va resurslarning noto’g’ri taqsimlanishi aholi turmush darajasini pasaytirgan. Mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlarining cheklanishi va ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanishga to’sqinlik qildi.* ***Kalit so’zlar:*** *Markazlashgan iqtisodiyot, siyosiy omil, perestroyka, malakali ishchi kuchi, energetika resurslari, aholi salomatligi, iqlim, maosh.*

Аннотация: *В этой статье анализируется влияние централизованной управленческой системы экономики Узбекистана в советский период на его промышленность, потребности населения и производственную эффективность. Экономическая нестабильность и неправильное распределение ресурсов привели к снижению*

уровня жизни населения. Проблемы с производительностью труда, ограниченность производственных мощностей и экологические проблемы препятствовали экономическому развитию. ***Ключевые слова:*** *централизованная экономика, политический фактор, перестройка, квалифицированная рабочая сила, энергетические ресурсы, здоровье населения, климат, зарплата.*

Annotation: *This article analyzes the centralized management system of Uzbekistan's economy during the Soviet era and its impact on industrial sectors, population needs, and production efficiency. Economic instability and the misallocation of resources led to a decline in the living standards of the population. Labor productivity, limited production capacities, and environmental issues obstructed economic development.* ***Keywords****: Centralized economy, political factors, perestroika, skilled labor force, energy resources, public health, climate, wages.*

Sovet Ittifoqi davrida iqtisodiyot markazlashtirilgan tizim asosida boshqarilgan. O'zbekiston esa, asosan, paxta ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanmagan edi. Markazlashgan iqtisodiy siyosatning natijasida O'zbekistonning ichki ehtiyojlari, masalan, sanoat mahsulotlari (iste'mol mollari, asbob-uskunalar, texnikalar) ishlab chiqarishda, asosan, Moskva tomonidan belgilangan rejalarga mos ravishda amalga oshirilgan.

1985-yilda Mikhail Gorbachev boshchiligida amalga oshirilgan Perestroyka islohotlari Sovet Ittifoqidagi iqtisodiy va siyosiy tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Biroq, bu islohotlar O'zbekistonda samarali bo'lmadi. Sovet tizimining markazlashtirilgan boshqaruvi va iqtisodiy rejalari o'zgarishlarni qiyinlashtirdi.

Sovet Ittifoqining oxirgi yillaridagi iqtisodiy inqirozi ham O'zbekistonga ta'sir etdi. Energiya narxlarining oshishi, resurslarning yetishmasligi va ichki ta'minot zanjirining buzilishi O'zbekiston sanoatining samarali ishlashiga to'sqinlik qildi. Aholi uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari (xom ashyo, oziq-ovqat va iste'mol mollari) ishlab chiqarilishi sustlashdi. Mahsulotlarning yetishmasligi, narxlarning oshishi va eksport-impport tizimidagi o'zgarishlar aholining kundalik ehtiyojlarini to'liq qondira olmadi.

"Farg'ona kimyo tolasi zavodida 1987-yil 835 ta agregat ta'mirlandi. Ta'mirlash harajatlari 261 ming rublni tashkil etadi"[1, 20-bet].

Siyosiy omillar, masalan, markazlashtirilgan boshqaruv va iqtisodiy siyosatning zaifligi, ta'minot zanjirlarida uzilishlarga olib keldi. O'zbekistonda, xususan, iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi cheklovlar va boshqa sanoat mah-sulotlarining yetishmasligi aholining ehtiyojlarini qondirishda jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. mustaqillikka qadar davlatning iqtisodiy tizimi markazlashgan edi va bu o'zgarishlar tez amalga oshmadi. Sanoat sektoridagi zayifliklar, asosan, o'z-o'zini ta'minlash tizimining yo'qligi, mahalliy ishlab chiqarish va resurslar taqsimoti masalalari mustaqil O'zbekistonning sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashda davom etgan muammolarni yuzaga keltirdi. Markazlashtirilgan boshqaruv tizimi, iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilmasligi, siyosiy beqarorlik va iqtisodiy inqirozlar ta'minot tizimining uzilishiga olib keldi. Bu omillar, o'z navbatida, aholini zarur sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashda jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. Shunday qilib, siyosiy omillarning ta'siri aholi uchun sanoat mahsulotlarini yetarlicha ta'minlashni qiyinlashtirdi.

Aholi sonining o’sishi, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda, sanoat mahsulotlari ta’minotida muammolarni keltirib chiqardi. O’zbekistonning yosh aholisining yuqori ulushi, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda yirik imkoniyatlarni yaratdi, biroq, shu bilan birga, ishchi kuchining taqsimoti muammolarni keltirib chiqardi. Yoshlar ko’proq qishloq xo’jaligiga jalb qilingan, bu esa sanoat tarmoqlarida malakali ishchi kuchi yetishmovchiligini keltirib chiqardi. Misol: Aholining yosh tarkibi, ayniqsa, qishloq xo’jaligida ishlovchilarni sanoatga jalb qilishda qiyinchiliklar yaratdi. Qishloq xo’jaligida ko’proq ishlovchi yoshlar sanoat korxonalariga o’tish uchun zarur bilim va malakaga ega bo’lmagan. Shu sababli, sanoat korxonalarida malakali ishchi kuchi yetishmasligi, ishlab chiqarishning samaradorligini kamaytirdi. 1985-1991-yillar davomida O’zbekistonda ta’lim tizimi ba’zi jihatlarda rivojlanishga qaramay, sanoat tarmoqlari uchun zarur malakali ishchi kuchini tayyorlashda yetarlicha samarali bo’lmagan. Sanoat tarmoqlarining yuqori texnologiyalarga asoslanishi uchun malakali mutaxassislar yetarli darajada tayyorlanmagan edi. Ta’lim tizimining zaifligi, ayniqsa, texnik va muhandislik sohalarida malakali ishchi kuchining yetishmasligiga olib keldi. Misol: Mashina-sozlik va kimyo sanoati kabi yuqori texnologik sohalarda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqaradigan mutaxassislar yetishmasligi, sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishiga to’sqinlik qildi. Bu malakali ishchi kuchining yetishmasligi, ishlab chiqarishning samaradorligini kamaytirib, ta’minotdagi muammolarga olib keldi.

“1988-yil Farg’ona kimyo tolasi zavodida o’tgan yilga nisbatan pasayish 0,14 ballni tashkil etdi”[2, 18-bet.].bu ishchilar malakasi yoki boshqa bir ko’rsatkichning oldingi yilga qaraganda pasayishini anglatadi. Bunday holatda: 0,14 ball pasayish -bu o’zgarish yoki pasayishning miqdori. Agar, masalan, ishchilarning o’rtacha malaka toifasi 3,8 bo’lsa, va bu o’tgan yilga nisbatan 0,14 ball ga kamaygan bo’lsa, demak, avvalgi yilgi o’rtacha malaka toifasi 3,94 (3,8 + 0,14) bo’lgan. Bu ko’rsatkichni tushunishda, ba’zida bu raqamlar ishlab chiqarish samaradorligi, ishchilarning malakasi yoki boshqa ijtimoiy va iqtisodiy parametrlar asosida ishlatiladi.

Yirik shaharlarda aholi sonining ko’payishi sanoat mahsulotlariga bo’lgan talabni oshirdi, lekin sanoatni kengaytirish uchun mavjud resurslar va ishlab chiqarish quvvatlari cheklangan edi. Bu ta’minotdagi muvozanatsizlikka olib keldi.

Davlatning iqtisodiy siyosati, asosan, qishloq xo’jaligiga e’tibor qaratilgan bo’lib, sanoatning eng muhim tarmoqlari: og’ir sanoat, kimyo sanoati, mashinasozlik va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar yetarli darajada rivojlanmagan edi. Shuningdek, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi uchun zarur bo’lgan texnologik infratuzilma va investitsiyalar cheklangan edi. Bu holat aholini sanoat mahsulotlari bilan ta’minlashni murakkablashtirdi, chunki ko’plab ehtiyojlar qondirilmagan, ba’zi sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlari esa talablarga mos kelmagan.

“Mustaqillikka bo’lgan davr qishloq aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlanishi, sog’liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida bir qator ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, respublikaning tabiiy gaz bilan ta’minlanish darajasi bor-yo’g’i 4 foizni tashkil etardi. Surxandaryo viloyatida bu ko’rsatkich 3,2 foizni, Qashdaryoda 5,7 foizni, Namanganda 10,5 foizni, Andijonda

11 foizni tashkil qilardi. Yoki qishloq aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi Xorazm viloyatida 13,2 foizni, Buxoro viloyati 15 foizni, Qoraqalpog’iston Respublikasida esa bu raqam 21,4 foizni tashkil etardi” [3, 125-бет.].

O’zbekistonning energetika resurslari, ayniqsa gaz va elektr energiyasi sohasida bo’lgan cheklanishlar, sanoatning rivojlanishiga to’sqinlik qildi. Energiya yetishmasligi sanoat tarmoqlarining samarali ishlashiga, mahsulotlar ishlab chiqarishga va sifatli ta’minotga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko’rsatdi. Elektr energiyasining yetishmasligi ba’zi sanoat korxonalarining uzluksiz faoliyatini to’xtatishga olib keldi, bu esa ta’minot muammolarini yanada kuchaytirdi. Sanoat ishlab chiqarishining ko’p qismi Markazdan belgilangan rejalarga asoslangan edi. Bu markazlashtirilgan rejalashtirish jarayoni ko’pincha respublikaning ichki ehtiyojlarini hisobga olmaydi va sanoatni faqat Ittifoqning umumiy ehtiyojlariga xizmat qilishga majbur qiladi. Moliyaviy resurslar va investitsiyalarni cheklanganligi, yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga, mavjud ishlab chiqarishlarni zamonaviylashtirishga va texnologiyalarni yangilashga imkon bermadi. Natijada, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat va samaradorlik pasayib, ta’minotning muvozanatsizligi davom etdi.

Sanoat korxonalaridan chiqarilgan kimyoviy moddalar va ifloslantiruvchi gazlar, xususan, metallurgiya va kimyo sanoati hududlarida aholi salomatligiga bevosita zarar yetkazgan. Havo orqali kirgan ifloslantiruvchi gazlar, jumladan, azot oksidi, sulfurlar, va boshqa zararli moddalarning ta’siri bilan ko’plab kasalliklar paydo bo’lgan. Ayniqsa, ishlab chiqarishning ko’p qismini tashkil etgan og’ir sanoat korxonalari yaqinidagi aholi orasida bronxit, astma va boshqa nafas olish kasalliklari tarqalgan. Sanoat ifloslanishi nafaqat jismoniy salomatlikka, balki insonlarning ruhiy va psixologik holatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatgan. Bundan tashqari sanoat korxonalarida baxtsiz hodisalar ham bo’lib turgan. Misol uchun,” Farg’ona kimyo tolasi zavodida baxtsiz hodisadan jabrlanganlar 1990- yilda 2584 kishi, 1991-yilda 2501kishini tashkil etgan”[4, 103-bet.].

Ishlab chiqarish jarayonlari ko’plab kolxozlar va sovxozlarda an’anaviy mehnat taqsimoti asosida amalga oshirilgan, bu esa ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda qiyinchiliklar keltirib chiqargan. Markazlashgan tizimning asosiy muammosi shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko’pincha bozor ehtiyojlariga mos kelmasdi. Sovet davrida ko’pchilikning daromadlari asosan davlat tomonidan belgilangan oylik ish haqiga asoslangan edi. O’zbekistonning ko’plab aholisi agrar va yarim-agrar sohalarda mehnat qilganligi sababli, bu ishchilarning oylik maoshlarining pastligi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning mavjudligi bo’yicha doimiy muammolar mavjud edi. Ish haqi va ijtimoiy yordamning pastligi aholining umumiy ehtiyojlarini, ayniqsa, yuqori qo’shilgan qiymatli mahsulotlar, zamonaviy maishiy texnika, va yuqori sifatli kiyim-kechakni sotib olishda cheklangan imkoniyatlar yaratdi. Aholining katta qismi asosiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan, ammo bunday mahsulotlar uchun harid qilish quvvati yo’q edi. Bunday vaziyatda, aholining past daromadlari va mavjud mahsulotlarning taqsimlanishdagi notekisliklar ularning turmush darajasiga to’siq bo’lgan. Shuningdek, inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlik, ayniqsa oxirgi yillarda, aholi daromadlarini kamaytirib, ularning harid qilish quvvatini sezilarli darajada pasaytirdi. Sovet Ittifoqining tashqi savdo siyosati va iqtisodiy izolyatsiya O’zbekistonning sanoat mahsulotlarini ta’minlash quvvatini cheklagan muhim

omillardan biri bo'ldi. Markazlashgan iqtisodiyotda, O'zbekistonning import ehtiyojlarini qondirishda tashqi iqtisodiy aloqalar cheklangan bo'lib, faqat Sovet Ittifoqining ichki tizimi orqali mahsulotlar taqsimlanar edi. Mahsulotlarning cheklanganligi va global bozorlarga kirish imkoniyatining yo'qligi aholi ehtiyojlarini qondirishda katta muammolarga olib keldi. Importning ta'minoti qisqargan va ko'plab mahsulotlar mamlakat bozorida mavjud bo'lmagan.

O'zbekistonda paxta sanoati markaziy sanoat tarmoqlaridan biri bo'lib, respublikaning iqtisodiyoti uchun juda muhim edi. Sovet Ittifoqi paxta yetishtirishni O'zbekistonga yuklagan bo'lib, bu mamlakatni dunyoda paxta ishlab chiqarishda yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi. Paxta tolasi - O'zbekistonning eng asosiy eksport mahsulotlaridan biri edi. Paxta tolasi asosida ip-to'qimachilik sanoati rivojlangan. Biroq, ishlab chiqarilgan paxta tolasi ko'pincha O'zbekistonda qayta ishlanmagan holda eksport qilindi, bu esa mahalliy to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Paxta sanoati O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlagan bo'lsa-da, boshqa sanoat tarmoqlari uchun resurslar va investitsiya ajratishning cheklanganligi sababli paxtadan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga imkoniyatlar juda kam bo'ldi. Bunda paxta yetishtirishning ortiqcha yuklanishi va boshqa tarmoqlarning nisbatan zaif rivojlanishi kuzatilgan.

Kimyo sanoati, ayniqsa, o'g'itlar ishlab chiqarish va energetika tarmoqlarida muhim o'rin tutdi. Biroq, kimyo sanoatining ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilmasi nisbatan past bo'lib, ko'proq paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatladi. Shunday sharoitlarga qaramay o'zbek xalqi mehnatsevarligi tufayli ko'plab natijalarga erishildi. Misol uchun," Farg'ona kimyo tolasi zavodida 1986-yil uchun mehnat unumdorligi o'sishning 46% ni tashkil etdi" [5, 36-bet.]. O'zbek xalqi mirishkorligi taqsinga loyiq. Buni raqamlarda ko'rsatsam, - "1989-yil hisobotiga nisbatan o'sish sur'ati tovar mahsulotlari bo'yicha 108,3%, kimyoviy tolalar bo'yicha 101,1 % tashkil etdi" [6, 2-bet].

O'zbekistonning asosiy sanoat tarmoqlari paxta sanoati, kimyo sanoati, metallurgiya va mashinasozlik, energetika, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatiga asoslangan edi. Biroq, bu tarmoqlarning rivojlanishi ko'pincha markaziy boshqaruvning cheklovlari va resurslarni noto'g'ri taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan. O'zbekistonning quruq va yarim quruq iqlimi, shuningdek, suv resurslarining cheklanishi qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirishda asosiy to'siq bo'lib xizmat qilgan. Orol dengizining qurib borishi va sug'orish tizimi samaradorligining pasayishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sezilarli darajada kamaytirgan, bu esa oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining kamayishiga olib kelgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, masalan, oziq-ovqat, paxta va boshqa ekinlar yetishtirilsa ham, bu mahsulotlar asosan Sovet Ittifoqi markazlariga eksport qilingan. Bu esa O'zbekiston ichki iste'molining cheklanishiga olib keldi. Natijada, aholi talablarini to'liq qondira olmaydigan tizim yuzaga keldi.

Markaziy boshqaruv va iqtisodiy siyosatlarning qattiq nazorati sababli, O'zbekistonning ichki ehtiyojlariga nisbatan tashqi siyosatning ustunligi ko'pincha

mahsulotlar va tovarlarning yetishmasligiga olib kelgan. O'zbekistonning ta'minoti ko'pincha boshqaruv tizimining amaldagi siyosatlariga mos kelmagan.

Aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning narxi oshgani sayin, ular ko'proq ehtiyotkorlik bilan xarajat qilishga majbur bo'ldilar. Bu esa iste'mol darajasining yanada pasayishiga olib keldi, chunki narxlarning oshishi kam daromadli oilalarni yanada qiyin holatga solgan. Inflatsiya va narxlarning oshishi iste'mol darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Aholi faqat zarur ehtiyojlarga xarajat qilgan va yuqori narxlar ko'pchilik uchun tovarlarni sotib olishni yanada qiyinlashtirgan. "1990-yilda respublika aholisi 70 foiziga yaqinining jami daromadi tirikchilik o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham past edi. Ayni paytda Rossiya va Ukrainada aholining 30 foiziga yaqinigina shunday ahvolda kun kechirgandi. Mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash ham murakkab muammo bo'lib qoldi"[7.]. 1985-1991- yillarda O'zbekiston aholisining iste'mol darajasi va sanoat tovarlarining mavjudligiga daromad va iqtisodiy imkoniyatlar jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Daromadlarning pastligi, iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, iste'mol tovarlarining yetishmasligi va narxlarning oshishi aholi uchun iste'mol ehtiyojlarini qondirishda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Bu omillar birgalikda iste'mol darajasining pastligini saqlab turdi va aholining turmush sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Boshqaruv tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga emas, balki markazlashgan rejalashtirishni amalga oshirishga qaratilgan edi. Kolxozlardagi ishchilarga maoshlar va to'lovlar ko'pincha belgilangan vaqtda berilmagan. Mehnat haqi o'z vaqtida yoki to'liq to'lanmasligi holatlari mavjud bo'lgan. Bu esa ishchilarning moliyaviy muammolariga olib kelgan. Masalan, "Foyda yetarli bo'lmagani uchun iqtisodiy rag'batlantirish fondlariga badallar kiritilmadi" [8, 38-bet.]. O'zbekistondagi kolxozlarda ishlovchi dehqonlar va ishchilar o'z mehnatlari uchun ko'pincha past maosh olganlar, bu holat quyidagi omillar bilan bog'liq edi: Kolxozlarda ishlovchilar uchun to'lanadigan haq, ko'pincha past bo'lgan. Maoshlar ishlab chiqarish natijalariga qarab belgilanar edi, lekin ko'plab hollarda bu haq ishchilarning hayotiy ehtiyojlariga javob bermagan. Ko'pincha, haq to'lash ishning qiyinligi va uning davomiyligiga mos kelmagan. Bundan tashqari, O'zbekistonning sanoat mahsulotlari bilan ta'minlanishida ba'zi yutuqlar bo'lsa-da, davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatlar ko'proq markazlashtirilgan va qat'iy rejalashtirishga asoslangan bo'lib, shaxsiy tashabbuslar va yangi g'oyalar uchun cheklovlar mavjud edi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni kiritish va yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda katta muammolar bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Farg'ona viloyat davlat arxivi 2583 fond 1ro'yxat, 51-ish, 20-bet.

2.Farg'ona viloyat davlat arxivi 2583 fond 1ro'yxat, 53-ish, 18-bet.

3.Тухлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиѐти. –Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 1992. 125-бет

4.Farg'ona viloyat davlat arxivi 2583 fond 1ro'yxat, 61-ish, 103- bet.

5.Farg'ona viloyat davlat arxivi 2583 fond 1ro'yxat, 47-ish, 36- bet.

6. O'sha manba 2- bet

7. https://kompy.info/-qayta-qurish-davrida-aholi-turmush-tarzining-ogirlashuvi-reja.html?page=2.
8. Farg'ona viloyat davlat arxivi 2583 fond 1ro'yxat, 46-ish, 38- bet

MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARIDA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sherzod SALIMOV
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD)
sh-salimov@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada, farlararo yondashuv asosida mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik jarayonlari atroflicha o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, keyingi yillarda tashqi mehnat migratsiyasining samarali tizimini ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining huquqlari, mehnat sharoitlari, hayot tarzi kabi jiddiy masalalari bilan bog'liq holda muammolar doirasida tahlil etilgan.* ***Kalit so'zlar:*** *mehnat migratsiyasi, mehnat resurslari, BMT, XMT, noqonuniy migratsiya, jamg'arma.*

Аннотация. *В статье анализируются процессы взаимодействия международных организаций в правовом регулировании трудовой миграции на основе междисциплинарного подхода. Учитывая права и интересы граждан Республики Узбекистан, меры, принимаемые нашим государством в последующие годы для обеспечения эффективной системы внешней трудовой миграции, были проанализированы в рамках таких серьезных вопросов, как права трудовых мигрантов из Узбекистана, условия труда, образ жизни.* ***Ключевые слова:*** *трудовая миграция, трудовые ресурсы, ООН, МОТ, нелегальная миграция, сбережения.*

Annotation. *The article analyzes the processes of interaction of international organizations in the legal regulation of labor migration on the basis of an interdisciplinary approach. Taking into account the rights and interests of citizens of the Republic of Uzbekistan, the measures taken by our state in the following years to ensure an effective system of external labor migration were analyzed in the framework of such serious issues as the rights of labor migrants from Uzbekistan, working conditions, and lifestyle.* ***Keywords:*** *labor migration, labor resources, UN, ILO, illegal migration, savings.*

Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya masalasi tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning turli mamlakatlarida o'rtacha 232 million nafar migrant yashaydi. Ularning aksariyati sayyoramizning Shimoliy mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi [1, - B.1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda taxminan 281 million xalqaro migrant mavjud bo'lib, bu umumiy aholining 3,6 foizini tashkil etadi. Mojaro, zo'ravonlik, siyosiy yoki iqtisodiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va boshqa ofatlar tufayli o'z mamlakatlarini tark etayotganlar soni yanada ortib bormoqda. Biroq Jahon Banki ekspertlarining ta'kidlashicha, migratsiya farovonlik va

taraqqiyotning kuchli manbai bo‘lishi mumkin: agar to‘g‘ri boshqarilsa, u yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham foyda keltiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, pul o‘tkazmalari hajmi dunyo bo‘yicha 831 milliard dollarga yetdi, bu rivojlanayotgan mamlakatlarga berilayotgan rasmiy yordam va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmidan ancha ko‘pdir. O‘zbekiston bo‘yicha esa Markaziy bank ma’lumotlariga asosan, 2023 yilda iqtisodiyotga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 7,2 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsada, pul o‘tkazmalari hajmi 11,4 mlrd dollarga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar migratsiyaning mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlab, uning milliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va fuqarolar farovonligini yaxshilashdagi muxim o‘rnini ko‘rsatmoqda.

“World Migration Report 2024” hisobotiga asosan, migratsiya inson taraqqiyotiga yordam beradi, migrantlarga ham, ularning oilalariga ham foyda keltiradi, chunki migrantlarning xorijdagi daromadlari aksariyat hollarda o‘z vatanidagi daromadlaridan ancha yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, migrantlar ilm-fan, san’at va tadbirkorlikda asosiy o‘rinlarni egallab, jahon iqtisodiyoti va innovatsiyalarda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yosh ishchilarning migratsiyasi yuqori daromadli va aholisi qariyyotgan davlatlarning pensiya tizimlariga tushadigan yukni kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan bugungi kunga qadar qabul qilingan migratsiya borasidagi asosiy hujjatlar – xalqaro mehnat Tashkilotining 97 va 143-sonli konventsiyalari va 1990 yil 18 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 45/158 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining haq-huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi xalqaro konventsiyasi [2, - B. 2] mohiyatan noqonuniy yo'llar bilan migratsiya kirib borishning oldini olishga qaratilgan [3, - B.12.]. O'zbekiston Respublikasi XMT ning teng huquqli a'zosi sifatida o'zining 2014-2016 yillarga mo'ljallangan munosib mehnat bo'yicha dasturini qabul qilgan [4, - B.14.]. Ushbu dasturda ijtimoiy sheriklar – O'zbekiston Respublikasi hukumati, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va savdo-sanoat palatasining halqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikdagi maqsadi – mamalakatdagi barcha ayollar va erkaklarni munosib mehnat bilan ta'minlash ekanligi ko'rsatilgan.

Xususan, bugungi kunda O'zbekiston tomonidan XMTning 13 ta konventsiyasi ratifikasiya qilingan bo'lib, ularning ettitasi mazkur tashkilotning asosiy konventsiyasi va bittasi "bandlik sohasidagi siyosat to'g'risida"gi usutuvor ahamiyatga ega konventsiyalardir [5, - B.8.]. Shuningdek, O'zbekistonda XMTning majburiy mehnat masalalari bo'yicha 29 va 105-konventsiyalari, diskriminasiya to'g'risidagi 100 va 111-konventsiyalari, bolalar mehnati to'g'risidagi 138 va 182-konventsiyalari, bandlik siyosati to'g'risidagi 122 - konventsiyasi qabul qilgan [6, - B.6.]. Chunonchi, mamlakatmizda minimal yosh va bolalar mehnati bo'yicha konventsiyalarning qo'llanilishi bo'yicha Milliy faoliyat rajasi ishlab chiqilgan [7, - B.3.]. 2018 yil 27 noyabr kuni Birlashgan Millatlar tashkiloti migratsiya agentligi Kengashining Jeneva shahrida ochilgan 109-sessiyasida ovoz berish natijasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro migratsiya tashkilotiga 173 a'zosi bo'lib qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi "xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitusiyasini

ratifikasiya qilish to'g'risida"gi qonun 2018 yil 12 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 14 dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan. XMT Konstitusiyasida uning maqsad va vazifalari e'lon qilingan.

2018 yil 19 dekabr kuni Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan "mehnat migratsiyasi masalalari: xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti" mavzusida seminar tashkil etilib [8, - B.2.], 18 dekabr sanasi xalqaro migrantlar kuni deb nomlanishining sababi va ahamiyati haqida ham ishtirokchilarga tushuncha berildi. Ta'kidlanganidek, ushbu sananing belgilanish tarixi barcha mehnatkashlar va ularning oila a'zolari huquqlarining himoya qilinishi yuzasidan 1990 yil 18 dekabrda qabul qilingan xalqaro Konventsiya bilan bevosita bog'liq. Bu borada BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 4 dekabrdagi rezolyusiyasi ham qabul qilingan. Rezolyusiyaga ko'ra, butun dunyoda shu kuni seminarlar, davra suhbatlari, mehnat migrantlari bilan uchrashuvlar, ko'rgazmalar tashkil etilishi belgilangan [9, - B.1.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yil 26 dekabr kuni "xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitusiyasini ratifikasiya qilish to'g'risida"gi qonun imzolandi [10, - B.3.]. Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitusiyasini ratifikasiya qilish, mazkur tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekistonga bir qator huquqlardan foydalanishga imkon beradi. Jumladan, ovoz berish huquqidan foydalanish, Kengashda qaror qabul qilish va faoliyatida ishtirok etishga, joriy dasturlarda qatnashish yoki uning ehtiyoj va manfaatlariga doir ishlab chiqiladigan yangi loyihalarga o'z taklifini berishi va migratsiya bilan bog'liq dasturlarga xalqaro moliyaviy yordam olishi mumkin. Shuningdek, tashkilotning rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish huquqiga ham ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori imzolandi [11, - B.21.].

"Mazkur qaror bo'yicha Agentlik o'ziga yuklatilgan qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va O'zbekiston havo yo'llari" MAK vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga chiqayotgan fuqarolarga plaskart va umumiy vagonlarga temir yo'l chiptalari hamda iqtisodiy klass aviachiptalar narxlariga 20 foizgacha chegirma taqdim etadigan, temir yo'l va aviachipta xarid qilish xarajatlarini qisman qoplash uchun bir yilda bir marta 300 ming so'm miqdorida beg'araz to'lov amalga oshiriladigan bo'ldi. Imtiyozli biletlarni taqdim etish uchun barcha viloyatlarda va Toshkent shahrida hamda Qoraqalpog'istonda maxsus kassalar ish boshladi [12, - B.22.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyuldagi "tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ 3839 sonli qarori [3, - B.4.] bilan O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va mafaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi [14, - B.5.]. Qarorda belgilangan yana bir muhim jihat, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini

himoya qilish jamg'armasi tashkil etiladi. Jamg'arma daromadlari davlat byudjetidan ajratiladigan 200 milliard so'm miqdoridagi bir martalik beg'araz moliyaviy yordam orqali shakllantiriladi [15, - B.6.]. Bu borada ishlar davom etib, "xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida" Prezident farmoni imzolandi [16, - B.7.].

Migrantlarning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalanmaganligi

So‘nggi yillarda o‘zbekistonlik migrantlar Rossiyadagi hayoti va mehnat faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muammolarga tez-tez duch kelishmoqda. Eng keng tarqalgan qiyinchiliklar orasida ishchilarning ekspluatatsiyasi, tez-tez o‘tkaziladigan tekshiruvlar, maoshning to‘lanmasligi, me’yoriy ish vaqti rejimining buzilishi va boshqa mehnat huquqlarining buzilishi mavjud. Bu holatlar migrantlar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, ularga munosib va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish imkoniyatidan mahrum etadi.

2023 yilda Mehnat nizolarini hal etishga ko‘maklashish markazi tomonidan Rossiyadagi 400 ga yaqin O‘zbekiston fuqarosiga mehnat nizolarida bepul yuridik yordam ko‘rsatilib, ularga qiyin sharoitlarda o‘z huquqlarini himoya qilishda yordam berildi. Masalan, Volgograd viloyatidagi ish beruvchiga nisbatan O‘zbekiston fuqarolarining shikoyatlari o‘rganilganda, migrantlarning hujjatlarini musodara qilish, ish haqini to‘lashni kechiktirish va ish kunlarini haddan tashqari uzaytirish kabi qonunbuzarliklar ish beruvchi tomonidan sodir etilganligi aniqlangan.

Bunday holatlar nafaqat Volgograd viloyatida, balki Rossiyaning boshqa mintaqalarida ham kuzatilmoqda, bu esa migrantlar huquqlarini yanada samarali himoya qilish va mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda [18, - B.1.].

Til to‘sig‘i va malaka yetishmasligi ko‘pchilik migrantlarni past maoshli sohalarda ishlashga majbur qilmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan xorijda ro‘yxatga olingan mehnat muhojirlarining asosiy qismi qurilish sohasida vaqtinchalik ish bilan band (52,7 foiz). Shu bilan birga, malaka yetishmasligi migrantlarni axborot texnologiyalari, tibbiyot, muhandislik kabi yuqori maoshli sohalarda ishga joylashish imkoniyatlaridan mahrum qilmoqda.

Shuningdek, til to‘sig‘i sababli o‘zbekistonlik migrantlarning asosiy qismi ishlash uchun Rossiya va Qozog‘istonga ketmoqda. Tilni bilmaslik yaxshi yashash va ko‘proq daromad olish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan Yevropa va G‘arb mamlakatlariga mehnat migratsiyasi geografiyasini cheklamoqda. Masalan, Markaziy Osiyodan kelgan mehnat migrantining Moskvadagi o‘rtacha maoshi 54,5 ming rublni (taxminan $597 yoki 7,5 million so‘mni) tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi minimal oylik maosh esa Bolgariyada 399 yevroni, Lyuksemburgda esa 2387 yevroni tashkil etadi. Bu esa mehnat migrantlarining imkoniyatlarini kengaytirish va ularning daromadlarini oshirish uchun til bilishning muhimligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Noqonuniy migratsiya. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi xorijga chiqmoqchi bo‘lgan har bir kishiga qonuniy ish topish imkoniyatini yaratishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Qonuniy yo‘l topa olmagan muhojirlar

vositachilarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi, bu esa noqonuniy migratsiya, ekspluatatsiya va odam savdosi xavfini oshiradi. Yaxshiroq hayot izlab, ular boshqa mamlakatlarga yo‘l olishadi, ammo ko‘pincha og‘ir mehnat sharoitlari, majburiy mehnat, huquqlardan mahrum bo‘lish, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi kabi muammolarga duch kelishadi.


Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining sa’y-harakatlariga qaramay, 2023 yilda atigi 38,4 ming kishi (yoki jami chiqib ketgan migrantlarning 16,5 foizi) qonuniy ishga joylashish kanallaridan foydalangan, natijada 141 ta odam savdosi holati qayd etilgan bo‘lib, 193 nafar shaxs jabrlangan, bunda o‘zbekistonlik migrantlar asosan Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va BAA kabi davlatlarda ekspluatatsiyaga duch kelmoqda.

XMTning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020 yilda butun dunyo bo‘ylab migratsiya yo‘nalishlarida 4317 nafar muhojir halok bo‘lgan. 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli ikki barobarga oshib, 8565 nafarga yetdi. O‘zbekistonga kelsak, mas’ul vazirlik ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 2020 yilda xorijda yuz bergan baxtsiz hodisalar natijasida halok bo‘lgan 200 dan ortiq fuqarolarning jasadlari vatanga qaytarilgan. Migrantlar bilan bog‘liq eng fojiali hodisalardan biri 2018 yil 18 yanvar kuni Chimkent-Samara yo‘nalishida sodir bo‘lgan avtobusdagi yong‘in bo‘lib, natijada Rossiyaga ishlash uchun ketayotgan 52 nafar O‘zbekiston fuqarosi halok bo‘ldi. Bundan tashqari, 13 000 o‘zbekistonlik fuqarolar AQShga noqonuniy kirishga urinishda qo‘lga olinganligi kabi holatlar ham noqonuniy migratsiya muammosining avj olganligini va shoshilinch choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatmoqda [19, - B.1.].

Vaholanki, ishchi kuchining katta qismi yaxshi ish sharoitlari izlab xorijga migratsiya qilmoqda.

2023 yil dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistondan mehnat migranti sifatida ketganlarning soni ikki million kishini tashkil etdi: 1 452 300 erkak (72,4 foiz) va 547 700 ayol (27,6 foiz). 2023 yilda O‘zbekistonga qaytgan migrantlar soni 218,8 ming kishiga yetdi (2022 yilda 214,8 ming kishi), chiqib ketgan migrantlar soni esa 233,2 ming kishini tashkil etdi (2022 yilda 221,5 ming kishi).

O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyati Rossiya Federatsiyasida (1,2 million kishi yoki umumiy migrantlar sonining 60 foiz), undan keyin Qozog‘iston (191,8 ming kishi yoki 10 foiz), Turkiya Respublikasi (113,8 ming kishi yoki 6 foiz), Janubiy Koreya (68,1 ming kishi yoki 3 foiz) va boshqa mamlakatlarda (424,4 ming kishi yoki 21 foiz).



O‘zbekistonning xorijdagi mehnat migrantlari qurilish (52,7 foiz), sanoat (12,8%), xizmat ko‘rsatish (9,7 foiz), umumiy ovqatlanish (6,9 foiz), savdo-sotiq (6,7 foiz), transport (4,3 foiz), qishloq xo‘jaligi (4,1 foiz) va boshqa sohalarda (2,8 foiz) band [20, - B.1.].

Jahon banki tomonidan “O‘zbekiston fuqarolarini tinglab” loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mehnat migrantlari mavjud uy xo‘jaliklarining ulushi bugungi kunda qariyb 13 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 20 foizga yetgan. Shu bilan birga, Jahon banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, migratsiya aholining kam ta’minlangan qatlamlarida va qishloq joylarida istiqomat qiladigan uy xo‘jaliklarida keng tarqalgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-oktyabr oylari davomida O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 12,6 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga ko‘proqdir. Rossiyadan o‘tkazmalar 35 foizga oshib, 9,8 milliard dollarga yetdi, ammo uning ulushi 78 foizgacha kamaydi (Ukrainadagi mojaro boshlanishidan oldin bu ko‘rsatkich taxminan 90 foizni tashkil etardi). Qozog‘istondan 699 million dollar, AQShdan 470 million dollar (o‘sish 37 foizga), Janubiy Koreyadan 458 million dollar (+71 foiz), Turkiyadan 331 million dollar va Buyuk Britaniyadan 109 million dollar (+76 foiz) kelib tushgan.

Tadqiqot tahlilidan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Mazkur sohani rivojlantirish "ishchi kuchini eksport qilish" ni cheklash yoki aksincha rag'batlantirish degani emas, balki bundan ko'zlangan yagona maqsad chet elda ham fuqarolarimizning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, yurtimizda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qulay hukukiy mehnat yaratish maqsadida davlat mexanizmlarining samarali faoliyat ko'rsatishini yanada takomillashtirish;

- Ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish lozim. Ayniqsa yoshlarda bu masalaga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirish;

- Xususiy bandlik agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolarni tashkillashtirilgan holda jalb etishni mehnat migrasiyasining ustun shakli sifatida rivojlantirish, xususiy bandlik agentliklari faoliyatini monitoring va risk-tahlil qilish vositalarini kuchaytirish talab qilinadi;

- O'zbekiston bilan rivojlangan davlatlar o'rtasida migrasion siyosat, ayniqsa, mehnat migrasiyasi bilan bog'liq shartnomalarni ratifikasiya qilish;

- Migrasiya jarayonlarini davlat tomonidan boshqarishni huquqiy tartibga solish bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan barcha huquqiy institutlarni birlashtiradigan O'zbekiston Respublikasi migrasiya kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi migrasion aloqalar ichki migrasiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublika mehnat resurslari miqdorining o'sib borishi tashqi mehnat migrasiyasini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Меҳнат миграцияси: Халқаро тажриба ва Ўзбекистон амалиёти.19.12.2018. https://meningfikrim.uz/uz/news/view/253
2. Қодирова З.А. Ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатларда меҳнат миграциясининг халқаро миқёсда тартибга солиниши. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар » илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2015.
3. Муйдинов Д.Н. Ҳозирги замон миграцион жараёнларнинг жамият барқарорлигига таъсири (Германия Федератив Республикаси мисолида). Сиёс. фан. фалс. докт. (PhD) автореф. дисс. .....–Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2019. -14-бет.
4. Программа по достойному труду Республики Узбекистан на 2014-2016 годы // https://www.ilo.org/global/lan
5. Қодирова З.А. Ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатларда меҳнат миграциясининг халқаро миқёсда тартибга солиниши. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар » илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2015. –Б. 8.
6. Promoting decent work in Eastern Europe and Central Asia.ILO.P.26. 2012
7. Программа по достойному труду Республики Узбекистан на 2014-2016.
8. Меҳнат миграцияси: Халқаро тажриба ва Ўзбекистон амалиёти. http://parliament.gov.uz/uz/events/committe
9. Меҳнат миграцияси: Халқаро тажриба ва Ўзбекистон амалиёти. http://parliament.gov.uz/uz/events/committe
10. Халқаро миграция ташкилоти конституциясини ратификация қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Халқ сўзи, № 268 (7196) 27/12/2018.
11. Меҳнат мигрантлари муаммолари қандай ҳал этилмоқда ?. 30.04.2018, Жамият
12. Меҳнат мигрантлари муаммолари қандай ҳал этилмоқда ?. 30.04.2018, Жамият
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.07.2018 йилдаги “Ташқи меҳнат миграцияси тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ -3839 сонли қарори. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasining-tash-i-me-nat-migratsiya-tizimini-05-07-2018
14. Муродалиева Г. “Biznes Daily”. Глобал миграция: тўкин ҳаёт ва даромад илинжида. 20.07.2018. http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/59344--global-migratsiya-tukin-hayot-va-daromad-iljida
15. Меҳнат мигрантларига уй берилади. https://kun.uz/21784370
16. Ўзбекистонда илк бор мигрантларни ҳуқуқий, молиявий ва моддий қўллаб-қувватлаш воситалари яратилмоқда.19.09.2019.http://uza.uz/oz/society/zbekistonda-ilk-bor-migrantlarni-u-u-iy-moliyaviy-va-moddiy--19-092019?sphrase_id=6848769
17. Ўзбекистонда илк бор мигрантларни ҳуқуқий, молиявий ва моддий қўллаб-қувватлаш воситалари яратилмоқда. 19.09.2019. http://uza.uz/oz/society/zbekistonda-ilk-bor-migrantlarni-u-u-iy-moliyaviy-va-

moddiy--19-09-2019?sphrase_id=6848769.
18. Mehnat migratsiyasi: joriy holat, muammolar va takliflar. https://m.kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar
19. Mehnat migratsiyasi: joriy holat, muammolar va takliflar. https://m.kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar
20. Mehnat migratsiyasi: joriy holat, muammolar va takliflar. https://m.kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar

O‘ZBEKISTON PARASPORTCHILARINING “MATONAT MAKTABLARI” TASHKIL ETILISHI TARIXI

Shoira XAMIDOVA
O‘zFA Tarix instituti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston parasportchilarining “Matonat maktablari” ni tashkil etish to‘g‘risidagi Prezident qarori, uning ijrosi va maktabning asosiy vazifalari hamda faoliyati haqida bayon qilingan. Shuningdek, Matonat maktabining amaliy ahamiyati va undagi a’zolarga oid ma’lumotlar ham yoritilgan.* ***Kalit so‘zlar.*** *Matonat maktabi, Temurbeklar maktabi, London-2012, Rio-2026, Tokio-2020, Parij-2024, harbiy-sport, Paralimpiya harakati, paralimpiyachilar bog‘i, para dyuzdo, para paurlifting.*

Анотация. *В статье описывается указ Президента о создании “Школы выносливости” для узбекских параспортсменов, ход его реализации, а также основные задачи и направления деятельности школы. Также освещается практическое значение школы стойкости и информация о ее членах.* ***Ключевые слова.*** *Школа стойкости, школа Темурбек, Лондон-2012, Рио-2026, Токио-2020, Париж-2024, военно-спортивные состязания, паралимпийское движение, Паралимпийский парк, парадзюдо, парапауэрлифтинг.*

Annotation. *This article describes the Presidential decree on the establishment of the "Schools of courage" of Uzbek paraathletes, its implementation, and the main tasks and activities of the school. The practical significance of the school of courage and information about its members are also covered.* ***Keywords.*** *School of courage, Temurbek’s School, London-2012, Rio-2026, Tokyo-2020, Paris-2024, military sports, paralympic movement, paralympic park, para judo, para paurlifting.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda paralimpiya sportini rivojlantirish va parasport turlarini keng targ‘ib qilish maqsadida, hukumat miqyosida muhim qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2022-yil 6-iyundagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi qarori, soha vakillari tomonidan katta xursandchilik ila kutib olindi. Chunki, mazkur qaror parasportchilarga bo‘lgan e’tibor va ishonchning yana bir ko‘rinishi edi. Unga ko‘ra, Matonat maktabining asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, avvalo, yoshlar, xususan, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning qo‘lga kiritgan yutuqlari, ularning ibratli hayot

tarzini targ‘ib etish maqsadida, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil qilib, paralimpiyachilarning o‘z hayot yo‘llarida qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tganliklari haqida suhbatlar o‘tkazish, imkoniyati cheklangan insonlarni parasport turlariga keng jalb etish, shuningdek “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini targ‘ib etish nazarda tutilgan.

Yurtboshimiz, XVI paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan parasportchilar va ularning murabbiylari bilan uchrashuv chog‘ida Matonat maktabini tashkil qilish haqidagi taklifni ilgari surgan edilar. Shuningdek, “Afsuski, hozirgi vaqtda yoshlar orasida hayotda ozgina to‘siq va qiyinchilikka uchrasa, o‘zini yo‘qotib, umidsizlikka tushib qoladigan, nojo‘ya yo‘llarga kirib ketadigan, yigit-qizlar ham yo‘q emas. Sizlar yoshlar bilan uchrashib, o‘z hayotingiz, sportdagi mashaqqatli yo‘lingiz, qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tayotganingiz haqida so‘zlab bersangiz, ular albatta sizlarga ergashadi”- deya ta’kidlagan edi prezident, parasportchilarga qarata o‘z nutqida. Tez orada, maktabni tashkil etishdagi amaliy ishlar boshlanib ketdi.

Darhaqiqat, yuqoridagi vazifalar ko‘lami tahlil etilsa, jamiyatdagi yoshlar, ayniqsa imkoniyati cheklanganlarga, uzoq yillar mobaynida, halol mehnati va zahmati, shuningdek cheklanganligiga qaramay, yuqori natijalarni qayd etib, O‘zbekiston nomini dunyoga tanitgan parasportchilarni na’muna sifatida ko‘rsatish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda qat’iyat, intizom, mehnatashlik va vatanparvarlik hislatlarini oshirish maqsad qilingan. Va bu iahlarni amaliy ravishda, ochiq muloqot, uchrashuvlar, savol-javoblar ko‘rinishida olib borish esa, yanada maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.

Matonat maktabi Milliy Paralimpiya qo‘mitasi huzurida tashkil etilib, qo‘mita raisi bir vaqtning o‘zida Matonat maktabi rahbari ham hisoblanadi. 2023-yil 15-iyundan Matonat maktabi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tarkibiga o‘tkazish hamda paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxasislarni tayyorlash institutining faoliyatini hamkorlikda muvofiqlashtirish takliflari maqullangan. [2] Matonat maktabining binosi Toshkent shahri, Beshyog‘och ko‘chasi, 126-uy manzilida joylashtirilishi, maktab hududiga borib kelish va tadbirlarda foydalanish uchun bitta yengil aftomobil va bitta aftobus tashkil qilish, maktab faoliyatini moliyalashtirish manbalari Davlat budjeti mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarhisobidan ekanligi belgilangan.[3]

Matonat maktabining moliyalashtirilishi va faoliyatini doimiy takomillashtirib borilishi tizim uchun muhim islohotlardan biridir. Ma’sullar belgilanishi esa, vazifalarning aniq va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi.

Shavkat Miromonovichning 270-sonli ushbu qarorida, alohida belgilab berilgan boshqa masalalar ham o‘z aksini topgan bo‘lib, Paralimpiyachilarning Matonat maktablari faoliyatini samarali yuritish maqsadida bir qator vazirlik va tashkilotlarga ham vazifalar yuklatilgan. Jumladan, Mudofaa vazirligiga: yoshlarning, ayniqsa imkoniyati cheklanganlarning ong-u shuuriga vatan himoyasi muqaddas ekanligi, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish, ma’suliyat tuyg‘usini singdirish, va bu jarayonni paralimpiyachilarni harbiy qismlarga ekskursiya va amaliy tashriflar orqali olib borish kerakligi ta’kidlangan. Vatan ozodligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning ibratli hayot yo‘lini targ‘ib etish asosida yoshlarda “Yangi

O‘zbekiston - yangi g‘alabalar sari” nomli hayotiy e’tiqodni qaror toptirish zarurligini anglatish borasidagi tadbirlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Milliy gvardiyaga esa, terrorizmga qarshi kurashda hamda terrorchilik harakatlarining oqibatlarini bartaraf qilishda ishtirok etib, mardonavor halok bo‘lgan askarlarning ibratli hayotini targ‘ib qilish, yoshlarning, xususan paralimpiyachilarning vatanparvarligini oshirish maqsadida, Temurbeklar maktabi, oliy harbiy ta’lim muassasalariga amaliy tashriflari va “Mard o‘g‘lon” mukofotini olgan insonlar bilan uchrashuvlari, shuningdek, “Temurbek vorislari” harbiy-sport o‘yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etish ishlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni jalb etish masalalari yuklatilgan.

Sanab o‘tilgan misollardan shuni anglash mumkinki, paralimpiyachilarning Matonat maktablarini tashkil etishda, avvalo ularda vatanga muhabbat, m’asuliyat, yurt oldidagi burch kabi muqaddas tamoyillarni singdirish orqali, ulardagi azm-u shijoatni yanada oshirish, g‘alaba chanqog‘i va unga qadar zahmatli yo‘lni bosib o‘tishdagi mardonavorlikni oshirish reja qilingan.

Amaliy tashriflar, uchrashuv va suhbatlar sanoqli insonlarni qamrab olsa, ommaviy-axborot vositalaridagi, jumladan, kino san’ati va kinofilmlar keng ko‘lamdagi tashviqot ishlariga sabab bo‘lishi, barcha zamonlarda o‘zini oqlagan misollardan biri hisoblanadi. Shu jihatdab kelib chiqib, paralimpiyachilarining Matonat maktablari va ularning a’zolarini na’muna qilib, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ibotni o‘zida aks ettiruvchi maxsus filmlar, hamda, yurtimizda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, ilmiy islohotlarda dahldorlik hissini uyg‘otish kabi masalalarni namoyon qiluvchi ijtimoiy foydali, ibratli, hayotiy videoroliklar tayyorlash O‘zbekiston Kinomotografiya agentligiga topshirilgan.

Bu kabi toshiriqlar, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, Yoshlar agentligi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Nuroniy jamg‘armasi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Milliy axborot agentliklariga ham bir qator vazifalar yuklatilgan. Jismoniya imkoniyati cheklansa-da, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohasida katta yutuqlarga erishib kelayotgan insonlarni na’muna qilib, publisistik asarlar, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy roliklar va hujjatli filmlar yaratish ta’kidlangan.[4]

Toshkent shahri A.Qodiriy ko‘chasida joylashgan piyodalar yurish va dam olish maskanida “Paralimpiyachilar bog‘i”ni tashkil qilish, Toshkent mitropolitenining yangi qurilayogan bekatiga “Paralimpiya harakati” nomini berish, shunigdek, 2023-yildan boshlab har yili “Paralimpiyachilar matonati” xalqaro forumi o‘tkazilishi, Matonat maktabining vazirlik va tshkilotlar bilan hamkorlikda, sport targ‘ibotlari va tadbirlarini amlga oshirishda keng hamkorligi ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan. Paralimpya o‘yinlarida g‘olib bo‘lgan va sovrindor sportchilarning ta’lim olgan muassasalarida “Matonatli sportchilarimiz - faxrimiz” xonalarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.[5]

O‘zbekistonda Matonat maktabining ahamiyati va o‘rni yuqori bo‘lib, uning tarkibiga har bir parasportchi a’zo bo‘lib kirishni istaydi. Chunki, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Matonat maktablarimiz - jahon tajriba olishga arzigulik tashkilotdir.

Maktab a’zoligiga bugungi kunga qadar, jami 20 nafar parasportchilar qabul qilingan [6] bo‘lib, ularning barchasi paralimpiya va paraosiyo o‘yinlarining g‘olib va go‘libalaridir. Ko‘plab oltin, kumush va bronza medallarni qo‘lga kiritib, yurtimiz nomini dunyoga tanitgan vakillarimiz hisoblanadi. Jumladan, Matonat maktabining a’zosi, para yengil atletika bo‘yicha, Rio - 2016 o‘yinlari 1-o‘rin, Tokio -2020 musobaqalari 1- o‘rin sohibi, samarqandlik parasporchi - Xusniddin Norbekovdir. Parasportchining ta’lim olgan muassasasi: Toshkent shahar, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida “Matonatli paralimpiyachilarimiz- faxrimiz” xonasi tashkil qilingan. Doniyor Saliyev - Rio - 2016 musobaqalari 3-o‘rin sohibi, ta’lim olgan muassasi: Toshkent shahar, Yashnobod tumani, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati. Nozima Qayumova - Rio -2016, Tokio-2020 para o‘yinlari 1-o‘rin sohibasi. Ta’lim olgan muassasai: Toshkent shahar, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi.

Sofiya Burxonova - Rio -2016 o‘yinlarida 2-o‘rin, Tokio-2020 para musobaqalar 1-o‘rinni qo‘ga kiritgan. Ta’lim olgan muassasi: Toshkent shahar, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi. Navbatdagi maktab a’zosi – Boburjon Omonovdir. Boburjon Omonov Tokio-2020 o‘yinlarida yadro uloqtirish bo‘yicha rekord o‘rnatgan bo‘lsa, Parij-2024 musobaqalari o‘zi o‘rnatgan rekordni qaytadan yangilaydi. Bu kabi g‘alabalar sport tarixida kam uchraydigan holatdir. Parasportchining ta’lim olgan muassasasi: Andijon viloyati, Marhamat tumani 39-maktabda “Matonatli paralimpiyachilarimiz - faxrimiz” xonasi tashkil qilingan. Bu xona yoshlarga, oldinga intilish. G‘alabaga ishonch, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida ibrat va motivatsiya bermoqda.

Matonat maktabining yana bir a’zosi - Elbek Sultonov bo‘lib, Tokio o‘yinlarida 3-o‘rinni egallagan parasportchi. Toshkent shahar, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida o‘qigan. Mohigul Hamdamova - farg‘onalik parasportchi, Tokio o‘yinlari 3-o‘rin sohibasi. Ta’lim olgan muassasasi: Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumani. 35-umumta’lim maktabi. Nurxon Qurbonova – yadro uloqtirish, nayza otish bo‘yicha Tokoi-2020 para musobaqalar 2- va 3-o‘rin sohibasi. Namangan viloyati, Mingbuloq tumani, 3-umumta’lim maktabida tahsil olgan. Asila Mirzayorova - qashqadaryolik parasportchi, Tokio o‘yinlarida 2-o‘rinni qayd etgan bo‘lsa, Parij-2024 paralimpiya o‘yinlarida uzunlikka sakrash bo‘yicha mutlaq jahon rekordini o‘rnatib, oltin medalni qo‘lga kiritgan. Ta’lim olgan muassasasi: Qarshi shahar, 25-umumtalim maktabi. [7]

O‘zbekiston paralimpiyachilarining Matonat maktabi, parasportning para suzish turi bo‘yicha a’zosi - Islam Aslanov. Parasportchi Tokio -2020 musobaqalarida 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Toshkent shahar, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida o‘qigan. Firdavsbek Musabekov - andijonlik parasportchi. Rio -2016 paramusobaqalarning 1-o‘rin sohibi. Andijon shahar olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o‘qigan. Muzaffafr Tursunxo‘jayev - 20 m erkin va batterfley turi bo‘yicha 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Ta’lim olgan muassasasi: Andijon shahar olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi. Pankov Krill - Rio 2016 o‘yinlari 2-o‘rinni egallagan. Respublika olipiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida tahsil olgan. Muslima

Odilova - Rio - 2016 musobaqalarning 2-o‘rin sohibasi. Andijon viloyati, Andijon shahar, 41-umumta’lim maktabida o‘qigan. Matonat maktabining para o‘q otish turi bo‘yicha Rio-2016 3-o‘rinni egallagan, Navoiy viloyati, Guliston shahar, 2-umumta’lim maktabida tahsil olgan. Para taekvondo bo‘yicha Matonat maktabi a’zosi: Guljanoy Naimova - Tokio -2020 musobaqalarida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 3-umumta’lim maktabida o‘qigan. Para paurlifting turidan maktab a’zosi: Ro‘za Qo‘ziyeva - Tokio -2020 o‘yinlari 2-o‘rin sohibasi. Toshkent shahar, Olmazor tumani, 100-sonli tayanch harakat a’zolari shikastlangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida tahsil olgan. Para dyuzdo bo‘yicha maktab a’zolari: Sharif Xalilov - buxorolik parasportchi. London - 2012 musobaqalrda 2-o‘rin, Tokio -2020 musobaqalari 3-o‘rin sohibi. Buxoro shahar olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o‘qigan. Dovurxon Karomatov - namanganlik parasportchi, Tokio o‘yinlari 2-o‘rin sovrindori. Tahsil olgan muassasasi: Respublika olipiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi. Sherzod Namozov - Rio 2016 musobaqalari 1-o‘rin g‘olibi. Buxoro shahar olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida tahsil olgan.

Paralimpiyachilarning Matonat maktabi ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari hamda mahallalarda jismoniy imkoniyati cheklangan parasportchilarning faoliyati va qo‘lga kiritgan yutuqlaridan so‘zlovchi, ibratli hayot yo‘lini targ‘ib qiluvchi namuna maktabidir.[8]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston prezidenti taklifi bilan amalga oshirilgan “Matonat maktablari”ni tashkil qilish g‘oyasi, haqiqatda chuqur o‘ylangan, ham davlat uchun, ham jamiyat uchun manfaatli va ibratli loyiha bo‘ldi. Ayniqsa, bu tadbirlarda parasportchilarning namunasi yanada maqsadga muvofiq bo‘lib, belgilangan barcha vazifalar bugungi kunga qadar o‘z aksini topib, o‘zining hayotiy natijalarini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//lex.uz. 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya Milliy agentligi joriy arxiv ma’lumotlari. 2025-yil.
3. “Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”//Xalq so‘zi gazetasi. №117.(8179)2022. 5-b.
4. https://www.xabar.uz/uz/sport/paralimpiya-qo‘mitasi-tarkibida-yangi-maktab-tashkil-etiladi
5. “Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”//Xalq so‘zi gazetasi. №117.(8179)2022. 5-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligining joriy arxiv ma’lumotlari. 2025-yil.
7. O‘zbekiston Milliy Paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi “Matonat maktabi” ning joriy arxiv ma’lumotlari. 2023-yil.
8. “Matonat maktabi - orzu-istaklar ro‘yobi” Muxtorxon Toshxo‘jayev. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi raisi.

O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSIY YO‘NALISHLARIDA G‘ARBIY YEVROPANING O‘RNI

Iroda HIKMATOVA
Oriental universiteti, tarix mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
irodasamadova765@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 1991–2021-yillar davomida G‘arbiy Yevropa davlatlari, jumladan Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniya bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy sohalardagi hamkorlik aloqalarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Evropa integrasiyasi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, va global muammolarga O‘zbekistonning munosabati o‘rganilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy manfaatlar uyg'unligidagi tashqi siyosiy strategik yondashuvlar tahlil qilingan.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, G‘arbiy Yevropa, tashqi siyosat, Yevropa Ittifoqi, diplomatik aloqalar, xalqaro hamkorlik, madaniy almashinuv, iqtisodiy integratsiya, YUNESKO, BMT, global xavfsizlik, ilmiy-texnik hamkorlik, siyosiy.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы процессы становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан в политической, экономической, культурной и научно-технической сферах с западноевропейскими государствами, включая Германию, Францию, Великобританию, Италию и Испанию, на протяжении 1991-2021 годов. Европейская интеграция, сотрудничество с международными организациями, и отношение Узбекистана к глобальным проблемам изучены. В статье анализируются внешнеполитические стратегические подходы в сочетании международного опыта и национальных интересов.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан, Западная Европа, внешняя политика, Европейский союз, дипломатические отношения, международное сотрудничество, культурный обмен, экономическая интеграция, ЮНЕСКО, ООН, глобальная безопасность, научно-техническое сотрудничество, политическая.*

Annotation: *this article analyzes the processes of formation and development of cooperation relations of the Republic of Uzbekistan in the political, economic, cultural and scientific and technical spheres with Western European countries, including Germany, France, Great Britain, Italy and Spain during 1991-2021. European integration, cooperation with international organizations, and Uzbekistan's attitude to global problems have been studied. The article analyzes foreign political strategic approaches in the harmony of international experience and national interests.* ***Keywords:*** *Uzbekistan, Western Europe, Foreign Policy, European Union, diplomatic relations, international cooperation, cultural exchange, economic integration, UNESCO, UN, global Security, scientific and technical cooperation, political.*

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash, global va mintaqaviy jarayonlarda faol ishtirok etish, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratdi. Shu jumladan, G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlar ham mamlakatning tashqi siyosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida xalqaro hamkorlikning teng huquqlilik va o‘zaro manfaat tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlar ko‘p qirrali yo‘nalishlarni qamrab oldi. BMT, YXHT va YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik ham ushbu munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlaridanoq

xalqaro hamjamiyatga teng huquqli va to‘laqonli a’zo sifatida kirishga intilib kelmoqda. Mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu — G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan o‘zaro manfaatli, barqaror va ko‘p qirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir[1].

Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqa Yevropa davlatlari bilan savdo, investisiya, ta’lim, madaniyat va fan sohasidagi hamkorliklar amaliy loyihalar, grant dasturlari va ilmiy almashinuvlar orqali mustahkamlandi. Ayniqsa, GIZ (Germaniya), British Council (Buyuk Britaniya) va Campus France (Fransiya) kabi tashkilotlar o‘zbekiston bilan ta’lim sohasida keng qamrovli loyihalarni amalga oshirdi. G‘arbiy Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniya dunyo siyosiy va iqtisodiy jarayonlarida etakchi o‘rin tutadigan mamlakatlardir. Ushbu davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida muhim ahamiyat kasb etdi[2]. Bu hamkorlik nafaqat ikki tomonlama diplomatik aloqalarni, balki ko‘p tomonlama mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasidagi munosabatlarni ham qamrab oldi. 1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa davlatlari o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi xalqaro hamkorlikning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qildi. Masalan, Germaniya bilan siyosiy, iqtisodiy va ta’lim sohalarida strategik hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Fransiya bilan madaniyat va fan sohalarida almashinuvlar faollashdi. Buyuk Britaniya orqali esa O‘zbekiston xalqaro siyosiy maydonda o‘z pozisiyasini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy yo‘nalishlarida G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan hamkorlik masalasi so‘pdgi o‘n yilliklarda milliy va xalqaro tarixshunoslikning dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Mavzuni yoritishda nafaqat milliy, balki xalqaro tadqiqotchilarning ham ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. S.Sh. Sharapova, A.G. Xolliyev, E.Z. Nuriddinov kabi milliy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan monografiyalar va maqolalar bu yo‘nalishda ilmiy tahlilni yanada chuqurlashtirgan. Masalan, E.Z. Nuriddinovning “O‘zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorliklari” nomli monografiyasida O‘zbekiston–Yevropa munosabatlarining barcha sohalari qamrab olingan, diplomatik munosabatlardan tortib, iqtisodiy va madaniy hamkorlikkacha tahlil qilingan[3]. Xalqaro mualliflardan M. Yu. Tixomirov, L. Keren, F. Mayor kabi olimlar asarlarida ham Yevropa mamlakatlarining Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston bilan munosabatlari umumiy kontekstda yoritilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo uchun qabul qilgan 2007, 2019 va 2021 yillardagi strategiyalari siyosiy, iqtisodiy va ekologik sohalardagi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab bergan. EEAS (European External Action Service) manbalarida bu jarayonlar rasmiy bayonot va tahlillar orqali berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan chop etilgan yillik sharhlar, saytidagi tahliliy materiallar, hamda "O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi" (2012, 2018, 2023) kabi hujjatlar mamlakat tashqi siyosatining normativ-huquqiy asoslarini beradi. Ularda Yevropa bilan hamkorlik ustuvor yo‘nalish sifatida alohida ko‘rsatilgan[4]. YUNESKO, ETTB, EI kabi xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston bilan amalga oshirgan loyihalari haqidagi hisobot va tahliliy hujjatlar ham ilmiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular asosida madaniy, ta’lim, fan va ekologiya sohalaridagi

hamkorlikning dinamikasi tahlil qilinishi mumkin. O‘zbekiston tashqi siyosatining G‘arbiy Yevropaga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlaridan biri - inson huquqlari, demokratiya, fuqarolik jamiyati, ta’lim, madaniyat va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi hamkorlikdir. Bu sohalarda Yevropa Ittifoqi bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar mamlakatning global muammolarga bo‘lgan yondashuvini amaliy jihatdan ham ko‘rsatib bermoqda[5].

Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik ham mustahkamlanib bordi. O‘zbekistonga Yevropa davlatlaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiyalar oqimi ortib, savdo aylanmasi kengaydi. Yevropa investisiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi moliyaviy tuzilmalar orqali qishloq xo‘jaligi, sanoat va infratuzilma sohalarida yirik loyihalar moliyalashtirildi. G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalardagi yana bir muhim yo‘nalish — madaniy va ilmiy hamkorlik bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab O‘zbekiston talabalari Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ta’lim olmoqda. YUNESKO bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan loyihalar O‘zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda[6]. Shuningdek, 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan “harakatlar strategiyasi” va keyingi “O‘zbekiston–2030” strategiyasida G‘arbiy Yevropa bilan aloqalarni yanada kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Prezident Sh.M. Mirziyoevning Yevropa mamlakatlariga rasmiy tashriflari davomida imzolangan kelishuvlar bu sohadagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalarni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllantirgan. Bu siyosat nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga asoslangan, balki madaniy, ta’lim, fan va xavfsizlik sohalarini ham qamrab olgan.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi strategik hamkorlik doirasida 1996-yildan buyon bir qator kelishuvlar va harakat dasturlari amalga oshirilgan. 2007, 2019 va 2021 yillarda qabul qilingan EIning Markaziy Osiyo strategiyalari bu munosabatlarning institusional asoslarini mustahkamlagan. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiya, texnologiya transferi va savdo aloqalari kengayib bormoqda. Ayniqsa, Yevropa investisiya banki va ETTB orqali moliyalashtirilgan loyihalar infratuzilma va sanoat rivojiga hissa qo‘shgan. G‘arbiy Yevropa bilan madaniy hamkorlik doirasida YUNESKO loyihalari, o‘zaro ko‘rgazmalar, ta’lim almashinuv dasturlari, hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa "yumshoq kuch" orqali O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlamoqda[7].

YXHT, BMT va boshqa tashkilotlar doirasida Yevropaning etakchi davlatlari bilan mintaqaviy barqarorlik, terrorizmga qarshi kurash, inson huquqlari va ekologik muammolardagi hamkorlik mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari – suverenitet, tinchlikparvarlik, teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik — G‘arbiy Yevropa bilan munosabatlarda ham o‘z aksini topmoqda. Shu tariqa, G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan o‘zaro aloqalar O‘zbekiston tashqi siyosiy yo‘nalishining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu aloqalar nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki siyosiy barqarorlik va madaniy yaqinlikni ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham Yevropa

bilan yaqin va uzviy aloqalar O‘zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasining G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan tashqi siyosiy aloqalari mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan bo‘lib, bugungi kunga kelib ko‘p qirrali va strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik bir nechta omillar va xalqaro voqeliklar ta’sirida shakllanib, murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Avvalo, G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlar O‘zbekistonning tashqi siyosatda mustaqil, pragmatik va muvozanatli yo‘l tutganini ko‘rsatadi[10]. BMT, EI, YXHT va YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlardagi faol ishtirok, inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasi, ta’lim va fan sohalaridagi aloqalar bunga yaqqol misoldir. Bu jarayonlarda o‘zbekiston nafaqat donor yoki resipiyent sifatida, balki to‘laqonli xalqaro hamkor sifatida ishtirok etib kelmoqda. Ikkinchidan, Yevropaning etakchi mamlakatlari bilan hamkorlik nafaqat diplomatik darajada, balki amaliy iqtisodiy va madaniy loyihalar orqali rivojlangani diqqatga sazovor. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar bilan investisiya, texnologik modernizasiya va inson kapitali rivojiga qaratilgan dasturlar O‘zbekistondagi islohotlar jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda[8].

Shu bilan birga, mazkur hamkorlikda ma’lum muammolar va cheklovlar ham mavjud. Jumladan, iqtisodiy manfaatlarning muvofiqlashuvi, viza tizimining murakkabligi, ba’zi hollarda inson huquqlari va demokratiya masalalari bo‘yicha qarashlar xilma-xilligi turli kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan. Ammo so‘nggi yillardagi ochiq va pragmatik siyosat, xususan Prezident Sh.M. Mirziyoevning tashabbuslari bu muammolarni iloji boricha konstruktiv yo‘l bilan hal etishga qaratilganini ko‘rsatadi[9].

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga qaratilgan yangi strategiyalari, xususan, "Team Europe" platformasi orqali O‘zbekiston bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, mamlakat tashqi siyosiy manfaatlariga mos keladi. Hozirda O‘zbekiston G‘arbiy Yevropa bilan munosabatlarda yangi bosqichga ko‘tarilayotgani, xususan "O‘zbekiston–2030" strategiyasidagi xalqaro hamkorlik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani buni tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, Yevropa davlatlari bilan munosabatlar O‘zbekistonning tashqi siyosatida nafaqat muvaffaqiyatli, balki uzoq muddatli va barqaror hamkorlik modeli sifatida qaralmoqda.

1991-2021-yillar davomida O‘zbekistonning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlari barqaror rivojlandi va yangi bosqichlarga ko‘tarildi. Xususan, siyosiy suhbatlar, madaniy loyihalar, investisiya kelishuvlari va ta’lim sohasidagi hamkorliklar mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutdi. Kelgusida ushbu munosabatlarning rivoji uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Innovasion sohalarda (yashil energetika, raqamli texnologiyalar) hamkorlikni kuchaytirish;

Ta’lim va fan sohasida qo‘shma dasturlarni kengaytirish;

G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni davlat va nodavlat darajasida kengaytirish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha davlat dasturi. 2017.
2. Nuriddinov E.Z. O‘zbekistonning Yevropa davlatlari bilan hamkorligi: tarix va istiqbol. Toshkent: 2019.
3. Sharapova S.Sh. Xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston tashqi siyosatining madaniy yo‘nalishi. Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
4. European External Action Service. EU Strategy on Central Asia. Brussels: EEAS official website. 2021.
5. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. 2020. Uzbekistan’s Foreign Policy Review. UNESCO. Partnership with Uzbekistan. 1995.
6. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Qonun hujjatlari to‘plami, 2012-yil.
7. Ильмуродова Ф. The foundation of the era of awakening in Central Asia: alchemy, succession and historicism // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 213-216.
8. Shokirovna I. F. Trends in the Formation and Development of Professional Competences of a Future History Teacher // World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.
9. Ilmurodova F. S. Pedagogical and methodological aspects in preparing future history teachers for professional activity // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 263-270.

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО И КУЛЬТУРНО-ГУМАНИТАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА С ВЕНГРИЕЙ

Зохид РАХМАТУЛЛАЕВ
Магистрант 2-го курса факультета Истории Восточного университета
zohidrakhmatullayev@gmail.com

Anotatsiya: *O‘zbekiston Sharqiy Yevropa davlatlari bilan har tomonlama va o‘zaro manfaatli hamkorlikka katta ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari savdo-sotiqni rivojlantirish, investitsiya va moliyalashtirish, zamonaviy texnologiyalar transferi, fan, texnika, ta’lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik sohalarini qamrab oladi. O‘zbekiston Sharqiy Yevropaning ilg‘or davlatlari, xususan Vengriya, Polsha, Latviya, Litva, Estoniya, Rossiya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga alohida e’tibor qaratadi hamda bu munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga intilmoqda.* ***Kalit so’zlar:*** *Yevropa Ittifoqi, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik, O’zbekiston, Vengriya.*

Аннотация: *Узбекистан придаёт большое значение всестороннему взаимовыгодному сотрудничеству с государствами Восточной Европы. Основными направлениями сотрудничества с европейскими странами являются развитие торговли, инвестиции и финансирование, трансфер современных технологий, наука, техника, образование, экология, здравоохранение, культура и региональная безопасность. Узбекистан уделяет особое*

внимание дальнейшему углублению двустороннего сотрудничества с передовыми государствами Восточной Европы, в частности с Венгрией, Польшей, Латвией, Литвой, Эстонией, Россией и другими странами, стремясь вывести эти отношения на более высокий уровень. ***Ключевые слова****: Европейский союз, экономические, культурногуманитарной отношение, Узбекистан, Венгрия.*

Annotation: *Uzbekistan places great importance on comprehensive and mutually advantageous cooperation with the countries of Eastern Europe. The main areas of cooperation with European states include trade development, investment and financing, transfer of modern technologies, science, technology, education, ecology, healthcare, culture, and regional security. Uzbekistan pays special attention to further deepening bilateral cooperation with the leading countries of Eastern Europe, particularly with Hungary, Poland, Latvia, Lithuania, Estonia, Russia, and other nations, striving to elevate these relations to a higher level.* ***Keywords:*** *Europan Union, economy, culture-humanitar relations, Uzbekistan, Hungary.*

В настоящее время реформы, проводимые в нашей стране, прежде всего осуществляются в соответствии с происходящими в мире, в том числе в мировой экономике, различными изменениями. Выбранный нами путь демонстрирует свою устойчивость и жизнеспособность в условиях, когда после глобального кризиса темпы роста мировой экономики снизились. В последние годы реформы, проводимые в нашей стране в сфере внешней политики, способствуют укреплению мира и стабильности в нашем регионе, расширению потенциала нашей страны на международной арене, а также развитию всесторонних и взаимовыгодных связей с зарубежными государствами. Связи между Венгрией и территорией современного Узбекистана в средние века не были прямыми, однако могли осуществляться косвенное сотрудничество через Великий шелковый путь.

Византийская империя играла важную роль посредника между Центральной Азией и Восточной Европой, способствуя усилению потока товаров и идей. Кроме того, в XIV и XV веках, во времена Амир Темура (Тамерлана), Великий шелковый путь был восстановлен. Империя Темура установила дипломатические и торговые отношения с некоторыми регионами Восточной Европы, что способствовало дальнейшему развитию обменов по этим направлениям. [3,-B.45] Таким образом, несмотря на минимальные прямые политические связи между Мавераннахром и Восточной Европой в средние века, через Великий шелковый путь осуществлялось значительное косвенное сотрудничество посредством торговли, культурного обмена и распространения идей. По торговым путям в европейские страны доставлялись такие товары из Центральной Азии, как шёлк, специи, ткани, и вполне возможно, что они попадали и в Венгрию.

В XIX веке венгерские исследователи, особенно Арминий Вамбери, проявили большой интерес к Центральной Азии. Вамбери изучал этот регион, его культуру и языки, внося вклад в понимание исторических связей между Востоком и Европой. [5-B.32] Начало отношений между Венгрией и Узбекистаном восходит к началу 90-х годов. Дипломатические отношения между двумя странами были установлены 13 марта 1992 года. Можно сказать, что этот период стал временем формирования двусторонних отношений и определения взаимных интересов. В начале 90-х годов Венгрия вышла из

посткоммунистического лагеря, осознала свою идентичность, формировала новую государственность и присоединялась к европейским структурам. Венгрия — страна, расположенная в центре Европы и является членом Европейского союза. В этом смысле Венгрия может играть особую роль посредника в отношениях Узбекистана с ЕС. Кроме того, с 2013 года Венгрия проводит внешнюю политику под названием «Открытие на Восток». Правящая в Венгрии партия «Фидес» подчёркивает, что происхождение венгров связано с тюркскими народами. Политика «Открытие на Восток» в основном ориентирована на тюркские государства. С этой точки зрения Венгрия стремится укрепить связи именно с тюркскими странами.[2-В.11] Узбекистан, в свою очередь, ставит перед собой цель использовать опыт Венгрии в развитых отраслях.

Например, венгерская фармацевтическая компания «Gedeon Richter» действует в Узбекистане. 3–4 октября 2022 года состоялся официальный визит Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в Венгрию. Без преувеличения можно сказать, что это событие имеет историческое значение для обеих стран. Подготовка к визиту велась на протяжении длительного времени и была организована в соответствии с договорённостями, достигнутыми в марте 2021 года во время По мнению специалистов, данные переговоры на высшем уровне были историческими по своему значению и плодотворными по результатам. Встреча лидеров двух государств вывела межгосударственный диалог на качественно новый уровень. Во время визита Премьер-министра Венгрии Виктора Орбана в Узбекистан его сопровождали представители более 30 крупных национальных компаний. По словам Виктора Орбана, Узбекистану и Венгрии необходимы «флагманские проекты». встречи Президента Узбекистана и Премьер-министра Венгрии в Ташкенте.

В рамках визита была подписана Совместная декларация о стратегическом партнёрстве между Узбекистаном и Венгрией. Таким образом, Венгрия стала первой страной Европейского союза, которая вывела сотрудничество с Узбекистаном на высший политический уровень. Во время визита в марте 2021 года было подписано более десяти документов, направленных на дальнейшее развитие многопланового партнёрства. Среди них — Межправительственное соглашение о межрегиональном сотрудничестве, Программа сотрудничества между внешнеполитическими ведомствами на 2021–2023 годы, Меморандум о взаимопонимании между Институтом стратегических и межрегиональных исследований Узбекистана и Министерством иностранных дел и внешней торговли Венгрии, Соглашение о сотрудничестве в сфере трудовых отношений, Меморандум о подготовке кадров в области атомной энергетики, Меморандум о сотрудничестве в сфере инноваций, Программа сотрудничества в области культуры, «дорожная карта» по развитию сотрудничества в сфере сельского хозяйства, продовольствия и животноводства, а также Рамочное соглашение о сотрудничестве в области водного хозяйства. Стороны договорились о расширении объёмов поставок продукции на взаимные рынки, усилении промышленной кооперации и реализации конкретных проектов в фармацевтике, сельском хозяйстве, животноводстве, рыбоводстве, картофелеводстве и других

сферах. [4-B.2] Для Узбекистана укрепление исторических корней с государствами Восточной Европы имеет важное значение. Это открывает возможности для установления ещё более тесных связей с другими странами Европы. Практические визиты оказываются более эффективными, поскольку они не ограничены жёсткой повесткой дня. С течением времени торгово-экономические отношения между Узбекистаном и Европейским союзом продолжают укрепляться. Узбекистан стремится подписать Соглашение о расширенном партнёрстве и сотрудничестве с ЕС, что позволит расширить масштабы взаимодействия и устранить прежние барьеры. Это откроет двери для выхода узбекской продукции на рынки Европейского союза. В этом процессе Венгрия может сыграть важную роль, так как она находится в самом центре Европы и является членом Европейского союза. В этом плане Венгрия может выполнять функцию своеобразного посредника в отношениях Узбекистана с ЕС. Кроме того, с 2013 года Венгрия проводит внешнюю политику под названием «Открытие на Восток». Правящая партия «Фидес» подчёркивает тюркское происхождение венгров. Политика «Открытие на Восток» в первую очередь направлена на тюркские государства. С этой точки зрения Венгрия активно стремится укреплять связи именно с тюркскими странами, включая Узбекистан.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. A. Smith – “An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations” – 1776.
2. Данные Статкомитета Республики Узбекистан.
3. Акрамов Э. Турецкая модель социально-экономического развития. // Экономика и статистика, -Ташкент, 1993, - №4.
4. Podrobno.uz.
5. П.П. Иванов. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в.). 1984.
6. “Книга советского Узбекистана” (1941-1944 гг.) Ташкент - 1974.

AQSHNING MARKAZIY OSIYOGA TASHQI SIYOSATI

Nuriddin QURBONOV
Oriental Universteti magistranti
nuriddin.online@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola AQSHning Markaziy Osiyoga bo’lgan tashqi siyosatiga bag’ishlangan. Tadqiqot ishida tashqi siyosatdagi ustuvor yo’nalishlar xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlari orqali o’rganilgan.Tahlil natijasida AQSHning kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlariga strategiyasi oltita muhim yo’nalishda olib borilishi aniqlangan. Suverenitet va mustaqillikni qo’llab quvvatlash, Markaziy Osiyoda terrorchilik tahdidlarini kamaytirish, Markaziy Osiyo va Afg’oniston o’rtasidagi aloqani rag’batlantirish, qonun*

ustuvorligini isloh qilish, mintaqaga sarmoya kiritish kabi sohalar keng yoritilgan. ***Kalit so'zlar.*** *AQSH, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, mintaqa, xavfsizlik, hamkorlik.*

Аннотация: *Эта статья посвящена внешней политике США в Центральной Азии. В исследовании рассматриваются приоритеты внешней политики с помощью хронологических, сравнительных и перспективных аналитических методов. Стратегия США в Центральной Азии определяется по шести важным направлениям. Широко освещаются такие области, как поддержка суверенитета и независимости, снижение террористических угроз в Центральной Азии, развитие связей между Центральной Азией и Афганистаном, реформирование верховенства закона и инвестирование в регион.* ***Ключевые слова.*** *США, Центральная Азия, внешняя политика, регион, безопасность, сотрудничество.*

Annotation: *This article focuses on US foreign policy in Central Asia. The research examines foreign policy priorities using chronological, comparative and forward looking analytical methods. The US strategy in Central Asia is defined in six important directions. Areas such as supporting sovereignty and independence, reducing terrorist threats in Central Asia, promoting ties between Central Asia and Afghanistan, reforming the rule of law, and investing in the region are widely covered.* ***Key words.*** *USA, Central Asia, foreign policy, region, security, cooperation.*

Tarixan Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy resuslarga boyligi hamda qulay geosiyosiy joylashuvi bilan dunyoning yetakchi davlatlari diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Ayniqsa Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin mintaqada buyuk davlatlarning manfaatlar to'qnashuvi yanada kuchaydi. Markaziy Osiyoning strategik jihatdan ahamiyatini nafaqat iqtisodiy tarafdan, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham tasniflash mumkin.

AQSHning Markaziy Osiyodagi mavjudligi ko'pchilik olimlar tomonidan mintaqaning «kashfiyoti» sifatida baholanadi [1-B. 25]]. Afg'onistondagi urush davrida AQShning ishtiroki keskin oshganiga qaramay, Qo'shma Shtatlar mintaqa uchun begona emas edi [2-B. 75]. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgach, rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan dastlabki davlatlardan biri AQSH hisoblanadi. Shuningdek, AQSHning ko'plab tijorat va notijorat kompaniyalari mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'ya boshladi. Xavfsizlik va harbiy sohadagi aloqalar rivojlanishini 1994-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining NATOning Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturiga qo'shilishida ko'rish mumkin.

AQShning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama harbiy hamkorligi 11/9 voqealaridan keyin jadal rivojlandi. Dastlabki o'n yillikdagi uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirishdan manfaatdorlik saqlanib qolishiga qaramasdan, harbiy va xavfsizlik masalalari AQShning Markaziy Osiyodagi ishtirokida muhimroq omillarga aylandi. AQSH siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri mintaqada xavfsizlik va barqarorlik muhitini ta'minlashga qaratildi.

Tadqiqot ishida xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Xronologik tahlil yordamida AQSHning Markaziy Osiyoga tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar davrlarga ajratilgan holda o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli tadqiqot obyektining oldingi va bugungi kundagi holatini o'rganishda boshqa obyektlar bilan farqlari va o'xshashliklarini taqqoslash orqali yoritildi. Istiqbolni baholash metodi AQSHning mintaqaga davlatlari bilan kelgusidagi munosabatlarini baholash imkonini beradi.

Mazkur maqola mavzusiga doir AQSHning Markaziy Osiyoda xavfsizlik manfaatlari, Donald Tramp Prezidentligi davrida AQSHning Markaziy Osiyoga siyosati, AQSH siyosiy va harbiy manfaatlari, AQSHning Markaziy Osiyoga geosiyosati va boshqa bir qator kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan.

AQSHning Markaziy Osiyoga siyosati bo'yicha Eugene Rumer, Richard Sokolsky, Paul Stronski, Svante Cornell, Elizabet Wishnick, Lance Alred, Sean Michael Kelly, Madina Rubly Yuliya Shokh, Mariam Tsitsishvili, Richard Weitz, Olga Oliker, David Shlapak kabi mutaxassislar tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbekistonlik olimlar AQSHning Markaziy Osiyoga siyosatining evolyutsion jarayoni, AQSH Kongressi faoliyatining tashqi siyosiy tomonlari, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda Amerika-Eron munosabatlari, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosati kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlarini ta'kidlab o'tish joiz. Tadqiqotchilar orasida E.Aripov, B.Ochilov, G.Yuldasheva, M.Askarov, N.Kasimova, B.Xudoyberdiev, V.Paramanov va boshqalarni keltirish mumkin.

«AQShning 2019-2025 yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi: suverenitet va iqtisodiy farovonlikni oshirish» dasturi tashqi siyosat borasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan:

1. Markaziy Osiyo davlatlarining alohida va mintaqa sifatida suvereniteti va mustaqilligini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Ushbu yo'nalish Amerika Qo'shma Shtatlari mintaqa mamlakatlari bilan diplomatik faollikni oshirish, mahalliy hukumatlarning demokratik institutlarni mustahkamlash va iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Markaziy Osiyo bo'ylab yagona elektr tarmog'ini qo'llab-quvvatlash iste'molchilar uchun xarajatlarni kamaytirish, yetkazib beruvchilar uchun daromad olish, mintaqaviy energiya xavfsizligini yaxshilash va tashqi ishtirokchilarga bog'liqlikni kamaytirish uchun ortiqcha elektr energiyasi savdosini osonlashtirishga yordam berishni ham nazarda tutadi.

2. Markaziy Osiyoda terrorchilik tahdidlarini kamaytirish.

«Birga mashq qiling, birga kurashing» shiori ostida «Dasht burguti» mashqlari va Davlat hamkorlik dasturi kabi qo'shma harbiy tashabbuslar Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Ikki tomonlama harbiy va fuqarolik sheriklik dasturlari orqali Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qiladi. Bugungi kunga qadara Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyoda chegara xavfsizligini ta'minlashga 90 million dollardan ortiq sarmoya kiritib, 200 dan ortiq o'quv tadbirlarini o'tkazdi va 2600 dan ortiq chegara zobitlari ta'lim olgan [3-B. 112].

3. Afg'onistonda barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni kengaytirish va qo'llab quvvatlash. 1992-2014 yillarda AQShning Markaziy Osiyo davlatlariga harbiy yordami jami 6,8 milliard dollardan sal kamroq bo'lib, 2010-yilda AQShning Afg'onistondagi harbiy harakatlarning kuchayishi va misli ko'rilmagan AQSh armiyasi davrida 649 million dollarga yetgan [4-B. 132]. AQSH qo'shinlarining Afg'onistondan qaytarib olishishidan keyin bu ko'rsatkich 2014-yilda 148 mln dollarni tashkil qildi [5-B. 152].

AQSH qo'shinlarining Afg'onistonni tark etishi ushbu mintaqaga kelgusida AQSHning strategik manfaatlari kamayganini bildirmaydi. AQSH Markaziy Osiyo

mintaqasiga Xitoy va Rossiya kabi yaqin geografik ustunlikka ega bo'lishiga qaramasdan, tabiiy resurslarga boy mintaqada Rossiya va Xitoy ta'sir doirasini kamaytirish maqsadida so'nggi yillarda faol tashqi siyosat olib bormoqda. Qo'shma Shtatlar xavfsiz va barqaror Afg'oniston Markaziy Osiyo hukumatlari uchun ustuvor vazifa ekanini tan oladi hamda ularning har biri mojaroga barham beradigan tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

4. Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasidagi aloqani rag'batlantirish. Amerika Qo'shma Shtatlari Markaziy Osiyo uchun Afg'oniston, Janubiy Osiyo, Yevropa va Sharqiy Osiyo bilan bog'langan mintaqaviy energiya bozorini qurishdan manfaatdor. Bugungi kunga qadar Turkmanistondan Afg'oniston, Pokiston va Hindistonga (TAPI) tabiiy gaz quvurini qurish rejasiga qaratildi. 2015-yil dekabr oyida to'rt davlat rahbarlari Turkmanistonda TAPI gaz quvurining poydevorini qo'yish marosimida ishtirok etishdi. Biroq loyihaning maqsadga muvofiqligi savol ostida qolmoqda. Turkmaniston shartnoma majburiyatlarini bajarishda samarali hamkor bo'lmasligi ehtimoli mavjud. Qolaversa, quvurni moliyalashtirish masalasi hamda Afg'oniston va Pokistonda uzoq muddatli xavfsizlikka tahdidlar davom etmoqda. Shuningdek, tabiiy resurslarni qazib olish va eksport qilishdan tashqari kengaytirilgan mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik AQShning iqtisodiy manfaatlariga ham xizmat qiladi. Qozog'istonning 2015-yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga, Qozog'iston va Qirg'izistonning Qazib chiqarish sanoatining shaffofligi tashabbusi standartlariga muvofiqligiga asoslanib, Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilishda qo'llav quvvatlamoqda [6]. Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasidagi mustahkam savdo va infratuzilma aloqalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida CASA-1000 loyihasi Markaziy Osiyodan Afg'oniston va Pokistonga elektr energiyasi eksportini nazarda tutadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo va Afg'onistonning Yevropa va Yevroosiyo bilan savdosini keskin oshirish uchun Lapis-Lazuli yo'lagini ochish maqsadida Markaziy Osiyoda viza va bojxona jarayonlarini soddalashtirish ustida ishlar olib borilmoqda.

5. Qonun ustuvorligini isloh qilish va inson huquqlarini hurmat qilishni rag'batlantirish. Mazkur yo'nalish saylovlar orqali inklyuziv siyosiy tizimlar, shaffof siyosat ishlab chiqish, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hurmatini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat. AQSH Markaziy Osiyo mamlakatlariga inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek, sarmoyaviy muhitni yaxshilash va yuqori malakali inson kapitalini saqlab qolish uchun muhim bo'lgan adliya sektori islohotlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda texnik ekspertiza taqdim etadi.

6. AQSHning Markaziy Osiyoga sarmoya kiritish va rivojlanishiga ko'maklashish. AQSh Markaziy Osiyo bo'ylab mintaqadagi noyob madaniy yodgorliklar, an'analar va arxeologik yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun himoya qilish va saqlashga qaratilgan 70 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirgan [7-B. 33]. Mazkur yo'nalishda biznes va ta'lim sohasiga investitsiya jalb qilishga alohida urg'u berilgan. XXI asr uchun zarur bo'lgan texnik ustunalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilib o'tilgan.

AQSH Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyin ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan ilk davlatlardan bir edi. AQSH dunyoning boshqa yetakchi davlatlari Rossiya va Xitoy kabi mintaqada o'z manfaatlarini ega, shu bilan

birga ushbu davlatlarning mintaqada gegemon bo'lmasligiga harakat qiladi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin terrorizmga qarshi kurash va Afg'onistonda tinchlikni o'rnatishga qaratilgan harakatlar AQSH tashqi siyosatida ustovorlik qildi. Afg'onistonda terrorizmni yo'q qilish va barqarorlikni ta'minlashda AQSH Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy hamkorlik o'rnatishni qo'llab quvvatladi.

Shuningdek, AQSHning 2019-2025-yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasida suvereniteti va mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, terrorizm tahdidlarini kamaytirish, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash, mintaqa davlatlariga sarmoya kiritish nazarda tutilgan. AQSH Markaziy Osiyoga tashqi siyosatida ikki tomonlama harkorlik bilan birga, C5+1 diplomatik platformasi doirasida faoliyat olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maynes C.W. America Discovers Central Asia. Foreign Affairs, March/April 2003, pp. 120–32. Studies

2. Starr, S.F. The United States, Afghanistan, and Central Asia. Nordic Institute of Asian Newsletter, December, 2002. http://www.e ariana.com/ariana/eariana.nsf/0/D1620AE6F66B008787 256C8A00698EF3?OpenDocument.

3. United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity - United States Department of State

4. United States Agency for International Development, "U.S. Overseas Loans and Grants: Obligations and Loan Authorizations, July 1, 1945-September 30,2013." https://explorer.usaid.gov/prepared/Total_Economic_and_Military_Assistance_1946 2013.xlsx.

5. USAID, "Foreign Aid Dashboard 2014" https://explorer.usaid.gov/aid dashboard.html#2014.

6. Extractive Industries Transparency Initiative, "EITI Fact Sheet 2015" .https://eiti.org/files/document/EITI_Factsheet_EN.pdf.

7. United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity - United States Department of State.

O'ZBEKISTON-AQSH HAMKORLIGI: MUNOSABATLARNING YANGI SAHIFASI

Nuriddin QURBONOV
Oriental Universteti magistranti
nuriddin.online@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston va AQSH hukumati o'rtasidagi hamkorlik va turli sohalardagi aloqalarning ta'rixiy va hozirgi zamon nuqtai nazaridan strategik, siyosiy-ijtimoiy xarakteri o'rganib chiqilgan bo'lib, qilingan ilmiy ishlar va adabiyotlar tahliliga ko'rsa muxtasar xulosalar belgilangan.* ***Kalit so****'zlar: O'zbekiston-AQSH, diplomatik aloqalar, madaniy aloqalar, strategik hamkorlik, Markaziy Osiyo, BMT*

Аннотация: *В статье рассматривается стратегический, политический и социальный характер сотрудничества и контактов между Правительством Узбекистана и США в различных сферах с теоретической и современной точек зрения, а также даются содержательные выводы на основе анализа научных трудов и литературы.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан-США, дипломатические отношения, культурные связи, стратегическое сотрудничество, Центральная Азия, ООН*

Annotation: *The article examines the strategic, political and social character of cooperation and contacts between the Government of Uzbekistan and the United States in various spheres from a theoretical and contemporary point of view, and provides insightful conclusions according to the analysis of scientific works and literature.* ***Keywords:*** *Uzbekistan-USA, diplomatic relations, cultural relations, strategic cooperation, Central Asia, UN.*

Diplomatiya davlat tashqi siyosatini amalga oshirishning o‘ziga xos muhim vositasi bo‘lib, u orqali mamlakatning tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta’minlanadi hamda himoya qilinadi. Bugungi globallashuv jarayoni avj olgan, xalqaro munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan vaziyatda milliy manfaatlarni ta’minlash, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish masalalari dolzarbligini yo‘qotmadi. Aksincha, ilgari xalqaro munosabatlarda mamlakatning qudrati asosan uning harbiy va iqtisodiy salohiyati bilan o‘lchangan bo‘lsa, endilikda davlatning tarixi va madaniyatini diplomatiya vositalari orqali targ‘ib etish ham tashqi siyosatning muhim mezonlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bugun madaniy diplomatiya tashqi siyosatning eng samarali usullaridan sifatida namoyon bo’lib kelmoqda va buning natijasi o’z samarasini bermoqda[1-B.13.].

Mustaqillikning ilk yillaridan O‘zbekiston madaniy diplomatiyasi davlat tashqi siyosatining yetakchi siyosiy institutlaridan biri sifatida zamonaviy mezonlar asosida shakllanib va tadrijiy ravishda rivojlanib, mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatda o‘z o‘rni va obro‘siga ega bo‘lishi uchun salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining mintaqaviy va global darajada o‘zaro do‘stlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirish, xalqaro maydonda O‘zbekistonning imijini yanada yuksaltirish borasidagi sa’y-harakatlari dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va davlatlari tomonidan munosib tarzda e’tirof etildi. Zero, Prezident Sh.M. Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, madaniy diplomatiyamiz negizida «O‘zbekiston xalqining benihoya boy va rang-barang madaniyati necha ming yillar davomida yorqin tarixiy voqealar silsilasida o‘lkamizning betakror tabiati va turli madaniyatlarning bir-biriga ilhombaxsh ta’siri natijasida shakllanib, ravnaq topgan...» [2-B. 82.] tarixiy madaniy merosimiz yotadi. Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni, pozitsiyasi va obro‘sini tobora mustahkamlab borayotgan O‘zbekiston uchun diplomatiyaning ushbu turi tashqi siyosatning eng muhim yo‘nalish va usullaridan biriga aylandi. Turli davlatlar bilan, shuningdek xalqaro tashkilotlar doirasida ikki va ko‘p tomonlama madaniy diplomatiyasini jadal va sermazmun tarzda olib borayotgani, dunyo madaniy hayotining bir qismi sifatida xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi tobora oshib borayotgani, mamlakat rahariyati tomonidan ushbu sohaga o‘ta dolzarb masala sifatida qaralayotganini alohida qayd etish joiz. Shu nuqtai nazardan, respublikamizning madaniy diplomatiyasi shakllanishi va rivojlanishini, erishgan yutuqlari va kamchiliklarini, oldinda turgan

maqsadlarni aniq belgilab olish va ularga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishga bo‘lgan talab tadqiqot mavzuining dolzarbligini belgiladi.

Ushbu masalaga oid amaliy tadqiqotlar haqida fikr yuritadigan bo’lsak, birinchi yo‘nalishga A.Qosimov, S.Po‘latova, M.Rahimov, X.Bekmuratov, N.Ziyamov, E.Nuriddinov, A.Qirg‘izboev, G.Tabak, D.Maxkamova, R.Asadova, S.Otajanova, A.Xolliev, S.Jo‘raev, N.Qosimova, L.Boboxo‘jaeva, K.Toshmatova, O.Abdimo‘minov kabi tarixchi va siyosatshunos olimlarning dissertatsiya tadqiqotlarini kiritish joiz Mahalliy olimlar o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar xususan AQSH bilan madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligining asosiy yo‘nalishlarini, davlat tashqi siyosatida tarixiy-madaniy an’analarning roli, O‘zbekistonning xalqaro madaniy aloqalar tizimidagi o‘rni, xorijiy davlatlar bilan ikki va ko‘p tomonlama madaniy-gumanitar aloqalari kabi masalalarni o‘rganishgan. Shuningdek, diplomatiya va umuman xalqaro munosabatlar mavzusidagi tarixiy asarlar orasida «Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi», hamda R.Farmonov va Q.Jo‘raev hammuallifligidagi «Xalqaro munosabatlar tarixi» kitoblarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ularda tashqi siyosat, shu jumladan, madaniy hamkorlik masalalari bilan birga, dastlabki diplomat kadrlar, ularning faoliyatiga ham e’tibor qaratilgan [3-B. 46.].

Ushbu masalani o’rganish va tahlil qilishda ta’rixiy manbalar tahlili, statistik hisob-kitob, umumlashtirish eksperimental siyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot ishida xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Xronologik tahlil yordamida AQSHning Markaziy Osiyo xussuan mamlakatimizga tashqi siyosatidagi ustuvor yo’nalishlar davrlarga ajratilgan holda o’rganildi. Qiyosiy tahlil usuli tadqiqot obyektining oldingi va bugungi kundagi holatini o’rganishda boshqa obyektlar bilan farqlari va o’xshashliklarini taqqoslash orqali yoritildi. Istiqbolni baholash metodi AQSHning mintaqaga davlatlari bilan kelgusidagi munosabatlarini baholash imkonini beradi [4-B. 53.].

Gap davlatning tashqi siyosiy madaniyati haqida borganida global darajada birinchi qatorni, shubhasiz, AQSh egallaydi. B.Pavlovskiyning ilmiy ishida ancha lo‘nda yoritilgan masalaning avvalgi tarixiga alohida to‘xtalmagan holda ushbu ishda 1990-yillardan boshlab amerikacha tashqi madaniy siyosatni rivojlantirish tendensiyasi tahlil qilinganligini ko‘rsatib o‘tish joiz. SSSR tanazzulga yuz tutganidan so‘ng AQSh hukumatining tashqi siyosatidagi “norasmiy” mafkuraviy qurol bo‘limsh amerikacha madaniyat turli jabhalarda namoyon bo‘lgani holda jadal tarqalib bordi. Shu o‘rinda globallashuvning madaniy jihati deb atalmish hodisani tilga olish joiz [5-B. 17.]. Ko‘pincha amerikacha madaniy imperializmga qiyoslanadigan ushbu murakkab masala XX asrning 90-yillariga kelib o‘ta dolzarb tus oldi, ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldi. Shu bois u alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin. AQSh yetakchiligi ostidagi “madaniy” globallashuvning sarchashmalari Yevropa Uyg‘onish davriga borib taqaladi. Italiyadagi Renessansdan boshlab ushbu jarayon Fransiya, Angliya va so‘ngra AQSh madaniy ta’siri jarayonidan o‘tdi. Ushbu ta’sir geografiyasi har safar kengayib bordi. Masalan, italyancha Uyg‘onish davrining mavqei G‘arbiy Yevropa bilan cheklandi, qolgan dunyo esa o‘z madaniy hayoti bilan yashashda davom etdi. XVIII asr oxiri va XIX

asr boshlaridagi fransuzcha madaniy ekspansiya butun Yevropaga tarqaldi, XIX asrdagi inglizcha ta’sir esa qamroviga ko‘ra global hodisaga aylandi. Amerikacha madaniy an’anani hech mubolag‘asiz butun yer kurrasiga tegishli deb atash mumkin – XX asr oxiriga kelib yer kurrasida aholisi “Rok”, “Pepsi” yoki “Gollivud” tushunchalarini bilmaydigan hech bir mamlakat qolmadi. Z. Bjezinskiy o‘z monografiyasida ta’kidlab o‘tganidek, “agar Rim dunyoga – huquqni, Angliya – parlament faoliyatini, Fransiya – madaniyat va respublikacha millatchilikni taqdim etgan bo‘lsa, AQSh jahonga ilmiytexnik taraqqiyot va ommaviy madaniyatni olib kirdi” [6-B. 71.].

Xususan, ushbu faollik ta’lim va fan sohasida yaqqol ko‘zga tashlandi. 1992 yil 20 aprelda Amerika Xalqaro tadqiqotlar va ilmiy almashuvlar kengashining Toshkentdagi vakolatxonasi AYREKS (IREX–International Research&Exchanges Board), so‘ngra nufuzli xalqaro tashkilot – Amerika xalqaro ta’lim kengashi (ACCELS-American Councils for International Education) vakolatxonasi ochildi [7]. O‘zbekistondagi AQSh elchixonasining axborot, madaniyat va maorif bo‘limi ta’lim sohasidagi almashuvlar bo‘yicha qator dasturlarni, masalan, Uilyam Fulbrayt dasturi, Xyubert Xamfri dasturi, kichik o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish dasturi, OTM bitiruvchilari uchun Edmund Mask stipendiyalar dasturi (har yili 250 dan ortiqroq stipendiantlari bor) va boshqa dasturlarni amalga oshirmoqda. Sietl va Toshkent birodarlashgan shaharlari qo‘mitasining a’zosi, 40 yildan ortiq vaqt mobaynida o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, urfodatlari, raqslari bo‘yicha tadqiqot olib borgan Lauriel Viktoriya Grey hamda Markaziy Osiyo xalqlarining an’analari va tarixini chuqur o‘zlashtirgan, o‘zbek tilining AQShdagi bilimdoni professor Ilza Sirtautasning ikki xalq birodarligini rivojlantirishdagi xizmatlari katta [8-B. 39].

Shavkat Mirziyoev rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi jahonning nufuzli mamlakatlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va boshqa davlatlar bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi o‘zaro aloqalarini chuqurlashtirdi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo‘shni mamlakatlar bilan yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi. Umuman olganda, bu davrda O‘zbekiston ko‘plab yetakchi xalqaro va mintaqaviy aktorlar bilan pragmatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekiston yangi rahbarining «ochiq eshiklar» siyosati hamda katta hajmdagi chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga olib kirish borasidagi sa’y-harakatiga mustaqillikning dastlabki chorak asri davomida tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar sohasida, shuningdek ichki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va muammolar, avvalo mamlakatimizning rivojlanishdagi ziddiyatli holatlar sabab bo‘ldi. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va nufuziga kelsak, mamlakatimizning barqarorligi va siyosiy suverenitetining bardavomligi hozirgi globallashuv jarayoni avj olgan davrda mintaqa tinchligi uchun ham nihoyatda muhimdir. Taniqli siyosatshunos Z. Bjezinskiy bu borada: «O‘zbekistonning mustaqilligi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarining omon qolishi uchun o‘ta muhimdir»[9-B. 75], degan edi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ta’rixiy jihat dan qisqa davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga teng salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi,

jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh. M. O‘zbekiston madaniyatining yangi qirralari – dunyo e’tiborida // «O‘zbekiston madaniy merosi» mualliflik turkumi: «Germaniya Federativ Respublikasi to‘plamlari» kitob-albomiga kirish so‘zi. – T., 2019. – B. 5.
2. B. Sayfullayev “O‘zbekiston respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi” DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent – 2020 5-b
3. Umarova N. Raqs millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi // Madaniyat. – 2018. – 20 sent
4. Mansurbek Nemat O‘g‘li To‘xsanov BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA O‘ZBEKISTON HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI // CARJIS. 2022. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/birlashgan-millatlar-tashkiloti-va-o-zbekiston hamkorlikning-ustuvor-yo-nalishlari (дата обращения: 17.04.2023).
5. Xudoyberganova, Dilnoza Komiljon Qizi AQSHNING MARKAZIY OSIYOGA TASHQI SIYOSATI // ORIENSS. 2021. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aqshning markaziy-osiyoga-tashqi-siyosati (дата обращения: 17.04.2023).
6. Павловский Б. Культурная дипломатия как инструмент «мягкой силы» и проводник национальных ценностей // URL: http://eurasian-studies.org/archives/2034
7. Brzezinski Z. Between Two Ages. America’s Role in the Technotronic Era. – N.Y., 2017. – P. 50.
8. Сеть «Альянс Франсез» по всему миру // URL: http://af-tachkent.uz/index.html
9. Бжезинский З б. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы). – М.: Международные отношения, 2020. – С. 68.

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN ALOQALARI

Nuriddin QURBONOV
Oriental Universteti magistranti
nuriddin.online@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola AQSHning Markaziy Osiyoga bo’lgan tashqi siyosatiga bag’ishlangan. Tadqiqot ishida tashqi siyosatdagi ustuvor yo’nalishlar xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlari orqali o’rganilgan. Tahlil natijasida AQSHning kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlariga strategiyasi oltita muhim yo’nalishda olib borilishi aniqlangan.

Kalit so’zlar: AQSH, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, mintaqa, xavfsizlik, hamkorlik.

Аннотация: Данная статья посвящена внешней политике США в отношении Центральной Азии. В исследовании были рассмотрены приоритеты внешней политики с

использованием методов хронологического, сравнительного и перспективного анализа. Анализ показал, что будущая стратегия США в отношении стран Центральной Азии будет осуществляться по шести важным направлениям. **Ключевые слова:** США, Центральная Азия, внешняя политика, регион, безопасность, сотрудничество.

Annotation: This article is devoted to the foreign policy of the United States towards Central Asia. The research work studied the priorities of foreign policy using chronological, comparative and prospective analysis methods. As a result of the analysis, it was determined that the future US strategy towards the countries of Central Asia will be carried out in six important directions. **Keywords:** USA, Central Asia, foreign policy, region, security, cooperation.

Tarixan Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy resuslarga boyligi hamda qulay geosiyosiy joylashuvi bilan dunyoning yetakchi davlatlari diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Ayniqsa Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin mintaqada buyuk davlatlarning manfaatlar to'qnashuvi yanada kuchaydi. Markaziy Osiyoning strategik jihatdan ahamiyatini nafaqat iqtisodiy tarafdan, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham tasniflash mumkin. AQSHning Markaziy Osiyodagi mavjudligi ko'pchilik olimlar tomonidan mintaqaning «kashfiyoti» sifatida baholanadi. Afg'onistondagi urush davrida AQShning ishtiroki keskin oshganiga qaramay, Qo'shma Shtatlar mintaqa uchun begona emas edi[1, — B.114.].

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgach, rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan dastlabki davlatlardan biri AQSH hisoblanadi. Shuningdek, AQSHning ko'plab tijorat va notijorat kompaniyalari mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'ya boshladi. Xavfsizlik va harbiy sohadagi aloqalar rivojlanishini 1994-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining NATOning Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturiga qo'shilishida ko'rish mumkin. AQShning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama harbiy hamkorligi 11/9 voqealaridan keyin jadal rivojlandi. Dastlabki o'n yillikdagi uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirishdan manfaatdorlik saqlanib qolishiga qaramasdan, harbiy va xavfsizlik masalalari AQShning Markaziy Osiyodagi ishtirokida muhimroq omillarga aylandi. AQSH siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri mintaqada xavfsizlik va barqarorlik muhitini ta'minlashga qaratildi.Tadqiqot ishida xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Xronologik tahlil yordamida AQSHning Markaziy Osiyoga tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar davrlarga ajratilgan holda o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli tadqiqot obyektining oldingi va bugungi kundagi holatini o'rganishda boshqa obyektlar bilan farqlari va o'xshashliklarini taqqoslash orqali yoritildi. Istiqbolni baholash metodi AQSHning mintaqaga davlatlari bilan kelgusidagi munosabatlarini baholash imkonini beradi.Mazkur maqola mavzusiga doir AQSHning Markaziy Osiyoda xavfsizlik manfaatlari, Donald Tramp Prezidentligi davrida AQSHning Markaziy Osiyoga siyosati, AQSH siyosiy va harbiy manfaatlari, AQSHning Markaziy Osiyoga geosiyosati va boshqa bir qator kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan[1, — B.127.].

AQSHning Markaziy Osiyoga siyosati bo'yicha Eugene Rumer, Richard Sokolsky, Paul Stronski, Svante Cornell, Elizabet Wishnick, Lance Alred, Sean Michael Kelly, Madina Rubly Yuliya Shokh, Mariam Tsitsishvili, Richard Weitz, Olga Oliker, David Shlapak kabi mutaxassislar tadqiqotlar olib borishgan.

O’zbekistonlik olimlar AQSHning Markaziy Osiyoga siyosatining evolyutsion jarayoni, AQSH Kongressi faoliyatining tashqi siyosiy tomonlari, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda Amerika-Eron munosabatlari, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosati kabi yo’nalishlarda ilmiy izlanishlarini ta’kidlab o’tish joiz. Tadqiqotchilar orasida E.Aripov, B.Ochilov, G.Yuldasheva, M.Askarov, N.Kasimova, B.Xudoyberdiev, V.Paramanov va boshqalarni keltirish mumkin[2, — B.79.].

«AQShning 2019-2025 yillarga mo’ljallangan Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi: suverenitet va iqtisodiy farovonlikni oshirish» dasturi tashqi siyosat borasida quyidagi ustuvor yo’nalishlarini o’z ichiga qamrab olgan:

1. Markaziy Osiyo davlatlarining alohida va mintaqa sifatida suvereniteti va mustaqilligini qo’llab-quvvatlash va mustahkamlash. Ushbu yo’nalish Amerika Qo’shma Shtatlari mintaqa mamlakatlari bilan diplomatik faollikni oshirish, mahalliy hukumatlarning demokratik institutlarni mustahkamlash va iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Markaziy Osiyo bo’ylab yagona elektr tarmog’ini qo’llab-quvvatlash iste’molchilar uchun xarajatlarni kamaytirish, yetkazib beruvchilar uchun daromad olish, mintaqaviy energiya xavfsizligini yaxshilash va tashqi ishtirokchilarga bog’liqlikni kamaytirish uchun ortiqcha elektr energiyasi savdosini osonlashtirishga yordam berishni ham nazarda tutadi[2, - B.91.].

2. Markaziy Osiyoda terrorchilik tahdidlarini kamaytirish. «Birga mashq qiling, birga kurashing» shiori ostida «Dasht burguti» mashqlari va Davlat hamkorlik dasturi kabi qo’shma harbiy tashabbuslar Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni mustahkamlashga yo’naltirilgan. Ikki tomonlama harbiy va fuqarolik sheriklik dasturlari orqali Qo’shma Shtatlar Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qiladi. Bugungi kunga qadara Qo’shma Shtatlar Markaziy Osiyoda chegara xavfsizligini ta’minlashga 90 million dollardan ortiq sarmoya kiritib, 200 dan ortiq o'quv tadbirlarini o’tkazdi va 2600 dan ortiq chegara zobitlari ta’lim olgan 3. Afg‘onistonda barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish va qo‘llab quvvatlash. 1992-2014 yillarda AQShning Markaziy Osiyo davlatlariga harbiy yordami jami 6,8 milliard dollardan sal kamroq bo’lib, 2010 yilda AQShning Afg’onistondagi harbiy harakatlarning kuchayishi va misli ko’rilmagan AQSh armiyasi davrida 649 million dollarga yetgan AQSH qo’shinlarining Afg’onistondan qaytarib olishishidan keyin bu ko’rsatkich 2014 yilda 148 mln dollarni tashkil qildi.AQSH qo’shinlarining Afg’onistonni tark etishi ushbu mintaqaga kelgusida AQSHning strategik manfaatlari kamayganini bildirmaydi[3, - B.46.].

AQSH Markaziy Osiyo mintaqasiga Xitoy va Rossiya kabi yaqin geografik ustunlikka ega bo’lishiga qaramasdan, tabiiy resurslarga boy mintaqada Rossiya va Xitoy ta’sir doirasini kamaytirish maqsadida so’nggi yillarda faol tashqi siyosat olib bormoqda. Qo’shma Shtatlar xavfsiz va barqaror Afg’oniston Markaziy Osiyo hukumatlari uchun ustuvor vazifa ekanini tan oladi hamda ularning har biri mojaroga barham beradigan tinchlik jarayonini qo’llab quvvatlaydi. 4. Markaziy Osiyo va Afg’oniston o’rtasidagi aloqani rag’batlantirish. Amerika Qo’shma Shtatlari Markaziy Osiyo uchun Afg’oniston, Janubiy Osiyo, Yevropa va Sharqiy Osiyo bilan bog’langan mintaqaviy energiya bozorini qurishdan manfaatdor. Bugungi kunga

qadar Turkmanistondan Afg’oniston, Pokiston va Hindistonga (TAPI) tabiiy gaz quvurini qurish rejasiga qaratildi. 2015 yil dekabr oyida to’rt davlat rahbarlari Turkmanistonda TAPI gaz quvurining poydevorini qo’yish marosimida ishtirok etishdi[3, - B.54.].

Biroq, loyihaning maqsadga muvofiqligi savol ostida qolmoqda. Turkmaniston shartnoma majburiyatlarini bajarishda samarali hamkor bo’lmasligi ehtimoli mavjud. Qolaversa, quvurni moliyalashtirish masalasi hamda Afg’oniston va Pokistonda uzoq muddatli xavfsizlikka tahdidlar davom etmoqda. Shuningdek, tabiiy resurslarni qazib olish va eksport qilishdan tashqari kengaytirilgan mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik AQShning iqtisodiy manfaatlariga ham xizmat qiladi. Qozog’istonning 2015-yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishiga, Qozog’iston va Qirg’izistonning Qazib chiqarish sanoatining shaffofligi tashabbusi standartlariga muvofiqligiga asoslanib, Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilishda qo’llav quvvatlamoqda. Markaziy Osiyo va Afg’oniston o’rtasidagi mustahkam savdo va infratuzilma aloqalarini qo’llab-quvvatlash maqsadida CASA-1000 loyihasi Markaziy Osiyodan Afg’oniston va Pokistonga elektr energiyasi eksportini nazarda tutadi[3, — B.95.]. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo va Afg’onistonning Yevropa va Yevroosiyo bilan savdosini keskin oshirish uchun Lapis-Lazuli yo‘lagini ochish maqsadida Markaziy Osiyoda viza va bojxona jarayonlarini soddalashtirish ustida ishlar olib borilmoqda. 5. Qonun ustuvorligini isloh qilish va inson huquqlarini hurmat qilishni rag‘batlantirish[4, — B.33.]. Mazkur yo’nalish saylovlar orqali inklyuziv siyosiy tizimlar, shaffof siyosat ishlab chiqish, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hurmatini ta’minlashga ko’maklashishdan iborat. AQSH Markaziy Osiyo mamlakatlariga inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek, sarmoyaviy muhitni yaxshilash va yuqori malakali inson kapitalini saqlab qolish uchun muhim bo’lgan adliya sektori islohotlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda texnik ekspertiza taqdim etadi. 6. AQSHning Markaziy Osiyoga sarmoya kiritish va rivojlanishiga ko‘maklashish. AQSh Markaziy Osiyo bo’ylab mintaqadagi noyob madaniy yodgorliklar, an’analar va arxeologik yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun himoya qilish va saqlashga qaratilgan 70 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirgan.Mazkur yo’nalishda biznes va ta’lim sohasiga investitsiya jalb qilishga alohida urg’u berilgan. XXI asr uchun zarur bo’lgan texnik ustunalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilib o’tilgan[4, - B.49.].

AQSH Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyin ular bilan diplomatik aloqalar o’rnatgan ilk davlatlardan bir edi. AQSH dunyoning boshqa yetakchi davlatlari Rossiya va Xitoy kabi mintaqada o’z manfaatlarini ega, shu bilan birga ushbu davlatlarning mintaqada gegemon bo’lmasligiga harakat qiladi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin terrorizmga qarshi kurash va Afg’onistonda tinchlikni o’rnatishga qaratilgan harakatlar AQSH tashqi siyosatida ustovorlik qildi. Afg’onistonda terrorizmni yo’q qilish va barqarorlikni ta’minlashda AQSH Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy hamkorlik o’rnatishni qo’llab quvvatladi. Shuningdek, AQSHning 2019-2025-yillarga mo’ljallangan Markaziy Osiyo bo’yicha strategiyasida suvereniteti va mustaqilligini qo’llab quvvatlash, terrorizm tahdidlarini kamaytirish, Afg’onistonda barqarorlikni ta’minlash, mintaqa davlatlariga sarmoya

kiritish nazarda tutilgan. AQSH Markaziy Osiyoga tashqi siyosatida ikki tomonlama harkorlik bilan birga, C5+1 diplomatik platformasi doirasida faoliyat olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maynes C.W. America Discovers Central Asia. Foreign Affairs, March/April 2003, pp. 120–32.

2. United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity - United States Department of State

3.Extractive Industries Transparency Initiative, "EITI Fact Sheet 2015" .https://eiti.org/files/document/EITI_Factsheet_EN.pdf.

4.United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity - United States Department of State

SO'NGI YILLARDA O'ZBEKISTONDA IIV SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Xurshidbek RO'ZIYEV
Toshkent shahridagi Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so'ngi yillarda O'zbekistonda IIV sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar va ularning soha rivojiga qo'shgan hissasi, jahon darajasidagi tizimni joriy etilishi va uning borishi haqida so'z boradi. Shuningdek, sohada qilingan ishlar, amalga oshirilgan ishlar, qonunchilik bazasidagi o'zgarishlar haqida maqolada tahliliy fikrlar keltirilgan.* ***Kalit so'zlar.*** *IIV, profilaktika, jamoat xavfsizligi, huquqni muxofaza qilish, jinoyat, yo'l harakati xavfsizligi, kiberjinoyat, xavfsiz shahar konsepsiyasi, korrupsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются коренные реформы, проведенные в Министерстве внутренних дел Узбекистана за последние годы, их вклад в развитие органа и обсуждается внедрение и прогресс системы мирового уровня. Также в статье даются аналитические взгляды на проделанную работу в этой области, проведенные работы и изменения в законодательной базе.* ***Ключивые слова.*** *МВД, профилактика, общественная безопасность, правоохранительные органы, преступность, безопасность дорожного движения, киберпреступность, концепция безопасного города, коррупция.*

Annotation. *This article examines the fundamental reforms in the Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan in recent years, their contribution to the development of the sphere and discusses the implementation and progress of a world-class system. The article also provides analytical views on the work done in this area, the work carried out and changes in the legislative framework.* ***Key words.*** *Ministry of Internal Affairs, prevention, public safety, law enforcement, crime, road safety, cybercrime, safe city concept, corruption.*

So'ngi yillarda dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari, iqtisodiy, mafkuraviy, milliy mojarolar va turli siyosiy to'qnashuvlar qurolli harakatlarga aylanib borayotganligi sir emas. Dunyoning ko'plab davlatlarida qarama-qarshiliklarning xalqaro tus olayotganligi, ommaviy noroziliklar, mintaqaviy mojarolar, ichki nizolarning kuchayib borayotgani davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Mazkur holatlar davlat mexanizmini asosiy bo'g'inlaridan

biri bo‘lgan ichki ishlar organlarining davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlovchi organ sifatidagi o‘rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshirmoqda.

Ilk yillarda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va o‘tish davrida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o‘zgarishlar amalga oshirilgan edi. Hususan, 1991-yil 25-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori [1] asosida O‘zbekiston SSR IIV O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirilgan. O‘sha davrda har bir sohada bo‘lgani kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham keng qamrovli ishlar, ulkan vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar mavjud edi. Lekin shuni alohida qayd etish o‘rinliki, o‘tkan davrda og‘ir sinovli damlarda, ichki ishlar organlarining mard va jasur, yuragida o‘ti bor, shijoatli xodimlari tomonidan Vatan himoyasi yo‘lida o‘z jonlarini ayamay, jinoyatchilikka qarshi mardonavor kurash olib borildi. Og‘ir damlarda doimiy ravishda o‘z xizmat burchiga sodiqlikni, jonbozlikni, qat’iyatlilikni, matonatlilikni, fidoyilik hislatlarini namoyon etdilar.

Ma’lumki, islohotlar samaradorligi, birinchi navbatda, kadrlar masalasi bilan bog‘liq. Shu bois ham, ichki ishlar organlarida malakali kadrlar tayyorlash, yangicha mafkura asosida tarbiya topgan, ma’naviy etuk kadrlarni tayyorlash maqsadida IIV ta’lim muassasalari faoliyati tubdan isloh qilindi.

XXI asrda dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi mamlakatimizda ham xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu islohotlar va strukturaviy o‘zgarishlar, avvalo, mamlakatdagi tinchlik-osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish, yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning bardavomligi va uzviyligini ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini amalga oshirishga harakat qilindi. Keyingi davrlar mobaynida respublikada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilishiga alohida e’tibor qaratildi.

Vaqtida va uzoqni ko‘zlab amalga oshirilgan mazkur o‘zgarishlar mustaqil davlatimizning rivojlanishi va dunyo mamlakatlari orasidan o‘zining munosib o‘rnini egallashida, atrofdagi global va regional darajada keskinlik vaziyati yuz berib turgan bir paytda, mamlakatimizda doimiy barqarorlikning ta’minlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Hususan, Ichki Ishlar hodimlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermay qo‘yganligi ortidan tizimli islohotlar qilindi [2].

O‘zbekistonda sud-huquq tizimini isloh tubdan etish borasidagi sa’y-harakatlar 2016-yillarda o‘zining yuqori pallasiga ko‘tarildi. Respublikada ayniqsa boradagi harakatlar 2017-yilda qabul qilingan respublikani har jihatdan rivojlantirishni o‘zida jamlagan beshta muhim ustuvor vazifalardan iborat bo‘lgan “Harakatlar strategiyasining amaldagi tatbiqida o‘z aksini topdi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ham “Harakatlar strategiyasida: “Xalq davlat idoralariga emas, balki

davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan prinsip davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani, albatta, bejiz emas. Hozirgi kunda barcha bo‘g‘indagi hokimlar, vazirlik va idoralar, prokuratura, sud-huquq va ichki ishlar organlari rahbarlari, deputat va senatorlar bevosita joylarga chiqib, mahallada o‘z faoliyati bo‘yicha xalq oldida hisobot bermoqda. Mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, odamlarning hayotiy muammolarini o‘rganmoqda, ularni qonuniy asosda hal qilish uchun amaliy yordam ko‘rsatmoqda” [3] – deb, ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2896-sonli (2017-yil 18-aprel) qarori[4] O‘zbekistonda ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyati borasidagi qonunchilik bazasini shakllanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi Ichki ishlar vazirligi tizimida ham islohotlar zaruratini yuzaga keltirdi. Ichki ishlar vazirligining tashkiliy-shtat tuzilishi takomillashtirildi. Kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e’tibor qaratildi. O‘quv yurtlarini isloh qilish hamda tarmoqlarini kengaytirish maqsadida bir qancha ta’lim muassasalari tashkil etildi. Shulardan biri bu Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidir. Respublikamizda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilish, ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish borasida mazkur oliy ta’lim muassasasining o‘rni benihoya kattadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi Farmoniga muvofiq, IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti negizida Ichki ishlar vazirligi Harbiy-texnik instituti etib qayta tashkil qilindi [5]. 2017-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilib, sohaga malakali va professional kadrlarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil noyabrdagi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi IIV Harbiy-texnik instituti O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufiga o‘tkazildi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi qarori bilan Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti negizida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti qayta tashkil etildi [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5005-son Farmoni bilan Yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabi Yong‘in xavfsizligi institutiga o‘zgartirilgan. O‘zbekiston Respublikasi IIV Yong‘in xavfsizligi oliy texnika maktabi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi.

Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari ta’lim muassasalari, jumladan IIV Akademiyasida professor-o‘qituvchilar tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda mutaxassislik fanlarini o‘qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan jamlash, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni o‘quv jarayoniga keng jalb etishga katta e’tibor qaratildi. O‘quv binolari, zamonaviy auditoriyalar, yotoqxonalar, sanatoriya-sog‘lomlashtirish

markazi bunyod etildi. Madaniyat saroyi, sport kompleksi, oshxona kabi ko‘plab inshootlar qayta qurildi, mavjudlari tez fursatlarda sifatli ta’mirlandi. O‘quv yurtining hududida ekotizim yaratildi. Buning natijasida Akademiya zamonaviy ta’lim-tarbiya, ilm, madaniyat va ma’rifat maskaniga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Akademiya jamoasi oldiga ulkan vazifalar qo‘yib: “Ichki ishlar tizimida kadrlar bilan ishlash, ularning malakasi va mas’uliyatini oshirish ishlariga alohida e’tibor qaratilib, nazoratga olinishi lozim deb o‘ylayman. Bu borada Ichki ishlar vazirligi tizimidagi o‘quv muassasalari, jumladan Ichki ishlar akademiyasining o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Ushbu o‘quv maskani yosh ofitserlarga chuqur bilim berish bilan birga, o‘zining tarbiyaviy ta’sirini ham o‘tkazishi lozim. Ichki ishlar organlarida xizmat qilishga munosib xodimlarni etkazib berishda aynan o‘quv muassasalari rahbariyati va o‘qituvchilarining mas’uliyatini oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak” [7], deb ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori asosida 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab, xususan, Akademiyada ham jahon standartlariga javob beradigan bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etildi. Bir so‘z bilan aytganda, Akademiyada ichki ishlar organlari uchun yuksak vatanparvar, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga boy, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan yetuk malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilib, hayotga keng tatbiq etilmoqda. Zero, iqtidorli, professional kadrlar mamlakatning mustahkam poydevorini yaratishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[8] asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko`rsatadigan, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o`z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo`naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko`lamli islohotlar davri bo`ldi. 2016-yilda mustaqil O`zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo`nalish va tamoyillari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, davlatning xavfsizligini ta`minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2016 yilning 16-sentyabrida imzolangan “Ichki ishlar organlari to`g'risida”gi Qonun mazkur tizim faoliyatini huquqiy jihatdan yanada mustahkamladi [9]. Binobarin, Qonunda ichki ishlar organlari asosiy vazifalari, faoliyat yo`nalishlari va printsiplari mustahkamlab qo`yildi. Ichki ishlar organlarining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini, yuridik hamda jismoniy shaxslar mol-mulki himoyasini ta`minlash bilan bog'liq vazifalari huquqiy jihatdan kafolatlandi.

Qonunning bugungi kunda dolzarbligi, yangiligi haqida to‘xtalib o`tadigan bo`lsak, avvalambor, unda ichki ishlar organlarining vakolat va majburiyatlari, shuningdek, ushbu idoralarda xizmat o`tash tartibi va shartlari, xodimlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi yaxlit hujjatda mujassam etilganini ta`kidlash lozim. Mazkur sohani huquqiy tartibga solishning xorijiy va milliy tajribasi inobatga olingan holda ishlab chiqilgan Qonun O`zbekiston Respublikasida ilk bor ichki ishlar organlari va xodimlarining davlat miqyosida huquqiy maqomini qonun darajasida mustahkamlash, ularning ijtimoiy zarurati va ahamiyatini e`tirof etishda ham muhim o`rin tutadi.

O`tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 6 qonun, Prezidentimizning 7 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi qarori bilan “Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi [11]. Yuqoridagi farmon va qarorlar ijrosini ta`minlash maqsadida qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunda, eng avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina ichki ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb emas, balki barcha davlat organlari va aholi qatlamlarining vazifasi, ya‘ni umumdavlat va umumxalq ishi sifatida qarash, bu borada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko`rinishiga murosasizlik muhitini yaratish yo‘li bilan huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va oldi olinishini ta`minlashga e‘tibor qaratildi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishdek buyuk maqsad sari keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘tkazilayotgan barcha islohotlarning zamirida yurtimizni har tomonlama rivojlantirib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta`minlash, huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni rozi qilish yotadi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirgacha ichki ishlar sohasini isloh qilinish natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini huquqiy asoslari mustahkamlandi. Tashkiliy tuzilmasi mustahkamlandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohotlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligini ko‘rsatib bormoqda.

2016-yildan yurtimizdagi barsa sohalar kabi ichki ishlar sohasida ham yangi davr boshlandi. Mazkur davr – bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko`rsatadigan, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o`z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davri bo‘ldi. Ichki ishlar sohasida qilingan va kelajakda

qilinadigan islohotlar mamlakatimizda qonun himoyasi, jamiyat tinchligini saqlashda fundamental harakterga ega ahamiyatli ish deb qabul qilish mumkin. Shu sababli bu sohaga e’tibor davlatning rivojlanishi asoslari bo’lib xizmat qilishi shubxasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida https://lex.uz/docs/-1033174?ONDATE=04.05.2018

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

3. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // URL: http://xs.uz (Xalq so‘zi, 01.09.2017).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-sonli (2017-yil 18-aprel) qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – № 17. – 288-m.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoni// URL- https://lex.uz/docs/3159827–elektron resurs.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5077-son Qarori // URL-https://lex.uz/ru/docs/5377545–elektron resurs.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., 2018. – 339 b.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.

9. Ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асоси./https://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/9790- ichki-ishlar-organlari-faoliyatining-u-u-ij-asosi

10. https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi

11.https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/iiv_tugrisidagi_yangi_nizom_tasdiqlandi

III. O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASIDA SO‘NGGI TADQIQOTLAR

QOVUNCHI MADANIYATI SOHIBLARINING QASHQADARYO VOHASIDAGI ETNOGENETIK JARAYONLARGA TA’SIRI (ARXEOLOGIK TAHLIL)

Nurbek SATTOROV
Toshkent davlat pedagogika universiteti
tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
beksattoroff @gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qovunchi madaniyati sohiblarining Qashqadaryo vohasiga kirib kelish jarayoni arxeologik va tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Qashqadaryo vohasidagi qazilmalardan topilgan materiallar Qovunchi madaniyatining asosiy xususiyatlarini aks ettirishi aniqlangan. Migratsiya jarayonlari, tabiiy-geografik omillar va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatib berilgan. Maqola Qovunchi madaniyatining Qashqadaryo vohasida qishloq xo‘jaligi va madaniy taraqqiyotga bo‘lgan ta’sirini yoritishga qaratilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Qovunchi madaniyati, Qashqadaryo vohasi, arxeologik tadqiqotlar, qadimgi dehqonchilik, migratsiya jarayoni, keramika, xom g‘isht inshootlari, madaniy uzluksizlik.*

Аннотация: *В данной статье на основе археологических и исторических источников проанализирован процесс проникновения носителей культуры Ковунчи в Кашкадарьинскую оазис. В ходе исследования установлено, что археологические материалы, найденные при раскопках на территории оазиса, отражают основные характеристики культуры Ковунчи. Показана взаимосвязь между миграционными процессами, природно-географическими факторами и социально-экономическими изменениями. В статье освещается влияние культуры Ковунчи на сельское хозяйство и культурное развитие в Кашкадарьинской оазисе.* ***Ключевые слова:*** *культура Ковунчи, Кашкадарьинская оазис, археологические исследования, древнее земледелие, миграционные процессы, керамика, сооружения из сырцового кирпича, культурная преемственность.*

Abstract: *This article analyzes the process of the arrival of the Kovunchi culture bearers in the Kashkadarya oasis based on archaeological and historical sources. The study found that the archaeological materials discovered during excavations in the region reflect the main characteristics of the Kovunchi culture. The interrelation between migration processes, natural-geographical factors, and socio-economic changes is demonstrated. The article highlights the impact of the Kovunchi culture on agriculture and cultural development in the Kashkadarya oasis.* ***Keywords:*** *Kovunchi culture, Kashkadarya oasis, archaeological research, ancient agriculture, migration process, ceramics, mudbrick structures, cultural continuity.*

Markaziy Osiyo qadimiy tarixini o‘rganishda Qovunchi madaniyatining roli alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, Qovunchi madaniyati sohiblarining Qashqadaryo vohasiga kirib kelish jarayonini o‘rganish orqali mintaqadagi qadimgi dehqonchilik jamiyatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi va madaniy almashinuv mexanizmlarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Qashqadaryo vohasi tabiiy-geografik sharoitlari, unumdor tuproqlari va qulay iqlimi bilan qadimdan insoniyat uchun jozibador makon bo‘lib kelgan. Ushbu hududda aniqlangan arxeologik yodgorliklar va moddiy madaniyat qoldiqlari Qovunchi madaniyatining hududiy kengayishini, mahalliy madaniy qatlamlarga bo‘lgan ta’sirini va yangi xo‘jalik shakllarining paydo bo‘lish jarayonlarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda madaniy merosni saqlash va ilmiy asosda o‘rganish jarayonlarining faollashuvi fonida, qadimgi madaniyatlarning migratsiya va tarqalish jarayonlarini aniqlash masalasi o‘z dolzarbligini yana ham oshirmoqda. Qovunchi madaniyati sohiblarining Qashqadaryo vohasiga kirib kelishi nafaqat mintaqaning tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini ochib beradi, balki butun Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanish va rivojlanishiga oid nazariy tahlillar uchun ham muhim dalillar beradi.

Shuningdek, bu mavzu etnik jarayonlar, qadimgi qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va ijtimoiy strukturalarning evolyutsiyasini o‘rganishda, zamonaviy tarixshunoslik va antropologiya tadqiqotlari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Qovunchi madaniyatining Qashqadaryo vohasidagi tarqalishini har tomonlama chuqur tadqiq etish mintaqaning tarixiy-madaniy merosini anglash va uni kelajak avlodlarga yetkazish vazifasida katta o‘rin tutadi.

So‘nggi antik va ilk o‘rta asrlar davrida O’rta Osiyo aholisining ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada mulkiy tabaqalanish jadal kechadi. O‘rta Osiyoning qadimgi sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida bronza davrida paydo bo‘la boshlagan kashovarzlar yer egaligi va dehqonzodalar jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Natijada, chorvachilik va hunarmandchilikning barcha jabhalarida, savdo-sotiqda yirik mulk egalari dehqonzodalar va o‘rta va mayda mulk egalari-kashovarzlar bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy hayotining asosi bo‘lib qoldi. Jamiyatda harbiy hokimiyat o‘rnatgan turkiy siyosiy kuchlar esa O‘rta Osiyo shimoli – sharqidan to‘xtovsiz turkiy etnik guruhlarni kirib kelishini tezlatadi [1, – B.321-350]. Bu tarixiy va etnogenetik jarayonlar nafaqat yozma manbalarda, balki ilk o‘rta asrlar davri arxeologik materiallarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston hududlari bo‘ylab olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik izlanishlarga ko‘ra, o‘zbek xalqi etnogenezining fundamental asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyatining ta’sir doirasi so‘ngi antik davrdan boshlab, Sirdaryoning o‘rta havzalari doirasidan chiqadi. Endi, u mintaqaviy tarixiy jarayon emas, balki butun O‘zbekiston hudularida yuz bergan tarixiy voqelikka aylanadi.

Arxeologik materiallarning tahliliga ko‘ra, Qovunchi madaniyatining ta’siri sharqda to Chatqol [8, – B.9-62], Pskem va Tolos vodiylarigacha [9, – B.33-77] kirib boradi. G‘arbda Qovunchi madaniyatining chorvadorlari Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo vohasigacha kirib boradilar [3, – B.16]. Qovunchi madaniyatining ta’siri ayniqsa, Markaziy va G‘arbiy Sug‘d adir va tog‘ oldi hududlarida keng tarqalganini ko‘ramiz. Bu haqda Oqjar, Sazagan, Qizilqir [10, – B.60-78], Lavandak, Xazara qo‘rg‘onlari dalolat beradi [11, – B.58-70].

Bu qo’rg’onlardan topilgan turkiy ajdodlarimizga tegishli qabrlar Janubiy O‘rol va Quyi Volga bo‘yi dashtlarining skifo-sarmat qabilalari bilan genetik bog‘liqligini ko’rsatadi [14, – B.225]. Ammo, bu hududlarda tadqiqot olib borgan O.V.Obelchenko sarmat qabilalarining Qashqadaryo vohasiga kirib kelishini mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida Yuechjilarning O‘rta Osiyo ichki viloyatlariga kirib kelishi bilan bog‘laydi [13, – B.173-176]. Ammo, sarmatlar O‘rta Osiyo hudulariga ungacha, yuechjilardan avvalroq, quyi Sirdaryo orqali Aris va Toshkent vohasiga kirib kelib, Qovunchi madaniyatini tarkib topishida faol qatnashgan edilar. Yuechjilar

esa Sharqiy Turkistondan O‘rta Osiyo hududlariga qadimgi Farg‘ona, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo orqali Janubiy O‘zbekiston hududlariga o‘tib ketadilar va mil. avv. I milodiy asr boshlarida qadimgi Baqtriya hududlarida Kushonlar imperiyasiga asos soladilar [1, – B.321-333].

Qashqadaryo vohasida XX asrning 60 yillardan boshlab ommaviy ravishda yangi yerlarni o‘zlashtirish va qishloq qurilishi maydoniga aylanishi munosabati bilan arxeologik izlanishlar boshlanadi. Shu munosabat bilan bu mintaqada S.K.Kabanov boshchiligida keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Natijada, 100 ga yaqin qadimgi shaharlar, shaharmonand qishloqlar va mayda mulk egalarining qo‘rg‘onlari ochib o‘rganildi [7, – B.4-135].

Yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar tufayli vohaning tarixiy topografiyasi va ommaviy ravishda o‘zlashtirish davri aniqlandi. Vohada Yerqo‘rg‘on, Shulliktepa, Qalai Zaxoki Maron, Mo‘dintepa kabi yodgorliklar milodgacha shakllangan qadimgi aholi manzilgohlari bo‘lib, ularning quyi qatlamlarida qadimgi sharq madaniyatiga xos iqtisodiy-xo‘jalik va etnomadaniy an’analar ko‘zga tashlanadi. Bu davr moddiy madaniyati ko‘p jihatdan yuksak darajada rivojlangan nafis, xushbichim va jarangdor kulolchilik mahsulotiga boy, sifat ko‘rsatgichi yuqori bo‘lgan. Bu yuksaklik milodiy III asrdan boshlab, o‘zining avvalgi sifatini yo‘qotadi. Bu kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, milodiy III asrdan boshlab, voha hayotida tub o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar arxeologik yodgorliklar misolida uch xronologik bosqichlarga bo‘lib o‘rganilgan [7, – B.90-97]. Birinchi bosqichda (III-V asrlar) Qashqadaryo vohasiga ommaviy ravishda yangi etnik guruhlar kirib keladi. Ularning moddiy madaniyat izlari Pirmamattepa, Qo‘shtepa-2, Neguztepa, Kadjartepa va Dag‘aytepaning quyi qatlamlari, Mo‘dintepaning o‘rta qatlamlarida topilgan. Bu yodgorliklarda dehqonzodalar qasri ko‘zga tashlanmaydi, ularda uncha baland bo‘lmagan tepalik sifatida kashovarzlarning hovli-joylari ajralib turadi.

Ammo, kulolchilik mahsulotlari dag‘allashadi, idishlar devori qalin, qo‘lda yasalgan Qovunchi madaniyatiga xos sopol qozonlar, xum va xumchalar, zoomorf ruchkali sopol chilimdon va pilta chiroqdonlar paydo bo‘ladi. Kulolchilik charxida ishlangan idishlar tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Kundalik hayotda keng qo‘llanib kelingan nafis qadahchalar mutlaqo yo‘qoladi, ular o‘rniga dastali krujkalar paydo bo‘ladi. Sopol sirtini qizil va qora oxra yordamida pardozlash yo‘qoladi. Qadimgi keramika kompleksida uchramaydigan, Qovunchi madaniyatiga xos yupqa devorli ko‘za va xurmachalar paydo bo‘ladi[1, – B. 334].

Qashqadaryo vohasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ikkinchi bosqichida (V-VI asrlar) yanada olg‘a siljishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar mintaqada turkiy etnik qatlamning tabora qalinlashib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu arxeologik ob’ektlarning tipologik xarakterida ham o‘z aksini topgan. Bu davrda Qashqadaryo vohasida ikki yarusli turar-joy massivlari keng ko‘lamda qad ko‘taradi. Bunday topografik ko‘rinishdagi tepalarning baland qismi mulkdor dehqonzodalarning ikki qavatli qilib qurilgan mahobatli qasr xarobalarini o‘rni bo‘lsa, unga bir tomondan qadalib tarkib topgan keng ochiq maydon esa, yengil devor-g‘ovlar bilan o‘ralgan hayvon qo‘ralari vazifasini o‘tagan. Ularning maydonida o‘ta yumshoq gumusli qalin

tuproq qatlamlari hosil bo‘lgan bo‘lib, haqiqatda ular hayvon qo‘ralari vazifasini o‘taganligidan dalolat beradi.

Arxeologik izlanishlar kuzatuvlariga ko‘ra, bunday tarkibli turar-joy massivlari, mahalliy sug‘diy aholi ta’sirida jadal o‘troqlashib borayotgan Qovunchi madaniyati qabilalarga xos shaharlar bo‘lgan. Bunday tipdagi katta mulk egalarining qasrlari antik davrining yirik shaharlari tashqarisida, V-VI asrlarda dehqonzodalarning yer-mulkida paydo bo‘lgan mayda shaharlar tipini tashkil etadi. Ular atrofi mudofaa devorlari bilan o‘ralib, ular doirasida sekin-asta kadivarlarining turar-joy massivlari paydo bo‘ladi va ular ilk o‘rta asrlar davrining mayda shaharlariga aylanib boradi.

Qashqadaryo vohasida o‘rganilgan bu davr shaharlarini Sho‘rtepa, Chauqaytepa, Kichik Qiztepa[5, – B.71-86] va boshqa arxeologik ob’ektlar misolida ko‘rish mumkin. Bu tepalarning gumusga boy tuprog‘idan yaqingacha atrof qishloq dehqonlari ekinga o‘g‘it sifatida foydalanib kelishgan[7, – B.91-92]. Bunday tipdagi shaharlarning paydo bo‘lishi faqat Qashqadaryo vohasiga xos bo‘lmay, balki ilk o‘rta asrlarda butun O‘rta Osiyoda keng tarqalgan yangi shaharlar tipini tashkil etadi. Albatta, bu tarixiy jarayon mintaqada turkiy ruhiyatning ustunlashib borayotganligidan dalolat berar edi.

Bu davr kulolchiligiga tegishli sopollarning ma’lum qismi tipi va tarkibiga ko‘ra, qadimgi sug‘d kulolchiligi an’analariga borib taqalmaydi, aksincha ular ko‘proq Qovunchi madaniyati kulolchiligini eslatadi. Masalan, sopol chilimdonlarning yopishtirma piston gulli naqshlari Qo‘shtepa-2 yodgorligining mahalliy sug‘diy chilimdon gullariga nisbatan dag‘al va soddaligi bilan farq qiladi. Qo‘l charxida yasalgan qorni keng va bo‘g‘zi tor bir ruchkali ko‘zalar, jumrakli xumchalar, qalin devorli sopol qozon va issiqqa chidamli tovalar yasash davom etadi[1, – B.335].

Qashqadaryo vohasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining uchinchi bosqichida (VI-VII asrlar) shaharsozlikda ikki yarusli qasrlar qurish amaliyotda davom etadi. Yangi paydo bo‘lgan shaharlar orasida Kultepa kabi qasri mustahkam va mahobatli, ikkinchi yarusi keng va qalin devorlar bilan o‘ralgan aholi manzillari qad ko‘taradi.

Bu davr moddiy madaniyatining asosini temirdan ishlangan mehnat qurollari va misdan ishlangan kundalik turmush buyumlari tashkil etadi. Kulolchilik mahsulotlarining tarkibi o‘zgaradi, kosasimon qadahlar, yupqa devorli ko‘zachalar, yopishtirma naqshli idishlar yo‘qolib, og‘zi keng nim kosalar, qorni chiqqan xumchalar va obdastasifat xushbichim ko‘zachalar ko‘payadi. Bunday keramika kompleksi Kadjartepaning o‘rta qatlamlariga xos bo‘lsa, buning aksini vohaning boshqa bir yodgorligi - Kultepada kuzatish mumkin. Demak, ilk o‘rta asrlar davrining VI-VII asrlarida kulolchilikda ikki yo‘nalish, ikki maktab an’analarini kuzatish mumkin. Agar, Kadjartepada vohaning tub joyli qadimiy o‘troq aholisiga xos rivojlanish kuzatilsa, Qo‘shtepada turkiygo‘y chorvadorlar, ya’ni ularning o‘troq hayotga o‘tish holati kuzatiladi[7, – B.93].

Arxeologik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, Qovunchi madaniyatining ta’sir doirasi O‘zbekistonning janubiy mintaqalari kirib borganligini arxeolog T.Annaev “Shimoliy Toxaristonning ilk o‘rta asrlar keramikasini bir guruhi” haqidagi maqolasida bayon etgan. T. Annaev o‘z maqolasida mintaqada keng tarqalgan sopol krujkalar klassifikatsiyasini bergan[2, – B.73]. Chizmada Qovunchi madaniyatiga xos bir quloqli va qo‘shaloq quloqli krujkalarning yodgorliklar bo‘yicha tarqalish

geografiyasini ishlab chiqqan. Krujkalar korpusi piyolasimon, qorni bo‘rtib chiqqan, konussimon, silindrokonus, xurmachasimon shakllarda bo‘lib, deyarli ularning barchasi kulolchilik charxida yasalgan. Ular bir yoki qo‘sh quloqli bo‘lib, ular topilgan madaniy qatlamlar milodiy V asrning ikkinchi yarmi - VII asrga tegishli, deb belgilangan. Ular orasida dastasi zoomorfli to‘g‘ri korpusli bo‘ydor krujkalar ham uchraydi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan ma’lumotlardan ma’lumki, Qovunchi-II davridan boshlab, Qovunchi madaniyati va uning O‘zbekiston hududlari bo‘ylab tarqalishi arxeologik materiallarda yaxshi kuzatiladi[15, – B.86-100]. Bu esa o‘z navbatida so‘nggi antik va ilk o‘rta asrlarda turkiy etnik guruhlarning butun O‘rta Osiyo hududlarida keng yoyilishi va antik hamda ilk o‘rta asrlar davomida o‘zbek etnogenezining jadal kechishidan guvohlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
2. Аннаев Т. ДЖ. Об одной группе раннесредневековой керамики Северного Тохаристана. ИМКУ, XXI, Т.: 1987.
3. Кабанов С.К. Археологические данные по истории Нахшеба в III-V вв. н.э. ВДИ, № II.
4. Кабанов С.К. Археологические данные к этнической истории Южного Согда в III-VI годах. СА № I, 1963, стр. 82;
5. Кабанов С.К. Руины поселения III-V вв.в долине Кашкадарьи. ИМКУ, вып. VI, Т.: 1965. стр. 71-86;
6. Кабанов С.К. Шахурин К.А. Археологическая разведка в верховьях р. Кашкадарьи. ИМКУ, вып. VII. Т.: 1966. с. 119;
7. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III-VII вв.) Т.: 1977.
8. Кибиров А.К. Археологические памятники Чаткала. В сб. “Труды КАЭЭ». Т.II, Москва. 1959.
9. Кожомбердиев И. Катакомбные памятники Таласской долины. В сб. «Археологические памятники Таласской долины». Фрунзе. 1963.
10. Нильсен В.А. Кызыл-кыр (результаты раскопок 1955 г.). ИМКУ, вып. I, Т.: 1959. стр. 60-78.
11. Обельченко О.В. Могильник Акджартепе. ИМКУ, вып. III. Т.: 1962. стр.58-70;
12. Обельченко О.В. Лявандакский могильник. ИМКУ, вып II. Т.: 1961.
13. Обельченко О.В. Курганные погребения первых веков н.э. и кенотафы Куйи-Мазарского могильника. Тр. САГУ, вып. CXI. Археологии Средней Азии, IV, Т.: 1957. с. 1-9.
14. Сатторов Н. XX-XXI аср бошлари илмий тадқиқотларида ўзбек халқи этногенези масалаларининг ёритилиши. Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дис. – Ташкент, 2023.

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДА АҲМАДАЛИ АСҚАРОВ ТОПИЛМАЛАРИ АСОСИДА ШАКЛЛАНГАН СОПОЛЛИТЕПА ЭКСПОЗИЦИЯСИ

Дилафрўз КАРИМОВА
ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи илмий бўлим мудири, (PhD)

Аннотация: *Ушбу мақолада Ўзбекистон тарихи давлат музейи бронза даври экспозицияси топилмалари ҳақида сўз юритилади. Асосий эътибор бронза даври Сополлитепа ёдгорлиги топилмаларига қаратилган. Ушбу ёдгорликдан топилган сопол буюмлар ва муҳрлар ёритилган.* ***Калит сўзлар:*** *экспозиция, топилма, бронза даври, Сополлитепа ёдгорлиги, муҳр, сопол буюм, музей.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются находки экспозиции эпохи бронзы Государственного музея истории Узбекистана. Основное внимание уделяется находкам памятника Сополлитепа эпохи бронзы. Керамика и печати, найденные в этом памятнике, освещены.* ***Ключевые слова:*** *экспозиция, находка, бронзовый век, памятник Сополлитепа, печать, керамика, музей.*

Annotation: *This article discusses the finds of the exposition of the Bronze Age of the State Museum of the History of Uzbekistan. The main attention is paid to the finds of the Sopollitepa monument of the Bronze Age. Pottery and seals found in this monument are illuminated.* ***Key words:*** *exposition, discovery, Bronze Age, Sopollitepa monument, printing, ceramics, museum.*

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи 145 йилдан ортиқ вақт давомида шаклланиб келаётган ва ҳозирги кунга келиб нуфузли салоҳиятга эга бўлган йирик илмий-маърифий марказ ҳисобланади. 1992 йилда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорига мувофиқ қайта тузилган музей ўз вақтида 1876 йилда ташкил қилинган Тошкент музейи негизида шаклланган эди. 1943 йилда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ташкил этилиши билан музей республиканинг бош музейи сифатида унинг тасарруфига киритилди. Бу унинг келгуси илмий фаолиятида муҳим аҳамиятга эга бўлди [1, - Б.14].

Музей экспозициясидан тарихимизнинг энг қадимги давридан то бугунги кунигача бўлган топилмалар ўрин олган. Бу кетма-кетлик қадимиятимиздан бугунги кунимизгача бўлган тарихимизнинг ривожланиш босқичини бир бутун ҳолатда акс эттиради.

Ўзбекистон тарихи давлат музейи ўз фондларида Ўрта Осиёнинг биринчи даражали илмий аҳамиятга эга ва дунёга машҳур бўлган юз минглаб моддий ва маънавий ёдгорликларини сақлаб келади [2, - Б.36]. Ушбу бой мероснинг таркибий қисми бугунги кунда биргина Археология фонди 70 мингдан зиёд ёдгорлик буюмларини ўз ичига олган. Уларнинг орасида бронза даври топилмалари алоҳида диққатга сазовор. Бу давр халқимиз тарихида алоҳида тараққиёт даражаси билан ажралиб туради. Илк шаҳарларнинг пайдо бўлиши, илк давлатчилик илдизлари, жуфт оилаларнинг вужудга келиши, деҳқончилик ва чорвачиликнинг алоҳида ихтисослашуви буларнинг барчаси бронза даври маҳсулидир.

Музейнинг “Ўзбекистон бронза даврида” номли экспозицияси экспонатларга жуда бой. Бронза даври деҳқон жамоалари топилмалари алоҳида, чорвадор жамоаларига тегишли топилмалар алоҳида жойлаштирилган. Экспозициянинг бронза даври деҳқон жамоаларига тегишли витриналарида сопол буюмлар, зеб-зийнат буюмлари, муҳрлар, қурол-аслаҳалар, эътиқод билан боғлиқ буюмлар ўрин олган. Бу топилмалар бизга бундан 3,5 минг йил олдин яшаган аждодларимизнинг турмуш-тарзи, хунармандчилиги, анъаналари қандай бўлганлиги ҳақида тасаввур қилиш имконини беради.

Музей археология фондидаги ноёб ва аҳамиятга молик бўлган буюмларнинг маълум бир қисмини Сурхондарё вилояти ҳудудларидаги қадимги давр маданиятларига оид ёдгорликларда олиб борилган археологик текширишлар жараёнида топилган топилмалар ташкил этади. 1975 йилда Музей коллекцияси Сополлитепада (мил. авв. XVII – XV асрлар) академик А. А. Асқаров раҳбарлигида олиб борилган қазиш ишларида топилган материаллар билан тўлдирилди (253-коллекция). 1978 йилда Ўзбекистон РеспубликасФанлар академиясининг Археология институти Музейга Жарқўтон ва Муллалитепа қишлоғидан топилган ашёларни топширди [2, - Б.44].

Деҳқончилик жамоасига тегишли топилмалар жойлашган витринада Сополлитепа ёдгорлиги топилмалари орқали уларнинг турмуш-тарзи, хўжалиги, дафн маросимлари, ҳунармандчилик соҳалари ўзига хос тарзда ёритилган.

Биринчи навбатда диққатимизни сопол буюмларга қаратамиз. Бу ёдгорлик сопол буюмларининг асосий қисми қабрлардан топилган. Сабаби бу давр урф-одатига кўра, вафот этган инсон биринчи навбатда ўзлари яшаган уй ичига дафн этилган. Агар оила бошлиғи эркак киши вафот этса, уй посбони, қўриқчиси сифатида уйнинг кириш қисми ҳисобланган остона остига дафн этилган. Аёл киши вафот этса уйнинг ошхона қисмига дафн этилган. Бунинг маъноси аёл ошхона эгаси ҳисобланган бўлиши мумкин. Агар вафот этган киши ёши улуғ инсон бўлса уйнинг махсус хонасига дафн этилган. Буларнинг барчаси Сополлитепа ёдгорлигида аниқ номоён кўринишда археолог А.Асқаров раҳбарлигида олиб борилган археологик қазишмалар натижасида топилган. Бу ёдгорликдан 153 та қабр аниқланган бўлиб, уларнинг барчаси махсус буюмлар билан дафн этилган. Дафн анжомларининг кўп қисмини сопол буюмлар ташкил этган.

Қабрларда 10 тадан 30-40 тагача дафн анжомлари қўйилган бўлса, уларнинг кўп қисмини сопол идишлар, ундан сўнг бронзадан ишланган буюмлар ва ҳар хил тақинчоқлар ташкил этади. Бундан ташқари, кўмиш билан боғлиқ буюмлар орасида ҳаттоки юмшоқ буюмлар – тери, ёғоч, буғдой поя ва новдалардан тўқилган идишлар, кийим қолдиқлари учрайдики, булар ўша давр одамларининг хўжалигини аниқ тасаввур этишга ёрдам беради [3, - С.23].

Марҳум «нариги дунёга» кузатилар экан, қариндошлари ва жамоадаги яқин кишилари томонидан махсус овқатлар тайёрлаб, идишларга солиб, уларни марҳум ёнига жойлаштирганлар. Улар бу нарсаларни «нариги дунё»га етиб олгунча марҳумга зарур бўлади, деб тасаввур қилган. Бундай тартибда дафн этиш ўша давр аҳолиси онггида вафот этган яқинларини ҳамиша ёнларида,

мадад бериб туриши ҳақидаги тушунча кучли бўлганлигига ишорадир [4, - Б.64].

Сополли маданиятининг энг асосий ёдгорликлари ҳисобланган Сополлитепа ва Жарқўтон ёдгорликларидан кўплаб муҳрлар топилган ва адабиётларда ёритилган [5, - Табл. LI].

Сополли маданиятига оид муҳрлар асосан металл (мис, бронза), ҳар хил юмшоқ таркибли тошлардан ва сополдан ясалган. Улар кўпинча тақиб юришга мўлжалланганлиги сабабли балдоқли, тошдан ясалган муҳрларда эса тешикчаларнинг бўлиши характерлидир. Сополли маданияти муҳрларини хронологик давр асосида ёритиш мақсадга мувофиқдир.

Сополли даври муҳрлари**.** Сополлитепадан жами 22 та муҳр топилган бўлиб, ушбу муҳрлар мажмуаси А.А. Асқаров томонидан чоп этилган [5, - С.79]. Улар шаклларига қараб тўрт гуруҳга бўлинган (чўзинчоқ, хоч, тўпбаргсимон, тўғногич-муҳрлар). Бизнинг фикримизча, муҳрларни классификация қилишда аввал улар ясалган ашёга қараб гуруҳларга ажратиш мақсадга мувофиқ [6, - Б.144-145]. Сополлитепа муҳрлари сопол, тош, ёғоч ва металлдан ясалган. Тош муҳрлар асосан юмшоқ таркибли тошлардан ясалган бўлиб, хочсимон, юлдузсимон, тўпбаргсимон шаклларда ишланган.

Хочсимон муҳр оқ мармар тошдан ясалган, балдоқли. Балдоқда ип ўтказишга мўлжалланган тешикча ясалган. Қалинлиги 2 см, хочларнинг узунлиги 3 см. Муҳрнинг юза қисмига, хоч шаклига мослаб бургут тасвири туширилган, яъни бир қиррасига бургут боши, кўзи ва ўткир тумшуқлари, икки ён қиррасига эса ёйилиб турган икки қаноти, тўртинчи қиррасига эса кенг думлари чизилган [7, - Б. 145].

Бронзадан ясалган муҳрлар 14 дона бўлиб, шакл жиҳатидан улар тош муҳрларга ўхшайди, яъни юлдузсимон, ялпоқсимон ва тўпбаргсимон муҳрларга бўлинади.

А.А. Асқаров томонидан Сополлитепа жамоасининг умум муҳри деб таърифланган, бронзадан ясалган муҳр квадрат шаклда бўлиб, бир томонида симметрик равишда жойлашган тўртта илон, иккинчи томонида тўртта илоҳий ҳайвонлар ифодаланган. Ушбу муҳрга аналогия ҳозирча Қадимги Шарқ дунёсида учрамаган. Агар А.А. Асқаров фикри тўғри бўлиб, у ҳақиқатан ҳам Сополлитепа жамоасининг умум муҳри бўлса, унда бошқа ёдгорликдан шу сингари муҳрлар учрамаслиги ҳам табиийдир. Сополлитепанинг саккизта кварталдан иборатлиги ва ушбу муҳрда ҳам саккизта ҳайвоннинг тасвирланиши А.А. Асқаровнинг фикри тўғри эканлигини тасдиқлайди.

Жарқўтондан топилган бир туморда бир томонида икки ўркачли туя, иккинчи томонида эса, одамнинг минг йилликлар давомида асл кўринишини йўқотган акси ўз ифодасини топган. Агар ушбу тумор таҳлили билан боғлиқ фаразларимиз тўғри бўлса, у ҳолда тарихий шахс Зардушт ҳаётини авестошунос олима Мери Бойс таъкидлаганидек, сўнгги бронза даври билан боғлаш имконини беради. Илк зардуштийлик пайдо бўла бошлаган ҳудуд сифатида эса, Турон ўлкаси дейиш мумкин [4, - Б.127].

Икки ўркачли туянинг илоҳий ҳайвон бўлганлигини, яъни зоолатрик характер касб этганлиги бир нечта далиллар орқали ўз исботини топади.

Буларнинг биринчиси, туянинг терракот ҳайкал сифатида ифодаланиши бўлса, «Авесто»да у «кучли», «баджаҳл» ҳайвон сифатида тилга олинади. Яна бир асосий исботи зардуштийликнинг асосчиси исмида туя сўзи қўлланилишидир. «Zaraoushtra» даги «ushtra» сўзи туяни эканлиги бу ҳайвоннинг илоҳийлик белгисидир [7, - Б.21-22]. Икки ўркачли туя мил.авв. III-II минг йилликларда Марказий Осиёда хонакилаштирилганлиги ва мил.авв. II минг йилликда Месопотамиягача кириб борганлиги ҳақида маълумотлар бор [8, - Б.173]. Аслида, зардуштийлик дини ҳам оташпарастликнинг заминида пайдо бўлган. Зардушт томонидан дин ислоҳ қилинганлиги инобатга олинса, демак уларнинг келиб чиқиши, илк босқичлари ҳам оташпарастлик дини ва унга эътиқод қилиш кучли бўлган ҳудудларда, оташпарастлар сиғинадиган мафкуравий марказлар бор жойда пайдо бўлиши ҳақиқатга яқиндир [9, - Б. 54-60].

Шундай тараққиёт бўлган экан, бу даврда яшаган аждодларимиздан қолган топилмалар ҳам турли туманлиги билан эътиборлидир. Яна муҳим жиҳати бу даврда турли касб йўналишлари, ҳуранмандчиликнинг ривожланиши, деҳқончилик ва чорвачиликнинг алоҳида тармоқ сифатида фаолият юритиши бу соҳанинг кейинги давр ривожини белгилаб берган бўлса ажаб эмас.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон тарихи давлат музейи. Биринчи қисм. Археология ва нумизматика. «SILK ROAD MEDIA» • «EAST STAR MEDIA». – Тошкент, 2020. – Б. 14.
2. Минасянц В., Арипджанов О. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи Археология тўплами // Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон тарихи давлат музейи. Биринчи қисм. Археология ва нумизматика. «SILK ROAD MEDIA» • «EAST STAR MEDIA». – Тошкент, 2020. – Б. 36.
3. Аскаров А., Буряков Ю.Ф., Квирквелия О.Р., Радилиловский В.В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. –Т., 1988. – С. 23.
4. Каримова Д. Шимолий Бақтрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида) // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент, 2017. – Б. 64.
5. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977.– Табл. LI., – С. 79.
6. Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида) Т.ф.д. диссер. 2009. 144-145.
7. Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // Тарих фан. док. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2009. – С. 21-22.
8. Иванов В.В. О соотношении археологических, лингвистических и культурно-семиотических реконструкций на материале комплекса Тоголок – 21 // ВДИ. – М., 1989. – №2. – С. 173.
9. Каримова Д. Бронза даври уруғ жамоалари диний тасаввурларининг моддий маданиятда кузатилиши // ЎзМУ хабарлари. – Т., 2013. – Б. 54-60.

ТОШКЕН ВОҲАСИДАГИ ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТИГА ОИД ЯРИМ ЕРТЎЛАЛАР (СУЮРЛИТЕПА ЁДГОРЛИГИ МИСОЛИДА)

B. ISABEKOV
O‘zbekiston FA Milliy arxeologiya markazi, PhD
behzodisabekov49@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Оҳангарон туманида жойлашган Суюрлитепа ёдгорлигида олиб борилган археологик қазув ишлари натижалари таҳлил қилинади. Ёдгорлик Қовунчи маданиятининг II босқичига оид бўлиб, унда аниқланган ярим ертўла шаклидаги турар жойлар, кулолчилик буюмлари, меҳнат қуроллари ва маданий қатлам хусусиятлари ўша даврнинг ҳаёт тарзи ва хўжалик фаолиятини ёритиб беради. Қазишмалар натижасида топилган археологик материаллар Шертепа аҳолиси ўтроқ турмуш тарзига ўта бошлаганлигини, уларнинг қурилиш анъаналари, кулолчилик буюмларини ясаш, ишлаб чиқариш маданияти юқори даражада бўлганлигини кўрсатади.* ***Калит сўзлар.*** *Шертепа, ертўла, Кўҳандиз, Суюрлитепа, Қовунчи маданияти, Жетиасар, Ўтрор, Қизилқир.*

Аннотация: *В данной статье анализируются результаты археологических раскопок на памятнике Суюрлитепа, расположенном в Охангаронском районе. Памятник относится ко второму этапу Кавунчинской культуры, в ходе исследований были обнаружены полуземлянки, гончарные изделия, орудия труда и особенности культурного слоя, отражающие образ жизни и хозяйственную деятельность того времени. Найденные археологические материалы свидетельствуют о переходе населения Шертепа к оседлому образу жизни, о высоком уровне строительных традиций, производства керамики и ремесленного мастерства.* ***Ключевые слова:*** *Шертепа, землянка, Кохандыз, Суюрлитепа, Кавунчи культура, Джетиасар, Утрар, Кызылкир.*

Abstract: *This article analyzes the results of archaeological excavations at the Suyurlitepa site, located in the Ohangaron district. The site belongs to the second stage of the Qovunchi culture. During the excavations, semi-subterranean dwellings, pottery, tools, and features of the cultural layer reflecting the lifestyle and economic activities of that period were discovered. The archaeological materials found indicate the transition of the Shertapa population to a sedentary lifestyle, as well as a high level of construction traditions, pottery production, and craftsmanship.* ***Keywords:*** *Shertepa, cellar, Kohandiz, Suyurlitepa, Qovunchi culture, Jetiasar, O'tror, Kyzilqir.*

Суюрлитепа ёдгорлиги Оҳангарон туманининг Қорабулоқ қишлоғи жанубий чегарасида, Олмалиқ-Ангрен йўлининг ўнг томонида, Оҳангарон дарёсининг иккинчи террасаси устида жойлашган. Тепаликнинг шимоли-ғарбий бурчаги унинг энг баланд қисми бўлиб, у камида 20 м.лар чамаси қалинликда дарё шағаллари аралаш соз тупроқ қатламлари устида жойлашган. Кўҳна шаҳар марказида кўҳандиз, унинг атрофида шаҳристонлар, жанубий шаҳристон ташқарисида, шаҳар ҳукмдорининг боғу-роғлари, улардан жанубда қадимги металлургларнинг мудофаа девори билан ўралган металл хомашёси ишлаб чиқариш устахоналари жойлашган. Унинг жануби-шарқий тепалигида металлургларга оид мажмуа жойлашган. Улардан жанубий кенглик томонга қараб, тоғ остига қадар адирликларда сойлар бўйлаб мозор-қўрғонлар жойлашган [8, – B. 40-42].

Айнан атрофи мудофаа девори билан ўралган Суюрлитепа ёдгорлиги марказидан 600 м жанубда, шартли равишда “Шертепа” деб номланган

ёдгорлиги худудида қазишма ишлари олиб борилди. Ушбу ёдгорлик Қурама тоғлари ёнбағрида жойлашган бўлиб, денгиз сатхидан 765-790 м баландликда 40,8900414 даража шимолий кенглик, 69,9134921 даража шарқий узунликда жойлашган. Ёдгорлик майдони 4 га, атрофида “гувалак” (аниқ ўлчамга эга бўлмаган қўлбола лой ғишт) билан қурилган девор билан ўралган. Ушбу деворнинг қалинлиги 1,5- 2 м. Ушбу ёдгорлик Қовунчи маданияти қишлоқ жамоасига тегишли бўлиб, бу каби манзилгоҳ ҳозирда дастлабки маротаба очиб ўрганилмоқда. Ёдгорлик материаллари Суюрлитепа комплекс материаллари қаторида алоҳида ажралиб турмаса ҳам, махобатли турар жойлари билан солиштирганда кескин фарқ қилади. Қовунчи маданияти вакилларига тегишли бўлган ёдгорликлар Марказий Осиёда эрамизнинг бошларида кенг тарқалган бўлиб, тарихчи олимлар томонидан ушбу маданият вакиллари ўзбек халқининг этник шаклланишидаги асосий негизини ташкил қилади.

Шертепа ёдгорлигининг энг баланд худудидан бир нечта қазув нуқталари очилди. Шулардан Р-1 қазув нуқтасида ярим ертўла шаклидаги турар жой қурилмаси ўрни аниқланди. Қазув худуди дастлаб 5х5 м ўлчамда олиниб, юза қатлами олиб ташланди. Қазув худудининг шимоли-ғарбий қисмида маданий қатлам излари аниқлангач қазув чегараси ғарб тарафга яна 2 м кенгайтрилди. Ушбу кенгайтиришлар натижасида ярим ертўлани чегаралари аниқлана бошлади. Турар жой тўғридан тўғри лёсс қатламдан 1-узунчоқ шаклда, кенглиги 3-4 м, эни 6-7 м ўлчамда аниқ ўлчам ва қоидаларга асосланмаган холда 1,5 м чуқурликка қазиб тушилган. Қазув давомида тупроқ лёсс тупроқдан фарқли равишда майинроқ ва таркибида кул, органика ва сопол қолдиқларини сақлаб қолганлиги аниқланди. Шу билан бирга тош мехнат қуроллари намуналари аниқланди. Дастлабки пол сатхи ва материаллар намуналари аниқланди. Қовунчи маданияти учун хос бўлган тўрт дона буқа бошли ўчоқ тагликлари қолдиқлари топилди. Тагликларнинг барчаси қўлда ясалган. Мана шундай буқа бошли ўчоқ тагликлари. Григорьев тамонидан Тошкент вохасидаги Қовунчитепа ёдгорлигидан топилиб [6, – В. 27], Қовунчи 2 босқичи билан даврлаштирилган. Шунингдек, Жанубий Қозоқистондаги Алимбайтепа, Шаушукумтепа ҳамда Ўтрор вохаси ахоли манзилгохларида ҳам кўплаб топилган [7, – В. 27-49].

Ярим ертўла пол сатхи марказга томон пасайиб боради ва пол сатхининг чекка тарафларида ётиш ёки ўтириш учун махсус майдонча суфалар хосил қилинган. Ушбу ярим ертўланинг атрофида девор ёки бошқа қурилмалар излари аниқланмади.

Турар жой шакли бироз қайрилган овал шаклда бўлиб тахминан ғарб тарафидан эшик ўрни қолдирилган. Чунки марказ қисмига қараб пастлаб борадиган йўлак ғарб тарафдан келган бўлиб, йўлак устида тошдан терилган кичик майдонча устида ўчоқ таглиги қолдиқлари аниқланди.

Турар жойнинг жанубий тарафида ўчоқ аниқланиб, унинг оғзи жануб тарафга қаратиб қурилган. Унинг қурилишига кўра бошқа турар жойга тегишли деган қарорга келинди. Очилган пол сатхига кўра ярим ертўла ўлчами 3-3,5Х 3 м ўлчамда бўлган. Ертўланинг шарқий тўрида тош ёрғучоқ ва кўза аниқланди. Шунингдек қўлда ясалган кўза намуналари топилди. Кўзанинг бўйи 29 см, оғзининг дияметри 8 см, атрофида, белида дастаси бор. Сиртига оч қизил ангоб

берилган. Ойнохояли жўмракли кўзалар Қовунчи маданияти характерини белгиловчи асосий кулолчилик буюмлари саналади[7, – В. 231-234]. Бу шаклдаги кўзалар Эртош-Дўлана [3, – В. 24-33], Тайпан [4, – В. 153-163], Дўланабулоқ [1, – В. 73-83], Кавардон, материалларида ҳам кўплаб учрайди [9, – В. 57].

Ертўланинг кейинги пол сатҳи очилиб унинг тузилиши биринчи пол сатҳига нисбатан бир мунча аниқроқ тасаввур хосил қилишимизга имконият берди. Ушбу пол сатхида ўчоқ шимолий-шарқ тарафида жойлашган. Ўчоқ думалоқ шаклда бўлиб, диаметри 46Х46 см, чуқурлиги 30-35 см, ён деворлари 4-5 см қалинликда қизариб куйган. Ўчоқ ҳам лёсс қатламдан ўйиб хосил қилинган. Ўчоқнинг шимоли-ғарбида идиш қўйиш мақсадида диаметри 28 см бўлган думалоқ чуқурча хосил қилинган. Ертўла атрофидаги гувалакдан қурилган деворнинг баъзи қисмлари аниқланди. Унинг жанубий қисми деворлари сақланган. Ертўланинг эни 1,90-2 м бўлиб узунлиги 3-3,5 м. Ертўланинг марказида тош мехнат қуроллари фойдаланишга яроқсиз бўлиб қолгандан сўнг ташлаб юборилиб уюм хосил қилинган.

Қазишмалар иккинчи ертўлада ҳам олиб борилди. Ертўланинг кириш қисми шимоли-ғарб тарафдан ясалган. Ушбу йўлакча эни 70-75 см. Йўлакнинг ўртаси бироз чуқурлашган, икки ён тарафи юқорилаб боради. Ярим ертўланинг ўлчами 2-2,5Х2 м. Иккинчи пол сатхи тўлиқ чизмага туширилгандан сўнг энг пастки пол сатхи очилди. Дастлабки ярим ертўланинг аниқ тасвири ушбу пол сатхида яққол намоён бўлди. Ушбу полни очиш мақсадида қазув худуди яна кенгайтирилди. Ғарб тарафдан яна 2 м, шимол тарафдан ҳам қазув худудининг ярмига қадар 2 м кенгайтирилди. Ушбу кенгайтиришлардан сўнг ярим ертўла тўлиғича очиб аниқланди. Ярим ертўла йўналиши шимолий-ғарб тарафга қараган бўлиб, тахминимизча релъеф ва ён атрофдаги турар-жойларга ёндошлик хисобга олинган. Ер устки тузилишига эътибор берилса турар жойлар излари нишаблик бўйлаб ярим ой шаклида қатор қилиб қилиб қурилганлигини кузатиш мумкин бўлади. Ер юзасида визуал холда турар жойлар ўрнида бўз чим қатлами тарқалганлиги сабабли уларни алоҳида ажратиб олиш мумкин бўлади. Бизни тахминимизга кўра турар жойлар пол сатхи қаттиқ бўлганлиги ва органик қолдиқларга бойлиги сабаб намлик яхши сақланиб туради ва бўз-ажриқ ўсимлиги учун қулай мухит пайдо бўлган. Тўғридан тўғри лёсс материк тупроқда ўсимликлар тури кам тарқалган.

Ер юзасидан 1-1,5 м чуқурликка қазиб тушилган, узунлиги 6,5 м эни 3-3,5 м атрофида. Турар жойни кириш қисми шимолий-ғарб тарафда. Кириш қисмининг ўнг тарафида диаметри 95-85 см, чуқурлиги 80 см бўлган овал шаклдаги хўжалик ўраси қайд қилинди. Ўрадан хурмачанинг синиғи топилди. Бўғзи тик чархда ясалган сирти ва ички қисмига оч қизил ангоб берилган сопол ажралиб туради. Унинг бўғзи тамонига арчагул тасвири туширилган. Ўранинг шимолий-ғарбида махсус сатх қилинган. Турар жойнинг жанубий ва ғарбий ён тарафлари синч девор қилинган. Девор асосан гувалакдан терилган. Девор орасида устун ўрнилари сақланиб қолган. устунлар оралиқ масофаси 1,60-2 м. Шарқий ва шимолий қисми материкдан бироз вертикал холатга яқин қилиб ўйиб тушилган. Гувалак ораларига лой ташланган. Лой орасида майда тош ва

сопол синиқлари учрайди. Улар орасида гардиш тик қўлда ясалган бўғзида дастаси бор тоғара ажралиб туради. Турар жойнинг жануби ва ғарбий тарафида ўтириш ва ётиш учун эни 80-90 см бўлган нишаблик хосил қилиниб, суфа сифатида фойдаланилган. Турар жойнинг марказий қисмида тўғри кириб келувчи йўлак хосил қилинган. Йўлакнинг икки ён тарафида эни 30-40 см бўлган зинасимон кўтарилиш хосил қилинган. Ушбу қисм оёқ қўйиш ва юришга қулайлик яратиш мақсадида қолдирилган. Марказга томон боришда йўлак устига сандал (ўчоқ) хосил қилинган. Сандалнинг девори юқорига томон 10-12 см кўтарилган. Унинг устидан манқалдон қолдиқлари ва 5-10 см қалинликдаги кул қатлами аниқланди.

Шу каби ярим ертўлалар Марказий Осиёда кенг тарқалган турар жой тури бўлиб, улар бронза давридан то ўрта асрларга қадар анъанавий тарзда қурилиб, фойдаланиб келинган. Бироқ шу каби ер тўлалар XVI асрларга қадар сақланиб қолганлиги манбаларда қайд этилган. Аниқланган турар жой тури – ярим ертўла, “шалаш”-(русча) , ёки “капа” тури III-VI аср Бухоро воҳаси маданиятида Қизилқир-II ёдгорлиги билан мос келади [10, – В. 41-53]. Тошкент вохасида шу каби турар жойлар Охангарон дарёси ўнг сохилидаги Туябўғиз ёдгорликларида аниқланган. Ярим ертўлаларнинг юқори қатламлари Қовунчи материаллари ва ривожланган ўрта асрлар даври материаллари билан қопланганлиги қайд этилган. Бу холат уларнинг даврийлигини аниқлашда бироз ноаниқликларни келтириб чиқарган [5, – В. 57].

Қазув ишлари давом эттирган холда Р-1 дан ғарб тарафда 2Х2 м ўлчамда яна бир қазишма олиб борилди. Қазишманинг шарқий тарафида думалоқ шаклдаги кул ўраси аниқланди. Ушбу ўрадан турли сопол синиқлари, хайвон суяклари, сурматошлар, метал парчалари аниқланди. Шулардан яққол ажралиб турувчи намуналари ҳам бор.

5Х5 м ўлчамдаги Р-2 қазув худудида олиб борилган қазув ишлари натижасида кўплаб моддий ашёлар аниқланди. Уларнинг катта қисми сопол идишлар намуналари бўлиб, тош қуроллар қолдиқлари хам учраб туради. Тупроқ қатлами асосан кул ва органика қолдиқлари сопол ашёлар билан аралаш массадан иборат. Ушбу қазув ишлари натижасини тўлиқ бўлиши учун қазув ишларини давом эттириш керак деб хисоблаймиз.

Ю. Ф. Буряковнинг фикрича, Қовунчи маданиятининг биринчи босқичида ўрта Сирдарё ҳавзаси қабилалари (Қовунчи ва Ўтрор-Қоратов)нинг қуйи Сирдарё (Жетиасар) қабилаларига маданий-хўжалик таъсири кўзга ташланади. Қовунчи маданиятининг Қовунчи 2 босқичида эса, унинг акси юз беради, яъни Тошкент воҳасида Жетиасар элементларининг фаоллашганлиги, у (Жетиасар) орқали Жанубий Сибир, Тоғли Олтой ва Жануби-Шарқий Урал орти ҳудудлари қабилаларининг Сирдарёнинг юқори оқими бўйлаб, Жанубий Қозоғистон, Тошкент воҳаси ва ундан то Фарғона водийсигача кириб борганлигини кузатиш мумкин [2, – В. 72].

Қазишма жараёнида топилган барча кулолчилик буюмлари Қовунчи маданиятиниг II босқичига оидлиги маълум бўлди. Ушбу манзилгохда яшаган ахоли II-IV асрдан бошлаб ўтроқ хаётга ўта бошлаганлиги бу ердан топилган ёрғучоқлар, мудофаа деворлари қатакобма қабрлар орқали кўришимиз мумкин.

Шертепадан топилган сопол буюмларнинг аксарияти Жетиасар маданияти ўхшашлиги туркий қабилаларнинг кўчиши билан боғлиқми деган фикрларнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Шу билан бирга, топилган моддий маданият намунаси орқали Қовунчи ва Жетиасар маданиятлари ўртасидаги ўзаро таъсир ҳамда маданий алоқалар бўйича муҳим хулосалар чиқариш мумкин. Ёдгорликда аниқланган қурилиш услублари, органик моддаларга бой маданий қатламлар ва суфа каби ички тузилиш элементлари аҳолининг ўтроқ турмушга ўтиш жараёнидаги архитектура анъаналари ва менталитетини ёритиб бермоқда. Ушбу маълумотлар Қовунчи маданияти доирасидаги маданий ўзгаришлар, миграция жараёнлари ва этник шаклланиш масалаларини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аскаров А, Иномов О, Исабеков Б. Комплекс погребальных памятников “Дуланабулак” в верховьях реки Ахангарана и его изучение // Традиции Востока и Запада в античной культуре Средней Азии, – Ташкент, 2010.
2. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982
3. Исабеков Б.И. Оҳангарон водийси Эртош-Дўлана мозор-қўрғонларининг ўрганилиши // Жамият ва инновациялар. – Тошкент. 2022. № 10.
4. Исабеков Б.И. Оҳангарондан дарёси юқори оқимидаги қадимий мозор-қўрғонлар // “Евроосиё халқлари маданий мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий конференцияси. – Жиззах 2022. № 12.
5. Дуке Х. Туябугузские поселение Бургулюкской культуры. Изд. “Фан”. Т. 1982.
6. Григорьев Г. В. Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе УзССР в 1934 г.
7. Левина Л. М. Керамика Нижней н Средней Сырдарьив I тысячелетии н. э. . – Москва, 1971.
8. Матякубов Х., Исабеков Б., Суюрлитепа // Moziydan sado. 2/90. 2021.
9. Шишкина. Г.В. Древняя и средневековая культура ЧАЧА. Памятники скотоводов Чача (курганы Каунчинской культуры в окрестностях Кавардана). – Ташкент, 1979.
10. Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. Отв. ред. М.И. Филанович. Изд. “Фан”. Т. 1983.

FARG‘ONA VODIYSI ANTIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGI (TARIXIY VA ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA)

Nurmuxammad G‘ULOMOV
Oriental universiteti Samarqand filiali

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
mrnurmuhammad3343@gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi antik davrining o‘rganilishi va uning davrlashtirilishi, asosiy yodgorliklari hamda ularni tarixiy va arxeologik manbalar bilan taqqoslash, xo‘jalik hayoti, kulolchilik buyumlari, arxitektura namunalari, hamda antik davrda g‘arb va sharq davlatlarini bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati ushbu hududga tasiri haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Farg‘ona vodiysi antik davri, davrlashtirish, tarixiy manbalar, arxeologik manbalar, Sho‘rabashot, Mingtepa, Quva, Qoradaryo, kulolchilik, dehqonchilik, chorvachilik, dafn marosimlari.*

Аннотация: *В данной статье представлены краткие сведения об изучении и периодизации античного периода Ферганской долины, основных памятниках и их сопоставлении с историческими и археологическими источниками, о хозяйственной жизни, керамических изделиях, образцах архитектуры, а также о влиянии Великого шелкового пути, соединявшего государства Запада и Востока, на данный регион в античный период.* ***Ключевые слова:*** *античный период Ферганской долины, периодизация, исторические источники, археологические источники, Шурабашат, Мингтепа, Кува, Корадарья, керамика, земледелие, скотоводство, погребальные обряды.*

Annotation: *This article provides a brief overview of the study and periodization of the ancient era of the Fergana Valley, its main archaeological sites, and their comparison with historical and archaeological sources. It also covers aspects of economic life, pottery, architectural examples, and the influence of the Great Silk Road, which connected the states of the East and West, on this region during antiquity.* ***Keywords:*** *ancient era of the Fergana Valley, periodization, historical sources, archaeological sources, Shurabashat, Mingtepa, Kuva, Qaradarya, pottery, agriculture, animal husbandry, burial customs.*

Farg‘ona vodiysi yirik tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri bo‘lib, u O‘rta Osiyoning shimoliy sharqiy qismida, Sirdaryo va uning irmoqlari havzasida joylashgan. O‘zbekistonning sharqiy hududidagi Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari ushbu vodiy tarkibiga kiradi. Ko‘hna Farg‘ona haqidagi yozma manbalar, asosan, Xitoy tarixiy yilnomalarida saqlanib qolgan. Bu davrda vodiy hududida Davan (Da-Yuan) davlati mavjud bo‘lgan bo‘lib, Xitoy manbalarida keltirilishicha bu davlat tarkibida 70 dan ortiq katta va kichik shaharlarni o‘z ichiga olgan [1, – B.149.].

Farg‘ona vodiysining antik davri sanasi miloddan avvalgi IV - milodiy IV asrlar bilan davrlashtirilgan. Farg‘ona vodiysida Y.A. Zadneprovskiyning fikricha Eylatan davri o‘rnini Sho‘rabashat davriga, keyin esa Marxamat davriga almashtirgan. Uning fikricha davrlashtirish quyidagicha:

Miloddan avvalgi 400-yil		Qoradaryo bosqichi
Miloddan avvalgi 300-yil	Sho‘raboshat davri	
Miloddan avvalgi 200-yil		Sho‘raboshat bosqichi
Miloddan avvalgi 100-yil		
Milodiy 100-yil		Marxamat bosqichi
Milodiy 200-yil	Marxamat davri	
Milodiy 300-yil		Xo‘jambog‘ bosqichi
Milodiy 400-yil		

Aksariyat tarixchilar va sharqshunoslar fransuz sinologi J.Deguine tomonidan 200 yildan ortiq vaqt ilgari taklif qilingan Xitoy yilnomalaridagi Davan (Da-Yuan)

podsholigini Farg‘ona bilan birlashtirishni qabul qiladilar. Davan haqidagi Xitoy ma’lumotlari miloddan avvalgi II-I asrlarga tegishli hisoblanadi. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona dehqonchilik va chorvachilik yuksak rivojlangan mamlakat sifatida namoyon bo‘lib, Davan otlari bilan mashhur bo‘lgan. Mamlakatda ko‘plab shaharlar mavjudligi haqida aytib o‘tilgan [2, – B.306.].

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, otlar Osiyoda qariyb 3000 yil avval insonlar tomonidan xonakilashtirilgan. Farg‘ona vodiysidagi bronza davriga oid bo‘lgan Dalvarzin yodgorligidan ham ko‘plab ot suyaklari aniqlangan. Shuncha vaqtdan buyon odamlar otlardan transport va oziq-ovqat vositasi sifatida foydalanib kelmoqdalar. O‘rta Osiyo hududidagi qadimgi ot turlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona samoviy tulporlari haqida birinchi bor Xitoy manbalarida ma’lumotlar uchragan bo‘lib, ushbu na’lumotlar miloddan avvalgi 136-115-yillarda Xitoy imperatori U-di tomonidan yuborilgan elchi Chjan Szyan yozib qoldirgan. U Farg‘ona vodiysi (Da-Yuan) haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarni yozib qoldirgan. “Davanliklar o‘troq hayot kechiradilar, dehqonchilik bilan shug‘ullanib, sholi va bug‘doy yetishtiradilar, ularda uzum sharob, ko‘plab yaxshi otlari bor” Shuningdek xitoy manbalarida Davan davlatining poytaxti Ershi shahri ekanligi haqida xabar beradilar [3, – B.57-58.]. Xitoyliklarni, ayniqsa, ularga tanish bo‘lmagan beda va uzum hayratda qoldiradi. Ushbu manbada yana shunday deyiladi: “Xitoy elchisi urug‘ olib keldi, keyin jannat o‘g‘li (Xitoy imperatori) boy yerga beda va uzum ekishni boshladi”. Shunday qilib qadimda xitoylarning o‘zlari Markaziy Osiyodan eng muhim qishloq xo‘jaligi ekinlarini olib ketishgan ekanligini qayd etishadi. Farg‘ona aholisi, arxeologik ma’lumotlarga qaraganda, O‘rta Osiyoda Ahamoniylar hokimiyatining mustahkamlanishi davrida ham o‘zining madaniy o‘ziga xosligini va, ehtimol, siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan. Farg‘onaning g‘arbiy chegaralari yaqinida Sirdaryo sohilida Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlari to‘xtatildi. Keyingi davrlarda salavkiylar sarkardasi Demodamusning Yaksartga yurishi va Yunon-Baqtriya hukmdori Evtidimning Serlar mamlakatiga (Sharqiy Turkiston) yurishi haqidagi xabarlar manbalarda saqlanib qolgan. Biroq Farg‘ona Salavkiylar saltanati va Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kiradi, deb taxmin qilish uchun aniq bir asosimiz yo‘q. Miloddan avvalgi II asr oxirida Yuechji qabilalari Davan orqali o‘tgan, ular keyinchalik O‘rta Osiyoning janubida bo‘lajak Kushon imperiyasiga asos solgan. Arxeologik tadqiqotlar olib borgan N.G. Gorbunova(1975), M.E. Massonlarning (1975) fikricha, Farg‘ona A.N. Bernshtamning (1951) taxminiga zid ravishda Kushonlar davlati tarkibiga kirmay (eramizning I-IV asrlari) va o‘z mustaqilligini saqlab qolgan.

Qisqacha tarixiy sharhdan ma'lum bo‘ladiki, Farg‘ona butun qadimiy davr mobaynida o‘z mustaqilligini saqlab kelgan. Ushbu pozitsiya arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlangan madaniyatining o‘ziga xosligida eng ishonchli tasdig‘ini topadi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab karvon yo‘li Qashg‘ardan - Davangacha bo‘lgan shimoliy yo‘l va undan g‘arbga "Buyuk Ipak yo‘li" deb ataladigan yo‘l mavjud bo‘lgan. Bu yo‘l orqali ipak va boshqa nodir tovarlarning xalqaro tranzit savdosini amalga oshirilgan. Ushbu yo‘lda Farg‘ona muhim o‘rin tutdi. Xususan, aholi sonining keskin ko‘payishi va ko‘plab mustahkamlangan aholi punktlarining paydo bo‘lishini ko‘rsatadi.

Tashqi savdo Farg‘ona va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi jadallik bilan bir qatorda, o‘lkada atrofdagi tog‘ vodiylari chorvadorlari bilan ham ayirboshlash rivojlandi. Tabiiy almashinuvning ustunligi, ehtimol, bu davrda o‘z tangasining hali yo‘qligidan darak beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra bu vaqtda Farg‘onada pul munosabatlari sust rivojlangan, garchi xitoy u-shi mis tangalari mavjud bo‘lsada, ular ko‘pincha qadimgi qabristonlarda uchraydi [3, – B.304-312.].

Dafn marosimi. Farg‘onada Sho‘rabashot davrida mavjud bo‘lgan dafn marosimi avvalgi davr an’analarini davom ettirgan. Jasadlar cho‘zilgan holatda, boshlarini g‘arbga qaratib, orqa tomoni bilan qabrga joylashtirilgan. Qabrga ma'lum miqdorda sopol buyumlar, zargarlik buyumlari, shuningdek, dafn marosimi uchun taomlar qo‘yilgan, qabrlardan qo‘chqor suyaklari va qush suyaklari ham topib o‘rganilgan [4, – B.715.].

Farg‘ona vodiysida antik davr yodgorliklari ko‘plab aniqlangan bo‘lib, ular Sho‘rabashot 70 gektar, Qoradaryo 10 gektar, Mingtepa 272 gektardan ziyod, Quva 12 gektar, To‘rtko‘ltepa 13 gektar va boshqalar [5, – B.24.]. Farg‘ona dehqonchilik madaniyatining keyingi rivojlanishi Sho‘robashat davrida qayd etilgan bo‘lib ushbu davrga oid dastlabki tadqiqot ishlari 1954-yilda Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan O‘zgan vohasidagi Sho‘rabashot posyolkasi nomi bilan atalgan, u yerda birinchi marta qizil rangli asl bo‘yalgan shlakli kulolchilik buyumlarini topdi. Sho‘raboshot davri miloddan avvalgi IV-I asrlarni o‘z ichiga oladi.

Mingtepa shahrini arxeologik o‘rganilishi asosan XX asr o‘rtalaridan boshlangan. Bu shaharni ilk bor 1939-yilda M.E.Masson tomonidan tadqiq etilgan. Shu yili Katta Farg‘ona kanalining qurilish ishlari boshlangan bo‘lib, qazish ishlari natijasida topilgan tarixiy ashyolarni o‘rganish maqsadida M.E. Masson raxbarligida maxsus ekspeditsiya tashkil etildi. Arxeologik izlanishlar natijasida aniqlangan eng ko‘p yodgorliklar arablar istilosidan oldingi davrga to‘g‘ri kelgan. Bu topilmalarni M.E. Masson “Davan madaniyati yodgorliklari” deb nomlaydi
[6, – B.9.]. A.N. Bernshtam raxbarligida 1946-1948-yillarda Pomir-Oloy, 1950-1952-yillarda Pomir-Farg‘ona ekspeditsiyalari tashkil etilgan. Arxeolog olim izlanishlari davomida manbalarda tilga olingan Davan davlatining poytaxti Ershi shahri Mingtepa xarobalariga to‘g‘ri kelishi xaqida yozib qoldirgan. Uning fikricha Aravon soyi qirg‘og‘iga joylashgan Marxamat qishlogidagi xarobalar qadimiy Ershi shahrining xarobalaridir" [7, – B.160-161.]. Shaharning davriy sanasi ilk bor miloddan avvalgi II milodiy II asrlar bilan sanalandi. Mingtepa shahar xarobasida 16 ta turar joy manzillari aniqlandi. Natijada Mingtepa shahrining ichki shahar ko‘rinishi tasviri yaratildi. Biroq, bu ichki shahar ko‘rinishi keyinchalik, 2011-yilda sun’iy yo‘ldoshdan olingan tasvirdan ancha farqli bo‘lib chiqdi. Ya’ni dastlabki A.N Bernshtamning chizmasida Mingtepa shahrining ko‘rinishi to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘lsa, 2011-yilgi tasvirda esa parallelogramm shaklda ekanligi aniqlandi [8, – B.64.]. Ushbu yodgorlikning davriy sanasi miloddan avvalgi IV milodiy IV asrlarni o‘z ichiga oladi.

Mustaqillik yillariga kelib Mingtepa shahrining qadimgi tarixini izchillik bilan keng qamrovli o‘rganishga kirishildi. Hozirgi kunda Mingtepa yodgorligida samarali tadqiqotlar olib borayotgan arxeolog olim t.f.d. prof. B.X. Matboboyevdir. 2001-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarida Mingtepa shahar xarobasining qadimgi

davriga oid noyob topilmalar o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida keltirilgan xulosalarga ko‘ra eng qadimgi mudofaa devorining qalinligi pastki qismda 2,5 metr, tepa qismida 1,8 metr, balandligi esa 2,5 metrni tashkil qilgan. Ikkinchi qayta qurilgan vaqtda esa mudofaa devorining qalinligi 4 metrgacha, balandligi 4,2 metrgacha, so‘nggi davrda qayta qurilgan devorning qalinligi pastda 7,3 metrgacha yetkazilgan [9, – B.101-102.]. Bu esa Mingtepa mudofaa devorlari hamda minoralari mustahkam va murakkab injenerlik mahorati bilan qurilganligidan dalolat beradi. Mingtepa shahri Buyuk Ipak yo‘lining asosiy transkontinental qismida joylashgan, nafaqat O‘zbekiston tarixi, balki, Markaziy Osiyo tarixida ham muhim ahamiyatga ega shaharligi bilan xorijiy tarixchi olimlarni e'tiborini tortib kelmoqda. 2012-yildan buyon Mingtepa arxeologiya yodgorligida B.X. Matboboyev rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti hamda Dzu Yangshi rahbarligida Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti arxeolog olimlari hamkorlikdagi qo‘shma ekspedisiya tashkil etilib, arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Shu kungacha qo‘shma ekspedisiya tomonidan 20 dan ortiq joylarda qazuv ishlari olib borilgan bo‘lib tadqiqotlar natijasida Mingtepa shahrining tarkibiy tuzilishi, madaniy qatlami, stratigrafiyasi, mudofaa tizimi, bu yerda yashagan xalqlarning turmush-tarzi, urf-odatlari, madaniyati, diniy tasavvurlari to‘g‘risida yangi ma'lumotlarga ega bo‘lindi va ilmiy muomalaga kiritildi. Shuningdek, Mingtepa shahar xarobasining mudofaa tizimi to‘g‘risidagi fikrlarga oydinlik kiritilib, mudofaa devorlari qurilish davrlari aniqlandi. Arxeologik qazuv ishlari davomida ilk bor milodiy I - III va IV - V asrlarga tegishli o‘tkir tig‘li asbob yordamida tirnab gul solingan va antropozoomorf (odam va hayvonot olami) tasvirlari tushirilgan sopol idish parchalari topildi. Bunday kompozitsiyali kulolchilik buyumlariga tushurilgan rasm vodiy kulolchiligida birinchi marta topilgan edi [10, – B.50-52.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Farg‘ona vodiysida hozirgi kunga qadar olib borilgan tarixiy va arxeologik tadqiqotlar natijasida antik davrga oid yirik shaharlar va ularning mudofaa tizimi, bu yerda yashagan aholining turmush-tarzi, urf-odatlari, madaniyati, diniy tasavvurlari, hunarmandchilik buyumlarining o‘rganilishi ushbu hududning yuksak taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Antik davrda bu hudud aholisi o‘ziga xos madaniyat yaratdilar. Bu yerdan g‘arb va sharqni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘ini o‘tishi, shaharlarni taraqqiy etishida va qo‘shni hududlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бичурин Н.Я., Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времени., Москва. 1950.

2. Археология СССР. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии/Москва.1985.

3. Зокиржон Машрабов, Боқижон Матбобоев. Фарғона водийси тарихига чизгилар. “Andijon nashriyot-matbaa”МЧЖ. 2022-й.

4. Заднепровский Ю.А., Древпеземледельческая культура Ферганы.-МИЛ, 1962

5. Б.Х. Матбобоев. З.З. Машрабов., Андижон тарихи. “Sharq”, Тошкент. 2014. 6. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. Москва, 1940.

7. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // Советская етнография. №4. 1948

8. Farg’ona vodiysining qadim va o’rta asrlar arxeologiyasi, etnografiyasi, tarixi muammolari va ularning tahlili. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari., Andijon-2023.

9. Матбобоев Б.Х. Абдуллаев Б. Исследования на западной оборонительной стене городища Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 год. - Самарқанд, 2002.

10. Matboboyev. B.X. Mingtepa: Arxeologik qazishmalar va ularning taxlili // “Vodiynoma”. №3(14). 2019.

ТУРКИСТОНДАГИ ИСЛОМ ОБИДАЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР

Иродахон ГАФУРОВА
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA кафедраси
катта ўқитувчиси, PhD
irodakhon1975@mail.ru

Аннотация: *Янгиланаётган Ўзбекистонда олиб борилаётган диний-маърифий соҳага оид ислоҳотлар натижасида аждодлар яратган маданиятни ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этишга, уларнинг замон руҳига мос ғояларидан ёш авлодни муносиб ворислар этиб тарбиялашга оид маданий-маънавий меросини тадқиқ этиш имконияти кенгайди.* ***Калит сўзлар:*** *Чор Россияси, Туркистон, масжид, мадраса, маърифат маскани, бошланғич мактаб*

Аннотация: *В результате проводимых в модернизирующемся Узбекистане реформ в религиозно-образовательной сфере расширились возможности всестороннего и глубокого изучения культурного и духовного наследия наших предков, пропаганды их идей в духе времени.* ***Ключевые слова:*** *царская Россия, Туркестан, мечеть, медресе, места просвещения, начальная школа*

Annotation: *As a result of the reforms carried out in the religious and educational sphere in modernizing Uzbekistan, the opportunities for a comprehensive and in-depth study of the cultural and spiritual heritage of our ancestors, and the promotion of their ideas in the spirit of the times have expanded.* ***Keywords:*** *Tsarist Russia, Turkestan, mosque, madrasah, places of education, primary school.*

Туркистон ҳудудидаги улкан ислом меъморий обидалари – бебаҳо мерос, аждодларимиз яратган цивилизация намуналари, уларнинг илмий кашфиётлари ва тараққиётга қўшган хизматларини ёшлар онгига сингдириш, уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтиришга алоҳида эътибор берила бошланди. “Бетакрор ва ноёб илмий-маънавий мерос биз учун доимий ҳаракатдаги ҳаётий дастурга айланиши керак. Бу ўлмас мерос ҳамиша ёнимизда

бўлиб, бизга доимо куч-қувват ва илҳом бағишлаши лозим. ...Бунинг учун олим ва мутахассисларимиз, ҳурматли уламоларимиз бу маънавий хазинани бугунги авлодларга содда, тушунарли, жозибали шаклда етказиб бериши зарур” [1;224]. Бу борада ислом меъморий обидаларининг улуғворлик моҳиятини тарғиб этувчи тарихи негизида шаклланган конструктив ғояларни ҳар томонлама илмий-назарий тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Туркистон ҳудудидаги тарихий-маданий ёдгорликларга қизиқиш XIX аср ўрталарида чор Россияси истилосидан бошланган.

Чор Россияси даврининг маҳаллий тадқиқотчиларидан: олим, файласуф ва давлат арбоби Аҳмад Дониш [2] (1827-1897), Бухоро амирлиги тарихнависи ва шоири Мирзо Абдулазим Сомъе Бўстоний [3] (1839-1908), Бухоро амирлиги тарихчиси Мирзо Салимбек [4] (1850-1930)ларнинг илмий изланишларида Бухоро амирлигидаги ислом меъморий обидалари, тарихнавис Абу Тоҳир Хожа Самарқандийнинг [5] асарларида эса, Самарқанддаги мусулмон зиёратгоҳлари ва обидаларининг тўлиқ рўйхати келтирилган.

XIX-XX аср бошларида Туркистонда, хусусан, Бухоро ва Хива хонликларида (Россия империясининг протекторатлари сифатида), бўлган рус ва бошқа хорижий элчилик миссиялари аъзоларидан Гвардия генерал штабс-капитани Е.К.Мейендорф (1795-1863) ўз асарида [6] Ўрта Осиё хонликларининг кўпгина шаҳарлари ҳақида батафсил маълумот бериш билан бирга, уларнинг географик жойлашуви, табиий шароити, сув ресурслари, бошқа давлатлар билан боғлайдиган йўллари ҳақида, жумладан, Бухоро хонлигининг бошқаруви, шаҳар ва қишлоқлари ҳақида кенг тўхталган.

Мадрасалар маърифат масканлари бўлиш билан бирга Туркистон ҳудудида сақланиб қолган барча қадимий тарихий-меъморий ёдгорликларнинг ярмига яқинини ташкил этади. Ҳар йили минглаб хорижий сайёҳлар уларни кўриш, ўзбек кўҳна замонларга туташиб кетган миллий маданияти, маърифатидан баҳраманд бўлиш илинжида Ўзбекистонга келади.

Туркистонда XX аср бошларида 353 мадраса ва 6 000 га яқин анъанавий бошланғич мактаблар бўлган [7].

К.Е.Бендриков ҳам Туркистон халқ таълимига бағишланган асарида Кауфман давридаги мусулмон мактаблари, эски мактаблар ва мадрасалар, кейинчалик очилган жадид мактаблари нисбатан тўлиқ ёритилган [8].

Академик В.В.Бартольд асарларида чор Россияси Туркистонни босиб олганидан кейин мадрасаларнинг аҳволи, вақф мулкларининг талон-тарож қилиниши, мутавалли ва мударрисларнинг муносабати ёритиб берилган [9].

Профессор А.В.Савицкий асарларида эса, 1886 йилдаги Россия императори томонидан тасдиқланган “Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисидаги низом”, амалда тортиб олинган вақфлар, диний ташкилотлар, мадрасалар, мактаблар, мозорлар, муддаррислар, талабалар сони бўйича статистик маълумотлар келтирилган [10].

Хўжанд шаҳрида (Сирдарёнинг чап соҳилида) 1897 йилдаги рўйхатга олишдан шу маълум бўлганки, 144 масжид ва 4 та мадраса бўлган. Ҳазратбобо ва Ҳазратхўжа Камол масжидлари XIV асрнинг бошида қурилган [11].

1899 йилда Туркистоннинг учта вилоятида, яъни Сирдарё, Самарқанд ва Фарғонада 4632 та мактаб бўлган. Бутун Туркистондаги мактабларда 44 773 толиб таҳсил олган. Таълимнинг илк даврида Ҳафтияк, кейин Чоркитобдан савод чиқарилган. Ундан кейин эса Сўфи Оллоёр ва Хўжа Ҳофиз шеърлари ёд олинган [12; 32].

1911 йил 18 январдаги ҳисоб бўйича Туркистон ўлкасида 476 та мактаб бўлса, 29 944 та ўқувчи ўқиган бўлса, 1920 йилнинг охирига келиб 2022 та мактабда 165 122 та ўқувчи ўқиган [12;153].

1896 йилда Тошкентдаги гимназияларда таҳсил олаётганларнинг 3% ўғил болалари ва 2,6% қизлари маҳаллий туб аҳоли фарзандлари бўлган. 1879-1904 йилларда ўқитувчилар семинарияларини якунлаган 415 битирувчидан 65 нафари маҳаллий аҳоли вакиллари бўлган[13;68-70].

1884 йили биринчи рус-тузем мактаби очилган бўлса, XIX аср охирига келиб уларниг сони юздан ошди.

XIX аср охирида Туркистон ўлкасида – 313 та, Бухорода – 103 та, Хивада – 8 та мадраса бўлган [14;30]. 1913 йилда Туркистонда 7 290 та эски мактаб мавжуд бўлиб, уларда 70 864 толиб илм олган [15;213]. XX аср бошларида махсус аёллар мактаблари – отинхоналарда Фарғона вилоятида 33 000 нафар, Тошкентда 6 400 нафар қизлар таҳсил олган [16;19].

1895 йил 12 июндаги Туркистон ўлкаси ўқув юртлари бош инспектори ҳисоботида Тошкент шаҳри Кўкча даҳаси икки қаватли, нуфузли энг қадимги Шукурхон мадрасасида дарс ўтилмаётгани ва эскиргани баҳона қилиниб, Туркистон генерал-губернатори кўрсатамасига биноан бузиб юборилгани таъкидлаб ўтилган. Унинг вақфи бўлган карвонсарой эса, Себзор даҳасидаги Мўй муборак мадрасасига берилгани қайд этилган. Ер солиқ комиссияси эса ушбу мадрасага қарашли ваф мулкларини ноқонуний деб топиб, давлат ҳисобига ўтказган ва мадраса даромадсиз қолган. Ҳар иккала мадрасани бир шахс Қушбеги Мирзааҳмад Мирзамуҳаммад Аминов қурдирган ва вақф таъсис қилган эди. Вақфнинг мутаваалиси Мулла Боқи Муҳаммад Мулла Исамуҳамедов бузилган мадраса ўрнига янги мадраса очишга рухсат сўраганда Сирдарё вилояти ҳарбий губернатори рад жавоби берган [17]. Буларнинг барчаси чор Россиясининг сиёсати барча мактаб ва мадрасаларни ва вақфларни йўқ қилишга қаратилганлигини кўрсатмоқда.

Самарқанддаги Тиллакори ва Шердор мадрасаларини қурдирган Самарқанд беги Ялангтўшбий ушбу мадрасаларга кўп миқдорда ерларни вақф қилган. Амирнинг 12 та муҳри бўлишига қарамай, 1814 йилда Бухоро амири Ҳайдарнинг буйруғи билан вақфнома қайта ёзилганлиги баҳона қилиниб, 1901 йил 14 февралда Самарқанд вилояти бошқармаси қарори билан давлат хазинасига ўтказилган[18; 16].

Хулоса қилиб айтганда, миллий маданиятимиз равнақи, ислом обидалари ва дурдоналаримиздан халқимизнинг баҳраманд бўлиши, осори атиқалар ва ўтмиш ёдгорликларини сақлаш, қўриқлаш ва тиклаш жуда катта маънавий-маърифий аҳамиятга эга. Мазкур тадбирларни амалга ошириш, миллий қадриятларимизни тиклаш, маданий ёдгорликларимизни асраб-авайлаш, уларни ўрганиш, рўйхатга олишда давом этиш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 224.
2. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. –Душанбе, 1960; Ахмад Дониш. История Мангитской династии/ Перевод, предисловие и примечание И.А. Наджафовой. –Душанбе, Дониш, 1967.
3. Мирза Абдал-азиз Сами. Тарих-и Салатин-и мангитийа (История мангытских государей). / Пер. и примеч. Л.М.Епифановой. – М.: Изд-во вост. лит., 1962.
4. Мирзо Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Пер с персидского, введение и примеч. Н.К.Норкулова; ред. Перевода А.К.Арендс; ред. Введения и примеч. А.С.Сагдуллаев. – Ташкент: Академия, 2009.
5. Абу Тахир Ходжа. Самария // Таджикский текст, приготовленный к печати Н.И.Веселовским. –Санкт Петербург, 1904.
6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару / Предисл. Н.А. Халфина. – М.: Наука, 1975.
7. ЎзР МДА, 47-ф., 1-р., 979-иш., 81-в.
8. Бендриков К. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 - 1924 г.). – Москва, Акад.пед наук РСФСР, 1960.
9. Бартольд В.В. Культура мусульманства. – Петроград: Огни, 1918; Ўша муаллиф. История культурной жизни Туркестана. –Ленинград: 1927.
10. Савицкий А.П. Некоторые данные об исламских учреждениях и политика царских властей в Туркестане. – Ташкент: АН УзССР, 1956.
11. Қори-Ниёзий Т.Н. Ҳаёт мактаби. –Тошкент: Фан, 1970. -358 б. –Б. 15. Қори-Ниёзий Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956
12. Қори-Ниёзий Т.Н. Ҳаёт мактаби. –Тошкент: Фан, 1970. -358 б. – Б. 32.
13. Кары-Ниязов Т.Н. Избранные труды. В 8 томах. –Тошкент: ФАН, 1967. Т.5. –С. 68-70.
14. Муминов И. Из истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Конец Х1Х и начало ХХ вв. –Ташкент: Узгосиздат, 1957. -214 с. – С. 30.
15. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения. – Ташкент, 1914. -186 с. –С. 213.
16. Расулов Б.М. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана. Конец Х1Х – 20-е годы ХХ вв. Автореф. … дис. канд. истор. наук. –Андижан, 1996. –С.19.
17. ЎзР МДА. 47-ф., 1-р., 436-иш. 141-143-в.
18. Болтабоев С.Д. Вакфное имушество в Туркестанском крае... С. 16.

АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИКЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА УЛАРНИ САҚЛАШ МУАММОЛАРИ

Хуршида ЮСУПОВА
Ориентал университети катта ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада тарихий маданий мероснинг муҳим таркибий қисми бўлган археологик ёдгорликларни ўрганиш ва сақлаш муаммолари Ўзбекистон мисолида ёритиб берилган. Ўзбекистоннинг тарихий-маданий мероси тизимида археологик ёдгорликларнинг ўзига хос ўрни, минтақа цивилизациясининг шаклланиши ва ривожланиш босқичларини акс эттирувчи моддий бойликларни ўз бағрида сақлаб келаётган ноёб хазина сифатидаги аҳамиятига баҳо берилган.* ***Калит сўзлар:*** *Археологик мерос, Туркистон ўлкаси, археологик экспедеция, ТКЛА, ЮТАКЭ, ЮНЕСКО, Тошкент воҳаси, Помир-Фарғона, Термиз, КАТЭ.*

Аннотация: *В статье освещены проблемы изучения и сохранения археологических памятников как важной составляющей историко-культурного наследия на примере Узбекистана. Оценено особое место археологических памятников в системе историко-культурного наследия Узбекистана, их значение как уникального хранилища материальных ценностей, отражающих этапы формирования и развития региональной цивилизации.* ***Ключевые слова:*** *Археологическое наследие, Туркестанский край, археологическая экспедиция, ТКЛА, ЮТАКЭ, ЮНЕСКО, Ташкентский оазис, Памир-Фергана, Термез, КАТЭ.*

Abstract: *This article explores the issues of studying and preserving archaeological monuments as an important component of historical and cultural heritage, using Uzbekistan as a case study. It assesses the unique role of archaeological sites within Uzbekistan's historical and cultural heritage system, emphasizing their significance as a valuable repository of material culture that reflects the stages of formation and development of regional civilization.* ***Keywords:*** *Archaeological heritage, Turkestan region, archaeological expedition, TKLA, YUTAKE, UNESCO, Tashkent oasis, Pamir-Fergana, Termez, KATE.*

Маълумки, Туркистон ўлкасидаги археологик ёдгорликларга эътибор, уларни илмий ўрганиш XIX асрнинг охирги чорагида, Туркистон Россия империяси томонидан босиб олганидан сўнг бошланди. Бу ишни дастлаб рус археология ҳаваскорлари ва ўлкашунослари бошлаб бердилар [3-Б. 15-16]. 1895 йилда Туркистон археология ҳаваскорлари тўгараги тузилиб, ўлкадаги археологик қазишма ишлари шу тўгарак назоратида олиб борила бошланди [5].

Ўзбекистонда археология фани том маънода XX асрнинг 20-30-йилларда шаклланди ва босқичма-босқич ривожланиб борди. Мамлакатимизда археология фанини ривожлантиришда Ўрта Осиё Давлат университетида "Археология" кафедрасининг очилиши (1940), ЎзФА Археология бўлимининг ташкил этилиши (1943) катта аҳамиятга эга бўлди. Археологик ёдгорликларни туманларга бўлиб ўрганишда Термиз археологик комплекс экспедицияси, Хоразм археология-этнография экспедицияси, Помир-Олтой ва Помир-Фарғона экспедициялари катта роль ўйнади.

1963 йилда ТошДУ Тарих факультети "Археология" кафедраси базасида КАТЭ (Кеш археологик топографик экспедиция) ташкил этилиши Жанубий Суғд ҳудудидаги археологик ёдгорликларни ўрганишда янги даврни бошлаб берди. М.Е.Массон, Н.Крашенинникова, С.Б.Лунина, З.Усманова, Г.А.Дресвянская, А.С.Сагдуллаев, Н.П.Столярова, О.П.Лушпенко, Ў.Мавлонов, Б.Ж.Эшов, Б.Б. Аминов ва бошқаларнинг илмий тадқиқотлари қадимги Кеш воҳаси тарихи ва маданиятининг Марказий Осиё, хусусан Ўзбекистон цивилизацияси ривожидаги ўрнини аниқлаштиришда муҳим ўрин тутди.

Ўзбекистон ФАнинг Тарих ва археология институти негизида Самарқандда Археология институтининг ташкил этилиши (1970 йил) Ўзбекистонда археологик тадқиқотларни янада кенгайтиришга имкон берди. Институт олимлари томонидан XX асрнинг 70-80-йилларда Ўзбекистоннинг деярли барча вилоятларида кенг қамровли археологик кузатув ва қазишлар ўтказилиб, қадим ўтмишдан то сўнгги ўрта асрларгача бўлган даврга мансуб кўплаб нодир ёдгорликлар топилиб, ўрганиб чиқилдилди.

Археологик меросни сақлаш ва ўрганишда фидокор археологларнинг хизматларини эътироф этган ҳолда, XX асрнинг 50-80 йилларини мамлакатимиз ҳудудидаги археологик ёдгорликларнинг йўқ қилиниши кескин ўсиб кетган даври сифатида қайд қилишга ҳам тўғри келади. Чунки, айрим маълумотларга кўра, Ўзбекистон ҳудудидаги археологик ёдгорликларнинг сони XX асрнинг 30 йилларида 14,5 мингдан ортиқроқ бўлган. Табиийки бу меросни муҳофаза қилиш ва ўрганишни тартибга солиш муҳим аҳамиятга эга эди. Афсуски, собиқ иттифоқ даврида археологик ёдгорликларни муҳофаза қилиш тўғрисида кўплаб қарорлар қабул қилинган бўлсада, айнан ўша даврда кўплаб археологик ёдгорликлар фан учун бутунлай йўқотилди [2-Б. 127]. Бунга олиб келган сабаблар ичида аҳоли сонининг кўпайиши ва уй-жойларга бўлган эхтиёжнинг ошиши, урбанизация жараёнларининг кучайиши, саноат объектларининг барпо этилиши, экин ерларини мутасил кўпайтиришга йўналтирилган давлат сиёсати натижасида ҳудудларнинг жадал ўзлаштирилиб борилиши ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Мамлакат ва аҳоли эҳтиёжлари учун ўзлаштирилаётган ҳудудлардаги археологик ва бошқа ёдгорликларни сақлашга иккинчи даражали масала сифатида қаралгани ҳам ўша даврда тарихий меросга нисбатан давлат сиёсатининг туб моҳиятини англашга имкон беради.

БМТнинг фан, таълим ва маданият масалалари бўйича ташкилоти ЮНЕСКО томонидан 1972 йилда “Жаҳон маданий ва табиий меросини сақлаш тўғрисида” Конвенция қабул қилиниши тарихий меросга эътибор ва бу соҳада халқаро ҳамкорликнинг ривожига кенг йўл очди[3]. Бу ҳужжатда биринчи маротаба дунё халқларининг бутунжаҳон меросини ташкил этувчи буюк аҳамиятга эга айрим табиий ва маданий меросларни сақлаш ва авайлаб асраш учун мамлакатлар ва ҳукуматлар масъулликка чақирилган эди. Конвенцияни амалиётга тадбиқ қилиш учун 1974 йилда ЮНЕСКО қошида “Умумжаҳон мероси” қўмитаси таъсис этилиб, қўмита томонидан ноёб маданий ёдгорликлар рўйхатини тузиш бошланди [6]. Афсуски, собиқ иттифоқ даврида Марказий Осиё ҳудудида жойлашган бирорта тарихий-маданий мерос объекти, гарчи уларнинг кўпчилиги ўзининг қадимийлиги, аҳамияти ва бетакрорлиги билан дунё маданияти тарихида муҳим ўрин тутган бўлсада, ушбу рўйхатга киритилмади.

Афсуски, археологик ёдгорликларга беписандлик билан қараш, унинг аҳамиятини, тарихий-маданий мерос тизимида тутган муҳим ўрнини тўлиқ англамаслик мустақилликнинг дастлабки йилларида ҳам кузатилди. Айниқса 90-йилларнинг бошида, хусусий мулкчилик ривожланиб, қишлоқ туманларида фермер хўжаликлари ташкил этила бошланган дастлабки даврларда археологик

ёдгорликлар жойлашган ҳудудни хўжалик эҳтиёжлари учун ўзлаштириш давомида ёдгорликларни аста-секин йўқ қилишдек собиқ иттифоқдан қолган “анъана” сақланиб қолди. Маҳаллий ҳокимият органларининг бепарволиги, хусусий мулкдорларда ижтимоий онгнинг етарли даражада эмаслиги, ўзига бириктирилган ҳудудда жойлашган археологик ёдгорликнинг аҳамиятини, уни сақлашга масъуллигини англаб етмаганлиги натижасида айрим археологик ёдгорликлар келажак авлод учун бутунлай йўқотилди.

Шу сабабли ҳам Янги Ўзбекистонда тарихий мерос ва археологик ёдгорликларга эътибор янги асосда йўлга қўйилмоқда, қонунчилик базаси такомиллаштирилмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистонда тарихий-маданий меросга, шу жумладан археологик ёдгорликларга нисбатан янгича муносабат концепцияси ишлаб чиқилди ва босқичма-босқич амалиётга жорий этиб борилмоқда [2-Б. 125-135]. Бу соҳада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 19 декабрда ПҚ-4068 сонли “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳамда Вазирлар маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сонли “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори муҳим аҳамиятга эга бўлди. Бу каби кўплаб қарор ва қонунлар қабул қилиниши мамлакатимизда тарихий-маданий меросни сақлаш ва ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимиз ҳудудида сақланиб қолган археологик ёдгорликларнинг сони, айрим манбаларга кўра, 8,5 мингга яқин [1-Б. 233]. Бу рақамни юқорида келтирилган рақам, яъни XX асрнинг 30 йилларидаги археологик ёдгорликлар сони (14,5 мингга яқин) билан қиёсласак, 70 йилга яқин вақт ичида археологик ёдгорликларнинг 30%дан ортиғи йўқ бўлиб кетганлигини қайд этишга тўғри келади.

Жойлардан келаётган ташвишли хабарлар археологик ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асосларини янгитдан яратишни, тарихий-маданий меросимизнинг муҳим қисми бўлган археологик меросга муносабатнинг қонуний асосларини такомиллаштиришни кун тартибига қўйди. Ўзбекистон ҳукуматининг кечиктириб бўлмайдиган чора тадбирлари, бу борада қабул қилинган янги қонунлар ва ҳукумат қарорлари археологик меросга бўлган давлат сиёсатининг асоси бўлиб хизмат қилди.

Бугунги кунда Ўзбекистондаги деярли барча археологик ёдгорликлар расмий рўйхатга олиниб, тегишли қонунлар асосида давлат ҳимоясига олинган. Бу борада 2009 йил 16 июнда Олий Мажлис Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилиниб, Сенат томонидан 2009 йил 29 августда маъқулланган “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонун муҳим аҳамиятга эга бўлди. 5 та боб, 34-моддадан иборат Қонунда “...археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш...” “Археология мероси объектларига бўлган мулк ҳуқуқи”нинг давлатга тегишлили эканлиги, “Археология ашёлари оператив бошқариш ҳуқуқи асосида фан, маданият ва

таълим муассасаларига бириктириб қўйилиши мумкин”лиги ва бошқалар белгилаб қўйилган.

Мазкур қонунда “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги давлат бошқаруви” масалалари, археологик ёдгорликларни муҳофаза қилишда давлат ва маҳаллий ҳокимиятларнинг вазифалари, илмий тадқиқотлар олиб бориш ва фойдаланиш қоидалари, бу соҳадаги халқаро ҳамкорлик, археологик ёдгорликларни давлат кадастрига олиш ва бошқа тегишли масалалар ўз аксини топган [7].

Мазкур қарорларда Ўзбекистон халқининг умуммиллий бойлиги бўлмиш моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш, ноёб моддий ва маданий мерос объектларини ҳар томонлама ўрганиш, оммалаштириш ва тарғиб қилиш учун шарт-шароитлар яратиш, Ўзбекистоннинг туризм салоҳиятини ошириш каби вазифалар кун тартибига қўйилди.

Бугунги кунда археологик ёдгорликларни замонавий асосда ўрганиш ҳам кенг йўлга қўйилмоқда. Бу борада халқаро ҳамкорлик ривожланиб бормоқда. Ўзбекистонда археология фани ўз тадқиқотларининг самараси билан жаҳон илмий даражасига кўтарилиб бормоқда. Ҳозирда АҚШ, Франция, Германия, Япония, Италия ва Польша каби мамлакатларнинг илмий ташкилотлари билан ҳамкорликда археологик тадқиқотлар олиб борилмоқда. Россия (Москва, Санкт-Петербург, Новосибирск) олимлари билан доимий илмий алоқалар мавжуд.

Бугунги кунда нисбатан яхши ўрганилган машҳур ёдгорликлар ичида Зарафшон воҳасида жойлашган қадим Афросиёб, Кўктепа ва кўҳна Пойкенд харобалари, Қашқадарё воҳасидаги Узунқир ва Еркўрғон, Сурхон воҳасидаги бронза даврига оид Сополлитепа ва Жарқўтон, кушонлар даврининг ноёб ёдгорликлари бўлган Далварзинтепа, Халчаён, Фаёзтепа, Қоратепа, шунингдек, Кўҳна Термиз харобаларини, Фарғона водийсидаги Чуст ва Далварзин каби сўнгги бронза – илк темир даврига мансуб ёдгорликлар ҳамда машҳур Ахсикент шаҳри харобасини, Тошкент воҳасидаги Қанқа ва Мингўрик, Хоразм воҳасидаги Кўзалиқир, антик даврнинг машҳур ёдгорликлари бўлган Тўпроққалъа, Қўйқирилганқалъа, Аёзқалъа ва бошқа кўплаб қалъаларни қайд этиш мумкин.

Бу ёдгорликларнинг 10 дан ортиқ энг машҳурлари “Ўзбектуризм”нинг туристик маршрутлари рўйхатига киритилгани ҳам уларнинг замонавий цивилизация ривожидаги ўрни ва аҳамиятини кўрсатиб турибди. Уларнинг айримларида (масалан, Элликқалъа туманида жойлашган Аёзқалъада) Маданият ва спрорт ишлари вазирлиги ҳамда “Ўзбектуризм” ООК ҳамкорлигида замонавий туризм талабларига жавоб берадиган хизмат кўрсатиш тизими, тегишли инфратузилмалар яратилган. Келажакда бундай инфратузилмаларга эга ёдгорликлар сонининг ошиб бориши табиий жараён бўлиб, бу ҳам археологик ёдгорликларга ташриф буюраётган маҳаллий ва хорижий туристлар сонининг йилдан йилга кўпайиб боришига хизмат қилади.

Шу тариқа, бугунги кунда археологик ёдгорликларнинг тарихий-маданий мерос тизимидаги аҳамиятини англаш, уларни ўзбек халқи тарихи билан

боғлаш, тарихий-маданий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва келажак авлодларга мерос қолдириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Мамлакатимизда тарихий ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг қонуний асослари яратилди ва такомиллашиб бормоқда.

Умуман олганда, тарихий-маданий мероснинг муҳим таркибий қисми бўлган археологик ёдгорликлар ва топилмалар, меъморий иншоотлар, тарихий битиклар ва қўлёзма манбалар, тарихий ва бадиий асарлар, қоятош суратлар, тасвирий ва амалий санъат асарлари, бадиий ҳунармандчилик буюмларининг муҳофазаси барча маданий дунё мамлакатлари каби Ўзбекистон ҳукуматининг ҳам доимо диққат марказида турувчи вазифалардан ҳисобланади. Зеро, тарихий-маданий ёдгорликларни сақлашга эътибор, ўз навбатида, жамиятнинг маънавий ва маданий юксалишида ўзига хос пойдевор вазифасини ўтайди ва ёш авлод тарбиясида ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бердимуродов А., Раимқулов А.Т. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқоралик бурчимиздир // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б. 233.
2. Мавлонов Ў., Абдувоситова И. Тарихий-маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014. – Б. 125-135.
3. Лыкошин Н.С. Очерк археологических изысканий в Туркестансом крае до учреждения ТКЛА. // Среднеазиатский вестник. Июль. – Ташкент, 1896. – С. 15-16.
4. Мазкур Конвенция СССР Олий Совети томонидан 1975 йилда, Ўзбекистон Олий Мажлиси томонидан 1993 йилда ратификация қилинган.
5. Протоколы ТКЛА. 1896-1916 гг..
6. ЮНЕСКО. Цели, структуры, деятельность. Хроника, факты, цифры. – М., 2002.
7. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 йил, 42-сон.

MAMLAKATIMIZDA MADANIY VA ARXEOLOGIK MEROSNI O‘RGANISHDA HUQUQIY TIZIMNING MUSTAHKAMLANISHI

U.A. SATTOROV

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Madaniy va tarixiy merosni asrash bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanib, tarix va o‘tmishimiz haqida ma’lumot beruvchi muhim manbaalar hisoblanadi. Mazkur maqola mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniy yodgorliklarning holati, ularni saqlash va rekonstruksiya qilishga oid chiqarilgan qonun hujjatlarini o‘rganish shuningdek, sohaga oid oid boshqa ma’lumotlar tahliliga qaratilgan. Tadqiqotda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani singari madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, mazkur sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi alohida ta’kidlangan. Mavzuni yoritishda tegishli me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan*

foydalanilgan. ***Kalit so‘zlar:*** *YUNESKO, O‘zbekiston Respublikasi, konstitutsiya, madaniy yodgorliklar, arxeologiya, arxiv ishi, muzeylar, turizm.*

Annotation. *The preservation of cultural and historical heritage is currently one of the most important tasks, as it serves as a vital source of information about our history and past. This article focuses on studying the condition of cultural monuments in our country during the years of independence, as well as analyzing the legislative acts adopted for their preservation and reconstruction, along with reviewing other related information. The research emphasizes that, following the achievement of independence, profound reforms were implemented across all sectors, including the cultural sphere, and that the legal framework in this field has been significantly strengthened. Relevant regulatory documents, scientific research, literature, and periodical materials were used in covering the topic.* ***Keywords:*** *UNESCO, Republic of Uzbekistan, Constitution, cultural monuments, archaeology, archival work, museums, tourism.*

Аннотация. *Сохранение культурного и исторического наследия на сегодняшний день является одной из важнейших задач, поскольку оно служит важным источником информации о нашей истории и прошлом. Данная статья посвящена изучению состояния культурных памятников в нашей стране в годы независимости, а также анализу принятых законодательных актов по их сохранению и реконструкции, наряду с исследованием другой информации, связанной с данной областью. В исследовании особо подчеркивается, что после обретения независимости в стране были проведены глубокие реформы во всех сферах, в том числе и в культурной, и что правовая система в этой области была значительно укреплена. При освещении темы использовались соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.* ***Ключевые слова:*** *ЮНЕСКО, Республика Узбекистан, Конституция, культурные памятники, археология, архивное дело, музеи, туризм.*

O‘zbekiston boy qadimiy madaniyat, milliy qadriyatlar va tarixiy merosga ega bo‘lgan yurt. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ko‘pgina sohalarda bo‘lgani singari, respublika hududidagi madaniy va tarixiy yodgorliklarga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Natijada, ularni o‘rganish, sovet yillarida jiddiy zarar yetkazilgan yodgorliklarni ta’mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari boshlab yuborildi. Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofazasini kuchaytirish, madaniy meros obyektini asrab-avaylash, kelajak avlodga asl holatini saqlagan holda yetkazish, shuningdek, mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida yurtimizda sohaga oid bir qancha qonunlar qabul qilindi.

Shu bilan birgalikda fuqarolarda mazkur sohaga oid dahldorlik ham shakllanib, ularda madaniy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar doimiy tarzda, mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayonlar madaniy yodgorliklarni saqlash va ularni asrab avaylashda muhim jihat bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur sohaga oid O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Madaniy meros bebaho boylik bo‘lib, unda xalqimizning boy tarixi va ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan meros mujassamlashgandir. Mustaqillik yillarida mazkur sohaga oid bir qancha qonunlar qabul qilingan. Jumladan, ‘‘Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi, ‘‘Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida’’gi, ‘‘Muzeylar to‘g‘risida’’gi,

‘‘Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi, ‘‘Arxiv ishi to‘g‘risida’’ [1, - b 13]gi qonunlar qabul qilindi.

2001-yil 30-avgustda ‘‘Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi [2]. Mazkur qonun mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish borasida qabul qilingan dastlabki qonun bo‘lib, qonun 7 bo‘lim, 36-moddadan iborat qilib belgilandi. Qonunda tarixiy-madaniy meros yodgorliklari ‘‘madaniy meros obyektlari’’ deb belgilandi va quyidagi asosiy guruhlarga bo‘lindi: yodgorliklar, ansambllar, diqqatga sazovor joylar [3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-sonli qarori bilan ‘‘O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida’’gi nizomi tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi Qonuni 5 bob 34-moddadan iborat [4]. Mazkur qonunning maqsadi arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish iborat. ‘‘Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilish borasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar ham zamon ruhiga moslashtirilib, yangilanib bormoqda.‘‘Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi qonun [5] qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan 2009-yilda yangi tahrirda qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2009-yil 9-apreldagi ‘‘Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’’gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida’’gi Qonunni imzoladi. Ushbu qonun normalari YUNESKOning ‘‘Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida’’gi konvensiyasiga muvofiqlashtirildi.

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosning quyidagi ko‘rinishlari muhofaza qilinadi [6, - C 167-172]: og‘zaki ijod namunalari va ifoda shakllari, jumladan, til nomoddiy madaniy meros tashuvchisi sifatida; sahna san’ati, aktyorlik, musiqa chalish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish va boshqalar; urf-odatlar, marosimlar, bayramlar; tabiat va koinotga oid bilim va amaliyotlar; an’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-sonli ‘‘Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi qarori ‘‘Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risida’’gi nizomni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-iyulda qabul qilingan 200-sonli qarorida: moddiy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi masalaga alohida e’tibor berilib, unda O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, noyob moddiy madaniy meros obyektlarini har tomonlama o‘rganish, ommalashtirish va targ‘ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekistonning turizm salohiyatini

oshirish maqsadida moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora tadbirlarining amalga oshirilishini ta’minlash belgilangan [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi ‘‘Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida’’gi Farmoyishi qabul qilindi. Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya ratifikatsiya qilindi [8]. Ushbu Konvensiya doirasida Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi [9, - c 172-179]. Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, boshqarish hamda ulardan oqilona foydalanishning yagona mexanizmini ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarning takliflari asosida 2018-2023-yillarda moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish , targ‘ib qilish va ulardan foydalanishn tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish masalasi belgilandi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-sentyabrdagi ‘‘Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qo‘rish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi Farmoyishi, 2018-yil 19-dekabrdagi ‘‘Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ40-68-sonli qarori madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan. Ushbu qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda ‘‘Moddiy madaniy merosning kuchmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi 846-sonli qarori qabul qilindi.

Shu bilan birga, tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ifodalangan. Tarixiy-meros muhofazasi konstitutsiyaning 61-moddasi bilan quyidagicha kafolatlangan: ‘‘Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi [11]’’.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ‘‘O‘zarxiv’’ agentligi va mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilishi hamda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari belgilab qo‘yildi [12].

Xulosa o‘rnida, mustaqillik yillarida madaniy va arxeologik merosni saqlash va ularni qayta tiklash ishlariga alohida e’tibor qaratilib, madaniy merosimizga oid qonunchilik tizimini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishga va tariximizni jahon miqyosida targ‘ib etishga xalqaro

tashkilotlar bilan hamkorlikda samarali ishlar olib borilayotganligini ta’kidlab o‘tishim lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarov S. Mustaqillik yillarida Janubiy O‘zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanish jarayonlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz. 2023
2. ‘‘Маданий мерос обьектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида’’. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2001. 30 август. 269-II-сон.
3. ‘‘Маданий мерос обьектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида’’. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2001. 30 август. 3-модда.
4. https://lex.uz/acts/1526440.
5. ‘‘Маданий мерос обьектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида’’. Ўзбекистон Республикаси Қонуни (қўшимча ва ўзгартишлар билан). 2009. 9 октябрь. ЎРҚ-228-сон.
6. Галково О.В. Международные документы о сохранении и защите нематериального культурного наследия // Вестник Волгоградской академии МВД России. 2010. № 4 (15).
7. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.04.2019-y., 09/19/265/2858-son. 10-band. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 20-oktyabrdagi 352-sonli qarori tahririda – O‘R QHT, 2016, 42-son, 490-modda.
8. 2018-yil 16-yanvar, F-5181-son qaror. ‘‘Xalq so‘zi’’ gazetasi, 2018-yil 17-yanvar.
9. Абдимуминов О., Муллаев А. Центральная Азия и ЮНЕСКО: новый етап сотрудничества на Великом Шелковом пути. Свременные глобальные тренды: вызовы и риски для Центральной Азии Материалы конференции, 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 208-yil 16-yanvar, F-5181-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XI bob, 61-modda.
12. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2017 y., 24-son, 487-modda.

CHUST TUMANI MADANIY YODGORLIKLARI TARIXIGA BIR NAZAR

Mirzohid RAHIMJONOV
Oriental universiteti o‘qituvchisi
rahimjonovmirzohid741@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Namangan viloyati Chust tumanida joylashgan arxeologik yodgorliklar haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada dastlab Chust shahri tarixiy manbalarda qachon tilga olinganli, “Chust” atamasining lug‘aviy ma’nosiga qisqacha to‘xtab o‘tilgan. Maqolada yana tuman hududida joylashgan madaniy yodgorliklarni qaysi davrga oid ekanligi, bu hududda yashagan ilk odam jamoalarini yashash tarsi va xo‘jaligi, o‘sha davr yodgorliklarini qurulish uslublari ochib berishga harakat qilindi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Chust madaniyati, A. F. Middendor,*

A. Asqarov, M. E. Vorones, B. X. Matboboyev, Andoronovo madaniyati, “Naqshinkor rangli sopol” madaniyati, Chorvachilik, Dehqonchilik, Kulolchilik.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются археологические памятники, расположенные в Чустском районе Наманганской области. Также кратко освещается, когда город Чуст впервые упоминается в исторических источниках, а также этимологическое значение термина «Чуст». В статье подробно рассматриваются культурные памятники района, с акцентом на их временные рамки, образ жизни и экономику ранних человеческих сообществ, обитавших в этом регионе, а также архитектурные стили памятников той эпохи.* ***Ключевые слова:*** *Чустская культура, А. Ф. Миндендор, А. Асқаров, М. Е. Воронець, Б. Х. Матбобоев, Андроновская культура, культура «расписной керамики», скотоводство, сельское хозяйство, гончарное ремесло.*

Annotation: *This article discusses the archaeological monuments located in the Chust district of Namangan region. It also briefly touches upon when the city of Chust was first mentioned in historical sources and the etymological meaning of the term “Chust.” The article further explores the cultural monuments in the district, focusing on the time periods they belong to, the lifestyle and economy of the early human communities living in this area, and the architectural styles of the monuments from those times.* ***Keywords:*** *Chust culture, A. F. Middendor, A. Asqarov, M. E. Vorones, B. X. Matboboyev, Andronovo culture, "Painted Ceramic" culture, Animal Husbandry, Agriculture, Pottery.*

O‘zbekistonda arxeologiya sohasida ko‘plab tadqiqotlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yangi madaniy obyektlar topilib o‘rganilishi natijasida arxeologiya fani doirasida ko‘plab yangiliklar ilm-fanga tadbiq etildi. Shunday madaniy yodgorliklardan biri Chust tumani yodgorliklari hisoblanadi.

Chust tuman arxeologik yodgorliklari haqida so‘z yurtishdan oldin, tumanning yaqin tarixiga ham nazar tashlash o‘rinli hisoblanadi. Xususan, Chust haqida dastlabki ilmiy ma’lumotlar A. F. Middendorning 1882-yilda Peterburgda chop etilgan “Очерки о Ферганской долине” (“Farg‘ona vodiysi haqida ocherklar”) nomli asarida uchraydi [1-B. 3]. Shuningdek, mahalliy tilshunoslar fikricha, “chust” atamasi fors tilidan olingan bo‘lib, “tezkor” yoki “epchil” degan ma’noni bildiradi. O‘rta asrlarda Chust qal’a tusini olgan bo‘lib, mashhur temuriy shahzoda Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo tomonidan 1480-yilda qarorgoh sifatida tanlaganligi ma’lumotlarda keltirib o‘tiladi [1-B. 3]. XVI asrga kelib, shahar bir necha kichik qal’alardan iborat bo‘lgan. Keyinchalik bu qal’alarni o‘rab olgan mudofaa devori quriladi.

Shu tariqa Chust shahriga XIX asrda asos solingani ta’kidlansada, ushbu hududda bronza davriga oid ko‘plab madaniy yodgorliklarning mavjudligi, shahar hududida minglab yillar oldin odamlar istiqomat qilganligini isbotlaydi.

Xususan, Chust tumani Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, uning joylashgan o‘rni Sirdaryoning yuqori oqimiga to‘g‘ri keladi. Ushbu hudud janubdan Oloy va Turkiston, sharqdan Farg‘ona va Oto‘ynoq hamda g‘arbda Chotqol-Qurama tog‘lari bilan o‘rab olingan. Bu yerda so‘ngi bronza davrida (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi) Chust madaniyati shakllanadi. [2-B. 124]. Chust madaniyati tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra mahalliy Andronovo madaniyati chorvador aholisining o‘troqlashishi natijasida paydo bo‘lgan. Boshqa bir olimlar Sharqiy Turkistonning Tarim vohasidan ko‘chib kelgan aholi asos solgan, deb hisoblaydi.

Chust madaniyati taraqqiyotining ikki bosqichi ajralib turadi. Ilk bosqichi so‘ngi bronza davriga, rivojlangan bosqichi ilk temir davriga oid. Chust madaniyatining ilk bosqichiga yodgorliklar vodiyning sharqiy yerlarida tarqalgan. O‘sh manzilgohi, Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Dehqon va boshqa manzilgohlarning quyi madaniy qatlami Chust madaniyatining ilk bosqichiga oid bo‘lib, so‘ngi bronza davrida o‘zlashtirgan. Quyi madaniy qatlamidan yerto‘la shaklidagi uy-joylarning qoldiqlari, xo‘jalik o‘ralari va boshqa moddiy ashyolar o‘rganilgan.

Chust madaniyati aholisi dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligi bilan kun kechirgan. Ular kulolchilik, to‘qimachilik, bronza quyish ishlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Manzilgohlardan qo‘lda yasalgan sopollar, tosh, suyak va metaldan yasalgan buyumlar topilgan. Kulolchilik buyumlari qo‘lda yasalgan, sirtiga och qizil va qizil randa angob surtilib, ularning ayrimlariga qora yoki jigar rangda geometrik naqshlar, ba’zilariga hayvon tasviri chizilgan. Kulolchilik buyumlari ochiq joylarda pishirilgan bo‘lsa kerak. Mis va bronzadan uy-ro‘zg‘or anjomlari va qurol yarog‘lar yasalgan. Chustliklar marhumlarning uylarning poli va devorlarning tagiga yoki tashlandiq uy-joylarga ko‘mishgan. Marhumlar oyoq-qo‘llari bukilgan holda yon biqini bilan yotqizib ko‘milgan.

O‘sha manzilgohining quyi madaniy qatlamidan olingan kuyindi namu- nalarini radiokarbon usulida tekshirish natijasiga ko‘ra Chust madaniyatining ilk bosqichi mil. avv. XV/XIV asrga teng ekanligi aniqlangan. [2-B. 124].

Farg‘ona vodiysi hududi Sirdaryoning o‘ndan ortiq irmoqlaridan iborat katta-kichik dehqonchilik vohalaridan tashkil topgan. Chust madaniyatiga oid manzilgohlar mazkur vohalarda joylashgan. Ulardan eng yirik yiriklari O‘zgan, Qorasuv, Tava-Koson, Qoradaryo-Xo‘jabod hisoblanadi. [2-B. 146].

Chust madaniyatining ilk temir davriga oid manzilgohlar maydoni jihatdan yirik, o‘rtacha va kichik turlari ajralib turadi. Yirik manzilgohlar (Dalvarzintepa, Ashkol), o‘rtacha manzilgohlar (Chust, Dehqon) qadimgi shahar markazini va kichik manzigohlar esa dehqonchilik qishloqlarini tashkil etgan.

Yirik manzilgohlar ark, aholi yashaydigan va atrofi qismlaridan iborat. Farg‘ona vodiysining eng yirik manzilgohi Dalvarzintepa hisoblanib, umumiy maydoni 25 ga dan iborat. Manzilgoh to‘rt qismdan iborat bo‘lib, ularning uchta qismi alohida mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Ark manzilgohning shimoli-g‘arbiy qismida, maydoni 2,2 ga joyda joylashib, atrofi xom g‘ishtdan qurilgan mudofaa devori bilan o‘rab oligan. Aholi yashaydigan qismi 13 ga bo‘lib, alohida mudofaa devoriga ega. Dalvarzintepaning 5 ga dan iborat uchinchi qismi ham devor bilan o‘rab olingan. Bu yerda madaniy qatlam uchramaydi, ochiq joydan iborat. Undan harbiy xavf paytida atrofda yashaydigan aholi yoki chorva mollari jon saqlaydigan joy sifatida foydalangan bo‘lsa kerak.

Farg‘ona vodiysining g‘arbida Chust shahri yaqinida shu nomli manzilgoh joylashgan. Umumiy maydoni 4 ga dan iborat Chust manzilgohi ikki qismdan iborat. Manzilgohning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan ark (1,5 ga) mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Manzilgohning qolgan asosiy qismi muhofaza qilinmagan. Mudofaa devor ushbu madaniyat faoliyatining rivojlangan bosqichida paxsa va xom g‘ishtdan barpo etilgan.

Kichik manzilgohlar bir necha xonali alohida hovlidan iborat. Ular o‘troq dehqonlar jamoasi katta patriarxal oilasining uy-joyini tashkil etgan. Chust madaniyatining ilk bosqichida aholisi yerto‘la va yarim yerto‘la uylarda yashagan. Ikkinchi bosqichida uy joylar yerning ustida paxsa va xom g‘ishtdan qurila boshlaydi.

Chustliklar dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligi bilan kun kechirgan. Dehqonchilikda arpa, bug‘doy, tariq va boshqa dukkakli o‘simliklar ekilgan. Dehqonchilik liman usulida sug‘orishga asoslangan. Dehqonchilikning muhim tarmog‘i-bog‘dorchilik yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo‘y, echki va yilqi boqilgan. Daryo va ko‘l bo‘ylarida yashagan aholi baliqchilik xo‘jaligini ham yuritgan. Ular kulolchilik, to‘qimachilik, bronza quyish ishlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Manzilgohlardan qo‘lda yasalgan sopollar, tosh, suyak va metaldan yasalgan buyumlar topilgan. Kulolchilik buyumlari qo‘lda yasalgan, sirtiga turli naqshlar chizilgan. Mis va bronzadan uy-ro‘zg‘or anjomlari va qurol yarog‘lar yasalgan.

Chust madaniyatining shakllanishiga masalasida mutaxassislar tomonidan turli xil fikrlar bildiriladi. A.Asqarov mahalliy Andronovo madaniyatiga mansub chorvador aholning o‘troqlashishi natijasi, deb hisoblagan bo‘lsa, V.I.Sarianidi O‘rta Osiyoning janubidan kelgan aholi asos solganligini aytgan. L.Sverchkov bu madaniyatning ildizini Sharqiy Turkistonning Tarim vohasi bilan bog‘lashga harakat qilgan. [2-B. 147].

Xususan, Chust madaniyati haqida so‘z ketganda, Buvanamozor manzilgohi haqida to‘xtalib o‘tmasa bo‘lmaydi. Chust hududidagi qadimgi ilk qishloq 1951-yilda M. E. Vorones tomonidan Chust shahri yonidagi Buvanamozor deb atalgan buqol yonidan topilganligi, arxeologlar shartli ravishda bu yodgorlikka Chust madaniyati nomini berganliklarini ko‘rish mumkin.

Olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasida, yuqorida keltirilganidek ikki davrga bo‘lib ko‘rsatiladi va bunda uni aniq davrlar ko‘rsatib o‘tilgan.

1. So‘nggi bronza davri bo‘lib, mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan mil. avv. VIII asrga qadar davom etgan hisoblanadi.

2. Ilk temir davri bo‘lib, mil. avv. VIII-VII asrlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kungacha Farg‘ona vodiysidan Chust madaniyatiga oid 80 dan ortiq yodgorlik topilgan [3-B. 97]. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo hududlaridan ham topilgan.

“Naqshinkor rangli sopol” madaniyati mil. avv. X-VIII asrlar davomida Markaziy Osiyo hududlarida tarqaldi. Xususan, ushbu madaniyatni qayerdan tarqalganligi borasida hali ham munozarali mavzu hisoblanadi. Lekin bu madaniyatning moddiy buyumlari turar-joy massivlari, yerto‘lalari, g‘alla o‘ralari, charxsiz qo‘lda ishlangan rangli naqshli spool idishlari, qayroqtoshdan, bronzadan yasalgan o‘roqsimon pichoqlar va boshqa moddiy ashyolari Chust madaniyatiga o‘xshashligi masalasi dastlab A. Asqarov tomonidan ta’kidlanib, ularning kelib chiqishini Chust madaniyati bilan bog‘ladi. A. Asqarovning ta’kidlashicha, “Sopolli madaniyati o‘zining Bo‘ston bosqichida gullab-yashnab turgan kezlarda, Baqtriya sarhadlariga Qadimgi Farg‘onaning Chust madaniyati tipidagi etnik guruhlar kirib keladilar. Ularning moddiy madaniyat izlari ibtidoiy urug‘chilik jamoasining bronza bosqichidan ilk temir bosqichiga o‘tish davri madaniyati sifatida Qadimgi Baqtriya hududlari bo‘ylab keng tarqaladi”. Keyingi yillarda Sharqiy Turkistondagi Sinszyan yodgorligidagi

spool idishlarning Chust madaniyati bog‘liq ekanligi aniqlangach, “Naqshinkor rangli sopol” madaniyatining shaqrdan g‘arbga tarqalganligi mulohazalar yuritildi. Mil. avv. I mingyillik boshlarida Chust madaniyati aholisining Amudaryo havzasi hududlariga kirib kelishi natijasida “Naqshinkor rangli sopol madaniyati”ga asos solganlar [3-B. 98]. Ularning kirib kelishi natijasida “Oks sivilizatsiya”si inqirozga uchraganligi ma’lumotlarda keltirib o‘tiladi.

Shuningdek, Chust madaniyati yodgorliklari tog‘ oldi soy etaklarida, ularning o‘rta oqimida, vohaning tekis tumanlarida uchradi. Qora daryo havzasi va uning irmoqlari bo‘ylab esa, Chust madaniyatiga oid qishloqlar uchraydi.

Yana shuni qo‘shimcha qilib o‘tish kerak, Chust madaniyati mil avv. II mingyillikning oxiri I mingyillikning birinchi choragida Farg‘ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati tarkib topganligi hamda ushbu madaniyat aholisi O‘rta Osiyoning tub aholisi hisoblanib, ular jismoniy tuzilishi va antropoligik tip jihatidan Yevropa tipiga mansub bo‘lgan.

Xususan, Chust davri tadqiqotchisi B. X. Matboboyevning fikricha, buning sababi shundaki, madaniy qatlamlardagi o‘ralarning boshlanish nuqtasini aniqlashda yo‘l qo‘yilgan xatolik natijasida o‘ralar barchasi yodgorlikning ilk davriga taaluqli deb qaralgan [4-B. 50]. B. X. Matboboyev tadqiqotlari natijasida o‘ralarning har bir davriy bosqichlari aniqlashga erishildi. Natijada ularning bajargan vazifasi va davriga jiddiy tuzatish va aniqlik kiritildi [5-B. 3]. Bundan shuni bilish mumkin, aynan, tadqiqotchi B. X. Matboboyevning izlanishlari bu boradagi noaniqliklarga yakun yasab berdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, O‘zbekiston hududida paleolit davriga oid ko‘plab yodgorliklar mavjud hisoblanadi. Bunga misol qilib Farg‘ona vodiysida Selung‘ur va Toshkent vohasidagi Ko‘lbuloq manzilgohlarini misol keltirish mumkin. Bronza davriga kelib, xo‘jlik yuritish usullari o‘zgardi va dastlabki shahar alomatlari namoyon bo‘ldi. Bunga Jarqo‘ton yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu davrda Farg‘ona vodiysida ham ko‘plab aholi manzilgohlari vujudga keldi. Shunday aholi manzilgohlaridan biri Chust tumanida joylashgan “Buonamozor” va boshqa ko‘plab yodgorliklardir. Yuqoridagilardan shuni bilish mumkin, Chust tuman hududida bronza davriga oid manzilgohlar joylashganligi, aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanganligi arxeologik qazilmalar jarayonida isbotlandi va bu Chust madaniyati O‘zbekistondagi eng qadimgi odam manzilgohlari vujudga kelgan hududlardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. View of qadimgi Chust tarixi va uning madaniyati – 15. 05. 2025.
2. Ibragimov R. Arxeologiya. – Toshkent: Fan. 2022, b-236.
3. Egamberdieva N. A. Arxeologiya. – Toshkent: 2022, b-188.
4. Boboyev D. N. Chust madaniyati me’morchilik va binokorlik uslublarining o‘rganilishi. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025, b-331-333.
5. Матбабаев Б.Х. Локальные варианты… -С 12.; Заднепровский Ю. А. Матбабаев Б.Х. Основные итоги изучения Чусткого поселения в Фергане (1950-1952 гг) //ИМКУ.-Ташкент,1984 Вып.19.С 50-51.

NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINI TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

Otabek SOLIJONOV
University of Business and Science
Oliy ta'lim muassasasining stajyor-o'qituvchisi
solijonovotabek997@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining tashkil etilishi, uning shakllanish bosqichlari hamda hozirgi kunda olib borayotgan faoliyati yoritilgan. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalarining mazmuni, ilmiy-ma'rifiy va targ'ibot ishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola muzeyning hudud madaniy merosini asrash va yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rnini ochib beradi.* ***Kalit so'zlar:*** *Namangan, muzey, tarix, madaniyat, meros, ekspozitsiya, ilmiy ishlar, targ'ibot, tashkil etilish, faoliyat.*

Аннотация: *В статье рассматривается создание Государственного музея истории и культуры Наманганской области, этапы его становления и современная деятельность. Также представленаинформация о содержании экспозиций музея, научной, образовательной и рекламной деятельности. В статье раскрывается роль музея в сохранении культурного наследия региона и воспитании подрастающего поколения.* ***Ключевые слова:*** *Наманган, музей, история, культура, наследие, экспозиция, научная работа, пропаганда, организация, деятельность.*

Annotation: *This article covers the establishment of the State Museum of History and Culture of Namangan Region, the stages of its formation and its current activities. It also provides information about the content of the museum's expositions, scientific, educational and promotional work. The article reveals the role of the museum in preserving the cultural heritage of the region and educating the younger generation.* ***Keywords:*** *Namangan, museum, history, culture, heritage, exposition, scientific work, propaganda, organization, activity.*

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi viloyatimizdagi eng keksa va navqiron muzeylar sirasiga kiradi. Ushbu muzey ma`naviy-ma`rifiy muassasa bo`lishi bilan birga ajdodlar merosini saqlaydigan, avlodlarga ko`rsatib faxr iftixor tuyg`ularini shakllantiruvchi maskandir.

"Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi" Namangan viloyatida 1920-yilda tashkil etilgan bugungi kunda 101 yillik tarixga egadir. Hozirgi kunda nafaqat Farg'ona vodiysida, balki Respublikamizdagi e`tiborli ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma`rifiy dargohlari qatoridan munosib o`rin olgan Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi 1920-yil 20-avgustda Namangan shahar xalq ta`limi bo`limiga qarashli 1-maktab fizika o`qituvchisi Vladimir Ivanovich Ivanov tashabbusi bilan barpo etilgan. Ushbu maktab muzeyida dastlab fizikadan o`quv asboblari jamlangan. Ushbu maktab muzeyida dastlab fizikadan o`quv asboblari jamlangan. Keyinchalik Ivanov rahbarligida maktabning yuqori sinf o`quvchilari o`lka tabiati, tarixi, etnografiyasiga oid eksponatlarni olib kelinishi bilan Namanganda o`lkashunoslik muzeyini alohida tashkil etish uchun ommaviy sur`atda ish boshlandi [1].

Turkiston Respublikasi xalq komissarlar sovetining 1918-yil 19- apreldagi dekreti bilan Toshkentdagi knyaz Nikolay Ramonovning majmualari davlat mulki

deb e`lon qilindi. Uning dang'illama hovlisi xalq muzeyiga aylantirildi. Shu 1918-yil 19- apreldagi Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari sovetining dekretiga asosan Namangan shahrining markazidagi savdogar Xamdam Qalandarov do`koni binosi muzeyga ajratib berildi.

Muzeyni tashkil bo‘lgan dastlabki yillarda jamg‘arma fondi, bo‘lim va ekspozitsiyalarni ochish uchun yetarli eksponatlari ham yo‘q edi. Asosan ko`pchiligi geologiya, minerologiya va zoologiyaga tegishli bo`lib, xazina fondida 1000 ga yetmagan eksponatlar bor edi, xolos. Bular ichida qisman mahalliy aholini uy ro`zg`orda foydalanadigan etnografiya buyumlari uchrardi.

Dastlabki yillari ish tashkiliy xususiyatga ega bo`lgan, yig'ib kelingan eksponatlarni tartibga keltirish, kitoblarni joy-joyiga qo`yish talab etilardi. Muzeyning birinchi direktori V.I.Ivanov o`zi fizika o`qituvchisi bo`lganligi uchun eksponatlar to`plash va muzeyning ayrim xazina-fond ishlarini tartibga keltirishda maktabning yuqori sinf o`quvchilari hamda rus muhojirlari Fotiha Makayeva, keyinchalik, Xusan Makayevlar ham ishtirok etganini ko`ramiz [2].

V.I.Ivanov rahbarligida muzey ishlarini ilmiy asosda qilinib, har yili viloyatning cho`l, tog‘ zonalariga, ya`ni Nanay, Mamay, Chodak, G‘ova, Kosonsoyga ilmiy ekskursiyalar uyushtirilib, o`lkamiz tabiatiga, tarixiga, madaniyati va hunarmandchilik san`atiga oid buyumlar yig‘ilib, ularga ilmiy ishlov berilib xazina-fond boyitib borildi. Natijada 1922-yilda muzey eksponatlari soni 900 taga yetadi. Tashrif buyuruvchilarning soni 500 nafardan ortgan. Tarixiy osori-atiqalar to`plashda shahar aholisi qo`lidan kelganicha o`z yordamini ko`rsatadi [3].

1920-yilga kelib xalq ta`limi bo`limi yangi muzeyni moddiy texnika bazasini mustahkamlashga e`tiborini kuchaytirib, eksponatlar sotib olish uchun mablag' ajratdi. 1920- yilda ish boshlagan maskanda 1922-yilga kelib eksponatlari soni 900 taga yetdi. Muzeyni kengaytirish va eksponatlar sonini ortishida hamda xalq qo`lidagi tarixiy asori atiqalarni to`plashda shahar aholisi qo`ldan kelgancha o`z yordamini ko`rsatdi. Natijada 1923-yilga kelib muzeydagi eksponatlar turlariga qarab quyidagi bo`limlar tashkil etildi: 1. Zoologiya; 2. Minerologiya; 3. Anatomiya; 4. Numizmatika; 5. O`quv qurollari.

1923-yilning so'ngida muzey 6 bo'limdan iborat bo‘lib, eksponatlarning soni 770 tani tashkil yetdi. 1922 – 1927-yillarda muzey tomonidan ilmiy xarakterdagi quyidagi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

a) Etnografiya bo'limini mahalliy aholining kiyim-kechaklari bilan to‘ldirish, uy-ro‘zg‘or buyumlari ya'ni idish-tovoq kolleksiyasini to‘ldirish. Chust hunarmandlari mahsulotlari erkak va ayol do‘ppilari hamda pichoqlari kolleksiyasini boyitish;

b) Tabiatshunoslik bo‘yicha kolleksiyani to‘ldirish maqsadida yoz faslida viloyatning Chust, Yangiqo‘rg‘on va Kosonsoy tumanlariga paxodlar uyushtirish;

v) Mahalliy aholining turmush tarzini hunarmandchilik san'atini, savdo-sotiq ishlarini, mehnat faolligini aks ettiruvchi fotosuratlar ko‘rgazmasini tashkil etish;

g) Aholi hadya qilgan sopol buyumlar kolleksiyasini tartibga keltirish;

d) Aholidan numizmatikaga oid eksponatlarni yig‘ib olish va ularni davrlashtirish ishlarini amalga oshirish va boshqalar.

Muzey faoliyatini yuritishda 1920 – 1927-yillarda V. I. Ivanov muzeyga rahbarlik qilgan.

Har bir muassasa va tashkilotni taraqqiyotida rahbarning o`ziga xos roli bor. Xuddi shunday muzey rivojini va rolini oshirishda 1927 – 1937- yillarda muzeyga mudirlik qilgan Inomjon Nizambayevning ham alohida o`rni bor. Inomjon Nizambayev ma`rifatli inson bo`lib, viloyatda maorifni rivojlantirishda ham ulush qo`shib, muzeyga tarixiy eksponatlarni jamlash va fondni to`ldirishda alohida jonbozlik ko`rsatgan. Buni isbotini tarixiy hujjatlarga muhrlangan hisobotlardan, qayd etish daftarlaridan hamda 1930-yilga kelganda muzey xazina fondidagi eksponatlar soni 3000 taga, ziyoratchilar soni esa 20000 ga yetganida ko`rish mumkin.

Ayniqsa, Inomjon Nizomboev sa`y-xarakatlari bilan shu yil Namanganda tashkil etilgan hosil bayrami munosabati bilan shahar hunarmand birlashmalari tomonidan ishlab chiqilayotgan mahsulotlar ko`rgazmasi bo`ldi. Ko`rgazma yakunidan so`ng ularning ko`p qismi muzey xazina-fondiga hadya etilishi o`z - o`zidan eksponatlar soni ortib borishiga imkon tug’dirgan.

Dastlabki shakllanish davrida ma’lum bir shaxslar uchun xizmat qilgan muzeylar, asta-sekin ommaviylashib bordi va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismiga aylandi.

1930-yillardan keyin muzey jamoasi Namangan aholisini, ayniqsa maktab o‘quvchilarini tabiatga qiziqishlarini hisobga olib, sohaga oid eksponatlar to‘plash va namoyish etishga e’tiborni kuchaytirdi. “O‘lka geografik tuzilishi”, “Aholisi”, “Tuproqlari”, “Iqlimi”, “Suv manbalari”, “Tog‘lari” kabi mavzularda ma’lumotlar to‘plandi. Turli-tuman o`simliklardan gerbariylar yig‘ildi va hashoratlardan kolleksiya to`plandi. Bu davr uchun eng xarakterlisi ilmiy xodimlar tomonidan parranda va hayvonlardan tirik burchak tashkil qilindi. Keyinchalik parranda va hayvonlarni qotirmalari tayyorlandi. Ularga ma`lum ilmiy ishlov berilgandan keyin xazina-fondga, hamda ko`gazma zallariga o`tkazildi. 1944-yilda H. Zokirovning tashabbusi bilan muzeyda “Ulug’ Vatan urushi” bo`limi ochildi .

1940-yilga kelib esa eksponatlar soni 10000 tani tashkil etdi. O`lkamiz tabiatiga, xalqlarimiz tarixiy yodgorliklariga, me`morchiligiga, badiiy amaliy san`atiga, sho`rolar zamonidagn xalq maorifi, tibbiyoti, madaniy hayotga oid eksponatlar fondga to`plangan bo`lib, Farg’ona vodiysi muzeylari ichida munosib o`rin egalladi. Muzeyga kiruvchilar 23,000 kishiga yetdi.

Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi 1941-yil mart oyida O`zbekiston Respublikasi hududida Namangan oblastini tashkil topishi munosabati O`zSSR Oliy Sovetining Namangan oblasti bo`yicha tashkiliy komiteti tomonidan Namangan shahar o`lkashunoslik muzeyini Namangan oblast o`lkani o`rganish muzeyi maqomida qayta tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilindi [3].

Ikkinchi jahon urushi boshlanganligi sababli 1941-yildan – 1943-yilga qadar muzey o`z faoliyatini vaqtincha to`xtatdi. 1943-yil 8-sentyabrda O`zbekiston Oliy Sovetining Namangan viloyatini tashkil etish bo`yicha tashkiliy qo`mitasi tomonidan Namangan viloyat o`lkashunoslik muzeyini qayta ochish to`g`risida qaror qabul qilindi va muzey o`z faoliyatini yurita boshladi ya`ni 1943-yildan viloyat o`lkani o`rganish muzeyida 4 ta bo`limga ega bo`lgan holda qaytadan ish boshladi [4]. Bu davrlarda muzeyga Haydarali Zokirov, keyinchalik Nabijon Ahmedov, Ivan

Malenkov, Obidjon Kamolovlar rahbarlik qildilar. Ular rahbarlik qilgan davrlarda muzey ilmiy muassasa maqomida:

– o`lka tabiati va tarixini o`rganish;

– tabiat haqidagi ilmiy bilimlarni targ`ib etish;

– o`lka tabiiy resurslari namunalarini yig`ish va targ`ib etish;

– viloyat ahlini Vatanga mehr va muhabbat ruhida tarbiyalash ishlarida ko`maklashish kabi faoliyat turlarini olib borildi.

1945-yil 20-oktyabrdagi O'zbekiston SSR xalq komissarlari Kengashining 1766-sonli Qarori bilan Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi Namangan viloyat xalq maorifi bo'limidan Namangan madaniy – oqarsuv muassasalari bo'limi tasarrufiga o'tkazildi [5].

1960-yilning 25-yanvarida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidumi Farmoniga binoan Namangan viloyati tugatilishi munosabati bilan viloyat o'lkashunoslik muzeyi ham ayni vaqtda Andijon viloyatiga bo'ysunuvchi Namangan shahar o'lkashunoslik muzeyiga aylantirildi. 1966-yili ushbu muzeyga 74019 nafar kishi tashrif buyurgan. Muzey bo'yicha 518 ta ekskursiya tashkil etilgan. 1966-yili viloyat tumanlarida ko'chma muzey faoliyat yuritgan. Ushbu muzeyni 9108 kishi tomosha qilgan. Ko'chma muzey ekspozitsiyalari bo'ylab 222 ta ekskursiya tashkil etilgan. 1967-yil 1-yanvarda muzey ixtiyorida 22375 ta eksponat mavjud edi.

1967-yil 18-dekabrda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidumining Farmoniga binoan Namangan viloyati qayta tiklandi. Natijada 1968-yilda Namangan shahar o'lkashunoslik muzeyi Namangan viloyat madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi viloyat o'lkani o'rganish muzeyiga aylantirildi. Muzey tarkibi: rahbariyat, fond bo`limi, ommaviy va ilmiy-oqartuv ishlar bo`limi, kutubxonadan iborat bo`lgan. Buxgalteriya-xisobot bo`limi 1965-yilgacha faoliyat olib borgan. Markazlashtirilgan buxgalteriya-hisobot tizimi tashkillanishi munosabati bilan buxgalteriya hisobot bo`limi qisqaradi.

Shu o`rinda ta`kidlashimiz kerakki, 1952 yildan – 1960 yilgacha muzeyga Nabijon Ahmedov direktorlik kilgan bo`lib, u kishining sa`y-xarakatlari, tinimsiz izlanishlari, tashkilotchilik qobiliyati tufayli bu yerda katta ishlar amalga oshiriladi. Shuningdek, muzeyning tabiat bo`limini eksponatlar bilan boyitishda 1947 – 1971-yillarda faol xissa qo`shgan Ivan Ivanovich Malenkovning xizmatlari katta bo`ldi. U muzeyda tabiat bo`limi mudiri, ilmiy ishlar buyicha direktor o`rinbosari, 1964-yilda muzey direktori vazifalarida ishlab, muzey taraqqiyotiga faol xissa qo`shdi.

1965-yil 30-martidan – 6-oktyabrigacha Obidjon Kamalov vaqtinchalik direktor vazifasini bajara boshladi. 1965-yil 7-oktyabrdan – 1970-yilga qadar yana I.I.Malenkov muzey direktorligini davom ettirdi. U 1966-yilda muzeyda qo`shimcha san`at bo`limi tashkil etilishiga asos soldi.

Bu davrda muzey xazina-fondida 64455 dan ortiq eksponatlar mavjud bo`lgan. Shulardan 3 mingga yaqini noyob ashyolardir. Jumladan, Qoraxoniylar, Somoniylar, Amir Temur va Qo`qon xonligi davriga oid tangalarni bu o`rinda alohida tilga olish joiz [6].

1970-yildan boshlab muzey ilmiy xodimlari etnografik ma'lumotlar hamda eksponatlar yig'ish ishlarini kengaytirishdi. 1970-yildan boshlab muzey ilmiy hodimlari har bir urush qatnashchisi xonadonida bo`lib, ular xotirasini yozib, orden,

medallari, xat, surat va boshqa ashyolarini olib kelib, ekspozitsiyalarni yanada boyitishdi. Fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabaning 30 yilligi munosabati bilan Namangan viloyat partiya komiteta, viloyat ijroiya komitetining rahbarligida 1975-yil mayida viloyat o`lkani o`rganish muzeyi filiali "Shon-shuhrat uyi" ("Xotira va qadrlash uyi"muzeyi) tashkil etildi. Natijada juda ko'plab Namangan viloyatida rahbarlik qilgan va frontda qahramonlik ko'rsatgan insonlar to'g'risida ma'lumotlar jamlangan.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirishda 1971 – 1976 va 1978 – 1979-yillarda muzey direktori vazifasida ishlagan Ikromjon Akbarovni, muzey hodimlari, T.P.Tomilchenko, J.Turaxanov, T.Boyxonbosov, A.Shukurov, E.Mirjalolov, I.Usmonovlarning xizmatlari salmoqli bo`lgan. Shu xarakatlar natijasida 1976-yilda mazkur dargoh ikkinchi toifali muzeylar qatoriga kirgan.

1977 – 1978-yillarda tajribali geografiya o`qituvchisi o`lkashunoslikni jonkuyar izlanuvchisi Abdulla Nuriddinov muzeyga ikki yil direktorlik qildi. Ammo, shu qisqa fursat ichida viloyat o`lkani o`rganish muzeyi tabiat va arxeologiya bo`limlarining rivojlanishini kuzatamiz. Abdullajon Nuriddinov jonkuyar ustoz hamda yangi ekspozitsiya ko`rgazmalarini tashkil etish bilimdoni bo`lganligi uchun muntazam ravishda "Qushlar bayrami" kabi o`quvchi yoshlarni ko`proq o`ziga jalb qiluvchi ko`ngilochar tadbirlar, muloqotlar o`tkazilishi bilan ilmiy hodimlar ilmiy ommaviy, ma`rifiy ishlarga shuningdek, fond ishlariga katta e`tibor qaratganlar.

1979-yili muzey hayotida katta iz qoldirgan. Shu yili iyul oyida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida butunittifoq miqiyosidagi seminar o`tkazildi. Namangan viloyat "Shon-shuhrat uyi"da olib borilgan ishlarga yuqori baho berildi. Sobiq Sovet Ittifoqi marshali V.I.Chuykov kelib seminarda ishtirok etdi.

Oradan ko`p o`tmay jamoatchilik muzeylariga amaliy va metodik-uslubiy yordam berishni yanada yaxshilash maqsadida metod bo`lim tashkil qilindi. Bo`limlar soni 8 taga yetdi. Bu:

–Tabiat bo`limi;
– Inqilobgacha bo`lgan davr bo`limi;
– Sovet davri bo`limi;
– Ulug' Vatan urushi davri bo'limi – Shon-shuhrat uyi;
– San`at bo`limi;
– Fond-xazina bo`limi;
– Metod bo`limi;
– Ilmiy oqartuv ishlari bo`limlaridan iborat edi.

Muzeyning eski binosida faoliyat yuritish davr talabiga javob bermay, ishchi guruh tomonidan o`rganilib, Namangan oblast 1-sekretari vazifasidagi Rajabov say`i-harakati bilan Respublikadagi keksa ma`naviy-ma`rifiy muassasa bo`lgan muzey mazkur binoda 1986-yilga qadar faoliyat yuritdi.

1986-yilda Namangan shahar hokimligi buyrug`iga asosan tipovoy loyiha asosida qurilish ishlari boshlangan va 1988-yilda nihoyasiga yetkazilgan. 1988-yil avgust oyida zamonaviy, yangi va ko`rkam binoga ko`chib o`tildi.

Muzey Namangan shahar N. Namongoniy ko`chasi 41-uyda joylashgan. Umumiy yer maydoni 5322 kv.m bo`lib, shundan 1700 kv.m ko`rgazma zallari, 520

kv.m eksponatlarni saqlash maydonini tashkil etadi. Ko`rgazma zallari 7 ta, ma`muriy xizmat xonalari 6 ta, xo`jalik va qo`shimcha xonalar 8 tani tashkil etadi.

Hozirgi kunda Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida xazina, tarix, tabiat, adabiyot, san`at, mustaqillik, ma`naviyat, xotira va qadrlash bo`limlarida faoliyat yuritmoqda.

2017-yil 11-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 975-sonli qarori asosida Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi oliy toifali muzeylar qatoridan o`rin oldi. Shu davrga kelib eksponatlar soni 100 mingdan oshiqni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi "2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 975-sonli Qaroriga muvofiq Namangan viloyati o'lkani o'rganish muzeyining nomi Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga almashtirildi.

Har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an`analar hamda qadimiy yodgorliklarni o`rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol. Bu borada esa muzeylarning o`rni beqiyos. Xususan, Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2018 – 2019-yillar mobaynida yosh avlodni ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va ma`naviy meros bilan faxrlanishga o`rgatish, milliy g'ururni yuksaltirish, buyuk an`analarni davomchisi sifatida tarbiyalash maqsadida 210 ming tashrif buyuruvchilarga xizmat ko`rsatdi. Shu bilan birgalikda Namangan viloyati hokimligi tadbirlar rejasi asosida viloyatning chekka hududlarida ko`chma ko`rgazmalar tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона, 2010.
2. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxivi ma'lumotlari.
3. Гласс Ю. И., Ланда Л. М. Музеи Узбекистана. – Ташкент, 1961.
4. Turdiyev B. I. Yoshlarni milliy qadriyatlarga xurmat ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rni (Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi misolida). Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2014.
5. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейининг 2006 йил йиллик ҳисоботидан. – Namangan, 2006.

Axmadaliyeva L. O`lmas yodgorliklar maskani. // Ta`lim va tafakkur. 2006. – №3.

IV. O‘ZBEKISTON TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI VA TAVSIFI

MARKAZIY OSIYODA YOZILGAN “USUL AL-FIQH” ILMIGA OID MANBALAR TARRIXSHUNOSLIGI

Dildora NISHANOVA
Oriental universiteti dotsenti v.b.
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dnishanova1987@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan islom ilmlarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganadi. Maqolada islom madaniyati doirasida rivojlangan asosiy islom ilmlari – tafsir, kalom, hadis va mantiq ilmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tafsir ilmi Qur'oni Karimning mazmun-mohiyatini tushunishda, shar'iy hukmlarning o‘rni va maqsadini aniqlashda muhim rol o‘ynashi ta'kidlanadi. Maqola O‘rta asrlarda islom ilmlarining madaniy va ilmiy taraqqiyotdagi fundamental rolini ko‘rsatib beradi.* ***Kalit so'zlar:*** *O‘rta asrlar, Sharq mamlakatlari, Islom madaniyati, Islom ilmlari, Tafsir ilmi, Kalom ilmi, Hadis ilmi, Mantiq ilmi, Qur'oni Karim, Hadis.*

Annotation: *This article studies the role and significance of Islamic sciences, which were one of the main factors of cultural uplift in the countries of the East in the Middle Ages. The article pays special attention to the main Islamic sciences that developed within the framework of Islamic culture - the sciences of tafsir, kalam, hadith and logic. The article shows the fundamental role of Islamic sciences in cultural and scientific development in the Middle Ages.* ***Keywords:*** *Middle Ages, Eastern countries, Islamic culture, Islamic sciences, Tafsir science, Kalam science, Hadith science, Logic science, Holy Quran, Hadith.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль и значение исламских наук, одного из главных факторов культурного развития стран Востока в Средние века. Особое внимание в статье уделено основным исламским наукам, развивавшимся в рамках исламской культуры, — тафсиру, каламу, хадисоведению и логике. В статье показана основополагающая роль исламских наук в развитии культуры и науки в Средние века.* ***Ключевые слова:*** *Средние века, страны Востока, исламская культура, исламские науки, наука Тафсир, наука Калам, наука Хадис, логическая наука, Священный Коран, Хадисы.*

O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish yaxlit islom madaniyati doirasida kechganligi bois, uning omillaridan hisoblangan islom ilmlarining o‘rni va ta'siri yuqori bo‘lganligini zikr etish joiz.

Islom ilmlarining eng dastlabkisi sifatida tafsir ilmi e'tirof etiladi. Ma'lumki, islom dinining asosiy manbai Qur'oni karim hisoblanadi. Demak, islom dini doirasida barcha zarur qoidalarni ishlab chiqish uchun Qur'oni karim ko‘rsatmalarini bayon etuvchi oyatlar mazmun mohiyatani bilish va tushunish zarur. Bu maqsadga aynan tafsir ilmi yordamida yetish mumkin. Zero, shar'iy xukmlarning o‘rni va maqsadini tushunish, buyuruvchi hukmlar va qaytaruvchi hukmlarning tadqiq qilish mana shu tafsir ilmining predmeti hisoblanadi .

Ikkinchisi - kalom ilmi. Bu ilm Allohni, ya'ni yaratganni tanish bobida zaruriy dalillar haqida bilim beruvchi soha bo‘lib, islom ilmlari ichida g‘oyat murakkab yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shunga qaramay, bu soha rivoji ham islom tarixida yurtdoshimiz Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy (tax. 256/870-333/945) nomi bilan bevosita bog‘liqdir [1:32].

Uchinchisi - hadis ilmi. Payg‘ambar alayhissalomning aytgan gaplari va qilgan ishlaridan xabar beruvchi sohadir. U islom dini talablarini hayotga tatbiq etishdagi muhim manbalardan biridir[1:33].

Islom ilmlaridan navbatdagisi - ilm al-mantiq, shar'iy masalalarning mantiqiy mazmuni va izchilligini ochib berish uchun zarur ilm sohasi hisoblanadi [1:36].

Ilm al-lug‘a al-arabiyya - arab tili sohasi ham islom ilmlari sirasiga kiritilgan, zero, shariatning asosiy manbalari bo‘lmish Qur'oni karim va Payg‘ambar sunnatlari hamda ularning dalillari arab tilida ekanligi ushbu tilni yaxshi o‘rganish ehtiyojini to‘g‘diradi [1:36]. Binobarin, islom dinining boshqa mamlakatlarga tarqalishi va o‘zga millatlar tomonidan arab tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan zarurat uning grammatikasini mukammalroq ishlab chiqishga turtki bo‘ldi. Qur'on oyatlaridagi tushunilishi qiyin, murakkab so‘z va iboralarning mazmunini ochib berishga bo‘lgan urinishlar esa islomgacha mavjud bo‘lgan she'riyatni o‘zlashtirish va fan sifatida o‘rganishga yo‘l ochdi [2:31]. Yuqorida zikr etilgan ilmlarning barchasi islom ilmlari sifatida X asr o‘rtalariga kelib batamom shakllanib ulgurdi va hozirgacha dunyo madaniyatida o‘z nufuzini saqlab kelmoqda.

Ma’lumki, hanafiy mazhabi doirasida juda ko‘p asarlar yozilgan va ular ulamolar tomonidan nisbiy ikkiga: “e’tiborli” (“ya’ni mo‘tabar”) va “e’tiborsiz” (“ya’ni g‘ayri mo‘tabar”) asarlarga ajratib o‘rganiladi. Bunga XII asrgacha yozilgan Abu Hanifa va uning shogirdlari tomonidan yozilgan asarlarning barchaga ma’lumligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Biroq XII-XIX asrlarda ham hanafiy mazhabi fiqhiga oid ko‘plab asarlar yozilgan. Ularni “e’tiborli” va “e’tiborsiz” qismlarga ajratib o‘rganish o‘ta nisbiy bo‘lib, ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan [2:209]. Hanafiy yo‘nalishida bitilgan asarlarga bunday baho berishda quyidagilar sabab qilib ko‘rsatiladi. “E’tiborsiz” manba deb sanalgan asarlar mahalliy ulamolar fatvolari va mintaqada faoliyat yuritgan vakillarning fikrlari ilgari surilgan nodir masalalarni o‘z ichiga oladi. Lekin ular yuqorida keltirilgan sabablardan birortasi topilsa ham, “e’tibor” dan tushib qolgan.

Shuningdek, “Jo‘ng”lar ham mavjud bo‘lib, ular Markaziy Osiyoda muftiy, qozi va faqihlar tomonidan tuzib kelingan fiqhiy masalalar to‘plamlari hisoblanadi. “Jo‘ng” so‘zi XVII–XVIII asrlarda forsiy va keyin turkiy lug‘atlarda, asosan, “katta kema”, “turli she’rlar to‘plami” kabi ma’nolarni anglatib kelgan. Markaziy Osiyoda jo‘nglar, asosan, muftiy va a’lamlar tomonidan tuzilgan bo‘lib, ular fiqhiy masalalar, namunaviy rivoyat hujjatlar, fatvolar majmuasida ishlatilgan. Unda jo‘ng tuzuvchilari to‘plamni tuzishda, asosan, amalda bo‘lgan fiqhiy masalalarga (ma’mulat Masa’il fiqhiya) e’tibor qaratganini qayd qilishadi [3:60-61].

“Jo‘ng”lar, asosan, XVI-XX asr boshlarida yozilgan. Ular xalq orasida keng tarqalgan fiqhiy savollarga echimlarni va qozixonalarda amalda bo‘lgan shar’iy rivoyatlardan ko‘chirmalarni o‘zida jamlagan. “Jo‘ng to‘plamlari”dan ikkitasi Buxoroda toshbosma shaklida nashr qilingan [5:766]. Birinchisi – Mulla Nazrulloh Buxoriy (vaf.1334/1916) tomonidan mir Hisomiddin sudur muftiy nusxasi asosida nashrga tayyorlangani qayd etilgan. Ikkinchisi esa, 1909 yilda Buxoroda chop qilingan. to‘plam Mavlaviy Inoyatulloh Qozikalon Buxoriy (1780/1857) va uning o‘g‘li Buxoroda sudur muftiy bo‘lgan Porso xo‘ja nusxalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

institutining “Asosiy” fondi[6]da 100dan ortiq “Jo‘ng” to‘plamlari nusxalari saqlanadi. Mazkur asarlar Markaziy Osiyo fiqh tarixini o‘rganishda tarixiy rasmiy hujjatlar, fiqhiy asarlar va fatvo kitoblari bilan birga muhim o‘rin tutadi.

“E’tiborli” manbalar qatoriga esa, o‘z davrining mashhur ulamolari va ularning shogirdlari asarlari kiritilgan. Bunday asarlar usulu-l-fiqh ilmida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Usulu-l-fiqh barcha mazhab ulamolarining asosiy yo‘nalishi hisoblanganligi uchun mazkur sohada ko‘plab asarlar yaratilgan. Ayniqsa, bunda hanafiy mazhab ulamolari etakchilik qilgan. Mashhur olim Ibn Nadimning fihristida keltirilishicha, birinchi bo‘lib tarqoq qoidalarni to‘plab kitob shakliga keltirgan shaxs Imom Abu Hanifa (ra)ning shogirdi Imom Abu Yusuf bo‘lgan. Biroq uning to‘plamlari bizgacha etib kelmagan [5:209].

Hanafiy ulamolardan, Buxoroda yashab faoliyat yuritgan Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 539/1150) ham «Mezonu-l-usul» nomli asar yozgan. Mazkur asar ilk bor suriyalik olim, Qatar universiteti shariat bo‘limi mudarrisi, doktor Muhammad Zakiy Abdu-l Birr muharrirligi ostida 1404/1984 yilda Qatarda chop etilgan [6:9].

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, ko‘plab xalqlar orasida keng tarqalgandan keyin paydo bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun umumiy qoidalar ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Natijada, «Usulu-l-fiqh» ilmiga asos solindi. Abu Yusufdan keyin «Usulu-l-fiqh»ga bag‘ishlangan kitobni imom Muhammad ibn Idris Shofe’iy ta’lif etgan. «Risola» deb atalgan mazkur kitob bizgacha etib kelgan. Shu bois u ulamolar o‘rtasida “Usulu-l-fiqh”ga oid birinchi asar deb e’tirof etiladi va imom Shofe’iy «Usulu-l-fiqh» ilmining asoschisi sifatida taniladi.

Ba’zi ulamolar hijriy yettinchi asrdan boshlab, «Usulu-l-fiqh»ning ikki yo‘nalishini ham o‘zida birlashtirgan asarlar yaratganlar. Ularda mutakallimlar va hanafiylarning yo‘nalishi jamlangan. Ushbu asarlarda usul koidalarini tahqiq qilish, dalillar bilan isbotlash va furu’u-l-fiqhga tatbiq qilishga alohida e’tibor berilgan. Bu ish, asosan, hanafiylar va shofe’iylar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning uslubi «mutaaxxirlar yo‘nalishi» deb atalgan [2:200].

Quyida islom fiqhi yo‘nalishida shakllangan to‘rt mazhabga oid usulu-l-fiqh asarlarning ba’zilari xususida alohida to‘xtalib o‘tamiz:

“Fusul fi-l-usul” (“Usulga oid fasllar”). Bu asar muallifi hanafiy mazhabining mashhur olimlaridan biri – Ahmad ibn Ali Roziy Jassos (ra)dir. «Fusul fi-l-Usul» asari hanafiy mazhabi bo‘yicha yozilgan eng asosiy asarlardan biri bo‘lib, aksariyat ulamolar usulu-l-fiqh bo‘yicha unga suyanib ish ko‘rgan. Muallif asarda fiqhiy masalalarni oson va engil zikr qilib o‘tgan. Unda asar mazmuni haqida ma’lumotlar usulu-l-fiqhning tojiga aylangan. Shuningdek, usulu-l-fiqh masalalari bir muncha keng sharhlangan [8:17].

«Usulu-l-Bazdaviy» (“Faxrul islom Ali ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim Nasafiy Bazdaviy qalamiga mansub Ubaydulloh ibn Mas’ud usulga oid kitoblarini mazkur asarga asoslanib yozgan[7]. « Kashfu-z-zunun a’n Asami-l-kutub va-l-funun» (“kitob va san’at nomlaridan shubhalarni olib tashlash”) asari muallifi Mulla Xoja Xalifa taxallusi bilan mashhur Mustafo ibn Abdulloh (1609/1657) ning yozishicha, «Usulu-l-Bazdaviy» o‘zida nodir masalalarni to‘plagan va unga ko‘plab sharhlar bitilgan. Mulla

[6] Bundan buyon O‘zRFAShI qo‘lyozmalar bo‘limi

[7] Nodir Nabijon o‘g‘li. Usulu-l-fiqh haqida saboqlar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2008. – B. 17.

Xoja Xalifa o‘z kitobida usuli Bazdaviyning o‘ndan ortiq sharhini zikr qilib o‘tadi. Shulardan biri Imom Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriyning «Kashf Asror» asari bo‘lib, u «Usulu-l-Bazdaviy»ga yozilgan sharhlar orasida eng mo‘tabaridir [11].

Shamsu-l-aimma Muhammad ibn Ahmad ibn Sahl Xurosoniy Saraxsiy Hanafiy (rah.a)ning «Usul Saraxsiy» asari. Mazkur asarning asl nomi «Tamhid Fusul fi-l-usul» (“Usullarga oid fasllarga kirish”) bo‘lib, u Bazdaviyning usuliga o‘xshaydi.

«Tavzih ma’a-t-Talvih» (“So‘zni sayqallashtirish, bir xos mavzuga taalluqli hukmni umumiylashtirish”) Ubaydulloh ibn Mas’udning asaridir. Ubaydulloh ibn Masud ibn Toju-sh-sharia, Mahmud ibn Sadru-sh-sharia, Jamoliddin Ubaydulloh Mahbubiy bo‘lib, «Sharhu-l-Viqoya»ni yozgan va sohibi talabalar orasida «Sadru-sh-Sharia»nomi bilan tanilgan [12].

«Usulu-sh-Shoshiy» Abu Ya’qub Ishoq ibn Ibrohim (vaf. 325/947y)ning asari bo‘lib, u Shoshda tug‘ilgan. Misrda ta’lim olib, bir muddat qozilik ham qilgan. «Jomi’ Kabir»ni Zayd ibn Usoma va Abu Sulaymon Juzjoniylardan rivoyat qilgan. Ba’zi ulamolar uni shofe’iy mazhabida bo‘lgan, deb keltiradi. Lekin bu tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topmadi.

«Muxtasar fi-l-furu’u-l hanafiy» (“Hanafiy mazhabidagi furu’ qisqartmalari”) imom Abulhasan Ubaydulloh ibn Husayn ibn Dalol Karxiy (vaf. 340/962y.) asari. Bu asarga imom Quduriy va boshqalar sharh yozganlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, usulu-l-fiqh (fiqh asoslari) ilmi VIII asrdan boshlab mustaqil fan sifatida shakllangan va faqihlar tomonidan o‘zlashtirila boshlagan. Ushbu davrga qadar u fiqh ilmining bir qismini tashkil qilgan. Har bir hududdan etishib chiqqan allomalarning o‘z ilmiy maktablari bo‘lgani kabi, hududlar kesimida ham allomalarning ilmiy meroslari tizimida maktablar shakllanishi natijasida Movarounnahr, Buxoro hamda Samarqand fiqh maktablari yuzaga kelgan bo‘lib, ular qatorida Farg‘ona fiqh maktabi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Farg‘ona vodiysidan etishib chiqqan allomalar turli fan sohalari qatorida usulu-l-fiqh ilmining rivojiga ham o‘z ilmiy meroslari bilan hissa qo‘shganlar. Usulu-l-fiqh ilmining eng rivojlangan davri IX-XIII asrlarga to‘g‘ri kelib, bu davrda Abu Bakr Jassosning «kitobu-l-usul», Abu Zayd Dabbusiyning «Taqvimu-l-adilla», Faxrul Islom Bazdaviyning «kitobu-l-usul», Shamsu-l-aimma Saraxsiyning «Tamhidu-l-fusul fi-l-usul», Abul Barakot Nasafiyning «Manor» va Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” kabi asarlari mazkur davrda yozilgan bo‘lsada, bugungi kunga qadar hanafiy usulu-l-fiqh ilmi bo‘yicha asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, usul fikhga bag‘ishlangan alohida asarlardan tashqari, furu’u-l-fikhga oid ayrim asarlar tarkibida ham mazkur mavzu qamrab olingan. Jumladan, Jamoliddin Ahmad G‘aznaviy (vaf. 600/1203) qalamiga mansub “Hoviy Qudsiy” (Muqaddas asrovchi) asarida usulu-l-fiqhga oid qism mavjud. Hanafiy fiqhining mashhur hanafiy olimlaridan – Abul Fath Alouddin Muhammad ibn Abd Hamid ibn Umar ibn Hasan ibn Husayn Usmandiy Samarqandiyning (vaf. 552/1157 y.) “Bazl an-nazari fi usul” (Usulu-l-fiqh ilmiga chuqur nazar), “Muxtalafu-r-rivoya” (Rivoyatlarning turliligi), Burhonuddin Marg‘inoniy “Tajnis va-l-mazid” (“O‘xshatish va qo‘shish”), Abu Fazl Abdulloh ibn Mahmud ibn Mavdud ibn Majdiddin Mavsiliy (vaf. 683/1284 y.)ning “kitobu-l-muxtor” (“Tanlangan kitob”), Abu Barakot Nasafiy (vaf. 710/1310 y.)ning “kitobu-l-vofiy fil-furu’”(“Furu’ fiqhda vafo qiluvchi”), Tohir ibn Salom ibn Qosim ibn Ahmad Ansoriy Xorazmiy (vaf. 771/1370 y.)ning “Javohiru-l-fiqh” (“Fiqh javohirlari”) asarlarini ham keltirish mumkin [11].

Usulu-l-fiqh ilmi bo‘yicha ta’lif etilgan asarlar hozirga kungacha birlamchi manba bo‘lib xizmat qilishi bilan birga, ulamolarning usulu-l-fiqh ilmi rivojiga katta hissa qo‘shganliklarini aohida ta’kidlash darkor. Mazkur asarlarning yozilish uslubi va metodologiyasi keyingi davrda yaratilgan asarlarga nazariy jihatdan asos bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ولي الدين محمد الفرفور. المذهب في اصول علي المنتخب.-دمشق- 1999
2. Уотт М. Влияние ислама на средневековую Европу. М.: Наука, 1976. С. 31.
3. Аминов Ҳ., Примов С. Ҳанафий фиқҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари.-Тошкент: “Моваройуннаҳр”.2017. - В-209
4. Muhammadaminov S. Buxoro amirligi davrida yaratilgan ayrim fatvo to‘plamlari va ularning tarixiy ahamiyati// Imom Buhoriy saboqlari. - Toshkent, 2020. № 3. - B. 60–61.
5. Jungi fatavo va mahzarot. – Buxoro: 1907. – 495B, Jung ma’a Muxtasar viqoya. – Buxoro, 1909. – 766 b.
6. Abdulvahhob Hallof. Usulu-l-fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). 1-2-qismlar. – Toshkent: 1997. – B. 9.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh . – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 15.
8. Abdulloh Abdulhamid Sad. O‘rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent, 2007. – B. 364.
9. Nodir Nabijon o‘g‘li. Usulu-l-fiqh haqida saboqlar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2008. – B. 17.
10. Ahmadaliev A.“Usulush Shoshiy" muallifi / Hidoyat, 2009/7. - B. 30-31.
11. https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kotib-chalabiy-uz/ https://www.bukhari.uz/?p=5858

ТУРК – КОРЕЙС ХАЛҚЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИ ВА УНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ МАНБАШУНОСЛИГИ

Муҳаммаджон МЎМИНОВ
Тошкент гуманитар фанлар университети
Аниқ ва гуманитар фанлар кафедраси ўқитувчиси
mominovali007@gmail.com

Аннотация: *Ушбу Мақолада Туркий дунё ва Корея яриороли халқлари ўртасидаги алоқаларнинг ўрнатилиши ва ривожланиш тарихи манбалар асосида таҳлил қилинган. Ушбу алоқалар Турк хоқонлиги билан Когурё давлатлари ўртасида ўз чўққисига чиққанлигини кўришимиз мумкин. Туркий эллар ва Когурё давлати ўртасида иттифоқ тузиш зарурияти, айниқса, Хитойнинг босқинчилик сиёсати туфайли янада долзарб масалага айланган. Афросиёб саройи деворий суратида тасвирланган элчиларнинг ташриф буюриши шу*

сабабли юз берганлиги тадқиқотда исботланди. ***Калит сўзлар:*** *Турон, Когурё, Самгуг саги, Бўкли, Янгвон, Чжоу, Ляо дарёси, моҳе қабиласи, Варҳуман.*

Аннотация: *В данной статье на основе источников проанализирована история установления и развития связей между народами тюркского мира и Корейского полуострова. Отмечено, что эти связи достигли своего пика во времена Тюркского каганата и государства Когурё. Необходимость заключения союза между тюркскими народами и государством Когурё особенно обострилась из-за захватнической политики Китая. В исследовании доказано, что визит послов, изображённый на настенной росписи дворца Афросиаб, произошёл именно по этой причине.* ***Ключевые слова:*** *Туран, Когурё, Самгук саги, Букли, Янгвон, Чжоу, река Ляо, племя мохэ, Вархуман.*

Annotation: *This article analyzes the history of the establishment and development of relations between the Turkic world and the peoples of the Korean Peninsula based on sources. We can see that these relations reached their peak between the Turkic Khanate and the Goguryeo states. The need for an alliance between the Turkic countries and the Goguryeo state has become a more urgent issue, especially due to China's policy of aggression. It was proved in the study that the visit of the ambassadors depicted in the Afrosiyob palace mural took place for this reason.* ***Key words:*** *Turon, Goguryeo, Samgug sagi, Bo'kli, Yangwon, Zhou dynasty, Liaoriver, Mohe tribe, Warhuman.*

Туркий дунё ва Корея яриморолиҳалқлари ўртасидаги сиёсий, маданий ва дипломатик алоқаларнинг ўрнатилиши ва ривожланиши қадимги ва ўрта асрлар давридан бошланган. Маданий топилмалар орасида ҳайвонларнинг қояларда ўймакор тасвирлари, от жабдуқ ва эгарларининг ясаш усуллари ва қўлёзма манбалар туркий халқларнинг аждодлари ва корейслар ўртасида маданий алмашинув бўлганлигидан далолат беради.

Корея давлати биздан анча олисда жойлашган бўлса-да, халқларимизнинг урф-одат ва қадриятлари, маънавий олами ва дунёқараши бир-бирига ўхшашдир. Биз яқин дўст сифатида олижаноб ва бағрикенг корейс халқи эришаётган катта муваффақиятлардан беҳад қувонамиз ва фахрланамиз, – деди давлатимиз раҳбари.

Туркий дунё ва Корея яриморолихалқлари ўртасидаги алоқаларнинг ўзига хос мисолини милоддан олдинги 2 юзйилликда туркий хун қабилалари ва Қадимги Чосон ўртасидаги алоқаларда кўришимиз мумкин. Жанубий кореялик тарихчи Ноҳ Тае Донг алоқаларни кўрсатиб ўтар экан, Хитойнинг Хан сулоласи Қадимги Чосон ва туркий ҳунлар (hyungno-흉노) ўртасидаги иттифоққа йўл қўймаслик учун милоддан олдинги 108 йилда Қадимги Чосонга бостириб кирган. Туркий халқлар бундан ташқари, Когурё ва Ҳунларнинг бир тармоғи бўлган Ювен (宇文 部) қабиласи билан тез-тез алоқалари мавжудлигини такитлайди. [1, – B.362.] Пхенян яқинидаги Согамри (석암리) ҳамда Награнг (낙랑) қабрларида ва бошқа жойларда топилган туркий хун қабилалари қолдиқлари икки давлат ўртасида ўзаро алоқалар мавжудлигига гувоҳлик беради. Хан империясининг ҳарбий ҳаракатлари натижасида Қадимги Чосон тўрт минтақага бўлиниб, Узоқ Шарқнинг сиёсий харитасидан йўқолди.

Награнг мақбараси (낙랑) – 1942 йилда япониялик олимлар Пхенян яқинидаги Награнг туманида дастлабки давлат даврига оид заргарлик буюмлари ва қуроллари бўлган қабристонни топиб ўрганишади. 200 дан ортиқ топилмалар ҳозирги кунда Корея Миллий музейида сақланмоқда. Мақбара тепалиги текис квадрат шаклида бўлиб, баландлиги тахминан 6 м, ён

томонининг узунлиги тахминан 24 м. Мақбара ички қисми иккига, шарқий ва ғарбий қисмларга бўлинган. Ғарбдаги қабр эркак кишига, шарқдаги қабр эса аёлга тегишли эканлиги тахмин қилинади. Ғарбий залда кумуш муҳр билан бирга аждаҳо ва йўлбарс нақшли кумуш камар, қурол-яроғлар топилган. Шарқий залда сирғалар, узуклар ва мунчоқлар каби заргарлик буюмлари, шунингдек, мис муҳрлар мавжуд эди. Ёдгорликларнинг ўзига хос хусусияти шундаки, улар асосан корейс услубидаги ҳунармандчилик буюмлар ҳисобланади. Лекин баъзи буюмлар, масалан, жабдуқлар туркий халқлар намуналарини ўз ичига олади, қурол-яроғлар, бронза ва темир қиличлар ясалиш техникасида ҳам бу намоён бўлади. Бу археологик топилмалар икки халқ ўртасида ҳунарманчилик соҳасида ҳам алоқалар бўлганлигини билдиради.

Туркий халқлар ва Корея яриморoли ўртасидаги маданий алоқалар археологик ишлар давомида топилган бронза даври Искитим маданияти ашёларида ҳам ўз аксини топган. Хабаровск ўлкаси Нанай қишлоғидаги Амурдаги Сикачи-Алян туркий халқлар ва Корея яриморолидаги кочманчи чорвадор моҳе қабилаларининг ўзаро муносабатлари ҳақида петроглифларни ўрганган Е.И. Деревянконинг тадқиқотларида, қоя расмларини чизиш усулига кўра, Туркистон ва Жанубий Сибир овчиларининг чизиқли ўймакорлик техникасига мос келади. Е.И. Деревянконинг таъкидлашича, ҳатто қоялардаги барча расмлар ҳам туркий хақларга тегишлидир. Кореянинг Қадимги Чосон ва Буйео давлатларининг тош қабрларида Жанубий Сибирнинг шарқий қисми ва Мўғулистон ҳудуди қабристонларига хос кийик, буғу, балиқ, от тасвирлари топилган. Бундан хулоса қилиш мумкинки, Турон ва Корея яриморoли қояларида тасвирланган суратлар ўзаро маданий алмашинувнинг умумий белгилари ҳисобланади.

6-8- юзйилликнинг биринчи ярмигача бўлган даврдаги тарихий манбалар туркий халқларнинг ўрта асрлардаги Корея давлатлари – Когурё, Пекче, Силла ва Пархе (Бохай) билан ўзаро алоқаларини очиб беради. Бу даврда Турк хоқонлигининг асосчилари бўлмиш туркий Ашина қабиласи Олтой тоғларининг жанубий ён бағирларида истиқомат қилган ва Жужанлар давлатига тобе еди. Жужанлар таркибида ашина турклари кучайиб 545 йилда теле қабилаларини, 552 йилда еса жужанларни енгадилар. Шу тариқа Бумин ва Истами 552 йилда Турк хоқонлигига асос соладилар. Турк хоқонлиги Муғанхон (553-572) даврида ашинанийлар “Корея қўлтиғидан Ғарбий денгизгача, (Хитой деворидан) Шимолий денгизгача” бўлган ерларни ўз сиёсий ҳукумлари остига олишга муваффақ бўлганлар.[2, – B.191.]

Когурё билан Турк хоқонлиги ўртасидаги муносабатлар асосан шу даврдан бошлаб йўлга қўйилган. 6 - юзйилликнинг ўрталарида шимолий ҳудудларда янги куч сифатида пайдо бўлган Турк хоқонлиги Шимолий Юан сулоласига ҳужум қилиб, уни заифлаштиради ва шарқий ҳудуларга ҳарбий ҳаркатлар давом еттирилади. Натижада Когурё турклар билан тўқнаш келди. Когурё ва Турк хоқонлиги ўртасидаги биринчи алоқа қирол Янгвон (양원왕) ҳукумронлигининг еттинчи йилида содир бўлган.[3, – B.95.]

Ким Бу Сиг ўзининг Уч қироллик тарихи (Samgug Sagi / 삼국사기, 三國史記) асаринг “Когурё йилномалари” бўлимида Турк хоқонлиги ва Когурё ўртасидаги биринчи тўқнашувни баён қилган.

Тўққизинчи ойда турклар бостириб кириб, Шинсонг қалъасини ўраб олишди, лекин улар мағлубиятга учраб, Баегамсонг қалъасига ҳужум қилишди. Қирол саркарда Гоҳулни 10 000 аскар билан жангга юборди. Ўлдирилган ва қўлга олинганлар сони 1000 дан ортиқ.[4, – B.525.]

Ушбу манбада келган матнни таҳлил қилар эканмиз Когурё қироли туркларнинг ҳарбий юрушларини тўҳтатиб қолиш учун катта ҳарбий қўшин юборгани шимолий ҳудудда туркларнинг кучайиб бораётганидан далолат беради. Кўп сонли қўшин сафарбар этилган бу урушда туркларни мағлуб этган Когурё харбий қўшини асосан режа бўйича курашган дейиш мумкин ва бунда қалъани мудофаа қилиш хусусиятлари катта рол ўйнади.

6 - юзйилликнинг ўрталарида Хитойдаги Шимолий Вей сулолси бўлиниб кетиши, Шимоий ҳудудлардан Туркий халқларнинг юксалиши ва хавф солиши Когурё турклар босқинининг олдини олиш мақсадида 547 йилда Когурё қироли Янгвон топшириғи билан Баегамсонг қалъасини қайта таъмирлади, ҳамда шимоли-ғарбий чегара ҳудудида мудофаа чоралари кучайтирилади.

Турк хоқонлиги Жужан хонлиги ўрнига шимолий ҳудудда янги куч сифатида пайдо бўлганлиги сабабли, ўша пайтда бир-бири билан доимо урушда бўлган Шимолий Ци ва Шимолий Чжоу сулола вакиллари Турк хоқонлиги билан тинчлик ўрнатишга ҳаракат қилди.[5, – B.114.] Натижада 551 йилда Бумин хоқон Вей хонодони вакили малика Чанглега қуда-андалик алоқасига киради. [6, – B.81.] Шимолий Ци ва Шимолий Чжоу ўртасидаги бу қарама-қаршилик янада ортади. Бу эса ўз навбатиди Турк хоқонлигининг атрофдаги кучлар таъсирисиз янада ривожланиши мумкин бўлган халқаро муҳитни яратди.

Жанубий кореялик тарихчи Канг Сон “Когурё ва Турк хоқонлиги ўртасидаги уруш” номли мақоласида туркларнинг Когурёга ҳужум қилиш сабаблари таҳлил қилинади. Жужан хоқонлиги билан яқинлашиб келаётган урушдан олдин турклар жужанларни иттифоқдошлари Когурё томонидан кўрсатилиши мумкин бўлган ҳарбий ва иқтисодий ёрдамдан маҳрум қилиш мақсадида Корея яриморолига ҳарбий юрушлар ташкил қилади. Когурё узоқ вақтдан бери Жужан хонлиги билан аҳил ва яхши муносабатда бўлиб келган, бироқ у муносабатлар қачон ўрнатилгани ҳақида аниқ маълумот бермаган. Когурё ва Турк хоқонлиги ўртасидаги 6 - юзйилликнинг иккинчи ярмида бошланган урушнинг сабабларидан яна бири бу Хитан, Шивей ва Моҳе қабиласининг бир қисмини назоратда тутуб туришда эди.

7 - юзйилликнинг бошларидан Турк хоқонлиги ва Когурё ўртасида алоқаларда илиқлик даври бошланади. Бунга сабаб, 581 - йилдан кейин Хитойдаги Суй сулоласининг кучайиши ва давлат ҳудудининг кенгайиши билан Шарқий Осиёдаги халқаро сиёсий вазият кескин ўзгарди. 581 йилда Суй сулоласи Шарқий Турк хоқонлигига ҳужум қилади. Натижада Суй сулоласи таъсири шимоли-шарқдаги Манчурия ҳудудигача этиб боради. Илгари Когурё ва Турк хоқонлиги юқори Ляо дарёси ҳавзасида яшовчи хитанларни назорат қилиш учун курашган бўлса, энди Хитойни бирлаштирган Суй сулоласининг

қудрати кучайиши билан вазият ўзгарди. Хитан қабилаларининг катта қисми Суй сулоласи ҳукмронлиги остида Ляо ҳудудида мустақил хоқонлик ташкил қилади.

Суй сулоласи 598 йилдан бошлаб тажовузкор кучга асосланган давлат ҳудудини кенгайтириш сиёсатини олиб боради. Когурё босқинини амалга оширди. Бу янги тажовузга қарши Когурё ва Турк хоқонлиги икки давлат ўртасидаги савдо-сотиқ билан бирга ўзаро ҳарбий иттифоқ тузишга интилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Корея яриморoли, Жанубий Сибр, Манголия, Туркистон ҳудудларидан топилган археологик топилмалар, ёзма манбаларни тадқиқ қилар эканмиз Туркий дунё ва Корея яриморoли халқлари ўртасида ўзаро алоқалар хақида умумий малумоқтлар берилганини кўришимиз мумкин. Лекин манбаларнинг изчиллик билан ўрганиш натижасида умумийликдан хусуийликга бу икки халқларнинг алоқалари қадим даврларга бориб тақалишини кўришимиз мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Noh Tae-Don. Relations between Ancient Korea and Turkey: An Examination of Contacts between Koguryo and the Turkic Khaganate. Seoul Journal of Korean Studies, 2016.
2. Е.И. Деревянко. Мохэские памятники Среднего Амура. Новосибирск. 1975.
3. Н.М. Оспанов. Исторические контакты Тюркского каганата со средневековыми корейскими государствами // Кореееведение в России: направление и развитие. 2022.
4. 金富軾. 三國史記. 高句麗本紀. 卷 19. 경주. 옥산서원. **https://db.history.go.kr/ancient/level.do?levelId=sg_019r_0050_0170**
5. 邱久榮. 突厥族, 中國古代民族志. 中華書局. 2004.
6. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Тошкент. 2001.

SULTON HUSAYN DAVRIDA NAQSHBANDIYLIK

Sherzod JURAYEV
Oriental universiteti Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sulton Husayn Bayqaro davrida rivojlangan diniy oqimlardan biri Naqshbandiylik haqida ma'lumot beradi. Naqshbandiylikning davlat rivojlanishiga ta'siri, siyosatdagi o'rni shiyalik oqimi bilan kurashlari aks ettirilgan. Naqshbandiylikning Turkiya hududiga ko'chishi va davlat boshqaruviga ta'siri ko'rsatilgan.* ***Kalit so'zlar:*** *Sulton Husayn Boyqaro, Naqshbandiylik, Abdurahmon Jomiy, Bobo Xokiy, Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, Kamoliddin Shayx Husayin at-Taqaviy, Amir Buxoriy.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о Накшбандизме, одном из религиозных течений, развивавшемся во времена правления Султана Хусейна Байкары. Отражено влияние накшбандия на развитие государства, его роль в политике и борьба с шиитским течением. Показана миграция накшбандийского учения на территорию Турции и*

его влияние на государственное управление. ***Ключивые слова:*** *Султан Хусейн Байкара, Накшбандия, Абдурахман Джами, Бобо Хоки, Кутбиддин Ахмад аль-Имоми, Камолиддин Шейх Хусейн ат-Такави, Амир Бухари.*

Annotation: *In this article, information is presented about Naqshbandiism, one of the religious movements that developed during the reign of Sultan Husayn Baykari. The influence of the Naqshbandi school on the development of the state, its role in politics and the fight against the Shiite movement, was reflected. The migration of the Naqshbandi teachings to the territory of Turkey and its influence on public administration are shown.* ***Key words:*** *Sultan Husayn Bayqara, Naqshbandiya, Abdurrahman Jami, Baba Khoki, Kutbiddin Ahmad al-Imami, Kamaliddin Sheikh Husayn at-Takawi, Amir Bukhari.*

Sulton Husayn Boyqaro davrida Naqshbandiylik rivojlanadi, bu tariqat vakillari Sulton Husayn (1469-1506-yillar) qariyib 37 yillik davlati davrida davlat boshqaruvidagi hukmdordan tortib boshqa davlat arboblarigacha ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Hatto davlat siyosatidagi deyarli barcha sohada ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Davlatga oid ko'pgina ishlarda maslahat olib turishgan, ular karvonsaroylar, diniy tashkilotlar va rabotlar kabi muassasalarida faoliyat olib borishgan. Jamiyatda hukmdordan ko'ra ko'proq ta'sirga ega bo'lganlar. Naqshbandiya tariqati shayxlari va so'fiylari vakillari orasida dunyo orzu havaslarini inkor qilgan hatto yashash uchun kerak bo'ladigan asosiy ehtiyojlarga ham e'tibor bermaydiganlari ko'p bo'lsada, asosiy yo'lboshchi Naqshbandiya vakillari davlat siyosatiga faol aralashgan hamda shu yo'l orqali davlat tinchligini saqlash, islom ravnaqi uchun xizmat qilish, xalq tinchligi farog'ati uchun yashash hayotining mazmuniga aylanadi. Naqshbandiylikning yirik vakili Alisher Navoiy davlat lavozimlarida ishlash, xalq farovonligi uchun yashash sababli hatto haj safariga ham bora olmaydi, balki ehrom kiyib yo'lga chiqib Mashhad shahriga yetib borganda Sulton Husaynning iltimosiga binoan orqaga qaytadi. Davlat ishlarini yo'lga qo'yish va tinchlik saqlash maqsadida hatto o'ylanmasdan umrining oxirigacha shu maqsadda mahkam turishiga sabab bo'ladi.

1469-yil 24-mart kuni Hirotda juma kuni katta Jome' masjidida Sulton Husayn Bayqaro nomiga xutba o'qiladi va taxtga kelganda, dastlabki muammo davlatning diniy mafkurasi masalasi o'rtaga chiqadi. Bir guruh olimlar "shia" mazhabini davlat mazhabi deb e'lon qilish borasida tashviqot boshlab yuborishadi. Katta ko'chalarda shialar va sunniylar o'rtasida janjallar ko'tarila boshlaydi. Hirotda o'ta darajada e'tiborli va qudratli bo'lmish hanafiy mazhabining vakillaridan bir guruhi saltanat poyiga borib, ahli sunnat rasm-rusumlarini ustun tutish borasida so'zlar aytib, xutbani o'zgartirish fikridan qaytarishga erishdilar. O'sha vaqt bu jamoa iltimosini qabul qilib, fitr hayiti kuni xatib xutbani taomil bo'yicha o'qidi [1-B. 709]. Bu voqea 1469-yil 14- aprel kuniga to'g'ri keladi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Sulton Husayin qiyin vaziyatda Abdurahmon Jomiyga xat yozib maslahat so'raydi. Javobda esa ahli sunna yo'lida qolish tavsiya etiladi. Bu oqilona tadbir, y'ani ahli ilm va olimlar bilan maslahatlashib ish yuritish, davlatda hukmdoriga nisbatan xalq ishonchini oshiradi. Bizga ma'lumki Abdurahmon Jomiy naqshbandiylikning yirik vakili hisoblangan. Demak davlat siyosatini belgilashda naqshbandiylik ulomolarining tavsiyalaridan kelib chiqilgan.

Sulton Husayn tavakkal qilib, Murg'ob vohasiga kelgach temir sovutlar taqsimlanadi va 850 kishi mukammall qurollanib Hurot tarafga qarab yo'lga tushadi. Yo'lda askarlarni ruhini ko'taruvchi voqea yuz beradi. Bobo Xokiy ismli mashhur zohid tariqat vakillaridan biri bo'lib, bu kishi tarki dunyochilik bilan shug'ullangan va biror shox yoki amirni o'ziga do'st tutmagan edi. Bobo Xokiy Amir Temur askarlaridan biri bo'lganligi odatiga xilof ravishda Sulton Husayn istiqboliga chiqishi, bir tug', bir qo'y, bir o'q - yoy berib hoqonni manziliga tushirib ovqat tortishi va Hirot tomonga qarab qo'lini qilich sermagandek qilib uch marta o'qtalib, nayzasini Sulton Husayinga berishi askarlarni shijoatlantirib yuborganligini aytib o'tishni lozim topdik. Qisqasi shuncha katta qo'shin bo'lishiga qaramay g'aflatda yotgan Yodgor Mirzo ichkilik oqibatida davlatni boy beradi va o'ldiriladi. 850 kishi hech yoqotishlarsiz katta davlatni egallaydi. Davlatni egalllagan Sulton Husayin qozi Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, movlono Kamoliddin Shayx Husayin at-Taqaviy guvohligida qo'yidagicha farmon chiqaradi: " Qishloq aholisiyu dehqonlar, Hirot aholisi va unga tutash mahallalardagi kosibu hunarmandlar ikki yilgacha xorijiy solig'i va qo'shin puli solig'idan ozod bo'ladilar, belgilab qo'yilsinkim, devon amaldorlari o'sha soliq pullarni undirish uchun fuqoroning yaralangan dillariga tuz sepmasinlar".[1-B. 736]. Xuddi shu holat Abdurazzoq Samarqandiy asarida ham keltiriladi faqat qo'shimcha tarzda qozi Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, movlono Kamoliddin Shayx Husayin shaxsan o'zlari shahar atrofi va mahallalarni aylanib tushuntirish ishlari olib borishlari tayinlanadi.[2-B. 667]. Xondamirning ta'kidlashicha qozi va mavlaviyning jar chaqirib aylanib yurishi odat tusiga kirmagan bo'lsada xalq bilan uchrashib bu farmon tushuntirib chiqiladi. Bu jarayonlarni kuzatsak uchunchi renasans davrida hukumatimiz tomonidan amalg oshirilgan Mahallabay ishlash haqidagi hukumat qarorlarining tarixiy ildizlari temuriylar davriga borib taqaladi[4].

1470 yil 23 avgust kuni Xoja Abdulloh Ansoriyning mozoriga ziyoratga borgan Sulton Husayin mavlono Kamoliddin Shayx Husayinni chaqirib " Saltanat poytaxti Hirotni xuddi Sulton Abu Said Mirzo zamonasidagi shariat qoyidasi bo'yicha boshqarmoq kerak. Agar shaxshan men yoki ukam yoki o'g'limga nisbatan shariy jazo qo'llanish taqozo etib qolinsa, uning ijrosini orqaga surmaslik lozim dedi.[3-B. 668.] Shunga o'xshash bir necha qonunlarning chiqalishi davlatning xalq bilan hamohangligini ta'minlaydi.

Haqli savol to'g'iladi, nega Abu Said davridagidek boshqarish kerak degan fikrga kelgan, sababi naqshbandiya shayxlarining shiddatli qarshiliklari sababli shariatga to'g'ri kelmaydigan ba'zi soliqlar bekor qilingan. Naqshbandiya shayxlaridan Xoja Ubaydulloh Ahrorning qistovi bilan 1460 yilda Abu Said Buxoro va Samarqandda mavjud tamg'a solig'ini va boshqa shar'iy bo'lmagan, mo'g'ullarning to'rasiga asoslangan soliqlarni bekor qilishga va'da beradi. Ushbu holat shuni tasdiqlaydiki davlatda ko'pchilikni tashkil qilgan naqshbandiylik Sulton Husayn davrida ham o'z ta'siriga ega bo'lgan va aholining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Hukmdorligining dastlabki davrida naqshbandiylikka amal qilgan hukmdor Boburning aytishicha taxtni egallagach 7-8 yil islom bilan adolat bilan taxt boshqaradi, keyin esa ichkilikka ruju qo'yadi, hatto yosh bolalarga o'xshab xo'roz

urushtirishga o’tadi va namozlarni ham yig’ishtiradi. Natijada naqshnadiylik ta’sirida bo’lgan boshqa sarkarda Muhammmad Shayboniyxon Sulton Husayn davlatini egallaydi. Shayboniyxon naqshbandiya tariqati shayxi- Jaloliddin Ali Romitaniy va Mansurdan saboq oladi. Movlono Muhammad Xitoyi uning Qur’on ilmini o’rganishiga hissa qo’shadi. Buxoroda Bahouddin Naqshbandning nabirasi Xoja Nizomiddin Mir Muhammad bilan uchrashib uning suhbatlariga boradi. Bizning fikrimizcha Shayboniyxonning g’alabalarida ham naqshbandiylik ta’siri yaqqol seziladi, naqshbandiy ulomolarining davlatdan hafsalasi pir bo’lishi xalqning jipsligiga zarar yetkazadi. Shayboniyxonning o’zini oxirgi zamon xalifasi deb atashashi, islomni himoychisi sifatida o’rtaga chiqishi aynan naqshbandiy ulomolarining mehnati hisoblanadi. Eron safaviylarining bosqinidan so’ng Hirotni sunniy ulomolar tark eta boshlaydi. Ularning ko’pchiligi Samarqandga ko’chib o’tsada, bir qismi Turkiya va Hindiston hududiga hatto Qoshg’ar va Tibetga qadar dinni tarqatishda xizmat qiladi. Shu olimlardan biri Amir Buxoriy naqshbandiy tariqatining yirik vakili (vafoti 1516) Xo’ja Axror valiyga ergashgan shayxlardan bo’lib, naqshbandiya tariqatini Onado’liga olib kirgan va bu tariqatni birinchi marta Istanbulda muassasa holatiga keltirgan shaxs sifatida tanilgan. Shu darajaga yetadiki bir oz vaqt o’tib Istanbul naqshbandiya tariqati vakillari uchun Samarqanddan keyin ikkinchi markazga aylanadi. [4-B. 352]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. - Toshkent: “O’zbekiston”, 2013.
2. Самарқандий, Абдураззоқ. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // Абдураззоқ Самарқандий; Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев, ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
3. LEX.UZ. 152-son 19.03.2021. “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo’llab-quvvatlash chora - tadbirlari to’g’risida qarori.
4. Абдулқодир Мажид. Шайбонийлар давлати. Турк тилидан Иқболжон Усмон таржимаси. Nasim kutub, 2024.

ABU BAKR MUHAMMAD NARSHAXIY VA UNING “BUXORO TARIXI” ASARI HAQIDA

Nursulton ABDUMANNONOV
Oriental universiteti
magistratura bo‘limi talabasi

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada IX asr oxiri va X asr boshlarida yashab ijod qilgan va o‘rta asrlar tarixida muhim o‘rin tutgan Abu Bakr Muhammad Narshaxiy va uning markaziy osiyo xususan, Buxoro tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri bo‘lgan “Buxoro tarixi” asari haqida so‘z boradi.* **Kalit so‘zlar**: Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, “Buxoro tarixi”, “Kitob al-qand”, Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy, Varaxsha, Poykend.*

Annotation*: This article discusses Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, who lived and worked in the late 9th and early 10th centuries and played an important role in medieval history, and his central work, "History of Bukhara", which is one of the most important sources in studying the history of Bukhara.* ***Keywords****: Abu Bakr Muhammad Narshahi, "History of Bukhara", Narshah village, "Kitab al-qand", Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubawi, Varkanmi, Poykend.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается Абу Бакр Мухаммад Наршахи, живший и творивший в конце IX - начале X веков и сыгравший важную роль в средневековой истории, а также его центральный труд «История Бухары», являющийся одним из важнейших источников по изучению истории Бухары.* ***Ключевые слова****: Абу Бакр Мухаммад Наршахи, «История Бухары», село Наршах, «Китаб аль-Канд», Абу Наср Ахмад ибн Мухаммад аль-Кубави, Вардона, Пойкенд.*

O‘rta asrlar tarixida ilm-fan va madaniyatning butunlay yangi bosqichga ko‘tarilishda, Buxoro shahri muhim madaniy markaz bo‘lib xizmat qilgan. Shu davr tarixchisi Abu Bakr Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” asari o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini ochib bergan muhim manba hisoblanadi. Asar muallifi o‘z zamonasinig yetuk tarixchisi bo‘lib, shahar va uning atrofini chuqur o‘rganib boy ma’lumotlar to‘plagan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyya Xattob ibn Sharik Narshaxiy mashhur tarixchi sifatida tanilgan. U 899 yil Buxoro vohasining Narshax qishlog‘ida dunyoga kelgan. [1-B. 6] Alloma haqidagi ma’lumotlar manbalarda kam uchraydi. Bu haqda Sa’oniyning “Kitobul ansob” asarida u kishining to‘liq ismini Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn xattob ibn Sharik deb keltirilgan. [1-B. 7] Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari orqali u kishi haqida ba’zi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943-944 yillarda “Buxoro tarixi” (“Tahqiqi viloyati Buxoro”) nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasr (hukmronlik davri: 943-954)ga bag‘ishlagan. Narshaxiyning o‘g‘li Abu Bakr Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja’far asarni arab tilida davom ettirishib, Mansur ibn Nuh (hukmronlik davri: 997-999), ya’ni, so‘nggi somoniylar davrigacha to‘ldirganlar. Nasafiyning “Kitob al-qand”[2-B. 10] (“Samarqandiya”) va Abu Sa’d as-Sam’oniy (1113-1167)ning “Kitob al-ansob” asarlarida Narshaxiy haqida ma’lumotlar keltirilgan. Narshaxiy o‘zi tavallud topgan qishlog‘ida vafot etgan. Asarning asl nusxasi bizni davrgacha yetib kelmagan. 1128 yil Quvalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy asarni fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan. 1178-1179 yillarda asar 2-marta qisqartirilgan.

Tarjimonlar qisqartirish bilan birga uni yangi ma‘lumotlar bilan ma‘lum ma‘noda to‘ldirganlar. “Buxoro tarixi” 36 bobdan iborat bo‘lib, asosan, Buxoro hududining tarixiga bagishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoroning paydo bo‘lishi, nomlari, podshohlariga bag‘ishlab yozilgan. Asarning maxsus bir bobi markaziy osiyodagi bir necha katta shaharlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Qisman Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg‘, Zandana, Vardona, Afshona, Barkat, Romiton, Varaxsha, Baykand (Poykend), Farob va boshqalar bilan yoritilgan.

“Tarixi Narshaxiy” kitobining birinchi beti (Yangi Buxoro, 1904). “Buxoro tarixi” kitobining birinchi beti (Toshkent, 1966) shahar va qishloqlar tasviri yoritilgan. Unda bu hududlarning tarixi, axolisi va uning mashg‘uloti, faoliyati hamda

qo‘shni shaharlar bilan munosabatlari borasida hikoyasi keltiriladi. [3-B. 12] Buxoro aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida vujudga kelgan muhim tarixiy voqealari bayon etiladi. [4-B. 15] Kitobda O‘rta Osiyoda arab xalifaligining hukmronligi o‘rnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoroning arablar tomonidan taqsimlab olinishi hamda xalifalikka qarshi kurashlar, fitnalar, ayniqsa, Muqanna va boshqalar boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar batafsil yoritib berilgan. [4-B. 14] “Buxoro tarixida” IX asrda O‘rta Osiyoning arab xalifaligidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar davlatining vujudga kelishi va Somoniylar davrida Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti hikoya qilingan. [5-B. 16] Asarda Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid ma’lumotlar bo‘lib, unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi hamda ark va shaxristonning barpo bo‘lishi hikoya qilinadi. [6-B. 18] Asar faqat Buxoro tarixinigina emas, balki butun O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda ham nodir manbalardan biridir. “Buxoro tarixi” Parij (1892)da fransuz, Buxoro (1904) va Tehron (1939)da fors, Toshkent (1897)da rus, Kembrij (1954)da ingliz, Toshkent (1966, 1993)da o‘zbek, Dushanbe (1979)da tojik tillarida nashr qilingan. [7-B. 20]

Bu asarda “Narshax“ga nisbat berilgan. Narshax bu - Vobkent yaqinida bo‘lgan Buxoro qishloqlaridan biridir. Mazkur qishlokdan chiqqan olim: Abu Bakr Muhammad ibn J‘far ibn Zakariyo ibn al-Xattob ibn Shariyk ibn Narshaxiy ulamolardan, ulamolar ham u zotdan hadis rivoyat qilganlar. [8-B. 24] Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far ibn Zakariyya Xattob ibn Sharik Narshaxiy hijriy 348 (959) yili safar oyida vafot etgan. “Buxoro tarixi”ning bosh so‘zida aytilganidek, bu kitobni dastavval Buxoroning Narshax qishlog‘idan bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy 943-944 yillarda arab tilida yozgan. [9-B. 29] Hozirda Narshaxiyning nomi O‘rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo Narshaxiyning hayotiga oid biror to‘liq ma’lumot keltirilmaydi. Bunga sabab, Narshaxiyning o‘z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar, Faqat Sam’oniyning “Kitob ul- ansab” asarida uning to‘la nomi Abu Bakr Muammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo‘lib, 286 (899) yili tug‘ilgan va 348 (959- 960) yili vafot etganligi bayon qilinadi.

“Buxoro tarixi” asarida nafaqat Buxoro xonligining siyosiy hayoti, balki o‘sha davrdagi xalqning kundalik hayoti, urf-odatlari, diniy marosimlari va an’analari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Asarda xonlik aholisining turmush tarzi, ularning mehnat va savdo faoliyati hamda hunarmandchilik va dehqonchilikdagi o‘ziga xos xususiyatlar tasvirlangan. Bu ma’lumotlar o‘sha davrdagi iqtisodiy munosabatlarni, ishlab chiqarish usullarini va hunarmandchilikning ahamiyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asardagi ma’lumotlar geografik va tabiiy sharoitlarning aholi hayotiga va ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. Masalan, xonlikdagi turli shaharlar, ularning ahamiyati va har birining alohida xususiyatlari hamda Buxoroning strategik va savdo nuqtai nazaridan muhim o‘ringa egaligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. [10-B. 32] Bundan tashqari, asar Buxoro xonligidagi ilm-fan va adabiyot rivoji, mashhur olim va adiblarning faoliyati, ularning ijodiy merosi haqida ham ma’lumotlar taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlar o‘sha davrdagi madaniy muhitni, ilm va ma’rifatning ahamiyatini hamda ularning

xalq hayotiga ta’sirini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shunday qilib, “Buxoro tarixi” asari nafaqat tarixiy voqealar manbai, balki Buxoro xonligidagi har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diniy hayotni to‘la tasvirlovchi asar bo‘lib, u o‘z davrining madaniy yodgorliklaridan biri sifatida ahamiyatga ega.

“Buxoro tarixi” asarida keltirilgan ma’lumotlar nafaqat Buxoro xonligidagi ichki siyosat, balki Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar va geosiyosiy holatni ham yoritib beradi. Unda o‘sha davrdagi Buxoro xonligi hamda Xorazm, Hindiston, Eron, Xitoy va boshqa qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan savdo-iqtisodiy va diplomatik munosabatlar haqidagi ma’lumotlar mavjud. Bu esa asarning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u xalqaro munosabatlarning o‘sha davrdagi holatini o‘rganish uchun boy manba hisoblanadi.[11-B. 35]

Asar islom dinining Buxoroda tutgan o‘rni, diniy institutlarning ijtimoiy hayotdagi roli va ularning turli tabaqalarga ta’siri haqida ham ma’lumot beradi. Buxoro o‘z davrida Markaziy Osiyodagi diniy va madaniy markazlardan biri bo‘lgani bois, asar orqali o‘sha davrdagi islom ta’limoti, dindorlarning roli, madrasa va masjidlarning ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish mumkin. “Buxoro tarixi” da keltirilgan ma’lumotlar shuningdek, hududdagi turli xalqlar va ularning madaniy, etnik va an’anaviy xususiyatlarini ham ochib beradi. Unda turli mahalliy urf-odatlar, xalq turmush tarzi, savdo-sotiq va hunarmandchilik faoliyati haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Asar o‘sha davrdagi turli xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning hamkorlik yoki raqobat shakllarini tushunishda yordam beradi. Bu asar nafaqat tarixchilar, balki madaniyatshunoslar, ijtimoiy fanlar bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Undagi ma’lumotlar mintaqaning tarixiy va madaniy merosini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.

“Buxoro tarixi” asari Buxoro xonligining harbiy qudrati, uning qo‘shini, harbiy strategiya va taktikalar haqida ham muhim ma’lumotlar taqdim etadi. Asarda harbiy yurishlar, Buxoro xonligining himoyasi, uning qo‘shni davlatlar bilan mojarolari va diplomatik munosabatlari haqida batafsil yozilgan. Bu ma’lumotlar orqali o‘sha davrning harbiy strategiyasi va qo‘shinlarning tashkillanishi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, asarda jamiyatning turli tabaqalari — hokimlar, boylar, savdogarlar, dehqonlar va boshqa ijtimoiy guruhlarning o‘rni va vazifalari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Bu tabaqalarning o‘zaro munosabatlari, ularning huquq va majburiyatlari haqidagi yozuvlar, Buxoro xonligidagi ijtimoiy ierarxiya va boshqaruv tizimini tushunishga yordam beradi. Asardan ma‘lum bo‘lishicha, xonlikda markazlashgan boshqaruv va qonunchilik tizimi orqali davlat ishlarini nazorat qilishga katta e‘tibor qaratilgan.

Asarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u Buxoro xonligidagi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan, yerga bo‘lgan mulkchilik huquqi, dehqonchilik va suv xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va boshqa iqtisodiy jarayonlarning qirralarini yoritadi. Buxoro hududidagi bozorlar, ulardagi savdo yo‘llari va tovar ayirboshlash amaliyotlari haqidagi ma‘lumotlar ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar o‘sha davr iqtisodiyotini tushunishda, savdo aloqalarini aniqlashda va iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Ko‘plab tadqiqotchilar “Buxoro tarix” asarini o‘sha davrning jamiyatdagi ilmiy va adabiy an’analarni ko‘rsatib beruvchi manba sifatida baholashadi. Asarda

keltirilgan til va adabiy uslub o‘sha davrning adabiy janrlari, til qoidalari va uslublari haqida ma’lumot beradi. Shu bilan birga, asar Markaziy Osiyodagi madaniy almashinuv va ilm-fanning rivojlanish jarayonlari haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. “Buxoro tarixi” asarida yoritilgan ma’lumotlar nafaqat Markaziy Osiyo tarixchilari, balki keng turdagi tadqiqotchilar uchun ham katta manfaatga ega. Asar Markaziy Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish, shahar madaniyati, savdo yo‘nalishlari va transport kommunikatsiyalarining rivojlanishini tahlil qilish uchun noyob manba hisoblanadi. Buxoro, o‘sha davrdagi asosiy savdo nuqtalari va yirik shaharlardan biri sifatida, xonlikning iqtisodiy va madaniy markazi sifatida alohida ahamiyatga ega edi. Bu haqdagi ma’lumotlar Markaziy Osiyodagi savdo yo‘llari va savdo munosabatlarini anglashga yordam beradi. Asarda Buxoroning qo‘shni davlatlar, jumladan, Hindiston, Eron, Xitoy va Rossiya bilan bo‘lgan diplomatik va savdo munosabatlari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Bunday ma’lumotlar mintaqaning o‘sha davrdagi xalqaro aloqalarini o‘rganish va geosiyosiy vaziyatni chuqurroq tushunishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, “Buxoro tarixi” asarida o‘sha davrdagi qonunchilik va huquqiy tizim haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan bo‘lib, u Buxoro xonligidagi huquqiy munosabatlarni o‘rganishga yordam beradi. [12-B. 25] Asarda yoritilgan huquqiy qoidalar, jinoyatchilikka qarshi kurash choralari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va hokimiyat tizimi haqidagi ma’lumotlar xonlikdagi boshqaruv va huquqiy tizimning o‘z o‘rnini o‘rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Yana bir muhim jihati shundaki, asarda o‘z davridagi axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, oila munosabatlari va jamiyatdagi urf-odatlarning ahamiyati yoritilgan. Bu ma’lumotlar tarixiy psixologiya va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida tadqiqot o‘tkazishga yordam beradi.

Asardagi har bir voqea va tarixiy shaxs haqidagi ma’lumotlar nafaqat tarixiy, balki falsafiy va madaniy nuqtai nazardan ham qimmatlidir. “Buxoro tarixi” asarining manbaviy ahamiyati uning nafaqat tarixiy ma’lumotlar, balki o‘sha davrdagi siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni yoritib beruvchi qimmatli manba sifatida qadrlanishida namoyon bo‘ladi. Asarning manbaviy ahamiyati quyidagi jihatlarda ko‘rinadi. Asar Movarounnahrning arablar tomonidan istilo qilinishi, islom dinining mintaqada tarqalishi va uning mahalliy aholiga ta’siri haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Bu davrda islomning yangi qoidalari va uning jamiyatga kirib kelishi haqidagi hujjatli ma’lumotlar tarixiy tahlil uchun muhimdir. Asar Movarounnahrning VII-XI asrlardagi siyosiy ahvolini, hokimlar va ularning siyosiy faoliyatini, qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarni bayon etadi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv tizimi, ijtimoiy islohotlar va markaziy hokimiyatning jamiyatga ta’siri kabi masalalar yoritiladi. Bu ma’lumotlar siyosiy tarixni o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi [13-B. 11]

Xulosa qilib aytganda “Buxoro tarixi” asari bu nafaqat Buxoro shahri, balki butun markaziy osiyo tarixini o‘rganishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda tarixiy haqiqatlar xalq og‘zaki ijodi va muallifning kuzatuvlari mujassamlashtirgan. Asarda Buxoro va Movarounnahrning iqtisodiy holati, savdo yo‘llari, hunarmandchilik va

qishloq xo‘jaligi rivoji haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar bilan savdo va iqtisodiy aloqalar, maxalliy va xalqaro savdo munosabatlari, iqtisodiy resurslar haqidagi ma’lumotlar ham bor. Bu ma’lumotlar mintaqaning iqtisodiy va tijorat tarixi bo‘yicha manba vazifasini o‘taydi. Asarda Movarounnahrda islomiy ta’limning rivojlanishi, madrasalar tashkil etilishi, musulmon ulamolar va ularning faoliyati, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi madaniy masalalar qamrab olingan. Bu ma’lumotlar Buxoroning o‘sha davrdagi madaniy markaz sifatidagi rolini tushunishga yordam beradi. Asarda mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari va kundalik hayoti haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shu tariqa, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va turli ijtimoiy qatlamlarning munosabatlari haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tarixiy psixologiya va ijtimoiy tuzilmani o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, “Buxoro tarixi” asari tarixiy voqealar, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotni to‘la yoritganligi sababli, u nafaqat mahalliy, balki xalqaro tarixiy tadqiqotlar uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Asar sharq tarixshunosligining noyob namunalaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent. “Oydin tafakkur”, 2022.
2. G‘iyosiy A. Buxoro tarixi. - Toshkent: “Fan”, 1966.
3. Abdulloyev Sh. O‘rta Osiyo tarixining tadqiqoti. - Toshkent: “Sharq”, 1995.
4. Usmonov S. Islom dini va arab xalifaligining O‘rta Osiyodagi ta’siri. - Buxoro: 2011.
5. Rajabov M. Somoniylar davri va Buxoro tarixi. - Toshkent: 2003.
6. Ahmadov Sh. Buxoro shaharining tarixiy topografiyasi. - Toshkent: 2014.
7. Aliyev N. O‘rta Osiyo tarixini o‘rganish. - Toshkent: 2010.
8. Mahmudov B. Buxoro tarixi: Klasik va zamonaviy tahlillar. - Dushanbe: 1979.
9. Abdulloh Abdulhamid Saad. O‘rta Osiyo Olimlari Qomusi - Toshkent: “Imom Buxoriy respublika ilmiy- ma’rifiy markazi” nashriyoti, 2007.
10. «Buxoro tarixi». Nashrga tayyorlovchi Mudarris Rizaviy. - Tehron: 1939.

TARIXCHI OLIM ABDULAHAD MUHAMMADJONOVNING TEMURSHUNOSLIK RIVOJIGA QO‘SHGAN XISSASI

Dilshodbek DAVRONOV
Oriental universiteti Tarix yo’nalishi
II kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tarixshunosligining ulug‘ vakili, ma’rifatparvar olim Abdulahad Muhammadjonovning O’zbekistonda temurshunoslik sohasining rivojlanishiga qo’shgan xissasi tahlil etilgan. Uning amir Temur hayoti va*

davlat boshqaruviga oid ilmiy qarashlari yoritilgan. ***Kalit so‘zi:*** *Amir Temur – buyuk davlat arbobi, sarkarda, soliq siyosati, Sohibqiron timsoli.*

Annotation: *This article analyzes the contribution of Abdullahad Muhammadjonov, a prominent representative of Uzbek historiography and an enlightened scholar, to the development of Temur studies in Uzbekistan. It highlights his scholarly views on the life and governance of Amir Temur.* ***Keywords:*** *Amir Temur – great statesman, commander, tax policy, image of Sahibqiran.*

Аннотация: *В данной статье проанализирован вклад выдающегося представителя узбекской историографии, просветителя Абдулахада Мухаммаджанова в развитие темуроведения в Узбекистане. Освещены его научные взгляды на жизнь и государственное управление Амира Темура.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур – великий государственный деятель, полководец, налоговая политика, образ Сахибкирона.*

Tarixdan ma’lumki, har bir xalqning, har bir millatning o‘zi faxrlanadigan, sharaflaydigan, shu xalqi va millati uchun buyuk ishlar qilgan hamda o‘z xalqining favqulodda murakkab vaziyatlarida unga yelkadosh bo‘lib, koriga yaray oladigan, shu xalqining va millatning tarixidan o'chmas iz qoldirgan milliy qahramonlari hamda yurtning asl o‘g‘lonlari, posbonlari bo'ladi. Ular o'z shaxsiy manfaatlaridan ko'ra ko'pchilikning (xalqining va millatining) manfaati uchun kurashgan hamda bu ulug' ishlarda bosh-qosh bo'lishgan....Masalan, Fransuz xalqi tarixida: Buyuk Karl, Janna D'ark, Napaleon Bonapart, nemis xalqi tarixida esa Otto fon Bismark, AQSH tarixida esa Buyuk Britaniya imperiyasi zulmiga qarshi kurashgan milliy ozodlik harakati yo'lboshchilari: Jorj Vashington, Tomas Jefferson, Benjamin Martin Franklin, Abraham Lenkolin kabilar shu xalqning milliy tarixida, o'tmishida buyuk shaxslar sifatida qadirlansa, bizning tariximizda esa To'maris va Shiroq (miloddan avvalgi VI asrda), Alp Er To'nga (Afrosiyob), Tunyuquq, Kul Tegin, Bilga Xoqonlar (milodiy VI-VIII asrlarda), G'urek va Devashtich (milodiy VIII asrlarda), Muqanna (Hoshim ibn Hakim) (milodiy VIII-IX asrlarda), Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy (milodiy XIII asrlarda) kabi buyuk yurt o'g'onlari hali-hali yurtimiz tarixida, o'tmishida saqlanadi hamda yurtning asl posbonlari - o'g'onlari sifatida o'zbek xalqi va millati tarixida uzoq vaqt saqlanadi.

Endigi asosiy ilmiy mulohazamiz o'zbek tarixshunosligi rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan benazir olim Abdulahad Muhammadjonovning buyuk davlat arbobi, zamonasining buyuk sarkardasi, yirik salatanat (Imperiya) asoschisi Sohibqiron Amir Temur haqida ilmiy qarashlaridagi o'zigaga xos yondashuviga o'zimizning shaxsiy mulohazamizni qaratamiz. Olim Abdulahad Muhammadjonovning “Amir Temur” ilmiy risolasida olim bu buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, o'z davrining ulug' davlatchilik asoschisining murakkab faoliyati jarayonining alohida jihatlariga to'xtalib o'tar ekan, boshqa tarixchi olimlarning ilmiy qarashlaridan mustaqil va erkin holda yondashganligiga et'tiborimizni qaratasak, foydadan holi bo'lmaydi, albatta. Sohibqiron Amir Temur murakkab shaxs bo'lib, bu fotih-jahongir haqida ko'plab G'arb va Sharq tarixshunos va qadimshunos olimlarining har xil ilmiy va shaxsiy qarashlari mavjud bo'lib, bunda ba'zilarida salbiy, boshqa birlarida esa ijobiy holda yondashishganligini ko'rishimiz mumkin

bo'ladi. Arab muarrixlari: Ibn Arabshoh, Ibn Xaldun, Nizomiddin Shomiylarning (Suriyalik va Iroqlik o'rta asr tarixchilari) Sohibqiron Amir Temur haqida bergan ilmiy ma'lumotlarida ham salbiy, ham ijobiy munosabatlarni, yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Chunki Sohibqiron Amir Temur o'zining fotihlik-jahongirlik faoliyatidagi 1399-1404-yillardagi "Yetti yillik yurishlar" da ko'pgina Arab davlatlarini, jumladan, Iroqni, Suriyani, Misrni bosib olgan edi. Bunday sharoitda, albatt, Sohibqiron Amir Temurga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga ular haqli edi desak, ularning nazdida, balki o'rinli bo'lar. [1, - B.232]. Masalan, Arab muarrixlaridan Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshohlar Sohibqiron Amir Temur bilan dastlab, Bag'dod (Iroq) hamda Shom (Suriya) bosib olinganida (ular uchun mudxush vaziyatda) uchrashishgan edi. Shuning uchun ham ularning ko'nglida, albatta, Sohibqironga nisbatan kek saqlanib qolganligi, albatta, tabiiydir (Albatta, kim ham o'z yurtini bosib olgan jahongir-fotihni maqtaydi yoki bo'lmasam, unga ijobiy holda qaraydi)... olim Abdulahad Muhammadjonov o'zining ilmiy izlanishlari natijasida (Albatta, o'rta asr arab muarrixlarining ilmiy ma'lumotlaridan foydalangan holatda) Sohibqiron Amir Temurning faoliyatidagi bir qancha muhim qirralarni aytib o'tadi: birinchidan, Movaraunnahr, Xorazm (Xorazmning janubiy yerlarini, shimoliy hududlari esa mo'g'ul-tatarlarning Oltin O'rda davlati tasarrufida edi), Sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan Chig'atoy ulusi ("Ulus" turkiycha "davlat", "el-u xalq" demakdir) tarkibida bo'lib, bu davlat milodiy XIV asrning 40-50-yillariga kelib, feodal tarqoqlikni boshidan kechirib, bir qancha mulklarga (ko'chma ma'nodagi davlat sifatida) bo'linib ketgan edi hamda bu hududlaridagi oddiy va mehnatkash aholining Ijtimoiy-siyosiy hamda moddiy-iqtisodiy holatiga judayam katta salbiy ta'sir qilib, murakkab bir vaziyatga solib qo'ygan edi. Bu yoqda mo'g'ul-tatarlarning bir yarim asrga yaqin mustamlakachilik siyosati zulmi ostida ezilgan, bir yoqda Chig'atoy ulusidagi (XIV asrning o'rtalaridagi feodal tarqoqlik nazarda tutilmoqda) murakkab vaziyatdan tinkasi qurigan el-u xalq bir qat'iyatli yo'lboshchini, yurt egasini kutayotgan edi....

Sohibqiron Amir Temur mana shunday murakkab bir vaziyatda kurash maydoniga kelib, tarix sahnasiga kirib kelgan edi. Ikkinchidan, albatta, parchalanib ketgan Chig'atoy ulusida Sohibqirondan tashqari ko'plab "yurt egalari" hamda "davlar arboblari" bor edi, biroq ular mana shu murakkab vaziyatda mazlum hamda oddiy xalq bilan birga bo'lish o'rniga, uning dardiga darmon bo'lish o'rniga o'zlarining "qobig'i" dan chiqa olmasdan shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yib, el-u yurtga bosh bo'la olmadi hamda qat'iyat ko'rsata olmadi va Sohibqiron Amir Temur qilgan buyuk va shonli ishlarini qila olmadilar, uning darajasiga chiqa olmagandilar. Vaholanki, o'sh vaqtda Movaraunnahr, Xuroson, Xorazm hududlarida, ya'ni parchalanib ketgan Chig'atoy ulusidagi ko'plab mulk egalari: Shahrisabz mulkidagi Amir Hoji Barlos, Shibirg'on mulkidagi Amir Zinda Chashm, Balx muzofotidagi Amir O'ljayatu Sulduz, Samarqand muzofotidagi Amir Bayon Sulduz, Xo'jand mulkidagi Amir Boyazid Jaloyirlar kabi "yurt egalari" mana shunday murakkab vaziyatda el-u yurtga bosh bo'la olmadi, o'z shaxsiy manfaatlarini umumxalq manfaatlaridan ustun qo'yganligi uchun ham Sohibqirondek yurt manfaatini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya olmadi va natijada ba'zilari xalqning nafratiga uchragan ham edi, shuningdek, ulardan birontasi Sohibqiron darajasiga chiqa olmagan edi (Mug'uliston hukmdori Tug'luq

Temur va uning o'g'li Ilyosxo'jalarning 1360-1361-yillarda Movaraunnahr muzofotiga bostirib kerganida bu "yurt egalari" ning ba'zilari o'z yurtini, elini dushman changaliga tashlab, o'z jonini va molini saqlab qolish maqsadida qochib qolgan edilar). [2. 145-bet].

Uchinchidan esa, tarixshunos olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonovning Sohibqiron faoliyati bilan bog'liq ilmiy izlanishlarida yana bir muhim jihatni ko'rishimiz mumkin bo'ladi: bunda Sohibqiron Amir Temurning harbiy sarkardalik faoliyatidagi harbiy yurishlariga o'zining mustaqil va erkin fikrlarini bildirib o'tadi....To'g'ri, Sohibqiron Amir Temur o'rta asr sarkardasi edi, ya'ni o'sha vaqtlarda kuch kimda bo'lsa, qudrat unda bo'lar edi (bunday qarash va yondashish hozirda ham mavjud), kim zo'r bo'lsa, g'alaba unda deb qarash bor edi....Amir Temur ham o‘rta asr sharoitidan kelib chiqib, raqiblaridan, dushmanlaridan ham ustunroq va qudratliroq bo'lishga harakat qilib, dushmanlari, raqiblari uning yurtiga bostirib kelmasligi uchun ham saltanatini (Imperiya sini) o'ta darajada qattiqqo'llik bilan boshqarishga murasasiz raqiblariga nisbatan shafqatsiz bo'lishga zamona talab qilar edi hamda Sohibqironni mana shunday yo'l tutishga majbur etar edi.... Sohibqiron Amir Temur bironta yurtga harbiy yurish uyushtirar ekan yoki bironta bir shahar-qal'ani qamalga olishdan oldin birinchi qiladigan ishi bu o'sha yurt hukmdori yoki shahar-qal'a kutvolidan (qo'mondonidan) taslim bo'lishni buyurar edi. Agarda taslim bo'lsa, shu yurtning yoki shahar-qal'aning aholisiga omonlik berilardi hamda Sohibqiron o'z qo'shinlarini (armiyasini) bu yerga aslo yo'latmas edi. Bunga isbot sifatida Arzinjon muzofoti hokimi Tahartin (Muharatin) o'z xohishiga ko'ra Sohibqironga taslim bo'lganligi sababli yurti ham, xalqi ham bosqindan, talovdan omon qolgan edi.... Agarda raqib tomon qaysarlik qilib, bunga raddiya bildirsa, Sohibqironning qo‘shinlari (armiyasi) tomonidan o'sha yurt yoki shahar-qal'a talon-taroj qilinar edi. [3. 35-bet]. Biroq Amir Temur shunda ham islom dinining peshvolariga, vakillariga (ruhoniylar qatlamiga), ilm-fan egalariga, hunarmand-savdogarlariga omonlik berilar hamda ularning mol-mulki talanmas edi... O‘rta asr G‘arb va Sharq zalqlari orasida Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga salbiy qarashlar kuchayib ketgan edi. Misol uchun, eroniy xalqlari (fors-tojik xalqlari) Sohibqironni “Temur Lang”, ya'ni “oqsoq Temur”, “cho‘loq Temur” kabi salbiy nomlar bilan nomlashib, uning jismoniy holatini tanqid qilgandilar (Seyistondagi jangda dushman kamonchi va nayzabozlari qurshovida qolib ketgan Sohibqiron bir qo'lidan o'q yeb, bir oyog'idan nayza zarbi yeb bir umrga oqsoq bo'lib qolgan edi...dushmanlari, raqiblari aynan mana shu holatga urg'u berib, uni ma'lomat qilishgan). Bundan tashqari, Amir Temurni ot va mol o'g'risi degan yaramas "ayb" lar bilan bo'xtonlar qilishgan. Shuningdek, sobiq ittifoq davrida milliy tarixshunoslik sohamizga hamda davlatchilik tariximizga ma'lomat toshlari otilib, kommunistik-sotsialistik mafkurasining manfur siyosati hamda mustabid bu hukumatining senzurasi natijasida buyuk ajdodimiz, o‘zbek davlatchiligi tarixida buyuk saltanat (Imperiya) asoschisi, mohir sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatini faqat va faqat qora bo'yoqlarda va salbiy holda yondashish kuchayib ketgan edi. Bu "zamona zo'rlari"ning ta'kidlashicha, Sohibqiron Amir Temurni "zolim hukmdor", "qonxo'r inson", "johil va mustabid podshoh", "bosqinchi zolim" kabi "ta'vqi-lan'atlar" ga ko'mib tashlagan edilar... Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga nisbatan bunday

salbiy munosabatlar va yondashuvlar faqatgina yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyingina yo'qotildi. To'rtinchidan esa, olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonovning Amir Temur haqida ilmiy mulohazalarida Sohibqironning soliq siyosatiga nisbatan judayam adolatli yo'l tutganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Misol uchun, Sohibqiron Amir Temur mo'g'ul-tatarlar zulmi ostidagi xalqlariga o'zlarning murakkab soliq siyosatini joriy qilgan edi. Bunday siyosatdan Movaraunnahr, Xorazm, Xuroson, Sharqiy Turkistondagi, umuman olganda, Chig'atoy ulusidagi tub aholining ham zimmasiga bunday og'ir soliq va majburiyatlar yuklatilgan bo'lib, bundan esa oddiy va zahmatkash xalq esa rosayam iqtisodiy-moddiy qiyinchiliklarga tushib, bori-budidan ajralib qolgan edi. Bu esa butun bir o'lkani, yurtni iqtisodiy-moddiy jihatdan harobaga aylantirib qo'yishi mumkin edi (Chunki davlatga soliq to'lash o'sha vaqtlarda faqatgina yurtning kambag'al va zahmatkash qatlami gardaniga yuklatilgan edi). Buni hisobga olgan Sohibqiron mo'g'ul-tatar davridagi soliqlarni tartibga solib, adolat tamoyili asosida jamiyatning qatlami darajasida (Yuqori tabaqa vakillari, o'rta tabaqa vakillari, quyi tabaqa vakillaridan quribiga (iqtisodiy-moddiy holatiga qarab) nisbatan soliq olish siyosati) soliq olish siyosatini joriy qiladi ham mo'g'ul-tatarlar davridagi ortiqcha soliq va majburiyatlarni bekor qiladi. Chunki Sohibqiron Amir Temur nazdida soliq siyosati odilona va adolatli bo'lsa, xalqning iqtisodiy-moddiy holati yaxshilanishi hamda buning natijasida davlat g'aznasi nihoyatda boy bo'lishini, boy va iqtisodiy-moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan davlatning esa harbiy qo'shinlari (armiyasi) ham qudratli bo'lishini, albatta, hammadan ko'ra yaxshi bilar edi.... Bundan esa yurtning ortiqcha soliqlari va majburiyatlari bilan qiynab qo‘yishdek nomaqbul soliq siyosati adolatli tarzda hal etilgan edi. Biroq Sohibqiron Amir Temur saltanatning (imperiyasining) keyinchalik parchalanib ketishiga sabab bo‘lgan salbiy holat – davlat yerlarining (Amloki yerlari) Sohibqiron tomonidan o‘z farzandlariga, nabiralariga, vazir-u vuzarolariga, harbiy amaldorlariga, harbiy sarkarda va lashkarboshlariga (alohida hizmatlari evaziga) ko‘plab miqdorda berilishi natijasida feodal tarqoqlikning boshlanishiga olib kelib, oxir-oqibat davlatning zavolga yuz tutishiga olib kelgan edi….

Beshinchidan esa, Sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul-tatarlarning mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan Movaraunnahr, Xorazm, Xuroson, Sharqiy Turkiston hududlari aholisini birlashtirib, qudratli saltanat (imperiya) ga asos soladi hamda o‘zbek davlatchlik tarixida qudratli davlat birlashmasini tuzishda bosh-qosh bo‘lgandi… Bundan tashqari, Amir Temurning harbiy yurishlari natijasida (Uch yillik harbiy yurishi 1386-1388-yillarda, besh yillik yurishi 1392-1396-yillarda, yetti yillik harbiy yurishi 1399-1404-yillarda bo‘lib o‘tgan edi) g‘arbiy va sharqiy Eron, Kavkazorti davlatlari: Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Iroqi Ajam, Kurdiston, Hindiston, Arab davlatlaridan: Misr, Bag‘dod (Iroq), Shom (Suriya), Mo‘g‘uliston, (qisman) Oq va Oltin O‘rda davlati yerlarini: Volgabo‘yi, Sibirbo‘yi yerlarini, Kichik Osiyoni (Usmoniy Turklar saltanati yerlarini) o‘z ichiga olgan ulkan saltanatga asos solgan edi. [4. 24-bet]. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari natijasida bu sanab o‘tilgan davlatlarda feodal tarqoqlikka chek qo‘yib, bu hududlar aholisini bir tug‘ (bayroq) ostida birlashtirishga harakat qildi, bunda Amir Temurning qattiqqo‘llik siyosati hamda oqilona islohati natijasida tutib tura olgan edi. 1405-yil 18-fevralda

Sohibqironning vafoti sababli bu ulkan davlatning (27 ta davlatni birlashtirgan edi) parchalanib ketishiga olib kelgan edi… Shunda bir haqiqatni bilishimiz mumkinki, har qanday qudratli saltanat (imperiya) qanchalik ulkan va buyuk bo‘lmasin, bu davlat o‘z tashlikotchisidan ajralganidan keyin uning vorislari ajdodlaridek davlatni adolat bilan, oqillik bilan boshqarmasa, bu davlat, albatta, parchalanib ketishi muqarrarligini bu butun o‘tgan keksa tarix isbotlab turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammadjonov A.R. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. - Toshkent: “Fan”, - 1957.

2. Muhammadjonov A.R. Qang‘ – qadimgi Toshkent va toshkentliklar. – Toshkent: “Sharq”, 2009.

3. Muhammadjonov A.R. Amir Temur. - Toshkent: Abu matbuot-konsalt nashriyoti, 2011.

4. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro (Arxeologik lavhalar va tarix). - Toshkent: “Fan”, 1991.

5. www.Ziyonet.uz

6. www. Supportscience.com

RENESSANS DAVRI TARIXINI O‘RGANISHDA MANBALARNING O‘RNI

Sabina RAJABOVA

Nizomiy nomidagi TDPU

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Sharq Renessans davri – inson tafakkuri, ilm-fan va madaniyatning yuksak bosqichga ko‘tarilgan davridir. IX-XII hamda XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson, Bag‘dod va boshqa hududlarda yashagan allomalar tomonidan yaratilgan bebaho asarlar nafaqat Sharq balki butun jahon ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Ushbu maqolada allomalar asarlarining tarixiy manba sifatida qanday ahamiyatga ega ekani, ularning yordami bilan shu davr muhitini, Sharq Renessansi qanday o‘rganilishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Renessans, allomalar, ilmiy meros, Xorazmiy,Beruniy, Ibn Sino, Narshaxiy, Mahmud Qoshg‘ariy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Buxoro tarixi”.*

Annotation: *The Eastern Renaissance era marks a period of significant advancement in human thought, science, and culture. In the 9th–12th and 14th–15th centuries, invaluable works created by scholars from Central Asia, Khorasan, Baghdad, and other regions made a tremendous contribution not only to the development of Eastern science but also to world scientific progress. This article discusses the significance of scholars’ works as historical sources and how they help us explore the intellectual environment and essence of the Eastern Renaissance.* ***Keywords:*** *Renaissance, scholars, scientific heritage, Khwarizmi, Beruni, Ibn Sina, Narshakhi, Mahmud al-Kashgari, Monuments of Ancient Peoples, The History of Bukhara.*

Аннотация: *Эпоха Восточного Ренессанса — это период высокого расцвета человеческой мысли, науки и культуры. В IX–XII и XIV–XV веках учёные, жившие в Центральной Азии, Хорасане, Багдаде и других регионах, создали бесценные труды, которые внесли огромный вклад не только в развитие восточной, но и мировой науки. В данной статье рассматривается значение трудов учёных как исторических источников и их роль в изучении эпохи Восточного Ренессанса.* ***Ключевые слова:*** *Ренессанс, учёные, научное*

наследие, Хоразми, Бируни, Ибн Сина, Наршахи, Махмуд Кашгари, «Памятники древних народов», «История Бухары».

Insoniyat tarixida ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida yuz bergan yuksalishlar orasida Sharq Renessans davri ham alohida o‘ringa ega. Bu davrda yashab ijod qilgan olimlar, faylasuflar, adiblar, tarixchilar – Farobiy, Narshaxiy, Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi allomalar nafaqat o‘z davrining balki keyingi ilm-fan taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ularning asarlari Yevropada ham mashhur bo‘lib, ular uchun uzoq yillar asosiy qo‘llanma bo’lib xizmat qilib keldi. Sharq Renessansi vujudga kelishi uchun bu davrda qulay sharoit yuzaga kelgan edi. IX-XII asrlar davomida Sharqda bir qator hududlar, jumladan Abbosiylar xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar XIV asrda esa Temuriylar kabi markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi va bu davlatlar tomonidan ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi Sharq Renessansi uchun qulay sharoitni vujudga keltirgan edi. Hukmdorlar olimlar, shoirlar va mutaffakirlarni saroyga jalb qilib, ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berganlar. Ayniqsa Arab xalifaligidagi “Bayt ul-hikma” tashkil etilib, unga dunyoning turli tomonlarida olimlar jalb qilingan. Shuningdek Xorazm poytaxti bo‘lgan Ko‘hna Urganch shahridagi “Ma’mun akademiyasi”, Samarqanddagi “Ulug‘bek akademiyasi” va ko‘plab ilm dargohlarining o‘rni beqiyosdir. Sharq Renessansi bugungi kunda ham olimlar e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Bu davrni o‘rganish tarixiy jarayonlarning mohiyatini anglash, zamonaviy fanlarning ildizlarini tushunishga yordam beradi. Sharq Renessansi davrida yashagan allomalar o‘z asarlarida nafaqat ilmiy nazariyalarni, balki o‘z zamonasining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini ham tasvirlab bergan. Ularning asarlari bizga o‘sha davr muhitini yaxshi o‘rganishdagi asosiy manba hisoblanadi. Ayniqsa Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yogorliklar” , “Hindiston”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari bu borada nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Ular Sharq Renessansi davrida yashgan xalqlarning ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari haqida tasavvur uyg‘otadi.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) Sharq Renessans davrining eng yorqin namoyondalaridan biridir. Xorazmiy ilmiy merosi matematika, astranomiya, geografiya kabi fan sohalarini o‘z ichiga oladi. Ammo uning geografiyaga oid “Kitob surat al-ard” asarini tarix uchun muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Mazkur asarda Xorazmiy yunon olimi Ptolomeyning jog‘rofiyaga oid kitobini arab tiliga tarjima qilgan va uni o‘zining yangi malumotlari bilan boyitgan. “Kitob surat al-ard” (“Yer tasviri kitobi”) asarida Kaspiy dengizi va |Xorazm dengizi haqida qimmatli ma’lumotlar bor. Ushbu tarixiy jog‘rofiyaga oid asardagi O‘rta Osiyoga oid ma’lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. [1-B.62] Ushbu asar orqali qadimiy shaharlarning joylashuvi, o‘rta asrlardagi savdo yo‘llari, davlatlar chegaralari haqida bilib olish mumkin. Xorazmiyning bu asari siyosiy-geografik tarixni o‘rganishda asosiy manbalardan biridir.

Tarixchi olimlar tomonidan Abu Bakr Narshaxiy (859-955) ning “Buxoro tarixi” asari Markaziy Osiyo tarixnavisligi va toponomikasi uchun qimmatli manba sifatida

e’tirof etiladi. Bu asar 943-944-yillarda Narshaxiy tomonidan arab tilida yozilgan. Afsuski bu asarning ilk va to‘liq matni saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan nusxasi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirilib qilingan tarjima variant bo‘lib, uni 1128-yilda Abu Nasr Al-Qubaviy tarjima qilgan. “Buxoro tarixi” ni bosh manba sifatida o‘rganib, undagi qimmatli ma’lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko‘p vaqtdan beri davom etib kelmoqda, chunki bu kitobda ilk o‘rta asrlardagi tarixiy-etnogragik jarayonlar faktlar asosida aks ettirilgan.

“Buxoro tarixi” 36 bobdan iborat bo‘lib, asosan Buxoro vohasining tarixiga bag‘ishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoroning barpo etilishi, nomlari, podshohlariga bag‘ishlangan. Unda bu joylarning tarixi, aholisi va uning mashg‘ulotlari, faoliyati hamda tashqi shaharlar bilan munosabati hikoya qilinadi. Kitobda O’rta Osiyoda Arab xalifaligi hukmronligining o‘rnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoroning arablar tomonidan bosib olinishi hamda xalifalikka qarshi kurashlar, ayniqsa Muqanna va boshqalar boshchiligidagi xalq qo‘zg‘olonlari batafsil yoritilgan. Shuningdek Somoniylar davlatining paydo bo‘lishi va Somoniylar davrida iqtisodiy va madaniy hayot ham tasvirlangan. [2] Asarda joylarning tarixi, aholisi va mashg‘ulotlari haqida ham ma’lumot berishi Narshaxiyning nafaqat tarixchi balki etnografik kuzatuvchi sifatida ham ko‘rsatadi. Shuningdek Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid ma’lumotlar bo‘lib unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi hamda ark va shahriston qismlar qanday qurilganligi haqida ham ma’lumot beradi. Bu ma’lumotlar ilk o‘rta asrlardagi shaharlarning tuzilishi, nomlari va arxitekturasini o‘rganishda muhim hisoblanadi. “Buxoro tarixi” da yana o‘sha davrdagi bozorlardan biri haqida shunday deyiladi: “ Buxoroda bir bozor bor ediki, uni Bozori Mox ro‘z der edilar. U yerda yiliga har gal bir kundan ikki marta bozor qilar va har bir bozor bo‘lgan kuni butlar sotar edilar. Har bozor kuni ellik ming dirhamdan savdo bo‘lar edi”.[3-B.13] Tarixiy kontekst nuqtai nazarida bu malumotlar islomdan oldinggi davrga tegishli va bu davrda yurtimizda yashaygan aholi zardushtiylik va buddaviylik dinlariga e’tiqod qilganini ko‘rsatadi. Bozorda 50 ming dirhamlik mahsulotning aylanishi esa yuqori darajadagi iqtisodiy faollik va Buxoroning yirik savdo markazlaridan biri bo‘lganligini ham ko‘rsatadi.

Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Somoniylar davriga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Bu davr Markaziy Osiyo, ayniqsa Movaraunnahr uchun siyosiy barqarorlik va madaniy uyg‘onish davri bo‘lgan. Somoniylar ilk mustaqil musulmon turkiy-eroniy sulola hisoblanadi. Somoniylar davrida Buxoroda islom dini mustahkam o‘rnashdi, masjidlar va madrasalar quriladi. Xatto O‘rta Osiyodagi ilk madrasa Farjak madrasasi ham Buxoroda Somoniylar davrida qurilgan. Asarda Somoniylarning nasl-nasabi, boshqaruv tartibi, olinadigan soliqlar kabi masalalar aniq yillar, tarixiy shaxslar orqali tizimli tarzda bayon etiladi. Narshaxiyning bu asari Somoniylar davrini o‘rganish uchun eng muhim va ishonchli manbadir. Shuningdek u Buxoroning uzoq tarixini o‘rganishda ham muhim hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) – ilm-fan sohalarining ko‘plab yo‘nalishlarida chuqur iz qoldirgan buyuk alloma bo‘lib, o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda muhim tarixiy asarlar yaratgan olimdir. Hozir bizga olim yozgan 154 ta asarning nomi ma’lum, shundan faqat 24 ta asar bizgacha yetib kelgan. Uning qalamiga mansub “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asari tarix fani uchun

qimmatli manbadir. Beruningning dastlabki yirik asari qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridir.

Bu kitob Beruninyning shaxsiy kuzatishlari, tekshirishlari asosida yozilgan, uning o‘zi bu haqda shunday deydi: "Yer shari va uning ustki tuzilishi haqidagi bu kitobimda yozilgan so‘zlar mening o‘z fikrim va puxta tekshirishlarim natijasidir". Kitobda anchagina xalq fani va tarixiga oid ma'lumotlar ko‘p bo‘lsada, O‘rta Osiyo, jumladan, Xorazm xalqlariga tarixiga oid ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Bu asarda olg‘a surilgan fikrlar, hozirgi zamon olimlarining fikricha shu kunga qatar o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Sharq xalqlari tarixiga oid bu qimmatbaho asar buyuk mutaffakkir Beruniyning katta tortig‘i bo‘ldi. [4-B.45-45] Shundan ko‘rishimiz mumkinki, Abu Rayhon Beruniy o‘z ilmiy asarlarini faqatgina mavjud bilimlarga tayanib emas, balki shaxsiy kuzatishlar va puxta tekshiruvlar asosida yozgan. Bu jihat aynan Beruniyni o‘sha davrdagi boshqa tarixchilar ajratib turadi. Chunki o‘sha davrdagi ko‘p tarixiy ma'lumotlar og‘zaki rivoyatlar, savdogarlardan eshitgan hikoyalari asosida yozilgan. Beruniy esa o‘zi kuzatib, tahlil qilib, hattoki tanqidiy qilib o‘z tarixiy asarlarini yozgan. Beruniy haqiqiy tarixchi faktlarga, aniq yillarga tayanib voqelikni tahlil qilishi kerakligini bizga namuna ko‘rsatib bergan.

Beruniy o‘zining bu kitobida qadimiy sharq xalqlari – arablar, suriyaliklar, yahudiylar, eroniylar, so‘g‘dlar, xorazmliklar va shu zamonda yashagan boshqa xalqlarning turmush qoidalari, urf-odatlari, yil sanoqlari, bayram va marosimlar, xullas nimaiki xalq hayotiga oid bo‘lsa, shuni hammasini ilmiy asosda tahlil qildi. Olim bu xalqlar turmushiga oid ma'lumotlarni haqiqat va sog‘lom fikr nuqtai nazaridan tahlil qildi, haqiqatga zid ko‘rinishlarni qat'iylik bilan rad qildi. [5-B.16] Bu kitobni biz O‘rta Osiyo, Eron, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi xaqlar etnografiyasi, tarixi va ijtimoiy tafakkuri bo‘yicha mukammal manba desa mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek bu asarda Beruniy turli xil jadvallarni keltiradi. Bu jadvallarda turli xalqlarning e'tiqodiga ko‘ra odam yashay boshlagan davri tarixi, ayrim hukmdorlarning hukmronlik yillari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni keltiradi. Hukmdorlarning laqablarini aytadi, ularning qilgan ishlari to‘g‘risida qisqacha xabar berib o‘tgan. Bu bilan Beruniy o‘sha davrdagi sulolalarning va hukmdorlarning yillarini aniq yillar asosida yozgan. Yillar tarix uchun muhim hisoblanib, davrlarni, yillarni tizimli tarzda o‘rganish tarixiy bilimlarimizning eng muhim jihatlaridan biridir. Beruniy bu borada ham bizga haqiqiy namunadir.

Beruniyning asarlari nafaqat Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarining tarixini balki Hindiston tarixini ham mukammal darajada yoritib bergan. "Hindiston" Beruniyning tarixga oid ikkinchi mashhur asaridir. Bu asar hindlarning urf-odati, fani, tarixi, o‘sha davrdagi siyosiy va iqtisodiy ahvoliga bag‘ishlangan. Bu asarning hajmi nihoyatda katta bo‘lib, sakson bobdan iborat va unda hindlarning qadim zamondan tortib to Beruniy davrigacha bo‘lgan e'tiqodlari o‘lka va shaharlarining chegaralari va ularga oid bo‘lgan afsona va tarixlar, yozuv va tillari kabi turli-tuman sohalarni o‘z ichiga olgan. Beruniyning o‘zi hind fani va falsafasiga qiziqqan, hatto sanskrit tilini ham o‘rgangan, Hindistonga ham brogan. Shuning uchun ham kitobda keltirilgan ma'lumotlar qimmatli faktik materiallarga asoslangan. Beruniy hind diniy an'analarini va ijtimoiy tuzumi haqida chuqur ma'lumotlar beradi. Kastalar tizimini ham tavsiflab yozadi. Bu orqali u hind jamiyatining o‘rta asrlardagi ijtimoiy

tuzulmasini tarixiy tahlil qiladi. Bu asarning yana bir tomoni shundaki Beruniy svilizatsiyalarni solishtirib o‘rganadi va o‘zining yakuniy xulosalarini ham yozadi. “Hindiston” asari o‘sha davrdagi Hinditonning ichki ijtimoiy hayoti, diniy qarashlari haqida to‘laqonli malumot beradi.

XI asrning atoqli tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariy (to‘liq ismi – Mahmud ibn al-Husayn ibn Mahmud al-Qoshg‘ariy) hisoblanadi. Turkiy xalqlar va qabilalar orasida yurib to‘plagan materiallari aosida u 1073-1077-yillarda o‘zining mashhur “Devon-u lug‘at at-turk” (“Turkiy tillar devoni”) asarini yozdi. Bu asar turkey tillar tarixi va turkey qavmlar etnografiyasiga oid muhim manadir.Unda bijanaklar, qipchoqlar, o‘g‘uzlar, boshqirdlar, tatarlar, chig‘illar, yag‘molar, uyg‘urlar va boshqa turkiy elatlarning ijtimoiy-xo‘jalik hayoti, turmushi, madaniyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar mavjud. [6-B.109] Shuningdek bu asarda turkey qabilalarning tarqalish hududi, ularning bir-biri bilan munosabati, til farqlari va xalq og‘zaki ijodi ham keltirilgan. Shuningdek Mahmud Qoshg‘ariy o‘z davrining tarixiy jarayonlaridan ham yaxshi xabardor bo‘lgan, Qoraxoniylar davridagi siyosiy muhit va madaniy o‘zgarishlarni bevosita kuzatib brogan. Bu asar orqali biz tirkiy xalqlarning o‘rta asrlardagi rivojlanish bosqichlarini tarixiy jihatdan tahlil qilish imkoniga ega bo‘lamiz. “Devon-u lug‘at at-turk” da asosiy urg‘u turkiy xaqlarga qaratilgan va bu davrda turkey xalqlar siyosiy maydonda yirik kuch bo‘lib shaklanayotgan edi. (masalan, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar) Bu xalqlar, davlatlar orasida madaniy birlik albatta ularning tillari edi. Shuning uchun ham Mahmud Qoshg‘ariy bu asari orqali turkiy xalqlarning o‘xshash tomonlarini tavsiflab bergan. Bu asarda yana xalq og‘zaki ijodi namunalarini ham qo‘shgan va bu orqali shu davrdagi turkey xaqlarning xalqona qadriyatlarini o‘rganishimizga muhim hissa qo‘shdi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq renessans davrini o‘rganishda allomalar asarlarining tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Bu asarlar nafaqat o‘z davri uchun balki bugungi kunda ham tarix fani taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ular orqali biz Sharqning boy ilmiy an’analarini, xalqlarning turmush tarzini, urf-odatlarini va shu davrdagi siyosiy jarayonlar haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Demak Sharq allomalari qoldirgan ilmiy meros nafaqat ilmiy tadqiqot mahsuli, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotini yorituvchi tarixiy manbalardir. Ularni o‘rganish orqali biz Sharq svilizatsiyasi tarixini yanada chuqurroq anglaymiz va tahlil qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова, Манбашунослик, Тошкент “Фан’’ 2007

2. www.sammuslim.uz Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari

3. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан Наршахий, “Бухоро тарихи” Форс тилидан А.Расулев таржимаси.

4.Ирисов А., Носиров А. ва Низомиддинов И. Ўрта Осиёлик қирқ олим. Т., Ўзфанакаднашр 1961.

5.Азиз Қаюмов, Абу Райҳон Беруний Абу Али Ибн Сино, Тошкент “Ёш гвардия” 1987.

6.R.A.Arslonzoda, Manbashunoslik (darslik), Farg‘ona: “Classic” nashriyoti, 2022.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDAGI PAXTACHILIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI

Sanobar NURIDDINOVA
O‘zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti 1-bosqich magistranti
sanobareshniyozova74@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada XIX asr oxiri - XX asrlaridagi Samarqand viloyati paxtachilik tarixini o‘rganishga oid manbalar 2 guruhga ajratib tahlil qilinadi. O‘sha davrda chop etilgan asarlar va turli statistika materiallari, hisobot va ma’lumotnoma-kitoblarda Samarqand viloyatida har tomonlama paxtachilikni rivojlantirish orqali imperiya hukumatining iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlagani namoyon bo‘ladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Paxtachilik, Samarqand, qishloq xo'jaligi, hisobot, ma'lumotnoma-kitob, irrigatsiya, uyezd, viloyat, pud, desyatina.*

Annotation: *This scientific article analyzes the sources related to the history of cotton cultivation in the Samarkand region during the late 19th and early 20th centuries, dividing them into two main groups. The study reveals that in the works published during that period, as well as in various statistical materials, reports, and reference books, the imperial government’s economic interests are evident in its efforts to comprehensively develop cotton farming in the Samarkand region.* ***Keywords:*** *Cotton cultivation, Samarkand, agriculture, report, reference book, irrigation, uyezd, region, pud, desyatina.*

Аннотация: *В данной научной статье источники, относящиеся к истории хлопководства в Самаркандской области в конце XIX — начале XX веков, анализируются, разделяясь на две группы. В опубликованных в тот период трудах, а также в различных статистических материалах, отчетах и справочниках, прослеживается стремление имперского правительства развивать хлопководство в Самаркандском регионе в целях извлечения экономической выгоды.* ***Ключевые слова:*** *Хлопководство, Самарканд, сельское хозяйство, отчет, справочник, ирригация, уезд, область, пудь, десятина.*

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Zarafshon vohasining yuqori qismidagi hududlarda 1886-yili Samarqand viloyati tashkil etiladi. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosatining asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil etgan bo‘lib, ayniqsa, paxtachilik sohasiga e’tibor berilgan holda xomashyo bazasiga aylantirishga intilgan. Shu jihatdan viloyatdagi paxtachilik tarixini o‘sha davr manbalari bilan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri – XX asr лдboshlaridagi Samarqand viloyati paxtachilik tarixi manbalar boy bo‘lib, tadqiqotimizda ularni ikki guruhga ajratishni ma’qul deb topdik. Ular quyidagilar: 1-guruh: Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantira boshlaganidan keyingi davrda nashr etilgan asarlar; 2-guruh: XIX asr oxiri – XX asr boshlariga tegishli statistika materiallari, hisobotlar va turli ma’lumotnoma-kitoblar.

Birinchi guruhga taalluqli Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantira boshlaganidan keyingi davrda nashr etilgan rus mualliflarining asarlari orqali nafaqat Samarqand viloyatining paxtachilik tarixi haqida, balki butun o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Bu manbalarga A. Shipov, L. N. Sobolev, M. Virskiy, A. I.

Shaxnazarov, S. V. Ponyatovskiy, M. A. Terentev, V. V. Radlov, V. I. Massalskiy va boshqalarning asarlari namuna bo‘la oladi.

L. N. Sobolev alohida Zarafshon okrugi hududini o‘rganib, uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy holatlari: hududi, ekin maydonlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya holati va boshlar haqida ma’lumotlar to‘playdi. Samarqand viloyatining asosiy qishloq xo‘jaligi tarmog‘i paxtachilik bo‘lib, manbada paxta yetishtirish jarayoni, mahalliy paxta navi va amerika paxta navi, paxtachilikda nimalarga e’tibor berish muhim ekanliklari haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Xususan, dehqonlar uchun paxtachilik asosiy daromad manbalaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligida undan olinadigan daromad 4-o‘rinda turgan[1, - B. 561.].

M. Virskiy kitobi bevosita Samarqand viloyatining paxtachiligiga bag‘ishlanganligi sababli qimmatli manbalardan hisoblanadi. Bu manba bizga viloyatdagi qishloq xo‘jaligi holati, paxtachilikka berilgan e’tibor va talab, shuningdek, uyezdlar kesimida paxtadan olingan hosillar bo‘yicha statestik ma’lumotlar taqdim etadi. Jumladan, viloyat bo‘yicha paxtaning “amerika navi”dan 1893-yil 1 121 225 pud, mahalliy navlardan 269 532 pud hosil olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 1894-yil 553 814 pud va 402 757 pudni tashkil etadi [2, - B.193-194.]. Bu orqali ma’lum sabablarga ko‘ra “amerika paxta navi”ga nisbatan mahalliy navni yetishtirishga e’tibor kuchayganini ko‘rishimiz mumkin.

Shaxnazarov kitobining XII bobi “paxta madaniyati” deb nomlanadi va unda Turkistonda azaldan paxta ekilishi, Rossiya imperiyasi ehtiyoji yuzasidan bu hudud paxta plantatsiyalariga aylantirilgani, yildan yilga paxta maydonlari kengayib, “amerika navi”ni ekishga e’tibor kuchaytirilgani haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, Samarqand viloyatida “amerika paxta navi” umumiy paxta maydonlaridagi ulushi 1890-yil 34,2 % bo‘lgan, 1893-yilga kelib bu ko‘rsatgich 75,3 % ni tashkil etgan [3, - B.144.].

S. V. Ponyatovskiy Turkistonda paxtachilik rivojlanishini kompleks o‘rgangan holda kitob yozadi. O‘lka iqlimi, tuprog‘i va irrigatsiya holati paxtachilik uchun qulay bo‘lib, ayniqsa, Samarqand viloyati paxta uchun har tomonlama mos ekanligi qayd etilgan [4, - B.357.].

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga tegishli statistika materiallari, hisobotlar va turli ma’lumotnomalarni tashkil etadigan 2-guruh 1908-1909-yillar imperiya senatining a’zosi, graf K. K. Palen boshchiligida Turkiston o‘lkasida o‘tkazilgan taftish komissiyasi hosobotlari, 1882-1883-yillar maxfiy maslahatchi F. K. Girsning taftish komissiyasi ma’lumotlari, viloyat statestika qo‘mita materiallari, turli mualliflarga tegishli ma’lumotnoma kitoblar va hisobotlar [5, - B.34.] kabi manbalarda viloyatdagi paxtachilik holati haqida qimmatli ma’lumotlar jamlangan.

Samarqand viloyati harbiy-gubernatori Medinskiy hisobotida Samarqand viloyatida paxta maydonlari 1903-yili 21,5 % ga qisqargani, 12500 desyatena paxta dalalarining 9812 desyatenasidangina hosil olingani natijasida hududdagi 28 ta paxta tozalash zavodlaridan 6 tasi ishlamagani haqida ma’lumotlar uchraydi [6, - B.207-208.].

Ma’lumotnoma-kitoblarda Samarqand viloyati hududi, paxta maydonlari uyezdlar kesimida foizlari bilan berilgan statistik ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Samarqand viloyatining yer maydoni 6914648 desyatina bo‘lib, 282955 desyatina

sug‘oriladigan yerlardan 18144 desyatinasiga paxta ekilgan. 1872-yildan Samarqand viloyatida ham paxtaning amerika navi ekila boshlagani, mahalliy paxta navi kam xarajat talab qilgani uchun 1894-yilgacha ekilgani va umumiy paxta maydonlarining 26 % iga mahalliy nav yetishtirilgani haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi [7, - B.151.]. Shuningdek, bu guruhga kiruvchi manbalarda Samarqand viloyatining tabiiy iqlimi, irrigatsiya holatlari haqida ham ma’lumotlar bo‘lib [7, - B.153.], ular orqali shuni bilishimiz mumkinki, aynan yaxshi suv ta’minotiga va qulay iqlimga egaligi viloyat hududida paxta ekishni kuchaytirgan holda yaxshi hosil olib, xomashyo bazasiga aylantira olishiga mustamlakachi hukumatning ko‘zlari yetganiga sabab bo‘lgan.

Rossiya imperiyasi paxtaga ehtiyoji yuzasidan O‘rta Osiyoni bosib oladi. Shu sababdan qishloq xo‘jaligida asosiy e’tiborni paxta yetishtirishga, yildan yilga ko‘proq hosil olishga qaratgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Samarqand viloyatidagi paxtachilik siyosati haqida manbalar ko‘p bo‘lib, statistik hisobotlarda, ma’lumotnoma kitoblarda atroflicha yoritilgan va bu orqali o‘sha davrdagi mustamlakachilik siyosati, qishloq xo‘jaligi ahvoli, imperiya hukumati har tomonlama o‘zining iqtisodiy manfaatlariga moslashtirishga urungani haqida batafsil bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, ulardagi ma’lumotlar boshqa viloyatlardagi paxtachilik holatini solishtirish, butun Turkiston hududidagi paxtachilik siyosatini umumlashtirish bo‘yicha ham kerakligi jihatidan muhim manbalar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Соболев Л.Н. Географическая и статистическая сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Записки Императорского Русского географического общества по отделению статистики. Т. IV. – СПб., 1874.
2. Вирский М. Очерк хлопководства в Самаркандской области за 1893-1894 гг. // Туркестанский сборник. Ташкент, 1909.
3. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство въ Туркестанскомъ краеъ. – СПб.: Типо-Литографія В.О. Киршбаума, 1908.
4. Понятовский С.В. Опыт изучения хлопководства в Туркестане и Закаспийской области. – СПб., 1873.
5. Усаров У.А. Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати: тарих фанл. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2021.
6. Ергашев Б. Самарқанд вилоятининг XX аср бошларидаги жараёнлар манбашунослиги // “Зарафшон воҳаси ва Самарқанд шаҳри тарихи (Самарқанд ўқишлари – II)” республика илмий-амалий конференсия материаллари. – Тошкент-Самарқанд, 2022.
7. Усаров У.А. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилояти қишлоқ хўжалиги манбашунослигига доир баъзи мулоҳазалар // “Зарафшон воҳаси ва Самарқанд шаҳри тарихи (Самарқанд ўқишлари – II)” республика илмий-амалий конференсия материаллари. – Тошкент-Самарқанд, 2022.

XIX ASRNING 60-70-YILLARIDA QO‘QON XONLIGIDA YUZ BERGAN SIYOSIY-IQTISODIY JARAYONLAR TAHLILI

Sirojiddin NABIJONOV
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti
sirojiddinnabijonov75@gmail.com

Anotatsiya. *Qo‘qon xonligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 1868-yilda tuzilgan Qo‘qon–Rossiya savdo shartnomasidan so‘ng xonlikda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, jumladan 1869–1871-yillarda kuzatilgan voqealarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda mazkur davr voqealari bir qator mahalliy manbalar asosida qiyosiy-tahliliy yondashuv bilan o‘rganiladi hamda xonlik ichki hayotidagi muhim omillar ochib beriladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *“Hokim Oyim” va “Sulton Murodbek” madrasalari, “Muqaddas Stanislav” ordeni, Jo‘rabekning rus xizmatiga o‘tishi, Medinskiy Viktor Yulenovich, Otaliq Botirboshi, Turdali Mirzo, va 1870-yildagi yong‘in.*

Аннотация*. Изучение отношений между Кокандским ханством и Туркестанским генерал-губернаторством является одним из актуальных научных направлений современности. Особенно важно исследование политических и экономических процессов, произошедших в ханстве после заключения Кокандско-Российского торгового договора 1868 года, в частности событий 1869–1871 годов. В данной тезисной работе указанный период рассматривается на основе ряда местных источников с использованием сравнительно-аналитического подхода, что позволяет раскрыть важнейшие аспекты внутренней жизни ханства.* ***Ключевые слова:*** *медресе «Хаким Ойым» и «Султан Мурадбек», орден «Святого Станислава», переход Джурабека на русскую службу, Виктор Юленович Мединский, Оталик Батырбаши, Турдали Мирза, пожар 1870 года.*

Abstract. *The study of relations between the Kokand Khanate and the Turkestan General-Governorate is one of the relevant scientific directions today. In particular, the political and economic processes that took place in the khanate after the signing of the Kokand–Russia trade agreement in 1868, including the events observed between 1869 and 1871, are of significant importance. This thesis examines the events of that period using a comparative-analytical approach based on several local sources, revealing key aspects of the internal life of the khanate.* ***Keywords:*** *“Hokim Oyim” and “Sulton Murodbek” madrasas, the “Order of Saint. Stanislaus,” Jo‘rabek’s transition to Russian service, Medinskiy Viktor Yulenovich, Otaliq Botirboshi, Turdali Mirzo, and the fire of 1870.*

Ma’lumki, Xudoyorxon (1865–1875) 1868-yilda Rossiya imperiyasi bilan yaxshi qo‘shnichilik va savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yish orqali mintaqaning geosiyosiy maydonida Qo‘qon xonligi uchun harbiy to‘qnashuvlarning oldini olishga erishgan edi. Bu tashqi siyosatdagi yondashuv xonlik e’tiborining ichki siyosatga, xususan, tartibsizliklarning oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, savdoni rivojlantirish maqsadida shaharsozlik loyihalari amalga oshirildi.

Xon bu orqali Qo‘qon xonligining siyosiy va iqtisodiy qudratini xonlik bozorlariga bemalol kirib kelayotgan Rossiya savdogarlariga namoyon etish, shu orqali tuzilgan shartnoma bandlarida tenglikni saqlash, hattoki zarurat tug‘ilganida

ustunlik olishga intilgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, o‘ziga yaqin shaxslarning vafoti ham Xudoyorxonning tashqi siyosatida faol bo‘lishiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Xususan, *“Ansob us-salotin va tavorih ul-xavoqin”* asarida bayon qilinishicha, 1286/1869-yilda Shayxulislom Sulaymonxo‘ja va shu yilning 24-yanvarda Sohibzoda Kalonning ham vafoti Xudoyorxon uchun muhim maslahatgo‘ylarida ayrilishiga olib kelib, xon samarasiz va befoyda ishlarga mashg‘ul bo‘lgani ta’kidlangan [1, –B.79.].

Lekin, xon kelgusida o‘ziga yordam beradigan insonlarni ham ayni shu yilda uchratgan. Masalan, Xudoyorxon *“Tarixi jadidayi Toshkand”* asari muallifi Muhmmad Solihxo‘jani Miyon Buzrukxon janozasida uchratib, yaqindan tanishgan. Bu o‘zaro yaqinlik munosabati general Konstantin Petrovich Kaufman (1867–1881) bilan qo‘shnichilik aloqlarida, jumladan, o‘g‘li Nasriddinbekni (1876–1882) Toshkentga diplomatik missiya va davolanish uchun yuborganida qo‘l kelgan. Miyon Buzrukxoning vafoti ikki xil ya’ni *“Tarixi jadidayi Toshkand”da 1869 yanvar* [2, –B.20–22.], “*Tarixi Shohruxiy*”da *1870-yil* ko‘rsatilgan bo‘lsa-da [3, –B.481.] deyarli bir vaqt nazarda tutilgan*[8].

XIX asrning 1860-yillari oxiridagi Qo‘qon xonligidagi siyosiy-ijtimoiy muhitni yoritish, ushbu davr voqeliklarini chuqur tahlil qilish va tarixiy manbalar asosida o‘rganishni talab etadi. Jumladan, Muhammad Aziz Marg‘iloniyning qayd etishicha, 1869-yilda Bekcho‘rin nomi bilan mashhur bo‘lgan no‘g‘aylik Mir Yusuf Mirsalohovichga “*Muqaddas Stanislav*” ordeni [4, –B.70.;, 8, –B.1–6.] va 1867-yili Sirdaryo harbiy qo‘mondonligiga yuborilgan polkovnik Medinskiy Viktor Yulenovich Toshkent shahar boshlig‘i lavzomi beriligan [4, –B.197.]. Shu bilan birga, Muhammad Solihxo‘janing bayon etishicha, 1866-yilda Andijon hokim etib tayinlangan Nasriddinbek ibn Xudoyorxon shoirlarni e’zozlab, Hoji Muhyi–Muhammad Rizo oxund o‘g‘liga 1869-yili “*Toju ush-shuaro”* unvonini taqdim qilgan[2, –B.20–22.].

Mahalliy manbalarda 1870-yilda xonlikda yuz bergan voqealarni qiyosiy ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Bu davrda Qo‘qon xonligidagi ichki siyosiy vaziyat ham murakkab bo‘lgan. Mirzo Olim Mushrifning ta’kidlashicha, 1870-yili Xudoyorxonning hamshirasi vafoti xon ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan[1, –B.81.]. Bu vaqtida “Tarixi jahonnomayi” asarida Xudoyorxonning bobosi Hojibek tomonidan qurilgan madarasa 1869–1870-yillarda qayta ta’mirlangani va “Hokim Oyim” madrasasi qurilgani qayd etilgan [5, –B.419.]. Shu bilan birga, Xudoyorxon tomonidan masjid, madrasa va saroylar qurilishi Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiy tomonidan nazmda “Sira tinchimagan harakatdan, Qurib madrasa, masjid, saroylar.”–deb, madh etilgan [5, –B.417.]. Bu yilga oid kengroq ma’lumotlar keltirgan Avaz Muhammad Ho‘qandiy “1870-yil 8-iyunda tong sahardan choshgoh vaqtigacha davom etgan yong‘in 240 savdo dokonini yondirib kul qilgan. Faqatgina 5-6 ta do‘kon sohibi o‘z mollarini do‘kondan olib chiqishga ulgurgan, xolos.”–, deb keltiradi[5, –B.422.].

Ammo, *“Tarixi Shohruxiy”* [3, –B.635.] hamda *“Ansob us-salotin va tavorih ul-xavoqin”* asarlarida “*Hokim oyim*” madrasasining qurilishi 1869-yilda boshlanganligi

* Bu “xijriy-milodiy” taqvimlardagi farq bo’lishi mumkin.

va bu bunyodkorlik ishlariga Turdali Mirzo ishboshi sifatida tayinlangani haqida ma’lumot keltirilgan [1, –B.79.].

Bu tafsilotlar madrasaning qurilish jarayoni bir necha yil davom etganini, turli manbalarda esa sanalarning biroz farq bilan keltirilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bu yilda ruslarga oid ba’zi ma’lumotlar ham mahalliy manbalarda aks etgan. Jumladan, Mirzo Olim Maxdum Hoji “Tarixi Turkiston” asarida ruslar 1870-yilda Kitob shahrini bosib olganini ta’kidlaydi [6, –B.158.] “Xudoyorxon va Furqat” asarida esa aynan shu yili, sentyabr oyida, general Kaufman tomonidan hibsda bo‘lgan Shahrisabz hokimi Jo‘rabekni rus armiyasi xizmatiga kirishga ko‘ndirilganligi qayd etilgan [7, –B.85.]. “Tarixi Aziziy” asarida “Jo‘rabek ruslar tomonidan yengilib, Qo‘qonga kelgani va 1870 yilda esa Xudoyorxon tomonidan Kaufmanga topshirilgani” keltirilgan [9, –B.95–96.]. Bu ma’lumotlar Jo‘rabekni uzoq vaqt hibsda saqlanmaganini ko‘rsatadi.

Mahalliy manbalarda Qo‘qon xonligining 1871-yilgi voqelari ham turli xil ko‘rinishda aks etgan. Masalan, 1871-yilda qurilgan “Ulug‘ nahr” arig‘i “Tarixi Aziziy”da 1869–1870-yillarda [4, –B.313.], “Tarixi jahonnomayi”da 1870–1871-yillarda [5, –B.421.], “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” da 1872-yil –deb, qayd etilgan [1, –B.79.]. Bu manbalar ichida “Ulug‘ nahr” arig‘iga oid eng ko‘p ma’lumot “Tarixi Aziziy” asarida bo‘lib, xususan, unda “arig‘ qurulishiga ish boshi sifatida shafqatsiz Otaliq botirboshi tayinlangani va u qariyalarga ham berahm bo‘lishiga qaramay, suv toshganda “To‘xtasin” ismli kishini to‘g‘onga ko‘mib yubortirgani” ham ta’kidlagan [4, –B.313.]. Shu bilan birga, Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning keltirishicha, 1871–1872-yillarda Xudoyorxon eski qalandarxonani kengaytirish maqsadida buzib, yangi katta imorat qurgan . Xudoyorxon bu vaqtida general Kaufman bilan ham yaqin munosabatida bo‘lgan. Jumladan, Mulla Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning qayt etishicha, 1871–1872-yillarda Xudoyorxon o‘g‘li Nasriddinbekni davolanish va diplomatik missiya uchun Toshkentga yuborgan [3, –B.481.].

Bundan tashqari, ayni 1871-yilda Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbek ham bino qurilishida faol bo‘lgan. Xususan, “Tarixi jahonnomayi” asarida “*Sulton Murodbek*” madrasasi 1870–1871 –yillarda qurilgani qayd etilgan [5, –B.423.]. Bu inshootlar, xonning atrofidagi elitaga bo‘lgan hurmatni ifodalab, xonlikning ichki va tashqi siyosiy maydonidagi mavqeini mustahkamlashga muhim ta'sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Mahalliy manbalarda kelgan ma’lumotlar tahlili orqali 1868-yilda tuzilgan Qo‘qon–Rus savdo shartnomasidan so‘ng Qo‘qon xonligi ichki siyosiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy faoliyatni tiklash va mintaqadagi mavqeini mustahkamlashga bo‘lgan intilishlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ruslar o‘zlarining ekspansiv siyosatini faol olib borgan bir davrda, Xudoyorxon o‘z siyosiy va iqtisodiy qudratini oshirishga urinib, ichki islohotlar va tashqi aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgani kuzatiladi. Shu jihatdan ushbu tarixiy davr Qo‘qon xonligi taraqqiyotining murakkab, lekin muhim bosqichini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorih ul-xavoqin: “Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi” (Qo‘qon xonligi tarixi). Nashrga tayyorlovchilar: Akbar Matg‘oziyev, Muhabbat Usmonova. - T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. – 127 b.

2.Sultonov O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent. O‘zbekiston, 2009. – 296 b.

3.Niyoz Muhammad Xo‘qandiy. Ibartul Xavoqind (Tarixi Shohruxiy). Xudoyorxon avlodlari tarixi. Nashrga tayyorlovchilar: Sh. Vohidov va Sh. Umarov. - Toshkent. Turon zamin ziyo, 2014. – 700 b.

4.Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. Nashrga tayyorlovchilar: Sh. Vohidov, D. Sangirova. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 112 b. 5. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy. Tarixi jahonnomayi (Olamni ko‘rsatuvchi tarix). Nashrga tayyorlovchi: Sh. Vohidov. – Toshkent, 2012. – 420 b.

5. Avaz Muhammad Ho‘qandiy. Tarixi jahonnomayi. Nashrga tayyorlovchi: Sh. Vohidov. // Sharq yulduzi. 1991. №8. 119–139 b.

6.Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. So‘zboshi va izohlar muallifi: Sh. Vohidov; Arab yozuvidan tabdil: Sh. Vohidov va R. Xoliqova; Ko‘rsatkichlar: D. Sangirova va T. Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 241 b.

7.Xudoyorxon va Furqat. Nashrga tayyorlovchi Sh. Yusupov. – Toshkent: Sharq, 1995. – 96 b. 8. O‘zR MA (Milliy Arxivi), I-19 fond, 1 ro‘yxat, 10187 yig‘ma jild, 1-6 v.

9. Muhammad Aziz Marg‘iloniy va uning “Tarixi Aziziy” asari (Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid muhim manba). Nashrga tayyorlovchilar: Sh. Vohidov va D. Sangirova. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 214 b.

BUXORO ME’MORIY BEZAK SAN’ATI TARIXINING ILMIY TAHLILIY ASOSLARI (SOMONIYLAR MAQBARASI MISOLIDA)

Lobar SHUKUROVA
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktoranti, (PhD)
lobar.shukurova.87@mail.ru

Annotatsiya: *San’atshunos olimlarning tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, O‘zbekiston hududida me’morchilik va amaliy bezak san’ati qadim-qadimdan vujudga kelgan xalq san’atining eng ajoyib tarkibiy qismlaridan biridir. Ko’plab dunyo e’tirof etgan musulmon allomalar, mutafakkirlar, me’mor ustalarni voyaga yetkazgan Markaziy Osiyo o‘zining me’moriy obidalari va ularda qo‘llanilgan bezak san’ati bilan insoniyat e’tiborini tortib kelmoqda. Ushbu maqolada IX-X asrlar oralig‘ida bunyod etilgan Somoniylar maqbarasining qurilishi hamda uning me’morchiligida badiiy bezakning tutgan o’rni ilmiy asoslarga tayangan holda yoritib berilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Me’moriy bezak san’ati, maqbara, an’ana, madaniy meros, pishgan g‘isht, gumbaz, yodgorlik, arxitektura, badiiy qadriyat.*

Annotation: *Studies by art historians show that architecture and applied decorative art on the territory of Uzbekistan are one of the most remarkable components of folk art that has emerged since ancient times. Central Asia, which has raised many world-renowned Muslim scholars,*

thinkers, and master architects, continues to attract the attention of humanity with its architectural monuments and the decorative art used in them. This article discusses the construction of the Samanid Mausoleum, built between the 9th and 10th centuries, and the role of artistic decoration in its architecture, based on scientific foundations. ***Key words:*** *Architectural decorative art, mausoleum, tradition, cultural heritage, baked brick, dome, monument, architecture, artistic value.*

Аннотация: *Исследования искусствоведов показывают, что архитектура и декоративно-прикладное искусство Узбекистана являются одними из самых замечательных составляющих народного искусства, существующего с древнейших времен. Центральная Азия, подарившая миру многих всемирно известных мусульманских ученых, мыслителей и выдающихся архитекторов, продолжает привлекать внимание человечества своими архитектурными памятниками и использованным в них декоративным искусством. В статье на научной основе рассматривается строительство мавзолея Саманидов, возведенного между IX – X веками, и роль художественного оформления в его архитектуре.* ***Ключевые слова:*** *Архитектурно-декоративное искусство, мавзолей, традиция, культурное наследие, обожженный кирпич, купол, памятник, архитектура, художественная ценность.*


Respublikamizda yangi O‘zbekistonni barpo etishda xalqning an’anaviy, badiiy qadriyatlariga bo‘lgan yangicha qarash, amaliy san’atning barcha turlarini tadqiq qilish hamda madaniy meros, san’atshunoslik, turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga betakror xalq amaliy san’ati namunalari, madaniy meros, obidalarimizning tarixi, ularda qo‘llanilgan bezak san’atining yaratilish sirlari haqidagi keng tushunchalarni berish orqali sayyohlar oqimini ko‘paytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, xalq amaliy bezak san’atining yo‘qolib borayotgan turlari va amaliy bezak san’ati maktablari uslublarini, mahalliy xususiyatlarini qo‘llash, amaliy san’atning unutilib borilayotgan jihatlarini saqlab qolish bugungi kunda juda muhimdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son, 2020 yil 21 apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688 son, hamda boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Qo‘qon Birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqida san’atshunoslik sohasining insoniyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etishini e’tirof etib “Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo‘lishi – bu sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Bashariyat faxri bo‘lgan buyuk shaharlar, me’moriy obidalar, tarixiy va arxeologik yodgorliklar, minglab muzeylardagi nodir eksponatlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi” – deya ta’kidlaydi [2].

Markaziy Osiyoda Somoniylar davri me’morchiligining nodir namunalaridan biri Somoniy maqbarasi hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan. Maqbara Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob Ismoil Somoniy tomonidan 864-868-yillarda bunyod etilgan. Somoniy markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to‘plagan hamda madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bag‘dod xalifalaridan ibrat olib, o‘ziga ulkan maqbara qurdirgan. Bu maqbara

Mo‘g‘ullargacha bo‘lgan me’morchilikning haqiqiy durdonalaridan biri hisoblanib, u butunlay pishgan g‘ishtdan qurilgan. Shu bilan birga, g‘ishtning teksturasi va uning shakli naqshli bezakli g‘isht sifatida mohirlik bilan qo‘llanilib, jozibador va nafis ko‘rinishdagi inshootni yaratgan. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning interyeri uch pog‘onali (to‘rtlik – to‘rt devor, sakkizlik – devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz – tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Olimlarimizning fikriga ko’ra maqbara juda nafis bo’lib, bu me’moriy jarangdorlik, uning go‘rxona vazifasiga mutlaqo zid ekanligini ham ta’kidlaydilar [5,–B.151.].


Bu bino Markaziy Osiyoda birinchi pishiq g’ishtdan barpo etilgan bo‘lib, o‘lkamizda saqlanib qolgan eng qadimiy bino hisoblanadi. Shunga qaramay davr o`tishi bilan tabiiy-iqlimiy sharoit va siyosiy jarayonlar maqbara holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan. Maqbarani kuzatar ekansiz uning gorizontal bo‘ylab o‘rtasi (beli) dan uch qatorli g‘ishtga ko‘zingiz tushadi. Shu ”belbog‘” dan pasti qismi 1936 yilda o‘sha davr Buxoroning mohir ustalari tomonidan restavratsiya qilingan.



Maqbaraning restavratsiya jarayonida ustalar g‘ishtlarning bir biriga birikish xususiyatlaridan ajablanganlar. Mahalliy ustalarining taxminlariga ko‘ra maqbara qurilishida o‘sha davr usta me’morlari uning ishqoriga tuya suti, asal va tuxum ishlatganlar. Ammo maqbarani beldan pastki, ya’ni restavratsiya qilingan qismida esa gips, sement ishlatilganini guvohi bo‘lamiz [11].

Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jimjima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 m., tarhi – tashqarisi 10,80×10,70 m., ichkarisi 7,20×7,20 m. usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o‘rnatilgan. Devor tepasiga har tomonidan 10 talab kungurasimon darcha qo‘yilgan (jami 40 ta). Lekin interyerdan bu darchalar ko‘rinmaydi, sababi ichkaridan g‘ishtlar guldasta shaklida nafis terib chiqilgan. Bu guldastalar faqatgina chiroy uchun emas, balki xonaga quyosh nurini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushurmasdan kesib bergan. Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g‘ishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqtida (1927) xona sahnida 2 yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni

bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me’morchiligining an’analari saqlanib qolgan buyuk me’moriy asardir.




Maqbara bezaklarini badiiy jihatdan tahlil qilinganda unda, ham islomiy, ham zardushtiylik dinining ta’sirini his qilish mumkin. Misol uchun, kirish peshtoqining atrofi aylana shaklidagi bezak naqshi bilan o`rab olingan va gumbazda ham g`ishtlarning burchak shaklida qirrali bo`rtib chiqarilganini ko`ramiz. Bu bezaklarni san’atshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy tahlil qilinganda, zardushtiylik dinining ta’sirini kuzatamiz.



Xususan, san’atshunos olim O‘zFA va O‘zBA akademigi A.Hakimov o’zining tadqiqotlarida “IX–XIII asr boshlarida Movarounnahr san’ati va hunarmandchiligida islomdan oldingi urf-odatlarni yangi, islomiy munosabat va qoidalar bilan almashtirish jarayoni kechdi. Biroq, eskisini rad etish va uni tubdan qayta ishlash bir marotabalik hodisa emas edi. IX–X asrlarda islomgacha bo‘lgan san’at an’analari – ishlab chiqarish uslublar, shakllar, mavzular va tasvirlar – biroz o‘zgartirilgan talqinda bo‘lsa-da, hali ham mavjud edi” – deya ta’kidlaydi [5,–B.194.].

Islom ta’limoti o‘zidan avvalgi samoviy dinlarning mantiqiy davomi o‘laroq yer yuzida VII asrdan boshlab keng yoyila boshlagan. Ammo, islom dini targ‘iboti olib borilayotgan yerlarda ko‘pincha mahalliy xalqlarning oldingi dinlari, an’anaviy e’tiqodlari va urf-odatlari islom ta’limotining to‘laqonli qabul qilishiga to‘sqinlik qilgan. Chunki forslarning zardushtiylik dini, turkiylarning tangrichilik dini, hindlarning hinduiylik dini, shuningdek Yevropa va Osiyoda eng ta’sirli mavqega ega bo‘lgan nasroniylik dinining ta’limotlari yerlik xalqlarning milliy tafakkuridan chuqur o‘rin olgan va ularni o‘zgartirish oson kechmasligi aniq edi [6, – B.95.].
Qadimgi ustalar shu qadar mohir bo‘lganlarki, har–bir yaratgan badiiy bezaklari chuqur ma’no, mazmun va ramzga ega. Maqbara interyeri shiftining to‘rtta burchak qismida g‘ishtlarni terish orqali aks ettirilgan badiiy bezak shunchaki chiroy uchun qilingan emas, uni sinchiklab kuzatar ekansiz arslon yuzini tasvirini ko‘rish mumkin.



Ismoil Somoniy maqbarasi jahon me’morchilik va binokorlik maktablarining noyob asari hisoblanadi. Tengi yo‘q bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini o‘rganadilar, san’at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar.

Ismoil Somoniy arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasini-da, “Sharqning me’moriy durdonasi” nomini olgan. 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risi”dagi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF- 5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi”. – 2017. – 21 noyabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Hunarmandchilikning paydo bo‘lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam. Birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqi. 14.09.2019 y. www.president.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi PQ- 4688 – sonli “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori // ... - Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi PF-60-sonli Farmoni
5. A.Hakimov O‘zbekiston san’ati tarixi: qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent: Zilol buloq, 2022. -528 b.
6. Bo‘ronov A. Sharqda islom falsafasining shakllanishi va tarkib topishi. // Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati nomli, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023. – B. 95.

7. Bo‘ronov B.O. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Buxoro turarjoy me’morligida naqsh san’ati: San’atshunoslik fanlari nomzodi diss. ... – Toshkent, 2007. – 141 b.
8. Hamid Ziyoyev. Tarix – o‘tmish va kelajak ko‘zgusi. (tarixning dolzarb masalalari). – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 288 b.
9. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. - Toshkent: Akademnashr, 2017. – 592 b.
10. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro: Fan va ta’lim. 2022. B. 285.
11. Buxorolik tarixchi Akorahmat G‘aniyev ota bilan suhbatdan.
12. https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi#

MAMLUKLAR DAVLATI SULTONI SAYFIDDIN QUTUZ TARIXINING MANBASHUNOSLIGI TAHLILI

G‘ulomjon ATAJANOV
Oriental universiteti magistranti,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Xorazm viloyati bo‘limi bosh mutaxassisi
gulomjonotajonov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘rta asrlarda musulmon olamining siyosiy, madaniy, ilmiy markaziga aylangan, Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasining vakili Sayfiddin Qutuz boshchiligida mo‘g‘ul bosqiniga qarshi kurashgan Mamluklar davri tarixiga, bevosita Sayfiddin Qutuzning hayoti va faoliyatiga oid o‘rta asr manbalari tahlil etiladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Taqiyuddin Ahmad Maqriziy, Shihobiddin Maqdisiy, Ibn Tangriberdi, Ayyubiylar, Mamluklar, Sayfiddin Qutuz, Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasi, Mo‘g‘ullar, Ayn Jalut, Beybars Bunduqdoriy.*

Annotation: *The article analyzes medieval sources related to the history of the Mamluk period, during which the Muslim world became a political, cultural, and scientific center. Particular attention is given to Sayfiddin Qutuz, a representative of the Anushtegin–Khwarazmshah dynasty, who led the resistance against the Mongol invasion. The study focuses on primary sources concerning the life and activities of Sayfiddin Qutuz.* ***Key words:*** *Taqi al-Din Ahmad al-Maqrizi, Shihab al-Din al-Maqdisi, Ibn Taghribirdi, Ayyubids, Mamluks, Sayfiddin Qutuz, Anushteginid–Khwarazmshah Dynasty, Mongols, Ayn Jalut, Baybars al-Bunduqdari.*

Аннотация: *В статье анализируются средневековые источники, посвящённые истории эпохи Мамлюков, которые под предводительством представителя династии Ануштегинидов-Хорезмшахов Сайфиддина Кутуза боролись против монгольского нашествия. Особое внимание уделено жизни и деятельности Сайфиддина Кутуза, а также политической, культурной и научной роли мусульманского мира в Средние века.* ***Ключевые слова:*** *Такийюддин Ахмад Макризи, Шихабуддин Макдиси, Ибн Тангриберди, Айюбиды, Мамлюки, Сайфиддин Кутуз, династия Ануштегинидов-Хорезмшахов, монголы, Айн Джалут, Бейбарс Бундукдари.*

O‘zbekistonda milliy va jahon tarixini tadqiq etish borasida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ajdodlarimizning yurtimizdan tashqarida yuritgan siyosiy, ilmiy, madaniy faoliyatini o‘rganish millatlar va

mamlakatlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni qayta rivojlantirishga zamin hozirlashini inobatga olgan holda, bunday shaxslar faoliyati chuqur o‘rganilmoqda. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasining vakili, Misr Mamluklar davlati sultoni Sayfiddin Qutuzdir. Sayfiddin Qutuz va umuman Mamluklar davri O‘rta asrlarning eng keng yoritilgan va eng ko‘p o‘rganilgan davri sanaladi. Biroq bu davr va ajdodimiz tarixi yurtimizda yetarli darajada o‘rganilmagan.

XII-XIV asrlarda Misr, Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan Ayyubiylar, Mamluklar davri O‘rta asrlarning eng keng yoritilgan tarixiy davrlaridan sanaladi. Aynan shu davrda musulmon olamida tarixnavislik yangi bir bosqichga chiqdi. Jumladan, Mamluk Bibliography Online ma’lumotlarida mamluk davriga oid 6000 dan ortiq manba mavjud ekanligi ko‘rsatiladi [7, - C.16.]. Biz o‘rganayotgan Sayfiddin Qutuz tarixi ham aynan shu davrda sodir bo‘lgani esa bizning asosiy tadqiqot manbalarimizni arab va fors, umuman musulmon tarixchilari asarlari tashkil qilishini anglatadi.

Sayfiddin Qutuzning hayoti, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga oid ma’lumotlarni o‘rganishda olimlar tomonidan manbalar bir qator toifalarga bo‘ladilar. Jumladan, musulmon manbalari, mo‘g‘ul manbalari, sharq xristian manbalari, g‘arb xristian manbalari va yangi davrdagi tadqiqot ishlariga ajratishadi [4, - S.1.].

Mamluklar davri, xususan, Sayfiddin Qutuz haqidagi eng noyob va ishonchli ma’lumotlar Abu Muhammad Taqiyuddin Ahmad Maqriziyning (1364-1442-yy.) “As–suluk li-ma’rifat duval al-mulk” (“Podsholarning davlatlarni bilish yo‘llari”) nomli asarida qayd etilgan. Ma’lumki, Maqriziy Misr tarixi, ayniqsa, mamluklar davri haqida juda qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan bo‘lib, Ibn Xaldun maktabining yetakchi vakili sanaladi. Muallif tarixiy voqealarni o‘zi ko‘rgan voqealarni xolisona yetkazishga harakat qilgan va uning bu jihati Mamluk davri tarixchilari orasida uni eng ishonchlisi bo‘lishiga olib kelgan.

Ayyubiy va Mamluklar davrida Damashqda yashagan Shihobiddin Maqdisiyning (1203-1267-yy) “Kitab al-ravḍatayn fi akbar al-davlatayn al-Nuriyya val Salahiyya” (“Nuriylar hamda Solihiylar hukmronligi haqida ikki jannat kitobi”) asari Zangiylar hamda Ayyubiylar sulolasining salibchilar bilan munosabatlari haqida bayon qiladi. Mavzumizga taalluqli eng muhim manbalardan yana biri Abul Fazl Muhiyiddin Abdulloh ibn Abduzzohir ibn Nashvan as-Sa’diyning Rukniddin Beybars davridagi voqealarni batafsil qayd etgan “Ar-ravz uz-Zohir fi Sirati Malik uz-Zohir” asari sanaladi. Muallifning Beybars davrida saroyda xizmat qilgani asar qadrini yanada oshiradi.

Ayyubiy hukmdorlar va Mamluk saroyida davrida kotib va diplomat vazifalarini bajargan mashhur tarixchi Abu Abdulloh Izzuddin Ibn Shaddadning “Tarih ul-Malik az-Zohir” nomli asarida Sulton Baybars va uning davri haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Asarda Sulton Sayfiddin Qutuz tomonidan Ayn Jalut jangiga tayyorgarlik, bu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar xususida ma’lumotlar taqdim etiladi. Yana bir mashhur qozi, diplomat hamda tarixchi Abu Abdulloh Jamoladdin Muhammad ibn Vosil (1208-1298) 1285-yilda yozilgan “Mufarrij al-qurub fi axbar bani Ayyub” (“Ayyubiylar tarixiga oid tashvishlarni tarqatuvchi”) asarida Ayyubiy sulolasining Turkiya saljuqiylari, xorazmliklar, salibchilar va mo‘g‘ullar bilan aloqalari, mo‘g‘ullarning Suriyaga bosqini, Ayyubiylar oilasining bu

davrdagi ahvoli va Ayn Jalut arafasidagi voqealar bayon etilgan. Asli kelib chiqishi Uzoq Sharqqa taqaladigan Beybars al-Mansuriyning “At-Tuhfa al-mulukiyya fi l-davla al turkiyya” asarida Bahriy mamluklar davri haqida hikoya qilinadi.

Damashqlik Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiyning “Islom tarixi” asari ham mavzumizga taalluqli eng muhim manbalardan hisoblanadi. Asar VII asr boshlaridan 1301-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Unda Sayfiddin Qutuzning vafot etishi, Ayn Jalut janggi oldidan sodir bo‘lgan ayrim voqealar bayon etiladi. Salibchilarning mo‘g‘ullar bilan aloqalari, Sayfiddin Qutuzning Akka salibchilari bilan uchrashuvi haqida Nasiriddin Muhammad ibn Furotning “Davlatlar va hukmdorlar tarixi” (“Tarixi duval val mulk”) asarida muhim ma’lumotlarni olish mumkin.

Sarimuddin Ibrohim Do‘qmaqning “Nus’het ul enam fi tarixi Islam” (“Islom tarixiga sayohat”) nomli asarida mo‘g‘ullarning Suriya va Jazira yerlarini bosib olishi, bahriy mamluklari davlatining tashkil topishi, Xuloguning Qutuzga yo‘llagan maktubi, Ayn Jalut jangi, Qutuzning o‘ldirilishi, Xulogu hamda Oltin O‘rda munosabatlari bilan bog‘liq voqealar keltiriladi.

Maqriziyning shogirdi Ibn Tangriberdining (1411-1470-yy.) “an-Nujum al-zahira fi muluk Misr val-Qohira” (“Misr va Qohira shohlarining yorqin yulduzlari”) asari ham tadqiqot davrini o‘rganishda eng muhim manbalardan biridir.

Yuqorida keltirgan manbalarimiz aynan Misr va Mamluklar davriga taalluqli manbalar sanalsa, quyida keltiradigan manbalarimiz jahon tarixining umumiy voqealarini bayon qiluvchi, geografik jihatdan kengroq bo‘lgan hududlarni ifoda etadi. Albatta, bu o‘rinda mazkur manbalarda bevosita yoki bilvosita mamluklar davriga, Sayfiddin Qutuz bilan bog‘liq voqealarga ham murojatlar qilinadi.

Shu manbalardan dastlabkisi O‘rta asrlarning eng taniqli tarixchilaridan biri, muhaddis olim Abul Hasan Izuddin Jazariy ibn Asir (1160-1233-yy.) dir. Uning “Al-komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”) asarida mo‘g‘ullarning Xorazmshohlar hamda musulmon dunyosini bosib olishiga guvoh bo‘lgan kishilardan eshitganlarini qayd etgan edi.

Otasi va amakisi Ayn Jalut jangida bevosita ishtirok etgan Abul Fidoning “el-Muhtasar fî Ahbari’l-Besher” asarida Ayyubiylar davrining so‘nggi va Mamluklar davrining dastlabki yillari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Abul Fidoning mazkur asarida keltirilgan ma’lumotlardan keyingi tarixchilar tomonidan ko‘p bora foydalanilgan.

Bobosi Ayyubiylarga, otasi esa Bahriy Mamluk saroyida xizmat qilgan, asli turk mamluki bo‘lgan tarixchi Sayfiddin Abu Bakr Devadoriy o‘zining “Kanz al-durar va-jomi’ al-g‘urar ” (“Marvaridlar xazinasi va yorqin buyumlar to‘plami”) deb nomlangan asarida Huloguning Mamluklarga yuborgan maktubi, Ayn Jalut jangi, Sultonning Sayfiddin Qutuzning harakatlari va vafoti bayon qilinadi.

Shuningdek, fiqhshunos olim, arab tili mutaxassisi va shoir Ibn al Vardiyning “Tarix ibn al-Vardiy”, Bahri Mamluk davrining buyuk tafsirshunos olimi, hadisshunos, shofe’iy faqihi va tarixchisi Ibn Kasir (vaf. 774/1373) ning “Al Bidoya van Nihoya”, Ahmad al-Ayniyning (vaf. 855/1451) “Ikdul Juman fit Tarixi ahli zamon” singari asarlarda ham Mamluklar va ayni paytda Sayfiddin Qutuz haqidagi bir qator ma’lumotlarni qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga, Temuriylar davrining mashhur tarixchisi Mirhondning “Ravzat us Safo”, nabirasi G‘iyosiddin Hondamirning “Habib us-Siyar” singari asarlarida ham bizning tadqiqot davrimizga bilvosita taalluqli bo‘lgan voqealar xususida bayon etiladi. Ayniqsa, Hondamirning “Habib us-Siyar”ida Ayn Jalut janggi haqida ham qisqa to‘xtalib o‘tiladi.

Mashhur fors tarixchisi Rashiduddin Fazlullohning Elxoniylar hukmdori G‘azonxonning iltimosiga ko‘ra yozgan “Jome at tavorix”, tarixchi, geograf va shoir Hamdulloh Qazviniyning “Tarixi Guzida” asarlarida ham Mo‘g‘ullar istilosi, unga qarshi Xorazmshohlarning harakatlari, Hulоguning Ismoiliylar yurishi hamda Mamluklarga qarshi urushi haqida ma’lumotlar qayd qilingan.

Shu bilan birga, arab va fors manbalaridan tashqari ushbu davr tarixini o‘rganishda mo‘g‘ullar istilosi va Ayn Jalut jangi bo‘lgan vaqtda yashab, asarlarida guvoh bo‘lganlari yoki guvohlardan eshitganlarini qayd etgan arman, suryoniy va yevropa tarixchilarining ham ma’lumotlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, armanistonlik mashhur tarixchilar Ganjalik Kiragos (“Tarix”) hamda Vardapet Vardan, asli ismi Vardan Areveltsi (“Dunyo tarixi”)lar o‘zlarining asarlarida Hulagu tomonidan Suriya, Mayafariqinning ishg‘ol etilishi, Ayn Jalut janggi, bu urushdagi arman va gruzin askarlari haqida bayon etganlar.

Fotimiy va Ayyubiylarga xizmat qilgan Ibn ul Amidning “Axbor ul Ayyubiyyin” asarida, bir muddat Halab metropoliti sifatida faoliyat yuritgan suriyalik Mixail yoki Malatiyning “Tarix uz Zamon” nomli umumiy tarix asarlari (asar “Abul Faraj tarixi” deb ham ataladi) da ham tadqiqot mavzusiga oid ma’lumotlarni topish mumkin.

Yettinchi salib yurishi davomida Mansura jangida Fransiya qiroli Luidovik IX bilan birga qatnashgan lord Jan de Joinvil o‘zining xotiralarida salib yurishi va Ayyubiylar qo‘shini, Bahri Mamluklarning salibchilarga qarshi kurashdagi o‘rniga to‘xtalib o‘tgan.

Umuman olganda o‘rta asr manbalari yuqorida ta’kidlaganimizdek, juda katta hajmni tashkil etadi. Ularning qaysi davr haqida va qaysi muntaqadan turib yozilgani biz o‘rganayotgan mavzuga munosabatini shakllantiradi. Bu haqida keyinroq batafsil keltiramiz.

Tadqiqot mavzuimiz doirasida foydalanish mumkin bo‘lgan manbalarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ularning mualliflari yashagan davr, yashagan mintaqa va siyosiy tuzim, mafkuraviy qarashlar ularning ma’lumotlariga turlicha ta’sir qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, arab tarixchilari Mamluklar va Sayfiddin Qutuz tarixiga islom prizmasidan qaraydi. Bu esa tarixiy voqelikda shaxslarning kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeini emas, diniy-siyosiy faoliyati yoki e’tiqodiy harakteriga urg‘u berilishiga olib keladi. O‘rta asr arab va fors mualliflarining deyarli barchasi ana shu tamoyil asosida tarix bitganlar. Bilamizki, XIV-XV asr islom tarixshunosligining markazi Misr va Shom bo‘lgan edi. Mamluk sultonlari tarixchilarni qo‘lladilar va ularga muhim vazifalar topshirdilar. Bu davrda kotiblar, diniy olimlar orasida tarixchilar shakllana boshladi [6, - P.49.].

Ammo arab va umuman islom dunyosidan tashqaridagi manbalar va adabiyotlar haqida bunday deya olmaymiz. Masalan, biz o‘rganayotgan davrda asar yozgan arman mualliflarining deyarli barchasi ruhoniylar bo‘lib, ular o‘z asarlarida nasroniylik va arman davlatchiligi g‘ayrati ostida o‘z e’tiqodlari va millatlarini

ulug‘lashga harakat qilganlar. Ular o‘z asarlarida islom va musulmonlarni qoralab, hatto mo‘g‘ullarni musulmonlarga qarshi kurashgan, nasroniylikning qutqaruvchilari, deb bilganlar [4, - S.42.].

Yevropa manbalari esa albatta musulmon dunyosini qarama-qarshi din, mintaqa, siyosat ko‘zi bilan o‘rganadilar. Turkiyalik tarixchi Muhammad Said Guler “nasroniy (xristian) mualliflarning asarlari, asosan sayohatnomalar va xotiralar (hatirat) shaklida yozilgan bo‘lib, mo‘g‘ullar va ularning islom mamlakatlariga bostirib kirishlari haqidagi ma’lumotlar juda kam va ko‘pincha xatolarga to‘la” ekanligi haqida aytadi [4, - S.42.].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mamluklar davlati va Sayfiddin Qutuz tarixi bayon etilgan barcha manbalarni tahliliy tadqiq etish natijasida turli diniy tafakkur, siyosiy iroda egalari tomonidan bildirilgan fikrlarni kuzatish, ulardan esa tegishli, obyektiv xulosalar chiqarish imkoniyati vujudga keladi. Ammo tadqiqotchidan, o‘rta asr arab, fors, xristian, arman manbalaridagi diniy-fanatik, siyosiy qarashlarni tom ma’nodagi haqiqat deb qabul qilmaslik talab etiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Carl F. Petry. The Mamluk Sultanate A History. Northwestern University, Illinois. - Cambridge University Press, 2022. – P 358.
2. John Masson Smith Jr., “Ayn Jālūt: Mamlūk Success or Mongol Failure”, Harvard Journal of Asiatic Studies, Vol. 44/2, (December 1984), - 307-345 p.
3. Marc Mercier. A mamluk history bibliography. – 1999. – P 264.
4. Muhammed Said Güler. Moğol istîlâsi ve Aynicâlût savaşi. Yüksek lisans tezi. –Istanbul, 2018.- S. 394.
5. Reuven Amitai-Preiss, Mongols and Mamluks (Mamluk-İlkhānid War 1260-1281), Cambridge University Press, Cambridge 1996. – P 272.
6. Saidakbarov X.S. Central Asian journal of academic research. Volume 2, Issue 6, Part 2 June 2024. – 46-50 p.
7. Становление государства мамлюков в Египте во второй половине XIII века / А. Филиппов. – Минск : ИВЦ Минфина, 2021. – С 352.
8. https://www.academia.edu/3477237/An_mamluk_history_bibliography_pdf
9. https://www.youtube.com/watch?v=aBBlNtUHrEk

ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLAR VA UNDA AYOLLAR MASALASI

Bahridil ERGASHEVA
Fanlar Akademiyasi Tarix instituti
tayanch doktoranti
bahridilergasheva5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Turkiston jadidlarining yorqin vakili bo‘lgan Abdurauf Fitratning “Oila” asarining farzand tarbiyasi haqidagi qarashlari, milliy tarbiya an’analarining etnografik*

jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda ota-ona, ayolning oiladagi roli, bolalarni tarbiyalash usullari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tarixiy-etnografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. ***Kalit so‘zlar:*** *Millat, oila, ayol, farzand, milliy tarbiya, qadriyat, gender munosabatlari, ma’naviy tiklanish, ahloq.*

Annotation: *This article is dedicated to the study of the views on child-rearing in the work "Family" by Abdurauf Fitrat, a prominent representative of the Jadids of Turkistan. The study explores the ethnographic aspects of national education traditions, the role of parents and women in the family, methods of child-rearing, and their impact on societal development from a historical-ethnographic perspective.* ***Keywords:*** *Nation, family, woman, child, national education, values, gender relations, spiritual revival, morality.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению взглядов Абдурауфа Фитрата — яркого представителя тюркестанских джадидов — на воспитание детей в его произведении «Семья», а также этнографическим аспектам национальных воспитательных традиций. В исследовании с историко-этнографической точки зрения анализируются роль родителей и женщины в семье, методы воспитания детей и их влияние на развитие общества.* ***Ключевые слова:*** *Нация, семья, женщина, ребёнок, национальное воспитание, ценности, гендерные отношения, духовное возрождение, нравственность.*

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi [6]. Tarbiyadan ko‘zlangan maqsad, bolada insoniy xulq-atvorni, mehnatsevarlikni, ijtimoiy mas`uliyat va o‘z xalqining ma’naviy qadriyatlariga sodiqlikni shakllantirishdan iboratdir. Garchi mavhum tushuncha bo‘lsada, komil insonni shakllantiruvchi asosiy xatti harakat va bolani ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi jarayondir. Shuningdek. tarbiya also kechiktirib bo‘lmas jarayon bo‘lib, u hamisha bir xalq, millatning ma’naviy, moddiy me`rosini o‘zida jamlab, oilaviy qadriyatlari va ma’naviy me`yorlarini shaklantirish va uni kelgusi avlodga yetkazishdek muhim vazifani bajaradi. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar, avvalo oiladagi tarbiya uslublari o‘zgarishi bilan bog‘liqligi etnografik tadqiqotlar jarayonida isbotlangan.

20-yuzyillik boshlarida Turkiston hududida, ayniqsa, mustamlakachilik davrida milliy tarbiya an’analarining susayishi, ayollar huquqlarining cheklanishi va qullik ongining kuchayishi kabi jarayonlar avlodlarning ruhiy kamolotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bir qator olimlarning asarlarida bu masalalar chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ularning fikricha, jamiyatning qayta qurish faqat ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tiklash va tarbiyani ilm-fan asosida qurish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiya jarayonining muhimligi haqida diniy va yozma manbalarda ham bir qator fikrlar mavjud. Xususan, tarbiyachining yaxshi bo‘lishi [5, – B.14.], insonga beriladigan eng yaxshi narsalarning eng afzali yaxshi odob ekanligi [4, – B.237.] hamisha muhim masalalardan biri bo‘lgan. Alisher Navoiy “Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat-hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye` qilma va minga tarbiyatingni zoye qilma [2, – B.107.]” deya tarbiyaning ota-onadan ekaniga ishora qiladi. Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida aynan shu masala yoritilgan bo‘lib, o‘z zamonasining mavjud tarbiya usullari va jamiyatdagi kamchiliklar haqida yozilgandir. Fitratning qarashlariga ko‘ra ham,

tarbiya juda muhim jarayon bo‘lib, “Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo‘lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo‘ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo‘ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo‘ladi [1, – B.29.]” deb fikrini bildirib o‘tadi. Axloqli farzandlar esa xushaxloq iymon sohibi bo‘lgan ota-onadan bo‘ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo‘lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o‘sgan farzand ham badaxloq bo‘lishiga [1, – B.29.] ishonadi.

Shuningdek, Fitrat o‘z asarida tarbiyaning turlari sifatida badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya kabi turlarga bo‘lib, ularni bir biridan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ular bir-birlariga shunday bog‘liq va yaqinki, biriga zarar tegsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo‘ladi. Biriga foyda tegsa, boshqalari ham undan bahramand bo‘ladilar [1, – B.79.].

Ma’lumki, inson en muhim va ilk tarbiyani ona bag‘rida oladi. Tarbiya insonning ruhi va ahloqini kamol toptirar ekan, shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi [1, – B.42.]. Shuning uchun ham, oilada tarbiyachi bo‘lgan ayollarga bo‘lgan munosabat, ular tarbiya qilgan farzand va jamiyatga ham ta’sir o‘tkazadi. Fitrat farzandni ona tarbiyalar ekan ularning hollaridan ko‘p tashvishga tushadi. Ularga nisbatan biz cho‘ridek munosabatda bo‘lar ekanmiz, ular o‘z navbatida ular o‘zlari kabi cho‘ri va qullarni tarbiyalashini kuyunchaklik bilan qalamga oladi. Jamiyatdagi ayollarga bo‘lgan munosabatni qoralab, “Kim bizdan zaifroq bo‘lsa, unga o‘ylamasdan ozor beramiz. Bizdan kuchli bo‘lgan kishining esa, otining tuyog‘ naqshiga sajda qilamiz. Shak-shubhasiz, bular shunday onalar tarbiyalarining natijasidir [1, – B.42.] deya jamiyatdagi bu illatlarni ildizi sifatida, quldek, cho‘ridek muomila qilingan onalar tomonidan tarbiya qilingan avlodning kamchiligi deb biladi. Qachonki, jamiyatni rivojlantirish uchun, avvalo onalarni bilimli, haq huquqini tanigan qilib tarbiyalasak, shundagina maqsadga erisha olish mumkinligini kuyunib yozib o‘tadi. Bu asar nafaqat oilaga bag‘ishlangan, balki, undan o‘sha davrning ijtimoiy manzarasini tasavvur etishimiz, ayol va qizlarga bo‘lgan munosabatni o‘rganib olishimiz mumkin.

Buning uchun avvalo oilada teng huquqlilikni targ‘ib etadi. Bunga asos qilib esa Quroni karimning Baqara surasining 228-oyatini asos qilib olib, erning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo‘lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday haqqi borligini [3, – B.45.], bu esa ayollarga nisbatan xushmuomila bo‘lish kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liqligini [1, – B.70.] ta’kidlaydi. Zero, jamiyatning taraqqiyotini onalarning bilimli, haq-huquqlarini bilishi belgilaydi.

Shu o‘rinda Fitratning farzand tarbiyasidagi yosh tasnifi ham juda muhim hisoblanadi. U jarayonni u butun umr davom etadigan xodisa hisoblab, “tarbiyaning har bir qismi tug‘ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o‘z boshiga tushadi [1, – B.80.]” deb yosh bosqichlariga

tasniflab chiqadi. Bunda esa oila va jamoaning o‘rnini yuqori ekani, tarbiya jarayoni esa to inson umri yakuniga yetgunicha davom etishini aytib o‘tadi.

Dastlab asosan badan tarbiyasi berilib, bu go‘dakning tug‘ilganidan to sutdan chiqqunga qadar davom etadi. Bunda uning badanini tozaligidan tortib to beshikka qanday belash usullari, ovqatlanish me`yori va tarkibi muhimligini Fitrat tashvish bilan ta’kidlab o‘tadi. Fitrat keyingi o‘rinda aql tarbiyasini muhim deb hisoblaydi. Aqliy tarbiya esa bu odam zehni, aql-idrokini kamolga yetkazishdir [1, – B.98.]. Aqliy tarbiya faqatgina bilim olish emas, balki, idrok etish qobilyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, dunyoqarshini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Buning uchun esa zamonaviy vositalardan oqilona foydalanib, dunyoviy fanlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini o‘z dasturlarida amalga oshirishga harakat qiladi. Fitratning ta’kidlashicha, aql kamolini yaxshi bilmoq, yaxshi o‘rganmoq va mukammal fikr qilmoqdir [1, – B.98.].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbek oilalarida farzand tarbiyasining milliy rivojlanishi chuqur tarixiy, madaniy va diniy ildizlarga ega bo‘lib, etnografik nuqtai nazardan o‘ziga xos ko‘p qirrali tizimni aks ettiradi. Tarbiya jarayoni asosan oila tuzilmasi asosida shakllanib, bolaning yaqinlari ota-onasi, bobo-buvilari tomonidan beriladi va bunda onaning mas`uliyati juda yuqori hisoblanadi. Bolaning har taraflama mukammal shakllanishi esa avvalo onaning bilimi, dunyoqarashi va unga bo‘lgan oila a’zolarining munosabatiga bog‘liq. Shu bilan birga, o‘zbek xalqining farzand tarbiyasi ijtimoiy va diniy jihatlarning qorishuvi asosida shakllanibgina qolmasdan, balki xalqning dunyo qarashiga xos tarzda rivojlangan. U tarixiy an'analar, jamoaviy mas'uliyat va ramziy marosimlar orqali shakllanib, bolalarni o‘zbek xalqining ma’naviy va madaniy merosiga bog‘laydi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tarbiyasi rivojlanishiga yangi savollar, bu esa etnografik natijalar uchun qiziqarli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurauf Fitrat. Oila. Toshkent. Cho‘lpon. 2013.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-Qulub. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018.
3. Qur’oni Karim. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti. 2021.
4. Rafiq Abdur Rahman. Imam Muhammad bin Ismail al-Bukhari. Manners in islam. (Al adab al mufrad) Dar AI-Kotob Al-llmiyah – Beirut. 2015.
5. Авесто. Асқар Махкам таржимаси. Тошкент. Шарқ нашриёти. 2001 й.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya

XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONDA IMLOVIY O`ZGARISHLAR TARIXINI O‘RGANISHDA MANBALAR TAHLILI VA TAVSIFI

Xurshid AHMADOV
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
ahmadovxurshid76@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola XX asrning 20-30 – yillarda Turkiston ASSR va O`zbekiston SSRda bo`lib o`tgan imloviy o`zgarishlar tarixi haqida asosiy ma`lumot beradigan manbalar tahlili va tasnifi haqida yozilgan bo`lib, unda mahalliy rahbarlar va milliy ziyolilar munosabati va imlodagi leksik, fonetik, grammatik o`zgarishlar, tildagi singarmonizm qonuniyatlari haqida keng ma`lumotlar mavjud.* ***Kalit so`zlar.*** *Imlo, manba, islohot, arab alifbosi, lotinlashtirish, kirillashtirish, sovet hukumati, milliy ziyolilar, imloviy o`zgarishlar, gazeta, jurnal, arxiv manbalari.*

Аннотация: *В статье анализируются и систематизируются источники, дающие основные сведения об истории изменений орфографии, происходивших в Туркестанской АССР и Узбекской ССР в 20-30-е годы XX века. В нем содержится обширная информация о взглядах местных лидеров и национальной интеллигенции, лексических, фонетических и грамматических изменениях в правописании, а также о законах сингармонизма в языке.* ***Ключевые слова.*** *Орфография, источник, реформа, арабский алфавит, латинизация, кириллизация, советская власть, национальная интеллигенция, изменение орфографии, газета, журнал, архивные источники.*

Annotation: *This article is about the analysis and classification of sources that provide basic information about the history of spelling changes that took place in the Turkestan ASSR and the Uzbek SSR in the 20s-30s of the 20th century. It contains extensive information about the attitude of local leaders and national intellectuals, lexical, phonetic, and grammatical changes in spelling, and the laws of synharmonism in the language.* ***Keywords:*** *Spelling, source, reform, Arabic alphabet, Latinization, Cyrillicization, Soviet government, national intelligentsia, spelling changes, newspaper, magazine, archival sources.*

XX asrning birinchi yarmida, ya`ni 1917 – 1941 – yillarda O`zbekiston hududida imloviy o`zgarishlar va islohotlar davri bo`ldi. Bu davrda mahlliy rahbar xodimlar va ziyolilar, bundan tashqari chet el tadqiqotchilari imloviy o`zgarishlar haqida munosabat bildirishgan. Bu jarayonlarga bo`lgan munosabatlar mazkur davrdagi gazeta jurnallarda, arxiv manbalar va ziyolilarning asarlarida o`z aksini topgan. Mazkur davrda yuz bergan o`zgarishlar tarixi haqida eng ko`p ma`lumot beradigan manbalar bu – davriy nashriyotlar hisoblanadi.

“Ishtirokiyun” gazetasi 1918 – yil 21 – iyundan boshlab Toshkentda chiqa boshlagan gazeta hisoblanadi. Mazkur gazetada 1919 – yildan boshlab imloviy islohotlar haqida turli xil maqolalar nashr etila boshlandi. Gazetaning 1919 – yildagi sonida “Chig`atoy gurungi”ning til va imlo to`dasi haqida [1, – B. 5.], 1920 – yilning sonlarida Elbekning (Mashriq Yunusov, 1898 – 1939 yy) “Imlo masalasi” mavzusida maqolalari nashr etilgan. Maqolada Elbek imlo masalasi ko`p tortishuvlarga sabab bo`layotgani, lekin haligacha aniq bir echimga kelinmaganini ta`kidlagan. Bundan tashqari kimdir yangi narsa ixtiro qilsa uni darrov ma`qullash emas, avval ko`rib, muhokama qilib kamchiliklari tuzatilishi lozimligini bildirgan. Maqola fikr yuritilayotgan davr uchun yangilik va imlo islohotlariga oid yangicha g`oya bilan sug`orilgan edi [2, – B. 7.]. “Ishtirokiyun” gazetasi 1920 – 1922 – yillarda “Qizil bayroq” nomi bilan faoliyat yuritgan va mazkur davrda imlo, alifbo masalasida juda ko`plab maqolalar e`lon qilingan. Masalan, 1921 – yil 1 – 5 – yanvar kunlari Toshkentda bo`lib o`tgan “Til va imlo” qurultoyi tafsilotlari, imlo islohoti haqida qilingan ma`ruzalar keltirilgan [3, - B. 12.], gazetada shu yilgi sonlarida Otajon Hoshimov ham imloga doir o`z munosabatini bildirib maqola yuborgan edi. Mazkur maqolada Otajonn Hoshimov Toshkentda bo`lib o`tgan konferensiya qarorlariga to`liq rioya qilishni, ammo bu qarorlarda hali kamchiliklar mavjudligini aytib o`tib,

keyinchalik o`zbek xalqi butun Yevropa foydalanayotgan lotin alifbosiga o`tishi mumkinligini oldindan aytgan [4, – B. 19.], milliy imlo islohoti to`g`risida Shokirjon Rahimiy (1898 – 1938) “Birinchi o`zbek alifbosi muallifi” “Qizil bayroq”dagi maqolasida Maorif qurultoyiga o`zbek imlosi asoslari bo`yicha yozgan [5, – B. 13.]. 1925 – 1933 – yillarda “Maorif va o`qitg`uchi” nomi bilan yuritilgan gazetda ha imlo, til, alifbo, yozuv masalalari haqida ko`plab ma`lumotlar bor. “Maorif va o`qitg`uchi” jurnali muharriri Mannon Ramziy (1895 – 1938) yuqoridagi jurnalgadagi maqolasida lotin alifbosi xalq va hukumat idoralari orasida ommalshib borayotgani borasida bir qancha ma`lumotlar bergan [6, – B. 17.]. Bundan tashqari 1928 – 1930 – yillarda Samarqandda “Alanga” jurnali chop etilgan. Mazkur jurnalning deyarli barcha sonida til, imlo va alifbo haqida ko`plab maqolalar mavjud. Bunga bir misol jurnalning 3 – 4 sonlarida O`zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo`jayev (1896 – 1938) mamlakatda yangi lotin alifbosi joriy etilishi omillari va sabablari haqida maqola bergan [7, – B. 21.]. 1925 – yildan boshlab “Qizil O`zbekiston” nomi bilan gazeta chop etila boshlandi, Mannon Ramziy matbuotdagi bir maqolasida 1929 – yilda bo`lib o`tadigan Samarqanddagi Til va imlo qurultoyi haqida ma`lumot berib o`tagan [8, – B. 20.]. Bundagi maqolada Ramziy 1929 – yilda Samarqandda bo`lib o`tgan til va imlo qurultoyi tafsilotlarini yoritgan. 1941 – yilgacha bu gazetada juda ko`p maqolalar nashr etilgan, 1929 – yil lotin alifbosiga o`tish, 1938 – yildan boshlab kirillashtirish siyosatiga doir masalalar, kirill alifbosining joriy etilishi va unga bo`lgan munosabatlarning tarixini o`rganish manbasi sifatida bilish mumkin. Masalan, To`xtasin Jalilovning “Imlomiz haqida ba`zi mulohazalar” maqolasida lotin imlosi fidoiylari, o`zbek milliy imlosining o`ziga xosligi va singarmonizm maslalarini himoyalab chiqgan Otajon Hoshimov va Qayyum Ramazonlar qoralangan [9, - B. 10.]. Gazetalardagi imloga oid maqolalarda singarmonizm haqida ham ko`plab ma`lumotlar uchraydi. Zokir Ma`ruf, Ayub G`ulom, Alim Usmonlar tomonidan rus imlosi orfografiyasi haqida maqola berilgan, bunda redaksiya maqolaga quyidagicha munosabat bergan: “Bu maqoladan ko`rinadiki, avtorlarning singarmonizm haqidagi tushunchalarida aniqlik yoq. Shunday bo`lsa ham, redaksiya bu o`rtoqlar tomonidan qilingan takliflarning amaliy ahamiyati borligini e`tiborga olib bu maqolani bosadi [10, – B. 3.].

Gazeta jurnallardan tashqari mahalliy va chet el olimlari asarlarida, shuningdek, jadidlarning tanlangan asarlarida mazkur davr imloga doir masalalar ko`p. Masalan, Abdurauf Fitratning “Tanlangan asarlari”ning III jildida “Yopishmagan gajjaklar”maktubi mavjud. Bu maktubda Abdurauf Fitrat o`rtoq Boybulatovning davriy nashriyotda e`lon qilgan Fitrat boshchiligidagi “Chig`atoy gurungi”ni panturkizmda ayblagan maqolasiga javob xati hisoblanadi [11, – B. 66.], Hoji Muinning 1918 – yil 16 – iyulda “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida bosilib chiqqan “Til masalasi”da har bir o`zbek hayoti va huquqini qanday muhofaza etsa, “turkiy til” (o`zbek tili)ni ham shunday muhofaza qilmoshi shart ekanligini ta`kidlagan edi [12, – B. 80.], Elbekning 1999 – yilda Toshkentda nashrdan chiqqan “Tanlangan asarlar”ida alohida tilshunoslikka oid bo`limida “Imlo masalasi”, “Boshlang`ich maktabda ona tili”, “Yozuv yo`llari” kabi masalalarda imlo haqida ko`plab ma`lumotlar mujassamlashtirilgan[13, – B. 103.]. Elbek bilan bir qatorda 1904 – 1938 – yillarda yashab ijod etgan Botu taxallusi bilan shuhrat qozongan o`zbek milliy ziyolisi

Mahmud Hodiyev XX asrning birinchi yarmidagi imloviy islohotlarga o`z munosabatini qo`shgan olim hisoblanadi. Botuning “Tanlangan asarlar”ining “Maqolalar” bobida “Til va imlo masalasi ustida bir necha so`z”, “Til va imlo konferensiyasi yakunlari” [14, – B. 192.] va boshqa imloga doir masalalar o`rin olgan. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda mazkur davr til va imlosi bo`yicha filolog olimlar Hamidulla Boltaboyev, Hasaboy Jamolxonov, To`lqin Tog`ayev va boshqa ko`plab olimlar kitoblar chop etishgan. Bundan tashqari H. Jamolxonovning “Основы узбекской графики” asarida Botuning imloga doir munosabatlari haqida ma`lumotlar bor [15, – B. 21.]. XX asrning birinchi yarmidagi til va imlo islohotlarini yorigan taniqli turkolog olim Eltazarov Jo`liboy “O`zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan” nomli monografiyasida XX asrning birinchi yarmidagi imlo o`zgarishlari yoritilgan [16, – B. 120.].

XX asrning 20 – 30 – yillarda lotin imlosini joriy etish bo`yicha arxiv manbalarida ham ko`plab ma`lumotlar mavjud. Masalan, O`zbekiston milliy arxivining R-86,R-17,R-34,R-864,R-36,R-47 va boshqa fondlarda ko`plab ma`lumotlar uchraydi. Bular orasida R-86 fondda yangi lotin alifbosi asosida nashr etilayotgan gazeta va jurnallar haqida ma`lumot keltirilgan, “Alanga”,”Qizil tamg`a”, “Yosh kuch”, “Yangi Farg`ona”, “Sharq haqiqati”, “Ozod Buxoro”, “Yosh leninchi”, “Qutulish” va boshqalar shular jumlasidan. Manbada bu gazeta va jurnallar to`liq yangi alifboda yoki qisman o`tilganligi bayon etilgan [17, – B. 13.]. R-86 fondning 5205-jildida 1930 – yil 7 – noyabrgacha yangi alifboga o`tish jarayonlarini tugatish bo`yicha qaror berilgan. Bunda ishchilar tayyorlash maktablarida, idoraviy tashkilotlarda, poligrafiya ishlari, vaqtli matbuot ishlari yangi alifboga ko`chirish ishlarini tugatish belgilangan. Arab alifbosida butun Respublika bo`yicha 240 ming fuqaro savodli ekanligi, ularni ham yangi alifboda savodli qilish kerakligi ta`kidlangan [18, – B. 81.]. R-34 fondda arab imlosi bo`yicha isloh qilish masalalari, musulmon yozuvi bo`yicha ma`lumotlar mavjud. Masalan, bu fondda Elbekning “y”, “k”, “ng”, harflari haqidagi fikrlari Davlat ilmiy kengashiga yuborilganligi haqida ma`lumot bor [19, – B. 32.]. Bu manbalar O`zbekiston milliy arxivida saqlanmoqda. Arxiv hujjatlari sovet davri O`zbekiston tarixini o`rganish uchun asosiy manbalardan biridir, bu manbalar turli xil guruhlarga tasniflangan. Davr va soha jihatidan alohida alohida belgilab qo`yilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur davrda o`zbek imlosi keskin davrni boshidan kechirdi. Dastlab arab imlosi mahalliy ziyolilar tomonidan isloh qilish davri boshlandi, markaz bu islohotlarni nazoratga olishga intildi va Mustshrift masalalari haqida turli qarorlar yuborildi. Yuqoridagi o`zgarishlar tarixini biz fikr yuritilayotgan davrdagi gazeta, jurnal, arxiv manbalari, mazkur davr ziyolilari, mahalliy rahbarlar yozgan asarlar, hozirgi davr tarixchi va filolog olimlari ijodidan va chet el olimlari ijodidan ma`lumot olsak bo`ladi. Manbalar respublikamizning mahalliy va markaziy kutubxonalari va arxivlarida saqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. “Chig`atoy gurungi”. Ishtirokiyun gazetasi. – 1919 – yil, 4 – fevral, 66 – son
2. “Chig`atoy gurungi”. Ishtirokiyun gazetasi. – 1919 – yil, 4 – fevral, 66 – son

3. S. Imlo haqida birinchi kengash o`ltirishi // Qizil bayroq gazetasi – 1921 – yil, 1 – yanvar. 10 – son.
4. Otajon Hoshimov. Toshkent konferensiyasida imlo masalasi // Qizil bayroq gazetasi – 1921 – yil, 11 – yanvar. 13 – son
5. Shokirjon Rahimiy. O`zbek imlosi to`g`risida asoslar // Qizil bayroq gazetasi – 1922 – yil, 22 – mart. 155 – son
6. Mannon Ramziy. Alanga // Alanga jurnali – 1928 – yil. Yanvar, 1 – son.
7. Fayzulla Xo`jayev. Yangi alifbe to`g`risida // Alanga jurnali – 1928 – yil. Mart - aprel, 3 – 4 – son
8. Mannon Ramz. Muhim ilmiy konferensiya oldidan // Qizil O`zbekiston gazetasi – 1929 – yil, 16 – yanvar. 13 – son
9. To`xtasin Jaliliy. Imlomiz haqida ba`zi mulohazalar // Qizil O`zbekiston gazetasi – 1938 – yil, 8 – aprel. №80
10.Zokir Ma`ruf, Ayub G`ulom, Alim Usmonlar. Orfografiya masalalari to`g`risida // Qizil O`zbekiston gazetasi – 1938 – yil, 5 – sentabr. №205
11. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж. III. Дарслик, ўқув қўлланма илмий мақола ва тадқиқотлар/ Таҳрир ҳаяти: О. Шарафиддинов, Н. Каримов, Д. Алимова ва бошқ.: Изоҳлар муаллифи: Ҳ. Болтабоев; Масъул муҳаррир: Б. Қосимов. – Т.: “Маънавият”, 2003. – 256 б
12. Ҳожи Муин. Тил масаласи / Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 80
13. Элбек. Танланган асарлар // Сўз боши муаллифи: Ҳ. Узоқов; Масъул муҳаррир: Ш. Салимова; Таҳрир ҳайъати: И. Раҳим ва бошқ. / . – Т.: “Шарқ”, 1999 – 288 б.
14. Боту. Танланган асарлар // Масъул муҳаррир: Н. Каримов; Нашрга тайёрловчилар: Н. Каримов, Ш. Турдиев. / . – Т.: “Шарқ”, 2004 – 192 б. // Боту. Танланган асарлар // Таҳрир ҳайъати; Наим Каримов, Улуғбек Долимов, Бойбўта Дўстқораев, Суннат Ахмедов, Ҳалим Саидов. / . – Т.: “Маънавият”, 2016 – 248 б.
15. Джамалханов Х. Основы узбекской графики. – Ташкент: Фан, 1991, с.21
16. Eltazarov J.D. O’zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). –Samarqand: SamDU nashri, 2017 . -120 bet.
17. ЎЗ МА, Р-86 – фонд, 1-рўйхат, 4483-йиғма жилд, 11-13 – варақлар.
18. ЎЗ МА, Р-86 – фонд, 1-рўйхат, 5205-йиғма жилд, 72-81 – варақлар.
19. ЎЗ МА, Р-34 – фонд, 1-рўйхат, 2117-йиғма жилд, 32 – варақ.

ZIYORAT TURIZMINING RIVOJLANISH TARIXI (2017-2025-YILLAR)

Farhod KADIROV
Oriental universiteti 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi
farhodq045@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2017–2025-yillar davomida ziyorat turizmining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Diniy qadriyatlar asosida shakllangan ziyorat turizmining mamlakatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi roli, infratuzilmaning yaxshilanishi, yangi ziyorat maskanlarining tiklanishi va xorijiy sayyohlarni jalb etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston, Saudiya Arabistoni, Eron, Turkiya kabi davlatlardagi muhim o‘zgarishlar va strategik tashabbuslar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, pandemiya (COVID-19) davrining salbiy ta’siri va undan keyingi tiklanish jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Ziyorat turizmi, diniy turizm, tarixiy maskanlar, infratuzilma, pandemiya, raqamli texnologiyalar, ziyoratchi, turizm strategiyasi, xalqaro hamkorlik.*

Annotation: *This article analyzes the development stages of pilgrimage tourism from 2017 to 2025. It highlights the role of pilgrimage tourism, which is based on religious values, in strengthening international cultural ties, improving infrastructure, restoring new pilgrimage sites, and the reforms implemented to attract foreign tourists. Specifically, the article discusses significant changes and strategic initiatives in countries such as Uzbekistan, Saudi Arabia, Iran, and Turkey. The negative impact of the pandemic (COVID-19) and the recovery process afterward, as well as the application of digital technologies, are also analyzed.* ***Keywords****: Pilgrimage tourism, religious tourism, historical sites, infrastructure, pandemic, digital technologies, pilgrim, tourism strategy, international cooperation.*

Аннотация: *В этой статье анализируются этапы развития паломнического туризма в период с 2017 по 2025 год. Рассматривается роль паломнического туризма, основанного на религиозных ценностях, в укреплении международных культурных связей, улучшении инфраструктуры, восстановлении новых паломнических мест и проведении реформ, направленных на привлечение иностранных туристов. В частности, обсуждаются значительные изменения и стратегические инициативы в таких странах, как Узбекистан, Саудовская Аравия, Иран и Турция. Также анализируется негативное воздействие пандемии (COVID-19) и процесс восстановления после нее, а также использование цифровых технологий.* ***Ключевые слова****: Паломнический туризм, религиозный туризм, исторические памятники, инфраструктура, пандемия, цифровые технологии, паломник, туристическая стратегия, международное сотрудничество.*

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida turizm sohasi keskin rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, diniy qadriyatlar va tarixiy yodgorliklarga asoslangan ziyorat turizmi turli xalqlarni birlashtiruvchi, ularning ma’naviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etmoqda. 2017–2025-yillar davomida ziyorat turizmi ko‘plab mamlakatlar, xususan, O‘zbekiston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron singari davlatlar uchun muhim iqtisodiy va madaniy yo‘nalishga aylandi. Bu davrda sohaga oid ko‘plab islohotlar amalga oshirildi, infratuzilma rivojlantirildi va zamonaviy texnologiyalar joriy qilindi. Investitsiya bu iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish, ya’ni investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag‘lar qo‘yishdir. Dunyodagi mustaqil davlatlar borki barchasining rivojlanish jarayonida investitsiyaviy faoliyat natijalariga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Davlatni har taraflama rivojlanishi uchun uning iqtisodiyotini rivojlantirish lozim. Shu maqsadda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida, bozor mexanizmi va tamoyillariga mos mulkchilik va xo‘jalik yuritishning turli shakllari paydo bo‘ldi, davlat mulki ulushining salmog‘i kamayib, yalpi ichki mahsulot qiymatida nodavlat muassasalar hissasining oshish darajasi ta’minlandi[1]. Buning davomi sifatida davlat

budjetining daromad qismida ham moliyaviy tushum manbalari tarkibi o‘zgarib, kapital mablag‘larning markazlashgan taqsimotidan investitsiyalashning markazlashmagan manba va bozor subyektlarini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratildi. Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda asosan moliya resurslarini davlat maqsadli dasturlari va

Mamlakatimizda investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish”gi 621-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvar “Respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-20-son qarori,

Turzmni jalb etish agentligining asosiy vazifalari sifatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko‘maklashish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi istiqbolli va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari ma’lumotlarining axborot bazasini shakllantirish va yuritish, ularning amalga oshirilish holati ustidan doimiy monitoring olib borish, respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini keng targ‘ib qilish va ilgari surishni, yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar, afzalliklar haqida chet el ishbilarmon doiralari orasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borishni tashkil etish,

Ziyorat turizmi — bu insonlarning diniy ehtiyojlarini qondirish, muqaddas joylarga tashrif buyurish, tarixiy yodgorliklarni ko‘rish orqali ma’naviy qoniqishga erishishga yo‘naltirilgan turizm shaklidir. U milliy o‘zlikni anglash, madaniy almashinuv va xalqaro aloqalarni kuchaytirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega [2]. Ziyorat turizmini rivojlanishini bir necha bosqichga bo’lish mumkin.

2017–2019-yillar: Faol islohotlar bosqichi.

Bu davrda bir qancha musulmon davlatlari, jumladan O‘zbekiston, ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev tomonidan “ziyorat turizmi”ni rivojlantirishga doir qarorlar va dasturlar qabul qilindi[3]. Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent kabi shaharlar muqaddas joylarga boy bo‘lganligi sababli xorijiy sayyohlar uchun alohida qiziqish uyg‘otdi.

2020–2021-yillar: Pandemiya ta’siri.

COVID-19 pandemiyasi global miqyosda ziyorat turizmini deyarli to‘xtatdi. Haj va Umra ziyoratlari cheklab qo‘yildi, ko‘plab ziyorat maskanlari vaqtincha yopildi. Bu davrda turizm sohasi jiddiy zarar ko‘rdi [4]. Biroq bu holat davlatlar uchun raqamli transformatsiyani tezlashtirishga turtki bo‘ldi.

2022–2025-yillar: Tiklanish va innovatsion rivojlanish.

Pandemiyadan so‘ngra ziyorat turizmi yana jonlanishni boshladi. Ko‘plab davlatlar raqamli xizmatlar, onlayn bron qilish tizimlari, audio gidlar, virtual ekskursiyalar kabi zamonaviy vositalarni joriy etdilar[5]. Ayniqsa, O‘zbekiston “ziyorat turizmi” bo‘yicha ixtisoslashgan turoperatorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni boshladi. Xalqaro hamkorlik doirasida turizm yarmarkalari va madaniy tadbirlar tashkil qilindi.

Shuningdek, muqaddas joylarda xizmat ko‘rsatish sifati oshirildi, yangi mehmonxonalar, yo‘llar, transport infratuzilmalari qurildi. Bularning barchasi ziyoratchilar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qildi.

2017–2025-yillar ziyorat turizmi uchun muhim bosqich bo‘lib, bu davrda mazkur soha sezilarli rivojlandi. Pandemiya davri qiyinchiliklar bilan kechgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorliklar yordamida turizm yana jonlandi. Ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Kelajakda bu sohada yanada keng imkoniyatlar yuzaga chiqishi kutilmoqda.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomxasanov E., Ruziyev B., Akramov S. Turizmda destinatsiya // Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 143-150.

2. Djuraevna R. M. et al. Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – C. 58-64

3. Yakubova Shamshinur Shukhratovna. “Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development.” Academic Journal of Digital Economics and Stability (2021): 311-318.

4. Gulomkasanov E., Shukurova M., Elmurodov B. The role of guides in the development of international tourism in Uzbekistan // Зборник наукових праць Scientia. – 2021.

5. Gulomkhasanov E., Uktamova U., Akramov S. Development of ecoturism in Uzbekistan // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 614-617.

FARG‘ONA VILOYATIDAGI ALI IBN ABU TOLIB VA UNING YAQINLARI BILAN BOG‘LIQ ZIYORATGOHLAR TARIXIDAN

Baxtiyor QIRG‘IZOV
Oriyental universiteti Tarix mutaxassisligi
2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida joylashgan Ali ibn Abu Tolib hamda uning yaqinlariga nisbatan bog‘lanadigan tarixiy-diniy ziyoratgohlar tahlil etilgan. Farg‘ona tumanining Shohimardon qishlog‘idagi “Hazrat Ali Shohimardon” yodgorligi, Oltiariq tumanining Fayzaobod mahallasidagi “Bobo Ahtam” va “Bobo Qambar” ziyoratgohlari, shuningdek, tumanning markazida joylashgan Shohi Tolib Ansoriy maqbarasi hamda So‘x tumanining Sarikanda qishlog‘idagi “Hazrat Ali” yodgorligi kabi muqaddas maskanlar tarixiy manbalar va xalq og‘zaki an’analari asosida yoritilgan.* ***Kalit so’zlar:*** *Ali ibn Abu Tolib, ziyoratgoh, “Hazrat Ali Shohimardon” yodgorligi, “Bobo Ahtam” ziyoratgohi, “Bobo Qambar” ziyoratgohi, Shohi Tolib Ansoriy ziyoratgohi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются историко-религиозные святыни, расположенные в Ферганской области и связанные с Али ибн Абу Талибом и его близкими. В частности, на основе исторических источников и устных народных традиций освещены такие священные места, как памятник "Хазрат Али Шохимардон" в селе Шохимардон Ферганского района, святыни "Бобо Ахтам" и "Бобо Камбар" в махалле Файзаобод Алтыарыкского района, а также мавзолей Шохи Толиб Ансорий, расположенный в центре района, и памятник "Хазрат Али" в селе Сарканда Сохского района.* ***Ключевые слова:*** *Али ибн Абу Талиб, святыня, мемориал "Хазрат Али Шахимардан," святыня "Бобо Ахтам," святыня "Бобо Камбар," святыня Шахи Талиб Ансари.*

Abstract*: This article analyzes historical and religious shrines located in the Fergana region that are associated with Ali ibn Abu Talib and his close relatives. Specifically, based on historical sources and oral folk traditions, the article examines sacred sites such as the "Hazrat Ali Shohimardon" monument in the village of Shohimardon in the Fergana district, the "Bobo Akhtam" and "Bobo Kambar" shrines in the Fayzaobod mahalla of the Altiaryk district, as well as the mausoleum of Shohi Tolib Ansoriy located in the district center, and the "Hazrat Ali" monument in the village of Sarkanda in the Sokh district.* ***Keywords:*** *Ali ibn Abu Talib, shrine, “Hazrat Ali Shakhimardan” memorial, “Bobo Akhtam” shrine, “Bobo Kambar” shrine, Shahi Talib Ansari shrine.*

Islom madaniyatiga oid obidalardan Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida joylashgan Shoh Jarir Podshohpirim (XIV asr), Bibi Ubayda (XV asr) va va Sulton Biyoz Bastomiy (XV asr) larning maqbaralari ham garchand Ular bu davrdan ancha oldin yashab vafot etgan bo‘lsalarda aynan Temuriylar davrida u zotlarga alohida e'tibor ko‘rsatilib maqbaralar bunyod etilgan. Bobokalonlarimizning samarali mehnatlari, ilm-fanni va insoniy fazilatlarni e’zozlab quvvatlantirgani bois Islom tamadduni durdonalari qurildi. Hukmdorlar va xalqning ulug‘larga ehtiromi va ixlosi hamma davrlarda ham yuqori bo‘lgan.

Farg‘ona tuman Shohimardon qishlog‘idagi “Hazrat Ali Shohimardon” yodgorligi ziyoratgohi ham xuddi ana shunday tarixan mavjud tabarruk maskandir. Ayrimlar bu erda Alining qabri yo‘q, uning qabri Najafda, deyishadi. Shohimardon so‘zi forscha izofa shaklidagi – shohe – podshoh, mard – er, on- ko‘plik ya'ni - lar bo‘lib “Erlar podshohi” degan ma'noni anglatadi. Bu esa bizga ma'lumki, hazrati Alining g‘azovotlardagi shijoati va mardligi hamda ko‘rsatgan qahramonliklarini

ulug‘lab berilgan nisbatdir. Bundan tashqari, U zoti sharifning jangu jadallardagi botirligi, mardlarcha qahramonligini ta'riflab forscha “Sheri dargoh”, “Sheri Xudo” yoki “Sheri Yazdon” kabi nisbatlar bilan ham atashgan. Binobarin, azaldan yashab o‘tgan o‘rta osiyolik mutasavvuf va mutafakkirlar islom ulamolari: sahobalar va aziz avliyolar haqida ko‘p manbalar yozib qoldirishgan. Shulardan Muhammad Siddiq Rushdiyning “Risolai Qodiriya” qo‘lyozma asarida Hazrat Alini Shohimardon deb tilga oladi: “...Hazrat Shohimardon Ali Murtazo, Fotima Zahro va imom Hasan Mahbubiy va imom Husayn shahidi Karbalo roziyallohu taolo anhum bir qala’ning uzasida o‘tiribdilar...” [1. –B.77-78]. Bu qadimiy asarda ham ayni Shohimardon so‘zi tilga olingan. Demak yuqoridagilardan kelib chiqib Shohimardon so‘zi Alining sifati bo‘lib bu nisbatni ilgarigi Forsin, hozirgi Shohimardon qishlog‘iga aynan Alining ziyoratgohi bo‘lganligi uchungina qadimdan shunday deb nomlangan.

«Sayyid Abu Tolib hujjatulloh Sayyid Muhammad Ali» ziyoratgohi. Yurtimizning Rishton tumanida yashab o‘tgan Allohning do‘stlaridan bo‘lgan Piru komil, Qutubul-Aqtob Abdulaziz Xondada, Yozyovon tumani xonobod qishlog‘ida yashab o‘tgan Allohning do‘stlaridan piru komil Akbarxon to‘ra Omonxonto‘ra o‘g‘li va shu joylik piru komil Usta Dolim domla, Toshloq tumani Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida istiqomat qiluvchi Isxoqjon xoji, Yozyovon tumani Xonobod qishlog‘ida yashovchi etuk islom olimlaridan piru-komil Abu Muhammad Mahbubiy Suyarxon hazratlari, Marg‘ilon shahri qalandar mahallasida yashovchi Yahyo qori, Rishton tumani Amirobod qishlog‘ilik Abbosxon qori, Boltaboy qoripochchalarning guvohlik berib rivoyat etishlariga ko‘ra Shohi Tolib Sayid Abu Tolib hujjatulloh Sayid Muhammad Ali r.a. hazratlarining maqbaralari tarixi quydagicha.

Ali r.a.ning avlodlaridan bo‘lmish Sayyid Abu Tolib hujjatulloh Sayyid Muhammad Ali Hazratlari 20 yil Podshohlik qilganlar. Bir kuni Ali (r.a) Shohi Tolib Hazratlarining tushlariga kirib: “Sen 20 yil hukmronlik qilding, endi men yotgan joyni topib obod etgin” deydilar.

Shundan so‘ng Shohi Tolib hazratlari vazirlarini yig‘ib: «Men yigirma yil podshohlik qildim endi men hazrat Ali oppoq dadamizning haqiqiy qabri muboraklarini topay»,deydilar va keyin birinchi Kufaga boradilar. U zotlar Allohga do‘st bo‘lganliklari uchun ularga ko‘p narsalarni Alloh azza va jalla bildirib qo‘ygandir. Shu tufayli Kufada U zotga hech qanday ishorat bo‘lmaydi. So‘ngra Suriyaga boradilar. U erda ham xabar bo‘lmaydi. Keyin Qora boqqa boradilar,so‘ngra Eronga, Afg‘onistonga, keyin o‘sha paytdagi Samarqandning Nurota degan joyiga kelishib, o‘sha joydagi mahalliy xalq bilan gaplashadilar, Ali (r.a) xaqida ommadan so‘raydilar. Shunda mahalliy xalqning oqsoqollari:«Ali (r.a)ning mozorotlari Turoni Zaminning Forsin qishlog‘ida, deb eshitamiz lekin,borganimiz yo‘q», deb javob berishadi. Shohi Tolib hazratlariga Ali (r.a)ning o‘zlari «Nahrayn jabalayn» (ya'ni,ikki daryo va ikki tog‘ yonida) deb bashorat beradilar. So‘ngra U zoti Sharif o‘z mulozimu-navkarlari bilan xozirgi Shohimardonga boradilar. Shunda U zoti sharifga va uning mulozimu-lashkarlariga hazrat Ali k.v. ning ravzai-muboraklari shu erda ekanligi Allohdan bashorat bo‘ladi. So‘ngra Shohi Tolib bobomiz hazrat Alining maqbaralarini baholi qudrat bunyod etadilar. U zot endi men uyga ketmayman, shu erda oppoq dadamni oldilarida qolaman, deb lashkarlarini jo‘natib o‘zlari shu joyda istiqomat qilib umrilarining oxirigacha qolganlar.

Rivoyatlarda keltirilishicha, Shohi Tolib hazratlari o‘sha davrdagi xalifalik tomonidan fatx qilingan va xalifalikning sharqiy yerlari hisoblangan movarounnahrning Farg‘ona muzofotiga 45 yil hukmron bo‘lib o‘tganligi mahalliy xalq orasida xali ham mavjud. Binobarin, aynan Shohi Tolib hukmronligi bilan bog‘liq joy hozirgi Oltiariq tumani markazidagi istirohat bog‘i ichida ekanligi va bu muborak joyni mahalliy aholi tarixan e'zozlab, qadamjoy qilinganligi xalqimiz orasidagi rivoyatlardan bizga ma'lum. Hozirgi kunda esa istirohat bog‘i ichida ushbu qadamjoy hali ham ziyoratgohga aylangan.

Naql qilinishicha, bu erga Ali (r.a)ning jasadlarini maloikalar (etti metr chuqurlikka) qo‘yishgan. Shunga muvofiq mana bir necha asrlardan buyon Allohning nazari tushgan bizning ona Vatanimiz zaminida hazrat Ali (r.a) Shohimardon pirimiz va Shohi Tolib bobomiz maqbaralari qurilgan va diyonatli halqimizning ma'naviy-ruhiy poklanish maskaniga aylangan.

Hozirgi hazrat Ali (r.a) me’moriy yodgorligini Yozyovon tumani Xonobod qishlog‘ida yashab o‘tgan Allohning do‘stlaridan piru komil Akbarxon to‘radada Omonxonto‘ra o‘g‘li (Alloh u zotdan rozi bo‘lsin) va Toshloq tumani Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida istiqomat qilgan Isoqjon xojiota tomonidan 1989 yili qayta tiklash tashabbusi bilan chiqishgan va uch yil mobaynida qurilish ishlari uchun faqat hujjat tayyorlaganlar. Natijada 1991 yil 14 noyabr №261\11-sonli Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashi ijroiya komitetining ziyoratgohni tiklash to‘g‘risida qarori qabul qilindi. So‘ngra oltiariqlik arxitektor Muhammadqurbon tomonidan tayyorlangan loyiha asosida ziyoratgoh maqbarasi bugungi holatga keltirilgan.

Hozirgi Shohimardondagi zamonaviy me’moriy yodgorligning qurilishi quyidagicha tarixga ega. Rishtonlik piru komil Abdulazizxondadaning shogirdlari bo‘lgan Yozyovon tumani Xonobod qishlog‘ilik Tojixon to‘ra va Akbarxon to‘ra Omonxon to‘ra o‘g‘illari hamda Toshloq tumani Qo‘rg‘oncha qishlog‘ilik Isoqjon buvalar o‘z pirlarini ziyoratlariga Rishtonga borishadi. Shunda piru komil o‘z shogirdlari bo‘lgan Akbarxon to‘ra va Isoqjon oppoqdadalarga kerakli masalliqlarni berib holvaytar pishirishlarini buyuradi. Vaholangki har ikki shogird ham holvaytar pishirishni bilmagan ekanlar. Lekin, o‘z piriga o‘ta farmonbardor bo‘lgan bu ikki murid ushbu taomni pishirishni bilmasliklarini ayta olmay, darhol holvaytar pishirishga kirishadilar. Lekin, ular ilgari bunday pishiriqni hech ham pishirmaganlari bois holvaytar risoladagidek chiqmaydi.

Holvaytarni totib ko‘rgan Abdulazizxondada: “Juda ajoyib holvaytar bo‘libdi, endi buni nima qilamiz Tojixon, desalar”, shunda Tojixon to‘radada: “Endi holvaytarni o‘zlari ichib qo‘yishadi”-debdilar. Shundan so‘ng bu ikki murid haligi holvaytarni ichib qo‘yishadi. Ammo, o‘sha holvaytar besh kg. qo‘y yog‘i va yana shuncha shakar bilan tayyor bo‘lgan qiyom edi va bu qiyomni ichgan bu ikki shogirdxuddi o‘chog‘da turgan cho‘g‘dek qizarib ketishadi. So‘ngra o‘z muridlari ahvolini ko‘rgan Abdulazizxondada: “Tojixon bularga juda jabr qilibmizku”-debdilar-da darhol ibodatga kirishibdilar. Keyin namozni ado etib chiqadilar va “Sizlarga Allohdan umr so‘rab qo‘ydik, Alloh xohlasa holvaytar ichlaringizdan o‘zi chiqib ketadi. Lekin, ikkovlaringga vazifa bo‘ldi. Siz Akbarxon Shohimardonda bir jome’ masjid qurasiz. Siz esa bolam (Isoqjonoppoqdadaga) Hazrat Ali bobomizning maqbaralarini qayta tiklaysiz” -deb vasiyat qilgan ekanlar.

Hakimu-murid Alloh taborak va taoloning irodasiyu va hikmati bilan Piru komil Qutubul-Aqtob Abdulazizxondadaning o‘sha vasiyatlari qabuli dargoh bo‘lib, mana hozirda ushbu yodgorlik salobat va viqor bilan o‘zbek zaminining ko‘rki bo‘lib turibdi.

Mavridi kelganda shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda ba'zi sabablarga ko‘ra, ushbu me’moriy obida loyihada belgilangan kabi bitkazilgani yo‘q. [9] Shuningdek 2004 yili kuz oylaridan boshlab Sayyid Abu Tolib hujjatulloh Sayyid Muhammad Ali ziyortgohi maqbarasi o‘sha davrdagi Oltiariq hokimimg No‘monjon Omomonov va bir guruh himmatli xalqimiz vakillarining tashabbusi va homiyligida, Katputlik Aburasul Yusufjon o‘g ‘li sarkorligida hashar yo‘li bilan qayta tiklash ishlari boshlangan. Ammo, shu kunga qadar ushbu maqbar to‘liq qayta tiklanmagan[10].

«Bobo Ahtam» ziyoratgohi. Oltiariq tuman,Fayzaobod mahallasidagi «Bobo Ahtam» ziyoratgohning maqbarasi XX asr arxitektura yodgorligi sifatida Farg‘ona vodiysining muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi. Ushbu ziyoratgohning ikkinchi nomi “Oq mozor ota” ziyoratgohidir. Bu ziyoratgohni Sahoba Bobo Ahtamning qadamjoyi degan taxminlar bor.Ahtam Hazrat Alinig amakisining o‘g‘li bo‘lganligi tilga olinadi. Janodil esa shahar va uning hukumdori ismi sifatida tilga olingan. Ahtam janodilliklar tomonidan o‘ldirilgach, Hazrat Ali boshliq musulmonlar Ahtam uchun qasos olib, Janodil podshosini o‘ldirib, aholisini islomga kirgazadi[3, -B.53]. Ziyoratgohning ajralmas qismi bo‘lgan namozgoh esa XX asrda milliy me'moriy uslubda xashar yo‘li bilan bunyod etilgan. Ushbu qadamjoning o‘rtasidan zilol suvga to‘la ariq oqib o‘tgan bo‘lib, bu bilan ushbu maskanfa mikro iqlim va salqinlik olib keladi. Shuningdek katta va tarixiy sada qayrag‘ochlar va baqateraklar bu ziyoratgohga o‘zgacha hush manzaraa va ulug‘vorlik kasb etadi. Qadamjo o‘rtasida ayvon va uning ostida esa qadimiy hovuz mavjud bo‘lib, bu hovuz bizningcha o‘z davrida ichimlik suv mabayi bo‘lgan.

«Bobo Qambar» ziyoratgohi. Oltiariq tuman, Fayzaobod mahallasidagi bu ziyoratgohning me'moriy yodgorligi XX asrda qayta tiklngan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng qadimgi va muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi. Bobo Qambar ziyoratgohi bu yerga hazrat Alining otboqari Hazrat Bobo Qambar (Qanbar ota, Qambar sahoba ham deb ataladi) atab yodgorlik tiklangan. Bobo Qambar to‘g‘risidagi rivoyatlarga ko‘ra, ul zot hazrat Alining otboqari bo‘lib, sadoqati va muhabbati bilan mashhur bo‘lgan va u kishiga me’moriy yodgorlik bino qilingan[11]. Ushbu ziyoratgohning ikkinchi nomi “Oq mozor ota” ziyoratgohidir. Me’moriy yodgorlikning tarxi to‘g‘rito‘rt burchak shaklida bo‘lib 7X4 metrni tashkil etadi. Tepa tom qismi tekkiz shishtli, bir ayvonli xonadan iborat. Tarkibida 2000 yilla boshida tiklangan bir necha ziyortchilar dam olish xonalari, tahoratxonalar, hovuz bor. Hozirgi kunda (2025 yil) tiklash-ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu muqaddas qadamjo ziyoratiga asosan xotin-qizlar tashrif buyuradilar. Xalqaro va mahalliy ziyorat turizmi ob'ekti sifatida tegishli marshrutga kiritilishi tavsiya etiladi.

Shohi Tolib Ansoriy ziyoratgohi Oltiariq tumani markazida joylashgan bo‘lib, To‘raxon Xolmatovning ta’kidlashicha, Shoh Tolib buvaning asl ismi Shoh Tolib

[9] B.Qirg’izov Farg‘ona tumani Shohimardon qishlog‘ida 2004 yili Isxoqjon hoji otadan yozib olgan.
[10] B.Qirg’izov Farg‘ona tumani Shohimardon qishlog‘ida 2004 yilgi shaxsiy etnografik tadqiqotlari.

Bakrobodiy bo‘lgan. Aytishlaricha, Shoh Tolib bir zamonlar hukmdor bo‘lib, Afg‘onistondagi viloyatlardan biriga amirlik qilgan. Bizningcha aynan mazkur qadamjo ziyoratgohi ham Shohi Toli Sayyyid Muhammad Ali Hujjatulloh bilan bog‘liq va bu zot o‘z davrida hu hududdan turib yurtni boshqargan[11]. [11] Shajaralarga muvofiq hazrat Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladilar.

Tarixdan ma’lumki, Xoja Bahouddin Naqshband ozga qanoat qilish va o‘z hohishi bilan kambag‘al hayot kechishni targ‘ib qilgan. U kundalik tirikchiligi uchun mir parcha nonni o‘z mehnati bilan ishlab topgan, eski bo‘yra ustida, darz ko‘zadan suv ichib hayot kechirgan va so‘fiy uchun xizmatkor va qullar ushlashni gunoh deb bilgan. Shoh Tolib ham Bahouddin Naqshbandtariqatidan borib, amirlikda ixtiyoriy ravishda voz kichadi va qolgan umrini toat-ibodatda o‘tkazish uchun hozirgi Oltiariq hududlariga kelib yashay boshlaydi. U bu yerda avliyolik darajasiga erishadi. Oltiariq nomi kelib chiqishi haqidagi rivoyatlardan biri ham Shoh Tolib nomi bilan bog‘liq. Rivoyatda aytilishicha, o‘sha vaqtlarda aholi o‘rtasida suv masalasida janjallar tez-tezsbo‘lib turgan va bu muammoni hal qilish barchani o‘ylantirib kelgan ekan. Shoh Tolib ushbu masalani adolatli tarzda hal qilib, suvni barcha qishloqlarga oltita ariqda birxil oqadigon qilib bergan va shundan keyin bu yerlar Oltiariq nomini olgan ekan[3, -B51].

Kunlarning birida Oltiariqdan yurtning podshohi o‘tib keta turib, chanqab, muzdek suv ichgisi kelibdi. Ammo mulozimlari unga o‘zi istagandek suv topib bera olmabdilar. Podshoh bundan g‘azablanib: “Nahotki shunday joyda bir kosa suv topilmasa”, deb shu yerlik odamlarni qattiq haqoratlabdi. Bularning bari avliyo Shoh Tolibning qulog‘iga yetib boribdi. Ko‘p o‘tmay qahraton qishning ayni chillasidapodshoh yana Oltiariqdan o‘tib keta turib, odamlarni sinash uchun uchun bir kosa suv so‘rabdi. Shunda Shoh Tolib podshohgasuv o‘rniga chanqog‘ingizni bosadi, deb bir laganda shaftoli olib chiqibdi. Podshoh shaftolini ko‘rib hayratga tushibdi va shoh Tolibdan: “Bu shaftolini hozir uzdingizmi?” – deb so‘rabdi. Shoh Tolib: “Olampanoh, shaftoli yozning ayni saraton vaqti uzib qo‘yilgan edi. Sizning rizqingiz bor ekan, Xudoning marhamati bilan shu kungacha turdi”, debdi. Avliyoning bu gaplarini eshitib, podshoh bu yerni “Xizr nazar qilgan joy” ekanligigaishonibdi va avvalgi nojo‘ya so‘zlari uchun uzr so‘rabdi. O‘shandan beri Shoh Tolibni odamlar Shaftoli Aziz buva, deb atay boshlabdilar”. Toshmat ota Tojiboyevning so‘zlariga qaraganda, Shoh Tolib hazratlari biron bir kishiga ko‘rinsa, albatta unga qishda bo‘lsa ham yangi uzulgan shaftolini tuhfa qilar ekan[4 - B.148].

Darhaqiqat, avliyolarning kishilarni qahraton qishda ham yangi uzulgan mevalar bilan siylashlari, ularga shu tariqa mehr ko‘rsatishlari haqida o‘rta asr yozma manbalarida ham ko‘plab namunalar keltirilgan. Jumladan, Abduahmon Jomiyning “Nafohotu-l-uns min hazaroti-l-quds” (“Muqaddas dargohdan esuvchi do‘stlik shabodalari”) kitobida avliyo Bobo al-Farg‘oniy mehmonga uzum berganligi haqida quyidai hikoya keltiriladi: “Farg‘onada Sholtiq atalmish bir qishloq vordur. Unda buyuk valilardan bo‘lgan bir zot istiqomat etardi. Unga “Bob” laqabini bermishdilar. Chunki bu mamlakatdagi buyuk so‘fiy va ulug‘ shaxslarni xalq “Bob” (eshik) deb aytishardi. Bobning Fotima ismli keksa xonimi bore di. Bob ziyorat aylash uchun

[11] B.Qirg’izovning Oltiariq tumanida joylashgan ziyoratgohlarni o‘rganishidagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.

Farg‘onaning O‘zkentidan borgandim. Uning yoniga kirganim hamon: “Nechun kelding?” – deya so‘radi. “Faqat shayxni ko‘rish va menga Shafqat Nazari ila qaramog‘i uchun”, dedim. Bunga javoban dediki: “Azizim, men falon kundan buyon to‘g‘ridan-to‘g‘ri yolg‘ seni ko‘rmoqda edim. Sen mendan g‘ayb holga keltirmasinlar, deya ul vaqt seni diydoringni ko‘rmoqni orzu etgandim”.

Shundan so‘ng u: “Yo Fotima, yeyiladign mevangdan nimang bo‘lsa, darvesh olib kelgil”, - dedi. So‘ng xotini bir tovoq toz uzilgan uzum keltirdi. Holbuki, u zamon uzm mavsum emasdi. Taboqdagi uzum haqiqatdan yangi uzilgan va u vaqtda Farg‘onada uziladigan uzumning bo‘lishi mutlaqo aql bovar qilmasdi”[1. –B.149].

Dang‘ara tuman, Doimobod mahallasidagi ushbu tabbaruk maskanning yodgorligida Imom Muhammad Boqir qadamjolari hisoblanadi. U Zot 673 yilda Madinada dunyoga kelgan va 732 yili vafot etganlar. 10 yil imomlik qilganlar.Yodgorlikning tarxito‘g‘ri to‘rt burchak shaklida bo‘lib 18X18,5 metrni tashkil etadi. Tepa tom qismi esa gumbazli, chorqirra ikki xonadan iborat. Yodgorlikga kiraverishda ziyoratxona joylashgan va undan o‘ngda kichik go‘rxona va to‘rida esa katta go‘rxona joylashgan. Yodgorlik obidasi eski musulmon g‘ishtdan tiklangan bo‘lib, bezaklari oddiy. Qishloq nuroniy kishilaridan biri Abdulaziz ota Hayitovning hikoya qilishicha hozirgi maqbara hijriy hisiob bilan 1314 milodiy hisobda 1893 yili pishgan g‘ishtdan shu qishloqlik yog‘och ustasi Madali Ota hamda Buxorolik ustalar tomonidan tiklangan. Qadamjo yodgorligi 1938 yili Qo‘qonlik usta Ahmadjon buva tomonidan qayta ta'mirlangan[11].

So‘x tumani Sarkanda qishlog‘i, Hazrat Ali mahallasida *“Hazrat Ali”* yodgorligi ziyoratgohi joylashgan bo‘lib, ushbu ziyoratgoh mustaqillikning ilk yillarida qayta tiklangan. Ziyoratgoh maqbarasi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida tog‘ toshlaridan milliy me’moriy uslubda qayta bunyod etilgan. Qadamjo yonida kamida XVIII asrga oid bo‘lgan, milliy me’moriy uslubda naqshu nigorli, vassa juftlik, baland ustunlar va to‘sinlar bilan tiklangan jome masjidi ham mavjud. Bu masjid aynan Farg‘ona-Qo‘qon yo‘nalish uslubida qurilgan. 2000 yillarning boshlarida mazkur ziyoratgohning hozirgi ziyoratchilar dam oladigan ayvonlarni hashar bilan qayta tiklash uchun har bir mahallalarga bo‘lib berilgan va judayam ko‘rkam yog‘och o‘ymakorligi namunasida bunyod qilingan. Ziyoratgoh maqbarasi old qismida joylashgan hovuzdagi baliqlar, suv ilonini ayrim kasalliklarni davolovchi sifatida hisoblaganlar[11]. Sariq kasalligidan xalos bo‘lish niyatida hovuzdagi baliqlarga uzoq vaqt tikilib turish kasal odamdan go‘yo baliqlar sariqlikni o‘zlariga ko‘chirib olarmish. Farzandlari yo‘q yoshlar hovuzdan farzandli bo‘lish niyatida toshchalarni olib, ularni rangiga qarab, o‘g‘il yoki qiz bo‘lishlarini aniqlar emish. Agar toshcha oq rangda bo‘lsa, qiz belgisi bo‘lgan, agarda qora rangli bo‘lsa, o‘g‘ilbelgisi hisoblanar emish. Suv iloni ayollar tug‘ish jarayoni qiyin kechganda, tug‘ishni tezlashtiruvchi omil sifatida qaralangan. Tug‘ilayotgan ayol etagiga suv ilonni quyib, suvli idishga tushirilgan. Ayrim hollarda farzand istayotgan ayolni beliga suv ilonni halqa qilib bog‘lash irimini bajarilgan.

Farg‘ona viloyatidagi Ali ibn Abu Tolib va uning yaqinlariga nisbatan bog‘lanadigan ziyoratgohlar, nafaqat diniy e’tiqod manbai, balki tarixiy va madaniy merosimizning ajralmas qismidir. Mazkur maqolada tahlil qilingan “Hazrat Ali Shohimardon”, “Bobo Ahtam”, “Bobo Qambar”, Shohi Tolib Ansoriy va “Hazrat

Ali” ziyoratgohlari orqali xalqimizning islomiy qadriyatlarga bo‘lgan hurmati, bu maskanlarga nisbatan shakllangan chuqur e’tiqodi va ularning tarixiy ildizlari yoritildi. Ziyoratgohlarning har biri o‘ziga xos me’moriy uslubi, rivoyatlar bilan boyitilgan og‘zaki an’analari va zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy o‘rni bilan ahamiyatlidir. Shunday qilib, bu ziyoratgohlar nafaqat tarixiy izlanishlar, balki ma’naviy-ma’rifiy tarbiyada ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularni ilmiy asosda o‘rganish va asrash – kelajak avlodlar uchun muhim moddiy- ma’naviy boylik hamda ichki va tashqi ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zufarjon Jo‘rayev. G‘oyiblar haylidan yongan chiroqlar. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 1994 yil.
2. Xoldorali Qulfiddinov. Jannatmakon Diyor. “Farg‘ona” 2008 yil.
3. N.Abdulahatov, V.Azimov. Oltiariq ziyoratgohlari. Toshkent, “Sharq” nashiryoti, 2005 yil.
4. B.Eraliyev, I.Ostonaqulov, N.Abdulahatov. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjo: Farg‘ona viloyati. T.: “Turon Zamin Ziyo” nashiryoti, 2014 yil.
5. Vahobjon Azimov. Oltiariq tumanidagi ziyoratgohlar risolasi. Oltiariq shahri, 2023 yil.
6. N.Abdulahatov, G‘oziyev T. Shohimardon.-T.: “Yangias ravlodi”, 2010 yil.
7. Ibodinov F., Eminov Yu. Oltiariq tarixidan lavxalar, “Farg‘ona” 1996 yil.
8. Yigitali Usmonov. Jannat bog‘i, “Farg‘ona” 1996 yil.
9. Mirzali Bo‘riyev, Tursunboy Qamabarov. Xojai Turob bobo tarixi. Movarounnahr, 2000 yil.
10. Alisher Bek. Turkiyzabon sayyid avlodlari 1-kitob. Farg‘ona nashiryoti, 1998 yil.
11. B.Qirg’izovning turli davrdagi Farg‘ona viloyatida joylashgan ziyoratgohlarni o‘rganishdagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.

ZIYORAT TURIZMI VA UNING AHAMIYATI

Mashrab GOZIYEV
Oriyental universiteti
“Tarix” fakulteti magistranti
goziyevmashrab1990@gmail.com

Annotatsiya. *Ziyorat turizmi - hozirgi kunda tez rivojlanayotgan turizm sohalaridan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish bilan birga qatorda tarixni bilish . Odatda, ziyoratlar insonlarning o`zining kimligini anglash uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o`z ichiga olib, insonning o`z qadriyatlari milliy o`zligini anglash qay yurt farzandi ekanligini kimlarning avlodi ekanligini bilash uchun boradigan maskanlardir.* ***Kalit so’zlar:*** *Ziyorat turizmi, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, maqbara va madrasa.*

Аннотация. *Паломнический туризм является сегодня одним из наиболее быстрорастущих секторов туризма. Паломнический туризм по сути своей заключается в*

посещении святынь, а также в изучении истории. Паломничества обычно представляют собой длительные путешествия, которые люди совершают в течение дней, недель или даже месяцев, чтобы понять свою собственную идентичность. Это места, где человек может отправиться в целое путешествие, понимая свои собственные ценности, национальную идентичность, а также узнавая, ребенком какой страны он является и чьим потомком он является. ***Ключевые слова:*** *Паломнический туризм, святые места, святыни, мавзолеи и медресе.*

Annotation. *Pilgrimage tourism is one of the fastest growing tourism sectors today. Pilgrimage tourism is essentially about visiting pilgrimage sites and learning about history. Usually, pilgrimages are long journeys that people take for days, wyeyeks, or even months to understand their own identity. They are placyes where a person goyes to understand their own valuyes, national identity, and to know who they are from.* ***Keywords:*** *Pilgrimage tourism, holy placyes, shrine, mausoleum and madrasa.*

Ziyorat turizmi - turli xalqlar vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko`ra, u diniy maqsadli sayohatlarga ta'alluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo`lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo`lishi mumkin, yani mavjud muqaddas qadamjolar bilan birgalikda yerli aholining qarashlar, urf-odatlar, ananalari bilan tanishish imkonini ham yaratadi. [6] Ziyorat turizmi ahamiyatini uch xususiyatga ko`ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi hudud uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim,Ziyorat turizmi iqtisodiyot va uning rivoji uchun qanchalik muhim? Ziyorat ko`plab insonlar uchun o'zlikni anglash,asl kimligini va kimlarning avlodi ekanligin anglashi uchun muhim omil. [6,- B.541] Insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko`pincha uzoq va ba'zan qiyin bo`lgan sayohat insonlar uchun fikr mulohaza qolish imkoniyatdir. Ziyoratlar din bilan bir qatorda insonning o`tmishi, kimligini, kimlarning avlodi ekanligini chuqurroq anglashi uchun bir usuli bo'lishi mumkin. Bu, albatta, e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko`rsatishning bir usuli va bu dinning o`zi haqida ko`proq bilish imkoniyatidir. [2]

Sayohat shakli sifatida ziyorat odamlarga muqaddas joylarni ziyorat qilish imkoniyatini berish bilan bir qatorda bu joylarni nima uchun ziyorat qilayotganligini bilish imkonini ham beradi. Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi - muqaddas joylar va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash manzilidan boshqa manzilga chiqadigan shaxs tushuniladi.[4,- B.70] Ziyorat turizmi deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo`lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko`rsatish, ularning ehtiyojlarini qondirish bilan birga ma'lum bir hududning rivojlanishiga o`z tasirini ko`rsatuvchi faoliyat tushunilishi kerak.

O`zbekistonda ziyorat turizmi. Ziyorat turizmi haqida o`zbek islomshunos olimi B.M.Bobojonov, Markaziy Osiyoda ziyorat ob'yektlarining eng keng tarqalgan turi, bu – "muqaddas qadamjolar" hisoblanishini aytib o`tgan. Surxondaryo viloyatlari tarixiy obektlarini me'morchilik, arxitektura nuqtai nazaridan o`rgangan olim O`zbekiston hududida ziyoratgohlar masalasini o`rganishda ziyoratgoh nomi bilan bog`liq shaxsni personifikatsiya (avliyo, pir, said, xo`ja) maqomi va darajasini tadqiq qilish ham muhim sanaladi.[5,-B.87] T.Dadabayev, E.Karimov tadqiqotlarida ham ziyorat masalasining turli jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Jumladan,

D.Abramson va E.Karimov hammuallifligida yozilgan maqolada, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo`lgan munosabat tahlil qilinadi,va bu shunchaki sayohat emas, bu o`zligingni anglash uchun imkoniyat, ruhiy poklanishga umid, duo va istaklar ijobatini tilash, iymonga eltuvchi yo`l,tarixingni bilish uchun imkoniyat. Ziyorat bu – o`tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, poklanish yo`lidan o`tish.Markaziy Osiyoda buni Ziyorat deb atashadi, bu muqaddas joylarga tashrif buyurishni anglatadi.[6- B. 542]

O`zbekiston har doim ko`plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo`libgina qolmay dunyoga ko`plab avliyolar, tarixiy shaxslar va yetuk olimlarni bergan zamin, bu yerda turli dinlar targ‘ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan Darhaqiqat, O`zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O`zbekistonda ziyorat turizmi, ya’ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlari yetarlicha topiladi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O`zbekistonda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko`p. Ko`pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta`mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G`ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Mahtumi A’zam, Shohizinda, Motirudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go`zal ziyorat qiladigan va ma’naviy poklanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya’ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Buyuk ajdodlarimiz qo‘nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta’mirlashga jiddiy e’tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd musulmon dunyosini o`ziga tortmoqda. Hozirgi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan ekanmiz avvalo mamlakatimizda ziyorat turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Xususan, Janubiy – Sharqiy Osiyo va G`arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida jozibador infratuzilmalar ishlab chiqishimiz kerak, shu bilan birga asl urf-odatlarimiz, ananalarimizni, bino va inshoatlarimiz bilan bir qatorda bizning kimligimizni ko`rsatib turuvchi tandir, o`choqlarimizni ham asl holicha saqlab qolishimiz kerak, chunki chet el ziyoratchilari bizning yangi infratuzilmamizni emas, tariximizni shu orqali ular o`zbek xalqini kashf qiladi.

Biz esa bunga imkon yaratishimiz kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat ziyorat turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, transport imkoniyatlarni o`rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ta’kidlash joizki, bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish birinchi navbatda dunyo hamjamiyatida O`zbekistonning mavqeyini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar va ishonchli hamkorlik eshiklarini ochadi, mamlakat makroiqtisodiy ko`rsatkichlari barqarorligiga, aholi daromadlari, bandligi

va tadbirkorligi kabi ko`rsatkichlarning yaxshilanishiga omil bo`lib, xizmatlar sohasining yana-da takomillashuviga sabab bo‘ladi.

Hozirda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasining bir qismi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish ko`plab muqaddas qadamjolarga ega bo‘lgan davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan va misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatning har bir fuqarosi, shu jumladan boshqa davlatlar ham amal qilishi kerak bo‘lgan ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish uchun muhim siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan imkoniyat yaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son **qarori**
2. O`zbekiston Respublikasining turizm to`g`risidagi O`RQ-549-SON 18.07.2019. qonuni.
3. Aleksandrov A.Yu. Mejdunarodniy turizm. Uch.posobiye dlya vuzov.- M.: Aspekt Press, 2000
4. Asrorova L. Tariqatning yetti piri. – Toshkent: O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – B. 280; Taniyeva G.M. XVI-XIX asr birinchi yarmida O`rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati. – Toshkent: O`zkitob, 2021. – 328 b.
5. Current Issuyes in Tourism, 10(4), 343-365. 5. Babadjanov B.M. Kokandskaya xanstvo: vlast, politika, religiya. – Tokio-Tashkent, 2010. − c. 626-627
6. Nuralibek Bozarov “Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o‘rni” Academic Research in Educational Sciyencyes, Volume 3 | Issuye 12 | 2022

MUSTAQILLIK YILLARIDA ZOMIN TUMANIDA TASHKIL ETILGAN JAMG‘ARMA, FOND VA MARKAZLAR FAOLIYATI TARIXI

Dilnoza TO‘YCHIYEVA
QarDU doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Zomin tumanida faoliyat ko‘rsatgan jamg‘arma, fond va markazlar tarixi haqida ma’lumot beriladi. Ularning jamiyat va aholi o‘rtasidagi ahamiyati, qilingan amaliy ishlar va islohotlar to‘g‘risida ham fikr yuritilgan.* ***Kalit so‘zlar.*** *Jamg‘arma, ijtimoiy himoya, fond, muassasa, markaz, inventor, targ‘ibot, salomatlik tadbirlari, huquqiy madaniyat, oila farovonligi, xayriya.*

Аннотация. *В статье представлена информация об истории фондов, учреждений и центров, действовавших в Зааминском районе в годы независимости. Обсуждалось также их значение для общества и населения, практическая работа и проводимые реформы.* ***Ключевые слова.*** *Фонд, социальная защита, учреждение, центр, изобретатель, пропаганда,*

оздоровительные мероприятия, правовая культура, благосостояние семьи, благотворительность.

Annotation. *This article provides information about the history of the foundation, funds and centers that operated in the Zamin district during the independence period. Their importance between society and the population, practical work and reforms are also discussed.* ***Keywords.*** *Foundation, social protection, fund, institution, center, inventory, propaganda, health measures, legal culture, family well-being, charity.*

O‘zbekistonning barcha hududlarida 90-yillarning boshida, bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan iqtisodiy qiyinchiliklar kechayotgan bir davr edi. Shu bois, aholini ijtimoiy himoyalash, ularning yashash turmush tarzini yaxshilash va boshlangan demokratik islohotlarni xalqqa yetkazish borasida amaliy ishlar boshlandi. Respublika miqyosida qabul qilingan qonun va qarorlar hamda ularning ijrosi jamiiki hududlardan talab etilgan. Iqtisodiy qiyinchiliklardan chiqish va aholini ma’naviy, moddiy va madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida tumanda jamg‘armalar, fondlar va markazlar tashkil qilingan va ular tuman aholisiga ko‘mak berishga harakat qilganlar.

Jumladan, kam ta’minlangan oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy ko‘mak berish maqsadida, 1993-yil, Jizzax viloyatining “Zomin tumanida “Xayriya” fondini tashkil qilish to‘g‘risida” tuman hokimining № 165-sonli qarori qabul qilingan.[1] Qarorda, tumandagi kambag‘allik nafaqalarini oluvchi va tabiiy ofat, favqulotda hodisalardan zarar ko‘rgan oilalarga ijtimoiy-moddiy yordam berish ko‘zda tutilgan. Darhaqiqat, 90-yillarda tumanda bir necha marotaba kuchli sel toshqinlaridan zarar ko‘rgan, uysiz va moddiy mulklarini yo‘qotgan insonlarning, ayniqsa, bu yillarda tuman hokimligiga qilingan murojaatlari ko‘p bo‘lgan. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida ham “Xayriya” fondi tuzilgan. Fondning Nizomi tasdiqlangan va uning tarkibida tashkilotning asosiy vazifalari, mablag‘lari haqida ma’lumotlar berilgan. Nizomga muvofiq, Fondning asosiy vazifasi, 90-yillarda narxlarning beqiyos darajada o‘sib ketishi munosabati bilan shahar hududida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni qisman hal etishdan iborat. Fondning moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida, tumandagi korxona, tashkilot, muassasa, xususiy ishlab chiqarish firmalari, kichik davlat korxonalari va alohida shaxsiy fuqarolarining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. “Xayriya” fondining taqsimlanishi quyidagicha: yolg‘iz yashaydigan keksalarga, kam nafaqa oladigan oilalar, nogironlar va qariyalariga, Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilariga, baynalminal jangchilarga, ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan nogironlarga, tabiiy ofatdan zararlanganlarga, qariyalar uyi, nogironlar internati va shifoxonalarga ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Ta’kidlash joizki, bu fondning rejalari amaliy hayotda ham ro‘yobga chiqqanligini, aholining xotira ma’lumotlaridan anglash mumkin.

Mahalliy aholini ijtimoiy himoyalash bilan birga ularning huquqiy bilimlarini shakllantirish, savodxonligini oshirish maqsadida, 1997-yil, Zomin tumanida “Huquqiy ma’rifat targ‘ibot markazining tuman hokimligi qoshida jamoatchilik asosida hududiy bo‘limini tuzish to‘g‘risida tuman hokimining qarori qabul qilingan. [2] Markazning vazifalari: aholi orasida huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish, huquqiy madaniyatni oshirish, joylarda huquqiy targ‘ibot ishlarini muvofiqlashtirish kabilardir. Huquqiy tadbirlarni amalga oshirishda targ‘ibot markazining hududiy guruhi tuzilishi

va ularga, tuman prokraturasi, sudi, ichki ishlar bo‘limi, xalq ta’limi bo‘limi, huquqiy ma’rifat targ‘ibot markazining mintaqaviy bo‘limiga topshiriqlarni amalga oshirishda amaliy yordam berishi, bu jarayonlarda kasaba uyushmalari, “Mahalla” jamg‘armasi, xotin-qizlar qo‘mitasi yordam berishi lozimligi belgilangan. Yuqorida sanab o‘tilgan, islohotlarning amaliy natijasi o‘laroq, 1998-yil Zomin tumanida o‘tkazilgan, “Yosh huquqshunoslar” bellashuvini aytish mumkin. Musobaqada asosan, yoshlar ishtirok etib, maktablararo bellashuv shaklida, savol-javoblar va bir nechta shartlar asosida ularning huquqiy bilimdonligi sinovdan o‘tkaziladi. Zomin tumani sudi xodimi A.Shomirzayev, tuman prokurori yordamchisi O.Karimov, tuman ichki ishlar bo‘limi tergovchsi R.Bo‘riboyev va “Manaviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘limi rahbari O‘.Berdibekovlarning ishtiroki, va ularga berilgan savollar muloqotning ilmiyligini yanada oshirgan. [3]

Ushbu markazning ilmiy va amaliy ahamiyati katta bo‘lib, tuman aholisining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida keng ko‘lamdagi ishlar olib borilgan. Va bevosita, yoshlarning bu boradagi qamroviga alohida urg‘u berilgan. 1999-yil 1-fevraldan 1-martga qadar tumandagi Qizil yarim oy jamiyati jamg‘armasiga xayriya to‘plash oyligi e’lon qilingan. Ushbu tadbirda tumandagi mehnat jamoalari faol qatnashishi targ‘ib qilingan. Tashkilotning Zomin tumanidagi muruvvat ishlariga ko‘maklashishga urg‘u berilgan. [4]

Zomin tumanidagi yana bir muassasalardan biri, “Sog‘lom avlod” jamg‘armasi bo‘lib, 2000-yilda uning faoliyatini jonlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida tuman hokimining qarori qabul qilingan.[5] Qarorga ko‘ra, tumanda “Sog‘lom avlod” jamg‘armasiningtadbirlari ya‘ni, onalik va bolalikni muhofaza qilish va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, kam daromadli, yetim va boquvchisini yo‘qotgan oilalarga ko‘rsatilayotgan xayriya tadbirlarini yanada yaxshilash maqsadida maxsus dastur ishlab chiqilgan. Dastur vazifalariga ko‘ra, tumanda istedodli bolalarni izlab topish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, maktablarda o‘quvchilarni madaniy-jismoniy kamol topishiga yordam berish maqsadida, “Eng ibratli o‘quvchi”, maktabgacha tarbiya muassasalarida (bog‘cha) yosh bolalarga berilayotgan tarbiya bo‘yicha “Eng ibratli hamshira” tanlovlari ishlab chiqilishi va munosib taqdirlanishi belgilangan. Bundan tashqari, qishloq joylarda keng ko‘lamli salomatlik tadbirlarini tashkil etish va bu jarayonlarda moddiy ko‘mak berish maqsadida mahalliy budjetdan mablag‘ ajratish belgilangan.

“Sog‘lom avlod” jamg‘armasi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha keyingi yillarda ham ko‘plab xayriya tadbirlari tashkil etilib, ulardan tushgan moddiy mablag‘lar muassasa hisobiga o‘tkazilgan va Zomin tumanining barcha hududlariga salomatlik tadbirlarini amalga oshirishda sarf etilgan.

2001-yil 28-fevralda, “Tumanda faoliyat ko‘rsatayotgan jamg‘armalar va jamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”[6] Zomin tumani hokimining qarori qabul qilingan. Bu paytda, tumanda “Nuroniy”, “Mahalla”, “Kamolot”, “Navro‘z”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Ekosan”, “Mehr-shavqat va salomnatlik” jamg‘armalari va “Qizil yarim oy oy”, “Nogironlar” jamiyatlari viloyat bo‘limlari rahbarlarining, homiylar jalb etish to‘g‘risidagi tavsiya va takliflari maqullanishi va korxona, tashkilot va xususiy tadbirkorlarning homiy bo‘lishi belgilab berilgan. Jamg‘arma va jamiyatlarga homiylar ro‘yxati tuzilgan. Ro‘yxatda keltirilishicha, jami 9 ta

jamg‘arma va jamiyatlarga 53 ta tashkilot, 54 ta tadbirkorlar, 80 ta fermer xo‘jaliklari qaramog‘iga taqsimlanib chiqilgan. [7] Ularning Nizomda nomlari ilova qilingan.

“Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limi, tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limi, tuman “Mehr-shavqat” xayriya jamg‘armasi bilan birgalikda har yili 3-dekabr arafasida keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan uchrashuvlar uyushtirilgan. Ana shunday uchrashuvlardan misol tariqasida, 1997-yil noyabr oyida “Sayqal” mavzesidagi uchrashuvni aytish mumkin. Muloqot mobaynida respublikamizdagi insonparvarlik islohotlar haqida so‘z yuritilib, matonat bobida ular jamiyatga o‘rnak ekanligi alohida urg‘u berilgan. Hamda, bir guruh nogironligi bo‘lgan insonlarga aravachalar, hassa va qo‘ltiqtayoqlar va bir martalik yordam pullari topshirilgan. [8]

Tumanda, salomatlik, huquqiy tadbirlar, ijtimoiy himoya masalalari bilan birga, jamiyatning tub negizi bo‘lgan oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida urg‘u berilgan. Jumladan, 2002-yil Respublika “Oila ilmiy-amaliy markazining Zomin tuman bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida” hokimlik qarorining qabul qilinishi fikrimiz isbotidir. Markaz xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Respublika “Oila ilmiy-amaliy markazi”ning tuman bo‘limi siufatida tashkil qilingan. Asosiy vazifalari: oilalar tinchligi, mustaxkamligi, ularda milliy qadriyatlarning qaror topishi, oilada tarbiyaviy ishlar kabi masalalarni chuqur o‘rganishdan iborat. Oilalar farovonligini ta’minlashda psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Eng muhimi, bu tadbirlar faqatgina qog‘ozda qolib ketmay, tuman qishloq aholisi orasida amaliy tushunytirish ishlari ma’ruza va suhbatlar ko‘rinishida olib borilgan. Markazning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 10 kishidan iborat kengash a’zolari tayinlangan.

Darhaqiqat, oilaviy munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oilalardagi ajrimlarni bartaraf etish barcha zamonlarda jamiyatning ma’naviy qiyofasini baholashdagi muhim omillardan biri bo‘lib kelmoqda.

2006-yilda Zomin tumanida bir nechta fondlar tashkil qilingan. Masalan, “Zomin tumani infratuzilmasini rivojlantirish fondi” shular jumlasidandir. Fondning maxsus ustavi qabul qilinib, umumiy qoidalar, vazifa vaq majburiyatlari aniq belgilab berilgan. [9] Umumiy qoidalarda aks etishicha, tashkilot “Rivojlantirish fondi” nomiga o‘zgartirilgan, shuningdek, umanning infratuzilmasini rivojlantirish, xayriya-saxovat tadbirlarini o‘tkazish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga har tomonlama ko‘mak berish nazarda tutilgan.

Yana bir fond: Zomin tuman “Maktabgacha tarbiya muassasalarini rivojlantirish fondi” hisoblanadi. Fond 2006-yil 18-yanvarda tuzilgan va ustavi qabul qilingan. [10] Fondning o‘z oldiga qo‘ygan muhim maqsadlari bo‘lib, tarbiya muassasalariga kerakli bo‘lgan inventor (jihozlar), o‘quv-mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun uskunalar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun bajariladigan ishlarga mablag‘lar ajratish ko‘zda tutilgan. Mazkur tashkilotning, Zomin tumani maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyati katta bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Zomin tumanida tuzilgan har bir jamg‘arma, fond va markazlarning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari va maqsadlari bo‘lgan. Ularni xalqqa yetkazishga, mushkulini oson qilishga, shu bilan birga ma’naviy tomonlama saviyasini oshirishga harakat qilgan. Tadbirlar, targ‘ibotlar esa bu maqsadlarni keng ko‘lamli amalga oshishiga yordam bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-21, yig'ma jild-1, ro'yxat-63, 41-varaq.
2. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-440, yig'ma jild-6, ro'yxat-30, 9-varaq.
3. "Yosh huquqshunoslar bellashuvi"//Sharq tonggi gazetasi.harq tonggi gazetasi.№ 9(6319)1998-yil. 6-mart. 3-b.
4. "Xayriya oyligi"// Sharq tonggi gazetasi. № 6 (6567). 1999-yil.25-fevral. 2-b.
5. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-456, yig'ma jild-9, ro'yxat-7, 51-varaq.
6. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-440, yig'ma jild-10, ro'yxat-12, 35-varaq.
7. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-440, yig'ma jild-10, ro'yxat-12, 36-varaq.
8. "Nogironlar bilan uchrashuv"//Sharq tonggi gazetasi. №57(6368). 1997.21-noyabr. 4-b.
9. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-440, yig'ma jild-15, ro'yxat-79, 19-varaq.
10. Sharof Rashidov tumani Davlat arxivi. Fond-M-440, yig'ma jild-16, ro'yxat-6, 18-varaq.

O`ZBEKISTON TARIXINI O`RGANISHDA QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR ASARINI O`RNI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Alimbekova Yasmina Bobir qizi
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning mashhur asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osor al-boqiya")ning mazmuni, yozilish tarixi va uning tarixiy-ahamiyati yoritib beriladi. Asarda qadimgi xalqlar — yunonlar, yahudiylar, eronliklar, turkiy xalqlar, xristianlar, musulmonlar va boshqa ko'plab elatlarning urf-odatlari, bayramlari, yil hisoblari va diniy e'tiqodlariga oid boy ma'lumotlar jamlangan. Ushbu ilmiy asar nafaqat Beruniyning chuqur bilim va tadqiqotchilik salohiyatini aks ettiradi, balki Markaziy Osiyo hamda Sharq xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so`zlar: *Abu Rayhon Beruniy, Yodgorliklar, qomusiy olim, Osor al-boqiya, qadimgi xalqlar, taqvimlar, Sharq olimi, Sug'd, Xorazm.*

Vatanimiz tarixini yoritishda juda ko'plab tarixiy yozma manbalar mavjud. Shulardan biri — Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osorul-boqiya") asari bo'lib, u nafaqat Vatanimiz, balki Markaziy Osiyo hamda unga qo'shni bo'lgan hududlarda yashagan xalqlar tarixini o'rganishda dasturilamal manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o`rta asrning buyuk qomusiy olimlaridan bo‘lib, u o‘z umrini ilmga bag‘ishlagan. Beruniy yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqqan va mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo`lida ta’lim olgan. Arabshunoslik maktabining asoschilaridan biri, taniqli islom olimi, rus sharqshunos-arabshunosi, akademik Ignatius Yulianovich Krachkovskiy (1883-1951) “Beruniy qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko‘ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish ossonroqdir” deb haqqoniy baho bergan[1, — B. 244.]

Beruniy ko‘plab sohalar bilan samarali shug`ullangan. Olim 150 dan ortiq asarlar muallifi bo‘lib, ular matematika, geometriya, astronomiya, fizika, geodeziya, kartografiya, mineralogiya, botanika, tarix, falsafa fanlariga oiddir. Beruniyning ilmiy asarlari - uning buyuk xizmatlarining eng yorqin dalilidir. Shuningdek Beruniyning ijodiyoti o`z ko`lamining kengligi bilangina emas, balki ulardan har birining teranligi va hayotiyligi bilan ham qimmatlidir.

Dunyo tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk olimning ilmiy merosi mavjud manbalarga ko‘ra 150 dan ortiq asarlardan iborat bo‘lib, ulardan faqat 30 dan ortig‘i (ba’zi manbalarda 40 tasi) qo‘lyozma holida bizgacha yetib kelgan. Afsuski, uning ko‘plab asarlari notinch davrlar davomida yo‘q qilingan, johil hukmdorlar tomonidan yoqib yuborilgan yoki hanuzgacha olimlar tomonidan tadqiq qilinmagan.

Abu Rayhon Beruniy Sharq olami fani va madaniyatiga chuqur oshno bo‘lgan ilm-fan sohasidagi ulkan shaxslaridan biri hisoblanadi. U nafaqat o‘zining o‘zbek va arab tillarida yuqori darajada bilimga ega bo‘lgan, balki arab, sug‘diy, fors, suroniy, xiytiy, yunon va qadimgi yahudiy tillari, shuningdek, hindlarning sanskrit tili kabi ko‘plab boshqa tillarni ham mukammal egallagan edi. Taniqli beruniyshunos olim A. Ahmedovning yozishicha, Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonasining o‘ntadan ortiq tillarini mukammal bilgan va bu bilimlar uning ilmiy izlanishlari va tarixiy tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etgan[2, — B.] Xususan, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar kabi asarlarini yaratishda muhim hisoblangan, chunki u har bir xalqning tilini, madaniyatini va tarixini chuqur tushunish orqali ularning qadimgi merosini to‘g‘ri talqin qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Ushbu bilimlarning shakllanishi va ilmiy izlanishlarining natijalari Beruniyning nafaqat tarixiy manbalarni, balki butun bir xalqlar madaniyatini tahlil qilishda qo‘llangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida"gi qarori, aynan shu ilmiy merosni kengroq targ‘ib qilish va uning ilm-fan rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini tan olishni maqsad qiladi. Bu qaror, shuningdek, Beruniy merosining xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga zamin yaratib, uning ilmiy va madaniy ahamiyatini yanada kengroq taqdim etadi[3, —.]

Beruniy ilmiy manaviy merosin o'rganish, uning asarlarini nashr etish, boshqa tillarga tarjima qilish ishlari XIX asr oxirlaridan boshlangan. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana», «Mas'ud qonuni», «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar» va boshqa asarlarining matni nashr etilib turli tillarga tarjima qilingan, bundan tashqari tanlangan asarlari rus va o'zbek tillarida nashr qilingan.

Abu Rayhon Beruniy jahon fani tarixida qimmatbaho manba hisoblangan ("Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya") ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" qisqacha "Yodgorliklar") nomli dastlabki asarini yozib (1003 yil), uni "Shams al-Maoliy" ("Oliy martabalar quyoshi") laqabi bilan mashhur bo'lgan hukmdor Qobus ibn Vashmgir (vaf. 1012)ga bag'ishlagan. Qobus ibn Vashmgir hukmdorlar orasida ilm-ma'rifatli va adolatparvar inson hisoblangan. O'z saroyida boshpana berib, ilmiy ishlar olib borishga imkon yaratgan Jurjon hokimi Shams Maoliy Qobus ibn Vashmgirning o'zi ham shoir va san'at muxlisi bo'lgan. «U hunarparvar amir Abu Rayhonning aqliga va hikmatiga taajjub qildi va vazirlikka chaqirdi. Abu Rayhon ilm boyligini, kamol hashamatini har narsadan yuqori qo'yardi».

Mazkur asar arab tilida yozilgan bo'lib, uning to'liq arabcha nomi "Al-osor -al boqiya an-al-qurim-al Xoliya" deb ataladi. Professor A.Ahmedovning fikricha bu atamani "O'tmish asrlardan qolgan yodgorliklar" deb tarjima qilish mumkin. Qisqacha arabchada "Osor al-boqiya" o'zbekcha esa "Yodgorliklar" deyish ham o'rinli. [4, —B.23.] Mazkur asarini Jurjonda muhojirlik davrida yozishni boshlagan va 1000-1003 yillarda yakunlagan. Beruniy asarni yozishga juda katta tayyorgarlik ko`gan. Sabr va matonat bilan turli xalqlarning madaniyati, tarixi va tillarini o`rgangan.

Abu Rayhon Beruniy bu asarini yozilishi haqida shunday yozgan ediki: "Adiblardan biri mendan (turli) xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya'ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va har xil yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmaydigan boshqa (marosimlar) haqida so'radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan, (turli) kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan (bir asar yozishga) da'vat etdi"[5, — B. 124–130.]

Mazkur asar qadimgi Xorazmda o‘tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlari, an'analari, bayramlari, taqvimlari, dinlari, payg'ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida to‘plagan yaxlit qomus bo‘lib, u Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhurdir. Bu asarni Jurjonda olim 27 yoshida, ya'ni 1000 yili arab tilida boshlab, 1003 yilda yozib tugallagan. Buyuk allomaning bu asarida Xorazm, Movarounnahr va O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarda yashagan xalqlar haqida ham muhim tarixiy-etnografik ma'lumotlar bayon etilgan. Asar muqqadima va 21 bo'limdan tashkil topgan.

Beruniyning ushbu asari "Hozir ham Yaqin Sharqning butun ilmiy adabiyotida tenggi yo'q asari"[1, — B.244.]deb ta'riflangan.

"Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida yunonlar, rimliklar, eronliklar, sug'diylar, xorazmliklar, harroniylar (yulduzlarga sig'inuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomdan oldingi arablar, yil hisoblari, bayramlar va mashhur kunlar, shuningdek, Xitoy chegaralarigacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy xalqlar, o‘g‘uz turklari va ularning e'tiqodlari, urf-odatlari hamda bayramlari keltirilgan. Asarda ko'plab xalqlarning ma'naviy hayoti va tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar jamlangan.

Beruniyning aynan Sug'd va Xorazm haqidagi ma'lumotlari biz uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ularda tarix, din, urf-odat, odob-ahloq va an'analarning turli xalqlardagi ko'rinishlarini o'rganib, har bir xalqning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy jihatdan isbotlab bergan.

Sug‘d viloyati qadimda Movarounnahrning muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Uning markaziy shahri Samarqand bo‘lib, zardushtiylik, manixeylik va boshqa qadimiy e’tiqodlar shu hududda keng tarqalgan edi. Beruniy Sug‘d xalqining taqvimi, diniy marosimlari, yil sanog‘i tizimi va astronomik bilimlari haqida yozgan. U Sug‘d yil hisobi (taqvim) haqida batafsil ma’lumot bergan va uni boshqa xalqlarning tizimlari bilan solishtirgan. Beruniyning bu yondashuvi orqali biz qadimgi Sug‘d tarixining ko‘plab jihatlarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Beruniy asarlarida Sug‘d tarixi haqida yozilgan ma’lumotlar zamonaviy tarixshunoslar tomonidan keng tahlil qilingan. Yevropa va rus tadqiqotchilari Sug‘d tarixini Beruniy asarlari bilan uyg‘un holda tahlil qilganlar. Masalan, Y. Markvart yunon-rim manbalariga tayanib, Sug‘d hududini Ayranam-Vayjau mamlakatining bir qismi sifatida talqin qiladi va bu davlatning markazi Xorazm bo‘lgan, [6, — B.] degan farazni ilgari suradi. Bu qarashni V. B. Henning, I. Gershevich hamda S.P.Tolstovlar ham o‘z ilmiy tadqiqotlarida ma’qullashgan [7,— B. 59–72.]

Sug‘d yozuvi va Sug‘d tillari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning madaniy saviyasi yuqori bo‘lgan, o‘ziga xos savdo-sotiq, diplomatik aloqalar, yozma hujjatlar tizimi shakllangan. Bu jihatlar Beruniy asarlarida bevosita aks etmasa-da, uning ayrim izoh va tavsiflaridan ushbu hududdagi tarixiy jarayonlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Beruniyning asarlarida Sug‘dning boshqa qadimgi sivilizatsiyalar bilan aloqalari, masalan, Hindiston, Eron va Rimning madaniy va siyosiy munosabatlari ta’rifi keltirilgan[8, —B. 22–35.]

Bu o‘z navbatida, Beruniyning qadimgi Sharq xalqlari tarixini mukammal bilganligini va bu tarixni ilmiy asosda yoritganligini ko‘rsatadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, «Yodgorliklar» fan tarixi jihatidan muhim asar bo‘lganligiga qaramay, uning nomi qandaydir sabablarga ko‘ra, o‘rta asr mualliflari tomonidan eslanmagan. Asarni dunyoga ma’lum va mashhur qilgan shaxs Zaxau hisoblanadi. U 1878 yili Leyptsigda birinchi marta asarning arabcha matnini o‘sha paytda ma’lum bo‘lgan uchta qo‘lyozma asosida nashr etgan[9, —B. №52.]

Oradan bir yil o‘tib, u o‘zining tanqidiy matni asosida Londonda asarning inglizcha tarjimasini ham nashrdan chiqargan. E. Zaxauning tanqidiy nashri asarning XVII–XIX asrlarda bitta umumiy nusxadan ko‘chirilgan nusxalariga asoslangan bo‘lib, bu uchala qo‘lyozma nusxada qator suqutlar (matnning tushirib qoldirilgan, yetishmaydigan qismlari) mavjud edi. 1321/1943 yili eronlik sharqshunos Akbar Dono Sirisht Sirafiy E. Zaxauning tanqidiy matnidan asarning forscha tarjimasini nashr etdi. Bu nashrning mikrofilmi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida № 69 raqami bilan saqlanadi.

E. Zaxau nashridagi matnning kamchiliklarini bartaraf qilish uchun boshqa biror to‘liqroq nusxa axtarish kerak edi. Shunday nusxa 1912 yili Peterburg Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyidan (hozirgi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi) topildi.

Osiyo muzeyidagi qo‘lyozmani akademik K.G. Zaleman darhol tavsiflab, e’lon qiladi va unda Beruniy asarining yana bir eski qo‘lyozmasi Istanbulda topilganini, u yaqin kelajakda fan uchun ma’lum bo‘lishiga umid borligini bildiradi. Bu qo‘lyozma Istanbul Ommaviy kutubxonasida № 4667 raqami ostida saqlanishi aniqlandi[10, — №14, B. 861–870.]

Nihoyat, "Osor al-boqiya" bo`yicha shuncha materiallar va asos to`planganidan so`ng, 1968 yili O`zR FA Sharqshunoslik institutida asarning o`zbekcha izohli tarjimasi nashr etildi. Tarjimani A.Rasulov qilgan, izohlarni I..Abdullaev va A.Rasulovlar tuzgan,[11, — B. 160.] mas’ul muharrirlar: I.Abdullaev va O.Fayzullaev.

O'zbek elshunoslik maktabining asoschisi, akademik K. Shoniyozov juda to'g'ri ta'kidlaganidek: «Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlarining o'rta asrlar davridagi joylashishi va ularning hayotini o'rganish uchun yetarli manba hisoblanadi».

Demakki, jahon sivilizatsiyasi ravnaqiga o'zining yirik ilmiy kashfiyotlari bilan salmoqli hissa qo'shgan, O'rta Osiyo birinchi Uyg'onish (Renessans) davrining yirik namoyandasi, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridagi boy etnografik ma'lumotlar o‘zbeklarning tarixi, kelib chiqishi (etnogenezi), etnik tarixi va etnomadaniyatini yanada teranroq o'rganib, yanada salmoqli va to'laqonli ilmiy-tadqiqotlar yaratishda eng qimmatli va noyob manbalardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari — faqat tarixiy emas, balki madaniy, diniy, etnografik jihatdan ham bebaho manbadir. Ushbu asar orqali biz qadimgi xalqlarning urf-odatlari, dunyoqarashi va hayot tarzini chuqur o‘rganish imkoniyatiga egamiz. Bu asar bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni o‘z tarixiga, madaniyatiga hurmat bilan qarashga da’vat etadi. Beruniy merosi xalqaro miqyosda tan olinmoqda va O‘zbekiston ilm-fan rivojida alohida o‘ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Том IV. — Москва – Ленинград: Наука, 1965.
2. Axmedov A. Beruniyshunoslik va uning ilmiy merosi. — Toshkent: Fan, 1986.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida. — Xalq so‘zi, 2022-yil 25-avgust.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -TA, 1-jild. – T.: "O‘zbekiston" NMIU, 2020.
5. Beruniy A.R. Osoru-l-boqiya an al-Qurun al-xoliya (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). Tarjima va izohlar bilan. — Toshkent: Fan, 1968.
6. Marquart J. Die Chronologie der alttürkischen Inschriften. — Leipzig, 1898.
7. Henning W.B. The Date of Sogdian Ancient Letters // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. — 1948, Vol. 12. — P. 3–4, 176;

Gershevitch I. The Sogdian Ancient Letters. — London: Oxford University Press, 1954.

8. Beruni A.R. India. Trans. By Edward Sachau. — London: Kegan Paul, 1910.

9. Sachau E. (Ed.). Chronologie Orientalischer Völker von Albiruni. — Leipzig: Brockhaus, 1876–1878. — 3 vols. Mikrofilm: O‘zR FA Sharqshunoslik instituti.

10. Salemann C. Zur Handschriftenkunde, I: Al-Birunis al-Atar al-Baqiyah. // Imperator Akademiyasi Yangiliklari, VI-seriya, 1912-yil.

11. Beruniy A.R. Yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968

V. O‘ZBEKISTON ETNOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИНИ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИДАН

Улуғбек АБДУЛЛАЕВ
тарих фанлари доктори, профессор
Андижон давлат техника институти
abdullaev1956u@gmail.com

Аннотация: *Мақолада Фарғона водийси аҳолисининг этник таркибининг шаклланиш жараёни таҳлил қилинган. Муаллиф мавжуд ёзма манбаларни ўрганиб, тарихнинг турли даврларида бу ҳудуд турли этник гуруҳларнинг яшаш жойи бўлганлигини кўрсатади. Шунингдек, фактик материаллар таҳлили асосида Фарғона водийси бутун тарих давомида этномулоқот ҳудуди бўлганлиги таъкидлайди.* ***Таянч сўзлар****: Фарғона водийси, ёзма манбалар, этник таркиб, парикан, сак, эгли, усун, даван, юечжи, хунлар, эфталийлар.*

Аннотация: *В статье анализируется процесс формирования этнического состава населения Ферганской долины. Автор изучил имеющиеся письменные источники и показал, что эта территория в разные периоды истории была зоной расселения различных этнических групп. В статье также на основе анализа фактических материалов доказывается, что Ферганская долина на протяжении всей истории была регионом этноконтактной территорией.* ***Ключевые слова****: Ферганская долина, письменные источники, этнический состав, париканы, сакы, эгли, усуны, давань, юечжы, гунны, эфталиты.*

Annotation: *The article analyzes the process of formation of the ethnic composition of the population of the Fergana Valley. The author studied the available written sources and showed that this territory in different periods of history was a zone of settlement of various ethnic groups. The article also proves, based on the analysis of factual materials, that the Fergana Valley has been an ethno-contact region throughout history.* ***Keywords****: Fergana Valley, written sources, ethnic composition, Parikane, Saka, Egli, Wusun, Davan, Yuezhi, Huns, Hephthalites.*

Марказий Осиёнинг энг қадимги халқлари хақидаги ёзма маълумотлар асосан Авесто, Юнон-Рим, Эрон ва Хитой ёзма манбаларида сақланиб қолган. Бироқ, Юнон-Рим ва Эрон ёзма манбаларида Фарғона ўлкаси, унинг қадимги ахолиси хақидаги маълумотлар жуда кам учрайди. Бундай маълумотларни асосан, қадимги Хитой ёзма манбаларидан топиш мумкин.

Фарғона водийси ўша қадим даврлардаёқ полиэтник қиёфага эга бўлган. Ўша қадим даврда водий аҳолисини бир қисми ўтроқ ҳолда яшаб деҳқончилик, ҳунармандчилик ва савдо-сотиқ билан шуғулланган бўлса, бошқа қисми кўчманчи чорвачиликка асосланган хўжалик юритган.

Илмий адабиётларда водийнинг асосий аҳолисига нисбатан *париканийлар* (*париканлар*), *даванликлар* (*дайюан аҳолиси*) этнонимлар қўлланилади. Ушбу худуд ахолисининг бир қисмини *сак* қабилалари ташкил этган. Рус тадқиқотчиси Б.А.Литвинский ўзининг “Сўғд ортидаги саклар” номли асарида Фарғона худудида яшовчи *саклар “сак-хаумаворка”* қабила бирлигига кирганлиги хақида аниқ маълумотлар беради [5, - С.95-98].

Милоддан аввалги I-минг йилликнинг ўрталарида Сирдарёнинг чап томонида *эгли* деб номланувчи этнос яшаганлиги маълум. *Эгли*ларнинг асосий қисми хозирги Хўжанд районида жойлашган. Бундан ташқари, Сирдарё бўйлаб,

Фарғонанинг ғарбий ерларига яқин жойларда *обий скиф*лари ёки *апасиак*лар деб номланувчи этнос хам яшаган [1, - С.7].

Милоддан аввалги IIасрнинг II ярмида Жунғорияни, Тяньшань тоғининг ғарбий қисмини ва Шарқий Туркистонни эгаллаган *усун (ушун)* деб номланувчи қабилаларнинг баъзи бир бўлаклари аста-секин Фарғонанинг тоғли районларига хам келиб жойлашганлар. Юқорида номлари кўрсатиб ўтилган халқлар қадимги Фарғона ахолисининг этник таркиби асосини ташкил этганлар.

Қадимги Фарғона ахолисининг тили хақида нима дейиш мумкин? Бу масалага ойдинлик киритишда Хитой ёзма манбалари қўл келади. Хусусан, Шицзи солномасида Фарғона (Давонь)дан Ғарбга то Аньси (яъни Парфия) давлатигача бўлган худудлар орасидаги ахоли бир-бирининг сўзларини тушунганликлари айтилади. Хўш, бу қандай тил эди? Афсуски, яқин-яқингача бу саволга бир томонлама жавоб берилди. Яъни, аксарият тадқиқотчилар Ўрта Осиё худудида антик даврларда яшаган халқларни фақат эрон-форс тилида гаплашувчи этнослар деб таъкидлаб келдилар. Бироқ сўнгги йилларда олиб борилаётган тадқиқотлар, хусусан Шарқ, айниқса Хитой манбаларини ўрганиш ва тахлил этиш натижасида маълум бўладики, бу даврда Марказий Осиё, жумладан, Фарғона худудида туркий тилли этнослар хам яшаганлар. Бизнингча, эроншунос тадқиқотчилар, Ўрта Осиё худудида антик даврларда яшаган халқларнинг эрон тилига мансуб этнослар эканлигини таъкидлар эканлар, улар қадимги Юнон ва Эрон манбаларигагина асосланганлар, холос. Холбуки, қадимги Юнон ва Эрон манбаларида туркий тилда сўзлашувчи халқларни хам эрон тилли қабилаларга қўшиб *сак-массагет*лар деб қайд қилиб кетилган бўлса керак [8, - С.80]. Демак, хеч шубхасиз, Фарғона водийси ахолисининг каттагина қисми антик даврлардаёқ туркий тилнинг турли лахжаларида сўзлашганлар.

Тарихдан аёнки, милоддан аввалги 150-йилда *усун* қабилалари Тяньшань тоғ этакларида ўрнашиб олган *юэчжи* қабилаларига қаттиқ зарба берадилар. Оқибатда *юэчжи* қабилаларининг катта бир қисми ғарбга томон силжиб боради. Хитой манбаларига кўра, *юэчжи* қабилаларининг ғарбга қараб силжиб бориши Фарғона орқали бўлиб, маълум муддат ушбу худуд хам улар қўли остида бўлган. Сўнгра улар ғарбга қараб силжишларини давом эттирганлар. Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, айнан шу Хитой ёзма манбаларида кўрсатилишича, ғарбга томон силжиб бораётган *юэчжи*ларнинг умумий сони 100 минг оила ёки 400 минг кишини ташкил этган, аскарларнинг сони 100 мингдан 200 минггача етган. Бундай кўп сонли халқнинг Фарғона орқали ўтиши албатта водий ахолисининг этник таркибида ўз изини қолдирганлигига шубха қилмасак хам бўлади. Фикримизча, уларнинг қандайдир қисми ушбу жойларда қолиб, қисман ўтроқлашиб, туб ерли халқларга аралашиб кетган бўлса керак.

Милодий II-IV асрлар мобайнида Ўрта Осиё, хусусан Мовароуннахр худудларига жанубий Сибир, Жунғориядан, Шарқий Туркистондан бир қанча қабилалар, жумладан хионитлар, кидаритлар ва эфтолитлар келиб жойлаша бошладилар ва IV-VI асрларга келиб улар икки дарё (Аму ва Сирдарё) оралиғидаги ахолининг катта қисмини ташкил қилганлар.

Мавжуд тарихий манбаларнинг гувохлик беришича, V асрнинг биринчи ярмидан эътиборан эфталитлар ушбу худудларда сиёсий бошқарувни ўз қўлига

ола бошладилар ва Ўрта Осиёни, жумладан Фарғона водийсини ўз таркибига бирлаштирган эфталитлар давлатига асос солдилар. Хитой манбаларида эфталитларни туркий тилли халқлар эканлиги, келиб чиқиши жихатидан *юэчжи* ёки *уйғур* қабилаларига бориб тақалиши кўрсатилади.

Тадқиқотчилар эфталитларни икки гурухга-*"оқ хионлар"* хамда *"қизил хионлар"*га ажратадилар. Айнан Фарғона водийсида уларнинг *"қизил хионлар"* деб номланган гурухи жойлашганлиги хақида хам манбаларда маълумотлар бор [4, - С.55-56].

Кейинги асрда бу худудларга турк қўшинлари бостириб кирдики, бу холат водий ахолиси орасида хам туркийлашиш жараёнини кучайтирди. Фарғона водийсига кириб келиб ўрнашган туркий элатлар ичида қарлуқлар кўпчиликни ташкил этганлар. Айни вақтда уларга қардош бўлган *халаж, чиғил, яғмо* ва бошқа туркий тилли қабилалар хам ушбу худудга кўчиб келиб жойлашганлар. Ушбу этник бирликларнинг аксарияти махаллий ахоли билан қоришиб кетди.

VIII-XIII асрлар давомида Фарғона водийси ахолисининг этник таркиби бу ерга бостириб кирган *араб, қорахитой* ва *мўғул* қабилалари билан бойиди. Таъкидлаш ўринлики, Чингизхон қўшинлари таркибида *мўғуллар* билан бирга *турклар* ва *турклашган мўғуллар* кўпчиликни ташкил этар, уларнинг айримлари турк тилини хатто она тили деб хисоблар эдилар. Ёзма манбаларнинг тахлили шуни кўрсатадики, Мухаммад Шайбонийхон бошчилигидаги қўшин кириб келгунга қадар, Фарғона водийси худудида бир қатор *турк* ва *турк-мўғул* қабилалари яшаганлар: чунончи *қарлуқ, яғмо, чигил, ашпар, халач, чоғроқ, қоучин, жолоир, барлос, найман, қтой, минг, қирқ, чурос, қангли бахрин,нарин, аргун, балиқчи* ва бошқалар [2, - С.369-378]. Ушбу этник гурухларнинг аксариятини номи хозиргача топонимикада, яъни қишлоқ жой номларида сақланиб келмоқда.

Водий худудига кириб келган кўчманчи этник гурухларнинг Фарғона водийси бўйлаб ўтроқлашиши хам бир хил кечмади. Бу жараён, айниқса водийнинг ўрта ва шарқий қисмида яъни Марғилон, Андижон, Аравон, Ўш ва Ўзган оралиғида жадал кечди. Хусусан, Даштиқипчоқ ўзбекларининг хам ўтроқ турмуш тарзига ўтиши Наманган, Чортоқ, Наукент ва Пишкорон ахоли пунктлари оралиғидаги худудларда муваффаққиятли бўлди [6, - С.25].

Ўша давр ёзма манбаларини ўрганиб чиқиш шуни кўрсатмоқдаки, турли этник гурухларнинг Фарғона водийси худудига кириб келиб жойлашиши кейинчалик хам давом этди. Чунончи, XVII ва XVIII асрларда Тяньшань тоғининг шимолида яшовчи *қирғизлар*нинг катта гурухи Фарғона ерларига келиб ўрнашдилар. қирғизларнинг Фарғона водийсига кириб келиши то XX асрнинг бошларигача жадал кечди.

Айни вақтда Сирдарёнинг ўрта оқимида яшаб турган *қорақалпоқ*лар хам Фарғона водийси худудига келиб жойлаша бошладилар. Уларнинг водий худудига кўчиб келиши XIX аср бошларига қадар давом этди [7, - С.17-26].

Ўша давр тарихчиси Ниёз Мухаммад томонидан битилган "Тарих-и-Шохрухи" номли асарда кўрсатилишича, Фарғона худудига Шимолий Тожикистоннинг тоғли районларидан, хусусан Матчои, қоратегин, Дарвоз, Кўлоб ва Хисордан тожикларнинг кўчиб келиши кузатилди. Тоғли

тожикларнинг водийга кўчиб келиши XIX-XX аср бошларида айниқса фаоллашди. Бу даврда водийга кўчиб келган *тожиклар* ичида қоратегиндан чиқиб келган *тожиклар* кўпчиликни ташкил этганлар [3, - С.86-87].

Бундан ташқари, XVIII асрнинг II ярмидан эътиборан Шарқий Туркистонда яшовчи *уйғурлар*нинг хам Фарғона водийси ва Ўрта Осиёнинг бошқа минтақаларига кўчиб ўтиши кучайди. Айниқса, XIX асрнинг II ярмида бу жараён анча оммавий тус олган. Масалан, ўша давр ёзма манбаларида кўрсатилишича, биргина 1862-1878 йиллар орасида қўқон хонлиги худудига кўчиб ўтган қашқарликларнинг сони 85 мингдан 162 минг нафаргачани ташкил этган. Ушбу манбалар айнан шу даврларда Фарғона водийси худудига Шарқий Туркистонда яшаб турган кўплаб *дунгон* оилаларининг хам кўчиб келганлиги хақида гувохлик беради.

Маълумки, Чор Россияси томонидан Ўрта Осиё босиб олингандан кейин, ўлкага, хусусан, Фарғона водийси худудига *руслар, украинлар, белоруслар, Волгабўйи татарлари, арманлар, озарбойжонлар* ва бошқаларнинг кўплаб кўчиб келиши кузатилади.

Хуллас, узоқ давом этган этник ва миграция жараёни натижасида Фарғона водийси мураккаб ва айни вақтда ўзига хос этник қиёфага эга бўлди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (науч.популяр.очерк.). -Т.: Фан, 1951.
2. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX века // Этнокультурные процессы.-Т., 1991., Ахмедов Б. Ўзбекларнинг этник тарихини ўрганишда қўлёзма манбаларнинг роли // Тарихдан сабоқлар.-Т., 1994.
3. Губаева С.С. Горные таджики Каратегина в Ферганской долины (конец XIX-начало XX в.). // СЭ. 1987.-№1.
4. Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы.-Душанбе: Акад.Наук, 1963.
5. Литвинский Б.А. Саки, которые за Согдом // Труды АН. Тадж. 1960-Т.120.
6. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства.-Казан., 1886.
7. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины.-Нукус: Каракалпакизд, 1959.
8. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни хақида баъзи фикр-мулохазалар // ЎИФ.-1996.-№6.

MARKAZIY OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH ARAFASIDAGI ETNIK HOLAT

Ismoiljon XO‘JAXONOV
Oriental universiteti Tarix kafedrsi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
khujahonov@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1920-yillar boshida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayoniga qadar bo‘lgan etnik holat tahlil qilingan. Muallif*

mintaqada tarixan shakllangan etnografik xilma-xillik, aholi orasida diniy, hududiy va urug‘-qabilaviy o‘zliklarning ustuvorligi, milliy konsolidatsiya jarayonining to‘liq yakunlanmaganligini ko‘rsatadi. Milliy chegaralanish Sovet hokimiyatining siyosiy manfaatlari doirasida, ko‘plab hollarda mahalliy aholining etnik o‘zligini anglash darajasi, tarixiy birlik va ijtimoiy-madaniy umumiylik hisobga olinmagan holda amalga oshirilgani ta’kidlanadi. **Kalit so‘zlar:** *Markaziy Osiyo, etnik o‘zlik, milliy-hududiy chegaralanish, Turkiston, milliy-etnik tasnif, til va din birligi.*

Аннотация. *В данной статье глубоко анализируется этническая ситуация в Центральной Азии накануне национально-территориального размежевания, проведённого в начале 1920-х годов. Автор указывает на исторически сложившееся этнографическое разнообразие региона, преобладание религиозной, территориальной и родо-племенной идентичности среди населения, а также незавершённость процессов национальной консолидации. Отмечается, что национальное размежевание осуществлялось в рамках политических интересов советской власти и во многих случаях - без учёта уровня этнического самосознания местного населения, исторического единства и социально-культурной общности.* **Ключевые слова:** *Центральная Азия, этническая идентичность, национально-территориальное разграничение, Туркестан, национально-этническая классификация, языковое и религиозное единство.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the ethnic situation in Central Asia prior to the national-territorial delimitation carried out in the early 1920s. The author highlights the historically developed ethnographic diversity of the region, the dominance of religious, territorial, and tribal identities among the population, and the incomplete process of national consolidation. It is emphasized that the delimitation was implemented within the framework of Soviet political interests and, in many cases, without considering the local population’s level of ethnic self-awareness, historical unity, and socio-cultural commonality.* **Keywords:** *Central Asia, ethnic identity, national-territorial delimitation, Turkestan, national-ethnic classification, linguistic and religious unity.*

Markaziy Osiyo qadimdan yagona etnografik makon sifatida shakllangan bo‘lib, bu hududda asrlar davomida turli xalq va elatlar yashagan. Ularning asosiy qismini turkiyzabon va forsiyzabon (eroniyzabon) xalqlar tashkil etgan. Turon yoki Turkiston deb atalgan ushbu hududda sulolaviy boshqaruvga asoslangan davlatlar mavjud bo‘lgan, ammo ular etnik xususiyatga ega emas edi.

Dastlab, Markaziy Osiyo aholisini etnik mansublik asosida tasniflash Rossiya imperiyasi davrida boshlangan. XIX asrda Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari Turkiston o‘lkasi aholisining etnografiyasini o‘rganib, ularni etnik belgilarga ko‘ra ajratishga harakat qilgan. Biroq, bu masala XX asr boshlarida ham to‘liq yechimini topmagan edi. Bunga mintaqadagi etnomadaniy jarayonlarning holati va aholining etnik o‘zlik hissining yetarlicha rivojlanmagani sabab bo‘lgan. Bir tomondan, xalqlarning milliy birlashish (konsolidatsiya) jarayoni yakunlanmagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholining o‘zligini anglashi etnik o‘zlikdan ko‘ra ko‘proq diniy, hududiy (hamshaharlik) va urug‘-qabilaviy mansublikka asoslangan edi.

Diniy o‘zlik, ayniqsa islom dini, mintaqa xalqlari uchun eng muhim belgilovchi omil bo‘lib, ularning dunyoqarashi, kundalik hayoti va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirgan. Hududiy o‘zlik (hamshaharlik) aholining o‘z shahar yoki qishloqlari bilan bog‘liqligini ifodalab, mahalliy jamoalar ichidagi yaqinlik va birgalikda yashash tajribasiga asoslangan. Bu, masalan, Samarqand, Buxoro yoki Xiva kabi shaharlardagi mahalliy odat va an’analarda namoyon bo‘lgan. Urug‘-qabilaviy mansublik esa chorvador aholining oilaviy va qarindoshlik aloqalari, qabila ichidagi ierarxiya va ijtimoiy tuzilmalar orqali ularning hayot tarzini tartibga solgan. Ushbu

uch omil – din, hamshaharlik va qabilaviylik – XIX-XX asr boshlarida Markaziy Osiyo aholisining o‘ziga xos o‘zlik idrokini shakllantirib, ularning madaniy-tarixiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

Milliy-hududiy chegaralanish jarayoni sovet davlatining “bo‘lib tashlab, hukmronlik qil” tamoyiliga asoslangan milliy siyosati doirasida amalga oshirildi. Amerikalik tadqiqotchi Edvard Ollvorzning ta’kidlashicha, bu jarayon bir jihatdan “o‘zbeklarning mintaqa xalqlarini birlashtiruvchi kuchiga qarshi qaratilgan edi.” [1. 76].

Shunday qilib, 1920-yildan boshlab mintaqada milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazishga kirishila boshlandi. Shu yili Turkomissiyaning milliy davlatchilik loyihasi tasdiqlangan edi. Komissiyaga O’zbekiston, Turkmaniston va Qozog’istonning etnografik xaritasini tuzish ham topshirilgan. Bu jarayonda xalqlarning etnik konsolidatsiya darajasi, etnonimlarning tarixiy asosliligi, xalqlarning o‘z-o‘zini nomlash bilan mosligi, yirik xalqlarning kichik etnografik guruhlarni iqtisodiy, madaniy va etnik jihatdan o‘ziga qo‘shib olishi kabi masalalar hal qilinishi lozim edi.

Chegaralanishga tayyorgarlik ko‘rishda masalaning ilmiy jihatiga katta e’tibor qaratildi. Bu ishlarni olib borishda taniqli tarixchi, etnograf va sharqshunoslar – I.I.Zarubin, M.S.Andreyev, P.P.Ivanov, A.A. Divayev va boshqalar ishtirok etdi. Ular maxsus etnografik ekspeditsiyalarda zarur ma’lumotlarni yig‘ishda qatnashdilar. [2. 39] Shuningdek, 1897, 1917 va 1920-yillardagi aholi ro‘yxati materiallari diqqat bilan o‘rganib chiqildi. Bu jarayonda 1917-yilda Rossiya Fanlar akademiyasida tashkil etilgan “Rossiya va chekka mamlakatlar qabilaviy tarkibini o‘rganish bo‘yicha komissiya” muhim rol o‘ynadi. [3.]. 1924-yilda Xorazm va Buxoro respublikalarida birinchi marta aholi ro‘yxati o‘tkazildi, chunki bu hududlarda ilgari bunday tadbirlar bo‘lmagan edi. Ushbu ro‘yxatlarning maqsadlaridan biri aholining etnik tarkibini aniqlash va murakkab etnik aralash hududlarda xalqlarning qaysi respublika tarkibida bo‘lish istagini o‘rganish edi.

Chegaralanish arafasida Turkiston muxtor, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va etnik konsolidatsiya jihatidan turlicha holatda edi. Masalan, Xorazmda o‘zbeklardan tashqari turkman, qozoq va qoraqalpoqlar, Buxoroda o‘zbek va tojiklar bilan birga turkman, qozoq, arab, lo‘li, yahudiy va boshqa xalqlar, Sharqiy Buxoroda Pomir xalqlari – rushan, shug‘non, vaxan va boshqalar (asosan ismoiliy mazhabiga mansub) yashagan. Turkiston hududida esa o‘zbek, qozoq, tojik, qoraqalpoq va qirg‘izlar istiqomat qilgan. Chorvador aholi bir hududdan boshqa hududga ko‘chib yurganligi ham vaziyatni murakkablashtirgan. [4. 685].

Yuqorida qayd etilganidek, mintaqa xalqlarining o‘zaro birlashish jarayoni chegaralanish arafasida hali to‘liq yakunlanmagan edi. Har bir xalq tarkibida til lahjalari, madaniyati va turmush tarzida lokal xususiyatlar saqlanib qolgan, shuningdek, etnik o‘zlikni anglashda ikki xil o‘zlik hissi mavjud edi: bir tomondan, ma’lum bir xalqqa mansublik, ikkinchi tomondan esa, lokal, hamshahar yoki urug‘-qabilaviy mansublik hissi. Tojik va o‘zbeklarda u yoki bu xalqqa tegishlilikdan tashqari hududiy o‘zligi ikkinchi o‘zlik shaklini tashkil etgan bo‘lsa, turkman, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘izlarda va o‘zbeklarning bir qismida urug‘-qabilaviy guruhga

mansublik hissi saqlanib qolgan edi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ko'chmanchi chorvador turkiy xalqlarda urug'-qabilaviy an'analar saqlanib qolgan bo'lib, ular etnik jihatdan turli qabilalar yig'indisini tashkil etgan.

Aralash yashovchi hududlarda (masalan, o'zbek-tojik) assimilyatsiya jarayonining yo'nalishi va chuqurligi, etnik o'z-o'zini anglash shakllari hamda ustunlik qiluvchi tillarni aniqlash zarur bo'ldi. Bunday hududlarda, ayniqsa, o'zbek va tojiklar o'rtasida milliy chegarani o'tkazish qiyin edi. Chunki, ular qadimdan o'zaro qo'shilib, quda-anda bo'lib yashab kelar edi. Ularning ko'pchiligi ikki tilda so'zlasha olardi. Qolaversa, aynan o'zbek va tojiklar yashaydigan qadimiy shahar va qishloqlar mintaqaga xos sivilizatsiya markazlari hisoblanganligi sababli chegaralanish davrida juda muhim hisiblangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining etnik taraqqiyot darajasining hali tugal emasligini lingvistik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Taniqli turkolog A.Baskakov bir necha dialekt tizimini ajratib ko'rsatadi: a) urug'-qabilaviy izlarni ko'rsatuvchi dialekt tizimi; b) dialekt bo'linishi hududiy belgilar asosida guruhlanuvchi dialekt tizimi, aholining etnik tarkibi jihatidan esa ushbu xalqlarda urug'-qabilaviy bo'linish tartiblari saqlanib qolgan; c) urug'-qabilaviy bo'linish va urug'-qabilaviy nomlar saqlanib qolmagan turkiy xalqlar dialekt tizimi. Birinchi kategoriyaga turkmanlar dialekti kiradi (uning yovmut, taka va b. yirik qabilalari shevalari ham). O'zbek tili ham shu dialekt turkumiga kiradi (ko'chmachni o'zbeklar shevasi), lekin uning bir qismi (tarixan qadimiyroqlarining) dialekti 3 ta guruhga bo'linadi: qarluq, o'g'uz va qipchoq. Shu bois, o'zbek dialektlarida qabilaviy shevalar ham saqlangan, boshqa tomondan shaharliklar shevalari ham rivojlangan: qarluq lahjasidan Namangan, Toshkent, Andijon shevalari; o'g'uz-qipchoq lahjalaridan - Xorazm shevasi. Qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlarning dialektlari ikkinchi guruhga kiradi. Ya'ni ularni tarkibida urug'-qabilaviy o'zlik saqlanib tursada, til dialekti hududiy lahjalarga ajralgan. Masalan, qirg'iz tili shimoliy va janubiy lahjalarga; qozoq tili - shimoli-sharqiy, janubiy va g'arbiy lahjalarga bo'linadi. Bu jihat qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlarda til lahjalari jihatidan urug'-qabilaviy bo'linish o'z ahamiyatini yo'qotib, ma'lum bir hududga xos lahjalar shakllanganligidan dalolat beradi. [5. 54].

Milliy ma'rifatparvar ziyolilar milliy sovet respublikalarini tuzishga qarshi chiqishgan va "Turkiston respublikasi"ni yagona milliy birlik sifatida tashkil etish yoki O'rta Osiyo federarsiyasini tuzish kabi loyihalarni taklif qilishgan, ammo bu jarayonda mahalliy aholi fikri deyarli e'tiborga olinmagan. [6. 28].

Xullas, milliy-hududiy chegaralanish arafasida Markaziy Osiyodagi etnik holat nihoyatda murakkab va ko'p qatlamli edi. Mintaqa xalqlarining etnik o'zligini anglash hali to'liq shakllanmagan bo'lib, diniy, hududiy va urug'-qabilaviy mansublik hali ham asosiy ijtimoiy o'zliklar sifatida mavjud edi. Shuningdek, aralash yashovchi hududlardagi aholining ikki va undan ortiq tilda so'zlashuvi, uzoq yillik birga yashash tajribasi ularning etnik chegaralarini aniqlashni yanada murakkablashtirgan.

Sovet hokimiyatining milliy siyosati doirasida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish esa ko'plab ilmiy va amaliy muammolarni keltirib chiqardi. Etnografik ekspeditsiyalar, aholi ro'yxatlari va lingvistik tadqiqotlarga asoslangan bo'lsa-da, bu jarayonda ko'plab omillar – jumladan, mahalliy aholining fikri, tarixiy birlik va

madaniy yaxlitlik yetarlicha inobatga olinmadi. Natijada, chegaralanish yakunlari ayrim hollarda sun’iy bo‘lib, keyinchalik mintaqaviy ziddiyat va etnik nizolarning sabablaridan biriga aylandi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyodagi milliy-hududiy chegaralanish jarayoni etnik o‘zlik, til, madaniyat, iqtisodiy manfaatlar va siyosiy maqsadlar kesishgan murakkab kontekstda amalga oshirilgan bo‘lib, u mintaqaning keyingi siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayonni tahlil qilish orqali biz mintaqa xalqlari tarixidagi muhim bosqichlardan birini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Edward Allworth. The modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. - Stanford. Calif. Hoover press publication. 1990.

2. Hirsch, Francine. *Empire of Nations: Ethnographic Knowledge and the Making of the Soviet Union*. Ithaca: Cornell University Press. 2005.

3. Материалы по районирование Средней Азии. Территории и население Бухары и Хорезма. Книга 1. Часть 1. Ташкент. 1926. 288 с.

4. Баскаков А. Этнолингвистическая классификация диалектных систем современных тюркских языков, «Труды VII Международного конгресса антропологических и этнографических наук», М., 1970, т. 5, стр. 682-688.

5. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. Berkeley: University of California Press. 1988.

6. Жданко Т.А. Национально-государственное размежевание и процессы этнического развития у народов Средней Азии // Советская этнография. 1972. № 5. - С. 13-30.

III-VIII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO HUDUDLARIDA SODIR BO’LGAN ETNIK JARAYONLARGA O‘Z TA’SIRINI KO’RSATGAN YIRIK ETNIK BIRLIKLAR

Komron MAXMARAJAPOV
Oriental universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ilk o`rta asrlarda sodir bo’lgan etnik jarayonlar O’rta Osiyo xalqlarining shakllanishida bu hududga ko’chib kelgan turli elat va qabilalar ham ma’lum ma’noda ishtirok etganligini ko‘rsatadi. Mazkur maqola ilk o‘rta asrlardagi O’rta Osiyoda kechgan etnik jarayonlarga bag‘ishlanadi. So‘nggi arxeologik tadqiqodlar natijalariga ko’ra milodiy II-III asrlardan boshlab Farg’ona vodiysi, Samarqand hududlariga, IV-V asrlarda esa Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga “Qovunchi madaniyati” ta’siri yoyila boshladi. VI asrlarning oxirlaridan boshlab O’rta Osiyoda yirik turkiy etnoslar: xiyoniylar, kidariylar, eftaliylar asosiy qismi turg’un holatga o’tadilar.* ***Kalit so’zlar:*** *Ilk o’rta asrlar, O‘rta Osiyo, etnogeniz, toxarlar, eftallar, Turk xoqonligi, Qovunchi madaniyati.*

Annotation. *The ethnic processes in our country show that various tribes and peoples who migrated to this region played a certain role in the formation of the peoples of Central Asia. This article is dedicated to the ethnic processes that took place in Central Asia during the Early Middle*

Ages. According to recent archaeological research, from the 2nd–3rd centuries AD, the influence of the "Qovunchi Culture" can be observed in the Fergana Valley and Samarkand regions, and in the 4th–5th centuries in the Bukhara, Kashkadarya, and Surkhandarya oases. From the end of the 6th century, major Turkic ethnic groups — the Chionites, Kidarites, and Hephthalites — began to settle permanently in Central Asia. ***Keywords:*** *Early Middle Ages, Central Asia, ethnogenesis, Tocharians, Hephthalites, Turkic Khaganate, Qovunchi Culture.*

Аннотация. *Этнические процессы в нашей стране свидетельствуют о том, что различные племена и народы, переселившиеся в этот регион, сыграли определённую роль в формировании народов Средней Азии. Данная статья посвящена этническим процессам, происходившим в Средней Азии в раннем Средневековье. Согласно последним археологическим исследованиям, начиная со II–III веков нашей эры в Ферганской долине и Самаркандском регионе, а в IV–V веках — в Бухарском, Кашкадарьинском и Сурхандарьинском оазисах ощущается влияние "Ковунчинской культуры". С конца VI века в Средней Азии начинают оседать крупные тюркские этносы: хионiты, кидариты, эфталиты.* ***Ключевые слова:*** *раннее Средневековье, Средняя Азия, этногенез, тохары, эфталиты, Тюркский каганат, Ковунчинская культура.*

Ilk o’rta asrlarda O’rta Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida bu hududga ko’chib kelgan turli elat va qabilalar ham ma’lum ma’noda ishtirok etganlar. yuechjilar, xiyoniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. Bu davrda Sirdaryoning o’rta havzasida “Qovunchi madaniyati’’ shakllanadi. So‘ngi arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko’ra milodiy II-III asrlardan boshlab Farg’ona vodiysi, Samarqand hudulari, IV-V asrlarda esa Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida Qovunchi madaniyatining ta`siri yoyila boshladi. VI asrlarning oxirlaridan boshlab O’rta Osiyoda yirik turkiy etnoslar xiyoniylar va eftaliylarda o’troqlashuv jarayonlari ko‘chayadi. V-VI asrlarga kelib xiyoniylar va eftaliylar asosiy qismi turg’un hayotga o’tadilar. Bu qabilalar o’troq hayot kechirib an’anaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shug’ullanganliklari haqida yozma va arxeologik manbalar ma’lumot beradi.

Markazir Osiyoning shimoliy va shimoli sharqiy mintaqalari aholisining aksariyat qismini tashkil etuvchi ko’chmanchi turkiy etnoslar bir necha qabila urug’lardan iborat bo‘lib, ular orasida tele qabilalar ittifoqi eng yirigi edi. Ushbu ittifoqqa uyg’ur, o’g’uz kabi yirik qabilalar ham kirgan.

Ilk o’rta asrlarda O’rta Osiyoda so’g’diylar aholining asosiy qismini tashkil etgan. So’g’diylarning azaliy vatani Zarafshon va Qashqadaryo vohalari bo’lib, ular ilk o’rta asrlarda Markaziy Osiyoning bir qancha hududlarida savdo-sotiq, madaniy-xo’jalik va boshqa sabablarga ko’ra keng tarqalgan. Ular turkiy qabila va elatlar kabi nafaqat So’g’diyonada, balki Ustrushona, Sirdaryoning o’rta xavzalarida,Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Shimoli-g’arbiy Xitoyda ham sezilarli miqdorda istiqomat qilgan [1, - B. 17]. Bu davrda Sirdaryoning o’rta havzalaridan to Ettisuvga qadar hududlarda o’nlab shaharlar qad ko’tarib, ularning aksariyat aholisini turkiylar va sug’diylar tashkil etardi.

XI asrda yashab ijod qilgan turkshunos olim Mahmud Qoshg’ariy ham aynan Chochning shimolidagi Isfijobdan to Taroz va Bolasog’ungacha bo’lgan hudda yashovchi aholining ham sug’diycha, ham turkcha so’zlashishlari haqida gapirib, ularni Samarqand va Buxoro tomonlardan ko’chib kelganliklarini ta’kidlaydi. [2, - B. 66].

Bu davrda mintaqaning etnik holatiga katta ta’sir ko’rsatgan yana bir xalq kelib chiqish Yuechji qabilalari bilan bog’liq bo’lgan toxarlar edi. Toxarlar Turk xoqonligi tashkil topish arafasida, asosan, o’troq hayot kechirishib, bir necha o’nlab shahar va qishloqlarga ega edilar. Toxarlar etiqodida hind buddizmi ustivorlk qilganligi sababli hind madaniyati, xususan, hind tili va yozuvi ular orasida keng tarqalgan

Takidlash o‘rinliki, Qadimgi Toxariston hududida yuechji qabilalari tomonidan asos solingan Kushon imperiyasi boshqaruvi toifasining etnik qiyofasida, boshqaruv an’analarida, unvonlar, hukmdor ismlari va hokazolarda turkiy, toxariy va boxtariy elimentlari ustivorlik qilishi ushbu davrdagi aloqalar bilan izohlanishi mumkin.

Eftalitlar ham ilk o’rta asrlarda O’rta Osiyodagi etnik holatga ta’sir ko’rsatgan birliklardan biri bo’lib, ular keng hududlarda, turli tuman etnik birliklardan tashkil topgan davlat bo’lganligi bois, yozma manbalarda har xil nomlar bilan tilga olinadi. 8-jildlik Xitoy tili yozuvining katta lug’atida “Eda Markaziy Osiyodagi qadimiy xalq va davlat nomidir, bay-shyunnu(oq xunlar) deb ham ataladi, aslida ular ko’chmanchi xalq bo’lgan” [3, - B.696] deyiladi. Shimoliy Hindiston va qisman Xurosonni o’z qo’l ostida birlashtirgan Eftalitlar davlati (420-565) kuch qudratga erishgan payt (450-yillarda) unga G’arbiy o‘lkalardagi Choch, Xutan, Qoshg’ar kabi 30 ga yaqin kichik hukmdorliklar buysungan [4, - C. 269]. Xitoy yilnomalarida eftalitlarning kelib chiqishini yuechji, gaoche kabi Markaziy Osiyolik ko’chmanchi etnoslar bilan bog’lasa, [5, - C.189-190] musulmon manbalarida eftalitlar (xaytallar) shaklida keltirilib, halaj, kumiji [6, - C. 73] va kanjina turklari ularning avlodi ekanligi qayd etiladi[7, - C 411-417].

Turkiy tilli eftalitlarning bir qismi janubi-g’arbga Toxariston va uning atroflariga ko’chgach, bu yerning mahalliy aholisi boxtariylarning tilini qabul qilgan va ularning tiliga oid malumotlar shu tariqa xitoy manbalaridan joy olgan. Ko’pchilik olimlar o’rta asrlarda Afg’oniston hududida yashagan xalaj turklarini eftalitlarning keyingi avlodlari sifatida qaraydilar.

VI asrning ikkinchi yarmida O’rta Osiyo etnosiyosiy maydonida G’arbiy Turk xoqonligining paydo bo’lishi mintaqa xalqlari, jumladan, o’zbek xalqi etnogenizi va davlatchilik tarixida muhim o’rin egallaydi. Chunki, qariyb ikki yuz yil davomida G‘arbiy Oltoydan to Qora dengizning shimoligacha, Volga-Urol bo’ylaridan to Shimoliy Hindistongacha bo’lgan hududlarda o’z hokimiyatini o’rnatgan. Ushbu xoqonlik tarkibiga Amudaryo-Sirdaryo oralig’idagi Choch, Qadimgi Farg’ona, Ustrushona, Sug’diyona, Buxoro, Toxariston va Qadimgi Xorazm kabi hukmdorliklar kirgan. Mazkur hududlarning aksariyati geografik jihatdan bugungi O’zbekiston hududiga to’g’ri keladi.

VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligi, birinchi navbatda, Sirdaryo o’rta havzlarini, O’rta Osiyo hududlarini egallab oldi. Ammo,b uning oqibati ularoq, ilk o’rta asrlarda umuman, butun Sirdaryoning o’rta havzalari mintaqalarida turk-sug’d etnomadaniy, etnopsixologik va etnosiyosiy maydon tarkib topdi. Qovunchi madaniyati asosida qang’ar elati, uning bazasida hozirgi o’zbek xalqiga xos antrapologik tip –“O’rta Osiyo ikki daryo oralig’i tipi” uzil-kesil shakllandi.

Toshkent vohasida turkiy etnosning qalinlashib borishi ayniqsa, Xoqonlik davrida jadal kechdi. Vohada turkiy nufuzning o’sishini ko’rsatuvchi omillardan o’nlab turkiycha nomdagi joylar, Shahar va qishloqlarning bo’lishidir. Ilk o’rta asrlarda

Choch vohasida turk-sug’d asosli Abrlig’, Arpalig’, Soyliq, Itliq, Barsket, Arslankent, Yaqaliq, Jadg’al va boshqa o’nlab Shahar va qishloqlarning qad ko’tarishi va bu joy nomlari Choch aholisining katta qismini turkiylar tashkil etganligi haqida guvohlik beradi. Toshkent vohasi aholisining katta qismi turkiygo’y ekanligi haqida musulmon yozma manbalari ham tasdiqlaydi. Masalan, Atbariy “Tarix ar-rusul va-l muluk” (IX asr) asarida 806-yilda Samarqandda sodir bo’gan Rofe ibn Lays qo’zg’oloniga yordamga kelgan chochliklar haqida so’z yuritar ekan, ular orasida “Shosh hukmdori va uning turklari” iborasini ishlatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Отахўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч. ‘‘O’zbekiston tarixi’’. – T.: 2009. - №1.

2. Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Т.: Фан, 1960-1963. 1 том.

3. Хўжаев А. Хитой тили ёзувининг катта луғати (Ханюй дазидян). 1-жилд, 696 бет. Ченгду.

4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. Москва-Ленинград. Изд. АН СССР. Т.1.С.228.

5. Ходжаев А. Из истории древних тюрков .

6. Кумижи – Вахш дарёси хавзалари ва Кофирниҳон дарёсининг юқори ҳавзасида жойлашган Кумед вилоятининг қадимий аҳолиси (Гардизий, с. 73, 150).

7. Doerfir G. Lexik und Sprachgeographie des Chaladsch. Wiesbaden, 1987.

8. Inaba M. The Identity of the Turkish Rulers to the South of Hindikush from the 7th to the 9th Centuries A.D. //Zinbun. -Tokyo, 2005. - No.38.

9. A Asqarov. “O’zbek xalqining kelib chiqishi tarixi” Toshkent, 2015.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR

Nasriddin TURONOV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Talabalar qabuli va kasbga yo‘naltirish”
bo‘limi bosh mutaxassisi
nosirbekturonov43@gmail.com

Annotatsiya. *Berilgan ushbu maqolada, Amir Temur siymosi, harbiy mahorati, taxtga kelishi, usha davrdagi siyosiy jarayonlar ustida izlanish olib borilgan. XIV-XV asrlarda Movarounnahrdagi hayot tarzi, Temuriylar saltanatining o‘ziga xos odilona siyosati, Temur tiklagan mashhur me’morchilik obidalari, ilm-fan borasida olib borgan islohotlari yuzasidan ilmiy dalillar asosida tahlil qilingan, aholi turmush-tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy hayot to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*
Kalit so‘zlar: *Amir Temur, harbiy siyosati, barlos urug‘i, Movarounnahr, “Samarqand bog‘lari”, XIV-XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, me’morchilik inshootlari, Samarqand shahri.*

Аннотация. *В статье рассматривается личность Амира Темура, его воинская доблесть, его восшествие на престол и политические процессы того периода. На основе научных данных анализируется жизнь в Мавераннахре в XIV-XV вв., уникальная справедливая политика империи Тимуридов, восстановленные Тимуром знаменитые архитектурные памятники, проведенные им реформы в науке, приводятся сведения об образе жизни населения и социальной жизни общества.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур, военная политика, род Барлос, Моваруннахр, «Самаркандские сады», общественно-политическая жизнь XIV-XV вв., архитектурные сооружения, город Самарканд.*

Abstract. *This article examines the figure of Amir Temur, his military prowess, his accession to the throne, and the political processes of that period. The way of life in Transoxiana in the 14th-15th centuries, the unique just policy of the Timurid Empire, the famous architectural monuments restored by Temur, and the reforms he carried out in the field of science are analyzed based on scientific evidence, and information is provided about the lifestyle of the population and social life in society. Keywords: Amir Temur, military policy, Barlos clan, Movarunnahr, "Samarkand gardens", socio-political life in the 14th-15th centuries, architectural structures, the city of Samarkand.*

Samarqand qadim zamonlardan boshlab, muhim savdo yo‘llari va siyosiy tuzilmalar markazida joylashgan bo‘lib, Movarounnahr (G‘arbiy Turkiston) mintaqasining strategik jihatdan eng muhim nuqtalaridan biri hisoblanadi. Samarqand va uning atrofidagi hududlar, tarixan, ko‘plab etnik guruhlar va siyosiy kuchlar uchun markaziy ahamiyatga ega bo‘lgan. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Movarounnahr va unga qo‘shni mintaqalarga bir qator etnik guruhlar kirib kelgan. Bu davrda jaloyir, barlos, qavchin va arlat kabi etnik guruhlar Movarounnahrga birinchilardan bo‘lib kelib, hududda o‘z ta'sirini ko‘rsatgan. Ayniqsa, Sharqiy Turkistonda yashovchi barloslar, XIII asrning 60-yillari atrofida Shahrisabz vohasida joylashganlar [1-B. 4]. Shu tarzda, ushbu etnik guruhlarning Movarounnahr hududiga ko‘chib kelishi va ular tomonidan amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar, ushbu mintaqaning tarixiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatgan. Samarqandning geostrategik ahamiyati va hududga kirib kelgan etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, o‘z navbatida, Movarounnahrning tarixiy va madaniy merosini shakllantirgan[2-B. 36]. Barloslarning mazkur guruhi Amir Temurning qarindoshlari bo‘lib, unga sadoqat bilan xizmat qilgan. Ular Temuriylar davlati shakllanishi va mustahkamlanishida muhim siyosiy-harbiy rol o‘ynagan[3-B. 5]. Temur va Bobur Mirzo hukmronligi davrida Shahrisabz vohasida istiqomat qilgan barloslarning ayrim guruhlari Tojikistonning janubiy hududlariga, Afg‘oniston, Hindiston va Kashmirga ko‘chib o‘tgan va u yerda doimiy yashab qolganlar[4.]. Barloslarning Movarounnahrda qolgan qismlari esa mahalliy aholi ta’sirida asta-sekin yarim ko‘chmanchi turmush tarziga o‘tgan hamda chorvachilik bilan shug‘ullanishda davom etganlar. Bu holat barloslarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini, ular asta-sekin o‘troq hayot tarziga moslashib borganini ko‘rsatadi. Amir Temur o‘z davlati — Movarounnahr hududida yashovchi turli etnik guruhlar va elatlar o‘rtasida siyosiy barqarorlik va ijtimoiy totuvlikni ta’minlash maqsadida keng ko‘lamli siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirgan. U turli qavmlar va elatlar o‘rtasida ahillikni mustahkamlash orqali markazlashgan davlat boshqaruvini kuchaytirishga erishgan. Amir Temur o‘z davlatchilik siyosatida nizo va ixtiloflarga qat’iy yo‘l qo‘ymaslikka intilgan. U sadoqat bilan xizmat qilgan

shaxslarni, ularning kelib chiqishi va ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, qadrlagan va rag‘batlantirgan. Shu bilan birga, davlatga xiyonat qilganlar, o‘g‘rilar va jamiyatda tartibsizlik keltirib chiqaruvchi bekorchi unsurlar qat’iy nazorat ostiga olinib, adolatli tarzda jazolangan. Bu yondashuv Temurning ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlikni ta’minlash borasidagi prinsipial siyosatini aks ettiradi. Yuqoridagi tarixiy dalillardan kelib chiqib aytish mumkinki, Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrda o‘zbeklarning asosiy qismini turkiy tilli, muqim yashovchi aholi tashkil qilgan. Shu bilan birga, o‘zbek etnogenetik tarkibida yarim o‘troq hayot tarzida yashovchi etnik guruhlar ham mavjud bo‘lgan. Bu guruhlar XIV–XV asrlarda o‘z etnik nomlari va urug‘-aymoqlarga bo‘linish tizimlarini saqlab qolgan holda, xo‘jalik yuritish shakli va moddiy madaniyatiga oid qator xususiyatlarni ham davom ettirganlar. Mo‘g‘ullar istilosi natijasida Movarounnahr va unga tutash hududlarda islom davriga oid besh asrlik siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy va san’at merosi jiddiy zarar ko‘rgan edi. Biroq Amir Temur (1370–1405) bu inqiroz holatini yengib, mintaqaga sobiq ulug‘vorlikni qaytarishga muvaffaq bo‘ldi. U markazlashgan kuchli davlatni barpo etdi va uning poytaxti sifatida tarixiy Samarqand shahrini tanladi. Samarqand Temuriylar davrida nafaqat siyosiy-administrativ markazga, balki ilm-fan, madaniyat, me’morchilik va iqtisodiy taraqqiyotning yirik o‘chog‘iga aylantirildi. Amir Temurning siyosiy hokimiyatga kelishi natijasida Movarounnahrda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida muhim ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu yuksalishlar harbiy ishlar, madaniy taraqqiyot va san’at sohalarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Temur o‘z davrining yirik harbiy arbobi sifatida ikki yo‘nalishda — mohir harbiy tashkilotchi va iste’dodli sarkarda sifatida ajralib turgan. U tomonidan tuzilgan qo‘shin mukammal ichki tuzilma, qat’iy intizom va puxta rejalashtirilgan harbiy strategiyaga ega edi. Mazkur harbiy kuchlar ko‘plab mamlakatlarni zabt etishda muvaffaqiyatli ishtirok etgan bo‘lib, son va tashkiliy jihatdan o‘z davrining boshqa harbiy tuzilmalaridan ustun turgan. Amir Temur o‘zining harbiy yutuqlari natijasida zabt etgan mamlakatlardan, xususan, Old Osiyo hududlaridan turli etnik guruhlarni va hunarmandlarni Movarounnahrga ko‘chirib keltirgan. Ushbu ko‘chirish siyosati Temurning iqtisodiy va madaniy rivojlanish maqsadlariga xizmat qilgan. Ko‘chirilgan aholi orasida arablar, turklar, armanlar kabi xalq vakillari mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismini hunarmandlar, olimlar va naqqoshlar tashkil etgan [5-B. 87]. Masalan, Temur Damashqdan o‘zining yurishlari davomida ipak matolarini to‘qish bo‘yicha mohir ustalarni va boshqa turdagi hunarmandlarni ko‘chirib kelgan. XV asr tarixchisi Fosih Xavofiy tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazmdan ham quruvchilar va hunarmand ustalar ko‘chirib keltirilgan. Xususan, Shahrisabzda qad ko‘targan Oq Saroy majmuasi Xorazmdan ko‘chirilgan ustalar tomonidan qurilgan[6-B. 145]. Ko‘chirilgan aholi asosan Samarqand atrofidagi hududlar va Zarafshon vohasining turli tumanlariga joylashtirilgan. Bu guruhlarning ko‘pchiligi Movarounnahrda abadiy yashab qolib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Natijada, bu hududda madaniy integratsiya va uyg‘unlashuv jarayoni yuzaga kelgan, bu esa iqtisodiy va madaniy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shgan.

Temurning siyosiy va harbiy qonun-qoidalari “Temur tuzuklari” (ya'ni, nizomlari) asarida jamlangan. Bu asarda davlat boshqaruvi, harbiy tartib, soliqlar, adolat, jazo va

mukofot tizimi aniq tartiblangan. Bu qonunlar Temuriylar va undan keyingi davrlarda ham muhim siyosiy-huquqiy manba bo‘lgan. Temur o‘zining bunyodkorlik siyosati orqali ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. U har bir harbiy g‘alabadan so‘ng albatta biror me’moriy obida qurdirgan, vayronaga aylangan shahar va madaniy markazlarni tiklashga harakat qilgan. Jumladan, Bag‘dod, Darband va Baylaqon kabi shaharlarda amalga oshirilgan qurilish va qayta tiklash ishlari buning yaqqol dalilidir[5].

Temuriylar saltanati davrida ayniqsa Samarqand shahri me’moriy va madaniy yuksalish markaziga aylandi. Bu davr me’morchilik merosi orasida “Samarqand bog‘lari” alohida o‘rin tutadi. Ushbu bog‘lar hududni obodonlashtirish, tabiat bilan uyg‘un me’moriy muhit yaratish hamda saroy va ibodatgohlar atrofini bezash jihatidan o‘ziga xos san’at namunalaridir. Chet ellik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bog‘ yaratish san’ati tarixida Ahamoniylar va Sosoniylar sulolalari muayyan iz qoldirgan bo‘lsalar-da, bog‘ me’morchiligining eng yuksak namunalarini aynan Temuriylar davridagi Samarqand bog‘larida kuzatish mumkin [6-B. 59]. Amir Temur islom olamida zabt etgan keng hududlardan, xususan Eron, Ozarbayjon va Onado‘lidan (Anatoliya) o‘z davrining eng yetuk me’morlari, hunarmandlari, san’atkorlari va olimlarini Samarqandga olib kelgan. Ushbu jarayon Temur hukmronligi davrida Samarqandning har tomonlama tiklanishida, ayniqsa, uning me’moriy, madaniy va ilmiy rivojida muhim omil bo‘ldi. Shahar me’moriy va monumental asarlar nuqtai nazaridan o‘z tarixining eng yorqin va gullagan davriga erishdi.

Amir Temur bosib olgan mamlakatlardan islom san’ati va hunarmandchiligining deyarli barcha sohalarida yetuk mutaxassislarni Samarqandga ko‘chirtirgan. Bu madaniy siyosat natijasida shaharda rang-barang badiiy maktablar, ustaxonalar va me’moriy ansambllar shakllandi. Ular islom san’ati va me’morchiligida uslubiy uyg‘unlik, madaniy boylik va badiiy xilma-xillikni mujassam etgan holda, o‘ziga xos maktabning shakllanishiga zamin yaratdi. Bu orqali Temur Samarqandni nafaqat siyosiy, balki madaniy va ma’naviy jihatdan ham musulmon Sharqining yetakchi markaziga aylantira oldi. Amir Temur ilm-fanga alohida e’tibor bergan bo‘lib, yirik allomalar, mudarrislar va olimlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan. U o‘z davrida Samarqandning qadimiy ilm-fan, madaniyat va islom sivilizatsiyasi markazi sifatidagi mavqeini tiklashga harakat qilgan. Amir Temurning siyosati harbiy kuch, markazlashgan boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va madaniy uyg‘onish asosida qurilgan. U o‘z davlati hududida adolat va tartibni ta'minlashga intilgan, xalqaro maydonda esa o‘zining siyosiy ta’sirini kuchaytirgan buyuk shaxs sifatida tarixda nom qoldirgan. Bu siyosat uning avlodlari, xususan nabirasi Mirzo Ulug‘bek tomonidan izchil davom ettirildi. Ulug‘bek Samarqandda yirik ilmiy muassasalar – jumladan, madrasalar va rasadxona barpo etgan. Aynan uning sa’y-harakatlari bilan Samarqand XV asrda musulmon Sharqining yetakchi ilmiy markazlaridan biriga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzoulug‘bek Abdullayev. Amir Temur va Temuriylar davrida etnik jarayonlar. https://www.academia.edu/62934332/Amir_Temur_va_Temuriylar_davrida_etnik_jarayonlar

2. Osman Aydinli. Timurlular Döneminde Semerkant. 2023, Pamukkale üniversitesi ilahiyat fakültesi dergisi. 36 b.
3. Bo'riboy Ahmedov. “O'zbekiston tarixi manbalari”.12.09.2022. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/122_source=chatgpt.com
4. Bo'riboy Ahmedov “Amir Temur va Temuriylar davrida o’zbek davlatchiligining yuksalishi” 23.11.2022. https://packpdf.com/doc/tarix/7334-amir-temur-va-temuriylar-davrida-ozbek-davlatchiligining-yuksalishi
5. Bayon, Mahmud. 1988. Amir Temur va uning me’morchiligi. B 140.
6. Belozerskiy, A. P. “Temuriylar davri me’morchiligi”. - Moskva: “Nauka” nashriyoti, 1965. C 178.
7. O’zbekiston Musulmonlar idorasi. Temuriylar bunyod etgan me’moriy obidalar. 11.12.2019. https://www.muslim.uz/uz/e/post/23338-temuriylar-bunyod-etgan-me-moriy-obidalar?page=24&per-page=1
8. “Amir Temur chet elliklar nigohida”, G’ofur Gulom nashriyoti, Toshkent- 2016, 59-b.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDA “JALOYIR” LAR VA ULARNING ETNOTOPONIM SIFATIDA SAQLANISHI

Temirbek QO‘CHQAROV
Oriental Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrini yoritib bergan manbalar asosida Mo‘g‘illarning g‘arbga tomon keng ko‘lamli yurishlari davrida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin Sharq va Eron mintaqasida keng tarqalgan “jaloyir” urug‘ining ma’lum bir hududga kelib o‘rnashishi natijasida etnotoponimga aylanishi haqida ma’lumot berilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, Temuriylar, Muinniddin Natanziy, amir, sulton, jaloyir, sulduz, barlos, Movoraunnahr, Munk, Solisaroy, Shibirg‘on.*

Аннотация: *В статье на основе источников, проливающих свет на эпоху Амира Темура и Тимуридов, во время масштабного похода монголов на запад, клан «джалоир», широко распространенный не только в Средней Азии, но и также на Ближнем Востоке и в Иране, попал в определённый ареал. Сообщается, что оно становится этнотопонимом в результате его соединения.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур, Тимуриды, Муинниддин Натанзи, амир, султан, джалоир, сулдуз, барлос, Мовораунахр, Мунк, Солисарой, Шибирган.*

Annotation: *In the article, based on the sources that shed light on the era of Amir Temur and the Timurids, during the large-scale march of the Mongols to the west, the "jaloyir" clan, which was widespread not only in Central Asia, but also in the Middle East and Iran, came to a certain area. It is reported that it becomes an ethnotoponym as a result of its connection.* ***Key words:*** *Amir Temur, Timurids, Muinniddin Natanzi, amir, sultan, jaloyir, sulduz, barlos, Movoraunnahr, Munk, Solisaroy, Shibirgan.*

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududida etnik birliklarning o‘zaro jadallashuvini kuzatishimiz mumkin. XIV asrning 70-yillaridan boshlangan keng ko‘lamli Amir Temur va Temuriylarning yurishlari natijasida ko‘plab xalqlarni yagona davlat bayrog‘i ostida birlashtirdi.

Mo‘g‘ul tarixchisi Sanan-Sesenning yozishicha, jaloyirlar eke-mo‘g‘ul (buyuk mo‘g‘ullar) nomi bilan mashhur bo‘lgan mo‘g‘ullarning katta va kuchli guruhidan chiqqan [1-C. 22-88]. Jaloyirlar Chingizxon faoliyatining boshidanoq uning tarafini olib, uning Xitoy, Tibet, Turkiston va Forsdagi yurishlarida qatnashdilar. Chingizxonning mashhur sarkardasi, Xitoyni zabt etuvchi Muquli-Govan Jaloyir urug‘idan chiqqan. Chingizxon davrida va undan keyin Jaloyirlar to‘rt guruhga bo‘lingan: birinchisi Mo‘g‘uliston va Xitoyda qolgan, ikkinchisi Jo‘ji bolalariga o‘tgan va barcha afsonalarga ko‘ra daryoning o‘rta oqimidan sharqda joylashgan. Chu Chu-manak deb atalgan; uchinchi guruh Chirchiq va Angren vodiylarida o‘rnashib olgan va tarixda Jaloyir O‘rdasi (boshqa nomi Sir-manak) nomi bilan mashhur; Xulaguxon bilan to‘rtinchi guruh Forsga yo‘l oldi.

Temur yuksalishining boshida Jaloyir O‘rdasi uni qo‘llab-quvvatladi, biroq 1370-yilda uning raqiblari Dulatlar tomoniga o‘tdi va buning uchun Amir Temur tomonidan mag‘lubiyatga uchradi va tarqab ketdi. Fors guruhi Eronda yetakchi rol o‘ynagan; Jaloyirlar sulolasi hatto Shimoliy Forsda va bir vaqtlar Bag‘dodda ham hukmronlik qilgan. Jaloyirlarimizning asosiy qismini 1370 yilda sir-manoqlardan qochqinlar qo‘shilgan Chu-manaklar tashkil etadi.

Jaloyirlar har doim Oq O‘rda (O‘rda-Ejena sulolasi) nomi bilan mashhur bo‘lgan Jo‘ji Ulusning sharqiy qismida bo‘lgan. Amir Temur davrida Chumanakiylar O‘rusxon va uning o‘g‘illari qo‘shinining o‘zagini tashkil qilganlar. XV-XVI asrlarda ular taxminan bir xil joylarda joylashgan.

XIII asrning 2-yarmida O‘rta Osiyo daryolari oralig‘idagi vohalarga jaloyirlar guruhlari ko‘chib o‘tgan. XIV asrning o‘rtalarida M.M.V.Monaronning har bir yirik qabilasining o‘z taqdiri bor edi. Masalan, barloslar Kesh (Shahrisabz) vohasida, jaloyirlar Xojant viloyatida va boshqalar yashagan.

Jaloyirlar 92 o‘zbek qabilasi orasida qayd etilgan. 1870-yillarning boshlarida o‘zbek jaloyirlari Oqdaryoning ikki qirg‘og‘idagi Zarafshon vodiysida yashab, faqat Xatirchida Qoradaryoning o‘ng qirg‘og‘iga yetib borgan. Ularning fikricha, ular bir ajdoddan – Sarxon otadan kelib chiqqan. Samarqand viloyatidagi jaloyirlar ikki tarmoqqa: kalchillar va balg‘allarga bo‘lingan. Ular asosan dehqonlar edi. Ular boshqa qabilalar bilan birga 34 qishloqda yashagan. Hammasi bo'lib 3,5 ming kishi edi[2-C. 108].

Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarining Movoraunnahrda isyon ko‘targan amirlar tabaqasi bobida “…Qozon sulton qonxo‘rlikni haddan oshirib, katta amirlar qatliga qo‘l ura boshlagach, Qazag‘on no‘yon? - u qoraunos [3-B. 44][12] qavmidan bo‘lib, Munk[13] va Solisaroy[14]” shaharlari hokimi edi – unga qarshi isyon ko‘tardi va ikki marta u bilan jang qildi. Ikkinchi jangda u Qozon sultonni o‘ldirdi va mamlakat ixtiyorini o‘z qo‘liga kiritdi…

[12] Qoraunoslar - Movarounnaxrdagi harbiy jihatdan kuchli qavmlardan biri bo‘lib, asosan, amir Qazag‘on va uning avlodlariga bo‘ysunishgan.

[13] Munk - qadimgi Xuttalon (Xatlon) viloyatidagi shahar, hozirgi Baljuvon

[14] Solisaroy - Xuttalon viloyatidagi, Amudaryo sohilida joylashgan shahar. «Mutaxab ut-tavorixi Muiniy» da ba’zan «Saroyi Soliy» shaklida yozilgan variantlari ham uchraydi.

…Har qabila bir odamni o‘ziga bosh kilib, fitna-yu g‘alayonlar ko‘tardilar. Chunonchi, sulduz[3-B. 45] qavmiga[15] amir Bayon, jaloyir[3-B. 45] qavmiga amir Boyazid bosh bo‘ldi va Kesh va Naxshab lashkarlarini Xojibek barlos[16], yasovur” qavmini amir Xir, Andxo‘y va Shibirg‘onni Xamidxoja nayman[17] o‘z qo‘llariga kiritdilar. Amir Qazag‘on avlodlari Kobul va G‘aznaga ravona bo‘ldilar…” voqeoti bayon etilgan.

“…Hazrat Sohibqiron Sher Bahromg‘a xat bitib yibardimkim: “Muxolifat bunyodini sen qilding va endi aning bilan birikib, o‘zingni ang‘a yaxshi ko‘rsatursen. Bot bo‘lg‘aykim, sening jazoingni o‘shul o‘q berg‘ay va pushaymonliq foyda qilmag‘ay”, va o‘shandoq bo‘ldi. Bu tarafdan hazrat sohibqiron Bahrom Jaloyir bila Jaqubbekka va Abbos Bahodurg‘a cherik berib Xo‘jand sori yibardi, to jaloyir elini zabt qilg‘aylar. Va bu muholifatga sabab bo‘lgan Musobek va Ali Darveshni tutganligi va Bahrom Jaloyirni ulusini yig‘ishtirib, Jaloyir eli yashaydigan Xo‘jand viloyatiga hokim bo‘lganligi bayon etilgan.”[4-B. 42-43] Sohibqironning jaloyirlar ustiga cherik tashlagani va ularni mag‘lub etgani bayon etilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida jaloyir elini Xo‘jand hududida yashaganligi va unga Bahrom Jaloyirni hokim bo‘lganligi bayon etilgan.

Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarida “…Amirlar orasidan ishonch va e’timod yo‘qoldi, ular bir-birlariga qasd qilib pistirmalar qo‘ydilar. Barlos amirlarining asl yurti bo‘lmish Shaxrisabzni[18] amir Xojibek barlos o‘z qo‘liga kiritdi. Jaloyirlar istiqomatgohi bo‘lgan Xo‘jand viloyatini amir Boyazid egalladi.”[3-B. 51] Mamlakatda shu bilan turli g‘alayonlar va tartibsizliklar boshlanganligi va har bir farsang yo‘lni yuz joyida o‘g‘ri va qaroqchilar pistirma qo‘ygani bayon etilgan[3-B. 52].

Bahrom Jaloyirni Sohibqironning qo‘shinida asosiy tarkibiy qismida harakat qilganligini va uni jete qo‘shiniga qarshi yuborganligini, u jete qo‘shinini bir necha bor mag‘lub etganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rininb turibdiki, Amir Temur qo‘shinida har bir tobe xalq (urug‘)ni o‘zlarini ichidan alohida qo‘shin tuzib yuborganligini ko‘rishimiz mumkin[5-B. 54].

Sari Bug‘a bilan Odilshohni Sohibqiron Samarqandga qarshi yurishga bosh qilib yuborgani. Va ularni o‘zlarining ellari jaloyir birla qipchoqni ham yig‘ishtirib Samarqand sori yurganini bayon etilgan.

“…Sohibqironning Amir Sayfuddin va Amir Jokuning dushmanning ketidan yuborganligi, ular dushmanni Chak-chakdan o‘tkazib yuborganligi va qochib ketayotgan jaloyir elini ushlab Sohibqironni oldiga olib kelganligi bayon etilgan. Shu yili Amir Sohibqironni muborak ramazonni Qarshida o‘tkazgani va Buxoro hukmdorligini Mahmudshohga topshirishga qaror qilgani”[4-B. 60-61] bayon etilgan. Ushbu voqealarning batafsil bayoni Xondamirning “Habib us-siyar” asarida ham

[15] Sulduz (ba’zi manbalarda – suldus), jaloyir, barlos, yasovur va xokazolar - Movarounnahr va unga yondosh hududlardagi qabilalar bo‘lib, XIV asr o‘rtalarida ular orasida tarqoqlik kuchli edi. Amir Temur siyosiy faoliyatining eng katta ijobiy natijalaridan biri kabilalar orasidagi tarqoqlik va nizolarning barham topib, ularning bir xalq sifatida uyushishidir.

[16] Barlos o‘zbek qabilalaridan birining nomi.

[17] Nayman — o‘zbek urug‘laridan birining nomi. Rashididdin «Jome’at tavorix» asarida nayman qadimgi kuchli qabilalardan biridir. Uning bir qancha tarmoqlari bor (Rashidaddin, Sborniki letopisey, II, M —D, 1960, 176).

[18] Muiniddin Natanziy o‘z asarida mazkur shahar nomini ba’zan “Kesh”, ba’zan “Shahrisabz” tarzida yozgan.

qochib ketyotgan jaloyir elini qayta Qarshi hududiga joylashtirgani haqida bayon qilinadi[6-B. 62].

XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyo bo‘ylab keng tarqalgan jaloyir urug‘i kelib joylashgan hududlarda hozirgi kunda etnotoponimlar vujudga keldi[7-B. 76].

Amir Temur davrida davlatda bazi hollarda qattiqqo‘llik va keskin choralar ko‘rish ham talab etilgan va buni jaloyirlar misolida ko‘rish mumkin. XIV asrning 60-yillarida jaloyirlar Movoraunnahrda Xo‘jand atrofida va alohida minglikni tashkil qilgan. Amir Temur jaloyirlar elini boshqarishni Baxrom jaloyirga, uning vafotidan keyin esa, o‘g‘li Odilshox jaloyirga beradi. Biroq ko‘p o‘tmay Odilshox jaloyir Amir Temurga xiyonat qiladi, ya’ni 777(1375) yili Amir Temurning Xorazmga yurishi chog‘ida, Sori Bo‘g‘o, Odilshox jaloyir va Andijonning dorug‘asi Xamadiy birgalikda jaloyir va qipchoqlarni yig‘ib Samarqandga chopqin yasaydilar. Amir Temur yurishini qoldirib shoshilinch chora ko‘rgach, ular yengilib Dashti Qipchoqqa qochdilar.

Bu holat 777(1375) yili jaloyir elining tarqatilib, amirlarga bo‘lib berilishi (reparatsiya) ga sabab bo‘ldi va shundan keyin jaloyirlar o‘zining siyosiy mavqeini yo‘qotdi.

Tarixchi Xondamirning “Habib us-siyar” asarida “…Zafaryor Soxibqiron Mardindan ko‘chgandan keyin, Sulton Maxmudxon, amirzoda Rustam, Amir Sulaymonshox, Amir Muzrob Joku, Rustam Tog‘ay Bug‘o, Sevinchak Baxodir va Tukal Barloslarni shijoatli amirlar bilan Bag‘dodni fath, etish uchun yulga chikishlariga hukm qildi. Ul shijoatli amirlar buyruqqa binoan amal qilib, poytaxtning qibla tomoniga kelib tushdilar va qamal qilishga kirishdilar. Jaloyir qavmidan Farax ismli kishi ul mamlakat hukumatining mutasaddisi edi, u arablarning betayin, beburd kishilari va turklarni yig‘ib, sobitqadam jasur sipoxni qaytarish va ushlab turishga kirishdi hamda darvozalarni berkitib, uzr so‘raganday shunday dedi: “Sulton Axmad men bilan kelishganki, agar bu yerga Amir Temur Guragonning uzi kelsa shaharni topshir, aks xolda poytaxt eshiklarini hech kimga ochma”. Amirlar Faraxning so‘zlarini oliy martabali Soxibqironga yetkazish uchun chopar jo‘natdi va u Mosuldan oliy o‘rduga yetib keldi va Faraxdan eshitganlarini aytib berdi.”[6-B. 224-225] - ushbu jumladan ma’lumki, jaloyirlar Yaqin Sharq mintaqasida ham istiqomat qilgan va bugungi kunda bu mintaqalarda shunday etnotoponimlar uchraydi.

Bu holat keyinchalik jaloyir elining ko‘plab hududlarga tarqalib ketishiga olib keldi va keyinchalik borib o‘rnashgan hududlarda “Jaloyir” nomli etnotoponimlar tashkil topdi.

Turk-mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalardan biri jaloyirlar bo‘lib, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududlarida istiqomat qilgan jaloyirlar keyinchalik o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz millatlari tarkibiga kirgan. Jaloyirning katta bir gruppasi XIII-XIV asrlarda Ohangaron vodiysi va Xo‘janda yashagan. Ular Amir Temurga tobe bo‘lgan. 1376 yili Temur hukmronligidan chiqish uchun ular qo‘zg‘olon ko‘targan. Qo‘zg‘olon bostirilgach, ular turli tomonlarga tarqatib yuborilgan[5-B. 226]. 1920 va 1926 yillardagi aholi ro‘yxatida O‘zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Ular Toshkent, Buxoro vohasida, Nurota tog‘i etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Qorako‘l tumanlarida va Xorazmda yashaganlar. Jaloyirlar tarqalgan

joylarning ayrimlari ularning nomlari bilan atalib ketgan. Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Toshkent viloyatining Qibray, Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on, Namangan viloyatining Norin, Farg‘ona viloyatining Buvayda, Bog‘dod, Uchko‘prik, Furqat, Rishton, Quva, Jizzax viloyatining Zomin tumanlaridagi Jaloyir deb nom olgan qishloqlar shular jumlasidandir. Farg‘ona viloyatining Rishton tumanidagi Cheki Jaloyir toponimi esa Jaloyir qishlog‘iga qarashli chek yerlarda tashkil topganligi uchun shunday nom olgandir[7-B. 83].

Hozirgi kunda Navoiy viloyati Karmana tumanida qadimdan jaloyir qabilasi yashagan hududda aynan shu nomdagi qishloq borligi, bu hududdan viloyatning boshqa hududlariga urug‘ni keng tarqalganligini Xatirchi tumanida ham “Jaloyir” etnotoponimi mavjudligi fikrimizni dalilidir. Xatirchi tumanidagi “Jaloyir” etnotoponimi sovet davrida Moskva kolxozi nomi bilan yuritilganligi va mustaqilligimiz sharofati bilan bu hududga oldin bu yerlarda qaysi urug‘ni keng tarqalganligiga urg‘u berilib, qayta “Jaloyir” nomi bilan nomlanganligi ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari viloyatning Nurota tumanida ham “Jaloyir” nomli qishloq va bir necha mahalla nomlanishi ham judayam ahamiyatlidir. Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani va Mirbozor shaharchasi oralig‘ida joylashgan “Jaloyir” nomli QFY mavjud bo‘lib, bu toponim ham etnik nomdan kelib chiqqanligi bu hududda ham jaloyir urug‘ini yashaganligi va ularning hali ham avlodlari bu hududda istiqomat qiladilar. Shuningdek, Toshkent shahri Sergeli tumanida ham shu nomdagi MFY mavjud bo‘lib, ushbu etnotoponimning paydo bo‘lishi qozoqlarning “jaloyir” urug‘i bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Chunki aynan ushbu Jaloyir MFYda bugungi kunda qozoqlar istiqomat qilib kelmoqda.

Temuriylar davrini yoritib bergan aksariyat manbalarda “jaloyir” etnonimiga oid qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Ushbu etnonim bilan bog‘liq Temuriylar davrida quyi bosqichdan tortib to yuqori martabagacha lavozimni egallagan davlat xizmatchilari mavjud bo‘lganligi haqida birmuncha qimmatli ma’lumotlar qayd etilgan. Shuningdek, Amir Temurning uch va besh yillik yurishlari davrini yoritib bergan manbalardan ma’lum bo‘ladiki, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki Yaqin Sharq va Eron mintaqalarida ham jaloyir urug‘ini keng tarqalganligiga guvoh bo‘lamiz. Jaloyir nomidagi etnotoponimlar ham ular yashagan mintaqalarda keng tarqalib, bugungi kunga qadar saqlanib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Тынышпаев М. Т. Материалы к истории киргиз-казакского народа. - Переиздание. - Алматы: Дом печати «Эдельвейс», 2014. — ISBN 9965-602-58-1.
2. Гребенкин А. Д. Узбеки // Русский Туркестан. Вып.2. Спб.,1872.
3. Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. 2011.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. 1997.
5. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” T. 1996.
6. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир «Хабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар» («Башар ахли сийратидан хабар берувчи дуст»).: -Тошкент. “O‘zbekiston”. 2013.
7. Qorayev.S. “Toponimika”. T. 2006.

AMIR TEMUR DAVRIDA SHAHAR ANTROPOLOGIYASI

Asadbek INOMALIYEV
Oriental Universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Ismoil XO‘JAXONOV**
Oriental universiteti dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur davrida O‘rta Osiyo shaharlarining antropologik jihatdan shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. Temur shaharlarni nafaqat ma’muriy markaz sifatida, balki ilm-fan, savdo-sotiq va madaniyat markazlariga aylantirish siyosatini olib bordi. Shaharlarning ma’muriy tuzilmasi, aholining ijtimoiy tabaqalanishi, me’moriy infratuzilma va etnik-diniy xilma-xilligi ularning ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirdi. Shahar ichki va tashqi hayotining uyg‘unligi, bog‘-rog‘lar tizimi, savdo yo‘llari orqali kelgan etnik guruhlarning faol ishtiroki Temur davri shahar antropologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgiladi.* ***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, shahar antropologiyasi, shahar hayoti, shahar infratuzulmasi, aholining etnik tarkibi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются антропологические особенности формирования и развития городов Средней Азии в эпоху Амир Темура. Темур стремился превратить города не только административные центры, но и в очаги науки, торговли и культуры. Административная структура городов, социальная стратификация населения, архитектурная инфраструктура и этно-религиозное разнообразие формировали их социокультурную среду. Гармония внутренней и внешней жизни города, система садов и парков, а также активное участие этнических групп, прибывших по торговым путям, определяли уникальные черты городской антропологии эпохи Темура.* ***Ключевые слова:*** *Амир Темур, городская антропология, городская жизнь, городская инфраструктура, этнический состав населения.*

Annotation: *This article explores the anthropological aspects of the formation and development of Central Asian cities during the era of Amir Temur. Temur pursued a policy of transforming cities not only administrative centers but also into hubs of science, trade, and culture. The administrative structure of the cities, social stratification of the population, architectural infrastructure, and ethno-religious diversity shaped their socio-cultural environment. The harmony between internal and external urban life, the system of gardens and parks, and the active participation of ethnic groups arriving via trade routes defined the unique features of urban anthropology in the Temurid period.* ***Keywords:*** *Amir Temur, urban anthropology, urban life, urban infrastructure, ethnic composition of the population.*

Amir Temur (1336-1405-yy.) davrida O‘rta Osiyo shaharlari siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va madaniy yuksalishning muhim markazlariga aylandi. Uning keng ko‘lamli harbiy yurishlari nafaqat siyosiy va harbiy tuzumning mustahkamlanishiga xizmat qildi, balki shaharlarning ijtimoiy-madaniy hayotida tub o‘zgarishlarni ham keltirib chiqardi. Temur shaharlarni oddiy harbiy tayanch nuqtalari sifatida emas, balki ilm-fan, hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Shahar antropologiyasi nuqtai nazaridan, bu davrda shaharlarning ma’muriy boshqaruvi, iqtisodiy tuzilmasi, ijtimoiy-madaniy binolari va aholi turmush tarzining shahar taraqqiyotiga ta’siri muhim tadqiqot ob’ektlariga aylandi. Bu jarayon shaharlarning nafaqat moddiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham o‘ziga xos shakllanishini ta’minladi. [5. - B.423].

Sohibqiron shaharlarni o‘z davlatining qudrat ramzi sifatida ko‘rgan. U shunday degan edi: “Agar kimdir bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan imoratlarga

qarasin”. Bu so‘zlar Temurning shaharsozlikka yondashuvidagi chuqur falsafani aks ettiradi – u shaharlarni nafaqat yashash joyi, balki davlatning siyosiy va madaniy qudratini namoyish etuvchi muhim ramzlar deb bilgan. Mashhur sovet arxeologi va san’atshunosi G.A. Pugachenkova ta’kidlaganidek, Temur va temuriylar davri me’morchiligi ijtimoiy hayotning ko‘zgusi bo‘lib xizmat qildi: qal’alar davlatning harbiy qudratini, saroylar hukmron sinfning yorqinligini va dabdabali hayotini, diniy binolar islom mafkurasining ulug‘vorligini, bozorlar hunarmandchilik va savdoning gullab-yashnashini, zich turar joylar esa shahar organizmining hayotiyligi va dinamikligini aks ettiradi [1. - B.27]. Bu me’moriy tuzilmalar shaharlarning ijtimoiy-madaniy landshaftini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Shahar antropologiyasi nuqtai nazaridan, Temur davrida aholi tarkibi, turmush tarzi va me’moriy infratuzilma sezilarli darajada o‘zgardi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va Shahrisabz kabi shaharlar o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy tuzilmaga ega bo‘ldi. Ushbu shaharlar Buyuk Ipak yo‘lining muhim kesishma nuqtalarida joylashgani sababli, turli etnik guruhlar – hunarmandlar, olimlar, savdogarlar va diniy arboblarning to‘planish markaziga aylandi. Bu shaharlarning iqtisodiy va madaniy hayotini boyitdi. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1403–1406-yillardagi sayohat kundaligida Samarqand aholisining etnik va diniy xilma-xilligini quyidagicha tasvirlaydi: “Shahar aholisi orasida turklar, arablar, mavrlar, armanlar, yunon katoliklari, nestorianlar, yakobitlar va o‘ziga xos e’tiqodga ega nasroniylar bor edi” [2. - B.200]. Bu xilma-xillik shaharlarning xalqaro savdo va madaniyat almashinuvidagi o‘rnini yanada mustahkamladi.

Temur davrida shahar aholisi aniq ijtimoiy tabaqalarga bo‘lingan edi. “Temur tuzuklari”da bu haqda shunday yoziladi: “Men o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki ustuni deb bildim” [3. - B. 64]. Bu tabaqalar quyidagilardan iborat edi:

Amirlar va sarkardalar – shahar hayotida markaziy o‘rinni egallab, siyosiy va harbiy boshqaruvni qo‘llarida ushlab turgan;

Olimlar va jamoat arboblari – islom dini va ilm-fan rivoji tufayli fiqh, falsafa, matematika, astronomiya va tibbiyot kabi sohalarda faoliyat yuritib, shaharlarning intellektual muhitini shakllantirgan;

Hunarmandlar va me’morlar – shahar obodonligi, san’at va me’morchilikning rivojlanishida muhim rol o‘ynab, Temur davrining ulug‘vor binolarini barpo etgan;

Savdogarlar – Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirib, shahar iqtisodiyotini global tarmoqqa ulagan;

Dehqonlar va mehnatkashlar – shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlab, shaharlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shgan.

Bu ijtimoiy tabaqalanish shaharlarning funksional tuzilmasini aniq belgilab, ularning iqtisodiy va madaniy hayotini tartibga solgan. Shu bilan birga, Temur davrida shahar infratuzilmasi va me’moriy taraqqiyot uning shaharlarni strategik va madaniy markazlarga aylantirish siyosati asosida rivojlandi. “Temur tuzuklari”da u quyidagicha yozadi: “Amr etdimki, har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa, xonaqoh, faqirlar uchun langarxona va kasallar uchun dorush-shifo qurilsin” [3.- B. 114]. Bu farmonlar shaharlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy markazlar sifatida rivojlanishini ta’minladi.

Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va Buxorodagi me’moriy yodgorliklar nafaqat diniy ibodat joylari, balki jamoat yig‘inlari va madaniy faoliyat markazlari sifatida ham xizmat qildi. Temur o‘z poytaxti Samarqandni dunyoning eng obod shahriga aylantirish maqsadida uning atrofida Damashq, Bag‘dod va Sheroz nomli qishloqlarni barpo etdi. Bu qishloqlar nafaqat shahar infratuzilmasini kengaytirdi, balki dunyo madaniyatining shahar antropologiyasiga ta’sirini ham ko‘rsatdi.

Temur davrida shaharlar atrofida bog‘-rog‘lar tashkil etilishi turk qabilalariga xos shaharsozlik an’anasining muhim namunasidir. Shahar joylashuvi tanlanayotganda ob-havo sharoiti, quruqlikning mustahkamligi va bog‘lar barpo etish imkoniyatlari diqqat bilan hisobga olingan. Masalan, Samarqand atrofida o‘n ikkita bog‘ qurilgan bo‘lib, ularning joylashuvi, relyefi va shamol yo‘nalishlari puxta rejalashtirilgan. Shahrisabz atrofida ham xilma-xil bog‘lar mavjud bo‘lib, bu bog‘lar shaharlarning estetik va funksional jihatdan boyitilishiga xizmat qilgan. Bu an’ana ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turk qabilalari uchun tabiiy hayot tarzini saqlash imkonini berdi. Amir Temur va uning beklari oilaviy hayotini shahar ichidagi saroylarda emas, balki shahar tashqarisidagi bog‘larda o‘tkazishni afzal ko‘rgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Temurning otasi Keshning nufuzli beklaridan bo‘lib, shaharga yaqin qishloqda yashaganini ta’kidlaydi: “Bu qabilaning aslzodalari shahardan ko‘ra ekin maydonlariga ega qishloqlarda yashashni ma’qul ko‘rardi”. [2. - B.149] Bu holat shaharlarning ichki va tashqi hayoti o‘rtasidagi o‘ziga xos muvozanatni ko‘rsatadi.

Shu sababli, Samarqand qal’asidan tashqarida shahar ichidagidan ko‘ra zichroq aholi yashagan. Bog‘larda katta imoratlar, shu jumladan Temurning saroylari, aslzodalar uylari va qo‘rg‘onlari joylashgan edi. Shahar ichidagi binolar (masalan, Ko‘ksaroy, Oqsaroy) davlat ishlari, rasmiy tantanalar va siyosiy yig‘inlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, tashqaridagi imoratlar oilaviy hayot, dam olish va shaxsiy tirikchlik uchun xizmat qilgan. Bu ikkilik shahar antropologiyasida Temur davrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida shahar antropologiyasi yuqori darajada rivojlanib, shaharlar iqtisodiy, ilmiy va madaniy markazlarga aylandi. Uning shaharsozlik siyosati shaharlarni nafaqat harbiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamladi, balki ularni turli millat va kasb egalarining birlashish markaziga aylantirdi. Temur davrida ilm-fan, hunarmandchilik va savdo rivoji uchun yaratilgan sharoitlar shaharlarning global miqyosda obro‘-e’tibor qozonishiga xizmat qildi. Masalan, Samarqand nafaqat Temuriylar poytaxti, balki o‘rta asr Sharqining madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylandi.

Temur davrining shahar antropologiyasi nafaqat o‘sha davrning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ochib beradi, balki uning merosining bugungi kunda ham o‘rganilishi va qadrlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Пугаченкова Г. А.,Рempель Л. И. Выдающиесяпамятники изобразительного искусства Узбекистана. Ташкент. 1960. 328 с.

2. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406)-yillar. - Toshkent: O‘zbekiston. 2010.

3. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. Toshkent: “Ijod press”, 2019. 156 b.
4. Ибн Холдун. Муқаддима. Тошкент: 2025. - 368 b.
5. Хўжахонов И.М. Амир Темур даври ёзма манбаларида “ўзлик” концепциясининг акс этиши // “Марказий Осиё халқларининг этно-тарихий жараёнлари” мавзусидаги халқаро илмий амалий конференция материаллари (2022 йил 28 октябр). - Тошкент: 2022. 422-426.
6. Bo‘riboy Axmedov. Tarixdan saboqlar - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994.
7. Xolbekov M. Sohiqiron Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari / Jahon adabiyoti. 2006. № 104. 131-133-betlar.

TURMUSH QURISH YOSHI KO‘RSATKICHLARINING DUNYOVIY VA DINIY TAHLILI

Dildora MIRAKBAROVA
Oriental universiteti v.b. dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
dmirakbarova@yandex.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila institutining rivojlanish tarixi, nikoh munosabatlarining taraqqiyot bosqichlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida turmush qurish yoshining eng past ko‘rsatkichi yigit va qizlar uchun 18 yosh deb belgilangan. Ammo olimlarning fikriga ko‘ra, 18 yosh oila qurish uchun nafaqat tibbiy jihatdan, balki ma’naviy, psixologik tomonlama ham erta hisoblanadi. Maqolada oila institutining mustahkamligida turmush qurish yoshi ko‘rsatkichlarining ahamiyati ilmiy tadqiqotlar, diniy manbalar asosida qiyoslanib o‘rganilgan.* ***Kalit so‘zlar:*** *oila, ibtidoiy jamiyat, jamoaviy juftlik, ikki inson juftligi, axloqiy normalar, huquqiy me’yorlar, diniy qoidalar, yosh ko‘rsatkichlari.*

Аннотация: *В данной статье научно и теоретически анализируются история развития института семьи, этапы развития брачных отношений. Известно, что в Республике Узбекистан минимальный возраст вступления в брак для юношей и девушек составляет 18 лет. Но, по мнению ученых, 18 лет – это слишком рано для создания семьи не только с медицинской точки зрения, но и духовно и психологически. В статье на основе научных исследований и религиозных источников сравнивается значение показателей брачного возраста в прочности института семьи.* ***Ключевые слова:*** *семья, первобытное общество, коллективная пара, пара двух человек, моральные нормы, правовые нормы, религиозные правила, возрастные показатели.*

Annotation: *This article scientifically and theoretically analyzes the history of the development of the institution of the family, the stages of development of marriage relations. It is known that in the Republic of Uzbekistan the minimum age of marriage for boys and girls is 18 years. But, according to scientists, 18 years is too early to start a family, not only from a medical point of view, but also spiritually and psychologically. The article, based on scientific research and religious sources, compares the importance of indicators of marriageable age in the consolidation of the family institution.* ***Keywords:*** *family, primitive society, collective couple, couple of two people, moral standards, legal norms, religious rules, age indicators.*

Azal-azaldan ajdodlarimiz oila munosabatlariga katta e’tibor bilan qaraganlar. Ular hayotining barcha jabhalari, jumladan oilaviy munosabatlar ham avval axloqiy, so‘ng diniy, keyinchalik esa huquqiy normalar bilan tartibga solingan. Mamlakatimizda bugungi kunda ham oilaga nisbatan hurmat va ehtirom beqiyosdir.

Buning yaqqol ifodasini, asosiy qonunimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko‘rishimiz mumkin. Konstitutsiyamizning XIV bobi oila institutiga bag‘ishlangan bo‘lib, millatimizning azaliy qadriyati bo‘lmish oila davlat muhofazasida ekanligi huquqiy norma sifatida o‘z aksini topgan. Ushbu bobning 76-80-moddalari[1]da oilaga oid milliy-axloqiy qarashlarimiz huquqiy normalar bilan uyg‘unlashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, «Birinchi vazifa – biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahllik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur».[2, - B. 281]

Har bir inson o‘zining ichki olamidan kelib chiqib «oila» so‘zini o‘ziga xos tarzda ta’riflaydi. Dunyoda qancha odam bo‘lsa, shuncha «oila»ga nisbatan ta’riflar mavjud deyishimiz mumkin. Ta’riflarning barchasi o‘ziga xos to‘g‘ri va o‘rinlidir. «Oila ensiklopediyasi»da «oila»ga quyidagicha ta’rif berilgan: «Oila – bu nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruh. Oilaning boshqa turdagi kichik guruhlardan ajralib turuvchi muhim jihatlaridan biri: oila ijtimoiy guruh sifatida qurilayotgan paytidayoq unga ikki kishi uchun bir umrga avlodlar davom ettirishi kerak bo‘lgan maskan».[3, - B. 111] Bizning fikrimizcha, oila nafaqat ikki kishi tuzgan ittifoq, balki ikki inson orqali bir necha odamlar, oilalar, ularning taqdiri, hayotini bog‘lovchi, ularning baxtli kelajagi uchun bir-birlariga huquqiy, axloqiy, ruhiy va boshqa majburiyatlar yuklovchi jamiyatning kichik bo‘g‘inidir.

Insoniyat o‘z taraqqiyotida tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgani kabi oilaning paydo bo‘lishi, unga evolyutsion bosqichlarning ta’siri, nikoh-oila munosabatlarining shakllanishi, takomillashib borishi ham o‘z rivojlanish tarixiga ega. Olima F. Saifnazarova oilaning evolyutsion rivojlanish bosqichi tarixi haqida «Olimlar insoniyat tarixini ikki asosiy – ibtidoiy jamiyat va sivilizatsiya davrlariga bo‘ladilar. Tarixchilar ibtidoiy jamiyat ham o‘z boshidan ikki davrni: ibtidoiy gala bo‘lib yashash (urug‘chilik jamiyatidan ilgarigi) va urug‘ jamoasi (ona urug‘i va ota urug‘iga ajratiladigan urug‘ jamoasi) bosqichini bosib o‘tgan, deb hisoblaydilar. Ibtidoiy jamiyatda jamoa ichidagi munosabatlar egalitar, ya’ni fransuzcha «egalite» – «tenglik» ma’nosini anglatib, bunga ko‘ra bir qabila, urug‘ning barcha ayollari boshqa urug‘ning barcha erkaklariga xotin hisoblangan».[4, - B. 16] Demak, tarixga nazar solsak, kishilik jamiyatining ilk ibtidoiy davrlaridan boshlab oilaviy munosabatlar mavjud. Lekin ular bugungi kundagi oilalardan tubdan farq qilgan. Avvaliga ibtidoiy odamlar jamoaviy juftlik asosida oila bo‘lib yashagan bo‘lsalar, keyinchalik bu munosabatlar takomillashib ikki insonning juftligidan iborat oilalar paydo bo‘la boshladi.

N.Saydaliyeva esa «Ilm-fanda oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat bilan birga paydo bo‘lgan degan qarash shakllangan. Ilk tarixiy bosqichda oiladagi munosabatlar urug‘ va qabiladagi urf-odatlar orqali boshqarilgan. Axloq, ilk diniy tasavvurlar va keyinchalik davlatning paydo bo‘lishi esa, ularning axloqiy, diniy va huquqiy me’yorlar orqali yo‘lga qo‘yishni keltirib chiqargan»[5, - B. 12]ligini ta’kidlagan. Bugungi shiddat bilan kechayotgan zamonimizda axloqiy, diniy va huquqiy

normalarni o‘zaro uyg‘unlikda hayotimizga tatbiq etish, ularni yoshlarga tushunarli tarzda yetkazish turli nizoli vaziyatlarni, jumladan oilaviy munosabatlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Nikoh qurish maqsadida bo‘lgan yoshlar, avvalo, nikoh yoshiga yetgan bo‘lishlari va nikoh tuzilishi tomonlarning ixtiyori bilan bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida «nikoh qurish yoshi yigitlarga ham, qizlarga ham 18 yosh»[6], deb belgilangan. Albatta, bu yoshda nikoh qurish majburiy hisoblanmaydi, va hattoki, tibbiyot xodimlari tomonidan tavsiya etilmaydi. Qonunan belgilangan ushbu yosh nikoh qurishga ruxsat berilgan yosh chegarasining dastlabki ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ajralish sabablarini o‘rganayotgan olimlarning fikriga ko‘ra, 18 yoshda hali ko‘plab yoshlar oila qurishga nafaqat tibbiy jihatdan, balki ma’naviy, psixologik tomonlama ham tayyor bo‘lmaydi. Bu yoshda yigit va qizlar hali o‘zlari endi katta hayotga qadam qo‘yayotgan bo‘lib, turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutish, murosa qila bilish qobiliyatiga to‘la ega bo‘lmaydilar. Bu esa oilalarda kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi, ba’zida esa oilalar buzilishiga ham sabab bo‘lmoqda. Oilaga, bola parvarishiga oid bilimlarning yetarli emasligi homila tushishi, onalar va bolalar o‘limi, va hattoki yosh kelinlarning katta hayot sinovlariga ma’nan tayyor bo‘lmaganliklari sababidan o‘z joniga qasd qilish, ya’ni suitsidlar ro‘y berishiga olib keladi.

Har bir davr, davlat va jamiyat o‘zining yillar davomida shakllangan mentaliteti, urf-odatlari, iqlimi va boshqa omillarga ko‘ra nikoh qurish yoshini belgilaydi. Rossiya Federatsiyasi Oila Kodeksining 13-moddasida oila qurish yoshi 18 yosh, deb belgilangan. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida holatlarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra, 16 yoshda ham nikohlanishga ruxsat beriladi.[7] Italiyada ham O‘zbekistondagi kabi turmush qurish yoshi 18 yosh hisoblanadi. Shveysariyada esa turmush qurish yoshi erkaklar uchun 20 yosh va ayollar uchun 18 yosh, deb belgilangan.[8]

Bugungi kunda sotsiologlarning tahlillariga ko‘ra, erkakning aksariyatining turmush qurish yoshi 29-30 yosh, ayollarniki esa 25-27 yosh. Odamlarda moddiy va ma’naviy talablarning ortib borishi nikoh yoshining o‘sib borishiga ham sabab bo‘lmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, 30 yoshgacha qurilgan oilalardagi yoshlarning bir-biriga moslashib ketishi, bir-birini tushunishi onsonroq kechar ekan. 30 yoshdan keyin esa juftlik asosida kelishib, maslahatlashib yashash, juftiga yoqmaydigan odatlaridan kechish, o‘zining xato va kamchiliklarini tuzatish qiyinchilik tug‘dira boshlaydi.

Rasulova Z. tadqiqotida quyidagi yosh chegaralari haqida ma’lumot beradi: “Turli dinlar nikohga turlicha munosabat ko‘rsatibgina qolmay, nikohlanuvchilar yoshini ularning jinsiy jihatdan voyaga yetganligiga qarab belgilab, qonunlashtirilgan. Xususan, zardushtiylik dini bo‘yicha qizlar va yigitlar 15 yoshidan nikoh qurishi mumkin bo‘lgan. Shariat bo‘yicha nikoh yoshi o‘g‘il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Katolik cherkovi qizlarga 12 va o‘g‘il bolalarni 14 yoshdan nikohga kirishuviga rozilik bersa, protestantlar cherkovi esa har ikkala jinsga 14 yoshda oila qurishni ravo hisoblaydi. Diniy e’tiqodlarga ko‘ra, jahon miqyosida turli mamlakatlarda turmush qurish yoshi 9-14dan 21-22gacha namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, BMT o‘ziga a’zo bo‘lgan mamlakatlar uchun 1962 yilda buni 15 yoshdan deb belgilangan. Lekin bu barcha aynan shu yoshdan nikoh qurishi kerak degani

emas. Bu shu yoshdan oldin turmushga chiqish mumkin emasligini ko‘rsatadi”.[9, - B. 150]

Shuningdek, “Yahudiylik dinida o‘g‘il bolalarga 9 yoshdan boshlab katta erkak kishilarga qilinganidek muomala qilishsa-da, ularga voyaga yetganlaridan, ya’ni 13 yoshdan so‘ng turmush qurishga ruxsat berilgan. Talmudga ko‘ra esa, qiz bolalarga 3 yoshdan boshlab ayol kishi sifatida qaralgan va shu yoshdan boshlab ularni unashtirib qo‘yishga ruxsat berilgan. Bu qarash nazariy asosgina bo‘lib, amaliyotda qizlarni erta turmushga berish, jinsiy hayotni boshlashga ruxsat berilmagan. Faqat yoshlarni unashtirib qo‘yish bilan cheklangan. Bugungi kunda esa yahudiylik dinida 16 yoshdan turmush qurishga ruxsat beriladi”.[10]

Yosh ko‘rsatkichlari esa muayyan dinning tarqalgan joyi iqlimiga, urf-odatiga bog‘liq. Issiq o‘lkalarda bolalar tez voyaga yetganligi sababli ularda turmush qurish yoshi boshqa davlatlarga qaraganda ancha erta. “Musulmon olamida erta nikohga kirish odat tusiga kirgan va uni hech kim qoralamagan. Chunki qadimda odamlarning o‘rtacha umri juda qisqa bo‘lgan. Masalan, misrliklar 20-25 yil umr ko‘rganlar. Shu bois, 12,5 yoshdagi qiz o‘tirib qolgan hisoblanib, bunday qizni hech kim nikohiga olishni istamagan. Shu sababli, diniy va fuqaroviy qoidalarga binoan, otalar o‘z qizlarini imkoni boricha ertaroq kuyovga berishni afzal bilganlar”.[11, - B. 91]

Saydaliyeva N. ilmiy ishida O‘rta Osiyo tarixida turmush qurish yoshi ko‘rsatkichlari haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “O‘rta Osiyoda qadimda qizlar juda erta nikohga kirib, oila qurganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan, 15-16 yoshli qizlarning deyarli 40%i, 17-19 yoshli qizlarning esa 75%i nikohga kirgan edi. Nikoh yoshi shariat qoidalariga asosan qabul etilgan bo‘lib, unga ko‘ra qiz bola 9 yoshida, o‘g‘il bola esa 12 yoshida balog‘atga yetgan hisoblangan. Tabiiyki, qizlarning erta nikohga kirishi ularning bola ko‘rish muddatini ma’lum darajada uzaytiradi va oilada ko‘proq bola ko‘rish imkoniyati bo‘ladi. Lekin juda erta turmush qurishning salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, u qizlarning salomatligiga, farzandlarning sog‘lom o‘sishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri bo‘lgan. Shunga qaramasdan, bunday odat keng tarqalgan. Erkaklarning aksariyati, 30-40 yoshlarda nikohga kirganlar. Bu hol birinchi navbatda erkaklarning iqtisodiy imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Ikkinchi tomondan, erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, juda erta nikohga kirish, ko‘p farzand ko‘rish va boshqa sabablar tufayli ayollar o‘limi yuqori bo‘lgan. Bu ham erkaklarning nikohga kirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bois jamiyatda ayollar salmog‘i erkaklarga nisbatan ancha kam bo‘lgan. Qadimgi nikohning yana bir xususiyati kelin-kuyov yoshidagi keskin farq edi. Juda ko‘p hollarda kuyov kelindan 8-10 va undan ham katta yoshda bo‘lgan. Bunday nikoh munosabatlari oilaning shakllanishiga, uning tarkibiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu munosabatlardan ko‘p hollarda ayollar jabrlanganlar: erta turmushga berish, ko‘p nikohlilik, er-xotin yoshlaridagi farqlar ayollar ruhiyatiga, salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan va ko‘plab ayollarning yosh o‘lib ketishiga sabab bo‘lgan. Qarindoshlik nikohlarining keng tarqalishidan esa, nogiron, kasalmand bolalarning tug‘ilishi ko‘p bo‘lgan. Natijada bolalar o‘limi yuqori bo‘lib, oila salmog‘iga ta’sir etgan. 1968 yil qabul qilingan O‘zbekistonda oila va nikoh munosabatlari haqida kodeksda nikoh yoshi qizlar uchun – 17 yosh, erkaklar uchun – 18 yosh belgilandi. Bu davrlarda nikoh yoshining ko‘tarilishi qizlarning erta

turmushga chiqish hollarining kamayishiga, qizlarning nikoh yoshining ko‘tarilishi esa ularning ma’lumotlilik darajasini oshishiga olib keldi”.[5, - B. 48]

Ma’lumki, inson jinsiy balog‘atga 12-15 yoshlarda yetsa, huquqiy muomala layoqatiga – 18 yoshda ega bo‘ladi. Biron-bir mutaxassislikni egallaganda 20-25 yosh atrofida bo‘lsa, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishganda 28-30 yoshlarni qarshilaydi. Iqtisodiy mustaqillikka erishish esa har bir inson qobiliyati, harakatchanligiga qarab turli muddatni talab etadi. Bu vaqt, asosan, 20 yoshdan 30 yoshgacha davom etadi. Demak, ma’lum bir yoshni barcha uchun birdek oila qurishi shart qilib ko‘rsatib bo‘lmaganidek, ma’lum muddat bilan ham chegaralab bo‘lmaydi. Bu har kimning oila mas’uliyatini his qila bilishiga bog‘liqdir.

Ma’rifatparvar jadidchi Abdurauf Fitrat oilaviy munosabatlar haqida quyidagi fikrni bildirgan edi: “Uylanish bu hayotda sheriklikning ahdu paymonidir. Er-xotin birga bo‘la turib, hayot yo‘lida birgalikda bo‘lmoq va bir-birlariga yordam bermoq uchun ahd qiladilar. Bir-birlarining haqqiga zulm, jafo va xiyonatni ravo ko‘rmaydilar. Tabiiyki, er-xotin agarda diyonatli va axloqli hamidaga ega bo‘lsalar, shu ahdu paymonlariga bir umr sobit qoladilar. Shu narsa aniqki, va’daga xilof qo‘yilgan har bir qadam shu ahdu paymonning buzilishiga olib kelib, badbaxtlik va tinchsizlikni oilalar boshiga keltiradi”.[12, - B. 96]

Ta’kidlash lozimki, oila mustahkamligi uchun davlatimiz tomonidan keng sharoitlar yaratilgan. Necha asrlardan beri milliy va diniy qadriyatlarimiz ham shu xizmatda. Ulardan foydalanish yoki foydalanmaslik huquqiy, axloqiy savodxonligimizga bog‘liq. Lekin unutmasligimiz lozimki, qurayotgan oilamizning baxtli yoki baxtsiz bo‘lishi ko‘p hollarda o‘zimizga, bizning tanlovimizga bog‘liq. Kelajak uchun xavf solayotgan bunday holatlarni oldini olish uchun kompleks tadqiqotlar o‘tkazib, tizimli ravishda oilaviy muammolarni o‘rganish davr talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Akramova F. va boshqalar. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.

4. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar. – Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI, 2007.

5. Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2005.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 1998 yil 30 aprel. https://lex.uz/docs/104720.

7. Семейный Кодекс Российской Федерации. №223-Ф3 (ред. от 02.07.2021). 1995 год 29 декабрь. http://stskrf.ru.

8. Сахно Ю. А. Особенности регистрации брака в некоторых странах Европы (часть 2) // 09.12.2019. https://www.9111.ru/questions.

9. Rasulova Z.A. O‘zbeklarda oila – nikoh an’analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya – Toshkent, 2018.
10. “Брак в иудаизме”. Материал из Википедии. https://ru.wikipedia.org/wiki.
11. Qori Abduraxmon. Islom axloqi. – Toshkent: Movarounnaxr, 1997.
12. Tohir Malik. Tafakkur gulshani ichra. 1-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017.

NAQSHBANDIYA – MUJADDIDIYA TARIQATI SILSILASI VAKILI ESHMUHAMMAD ESHON XALIFA ZIYORATGOHLARI TARIXI

Sevaraxon KARIMOVA
Oriental universiteti tarix yo’nalishi 2 – kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Eshmuhammad xalifa eshon ziyoratgohlari "Parpi ota", "Qorixona", "Chilmahram", "Saroyxonaqohpirim" va "Sarmozor gumbarz maqbarasi" to'g'risida. Xalqimiz bunday aziz – avliyolar, tariximizda yaxshilik, ezgulik, marifat ishlarini qoldirgan mo'tabar insonlarning poyi xoklarini asrab – avaylab kelmoqda. Eng muhimi ziyoratgohlarda zilol, shifobaxsh buloqlar, bu buloqlar atrofida so'lim tabiat go'shalari tashkil topgan.* ***Kalit so'zlar:*** *avliyo, xalifa, eshon, ziyoratgoh, qorixona, chilmaxram, maqbara, tarix.*

Annotation: *This article is about Eshmuhammad khalifa Eshon shrines "Parpi ota", "Korikhona", "Chilmahram", "Saroykhanokahpirim" and "Sarmozor gumbarz mausoleum". Our nation has been protecting the legacy of such saints, dignified people who left behind good, noble and enlightened works in our history. Most importantly, these pilgrimage sites are home to crystal-clear, healing springs, surrounded by serene natural landscapes.* ***Key words:*** *saint, caliph, eshan, shrine, chilmakhram, tomb, history.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о святилищах Эшмухаммад халифа Эшон «Парпи ота», «Корихона», «Чилмахрам», «Саройханокахпирим» и «мавзолее Сармозор гумбарз». Наш народ хранит наследие таких святых, достойных людей, оставивших после себя добрые, благородные и просвещенные дела в нашей истории. Наиболее важным является наличие на местах паломничества целебных родников с кристально чистой водой, вокруг которых сформировались живописные уголки природы.* ***Ключевые слова:*** *святой, халиф, эшан, святыня, святилище, чилмахрам, гробница, история.*

Yangi O’zbekiston yoshlarining vatanparvarlik ruhida yuksak ma’naviyatli bo’lib kamol topishlarida ajdodlardan meros yetib kelgan boy tarixiy moddoy hamda madaniy yodgorliklar, ilmiy meroslarning o’rni beqiyosligini teran anglagan 3 Renesans liderlari ilm ahli turli sohalardagi ilmiy tadqiqotlari bilan milliy va xalqaro konferensiyalarda faol ishtirok etishib O’zbekistonning buyuk tarixini keng ommaga voqif etib kelishmoqda. Hususan, XVIII – XIX asrlarda Markaziy Osiyoda naqshbandiya – mujaddidiya tariqati tarqalishi tarixi soha mutahassislari tomonidan keng tadqiq etilib kelinmoqda.

Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi peshqadam vakili Eshmuhammad eshon xalifa Toshkent viloyati, Namangan, Farg’ona, Andijon kabi hududlarga naqshbandiya – mujaddidiya tariqatini olib kirgan asoschisi bo’ldi. Eshmuhammad

eshon xalifaning hayoti va faoliyati hamda ziyoratgohlarini tadqiq etganlar G’.Mirzaahmedov, Sh.Valiyev, M.Asqarov, A.S.Hasanov, S.I.Karimova, I.Ostonaqulov, M.O’.Amonov. Eshmuhammad eshon xalifaning hozircha ”Oshiq qo’llar murabbosi” g’azali yetib kelganligi aniqlangan bo'lib, bu avliyo zot “Dastagul”, “Eshqul xalifa”, “Eshmat xalifa” tahalluslari bilan ham ijod qilgan. Eshmuhammad eshon xalifa Abdulaziz Majzub Namongoniyning tariqatda kamolga yetgani va suluk tebratishiga ijozat bergan piri bo’lganligini Abdulaziz Majzub Namongoniy “Pir – u, pironlar” g’azalida takidlagan. Shoir G’aribiy ham devonidagi g’azalida naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi peshqadam vakili Eshmuhammad eshon xalifani mashhurligini alohida madxol qilib tariflagan. Muhammadali eshon ham Eshmuhammad eshon xalifaga atab “Ming bir hikmat” yozadi, biroq, hikmat uning avlodlari qo'lida yo'qoladi. “Ming bir hikmat” parchasini Haydarali xofiz Mirhannom o’g’li kuylab yurgan[1].

Hazrat Eshmuhammad eshon xalifa 1780 – yil Qo’qon shahar Beshariq tumani Chorvoqturong’i qishlog’ida tug’ilgan. Alloh taoloning ne’mati “Aynul yaqiyn” ilm va kasbiy karomat sohibi Eshmuhammad eshon xalifa bunday xoslik bilan yoshlikdan ilm izladi va Afg’onistonning Hirot viloyati Karrux tumaniga borib, naqshbandiya – mujaddidiya tariqati pirlaridan Muhammad Islom shayxdan

qorixonasida ta’lim oldi. Hazrat Eshmuhammad eshon xalifaning piri Muhammad Islom shayx o’z davrida naqshbandiya – mujaddidiya tariqatida So’fi Ollohyordan keyin silsilani davom ettirgan xalifasi G’oyib Nazarning shogirdi bo’lgan. Manbada eshon Eshmuhammad xalifa piri Islom shayxdan va keyin Ne’matulloh Mahviydan ham ta’lim olgan deyilgan [2.–B.19]. Silsila shajarasida ham Ne’matulloh Mahviy orqali Eshmuhammad xalifani Muhammad Islom shayxga bog’lashgan. Eshmuhammad eshon xalifa va Ne’matulloh Mahviy ikkalasi ham Muhammad Islom shayxning shogirdlari edi. Aslida Eshmuhammad eshon xalifa Muhammad Islom shayxdan ta’lim olib xalifasi darajasiga erishganligi sababidan silsila shajarasida ham Muhammad Islom shayxga to’g’ridan to’g’ri bog’lanishi kerak edi[3.–B.392]. Eshmuhammad xalifa 8 – 9 oyda bir necha yillar yurgan shogirdlardan ilgarilab ketib pirining xalifasi darajasiga erishadi va eshonlik irshodi(guvohnoma) oladi. Bunga tajjub bildirgan boshqa talabalarga qarata piri Muhammad Islom shayx Eshmuhammad eshon xalifa haqida “Bu zot chirog’ini piligini o’zlari o’rab kelgan ekan, men esa yoqib qo’ydim xolos” – deb baho bergan ekan. Eshmuhammad eshon xalifaga piri xati irshod (guvohnoma), 2 dona mo’ylari, avrali beqasam chopon, silsila shajarasini berib, Qo’qon, O’sh to Chim Mochingacha so’rashini aytib, duo qilibdi[4.–B.10 – 11].

Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohini aslida Eshmuhammad eshon xalifa tashkil qilgan. Parpi esa Eshmuhammad eshon xalifaning murid(shogird)i bo’lgan. Rivoyatga ko’ra: ziyoratgohdagi ulkan harsangda insonning 5 ta panja izi bo’lib, islom ummatiga 656 – 661– yillarda xalifalik qilgan Hazrat Ali(r.a)ning panja izlari deyishadi. Ziyoratgoh tepaligidagi ming yillik qatron daraxtlari esa bu zotning qamchi dastasi bo’lib, shu joyni yo’qotmaslik uchun qamchi dastasini yerga suqib, Dulduliga minib ketibdi, u o’sib daraxt bo’libdi. Islom tarixidan ma’lumki Hazrat Ali(r.a) bu yerga kelmagan. Dastlabki faoliyatini bu tabarruk maskanda boshlagan Eshmuhammad eshon xalifaning xizmatida

murid(shogird)laridan Parpi, Patti, Darveshali, Nurmuhammad kabilar bo'lgan. Eshmuhammad xalifa qatron daraxtlari pastligidagi yerga hassasini suqib, shu joyni muridlari bilan kavlashda toshga ro'para keladi, u toshni olib o'rnatib qo'yib, kavlashni davom etganda buloq suvi chiqib undagi turli kattalikdagi toshchalarni esa tepalikdagi qatron daraxtlari atrofiga aylantirib terib chiqishgan va bu yerda Eshmuhammad xalifa o'ziga muridlari bilan hujra quradi va shifo istab, ixlos qilib keluvchi aholini qabul qilib davolagan. Ziyoratgohdagi magnit maydoni, qatron daraxtlari, "Muqaddas teshik tosh", "Mangu buloq" shifobaxsh bo'lib, bu yerlik aholi va hayvonlar orasida o'sha vaqtda tarqalgan turli yara – chaqa, qutirish kasalliklarini davolashda amal qilish 3 marta takrorlangan va Allohning izni ila bemorlar shifo topgan. Eshmuhammad xalifa "Mangu buloq" yonidagi hujrasida ma'lum vaqt yashab, u yerni muridlari orasidan Parpiga vaqtinchalik boshqaruvini topshirib, o'zi esa qolgan muridlari bilan Kouldi koni tomonda tepalik manzilda yer ostiga "Qorixona"(g'or) kavlab tog'lik aholiga ilm berish uchun chiqib ketadi. Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyoratgohini aslida naqshbandiya – mujaddidiya tariqati piri avliyo zot Eshmuhammad xalifa tashkil etganligi sabab "Avliyo ota" deyilsa, so'ng murid(shogird)i Parpi bu yerda pir(ustoz)i Eshmuhammad xalifaning faoliyatini davom ettirib shayxlik qilgani uchun keyinchalik ziyoratgoh Parpining nomi bilan xalq orasida "Parpi ota" deb atalib ketgan. Ziyoratgoh Buyuk ipak yo'lining o'tish tarmog'ida joylashgan bo'lib O'sh, Qo'qon xonligiga boruvchi Qamchiq va Kandir dovon yo'li o'tgan, ikkinchi tomondan Shosh, Samarqand, Oltin O'rda, Chimket, Turkistonga boradigan savdo karvon yo'llari o'tgan, atrofida qabriston, qishloqlar va keng maydon bo'lib, unda uloq choptirish, Navro'z kabi turli sayl bayramlari nishonlangan, ikki qavatli "Ko'k masjid" tashkil etilib, Xayt, juma namozlari o'qilgan. XX asr boshlarida karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan, ya'ni 1950–1960 – yillargacha saroylar mavjud bo'lgan. 1965 – yil Olmaliqda Kambinat AGMK qurilib, bu yerda ham oxak zavodi ishga tushirilgan. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyoratgohidagi tepalik Sherobod tepaligi deyiladi, unda katta buloqning tubida ummon bor, bu joyni SSSR hukumati tomonidan portlatilgan va traktorlari ham kavlash vaqtida qulab tushavergan. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyoratgohida 2003 – 2004 – yillarda A.S.Hasanov ilmiy tadqiqot

ishlarini olib borib magnit maydoni borligini, bu yerda elektr magnit maydonining kuchlanishi yuqoriligi, inson yurganida bu yerdagi toshlarda qisman magnititning joylashgani hisobiga magnit maydoni to'lqini yuzaga kelishi, komps bilan tekshirilganda ziyoratgohning nuqtasi bor shu yerda ko'rsatmaydi ya'ni G'arbni Sharq, Sharqni esa Janub ko'rsatadi, o'sha nuqtada o'ng qo'l chap qo'lga aylanib qolishi, bu yerda hamma narsa teskari bo'lib ko'rinishi, oddiy elektrodni qo'lda ushlab yurganda avval ular bir biriga tortishib, so'ng bir biridan qochishini takidlagan[5]. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyoratgohi keyingi davrlarda o'sha atrofda yashovchi mahalliy aholi vakillari tomonidan boshqarilib kelingan, hatto "Parpi ota" ("Avliyo ota") ziyoratgohidagi 2 tup sog'lom qatron daraxtlari 2011– yil mart oyida kesib ketilgan. Undan oqilona foydalanish, asrab – avaylash o'rniga ayrim kimsalarning moddiy manfaati ortidagi baxs munozaralar "jabrlanuvchisi"ga aylanib qolgan va qatron daraxtlari o'rinlarida kesilgan holatda yotibdi. Natijada tarixiy

madaniy ekspertizaning 2011 – yil 26 – iyundagi N 7 – sonli hulosasi asosida “Parpi ota” (“Avliyo ota”) ziyoratgohi diqqatga sazovor joy sifatida ro’yxatga olindi.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan “Qorixona” (g’ori) ziyoratgohini aslida naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa tolibi ilmlarga ilm berish uchun barpo etgan. “Qorixona” g’orida masjid, madrasa, mexmonxona, yotoqxona, omborxona bo’lgan. Eshmuhammad eshon xalifaning 2 – avlod(nevara)lari Mirzaabdulla eshon va Mirzashamsiddin eshonlar “Parpi ota”(“Avliyo ota”) va “Qorixona” g’orida buvasining faoliyatini davom ettirganliklari uchun manbalarda Mirzaabdulla eshon “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohi yonidagi tepalikka, ayrim manbalarda esa “Qorixona” g’origa dafn etilganligi takidlangan. Mirzashamsiddin eshon ham “Qorixona” g’origa dafn etilgan, Saroy qishlog’idan borib yashab kelgan 3 – avlodlardan Hamdamxon eshonning ayoli qabri ham “Qorixona” g’oridan joy olgan. Mirzashamsiddin eshonning o’g’li Salohiddin eshon ham ota – buvalarining yo’lini davom ettirib, 1940 – yil “Qorixona” g’orida aholiga ilm berayotgan vaqtida SSSR hukumati NKVD xodimlari “Qorixona” g’oridan Salohiddin eshonga qo’shib 4 qop kitobni ham olib ketib, yo’q qilishgan. A.S.Hasanov “Qorixona” g’orida bir nechta qabrlar borligini takidlagan. “Qorixona” g’oridagi qabrlar Eshmuhammad eshon xalifaning avlodlariga tegishli. A.S.Hasanov takidlashiga ko’ra: manbalarda bu madaniy yodgorlik XVI asrga tegishliligi, ayrimlarida esa mil.avv I – II asrlarga ta’luqliligi aytilgan. “Qorixona”(g’ori)ni 16 metr tepalik tagida qazish ishlari bilan qurilgan, tepalikdan yer ostiga 4 ta kirish yo’lagi orqali o’tiladi, yo’lak 10 metr, 2 tomonda 3 tadan 6 ta hujra bor, 3 qavatdan iborat, 18 xona mavjud, balandligi 22 metr keladigan qiya qo’rg’onning ichkarisida umumiy maydoni 60 ga 48 metrli zal va yo’laklar labirinti joylashgan, 2 yarusli labirint o’zaro tor darchalar bilan bog’langan, ularga tuproqli pillapoyalar orqali chiqib tushiladi. Bu yerda birorta mix, yog’och, g’isht, tosh, poydevor ishlatilmagan, lekin keyinchalik ichki tomon ayrim qismlarida alabaster bilan shuvoq qilingan joylari bor, ayrim hujralarining sham turadigan takch (tahmon)lari sham yoritish uchun mo’ljallangan, tepa tomoni ham yorug’ tushib turadigan joy bo’lgani bu havoni aylanib turishiga ham hizmat qilgan, qishda iliq, yozda esa salqin bo’lgan, kichik hujralarda tolibi ilmlar ya’ni murid(shogird) talabalar ham dars qilishlari, ham tepaga chiqib yotishlariga moslab qurilgan. “Qorixona” g’ori haqida rus arxeolog akademik olimlaridan M.E.Masson, B.Rastovsev, K.Kraxmal, O.Rastovsev o’zlarining ajabtovur gipoteza(faraz, tahmin)larini bildirishgan, ammo birontasi bu g’or nima maqsadda qurilganligini aniqlayolishmagan. Dastlab 1934 – yilda “Qorixona” g’orida tadqiqot olib borgan M.E. Masson “Qorixona g’orining yer osti hujralari Islomda taqiqlangan sekta va mazhablarning a’zolari uchun yashirin boshpana bo’lib hizmat qilgan” – deb takidlagan [6]. Yuqoridagi arxeologlar ham M.E.Massondan qolishmagan “Qorixona” g’orini tariflashda. Bu rus arxeolog akademik olimlari SSSR hukumati siyosatiga bo’ysungan holda tadqiqot olib borib, Islom dinini, hususan, tasavvuf ilmlarini bilmaganliklari uchun tadqiqotda ulkan xatolikka yo’l qo’yib, o’zlari bilmagan holatda “Qorixona” g’orini barpo etgan avliyo zot naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa(va nevaralari Mirzaabdulla eshon, Mirzashamsiddin eshon, Salohiddin eshon, Hamdamxon eshonlar)ga tuxmat

toshlarini otishgan. Ziyoratgohlarni tadqiq etishda islom ilmi tasavvufni bilish talab etiladi.

Farg'ona viloyati Beshariq tumani Navkat MFYda naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili avliyo zot Eshmuhammad eshon xalifa tomonida barpo etilgan "Chilmahram" (g'ori) ziyoratgohi joylashgan. "Chilmahram" g'orining o'lchami taxminan: chiqish tepaligi 112 metr, uzunligi 100 metr, eni 3 metr, kengligi 2 metr tashkil etadi, 3 ta hujradan iborat. "Chilmahram" g'origa Eshmuhammad eshon xalifaning katta o'g'li Tojixon eshon dafn etilgan. Ziyoratgohning nomi "Chilmahram" (chil – qirq, mahram – ulamolar) deb atalishining sababi bu g'orga Eshmuhammad eshon xalifani sinash uchun Qo'qon xonligidan yuborilgan 40 ta ulamo(mahram)ning sinovidan o'tganligi uchundir. Shundan so'ng Qo'qon humdori Xudoyorxonning ham sinovidan o'tgan naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifani sohibqiron Amir Temurning 23 avlodi Xudoyorxon o'ziga pir tutadi va bu avliyo zotga hurmat ko'rsatib, tug'ilgan joyi Chorvoq Turong'iga masjid qurdirib beradi. Namangan viloyati Pop tumani G'urumsaroy qishlog'ida joylashgan "Odixon eshon" nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa tomonidan barpo etilgan. So'ng muridlari orasidan Odixon eshon ham huddi Parpi kabi piri Eshmuhammad eshon xalifaning faoliyatini davom ettirib vafot etgani uchun ziyoratgoh uning nomi bilan xalq orasida "Odixon eshon" deb atalib ketgan.

Andijon viloyati Shahrixon tumani Saroy qishlog'ida faoliyatini davom ettirgan naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa umrining so'ngi qismida avlodlariga "Qazoyim yetsa O'shga qo'yinglar" – deganida qishloq oqsoqoli Niyozmatamin O'sh yo'lari notinchligini aytib o'tib bo'lmasligini tushuntirganida Eshmuhammad eshon xalifa "Saroyliklarning baxti bor ekan" debdi. Eshmuhammad eshon xalifa 1866 – yilda vafot etganida qabr(ravza)iga maqbarani Niyozmatamin qurdiradi va uning o'g'li Umaraliamin 1893 – yilda maqbarani qayta ta'mirlatadi. Maqbaraning tashqarisiga Eshmuhammad eshon xalifaning avlodlari ham dafn etilgan bo'lib, 1995 – yilda Abdulxay Mamatisayev maqbarani qayta qurdirganida 2 – avlodlardan nevarasi Nasriddin eshon qabri maqbara ichiga olinib, Eshmuhammad eshon xalifaning yoniga dafn etiladi. Sarmozor gumbaz maqbara yonidagi Saroyxonaqohpirim jome masjidi tarixi ham bu avliyo zot nomi bilan bog'liq. Eshmuhamad xalifa dastlab bu yerda kichikroq xonaqoh, hujralar qurdirgan va shundan buyon namozlar o'qib kelingan. Ammo ma'lum vaqt bu masjid faoliyati to'xtab qolgan va O'zbekiston mustaqilligi sharofati tufayli Saroyxonaqohpirim jom'e masjidi xalq hashari yo'li bilan ta'mirlanib, o'z faoliyatini qayta boshladi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday marhamat qiladi:" Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy(avliyo)lariga xavf yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaslar. Ular iymon keltirganlar va taqvo qilganlardir. Ularga hayoti dunyoda ham, oxiratda ham hushxabar bor. Allohning so'zlarini o'zgartirish yo'q. Ana o'sha ulug' yutuqdir"[7].

Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa tomonidan barpo etilgan barcha ziyoratgohlarida bu valiy zotning hayoti va faoliyati hamda ziyoratgohlari haqida to'liq ma'lumot beruvchi peshlavhalar o'rnatilishi, muzeylari tashkil etilishi, 3 D foramti elektron shakli ham yaratilishi, boshqa avliyolar qatorida tasavvuf, tarix kabi darsliklariga ham kiritilishi, Islom

sivilizatsiyasi markazidan munosib joy olishi, xalqaro konferensiyalar tashkil etilishi, YUNESKO (UNESCO), AYSESKO (ISESCO) ro'yxatlariga kiritilishi, ziyoratgohlarida yotgan avlodlari qabr(ravza)lari ta'mirlanishi, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilishi va obod bo'lishi kerak. Zero, qiyomatda avliyolarning martaba, darajalariga hattoki, payg'ambarlar, shahidlar havas qilajak.

(Sevaraxon Karimova Ilhomjon qizi Eshmuhammad eshon xalifaning 6 – avlodi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzaahmedov G'. Eshmuhammad xalifa haqida xotiralar va hikoyalar to'plami. – Shahrixon. 2017; Saroyxonaqoh jome masjidi tarixi risola. – Shahrixon. 2013; Xonaqohpirimning siri nimada? – Shahrixon.2020.
2. https://cyberleninka.ru Amonov M.O'. Eshmmuhammad Xo'qandiy. Scienceproblems.uz,2020.
3. https://esiconf.org/index.php/MRIATS/article/view/783 Karimova S.I. Naqshbandiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifaning hayoti va faoliyati.2024.
4. Karimova S.I. Eshmuhammad xalifa ziyoratgohlarining aholi ma'naviy hayotida tutgan o'rni. B.M.I. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2023.
5. https://youtu.be/H8kmyYGPf5q "Parpi ota" ziyoratgohi tarixi I Ko'xna manzillar ko'rsatuvi. // O'zbekiston tarixi telekanali.
6. https://youtu.be/AyzbiibKxfY "O'zbekiston tarixidagi yechilmagan jumboqlaridan biri Qorixona tarixi I Ko'xna manzillar ko'rsatuvi. // O'zbekiston tarixi telekanali.
7. Yunus surasi, 62 – 63 – 64 – oyatlar.

TAN SULOLASI DAVRIDA O'RTA OSIYO BILAN MUNOSABATLAR

Kabulov RUSTAM
Oriental universiteti o'qituvchisi
Sevinch ABDUMALIKOVA
Oriental universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tan sulolasi (618–907-yillar) hukmronligi davrida Xitoy imperiyasi bilan O'rta Osiyo o'lkalarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tahlil qilinadi. Tan davlati Buyuk Ipak yo'li orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan faol savdo-sotiq olib borgan, ayniqsa, So'g'diyona, Farg'ona, Buxoro va Xorazm kabi hududlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Maqolada bu davrda o'zaro savdo aloqalarining rivojlanishi, diplomatik missiyalar, harbiy yurishlar, diniy va madaniy almashinuvlar, jumladan, buddaviylik va manixeylikning tarqalishi masalalari yoritilgan.* ***Kalit so'zlar.*** *Tan sulolasi, O'rta Osiyo, Buyuk Ipak yo'li, savdo aloqalari, diplomatik munosabatlar, So'g'diyona, madaniy almashinuv, buddaviylik, Xitoy tarixi, elchilik missiyalari.*

Annotation: *This article explores the political, economic, and cultural relations between the Tang Dynasty (618–907) of China and Central Asia. During this period, the Tang Empire actively engaged in trade and diplomatic relations with regions such as Sogdiana, Fergana, Bukhara, and Khwarezm through the Silk Road. The study highlights the development of commercial ties, the exchange of diplomatic missions, military campaigns, and the spread of religions such as Buddhism*

and Manichaeism. ***Keywords.*** *Tang Dynasty, Central Asia, Silk Road, trade relations, diplomatic missions, Sogdiana, cultural exchange, Buddhism, Chinese history, envoys.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу политических, экономических и культурных связей Китайской империи с государствами Центральной Азии в период правления династии Тан (618–907 годы). Государство Тан вело активную торговлю через Великий Шелковый путь с центральноазиатскими странами, особенно устанавливая тесные связи с такими регионами, как Согдиана, Фергана, Бухара и Хорезм. В статье рассматриваются вопросы развития взаимной торговли, дипломатических миссий, военных походов, религиозных и культурных обменов, включая распространение буддизма и манихейства.* ***Ключевые слова:*** *Династия Тан, Центральная Азия, Великий Шелковый путь, торговые связи, дипломатические отношения, Согдиана, культурный обмен, буддизм, история Китая, посольские миссии.*

Markaziy Osiyo tarixda doimo Sharq va G‘arb o‘rtasidagi geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali kechgan savdo yo‘llari, xalqlarning o‘zaro munosabatlari, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar hamda madaniy almashinuvlar bu mintaqani jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan. Xitoy tarixidagi eng qudratli imperiyalardan biri bo‘lgan Tan sulolasi (618–907) davrida Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi munosabatlar o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan [1].

Tan sulolasining siyosiy barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyoti tufayli Xitoy tashqi aloqalarni faol rivojlantira boshlagan. Bu jarayonda O‘rta Osiyo bilan bo‘lgan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etgan. Tan imperiyasi Buyuk Ipak yo‘li orqali So‘g‘diyona, Buxoro, Farg‘ona, Xorazm kabi O‘rta Osiyo o‘lkalari bilan turli sohalarda faol aloqalar olib borgan. Ushbu aloqalar savdo-sotiq, elchilik missiyalari, harbiy yurishlar, ilm-fan va madaniyat almashinuvi shaklida kechgan. [2].

Xususan, So‘g‘diyona xalqi Tan sulolasi davrida eng faol vositachilardan biri bo‘lgan. So‘g‘diy savdogarlari Xitoy imperiyasi hududiga kirib, savdo-sotiqni rivojlantirgan, madaniy qadriyatlarni yoygan hamda diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Ularning tili, yozuvi va dini Tan saroyida ham tan olingan. Shu bilan birga, Tan imperiyasi O‘rta Osiyo mamlakatlariga ko‘p marotaba elchilar yuborgan va ularning poytaxtlarida Xitoy elchilari bo‘lgan. Bu munosabatlar ikki tomonlama manfaatlarga asoslangan bo‘lib, tinchlik va taraqqiyotga xizmat qilgan.

Tan davrida Xitoyda buddaviylik keng tarqalgan bo‘lib, bu din O‘rta Osiyo orqali Xitoyga kirib kelgan. Buddaviy rohiblar va olimlar O‘rta Osiyodan Xitoyga ko‘chib, bu yerda diniy faoliyat bilan shug‘ullangan. Shuningdek, manixeylik, zardushtiylik kabi dinlar ham Tan Xitoyida ma’lum darajada tarqalgan. Bu holat madaniy va dini almashinuving yanada kuchayishiga olib kelgan. Arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar, xattotlik va san’at namunalari Tan va O‘rta Osiyo munosabatlarining boy va rang-barang bo‘lganligini ko‘rsatadi [3].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Tan sulolasi davrida Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasida mavjud bo‘lgan har tomonlama aloqalar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. O‘zaro munosabatlarning mohiyati, shakllari va natijalari

aniqlanadi. Bugungi globallashuv davrida xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning ildizlarini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish nihoyatda muhimdir [4].

Shu bois, ushbu tadqiqot Tan sulolasi va O‘rta Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning tarixiy asoslarini yoritishga qaratilgan. Maqolada tarixiy hujjatlar, xitoy manbalari, arxeologik topilmalar, Sharq va G‘arb tarixchilari tomonidan yozilgan ilmiy asarlar tahlil qilinadi. Bu orqali Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar tarixini chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi [5].

Tan sulolasi davrida Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi munosabatlar turli yo‘nalishlarda faol bo‘lganligi tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar orqali o‘z tasdig‘ini topadi. Bu davrda yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va dini aloqalar nafaqat ikki mintaqa o‘rtasida, balki butun Yevrosiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan [6].

Tan davrining asosiy xususiyatlaridan biri bu imperiyaning tashqi siyosatdagi ochiqligi va mintaqaviy hamkorlikka intilishi edi. O‘rta Osiyoning So‘g‘diyona, Farg‘ona, Buxoro va Xorazm kabi markazlari bilan savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy foyda keltirgan, balki madaniy va dini almashinuvni kuchaytirgan. Savdogarlarning erkin harakati, elchilarning almashinuvi, diniy arboblarning sayohatlari ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlagan [7].

Tan saroyida O‘rta Osiyolik elchilarning faoliyat yuritganligi, so‘g‘diy savdogarlari va buddist rohiblarning jamiyatda faol bo‘lganligi bu davrda kosmopolit muhit hukmron bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, Tang imperatorlari O‘rta Osiyodan kelgan elchilar va savdogarlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatib, ularning urf-odatlari va madaniyatiga hurmat bilan yondashgan. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo xalqlari ham Xitoydan turli innovatsiyalarni, san’at va texnologiyalarni o‘zlashtirganlar [8].

Diniy sohada esa O‘rta Osiyo orqali Xitoyga kirib kelgan buddaviylik, manixeylik va zardushtiylik Tan davrida keng yoyilgan. Bu dinlar nafaqat diniy hayotni, balki madaniyat va adabiyotning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. O‘rta Osiyolik tarjimonlar buddaviy matnlarni xitoy tiliga o‘girgan, bu esa dini-falsafiy tafakkurning kengayishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, Tan sulolasi davrida yuzaga kelgan harbiy harakatlar ham O‘rta Osiyo bilan bo‘lgan munosabatlarda muhim rol o‘ynagan. Xususan, Tan qo‘shinlarining g‘arbiy yurishlari va mintaqadagi siyosiy kuchlar bilan bo‘lgan ziddiyatlar, bir tomondan, raqobatni keltirib chiqargan bo‘lsa, boshqa tomondan, yangi ittifoqlarning shakllanishiga ham zamin yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, Tan sulolasi davri Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi munosabatlarning eng faol, sermazmun va murakkab davrlaridan biridir. Bu munosabatlar har ikki hududning ichki siyosiy-iqtisodiy hayotiga, madaniy taraqqiyotiga va xalqaro nufuzi oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham bu tarixiy aloqalarni chuqur o‘rganish Sharq va G‘arb o‘rtasidagi zamonaviy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tan sulolasi davri – Xitoy tarixidagi eng qudratli va gullab-yashnagan davrlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda Xitoyning O‘rta Osiyo bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari kengayib, yuqori bosqichga chiqqan. Ushbu aloqalar ikki hudud

o‘rtasida do‘stona munosabatlar, o‘zaro savdo-sotiq, diplomatik elchiliklar, diniy va madaniy almashinuvlar shaklida namoyon bo‘lgan.

O‘rta Osiyo xalqlari, xususan So‘g‘diyona, Buxoro, Farg‘ona va Xorazm vakillari Tan saroyida faol qatnashgan, savdo va diplomatiya yo‘nalishlarida vositachi bo‘lganlar. Shu bilan birga, ularning madaniyati, diniy qarashlari va san’ati Tan imperiyasi madaniy hayotiga katta ta’sir o‘tkazgan. Xitoydan esa texnologiyalar, ma’muriy tajriba va dini-falsafiy qarashlar O‘rta Osiyoga kirib borgan.

Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida aytish mumkinki, Tan sulolasi davrida yuzaga kelgan O‘rta Osiyo bilan aloqalar bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlar, madaniy integratsiya va global savdoning ildizlaridan biridir. Bu tarixiy tajriba xalqlar o‘rtasidagi tinchlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat asosida barpo etilgan munosabatlarning naqadar samarali bo‘lishini isbotlab beradi.

Shunday qilib, Tan sulolasi va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi munosabatlar tarixni chuqur anglash, bugungi va kelajakdagi mintaqalararo hamkorlik uchun muhim saboqlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Barthold, V.V. Turkestanning qadimgi tarixi. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993.
2. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. London: Luzac & Company, 1923.
3. Liu, X. The Silk Road in World History. Oxford University Press, 2010.
4. Xitoy tarixi: O‘rta asrlar davri. Tarjimon va muharrirlar jamoasi. Toshkent: “Sharq”, 2005.
5. Bregel, Y. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden: Brill, 2003.
6. Sa’dullaev, A. O‘rta Osiyo xalqlari tarixidan lavhalar. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.
7. Millward, J.A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. Columbia University Press, 2007.
8. Xuanzang. The Great Tang Records on the Western Regions. Translated by Li Rongxi. Berkeley: Numata Center for Buddhist Translation, 1996.
9. Akramov, S. Buyuk Ipak yo‘li va O‘rta Osiyo. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015.
10. Dani, A.H., & Litvinsky, B.A. (Eds.). History of Civilizations of Central Asia, Volume III. UNESCO Publishing, 1996.

VI. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ВУЗАХ

Мухайё ТУЛАГАНОВА
доцент кафедры «История Узбекистана» Академии МВД, PhD
mtulaganova@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish muammolari tahlil qilinadi, chunki har qanday universitet rivojlanishining asosiy vazifasi zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, shaxsni jamiyatda ijtimoiylashtirishdir. O‘zbekiston tarixini o‘rganish yoshlarda vatanparvar, ma’naviyatli, barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy an’ana va qadriyatlarga yangicha mazmun berish, ularni qayta tiklashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.* ***Kalit so'zlar:*** *O'zbekiston tarixi, ta'lim, ijtimoiy fanlar, faol hayotiy pozitsiya, mezon, kasbiy faoliyat, ma'naviyat, vatanparvarlik, taraqqiyot, madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье анализируется проблемы преподавания истории Узбекистана в вузах, так как главной задачей развития любого вуза является подготовка высококвалифицированных специалистов, востребованных на современном рынке труда, а также социализация человека в обществе. Изучение истории Узбекистана служит формированию у молодёжи патриотической, духовно развитой, гармоничной личности. Также серьёзное отношение уделено приданию историческим традициям, ценностям нового значения, их возрождению.* ***Ключевые слова:*** *история Узбекистана, образование, социальные дисциплины, активная жизненная позиция, стандарт, профессиональная деятельность, духовность, патриотизм, развитие, культура.*

Annotation: *This article analyzes the problems of teaching the history of Uzbekistan in universities, since the main task of the development of any university is the training of highly qualified specialists in demand in the modern labor market, as well as the socialization of a person in society. The study of the history of Uzbekistan serves to form a patriotic, spiritually developed, harmonious personality in young people. Also, serious attention is paid to giving historical traditions, values a new meaning, their revival.* ***Keywords:*** *history of Uzbekistan, education, social disciplines, active life position, standard, professional activity, spirituality, patriotism, development, culture.*

На современном этапе главной задачей развития любого вуза является подготовка высококвалифицированных специалистов, востребованных на современном рынке труда, а также построение новой стратегии образования, которая способствует социализации человека в обществе [1, – С. 7–31.]. Социализация студентов должна осуществляться не только в подготовке к эффективному проявлению себя в профессиональной деятельности, но и в социальной жизни. Несмотря на то, что реформа высшего образования в некоторых случаях привела к сокращению предмета «История Узбекистана» и уменьшению преподаваемых часов, требования, закрепленные в образовательных стандартах, предусматривают формирование у будущих специалистов широкого спектра общекультурных компетенций. В связи с этим одной из актуальных проблем на сегодняшний день является поиск и реализация новой концепции гуманитаризации высшего образования [2, – С. 5–9.]. Мы должны понимать, что активная жизненная позиция студентов в

решении вопросов собственной судьбы и профессиональной карьеры формируется в процессе изучения в вузах не только специальных дисциплин – данную задачу во многом могут помочь решить данная дисциплина. Поэтому особенно остро перед университетами стоит задача повышения роли гуманитарного образования. Данная дисциплина должна способствовать: повышению общекультурного уровня развития; формированию у студентов гражданских, нравственных и других профессионально-значимых качеств, обусловленных особенностями профессиональной деятельности; активной общественной позиции, социальной и профессиональной ответственности; профессионально-коммуникативной компетентности. Изучение истории Узбекистана служит формированию у молодёжи патриотической, духовно развитой, гармоничной личности.

В первые же годы независимости было уделено отдельное внимание делу воспитания и обучения молодежи. В том числе, серьёзное внимание было уделено изучению исторических традиции, ценностям нового значения, их возрождению. Так как, основная сила прогресса любого общества духовность и просвещение. История Узбекистана оказывает определяющее влияние на развитие интеллектуального потенциала личности и нации в целом, способствуют устойчивому развитию общества [3, – С. 5–9.]. Переход к компетентностному образованию требует изменений во всем педагогическом процессе, в том числе и в эффективной организации процесса преподавания данной дисциплин. Реализация поставленных задач во многом зависит от системности, интегративности всех дисциплин в единый блок, их активного межпредметного взаимодействия, эффективных способов разрешения методологических и методических проблем преподавания. На сегодняшний день можно столкнуться с проблемой мотивации у студентов при изучении истории Узбекистана; это связано с тем, что этот предмет не являлся профильными. И в этой ситуации очень многое зависит от того, насколько грамотно организована система социально-гуманитарного образования, и преподаватели могут показать студентам важность получения исторических знаний для их личной и профессиональной жизни, а также востребованность не только в настоящем, но и в будущем. Нужно отметить, что компетентностный подход предусматривает решение данной задачи и способствует формированию представлений у студентов о важности всех дисциплин, общности их проявления в профессиональных и общественных закономерностях, о необходимых ценностях, и это осуществляется благодаря активному взаимодействию между дисциплинами, читаемыми специальными и гуманитарными кафедрами. При этом нужно выстраивать такую концепцию преподавания дисциплины, которая позволяла бы помимо решения воспитательных, специально-профессиональных задач формировать также целостное мышление и развивать личность студента в целом.

Исходя из поставленных задач, в теоретико-концептуальной модели преподавания «Истории Узбекистана» необходимо учитывать следующие компоненты: 1) этический, направленный на формирование этических норм поведения в профессиональной деятельности, реализация которого возможна

через познание моральных, правовых, социальных проблем в обществе; 2) исторический, предполагающий рассмотрение исторических связей и зависимостей в различных сферах общества; 3) философский, способствующий философскому осмыслению информации по всем дисциплинам и формированию основ мировоззрения; 4) системный, предполагающий интеграцию и систематизацию межпредметных знаний; 5) ценностно-смысловой, направленный на ценностно-смысловое содержание получаемых знаний; 6) компонент современности, предусматривающий своевременность и актуальность получения всех знаний; 7) эмоциональный, направленный на эмоционально-оценочное отношение к получаемой информации; 8) развивающий, предполагающий формирование самостоятельного, активного субъекта обучения. Представленные компоненты могут стать основой построения общегуманитарного базиса образования, при этом перед преподавателями истории возникает еще одна проблема: им необходимо «втянуть» студентов в новое социальное и профессиональное пространство, помочь открыть для себя ценность профессионального призвания, сформировать мотивационную готовность к безусловному и качественному выполнению профессиональных задач. Также перед преподавателями стоит задача повышения уровня толерантности студентов. Преподавателям нужно создать возможность для творческой активности и реализации студентов, увлечь своей дисциплиной, даже если она не всегда имеет прямое отношение к профессии.

Основными формами проведения занятий могут стать методы активного и интерактивного обучения. Как отмечает профессор Хельсинского университета Кирсти Лонка, у молодежи из-за традиционных подходов увеличивается «зона отчуждения» от образования, также приводятся данные исследований, в которых было выявлено продуктивное влияние методов активного и интерактивного обучения на повышение учебной мотивации студентов. Это, прежде всего, методы case-study, методы проблемного и проектного обучения, игровые и коммуникативные технологии [4, – С. 98–105.]. Использование метода кейс-стади на занятиях по истории позволяет раскрывать содержание дисциплины через моделирование профессионально-значимых ситуаций, а активная работа с данными ситуациями позволяет студентам объединить и продемонстрировать одновременно знания по многим дисциплинам, овладеть нормами профессиональных действий, взаимодействий между людьми. Раскрывая специфику проблемных ситуаций в предметном и социальном контексте профессиональной деятельности, кейс представляет собой личностно-ориентированные задачи творческого уровня, порождающие новые знания, смыслы и цели профессионального развития [5, – С. 82–88.].

Также хотелось бы отметить, что преподавание данных дисциплин не должно превращаться в изучение фактического материала на уровне понятий и знаний, студентам необходимо показывать значимость предлагаемой информации с точки зрения их профессиональной «пригодности» и соответствия личным целям, интересам. Поэтому очень важно в процессе обучения большое внимание уделять не только формированию у студентов

прочных научно-предметных знаний, но и стараться, чтобы они видели применение этих знаний в будущей профессии, так как любая информация имеет важное личностное значение, если она необходима не просто как учебный алгоритм, а в будущем может стать регулятором профессиональной деятельности. Ни для кого не секрет, что запоминается то, что интересно и своевременно, а это в свою очередь может повысить мотивацию учебной деятельности. Только знания, пропущенные через сито собственного опыта, имеют бытийную ценность и личностную значимость [6 , – С. 114–119.].

Таким образом, ориентируясь при преподавании на личностно-ориентированный подход, можно отметить, что при изучении истории Узбекистана, информация не только осваивается студентами, но появляется и смысловое отношение, личностный опыт, возникающий в результате личностно-значимых переживаний при изучении дисциплины.

Учитывая сказанное выше, можно отметить, что главными ориентирами при преподавании «Истории Узбекистана» являются: – направленность на гармоничное развитие личности студентов; обучение необходимо строить, выходя за границы «Я» и ближайшего социального окружения студентов, тем самым помогая почувствовать взаимосвязь с профессией, социумом и сформировать ответственность за свое поведение; формирования у студентов сознательного стремления к самосовершенствованию и профессиональной самореализации. От эффективной организации преподавания «Истории Узбекистана» в вузах зависит формирование и развитие специалиста-профессионала, уровень нравственности, культуры и толерантности нашей молодежи в целом, а следовательно, и будущее Узбекистана.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Фельдштейн Д. И. Проблемы психолого-педагогических наук в пространственно-временной ситуации XXI века / Д. И. Фельдштейн // Российский психологический журнал. – 2013. – Т. 10, № 2. – С. 7–31.

2. Ендовицкий Д. А. Гуманитарная составляющая подготовки специалистов / Д. А. Ендовицкий //

Вестник Воронеж. гос. ун-та. Сер.: Проблемы высшего образования. – 2016. – № 1. – С. 5–9.

3. Новые университеты для новой России (Приложение к Постановлению X съезда Российского Союза ректоров от 30 октября 2014 г. № 1) // Вестник Воронеж. гос. ун-та. Сер.: Проблемы высшего образования. – 2015. – № 1. – С. 5–9.

4. Даринская Л. А. V Международная конференция по образованию и психологии образования (22– 25 октября 2014 г., Кирения, Кипр) : проблемы, решения, перспективы / Л. А. Даринская, Н. Л. Москвичева // Вестник Санкт-Петербургского ун-та. Сер. 16: Психология. Педагогика. – 2015. – № 1. – С. 98–105.

5. Тулепбергенова Д. Ю. Сущность кейс-стади : педагогический аспект осмысления термина / Д. Ю. Тулепбергенова // Интеграция образования. – 2014. – № 1 (74). – С. 82–88.

6. Сазонова З. С. Проектно-ориентированное обучение в контексте студенческой жизни / З. С. Сазонова, И. В. Арифуллин, Л. С. Феофанова, В. Л. Щербакова // ВысшееобразованиевРоссии. – 2015. – № 11. – С. 114–119.

TURKIYA TARIXINI O‘QITISHDA YANGICHA NAZAR (USMONLI TURKLAR TARIXINI O‘QITISH MISOLIDA)

Azamat SHARIPOV
Oriental universiteti
katta o‘qituvchisi
az-1788@mail.ru

Annotatsiya. *O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi barcha muassasalarida Jahon tarixi fani doirasida Turkiya tarixi o‘qitib kelinadi. Lekin hozirgi ta’lim berish usullari eski sovet davri o‘qitish darajasida qolib ketgan. Ushbu maqolada Turkiya tarixi o‘qitishda, hususan Usmonli turklar davlati tarixi misolida o‘qitishning innovatsiyaviy usullari va davrlashtirish masalalari ko‘tarilgan.* ***Kalit so‘zlar.*** *Turkiya tarixi, Usmonli davlati, tarix o‘qitish usullari, innovatsiya, usul, davrlashtirish, obyektivlik prinsipi.*

Annotation. *The history of Turkey is taught within the framework of the direction "World History" in secondary and higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan. However, modern teaching methods have remained at the level of the old Soviet times. The article raises issues of innovative teaching methods and periodization in teaching the history of Turkey, in particular the history of the Ottoman Turks.* ***Key words.*** *History of Turkey, Ottoman Empire, methods of teaching history, innovations, method, periodization, principle of objectivity.*

Аннотация. *История Турции преподается в рамках направления «Всемирная история» в средних и высших учебных заведениях Республики Узбекистан. Однако современные методы обучения остались на уровне старых советских времен. В статье поднимаются вопросы инновационных методов обучения и периодизации в преподавании истории Турции, в частности истории турок-османов.* ***Ключывые слова.*** *История Турции, Османская империя, методика преподавания истории, инновации, метод, периодизация, принцип объективности.*

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda tarixni o‘rganish va o‘qitish masalalarida keraklicha qaror, farmon va ko‘rsatmalar qabul qilindi, davlat dasturlarida belgilab o‘tildi. Yangicha avlod darsliklari ishlab chiqilmoqda. Hususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi[1] 77-maqsadida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlanish” vazifasini belgilanganligi va Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish nazarda tutilgan. Buning hammasi vatanimiz tarixini o‘rganish, tadqiq qilish, uni o‘qitish masalalariga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Eskicha an’anaviy tarix darsini o‘tish metodini haligacha saqlanib qolayotganligi, soha vakillarini salohiyati va zamonaviy ta’lim berish usullaridan foydalanmaslik muammosi, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari tashkillashtirish masalalari, yaratilayotgan darsliklarni sifati, dars xonalarining moddiy-texnik bazasini va auditoriyalarni mos emasligi, professor- o‘qituvchilarni diniy va dunyoviy qarashlari ziddiyati, fanni o‘qitishda obyektivlikni yo‘qligi, jamiyatda tarix faniga munosabatni va e’tiborni sustligi, o‘tkazilayotgan

konferensiyalarni “nomiga” tashkillashtirilishi kabi bir qator masalalar o‘z yechimini kutib turibdi.

Biz e’tibor qaratmoqchi bo‘lgan masala, O‘zbekiston tarixi fani qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, xorijiy davlatlar va undagi xalqlarning tarixini aks ettiruvchi Jahon tarixi fani haqida muhtasar to‘xtalishni maqsad qilganmiz. Shu kunga qadar ta’limning barcha bo‘g‘inida Jahon tarixi sovet davri mafkurasida bitilgan darsliklar asosida o‘qitib kelingan. Jahon tarixini o‘qitilishiga ikkinchi darajada qarab kelinganligi sababidan o‘qitiladigan fanning mavzulari sotsialistik lagerning qarashlarini aks ettirar, unda asosan xalqlarning quldorlik, feodal jamiyatga qarshi kurashlari, yangi davrda esa kapitalizm va yovuz g‘arbning xalqlarni asoratga olishi kabi fikrlarga to‘la edi. Kommunistik mafkura doimo ittifoq erishgan yutuqlar xalqniki va xalq bosh binokor sifatida tarix darsliklarida ko‘rsatilsa-da, aslida aksi bo‘lib obyektiv tarix o‘rnini noxolis tarix egallagan edi. Sovet tarixchilarining uydurmalarga asoslangan asarlari va bergan ta’limlari avlodlar ongi-shuurida boshqa xalqlarga nisbatan nafrat va achinish hissini berishi qatorida dunyoning boshqa davlatlariga nisbatan dushmanlik kayfiyatini keltirib chiqargan. Hususan, O‘rta Osiyo xalqlari uzoq yillar madaniy jihatdan bir-biriga yaqin xalq va elatlar yashab kelgan. Mustamlaka tuzum esa ularning tarixiy mushtarak jihatlarini yashirish, yoki uni qora qilib ko‘rsatish orqali o‘tmishni eslashga arzimaydigan holatga olib keldi. Oqibatda mintaqada yashagan avlod ajdodlarini qoloq e’tiqod va tuban jamiyatda yashagan degan fikr bilan ta’lim oldi. O‘z tarixini bilishlik va o‘zining turkiy o‘zligiga qaytishligi rus ma’murlarini albatta havotirga solgan. Barchaga ma’lum mintaqa umum nom bilan Turkiston o‘lkasi deb yuritilgan. Hatto milliy hududiy chegaralanish siyosati davrida hudud mahalliy ziyolilar taklifi bilan “Turkiston” deb nomlanishi va shu bilan mintaqaning tarixiy birligi saqlab qolinishiga harakat bo‘lgan. Ziyoli jadidlardan Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on: “..endi esa ular O‘rta Osiyo kalimasini eski Turkiston so‘zini unuttirmoq uchun ishlatmoqdalar” degan edi ruslarni siyosatini qoralab. Bir tomondan esa, rus ma’muriyati Turkiston atamasini o‘sha paytlar hududi parchalangan va yangi paydo bo‘lgan Turkiya bilan assimilyatsiya bo‘lishidan havotir olganliklari sababidan qo‘llashni ta’qiqlashgan.

Nima uchun rus ma’muriyati Turkiston o‘lkasi musulmonlarini boshqa musulmon davlatlari bilan aloqalarini cheklash yo‘lini tutdi? Buni Turkiya misolida keltiradigan bo‘lsak, birinchidan, Turkiya mustaqil bo‘lgan demokratik ilk musulmon davlat bo‘lsa, ikkinchidan Turkiya yaqin-yaqingacha butun musulmon dunyosining lideri va islom himoyachisi bo‘lgan imperiya edi. Deyarli aksar turkistonlik musulmonlar haj amalini Turkiya hududi orqali amalga oshirishar edi. Sobiq Ittifoq davrida esa, hajga borish ta’qiq qo‘yildi. Turkiya hududida turkistonliklar tomonidan qurilgan ko‘plab “o‘zbek takka[2]”lari aynan turkistonlik hojilarga va darvish, savdogarlarga xizmat qilar edi. O‘rtadagi aloqalar cheklangach, Turkiya bilan savdo-iqtisodiy, madaniy hamkorlik deyarli O‘zbekiston mustaqillikka erishguncha to‘xtab qoldi. Uzoq vaqt turkiy identivlik va islom dunyosi bilan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy aloqalar uzilib qoldi. O‘tmish haqida bilimlar faqat qoralab yozildi va kommunistik mafkuraga bo‘ysundirildi. Turkiya o‘tmishi va buguni sovet tarix darsliklarida feodal tuzum mahsuli va kapitalistik davlatlarning vassali sifatida ko‘rsatilgan. Turkiston o‘lkasini qardosh turk xalqi siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari deyarli o‘rganilmadi va

hech bir yerda aks ettirilmadi. Hususan, O‘rta Osiyo xonliklari va Usmonli turk davlatining XVIII-XIX asrlardagi faol munosabatlari haqida na o‘zbek mualliflari asarlarida, na sovet mualliflari ilmiy izlanishlarida tilga olinmagan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim tizimida asosan rus mualliflarining darsliklarini tarjima qilib muomalaga kiritilgan.

O‘tkan asrda nashrdan chiqqan Jahon tarixiga oid Usmonli turk davlati tarixi bo‘yicha Oskar Yegerning “*Jahon tarixi: o‘rta asrlar*[3]” kitobida, ikki turkiy davlat Usmoniylar va Temuriylar to‘qnashuvi haqida qisqa to‘xtalib o‘tadi. Unda muallif Temurni yovvoyi dashtlik, Boyazidni qonxo‘r va xristian dunyosini dushmani sifatida ko‘rsatgan. Muallifning tarixiy hodisalarga munosabati obyektiv emas va asosan yevropalik tarixchilarni asarlaridan foydalanilgan.

Turkiya tarixiga oid o‘rta asrlar va yangi davr bo‘yicha yozilgan yana bir asar *“Турции в средние века и новое время*[4]” mualliflari D.Yeremeyev va M.Meyer ham katta bir davrni yoritishgan. Aynan shu kitob post sovet hududida Turkiya tarixi bo‘yicha ancha ommabopi hisoblanadi. Yana bir muallif N.Kireyev “*История Турции XX век*[5]” monografiyasi o‘tgan asrning boshlari Usmonli davlati qulashi va Turkiya Jumhuriyati faoliyatini boshlanishidan to Adolat va Taraqqiyot partiyasi hokimiyat tepasiga kelishigacha bo‘lgan davr ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixini yoritgan.

Turkiya tarixini yoritishda manbaviy asosga ega yana bir muallif A.Novitchevning “*История Турции. В 4-х томах*[6]” kitobi 4 jilddan iborat bo‘lib, 1965-1978 yillar oralig’ida nashrdan chiqqan. Kitob hozirgi davr adabiyotlaridan hech bir jabhada ortda qolmaydi. Ishonchli manbalardan foydalangan holda turli tillardan tarjima qilingan asosli ma’lumotlar keltiriladi. Ya’ni, Turkiya tarixini o‘rta asrlar davri bo‘yicha universitet talabalari uchun qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin. Bunda nafaqat rus tilidagi adabiyotlardan foydalanish, balki xorijiy tildagi boshqa adabiyotlardan ham foydalanishni ham ko‘rib chiqishimiz kerak. Zero, tarixchi-pedagog eng kamida ingliz tilini bilishi ham uning uchun katta hajmdagi adabiyotlarni iste’mol qilish va ichidan keraklisini olishi uchun tanlov imkoniyati bo‘ladi. Intensiv taraqqiyot yo‘lida ketishni istasak, albatta zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishimizni taqozo etadi.

Muhim jihati tarix o‘qitishda sabab, oqibatlar, obyektiv va subyektiv tomonlari, “Qanday qilib? Nima uchun?” degan savollarni o‘rtaga tashlab javob qidirishni bilish muhim sanaladi. Zamon universallikni talab qilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Jahon tarixini o‘qitish avvalo O‘zbekiston tarixi bilan hamohang qiyosiy tahlil va taqqoslash usullari bilan o‘qitish, zamonaviy davr adabiyotlari, manbalaridan foydalanilgan holda davr ilm-faniga mos bo‘lgan darsliklar yaratish taqozo etadi. Sovet-rus tilidagi adabiyotlaridan foydalanishda mafkuraviy jihatlarini e’tiborga olish, holis yondashuvga ega asosli tarixni yorituvchi manbalardan foydalanib zamonaviy illustrativ va visual ko‘rinishlarni aks ettiradigan zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozirgi yoshlarni tanqidiy fikrlashga undash ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Global darajada muammolarni anglash va unga yechim qidirishni, yoki subyektiv holis fikrini bildira oladigan darajaga chiqish mustaqil O‘zbekistonning nafaqat tarix o‘qitishdagi holati, balki barcha taraqqiyotni belgilovchi sohalari yetuk,

vatanparvar yoshlarni yetishib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Istardikki, ta’lim tizimi islohotlari aynan shu tamoyillarga asoslanishi va iste’molchi jamiyatdan bunyodkor, yaratuvchan va hech qanday tashqi bosimlardan qo‘rqmaydigan yetuk kadrlarni, olimlarni jamlagan davlatga aylanishni.

Birgina Turkiya tarixining bir bo‘lagi Usmoniylar davri tarixini o‘rganish va o‘qitish misolida yurtimizdagi ta’lim maskanlaridagi ilmiy-metodik, didaktik, adabiyotlardan foydalanishi borasida muhtasar fikrlarimiz bilan bo‘lishdik. Boshqa millat, davlat, jamiyat tarixini o‘qitishda e’tibor beradigan jihatlari, tarixchi pedagoglarni til bilish masalasi ham, kerakli adabiyotlarni tanlay olish ham o‘quvchi-talabaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy dunyoqarashiga ta’sirini albatta o‘tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. PF-60 son. 2022 yil 28 yanvar. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. Turkiyadagi o‘zbek takkalari haqida ma’lumotga egamisiz? Takkalar nima? https://aniq.uz/uz/yangiliklar/turkiyadagi-uzbek-takkalari-haqida-malumotga-egamisiz-takkalar-nima (murojaat: 20.09.2024)
3. Егер Оскар. (1997) Всемирная история. В 4-томах. Том 2. Средние века. Специальная Литература. Санкт-Питербург. 824 стр.
4. Д.Е.Еремеев, М.С. Мейер. История Турции в средние века и новое время. Издательство Московского университета 1992.
5. Н.Г. Киреев. - Москва: ИВ РАН: Крафт+, 2007. - 608 с.
6. А.Новичев. История Турции. Издательства Ленинградского университета.Часть 2. 1973.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK TILINING SHINJON SHE’RIYATIDA QO‘LLANILISHIGA DOIR

Shahlo KARIMOVA
Oriental Universiteti dotsenti, f.f.f.d,
shkarimova1984@gmail.com

Annotatsiya. *XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda yashab faoliyat ko’rsatgan bir qator o‘zbek ijodkorlari ham ijodda, ham ijtimoiy hayotda faol bo’lganlar. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining o`sha hududda rivojlanishiga muhim hissa qo’shganlar. Bu shoirlar an’anaviy janrlarda: g`azal va sayohatnoma, maktub janrlarida ham o’z mahoratlarini sinab bir qator asarlar yozgan. Maqolada Dilafkor, Barqiy, Zarif qori Toshkandiy, Farhatiy kabi o`zbek shoirlari asarlaridan namunalar tahlili orqali til tarixiga nazar tashlanadi. Kalit so`zlar: XX asr adabiyoti, uyg`ur tili, assimilyatsiya, fonologik vositalar, leksik birliklar, ijodiy bahs, devon, g`azal, musaddas.*

Аннотация. *В начале XX века ряд узбекских писателей, живших и работавших в Восточном Туркестане (ныне Синьцзян-Уйгурский автономный район), вели активную творческую и общественную деятельность. Они внесли значительный вклад в развитие узбекской просветительской литературы в этом регионе. Эти поэты пробовали свое мастерство в традиционных жанрах: газели и путевых заметках, а также написали ряд произведений в жанрах писем. В статье мы рассмотрим историю языка через анализ*

примеров из произведений узбекских поэтов, таких как Дилафкор, Баркий, Зариф кори Ташкандий и Фархатий. ***Ключевые слова:*** *литература XX века, уйгурский язык, ассимиляция, фонологические средства, лексические единицы, творческие дебаты, диван, газель, мусаддас.*

Annotation. *At the beginning of the 20th century, a number of Uzbek writers who lived and worked in East Turkestan (now Xinjiang Autonomous Region) were active in both creativity and social life. They made a significant contribution to the development of Uzbek enlightenment literature in that region. These poets tested their skills in traditional genres: ghazals and travelogues, and wrote a number of works in the genres of letters. In the article, we will look at the history of the language through an analysis of examples from the works of Uzbek poets such as Dilafkor, Barqiy, Zarif qori Toshkandiy, and Farhatiy.* ***Keywords:*** *XXth century literature, Uyghur language, assimilation, phonological means, lexical units, creative debate, divan, ghazal, musaddas.*

XX asr boshlarida Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi iste'dodli shoirlar ma`rifatchilik davri adabiyotining eng qizg`in va eng suronli davrida barakali qalam tebratgan ijodkorlardir. Bu shoirlar peshqadam vakillari sirasida Sharqiy Turkistonda yashab faoliyat ko'rsatgan bir qator O'zbek ijodkorlari ham bor. Ularning ko'pchiligi ham ijodda, ham ijtimoiy hayotda faol bo'lganlar, O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining Sharqiy Turkistondagi rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar. Bu shoirlar an'anaviy janrlarda g`azal va sayohatnoma, maktub janrlarida ham o'z mahoratlarini sinab bir qator asarlar yozgan. Ularda xalq hayotini tasvirlashga urinishlar: ijtimoiy hayot, insoniy sevgi-muhabbat, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, insonparvarlik g'oyalarini ifodalaganlar va turmush tartibotiga kirib kelayotgan yangiliklarni adabiyotga badiiy so'z vositasida olib kirganlar. Ayni davrda xo'jalik va madaniy hayotning yuksalishi va taraqqiyoti yangi-yangi tushunchalarning til qatlamiga kirib kelishiga sababchi bo'lganlar. O'z navbatida leksik qatlamni yangi so'zlar bilan boyitishga harakat qildilar. Mazkur davrda O'zbek tili leksikasi 3 manba asosida boyib borganini qayd etgan ko'plab mutaxassislar ularni quydagicha izohlaydi:

1. O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari va qonun-qoidalari zaminida yuzaga kelgan so'zlar hisobiga;
2. Xalqning jonli tili asosida;
3. O'sha davrda adabiy til tarkibiga boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlarni manba bo'lib xizmat qilishida deb belgilaydilar. [1; - B.125-126]

Nafaqat rus tili, balki boshqa tillardan, jumladan, fors-tojik tilidan tilidan ham kirib kelgan so'zlar tufayli bu so'zlarning leksik va grammatik xususiyatlarida ham o`zgarishlar o'zbek tili, jumladan, uyg'ur tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Sharqiy Turkistonga u yoki bu sabablar bilan borib qolgan o'zbek shoirlari aynan ona tiliga yaqin bo'lgan uyg'ur tili elementlarini ham qorishiq holatda ishlatdilar. Bu shoirlar asarlarining til xususiyatlari, qahramon tili, badiiy asar tili, muallif tili, stilistik did va uslubga alohida e'tibor bilan qaratdilar. Natijada shoirlar qahramonlarning individual tili orqali ularning kasb-hunari va xarakterini ochib berishga, lirik qahramon "ichki tug'yonlari"ni ta'sirchan ifodalashga intildilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi adabiy til va uslub taraqqiyoti uchun yangi-yangi muammolarni olg'a surdilar. Adabiy tilni yangi grammatik shakllar va leksik elementlar bilan boyitdilar. Bu ijodkorlardan biri o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining mashhur vakillari sirasida ijod qilgan shoir Dilafkordir. [2; - 120 b.]

Shoir ijodidagi til rivoji uchun muhim hissalar, uning lirik merosining til jihatdan tadqiqida oydinlashadi. Shoir tili Navoiy tilining eski o‘zbek adabiy tilining davomi hisoblansa-da, undan ko’p jihatdan farq qiladi. Buning sababi shuki, til o’zida jamiyat va iqtisodiy-ijtimoiy turmushda bo’lgan hamma o’zgarishlarni to’g’ridan to’g’ri va bevosita aks ettiradi. Shuning uchun ham Dilafkor asarlari tilida so’zlashuv nutqiga xos xususiyatlar, mumtoz adabiyotga xos badiiy uslub va leksik-grammatik shakllar hamda uyg’ur tiliga xos elementlar mavjud [3; - B. 88-89]. Avvalo, shoir asarlarida poetik uslub va tilning xalqqa tushunarli, sodda, ravon bo’lishiga intiladi [4; - B.132-135]. U hajv ostiga olingan shaxslarning ijtimoiy kirdikorlari, illatlari fosh etish usulidan san’atkorlik bilan foydalanadi. Tamsil, o’xshatish, sifatlash, metaforalar bilan o‘xshatish bilan keskin fosh qiladi, she’rda ko‘tarinki ruh ustuvorlik qiladi. E’tibor qilinsa, qorin-qursoq, shaxsiy manfaat yo’lida nafs yo’lida manfur ishlardan qaytmas insonlarni xalq ning peshona teri bilan yuzaga kelgan mehnatni o‘ziga o‘zlashtirish va o‘zgalarga qarshilik intonatsiyalarni uqtirish, xitob va undovlar ko’p. Shoir asarlarini oddiy tilda xalq tiliga yaqin tushunarli tarzda yetkazishga, tilni soddalashtirishga, xalq maqollari va ifodalaridan keng foydalanishga intilgan.[5; - B.142]

Dilafkor she’rlarida xalq jonli tili xususiyatlari bilan birga ozarbayjon tili, ya’ni Fuzuliy she’riyatining ta’sirlarini ham oz o’rinlarda bo’lsa-da uchratamiz. Bu misollardagi so’zlar g’arbiy-adabiy tilning, ya’ni ozarbayjon tilining adabiy shakli asosida berilgan. Ayrim o’rinlarda qaratqich kelishigi –ning, qo’shimchasi -ning, -ni, -i shaklida ishlatiladi.

Ma’lumki,-ing,-i qaratqich kelishigining eng qadimgi shaklidir. Tushum kelishigi qo’shimchasi esa -ni, -n, -i shakllarida ishlatiladi. Chiqish kelishigining qo‘shimchasi -din,-tin,-in shaklida, jo’nalish kelishigining qo’shimchasi esa -g’a,-ga, -ka, -a shakllarida ham g’arbiy tilga xos xususiyat sifatida ko‘zga tashlanadi. Aniq o‘tgan zamon fe’lining I shaxs birligi -di,-ti yordamida hosil bo’ladi. Masalan, hozirgi kelasi zamon fe’lining bo’lishsizlik shakli esa -man, -men qo’shimchasi bilan ham hosil qilinadi. Shuningdek, sifatdosh yasovchi -g’an, -gan qo’shimchasi -an shaklida ham qo’llanadi.

Zamondosh ijodkorlar sirasida xalq tilining leksik boyligidan keng foydalanish shoir asarlarining badiiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Bu narsa sodda badiiy uslubda yozilgan shoir she’rlarining yuksak darajada xalqchilligini ta’minlagan va jonli tilga yaqinlashishiga, xalqning xotirasida uzoq muddat saqlanishiga va tezroq yod olinishiga olib kelgan xususiyatlardir. She’riy matnlarda xalq qo`shiqlari elementlari ham uchraydi.

Dilafkorga zamondosh Barqiy [4; -B. 87-88] xalq og’zaki ijodi uslubiga ergashadi. Asar tilini ommabop qilishga urinishlar aynan oddiy xalq nutqida keng qo‘llanishda bo‘lgan mashhur maqollar, iboralar, matallar, cho’pchaklar bolalar folkloridagi elementlarni qo’llash yoki ularga ishora qilishlar ham uchraydi. Shuning uchun xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, iboralarni asar misralariga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bo‘lmasa, uning mazmunini saqlagan holatda mohirlik bilan singdiradi.

Misol uchun,

Bir hikoyat bordurur andoqki, Mahmudi ayoz

Man o‘zim har joydaman, albatta, ko‘nglim sandadur.

Ushbu baytda keltirilgan Mahmudi Ayoz nomi xalq rivoyat va ertaklarida duch keladigan qahramon bo`lib, aqlli va jo`yali fikrlari bilan oddiy odamlarning, salatanat ishlarining muammosiga yechim topib bera oladigan, mazlumlarning og`rini yengil qiluvchi va zolimlarni oxirda uyatda qoldiruvchi shaxs sifatidda gavdalanadi. [6; - b.78-79.]

Dilafkorga zamondosh ijodkorlardan shoir Barqiy ham [7; - B.] asarlarini muhim qadar sodda, ma'noli, ravon va obrazli bo'lishi uchun xalq tili elementlaridan ustalik bilan foydalanib, go'zal o'xshatishlar, istiora, kinoya, mubolag'a, sifatlash, majoz va qarshilantirish usullaridan unumli foydalanadi. Uning 'Bormusiz", "Dilrabo" she'rlarida bir xil shakldagi so`zlarning turli ma`nolarda kelib tajnis san`atidan foydalanganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Shoir she'rlarida mahalliy shevalarga xos xususiyatlar mavjudligi asarlarning morfologik xususiyatlari shu kabi she'rlar tilidagi olmoshlarning hozirgi o'zbek tilidagi olmoshlarga aynan o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Biroq ko'p o'rinda III shaxs kishilik olmoshlari -ul tarzida, ko'rsatish olmoshlari -shul,-bul tarzida qo'llanadi. Leksik ifodaning xilma-xilligiga erishish maqsadida bahaqqi kabi kirish birikmalarni ham faol qo'llanganligini ko'ramiz. Masalan, -mi so'roq yuklamasini -mu tarzida ishlatib, ohang va ritmik jihatdan o`ynoqilikni hosil qilishda qo'llaydi:

Ahd qildingkim, Vatan xalqingga sodiq bo'lg'ali,
Er yigitning so'zlari bo'lgaymu yolg'on bo'lmagay.
Bilmagan ishini bil*ur*man deb xatolashmak uyat

Demak, bu parchalarda fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan morfologik ko'rsatishlar,-gani,-kani,-qani maqsad ravishdoshlari -g'ali tarzida,-r,-ar sifatdosh qo'shimchasi esa -r,-ur tarzida qo'llanib,-moq harakat nomi qo'shimchasi esa -mak tarzida ishlatiladi va bu davrga xos leksik-morfologik unsurlar sifatida xarakterlanadi.

Barqiy ham xalq og'zaki ijodi uslubiga ergashdi. Asarlar tilini ommabop qilishga intilgani aynan xalq maqollari, hikmatli so'zlari va iboralarni asar mazmuniga olib kirgani bilan ifodalanadi. Masalan, misralardagi "osh egasi bilan totliq", ""er yigitning so`zi bitta" kabi maqollari19 ham fikrimizga dalil bo'la oladi. Shoir xalq maqollaridan foydalanar ekan, ulardan ilhomlanib o'zi ham xalq maqollari darajasidagi hikmatli so'zlar, iboralar ijod qiladi. Shoir asarlarini mumkin qadar sodda, ma'noli, qiziqarli, obrazli bo'lishi uchun xalq tili elementlaridan foydalanarkan, original o'xshatishlar, istioralar, kinoya, mubolag'a, sifaltlashlar, majozlarni qo'llaydi. Masalan:

Bog' aro raftor qilsang, g'unchalarda handadur
Sarv ila shamshod-u ar-ar sanga dilbandadur.

Shoir bu o'rinda mashuqa ta'rifida sarv bilan shamshodga qaddi-qomatini o'xshatsa, to'g'ri bu o'xshatishlar an'anaviy, lekin bog' uzra tik sayr qilib yurishi hatto gulzordagi sarv bilan shamshodga ham hasad bo'lishiga qiyoslanadi. Shoir bir o'rinda omonim so'zlardan ham foydalanadi. Barqiy g'azal va muxammaslarida birla, ila ko'makchilari, -kim, -ki, gar, lek bog'lovchilari va bir qator yuklamalarning o'sha davrdagi variantlaridan foydalanadi.

Hozirgi kelasi zamon qo'shimchasi adi quydagi shakllarda uchraydi.

تەمسىللىرى-ئۇيغۇماقال خەلق ر .رەھىم مۇھەممەت :تۈزگۈچى :سانى بەت -19.1990.432

Hech ilojim yo’qdurur qildim bo’lak hummorig`a
Man o‘zim har joydaman, albatta, ko‘nglum sandadur.

Yana boshqa morfologik xususiyatlar ham oydinlashadi. Shoir asarlarida qo’llangan olmoshlar hozirgi o‘zbek tilida qo’llangan olmoshlarga ham o’xshaydi.

Ey ulusim, yaxshiroq bul nechuk ilmi bilik
Ma’rifatni bilmagaylar jondin yuvgay ilik.

Zarif qori Toshkandiy ijodida qofiya talabiga ko’ra bilig so’zining bilik variantini qo’llaydi. Tushum kelishigining qo’shimchasini -ni,-ti tarzida ishlatiladi va bu ishlatilish Farg’ona shevalariga xos morfolgik xususiyatlar bo‘lsa, bu shevalarga hamohang ohangda she’riy variantlarda qo‘llaydi. Chiqish kelishigi qo’shimchasi -din, -tin tarzida, jo’nalish kelishigi -a shaklida. Masalan:

Gul qizorib sorg’orur ra’no yuzungning rashkidin
Bu gul oraz ila borsang agar bo’ston aro.

Masalan,

Qilmag’il rohat tamannosin jahon ichra Zarif
Kimsa rohat ko’rmas bu kulbayi ahzon aro.

Leksik qatlam nisbatan yengil shakllardan foydalaniladi. Ravishdosh -b,-ib -bon,-ibon shakllarida (“kezibon dahri haram”), ozarbayjon she’riyatiga xos.-r,-ar qo’shimchasi -ur tarzida, -dim aniq o`tgan zamon I shaxsning -misham kelishi (“tolibi yor o’lmisham”) uchraydi.

O`rgangan mavzumizdan kelib chiqqan xulosalarimiz sifatida quyidagi mulohazalarga keldik:

1. Nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy aloqalardan tashqari madaniy, ilmiy, adabiy sohalarda ham mustahkam rishtalarda, ayniqsa, Shinjongning asosiy qismini tashkil etgan uyg`urlar u yoki bu sabab bilan borib qolgan o`zbeklar azaldan bir-birlari bilan mushtarak hayot kechirganlar.

2. Ikki o`lkada yashovchi aholining ijtimoiy, ma`naviy va madaniy hayotiga, ilmiy va adabiy jarayondagi rivojlanishlarda til jihatdan o‘zaro yaqinlik muhim rol o‘nagan. Madaniy munosabatlar tilning yaqinligi va dinning birligi jihatidan ham mustahkam bo`lgan.

3. XX asr boshlarida avval Turkiston madrasalari tahsilini ko`rgan shoirlar uchun Qashqar, G`ulja, Xo`tan kabi shaharlarda ijodini davom ettirgan bo`lsalar ham ular suz ichgan ma`naviy buloqlar mushtarak bo`lgan: Hofiz, Shayx Sa`diy, So`fi Olloyor, Xo`ja Ahmad Yassaviy, Huvaydo, Fuzuliy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlarning asarlariga muhabbat, badiiy adabiyot – mumtoz so`zga yetaklagan. Ularning asarlaridagi ilg`or g`oya va yuksak darajadagi badiiyat bilan birga turkiy tilga xos xususiyatlar, til elementlari aks etgan, ijodiy davom ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Tursunov O‘, O’rinboyev B. O’zbek adabiy tili tarixi.Toshkent: O’qituvchi. 1982-yil, -B.125-126

2. Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгиланишлар (Завқий ва Муҳсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2018

3. شىنجاڭ ئۇزبېك يازغۇچىلىرى. نەشر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى Шинжонг ўзбек адиблари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. Шинжонг халқ нашриёти.(uyg`urcha)1989 й., 88-89 бетлар.

4. Ҳурматжон Фикрат., Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти, 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature.Urumchi: Xinjiang People's Publishing House, 2005. (in Uyghur).

5. Маллаудов С. Тарихий достонлар. Тўплам: Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. Алмута, 1980.

6. 1990.432- تەمسىللىرى-ر خەلق ئۇيغۇماقال .مۇھەممەت رەھىم :تۆزگۈچى :بەت سانى

7. شنخلگ ئۇزبېك شلئرلرى ئجادياتيده زەۋقيى تەسيرى. شينجاڭ ئۇنۋيرستيتى ئاميى ژۇرناى (پەاسەپە ئجتمائى پەن قسمى).-Ш.Каримова .Шинжонг ўзбек шоирлари ижодиётида Завқий таъсири. Шинжонг Давлат университети хабарномаси. 2012-yil, 4-son. 12يلى -2012 سان -4

8. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960 Уйғур адабиётининг қисқача тарихи. Алмута, 1983.

O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Gulira'no ALLAMURATOVA
Oriental universiteti magistranti
gulranoallamuratova@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi fan texnika yuksak darajada rivojlanayotgan davrda davlatlarning ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyati kengayib bormoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamkorlik faoliyati xalqaro huquqiy normalarga tayangan holda tartibga solinishini hisobga olsak, ta'lim sohasidagi xalqaro huquqiy normalarning mazmuni va qanday huquqiy oqibatlari mavjud ekanligini yaxshi bilishimiz kerak. Shuningdek, ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyatining milliy va xalqaro jihatlarini huquqiy tahlil qilgan holda, huquqiy asoslarini yoritib berish maqsad qilib olindi.* ***Kalit sozlar:*** *ta'lim olish huquqi, xalqaro ta'lim tizimi, xalqaro hamkorlik, ta'lim sohasidagi xalqaro hujjatlar, masofaviy ta'lim, zamonaviy ta'lim tendensiyalari.*

Аннотация: *В то время, когда наука и техника развиваются на высоком уровне, расширяется сотрудничество в сфере образования. Учитывая, что сотрудничество в сфере образования регулируется международным правом, нам необходимо хорошо знать содержание и правовые последствия международного права в сфере образования. Он также призван пролить свет на правовую основу для правового анализа национальных и международных аспектов сотрудничества в сфере образования.* ***Ключевые слова:*** *право на образование, международная система образования, международное сотрудничество, международные документы в области образования, дистанционное обучение, современные образовательные тренды.*

ABSTARCT: *At a time when science and technology are developing at a high level, cooperation in the field of education is expanding. Given that cooperation in the field of education is regulate by international law, we need to be well aware of the content and legal consequences of international law in the field of education. It also aims to shed light on the legal basis for legal analysis of national and international aspects of cooperation in the field of education.* ***Keywords:*** *right to education, international education system, international cooperation, international documents in the field of education, distance learning, modern educational trends.*

Mavzuning dolzarbligi. Davlatlarning ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan xalqaro va milliy qonunchilik asoslariga ko’ra tartibga solinadi. Qonunchilik nuqtai nazaridan xalqaro normalar, milliy normalardan ustuvor ahamiyatga ega bo’lasada, har bir davlatda o’zining milliy qonunchillik tizimiga zid bo’lgan xalqaro normani ratifikatsiya qilmaydi. ta’lim tizimi, xalqaro hamkorlik va uning huquqiy asoslarini milliy qonunchiligimiz doirasida ko’rib chiqamiz[1]. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 41-moddasida ta’lim olish huquqi kafolatlangan , Shuningdek “Ta’lim to’g’risidagi qonunning” 10-bobi “Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik” bobining 67-moddasiga ko’ra ta’lim tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy ta’lim tashkilotlari bilam hamkorlik qilishi belgilab qo’yilgan:

• Ta’lim muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;

• qo‘shma fakultetlar, o‘quv markazlari va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish;

• xalqaro darajadagi birgalikdagi ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash;

• hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish; • ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o‘tkazish;

• talabalar, magistrlar, doktorantlar, o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;

• talabalar, magistrlar, doktorantlar, o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;

• ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish; Shunindek hamkorlikda kadrlar tayyorlash faoliyatini ham olib borishi mumkin[3].

Hozirgi kunda Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Ta’lim Vazirligi o`rtasida 1999 yil 8 noyabrdan belgilangan “Ta’lim sohasida hamkorlik” to`g`risidagi shartnoma doirasida Xitoy oliy ta’lim muassasalarida O`zbekistonning qator oliy ta’lim muassasalaridan 40 ta talaba, fan nomzodlari, va yosh mutaxassislar amaliyot o`tamoqdalar. Xitoy oliy ta’lim muassasalarida amaliyot xitoy tili va adabiyoti shuningdek, turli texnik va tabiiy fanlar yo`nalishi bo`yicha bilimlarni takomillashtirish maqsadida olib boriladi. O`zbekiston oliy ta’lim muassasalari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, RF va boshqalar bilan to`g`ridan-to`g`ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmoqda. Ushbu shartnomalar professor o`qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning turli konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qo`shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va hokazo vazifalarni ko`rib chiqadi[3].

Shuningdek, O`zbekiston oliy ta’lim muassasalari Evropa Ittifoqining Tempus va Erazmus Mundus nomli ta’lim dasturlarida faol ishtirokini alohida ta’kidlash joiz.

Ayni paytda respublikada Evropa Ittifoqining Tempus o`quv dasturining 20ta loyihasi tadbiq etilib, ularda O`zbekistonning 40 ta atrofida oliy ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda[4].

Ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar ichida BMT ning UNESCO tashkiloti alohida o’rin tutadi. 2017-yilda tuzilgan Xalqaro ta’lim olish huquqi kodeksida quyidagi 4ta ta’lim standarti belgilab berilgan:

1. Mavjudligi. Ishlayotgan ta'lim muassasalari va dasturlari mavjud bo'lishi kerak

a) binolar;

b) har ikki jins uchun sanitariya inshootlari;

v) xavfsiz ichimlik suvi;

d) mamlakat ichida raqobatbardosh ish haqi oladigan o'qituvchilar;

e) o'quv materiallari

2. Foydalanish imkoniyati. Ta'lim muassasalari hamma uchun ochiq bo'lishi kerak 1. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik: ta'lim qonun va haqiqatda hamma uchun ochiq bo'lishi kerak;

2. Qulay geografik joylashuvda yoki zamonaviy texnologiya ega bo’lish

3. Qabul qilish imkoniyati. Ta'lim shakli va mazmuni talabalar va ota-onalar uchun maqbul bo'lishi kerak

a) tegishli, madaniy jihatdan tegishli ta’lim muhitiga mos bo’lishi;

b) yaxshi sifatga ega bo’lish va boshqa talablar berib o’tilgan .

UNESCO tashkilotining “Ta’limda kamsitishga qarshi” konvensiyasida ta’lim hamkorligini olib borishda davlarlarning huquqiy majburiyatlari teng bo’lishi va hamkorlik qiluvchi hech bir davlatni huquqi kamsitilishiga yo’l qo’yilmasligi qat’iy belgilangan[6]. So’nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta’lim hamkorligi va ta’limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo’ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respuublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta’lim sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtiizda ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasi tobora yuksalib bormoqda[2]. Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan “INHA” universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi “Yodju” Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonliqaroriga asosan 2020-2021 o’quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg‘ona shahridagi “Koreya xalqaro universiteti”ni oliy ta’lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e’tirof etish joiz. Shuningdek pandemiya davrida ta’lim tizimining izchil davom etishi uchun masofaviy (online) ta’lim shaklida olib borilishi ta’lim to’g’risidagi qonunga o’zgartirish kiritishga sabab bo’ldi. Ushbu davr mobaynida xalqaro hamkorlik doirasida o’tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy anjumanlar ham masofaviy tarzda olib borildi [5]. Bu esa o’z navbatida ta’limda masofaviy hamkorlikning huquqiy asoslarini joriy etishga sabab bo’ldi. Yurtimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta’lim hamkorligi ham tobora rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qo’shni davlatlar bilan do’stona hamkorlik va ta’lim sohasidagi o’zaro shartnomalari ikki tomonlama ilmiy sohada hamkorlik faoliyati kengayib bormoqda [8].

Yuqorida davlatlarning ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyati va uning huquqiy asoslari haqidagi fikrlarga to’xtalib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Dunyo hamjamiyatining rivojlanishi ta’lim tizimining rivoji bilan bog’liq ekanligini anglashimiz darkor. Ta’lim rivoji esa hozirgi kunda xalqaro hamkorlik asosida rivojlanadi. Mamlakatimizning ta’lim sohasida xalqaro hamkorlik faoliyatining

tobora kengayib borayotganligi, ta’lim muassasalari bilan ilmiy anjumanlar va ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy ta’lim muassasalari bilan birga olib borilayotganligi, ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro ta’lim kodeksida UNESCO doirasida qabul qilingan konvensiyalar asosida ta’lim tizmini tartibga soluvchi normalar belgilab berilgan. Shuningdek milliy qonunchiligimiz doirasida ta’lim hamkorligini tartibga solish bo’yicha huquqiy normalar takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining. Adolat-2020. Toshkent. 41-m
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.67 m
3. Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligi “Ta’lim sohasida hamkorlik” to`g`risidagi shartnoma 08.11.1998. 4. student.uzbekistan.org.ua
5. This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.
6. UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960.
7. Махмудов С. Zamonaviy taraqqiyotning yangi bosqichida Koreya-O’zbekiston hamkorligining istiqbollari // Взгляд в прошлое. – 2020. – Т. 3. – №. 10.
8. Abdullayeva S. R. Pandemiya davrida masofaviy o’qitish jarayonining o’ziga xos afzalliklari // Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 303-306.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Mamatova Nigora Xusniddin qizi – “Oriental” universiteti “Tarix” fakulteti, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida ta’lim tizimidagi mavjud holat va amalga oshirilgan islohotlar, sohada erishilgan natijalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, islohotlar,*

Аннотация: *в данной статье освещается обстановка в сферах образовании в начальные годы независимости и реформы, а также, достигнутые результаты в данной сфере.*

Ключевые слова: *Национальная программа по подготовке кадров, Закон об образовании, реформы*.

Bugungi kunda ma’naviyatga, ta’lim – tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millatning o‘zi

bo‘lmasa kerak, zero jahon tarixiy tajribasi ta’lim-tarbiyaga e’tiborsiz holda biror bir xalq va millat taraqqiyotga erisha olmasligiga, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etolmasligiga guvohlik bermoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning *“...taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan e’tiborimiz bilan chambarchas bog‘liq* [1]*”,* deya ta’kidlangan nutqi mamlakatda kuchli ta’lim tizimini yaratish va takomilllashtirsh, sohani isloh qilishdagi tadbirlarning miqyosi va dolzarbligini belgilab beradi.

Yosh mustaqil davlatimizning kelajak taraqqiyoti albatta uning intelktual salohiyatli va ma’naviy yetuk yoshlariga bog‘liq. Ushbu xolat mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hukumatimiz va prezidentimizning doimiy e’tiboridagi masala bo‘lib kelgan.

Mustaqillik yillarida ham ta’lim sohasida jamiyatimiz barcha sohalaridagi kabi olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Avvalo istiqlolgacha bo‘lgan davrdagi ta’lim tizimiga e’tibor qaratsak. Markaziy Osiyo davlatlari uzoq vaqt Sobiq Ittifoq ta’sirida bo‘lib, ta’lim tizmi ham markazdan belgilab berilgan reja asosida olib borilgan. Bolaga ta’lim berish dastlab bog‘chadan, so‘ng, 11 yoki 8 yillik ta’lim *(8 yillik ta’limdan so‘ng, kasb-hunarga yo‘naltirilgan),* maktabdan keyingi ta’lim 5 yillik inistitutlarda olib borilgan.

Tashqi ko‘rinishidan bu tizim juda mukammal ishlangan bo‘lsada, ammo Ittifoq respublikalarida belgilab qo‘yilgan tartiblarga amal qilinmagan. Ta’lim tizimida ham zamondan ortda qolish holatlari XX asr 80 yillariga kelganda yaqqol namoyon bo‘la boshlagan. Ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazalari ham talab darajasida bo‘lmagan. Bu davrda rivojlangan davlatlar, xususan, Yevropa va AQSh ta’lim muassasalarida zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy qilinayotgan bir vaqtda Markaziy Osiyo davlatlari ta’limida bu texnologiyalar faqat nazariy jihatdan o‘rgatilar edi. Mustaqillikka erishgandan keyin ham bu respublikalar zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy holati tufayli ta’limga zudlik bilan joriy qila olmas edi.

Sobiq Ittifoq parchalangandn keyin mintaqa respublikalari oldida ikkita yo‘l: ta’limda SSSR tizimini saqlab qolish yohud zamon ruhiga mos yangi tizimni qabul qilish turar edi. Ammo mmintaqadagi har bir davlatning ushbu islohotlarni amalga oshirishga monelik qiluvchi o‘ziga xos siyosiy va iqtisodiy muammolari saqlanib qolgan edi.

Shunday bir davrda O‘zbekistonning birinchi Prizidenti I.A.Karimovning ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga imkon beruvchi yutuqlardan biri bo‘ldi.

Ushbu milliy dasturlar birinchidan yangi o‘quv rejalari, darsliklarni joriy etish, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqish, o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni kun tartibiga qo‘ydi.

1992 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun yaratgan imkoniyatlar sabab sohaga qator yangiliklar kirib keldi. Jumladan 1993 yilda oliy ta’lim tizimidagi islohotlarga keng e’tibor berilib, bu haqida I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasi alohida yig‘inda kadrlar saviyasi, oliy o‘quv yurtlarining ahvoli va ularning ishlab chiqarish korxonalari bilan munosabatlari, test tizimining afzalliklari haqida quyidagi fikrlari ahamiyatlidir : “o‘g‘il-qizlarimizning o‘qishga qabul qilishda test usulining qo‘llanilishi ijobiy qadam bo‘ldi. Bu qing‘ir ishlar payini qirqadi, mish-mishlarga chek qo‘yadi, iste’dodli yoshlarni tanlab olish imkoniyatini beradi. Binobarin bu ishlarni takomillashtirib borish kerak”. [2]

Bundan tashqari, 1999 yilga qadar 97968 nafar xalq ta’limi xodimiga davlat uylari, 21946 nafariga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar xususiylashtirib berildi. 35841 nafar pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi hamda qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to‘lovlardan to‘la ozod etilgan bo‘lsa, shaharliklar uning 50% miqdorida to‘lashlari ta’minlandi.

Shuningdek, “1 oktyabr - o‘qituvchi va murabbiylar kuni” dam olish kuni deb e’lon qilinishi va butun O‘zbekiston bo‘ylab umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi, ushbu kunda yuzlab ta’lim fidoyilariga “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” kabi davlatning eng mo‘tabar mukofotlari topshirilishi belgilandi. Vaxolanki boshqa sobiq ittifoq davlatlarida bunday kunning nishonlanishi haqida ma’lumotlar bo‘lmagan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim soxasida ilg‘or mamlakatlarning tajribasi o‘rganilib, zamon talablari va mentalitetimizga xos tarzda amaliyotga tadbiq qilina boshlandi.

Xususan, 1995 yildan boshlab, hunar-texnika bilim yurtlari faoliyati tubdan isloh qilinib, xorijiy davlatlar tajribasi asosida litsey, gimnaziya va kollejlar tashkil etildi. Boshqarcha qilib aytganda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimidan oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan zamonaviy, yangi ta’lim tizimi joriy qilindi.

Prezidentimiz islohot arafasida qilgan nutqida maktablarning moddiy bazasi juda nochor ahvolda ekanligini, birinchi navbatda, qishloq joylardagi vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerakligini ta’kidlagan va bunga juda dolzarb masala sifatida qaradi.

Qishloq bolalarining bugungi ahvoli qanday, ularda ta’lim jarayoni qanday kechmoqda? Albatta, bu masalalarni yurtboshimiz ta’kidlaganidek birdaniga yechish qiyin, bu masalalar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimdir. Prezidentimiz ta’limni isloh qilishda adabiyotlarning tutgan roliga alohida e’tibor qaratdi. Darsliklar “eski qolipda, mustabit davrida yozilgan"ligini, bu esa, o‘z navbatida bolalarning erkin fikr yurita olish qobiliyatlarining shakllanishiga to‘siq bo‘lishini isbotlab berdi.

Prezident I.A.Karimov islohoti arafasida bolalarning maktabda mustaqil fikr yurita olishga e’tibor berish lozimligining ahamiyatini isbotlab shunday deydi:- “demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib

tarbiyalanadi” [3] Shu bilan Prezidentimiz “demokratiya” bilan “erkin fikr yuritish”ning ajralmasligiga diqqatimizni qaratadi. Zero, jamiyatda erkin fikr yuritish bo‘lmasa demak, demokratiya ham bo‘lmaydi, yoki aksincha, bular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalardir. Shu o‘rinda, “Tarix mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik” darajasini olishga talabgor tadqiqodchi A.I.Karimovning bu xususdagi muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasini misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, unga ko‘ra qishloq o‘quvchilaridan “siz o‘zingizning birorbir misolga qarshi yoki aksincha bo‘lgan fikringizni o‘qituvchilaringizga ayta olasizmi” mazmunida ijtimoiy so‘rovnomaga 45% “ha”, qolgan 55% “yo‘q” deb javob bergan. Shahar maktablarida esa bu ko‘rsatkich 60% “ha” va 40% “yo‘q” javobini tashkil etgan. Nima uchun deb so‘ralganda esa, “baribir o‘qituvchi o‘zining aytganini maqullaydi” agar qarshi chiqsak baholar pasayib ketadi deb javob berishgan. [4]


Respublikamizda amalga oshirilgan o‘zbek modeli deb nom olgan islohotlarning asosini tashkil etadigan besh tamoyilning birida islohotlarni bosqichma-bosqich o‘tkazish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, I.A.Karimov tomonidan ta’lim tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotga tadbiq qilishda ham yuqoridagi bosqichma-bosqichlik g‘oyasi tamoyil sifatida belgilanadi. Bunda “o‘tish davri” bo‘lgan birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu davrda kadrlar tayyorlash tizimining “salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy- me’èriy, ilmiy-metodik moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratish lozim” ligini ilgari surdi. [5] Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillarda amalga oshirilib, bunda Milliy dasturni keng miqyosda to‘liq amalga oshirishga erishish g‘oyasi ilgari surilgan. Albatta, bunda birinchi o‘rinda ta’lim faoliyatining samaradorligini oshirish, mehnat bozorining extiyojlarini hisobga olib, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, dastur g‘oyalari va qoidalariga kerakli o‘zgartirishlar kiritilishi lozimligi ta’kidlangan. Uchinchi bosqich – 2005 yil va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Bunda Prezidentimiz milliy dastur qoidalarini amalga oshirishda “shoshilmaslik”, “og‘ishmaslik”, “izchillik” kabi g‘oyalarga e’tiborni qaratgan.

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimining asosiy bosqichini tashkil etuvchi uzluksiz ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilib, umumta’lim dasturlarini esa maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich umumiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzish belgilandi. Oliy ta’lim bakalavrlik va magistraturaga, shuningdek, oliy ta’limning yakunlovchi bosqisi sifatida asperantura va doktoranturaga bo‘lindi (1-rasm).

Respublikamiz umumta’lim maktablari 1995/96 o‘quv yilida respublikamizda 2494 ta bo‘lsa, 1998/99 – o‘quv yiliga kelib statistik ma’lumotlarga ko‘ra 9703 tadan ortiqni tashkil etgan holda 3254 taga ortgan.

Bundan tashqari 1998-1999 o‘quv yilidan boshlab tajriba sifatida respublikamizda 35 ta o‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv muassasalari tashkil etildi va faoliyat yurita boshladi. [6]

Prezidentimiz kasbiy ta’lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e’tibor berdi. Darhaqiqat, bu o‘ta dolzarb masala bo‘lib, busiz mamlakat kadrlarining sifati bo‘lmaydi. Prezidentimiz ta’lim tarbiya tizimini isloh qilayotganda bir muhim masalaga katta e’tibor qaratishga chaqirdi, ya’ni olimlarning fikriga ko‘ra, normal rivojlangan bolalarni 6 yoshdan maktabga qabul qilish ularning aqliy, ruhiy va jismoniy kamoloti, o‘quv dasturlarini yaxshi o‘zlashtirishda ijobiy samara berishi mumkinligini, shuningdek bolalar 6 yoshdan o‘qishga qabul qilishda ularni har biriga alohida yondashish, birinchi navbatda ularning salomatligi va zehni qay darajada shakllanganligi e’tiborga olinishi kerakligi ta’kidlandi.



(1-расм).

Shu o‘rinda mutaxassislar o‘tkazgan ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra Respublikamizda bolalarning 10-30% qismi yuqorida aytilgan sabablarga ko‘ra, 6 yoshdan maktabga tayyor emasligi, bu o‘rinda ayrim qishloq sharoitida o‘sayotgan bolalarning tahminan 50% mazkur sababga dahldorligi, bularning barchasini hisobga olgan holda bolalarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish *(ularning jismoniy va aqliy yetukligini e’tiborga olgan xolda)* maqsadga muvofiq deb topildi.

Ikkinchi turdagi 3 yillik zamonaviy ta’lim bera oladigan kasb-hunar o‘quv yurtlarini joriy qilish, bunda har bir hududning o‘ziga xos, jug‘rofiy, etnik xususiyatlaridan va extiyojlaridan kelib chiqib, bolalarning ota-onalari bag‘rida o‘qishi kasb-hunar egallashi va shu bilan birga, bu bilim yurtlari o‘sha hududning madaniy ma’rifiy markaziga aylanishi lozimligi belgilandi. Ushbu tajribalar ayniqsa, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng qo‘llanilganligiga guvohmiz.

2001 yil 30 iyunda respublikamizda yangi ta’lim muassasalari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 35 tasini ilk bor tamomlab chiqayotgan 5 ming nafarga yaqin yoshlarga diplom topshirilgan bo‘lib, bu esa mamlakatimizdagi kichik kadrlarga bo‘lgan muammolarining o‘z yechimini topa boshlaganligini bildiradi.

Barchamizga ma’lumki, oliy ta’lim tizimi mamlakatimiz uchun eng yetuk kadrlarni yetkazib beruvchi dargohdir. 2024 yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishga davlat byudjetidan ajratilayotgan

mablag‘lar byudjetning 47,2 %ni tashkil etgan, 2011 yilda esa yalpi milliy daromadimizning 10-12% shu maqsad uchun sarflangan. Bu chindan ham ulkan miqdordagi, ezgu niyatlarga karatilgan sarf-xarajatlardir. Hatto Yaponiyadek rivojlangan davlatda ham ma’lumotlarga qaraganda, ta’lim sohasiga yalpi milliy daromadning 7% i miqdorida mablag‘ ajratilar ekan.

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi islohotlarda “Kadrlar tayyorlash Miliy dasturi”ning tutgan o‘rniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dasturni amalga oshirishning murakkab tomonlaridan biri sifatli o‘qituvchi kadrlar masalasi ham ko‘ndalang turar edi. Mazkur toifaning sifati, jahon tajribalariga asoslangan yangi o‘quv dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi masalasi o‘ta dolzarb edi. Ushbu muammoni yechish uchun Pedagogika institutlari va universitetlarida uch yillik bilim yurtlari uchun o‘qituvchilarni tayyorlaydigan maxsus fakultetlarni tashkil etish, viloyatlarda (har bir) esa 3 yillik bilim yurtlarida ishlashi mumkin bo‘lgan maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yuvchi alohida markazlar ochish zarur edi. Shunga ko‘ra dasturning birinchi bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

Oliy ta’lim tizimi bakalavrlik yo‘nalishi va magistratura mutaxasislarida iborat qilib tashkil etildi. 2001 yilda esa magistraturani ilk birituvchilari (1800) hayotga yo‘llanma oldilar. Shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida 27 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan 46 ta akademik litsey, 167 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan 260 kasb-hunar kolleji faoliyat yurita boshladi. Ularni bunyod etish uchun esa, davlat byujdetidan 135 mln. so‘m mablag‘ ajratildi.

Kasb-hunar ta’limi muassasalarini jihozlashga 150 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy imtiyozli kredit jalb qilindi. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot Bankining 57 mln. AQSh dollari miqdoridagi krediti hisobidan 45 ta o‘quv muassasasi jihozlandi.

Ta’limning barcha turlari uchun huquqiy me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”da belgilangan kadrlar tayyorlash milliy modeliing asosiy tarkibiy qismlaridan birinchisi “shaxs” deb belgilangan. Ya’ni, shaxs – “Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi”dir. Shuning uchun mamlakatimizda, milliy qonunchiligimizda shaxsning huquq va erkinliklari ustuvor hisoblanadi. “Milliy dastur”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni bajarishda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi huquqiy hujjatdir. Dasturda ta’limning barcha turlari, ularning maqsadi, vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, Milliy dasturda kadrlar tayyorlash tizimida fanning tutgan o‘rniga, uning vazifalariga alohida urg‘u berilgan. Unda shunday deyilgan: “mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo‘ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarni hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni halqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi”. [7]

Shunday ekan, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni tinchlik dasturi, “ertangi kunimizni ro‘yobga chiqaruvchi dastur” deb atashimiz mumkin.

1998 yilda Avstraliyada kelgusi asr ta’limi istiqbollariga bag‘ishlangan “Osiyo-Tinch okenani mintaqasida XXI asrda ta’lim muammolari” nomli Xalqaro anjumanda ta’limni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki mamlakat: AQSh va O‘zbekistondagina mavjudligi ta’kidlangan. Ya’ni, “Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturi” o‘zining ilmiy salohiyati, ahamiyati, chuqur falsafiy ma’noga ega ekanligi bilan xalqaro maydonda tan olingan.

Ta’lim tizimidagi islohotlar Yangi O‘zbekiston tarixida o‘zining mutlaqo yuqori cho‘qqisiga erishdi desak adashmaymiz. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 23.09.2020 yilda yangi tahrirda qabul qilindi.

Shu bilan birga, 16.11.2018-yilda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida, Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuv davomida, O‘zbekistonning har bir hududida Prezident maktablari tashkil etilishi to‘g‘risidagi nutqiga ko‘ra, *“Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi Davlat Rahbarining qarori hamda 2019-yildagi *“Prezident maktablari to‘g‘risida nizom“*i asosida ilk bor Toshkent, Nukus, Namangan va Xiva shaharlarida, so‘ng 2021-yilda Qarshi, Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Termiz, Buxoro, Navoiy, Jizzax *(15.11.2021 y.),* Nurafshon va Guliston shaharlarida o‘quvchilarga zamonaviy va jaxon ta’lim standartlari asosida bilim bera oladigan, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalariga kirish imkoninin beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomiga ega Prezident maktablari tashkil etildi.

Sifatli metodika asosidagi dars jarayonlari hamda darslardan tashqari qiziqarli amaliy to‘garaklarning yo‘lga qo‘yilganligi mazkur maktab o‘quvchilarining kelgusida OTMlarga 1-urinishdayoq o‘qishga 100 foiz qabul qilinishini kafolatlaydi.

Shuningdek, ta’lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lgan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida 16.01.2019 yilda PQ-4119-sonli *“Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”*gi Prezident Qarori asosida Davlat inspeksiyasiga Respublika ta’lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e’lon qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va tahlil qilish bilan bog‘liq vazifalar yuklatildi. [8]

Respublika Prezidentining 28.01.2022 yilda chiqarilgan *“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”*gi PF-60-sonli farmoniga ko‘ra, strategiyaning 44-maqsadida maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, bunda toifaga ega bo‘lmagan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish, shu bilan birga, maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 mln so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlari daromad solig‘idan ozod etish, o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 mlrd so‘m ajratish, 141 mingta yangi o‘quv o‘rinlari yaratish va ularning sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 mln.gacha yetkazish masalalarni ko‘rib chiqib ijrosini ta’minlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berilgan. [9]

Umuman olganda mustaqillik yillarida ta’lim tizimini isloh qilish borasida asosiy o‘rinni egallagan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda uni hayotga tadbiq etishda asosiy me’zon bo‘lgan “Qadrlarni tayyorlash milliy Dasturi” o‘ziga xos ahamiyot kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. president.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali nutqi,
2. I.A.Karimov “Ilm ziyo saloxiyati – yurt boyligi”, “Ma’rifat” gazetasi, 1997 yil 21 iyul.
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T,. Sharq, 1999 yil. 13 bet.
4. A.I.Karimov - “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta’lim tizimining isloh qilinishi” Dissertatsiyasi, 15 bet.
5. I.A.Karimov Barkamol avlod- orzusi. -T,. 2000 O‘z. Milliy ensiklopediyasi. 22 bet
6. I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi”. -T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2001 y. 205-bet.
7. O‘zbekistonnning yangi qonunlari. –T, «Adolat», 1998 y. 13-bet,
8. lex.uz/docs/-4164675, O‘zbekiston Repsublikasi Prezidentining 16.01.2019 yildagi PQ-4119-sonli “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yilgi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

VII. XORIJIY MAMLAKATLARDA O‘ZBEKISTON TARIXNINING O‘RGANILISHI

БУЮК БРИТАНИЯ ГЛОБУСЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН (XVIII – XIX АСРЛАР)

Шамсиддин КАМОЛИДДИН
Ориентал университети Тарих кафедраси профессори
К. Ҳ. Орипов

Аннотация: *Ушбу мақолада XVIII–XIX асрларда Буюк Британияда яратилган глобусларда Ўзбекистон ва Ўрта Осиё тасвири таҳлил қилинган. Жон Сенекснинг 1738 йилги глобусида Амударё ҳавзаси "Ўзбекистон", Сидарё оқими "Туркистон" деб кўрсатилганлиги ушбу атамаларнинг Европада XVIII асрдаёқ географик ном сифатида кенг қўлланилганлигидан далолат беради. Василиос Вататзиснинг харитаси асосида чизилган бу глобуслар тарихий география учун муҳим манба ҳисобланади.* ***Калит сўзлар:*** *Ўзбекистон, Туркистон, глобус, Жон Сенекс, Василиос Вататзис, Буюк Британия, "Қироллик Географик Жамияти"*

Annotation: *This article analyzes the depiction of Uzbekistan and Central Asia on globes produced in Great Britain during the 18th and 19th centuries. The 1738 globe by John Senex refers to the Amu Darya basin as "Uzbekistan" and the Syr Darya flow as "Turkestan", which indicates that these terms were already widely used as geographical names in Europe as early as the 18th century. These globes, based on the map by Vasilios Vatatzis, are considered important sources for historical geography.* ***Keywords:*** *Uzbekistan, Turkestan, globe, John Senex, Vasilios Vatatzis, Great Britain, Royal Geographical Society*

Аннотация: *В данной статье проводится анализ изображений Узбекистана и Средней Азии на глобусах, созданных в Великобритании в XVIII–XIX веках. На глобусе Джона Сенекса 1738 года бассейн Амударьи обозначен как «Узбекистан», а течение Сырдарьи — как «Туркестан», что свидетельствует о широком использовании этих терминов в Европе уже в XVIII веке в качестве географических названий. Эти глобусы, основанные на карте Василиоса Вататзиса, являются важным источником по исторической географии.* ***Ключевые слова:*** *Узбекистан, Туркестан, глобус, Джон Сенекс, Василиос Вататзис, Великобритания, «Королевское географическое общество».*

Буюк Британияда XVIII – XIX асрларда ясалган глобусларда Ўрта Осиё ҳудудида Амударё ҳавзаси бошланиш ериидан Орол денгизига қуйилиши еригача USBEGISTAN (Ўзбекистон), Сидарёнинг ўрта ва қуйи оқими ҳавзаси эса Turkistan (Туркистон) деб кўрсатилган (1-сурат).[20]



1-сурат

Орол денгизининг шарқий соҳилида CAZACI (қозоқлар), жануби-шарқий соҳилида эса

[20] Internet resource: https://images.app.goo.gl/2A1HnUfvfscqytty6

ARALI (оролликлар), Ўрта Осиёнинг шимолида CARA-CALPACI CONDOSIDES (қорақалпоқ жунғорлар), шимоли-шарқида TARTARIA INDEPENDENS (мустақил татарлар) қабилалари яшаганлиги кўрсатилган. Орол денгизига шимоли-ғарбдан NTAG номли ўралган ҳудуд тасвирланган (2-сурат).



2-сурат

Мазкур глобуслардаги Ўрта Осий минтақасининг бундай тасвири илк бор Буюк Британиялик таниқли географ олим ва хариташунос Жон Сенекс (John Senex) 1738 йилда ясаган глобуси (Terrestrial table globe) да берилган. Бу глобуснинг бир нусхаси Лондондаги Миллий денгиз музейи (National Maritime Museum, Greenwich, London, Caird Collection) да (3-сурат), шунингдек, унинг яна бир нусхаси Илм-фан тарихи музейи (Science Museum Group Collection, Fleet Street, London, UK) да сақланади.[21] Бундан ташқари Жон Сенекснинг "Осмон глобуси" (Celestrial Globe) ҳам бўлиб, XVIII асрда бу иккала глобус Буюк Британияда география ва астрономия соҳасидаги тадқиқотларда, ва шу фанларни ўқитишда асосий манба бўлиб хизмат қилган. Жон Сенекс (1678 – 1740) XVIII асрнинг биринчи ярмида Лондонда яшаган машҳур ношир, харита ишлаб чиқарувчи ва глобус яратувчиси эди. Ўз ишларининг юксак сифатлилиги учун у одамлар ва айниқса олимлар орасида катта ҳурматга сазовор бўлган, у Буюк Британиядаги таниқли табиат файласуфлари билан яқин алоқада бўлган, ва 1728 йилда Қироллик Географик Жамияти (The Royal Geographic Society) нинг аъзоси этиб сайланган.




3-сурат

[21] https://collections.rmg.co.uk/media/3/486/146/large_s5654_008.jpg

Жон Сенекснинг Қироллик География Жамиятида харитачи бўлиб хизмат қилган, ва унинг асосий вазифаси жамиятга турли йўллар билан келиб тушган қўлёзма хариталарни ўрганиш, уларни нашрга тайёрлаш ва нашр қилиш бўлган. Тўпланган картографик маълумотлар асосида у глобуслар ҳам ясаган. Унинг мазкур глобуси ҳам қўл остида мавжуд бўлган бой хариталар тўплами асосида қилинган. Хусусан, глобуснинг Ўрта Осиё қисмини чизишда у 1732 йилда ўзи нашр этган юнон саёҳатчиси Василиос Вататзиснинг "Каспий денгизи ва Орол денгизи харитаси" (Charta, in qua cruditis spectanda exhibeteur pas Asiae […] Tabula Maris Caspii et Maris Aral) номли харитасидан фойдаланган [Battatzis 1732]. Юнон ва лотин тилларидаги ёзувларга жуда ҳам бой бўлган бу ноёб икки тилли хаританинг 1730 йилда чизилган асл қўлёзма нусхаси Буюк Британиядаги "Қироллик География Жамияти" (The Royal Geographic Society) нинг хариталар хазинасида (RGS, mrAsia Div. 464), унинг нашр этилган нусхалари эса Британия кутубхонаси (The British Library) нинг хариталар бўлимида (BL, Maps, King's Topographical Collection, 114, 53), шунингдек, Европанинг бошқа кутубхоналарида сақланади [Камолиддин 2005: 36 – 41].

Василиос Вататзис (Basilios Battatzis) асли Усмон империясининг Трапея шаҳрилик савдогар бўлиб, унинг отаси Константинопол (Истанбул) да насроний черковининг бошлиғи бўлган. У ёшлигидан халқаро савдо ишлари билан шуғулланиб, кўп йиллар давомида Европа ва Осиё мамлакатлари бўйлаб саёҳат қилган ва ўзининг қилган саёҳатлари ҳақида юнон тилида хотиралар ёзиб қолдирган. Бу хотиралар 1886 йилда Парижда Е.Легранд томонидан нашр этилган [Legrand 1886]. Хотираларда ёзилишича, В.Вататзис Эронда Нодиршоҳ саройида маълум вақт яшаб, унга хизмат қилган ва унинг сирати, яъни таржимаи ҳолини ҳам ёзганлиги маълум. 1727 – 1730 йилларда у Нодиршоҳ топшириғига биноан Каспий денгизи атрофида жойлашган мамлакатлар бўйлаб саёҳат қилган. Тахминан 1730 йилда у Каспий денгизидан шарқда жойлашган минтақа, яъни Ўрта Осиё харитасини тузиб, 1732 йил 7 декабр куни Лондонга келган ва уни Қироллиқ География Жамиятига совға қилган. Ўша йилнинг ўзида В.Вататзис харитаси ўрганиш учун лондонлик хариташунос олим Доктор Халлига берилади, кейин эса Қироллик География Жамиятининг картографи Жон Сенекс унга ишлов бериб нашр этади. Харитадаги ёзувга кўра, бу харита Буюк Британияда нашр этилган Ўрта Осиёнинг биринчи харитаси бўлган экан (4-сурат).



4-сурат

Вататзис харитасида юнон ва лотин тилларида ёзилган ёзувлар жуда кўп. Бу ёзувларда у турли шаҳарлар, халқлар, қабилалар, шунингдек, дарёлар, кўллар, тоғлар ва чўллар ҳақидаги ўзининг изоҳларни берган. Бу маълумотлар унинг юнон тилида ёзилган сафарномасида ҳам кенгроқ ва батафсилроқ берилган. Хуллас, Вататзиснинг чизган харитаси ва ёзиб қолдирган сафарномаси Ўрта Осиёнинг XVIII асрдаги тарихий географияси бўйича муҳим бирламчи манба ҳисобланади [Камолиддин 2020: 54 – 61]. Демак, ушбу харита асосида 1738 йилда моҳир харитачи Жон Сенекс томонидан ясалган глобусдаги Ўрта Осиё тасвири ишончли ва аниқ маълумотларга асосланиб чизилган деб айтишимиз мумкин. Бундан кейинги даврларда ясалган ва XIX асрнинг охиригача кенг тарқалган барча глобусларда Ўрта Осиёнинг айнан шу тасвири ҳеч қандай ўзгаришсиз ишлатилган. Демак, Европада тарихий география ва хариташунослик соҳаларида энг илғор бўлган Буюк Британияда XVIII – XIX асрларда “Ўзбекистон” атамаси кенг ишлатилган, ва бу ном географияга оид барча адабиётларда ва ўқув глобусларида ифода этилган. Бу эса яқин вақтларгача кенг тарқалган “Ўзбекистон” атамаси 1924 йилда руслар томонидан ўйлаб топилган” деган уйдирма гапни буткул инкор этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

6. Камолиддин Ш.С. Василиос Вататзиснинг Ўрта Осиё харитаси ҳақида // Moziydan sado, 2005, 3 (27). Б. 36 – 41.

7. Камолиддин Ш.С. Ўзбекистоннинг тарихий хариталари // INFOLIB ахборот-кутубхона журнали, 2020, № 3. Б. 54 – 61.

8. Batatzis B. Charta, inqu’a cruditis spectanda exhibeteur pas Asiae. Tabula Maris Caspii et Maris Aral, Karta, di es tois filomathesi parekhetai eidein meros ti tes

Asias . Nin proton tipois ekdotheisa par’ ema, Basileia Batatzi Scale [1: 7 500 000]; 38 x 32,5 cm. / Ed. J. Senex. London, 1732.

9. Kamoliddin Shamsiddin. The Map of Central Asia by Basilio Batatzi (1730) // Central Eurasian Studies: Past, Present and Future. Editors H. Komatsu, S. Karasar, T. Dadabaev, G. Kurmangalieva Ercilasun. T.C. Maltepe Üniversitesi Yayinlari No. 46 (2011/5). Istanbul, Maltepe University, 2011, p. 315 – 339.

10. Legrand, Emile (ed.), Voyages de Basile Vatace en Europe et en Asie, Paris: E.Leroux, 1886, p. 183 – 295 (Nouveaux Melanges Orientaux, Memoires texts et traductions, publie par les professeurs de l’Ecole Speciale des langues orientales vivantes).

FRANSIYADA KO‘XNA SHARQ TARIXINI O‘RGANILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Farxodjon ISMATULLAYEV
TDPU v.b. professori. t.f.d. (DSc)
S. RAJABOVA, M. ESANOV,
A. FAYZULLAEV
TDPU talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ko‘xna Markaziy Osiyo xalqlari va davlatchiligi tarixini Fransiyada tadqiq etilishi masalalari tahlil qilingan. Muallif maqolada Fransiyada faoliyat yuritib kelayotgan bevosita Temuriylar davrini ilmiy tadqiq qilayotgan markazlar va olimlarni ilmiy faoliyatlarini ham ko‘rsatishga uringan.* ***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston Respublikasi, Fransiya, Yevropa Ittifoqi, Amir Temur, ilmiy tadqiqot, ko‘rgazmalar, Yunesko, konferensiyalar, Mirzo Ulug‘bek.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы вопросы изучения истории народов и государственности древней Центральной Азии во Франции. В статье также предпринята попытка осветить научную деятельность центров и учёных, действующих во Франции и непосредственно занимающихся исследованием периода Тимуридов.* ***Ключевые слова:*** *Республика Узбекистан, Франция, Европейский союз, Амир Темур, научные исследования, выставки, ЮНЕСКО, конференции, Мирзо Улугбек.*

Annotation: *This article analyzes the study of the history of the ancient peoples and statehood of Central Asia in France. It discusses the outcomes and significance of high-level official visits by heads of state that have created opportunities to further develop these academic relations. The article attempts to showcase the academic activities of institutions and scholars in France who are directly engaged in research on the Timurid period.* ***Keywords:*** *Republic of Uzbekistan, France, European Union, Amir Temur, scientific research, exhibitions, UNESCO, conferences, Mirzo Ulughbek.*

Yevropaning eng mumtoz davlatlaridan biri bo‘lgan Fransiya dunyoda o‘zining madaniyat va san’atga bo‘lgan hurmati va ehtiromi bilan ajralib turadi. Dunyo madaniyati poytaxti nomini olgan ushbu davlatga yiliga to‘qson million atrofida turistlar tashrif buyurayotganligini o‘ziyoq, qanchalik bu davlatga xalqaro miqyosda intilish kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga Fransiyada O‘zbekiston madaniyati, tarixi va san’atiga qiziqish ham yildan yilga ortib bormoqda.

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik tamal toshi, 1991 yil 16 sentabrda Fransiya tashqi ishlar vaziri Per Jeksonning mamlakatimizga tashrifi doirasida qo‘yilgan[1]. O‘zbekistonni ilk mustaqillik kunlaridagi ushbu tashrif, Fransiyaning mamlakatimizga hurmati va uning hamkorlik o‘rnatishga tayyor ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil oktyabrda, 1994 yil Fransiya Prezidenti Fransua Mitteren O‘zbekistonga tashrifi, 2025 yil martida Prezident Sh. Miziyoyevning Fransiyaga davlat tashriflari ikki tomon hamkorligiga yangi davrni ochdi. Fransiya Prezidenti tashrifi doirasida, ikki mamalakat o‘rtasida Fan, madaniyat, ta’lim sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu o‘z navbatida turli sohalardagi hamkorlikni rivojlanishiga xuquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hamkorlik barcha sohalarda bo‘lgani kabi teatr sohasida ham rivojlanmoqda. Fransuz - o‘zbek aktyorlari hamkorligida A.Xidoyatov teatrida Iskandar pe’sasi qo‘yildi. Unda Alisher Navoiy rolini fransuz aktyori Fransua Shatto o‘ynadi. Teatr ikki tilda o‘zbek va fransuz tilida qo‘yildi[2].. Jahon adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mashxur yozuvchi Gi De Mopassan ijodiga bag‘ishlangan ijodiy uchrashuvlar tashkil qilinib. unda TAShGU, Jahon tillari universiteti talabari ham ishtirok etdi.

Fransiya Prizidenti tashrifi munosabati bilan O‘zbekstonda san’at muzeyi fondida saqnalayotgan fransuz rassomlari asarlari namoyish qilindi. Davlat san’at muzeyida 45 ta rasmlar saqlanib, ular mashhur fransuz rasomlari Renuara Klode Mane, Sezanna, Dega Tissaro, Gogena Mattisa, Van Goga, Leje Brakalarga tegishlidir[3].

O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya hukumati o‘rtasida o‘do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnomao‘ va O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Fransiya hukumati o‘rtasida o‘madaniyat, ilmiy va texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim o‘ rasmiy tashrifning maxsuli bo‘ldi.

2008 28 oktyabr kuni Fransiyadagi Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish assotsiyasining 20 yilligi nishonlandi[4]. Ushbu sana munosabati bilan Parijda Temuriylar assotsiatsiyasi azolari, Fransiya vazirlik va idoralari, ushbu mamlakatda akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatiya vakolatxonalari vaakillari ishtirokida qator madaniy tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimizning Parijdagi elchixonasida bo‘lib o‘tgan o‘zbek she’riyati va musiqasi kechasida xalqimizning zabardast shoirdari Alisher Navoiy, Bobaraxim Mashrab, Nodirabegim asarlaridan parchalar o‘zbek va fransuz tillarida tomashabinlar e’tiboriga havola etildi. She’riy namunalar fransuz tilida o‘Komedi Fransezo‘ teatri aktyori, Dijon shahri milliy teatri direktori Fransua Shato tomonidan o‘qildi. O‘zbekiston halq artisti Munojot Yo‘lchieva kuylagan his-tuyg‘uga boy g‘azallar betakror sharqona nafosat muhitini yaratdi.

Tadbir davomida O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq o‘zbek xalqining madaniy, ilmiy-ma’naviy salohiyatini, milliy qadriyatlarni chuqur tadqiq etish va tiklashga katta e’tibor qaratib kelinayotgani ta’kidlanib, shu ma’noda Amir Temur va temuriylar davri merosini o‘rganishga alohida ahamiyat qaratilyotgani qayd etildi.

Yunesko xalqaro tashkiloti tomonidan 1994 yilning 21-28 oktyabrida, Toshkent, Istambul, Parij shaharlarida Mirzo Ulug‘bek tavvalludining 600 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazildi. Tadbir davomida Parijning “Segur” ko‘rgazmalar zalida “Tarix va zamonaviylik” mavzusida Markaziy Osiyo tarixi hamda Temur va temuriylar davri tarixi haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmasi uyushtirildi[5].

Amir Temur tarixda moxir diplomat, mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalar va savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish tarafdori bo‘lgan shaxs sifatida ham erkin iz qoldirgan. U Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan keng miqyosli ishlarni amalga oshirgan, dunyoning turli qit’alaridagi davlatlar bilan aloqalar o‘rnatganligi alohida qayd etildi.

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi asoschisi va rahbari professor Lyusen Keren Temuriylar davri tarixi to‘g‘risida bir qator kitob va ilmiy maqolalar muallifidir. Jumladan, uning “Samarqandga Temur davri sari yo‘l” kitobi nafaqat fransuz va o‘zbek olimlari, balki butun Yevropa tadqiqotchilari va jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan.

Tadbirda professor L.Keren so‘zga chiqib, Amir Temurning insoniyat tarixidagi roli, Assotsiatsiyaning temuriylar tarixini o‘rganish va ommalashtirish borasidagi faoliyati haqida gapirdi. “Amir Temur avvalo atoqli davlat arbobi, iste’dodli xarbiy qo‘mondon va diplomat, ilm va san’at himoyachisi sifatida alohida ajralib turadi,- dedi olim. Poytaxti Samarqand bo‘lgan ulkan davlat hukmdori o‘tkir zehn va idrok sohibi bo‘lib, o‘z davlatini mohirlik bilan boshqargan.

Shu boisdan mamlakatda tinchlik va xotirjamlik hukm surgan, savdo va hunarmandchilik nihoyatda rivoj topgan. U hamisha adolat tarafdori bo‘lgan, ilm, madaniyat va san’at ahlini yuksak qadrlagan hamda ularning ijodini qo‘llab-quvvatlagan. 1987 yil 22 martda tashkil etilgan Temuriylar assotsiatsiyasi Amir Temur va temuriylarning boy merosini o‘rganish, o‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosini fransuz jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib qilish bilan shug‘ullanib kelmoqd[6]. Assotsiyatsiya temuriylar davriga bag‘ishlangan turli ilmiy tadqiqot va taqdimotlar o‘tkazadi, kitoblar nashr etadi. Assotsiatsiyaning “Temuriylar” deb nomlagan jurnali sahifalarida o‘zbek va fransuz olimlarining o‘sha davr tarixi, san’ati va madanyatiga bag‘ishlangan, shuningdek, bugungi O‘zbekistonning ilmiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq maqolalari muntazam chop etiladi.

Fransuz olimi o‘zining Amir Temur va uning avlodlari, xususan, o‘rta asrlarning buyuk astronomi Mirzo Ulug‘bek davriga oid ilmiy izlanishlari O‘zbekistonda yuksak baholanganidan mamnun ekanini qaytd etdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil aprel oyida Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan shodiyonalar doirasida YuNESKOning Parijdagi bosh qarorgoxida L.Kerenni “Shuxrat” ordeni bilan mukofotladi.

“Men o‘z mehnatim orqali Amir Temurning xaqqoniy qiyofasini fransuzlar va yevropaliklarga yetkazish maqsadida mazkur buyuk tarixiy shaxs haqida pe’sa yozdim va u Parijning “Odeon” teatrida sahnalashtirildi. Men kelajakda bu asarim Parij teatrlaridan birida, o‘zbek aktyorlari tomonidan o‘zbek tilida ijro etilib, albatta, ekranda fransuz tilidagi tarjimasi bilan sahnaga qo‘yilishini orzu qilaman. Bu Fransiya va Yevropa jamoatchiligi Amir Temurning buyuk shaxsi haqida keng

ma’lumot berishga xizmat qilgan bo‘lur edi”,- dedi Assotsiatsiya rahbari Lyusen Karen[5].

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi Frederik Bressan xonim 1997 yilda o‘zining “Samarqandning moviy oltini” deb nomlangan ajoyib suratlar bilan bezatilgan albomining keng jamoatchilikka xavola etgan. Nashr taqdimotida olima “dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashxur bo‘lsa bularning biri –Parij, ikkinchisi-Samarqand”degan edi. 2003 ylda uning “Maxobatli Samarqand”deb nomlangan kitobi ikkinchi marta bosmadan chiqdi.

Amir Temur va uning vorislari hukumronlik qilgan davrda adabiyot va she’riyatning himoyasi va rivojiga katta e’tibor qaratganligini, olima dalillar asosida ko‘rsatib berdi. Assotsiatsiya o‘zbek shoirlari ijodiga mansub she’rlarni fransuzcha tarjimalarini taqdim etdi. Bu e’tibor Parijda O‘zbekistonning xaqiqiy do‘stlari, o‘zbek xalqining qadimiy va o‘ziga xos madaniyati va sanatini qadrlaydigan insonlar yashayotganidan dalolatdir.

“Ushbu tadbir xalqimizning bir-biriga yaqinlashishiga xizmat qilishi shubxasiz,- deydi kechada ishtirok etgan fransiyalik tadbirkor Moris Dyuge - bugungi sharoitda mana shunday samimiy va do‘stona kechalarni tashkil etishning ahamiyati yanada ortadi. O‘zbekiston madaniyati kechasi juda qiziqarli o‘tdi. Ishtirokchilar o‘zbek xalqining boy adabiy va musiqiy merosidan baxramand bo‘lishdi. Fransuz jamoatchiligi O‘zbekistonda kechayotgan o‘zgarishlarni katta qiziqish bilan kuzatib borib, yurtimizda olib borilayotgan demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy isloxatlar izchil ketayotganini etirof etdi .

Dijon shaxri teatri direktori Fransua Shato: “Bugungi musiqa va she’riyat kechasidan juda lazzatlandim. Xalqingiz she’riy san’ati dunyo she’riyatida munosib o‘ringa ega Bu kecha davomida yurtdoshlarimni ushbu she’riyat olamiga oshno qilishga hissa qo‘shganimdan benihoyat mamnunman” - deb ta’kidladi.

Yurtimizga bag‘ishlangan tadbir Parijdagi “Aleksandr Kaden” badiiy galereyasida davom etdi. O‘zbekistonlik va yevropalik rassomlar ijodi namunalaridan tashkil topgan “Samarqand ranglari” ko‘rgazmasi ochildi. Undan rassom Bobur Ismoilov, g‘ijduvonlik kulollar avlodi vakili, sopol buyum va so‘zanalar muzeyi asoschisi Abdulla Narzullaevning asarlari o‘rin oldi. Ko‘rgazmaga Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish franssuz assosiatsiyasi bosh kotibi F.Bressan xonimning foto asalari ham qo‘yildi. Ko‘rgazmaning yana bir yevropalik ishtirokchisi – taniqli sopol idishlar rassomi, Korolinda Tolstaya xonim ham O‘zbekiston amaliy sa’natining muxlisi. Galareyada, shuningdek, Samarqandlik Nargiza Bekmuxamedovaning o‘zbek milliy liboslaridan tashkil topgan “ Buyuk Ipak yo‘lida ranglar jilosi” ko‘rgazmasi ham namoyish etiladi.

Parijda bo‘lib o‘tgan mazkur madaniy tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining YUNESKO doimiy vakolatxonasi, mamlakatimizning Fransiyadagi elchixonasi hamda Temuriylar assotsiatsiyasi hamkorligida o‘tkazildi. Ushbu hamkorlik ikki mamlakat o‘rtasidagi azaliy do‘stlik, madaniy aloqalar rivojlanishni sifat bosqichiga ko‘tarilganlidan dalolatdir.

Ma’lumki, Yevropa xalqlari, jumladan, fransuzlar O‘zbekiston tarixi va madaniy merosiga hamda uning tadqiqiga katta qiziqish bilan qaraydilar. Shuni hisobga olgan holda, 2021 yilda Luvr muzeyida O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan ko‘rgazma

o‘tkazish rejalashtirilgan edi. Ushbu tadbir jahonga mashhur muzeyda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi mamlakatlardan biriga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilk ko‘rgazma bo‘lishi kerak edi. Ammo, Pandemiya sababli ko‘rgazmani o‘tkazilish vaqti ma’lum muddat orqaga surildi. Va nihoyat, Parijdagi Luvr muzeyida 2022 yil noyabr oyidan “Markaziy Osiyo ulug‘vorligi. O‘zbekiston karvon yo‘llarida” nomli ko‘rgazma ochildi[6]. Bu ko‘rgazma O‘zbekistonning jahondagi eng katta muzeyida tashkil etilayotganiga e’tibor qaratsak, qadimiy tariximiz va madaniyatimizni yiliga kamida 60 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyuradigan Fransiya markazida namoyishi bu katta e’tirofdir.

Xulosa qilib aytganda, Fransiyalik olimlar azaldan Markaziy Osiyo tarixiga qiziqish bildirib, o‘rganishni XVII asrdan boshlagan. Bugungi kunda ham bu o‘rganish va tadqiqot jarayonlari davom etmoqda. Ayniqsa, Temuriylar davri tarixini o‘rganish borasida Fransiyalik olimlar Lyusen Karen va Frediriko Byuperti xonimlarni xizmatlari katta bo‘lmoqda. Ilmiy aloqalarni rivojlanishi o‘z navbatida xalq diplomatiyasini rivojlanishiga ham o‘zining ijobiy natijasini berib berib, ikki tomonloma munosabatlarni rivojlanishida muxim rol o‘ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z MA. Fond – m -2, ro‘yxat – 1, jild – 48. varaq – 30.
2. Fransiyada Temuriylar assotsiatsiyasining 20 yilligi nishonlandi. Toshkent oqshomi. 2008 28 oktyabr.
3. Matxoliqov Q.A. O‘zbekiston Respublikasi va Yevropaning Frankofon davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar tarixi (fransiya, Shveysariya va Belgiya misolida(1991-2005yy)). Avtoref. t.f.n. ToshMU. 2008.
4. Davronova Z. Moziyga tutash tomirlar // Muloqot. - T.: 2002; №5.
5. Fransiyada Temuriylar assotsiatsiyasining 20 yilligi nishonlandi // Toshkent oqshomi. 2008-yil 28-oktyabr
6. 2022 yil Luvr muzeyida O‘zbekiston ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi // https://m.kun.uz/news. Murojaat etilgan sana: 12.07.22.

XORIJIY TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA O‘ZBEKISTONNING CHEGARAVIY MUAMMOLAR TARIXSHUNOSLIGI

J.I. ABDULLAYEV

DTPI Tarix va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

abdullayevjamshid19900131@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqola xorijiy tadqiqotchilar tomonidan O‘zbekistonning sovet davri va mustaqillikdan keyingi chegaraviy muammolari, ularning paydo bo‘lish sabablari hamda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarga ta’siri mavzusida amalga oshirilgan tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyoning mahalliy olimlari va G‘arb tadqiqotchilarining mavzu bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi.* ***Kalit so‘zlari.*** *Tarixshunoslik, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, G‘arb tarixshunosligi, korennizatsiya, etnik muvozanat, Sovet Ittifoqi, Milliy-hududiy chegaralanish, ambivalent.*

Annotation: *This scholarly article examines foreign researchers' studies on Uzbekistan's border-related challenges during the Soviet era and post-independence period, including their causes and impact on diplomatic relations among regional states. Additionally, the article analyzes the academic research conducted by both Central Asian scholars and Western experts on the subject.* ***Keywords:*** *Historiography, Central Asia, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Western historiography, korenizatsiya (indigenization), ethnic balance, Soviet Union, national-territorial delimitation, ambivalence*

Аннотация: *Данная научная статья охватывает исследования зарубежных ученых, посвященные пограничным проблемам Узбекистана в советский период и после обретения независимости, причинам их возникновения, а также влиянию на дипломатические отношения между государствами региона. Кроме того, в статье анализируются научные изыскания местных исследователей Центральной Азии и западных ученых по данной теме.* ***Ключевые слова:*** *Историография, Центральная Азия, Узбекистан, Кыргызстан, западная историография, коренизация, этнический баланс, Советский Союз, национально-территориальное размежевание, амбивалентность.*

Markaziy Osiyo chorrahasida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish bilan bir qatorda, tarixan shakllangan va asrlar davomida murakkab geosiyosiy omillar ta’sirida rivoj topgan chegaraviy muammolarni ham izchil hal etishga intildi. Bu jarayonning tarixiy ildizlari, ayniqsa XX asr boshidan boshlab Sovet milliy-davlat chegaralarining sun’iy tarzda chizilishi va undan keyingi davrlar – mustaqillikdan so‘ng siyosiy transformatsiya sharoitida yangicha mazmunga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Mazkur masalaning o‘rganilishi nafaqat O‘zbekiston tarixshunosligida, balki xorijiy tadqiqotchilar, xususan, rus, g‘arbiy yevropalik va amerikalik olimlarning izlanishlarida ham alohida e’tibor qozongan. Xorijiy akademik doiralarda bu masala geosiyosiy ziddiyatlar, etnik chegaralanish, va transchegaraviy siyosiy munosabatlar doirasida keng talqin qilinadi. Shuningdek, ular ushbu masalani tarixiy-huquqiy, sotsial-antropologik va arxiv manbalarining tahliliga asoslangan holda yoritishga harakat qilganlar. Biroq xorijiy tadqiqotlarda ba’zan geopolitik manfaatlar yoki ideologik nuqtai nazarlar ustuvorlik qilgani, muammoni yoritishda biryoqlamalik yoki davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda mafkuraviy cheklovlar mavjudligi ham kuzatiladi. Shu boisdan, xorijiy tarixshunoslikda O‘zbekistonning chegaraviy muammolariga yondashuvlar qanday yo‘nalishda shakllangani, qaysi metodologik asoslarga tayangani va bu tadqiqotlarning milliy tarixshunoslik bilan qanday uyg‘unlik yoki tafovutlarga ega ekanini tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifadir. Mazkur tadqiqot ushbu masalalarni kompleks yoritish hamda xorijiy tadqiqotlar asosida O‘zbekistonning chegaraviy muammolar tarixshunosligining o‘rni va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Xorij tarixshunosligida O‘zbekistonning chegaraviy muammolari haqida olib borilgan tadqiqotlar son jihatdan cheklangan bo‘lsa-da, mavjud ishlanmalar Markaziy Osiyodagi etnik, siyosiy va geosiyosiy jarayonlar doirasida bu mavzuga bevosita yoki bilvosita yondashgan. Bu tadqiqotlar asosan Rossiya, AQSh, Germaniya, Turkiya va ayrim Sharqiy Yevropalik olimlari tomonidan olib borilgan. G‘arb tarixchilari Sovet Ittifoqi millatlar siyosatini odatda “affirmative action empire” (ijobiy diskriminatsiya imperiyasi) deb ataganini ta’kidlashadi. Garvard Universiteti professori Terri Martin

Sovet davri tarixini tahlil qilib, markazi tomonidan mahalliy elitalarni yaratish, ularni “korennizatsiya (SSSR milliy respublikalarining tub aholisi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan milliy masala bo‘yicha siyosiy va madaniy kompaniya)” siyosati orqali ko‘tarish, so‘ngra esa siyosiy xavf ostida yo‘q qilish mexanizmlarini ochib bergan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston SSRning tashkil etilish jarayoni “etnik muvozanatni siyosiy nazorat ostiga olish” vositasi edi[1, - P.57.]. Amerikalik tadqiqotchi Adib Xolid esa O‘zbekiston SSR misolida bu siyosatni madaniy va ideologik kontekstda ko‘rib chiqadi. Uning “Making Uzbekistan” asarida sovet modernizatsiyasi, jadidlar harakati va yangi sovet mafkurasi o‘rtasidagi dialektika tahlil qilingan. Adib Xolid ushbu jarayonni tarixiy uzviylikning uzilishi va yangi siyosiy-madaniy tuzilishning boshlanishi deb baholaydi. Muallif Sovet davrida O‘zbekistonning chegaralari faqat markaziy hukumat tomonidan emas, balki mahalliy elitalar, xususan jadidlar tomonidan ham shakllantirilgani, Sovet Ittifoqining chegaralarni belgilashdagi yagona rolini shubha ostiga oladi va mahalliy intellektual guruhlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu asarda O‘zbekiston davlati tashkil topishining ilk davrlari tahlil qilinadi [2, - P.6.]. Arne Haugen o‘zining “The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia” (2003) asarida 1924-yilgi chegara chizishning texnik va siyosiy jihatlarini tahlil qiladi. U bu jarayonni yuqoridan pastga qarab amalga oshirilgan sun’iy konstruksiya deb hisoblaydi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Buxorodan ajralib O‘zbekistonga qo‘shilishi “maqsadga muvofiq etnik va iqtisodiy balans” sifatida asoslangan bo‘lsa-da, real siyosiy turtki Markazning mintaqaviy ustuvorligini mustahkamlash edi [3, - P.153.]. Sovet davrida yozilgan xorijiy asarlarda asosiy kamchilik ma’lumotlar ba’zasiga kirishdagi to‘siqlar edi. Ya’ni Sovet Ittifoqidagi g‘arb tadqiqotchilar stipendiyasi ikkita asosiy kamchilikka duch keldi. 1964-yil taqiqotchi Jeffri Uiler asosiy manbalarga kirish imkoni yo‘q edi deb ta’kidlagan edi. Shuningdek, sovet davrida yozilgan g‘arb tadqiqotlaridagi yana bir kamchilik sovuq urush kayfiyatining asarlarda sezilishi edi. Xorijdagi o‘zbek tadqiqotchisi, Germaniya va Turkiya fuqarosi bo‘lgan Boymirza Hayit Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan 1924–1936 yillardagi milliy-hududiy chegaralash siyosatini o‘ta tanqidiy baholaydi. U bu siyosatni o‘zbek milliy birligini zaiflashtirish, xalqni parchalash va sun’iy davlat chegaralarini yaratish orqali Markaziy Osiyo xalqlarini bir-biriga qarshi qo‘yishga qaratilgan deb hisoblaydi. Boymirza Hayit hududiy chegaralarning adolatsiz belgilanganligini, xususan, o‘zbek yerlarining boshqa ittifoqdosh respublikalarga berib yuborilganini ta’kidlab o‘tadi. Bu jarayonlarda xalq fikri e’tiborga olinmaganini ko‘rsatadi. U asarlarida aynan shu masalalarda fikr yuritgan[4, - B.387.]. Tadqiqochilardan Ollvortning ta’kidlashicha, delimitatsiya mohiyatan o‘zbeklarga qarshi bo‘lgan segregatsiya strategiyasining asosi bo‘lgan. Ollvort “o‘zbek” ni yetarlicha aniq belgilangan o‘ziga xoslik deb hisoblaydi va o‘zbeklar Moskva uchun alohida xavf tug‘dirganini ta’kidlaydi[3, - P.22.].

7. Sovet Ittifoqining parchalanishidan keyingi xorijiy tadqiqotlarda O‘zbekistonning chegara muammolar masalasi “siyosiy muhandislik” (political engineering) deb nomlangan yondashuvda tahlil qilina boshlandi. Bu yondashuvda Sovet hukumati tomonidan milliy respublikalar chegaralarini sun’iy shakllantirish, u orqali mintaqada “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” siyosati yuritilgani ko‘rsatiladi.

SSSR parchalanganidan so‘ng, g‘arb tarixchilari ushbu hududlarni postkolonial tahlil doirasida ko‘ra boshladilar. Sovet Ittifoqi endilikda ko‘plab mualliflar, jumladan, Robert Kayzer tomonidan “yumshoq imperiya” sifatida talqin etiladi. Unga ko‘ra, sovetlar tomonidan chizilgan milliy chegaralar asosan xalq irodasiga emas, balki markaziy boshqaruv ehtiyojlariga asoslangan. Yangi avlod tarixchilari, jumladan Frensin Xirsh (Empire of Nations, 2005), Sovet Ittifoqining milliy statistika, etnografiya va kartografiyaga asoslangan “ilmiy faktlari”ni tanqidiy baholaydi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston SSRning yaratilishi ilmiy asoslangan siyosiy mafkuraviy jarayon bo‘lib, aslida milliy madaniyatlarni qayta ishlab chiqishga qaratilgan strategik loyiha bo‘lgan [5, - P.183.]. Bu davrda yana bir muhim tendensiya — mahalliy elitalarning yangi tarixiy munozara yaratishdagi roli hisoblanadi. Adib Xolid (2015) milliy tarixshunoslikning “sovet modelini tanqid qilish bilan birga, undan foydalanishga asoslangan” ambivalent (ikki tomonlama) yondashuvini ta’kidlaydi. Marta Brill Olkott, Olivye Roy kabilar bu jarayonni etnik siyosat va sovet milliy davlat qurilishi kontekstida o‘rganishgan. Masalan, Marta Olkott “Central Asia's New States: Independence, Foreign Policy, and Regional Security” nomli asarida O‘zbekiston bilan qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi chegaraviy nizolarning Sovet davridagi muammoli merosga aloqadorligini ko‘rsatadi [6, - P.85.]. Mustaqilik davrida O‘zbekiston Respublikasining chegara muammolari, holati va qo‘shnilar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar dinamikasi bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilardan Nik Megoranning ilmiy ishi mavjud bo‘lib, mutaxassis 1999-2000 yillar davomida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegara muammolari, etnik vaziyat, Farg‘ona vodiysi chegaralari bo‘yicha izlanib, hududda o‘sha davrda vujudga kelgan “qaynoq” vaziyatning kelib chiqish omillarini o‘rganadi [7, - P.2.]. Nik Megoran shuningdek “Rethinking the Study of International Boundaries: A Biography of the Kyrgyzstan–Uzbekistan Boundary" maqolasida Qirg‘iziston–O‘zbekiston chegarasining shakllanishi va o‘zgarishlarini “chegara biografiyasi” yondashuvi orqali tahlil qiladi. U milliy-hududiy chegaralash va post-Sovet davrlaridagi chegara siyosatini ham o‘rganadi. Nik Megoran chegaralarni faqat chiziq sifatida emas, balki ijtimoiy va siyosiy munosabatlar mahsuli sifatida ko‘radi [8, - P.2.]. Turkiyalik tadqiqotchilardan Selim Kanat va Serkut Kilinchlar “Sovyetler Birliği Sonrası Sınır Sorunları ve Çözüm Arayışları: Özbekistan Örneği” maqolasida chegara muammolarining kelib chiqishi Sovet davriga borib taqalishi ananaviy tarzda yozilgan bo‘lib, Sh.Mirziyoyev davridagi o‘zgarishlar va yutuqlar ham e’tirof qilingan [9, - S.37.]. Lekin, mustaqillik davridan keyin ham xorijlik tadqiqotchilar O‘zbekistondagi manbalarning hammasiga ham kirish imkoniga ega bo‘lishmaydi. Natijada, ular o‘zlarining tadqiqotlarida asosan G‘arb matbuoti, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, o‘zbek muhojirlaridan olingan ma’lumotlarga tayanadi. Bu esa masalani to‘la ochishda yordam bermaydi. Bundan tashqari ko‘plab xorijiy olimlar hali hamon Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonni “post-sovet”, “avtoritar tizimli sistema” sifatida ko‘rishmoqda. Masalan, David Levis, Edvard Schatz yoki Erik MakGlinchi kabi olimlar asarlarida davlat tuzilmasi, xavfsizlik va siyosiy barqarorlik ko‘proq muhokama qilinadi, ammo tarixiy kontekst chetda qolib masalani bir tomonlama o‘rganish orqali xulosalar beriladi. Chegara masalasi asosan etnik va sovet merosi sifatida talqin qilinib, muammoning tub geosiyosiy va tarixiy ildizi tushunilmaydi. Ko‘plab xorijiy

adabiyotlarda mahalliy olimlar, jurnalistlar yoki faollar fikrlari yetarlicha aks ettirilmagan. Bu esa tahlillarning bir tomonlama bo‘lishiga olib keladi.

G‘arb tarixshunosligida SSSR davridagi milliy-hududiy chegaralanish hamda O‘zbekistonning chegaraviy muammolarining kelib chiqish sabablari, asosan sun’iylik va siyosiy manipulyatsiya nuqtai nazaridan talqin qilinadi. SSSR davridagi tadqiqotlar ko‘proq imperiyaviy nazorat va etnik siyosatga e’tibor qaratgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi tadqiqotlar bu jarayonni postkolonial va madaniy qurilish nuqtai nazaridan yoritadi. Kelgusi tadqiqotlar uchun ushbu yondashuvlarni mahalliy tarixiy-normativ kontekstda qayta tadqiq qilish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Martin, T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. Cornell University Press, 2001.
2. Haugen, A. The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia. Palgrave Macmillan, 2003.
3. Khalid, Adeeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press, 2015.
4. B. Hayit. Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida. Toshkent. 2003.
5. Hirsch, F. Empire of Nations: Ethnographic Knowledge and the Making of the Soviet Union. Cornell University Press, 2005.
6. M. Olcott. Central Asia's new states: independence, foreign policy, and regional security. New York. United States Institute of Peace Press, 1996.
7. N.Megoran. The Borders or Eternal Friendship? The politics and pain of nationalism and identity along the Uzbekistan-Kyrgyzstan Ferghana Valley boundary, 1999-2000. Cambridge, 2002.
8. N.Megoran. Rethinking the Study of International Boundaries: A Biography of the Kyrgyzstan–Uzbekistan Boundary. Annals of the American Accociation of Geographers, 2012.
9. Kanat, S., Kılınç, S. Sovyetler Birliği Sonrası Sınır Sorunları ve Çözüm Arayışları: Özbekistan Örneği, İmgelem, Özbekistan Özel Sayısı, 2024.
10. Kaiser, R. C. The Geography of Nationalism in Russia and the USSR. Princeton University Press, 1994.

TÜRK DİLİ VE YAZISININ TARİHÎ DÖNEMLERİ

Davron MUTALOV
“Oriental” Devlet dışı üniversitesi’nde kıdemli öğretim görevlisi

Annotatsiya*: Türk dili, köklü bir geçmişe sahip olup, Orta Asya'dan günümüze kadar uzanan tarihsel süreç boyunca farklı coğrafyalarda çeşitli evreler geçirmiştir. Bu evreler, hem dilin yapısal özelliklerinde hem de kullanılan yazı sistemlerinde önemli değişiklikler ve evrimler göstermektedir. Bu makalede, Türk dilinin ve yazısının tarihî gelişim süreci, başlıca dönemler ve bu dönemlerde*

kullanılan yazı sistemleri ışığında ele alınacaktır. ***Anahtar kelimeler****: Türk Dili, Yazı Sistemi, Orhun Alfabesi, Uygur Alfabesi, Osmanlı Türkçesi, Latin Alfabesi, Dil Devrimi.*

Annotation: *The Turkish language has a deep-rooted history, undergoing various stages throughout its historical journey from Central Asia to the present day across different regions. These stages have brought significant changes and evolutions in both the structural features of the language and the writing systems used. This article will examine the historical development process of the Turkish language and its script in light of the main periods and the writing systems employed during these times.* ***Keywords:*** *Turkish Language, Writing System, Orkhon Alphabet, Uyghur Alphabet, Ottoman Turkish, Latin Alphabet, Language Reform*

Аннотация: *Тюркский язык имеет глубокие исторические корни и прошёл через различные этапы в своём развитии, начиная с Центральной Азии и до наших дней, охватывая разные географические регионы. Эти этапы сопровождались значительными изменениями как в структурных особенностях языка, так и в используемых письменных системах. В данной статье рассматривается историческое развитие тюркского языка и письменности с учётом основных периодов и применявшихся в эти периоды алфавитов.* ***Ключевые слова:*** *Тюркский язык, письменность, орхонский алфавит, уйгурский алфавит, османский тюркский, латинский алфавит, языковая реформа*

Türkçe, tarih boyunca farklı coğrafyaların ve kültürel etkileşimlerin şekillendirdiği geniş bir coğrafyada konuşulup yazıya geçirilmiş bir dildir. Türklerin yazılı tarihinin başlangıcı Orta Asya'nın derinliklerine dayanır. Türk dilinin yazılı tarihindeki en eski belgeler, Orhun Yazıtları gibi taş kitabelerdir. Bu yazıtlar Türk dilinin tarihi gelişimi açısından büyük önem taşımaktadır. Türk dilinin tarihsel gelişimini anlayabilmek için dilin evrim sürecini şekillendiren önemli dönüm noktalarını ve kullanılan yazı sistemlerini incelemek gerekir. Aşağıda Türk dilini kısaca özetlemeye ve üzerinde durmaya çalışacağız.

Eski Türk dili Orhun yazıtları ve Göktürk yazıtlarıyla başlar. Bu dönemde Türkler, Orta Asya'nın geniş bozkırlarında göçebe hayatı yaşadılar ve ilk yazılı belgelerini bıraktılar. M.Ö. 6. yüzyılda Göktürkler tarafından Orhun Vadisi'ne dikilen Orhun Yazıtları, Türk dilinin bilinen ilk yazılı belgeleridir. Bu yazıtlar Göktürklerin tarihi, kültürü ve dilinin anlaşılması açısından çok önemli bir kaynaktır. Bu dönem, Türk dilinin tarihî gelişiminin ilk aşamasını oluşturur ve genellikle Göktürkler ve Uygurlar gibi Orta Asya'daki Türk boylarının izlediği dil ve kültür yolunu kapsar. Dönem, M.Ö. 6. yüzyıldan 8. yüzyıla kadar uzanır. Eski Türk dilinin en önemli belgeleri, Orhun Yazıtları gibi taş yazıtlar olup, bu dönemin dilini anlamada büyük rol oynamaktadır. Eski Türk dönemi, Türk dilinin ilk yazılı örneklerinin ortaya çıkması ve ilk yazı sistemlerinin kullanılması açısından büyük bir öneme sahiptir. Bu dönemde, Türkler göçebe bir yaşam sürmekte olup, Orta Asya'nın geniş bozkırlarında yerleşim yerlerinden uzak bir şekilde yaşamışlardır. Bu nedenle, yazılı belgeler genellikle taşlara, kayalara ve diğer dayanıklı materyallere yazılmıştır. Türk dili, bu dönemde ilk defa taşlar üzerine yazılmış yazıtlarla kayda geçirilmiş ve dilin kuralları, yapısı ve kelime hazinesi hakkında önemli bilgiler elde edilmiştir. [1]

Orhun alfabesi Göktürkler'in kullandığı bir yazı sistemi olup Türk dilinin en eski yazı sistemlerinden biridir. Göktürk alfabesi, dönemin dil yapısına uygun olarak geliştirilen, sağdan sola doğru yazılan 38 harfli bir alfabedir. Bu alfabe Türk dilinin kökeni hakkında önemli bilgiler vermekte ve dilin fonetik yapısını ve morfolojik özelliklerini yansıtmaktadır. Orhun alfabesi, Türklerin Orta Asya'da kullandığı en

eski yazı sistemlerinden biridir. Bu alfabe, özellikle Göktürkler dönemine ait kitabelerle tanınır ve Orhun Vadisi'nde bulunan Orhun Yazıtları'nda kullanılmıştır. Orhun alfabesi, 8. yüzyıla tarihlenen bu yazıtlarda Türk dilinin yazılı formunu ortaya koymuştur. Alfabe, runik karakterlere benzeyen bir görünüme sahiptir ve bu yüzden bazen "runik alfabe" olarak da anılır. Orhun alfabesinde, Türk dilinin fonetik özelliklerine uygun olarak harfler bulunmaktadır, ancak zamanla yerini Arap alfabesine bırakmıştır. Orhun alfabesi, Türk dilinin tarihsel gelişimi açısından önemli bir yer tutar ve bu yazıların en eski örneklerinden biri, Göktürkler'in "Orhun Yazıtları"dır. Bu yazıtlar, Türklerin tarihine ve kültürüne dair değerli bilgiler sunmaktadır. Bu alfabe, Türk dilinin ilk yazılı belgelerinden biri olarak kabul edilir ve Türk dilinin tarihi ve kültürel mirası açısından oldukça önemlidir.

Uygur dönemi Türk dilinin tarihinde önemli bir aşamadır. Türkler 8. yüzyıldan itibaren Uygur alfabesini kullanmaya başlamış ve bu alfabe Uygurlar tarafından benimsenmiştir. Uygurlar zengin bir dinî ve edebî kültüre sahiptiler. Bu dönemde Maniheizm, Budizm ve daha sonra İslamiyet ile tanışan Türkler, Uygur alfabesini dini metinlerde ve resmi yazışmalarda kullanmışlardır. Uygur dönemi, Göktürklerin çöküşünden sonra, Türklerin Orta Asya'daki yeni siyasi yapılanmalarından birini temsil eder. Bu dönemdeki en önemli gelişmelerden biri, Uygurların, Orhun alfabesini terk ederek, Arap alfabesinin yerine, özellikle Sogd dilinden etkilenmiş olan Uygur alfabesini kullanmalarıdır. Uygur dönemi, hem Orta Asya'da hem de Çin'in kuzey bölgelerinde önemli kültürel, dini ve sanatsal değişimlere yol açmıştır. Uygur Devleti, 744 yılında kuruldu ve 840 yılına kadar varlığını sürdürdü. Uygurlar, özellikle Göktürk Devleti'nin çöküşü sonrası, Orta Asya'da egemen bir güç haline geldiler. Başkentleri, önce Ötüken'de, daha sonra Karabalasagun'da bulunuyordu. Uygur dönemi, Türklerin tarihindeki önemli bir aşama olup, sadece Orta Asya'daki gelişmeleri değil, aynı zamanda Çin, Hindistan ve diğer bölgelere kadar uzanan kültürel etkileşimleri de kapsar. Bu dönem, Orta Asya'da Türklerin kültürel ve dini çeşitliliğini artırmış, pek çok sanat dalında önemli eserler bırakmıştır.

Uygur alfabesi Türk dilinin tarihindeki en önemli yazı sistemlerinden biridir. Bu alfabe özellikle Orta Asya ve Çin sınırlarında faaliyet gösteren Uygur Türkleri tarafından geliştirilmiştir. Uygur alfabesi Arap harflerinin etkisi altında gelişmiş olup Türk ve diğer Orta Asya dillerinde kullanılmıştır. Türk dilinin ilk edebi eserleri de bu alfabeyle yazılmıştır. Ayrıca bu dönemde Türkçenin ilk edebî metinleri olan "Kutadgu Bilig" ve "Devan-i Lugati't-Türk" gibi eserler ortaya çıktı. Uygur alfabesi, Uygurlar tarafından kullanılan ve Sogd alfabesinden türetilmiş bir yazı sistemidir. Bu alfabe, Türk dili için özel olarak geliştirilmiştir ve Budizm ve Maniheizm gibi dini metinlerin yazılmasında kullanılmıştır. Uygur alfabesi, özellikle Uygurca yazılmış eserlerde ve Orta Asya'da Uygurların egemen olduğu dönemdeki belgelerde yer alır.

Uygur Alfabesinin Özellikleri. Sogd alfabesinin etkisi altında şekillenmiştir. Sogd alfabesi, eski İran kökenli bir yazı sistemi olup, özellikle Orta Asya'da geniş bir kullanım alanı bulmuştur. Aşağıda Uygur alfabesinin en önemli özelliklerini ele alacağız:

Yazım Yönü: Uygur alfabesi, sağdan sola doğru yazılır.

Harf Sayısı: Uygur alfabesi, 20'den fazla harften oluşur ve her harf bir ses birimine karşılık gelir [2].

Sesli Harfler: Uygur alfabesi, sesli harfler (vowel) bakımından oldukça belirgin bir yapıya sahiptir. Harflerin sesli olup olmadıkları bağlama göre değişir.

Yazılış Şekli: Uygur alfabesinde, harflerin bağlantılı yazılışı vardır, yani harfler birbirine bağlanarak yazılır.

Karahanlılar dönemi, Türk dilinin İslam kültürüyle tanıştığı ve Arap harflerinin kullanılmaya başlandığı önemli bir dönemdir. 11. yüzyılda Karahanlılar Arap harflerini kullanarak Türk diliyle yazılı eserler vermeye başladılar. Bu dönemde Türkçenin Arap harfleriyle yazılması dilin fonetik yapısında bazı tutarsızlıklara yol açsa da Türk edebiyatı Arap kültürünün etkisi altında gelişmeye başlamıştır. Karahanlılar Dönemi, Türk tarihinin önemli aşamalarından birini oluşturur ve Türklerin İslamiyet'i kabul etmesi açısından büyük bir dönüm noktasıdır. Karahanlılar, 10. yüzyılda Orta Asya'da hüküm süren ilk Türk devletlerinden biridir ve bu dönemde Arap harflerinin etkisi giderek artmıştır. Karahanlılar dönemi, hem Türk kültürünün hem de İslam medeniyetinin önemli bir birleşim noktasıdır. Karahanlılar, 840 yılında Türklerin İslam'ı kabul etmeleriyle tarihe geçmiştir. İlk olarak Maveraünnehir bölgesinde, özellikle Balasagun ve Kaşgar şehirlerinde kurulan bu devlet, İslamiyet'in Orta Asya'daki yayılmasında önemli bir rol oynamıştır. Karahanlılar dönemi, Türklerin İslam dünyası ile daha yakın etkileşimde bulunmaya başladığı bir dönemdir. İslamiyet'in kabulüyle birlikte, Arap harfleri ve Arap kültürü, Karahanlılar dönemi ve sonrasındaki Türk devletleri üzerinde büyük bir etki yaratmıştır. Bu dönemde, Türkler Arap alfabesini benimsemiş ve dilde birçok Arapça kelime, kavram ve ifade yerleşmiştir. Karahanlılar, 10. yüzyılda İslamiyet'i resmi din olarak kabul etmiştir. Bu din değişikliği, sadece dini hayatta değil, aynı zamanda kültürel ve dilsel anlamda da büyük bir dönüşüm yaratmıştır. İslamiyet'in kabulüyle birlikte, Arapça dilinin kutsal kitap olan Kur'an-ı Kerim ve diğer dini metinler için asıl dil haline gelmesi, Arap harflerinin Türkler arasında kullanılmasına neden olmuştur. Karahanlılar döneminde Arapça ve Farsça edebi eserler büyük bir etkiye sahipti. Arap harfleriyle yazılmış Türkçe metinler, özellikle dini metinler, tasavvufi eserler, şiirler ve hikayeler gibi pek çok farklı alanda ortaya çıkmıştır. Arap harfleri, sadece dilde değil, aynı zamanda kültürel birleştirici bir rol oynamıştır. Arapçanın ve İslam kültürünün etkisiyle, Türkçe'de birçok Arapça kelime ve kavram yerleşmiştir. Bu, Türk dilinin daha zenginleşmesine ve yazılı kültürünün gelişmesine olanak sağlamıştır.

Karahanlılar dönemi, Türklerin Arap harflerini kabul etmesi açısından bir başlangıç olmuştur. Ancak bu etki, Selçuklu ve Osmanlı dönemlerinde daha da belirginleşmiştir. Arap alfabesi, Osmanlı İmparatorluğu'nda 19. yüzyıla kadar resmi yazı sistemi olarak kullanılmıştır. Cumhuriyet dönemine kadar Türk dilinin yazılmasında Arap harfleri hâkim olmuştur. Karahanlılar dönemi, Türk dilinin Arap harfleriyle yazılmaya başlandığı ve Arap kültürünün etkisinin arttığı bir dönemi işaret eder. Bu dönemdeki Arap harflerinin etkisi, sadece yazı diliyle sınırlı kalmamış, aynı zamanda Türk edebiyatı ve kültürü üzerinde de derin izler bırakmıştır. Bu etki, Türk dilinin Arap ve Fars kültürleriyle birleştiği ve geliştiği bir süreçtir [3].

Osmanlı İmparatorluğu, Türk dilinin Arapça ve Farsça ile yoğun temas halinde olduğu bir dönemdi. Osmanlı Türkçesi bu iki dilden çok sayıda kelime almış ve dil yapısı da buna göre şekillenmiştir. Bu dönemde edebi eserlerde ve devlet

yazışmalarında Osmanlı Türkçesi adı verilen dil yaygın olarak kullanılıyordu. Türk tarihinin ve dilinin önemli bir aşamasını oluşturur. Osmanlı İmparatorluğu, 1299 yılında kurularak 1922'de sona erdi. Bu uzun süreli imparatorluk, sadece askeri ve siyasi anlamda değil, kültürel, edebi ve dilsel olarak da çok önemli bir miras bırakmıştır. Osmanlı Türkçesi, imparatorluğun resmi ve edebi dilidir ve Osmanlı toplumunun dil yapısına dair pek çok bilgi sunar [4].

Osmanlı Dönemi (1299-1922) Anadolu'dan başlayarak genişleyip, Balkanlar, Orta Doğu ve Kuzey Afrika'ya kadar uzanmış büyük bir imparatorluktur. Bu süreçte, Osmanlı toplumu hem Türk kültüründen hem de İslam kültüründen derin etkiler almış, aynı zamanda Arap, Fars ve Balkan kültürleriyle de etkileşimde bulunmuştur. Bu etkileşimler, Osmanlı Türkçesi'nin yapısına ve içeriğine de büyük ölçüde yansımıştır.

Osmanlı Türkçesi, Osmanlı İmparatorluğu'nun resmi dilidir ve dilsel açıdan, Türkçe'nin Arapça ve Farsça'dan büyük ölçüde etkilendiği bir yapıya sahiptir. Bu dil, özellikle yazılı metinlerde, edebiyat, felsefe, hukuk ve devlet yönetimi gibi alanlarda kullanılmıştır. Osmanlı Türkçesi'nin en belirgin özelliklerinden biri, Arapça ve Farsça kelimelerinin dildeki yoğunluğudur. Osmanlı saray çevresinde ve edebi eserlerde, Arapça ve Farsça kelimeler, cümle yapıları ve deyimler çok yaygın bir şekilde kullanılmıştır. Bu dillerin etkisi, özellikle divan edebiyatı ve hukuk metinlerinde fazlasıyla görülür.

Aşağıda Osmanlı İmparatorluğu döneminde kullanılan Arapça ve Farsça dillerinin imparatorluk tarihindeki yerini ve bu dillerin hangi yönlerde kullanıldığını öğreniyoruz.

Arapçadan alınan kelimeler, özellikle dinî, bilimsel ve felsefi terminolojilerde yoğunlaşmıştır. Örneğin, hukuk, ilim, dini kavramlar gibi alanlarda Arapça kökenli kelimeler kullanılmıştır.

Farsçadan alınan kelimeler ise genellikle sanat, saray yaşamı, aşk ve edebiyat alanlarında yoğunlaşmıştır. Özellikle şiir ve nazım biçimlerinde Farsça etkisi görülür.

Osmanlı Türkçesi, Arap harfleriyle yazılan Türkçedir. Ancak Arap alfabesinin Türk dilinin fonetik yapısına uymaması dilin okunmasını zorlaştırıyordu. Buna rağmen Osmanlı Türkçesi uzun süre edebi ve resmi dil olarak kullanılmıştır. Osmanlı Türkçesi'nde olduğu gibi, Arap alfabesi, özellikle İslam dünyasında çok yaygın olarak kullanılmıştır. Arap alfabesiyle yazma, Türkçe gibi farklı dillerde bazen doğrudan uyarlanmış ve bazen de o dilin fonetik yapısına göre bazı eklemeler yapılmıştır.

Yazım Yönü: Arap alfabesi, sağdan sola doğru yazılır.

Harflere Özgü Bağlantılar: Arap harfleri, genellikle yazı içerisinde birbiriyle bağlantılı olarak kullanılır. Arap harflerinin çoğu, kelimenin başında, ortasında ve sonunda farklı şekillerde yazılabilir.

Harflerin Fonetik Değeri: Arap alfabesi, özellikle sesli harfleri ve bazı gizli ünlüler (özellikle Türkçe'deki ünlüler) yazarken bazı zorluklar çıkarabilir. Arap alfabesinde her harf, belirli bir sesi ifade eder. Bununla birlikte, kısa ünlüler genellikle yazılmaz; ancak sesli harflerin yerini belirlemek için işaretler (harekeler) kullanılabilir [5].

Türkçeyi Arap alfabesiyle yazmak için, Arap harflerinin Türkçe fonetik yapısına uygun şekilde uyarlanması gerekir. Osmanlı Türkçesi bu yazı sistemini kullanarak yazılmıştır. Ancak, Arap alfabesinde Türkçedeki bazı sesleri tam olarak karşılayacak harfler yoktur. Bu nedenle, Türkçe'deki bazı sesler için özel harfler eklenmiştir.

Örneğin:

C harfi için ج (Cim) harfi kullanılır.

Ç harfi için ise چ (Che) harfi kullanılır.

Ğ için غ (Ghayn) veya ء (hamza) harfleri kullanılır.

İ harfi için, إ veya ي harfleri kullanılır.

Arap alfabesinde harfler, bağlantılı yazıldığı için yazıldığında bir harf, hem önceki hem de sonraki harflerle birleşebilir. Ancak bu bağlama, dildeki Türkçe sesleri tam olarak ifade etmek için harflerin birkaç farklı şekle girmesine yol açar.

Türkçe bir cümleyi Arap harfleriyle yazalım:

Türkçe: “Merhaba, nasılsınız?”

Arap Alfabesiyle: ناصلصنظ؟ مرحبا،

Yukarıdaki örnekte olduğu gibi, Arap alfabesiyle yazarken, Türkçedeki sesler belirli Arap harfleriyle karşılanmaya çalışılır. Bununla birlikte, Arap alfabesinde Türkçedeki bazı sesleri yansıtmak zordur, bu yüzden bazı harfler Türkçedeki sesleri en iyi şekilde ifade etmek için uyarlanmıştır.

*Osmanlı Türkçesinde Arap Harfleri Kullanımı***.** Osmanlı Türkçesi, Arap alfabesiyle yazılmıştır ve Arap harfleri Türkçe'nin fonetik yapısına göre belirli değişikliklerle kullanılmıştır. Ancak Arap harfleri, her zaman Türkçe'nin sesli harflerini doğru şekilde ifade etmemektedir. Bu nedenle, Osmanlı Türkçesinde harekeler (sesli harf işaretleri) kullanılarak, kelimelerin doğru okunması sağlanmıştır.

Osmanlı Türkçesi: "وَسَلَّمْ عَلَيْهِ اللَّهُ صَلَّى مُحَمَّدٌ"

Türkçe: “Muhammed sallallahu aleyhi ve sellem”

Bu örnekte, Arap harfleri kullanılarak yazılmış bir cümle görülmektedir. Osmanlı Türkçesi'nde, Arapça kelimeler sıklıkla kullanıldığından, Arap alfabesi kullanımı yaygındı.

Cumhuriyetin ilanıyla birlikte Türk dili ve alfabesi büyük bir değişim sürecine girdi. 1928 Harf Devrimi'yle Türk dili Arap harflerinden Latin harflerine geçti. Bu, Türkçenin sadeleştirilmesi ve halk arasında daha kolay anlaşılmasını amaçlayan bir devrimdir. Harf devrimi aynı zamanda Türkçeyi halka yakınlaştırmıştır.

Türk Harf Devrimi, 1 Kasım 1928'de kabul edilen Yeni Türk Alfabesi ile Türkçenin yazım biçiminde köklü bir değişikliğe gidilmesi sürecidir. Mustafa Kemal Atatürk'ün önderliğinde gerçekleştirilen bu devrim, Türk Dil Devrimi'nin en önemli adımlarından biri olarak kabul edilir. Harf Devrimi, Türk toplumunun eğitim, kültür ve iletişim alanlarında önemli bir dönüşüm yaşamasına olanak sağlamıştır. Bu devrim, aynı zamanda Cumhuriyet'in ilanından sonra Türk milletinin modernleşme sürecinin bir parçası olarak görülür.

Harf Devrimi’nin yapılmasının arkasında yatan başlıca nedenlerden bazıları şunlardır:

Okur Yazarlık Oranının Düşüklüğü: Osmanlı döneminde, özellikle Arap harfleriyle yazılmış Osmanlı Türkçesi çok karmaşık ve halkın anlayabileceği bir dil değildi. Arap harfleri, dilin fonetik yapısına uymadığı için okuma yazma oranı

oldukça düşüktü. Cumhuriyet'in ilk yıllarında yapılan araştırmalara göre, Türkiye'deki okur-yazar oranı oldukça düşük bir seviyedeydi.

Arap Alfabesinin Uygunsuzluğu: Osmanlı Türkçesi, Arap alfabesi ile yazılmıştı, ancak bu alfabe Türkçe'nin ses yapısına uygun değildi. Arap alfabesindeki harfler, Türkçe'nin bazı seslerini karşılamıyordu ve bunun sonucunda, birçok Türkçe ses harflerle doğru şekilde ifade edilemiyordu.

Mustafa Kemal Atatürk, Türkçenin Arapça ve Farsça etkilerinden temizlenip, Türk halkı için anlaşılabilir ve sade bir dil haline getirilmesini istemiştir. Harf Devrimi, bu hedefe ulaşmak için bir araç olarak kullanılmıştır.

Eğitimde Reform: Atatürk, eğitimin yaygınlaştırılması gerektiğine inanıyordu. Harf Devrimi ile birlikte, Türkçeyi öğrenmek ve öğretmek daha kolay hale gelecekti. Yeni alfabe, daha pratik ve halkın daha kolay öğrenebileceği bir sistem sundu.

Atatürk, Türk milletinin modernleşmesi ve çağdaş bir toplum haline gelmesi amacıyla bu devrimi gerçekleştirmiştir. İşte bu sürecin temel aşamaları:

Türk Dil Kurumu'nun Kurulması (1932): Harf Devrimi'nin hemen ardından, 1932 yılında Türk Dil Kurumu kurulmuştur. Bu kurum, Türkçenin dilbilgisel ve fonetik yapısının sadeleştirilmesi ve Türkçenin yabancı dillerden etkilenmesinin önlenmesi amacıyla çalışmalar yapmıştır.

Yeni Türk Alfabesinin Kabulü: 1928'de yapılan bir diğer önemli adım, Latin alfabesinin kabul edilmesiydi. 1 Kasım 1928'de Türk halkı için kolayca öğrenilebilir ve kullanılabilir olan Yeni Türk Alfabesi kabul edilmiştir. Bu alfabe, Arap harflerinin yerine Latin harfleri temel alınarak oluşturulmuştur. Türkçe'nin fonetik yapısına uygun olarak, sesli harfler belirgin hale getirilmiş ve her harf yalnızca bir sesi ifade edecek şekilde düzenlenmiştir.

Harf Devrimi'nden sonra, yeni alfabeyi halkın öğrenmesi için geniş çaplı eğitim faaliyetleri düzenlenmiştir. Harf Devrimi Eğitimi ve okuma yazma seferberlikleri başlatılmıştır. Okuma yazma bilmeyenler için gecekondu eğitimleri ve köy köy yapılan okuma yazma seferberlikleri büyük bir hızla yayılmıştır.

Yeni Alfabeyle İlk Resmi Yayın: 1928'de yapılan devrimle birlikte, yeni alfabe ile yazılmış ilk metinler ve belgeler hızla yayımlanmaya başlanmıştır. Atatürk, ilk başta kendi nutuklarını ve konuşmalarını bu yeni alfabe ile yazdırmış ve halkın kolayca okuyabilmesi için teşvik etmiştir.

Yeni Türk Alfabesi. Yeni Türk alfabesi, Arap harflerinin yerine Latin harflerine dayalı bir sistem kabul edilmiştir. Bu alfabe, şu harfleri içerir: A, B, C, Ç, D, E, F, G, Ğ, H, I, İ, J, K, L, M, N, O, Ö, P, R, S, Ş, T, U, Ü, V, Y, Z.

Yeni alfabe ile Türkçenin fonetik yapısına tam uygun, her harf bir sesi ifade eden bir sistem geliştirilmiştir. Arap harfleri ve harekeler (sesli harf işaretleri) kullanılmaz hale getirilmiştir.

Okuryazarlık Oranının Artması: Harf Devrimi'nin ardından okuma yazma oranı hızla artmıştır. Yeni alfabenin öğrenilmesi ve uygulanması daha kolay olduğu için, Türk halkı okuryazar olma yolunda büyük bir adım atmıştır.

Osmanlı döneminde Arapça ve Farsça kökenli kelimeler Türkçede yoğun olarak kullanılıyordu. Harf Devrimi ile birlikte bu kelimelerin çoğu yerini Türkçeye özgü kelimelere bırakmıştır. Dil sadeleşmiş, halkın anlayabileceği bir dil ortaya çıkmıştır.

Harf Devrimi, Türkiye'nin Batılılaşma sürecinin önemli bir adımıydı. Bu devrim, sadece yazı dili değil, kültürel ve toplumsal yapıyı da etkilemiş ve çağdaş bir toplum olma yolunda önemli bir adım atılmıştır.

Yeni alfabe, eğitim sisteminin temelden değişmesini sağladı. Türkçe dil bilgisi ve okuma yazma derslerinde reformlar yapıldı. Ayrıca, yeni alfabenin kabulü ile birlikte yayıncılık hız kazandı, yeni kitaplar, dergiler ve gazeteler yayımlandı.

Harf devrimiyle Türkçe Latin alfabesiyle yazılmaya başlandı ve Arap harflerinin dil üzerindeki etkisi sona erdi. Ayrıca dilde yabancı sözcüklere Türkçe alternatifler bulunması konusunda bir dil devrimi başladı. Bu devrimin amacı dili sadeleştirmek ve halkın diline daha uygun hale getirmekti. Bu süreçte Türk Dil Kurumu'nun kurulması ve dil alanında yapılan devrimler önemli rol oynamıştır.

Çağdaş Türk dili 20. yüzyılın sonlarından itibaren Türk dünyasında çeşitli coğrafi ve kültürel değişimler göstermiş olmakla birlikte özellikle Türkiye Türkçesi büyük önem taşımaktadır. Türkçe günümüzde Latin harfleriyle yazılmaktadır ve Türk Dil Kurumu'nun denetimi altındadır. Dilin geçirdiği evrim süreci halk diliyle uyum içinde gelişmiş olup, günümüzde Türkçe hem resmî yazışmalarda hem de edebî metinlerde yaygın olarak kullanılmaktadır.

"Türk Dili ve Yazısının Tarihî Dönemleri" konusunda yapılan incelemelerde, Türk dilinin ve yazısının geçirdiği evreler, Türk halkının tarihsel gelişimini ve kültürel birikimini anlamada büyük önem taşımaktadır. Türk dili, tarih boyunca farklı coğrafyalarda, kültürlerde ve yazı sistemlerinde kendini ifade etmiştir. Bu süreçler, Türklerin göçebe yaşam tarzı, devlet kurma gelenekleri, dini etkiler ve toplumsal değişimlerle şekillenmiştir. Türk dili, Orhun Yazıtları'ndan Arap alfabesinin kabulüne, ardından Latin alfabesinin benimsenmesine kadar, çok sayıda alfabe ve dilsel yapı değişikliği yaşamıştır. Bu tarihî dönemler, dilin yalnızca bir iletişim aracı olarak değil, aynı zamanda Türk milletinin kimliği, kültürel mirası ve toplumsal yapısının bir yansıması olarak önem taşır.

Eski Türk Yazıtları (Orhun alfabesi) ile başlayan yazılı Türk dili, ilk kez kendi kimliğini belirgin bir şekilde ifade etmeye başlamıştır.

Uygur alfabesi ve Arap alfabesi ile yapılan geçişler, Türk dilinin İslamlaşma ve felsefi, edebi düşüncelerle zenginleşme sürecine işaret eder.

Osmanlı Dönemi, Osmanlı Türkçesi ve Arap-Fars etkisi ile şekillenen dil yapıları, devletin resmi dili olmanın yanı sıra, edebiyat ve kültür alanında da büyük bir zenginlik sunmuştur.

Nihayetinde Harf Devrimi ve Türk Dil Devrimi, Türkçeyi halkın kolayca öğrenebileceği bir hale getirerek, dilin sadeleşmesini sağlamış ve eğitim, iletişim ve kültürel gelişimi hızlandırmıştır.

Türk dilinin tarihî süreci, dilin yazı sistemindeki değişiklikler, dilsel dönüşümler ve toplumsal gelişimle paralel ilerleyen kültürel dönüşüm ile şekillenmiştir. Türk dili, tarihsel süreç içinde hem yeniliklere uyum sağlamış hem de geçmişin birikimlerini modern Türk toplumuna taşımıştır. Bu nedenle, Türk dili ve yazısının tarihî evreleri, yalnızca dil bilimi açısından değil, sosyal, kültürel ve politikal açıdan da büyük bir anlam taşır.

KAYNAKÇA:

1. Göksel, A. (2005). Türk Dilinin Tarihî Gelişimi. Ankara: Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Yayınları.
2. Erdal, M. (2004). Eski Türkçe: Dilbilgisi ve Metinler. İstanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları.
3. Korkmaz, A. (2002). Türk Dilinin Yazı Tarihi. İstanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları.
4. Türk Dil Kurumu. (2019). Türkçenin Sözlü ve Yazılı Tarihi. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
5. https://tdk.gov.tr (Türk Dil Kurumu)
6. https://tez.yok.gov.tr/UlusalTezMerkezi/giris.jsp
7. https://tr.wikipedia.org/wiki/Anasayfa

MUNDARIJA

Аҳмадали Асқаров. Бурғулуқ ва қовунчи маданиятларига хос асосий хусусиятлар 3

Dr. Nozim Mamataxunov. Iyodiy olimlar ilmiy merosining tasnifi 12

Шамсиддин Камолиддин, К. Ҳ. Орипов. Буюк Британия глобусларида Ўзбекистон (XVIII – XIX асрлар) 20

Sherali Qo‘ldashev. O‘zbekistonda xitoy ierogliflari va ularni o‘zaro aloqalarda aks etishi 24

Azim Malikov. Migration processes and construction of identities of the population of samarkand in the 6th - beginning of the 13th centuries 28

O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

Ҳакимали Азимов. Тарихий манбаларда акс этган буюк маданий ва маънавий мерос 35

Azizbek Muminov, Ozoda Xudoyberganova. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari 41

Muxammadjon Abduxamidov. Aqidaviy masalalarda hadislardan foydalanish usullari 45

Зарина Нуридинова. Методы оцифровки предметов культурного наследия в контексте развития музеев узбекистана: проект 3d digital silk road в самарканде 50

Shahodat Qodirova. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar tarixining o‘rganilishi 54

Nodira Shomurodova. O‘zbekiston hududida mustaqil respublika konstitutsiyasini yaratilishining tarixiy tahlili 62

Gulnora Mirtursunova. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning zamonaviy usullari 66

O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI MASALALARI

Baxromjon Xaynazarov. Turkiston o‘lkasiga zamonaviy meditsinaning tarqalishida tub joyli bo‘lmagan aholining ishtiroki (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari) 70

Bobojonov Islombek Usmonaliyevich. Sayfiddin Qutuzning mamluklar sultonligida hokimiyat tepasiga kelishi 76

Ozoda Xudoyberganova, Sharofat Mirzayeva. O‘zbek davlatchiligi tarixi masalalariga oid ayrim ma’lumotlar 81

Ismoil To‘ychiyev. Xitoy imperatori U-Dining qadimgi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatish tarixi 84

Rustam Kabulov, A.Rabbimov. Shayboniylar va boburiylar o’rtasidagi munosabatlar 89

Sarboz Saparov. Kidariylarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va o‘rnashishi 91

Jahongir Kamolov, Sarvinoz Raxmatullayeva. Eftaliylar davlati siyosiy faoliyatida elchilik aloqalarining o‘rni 95

Jalol Hasanov. Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishi va uning toshkent vohasiga yoyilishi 99

Бобуржон Толибов. Маҳаллий ҳукмдорлар фаолиятида дипломатик муносабатларнинг ўрни 105

Jahongir Qayumov. Dabusiya qal’asi tarixiy manbalarda 111

Marxabo Sapayeva. Saljuqiylarning o’zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni 117

Ulug‘bek Abdullayev, Shaxzoda Jalolova. Saljuqiylar yaqin sharqning siyosiy va diniy maqomini o‘zgartirgan imperiya 122

Muhammadqodir Murodov. Amir Temurning loy jangi bayoni va natijalari 127

Murodjon Koraboyev. Amir Temurning yetti yillik urushiga sabab bo‘lgan malika 130

Gulnoza Jalilova. Amir Temurning vafotidan so‘ng xalil sultonni taxtni egallashi 133

Temurmalik Raxmatov. Amir Temur hokimiyatga kelishigacha bo‘lgan davrda siyosiy faoliyatning o‘rganilishi 138
Sherzod Jurayev, Durdona Jahongirqizi. Amir Temurning xorazmga yurishi haqida ayrim mulohazalar 141
Shohsanam Safarova. Temuriylar davrida ta’lim 145
Jasur Rustamov. Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos jihatlari 147
Mirzohid Rahimjonov, Sabina Ishonqulova. O‘zbek davlatchligida alisher navoiy siymosiga bir nazar 152
Akmal Majidov. Xoja ahror valiy yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy holati 155
Bobur Tojiyev. Ost-ındıya kompanıyası tomonıdan uılyam murkfort mıssıyasının buxoro amırlıgıga jo‘natılıshı 158
Yunusjon Asatov. Buxoroning darvesh amiri 163
Zuhriddin Sobirov. Jadidlarning yangi usul maktablari va ularning jamiyatdagi o‘rni 167
Nurilla Choriyev. Cho‘lpon – jadidchilik harakati namoyandasi 171
Oybek Klichev. Rossiya fabrika qog‘ozlari va ularning o‘rta osiyoga kirib kelishi 174
Furqat Sodiqov, Jaloliddin Jo‘rayev. Turkistonda 1921-1922-yillarda ko‘p tarmoqli iqtisodiyot sharoitida yer-suv islohotining amalga oshirilishi 178
Yashnar Ganıxodjayev. O‘zbekiston ssrda saylov tizimining joriy etilishi va uning huquqiy asoslari 182
Muxlisa Turopova. O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi va faoliyati (1917–1941 yillar) 186
Dilfuza Abdullayeva. Buxoro shahridagi savdo rastalari ta’miroti tarixidan 189
Yoqubjon Tayronov, D.Tuxmakov. O’zbekistonda XX asrning 30-yillarida ilm-fan rivojlanishining ayrim xususiyatlari 193
Д. Комолов. Рассмотрение трудовых споров судами Узбекистане в годы второй мировой войны 197
Feruz Amirqulov. XX asrning birinchi yarmida ikkinchi Sharqiy Turkiston respublikasi vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati 205
Marufjon Abdusodiqov. XX asr 70-80-yillarida Jizzax viloyatida sanoat tarmoqlarining asosiy yo‘nalishlari 210
Manzalatxon Turg’unpulatova. Qayta qurish yillarida O’zbekiston aholisining iste’mol savatchasi 214
E’tiborxon O’lmasova. O‘zbekistonning islom hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlari tarixi 219
Islomjon Rustamboyev. O‘zbekiston –saudiya arabistoni: islom qardoshligi va diplomatik hamkorlik tarixidan 224
Manzalatxon Turg’unpulatova. “Otamdan qolgan dalalar” ramziy romani orqali O’zbekiston qishloq aholisini 1985-1991-yillarda kundalik hayot tarixining qiyosiy tahlili 227
Elyorbek Yo‘ldashev. O‘zbekistonning jahon savdo tashkiloti bilan hamkorligini rivojlanishi 233
Dilmurod Eshnazarov. 1991–2000 yillarda O‘zbekiston va Janubiy Koreya aloqalari 237
Manzalatxon Turg’unpulatova. 1985-1991-yillarda O’zbekiston aholisining sanoat mahsulotlari bilan ta’minlanishi tahlili 240
Sherzod Salimov. Mehnat migratsiyasi jarayonlarida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari 246
Shoira Xamidova. O‘zbekiston parasportchilarining “matonat maktablari” tashkil etilishi tarixi 253
Iroda Hikmatova. O‘zbekistonning tashqi siyosiy yo‘nalishlarida g‘arbiy yevropaning o‘rni 258
Зохид Рахматуллаев. История экономического и культурно-гуманитарного 262

сотрудничества узбекистана с Венгрией
Nuriddin Qurbonov. Aqshning Markaziy Osiyoga tashqi siyosati 265
Nuriddin Qurbonov. O‘zbekiston-AQSh hamkorligi: munosabatlarning yangi sahifasi 269
Nuriddin Qurbonov. Amerika qo’shma shtatlarning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari 273
Xurshidbek Ro‘ziyev. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda IIV sohasida amalga oshirilgan islohotlar 277

O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASIDA SO‘NGGI TADQIQOTLAR

Nurbek Sattorov. Qovunchi madaniyati sohiblarining Qashqadaryo vohasidagi etnogenetik jarayonlarga ta’siri (arxeologik tahlil) 284
Дилафрўз Каримова. Ўзбекистон тарихи давлат музейида аҳмадали асқаров топилмалари асосида шаклланган сополлитепа экспозицияси 289
B. Isabekov. Тошкент воҳасидаги қовунчи маданиятига оид ярим ертўлалар (Суюрлитепа ёдгорлиги мисолида) 293
Nurmuxammad G‘ulomov. Farg‘ona vodiysi antik davri tarixshunosligi (tarixiy va arxeologik manbalar asosida) 297
Иродахон Гафурова. Туркистондаги ислом обидалари тарихига бир назар 302
Хуршида Юсупова. Археологик ёдгорликларни ўрганиш ва уларни сақлаш муаммолари 305
U.A.Sattorov. Mamlakatimizda madaniy va arxeologik merosni o‘rganishda huquqiy tizimning mustahkamlanishi 310
Mirzohid Rahimjonov. Chust tumani madaniy yodgorliklari tarixiga bir nazar 314
Otabek Solijonov. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyini tashkil etilishi va faoliyati 319

O‘ZBEKISTON TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI VA TAVSIFI

Dildora Nishanova. Markaziy Osiyoda yozilgan “usul al-fiqh” ilmiga oid manbalar tarrixshunosligi 326
Муҳаммаджон Мўминов. Турк – корейс халқлари муносабатлари ва унинг тадрижий ривожланиш манбашунослиги 330
Sherzod Jurayev. Sulton Husayn davrida naqshbandiylik 334
Nursulton Abdumannonov. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy va uning “Buxoro tarixi” asari haqida 337
Dilshodbek Davronov. Tarixchi olim Abdulahad Muhammadjonovning temurshunoslik rivojiga qo’shgan xissasi 342
Sabina Rajabova. Renessans davri tarixini o‘rganishda manbalarning o‘rni 347
Sanobar Nuriddinova. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi paxtachilik tarixining manbashunosligi 351
Sirojiddin Nabijonov. XIX asrning 60-70-yillarida qo‘qon xonligida yuz bergan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar tahlili 354
Lobar Shukurova. Buxoro me’moriy bezak san’ati tarixining ilmiy tahliliy asoslari (Somoniylar maqbarasi misolida) 358
G‘ulomjon Atajanov. Mamluklar davlati sultoni Sayfiddin Qutuz tarixining manbashunoslik tahlili 363
Bahridil Ergasheva. Abdurauf Fitratning “Oila” asarida farzand tarbiyasiga oid qarashlar va unda ayollar masalasi 367
Xurshid Ahmadov. XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonda imloviy o`zgarishlar tarixini o‘rganishda manbalar tahlili va tavsifi 370
Farhod Kadirov. Ziyorat turizmining rivojlanish tarixi (2017-2025-yillar) 374
Baxtiyor Qirg‘izov. Farg‘ona viloyatidagi ali ibn abu tolib va uning yaqinlari bilan bog‘liq ziyoratgohlar tarixidan 377
Mashrab G‘oziyev. Ziyorat turizmi va uning ahamiyati 384

Dilnoza To‘ychiyeva. Mustaqillik yillarida Zomin tumanida tashkil etilgan jamg‘arma, fond va markazlar faoliyati tarixi 387
Alimbekova Yasmina Bobir qizi. O`zbekiston tarixini o`rganishda qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asarini o`rni haqida ayrim mulohazalar 391

O‘ZBEKISTON ETNOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI

Улуғбек Абдуллаев. Фарғона водийси аҳолисининг этник таркибини шаклланиш тарихидан 398
Ismoiljon Xo‘jaxonov. Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish arafasidagi etnik holat 401
Komron Maxmarajapov. III-VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida sodir bo’lgan etnik jarayonlarga o‘z ta’sirini ko’rsatgan yirik etnik birliklar 405
Nasriddin Turonov. Amir Temur va temuriylar davrida etnik jarayonlar 408
Temirbek Qo‘chqarov. Amir Temur va temuriylar davri manbalarida “jaloyir” lar va ularning etnotoponim sifatida saqlanishi 412
Asadbek Inomaliyev. Amir Temur davrida shahar antropologiyasi 417
Dildora Mirakbarova. Turmush qurish yoshi ko‘rsatkichlarining dunyoviy va diniy tahlili 420
Sevaraxon Karimova. Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa ziyoratgohlari tarixi 425
Kabulov Rustam, Sevinch Abdumalikova. Tan sulolasi davrida O‘Rta Osiyo bilan munosabatlar 430

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Мухайё Тулаганова. Проблемы преподавания истории Узбекистана в вузах 435
Azamat Sharipov. Turkiya tarixini o‘qitishda yangicha nazar (usmonli turklar tarixini o‘qitish misolida) 439
Shahlo Karimova. XX asr boshlarida o‘zbek tilining shinjon she’riyatida qo‘llanilishiga doir 442
Gulira’no Allamuratova. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik va uning huquqiy asoslari 447
Mamatova Nigora Xusniddin qizi. Mustaqillik yillarida ta’lim sohasidagi islohotlar 450

XORIJIY MAMLAKATLARDA O‘ZBEKISTON TARIXNINING O‘RGANILISHI

F.Ismatullayev, S. Rajabova, M. Esanov, A. Fayzullaev. Fransiyada ko‘hna sharq tarixini o‘rganilishiga oid ayrim mulohazalar 463
J.I. Abdullayev. Xorijiy tadqiqotchilar nigohida o‘zbekistonning chegaraviy muammolar tarixshunosligi 467
Davron Mutalov. Türk dili ve yazisinin tarihî dönemleri 471

Ilmiy-ommabop elektron nashr

“INNOVATSION TADQIQOTLARDA O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

© Oriental universiteti, 2025

ORIENTAL UNIVERSITETI

TOSHKENT, 30-APREL 2025-YIL